

N.SHERMUXAMEDOVA



# FALSAFA



Toshkent 2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**N.SHERMUXAMEDOVA**

**FALSAFA**

**Idris Abdurauf Nashr. Toshkent -2021**

UDK 378.091.21:7

BBK 74.58

К 76

Mas'ul muharrir:

M.Bilolov, falsafa fanlari doktori, professor (DDU)

Z.Davronov, falsafa fanlari doktori, professor (TMI).

Taqrizchilar:

J.Yaxshilikov, falsafa fanlari doktori, professor (SamDU).

T.Gabitov, falsafa fanlari doktori, professor (KMU).

Q.Shodmonov, falsafa fanlari doktori professor (BuxMI).

Darslik oliy ta'lim tizimi bakalavr ta'lim yo'nalishlari o'quv adabiyotlari turkumiga kiradi, davlat standartlari va namunaviy o'quv dasturi mazmuniga mos. Unda falsafiy tafakkur evolyutsiyasining tahlili barobarida ontologiya, gnoseologiya, rivojlanish, falsafiy antropologiya, sun'iy intellekt, virtual borliq, energetizm va globallashuv masalalarining nazariy asoslari yangilangan tafakkur nuqtayi nazaridan keng qamrovli yoritib berilgan. Zero, bugungi dunyoda olam va odam, bilim va faoliyat, madaniyat va ma'naviyat masalalarida nazariya va amaliyotning birligiga alohida e'tibor berilishi lozim.

Darslik barcha oliy o'quv yurtlarida falsafa bilan shug'ullanuvchi bakalavr, magistr, doktorantlar, tadqiqotchilar, o'qituvchilar va umuman falsafa muammolari bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2019-yil 4-oktyabr 892-sonli buyrug'i asosida nashr etishga tavsiya berilgan.

ISBN 978-9944-343-64-4

N. Shermuxamedova. © Idris Abdurauf Nashr

## O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlanadi

### KIRISH

Hozirgi kunda fan va ta'lim rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Fanning barcha sohalaridagi kabi falsafada tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Zero, falsafa o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, nafaqat anglash, ularga munosabat bildirishni shakllantiradi. Modomiki shunday ekan, falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni falsafiy dunyoqarash, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafiy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyat xalqining ijtimoiy ongini o'zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan.

Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir. Shundagina inson buyuk allomalar orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantirish va takomillashtirishga munosib hissa qo'sha oladi. Falsafani o'rganishga kirishayotgan har bir odam u haqda nimanidir u yoki bu darajada biladi yoki hech bo'lmasa u haqda nimadir eshitgan bo'ladi, chunki odamlar hatto kundalik hayotda ham bu keng tarqalgan tushuncha bilan ko'p to'qnash keladi. Falsafaga doir darsliklar va boshqa adabiyotlardan har bir xalqning madaniy merosida chuqur iz qoldirgan buyuk faylasuflarning g'oyalarini o'rganish imkoni bo'ladi. Biroq, falsafa nimaligi haqida maxsus bilimlarsiz aniq tasavvur hosil qilish oson emas. Hatto falsafa sohasida professional olimlar orasida ham jamiyatga oid fikrlarda yakdillik mavjud emas. Kimdir falsafada maqsadni, kimdir vositani, inson o'z-o'zini va o'zini qurshagan dunyoni oqilona, irratsional yoki intuitiv anglab yetish usulini ko'radi. Bunda har kim u har bir inson uchun olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan savollarga qanday javob berish uchun mulohaza qiladi. Turli davrlarda yashagan odamlarning ushbu masalalar yuzasidan bir fikrga kela olmagan va kelishi mumkin ham emasligi nima uchun falsafa o'z mavjudligining ikki yarim ming yili mobaynida ko'pgina olamshumul muammolarning uzil-kesil va shak-shubhasiz yechimlarini topmagan, boqiy falsafiy muammolar - inson nima va uning mohiyati nimada?, Xudo bormi?, jon nima?, materiya, ong



nima va ularning o'zaro nisbati qanday?, haqiqatni qanday tushunish mumkin va uning mezonlari qanday?, erkinlik, tenglik, adolat, nafrat, muhabbat nimani anglatadi?, kabi savollar insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida takrorlanib kelingan.

Biroq falsafa tushunchasining umumiy e'tirof etilgan ta'rifi bo'lmasa-da, uning predmeti, mohiyati, maqsad, vazifalarini tushunishga nisbatan yondashuvlar, nuqtayi nazarlarning rang-barangligiga qaramay, u barcha zamonlarda va mamlakatlarda hamma universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlarida o'rganish uchun majburiy sanalgan fundamental fanlardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Falsafa bilimlarning yagona tizimini tuzishga harakat qilmaydi va pirovard natijada, fan kabi aniq natijalar olishga umuman qaratilmagan. Chunki falsafadan saboq berishda ishontirish mahorati emas, to'g'ri fikrlash mahorati o'rgatiladi. Har qanday vaziyatda chuqur mulohaza yuritish qobiliyati, masalaning mohiyatiga baho berish, o'z o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini anglash, vaqtni qadrlash falsafiy fikrlash orqali egallanadi. Falsafa o'z davri ma'naviy madaniyatining bosh vazifasini bajarish orqali g'oyalarning abadiy tizimini yaratishga yordam beradi, davr saboqlarini aniqlash va tushuntirish yo'li bilan inson tafakkuriga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Xullas, darslik o'z mushtariylarini topishiga umid qilamiz.

## FALSAFA FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI ROLI

### Falsafaning fan va dunyoqarashga doir mohiyati

Donolikka muhabbat ma'nosini anglatuvchi falsafa (yunoncha *phileo* – sevaman va *sophia* – donolik) tushunchasini miloddan avvalgi VI asrda qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan avlodga o'tuvchi bilimni tanqidiy fikrlash yo'li orqali olishi mumkin bo'lgan bilimdan farqlash ma'nosida ishlatgan. Pifagor fikricha haqiqiy donishmandlik ajdodlardan meros qolgan, asrdan asrga o'tib kelayotgan afsonalar, din va rivoyatlarda mujassamlashgan. Donishmandlar deb, haqiqiy bilimlarga ega bo'lgan bashoratgo'ylar, koinlar va oqsoqollar e'tirof etilgan, ularning so'zlari birdan-bir to'g'ri deb qabul qilingan. Faylasuf esa, o'z aqliga tayanib, ijodiy yo'l bilan, shuningdek boshqa faylasuflarning bilim va tajribalaridan foydalangan holda maqsadga intilishi lozim bo'lgan.

Boetsiy poetik intuitsiyasida falsafa o'ng qo'lida kitob, chap qo'lida esa saltanat hassasi – skipetr tutgan Iloha obrazida gavalanadi. Bu timsollarning mavjudligi tasodifiy bir hol emas. Falsafa bilim berish bilan bir qatorda, dunyoni oqilona boshqarishga mo'ljalladi.

Falsafa davrning fikrlardagi in'ikosi, o'z davrining ma'naviy hayoti mahsulidir. Falsafaning mazkur tavsifidan uning olamshumul vazifasi – o'z davrining jarchisi sifatida amal qilish, ma'naviy-tarixiy o'zgarishlar bilan hamqadam va hamnafas bo'lish kelib chiqadi. Bu yerda falsafaning hayot bilan chambarchas aloqasi namoyon bo'ladi. Voqelikni tushunish va tushuntirish falsafaga qo'yiladigan asosiy talabga aylanadi. Davrning haqqoniy manzarasini yaratish kelajakning spekulativ sxemalarini yaratishga barham beradi. borliqning mazmuni va mohiyatini anglab yetishga keng yo'l ochadi.

Qadimgi xitoy falsafasida donishmand-faylasuf «tszi», ya'ni o'g'il, bola deb atalgan. «Tyan sze» - «Osmon o'g'li» degan ism ostida yangi podsho paydo bo'lishi bilan donishmand-faylasufning unga mos keladigan, «tszyun szi» - «podsho o'g'li» g'oyalarini tar-g'ib qiluvchi tipi ham paydo bo'lgan. Qadimgi xitoy falsafasining muhim mezoni – «ideal munosabatlar qonuni»ga odamlar o'rtasida, oilada, jamiyatda, davlatda rioya qilish inson hayotining mazmuni hisoblangan; bunga jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, qoidalar, rasm-rusumlar va shu

kabilarga izzat-ikrom bilan yondashish imkoni-yat yaratgan. Boshqacha aytganda, inson o'z shaxsiy hayotini doim jamiyat ravnaqi, kamoloti bilan o'lchashi lozim, xususan, u keyinchalik oila va davlatni takomillashtirishga harakat qilish uchun o'zini kamol toptirishi darkor. Qadimgi xitoy falsafasining buyuk namoyan-dasi Konfutsiy (miloddan avvalgi 551-479-yillar) shunday deb saboq beradi: «qilmishlarning asoslari va tamoyillarini o'rgansang, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlaring (axloqiy bilimlar) barkamollikning eng so'nggi darajasiga yetadi. Niyatlar sof va xolis bo'lsa, qalb rostgo'y va samimiy bo'ladi. Qalb rostgo'y va samimiy bo'lsa, inson to'g'ri yo'lga kiradi, kamol topadi. Inson to'g'ri yo'lga kirsam va kamol topsam, oilada tartib o'rnatiladi. Oilada tartib hukm sursam, xalqlarni boshqarish osonlashadi. Xalqlarni boshqarish osonlashsa, butun dunyo tinch-totuv yashaydi». Qadimgi xitoy faylasuflaridan yana biri – Lao szi (miloddan avvalgi VI asr boshlarida yashagan): «Boshqalarni biluvchi – oqil, o'zini biluvchi – donishmanddir», deb o'rgatadi. Donishmandlikning tarixan shakllangan gnoseologik, axloqiy va ekzistentsial xususiyatlari hozirgi vaqtda ham saqlanib qolmoqda va e'tibordan soqit etilishi mumkin emas. Donishmandlik fenomeni haqida umumiy tasavvur hosil qilish yo'lidagi izlanishlar quyidagi natijalarga olib keladi. Donishmandlik kundalik hayotdagi mulohazakorlikka qarama-qarshi qo'yiladi. U mutlaqo go'zal va mutlaqo adolatli dunyoning mohiyatini intellektual anglab yetishga intilish, haqiqatni qaror toptirish yo'lida beg'araz xizmat qilish sifatida tushuniladi. Bu nainki to'liq bilim, balki ma'naviy barkamollik, ruhning ichki yaxlitligi hamdir. Bu shunday bir e'tiqodki, unga erishishda insonning butun mohiyati ishtirok etadi.

Donishmandlik belgisi sifatida me'yor hissi amal qiladi. Uni intuitiv aniqlash «hayot haqiqati»ni anglab yetish sifatida namoyon bo'ladi. Yetuklik donishmandlikning zaruriy sharti hisoblanadi. qisqa va lo'nda hikmatlarda o'z ifodasini topuvchi donishmandlik har bir xalq hayotida mavjud bo'ladi, maslahatlar va pand-nasihatlar keng to'plami vositasida uni g'amxo'rlik bilan qo'llab-quvvatlaydi. qadimgi afsonalar, rivoyatlar va hikmatlar ko'rinishida u avloddan-avlodga o'tadi va ulardan har birining hayot yo'lini yengillashtiradi. Qadimgi yunon falsafasida bilim va xulq-atvor oliy ideali donishmandlik tushunchasi bilan bog'lanadi. U inson aqliga abadiyat va cheksizlik sari yo'l ochadi, o'tkinchi narsalarga sabr-toqatlilikni

o'rgatadi. Aynan donishmandlik yordamida inson munosib va to'laqonli hayotga erishishi mumkin. Donishmandlikka intilayotgan odam har doim narsalar va hodisalar tabiatiga mos ravishda ish ko'rishi lozim. Platon shunday degan edi: «Toki davlatlarda faylasuflar podsholik qilmas ekanlar yoki hozirgi shohlar va podshohlar oqilona falsafiy mulohaza yuritishni o'rganmas va davlat hokimiyati bilan falsafaning mushtarakligi qaror topmas ekan, davlat yovuzliklardan xalos bo'la olmaydi». Platon inson tanasi haqida gap borganda tabiblarni, o'simliklar to'g'risida so'z yuritilganda esa – ziroatchilarni donishmandlar deb ataydi. U o'zining «ideal davlat» haqidagi nazariyasida jamiyatni uch tabaqaga: davlat arboblari – faylasuflar; soqchilar (harbiylar); dehqonlar va hunarmandlarga ajratadi. bunday davlatda donolik, jasorat, sabr-bardoshlilik va adolat kabi to'rt tamoyil ustuvor bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Aristotel insonning qadr-qimmatini uning aqliy faoliyatida ko'zga tashlanadi, deb hisoblaydi. O'z davrining eng dono kishilaridan biri bo'lgan Sitseron falsafaning mohiyatini quyidagicha tushuntiradi: «Falsafa (donishmandlik), ilohiy va insoniy qilmishlarni ularning sabablari va mohiyatlari nuqtayi nazaridan bilishdir». Sofistlar falsafani dunyoviy donishmandlik, mulohaza yuritish san'ati sifatida tushungan bo'lsalar, stoiklar donish-mandlikning «amaliy maqsadlari»ga, ya'ni o'z hayotini oqilona tashkil etishga qaratganlar. Faylasufning so'zlari insonni azob-uqubatlardan forig' etishiga Epikurning ishonchi komil bo'lgan.

Farobiy o'z davrida yangi yo'l va yangi maktab ochgan, falsafiy mavzularni tizimlashtirgan, din va falsafa orasidagi munosabatlarni qat'iy va aniq ifodalab, bu ikki sohasining insonlar ongida birga yashashi mumkinligini isbotlagan.

G'azzoliy fikricha, falsafa yaxlit va bo'linmas fan emas, ularning har biri o'z tushunchalariga ega. Ular geometriya va matematika hamma uchun qadrlanadigan fanlar, mantiq fani dalillari va mumkin bo'ladigan xulosalar chegarasi va ularning sharoitlari bilan shug'ullanadi. G'azzoliy fikricha, bularning hammasi kalom ilmiga kiradi, Tangri ta'olo zoti va Uning sifatleri bilan shug'ullanadigan ilohiyotshunoslikdir. U ham kalom ilmiga kiradi, lekin faylasuflarga tegishli emas, faylasuflarga tegishlisi bu din va daxriylik yoki bid'atdan iborat mazxabu manbalardir. Tabiatshunoslikning bir qismi shariat va haq dinga qarshi qaratilgan, shu bois u fan emas, balki yanglish bilimdir.

Yangi davrda frantsuz olimi Rene Dekart (1596–1650) har qanday mamlakat aholisining fuqorolik va o'qimishlilik darajasi bu yerdagi falsafiy tafakkur darajasi bilan belgilanadi, degan fikrni ilgari surgan. Ingliz faylasufi David Yum (1711–1776) falsafaga munosabat asosida millatga «tashxis» qo'yish mumkin deb hisoblagan. Uning fikricha, falsafiy bilimga qiziqishning yo'qligi millat tafakkurining cheklanganligi alomatidir.

Falsafani ko'pincha «tafakkur maktabi» deb ataydilar. U bir qolipda fikrlash uslubi tugagan, oydek ravshan bo'lgan narsa shubha va taajjub uyg'otgan joyda boshlanadi. Inson hayot mazmuni bilan bog'liq masalalar (Immanuil Kant tilida ular quyidagicha yangraydi: «Men nimani bilishim mumkin?», «Men nima qilishim kerak?», «Men nimaga umid qilishim mumkin?», «Inson nima?») ustida bosh qotira boshlagani zahoti u darhol falsafaga «asir» tushadi, borliqni falsafiy anglab yetish sohasiga kirib qoladi.

Ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588–1679): «Falsafa sening tafakkuring farzandi... va sening o'zingda yashaydi», deganida to'la haq bo'lgan. Darhaqiqat, falsafiy mulohaza yuritish har bir insonga xos xususiyat. Zero hayotning mazmuni, erkinlik, adolat va umrboqiylik haqida mulohaza yuritishni biron-bir insonga taqiqlash mumkin emas. Falsafa borliqni bilish, asoslar va birinchi tamoyillarni tadqiq etish bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida, his etish, mushohada yuritish va tasavvur qilish tarzida amal qiladigan kundalik ongdan farqli ravishda, tushunchalar vositasida bilishni nazarda tutadi. Tushunchalar bilan ish ko'rish san'ati zaruriy aloqalar va sababiy bog'lanishlarni aniqlashni, hayot taassurotlarining tasodifiy oqimini tartibga solishni talab qiladi. Mulohaza kuchini tarbiyalash e'tiborni jamlash, uni predmetga qaratishni nazarda tutadi. Tafakkur muayyan predmetga qarab mo'ljal oladi. Tafakkur predmetning tabiati haqidagi tasavvurga mos ravishda mulohaza yuritadi. Predmetni o'zida «idrok etgan» kishigina mazkur predmet o'zi haqida so'zlovchining tili bilan gapirishiga umid qilishi mumkin.

### **Falsafaning predmeti va asosiy masalalari**

Falsafaning muammolari uning predmeti bilan belgilanadi. Ma'lumki, falsafaning predmeti tarixiy rivojlanish jarayoni mobaynida sezilarli darajada o'zgargan. Falsafiy fanlarning har biri: ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika, mantiq, siyosatshunoslik, falsafa tarixi ham o'z alohida predmetiga ega. Shu ma'noda «dunyo –

inson» munosabatlari tizimidagi umumiylik falsafaning predmeti hisoblanadi, degan fikr mazkur talablarga javob beradi.

Endi «Falsafa nimani o'rganadi?» degan savolni berishimiz mumkin. Insonda bilishga qiziqish uyg'otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o'ziga ma'lum bilimlar va tajribaga, muayyan e'tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug'diradigan har qanday ob'ektiv va sub'ektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi. Boshqacha aytganda, inson o'z qiziqishi ob'ekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo'lishi mumkin bo'lgan hamma narsa falsafaning predmetidir. Masalan, qadimgi Yunonistonda kosmotsentrizm ilk falsafiy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bunda asosiy e'tibor «kosmos», «tabiat»ni anglab yetishga qaratilgan. Keyinchalik, qadimgi yunon shahar-polislari ravnaq topgan davrda faylasuflar diqqat markazidan ijtimoiy muammolar, axloq, davlat qurilishi masalalari o'rin oldi. Yevropada xristianlikning, Sharqda islom dinining vujudga kelishi va mustahkamlanishi natijasida O'rta asrlar falsafasining predmeti teotsentrik (yunon. theos – markazdan o'rin olgan xudo) xususiyat kasb etdi, ya'ni Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmetiga aylandi. Uyg'onish davrida falsafa san'at (estetika)ga va ko'p jihatdan insonga murojaat qiladi. Yangi davr XVII-XVIII asrlarda falsafa fan bilan uzviy bog'landi, natijada falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan bilish va ilmiy metodlar masalalari o'rin oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan «klassik falsafa» va ratsionallik inqirozi irratsionallik, intuitivlik, ongsizlik muammolarini namoyon etdi, XX asrning birinchi yarmida ular «noklassik falsafa» tahlilining asosiy predmetiga aylandi, bu esa, o'z navbatida, matnlar mantig'i, tili, ularni talqin qilish va sharhlashga alohida qiziqish uyg'onishiga olib keldi. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida hozirgi madaniyatdagi inqiroz hodisalarini va yangi axborot texnologiyalarining, shuningdek ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan belgilangan muammolarni kun tartibiga qo'ygan postnoklassik falsafa shakllandi. Bu falsafa vakillari «tarixiy rivojlanishning tugallanganligi», barcha ma'nolar va g'oyalar «aytib bo'linganligi» haqida mushohada yuritib, inson o'ziga yog'ilayotgan axborotga ishlov berishga qodir emasligiga e'tiborni qarattir.

notizimlilik, Yevropa an'anaviy falsafiy bilimining negizlari, qadriyatları va chegaralarini o'zgartirish g'oyasini ilgari surdilar.

Nihoyat, XX-XXI asrda eng yangi falsafada yangi mavzu globalashuv jarayonlarining mohiyatini va ularning rivojlanish yo'nalishini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayonlar hozirgi vaqtda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi va davrimizning olamshumul muammolarini yuzaga keltirdiki, ularning nazariy va amaliy yechimini topish bu muammolarni shu jumladan falsafiy darajada anglab yetishni ham nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda alohida e'tibor berish va kelishilgan harakatlarni taqozo etuvchi eng muhim muammolar qatoriga ta'lim va tarbiya, ekologiya, demografiya, xavfsizlik, xalqaro jinoyatchilik, energetika resurslari, qashshoqlikka chek qo'yish muammolarini kiritish mumkin.

Demak, falsafaning predmetini qandaydir bitta, qat'iy cheklangan, muayyan masalalar doirasi bilan chegaralanmaydi. U vaqt omiliga va ob'ektiv sabablar to'plamiga qarab o'zgaruvchan xususiyat kasb etadi, biroq inson, uning dunyoqarashi, ma'anviy kamoloti doim falsafaning diqqat markazidagi bosh muammo sifatida saqlanib qoladi.

Olam va insonning kelib chiqishi, rivojlanishi va mohiyatiga, shuningdek, hayotning ma'nosi, inson bilishining tabiatiga tegishli «boqiy» falsafiy muammolar deyarli barcha falsafiy ta'limotlarda u yoki bu tarzda mavjud. Darhaqiqat, ong, tafakkur, ruh, ideallik va ularning materiya, tabiat, borliq bilan o'zaro nisbati masalalariga o'z munosabatini bildirmagan yoki, o'z mulohazalari va xulosalarida shubha qilmagan faylasufni topish mushkul.

Falsafa tarixida turli yo'nalishlar va oqimlar farqlanadi. Sodda materializm materiyani yaratish va yo'q qilish mumkin emasligi haqidagi ta'limotdir. Sodda materialistlar qadimgi xitoy faylasuflari – Lao szi, Yan Chju; qadimgi hind faylasuflari – lokayata yo'nalishi namoyandalari; qadimgi davrning mashhur faylasuflari – Geraklit, Empedokl, Demokrit, Epikur va boshqalar; qadimgi Markaziy Osiyo faylasuflari - Zardo'sht Septoma kabilardir.

Klassik mexanika vujudga kelgan va faol rivojlangan Yangi davrda mexanistik materializm (P.Gol'tbax, P.Gassendi, J.Lametri) ayniqsa keng tarqaldi.

XVIII-XIX asrlarda falsafiy materializmning yo'nalishlari:

- antropologik materializm (L.Feyerbax);

- vulgar materializm (Fogt, Byuxner, Moleshott);
- dialektik materializm (K.Marks, F.Engels) shakllandi.

Biroq, mazkur tasnifga muvofiq materialistlar yoki idealistlar deb nomlanuvchi u yoki bu faylasuflar bunday farqlashga asossiz sxemalashtirish va soddalashtirish deb qarab, o'zini bu yo'nalishlarning birortasiga ham mansub deb hisoblamasligi mumkin. Bunday qarashlar shu bilan izohlanadiki, to'g'ridan-to'g'ri va uzil-kesil tarzda, bu muammoni tushunishga nisbatan boshqacha yondashuvlarni e'tiborga olmasdan ta'riflangan «falsafaning asosiy masalasi» muqarrar tarzda barcha faylasuflarni ikki katta qarama-qarshi lagerga – materialistlar va idealistlarga ajratadi va bu hodisaning ayrim ko'rinishi sifatida faqat moddiy va ma'naviy substantsiyalarni teng huquqli asoslar deb hisoblovchi dualistlarnigina (masalan, R.Dekart) farqlaydi.

Ammo falsafiy tafakkur tarixida u yoki bu faylasuflar fikriga ko'ra eng muhim deb qaraladigan boshqa muammolar ham mavjud. Ayni shu sababli aksariyat faylasuflar substantsiya (dunyoning birinchi asosi) haqida mulohaza yuritarkan, mazkur masalaning qo'yilishini «falsafaning asosiy masalasi» bilan bog'lashga moyil emas. Masalan: ilk antik faylasuflar uchun falsafaning asosiy muammosi: «Dunyo nimadan yaratilgan?», degan savol bilan bog'langan. O'sha davrda bu savol eng muhim, asosiy, birinchi darajali hisoblangan.

O'rta asrlar sxolastikasi nuqtayi nazaridan «falsafaning asosiy masalasi»: «Xudoning borligini qanday qilib oqilona asoslash mumkin?» degan savolda o'z ifodasini topadi. Hozirgi diniy falsafiy konsepsiyalar, xususan neotomizm uchun u hozir ham bosh masala bo'lib qolmoqda. Masalan. Ibn Sino fikricha, falsafaning asosiy masalasi – mavjudotni barcha mavjud narsalarni kelib chiqishi, targ'iboti o'zaro munosabati, biridan-ikkinchisiga o'tishni har tomonlama tekshirish uchun zaruriy imkoniyat, voqelik sabab tamoyillarini asos qilib olishdan iborat.

Yangi davrda I.Kant «Inson nima?» degan savolni falsafaning asosiy masalasi deb hisoblaydi. Uning fikricha, inson ikki dunyo – tabiiy zarurat va ma'naviy erkinlikka mansub bo'lib, ularga muvofiq odamzot, bir tomondan, tabiat mahsuli hisoblanadi, boshqa tomondan esa, u «erkin harakat qiluvchi mavjudotning o'z-o'zidan yaratish» natijasidir.

Ekzistentsializm falsafasida esa har bir individ o'zi uchun o'zi hal qilishi lozim bo'lgan «Hayot yashashga arziydimi?», degan



muammo asosiy masala sifatida e'tirof etiladi, zero, mazkur yo'nalish namoyandalarning fikriga ko'ra, bu savolga javobsiz qolgan hamma narsa o'z ma'nosini yo'qotadi.

Frantsuz ekzistentsialist faylasufi A.Kamyu fikricha: "Hayot yashashga arzishi yoki arzimasligini hal qilish, falsafaning asosiy masalasiga javob topish demakdir". Masalan, pragmatizm asosiy e'tiborni haqiqat tushunchasiga va uni aniqlash muammosiga qaratadi. Bu yo'nalish vakillarining fikriga ko'ra, falsafa avvalo ayni shu muammo bilan shug'ullanishi va insonga amalda foyda keltirishi lozim.

### **Falsafiy bilimning strukturasi:**

- ontologiya – mavjudlik, borliq haqidagi bilim;(Olamning yaratilishi va mavjudligi, uning xilma-xilligi, chekliligi va cheksizligi, makon va zamon uyg'unligi)

- gnoseologiya (epistemologiya) – bilish nazariyasi;

- ijtimoiy falsafa – jamiyat haqidagi ta'limot;(jamiyat-davlat-shax munosabatlari, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish)

- etika – axloq haqidagi ta'limot;

- estetika; (estetik did, go'zallik, ulug'vorlik, tubanlik kabi tushunchalarda o'z ifodasini topadi);

- mantiq; (fikrlash uslubi va tafakkur tarzi, fikrning faoliyat bilan uyg'unligini ta'minlash);

- aksiologiya - qadriyatlar haqidagi ta'limot;

- falsafiy antropologiya – inson haqidagi ta'limot; (inson tabiatining o'zgaruvchanligi, uning nafaqat biologik balki, fizik, kimyoviy vujud sifatida mavjudligi) va boshqalar.

Siyosatshunoslik (inson – dunyo tizimiga hokimiyat munosabatlari nuqtayi nazaridan yondashish siyosatshunoslikning predmetini tashkil etadi) Falsafaning asosiy masalasi uning strukturasi namoyon bo'ladi. Ya'ni, falsafaning asosiy masalasi xususida mulohaza yuritish jarayonida biz borliq nima, tafakkur nima degan savollarga turli xil javoblar olamiz. Vaqt o'tishi bilan bu javoblar o'z dalillar tizimi, metodologik tamoyillarini shakllantiradi va falsafiy yo'nalishlarga aylanadi. Masalan, borliqda faqat fan doirasida aniqlanishi va til tizimida belgilar yordamida ifodalanishi mumkin bo'lgan aloqalar va qonuniyatlarni ko'rish pozitivizm va analitik falsafa nuqtayi nazar bilan muvofiq keladi. Bu yerda borliq nima degan masala u yoki bu bilimlarni to'g'ri ifodalash muammosiga, til tahliliga borib taqaladi.

Analitik falsafa doirasida «lingvistik burilish» amalga oshirilgan va til falsafasi butun falsafaning asosi sifatida qabul qilingan.

Pozitivizm falsafani konkret fanlarga qarama-qarshi qo'yadi va ilmiy bilimni dunyoni o'zlashtirishning birdan-bir ijobiy shakli deb e'tirof etadi. Metafizika falsafaning sinonimi sifatida eng avvalo til mantiqiy me'yorlari nuqtayi nazaridan mazmundan xoli deb e'lon qilinadi. Neopozitivistlar fikriga ko'ra, falsafaning hayot mazmuni, cheklilik va cheksizlik, borliqning birinchi asoslari, universumning atributivligi kabi azaliy muammolari soxta tushunchalar sanalgan atamalar yordamida shakllantiriladi, zero ularga berilgan ta'riflarni tekshirish mumkin emas. Ayni shu darajada fan falsafasi ham amal qiladi va ilmiy bilish faoliyati muammolarini tadqiq etadi. Avvaliga unda ilmiy faoliyatni muayyan metodologik tamoyillar va normativ-mantiqiy ideallar bilan muvofiq holatga keltirish, aniqroq aytganda fanni fizika tili negizida unifikatsiya qilish vazifasi qo'yilgan edi. U fizikalizmga qarab mo'ljal olardi. Keyinchalik bilishning ijtimoiy-madaniy omillariga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Bilish jarayoniga normativ yondashuvning imkoniyatlari tor ekanligi namoyon bo'lganidan so'ng ilmiy bilish faoliyati me'yorlarining relyativligi g'oyasi tug'ildi. Fan falsafasiga ijtimoiy-madaniy bilim (sotsiologiya, psixologiya, lingvistika, antropologiya va kulturologiya) natijalari va metodlari kirib kela boshladi.

Borliq nima?, degan savolga falsafa borliq eng avvalo inson mavjudligi dunyosi deb javob beradi. Bu o'ziga xos tushunchalar apparatiga ega bo'lgan ekzistentsial falsafa vujudga kelganini anglatadi. Ikkinchi jahon urushidan, insoniyat sivilizatsiyasida yuz bergan tub o'zgarishlardan so'ng borliq insoniyat ko'z o'ngida metafizik dahshat, qo'rquv, tashvish, zerikish va hatto behuzurlik tarzida namoyon bo'ladi.

Ekzistentsial falsafa ikki yo'nalishda – ham diniy, ham ateistik falsafa sifatida rivojlanadi. Diniy ekzistentsial falsafa borliqni e'tiqod sifatida tushunadi, e'tiqodni va ayni paytda uning inson borlig'i ufqida paydo bo'lishini «haqiqiy mavjudlik»ka erishish usuli deb e'lon qiladi. Ateistik ekzistentsializm esa butunlay boshqacha kayfiyat hukm suradi. Ta'riflarda ko'p sonli ziddiyatlar mavjudligi tufayli Xudoning borligi inkor etiladi. Mustaqil va anonim tarzda o'z-o'zida mavjud bo'lgan borliq onga ega bo'lishi mumkin emas, u

insonga nisbatan rahmsizdir, bu esa amalda Xudo yo'qligini anglatadi, degan xulosaga kelinadi.

Borliq hayot fenomeni sifatida, materiya va ruhning ajralishidan oldin yuz bergan yaxlit jarayon sifatida talqin qilinganda hayot falsafasi paydo bo'ladi. Bu yerda birlamchi hayot voqeligi o'zini turli xil ko'rinishlarda namoyon etadi. Nitsshening volyuntarizmida u «hokimiyatga intilish» sifatida namoyon bo'ladi. Bergson tasavvurida hayot kosmik yuksalish bo'lib, uning mohiyati ong va o'ta yuksak ong bilan belgilanadi. Diltey va Zimmel hayotni madaniy-tarixiy xususiyatga ega bo'lgan kechinmalar oqimi sifatida tavsiflaydi. Biroq taklif qilingan talqinlarning barchasida hayot ijodiy shakllanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Harakat, eng avvalo – oqilona unumli harakat sifatida tushunilgan borliq AQShda keng tarqalgan pragmatizmning asosiy g'oyasidir. Ushbu falsafiy konsepsiyaga ko'ra har qanday harakat kelajakka qaratilgandir. Amerikalik faylasuf Ch.Pirs (1839–1914)ning: «Narsa g'oyasi uning hissiy oqibatlaridir», tezisi pragmatizmning manifesti sifatida qaralishi mumkin. Haqiqat u yoki bu g'oyaning samaraliligi va ish qobiliyati, uning maqsadga erishish uchun foydaliligi demakdir.

Borliqqa intuitiv tarzda anglab yetiladigan sir sifatida yondashuv, intuitivizm deb nomlanadi. Intuitsiya intellektga qarama-qarshi turadi va predmetning mohiyatiga biron-bir manfaatni ko'zlamasdan, xolisona nazar tashlashni, sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi masofani qisqartirishni nazarda tutadi. Intuitivizmida bilim kechinma tarzida amal qiladi.

Borliq vaziyatlardan tarkib topsa va ularni talqin qilish usuli birinchi darajali ahamiyat kasb etsa, bu borliqning germeneytik talqinidir. Uning doirasida tushunish borliq haqidagi bilimning asosiy modusi hisoblanadi. Biror narsani tushunish uchun uni tushuntirish kerak, tushuntirish uchun esa – tushunish zarur.

Falsafiy muammolar mohiyatini tushunib yetish, ularning eng muhimlarini aniqlash uning strukturasi yaxlit bir butunning tarkibiy qismlari sifatida yondashish lozim. Pirovardida biz falsafaning o'ziga xos tili, o'z yondashuvlari va metodlari, nihoyat, tabiat, jamiyat va tafakkurga oid eng muhim aloqalar, xossalar va qonunlarni o'zida aks ettiruvchi umumiy tushunchalar – kategoriyalar tizimi vujudga kelganining guvohi bo'lamiz. Bunda falsafadagi har bir bo'lim yoki yo'nalish ham o'z tushunchalar apparatiga, ya'ni bilimning faqat shu

sohasiga xos bo'lgan va uning asosiy mohiyatini yoritib beradigan kategoriyalar tizimiga egadir.

Falsafada ko'rib chiqilgan mavzular bilan bir qatorda shunday bilim sohalari ham mavjudki, ular qolgan barcha bilim sohalariga kirib boradi, ular bilan uyg'unlashadi va ularni to'ldiradi. Dialektika tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkurida yuz beruvchi harakat, rivojlanish va o'zgarishlar haqidagi falsafiy ta'limotdir.

Ob'ektiv sabablarga ko'ra falsafiy bilimning ayrim sohalari sezilarli darajada rivojlandi va vaqt o'tishi bilan mustaqil falsafiy fanlarga aylandi. Bunday bilim sohalari qatoriga, masalan, insonning bilishni amalga oshirish shakllari, qonunlari va usullarini o'rganadigan fan - mantiqni; ma'naviyat va axloq haqidagi ta'limot - etikani; go'zallik qonunlariga muvofiq ijodning mohiyati va shakllari haqidagi fan - estetikani kiritish mumkin.

Shu ma'noda falsafa tarixi fani alohida diqqatga sazovordir, zero u, mohiyat e'tibori bilan, nafaqat falsafiy, balki tarixiy fan hisoblanadi. Ayni vaqtda u falsafiy bilim tarkibiga ham kiradi, chunki falsafiy tafakkurning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini, falsafiy g'oyalar evolyutsiyasi va xususiyatini turli faylasuflar, yo'nalishlar, oqimlarning ta'limotlarida qanday tavsiflangani nuqtayi nazaridan o'rganadi. Falsafa tarixi fanida falsafiy ta'limotlarni tizimga solish va tasniflashga, matnlar, tarixiy sanalarni tahlil qilishga, daliliy material, biografik ma'lumotlar yig'ishga alohida e'tibor beriladi. Shu munosabat bilan dunyoqarashni kengaytirish va teranlashtirishga, o'z falsafiy yondashuvlarini yaratishga qaratilgan falsafani o'rganish, uning tarixi, asosiy namoyandalari va eng muhim falsafiy asarlari bilan albatta tanishishni nazarda tutadi.

Falsafaning rivojlanishi va uning muammolari doirasi kengayishiga qarab falsafiy bilim tuzilishida ham o'zgarishlar yuz beradi. Buni falsafiy bilimning ayrim yangi sohalari - tabiat falsafasi, huquq, fan, tarix, siyosat, san'at, din, texnika falsafasi, tanatologiya, gerontologiya, globallashuv va boshqalar ham tasdiqlaydi. Ammo falsafa o'zining birinchi ma'nosida - «donolikni sevish» sifatida, haqiqatning tagiga yetish usuli sifatida, jon holati sifatida va nihoyat, dunyoqarashning alohida shakli sifatida insoniyat turguncha mavjud bo'ladi.

Ilmiy nazariyalar yoki falsafiy g'oyalar inqirozga uchragan yoki o'zining asossizligini namoyish etgan taqdirda, ularning bilim

tizimidagi o'rni va rolini qayta baholash amalga oshiriladi, bu esa ba'zan ularning nazariy va amaliy ahamiyati yo'qolishiga olib keladi. Masalan, flogiston nazariyasi, «falsafa toshi»ni izlash, empiriokritsizm falsafasi va o'z ahamiyatini yo'qotib, tarix mulkiga aylangan boshqa ko'pgina g'oyalar bilan shunday bo'lgan. Bugungi kunda falsafa bilan ham shunga o'xshash hodisa yuz beryapti, degan fikr mavjud. Hatto falsafa o'lyapti deb hisoblaydiganlar ham yo'q emas.

### **Falsafaning asosiy funktsiyalari**

Falsafa u yoki bu muammolarning yechimini topish jarayonida har xil funktsiyalarni bajaradi. Falsafaning muhim funktsiyalaridan dunyoqarashni shakllantirish, bilish, metodologik, integrativ, madaniy, aksiologik, axloqiy va tarbiyaviy funktsiyalarni qayd etish mumkin. Ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bu funktsiyalarning roli va ahamiyati falsafaning amal qilish sohasi, u hal qilayotgan vazifalar darajasi va xususiyati bilan belgilanadi.

Dunyoqarashni shakllantirish funktsiyasi insonning o'z-o'zini va o'zini qurshagan borliqni tushunishi, turli voqealar, hodisalarni va o'z burchini qanday talqin qilishida namoyon bo'ladi. Inson dunyoqarashida e'tiqod va bilimlar, tuyg'u va emotsiyalar, ratsionallik va irratsionallik, tajriba, intuitsiya va hokazolar chambarchas bog'lanadi. Ayni shu sababli falsafasiz dunyoning yaxlit manzarasini yaratish mumkin emas. chunki, «hamma narsaga aralashadigan» falsafagina dunyoqarashning o'zaro bog'lanmagan turli «parchalari»ni birlashtirib, shu tariqa odamlarning butun borliqqa nisbatan umumiy, izchil va mantiqan to'g'ri munosabatini yaratish imkonini beradi. Bunda falsafa ayrim ikir-chikirlar, ahamiyatsiz tafsilotlarni mavhumlashtiradi va umumiy aloqalarga, turli narsalar va hodisalar xossalarining birligiga e'tiborni qaratadi va shu tariqa o'zining bosh funktsiyasi – dunyoqarashni shakllantirish funktsiyasini bajaradi.

Falsafaning gnoseologik funktsiyasi tajribada sinash, tavsiflash yoki shak-shubhasiz inkor etish mumkin bo'lmagan, ya'ni fan ochib berish, tadqiq etish va tahlil qilishga qodir bo'lmagan narsalar va hodisalarni ratsional yo'l bilan tushuntirishga harakat qiltshdir. Falsafa u yoki bu mohiyati aniqlanmagan yoki kam o'rganilgan hodisalarni tushuntirishga nisbatan o'z yondashuvlari, nazariyalari va gipotezalarini taklif qilar ekan, ularni bilishga bo'lgan qondirilmagan qiziqish o'rmini muayyan darajada to'ldiradi, shu tariqa mifologik va diniy fantaziyalarga kamroq o'rin qoldiradi. Falsafa

gnoseologiyada hal qiladigan boshqa bir muhim vazifa «Haqiqat nima?», «Uning mezonlari qanday?», degan masalalar bilan bog'liq. zero har qanday bilish jarayoni oxir-oqibatda, u yoki bu tarzda haqiqatning tagiga yetishga qarab mo'ljal oladi.

Metodologik funktsiyasi u yoki bu maqsadga erishishning muayyan usulini, shuningdek borliqni nazariy va amaliy o'zlashtirishga qaratilgan amallar majmuini anglatadi. (bu tushuncha yunoncha methodos – yo'l, tadqiqot, tekshirish so'zidan kelib chiqqan). Ya'ni, bu faylasuf yoki olim o'zi o'rganayotgan predmetning tadqiqot yo'lidir. Odatda metodologiya muammolari falsafa doirasida o'rganilgan, biroq ayrim fanlar vujudga kelishi bilan falsafiy (umumiy) metodlar bilan bir qatorda muayyan, ayrim ilmiy metodlar ham rivojlana boshladi. Falsafaning boshqa bir muhim metodologik funktsiyasi falsafada ham, ayrim fanlarda ham muhim rol o'ynaydigan har xil kategoriyalarni ishlab chiqishdan iborat. Falsafa o'ta keng tushunchalar, ya'ni kategoriyalar bilan ish ko'rar, ularni ta'riflar ekan, metodologik funktsiya bilan bir vaqtda dunyoqarashni shakllantirish funktsiyasini ham bajaradi.

Falsafaning integrativ funktsiyasi real borliqning yangi ob'ektlari va hodisalari insonning nazariy tadqiqotlari sohasidan o'rin olishi, shuningdek ilgari ma'lum darajada anglab yetilgan narsalar va hodisalarni yanada chuqurroq o'rganish uchun birlashishga ehtiyojdir. Ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi va u yoki bu muammolarni yechish uchun kuch-g'ayratni birlashtirish jarayoni yakkalanish xavfining oldini olish imkonini beradi. Zero, ayrim fanlar paydo bo'lib, ular nafaqat o'z tadqiqot ob'ekti va predmetini ajratdi, balki o'zining faqat mazkur fanga xos bo'lgan tili, kategoriyalar apparati va hokazolarni yaratdi. Ammo, fanlarning ajralishi natijasida ular o'rtasidagi aloqalar susayadi, ular murakkab kompleks vazifalarni yechishda faol o'zaro aloqa qilish qobiliyatini yo'qotadi. Bu esa ilmiy bilimning o'sishiga salbiy ta'sir qiladi. Murakkab kompleks muammolarni tadqiq etuvchi hozirgi zamon fanida ba'zan ayrim fanlarning vakillari boshqa fanlarning vakillarini faqat ular turli tillarda, ya'ni har biri o'z fanining tilida gapirgani bois tushunmaydi. Bu jihatdan falsafa ular uchun amalda bog'lovchi bo'g'inga, birlashtiruvchi asosga aylanadi, chunki u o'z tahlilida fanlararo muloqotga va mazmuni ayni bir kontekstda turli fanlar tomonidan qabul qilinadigan va qo'llaniladigan fundamental tushunchalarni yaratishga qarab mo'ljal oladi.

Falsafaning madaniy funksiyasi odamlar dunyoqarashini kengaytirish, ularda bilishga qiziqish uyg'otish, nazariy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda namoyon bo'ladi. U dunyoni o'zlashtirish va bilishning universal shakli sifatida, insoniyatning eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi va ularni butun insoniyat mulkiga aylantiradi. Turli mamlakatlar va xalqlarning falsafa tarixini o'rganish va hozirgi madaniyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, g'oyalar almashinuvi va madaniy an'analarning o'zaro ta'siriga ko'maklashadi, bu esa madaniy meros bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafaning aksiologik funksiyasi (yunon. axia - qadriyat) hayotning ma'nosi, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yish, u yoki bu harakat, voqea, hodisaga "yaxshi", "yomon", "muhim", "foydali", "foydasiz" kategoriyalari bilan baho berish orqali namoyon bo'ladi. U uzoq muddatli tendentsiyalarni qisqa muddatli tendentsiyalardan farqlash, yuzaki jarayonlarni fundamental jarayonlardan, muhim narsalar va hodisalarni ikkinchi darajali narsalar va hodisalardan ajratish orqali insonning qadriyatlarga munosabati bilan uzviy bog'liq bo'lgan tegishli ehtiyojlarini shakllantiradi. Shu tariqa insonning muayyan qadriyatlari, mo'ljallari va ustuvorliklari belgilanadi, ya'ni tegishli qadriyatlar tizimi tarkib topadi. Bu tizim odamlarning muhim xususiyati hisoblanadi, ularning hayotga munosabatini aks ettiradi va jamiyatdagi xulq-atvorini ko'p jihatdan belgilaydi.

Falsafaning axloqiy funksiyasi odamlarning u yoki bu jamiyatda qaror topgan munosabatlar ta'sirida shakllanuvchi xulq-atvoridir. Bunda, axloqiy qadriyatlar jamiyatda yuzaga keladigan va tabiiy yo'l bilan, ya'ni real hayot amaliyotida o'rnatiladigan me'yorlar va qoidalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Falsafa doimo jamiyatning barcha a'zolari xulq-atvorida namoyon bo'ladi va shu tariqa yana bir muhim funktsiya – axloqiy funktsiyani bajaradi.

Falsafaning tarbiyaviy funktsiyasi insonning o'z-o'zini tarbiyalash va o'zi mansub bo'lgan jamiyatning axloqiy qonunlariga rioya qilishda namoyon bo'ladi. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati o'z-o'zini anglab yetishga yo'naltirilgan falsafaga muhtojdir. Buni 2002-yildan Yunesko qaroriga binoan, butun dunyoda har yili noyabr oyining uchinchi payshanbasida o'tkaziladigan "Jahon falsafa kunlari" ham, hozirgi kunda dunyo uch-

un eng muhim masalalarga e'tiborini qaratadigan Jahon falsafa Kongresslari ham tasdiqlaydi. Darhaqiqat, bunday kongress birinchi marta 1900-yilda Frantsiyada o'tkazilgan, 1948-yildan boshlab uni har besh yilda bir marta o'tkazish an'anaga aylangan. Xususan, 1998-yilda Boston shahrida (AQSh) bo'lib o'tgan XX jahon falsafa kongressi "Paydeyya: insoniyatni tarbiyalashda falsafa" mavzusiga bag'ishlangan bo'lsa, Turkiyaning Anqara shahrida o'tkazilgan XXI Jahon falsafa kongressida "Falsafa jahon muammolari bilan yuzma-yuz" mavzusi atroflicha muhokama qilindi. XXII jahon falsafa kongressi birinchi marta Osiyo mamlakati bo'lmish Koreya respublikasining Seul shahrida "Hozirgi davrda falsafani qayta anglash" degan umumiy mavzu ostida bo'lib o'tdi. 2018-yil 13-24-avgust kunlari Xitoyning Pekin shahrida 24-Jahon falsafa kongressi "Inson bo'lishni o'rganaylik" mavzusida o'tkazildi. Kongresslarning mavzularidan ko'rinib turganidek, falsafa real hayot bilan uzviy bog'liq va eng muhim muammolarni anglab yetishga xizmat qilib kelmoqda.

Shunday muammolardan biri – insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol toptirishda falsafaning roli va ahamiyati masalasidir. Buning uchun esa, albatta, qadimgi davr mutafakkirlarining asarlariga yana bir bor murojaat etish taqozo etiladi.

Qadimgi mutafakkirlar har tomonlama ta'lim va tarbiyani, ya'ni o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan jismoniy va ma'naviy jihatdan komil insonni voyaga yetkazishni «paydeyya» (yunon. pais – bola) atamasi bilan ifodalaganlar. O'sha vaqtlarda paydeyya aristokratiyaning o'ziga xos belgisi hisoblangan; endilikda faylasuflar ta'lim va tarbiya muammolarini yana birinchi o'ringa qo'yib, ularni hal qilishda falsafaning rolini aniqlashga harakat qilar ekanlar, bu tushunchani yana esga oldilar. Xususan, Boston kongressidagi asosiy ma'ruzalarning mualliflaridan biri frantsuz faylasufi Per Obenk: «Insonning vahshiyona tabiatidan ma'rifatli tabiatga o'tish imkoniyati qay darajada mavjud?», degan savolni o'rtaga tashlaydi. Uning fikricha, insonning yagona tabiati ikki ma'noli bo'lib, faqat ma'rifat (paydeyya) odamzotni to'la ma'noda insonga aylantiradi yoki, Platon ta'biri bilan aytganda, paydeyya uning ko'zini ochadi.

Biroq ma'rifatning vazifasi ko'zga ko'rish qobiliyatini berishdan emas, balki unga to'g'ri qarashni o'rgatishdan iboratdir. Demak, Platon, Demokrit, Zardo'sht va boshqa mashhur faylasuflar



fikriga tayanib, ma'rifat yordamida, ta'lim va tarbiya jarayonini zo'rlikka qarshi yo'naltirish va odamzot aql-idrokini kamol toptirish orqali insonning ma'naviy yetuk tabiatini yaratish mumkin. «Paydeyya» tushunchasi bolani tarbiyalab komil insonga aylantiruvchi ta'lim jarayoniga e'tiborni qaratadi. Qadimgi yunonlar «texne» va «paydeyya» kabi tushunchalarni farqlaganlar; birinchi atama bilimni, ya'ni o'rganish mumkin bo'lgan narsani anglatga, ikkinchi atama bilim berish manbaini emas, balki to'g'ri fikr manbaini anglatadi. Bunda paydeyya, Aristotel ta'biri bilan aytganda, insonni o'zini o'zi kamol toptirishga rag'batlantirishi lozim. Shu bois, falsafadan saboq berishda ishonitirish mahoratini emas, balki to'g'ri fikrlash mahoratini o'rgatishga e'tibor qaratish muhim.

Falsafani o'ta siyosiyashtirish ma'lum ma'noda zararlidir. Chunki sobiq sovet tuzumi davrida ayni falsafiy bilimni mutlaqlashtirish, uni siyosiy bilim doirasi bilan chegaralash oqibatida falsafa siyqalashdi, uning asl mazmuniga putur yetkazildi. Shuningdek, falsafaning barcha vaqtlarda va har qanday sharoitda o'z ahamiyatini saqlab qolishi mumkin bo'lgan, qolgan barcha masalalarni istisno etadigan birdan-bir to'g'ri asosiy masalasi bormi? Bizningcha, mazkur uzil-kesil ta'rif kontekstida bunday masala mavjud emas. Birinchidan, ayni holda tarixiy davrni ham, falsafiy bilimning plyuralistik tabiatini ham hisobga olish talab etiladi. Ikkinchidan, qandaydir bitta muammoni faqat u yoki bu muayyan vazifani yechish maqsadida murakkab masalalarni sxemalashtirish, ataylab soddalashtirish to'g'risida so'z yuritilayotganini tushungan holda, ma'lum darajada shartlilik bilan mutlaqlashtirish mumkin.

### **Falsafaning jamiyatdagi ahamiyati va roli yoki amaliy falsafa**

Falsafa so'zlar, so'zlar va yana so'zlardan iborat? Tabiiy va texnika fanlaridan farqli o'laroq u insoniyaga nima beradi? Umum e'tirof etilgan tasavvurga ko'ra falsafa doim kundalik hayotdan uzoq bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Boshqa tomondan, falsafa oddiy ijtimoiy borliq, kundalik ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy hayot amaliyoti deb nomlash mumkin bo'lgan jarayonlarda o'z ifodasini topadi. Darhaqiqat, XX asrda – amaliy falsafa yo'nalishi vujudga keldi u siyosiy, ijtimoiy va boshqa qarorlar qabul qilishga muqarrar tarzda va bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb aytish mumkin emas, ammo bu holni butunlay istisno etish ham o'rinli bo'lmaydi. Biroq falsafa odamlar dunyoqarashini shakllantirish orqali ularning xulq-atvorini, yuqorida

zikk etilgan qarorlarni ishlab chiqish jarayonida ularning yondashuvlarini ham ko'p jihatdan belgilaydi, faylasuflarning o'zlari esa ba'zan odamlar hayotini butunlay o'zgartiruvchi muhim g'oyalar tashabbusi bilan chiqadilar. Faylasuflar jamiyatdagi ma'naviyat va axloqning holati uchun ham sezilarli darajada javobgardirlar, zero ular nafaqat ijtimoiy me'yorlar va tamoyillarni rivojlantiradilar, ulardan dars beradilar yoki kitoblar, maqolalar orqali ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatadilar, balki ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy muammolar, madaniyat va ma'naviyat masalalariga doir muhokama va munozaralarda ham ishtirok etadilar.

Falsafaning ijodiy xarakteri insonning o'z qobiliyatini dunyoni bilishga va uni o'zlashtirishga yo'naltirishida namoyon bo'ladi. Falsafa jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan holda, ayni vaqtda fan bilan doim yaqin aloqada ish ko'radi. U yoki bu fan qanday muayyan muammolarni hal qilishidan qat'iy nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun vaziyatga, shu jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo zaruriy shart hisoblanadi. Muayyan fan predmetiga va uning oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng bilimning boshqa sohalarida erishilgan eng so'nggi yutuqlarni ham aks ettiradigan yaxlit yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishiga erishish ham mumkin emas.

### **Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va funktsiyalari**

Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash kundalik dunyoqarash deb ataladi va insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining tizimsiz majmui sifatida amal qiladi. U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi va odamlarga kundalik hayoti, faoliyatida yo'l ko'rsatib, ularning xulq-atvori, qilmishlarini belgilab, muhim regulyativ funktsiyani bajaradi.

Keng ma'noda, dunyoqarash – insonning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek uning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e'tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo'ljallaridir.

Dunyoqarash amaliy va nazariy darajalarda amal qiladi. Dunyoqarashning amaliy darajasi shixiyali tarzda shakllanadi va unda dunyoning manzarasi hayot haqidagi tipik tasavvurlar to'plami namoyon bo'ladi. Bu to'plam kundalik hayotda ko'p uchraydigan

vaziyatlardan, mazkur muhitga xos bo'lgan ko'nikmalar, munosabatlar va odatlardan tarkib topadi. Bunday dunyoqarashga uning egasiga xos bo'lgan kasbiy mo'ljallar ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatadi. Xulq-atvorning shakllanishida sub'ektning kasb-kori (amaldor, savdo xodimi, ofitser, uy bekasi, shifokor va h.k.) hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kundalik dunyoqarash egasi dunyoga munosabatning o'z muhitiga xos bo'lgan andozalarini umumlashtirib, ularni harakatlar va qarashlarning o'zgartirish oson bo'lmagan muayyan mezoniga aylantiradi. "Kundalik dunyoqarash" kategoriyasining sinonimlari sifatida, "amaliy dunyoqarash", "noilmiy dunyoqarash" tushunchalari amal qiladi.

Dunyoqarashning nazariy darajasi dunyo haqidagi ideallar va kontseptual modellar haqidagi bilimlar majmuidir. Aynan ideallar dunyoqarashni – kelajakni shakllantiruvchi va belgilovchi ideal kuch sifatida tavsiflaydi. Nazariy dunyoqarash asrlar davomida individning ijtimoiylashuvi jarayonining mahsuli hisoblanadi. Bunda individ o'zining voqelikka bo'lgan munosabatida jamiyatdan olinadigan ne'matlarni bevosita o'zlashtirishdan tarixiy bunyodkorlik va insoniy qadriyatlar mazmunini tushunishga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Dunyoqarashning har bir darajasi inson hayot faoliyatida o'z vazifalarini hal qiladi. Ularning ahamiyati va o'ziga xosligi ham shundadir. Tanqid faqat u yoki bu (diniy, oddiy, pragmatik yoki stsientistik) dunyoqarash universallikni asossiz ravishda da'vo qilgan holda o'rinli bo'lgan.

Dunyoqarashning shakllanishiga ijtimoiy muhit ta'sir etadi. Aql paydo bo'lishi bilan inson o'zini fikrlovchi mavjudot sifatida anglay boshlaydi, unda o'z «meni» va o'zgaralar haqida tasavvuri shakllanadi va rivojlanadi. Shu tariqa u o'zini va o'zini qurshagan borliqni anglaydi, o'zi va boshqa odamlarni, o'zi va tashqi muhitni farqlaydi, ilgari o'ziga ma'lum bo'lmagan dunyoning yangi va yangi jihatlarini idrok etadi. Bunday qarashlar insonning o'zi va borliq haqidagi tasavvurlari majmui sifatida shakllanadigan dunyoqarash negizini tashkil etadi. Bunda inson o'ziga ma'qul va noma'qul narsalarni farqlaydi, baholar beradi, ustuvorliklar tizimini yaratadi va muayyan maqsadlarga erishishda tegishli tarzda ish ko'radi. Inson o'zining ichki ruhiy holatiga mos muhitga talpinadi.

Dunyoqarashning tuzilishi – dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat.

Dunyoni sezish – bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etish bo'lib, bunda tuyg'ular, kayfiyat dunyoni go'yoki ranglarga bo'yaydi, uning obrazini sub'ektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorug' bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan nur, sog'lom odam uchun normal bo'ladi; daltonik ranglar gammasini, ko'rish qobiliyati normal bo'lgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan optimistik, pessimistik, fojeaviy tiplari kelib chiqadi.

Dunyoni idrok etish – bu atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishida namoyon bo'ladi. Dunyoni idrok etish to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi, ya'ni borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq noto'g'ri tasavvur qilinadi yoki illyuziyalar, suv parilari, alvastilar, kentavrlar haqidagi tasavvurlarga o'xshash fantaziyalar paydo bo'ladi.

Dunyoni tushunish – insonning va uni qurshagan dunyoning mohiyatini, shuningdek tabiatda yuz beruvchi voqea va jarayonlarning o'zaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyatidir. Dunyoni sezish va qisman (elementar shakllarda) dunyoni idrok etish barcha tirik mavjudodlarga xos bo'lsa, dunyoni tushunish esa faqat insonga xos xususiyatdir.

Dunyoqarashning funktsiyalari - bilish, qadriyatlarga munosabat va xulq-atvorni belgilash dunyoqarashning asosiy funktsiyalari sifatida amal qiladi.

Dunyoqarashning bilish funktsiyasi insonda qiziqish uyg'otuvchi barcha savollarni, shuningdek muayyan javoblarni o'z ichiga oladi. Bilish odamlar dunyoqarashini boyitadi va kengaytiradi, u jamiyatning rivojlanishiga qarab yanada teranroq va mazmunan boyroq bo'lib boradi. Shu bois, bugungi kunda O'zbekistonda kitob o'qishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoqarashning qadriyatlarga munosabat funktsiyasi – insonning hayotni va o'zini oliy qadriyat deb hisoblagan holda shakllanadi. Zero, o'z qadrini bilmagan inson o'zгалar qadrini bilmaydi va hayotda o'z o'rmini topa olmaydi.

Dunyoqarashning xulq atvorni belgilash funktsiyasi – insonda o'z-o'zini tarbiyalash, ma'naviy madaniyatini takomillashtirish va faqat o'zining ma'naviy dunyosiga munosib muhit tanlash malakalarini shakllantiradi.

Shu bois, bir odamning dunyoqarashi, savollari va javoblari doim shaxsiy o'ziga xoslik bilan ajralib turadi va boshqa odamlar dunyoqarashiga hech qachon o'xshamaydi.

Dunyoqarashda intellektual, emotsional va ruhiy asoslar ug'yunlashadi, ular har bir inson uchun mutlaqo muayyan, individual xususiyatlar sifatida amal qiladi.

Intellektual, emotsional va ruhiy asoslar iroda bilan uyg'unlikda e'tiqodlar – odamlar faol qabul qiladigan, ularning ong darajasi va hayotdagi mo'ljallariga mos keladigan qarashlarni yuzaga keltiradi.

Dunyoqarashga sub'ektning yoshi, jismoniy va ruhiy holati, fe'l-atvori xususiyatlari, odatlari va e'tiqodlari, shuningdek milliy madaniyatini etnik xususiyatlari va ijtimoiy-madaniy omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Dunyo haqidagi tasavvurda ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarni ajratish ham o'rinli bo'ladi.

Dunyoqarashning shakllanishi jarayonida sub'ektning e'tiqodlari, qilmishlari va harakatlari majmui vujudga keladi. Dunyoqarashda inson va insoniyat o'zligini namoyon etadi. Dunyoqarash inson xulq-atvori, uning barcha harakatlari va qilmishlari uchun fikrlash maydoni sifatida amal qiladi. Dunyoqarashning mental mezon sifatida ongda ishonch va e'tiqod maydonga chiqadi. Dunyoqarash umumiy va shaxsiy ahamiyatga molik mo'ljal tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Dunyoqarashda hayotga oid, mifologik, diniy, badiiy, siyosiy, ilmiy qarashlar o'rin oladi.

Shubha dunyoqarashning muhim elementi bo'lib, u insonni dogmatizm, notanqidiy fikrlash, u yoki bu qoidani shak-shubhasiz haqiqat deb qabul qilishdan asraydi. Dogmatizmning qarama-karshisi skeptitsizm bo'lib, bunda shubha mutlaqlashadi, fikrlashning asosiy omiliga aylanadi, bilish va borliqni idrok etishning bosh tamoyili sifatida amal qiladi.

### **Dunyoqarashning tarixiy shakllari**

Tarixan dunyoqarashning dastlabki shakllari mif va din, falsafa va fan bo'lib, bu hol insoniyat tadrijiy rivojlanishining umumiy mantiqi bilan mushtarakdir.

Mifologik dunyoqarash - turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimga solingan dunyoqarashdir. («Mif» tushunchasi yunoncha myt-

hos so'zidan kelib chiqqan bo'lib, afsona, rivoyat degan ma'noni anglatadi). Mifda bilimlar, diniy e'tiqodlar, ma'naviy madaniyatning turli elementlari, san'at, ijtimoiy hayot kurtaklari birlashgan bo'lib, shu tariqa ibtidoiy odamlar dunyoqarashi muayyan darajada tartibga kelgan, ularning dunyo haqidagi qarashlari esa qisman tizimga solingan. Mazkur tizimga solishning muhim shakllari epos, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar bo'lib, miflar avvalo ular orqali ifodalanadi. Shu tariqa to'plangan bilimlar va tajriba keyingi avlodlarga o'tishi ham ta'minlanadi.

Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu oddiy rivoyat emas, balki og'zaki «muqaddas» matnning arxaik ongdagi voqea-hodisalarga, insonga va u yashayotgan dunyoga ta'sir ko'rsatuvchi muayyan borliq sifatidagi in'ikosidir. Mifologik dunyoqarashda hamma narsa bir, yaxlit, ajralmasdir: tabiat narsalari va hodisalari inson bilan ayni bir qonunlarga muvofiq yashaydi, inson bilan bir xil sezgilar, istaklar, mayllarga ega bo'ladi.

Mifologik dunyoqarashda olam makon va vaqtda bir vaqtning o'zida chekli va cheksizdir. Masalan, makon bu yerda umumiy cheksiz makondan va ayni vaqtda katta makonga o'xshash ko'p sonli chekli kichik makonlardan iborat. Umumiy cheksiz vaqt davriy bo'lib, o'zini katta vaqtga o'xshash kichik vaqtlar sifatidagi o'z sikllarida takrorlaydi. Umuman olganda, mifologik dunyoqarashda katta olam doirasida dunyolarning cheksiz rang-barangligi yuzaga keladi va har bir dunyo o'z makoni va vaqtiga ega bo'ladi.

Mifologik dunyoqarashga ko'ra odamlar yashaydigan dunyo «barcha tomondan» boshqa dunyolar bilan qurshalgan. Bu dunyolarning o'z aholisi, o'z qonun-qoidalari, o'z maqsadlari bor. Bu dunyolarning hammasi odamlar dunyosi bilan u yoki bu darajada bog'langan. Boshqa dunyolarning ko'pgina kuchlari va mohiyatlari odamlar yashaydigan dunyoga kiradi va insonga faol ta'sir ko'rsatishi, xususan unga yordam yoki xalaqit berishi mumkin. (bugungi kunda ushbu qarashlarni isbotlash uchun koinot o'rganilmoqda). Shu sababli inson o'zi yashaydigan dunyoda o'z maqsadlariga erishish uchun boshqa dunyolar haqida mumkin qadar ko'proq bilishi va shu dunyolardan kelgan kuchlarga ta'sir ko'rsatish, ular bilan til topishni bilishi kerak. Mifologik dunyoqarashga ko'ra inson bir vaqtning o'zida ham odamlar dunyosida, ham undan tashqarida – bir dunyodan boshqa dunyoga o'tish va har bir dunyoga chetdan nazar tashlash

imkonini beruvchi umumiy dunyoda yashashi lozim. Shu sababli inson, dunyoning mifologik manzarasidagi har qanday ob'ekt kabi, ikki tomonga ega bo'lgan asosdir. O'zining bir tomoni «tanasi» bilan inson o'zining kichik dunyosida, boshqa tomoni «joni» bilan u barcha dunyolar o'rtasida yashaydi.

Mifologik dunyoqarashda barcha ob'ektlar jonli bo'ladi, shu bois bu yerda hatto toshlar bilan ham ehtiyot bo'lib muomala qilish talab etiladi, aks holda ularning g'azabiga duchor bo'lish mumkin. Barcha dunyolar va ularda mavjud mohiyatlar turli dunyolarda amalda bo'lgan har xil qonun-qoidalarga bo'ysunadi. Masalan, daryodan o'tish uchun avval undan ruxsat so'rash kerak, ovchi otgan tosh nishonga tegishi uchun avval tosh bilan kelishish yoki uni o'z xohish-irodasiga bo'ysundirish lozim, aks holda tosh hech qachon nishonga tegmaydi. Daryo, tosh, tog', bulut – bularning hammasi jonli mavjudotlar yoki ularning ko'rinishlari va ularning barchasiga jonli mavjudotlar sifatida yondashish: so'rash, tahdid qilish, jalb etish, xizmat qilish kerak. Insonga ta'sir o'tkazish uchun bu odam nimadan qo'rqishi va nimani yaxshi ko'rishini, u nimaga sajda qilishi va nimani yomon ko'rishini bilish lozim, shunda unga yaxshi ko'rgan narsasini taklif qilish yoki qo'rqadigan narsasi bilan qo'rqitish, bu odamga ta'sir o'tkazishga harakat qilish mumkin. Ayni shu harakatlar har qanday dunyoda yashaydigan barcha tirik jonzotlarga nisbatan ham o'rinlidir. Hatto odamlar va boshqa mohiyatlarni boshqaruvchi qonunlar ham tirik mavjudotlarning alohida turi bo'lib, ular bilan ham yo til topish, yo ular ustidan g'alaba qozonishga harakat qilish mumkin. Butun dunyo – rang-barang mavjudotlar o'z maqsadlariga erishishga harakat qiladigan katta jang va kurash maydonidir. Ularning barchasi dunyoning buyuk Qonuni (Qismat)ga bo'ysunadi, biroq bu Qonunning o'zi ko'p sonli kichik qonun-taqdirlarga bo'linadi, ya'ni har bir mavjudotning o'z qonuni - taqdiri bo'ladi. Qonun-taqdir har kimni muayyan yo'lga boshlaydi va har kim o'z Qismatiga bo'ysunadi. Bu hol toki mavjudot o'z taqdiridan yuksalguniga yoki uni yenggunga qadar davom etadi.

Mifologiyada dunyoning mazmuni o'z Qismatini yengishdan iborat bo'lib, bu yerda ikki yo'l bor. Birinchi yo'l juda uzoq va ko'pchilik uchun mo'ljallangan bo'lib bu o'z taqdiriga to'la bo'ysunish va uning barcha talablarini bajarish orqali uni yengish yo'lidir. Boshqa yo'l qisqa bo'lib, undan kamdan-kam odam borishi mumkin – bu o'z

taqdirini yengib, yangi. oliyroq taqdirga sazovor bo'ladigan va shu zahoti u bilan ham jangga kirishadigan qahramon yo'lidir. Mifologiyada aql-idrok va tasavvur ayniydir. Tushunchalardan xoli aql-zakovat emotsiyalar hukmi ostiga tushib qoladi. Shu sababli dunyoning mifologik manzarasida biron-bir fikrni empirik darajada tekshirish mumkin emas, tabiat hodisalari esa tirik mavjudotning xatti-harakatlariga qiyosan idrok etiladi.

Mifda ota, oqsoqol hukmi va qaror topgan an'analar muhim rol o'ynaydi. Rivoyat va uning mazmuniga nisbatan bunday munosabat zamirida e'tiqod, borliqni bevosita, emotsional idrok etish yotadi. Mifologik dunyoqarash dunyoni yaxlit tushunish bo'lib, unda shubhaga o'rin yo'qdir. Masalan, Zoroastrizm mifologiyasida dunyo yaxshilik xudosi Axuramazda va yomonlik xudosi Ahrimanning doimiy ziddiyatida rivojlanadi. Maya qabilalari miflarida Ketsalkoatl Xudosi dunyoning yaratuvchisi. Vikinglar mifologiyasida dunyoning paydo bo'lishi asosida olov va muzlikning to'qnashishi g'oyasi yotadi. To'qnashuv oqibatida Ivir xudosi paydo bo'lib, uning sochlaridan o'simlik dunyosi, tomiridagi qondan daryo va dengiz suvlari, qovirg'asidan ayol, mushaklaridan erkak paydo bo'lgan. (Bu hozirgi davrdagi olamning yaralishiga oid katta portlash g'oyasi bilan ayniy). Vikinglar mifologiyasi ham ko'p xudolilikka asoslangan.

Qadimgi Misrning borliq suvli xaosdan bino bo'lgani haqida hikoya qiluvchi kosmogonik miflarida ham zoomorfizm izlariga duch kelish mumkin. Unda Xudo u yoki bu hayvon shakl-shamoyilida gavalantirilgan. Donishmandlik Xudosi – Tot Ibis obrazi (issiq mamlatlarda yashaydigan, laylakka o'xshash uzun oyoq qush) bilan bog'langan, boshi va tumshug'i qushnikiga o'xshash odam qiyofasida tasvirlangan. Bu yerda xudoning zoomorf alomatlari antropomorf belgilar bilan birikkan.

Osmon butun tanasi yulduzlar bilan qoplangan sigir sifatida tasavvur qilingan. Ba'zan u yoy kabi egilib, qo'llari va oyoqlarining barmoqlari bilan yerni tutib turgan iloha - Nut obrazi bilan ayniylashtirishgan. Butun Misrda e'zozlangan mashhur xudolar to'qqizligi – enneada mavjud bo'lgan. Quyosh xudosi - Ra xaosdan bino bo'lgan Nun bilan ayniylashtirilgan xudo Atum o'z urug'ini yutib, o'zini o'zi urug'lantirgan va so'ng tupurib, dastlabki xudolar – Shu (havo xudosi) va Tefnut (namlik ilohasi)dan iborat juftni yaratgan. Ulardan ikkinchi juftlik – yer xudosi Geb va osmon ilohasi



Nut tug'ilgan. Ulardan Isida va Neftida, Osiris va Set dunyoga kelgan. Misr mifologiyasida Osiris – tabiatning unumdor kuchlari xudosi va marhumlar dunyosining podshosi. Plutarxning aytishicha, Osiris odamlarni yovvoyi turmush tarzidan chiqargan, ular odamxo'rlik odatini unutishlariga ko'maklashgan, ularga don ekish, uzumzor bog' barpo etish, non yopish, bo'za va sharob pishirishni o'rgatgan. Bundan tashqari u odamlarga qurilish ishi va tabobat mahoratidan ham saboq bergan.

Qadimgi Misr mifologiyasi monistik yoki plyuralistik xususiyatga ega. Chunki misrliklar oliy Mavjudot va Yaratuvchi sifatidagi Xudo bilan bir qatorda xudolar yoki ilohalarning tilga olinishida biron-bir ziddiyat ko'rmaganlar. Oliy Mavjudot va Yaratuvchi sifatida Quyosh xudosi Ra amal qilgan, unga misrliklar ilk tarixiy davrdayoq sig'inganlar. Bunda chiqayotgan Quyosh – Xepera, choshgohdagi Quyosh – Ra botayotgan Quyosh Atmu deb atalgan. Bular Quyosh xudosining uch siymosi hisoblangan. Ammo deyarli har bir qishloq yoki shahar aholisining ham o'zi yoqtirgan xudolari mavjud bo'lgan. Ba'zan odamlar ulardan yuz o'girganlar va natijada ikkinchi darajali xudolar oliy xudolarga aylanishlari mumkin bo'lgan. Goho bir xudo atributlari boshqa xudoning atributlari bilan qorishib ketgan. Mahalliy xudolar panteoni o'zgaruvchan bo'lgan. Mahalliy, oilaviy, milliy xudolardan tashqari unga tabiiy stixiyalar – daryolar, tog'lar, yer va osmon xudolari kirgan. Tadqiqotchilar xudolarning mazkur rangbarangligini tushuntirishga harakat qilar ekanlar, qadimgi Misrda bir nechta yirik teologik markazlar mavjud bo'lgani va ularning kohinlari aynan o'z xudolarini madh etish va ularning ustunligi g'oyasini ilgari surish bilan shug'ullanganlar, deb taxmin qiladilar.

Shuni qayd etib o'tish lozimki, Tot xudosi mashhur to'qqizlik – enneadaga kirmaydi, zero u, donishmandlik, yozuv va hisob xudosi sifatida, tabiiy xususiyatlarni emas, balki ma'naviy fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Uni «xudolar mirzasi» va «Ustalar Ustasi» deb ataganlar. Qadimgi Misr mifologiyasida Xudo Tot narigi dunyodagi savol-javob jarayonida namoyon bo'ladi. Bu jarayon tavsifiga «Marhumlar kitobi»ning 125-bobi bag'ishlangan. Shu narsa diqqatga sazovorki, hamma ishning narigi dunyoda javobi borligiga bo'lgan ishonch insonning tiriklik paytidagi faoliyati va qilmishlari uchun kuchli motiv sifatida amal qilgan. Qadimgi manbalarda misrliklar o'lgandan keyin narigi dunyoda qattiq savol-javob bo'lishini

kutganlar. Bunda ularning mayiti mo'miyolashtirilgan va daxmaga joylashtirilgan. Narigi dunyoda so'roqqa tutishni Osiris amalga oshirgan. Bunda eng avvalo psixostasiya, ya'ni marhumning yuragini tarozida o'lchash amalga oshirilgan. Tarozining bir pallasiga yurak, ikkinchisiga esa – haqiqat (yoki adolat) toshi (timsoli – iloha Maat) qo'yilgan. Agar tarozining ikki pallası teng kelsa, marhum oqlangan. Donishmandlik xudosi – Tot tarozida o'lchash natijasini qayd etgan. Marhumni oqlash «Marhumlar kitobi»ning 125-bobida bayon etilgan «Rad etuvchi istig'for» vositasida amalga oshirilgan. Unda marhum sodir etmagan gunohlar ro'yxati keltirilgan. Qadimgi Misming o'ziga xos axloq kodeksi sanalgan «Rad etuvchi istig'for» marhum o'z yuragi tarozida o'lchanishi va hukm chiqarilishidan oldin talaffuz qilishi lozim bo'lgan 42 qoidani o'z ichiga oladi. Bu qoidalarning aksariyati hozirgi zamon odami uchun ham ibratlidir. Yuragi yengil tosh bosgan marhumning boshi esa kundaga qo'yilgan va uni gippopotam tishlab tanasidan judo qilgan. Yomon ruhlar «ikki marta o'lganlar» deb atalgan. Demak, haqiqiy iblislar misrliklarga ma'lum bo'lmagan. Ular xudo Set va uning yo'ldoshlari kabi yovuz kuchlarga, shuningdek hali yerda daydib yurgan «ikki marta o'lganlar»ga qarshi kurashganlar.

Qadimgi misrliklarning xudolarga murojaat etish usuli ham diqqatga sazovordir. Bu usul keyinchalik teurgiya, ya'ni xudolarga buyruq berish yoki hatto ularga tahdid qilish sifatida tavsiflangan. Bunday afsunlar vositasida xudolarga iltijo qilmaganlar, balki ularga amr etganlar, ulardan yordam talab qilganlar. Ba'zan xudolarni yordamga chaqirmaganlar, balki xavf-xatarga nari ketishni buyurganlar va shu tariqa o'zlarini xudo o'lmiga qo'yganlar.

Qadimgi Hindiston mifologiyasining asosiy manbasi Rigvedalar Mandallarining 10 ta kitobi va mingdan ortiq gimnlardan iborat bo'lib, u dunyoning paydo bo'lishi haqidagi kosmogonik g'oyalarga asoslanadi (R.Vdadan tashqari yana uchta vedalar: Samaveda, Yadjurveda. Atxarvedalar bor). Unga ko'ra, olam o'zida hayot urug'iga ega bo'lgan suvdan tashkil topgan. Dastlab olamda na osmon va yer, na kun va tun, yaxshilik va yomonlik, erkak va ayol bo'lmagan. Bunday holat qorong'ilik deb nomlangan va undan yakka narsalar paydo bo'lgan. Rigvedaning boshqa gimnlarida olamdan tashqaridagi olamda Indra xudosi paydo bo'lgan, u olamga yorug'lik va qorong'ilik, yaxshilik va yomonlik, hayot va o'limni teng kuchli

qilib olib kirgan. Boshqa mifida Indra suzayotgan tepalikni (tepalik yer ma`nosida) yondirgan va suv ustida suzishda davom etgan. Bu jarayonda Indra Vritru ajdahosining qarshiligini bostirgan va natijada suzayotgan tepalik – (er)dan suv va olov birligidagi hayot paydo bo`lgan, bu yerda suv to`rtta daryo, olov esa quyoshdir. Tepalik asta-sekinlik bilan kattalashib yer shaklini egallagan. Keyin Indra osmonni ko`tarib uni ustun bilan suyagan, shu orqali dunyo daraxti paydo bo`ladi. U osmon va yerni bir-biridan ajratgan va murosaga keltirgan. Dunyoning paydo bo`lishi yangi g`oyalar bilan to`ldiriladi. Xususan, olam xudolar bilan to`ldirilgan va muayyan bosqichda o`z o`rnini tepalikdan paydo bo`lgan devlarga bo`shatib bergan. Asuralardan biri devlar tomonga o`tib u dunyo va bu dunyo oralig`ida vositachiga aylangan va h.k.

Qadimgi yunon mifologiyasiga ko`ra olam dastlab cheksiz, qorong`i kaosdan iborat. Xaosdan yer xudosi Geya paydo bo`lgan. U o`z bag`ridagi barcha narsalarning hayot manbai. Yerdan juda uzoqda osmon va cheksiz chuqurlikda abadiy zulmat hukmdori Tartar paydo bo`lgan. Xaosdan hayot va muhabbat manbai Eros paydo bo`lgan. Shu tartibda dunyoda hayot paydo bo`lgan. Cheksiz kaos abadiy zulmat - Erebn va tun - Nyuktuni yaratdi. Tun va zulmatdan abadiy yorug`lik - Efir va yorug` - kun Gemera paydo bo`lgan. Yorug`lik olamda teng tarqalgan va shu tariqa, tun va kun doimiy almashgan. Yer cheksiz osmon Uranni yaratgan va u yer uzra tarqalgan. Uning yonida tog`lar va sarqash dengiz paydo bo`lgan. Barcha narsalarni osmon, tog`lar va dengizlarni ona Yer yaratgan. Biroq ularning otasi bo`lmagan. Osmon-Uran dunyoni egallagan va u Yer-Geyaga uylangan. Uran va Geyaning olti o`g`li va olti qizi bo`lgan. Ularning o`g`li titan Okean va xudo Fetida o`z suvlarini dengizga quyuvchi daryolarni va okeanidlarni yaratganlar. Titan Gepperiod va Teyya dunyoga Quyosh-Geliosni Oy-Selenni va qirmizi ufq Eosni keltirganlar. Astreya va Eosdan qorong`i osmon yulduzlari va shamollar paydo bo`lgan Titanlardan tashqari Geya uchta bir ko`zli sikloplarni va yuzqo`lli gekatonxeyralarni dunyoga keltirgan. Ularning kuchiga hech narsa teng kela olmagan. Uran o`z farzandlarini yomon ko`rib qolgan va ularni yer qa`ridagi zulmatga qamab qo`ygan. Ona Yer - Geya farzandlarining iztiroblariga chiday olmagan, shuning uchun o`g`illarini otasining qaroriga qarshi is`yon ko`tarishga da`vat qilgan, biroq farzandlar otasiga qo`l ko`tarishga qo`rqgan. Biroq eng kichik farzandi

Kron ayyorlik bilan o'z otasini taxtdan ag'dargan. Kronning harakati-dan g'azablangan Tun xudosi, O'lim –Tanatani, Erida-nifoqni, Apadu-yolg'onni, Ker-talon-tarojlikni, Gipnosturli qo'rqinchli tushlarni, Nemesida-turli jinoyatlar uchun qasosni va shu kabi yomonliklarni o'zida namoyon qiluvchi xudolarni dunyoga keltirgan. Shu tariqada hozirgi kungacha dunyoda yaxshilik va yomonlikning abadiy kurashi xukmronligi davom etmoqda.

Mifologik dunyoqarashda – odamlar o'z dunyolarida yashaydigan va boshqa dunyolarni boshqaradigan ayrim oliy mavjudotlar sifatida qaraladi. Bu xudolar orasida biron-bir eng katta va eng qudratli xudo, masalan, antik mifologiyada Zevs mavjud bo'lishi mumkin, biroq hatto shu xudo ham faqat o'ziga teng xudolar orasida birinchi-dir. Uni istalgan paytda taxtdan «ag'darish»ga harakat qilish va oliy hokimiyatni boshqa xudo egallashi mumkin. Masalan, Zevs bir paytlar o'z otasi – xudo Kronosni taxtdan ag'dargan, Kronos esa o'z otasi Uranni taxtdan ag'dargan. shuning uchun Zevsning o'zi ham kimdir uning hokimiyatini egallashga harakat qilmasligi uchun sergak bo'lishiga to'g'ri kelgan. Shu sababli, hatto eng katta xudo mavjud bo'lsa ham, dunyoning mifologik manzarasida doim dunyoni boshqarishga ko'p sonli nomzodlar mavjud bo'ladi. Hatto eng katta xudolar ham Qismat hukmi ostida bo'lsalar-da, Qismatning o'zi ham nimalardadir shu xudolarga bo'ysunadi.

Dunyoning vujudga kelishini ta'riflar ekanlar qadimgi yunon mifologiyasi ham cheksiz xaos g'oyasiga tayanadi. Mifologiya faqat qadimgi odamlar dunyoqarashigina emas, balki kundalik ongda yashaydigan din, falsafa, siyosat, san'atda aniq-ravshan yoki yashirin ko'rinishda mavjud bo'lgan miflar bugungi kunda ham (kim uchundir ko'proq, kim uchundir kamroq darajada) odamlar hayoti va ijodida faol rol o'ynab, har qanday inson dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi jadal sur'atlarda o'sib borayotgan sharoitda mif –ijtimoiy tarmoqlar, televidenie, radio, vaqtlilik matbuot, hozirgi saylov texnologiyalari vositasida ba'zan ijtimoiy ong bilan manipulyatsiya qilish, oldindan belgilangan jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida qo'llanilmoqda.

Diniy dunyoqarash- dunyoni mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan oliy mavjudot, Xudo boshqaradi degan tasavvurga asoslanadi va shu bilan mifologik dunyoqarashdan farq qiladi. (Din so'zi arabchadan tarjimada e'tiqod, ishonch, ishonmoq degan ma'nolarni anglatadi.)

Agar mifologiyada an'anaga, rivoyat qiluvchining, ya'ni oqsoqolning obro'siga e'tiqod kuchli bo'lsa, dinda g'ayritabiiy narsalarga e'tiqod birinchi o'rinda turadi, oliy kuchlar nomidan rivoyat qiluvchi ruhoniylar obro'si esa ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Xudo boqiy va shak-shubhasizdir, u hamma narsani – makon va vaqt, materiya, barcha tirik jonzotlarni yaratgan. Xudo barcha yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan va hamma narsaga qodir. U dunyoni yaxshi ishlar uchun yaratgan, biroq U dunyoga erkinlik ham bergan, yaxshilikka har kim zo'rlik ostida emas, balki o'z ixtiyoriga ko'ra kelishiga imkoniyat yaratgan. Ammo erkinlik xatolarga, yomonlikka olib kelishi ham mumkin. Bunda yomonlikning yuz berish ehtimoli erkinlik uchun to'lanadigan haq sifatida qaraladi. Shu sababli Xudo erkinlikka erishish yo'lida yomonlikka ham izn beradi.

Xudo materiyanı, son sanoqsiz jonsiz moddalar va tirik mavjudotlarni yaratadi. Inson dunyoning markazida turadi – olamda insondan tubanroq mavjudotlar -hayvonlar, o'simliklar, ayni vaqtda insondan yuksakroq mavjudotlar farishtalar ham bor. Biroq barcha mavjudotlar orasida Xudoning tabiatini eng to'liq aks ettiradigan jonzot insondir. Vaqti kelib odamzot dunyoda yaratilgan barcha mavjudotlardan yuksakroqqa ko'tarilishi mumkin. Dunyoda mavjud barcha qonunlar pirovard natijada Xudo xohish-irodasining ifodasidir. Yomonlik – bu mazkur xohish-irodani buzish va ayni vaqtda uni bajarishdir, chunki hech kim va hech narsa Xudoning xohish-irodasiga qarshi borishi mumkin emas. Dunyoda oliy qonun – muhabbat qonuni mavjud. Dunyoda hamma narsani muhabbat harakatga keltiradi, hattoki nafrat ham muhabbatga tashnalikning oqibatidir.

Diniy dunyoqarashda dunyoning maqsad va mazmuni – hammaning hammaga nisbatan umumiy muhabbatiga erishish, biroq bunga yo'l erkinlik harida yomonlik imkoniyati orqali o'tadi. Xudo muhabbat va yaxshilikka majburlov yo'li bilan erishishni xohlamaydi. U Ilohiy muhabbatni hayotning birdan-bir to'g'ri qonuni sifatida o'zi anglab yetishi uchun dunyoga erkinlik bergan. Dunyo buni anglab yetgunga qadar maqsaddan ko'p sonli chetga chiqishlar yuz berishi mumkin. Inson hayotining mazmuni – Xudoning xohish-irodasini erkin qabul qilish, o'zidagi muhabbat bilan mushtarak bo'lmagan ko'r-ko'rona erkinlikni yengish, erkinlik bilan Xudoning muhabbatini o'zida birlashtirishdan iborat.

Diniy dunyoqarash odamlarning diniy tajribasini umumlashtirish va sintez qilish natijasida yuzaga keladigan tabiatning umumiy xossalari va qonuniyatlari haqidagi tasavvurlarning yaxlit tizimini tashkil etadi. Diniy dunyoqarash o'zicha borliq va mavjudlikni, ya'ni yaratilgani tufayli borliqqa ega bo'lgan dunyoni farqlashdan kelib chiqadi. Bu farq mazkur yondashuvni tushunish uchun muhimdir.

Diniy dunyoqarash ikki yoqlama, ya'ni dual xususiyatga ega, chunki u Xudo bilan ayniy bo'lgan mutlaq, g'ayritabiiy borliqni tabiiy narsalar bolig'iga qo'yadi. Mohiyat e'tibori bilan, bu manzara bir-biridan mutlaqo farq qiladigan ikki ontologiya: yaratilmagan borliq va yaratilgan borliqni nazarda tutadi. Mutlaq borliqni oqilona yo'l bilan tushunish mumkin emas. Dunyoni o'ziga xos jarayon sifatida idrok etuvchi odam aqlning imkoniyatlari cheksiz.

Dunyoning alohida diniy manzarasidan kelib chiqib, uni uch jahon dini: buddizm, xristianlik va islomga tathiqan ko'rib chiqamiz. Buddaviylik dini dunyoqarashiga ko'ra borliq cheksiz aylanma oqim mahsulidir. Buddizm mutafakkirlari bu jarayon o'limdan o'limga, qiynoqdan qiynoqqa, sinovdan sinovga solinuvchi inson uchun cheksiz darajada uqubatlidir.

Hayotning azob-uqubatlarga to'laligi haqidagi fikrdan ta'sirlangan Buddha o'zgarish konsepsiyasini ta'riflaydi. Hayot- vujudga kelish, shakllanish va yo'q bo'lish qatoridan iboratdir. Dunyo o'lish va tug'ilishning mutasil yangilanuvchi aylanma harakatidir. Hamma narsalar o'zgaradi. Ilohiy narsalar orasida ham, dunyoviy narsalar orasida ham o'zgarmas narsa mavjud emasligiga Buddha tarafdorlarining ishonchi komil. Buddha uchun olov shakllanishning cheksiz oqimi ramzidir. Dunyo – yuz beruvchi va yo'qoluvchi o'tkinchi karma bilan bog'langan voqealar oqimi. Faqat harakat mavjud; arboblar mavjud emas, qilmish mavjud; shakllanishdan boshqa hech narsa mavjud emas.

O'zgarmas substrat mavjud bo'lmagan holda dunyoning uzluksiz mavjudligini tushuntirish uchun Buddha sababiyat qonunini e'lon qiladi va uni uzluksizlikning asosiga aylantiradi. Mavjud hamma narsalar sabablar va shartlardan yuzaga keladi va barcha jihatlardan o'zgarmas hisoblanadi. Sababli narsalarning hammasi halok bo'lishi lozim. Dunyoga keluvchi va uyushuvchi narsalarning barchasida yo'q bo'lish va tug'ma zaruratga mujassamdir. Har qanday substantsiya cheklangan bo'lib, uning mavjudligi o'zgarishlarning o'zgarmas ket-

ma-ketligidan iboratdir. Bu o'zgarishlarning har biri oldingi shartlar bilan belgilanadi. O'tgan lahzalar oqimga tortiladi. Sababiy evolyutsiyaga harakatlarning mexanik ketma-ketligi sifatida qaralishi mumkin emas. Bu o'tmish hozirni belgilovchi yagona holatdir.

Buddizmda sababiyat – o'tmish hozirning taqdirini belgilashiga ishonch kuchli. Hatto ruhsiz olanning oddiy mexanizmida ham u boqiy koinot qonunini ko'radi. Bu rejasiz ulkan labirintdir. Koinot tartibining g'ildiragi yaratuvchisiz, muayyan asossiz harakatlanadi va sabab-oqibatlarining bog'lanishi natijasida abadiy mavjud bo'ladi. Buddizm muhim savol qo'yadi: bu uzluksiz harakatni qanday qilib chetlab o'tish mumkin? degan savol qo'yadi. Buddizm bu dunyo va harakatni kim yaratgan, degan savolni muhim emas deb hisoblaydi va unga javob berishdan bo'yin tovlaydi. Uning tarafdorlari narsalar o'zgarishini, dunyoda borliq yo'qligi, faqat shakllanish mavjudligini tan oladilar. Narsalar borlig'iga Buddaning befarqligi shu bilan izohlanadi. In-son narsalarga haddan tashqari kuchli bog'langani uchun ham azob chekadi. Inson narsalardan butunlay uzoqlashishi, azob-uqubatlarga giriftor qiluvchi o'tkinchilik va o'zgaruvchanlikka o'rin bo'lmagan holatni izlashi lozim. Inson to'la osoyishtalik va xotirjamlikka faqat nirvana holatida erishishi mumkin. Nirvana so'zi «nirva» - puflash, o'chirish (olovni) fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, sifat tariqasida kelganda «g'oyib bo'lgan», «o'lgan», «barham topgan» degan ma'noni, ot bo'lib kelganda «g'oyib bo'lish», «intiho», «mavjudlikning tugashi», «lazzat», «abadiy osoyishtalik» va nihoyat, qayta tug'ilishning muqarrarligidan qutulish degan ma'noni anglatadi. Nirvanaga erishish osmonga yetishdan yuqoriroqdir, bu mislsiz osoyishtalik holatidir. Nirvana sababsizdir, biroq nirvanaga erishishning yo'li, sakkiz o'lchovli yo'li bor. Nirvanaga sof aqlli, hissiy lazatlanishlardan ozod odam erishadi. Shunday qilib, buddizm karmni, shakl-shamoyilning o'zgarish qonunini yengishning o'ziga xos axloqiy-kosmik vertikal shakllanadi. Insonning erkin ruhiy faolligi ijodiy asos hisoblanadi. Faol shaxs e'tiborga loyiq birdan-bir borliq sifatida talqin qilinadi.

Buddizm, bir tomondan, xudolar ham karma oqimida harakatlanadi, boshqa tomondan esa – odamlarga xudo xaloskor sifatida kerak emas, degan xulosa chiqariladi. Buddizm Xudo va dunyo dualizmi mavjud emas. O'zining rivojlanish jarayonida buddizm oliy ma'naviy asosni tan oladi. Nirvana Buddha bilan tenglashtiriladi. Bud-

da axloqiy ideal ramzidan uning shaxsiy tajassuniga, diniy emotsiyalar ob'ektiga aylanadi. Nirvananing kosmik jihati bilan bir vaqtda Buddaning kosmik konsepsiyasi yuzaga keladi. Buddaga sig'inish e'tiqod qiluvchi hayotining oila-nikoh munosabatlaridan boshlab umumiy davlat bayramlarigacha bo'lgan barcha tomonlarini qamrab oladi.

O'zi taklif qilgan panoh topish yo'lining universalligi bilan buddizm diniy tasavvurlarning sezilarli darajada demokratiyalashuviga sabab bo'ldi. Buddizm yaxshi fazilatlik shartlari tashqi narsalarga bog'liq emas. Insonning kimligi – boy yoki kambag'alligi ahamiyatsiz. Hamma barkamoldir. Faqat halol, to'g'ri hayotgina muhimdir. Buddizm vujudga kelgani zahoti barcha odamlar qaysi tabaqaga mansubligidan qat'iy nazar teng ekanligini e'lon qilib, tabaqaviy tuzum muxolifiga aylandi. Biroq shaxsning mutlaq erkinligi buddizmning eng muhim tamoyili hisoblangani bois, u insonning dunyo bilan barcha aloqalariga, shu jumladan ijtimoiy-siyosiy aloqalariga ham yomonlik deb qarab, amalda mavjudlik tizginlaridan xalos bo'lishni talab qilmaydi. Dunyoviy narsalardan butunlay uzoqlashish ideali Buddaning eng mutaassib izdoshlarini ijtimoiy tartiblarni takomillashtirishdan voz kechishga olib keladi.

Xristian ilohiyoti Xudoning notabiiy va shaxsiy xususiyati u iroda va qudrat kabi kategoriyalar yordamida qaralishini nazarda tutadi va transsendental Xudo haqidagi ta'limoti bilan teotsentrizmda o'z ifodasini topadi. Bundan xristian kreasionizmining dunyo zarurat taqozosiga ko'ra emas, balki Xudoning erkin irodasiga ko'ra yaratilgan, degan muhim qoidasi kelib chiqadi. Yaralish Xudo tabiatining emas, balki irodasining amalidir. Shunga ko'ra u tabiatdan ajraladi va uning sababiy omillaridan uzoqlashadi. Xudo dunyoni nima uchun yaratgan, deb so'rash mantiqsizdir. Xudoning erkin irodasi Uning aqli, irodasi va yaxshi niyati bilan muvofiqlashadi. Shulardan kelib chiqib Xudo dunyoni yaratadi. Dunyo yaratilgunga qadar Xudodan boshqa hech narsa bo'lmagan. Binobarin, u dunyoni «yo'qlik»dan yaratgan. Biroq «yo'qlik» qandaydir ijobiy narsa emas; u sof yo'qlikdir. Yaratilgan narsalarda nimaiki «mavjud» bo'lsa, hammasi Xudodandir. Yetishmagan, «yo'q» bo'lgan barcha narsalar «yo'qlik»dir. Dunyoda shakl, go'zallik va birlikning sababi Yaratguvchidir. Shaklning beqarorligi, birlik va go'zallikning noto'liqligi Xudodan ayrilganlik-



dandir. Yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy narsalarga «o'tkinchilik» muhri bosilgan.

Xudo dunyoni yaratgan ekan, nafaqat olamning umumiy tamoyillarini, balki har bir ayrim narsaning taqdirini oldindan biladi va belgilaydi. Yaratish uchun mo'ljallangan narsaning ilohiy g'oyasi uning to'la individual tushunchasi bo'lib, unda narsaning o'tmishi va kelajagi hozirda berilgandir. Ilohiy niyatda barcha g'oyalar mutlaqo mushtarakdir. Yaratiluvchi narsalar uchun g'oyalar ulami yaratish andozalari, ularning borlig'i asoslari va sabablari sifatida amal qiladi. Yaratilgan olam tartibi uni yaratgan hikmatning tartibini aks ettiradi: narsalar tartibi g'oyalar tartibining in'ikosidir. Tartib tufayli dunyo o'z o'rinlari bo'ylab taqsimlangan va har xil nisbiy qimmatga ega bo'lgan mavjudotlarning tartibga solingan ierarxiyasiga(ketma-ketlik) aylanadi. Yaratilgan narsa Xudoga qancha yaqin bo'lsa, u shuncha ko'proq qimmat kasb etadi. «Zero qandaydir tarzda mavjud bo'lgan, biroq uni yaratgan Xudo uchun bo'lmagan narsalar qatorida jonli jonsizdan yuqoriroq. Tirik mavjudotlar orasida esa sezuvchilar sezmaydiganlardan ustun turadi, xuddi, masalan, hayvonlar o'simliklardan ustun turganidek. Sezuvchilar orasida esa aqllilar aqlsizlardan ustun turadi, xuddi odamlar tabiat tartibiga ko'ra boshqa jonzotlardan ustun turganidek», deb yozadi Avgustin. Shunday qilib, ilohiy tartib dunyosi xristianlikda Xudo yaratgan jonzotlarning yuksalib boruvchi zinapoyasidan iboratdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kreatsionizm xristian ilohiyotchilarini dunyoda tartib, uyg'unlik va go'zallikni ko'rishga da'vat etgan. Biroq insonga dunyoda ko'p narsalar aqlga nomuvofiq bo'lib ko'rinadi. Dunyoda tartibsizlik va yomonlikning mavjudligi uchun Xudoni qanday oqlash mumkin? Bu muammo sof nazariy xususiyat kasb etmagan. Taqvodor xristianlar dunyoviy va ilohiy dunyo o'rtasida tubsiz jarlikni his etganlar. Shu bois, Xudoni oqlash masalalariga xristianlik ko'p e'tibor beradi. U Xudoni oqlashning ikki yo'lini taklif qiladi. Birinchi yo'l – metafizik teoditsey. Garchi dunyoni barkamol Xudo yaratgan bo'lsa-da, u insonni erkin qilib yaratgan; yomonlik jonzotning shu erkinligidan kelib chiqadi. Yomonlik va nuqson Xudodan emas, balki jonzotdandir.

Ikkinchi yo'l – estetik teoditsey dunyo va insonni, dunyoning barkamolligi va inson idrokining nomukammalligini qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Ilohiyotchi olimlar fikriga ko'ra, inson dunyoda

yaxlitlikni qamrab olishga qodir emasligi tufayli tartibsizlik va yomonlikni ko'radi. Rang-barang bo'yoqlarga boy suratning bir qis-miga nazar tashlab, uning go'zalligi va ma'nosi haqida hukm chiqarish mumkin bo'lmaganidek, ayrim voqealar va tasodiflarga baho berib dunyoni tushunish mumkin emas. Hatto bazida yomonlik bo'lib tuyulgan narsa ham amalda, ya'ni insonning foydasiga xizmat qilishi mumkin.

Estetik teoditseya tabiiy tartib g'oyasiga tayanadi. Eng o'ziga xos va g'ayrioddiy voqealar tizim nuqtayi nazaridan tabiiy xususiyat kasb etadi. Xudo yaratgan narsalarning birortasi ham tabiatga zid emas, chunki tabiatni o'zi yaratgan. Faqat mavjudligini tabiiy deb e'tirof etuvchi dunyo va insonning yaratilishini chin mo'jiza deb hisoblash mumkin.

Xristiancha diniy dunyoqarash tabiatda yuz beruvchi barcha narsalarning tabiiyligi ilohiy g'oyalarning azaliy muvofiqligi bilan izohlanadi. Yaratilgan tabiat o'z qonunlarini Xudodan oladi. Shu ma'noda tabiat qonunlarining buzilishi ilohiy hukmning buzilishini anglatadi.

Xudo dunyoni uzluksiz boshqaradi, degan qoida xristiancha diniy dunyoqarashning universal tamoyili hisoblanadi. Kosmologiya-ga nisbatan tatbiq etilgan holda bu tamoyil dunyoning uyg'unligi va unda yuz berayotgan voqealarning anglab yetilganligi g'oyasiga olib keladi. Inson hayoti iloh bilan muvofiqlikdagina, insoniyat tarixi esa – ilohiy panoh belgisi ostidagina ma'no kasb etadi.

Shu tariqa monoteizm (yakkaxudolik)ning ko'rinishi islom paydo bo'ldi.

Islom dini madaniy-tarixiy rivojlanishda keyinchalik avvalgi «dialektik» asoslarga qaytib, aristotelizmga ham, so'fizmgga ham erishgan.

Islom dinining o'ziga xosligi to'g'risida so'z yuritishdan oldin uni xristianlik bilan bog'lovchi jihatlariga to'xtalib o'tish o'rinli bo'la-di. Islom arablar tomonidan xristian dinining monoteizm yoki yakka-xudolik g'oyasining qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan. U yagona transtsendent Allohga e'tiqod qiladi. Alloh dunyo va insonni yaratgan, odamlarga vahiy yuborgan, dunyoni tasarruf etadi va unga qiyomat sari yo'l ko'rsatadi. Qiyomatda tiriklar ham, tirilganlar ham o'z qilmishlari uchun javob beradi.

Islom va xristianlik o'rtasidagi farq - bu ikki din asoschilarining so'zlari va qilmishlaridagi farqlardir. Xristianlik asoschisi Iso Masih muvaffaqiyatga erishmagan va «bandaga xos o'lim» bilan halok bo'lgan. Bu o'lim uning asosiy qilmishidir. Bu yerda aniq, tashqi muvaffaqiyat qancha kam bo'lsa, din asoschisining qilmishi - o'lim ustidan g'alaba, insoniyat gunohlarini yuvish, o'ziga e'tiqod qiluvchilarga boqiy hayot hadya etishning miqyosi shuncha keng bo'lishi lozim. Din asoschisi shaxsining miqyosi ham o'z shogirdlari ongida kengayib boradi. Bunday qilmish sodir etgan odam emas. U - Xudodir.

Muhammad payg'ambarning obrazi va qilmishlari Iso Masih qilmishlaridan ancha farq qiladi. Muhammad payg'ambar orqali Alloh taolo gapiradi. Biroq ayni vaqtda u oddiy hayot kechirgan «normal odam». Muhammad payg'ambar erishgan muvaffaqiyat uning aytganlari Alloh so'zlari ekanligi, Allohning o'zi unga yo'l ko'rsatganligining dalilidir. Muhammad payg'ambarning nutqi Iso Masih nutqidan farq qiladi. U faqat «vahiy»ni ifodalovchi sifatida gavdalangan Xudo emas, balki «Xudoning vositasi», payg'ambardir.

Din asoschilari hayotining har xilligi va vazifalarining har xil anglanishi ular yaratgan dinlardagi farqlarning asosiy elementlaridir. Din asoschilarining Xudo bilan munosabatlari va ularning vazifasi har xil anglanishi Xudo haqidagi tasavvurdagi farqlarni ham belgilaydi. Xristianlikda ham, islomda ham Xudo bir va yagonadir. Biroq xristianlikning monoteizmi chorcho'pga mixlangan odam - Xudo ekanligiga ishonch bilan uyg'unlashadi, bu Muqaddas uchlik haqidagi ta'limotda o'z aksini topadi.

Monoteizm Xudo va uning banda bilan munosabatlarida inson aqli anglay olmaydigan, unga zid bo'lgan va faqat e'tiqod predmetini tashkil etishi mumkin bo'lgan jumboq namoyon bo'ladi.

Islom monoteizmi - xristianlikdagi jumboqlardan xoli bo'lgan «sof» yakkaxudolikdir. Qur'oni karimda Allohning yagonaligi aniq qayd etilgan. Allohga teng jonzotlarning mavjudligini tan olish islomga qarshi eng katta jinoyatdir.

Xristianlik va islomda Xudo haqidagi har xil tasavvurlar insonga nisbatan har xil qarashlar bilan uzviy bog'liq. Xristianlikda insonni «Xudo o'ziga o'xshatib yaratgan», biroq Odam atoning dastlabki gunohi inson tabiatini «buzgan», natijada Xudo uni yuvish uchun qurbonlik keltirishga majbur bo'lgan.

Islomda Xudo insonni o'ziga o'xshatib yaratgan deb hisoblamaydi, biroq u odamni «buzuq» deb ham bilmaydi. Inson «buzuq» emas, balki zaifdir. Shu sababli u gunohlar uchun tavba qilishga emas, balki Xudoning yordami va yo'lboshchiligiga muhtojdir. Alloh Qur'oni karim orqali unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi.

Inson haqidagi tasavvurlarning har xil tizimlari axloqiy qadriyatlarning ham har xilligini nazarda tutadi. Xristianlik e'tiqodi insonga qattiq mehr qo'yib, uning uchun chorcho'pda azob-uqubatlarga dosh bergan Xudoga muhabbat bilan uzviy bog'liq. Islomda esa boshqacha e'tiqoddur. «Islom» so'zining o'zi bo'ysunish, itoat etish degan ma'noni anglatadi, biroq bu oddiy bo'ysunish, itoat etish emas, balki o'zini Alloh irodasiga topshirishdir. Bu yerda e'tiqod chorcho'pga mixlangan Xudo jumbog'iga ishonish emas, balki Allohning payg'ambar orqali Qur'onda berilgan ko'rsatmalarga bo'ysunishdir. Bu ko'rsatmalar odamlar uchun aniq va tushunarlidir. Ular oz sonli va og'ir bo'lmagan (shu sababli qat'iy bajarilishi lozim bo'lgan) ibodat qoidalari, nikoh va ajrashish, meros, jinoyat uchun jazo masalalariga doir huquqiy me'yorlarga tegishlidir. Diniy talablarning soddaligi islomning ilohiy belgilanganlik haqidagi fundamental g'oyasidan kelib chiqadi. Alloh o'z rejalariga muvofiq ish ko'radi va hamma narsani, hatto eng ahamiyatsiz voqealarni ham belgilaydi. Ilohiy qismatning muqarrarligi, insonning biron-bir amali o'z-o'zidan yuz bermasligi quyidagi misol bilan ko'rsatiladi.

Inson qalam bilan yozayotgan ekan, bu aslo uning amali emas, zero amalda Alloh bir vaqtning o'zida to'rt amal: 1) qalam bilan yozish istagi; 2) qalam bilan yozish qobiliyati; 3) qo'l harakati; 4) qalam harakatini yaratadi. Bu amallar bir-biri bilan bog'liq emas va ularning har biri zamirida Allohning cheksiz irodasi yotadi.

Islom dinining xususiyati dunyoning diniy modeli musulmonlarning ijtimoiy-siyosiy hayotidan mustahkam o'rin olishini nazarda tutadi. Bu tizim xristianlik tizimidan mustahkamroqdir. U yangi, nodiniy sivilizatsiyaga o'tish uchun zamin yaratmagani ayni shu holat bilan izohlanadi.

Umumiy holda diniy dunyoqarash odamlarning g'ayritabiiy narsalar (xudolar, «oliy aql», qandaydir absolyut va sh.k.)ga bo'lgan e'tiqodiga asoslanuvchi tegishli xulq-atvori va o'ziga xos harakatlaridir.

Xullas, din murakkab ma'naviy tuzilma va ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, unda e'tiqod muqarrar tarzda birinchi o'ringa qo'yiladi va hamisha bilimdan ustun turadi.

### **Dinning asosiy funktsiyalari va ildizlari**

Mif bilan taqqoslaganda, din funktsiyalari murakkabroqdir. Din funktsiyalari orasida quyidagilarni farqlash mumkin:

- dunyoqarashni shakllantirish funktsiyasi butun borliq qachon va nima uchun paydo bo'lgan va bunda g'ayritabiiy kuchning roli qanday namoyon bo'lgan, degan savollarga javob beradi;

- kommunikativ funktsiyasi muloqot va shaxslararo aloqalarning muayyan tipini ta'minlaydi, jamiyatning jipslashuvi va yaxlitligiga ko'maklashadi;

- hulq atvorni tartibga solish funktsiyasi odamlarning axloqini tartibga soluvchi tegishli me'yorlar va qoidalarni belgilaydi;

- kompensatorlik funktsiyasi yetishmayotgan axborot, diqqat-e'tibor, g'amxo'rlik o'mini to'ldiradi, hayot ma'nosi, istiqbollar va shu kabilarning yo'qligini sezdirmaydi, ya'ni insonning kundalik hayotda qondirilmagan ehtiyojlari o'mini to'ldiradi.

Din qonuniy hodisa sifatida vujudga kelgan bo'lib, u chuqur ildizlarga egadir.

Dinning psixologik ildizi avvalo inson tabiatida mavjud bo'lib, u inson intellektining rivojlanish darajasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatidan qat'iy nazar, nafaqat anglash, tushunish, balki e'tiqod qilish istagi va ehtiyojining hamisha namoyon bo'lishidir.

Dinning gnoscologik ildizlari oqilona bilim nuqtayi nazaridan dunyo o'z rang-barangligida insonga cheksiz murakkab bo'lib tuyulishida namoyon bo'ladi. Forobiy fikricha, "Din nazariy va amaliy qonunlar tuzilgan paytdagina odamlar e'tiqodi, ta'limi tarbiyasi yo'llari ishlab chiqilgandagina paydo bo'ladi va mustahkamlanadi. Ana shunday din tufayli omma baxt saodat uchun yetarli bilim olishi mumkin". Odamzot o'zini qurshagan borliqni faqat qisman anglab yetadi. Ayni shu sababli olam inson uchun sirlar va mo'jizalarga to'ladi. Odamzot o'zi e'tiqod qiladigan ko'p narsalarni faqat aqlga tayanib isbotlashga ham, rad etishga ham qodir bo'lmaganidek, yuqorida zikr etilgan sirlar va mo'jizalarga javob topishga ham (balki hozircha) qodir emas. Psixologlar qayd etganidek, «o'ta mushkul vazifa aqlni o'tmaslashtiradi», inson yechimsiz muammolar qarshi-

sida o'zini o'z his qiladi va aqlini uydirma, g'ayritabiiy narsalar bilan osongina to'ldiradi.

Dinning ijtimoiy ildizlari jamiyatda doimo mavjud bo'lgan tengsizlik, qashshoqlik va adolatsizlikni, odamlar qancha urinmasin o'zgartira yoki yenga olmaganligi bilan bog'liq. Adolatsizlik va foniy dunyoning nomukammalligi tuyg'usi chorasizlik va umidsizlikni yuzaga keltiradi, so'nggi zikr etilgan tuyg'ular osongina u dunyoda hayotning mavjudligiga bo'lgan ishonchga aylanadi. Vaholanki, har qanday din haqiqiy hayot u dunyodadir, deb o'rgatadi. Muammolar, qiyinchiliklarga duch kelgan va real hayotda o'ziga tayanch topa olmagan inson g'ayritabiiy kuchlarga umid bog'lab, narigi dunyoga murojaat etadi. Ularga e'tiqod qilib, odamzot taskin, tasalli topadi va oxir-oqibatda taqdirga tan beradi.

Dinning siyosiy ildizlari turli siyosiy kuchlarning dindan o'z mayda-chuyda manfaatlarida foydalanish imkoniyati va shu tariqa uni bevosita yoki bilvosita qo'llab-quvvatlashi orqali, uning jamiyatdagi roli va ta'sirini kuchaytirishida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda din va siyosat o'rtasida ham uzviy va doimiy aloqa mavjud.

Dinning yashovchanligi shu darajada mustahkamki, hatto hozirgi zamon fanining muhim yutuqlari ham uning negiziga putur yetkaza olgani yo'q, ilmiy bilimning o'sishi esa hatto olimlar orasida ham dindorlar va Xudoga ishonmaydiganlarning foiz nisbatini deyarli o'zgartirmaydi. Masalan, tabiatshunoslik insoniyatga dunyoni bilish borasida cheksiz imkoniyatlar yaratayotgani keng e'tirof etilgan 1916-yilda Jeyms Lyuba o'z tadqiqotlarida AQSh olimlarining 40% Xudoga ishonishini asoslagan. 90-yillarning oxirida amerikalik tarixchilar E.Larson va I.Uitxem tomonidan o'tkazilgan yangi tadqiqotlarda XX asrda amalga oshirilgan buyuk kashfiyotlar va fan yutuqlari ta'sirida olimlar dunyoqarashi qay darajada o'zgartirganini aniqlashga qaror qildilar. Shu bois ularning AQShda tasodifiy tanlangan ijtimoiy fanlar namoyandalari va tabiatshunoslik vakillari orasida o'tkazgan so'rovi olimlarning 40% avvalgidek Xudoga va narigi dunyoda hayot mavjudligiga ishonishini ko'rsatdi. Bunda Xudoga ishonmaydiganlar va ateistlar (Xudoning borligini inkor etuvchilar) soni ham deyarli o'zgartirgan emas va bugungi kunda, avvalgidek, taxminan 45 va 15% ni tashkil etadi.

Davr, mamlakatlar va qit'alardan qat'iy nazar, diniy dunyoqarashning yashovchanligi haqidagi umumiy xulosa O'zbekistonda ham

mavjud. XX asrda qariyb 80 yil dinni «fosh qilish» uchun mavjud barcha dalillardan foydalangan kurashchan ateizm sharoitida yashagan o'zbekistonliklar orasida mamlakat aholisining uchdan ikki qismi o'zini dindor deb hisoblagan.

### **Diniy e'tiqodlarning tarixiy shakllari**

Insoniyat tarixiga ko'p sonli turli-tuman dinlar ma'lum. Xususan, madaniyat va bilimlar darajasi juda past bo'lgan inson o'ziga qudratli, yot va sirli bo'lib tuyulgan tabiatning favqulodda kuchlariga qarshilik ko'rsata olmagan ibtidoiy jamoa davrida dinning ancha sodda shakllari: fetishizm, animizm, totemizm, magiya va boshqalar yuzaga kelgan.

Fetishizm u yoki bu predmetni mo'jizakor xislatlarga, odamlar hayotiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega deb hisoblaydi. Bunday predmet ilohiylashtiriladi, sig'inish va topinish ob'ektiga aylanadi.

Animizm (lot. anima – jon) – nafaqat odamlar, balki hayvonlar, predmetlar va borliq hodisalarini ham ruh, jon boshqarib turishiga ishonishdir. Animizm nuqtayi nazaridan butun dunyo ruhli va jonli.

Totemizm negizini muayyan odamlar guruhining totem, ya'ni sig'inish ob'ekti sanalgan ajdod deb e'lon qilinadigan u yoki bu hayvon, o'simlik, predmet bilan umumiy kelib chiqishiga bo'lgan ishonch tashkil etadi, zero totem mazkur jamoa yoki urug'ning qudratli homiysi, himoyachisi hisoblanadi, uni oziq-ovqat va shu kabilar bilan ta'minlaydi. (Hindistonda Xonumon maymuni, sigir, Avstriyada kenguru, turli qabilalarda u yoki bu ilohiy predmet).

Magiya (yunon. mageia – sehrgarlik) ham ibtidoiy din shakllaridan biri bo'lib, tabiatning okkulst kuchlarini va Koinot qonunlarini ularni buzmasdan, binobarin, tabiatga zo'rlik qilmasdan teran bilishdir. Ye.Blavatskaya fikricha, «magiya» so'zi tabiat haqidagi oliy bilimni va uni o'rganishni, uning yashirin kuchlarini, har bir elementning negizini belgilovchi sirli, okkulst qonunlarni teran tushunishni anglatadi. Bu so'z qadimgi Oliy koinot unvonidan kelib chiqqan bo'lib, ularni Maxa, Maglar yoki Maginslar deb, zarosizm izdoshlarini esa – Magistrlar («Meh ah» o'zagidan - «buyuk, biluvchi, dono») deb ataganlar. Magiya deganda qadimda «yorug'likka sig'inish» sifatida mashhur bo'lgan ibodatxonadan tashqarida sig'inishni yoki jaholat va riyoning ziddi sifatidagi ilohiy ma'naviy donishmandlikni tushunganlar. Magiya va afsungarlik oddiy odamning kundalik hayotdagi ongi va tafakkuridan yuksakroq darajadagi

ong osti sohasiga bog'liq bo'lgan va ruhiyatning botiniy qismi bilan ish ko'rgan. Magiya insonning yashirin qobiliyatlaridan foydalanish haqidagi fan yoki ta'limot hamdir. U ko'p jihatdan intuitsiyaga asoslanadi. Zero intuitsiya insonning ko'rish yoki eshitish qobiliyatidan ko'proq darajada informativ xususiyatga ega.

Energiya oqimlarining qutbliligi tufayli magiyada ikki mo'ljal – oq va qora magiya farqlanadi. Qadimgi afsonalarga ko'ra, inson gunoh qilganidan so'ng dunyoviy jism kasb etganidek, maxfiy bilimlarni o'z ichiga olgan ilohiy fanlar ham ularning transsendental mohiyatini ko'zdan yashiruvchi qattiq qobiqqa o'raladi. Shu tariqa alximiya kimyoga, astrologiya astronomiyaga aylandi.

Dinning ushbu qadimgi shakllari keyingi diniy e'tiqodlar negizini tashkil etdi va politeizm (ko'pxudolik)da ham, monoteizm (yakkaxudolik)da ham u yoki bu darajada o'z aksini topdi. Ular hozirda ham qisman mustaqil holda mavjuddir.

Taxminan 10 ming yil muqaddam, inson chorvachilik va ziroatchilik bilan shug'ullanib, o'troq hayot kechirishga o'tgach, neoletik inqilob yuz berdi. Jamiyat rivojlanishining ayni shu bosqichida politeizm yuzaga keldi, chunki mehnatning ijtimoiy taqsimoti, hukmronlikka bo'syunish ruhlar va sanamlarga bo'lgan ishonchga emas, balki xudolarga bo'lgan e'tiqodga ko'proq mos kela boshladi.

Keyingi davrlarda davlatchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi, qadimgi buyuk madaniyatlarning paydo bo'lishi, quldorlik munosabatlarining shakllanishi, monarxiyalar tashkil topishi va shundan kelib chiqadigan yakkaboshchilikning yuzaga kelishi natijasida diniy dunyoqarashda ham bir xudoga sig'inish tendentsiyasi paydo bo'ldi. Odamlar ko'p sonli xudolar orasida kuch-qudratda yagona bir xudoni farqlab, shu tariqa dunyoviy podsho hukm suruvchi real hayot haqidagi o'z tasavvurlarini yagona va qudratli xudo yashaydigan narigi dunyo bilan go'yoki muvofiq holatga keltirdilar. Shu tariqa monoteistik dinlar (yunon. mono – bir va theos – xudo): iudaizm (mil. av. VII asr), buddizm (mil. av. VI-V asrlar), xristianlik (I asr) va islom (VII asr) vujudga keldi. Xullas, har bir din ma'lum falsafaga asoslanadi.

Ayni paytda mifalogiya negizida paydo bo'lgan milliy dinlar ham hozirgi kunda amal qilayotganini inkor etish mumkin emas. Milliy dinlar haqidagi ma'lumotlar mustaqil ta'limda o'zgartirilishi ko'zda tutilgan.



Haq dinning asosi to'g'ri (analitik) falsafadir, haq bo'lmagan dinning asosi esa yolg'on falsafadir, yoki yolg'on muhokamalar ustiga qurilgan qarashlardir.

### **Falsafiy dunyoqarash**

Taxminan 3000 ming yil muqaddam dunyoqarashning uchinchi shakli – falsafa paydo bo'lishi uchun zarur shart-sharoit Yevropa va Osiyoda deyarli bir vaqtda yuzaga keldi. Agar mif va din e'tiqod va tuyg'ularga tayansa, falsafa dunyoni aql va bilimlarga tayangan holda tushuntiradi.

Falsafa Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va Qadimgi Yunonistonda taxminan bir vaqtda dunyoni oqilona anglash usuli sifatida vujudga keldi. Bu vaqtga kelib mif va din o'zlarining tayyor va uzilkesil javoblari bilan insonning bilimga nisbatan tinimsiz kuchayib borayotgan qiziqishini qondira olmadi. Shuningdek ular sezilarli darajada o'sgan va murakkablashgan tajriba va bilimlarni umumlashtirish, tizimga solish va avlodlarga qoldirish vazifasining ham uddasidan chiqolmay qoldi.

Taniqli nemis faylasufi Karl Yaspers fikricha, bu davrda (uni faylasuf «dunyoviy vaqt» deb ataydi) insoniyat o'z rivojlanishida katta burilish yasagan. Osoyishtalik va barqarorlik ruhi bilan yo'g'rilgan mifologiya davri nihoyasiga yetdi, oqilonalik va oqilona tekshirilgan tajribaning mifga qarshi kurashi natijasida u asta-sekin chekina boshladi. «Jahon tarixi o'qini taxminan miloddan avvalgi 500, 800 va 200 yillar oralig'ida yuz bergan ma'naviy jarayon bilan bog'lash o'rinli bo'lsa kerak, - deb yozadi K. Yaspers. – Shu davrda tarixda eng katta burilish yasaldi. Hozirgi tipdagi inson va ilk faylasuflar paydo bo'ldi. Inson ayrim individuum sifatida o'z-o'zida tayanch izlashga jur'at etdi. Xitoy zohidlari, Sharq mutafakkirlari, Hindiston tarki dunyochilari, Yunoniston faylasuflari va Isroil avliyolari e'tiqodi o'z ta'limotining mazmuni va ichki tuzilishiga ko'ra bir-biridan qay darajada farq qilmasin, o'z mohiyatiga ko'ra yaqindir. Endi inson botiniy darajada o'zini dunyoga qarshi qo'yishi mumkin bo'ldi. Inson o'zida unga dunyodan va o'z-o'zidan yuksakroq ko'tarilish imkonini beruvchi ichki salohiyatni kashf etdi».

Yuz bergan o'zgarishlarning yana bir sababi shundaki. mifologiya olish, rivojlantirish va tushuntirish uchun navbatdagi miflar emas, balki tabiiy qonuniyatlar va tabiiy-sababiy bog'lanishlarga murojaat qilish talab etilgan ilmiy bilim kurtaklari bilan to'qnashdi.

Pirovardida odamlar dunyoqarashida nisbatan qisqa vaqt ichida tub o'zgarishlar yuz berdi; unda bilim, tafakkur, tahliliy fikrlash tobora muhimroq rol o'ynay boshladi, ular sirtidan olingan axborotni sezgilar va emotsiyalar darajasida idrok etishga asoslangan har xil e'tiqodlarni chetga chiqarib qo'ydi. Faqat so'zlariga ishonish kerak bo'lgan ota, kohin, ruhoniylar o'rini, savollar beruvchi va anglashga chorlovchi muallim faylasuf egalladi. U shubha urug'ini sochib, qiziqish uyg'otdi va: «Ishonma, balki o'zing fikr qil!», deya da'vat etdi.

Faylasuf tafakkurni xurofot va bid'atlardan tozalab, uni erkinlashtirdi va mifologik yoki diniy dunyoqarashga mutlaqo xos bo'lmagan tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi. Ajdodlardan meros qolgan «donishmandlik» manbai sanaluvchilar, tayyor bilimlar va shak-shubhasiz haqiqatlarni e'tiqod sifatida qabul qilishga chorlovchilardan farqli o'laroq, faylasuf savollarni ta'riflashni va avvalo sog'lom fikr va o'z aql-zakovatining kuchiga tayanib, ularga javob qidirishni o'rgatadi.

Demak, falsafa dunyoqarash shakli sifatida olamni inson va dunyoning o'zaro munosabatlari nuqtayi nazaridan o'rganadi. Dunyoqarash ob'ekti – butun dunyo, biroq uning predmeti – tabiat dunyosi va inson dunyosining yoki, makrokosmos va mikrokosmosning o'zaro munosabatidir. Bundan insonning dunyodagi o'rni qanday? Umuman, dunyoning o'zi nima? Inson hayotining mazmuni nimadan iborat? Vaqt, makon va harakat nima? kabi muammolar doirasi kelib chiqadi.

Ammo bu muammolar dunyoqarashning falsafiy shaklini ham qiziqtiradi. Bu holda falsafaning dindand farqi nimada?

Bu yerda biz avvalo shuni qayd etishimiz mumkinki, falsafa dunyoni o'zlashtirishning nazariy usullari qatoriga kiradi. Nazariy usul ob'ektdan ongli ravishda «uzoqlashadi». Dunyoga nazariy munosabat sub'ekti – dunyoni tushunchalar yordamida anglashga harakat qilayotgan inson. Falsafa dunyoni fikrda, so'zda gavdalan-tiradi. Falsafaning har qanday shakli bunday imkoniyatga ega. Binobarin, dunyo haqidagi falsafiy tasavvur zamirida bilim yotadi. Ayni vaqtda, falsafa bu bilim inson dunyosiga tashlangan bir nazar ekanligini tushunadi. Shu sababli u dunyo haqidagi bilim bilan bir qatorda insonning dunyoga munosabatini ham shakllantiradi. Dinda esa etiqod ustuvor bo'lib, unda faqat Xudoga muhabbat tan olinadi, bilim esa ikkinchi darajali hisoblanadi.

Dunyoning falsafiy manzarasida borliq tushunchasi bosh tamoyil sifatida amal qiladi. Ayni shu tushuncha yordamida inson o'zining dunyodagi o'rmini anglab yetishga harakat qiladi.

Borliqni falsafiy tushunishdan ko'p sonli narsalar, jarayonlar, holatlar, strukturalar, tizimlarning barcha shakllarini o'z ichiga olgan yaxlit bir butun dunyo haqidagi tasavvur kelib chiqadi. Borliq shakllarining rang-barangligi bu shakllarni birlashtiruvchi narsa bormi, butun cheksiz rang-barang dunyoning birligi to'g'risida so'z yuritish mumkinmi? degan savolni o'rtaga tashlashni nazarda tutadi. Bunday birlik haqidagi g'oya barcha mavjud narsalarning umumiy negizi to'g'risidagi tasavvurning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu tasavvurni belgilash uchun falsafada substantsiya kategoriyasi qabul qilingan. Bu kategoriya o'zini namoyon etuvchi narsalar, hodisalar, voqealar va jarayonlarning ichki birligini qayd etadi. Shunday qilib, substantsiya nafaqat umumiy-izchil tamoyil, balki faollik funksiyasi sifatida ham tushuniladi.

Dunyoni falsafiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati, dunyoni bilish, sezish, ko'rish va tushunishning butunlay yangi sohasi – falsafa vujudga kelishida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat falsafa – bu nafaqat u yoki bu odam dunyoqarashining shakli, balki ijtimoiy ong shakli, odamlar borlig'i va bilishining umumiy tamoyillari, ularning dunyoga munosabati aks etuvchi, tabiat, jamiyat, tafakkurning eng umumiy qonunlari kashf etiluvchi va ta'riflanuvchi ma'naviy faoliyatdir. Ya'ni bu dunyoga va insonning undagi o'rni nisbatan qarashlarning umumiy tizimidir. Bunday qarashlar zahirini savollar va insonning ularga javob topish istagi yotuvchi oqilona yo'l bilan olingan bilimlar majmuini tashkil etadi. Ammo bilish shunday bir tabiatga egaki, bir savolga javob ko'pincha boshqa ko'p sonli savollarni yuzaga keltiradi va ba'zan muammoga nafaqat oydinlik kiritmaydi, balki uni yanada chigallashtirib, insonning qiziquvchanligini oshiradi va yangi tadqiqotlarga da'vat etadi. Xullas, bunda ijod, tinimsiz izlanish, yangilikka intilish muhim o'rin egallaydi.

Agar mifologiya va dinda javobga urg'u berilsa, bilishning butun mazmuni unda mujassamlashsa, falsafada savol, masala birinchi o'rinda turadi. U to'g'ri va yaxshi ta'riflangan bo'lsa, muammoning mohiyati aniq aks etadi. Savol, masala insonni ijodga rag'batlantiradi, toki unga qoniqarli javob olinib, haqiqatning tagiga yetilganiga ishonch paydo bo'lmagunicha insonni izlanishga da'vat etadi. Bunda

savolning o'zi, muammoning qo'yilishi javobdan kam ahamiyat kasb etmaydi, ba'zan undan ham muhimroq deb qaraladi.

Falsafa, garchi muayyan natijalarga, mukammal ta'riflarga, uzil-kesil xulosalarga intilsa-da, lekin shuning o'zi bilan kifoyalanmaydi. Falsafani avvalo inson madaniyati sohasida yuz berayotgan, turli qarama-qarshiliklar va o'zaro ta'sirlar bilan uzviy bog'liq va ayni vaqtda o'zga sohalarga o'tish va ularda gavdalanish qobiliyatiga ega bo'lgan ma'naviy jarayon sifatida tushunish lozim. Bundan xulosa shuki, falsafiy mushohada yuritish savol berish, shubha qilish, javoblar izlash va yechilgan deb hisoblangan. shak-shubhasiz bo'lib tuyulgan masalalarga qaytish demakdir. Falsafa uchun «boqiy», uzil-kesil aniqlangan haqiqatlar, «noqulay», «ilmoqli» savollar yoki man etilgan mavzular mavjud emas. Falsafa savollar berish, narsalar va hodisalar mohiyatini anglashga urinish orqali bilish doirasini kengaytirishga harakat qiladi.

Xullas, falsafa haqiqat qanday bo'lsa, uni shunday ifodalab ko'rsatishdir, din esa –uning ramziy, timsoliy aks etishi. Falsafaga asos va mohiyat, dinda timsol va shakl ustuvor ahamiyatga ega. Dialektik munozara usuli jamiyatning kam sonli ayonlari uchun kerak. Vahiy yo'lidagi ifoda – xalq ommasining idroki, tarbiya va ta'limi uchun kerak.

### **Ilmiy dunyoqarash va uning rivojlanish bosqichlari**

Ilmiy dunyoqarash ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida inson ehtiyojlariga javob sifatida shakllangan dunyoqarash shakli bo'lib, u bilimga tayanadi. Fan bilimning mustaqil sohasi, ilmiy dunyoqarash shakli sifatida faqat XVII-XVIII asrlarda to'la shakllandi. Muayyan darajada shartlilik bilan shuni aytish mumkinki, bu I.Nyuton klassik mexanikaning asosiy qonunlarini ta'riflab, shu tariqa tabiatshunoslikning bo'limi – asoslari asrlar mobaynida shakllangan bosh tamoyillari esa bundan yuz yilcha muqaddam, avvalo Galileo Galiley tomonidan ta'riflangan klassik mexanikaning shakllanishiga yaqun yasaganidan keyin yuz berdi. Fanning mohiyatini tushunishga nisbatan ikki asosiy yondashuv, uning keng va tor talqinlari shakllangan.

Keng (yig'ma) ma'nodagi fan – bu butun inson faoliyati sohasi bo'lib, uning vazifasi borliq haqidagi ob'ektiv bilimlarni o'rganish va ilmiy nazariy tizimga solishdan iboratdir. Bu yerda "fan", "olim" tushunchalari muayyanlashtirilmaydi va umumiy, yig'ma

tushunchalar sifatida talqin qilinadi. "Fan" tushunchasi falsafaga tatbiqan ko'pincha ayni shu kontekstda qo'llaniladi, faylasuflar esa olimlar deb ataladiki, bu qisman o'rinlidir.

Muayyan fanlar, masalan, fizika, kimyo, biologiya, tarix, matematikani ifodalash uchun «fan» tushunchasiga torroq, binobarin, izchilroq ma'no yuklanadi. Bu yerda fanga aniq ta'rif berilgan, olim esa tor mutaxassis, muayyan bilim ifodachisi hisoblanadi. U shuncha-ki olim emas, balki doim va albatta yo fizik, yo ximik, yo tarixchi, yo boshqa fan vakilidir. Ayni holda fan muqarrar tarzda tabiat, jamiyat, tafakkurning u yoki bu ob'ekti (hodisasi) haqidagi ilmiy bilimlarning qat'iy tartibga solingan, izchil tizimidan tashkil topadi.

Bunday fanlarning har biri faqat ularning o'zigagina xos bo'lgan maxsus qonunlar va metodlarga, mazkur fan uchun yagona bo'lgan til, kategoriyalar apparati va hokozolarga ega bo'ladi, bu yuz bergan jarayonlarni to'g'ri tavsiflash va tushuntirish, hozirgi davrni to'g'ri tushunish va bilimlarning tegishli sohasida albatta yuz beradigan yoki muayyan sharoitda yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar yoki jarayonlarni ma'lum darajada aniq bashorat qilish imkonini beradi. U yoki bu fanning mazmuni ham, u erishgan natijalar ham barcha madaniyatlar va xalqlar uchun yagona bo'lib, ayrim olimning yondashuvi, nuqtaiy nazari yoki dunyoqarashiga mutlaqo bog'liq emas. Ular mazkur sohada kelajak uchun o'zlashtirish lozim bo'lgan, vaqt va amaliyot sinovidan o'tgan bilimlar yig'indisi sifatida avloddan-avlodga o'tadi.

Falsafada esa qadimda donishmandlik muxlislarining son-sanoqsiz savollariga tajriba yo'li bilan olingan ba'zi bir oqilona javoblar mavjud bo'lgan. Bu javoblarni haqqoniy, ya'ni amaliyot sinovidan o'tgan, kundalik hayotda o'z tasdig'ini topgan, aniq bilim deb nomlash mumkin. Bunday javoblar masala «yopilishi», kun tartibidan chiqarilishiga sabab bo'lgan, boshqacha aytganda, aniq ta'riflangan va boshqa javoblarni istisno etgan.

Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, har qanday uchburchak burchaklarining yig'indisi 180 gradusga tengligi yoki suyuqlikka solingan jismga siqib chiqarilgan suyuqlik og'irligiga teng kuch ta'sir ko'rsatishi aniqlangani zahoti bu masalalar o'zining «ochiq» xususiyatini yo'qotgan, ya'ni ular o'zining boshqa variantlarni istisno etadigan aniq yechimini topgan. Bu mazkur masalalar atrofida har qanday qo'shimcha mushohada yuritish foydasizligi

tufayli o'zining har qanday ahamiyatini yo'qotganligini anglatgan. Yechilgan masalalar va muammolar esa aniq, ishonchli bilim darajasiga o'tgan va shu davrdan e'tiboran o'zining falsafiy tusini yo'qotgan. XX asrda taniqli nemis faylasufi K.Yaspers bu muhim qoidani ta'riflar ekan, shak-shubhasiz asoslardan birini har kim e'tirof etgudek bo'lsa, u shu tariqa ilmiy bilishga aylanadi va bundan buyon falsafa hisoblanmaydi, balki bilimning muayyan sohalariga tegishli bo'ladi, deb qayd etdi.

Shunday qilib, azaldan yaxlit va bo'linmas dastlabki bilim sifatida amal qilgan falsafa zaminida o'sha zamonlardayoq amaliy xususiyat va tegishli yo'nalishga ega bo'lgan bilim sohalaridan faol shakllana boshladi. Shu tariqa asta-sekin tabiatshunoslik vujudga keldi, muayyan fanlar (matematika, geometriya, fizika, tibbiyot, astronomiya, tarix va boshqalar) shakllanib, o'z shakl-shamoyilini kasb etdi va mustaqil tus oldi. Ayni shu ma'noda falsafa barcha fanlarning asosi hisoblanadi. Bu fanlar falsafadan ajralib chiqqach, keyinchalik ilmiy bilimning tabaqalanishi jarayonida ba'zan parchalanib, o'z tadqiqot predmetini yanada toraytiradi va mufassallashtiradi. Ular tahlilining teranligi va narsalar mohiyatini anglash darajasi ortsa, ayni vaqtda o'rganilayotgan masalalar doirasi torayadi.

Ilmiy dunyoqarashning rivojlanishi fan taraqqiyotini belgilab berdi. Fan ikki katta davr va beshta bosqichda rivojlandi. Birinchi davr dastlabki fan va ikkinchi davr haqiqiy fan deb nomlandi. Dastlabki fan uch bosqichda - antik davr, O'rta asrlar, Uyg'onish davrlaridagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida rivojlanadi va fan rivojlanishining embrional davri deb hisoblanadi, haqiqiy fan uch bosqichda namoyon bo'ladi.

Dastlabki fan davri va ilk fan bosqichi. Miloddan avvalgi I ming yillikdan XVI asrgacha bo'lgan davr ilk fan bosqichidir. Bu bosqichda asrlar mobaynida avlodan-avlodga o'tib kelgan, hayot tajribasi va mehnat faoliyati jarayonida olingan amaliy bilimlar bilan bir qatorda juda umumiy va mavhum mushohadalarga asoslangan nazariyalar xususiyatiga ega bo'lgan tabiat haqidagi dastlabki falsafiy tasavvurlar (naturfalsafa) vujudga kela boshlagan. Ilmiy bilim kurtaklari naturfalsafa doirasida uning elementlari sifatida shakllangan. Matematik, astronomik, tibbiy va boshqa masalalarni yechishda foydalaniladigan ma'lumotlar, usullar va metodlar jamlanishi bilan falsafa

faga tegishli bo'limlar vujudga kelgan va keyinchalik ayrim fanlar: matematika, astronomiya, tibbiyot va hokazolarga ajralib chiqqan.

Jumladan. Aristotelning falsafiy asarlarida fizika, zoologiya, embriologiya, mineralogiya, geografiya kabi fanlarning kurtaklariga duch kelish mumkin. Miloddan avvalgi III-II asrlarda falsafiy bilim tarkibida statistik mexanika, gidrostatika, geometrik optika (xususan, ko'zgular haqidagi alohida fan – «ka-toptrika») farqlanadi va nisbatan mustaqil ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari al-Xorazmiy matematika, al-Farg'oniy astronomiya, al-Beruniy mineralogiya va geografiya, Ibn Sino tibbiyot, Mirzo Ulug'bek astronomiya, Alisher Navoiy adabiyot ilmi rivojiga munosib hissa qo'shdi va ular ijodi mahsullari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Biroq bu fanlarda ayrim tasodifiy kuzatishlar va amaliyot na'lumotlari umumlashtiriladi-yu, lekin eksperimental metodlar hali qo'llanilmaydi, aksariyat nazariy qoidalar esa asossiz va tekshirib bo'lmaydigan spekulyatsiyalar mahsuli hisoblanadi. Ammo shu davrda vujudga kelgan falsafiy bilim qismlari sifatida talqin qilinishda davom etgan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, XVII asr oxirida Nyuton o'zining fizika asoslarini yaratgan «Natural falsafaning matematik asoslari» deb nomlangan asarini e'lon qilgan. Shunday qilib dastavval falsafadan alohida faoliyat sohasi sifatida mavjud bo'lmagan: u asosan falsafa doirasida, ilmiy bilimlarning boshqa manbai – hayot amaliyoti va hunarmandchilik san'ati bilan bir vaqtda va u bilan juda zaif aloqada rivojlangan.

Ayni paytda, bu davrda Qadimgi Yunonistonda "Platon akademiyasi" (2013-yilda Platon akademiyasiga 2400 yil to'lishi bilan XXIII Jahon Falsafa Kongressi Gretsiyaning Afina shahrida o'tkazildi), Markaziy Osiyoda "Ma'mun akademiyasi" tashkil etilgan, ilmiy bilim rivojida muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsada, madaniyatning alohida shakli sifatida fan paydo bo'lishidan oldingi «embrional» davri hisoblanadi.

Haqiqiy fan davri to'rt bosqichda namoyon bo'ladi. Fan taraqqiyotining birinchi bosqichi XVI-XVII asrlar – I-ilmiy inqilob davri bo'lib, u klassik fan bosqichi deb nomlanadi va XIX asrgacha davom etadi. U.Kopernik va Galiley tadqiqotlaridan boshlanib, Nyuton va Leybnitsning fizika va matematika sohasidagi fundamental asarlari bilan o'z cho'qqisiga ko'tarilgan. Fanning buyuk ijodkorlari

Galiley va Nyuton yashagan davr –kashfiyotlar, shuningdek sxolastika va diniy dunyoqarash dogmatizmiga qarshi kurash olib borilgan romantik davrdir.

Bu davrda hozirgi vaqt tabiatshunosligining asoslari yaratilgan. Hunarmandlar, tabiblar, alximiklar tomonidan qo'lg'a kiritilgan ayrim dalillar tizimli tahlil qilinib, umumlashtirila boshlagan. Ilmiy bilim tuzishning tabiat qonunlarini matematik ta'riflash, nazariyalarni tajribada sinash, tajribada asoslanmagan diniy va naturfalsafiy dogmalarga tanqidiy qarash bilan bog'liq bo'lgan yangi me'yorlar va ideallar vujudga kelgan. Fan o'z metodologiyasini yaratgan va amaliy faoliyat ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yechishga tobora faolroq yo'naltirilgan. Fan o'zining yangi metodologiyasini yaratib, amaliyot ruhi bilan sug'orilgani sari – falsafadan uzoqlasha boshlaydi. Bu davrda fan falsafiy, diniy, teologik aqidalardan qat'iy nazar rivojlanishi mumkin bo'lgan ilmiy bilimlar tizimi sifatida tushunila boshlaydi. Natijada fan faoliyatning alohida, mustaqil sohasiga aylanadi. Professional olimlar paydo bo'ladi, ularni tayyorlash amalga oshiriluvchi universitet ta'limi rivojlanadi. O'z faoliyati, muloqot va axborot ayirboshlashning alohida shakllari va qoidalarga ega bo'lgan ilmiy hamjamiyat vujudga keladi.

XVII asrda dastlabki ilmiy akademiyalar: London qirollik jamiyati (1660), Parij Fanlar akademiyasi (1666) tashkil topadi. Keyinroq Berlinda (1700), Sankt-Peterburgda (1724), Stokgolmda (1739) va Yevropaning boshqa poytaxt shaharlarida ilmiy akademiyalar ta'sis etiladi. Bu akademiyalarning eng yirigi - London qirollik jamiyati bo'lib, u tashkil etilgan paytda 55 a'zodan iborat bo'lgan. Parij Fanlar akademiyasi 21 kishi bilan ish boshlagan. Sankt-Peterburg akademiyasining a'zolar shtatida dastlab 11 kishi belgilangan. Yevropa mamlakatlarida XVIII asr boshiga kelib olimlar soni bir necha ming kishiga yetgan, chunki ilmiy jumallarning (bu davrda bir necha o'n ilmiy jumallar nashr etilgan) tirajlari ming nusxagacha borgan. 1825-yilda nemis kimyogari Yu.Libix ilmiy laboratoriya tashkil qiladi va u olimga ko'p miqdorda daromad keltira boshlaydi.

XIX asr oxiri XX asrning boshlari noklassik fan bosqichi deb ataladi. XIX-XX asrlar chegarasida amalga oshirilgan inqilobiy kashfiyotlar bir qancha fanlarning asoslarini larzaga soladi. Matematikada to'plamlar nazariyasi va matematik tafakkurning mantiqiy asoslari tanqidiy tahlil qilinadi, bir qancha yangi fanlar vujudga keladi.



Fizikada klassik fizikaning falsafiy asoslarini qayta ko'rishga majbur qilgan fundamental nazariyalar – nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasi yaratiladi. Biologiyada genetika rivojlanadi. Tibbiyot, psixologiya hamda inson haqidagi boshqa fanlarda yangi fundamental nazariyalar paydo bo'ladi. Ilmiy bilimning shakl-shamoyilida, fan metodologiyasida, ilmiy faoliyatning shakl va mazmunida, uning me'yorlari va ideallarida olamshumul o'zgarishlar yuz beradi. Bu davrda genetika va kibernetika yunalishlarini ochdi.

XVIII asrning o'rtalarida jahonda fan bilan shug'ullanuvchi kishilar 10 ming kishidan oshmagan bo'lsa, XIX asr oxiriga kelib olimlar soni 100 ming kishiga yetadi. XIX asrda fan ijtimoiy mehnatning mustaqil tarmog'iga aylanadi va u bilan universitetlar va institutlarning maxsus fakultetlarini tamomlagan «dunyoviy» professional olimlar shug'ullanadi. Agar 1850-yilda jahonda mingga yaqin ilmiy jurnallar nashr etiladigan bo'lsa, 1950-yilga kelib ularning soni 10 mingdan oshadi. XIX asr oxiriga kelib ilmiy laboratoriyalar soni ko'payadi. Fan tijoratchilar, tadbirkorlar e'tiborini o'ziga tobora ko'proq torta boshlaydi. Ular olimlarning ishlab chiqarish, sanoat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarini mablag' bilan ta'minlay boshlaydilar.

XX asrning 70-yillarida fan rivojlanishida yangi postnklasik bosqich boshlanadi, chunki mazkur asr bo'sag'asida fanda inqilob yuz beradi. XIX-XX asrlar chegarasida amalga oshirilgan inqilobiy kashfiyotlar bir qancha fanlarga ijtimoiy ta'sir etdi. Matematikada to'plamlar nazariyasi va matematik tafakkurning mantiqiy asoslari tanqidiy tahlil qilinadi, bir qancha yangi fanlar vujudga keladi. Fizikada klassik fizikaning falsafiy asoslarini qayta ko'rishga majbur qilgan fundamental nazariyalar – nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasi yaratiladi. Biologiyada genetika rivojlanadi. Tibbiyot, psixologiya hamda inson haqidagi boshqa fanlarda yangi fundamental nazariyalar paydo bo'ladi. Ilmiy bilimning shakl-shamoyilida, fan metodologiyasida, ilmiy faoliyatning shakl va mazmunida, uning me'yorlari va ideallarida olamshumul o'zgarishlar yuz beradi.

XX asrning ikkinchi yarmi fanni yangi inqilobiy o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'zgarishlar ko'pincha fan-texnika inqilobi sifatida tavsiflanadi. Bu o'zgarishlar shu bilan bog'liqki, Ikkinchi jahon urushidan keyin iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda fan yutuqlari ilgari misli ko'rilmagan miqyosda amaliyotga – sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, kundalik hayotga joriy etiladi. Fan energetikada

(atom elektrostantsiyalari), transportda (avtomobilsozlik, aviatsiya), elektronikada (televidenie, telefoniya, kompyuterlar) ulkan o'zgarishlar yasaydi. Fanning rivojlanishi eng yangi harbiy texnikani yaratishning asosiy omiliga aylanadi va «ikki lager»ning urushdan keyingi qarama-qarshiligi sharoitida avj olgan qurollanish poygasi yirik davlatlarni ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarga ulkan mablag'larni sarflashga majbur qiladi.

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida fan texnika taraqqiyoti axborot (kompyuter) inqilobi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot jamiyat rivojlanishining muhim resurslaridan biriga aylandi. Shu tariqa fan bilan bog'liq yuksak texnologiyalar va ular bilan mushtarak ta'lim endilikda har qanday jamiyatning sivilizatsion rivojlanish darajasini belgilamoqda. Ilmiy kashfiyotlar va ularning amalga tatbiq etilishi o'rtasidagi masofa mumkin qadar qisqaradi. Ilgari fan yutuqlaridan amalda foydalanish usullarini topish uchun 50-100 yil vaqt sarflangan bo'lsa, endilikda bunga 2-3 yilda yoki hatto bundan ham qisqaroq vaqt ichida muvaffaq bo'linmoqda.

Davlat ham, xususiy firmalar ham fan rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlashga katta xarajatlar qilishi tabiiy hol bo'lib qoldi. Natijada XX asrning oxirida fan jadal sur'atlarda o'sib, ijtimoiy mehnatning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. «Katta fan» davri boshlandi. Ko'p sonli ilmiy muassasalar ishiga sotsialistik odamlar ommasini jalb qilindi. Olim kasbi kam uchraydigan kasb bo'lmay qoldi. Hozirgi vaqtda ilmiy faoliyat o'zlarini qiziqtirgan muammolarni yechishga buning butun xavf-xatarini o'z bo'yniga olib qo'lgan ayrim mutafakkirlarning mashg'uloti emas, balki buyurtmaga, rejali topshiriqqa binoan ishlaydigan, uni belgilangan muddatda bajarish va o'z ishi haqida hisobot berishga majbur bo'lgan yirik jamoalarning ishi. Hozirda ilmiy mehnat – industrial mehnatning bir turi bo'lib fan bilan shug'ullanuvchi kishilar hozir «ilmiy xodimlar» deb atalmoqda.

Hozirgi zamon fani Katta fan deb ataladi. XX asr oxirida yer yuzidagi olimlar soni 5 mln. kishidan oshgan bo'lsa, XXI asrning birinchi o'n yilligida 6 milliondan oshib ketdi. Fanda 15 ming yo'nalish va bir necha yuz ming ilmiy jurnallar mavjud. Yangi energiya manbalari va axborot texnologiyalari – hozirgi zamon fanining istiqbolli yo'nalishlari. fanning internatsionalizatsiyalashuvi tendentsiya-

lari kuchayib bormoqda, fanning o'zi fanlararo kompleks tahlil predmetiga aylanmoqda. Uni o'rganishga nafaqat fanshunoslik, fan falsafasi, balki sotsiologiya, psixologiya va tarix ham kirishmoqda.

Bu davrda fanning o'rni va ahamiyati tinimsiz o'sib bordi. Natijada uni ichki differentsiatsiyalashning yangi shkalasiga ehtiyoj tug'ildi. Katta fanda ayrim olimlar evristik izlanish faoliyatiga – yangi g'oyalarni ilgari surishga, ayrim olimlar analitik va eksplikatsion faoliyatga – mavjud g'oyalarni asoslashga, ba'zi olimlar – ularni tekshirishga, yana bir toifa olimlar esa – olingan ilmiy bilimni amalga tatbiq etishga ko'proq moyil ekanligi ayon bo'lib qoldi.

Sotsiologlarning hisob-kitoblariga ko'ra, fan bilan aholining faqat 6-8% shug'ullanishga qodir. Ba'zan tadqiqotchilik faoliyati va oliy ta'limni qo'shib olib borish fanning asosiy va empirik jihatdan aniq belgisi hisoblanadi. Bu fan kasbiy faoliyatga aylanib borayotgan sharoitda juda o'rindidir. Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati zarur va barqaror ijtimoiy-madaniy an'ana sifatida e'tirof etiladi. Bu faoliyatsiz jamiyat normal mavjud bo'lishi va rivojlanishi mumkin emas. Fan har qanday ma'rifatli davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekistonda fanning barcha sohaları rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi (O'zFA) mamlakatimizning bosh ilmiy tashkiloti bo'lib, uning tarkibida 36 ta ilmiy tadqiqot muassasalari, 4 ta davlat muzeyi, 3 ta hududiy bo'lim: Xorazm Ma'mun akademiyasi, Qoraqalpog'iston va Samarqand bo'limi. 4 ta Andijon-Namangan, Buxoro, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo ilmiy bo'limlari kiradi, bugungi kunda ularning moddiy texnika bazasi yangi texnologiyalar bilan ta'minlandi.

2007-yilning 2-oktyabrida O'zFA "Astronomiya" institutining olimlari B.Xafizov hamda A.Sergeevlar tomonidan Maydanak baland tog' observatoriyasida (Qashqadaryo vil.) kashf qilingan kichik sayyora 2010-yilda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga ko'ra qadimiyshahar "Samarqand" nomi bilan ataldi va u AQShning "Garvard kichik sayyoralar" forumida "210271" raqami bilan ro'yxatga olindi, hamda O'zbekistoniya, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Beruniy, al-Xorazmiy kabi kichik sayyoralar qatoridan o'rin oldi. 2013-yilda Yaponiya olimlari tomonidan kashf qilingan navbatdagi kichik sayyora "Maydanak" deb nomla-

nishi o'zbek ilmining jahonda e'tirof etilishining ifodasidir. Shuningdek, O'zbekistonda Quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha katta ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishi bir tomondan kelgusidagi energiya tanqisligini oldini olishga yo'naltirilgan sa'y harakat bo'lsa, ikkinchi tomondan o'zbek olimlarining yuksak ilmiy salohiyatidan darak beradi.

Bu jarayonlar fan rivojlanishida va uning jamiyat bilan o'zaro ta'sirida yangi bosqichni megatsivilizatsiyada texnofan rivojini boshlab berdi. Hozirgi kunda bozor talablariga javob beradigan texnofan (fan va texnologiyalarning simbiozi) paydo bo'ldi. Texnofanning rivoji, ya'ni olimlarning foyda keltiradigan kashfiyot va ixtirolari uchun tadbirkorlarning sarmoyalarini jalb etishga alohida e'tibor qaratildi.

Fan rivojlanishida dunyoning xolonom manzarasi shakllandi, olamni bilishda ezoterik va ilmiy bilimlar uyg'unlashdi. 1991-yilda dunyoda Internet tarmog'ining, 2001-yilda Aypetning paydo bo'lishi bilim egallash, uni tarqatish va undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Texnofan va an'anaviy tadqiqotlar olib borishda milliy ilmiy dasturlar va ularning millat manfaatlarini nuqtaiy nazardan qo'llash masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi. Bu dunyoda raqamli texnologiyalar davrini boshlab berdi. Shu nuqtaiy nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, bu faoliyatni amalga oshiradigan yangi avlod intellektual yoshlar elitasini tarbiyalash vazifalari belgilanligi O'zbekiston taraqqiyotida davr ruhining ifodasini namoyon etadi. Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, xorij ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, talaba va professor-o'qituvchilarning akademik mobilligini tashkil etish bu sohadagi faoliyatning boshlanishidir. Agar XX asrda O'zbekistonda jami 20 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat olib borgan bo'lsa, mustaqillik yillarida ularning soni 82 taga yetdi. 2017-yilda oliy ta'lim tizimida boshlangan chuqur islohotlar natijasida 2020-yilda oliy ta'lim muassasalarining soni 129 taga yetdi, shulardan 8 ta xususiy va 24 ta xorij oliy ta'lim muassasalarining filiallaridir. Agar shu davrgacha oliy ta'lim tizimida O'zbekiston yoshlarning faqat 10 foizi ta'lim olish

imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda 35% yetdi va bu ko'rsatkich yildan – yilga oshishi ko'zda tutilmoqda.

### **Fan va falsafaning mutanosibligi va farqi**

Fan rivojlanishning yuksak darajasiga erishgan bo'lsa-da, lekin amalda falsafa bilan uzviy bog'liq bo'lib qolmoqda. Ular faol o'zaro ta'sirga kirishib, bir-birining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Bu hol shu bilan izohlanadiki, falsafa dalillarga, sinovdan o'tgan ilmiy ma'lumotlarga tayanib, o'zining mavhum g'oyalarini borliq bilan taqqoslash imkoniyatiga ega, fan esa, dalillarni qayd etish va tavsiflash bilan cheklanmay, yanada asosliroq xulosalar chiqarish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

XXI asr boshiga kelib jahonda umumiy yetti yarim milliard aholining qariyb olti millioni olimlardir. Taxminan shuncha odam fanga xizmat ko'rsatuvchi mehnat bilan band (laborantlar, texnik xodimlar, nashriyotlarning xodimlari va h.k.). Yerdan qadim zamonlardan boshlab to XXI asrning boshiga qadar yashagan olimlarning umumiy sonini olsak, ularning o'ndan to'qqiz qismi bizning zamondoshlarimiz ekanligi ayon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy xodimlar soni mehnatga qobiliyatli aholining qariyb 10% ni tashkil qiladi, fanni ta'minlashga milliy daromadning 10-5% dan ko'prog'i sarflanadi.

Hozirgi zamon fani jamiyat, texnika, iqtisodiyot, madaniyat, turmush va kundalik hayotni yo'lga soluvchi qudratli kuchga aylandi. Ayni vaqtda odamlar bugun fanning qudratinigina emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan xavflarni ham yaxshi anglaydilar. Hozirgi dunyo o'z yutuqlari uchun fan oldida mas'uliyatli. Shuni tan olish lozimki, hozirgi zamonda jamiyat ko'p jihatdan fanning ulkan yutuqlari tufayli o'zini o'zi yo'q qilish yoqasiga kelib qoldi. Olim M.Sheller "Tarixda inson hali hech qachon o'zi uchun hozirgidek ulkan muammo bo'lgan emas" deb ta'kidlaganida aynan fan taraqqiyotining ba'zi oqibatlarini nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Biroq, bu ilmiy taraqqiyotni to'xtatish kerak, degani emas. Ammo ilmiy izlanishni insoniy, axloqiy munosabatga bo'ysundirish va balki uning qaysidir yo'nalishlarini cheklash zarurligi to'g'risidagi masala kun tartibiga qo'yilmoqda. Ilmiy izlanishning insonparvarlashuvi, uning yo'llari va oqibatlariga axloqiy munosabat – bu davrimizning muhim muammolaridir. Shu bois, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo'llab

quvvatlash, ular uchun zarur shart sharoitlar yaratishni biz o'zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko'rishimiz darkor". zero, "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan g'oya megatsivilizatsiya davridagi fan taraqqiyotining asosiy omili bo'lishi lozim.

Ayni shu hol falsafa bilan ham, undan muayyan fanlar ilgari falsafiy tusga ega bo'lgan tadqiqot predmetlari bilan ajralib chiqqanida yuz berishini taxmin qilish o'rinli bo'ladi. Biroq, bunday hol yuz berayotgani yo'q.

Tarixiy voqeelik fan falsafadan qancha ko'proq ajralsa, unda shuncha ko'proq masala va muammolar paydo bo'lishini, ya'ni falsafa nafaqat kamaymasligi, balki, aksincha, ko'payishini ko'rsatadi. Buning sababi nimada? Bu savolga javobni fan va falsafaning o'ziga xos xususiyatlaridan, ularni alohida-alohida tavsiflovchi masalalar va ularning yechimlari o'rtasidagi tafovutdan qidirish, o'rinli bo'ladi. Fan faqat o'zi olgan haqqoniy bilimlarga va muayyan natijalarga tayanishi unda o'z muammolari va «ochiq» masalalari mavjud emasligini anglatmaydi. Biroq aniq, shak-shubhasiz javoblarga ega bo'lmagan falsafiy masalalardan farqli o'laroq, ilmiy masalalar bilimdonlik qilishni emas, balki puxta o'ylashni talab qiladi, zero ular pirovardida dastlabki taxminlarni rad etuvchi yoki ishonchli bilimlar doirasini kengaytirib tasdiqlovchi muayyan yechimlar olish real yoki potentsial imkoniyatiga egadir. Shu tariqa vujudga keladigan fanlar qaynayotgan suvdagi ko'piklar kabi kattalashib, falsafiy mushohada yuritish jabhasini, anglab yetilgan narsalar anglanmagan narsalar bilan yuzma-yuz keluvchi sohani ham kengaytiradi, chunki tabiatshunoslik doirasida javob berishning iloji bo'lmagan yangi masalalarni yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda eski falsafiy muammolardan yangi falsafiy jumboqlar sari o'tilmoqda. "Xudo bormi?", "Haqiqat nima?", "Ruhning tabiati qanday?" qabi falsafiy masalalarni aniq va uzil-kesil yechish mumkin emas, balki ularni yechishning umuman iloji yo'qdir, shu bois bu savollar ham javobsiz qolmoqda. Nima uchun "balki"? kabi savollar shuning uchunki, qadimda donishmandlarni bugungi kun nuqtayi nazaridan mutlaqo falsafiy bo'lmagan va tom ma'noda falsafiy sanalgan masalalar qiziqtirgan. Misol uchun: "Yulduzlar kunduzi, quyosh esa – tunda qaerga yo'qoladi?", "Nima uchun ayrim jismlar suvda cho'kadi, ba'zi jismlar esa suvda suzadi?", "Chopqir Axilles sudralib borayotgan toshbaqaga qanday yetishi mumkin,

basharti har safar ularning o'rtasidagi masofani bosib o'tish uchun u mazkur masofaning teng yarmidan o'tishi lozim bo'lsa?" va h.k. Biroq bu va shunga o'xshash masalalar falsafadan tabiatshunoslik sohasiga o'tgach, ko'pincha yangi va yangi falsafiy muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan: Yer va boshqa sayyoralarni, ayni bir yo'nalishda aylantirgan kuch qaerda? Agar bizning quyoshimiz o'rtacha kattalikdagi yulduz bo'lsa, unga o'xshagan milliardlab yulduzlarning hech bo'lmasa ayrimlari bizning Yerimizdagiga o'xshash hayot mavjud bo'lgan yo'ldoshlarga ega bo'lishi mumkinmi? Inson hatto eng yaqin yulduzlarga yetishi uchun nafaqat inson hayoti, balki uning sivilizatsiyasi tarixidan ham ko'proq vaqt talab etilar ekan, buni qanday qilib isbotlash yoki rad etish mumkin? Nihoyat, biz kuzata oladigan olam kengayib borayotgan bo'lsa, bu harakat zamirida qanday sabablar va kuchlar yotadi? Bu va boshqa ko'pgina shunga o'xshash muammolar odamlarni falsafaga qayta va qayta murojaat etishga majbur qiladi, chunki fan hozircha bunday savollarga aniq javob berishga qodir emas. Aksildunyolar va aksilgravitatsiya, qora materiya va qora energiya, boshqa makon va vaqt o'lchovlaridagi dunyolar haqidagi har xil falsafiy g'oyalarning mavjudligi ayni shu hol bilan izohlanadi.

Shunga qaramay, fan va falsafaning roliga baho berishda ayrim qarama-qarshiliklar mavjud. Xususan, ba'zi bir ilmiy va falsafiy davralarda fanning roli va ahamiyatini mutlaqlashtiruvchi yondashuv mavjud bo'lib, u "ijobiy", "foydali" bilim sifatida fanni "mavhum" va "tajribaga asoslanmagan" falsafaga qarshi qo'yadi. Bunday qarashlar stsientizm (lot. scientia va ingl. science – fan, bilim) deb ataladi.

Ctsientizm fan texnika taraqqiyotining ijobiy jihatlarini mutlaqlashtiradi. Antistsientizm falsafiy bilishni ilmiy bilishdan ajratadi, uni ilmiy bilish bilan muvofiq emas, deb e'lon qiladi, u oqilonalikni kamsitadi va mistika, intuitsiya, iroda va shu kabilarni mutlaqlashtiradi.

#### **Falsafa va fanning umumiy jihatlari shundaki, ular:**

- avvalo aqlga tayanadi va oqilona bilimni yaratishga harakat qiladi;

- o'rganilayotgan ob'ektlar va hodisalarning qonunlari va qonuniyatlarini aniqlashga qarab mo'ljal oladi;

- kategoriyalar apparatini (o'z tilini) yaratadi, o'zlari ilgari surgan qoidalarni asoslaydi, ularga dalil-isbot keltiradi va yaxlit tizimlarni yaratishga harakat qiladi.

Falsafa va fan o'rtasidagi farq shunda namoyon bo'ladiki: Falsafa doim u yoki bu faylasuf nomi bilan bog'lanadi, bunda uning g'oyalari, asarlari bo'lishi va ularga boshqa faylasuflar qo'shilishi yoki qo'shilmasligiga bog'liq bo'lmasligi mumkin. Fan esa, mohiyat e'tibori bilan, jamoa mehnati mahsulidir.

Falsafada (muayyan fanlardan farqli o'laroq) yagona til va yagona tizim mavjud emas. Bu yerda fikrlar rang-barangligi me'yor sanaladi. Fanda esa monizm hukm suradi, chunki hech bo'lmasa fanning u yoki bu muayyan sohasidagi asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi (til)ga nisbatan yondashuvlar birligi albatta mavjud bo'ladi.

Falsafa ilmiy bilimlar va dalillardan keng foydalanadi, biroq uning uzil-kesil xulosalari ishonchli deb hisoblanishi mumkin emas, zero ular asosan faylasuflarning sub'ektiv fikrlari va mulohazalariga asoslanadi. Fan esa mohiyat e'tibori bilan isbotlangan va sinashta bilimlar olishga harakat qiladi, bunda olingan bilimlarni tekshirish yoki rad etish imkoniyatining mavjudligi bu bilimlar haqiqiyli va ilmiy jihatdan asosligining muqarrar sharti hisoblanadi.

Falsafiy bilimlarni tajribada sinash mumkin emas (aks holda ular ilmiy bilimlarga aylanadi); fan esa ilmiy asos va isbotga tayanadi. Falsafa aniq prognoz bera olmaydi, ya'ni u ishonchli bilimlarni kelajakka tatbiq etishga qodir emas, zero unda bunday bilimlar yo'q. Ayrim faylasuf falsafiy qarashlarning muayyan tizimi yordamida faqat bashorat qilishi mumkin, lekin u olim kabi prognoz qilish yoki modellashtirishga qodir emas. Fan esa mavjud bilimlar asosida kelajakni bashorat qiladi.

Falsafaga milliylik xos, fan esa jamoa mehnati mahsuli sifatida dunyoviy ahamiyatga ega.

### **Hozirgi dunyoda falsafaning ahamiyati**

Bugungi kunda, tezliklar va yuksak texnologiyalar asrida falsafa kerakmi, u eskirgani yo'qmi? Uzluksiz axborot oqimi va surunkali vaqt tanqisligi sharoitida muayyan bilim falsafani siqib chiqarmaydimi? Bunday savollar mutlaqo o'rinlidir, lekin ularga javobni hayotning o'zi beradi, u hozirgi zamon odami oldiga ko'p sonli, shu jumladan ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan, butunlay yangi falsafiy muammolarni qo'yadi.

Jahon hamjamiyati uchunchi ming yillikning boshlanishini, biosfera holati va Yerda hayotning davom etishi uchun o'z



javobgarligini tobora teranroq anglagan holda qarshi oldi. Ayni shu sababli insonning barkamol rivojlanishi, odamlar, xalqlar o'rtasida, shuningdek jamiyat va tabiat o'rtasida insoniy, yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini o'rnatish masalalari azaliy falsafiy mavzular bilan bir qatorda falsafiy tadqiqotlarda birinchi o'ringa chiqmoqda. Shu munosabat bilan faylasuflar avvalo Yer yuzida ta'limning holati va rivojlantirish darajasidan qattiq tashvishda ekanliklarini bildirmoqdalar. Ko'pgina faylasuflar fikriga ko'ra, hozirgi muammolarning aksariyati zamirida aynan qoniqarsiz ta'lim yetarli darajadagi tarbiyaning yo'qligi yotadi. Bu muammolarni yechishda falsafa ham o'z rolini o'ynashi lozim.

Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati falsafaga, o'zining hayotdagi o'rni va vazifasini falsafiy anglab yetishga ayniqsa muhtojdir.

Falsafa real hayot bilan uzviy bog'liq va doim inson borligining eng muhim muammolarini anglab yetishga qarab mo'ljal oladi. Ayni shu sababli hozirgi davrning muhim muammosi – globalashuv va uni falsafadagi butunlay yangi mavzu sifatida falsafiy anglab yetish muhim ahamiyatga ega. Falsafa predmeti va muammolarini muhokama qilishda alohida diqqatga loyiq bo'lgan boshqa bir mavzu insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol toptirishda falsafaning roli va ahamiyatidir.

Hozirgi zamon faylasuflari bunday muammolarni yechish ustida ishini davom ettirar ekanlar, "Falsafa nima? U kimga va nima uchun kerak?", "Falsafaning vazifasi nimadan iborat?", "Falsafadan qanday, qaysi yoshdan va nima maqsadda tahsil berish lozim?" qabi bir qarashda allaqachon o'z yechimini topgan masalalarni yana kun tartibiga qo'ymoqdalar. Bu haqda ko'p va atroflicha so'z yuritilgan jahon kongresslari dunyoda falsafa predmetiga, shuningdek u ijtimoiy rivojlanishga izchil ta'sir ko'rsatishga qodir yoki qodir emasligiga, agar qodir bo'lsa, buni u qay tarzda amalga oshirishi mumkinligiga nisbatan yagona yondashuv avvalgidек mavjud emasligini tasdiqlaydi. Fikrlarning bunday rang-barangligi, yuqorida qayd etib o'tilganidek, falsafaning o'ziga xos xususiyati, ya'ni u fikrlar plyuralizmi, har xil fikrlash imkoniyati bor joydagina mavjud bo'lishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Falsafaning unga yaxlit ta'limotga aylanish va tilning birligiga, umumiy qonunlar va metodologiyaga tayanish imkonini

bermaydigan bu kamchiligi ayni vaqtda, u fanlararo kompleks muammolarni yechish talab etiladigan murakkab tizimlar bilan ish ko'rgan holda uning afzalligiga aylanadi.

Quyidagilar hozirgi vaqtda insoniyat uchun eng muhim fanlararo kompleks muammolar hisoblanadi: barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash; ekologiya muammolari; jamiyat hayoti barcha jabhalarining globallashuvi. Bu muammolarni falsafiy nuqtayi nazardan anglab yetish alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy yondashuvlardan farqli o'laroq, muammoga nisbatan falsafiy yondashish dalillarni talqin qilishda ko'proq erkinlik berilishi, ilgari surilayotgan qoidalarni isbotlashga nisbatan yengilroq talablar qo'yilishi, mushohadaga asoslangan ta'riflar berish, sub'ektiv baholash huquqi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Bunday tadqiqotlar bir qarashda uncha katta ahamiyatga ega emasdek bo'lib tuyulishi ham mumkin. Lekin amalda bunday emas.

Birinchidan, falsafiy tadqiqot oqilona bilishning fanda olingan natijalarni tekshirish (verifikatsiya qilish) yoki rad etish (falsifikatsiya qilish) imkoniyati yo'qligi tufayli lozim darajada samara bermagan yoki umuman o'jiz bo'lib chiqqan sohasida amalga oshiriladi. Insoniyat oqilona bilishning bundan boshqa usullariga ega emas.

Ikkinchidan, falsafa muammoni ko'rish ufqini kengaytiradi, uni tadqiq etishga nisbatan yangicha, o'ziga xos yondashuvlarni taklif qiladi va fanga bunday yondashuvlarni ilgari surishga ko'maklashadi. Aniq ta'riflar va ishonchli dalillarga tayanadigan fan o'z fikrlari va xulosalarida bunday erkinliklarga yo'l qo'ya olmaydi. Falsafiy tafakkur mulohaza yuritish va baholashlarga nisbatan erkin yondashuvni ilgari suradi.

Hamonki plyuralizm falsafada me'yor hisoblanar, har bir alohida miyada esa monizmga, ya'ni qarashlarning tartibga solingan, yaxlit va nisbatan ziddiyatlardan xoli tizimiga kelish lozim ekan, falsafani qanday o'zlashtirish, undan qanday saboq berish mumkin? Butun dunyoda aksariyat faylasuflarni birinchi navbatda ayni shu masala qiziqtiradi. Xususan Suqrot, Seneka va o'tmishning boshqa mutafakkirlari tajribasiga tayangan holda: Falsafa dalillarni eslab qolishni o'rgatmasligi, balki mulohaza yuritish va savollarga javob berish qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Falsafadan saboqlar inson har bir masala yuzasidan mutafakkirlar fikriga murojaat etmasdan, o'zi mustaqil o'ylashni va o'z aqliga quloq solishni o'rganishini nazarda

tutmog'i darkor. Ayni shu sababli falsafaning vazifasi insonga muloqot qilishni o'rgatish, u o'z shaxsiyatining ahamiyatini ko'rsatishga emas, balki haqiqatning tagiga yetishga harakat qilishiga erishishdan iborat. Bu, o'z navbatida, barcha odamlar o'ziga atrofdegilar quloq solishiga loyiq ekanligini nazarda tutadi.

Insonga ta'lim va tarbiya berishda – unga «nimani ko'rish lozimligi»ni emas, balki «qaerga va qanday qarash kerakligi»ni o'rgatish lozim. Mazkur vazifani ijodiy yondashuvsiz, o'quvchi va o'qituvchining qiziquvchanligi va intiluvchanligisiz hal qilib bo'lmaydi, demak, falsafadan ta'lim berish va uni o'zlashtirish zamirida ham, albatta ijod yotishi lozim.

Xulosalar. Dunyoqarash bu insonning dunyoga, undagi voqealarga munosabatlari, undagi o'zni va hayot mazmuni haqidagi eng umumiy qarashlari tizimi.

Insoniyat tarixida dastlab mifologik dunyoqarash shakllangan bo'lib, unda inson atrof muhit bilan birlashadi hamda na tabiat va na o'z urug'idan ajralmagan holda namoyon bo'ladi. Diniy dunyoqarashga olamni bu dunyo, u dunyo va g'ayri tabiiy dunyoga bo'lish xos. Dinning asosi g'ayritabiiy kuchlarga ishonch bilan yo'g'rilgan.

Falsafa mifologik va diniy dunyoqarashdan o'zining atrof muhitga tanqidiy munosabati asosidagi dunyoqarashli funktsiyasini bajaradi, gnoseologik va ontologik kategoriyalarga murojaat qilib mantiqiy xulosalar chiqaradi.

Falsafa nazariy asoslangan dunyoqarash, umumiy kategoriyalar, insonning olamga fanning tabiat va jamiyat haqidagi yutuqlariga tayanilgan nazariy munosabati.

Falsafaning ahamiyati, uning insonni o'z-o'zini, olamni anglashga, ijodiy barkamollikka yo'naltira olishidadir.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Falsafa, dunyoqarash, shaxs, idrok, dunyoqarashning tarixiy shakllari, fetishizm, animizm, totemizm, magiya, ontologiya, gnoseologiya, fan metodologiyasi, ijtimoiy falsafa, etika, aksiologiya, falsafiy antropologiya, metafizika, ong, tafakkur, ruh, materiya; tabiat, borliq, fan, paydeyya.

### **Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos jihatlarini ayting
2. Dinning asosiy funktsiyalari qaysilar?

3. Falsafiy dunyoqarashning mifologik va diniy dunyoqarashdan asosiy farqi nimada?
  4. Falsafa va fanning o'zaro nisbati qanday?
  5. Dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllarini ta'riflang.
  6. Falsafa tarixini o'rganish qanday maqsadni ko'zlaydi?
  7. Nima uchun falsafa tarixida fikrlar rang-barangligi me'yor hisoblanadi?
  8. Ayrim insonning yaxlit falsafiy dunyoqarashi falsafiy plyuralizm asosida qanday shakllanadi?
  9. Falsafa tarixida «falsafaning asosiy masalasi»ga ta'rif berish qanday amalga oshirilgan?
  10. Hozirgi dunyoda falsafa qanday vazifalarni hal qilmoqda?
- Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar

#### **Esse mavzulari**

1. Dunyoqarashning shaxs kamolotidagi roli.
2. Diniy e'tiqod va uning hozirgi davrdagi ahamiyati.
3. Falsafa dunyoni bilish usuli sifatida.
4. Falsafaning asosiy funktsiyalari.
5. Falsafa madaniyat tizimida.
6. Insoniyatning muhim muammolarini hal qilishda falsafaning roli.

#### **Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari**

1. «Falsafa» so'zining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?
  - A. Yunoncha, phileo – sevaman va sophia – donolik
  - B. Yunoncha, phileo – sevaman va sophia – e'tiqod
  - V. Lotincha, philo – sevaman va sophi – donishmandlik
  - G. Lotincha, phileo – sevaman va sophia – axloq
2. Ob'ektiv dunyoga va insonning undagi o'miga, odamzotning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatiga nisbatan yondashuvlar tizimi, bu - ...
  - A. Dunyoqarash
  - B. Tafakkur
  - V. Idrok
  - G. Tasavvur
3. Tarixan dunyoqarashning dastlabki shakllari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
  - A. Mif va din
  - B. Din va san'at

- V. San'at va mifologiya  
 G. Poetika va lirika
4. Dinning asosiy funksiyalari qaysi javobda to'g'ri va to'liq ko'rsatilgan?  
 A. Dunyoqarashni shakllantirish, kommunikativ, xulq-atvorni tartibga solish, kompensatorlik funksiyalari  
 B. Dunyoqarashni shakllantirish, komillikka ko'tarish, sabrga o'rgatuvchi funksiyalari  
 V. Kamolotga yetkazish, kompensatorlik, kommunikativ funksiyalar  
 G. Boshqaruvchi, tartibga soluvchi, dunyoqarashni kengaytiruvchi, kompensatorlik funksiyalari
5. Falsafaning strukturasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?  
 A. Ontologiya, gnoseologiya, fantiq, ijtimoiy falsafa, etika, aksiologiya, falsafiy antropologiya  
 B. Fenomenologiya, gnoseologiya, fan metodologiyasi, ijtimoiy falsafa, etika, aksiologiya, falsafiy antropologiya  
 V. Pragmatizm, pozitivizm, strukturalizm, etika, estetika, aksiologiya, fenomenologiya  
 G. Ontologiya, ma'naviyat asoslari, g'oyalar falsafasi, falsafa tarixi, antropologiya

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2017 –B.7
2. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlili, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-Toshkent: O'zbekiston, 2017. -b. 7.
3. Sheler M. Plojenie cheloveka v kosmose. – M: 1994.- S.78.
4. Falsafa M.Axmedova tahriri ostida.-Toshkent, O'FMJ, 2006
5. Shermuxamedova N.A. Falsafaning predmeti va jamiyatdagi roli// Falsafa -Toshkent: Noshir, 2012
6. Vvedenie v filosofiyu: Uchebnoe posobie dlya vuzov / I.T.Frolov i dr. 3-e izd., pererab. i dop. –Moskva: 2003.
7. Velikie filosofskie ucheniya. Red. i per. I.S.Vdovinoy. –M: 2005.
8. Qambarov A.A. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonida ilmiy qadriyatlarning roli: Falsafa fan. nomzodi... Avtoref: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy un-ti.-Toshkent: 2006.- 27 b.
9. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. –Toshkent: 2016.

## **FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI**

Insoniyat tarixida odatda falsafiy bilim rivojini o'rganishga Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodini farqlash nuqtayi nazaridan yondashuvlar shakllangan. Aslida Sharqda ham, G'arbda ham olam, jamiyat, inson va qadriyatlar haqidagi fikrlarda davrning ruhi o'z ifodasini topgan. Modomiki shunday ekan, biz Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodidagi umumiylik va faqrlarni o'rganishga harakat qilamiz. Zero, sharq falsafasi ham g'arb falsafasi ham olam va odamni o'rganish va yaxshi amallar bilan dunyoda tinchlikni qaror toptirishga mo'ljal olgan.

### **Qadimgi Sharq va G'arb falsafasi vujudga kelishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlari**

Qadimgi Sharq va G'arbda shakllangan falsafa insoniyatning ilm, fan, ma'naviy taraqqiyotining debochasi hisoblanadi. Ularning rivojlanishidagi o'ziga xos farqlardan qat'i nazar, ayrim umumiy qonuniyatlari ham mavjud, ular quyidagilar:

Birinchidan, Sharqda ham, G'arbda ham falsafiy tafakkur ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatidagi mifologiya negizida vujudga kelgan. Mifologiya inson o'zini atrof muhitdan ajratishga va hodisalarni tabiiy sabablarga muvofiq tushuntirishga qodir emasligi bilan tavsiflanadi. Inson dunyoni va undagi barcha hodisalarni xudolar va qahramonlar harakati bilan tushuntiradi. Ammo mifologiyada insoniyat tarixida ilk bor falsafiy masalalar ham qo'yiladi: dunyo qanday vujudga kelgan va u qanday rivojlanadi; hayot va o'lim nima va kabi.

Ikkinchidan, Sharq va G'arb falsafasi sinfiy jamiyat va davlat paydo bo'lishi bilan ijtimoiy ong shakli sifatida vujudga kelgan. Masalan, Qadimgi Hindistonda falsafaning vujudga kelishi taxminan uning hududida quldorlik davlatlari shakllana boshlagan miloddan avvalgi I ming yillikda yuz bergan. Xitoyda falsafa jamiyatning sinfiy tabaqalanish jarayoni boshlangan, jamoalar kasodga uchrab, yangi yer mulkdorlari va shahar boylarining iqtisodiy va siyosiy qudrati osha boshlagan miloddan avvalgi VI-V asrlarda vujudga kelgan. Yunonistonda antik falsafa miloddan avvalgi VII-VI asrlar chegarasida shahar-davlatlar («polislar»)da avval Kichik Osiyoning

V. San'at va mifologiya

G. Poetika va lirika

4. Dinning asosiy funksiyalari qaysi javobda to'g'ri va to'liq ko'rsatilgan?

A. Dunyoqarashni shakllantirish, kommunikativ, xulq-atvorni tartibga solish, kompensatorlik funksiyalari

B. Dunyoqarashni shakllantirish, komillikka ko'tarish, sabrga o'rgatuvchi funksiyalari

V. Kamolotga yetkazish, kompensatorlik, kommunikativ funksiyalar

G. Boshqaruvchi, tartibga soluvchi, dunyoqarashni kengaytiruvchi, kompensatorlik funksiyalari

5. Falsafaning strukturasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?

A. Ontologiya, gnoseologiya, fantiq, ijtimoiy falsafa, etika, aksiologiya, falsafiy antropologiya

B. Fenomenologiya, gnoseologiya, fan metodologiyasi, ijtimoiy falsafa, etika, aksiologiya, falsafiy antropologiya

V. Pragmatizm, pozitivizm, strukturalizm, etika, estetika, aksiologiya, fenomenologiya

G. Ontologiya, ma'naviyat asoslari, g'oyalar falsafasi, falsafa tarixi, antropologiya

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2017 –B.7

2. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlili, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-Toshkent: O'zbekiston, 2017. -b. 7.

3. Sheler M. Polojenie cheloveka v kosmose. – M: 1994.- S.78.

4. Falsafa M.Axmedova tahriri ostida.-Toshkent, O'FMJ, 2006

5. Shermuxamedova N.A. Falsafaning predmeti va jamiyatdagi roli.// Falsafa -Toshkent: Noshir, 2012

6. Vvedenie v filosofiyu: Uchebnoe posobie dlya vuzov / I.T.Frolov i dr. 3-e izd., pererab. i dop. –Moskva: 2003.

7. Velikie filosofskie ucheniya. Red. i per. I.S.Vdovinoy. –M: 2005.

8. Qambarov A.A. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonida ilmiy qadriyatlarning roli: Falsafa fan. nomzodi... Avtoref: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy un-ti.-Toshkent: 2006.- 27 b.

9. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. –Toshkent: 2016.

## **FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI**

Insoniyat tarixida odatda falsafiy bilim rivojini o'rganishga Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodini farqlash nuqtayi nazaridan yondashuvlar shakllangan. Aslida Sharqda ham, G'arbda ham olam, jamiyat, inson va qadriyatlar haqidagi fikrlarda davrning ruhi o'z ifodasini topgan. Modomiki shunday ekan, biz Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodidagi umumiylik va faqrlarni o'rganishga harakat qilamiz. Zero, sharq falsafasi ham g'arb falsafasi ham olam va odamni o'rganish va yaxshi amallar bilan dunyoda tinchlikni qaror toptirishga mo'ljal olgan.

### **Qadimgi Sharq va G'arb falsafasi vujudga kelishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlari**

Qadimgi Sharq va G'arbda shakllangan falsafa insoniyatning ilm, fan, ma'naviy taraqqiyotining debochasi hisoblanadi. Ularning rivojlanishidagi o'ziga xos farqlardan qat'i nazar, ayrim umumiy qonuniyatlari ham mavjud, ular quyidagilar:

Birinchidan, Sharqda ham, G'arbda ham falsafiy tafakkur ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatidagi mifologiya negizida vujudga kelgan. Mifologiya inson o'zini atrof muhitdan ajratishga va hodisalarni tabiiy sabablarga muvofiq tushuntirishga qodir emasligi bilan tavsiflanadi. Inson dunyoni va undagi barcha hodisalarni xudolar va qahramonlar harakati bilan tushuntiradi. Ammo mifologiyada insoniyat tarixida ilk bor falsafiy masalalar ham qo'yiladi: dunyo qanday vujudga kelgan va u qanday rivojlanadi; hayot va o'lim nima va kabi.

Ikkinchidan, Sharq va G'arb falsafasi sintiy jamiyat va davlat paydo bo'lishi bilan ijtimoiy ong shakli sifatida vujudga kelgan. Masalan, Qadimgi Hindistonda falsafaning vujudga kelishi taxminan uning hududida quldorlik davlatlari shakllana boshlagan miloddan avvalgi I ming yillikda yuz bergan. Xitoyda falsafa jamiyatning sinfiy tabaqalanish jarayoni boshlangan, jamoalar kasodga uchrab, yangi yer mulkdorlari va shahar boylarining iqtisodiy va siyosiy qudrati osha boshlagan miloddan avvalgi VI-V asrlarda vujudga kelgan. Yunonistonda antik falsafa miloddan avvalgi VII-VI asrlar chegarasida shahar-davlatlar («polislar»)da avval Kichik Osiyoning



Fales suvni, Anaksimn - havoni, Anaksimandr - apeyron (mavhumlik)ni hamma narsaning birinchi asosi deb hisoblaydi. Anaksagor fikricha, barcha narsalar muayyan «urug'lar»dan iborat va ular geometriyalar deb nomlangan. Empedokl o'zining "Tabiat haqida" asarida olov, havo (uni Empedokl efir deb nomlagan), suv va yer turli narsalarning birinchi asoslaridir, deb qayd etgan.

Shunga o'xshash fikrlarga Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. Masalan, Zardushtiylik ta'limotida olov, hindlarning qadimgi falsafiy kitobi "Upanishada"da, shuningdek "Chorvaka" qadimgi hind falsafiy maktabiga doir manbalarda suv, olov, yer, havo, butun borliqning substantsional asosidir, deb qayd etiladi. Bu fikr esa Empidokl ta'limoti bilan hamohangdir.

Oltinchidan, Sharq va G'arb qadimgi dunyo falsafasida idealizm o'zining ikki ko'rinishida: ob'ektiv idealizm va sub'ektiv idealizm sifatida namoyon bo'ladi. Sharq falsafasida bu "yoga", buddizm, jaynizm, zardo'shtiylik, konfutsiychilik, daoichilik falsafasi. G'arb falsafasida - bu Pifagor va Pifagorchilar uyushmasi falsafasi, eley maktabi falsafasi Suqrot, Platon falsafasi va sh.klarda o'z ifodasini topadi. Jumladan, miloddan avvalgi IV asrda yashab ijod qilgan qadimgi yunon faylasufi Platon ikki dunyo - "g'oyalar dunyosi" va "narsalar dunyosi" mavjudligi haqida saboq beradi. "G'oyalar dunyosi" umumiy tushunchalardan iborat, "narsalar dunyosi" esa "g'oyalar dunyosi"ning in'ikosidir: "g'oyalar dunyosi"da ideal mohiyatlar mavjud, "narsalar dunyosi" esa bu mohiyatlar mahsuli bo'lgan ayrim narsalardan iborat. Platonning g'oyalar haqidagi ta'limoti uning "Bazm", "Fedon", "Fedr", "Davlat" asarlarida o'z aksini topgan, mutafakkirning "Teatet", "Parmenid", "Sofist", "Kritiy" asarlari esa g'oyalarning moddiy dunyoga bo'lgan munosabati muammosiga bag'ishlangan. Platon fikriga ko'ra, materiya - g'oyaning sof "aksi", uning "aksilmohiyati". Materiyaning mohiyati esa - g'oya. Haqiqiy borliq - bu piramidani eslatadigan ideal borliq. Uning zamirida "bilish va harakat asosining mohiyati" sifatida amal qiluvchi go'zallik g'oyasi yotadi. Uning yonidan yaxshilik g'oyasi va oqillik (haqiqat) g'oyasi o'rin oladi. Shunday qilib, Platon "g'oyalar dunyosi" "narsalar dunyosi"ni vujudga keltirishini nazarda tutuvchi ob'ektiv idealizm falsafiy tizimini yaratgan. Platon g'oyalar va narsalarni bir-biridan ajratib bo'lmasligini qayd etsa-da, lekin buyuk mutafakkir uchun "g'oyalar dunyosi" birlamchidir.

Aristotel "Metafizika" asarida Platonning narsalarning vujudga kelish asosi sifatidagi g'oyalar haqidagi ta'limotini rad etadi. U mohiyat-g'oyalar hissiy idrok etiladigan narsadan tashqarida mavjud emas, degan tezisini ilgari suradi. Platon fikrlariga e'tiroz bildirar ekan, Aristotel umumiylik faqat ayrim narsada mavjud deb hisoblaydi: "Ayrim narsa bo'lmasa, umumiylik ham bo'lmaydi". "Metafizika"da Aristotel falsafa borliq va uning atributlarini, borliqning oliy tamoyillari yoki sabablarini o'rganishini qayd etadi. Bular "umumiy metafizika" muammolaridir. Ammo "xususiy metafizika" ham mavjud bo'lib, u "harakatsiz substantsiya yoki birinchi boqiy dvigatel"ni o'rganadi.

Ayni vaqtda aksariyat Sharq va G'arb faylasuflarining falsafiy qarashlari faqat bir yoqlama xususiyat kasb etmaydi. Ularda boshqa g'oyalar ham uyg'unlashadi. Ammo materiya va ongning o'zaro nisbati muammosining u yoki bu yechimi uning turli shakllarida – kosmos va tabiatni anglab yetishdan tortib inson va uning shaxsiy borlig'iga qadar – doim u yoki bu faylasuf yoki falsafiy maktabning muayyan dunyoqarashidan dalolat beradi.

Yettinchidan, Sharq va G'arb falsafasi rivojlanishining yana bir umumiy qonuniyati uning metodologik ahamiyat kasb etuvchi haqiqiy ilmiy bilimga erishish yo'lida ilmiy izlanishlar olib borishidir. Bunda fan va falsafaning metodologik funktsiyasiga e'tibor qaratiladi. Falsafiy ta'limotlar, konsepsiyalar, g'oyalar yordamida turli hodisalarning tahlili amalga oshiriladi, amaliy tavsiyalar beriladi. Bu jihatdan miloddan avvalgi V asrda vujudga kelib, nafaqat Xitoyda, balki boshqa Sharq mamlakatlarida ham keng tarqalgan konfutsiychilik diqqatga sazovordir. Uning ayrim konsepsiyalari hanuzgacha amal qilmoqda. Masalan, «syao» yoki ota-onani hurmat qilish, kattalarga izzat-ikrom ko'rsatish konsepsiyasi yosh jihatidan ham, ijtimoiy ierarxiya bo'yicha ham kattalarga nisbatan o'z xulq-atvorini barcha fazilatlar mohiyatini anglab yetish asosida yo'lga qo'yishni taklif qiladi.

G'arb falsafasida ham falsafaning metodologik funktsiyasi bo'rtib namoyon bo'ladi. Masalan, yunon faylasuflari – falsafa tarixidan donishmandlik va shirinsuxanlik o'qituvchilari degan nom bilan o'rin olgan sofistlar shogirdlariga oqilona fikrlashni, muhokama qilinayotgan narsa yoki hodisaning mohiyatini teran anglagan holda ish ko'rishni va o'z falsafiy bilimlaridan siyosiy faoliyatda foydalanishni o'rgatishni o'z vazifasi deb bilganlar. Ma'lumki, qadimgi

yunon faylasufi Suqrot o'z e'tiqodlarini himoya qilish yo'lida hayotini tikkan. U davlatni boy va zodagon kishilar emas, balki ishning ko'zini biladigan, oqil odamlar boshqarishlari lozim deb hisoblagan va o'z shogirdlariga o'sha davrda mavjud bo'lgan siyosiy an'analarda mo'ljal olishni o'rgatgan. Ayni shu fikri uchun ustidan chiqarilgan hukmga e'tiroz bildirmay, Suqrot o'z o'limini ixtiyoriy ravishda tanlagan va bir qadah sikut (zahar) ichib o'lgan, bu bilan qonun oldida itoatkorlikni namoyon etgan.

Sakkizinchidan, Sharqda ham, G'arbda ham faylasuflar narsalar va hodisalarni o'rganish, tahlil qilish, tushuntirishning o'z metodlarini yaratganlar. Yangi davr tadqiqotchilari, Gegeldan boshlab, ikki asosiy falsafiy metod – dialektika va metafizika metodlarini ilgari surganlar. Qadimgi dunyo falsafasi rivojlangan sharoitda bu metodlar faylasuflar tomonidan ongli ravishda idrok etilmagan. Ular stixiyali falsafiy ta'limotlar, tizimlar va qarashlarga ichdan xos bo'lgan metodlar sifatida amal qilgan. Faylasuflar, odatda, hodisalarning umumiy o'zaro aloqasini, ularning ziddiyatligini, harakati va rivojlanishini, dunyoning yagonaligi va rang-barangligini, «umumiy yo'l» yoki Logosni muayyan tabiiy qonun sifatida anglab yetadilar. Jumladan, Geraklit fikriga ko'ra, tabiat (olov) uzluksiz o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi. U rivojlanish va o'zgarishlar manbaini ko'radi: «Hamma narsa kurash orqali va zaruriyat tufayli yuz beradi. Har qanday hodisa o'zining qarama-qarshiligiga o'tadi: sovuq narsa issiq, issiq narsa sovuq narsaga aylanadi, ho'l narsa quruq, quruq narsa ho'l narsaga aylanadi». Quyosh har lahzada yangilangani kabi, barcha hodisalar ham o'zgaradi. «Ayni bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas: ikkinchi marta suvga tushayotgan odamga yangi suvlar oqadi». Geraklit sifat jihatidan bir-biriga zid bo'lgan hodisalar va jarayonlarni ko'radi: hayot va o'lim, uyg'oqlik va uyqu, yoshlik va qarilik va sh.k. «Eng toza va eng iflos dengiz suvi, baliqlar uchun to'yimli va xaloskor, odamlar uchun esa ichishga yaroqsiz va hayot uchun xavflidir». Demak, qadimgi yunon faylasufi o'zgarishning umumiyliги va har bir xossaning qarama-qarshi holatga o'tishi narsalarning barcha sifatlariga nisbiy tus berishini, ya'ni muayyan holatlarga bog'liq qilib qo'yishini qayd etadi.

«Dialektika» so'zini ilk bor Suqrot ishlatgan. Bu so'z bilan u samarali bahslashish, fikrlar qarama-qarshiligi orqali haqiqatning tagiga yetishga qaratilgan muloqot olib borish mahoratini ifodalagan.

Dialektikaning aynan shu talqiniga sofistlar ham amal qilganlar. Ular o'ziga xos inkor dialektikasini rivojlantirib, tinimsiz bahs-munozara muhitida haqiqatning tagiga yetishga harakat qiluvchi, ziddiyatlarga to'la inson tafakkurini faol harakatga keltirganlar.

Aristotel fikricha, bahslashish yoki qarama-qarshi fikrlarni talqin qilish orqali haqiqatning tagiga yetish san'ati sifatidagi dialektika Zenonning «Bahslar» deb nomlangan asarida tahlil qilingan.

Dialektika muammolarini Platon ham o'rgangan. U dialektika deganda nisbiy «borliq» va «haqiqiy borliq»ni bilishni tushungan. U ko'p sonli asarlarini antik dialektika namunalarini o'zida mujassamlashtirgan dialoglar shaklida yozgan hamda harakat va harakatsizlik, tafovut va ayniyatni tahlil qilgan. Platon har bir narsani o'z-o'ziga va boshqa barcha narsalarga ayniy deb hisoblagan.

Aristotel sababiy bog'lanishlarning rang-barangligi muammosini ilgari surib, dialektikani yanada rivojlantirgan. Uning to'rt sabab: moddiy, formal, harakatlantiruvchi va yo'naltiruvchi sabablar «Narsalar va hodisalar vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omil (materiya, substrat) – moddiy sabab»; «narsaning mohiyatini belgilovchi omil – formal sabab»; «harakat asosi – harakatlantiruvchi sabab»; «biror narsani amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad – yo'naltiruvchi sabab» haqidagi ta'limoti ma'lum. Aristotel shakl va mazmun (materiya) dialektikasini tahlil qilishning usulini taklif qildi. Narsa – bu shakl va materiyaning birligi. Narsalarning vujudga kelishi va ularning takomillashuvi shaklga bog'liqdir. Shakl o'z mohiyatiga ko'ra faol, materiya esa passivdir. Shakl – narsaning tashqi ko'rinishi, u dunyoning rang-barangligi va borlig'ini belgilaydi.

Ayni paytda dialektika qadimgi Sharq falsafasiga ham xos. Qadimgi Sharq faylasuflari o'zlikni anglash va insonning o'z-o'zini kamol toptirilishiga bag'ishlangan konsepsiyalarida, avvalo bud-dizm, yoga, konfutsiychilik, zardo'shtiylik falsafasida juda ko'p noyob dialektik fikrlarni ilgari sulgan. Masalan, Zardo'sht ta'limotida "Axriman" va "Axuramazda" yaxshilik va yomonlikning abadiy kurashida yaxshilik g'alabasi namoyon bo'ladi. Zardo'shtiylik falsafasiga ko'ra, yaxshilik va yomonlik kishilarning botinida-ichki dunyosida yashaydi. Inson Axriman yoki Axuramazda tarafida bo'lishi mumkin, chunki Ezgulik farishtasi uni hamisha yaxshilik qilishga, lekin yovuz Axriman uni yomonlik qilishga undaydi va bu tortishuv inson hayotining oxirigacha davom etadi.

«Upanishada»da deyarli har qanday hodisa harakat va qarama-qarshilik nuqtayi nazaridan qaraladi. Braxman ikki qiyofa: jismoniy va jisimsiz, o'ladigan va o'lmas, harakatsiz va harakatchan ko'rinish-larga ega. «Upanishada»da Atman – bu ham tana, ham individual jon. Braxman va atman bir-biri bilan o'zaro bog'liq «Hamma narsa Braxman, Braxman esa atmandir», deyiladi. Atman o'zgaruvchan, uning turli holatlari mavjud: uyg'oqlik; tushli uyqu; tushsiz uyqu; turiya (atman hech narsani his qilmaydigan, o'z-o'ziga teng bo'ladigan holat).

Daosizm (qadimgi Xitoy maktablaridan biri)da dao haqidagi ta'limot Geraklitning Logos haqidagi ta'limotiga o'xshab ketadi. Dao – bu «hayot yo'li», tabiat qonuni. Bu dunyoning vujudga kelishi va rivojlanishining tabiiy abadiy qonuni.

To'qqizinchidan, qadimgi Sharq va G'arb falsafasi dialektik metod bilan bir qatorda hodisalarni o'rganishning metafizik metodiga tayanadi. Aristotel Eley maktabi vakillari Parmenid va Melis hamda ularning izdoshlarini «tabiatni to'xtatuvchilar» deb nomlagan, chunki ular tabiat harakatini rad etgan. Ular uchun borliq «yagona va harakatsiz»dir. Eleylik Ksenofan, shunday deb yozgan: «Bir joyda abadiy turadi, umuman qimirlamaydi, u yoqdan buyoqqa o'tish unga xos emas». Parmenid bu qoidaga aniqlik kiritadi: «...hamma narsa bir, abadiy, vujudga kelmagan, sharsimon va bir xil, o'z ichida makonga ega emas, harakatsiz va chekli».

Eley maktabi kabi, Sharqda xam qadimgi Xitoyda konfutsiy-chilik maktablari – Men-tsi va Syun-tsi ham dialektikaga qarshi chiqqan. Bu maktablarning vakillari qarshisida narsa qarama-qarshiliklar birligida namoyon bo'lmaydi, inson tabiati yo tug'ilgandan boshlab faqat yaxshilik bilan bog'langan (Men-tsi), yo inson o'z tabiatiga ko'ra azaldan yovuz (Syun-tsi). Albatta, tabiat inson tabiatini tarbiya yo'li bilan o'zgartirishi mumkin, lekin bu endi unga madaniyatni olib kirishdir.

O'ninchidan Qadimgi Sharq va G'arb falsafasida axloq mavzusi yetakchilik qiladi. O'sha davrda yaratilgan hikmatli so'z, iboralar bugungi kunda ham insonni mulohaza yuritishga majbur qiladi. Masalan, Platonning «Dialoglar» asarida taqdir, qarilik, fazilatlar, oqillik, adolat, sabr-toqatlilik, sovuqqonlik, vijdonlilik, erkinlik, kamtarlik, olijanoblik, tinchlikparvarlik, yengiltaklik, do'stlik, mehmuruvvatlilik, e'tiqod, teran fikrlash kabi tushunchalarga ta'rif

berilgan. Aristotel e'tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, halollik, ezgulik, bironing haqiga xiyonat qilmaslik, ota-onalarga mehr oqibatli bo'lish, hushyorlik, ziyraklik, adolatlilik kabi ma'naviy axloqiy fazilatlarga ega bo'lish har qanday jamiyat, davlat va xalqning eng katta boyligi, kuch-qudrati manbalaridan biri deb hisoblaydi. Uning fikricha, biron bir narsaga ega bo'lishdan maqsad undan foydalanishdir. Ko'zga ega bo'lgan odam ko'zini yumib yashamaydi, balki undan olamni ko'rish uchun foydalanadi, quloq va shu kabilar haqida ham shu fikrni aytish mumkin. U inson uchun biror narsaga ega bo'lish muhimmi yoki undan foydalanishmi, degan savolni o'rta tashlab, albatta muhimi foydalanishdir, chunki foydalanish va faoliyat ko'rsatish maqsadida u biror bir narsaga ega bo'lishni istaydi, deb hisoblaydi.

Sharqda, xususan Zardo'shtning "Avesto" kitobida ham odamlarni imonli-e'tiqodli bo'lishga, doimo pokiza yurishga, tanani ozoda tutishga, har qanday yomon niyat va so'zlardan tiyilishga, yomon amallardan voz kechishga, nojo'ya ishlarlardan yuz o'g'irishga da'vat etadigan axloqiy qoidalar, o'g'itlar ko'p. Kitobda "tanalaringiz haqida emas, balki qalbingiz haqida ko'proq qayg'uring", "Har bir inson kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshni olqishlab sig'inishi shart" degan qoida belgilangan.

Demak, Sharq va G'arbda falsafiy fikr ijtimoiy munosabatlar ta'sirida davrning ruhini, olam haqidagi bilimlar ifodasida bir-biri bilan mutanosibdir. Ammo bu qarashlarda muayyan farqlar ham mavjud.

### **Qadimgi dunyo Sharq va G'arb falsafasidagi farqlar**

Birinchidan, inson muammosini o'rganishga nisbatan yondashuvlarda G'arb va Sharq falsafasida tafovutlar mavjud.

Sharq falsafasi asosiy e'tiborni inson muammosiga qaratadi. Jumladan, "Avesto"da farzand ko'rish, bolalarni bilimli, odobli, jamiyat uchun foydali insonlar qilib tarbiyalash, kelajakni o'ylab ish tutish umuminsoniy ma'naviyat ekanligi ta'kidlanadi. Zardo'sht Axuramazdadan, serfarzand xonadonga nima berasan, deb so'raganda u "Bunday odamlarni o'z himoyamga olaman, hayotini farovon, risqini mo'l qilaman" deb javob bergan. Sharq falsafasi insonni amaliyot, odamlar hayot faoliyati, ularning turmush tarzi nuqtayi nazaridan o'rganadi. Shu sababli unda insonning o'zligi, uning shakllari va holatlari, odob-axloq, hukmdorlarga, turli yoshdagi

odamlarga, shuningdek jamiyatdagi ijtimoiy holati turlicha bo'lgan kishilarga amaliy nashatlar bilan bog'liq bo'lgan ayrim muammolar ko'p. Masalan, "Avesto"da keltirilgan "Zabardast va qudratli bo'lish uchun hamisha haqiqat va rostglikka muvofiq amal qilsang, zabardast va qudratli bo'lasan", "Haq so'zdan o'zga hech narsa bilan shug'ullanma", "Dunyoda taraqqiyot va kamolot sari harakatga soladigan kishilar bo'lmog'i lozim", "Yolg'on gapirib tirik qolgandan ko'ra, rost gapirib o'lgan yaxshi", "O'z nafsini yengib, jilovlab olmagan kishi, hech narsa ustidan g'olib chiqa olmaydi" kabi fikrlar hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

G'arb falsafasi esa, insonga uning ruhiy borlig'i yoki odob-axloq orqali emas, balki unga borliq va bilishning umumiy tamoyillari nuqtayi nazardan yondoshiladi. Shu bois u ontologik, gnoseologik, metodologik, estetik, mantiqiy, axloqiy, siyosiy va huquqiy muammolarni o'rganadi.

Ikkinchidan, Sharq va G'arb falsafasida dinga munosabatda keskin farqlar mavjud. Sharq falsafasi din bilan uzviy o'zaro aloqada rivojlanadi: masalan ayni bir falsafiy oqim falsafa sifatida ham, din sifatida ham namoyon bo'ladi. Bunga braxmanizm, induizm, buddizm, konfutsiychilik, zardo'shdiylik misol bo'lishi mumkin.

G'arb falsafasi esa ko'proq ilmiy metodologiyaga tayanadi va dindan ajralishga harakat qiladi. Qadimda G'arbning falsafiy ta'limotlaridan birortasi ham jahon diniga yoki hech bo'lmasa qadimgi Yunoniston va Rimda keng tarqalgan dinlardan biriga aylanmagan. Boz ustiga, G'arb antik falsafasida, avvalo, Demokrit, Epikur, Lukretsiy Kar va boshqa faylasuflarning asarlarida ateistik ohanglar ancha kuchli.

Uchinchidan, Sharq va G'arb falsafasining kategoriyalar apparati ham o'ziga xos farqlarga ega. Sharq falsafasida mifologiya va «Rigvedalar» taklif qilgan aksariyat kategoriyalar: in – ayollik asosi va yan – erkaklik asosi, ularning efir bilan birikmasi – si; yoki narsalarga besh moddiy birinchi asos – yer, suv, havo, olov va daraxtning birikmasi sifatida yondashish tabiiy bir hol sifatida qaraladi. Hayot va o'lim, jon va jismoniy tana, jon materiyasi, ong va uning holatlari kategoriyalari ayniqsa ko'p muhokama qilinadi. Sansara – jonning qayta gavdalanishi, o'zga shakl-shamoyilda namoyon bo'lishi, karma – inson o'limidan keyin tiriklik paytida qilgan ishlariga yarasha mukofot yoki jazo olishi yoki insonning individual taqdiri, askeza –

o'zini o'zi cheklash yo'li bilan g'ayritabiiy qobiliyatlarga erishish, nirvana – eng yuksak holat, inson erishishni ko'zlagan oliy maqsad, «materiya kishanlaridan xalos bo'lgan jon holati» kabi tushunchalar kiritilgan. Albatta, Sharq falsafasi harakat, qarama-qarshilik, birlik, materiya, ong, makon, vaqt, dunyo, substantsiya kabi odatdagi falsafiy kategoriyalardan ham foydalanadi.

G'arbda esa, falsafiy tizimlar mohiyati va ularning kurashini aks ettiruvchi falsafiy kategoriyalar apparatining yaratilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Tizim sifatidagi kategoriyalar haqida ilk bor Aristotelning «Kategoriyalar» risolasida so'z yuritilgan. U o'zidan oldingi falsafiy tafakkurni o'rganish asosida kategoriyalar jadvalini tuzgan. Bu jadval quyidagi kategoriyalarni o'z ichiga olgan: mohiyat (substantsiya), miqdor, sifat, munosabat, joy, vaqt, o'rin, holat, harakat, azob-uqubat. Aristotelning kategoriyalar jadvali falsafa va muayyan fanlar erishgan yutuqlar munosabati bilan uning tarkibini o'zgartirishni taklif qilgan Yangi davrga qadar kategoriyalar haqidagi ta'limotning rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatib keldi.

To'rtinchidan, Qadimgi Sharq va G'arbda materiyaning tuzilishi haqidagi ta'limotda farqlar mavjud. Sharq falsafasida, materiyaning diskretligi, uning tuzilishi muammosi qo'yilmaydi. Unda materiyaga asosan jonga «xalaqit» beruvchi muayyan omil yoki shakl bilan birlikda yoki muayyan substantsional asos sifatida yondashiladi.

G'arb antik falsafasida esa materiyaning diskret tuzilishi haqidagi ta'limot – atomistika vujudga keldi. Uning asoschilari qadimgi yunon faylasuflari Levkip va Demokrit bo'lgan, atomistika g'oyalarni Epikur va qadimgi rim faylasufi Lukretsiy Kar rivojlantirgan. Demokrit dunyo atomlar va bo'shliqdan iborat deb hisoblagan. Uning fikricha, atomlar – sifatga ega bo'lmagan mayda zarralardir. Sifatlar atomlarning shakl, o'rin va tartib jihatidan uyg'unligidan paydo bo'ladi. Demokrit, nima uchun sut oson ichiladi?, degan savolga, shuning uchunki, sut, «yumaloq atomlar»dan iborat, nima uchun xantalni sutday ichish mumkin emas? Shuning uchunki, xantal atomlari «ilmoqsimon»dir, deb javob beradi. U narsalar sifati va ularning rang-barangligini ham shunday tushuntirgan. Demokritning ta'limotida sababiyatning sodda izohlari bilan bir qatorda ayni shu sababiyatni narsalarning o'zida – atomlarda ko'rishga bo'lgan intilishga ham duch kelish mumkin.



Beshinchidan, Sharq va G'arb falsafasida bilish muammolari-ni yechishda farqlar mavjud. Sharq falsafasida mantiq muammolari bilan amalda hind nyaya (sansar, qoida, mulohaza, predmetga kirish, mantiq) maktabigina shug'ullangan. Nyaya falsafiy muammolarni yechishda mushohadaning ahamiyatini alohida qayd etgan. U haqiqat-ning tagiga yetishning to'rt manbai: idrok etish, xulosa chiqarish, taqqoslash va isbotlashni o'rganadi. Bu manbalar haqiqiy bilimga erishish imkonini beradi. Umuman olganda qadimgi Sharq falsafasiga ko'proq o'zini o'zi bilish xos. G'arb falsafasida esa bilish hissiy, empirik va oqilona jarayon sifatidagi emas, balki mantiqiy jarayon sifatida ham qaraladi, ya'ni mantiq muammolari atroflicha o'rgani-ladi. Bu muammolarni o'rganishga Suqrot, Platon, ayniqsa, Aristotel ulkan hissa qo'shgan.

Oltinchidan, Sharq va G'arb falsafasidagi o'ziga xoslik va farqlar ijtimoiy muammolarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladi. Sharq falsafasida bu o'tmish, hozirgi davr va kelajak manbai bo'lgan «dunyoviy inson» muammolari, shuningdek umuminsoniy qadriyat-lar, o'zini o'zi kamol toptirish, boshqa odamlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan insoniy fazilatlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, Konfutsiy Osmonga, uning ulug'vorligiga murojaat etib, ijtimoiy tuzilmalar ierarxiyasi, kishilar qat'iy subordinatsiyasining zarurligini ko'rsatishga harakat qiladi: «Osmon har bir insonga uning jamiyatdagi o'rini belgilaydi, uni taqdirlaydi, unga jazo beradi...» "Avesto"da esa insonning haq-huquqlari, burch va mas'uliyati haqida fikr bildirilgan. Jumladan, agar odam olgan qarzini o'z vaqtida qaytarib bermasa, u tunda bironing uyiga o'g'irlikka kirgan odam bilan barobardir. Shuningdek, unda qarindoshlarning o'zaro oila qurishi taqiqlangan, avlodlarning sog'lom, benuqson tug'ilishiga e'tibor qaratilgan. Bordi-yu erkak zurriyot qoldirishga qobiliyati bo'lib, so'qqa bosh bo'lib yursa, uning peshonasiga tang'a bosish yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur ekanligi belgilangan. Sharq falsafasida qonun muam-mosiga ham ko'p e'tibor beriladi. Ayrim faylasuflar uni rad etgan, ayrimlari esa unga tayangan. Xalq va podsho muammosi ham Sharq falsafasining muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Jumladan, "Avesto" da huquqiy masalalar: jinoyat va jazo, oila va nikoh, mulk bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi qoidalar o'z ifodasini topgan. Oilaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qoidalarda er - xotinning bir-biriga xiyonati yoki nikohsiz er-xotinlik munosabat-

larida bo'lgan kishilar tan jazosini olgan. Shuningdek, Avesto kitobida ko'p xotinlik qat'iyon taqiqlangan va agar erkak oilali bo'lgani holda boshqa ayol bilan shahvatda bo'lib, oilasiga xiyonat qilsa, u qopga solinib 40 darra bilan jazolangan. Ayolning oilasidan ajralish uchun da'vosi faqat uch vaziyatda qabul qilingan: agar er oilani uch yil davomida moddiy ta'minlamasa, xotinini qanoatlantirmasa va xotini-ga zug'um o'tkazsa, erning ajralish haqidagi da'vosi faqat xotin erga xiyonat qilgan holdagina qabul qilingan. Mayda chuyda arazlar, qarindoshimni hurmat qilmadi, chet elga ketdi, meni mensimadi kabi vaj karsonlar asosida oila ajralishiga ruxsat berilmagan. Zero, oilaga qo'yilgan asosiy vazifa avlodni davom ettirish bilan bog'liq bo'lib, bu vazifani er va xotin barobar bajarishi belgilangan. Avestoda farzand tarbiyasi uchun ayollarning bilimli bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan.

“Venidat” (Devlarga qarshi kurash qonuni)ning 13, 14- boblarida suvni tejash, uni qadrlash, undan unumli foydalanish haqidagi qoidalar bitilgan. Unda har kuni ekinni ikki marta sug'orish mumkinligi, har bir kunda ekuvchi bir belkurak kenglik va chuqurlikdagi ariqqa sig'adigan suv olishga haqli ekanligi, suvni taqsimlash bilan kohinlar shug'ullanishi, suvni ifloslantirishni taqiqlovchi qoidalar belgilangan. Bu qoidalarni buzganlarga nisbatan majburiy mehnatga jalb qilish jazosi belgilangan.

G'arbda esa, xususan, qadimgi yunon va qadimgi Rim falsafasida ijtimoiy muammolar doirasi kengroq. Ularni o'rganish usullari ham Sharq falsafasidagi usullardan ancha farq qiladi. Birinchidan, Demokritdan boshlab, qadimgi dunyoning deyarli barcha faylasuflari davlat, qonun, mehnat, boshqaruv, urush va tinchlik, mayllar, manfaatlar, hokimiyat, jamiyatning mulkiy tabaqalanishi muammolariga murojaat etganlar. Ikkinchidan, bu ijtimoiy-falsafiy muammolarni tadqiq etish jarayonida insonni jamiyatga bog'lab o'rganish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Demokrit shunday deb yozadi: «Umumiy muhtojlik ayrim insonning xususiy muhtojligidan og'irroqdir. Zero umumiy muhtojlikda yordamga hech qanday umid qolmaydi»; «qonun odamlarning hayotini tartibga solishni xohlaydi, bunga u faqat odamlar o'zlariga yaxshi bo'lishini istagan taqdirda erishishi mumkin. Zero qonun o'ziga bo'ysunadigan kishilargagina ijobiy ta'sir ko'rsatadi»; «Oqil odamga butun dunyo ochiq. Zero yaxshi qalb uchun butun dunyo vatandir». Platon ham

ijtimoiy muammolarni tahlil qilgan. U davlatning mohiyati va shakllarini shaxs, ayniqsa, podshoni shaxsi nuqtayi nazaridan o'rgangan. Uning fikricha, podsho haqiqatparvarlik, oqillik, mardlik, adolatparvarlik kabi fazilatlariga ega bo'lishi lozim; umuman olganda, podshoda insonning barcha qobiliyatlari mavjud bo'lishi darkor. Platon insoniyat tarixida birinchi ideal davlat nazariyasini yaratadi. U davlatning uch shaklini tan oladi: monarxiya, aristokratiya va demokratiya. Bu shakllarning har biri ikki ko'rinishda: qonuniy va noqonuniy yoki zo'rlik ishlatishga asoslangan ko'rinishlarda amal qiladi. Platon davlatning qonuniy shaklini ma'qul ko'radi. Uning fikricha, davlatni faylasuflar hammadan yaxshiroq boshqara oladilar. Platon o'zining «Davlat» asarida bu haqda shunday deb yozadi: «Agar qashshoq va yo'qsillar o'z shaxsiy manfaatlarini qondirishni ko'zlab, jamiyatni boshqarish imkoniyatini qo'lga kiritgan bo'lsalar, bundan yaxshi ish chiqmaydi: hokimiyat bellashuv maydoniga aylanadi va bunday ichki urush uning ishtirokchilarini ham, qolgan fuqarolarni ham halokatga mahkum etadi. Hokimiyat uni sevguvchi kishilar qo'lga o'tishga ham yaramaydi. Aks holda ular bilan bu sevgida raqiblar bellashadi...». Aristotel ham o'zining «Siyosat» asarida davlat nazariyasini bayon etgan. U: «Davlat nima uchun vujudga kelgan va insonni uning jamiyatdagi hayotida boshqaruvchi hokimiyatning nechta turi bor?», degan savolni o'rta tashlaydi va o'zining bu savoliga shunday javob beradi: «Davlat yashash uchun yaratilmaydi, balki asosan baxtli yashash uchun yaratiladi. Davlat oilalar va jamoalar o'rtasida yaxshi hayot kechirish uchun aloqalar o'rnatilganda, farovon va o'ziga hos mavjudlik maqsadida vujudga keladi». Aristotel Davlat hokimiyatining «uch yaxshi» va «uch yomon» shaklini qayd etadi. Davlat hokimiyatining «yaxshi» shakli deganda u jamiyatga xizmat qiluvchi hokimiyat shakllari: monarxiya, aristokratiya, «politiya», ya'ni o'rta sinf hokimiyatini tushunadi. Davlat hokimiyatining «yomon» shakllari qatoriga Aristotel tiraniya, sof oligarxiya va ashaddiy demokratiyani kiritadi.

Qadimgi dunyo falsafasi haqidagi so'zimizga yakun yasas ekanmiz, shuni qayd etishni istar edikki, u mazkur dunyo madaniyatining o'zagi hisoblanadi. G'arb va Sharq ma'naviy sivilizatsiyasining qiyofasini belgilaydi. Gap shundaki, falsafa qadimgi dunyoning barcha ma'naviy qadriyatlari: san'at va din, axloq va estetik tafakkur, huquq va siyosat, pedagogika va fanni qamrab olgan.

Xullas, Sharq ma'naviy sivilizatsiyasi shaxsning borlig'iga, uning o'zlikni anglash tuyg'usiga va moddiy dunyodan uzoqlashish orqali o'zini o'zi kamol toptirishiga murojaat etish ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, bu Sharq xalqlarining turmush tarzida va madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish usullarida o'z aksini topgan. G'arb ma'naviy sivilizatsiyasi o'zgarishlarga, haqiqatning tagiga yetish yo'lidagi izlanishlarga ochiq bo'lgan. Bu izlanishlar turli, shu jumladan ateistik, intellektual va amaliy yo'nalishlarda namoyon bo'lgan.

Umuman olganda qadimgi dunyo falsafasi keyingi davrlardagi falsafiy tafakkur va madaniyatga, kishilik jamiyatining rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

### **O'rta asrlar Sharq va G'arbda falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari**

Birinchidan, o'rta asrlar Sharq va G'arb falsafasi ilohiyot va dinning hukmronligi bilan tavsiflanadigan feodal jamiyat falsafasidir. Feodal tuzum sharoitida feodal mulkdorlik bilan bir qatorda hunarmandlar va dehqonlarning shaxsiy mehnatiga asoslangan xususiy xo'jalik ham rivojlangan. Quldorlik jamiyatidan farqli o'laroq, feodal ishchini sotishi va sotib olishi mumkin bo'lgan, lekin uni o'ldirish huquqi berilmagan. Ishlab chiqarish munosabatlarining bunday rivojlanishi ularni ijtimoiy-psixologik va mafkuraviy jihatdan mustahkamlashni talab qilgan. Feodal madaniyatni mafkuraviy jihatdan birlashtiruvchi asos Din bo'lgan.

Ikkinchidan, O'rta asrlarda din Sharqda ham, G'arbda ham feodal jamiyatning hukmron mafkurasi hisoblangan. Bu davrda G'arbda cherkov, Sharqda masjid siyosiy jihatdan ham o'ta markazlashgan tashkilot, eng yirik kuch bo'lgan. Dindorlar amalda birdan-bir o'qimishli odamlar bo'lgan. Huquqshunoslik, tabiatshunoslik va falsafaning mazmuni diniy ta'limot bilan muvofiq holatga keltirilgan. Muqaddas kitob aqidalari falsafiy mulohazalarning tayanch nuqtasiga aylangan. Bu davrda bilim emas, balki e'tiqod, fan emas, balki din afzal ko'rilgan. Teotsentrizm, ya'ni Xudoga, uning mohiyatiga dunyoning birinchi sababi va birinchi asosi sifatida yondashish o'rta asrlar falsafasiga xos xususiyatdir. Masalan, O'rta asrlarda Xitoyda dao haqidagi ta'limot din ehtiyojlariga to'la moslashtirilgan: dao tabiiy qonun sifatida emas, balki ilohiy qonun sifatida namoyon bo'lgan.

Buddizm falsafasi asosiy e'tiborni borliqning o'tkinchiligi va yo'qlikning haqiqiyliги, jonning boqiyliги va abadiy ma'naviy dunyo-

ni anglab yetish yo'lida o'zlikni kamolotga yetkazish orqali uning o'z shakl-shamoyilini o'zgartirishi bilan bog'liq muammolarni o'rganishga qaratgan.

Konfutsiychilik feodal tuzumni oqlash uchun buddizm va daosizmning idealistik va daosizm g'oyalarini o'zlashtirgan: odamlar o'zlarining «yomon» niyatlarini jilovlab, taqdirga bo'ysunishlari lozim. Hokimiyatga bo'ysunish, uni ardoqlash va hurmat qilishni talab etuvchi «Osmon qonuni» haqidagi ta'limot konfutsiychilikda eng muhim ta'limotga aylangan.

Yevropa feodalizmi sharoitida ham xristian dini hukmronlik qilgan. U o'zining odamlar aqli va qalbini nazorat qilish markazlashtirilgan tizimini ko'p sonli tarqoq feodal davlatlarga qarshi qo'ygan. Bu nazoratni avvalo Rim Papasi boshchiligidagi katolik cherkovi amalga oshirgan. Ayni vaqtda cherkov qadimgi dunyoning «majusiycha» falsafasiga, ayniqsa materialistik ta'limotlari yot ko'z bilan qaragan. Shu sababli antik davrning falsafiy merosini o'zlashtirishga nisbatan xolisona yondashilmagan. bu meros qismlarga bo'lib o'zlashtirilgan, asosan diniy aqidalarni mustahkamlovchi idealistik g'oyalarni tarqatishga yo'l qo'yilgan.

### **O'rta asrlar Sharq falsafiy tafakkurining rivojlanish xususiyatlari**

Markaziy Osiyo – sivilizatsiyaning qadimgi o'choqlaridan biri. IX asr Markaziy Osiyoda birinchi renessans davridir. Bu M.Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Beruniy, al-Forobiy, Zamashxariy, Chixmoniy kabi buyuk mutafakkirlarning tabiiy ilmiy bilimlar rivojiga qo'shgan hissasida o'z ifodasini topgan. Bu davrda xalifalik markazlari – Bag'dod va Damashqda madaniyat va fan ravnaq topgan. Xalifalar al-Mansur (754-776), Horun ar-Rashid (786-809), Ma'mun (813-833) hukmronligi davrida hind va yunon adabiyotlarining tarjimalariga qiziqish ayniqsa kuchaygan, Aristotel, Galen, Gippokrat, Arximed. Yevklid kabi yunon faylasuflarining ilmiy merosi o'rganilgan. IX asr boshida Bag'dodda «Dor ul hikmat» - «Bilim uyi» tashkil etildi. Bu dargohda xalifalikning turli shaharlaridan taklif qilingan olimlar astronomiya, tibbiyot, tarix, geografiya, kimyo, falsafa va boshqa fanlarni o'rgandilar. IX asrda boshlangan arab istilosiga qarshi kurash mustaqil davlat qurish va xalifalikka qaramlikdan xalos bo'lish uchun kurashga aylandi. Natijada Markaziy Osiyo mo'g'ullar istilosini boshdan kechirdi va unga qarshi kurash jarayonida XIII asr

boshlarida bir necha davlatlar – Tohiriylar, Somoniylar, Saljuqiylar va Gʻaznaviylar davlatlari paydo boʻlib, ular keyinchalik tor-mor qilindi. IX asr boshlarida dastlab Somoniylar davlati vujudga kelgan boʻlsa, XIII asrning 20-yillarida Xorazmiylar davlati moʻgʻullarning uzluksiz hujumi ostida qoldi. Biroq koʻp asrlik urushlarga qaramay, Markaziy Osiyoda madaniyat, fan, sanʼat va adabiyot rivojlanishda davom etdi. Bu davrda al-Xorazmiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, va boshqa buyuk allomalar yashab ijod qildilar. Ular yaratgan asarlar ahamiyatiga koʻra oʻsha davrni Markaziy Osiyoda uygʻonish davri deb nomlash mumkin. Uygʻonish davri fani va madaniyatining oʻziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Barcha odamlarni maʼrifatli qilishga intilish, bu yoʻlda oʻtmish merosidan va qoʻshni mamlakatlarning fan, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, tabiiy-falsafiy va ijtimoiy fanlarni rivojlantirish;

2. Tabiatni oʻrganish, tabiiy-ilmiiy bilimlarni oqilonalikka tayanib rivojlantirish, aqlning kuchiga ishonish, asosiy eʼtiborni haqiqatni bilishga qaratish, haqiqatni inson bilimining negizi deb bilish;

3. Insonga xos tabiiy, badiiy, maʼnaviy fazilatlarini yuksaltirish, insonparvarlikni ulugʻlash, barkamol avlodni tarbiyalashda oliy maʼnaviy qonunlarga rioya qilish;

4. Universalizm – borliq va ijtimoiy hayotning barcha muammolariga qiziqish, bu davr madaniyatining muhim jihatlari.

Bu davr madaniyati umuminsoniy qadriyatlarining rivojlani-shiga xizmat qilgan. Savdo-sotiqning rivojlanishi, iqtisodiy aloqalar-ning kengayishi, xalifalikning turli viloyatlari oʻrtasida madaniy qad-riyatlar almashinuvi va uning boshqa mamlakatlar bilan aloqalarining kuchayishi, tabiiy va madaniy boyliklar, turli xalqlarning anʼanalari, tili va tarixini oʻrganish bilishning eng toʻgʻri yoʻllari va usullarini yaratish, bilish jarayonining butun apparatini takomillashtirishga boʻl-gan ehtiyojni kuchaytirdi. Fanning optika, matematika, astronomiya kabi tarmoqlarining jadal rivojlanishi tabiatni chuqur oʻrganish va tadqiqot metodlarini kengaytirishga imkoniyat yaratdi. Oʻrta asrlarda Sharq falsafasi mifologiya va din negizida emas, balki fan negizida ham rivojlanadi. Sharq olimlari matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, tarix, alximiya sohasida qoʻlga kiritgan yutuqlar maʼlum. Ta-bib, munajjim, sayyoh boʻlgan Sharq faylasuflari mavxum mulohaza-larga emas balki koʻproq tabiatshunoslik va tajribaga tayanganlar.

Sharq falsafiy tafakkurining yirik namoyandalari orasida Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf, qomuschi-olim, Yaqin va O'rta Sharqda aristotelizm asoschilaridan biri Forobiy, buyuk faylasuf va tabib Ibn Sino (Avitsenna), atoqli astronom, matematik, shoir va mutafakkir Umar Xayyom, tabib va faylasuf Ibn Rushd (Averroes) bor. Quyida ularning ba'zilarini ijodini tahlil etamiz.

Abu Nasr Muhammad ibn Tarxon al Forobiy (870-950), asarlari: Kitob-ul xuruf, Fozil odamlar shahri, Ehsoul ulum, Siyosat falsafasi, Fuqarolik siyosati) falsafa va tabiiy fanlar tarixiga oid yuzga yaqin asar muallifidir. U fanlar bilish vositalari ekanligidan kelib chiqqan. Bunda mutafakkir nazariy ( mantiq, falsafa, tabiiy fanlar) va amaliy (axloq, siyosat) fanlarni farqlagan. Fanlar tizimida u insonga haqiqiy bilimni soxta bilimdan farqlash imkonini beruvchi mantiqni birinchi o'ringa qo'ygan. Ayni shu sababli faylasuf inson tafakkuriga alohida e'tibor bergan. Aynan falsafa insonga borliqning mohiyatini tushunish imkonini beradi. Borliq «yagona» va ayni vaqtda «ko'p»dir. Borliqning mazkur holati emanatsiya, ya'ni «yagona» muhitdan borliqning turli muhitlari kelib chiqishi mahsulidir. Forobiy asarlarida dunyo bir-biriga kiruvchi to'qqiz gumbaz ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu gumbazlarda ularning Yer atrofida aylanishi sababi hisoblangan jonlar yashaydi. Gumbazlar o'z harakatini dastlabki turtkidan boshlagan. Forobiy dunyoning rang-barangligini tushuntirish uchun Aristotelning shakl va materiya haqidagi ta'limotidan foydalangan. U jonning umrboqiyliigi haqidagi masalada Platonning jonning bir tanadan ikkinchi tanaga ko'chishi haqidagi fikriga qo'shilmagan, chunki uning paydo bo'lishi va o'limi tananing paydo bo'lishi va o'limi bilan bir vaqtda yuz beradi, deb hisoblagan. Ayni shu sababli Forobiy ijodida bilish nazariyasi Platondagi kabi xotirlash nazariyasi emas, balki dunyoni sezgi va aql birligi sifatida anglab yetish nazariyasidir. Bunda aqlli jon narsalar tabiatini sezgilar idrokidan foydalanib anglab yetadi. Narsalarning mohiyati aql bilan anglab yetiladi. Bunda aql avvalo mantiqqa tayanishi, lekin sezgi a'zolari beruvchi materialdan foydalanishi lozim. Forobiy borliqning birinchi sababi va harakat manbai sifatida Xudo mavjud deb hisoblagan bo'lsa-da, uning falsafasi bilish va borliqning murakkab masalalarini yechishga intilish bilan tavsiflanadi. Ayni shu sababli faylasuf borliqning holatlarini, uning shakllarini: oddiy elementlar – havo, olov, yer, suvni; shuningdek minerallar, o'simliklar, hayvonlar, inson

va osmon jismlarini sinchiklab o'rganadi. Shu tariqa u tashqi dunyoning ob'ektiv mavjudligiga urg'u beradi. Forobiyning falsafiy qarashlari Sharq falsafasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Forobiyning gnoseologiyasi tabiatshunoslik, matematika, musiqa, tilshunoslik va boshqa fanlar sohasidagi bilimlarga asoslandi. U tabiat insondan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir, deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, ob'ekt sub'ektga qadar mavjud bo'lgan. Seziladigan narsalar sezgilardan oldin paydo bo'lganidek, bilish mumkin bo'lgan narsalar ham bilishdan oldin paydo bo'lgan. Forobiy fikricha, inson bilimlarni tashqi dunyodagi hodisalarni bilish jarayonida o'zlashtiradi. Bu jarayon sezish, idrok etish, xotirlash, tasavvur qilish va eng muhimi – mantiqiy mulohaza yuritish, tafakkur kabi usullarni qamrab oladi. Bu vositalar yordamida inson fanni o'rganadi. Forobiy «Fan va san'atning o'ziga xos xususiyatlari» asarida tabiatni bilishning uzluksizligini, bilish – bu bilishdan bilimga, sababni bilishdan oqibatni bilishga, hodisani bilishdan mohiyatni bilishga eltuvchi yo'l ekanligini qayd etadi. Forobiy fikricha, inson paydo bo'lganidan so'ng avvalo «oziqlantiruvchi kuch» paydo bo'ladi, uning yordamida oziqlanish jarayoni yuz beradi. So'ngra sezgi organlari paydo bo'ladi, ular insonga sezish, tasavvur qilish qobiliyati va xotirani beradi. Shundan keyingina inson «orzu kuchi» yordamida bilim va hunarlarni o'zlashtiradi, foydali narsalarni foydasiz narsalardan farqlaydi, o'z xulq-atvorini tartibga soladi. Forobiy insonning barcha kuchlari ma'lum sezgi organlari bilan moddiy sabab orqali bog'lanadi, bu kuchlarning birortasi ham moddiy sababsiz mavjud bo'la olmaydi, deb hisoblaydi.

Forobiy inson ruhining bir tanadan boshqa tanaga o'tishini qat'iy rad etadi va ruh ham, tana kabi substantsiyalarning individual birligidan iborat, deb hisoblaydi. Uning bu fikri noizchil bo'lgan. Bunday noizchilik Aristotelning bilish nazariyasida ham kuzatiladi. Aristotelga ergashib Forobiy ham ayrim narsalar birlamchi, mavjud tushunchalar va g'oyalari – ikkilamchidir va ular aqlda muayyan narsalarning mavhumlashishi natijasida paydo bo'ladi, deb hisoblaydi. Forobiyning bu g'oyalari universalialar va umumiy tushunchalar haqidagi qarashlarida yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Universalialar mavjud bo'lgani uchun ham umumiy tushunchalar mavjuddir, deb hisoblaydi buyuk mutafakkir. Bilish bosqichlari o'rtasidagi farqlarni tushunish Forobiya bilish yo'llari to'g'risida mulohaza yuritish



imkonini beradi. Bilishning fiziklar foydalanuvchi birinchi yo'li sezishdan boshlanishi lozim, chunki tana sezgiga yaqinroqdir. Bu hol sezgilar muayyan narsalarni aks ettirishi bilan izohlanadi. Narsalar sezgi organlarida aks etgach, jismni va uning yuzasi, chiziqlari va nuqtalarini mavhum o'rganishga o'tishi lozim. Matematiklar jismning u yoki bu jihatlarini teranroq bilish uchun foydalanuvchi bilishning ikkinchi yo'li mavhumlashtirishdan boshlanishi darkor. Bilishni mavhum nuqtadan boshlagan aql muayyan jism bo'ylab harakatlana boshlaydi, mavhum chiziq, yuza, jismni anglaydi va so'ngra muayyan jismni tushunib yetadi.

Ilmiy bilim va falsafiy tafakkurning rivojlanishi bilish yo'llariga boshqacha nazar tashlash imkonini beradi, biroq Forobiy ilgari surgan g'oya Gegel falsafasida o'zining yanada barkamolroq ifodasini topadi. «Vazifa bilishdan iborat bo'lgani tufayli, kuzatish bilan taqqoslash haqidagi masala undan voz kechish ma'nosida yechilgandir. Endilikda masala faqat bilish doirasida nima birinchi bo'lishi va undan keyin nimalar anglab yetilishi lozimligi haqida bo'lishi mumkin. Endi tabiatga muvofiq yo'l emas, balki bilishga muvofiq yo'l talab etiladi. Bilish fikrning muayyan mazmunidan ko'ra, mavhum mazmuni anglab yetishi osonroqdir». Binobarin, bilish masalasi borliqning qaysi jihati biluvchi sub'ektning ob'ekti hisoblanishidan kelib chiqib hal qilinadi. Umuman, Forobiy g'oyalari nafaqat Sharq fanining, balki G'arb ijtimoiy-falsafiy tafakkurining rivojida ham muhim rol o'ynadi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) asarlari: "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Minerologiya") tabiat va uning ob'ektiv qonunlari mavjudligiga shubha qilmagan. U tabiat muttasil o'zgarish va rivojlanishda bo'ladi, materiya narsalar shaklini o'zi yaratadi va o'zgartiradi, jon (tafakkur, ma'naviy hodisalar) tananing muhim xossasidir, deb ta'kidlagan. Ma'lumki, tajriba, eksperiment borliqni bilish usullaridan biri hisoblanadi. Beruniy shunday deb yozadi: «Mendagi ishtibohni faqat tajriba va takroriy sinov bartaraf etishi mumkin, so'zlovchilarning yakkidilligiga qaramay, buning haqiqiyliги tajribada o'z tasdig'ini topmagan».

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, «Beruniyni yetarli asos bilan o'rta asr fanida empirik metod yaratuvchilaridan biri deb hisoblash mumkin. U metallar va minerallarning xossalari va solishtirma og'irligini aniqlash bo'yicha bir qancha tajribalar o'tkazdi». Tajribada olingan bilimni mutafakkir ayrim me'yorlarga muvofiq ishonchli

bilim deb talqin qiladi. Ularning orasida ob'ektlarning kuzatuvchanligi, tajribalarning qayta o'tkaziluvchanligi va kuzatishlarning tekshiriluvchanligini qayd etish mumkin. Bu mulohazalar tajriba, bilim olish va uning haqiqiylikini tekshirish metodi sifatida, o'rta asr sharoitida ham ancha keng tarqalgan. G'oya ilgari surilgani va ishonchli bilimning olinishi tajriba bilan bog'lanishi, bilimning haqiqiylikni tajribada sinishi muhimdir.

Beruniyning ijodida kuzatish muhim o'rin egallaydi. Tabiatni ilmiy o'rganishda kuzatish bilishning boshqa shakllari bilan o'zaro bog'langan. Beruniy fikricha, kuzatuvchi kuzatilayotgan hodisani u yuz berayotgan joyda idrok etadi. Binobarin, kuzatish u yoki bu hodisani uning muayyan ko'rinishida qayd etadi. Kuzatishlarning eski ma'lumotlari ob'ektning haqiqiy ko'rsatkichini ancha buzib ifodalashi mumkin. Beruniy tadqiqotchi o'tkazgan tajriba va uning natijasi amalda ishonchli ekanligini qayd etadi. U «Sinovdan boshqa ustuvor dastur, tajribada tekshirishdan o'zga muvaffaqiyatga eltadigan dasturilamal yo'q», deb yozadi. Beruniy astronomik kuzatishlar vositasida Oy va Quyoshning tutilishi, ularning Yerdagi hayotga ta'siri, iqlim, tabiiy va sun'iy tanlanish, saqlanish, rivojlanish anomaliyasi kabi murakkab muammolarni yangi ilg'or metod va nazariy tamoyillar yordamida yechishga harakat qildi. Beruniy Sharqda astronomiya kuzatish asboblarini yaratish texnikasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixida ham yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. U o'sha davrda ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanilgan eski asboblarni takomillashtirish va yangilarini yaratishga alohida e'tibor bergan. Olimni o'ta aniqligi va mukammalligi bilan ajralib turuvchi kuzatish asboblarini yaratish imkoniyati masalasi qiziqirgan. Shunday qilib, samo jismlarining holatlarini nafaqat asboblarning vositasida, balki o'rganilayotgan ob'ekt xususiyatiga muvofiq amalga oshirishni allomaning ulkan xizmatlaridan biri deb hisoblash mumkin. Bunday metodologik mo'ljal, ilmiy tadqiqotlar jabhasi cheklanganligiga qaramay, ilmiy bilishning yangi yo'llari va vositalarini topish borasidagi izlanishlarda muhim rol o'ynadi.

Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) (980-1037) 300 dan ortiq asar muallifi, mashhur qomusiy alloma va faylasuf. Ularning orasida «Tib qonunlari» va «Bilim kitobi», "Donishnoma", "Xay ibn Yakzon o'g'li" ayniqsa keng dovruq qozongan.

Ibn Sino fanlarning tadqiqot ob'ektlariga ko'ra tasniflashni taklif qilgan. Ibn Sino tabiat azaliy va abadiydir, uning qonunlari o'z-o'zidan o'zgar olmaydi va inson ularni anglab yetishga qodir, jon tana faoliyati bilan belgilanadi va uning individual umrboqiyligi mumkin emas, degan fikrni ilgari surgan.

O'sha davrda u shug'ullanmagan fanning o'zi bo'lmagan. Tibbiyot bilan bir qatorda, Ibn Sino falsafa, xususan bilish nazariyasini ham faol tadqiq etgan. Ibn Sino moddiy dunyo predmetlarini sezgilar manbai deb hisoblab, ularning ob'ektiv tabiatini tashqi moddiy dunyo in'ikosi sifatida yoritadi. Bundan tashqari, u sezgini materiyaning xossalaridan biri deb e'tirof etadi. Alloma sezgini materiyaning oliy shakllari bilan bog'laydi. Ibn Sino "mavjud narsalarni tasniflar ekan, sezgi hayvonlar deb ataluvchi jismlarga xosligini qayd etadi".

Ibn Sino neoplatoniklarning jon hissiy narsalarni tananing biron-bir a'zosisiz idrok etadi, degan ta'limotini asossiz deb hisoblaydi. «Qadimda ayrim olimlar (neoplatoniklar) jon hissiy idrok etiluvchi narsalarni hech qanday organlarsiz bevosita sezadi, deb faraz qilganlar. Muhitga kelsak, bu, masalan, ko'rish uchun muhit bo'lib xizmat qiluvchi havo, organlarga kelsak, bu, ko'rish organi bo'lib xizmat qiluvchi ko'zdir. Biroq, ular haqiqatdan uzoqdir, chunki hissiy idrok etish jonning o'zida bu organlarsiz yuz berganida, mazkur organlar behuda yaratilgan bo'lib chiqar, ulardan hech qanday naf bo'lmas edi», deb yozadi va so'zining davomida neoplatoniklarning qarashlari asossiz ekanligini ta'kidlab, haqiqat sezgilar tana a'zolariga muhtojligidadir, degan xulosaga keladi. Ibn Sino sezgilar va sezgi organlari haqida gapirar ekan, u yoki bu sezgining yuzaga kelish mexanizmini ilmiy tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, hech qanday jism o'z holicha ovozga ega bo'lmaydi. Ovoz ikki jism to'qnashganda havo va harakatning tebranishi natijasida yuzaga keladi. Bu to'lqinlar juda tez tarqaladi. Ular quloqqa yetgach, tebranuvchi havo eshitish nervlariga tegadi va ular bundan jonni xabardor etadi. Bu tavsif ancha sodda bayon etilgan bo'lsa-da, hozirgi tasavvurlarga mos keladi. Shuningdek, Ibn Sino sezgilarni hali ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazi sifatida idrok etmaganidan dalolat beradi. Sezgilarni tashqi ta'sirning organizmdagi harakati sifatida tushuntirar ekan, Ibn Sino uni mexanik talqin qiladi.

Ibn Sino ko'rish haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Ko'rish jarayonini tushuntirar ekan, u ayni vaqtda Platonning bu boradagi ta'limoti asossiz ekanligini asoslaydi. Ibn Sino yorug'likni ko'rishning asosiy vositasi sifatida alohida qayd etadi. Alloma sezgilarni va tuyg'ularning barcha shakllarini o'rganib, ularning fiziologik asoslarini, ya'ni miya tuzilishida sezgi markazlarining joylashuvini tushuntirishga harakat qildi. Miyani aks ettirish faoliyatining bosh apparati deb talqin qilib, Ibn Sino hissiy bilish shaklini miya bilan bog'ladi va uni idrok etish va sezish asosi deb e'tirof etdi.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, in'ikos faqat aks ettiruvchi tizimga bog'liq emas. Sezish markazi miyaning old qismida, tasavvur qilish markazi – miyaning o'rta qismida, eslab qolish qobiliyati – miyaning orqa qismida joylashgan. «Kitob un-najot» asarida Ibn Sino har bir sezgining fiziologik asoslarini tadqiq etar ekan, hissiy bilish jarayonida asablar muhim rol o'ynashini qayd etadi. Uning fikricha, miya asablar vositasida sezgilar va harakatlarni insonning boshqa a'zolariga uzatadi. Asablar miya uchun o'tkazgichlar bo'lib xizmat qiladi. Umumiy ma'lum tasavvurga ko'ra, asablar bosh miyada boshlanadi va ularning tarmoqlari terining yuza tomonida tugaydi. Demak, Ibn Sino hissiy bilishning fizik va fiziologik asoslarini ilmiy yo'l bilan tushuntirishga harakat qiladi. Ibn Sino Markaziy Osiyoning boshqa mutafakkirlari kabi tasavvurni ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Ibn Sinoning falsafiy merosini qiyosiy o'rganish tabiatni hamda tasavvurning gnoseologik funksiyasini tushunishda u asosan yagona yondashuvga tayanganini ko'rsatadi. Ibn Sino tasavvurning kuchi shundaki, umumiy sezgiga kiruvchi hamma narsa bizning sezgilari-mizgacha yetib boradi, deb qayd etadi.

Shunday qilib, Ibn Sino fikriga ko'ra, tasavvurning gnoseologik funksiyasi shundan iboratki, u tashqi narsalarning obrazlarini gavdalantiradi, hissiy idrok etiluvchi narsalar yo'qolganidan keyin ham ularni xotirada saqlab qoladi. Ibn Sinoning fikricha, mohiyat uch tarzda namoyon bo'ladi.

Birinchiidan – narsa sezgilarda ularni kuzatish jarayonida aks etadi. Bu yerda narsalarning sezgi organlarida bevosita aks etishi nazarda tutiladi. Ibn Sino in'ikos konsepsiyasini bilish jarayoni sifatida qayd etar ekan, bilish darajalari to'g'risidagi masalani ko'taradi. Ma'lumki, bu mo'ljal Yangi davr falsafasida ishlab chiqilgan va nemis klassik falsafasida o'zining tadrijiy yakunini topgan.

Ikkinchidan – ob'ektiv borliqda amalda mavjud bo'lmagan narsaning mohiyati anglanadi. Bu yerda formal ahamiyat kasb etuvchi va moddiy borliq bilan bog'lanmaydigan ideallashtirilgan ob'ektlar mohiyatini bilish nazarda tutiladi. Bu mohiyat inson aqlining ijodiy qobiliyatini namoyon etadi.

Uchinchidan – narsa obrazi muayyan sharoitlarda biluvchining jonida aniq aks etishi mumkin. Bu tamoyilda narsani sezgi bog'liq bo'lgan aloqalardan mavhumlashtirish imkonini beruvchi mavhumlashtiruvchi kuchi qayd etiladi. Bunda narsaning obrazi uning substrati mavjud emasligidan qat'iy nazar aks etishi mumkin. Shundan kelib chiqib, Ibn Sino oqilona bilishda mavhumlashtirish muhim rol o'ynashini qayd etadi. «Bilish narsa obrazini mavhumlashtirishning ayrim o'zaro bog'langan bosqichlaridan iborat jarayon bo'lib, uning natijasida biluvchining ongida predmetning mohiyati va xususiyatlarini ifodalovchi tushuncha vujudga keladi. Bunday mavhumlashtirish bosqichlari to'rtta». Ibn Sino «umumiy sezgi»ni ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Uning fikricha, umumiy tuyg'u – bu miyaning old qismida joylashgan kuch bo'lib, u besh sezgida aks etuvchi barcha shakllarni va ular uzatuvchi kuchni mustaqil qabul qiladi. Binobarin, Ibn Sino fikriga ko'ra, sezgi organlari yordamida olingan tuyg'ular umumiy sezgi vositasida birlashtiriladi va narsaning hissiy obrazi yaratiladi. Obraz deganda alloma narsaning tashqi xususiyatlari va xossalari, materiyaning aktsidental tomonlari yig'indisini tushunadi. Masalan, inson va uning obrazi haqida so'z yuritar ekan, u shunday deb yozadi: «Uning obrazi bu uning uzunligi, kengligi, sifati, miqdori va uning holati, ya'ni inson bilan bog'liq barcha narsalardir».

Ibn Sinoning yuqorida bayon etilgan g'oyalari ilmiy tafakkur shakllanishining keyingi davrlarida rivojlantirildi va yangi natijalar bilan boyitildi. Shunday qilib, bilish jarayonining pirovard maqsadi ob'ektlar mohiyatini bilishdan iborat bo'lgan murakkab jarayondir. "O'rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari asosan bilish bilinayotgan ob'ektning in'ikosidir, degan nuqtayi nazardan kelib chiqdilar. Bunda insonning sezgi organlari bevosita bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi, ya'ni sezgilar yordamida bilinuvchi ob'ektiv dunyo bilish manbai sifatida amal qiladi".

### **So'fizm falsafasi**

Bilish muammosi so'fizmning eng muhim tomonini tashkil etadi. Mo'tadil so'fizm ta'limotiga ko'ra gnostik (orif)ning asosiy

vazifasi oliy maqsadga erishish – haqiqatni bilishdan iborat. Bu maqsadga o'zini o'zi takomillashtirish va o'zini o'zi bilish yo'li bilan erishiladi. O'z mohiyatini bilish jarayonida inson o'zida ilohiy unsurlar mavjudligini, Allohni bilishning birdan-bir to'g'ri usuli o'zini o'zi bilish, ya'ni o'zlikni anglash ekanini tushuna boshlaydi.

Biroq bilishning bu darajasiga yetish uchun odam o'zini butunlay o'zligini anglashga baxshida etishi lozim. U so'fiycha turmush tarzini tanlashi, shuningdek haqiqat sari yo'l tutgan kishilarga qo'yiladigan ayrim boshqa talablarni bajarishi darkor. Mo'tadil so'fizm vakillari qatoriga Xorisi Muhosibiy, Abulqosim Kushayriy, Abu Homid G'azzoliy va boshqalar kiradi. Ular so'fiy shariat chizig'idan chetga chiqmasligi, uning barcha so'zlari va ishlari Qur'oni karim aqidalari va Muhammad payg'ambar hadislariga muvofiq bo'lishi lozim, deb hisoblaydilar.

«Vahdati vujud» (borliqning birligi) nuqtayi nazarida turuvchi so'fiylar so'fizmning ashaddiy tarafdorlari hisoblanadi. Ular Haqiqat (Alloh) va tabiatni bir deb qaraydilar. Tabiat ilohiy emansipatsiya oqibatidir. Inson bu emansipatsiya zanjirida oxirgi bo'g'inni egallaydi. U nafaqat Haqiqat (Alloh)ni bilish darajasiga yetadi, balki o'zi ham Haqiqat – «Alloh»ga aylanadi. So'fiylikning bu tariqat vakillari yashirin, sirli narsalarni bilishni afzal ko'rib, shariat aqidalari va me'yorlarini tan olmaganlar. So'fizm Allohni tabiat bilan uzviy deb qaraydi. Uni insonni qurshagan tashqi dunyoda mavjud har bir narsa bilan tenglashtiradi va ularda Allohning siymosi, mohiyatini ko'rib, tabiat, atrof muhit sari, uning sirlarini ochish tomon, bu yashirin hodisalarning har birida ilohiy haqiqat belgisi, mohiyatini topish va bilish maqsadida muayyan qadam tashlaydi. So'fizmdagi Allohni bilish usullari va vositalari sifatida vahiy va ilhom amal qiladi. Bu yerda sezgilar va aql bilish vositalari sifatida ishlamaydi. Borliqning birligi tarafdorlari sanalgan so'fiylarda panteistik an'analar ustunlik qiluvchi ta'limotlarda Allohni bilish nazariyasi bilan bir qatorda dunyoni bilish nazariyasi ham mavjud bo'lib, unda bilish ob'ekti sifatida moddiy dunyoning o'zi, bilish vositalari va usullari sifatida esa – sezgilar, aql, kuzatish, taqqoslash va tajriba amal qiladi. Garchi ular bilishning turli shakllarini tan olsalar-da, mohiyatlar mohiyati (Alloh)ni bilish darajasi to'g'risida so'z yuritilgan hollarda bilish shakllarining ahamiyatini cheklaydilar. Allohni bilishga faqat Uning karami va nuri yordamida muvaffaq bo'linadi.

Mutlaq haqiqatning tagiga yetish yoʻlidan boruvchi odam (orif) oʻz oldiga haqiqatni bilish vazifasini qoʻygan faol individga aylanadi va uzoq izlanishlar, turli mistik bosqichlar, maqomlardan oʻtish va oʻzlikni anglash natijasida oʻzida mutlaq haqiqat (Alloh)ni topadi va yetuk insonga aylanadi.

Soʻfizm taʼlimotiga koʻra, haqiqatning tagiga yetish uchun odam oʻz ichki dunyosi, qalbini har xil dunyoviy qusurlardan forigʻ etishi lozim. Bunga erishish uchun u bir qancha maʼnaviy bosqichlar yoki soʻfiylar taʼbiri bilan aytganda maqomlardan oʻtishi darkor. Bilish va maʼnaviy sayohat yoʻlida odamga uning tafakkuri yoʻl koʻrsatadi. Koʻrsatilgan bosqichlarning har biridan oʻtish natijasida odam axloqiy va maʼnaviy jihatdan takomillashadi va haqiqatni bilishga yaqinlashadi. Abu Homid Gʻazzoliy soʻfizmni panteizmdan tozalashga harakat qildi va u bunga muvaffaq boʻldi. Gʻazzoliy fikriga koʻra, «har qanday maʼnaviy poklanishlardan qatʼi nazar, inson hech qachon Xudoga aylana olmaydi». Bu bilan u soʻfizm va panteizm oʻrtasida oʻziga xos «xitoy devori»ni oʻrnatdi.

Soʻfizm vakili Ibn Arabiy Yevropa falsafiy anʼanasiga yaqin boʻlgan tilda filosofema yaratgan. Uni ayni holda ratsionalistik filosofema deb nomlash mumkin (u birlik, koʻplik, sabab, oqibat, birinchi asos, jism, makon, vaqt kabi kategoriyalar va atamalardan foydalanadi); tilini badiiy til deb belgilash mumkin boʻlgan, biroq nafaqat estetika jabhasini, balki ontologiya va naturfalsafaning ratsionalistik tili bilan bir borliqni tavsiflovchi filosofema (uning kategoriyalari – muhabbat, intilish, chtiros, muhtojlik, goʻzallik va sh.k.); nihoyat, «mistik» tilda yaratilgan filosofema (kategoriyalari: zavq, hol, fano, baqo, jon, roʻyo va h.k.).

Ibn Arabiyda har bir filosofema, bilishning alohida usuliga tayanadi. Shu sababli yechimlarning har biri boʻyicha tegishli bilish usulining qisqacha tavsifini keltirish oʻrinli boʻladi deb oʻylaymiz.

1. Bilishning birinchi usuli – oqilona-mantiqiy bilish. Uning vositasi – aql, amalga oshirish usuli – sillogizmlar yoki dalillar orqali chiqarilgan xulosalar tarzidagi mantiqiy mulohazalar. Koʻrib turganimizdek, Ibn Arabiy Aristotel mantiqi bilan tanish: u toʻgʻri sillogizmni tuzish uchun zarur shartlarni tavsiflaydi, mantiqan toʻgʻri mulohaza yuritish uchun dalillar va xulosalar zanjiri izchil boʻlishi, biron-bir boʻgʻinda uzilmasligi lozimligini koʻrsatadi va oʻzi isbotlashning mantiqiy metodlarini koʻp karra qoʻllaydi.

Ibn Arabiy fikriga ko'ra, oqilona bilim inson tanasini boshqaruvchi inson joniga kerak: u jonning dunyo haqidagi bilimi muqarrar unsuridir. Oqilona bilim (ilm)ning qimmati Ibn Arabiyda shubha uyg'otmaydi: «Narsani bilish, hech shubhasiz, uni bilmaslikdan ma'qulroqdir». Sillogizmlar orqali oqilona bilish bizga dunyo haqida to'g'ri bilim beradi: u, masalan, rangli oyna orqali o'tgan yorug'lik oyna rangini kasb etsa-da, o'z holicha rangsiz ekanligini, Quyosh ko'zga kichkina bo'lib ko'rinsa-da, aslida Yerdan bir necha marta kattaligini aniqlash imkonini beradi. To'g'ri sillogizm tuzib, dunyoning borlig'i zamirida sabab yotishini aniqlaymiz. Bilishning oqilona-mantiqiy metodidan faylasuf bizni qiziqtiruvchi muammoni yechish uchun foydalanadi, biroq uning uchun mantiqiy mulohazalar zanjirida mutlaqo boqiy ilohiy mohiyat tushunchasi «boshlang'ich nuqta», dunyoda bo'lib turgan o'tkinchi nomukammal mohiyat kategoriyasi esa – «pirovard nuqta» hisoblanadi yoki aksincha. Xudodan dunyoga yoki dunyodan Xudoga bunday mantiqiy harakat qilish natijasida muammoning ratsionalistik yechimi topilishi lozim: dunyoga nisbatan transtsendent ilohiy mohiyat ayni vaqtda unga ichdan xos bo'lishi, uning borlig'i substantsional asosini tashkil etishi darkor. Bu biz yo dunyoni tavsiflovchi muhim kategoriyalarni transtsendent ilohiy mohiyat tushunchasidan chiqarishimiz, yo dunyoda mavjud o'tkinchi mohiyat kategoriyasini asos qilib olib, transtsendent ilohiy mohiyat borlig'ini keltirib chiqarishimiz lozimligini anglatadi. Shunday qilib, muammoning yechimi oqilona-mantiqiy metodlar yordamida topilishi mumkin.

2. Bilishning ikkinchi usuli – muammoni mushohada yuritish yo'li bilan yechish: (echimdan shartlar sari). Mushohada yuritishni bilish usuli sifatida o'rganar ekanmiz, dunyo va ilohiy mohiyatning uzviy birligi va ayni vaqtda ilohiy mohiyatning transtsendentligi uning uchun muqarrar holdir, deb aytishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, bu birlik ayniylik emas: boshqacha aytganda, bu dunyo va ilohiy mohiyatning farqlangan birligidir. Har qanday narsa va hodisada mushohada yuritish seziluvchi va idrok etiluvchi tashqi – zohir jihatlarni va sezgilarga ham, aqlga ham yashirin ichki (botin) ma'noni aniqlash imkonini beradi. Bu yashirin ma'no borliqning birinchi asosi, ilohiy mohiyatning dunyoga ichdan xosligining negizi va ayni vaqtda mushohada ob'ekti hisoblanadi. Yashirin ma'noni anglash - narsalarda, dunyoda Xudoni bevosita ko'rish demakdir.



Mushohada yuritish jarayonida bilish sub'ekti o'zining bilish ob'ekti-dan ontologik mustaqilligini saqlagan holda u bilan birikadi. uni butun vujudi bilan anglab yetadi. Bunga bilish sub'ekti bo'lgan insonda ham «yashirin ma'no» mavjudligi imkoniyat yaratadi. U yagona va uzviy bo'lgani uchun bilish ob'ekti bilan «ichki mohiyat» jihatidan birikish imkoniyati yuzaga keladi, «tashqi mohiyat»da esa sub'ekt va ob'ektning alohidaligi saqlanib qoladi. Mushohada yuritish yo'li bilan olingan bilim ratsionalistik tildan farq qiluvchi alohida tilda bayon etiladi. Mushohada yuritish, mohiyat e'tibori bilan, butundan qism sari harakatdan iborat bo'lgani uchun bu tilni badiiy til deb atash mumkin. Bu tilda yozilgan matnda qismning mazmunini anglab yetish uchun (har qanday badiiy asarda bo'lganidek) avval butunning mazmunini anglab yetish lozim. Vaholanki, fan tilida yozilgan matnda qismlarni tushunmasdan butunni tushunish mumkin emas. Ibn Arabiy filosofemasi «badiiy» tilda yozilgan bo'lib, mushohada yuritishga asoslanadi va u estetik filosofema deb ataladi.

3. Bilishning uchinchi usuli – muammoni mistik yo'l bilan yechishdir. (shartlar va yechim ayniydir). Bu yerda bilish oqilonamantiy va mushohada yuritish yo'li bilan bilishdan mutlaqo hoshqacha shartlardan kelib chiqadi. Bu bilish sub'ekti va ob'ektining ayniylik shartidir. Bilish sub'ekti bu ayniylikka erishgach, o'zining sub'ektlilik mohiyatini yo'qotadi; sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi tafovut yo'qoladi, biluvchi bilinuvchiga aylanadi, biluvchi ham, bilinuvchi ham yo'qolib, faqat yagona universal qoladi. Bu holat «fano» holati, sub'ektiv o'zlikning «halok bo'lish», yo'qolish holati deb ataladi. Mistik bilish jarayonini tavsiflar ekan, Ibn Arabiy girdob (xiro) obrazidan foydalanadi. «Xiro» so'zi «sarosimalik» degan ma'noni ham anglatadi. Bu o'ziga xos sarosimalik, hamma narsada Allohni ko'ruvchi, Yagonani ko'plikda, ko'plikni Yagonada. «aniqni yashirin, yashirinni aniq, shuningdek boshqa ziddiyatli narsalarni» ko'ruvchi so'fiyning sarosimaligidir. «Biroq bu yo'qotgan yoki tushunmaydigan odamning sarosimaligi emas». Bu sarosimalik mistik bilish yo'lga endigina kirayotgan odamni qamrab oladi; so'ngra, mistik bilish jarayonida sarosimaga tushgan odam, Ibn Arabiy tavsifiga ko'ra, «qutb atrofida aylana harakat qiladi va undan uzoqlashmaydi». Bu qutb – Xudo; girdob obrazining ma'nosi shundan iboratki, bu girdob harakatining boshi yo'q, aniqrog'i, qayd etilgan aniq bir boshlanish joyi mavjud emas: istalgan nuqtadan, dunyoning har qanday

narsasidan boshlash mumkin, biroq oxiri bor, bu - qutb, borliq girdobining markazi: bilish doiralari muqarrar tarzda yagona Xudoga olib keladi. Girdob butun borliqni o'z komiga tortadi. Uning ichida, markazda turib biz yo'limiz mo'ljaldan farq qilmasligini, yo'lni qayerda boshlagan bo'lsak, o'sha yerda – Xudoda tugatganimizni ko'ramiz!

Demak, Ibn Arabiy ijodida ilohiy mohiyatning dunyoga nisbatan transtsendentligi va immanentligi muammosi yechimining uch varianti mujassam.

Birinchi yo'l qismdan butun sari harakat, mantiqiy mulohaza yuritishdan boshlanuvchi yo'l. Bunda ilohiy mohiyat yoki dunyo «qism» deb, muammoning izlanayotgan yechimi esa – «butun» deb olinishi mumkin. Ikkinchi yo'l butundan qism sari harakatdan iborat: biz yechim mavjudligini faraz qildik, u qanday bo'lishi lozimligini («butun»ni) ko'rsatdik va so'ng uni tahlil qildik, transtsendent-immanent muammo yechilgan sharoitda ilohiy mohiyat va dunyo qanday bo'lishi lozimligini ko'rishga harakat qildik. Nihoyat, yechimning uchinchi yo'li qismlar va butunning ayniyligini, mutlaqo va barcha yo'nalishlarda ayniqlikni: qismlarning bir-biri bilan, ularning har biri va ikkalasining butun bilan ayniyligini qayd etadi. Birinchi holda transtsendentlik va immanentlik muammosining yechimi topilmadi, ikkinchi holda u o'z yechimini topish uchun dualizmni qabul qilishni talab etdi, uchinchi holda esa u yechilmaydi, balki o'z asosini yo'qotadi.

Bahouddin Naqshband (1388-yilda Buxoroda vafot etgan) asos solgan so'fiylik ta'limotining nazariy asoslaridan birini Xudo, dunyo va insonning o'zaro nisbati muammosiga e'tiborni qaratadi. Bu bosh muammo talqinida so'fiylarni ikki yo'nalish – teistik va panteistik yo'nalishlarga ajratish mumkin. Alloh hamma narsaning yaratuvchisi deb e'tirof etilgan, insondan tashqarida turgan, dunyo uzra yuksalgan va bilish mumkin emas deb e'lon qilingan bo'lsa, so'fiylar ta'limoti monoteizm shakl-shamoyilini kasb etgan, dunyo va Xudo tushunchalari tenglashtirilgan taqdirda bunday ta'limot panteistik deb hisoblangan. Naqshbandizmda Saadiy Sheroziyning asarlari va Yusuf Hamadoniynig g'oyalari tayanilgan. Bahouddin Naqshband hayotning mazmunini Haqiqat (Alloh)ga erishishga intilishda ko'rgan va Haqiqat (Alloh)ga erishish tashqi narsalar haqidagi bilim – shariatga asoslanadi va ichki narsalar haqidagi bilim

– tariqat jarayonida yuz beradi, deb hisoblagan. U shariat Qur’oni karim va hadislarini bilishdan kelib chiquvchi diniy qonun-qoidalar to’plami ekanligidan kelib chiqqan. Tariqat odam Haqiqatga erishish uchun qaysi bosqichlardan o’tishi, Allohni anglash va u bilan birikish uchun qanday to’siqlarni yengishi lozimligini belgilaydi. Bunda bilish jarayonida shariatdan tariqatga o’tish darhol yuz bermaydi. Faqat shariatni o’zlashtirish va uning talablarini bajarish orqali Haqiqat yo’lidan jadalroq va samaraliroq borish mumkin. Odam bilishning har bir bosqichi (mistik yo’l manzillari)dan oldinma-кетин o’tib o’z maqsadiga yaqinlashadi. So’fizm nazariyasi va amaliyoti ongning tashqidan ichkiga, ochiqdan yashiringa sayohatini nazarda tutadi. Bahouddin Naqshband tariqat ezoterik (yashirin, mistik) fan, u hammaga ochiq emas, uni faqat o’zini Haqiqatga baxshida etgan odamlar anglab yetishi mumkin, deb hisoblagan.

So’fizmda mistik bilish zamirida «O’zini bilgan odam o’z Allohini biladi» degan tamoyil yotadi. O’zini o’zi bilish orqali Allohni bilish maqsadga erishishning eng qisqa yo’lidir. Bahouddin Naqshband yaratgan ta’limotning asosida «Dil ba yor-u, dast ba kor», ya’ni «Ko’ngil yorda, qo’l – ishda», degan shior yotadi. Naqshbandiya ta’limotining Yassavizimdan farqi tarkidunyochilikdan voz kechilishida namoyon bo’ladi va bu progressiv g’oya sifatida ulug’lanadi. XIV asr oxiri va XV asrning boshlarida Markaziy Osiyoda, hususan Hirot va Samarqandda iqtisodiy va madaniy rivojlanish yangi bosqichga ko’tarilgan. Bu davrda tasviriy san’at, musiqa, adabiyot, kalligrafiya, shaharsozlik rivojlandi. Ayni shu davrda Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulugbek (1394-1449) davlatni boshqardi. Mirzo Ulug’bek tashabbusi bilan qurilgan Ulugbek madrasasi, osmon jismlarini o’rganishga mo’ljallangan Observatoriya bugungi kunda ham dunyo tamaddunining noyob merosi sifatida qadrlanadi.

U al-Farg’oniy, al-Xorazmiy, al-Beruniy va boshqalarning ijodiy merosini o’rganib, ularning astranomiya va matematika sohasidagi g’oyalarini davom ettirib, osmon jismlari harakatini kuzatgan. O’zining 20 yillik kuzatuvlari natijasi “Zidj-i-jadidi Kuragoniy” (yangi astronomik jadval) asarini yaratdi va 1018 ta yulduzni sanadi. Uning astronomik jadvali hozirgi kunda o’zining aniqligi bilan dunyo olimlarini hayratga solmoqda. Ulug’bekning falsafiy va tabiiy ilmiy qarashlari ham diqqatga sazovor. U kuzatish

va eksperiment natijalarini umulashtirib, dunyoning ob'ektiv mavjudligini tan oladi va tabiiy jarayonlarning diniy talqinini inkor etadi.

### **XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshida falsafiy fikr rivoji**

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshida Yevropa va Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy siyosiy vaziyat Markaziy Osiyoga ham ta'sir etdi. Bir tomondan chor Rossiyasi Turkistonni bosib olib Qo'qon xonligi tugatildi, ikkinchi tomonda madaniyatlar dialogi shakllandi, natijada qator olimlar, shoirlarning ilg'or g'oyalari ta'sirida Turkistonda ma'rifatparvarlik faoliyati boshlandi. Ahmad Donish, Behbudiy, Berdaq, Feruz, Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar va boshqalar o'z davridagi zulmga qarshi g'oyalarni ilgari surdilar va jaholatga qarshi ma'rifat orqali kurash boshladilar. Quyida biz A. Donishning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga nazar tashlaymiz.

Ahmad Donish (1827-1897) Buxoro amirligida yashab ijod etgan o'z davrining ilg'or ma'rifatparvaridir. Uning falsafa, tarix, astronomiya, adabiyot, hattotlikka oid asarlari nafaqat O'zbekiston, balki dunyo olimlari tomonidan o'rganilmoqda. Xususan, uning "Munozir al-Kavokib" (Yulduzlarni kuzatish), Risolat dar ilmi kurra (Globus haqida risola), "Iztig'roji bul va arzi balat" (Joylarning uzunligi va enini o'lchash) asarlari tabiiy-ilmiy fanlar sohasidagi fikrlarining majmuidir. "Navodir ul-vaqoe", "Risolai muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mantig'iya" kabi asarlarda uning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari mujassamlashgan. Bu asarlarida u zulmga asoslangan ijtimoiy tuzumni tanqid qiladi va insonlarni mehnat qilishga, faqat mehnat bilan farovonlik ta'minlanishi, taqdiri azal, faqirona hayotdan voz kechish haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. A. Donishning fikricha, "Davlat bir guruh kishilar ehtiyojlarini qondirish uchun emas, xalq manfaatlarini uchun, mamlakatni obod qilish uchun xizmat qilmog'i zarur. Biz dunyoni gullatish uchun dengizlar kezib o'rganish uchun, yer osti boyliklarini topish uchun, uning hamma qit'olari va aholisini bilish uchun tug'ilganmiz". U turli tillarni o'zlashtirish va dunyoni o'rganish g'oyasini ilgari suradi. "Mamlakatni idora qilishda, - hukmdor muhim davlat muammolarini o'z atrofidagi maslahatchilar bilan birgalikda hal qilishi kerak. Maslahatchilar ham donishmand va adolatli kishilar bo'lishi kerak va ularning fikri bilan hisoblashishi shart, chunki ko'pchilikning aqli, bir kishining aqlidan ortiqroq".

Ahmad Donishning g'oyalari Furqat, Berdaq va boshqalarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarining shakllanishiga turtki bo'ldi.

### **XX - XXI asr o'zbek falsafasi**

XX asr o'zbek falsafasi kam o'rganilgan ziddiyatli davrni qamrab oladi. Chunki hozirgi davr tanqidchilarida sovet davrida falsafa bo'lmagan, u davrda intellektual hayot o'lgan va uzoq muddatga qotib qolgan, faqat ayrim hollarda ba'zi mardlargina o'zlarining g'oya va qarashlarini ayta olganlar degan fikr shakllangan. Biroq bu noto'g'ri. Chunki aynan XX asr boshlarida shakllangan jadidlar harakati "Jamiyatni ma'rifat orqali yangilash" g'oyasini ilgari surganlar, A.Avloniy, Behbudiy, A.Fitrat kabilar yangi avlod ziyolarini tarbiyalashga o'zlarining munosib hissasini qo'shganlar. Nodonlik va jaholatga qarshi kurash, uni inkor etish, uni jami baxtsizliklar sababchisi sifatida talqin etish jadidchilar ijodining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Quyida ularning ba'zilar ijodi haqida qisqa fikr mulohazalarni bayon etamiz.

Abdulla Avloniy (1878-1934) Toshkentda Mergancha (hozirgi Navoiy ko'chasi) mahallasida tug'ilgan. U bolaligidan ilm-ma'rifatga mehr qo'ygan. A.Avloniy Navoiy va Fuzuliy, Sa'diy Sheroziy va Xofiz she'riyatini o'rgangan. 1894-yilda birinchi she'rlarini yozgan va 1905-yilda sherlar to'plamini nashr etgan. Uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari, "Biz va siz", "Advokatlik osonmi", "Pinak", "Po'rt'o'oliyo inqilobi" dramalari, "Madaniyat tulqunlari", "Kim nimani yaxshi ko'rar", "Tiyotr xususida munozara", "Kayfim uchdi", "Afg'on sayohati" kabi maqolalarida davrning ruhi o'z ifodasini topgan.

1914-yilda A.Avloniyning tashabbusi bilan tashkil etilgan teatr truppasining Behbudiy qalamiga mansub "Padarkush" spektakli namoyish etilgan. A.Avloniy xalq orasida ma'rifat g'oyalarini targ'ib etib, maktablar tashkil etdi. Maktabda o'qitish uchun qulaylik yaratish maqsadida darsliklar tayyorlagan. Uning "Birinchi muallim" kitobi 1917-yilgacha 4 marta nashr etilgan. Ikkinchi muallim kitobi dastlab 1912-yilda va 1917-yilda ikkinchi marta nashr etilgan. A.Avloniyning bu kitoblarida kichik she'rlar, nasriy hikoyalar jamlangan bo'lib, ular bir tomondan jadid adabiyotining bosh yo'nalishi bo'lsa, ikkinchi tomondan ular mazmunini maktab bolalari ongiga singdirish va ularni ma'rifat yo'liga boshlash maqsadi namoyon bo'ladi. 1913-yilda nashr etilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari yuqori sinf o'quvchilari

uchun darslik bo'lib, unda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi yomonlikdan qaytaruvchi ilm haqida so'z boradi. Avloniy fikricha, axloq, bu xulqlar majmui. Xulq esa ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va olijanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo'linadilar. Lekin bular kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug'ilishidan yomon bo'lib tug'ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog'liq. Tarbiya "yo hayot-yo mamot yo najon-yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir". Tarbiya tug'ilgan kundan boshlanadi va umrining oxirigacha davom etadi. U ikki bosqichda – uy va maktab tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyani nafaqat axloq, balki sog'liq bilan ham bog'liq deb hisoblaydi. Uning "Badanning salomat, quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qimoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur" degan fikri falsafiy mohiyatga ega. Zero "Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yub, astarini yuvub, ovora bo'lmoq kabidur", ya'ni "badan elak kabi o'z'lukdir".

Avloniy fikricha, jism va ruh shakl bilan mazmun kabi uyg'undir. "Nimaiki mazmunda bo'lsa shaklda o'z ifodasini topadi. Mana bu odamning mudroq, tund ko'zlariga, bo'kib to'yib olganidan harsillab qolgan baq- baqaloq, davang turqiga nazar tashlang. Naqadar hayvoniy qiyofa. Endi mana bunisiga razm soling. Bu rangpar ozg'in kishining ko'zlaridan qanday o't chaqnaydi. U naqadar harakatchan, uning ovozi qanchalar ehtiros bor! Birinchisi o'lik. ikkinchisida hayot yashnaydi – to'g'ri emasmi?!". Uning bu fikri insonning qiyofasi uning qalbini ifodalashga ishoradir.

Avloniy bolalarning fikrlash qobiliyatini shakllantirish o'qituvchilarning mas'uliyati bilan bog'liq deb hisoblaydi. "Fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimga ko'p jihatdan bog'liq". Zero tarbiyachining dunyoqarashi, saviyasi, intilishlari va hatto turmush tarzi bolalarning fikrlashiga ta'sir etadi. "Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur. "Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari najoti, boringki dunyonnig izzati. U inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilat deb ta'kidlaydi.

Avloniy vatan va uning oldidagi burch haqida fikr yuritar ekan. "Vatan tuyg'usi eng insoniy, eng mu'tabar tuyg'ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtiga quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'am hasratini baham ko'rish farzandning burchi" deb alohida e'tirof etadi. Onaning baxtiga sherik bo'lib, baxtsizligida yolg'iz tashlab ketuvchi farzandlar bo'lgani kabi, Vatanning ham bog'lari, ajoyib tabiatini xush ko'radigan, lekin tashvish va g'amlarida xiyonat qiladigan farzandlari borligini afsus bilan tan olar ekan, Avloniy Vatanni u qanday bo'lmasin sevish kerak deb hisoblaydi.

Avloniy fikricha, tilga, madaniyatga bo'lgan muhabbat har bir kishining xalqiga bo'lgan muhabbatidir. "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on o'ynai hayoti til va adabiyotidir". "So'z – noyob gavhardir. Uning sharafi benihoya. Har qanday qimmatbaho gavhar uning oldida sadaf ham bo'la olmaydi". "So'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgon tarozudir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar". A.Avloniy "Madaniyat to'lqunlari" maqolasida millat madaniyatiga oid fikrlarini davom ettiradi: "Har bir millat maishat tarafidan taraqqiyga yuz qo'ymasa, ma'naviy tarafdan, ya'ni ma'rifat tarafidan ham taraqqiy qilolmas, bir kishining o'z maishatiga yetarlik molu ashyosi bo'lmasa va bularning sababiga harakat qilmasa, moddiy va ma'naviy ishlarni qilmoqdan ojiz qolur. Va bunday ochu - yalang'och o'z avqotini o'tkara olmay turgan bir xalqqa ma'rifat, madaniyat, ulum va funundan dars bermoq munosib bir ish o'lmas kerak, chunki faqir xalqlarning kecha kunduz fikri - zikri non topmoq va bola chaqasining qornini to'yg'uzmoqdir. Taajjubki, mamlakatimizning yerlari, o'simlik tuprog'i barakatlik bo'lib turub, yerli xalq och va yalang'och, boyqush kabi vayronalarda umr o'tkaradirlar". Och-yalang'och, kulfat, mehnat va zahinat balolari orasida o'ralib qolgan bir qavmga: "Madaniyatga kiringiz, maktab solingiz, o'qungiz taraqqiy qilingiz" kabi so'zlarning foydasi bo'lmas.

Aynan shu nuqtayi nazardan A.Avloniyning xalq hayotiga oid kuyunib bildirgan muammolar haqidagi fikrlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 100 yildan keyin yechimini topmoqda. Yurtimizning yuksalish bosqichida xalqning mehnat bozorida o'z o'rnini topishi, moddiy va ma'naviy

hayot uyg'unligini ta'minlash jarayoni davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Aholining ta'lim olishi, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning xususiy sektorni rivojlantirishi uchun yaratilayotgan sharoitlar bu jarayonning kichik qismidir. O'z fikrini davom ettirar ekan A.Avloniy shunday deydi: "Bu faqirlikning eng qo'rquvchanli to'lqinlari orasida ezilgan xalqimizni to'y marazidan qutqarurga tirishmak va iloj istamak lozimdir. Bu isrof to'lqinlari bizlarni na yerga olub boradir?... kundan kunga bid'at ortmakda. Ulamo, fuzalo va eshonlarimiz zikr va tasbeh o'rni to'y ustiga to'ylar bo'lsun so'zini virdi zabon qilmakda. Ag'niyo va sarvatdorlarimiz to'y poygasi qilub, bir-birlarining bor yo'qlariga qaramasdan, faqir va kambag'allarimiz uylarini, bog'larini, otlarini to'nlarini sotub to'yga sarf qilmoqdadurlar. Bir tarafdian, madaniyat to'lqinlari shoshirmoqda, ikkinchi tarafdian faqirlik va miskinlik ko'paymakda, yana bid'at ortmaqdadir. Mundan besh – olti yil muqaddam eng sarvatli kishilarimiz uch kundan ortiq osh ham yigirma – o'ttizdan ortiq chopon ham bermas edilar. Hozir bu tarafdian ko'p taraqqiyot qilib, olti yetti kun osh va yuzlab chopon bermakdadirlar. Avvalda bir yarim – ikki so'mlik chopon beradigan kishilarga, hozir 20 – 25 so'mlik zarrinlar, baxmallar berurga boshladilar. Mana shul tariqada biz keyinga qarab taraqqiy qilmakdamiz, bilimam, bizim bu isrof va bid'atlarimiz qachon yo'q bo'lib ketadir?! XX asr boshida A.Avloniyning to'y hashamlarni ixchamlashtirish muammosiga oid fikrlarining yechimi XXI asrda o'z yechimini topdi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan to'y va aza bilan bog'liq muammo bo'yicha qaror e'lon qilindi va uning ijrosi bo'yicha mahallalarning mas'uliyatini oshirish belgilandi.

A.Avloniy fikricha, madaniyatning beshigi Osiyo qit'asining Arabiston yarim orolida joylashgan. Islom bilan madaniyat dengizlari harakatga kelgan. Arablar o'zlari borgan mamlakatlarga madaniyat suvlarini olib kirganlar va asta-sekin Ovruponi egallagan. Ular madaniyat to'lqinlaridan ichra yashadilar undan qo'rqmadilar, qochmadilar, asbob va mashinalar hozirladilar. Na yerga borsalar, madaniyat ham bordi, oxirida madaniyat g'alaba qozondi. Yarim asrduki madaniyat bizni orqamizdan quviyur. Biz qirdan-qirga qochurmiz, qarshimizda maishat mashaqqatlari chiqub hujum qitur, o'ngimizda bilimsizlik va jaholat kelub, jonlarimizni siqur, so'ngimizdan musofirlik, faqirlik va bid'atlar chiqub yo'limizni to'sur. Dangasalik, yalqovlik, ishsizlik ustimizdan bosu bo'g'mak



istar. Bizlar hamon bu eskincha romka orasidan chiqub qochmak istamaymiz. Ba'zi yoshlarimiz boshlariga Ovrupo qalpog'ini kiyub "Madaniyat!", "Madaniyat!" deb og'izlarini ko'purturub, oz-inoz musulmoncha, chala-yarim ruscha so'ylashub kulgu bo'lib yurmak madaniyat bo'lmay, masxurabozlikning bir sho'basidur. Madaniy bo'lmak va madaniyatga kirmak uchun yomon sifatlardan saqlanmak va hazar qilmak ila barobar haqiqiy madaniyat ilmi, maishiy va axloqiy ishlar ila uch qismg'a bo'linadir. Agar millat bolalari bu xislatni mukammal suratda o'zlariga darbar olsalar, mana shul vaqtda biz madaniyatni qabul qilduk, madaniy bo'ldik deb lof ursak, maqtansak kulgi bo'lmaymiz. Yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o'qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta'limg'a mohir olim va olima, adib va adibalarimiz yetushsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartiblik bo'lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlariga mohir kishilar yetushub, zamonag'a muvofiq ravishda ish yuritilsa, tartiblik "Dorul -yatim", - yetimxonalar, "Dorul -ojizin" - kambag'alxonalar, kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkatlar barpo qilinsa, xalqimiz orasida zamonag'a loyiq ulum va funundan boxabar ulamolarimiz ko'paysa, och va yalang'och kishilarimizning maishatlarini tuzatmak uchun harakat qilinsa, o'qitilsa, axloq va odob o'rgatilsa, shul vaqtda eskincha orasidan chiqub haqiqiy madaniyat bo'stoniga yuzlong'an hamda madaniyat to'lqunlaridan qutulib, sohili salomatga chiqq'on bo'lur eduk. Sohili salomatga chiquvimizga zamon musoid verurmi, vermasmi bilmaymiz.

2016-yil 4-dekabrda O'zbekiston hayotida yangi sahifa ochildi. Bu sahifada aholining turli qatlamlari ongiga mehnat orqali farog'atga erishish, inson umrining mazmuni uning o'z hayotini ilm asosida to'g'ri tashkil etish mumkinligi bilan bog'liqligi singdirildi. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chuqur islohotlar boshlandi. 2017-yilda yurtimizda Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi bolalarning madaniyat to'lqinlaridan qo'rqmaslik, balki u bilan qorishish uchun bilim va malakalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar madaniyat to'lqunlariga tanqidiy nazarni shakllantirish, milliy madaniyatni saqlagan holda dunyo madaniyati bilan bellasha oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo'naldi. A.Avloniyning orzulari armon bo'lmadi.

Maxmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida dunyoga keldi. Uning ijodi va dunyoqarashi

jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspralining taʼsirida shakllangan. 1899-1990-yillarda M.Behbudiy haj safariga boradi va sakkiz oy davomidagi sayohat uning tafakkuri yangilanishiga sabab boʻldi. Uning tashabbusi bilan Samarqand atrofidagi qishloqlarda maktablar tashkil etildi va ularni oʻquv adabiyotlari bilan taʼminlash uchun “Risolai asbobi savod”, “Risolai jugʻrofiyai umroniy”, “Risolai jugʻrofiyai Rusiy”, “Kitobat ul- atrof”, “Amaliyoti islom”, “ Tarixi islom” kabi kitoblarni tayyorladi. Xalqning maʼrifatlilik darajasini oshirish, millatning oʻz malohati va qabohatini koʻrishi uchun maktabning oʻzi yetarli emasligini his qilgan Behbudiy teatr va matbuotni rivojlantirishga yuzlandi. U oʻzbek dramaturgiyasining birinchi namunasi “Padarkush yoxud oʻqimagan bolaning holi” asarini yaratdi. Drama nafaqat oʻzbek, balki tatar va ozarbayjon teatrchiligi-ning rivojiga ham taʼsir koʻrsatdi. Unda insonning baxtu saodati otaning boyligi bilan emas, balki egallangan ilmu-maʼrifat bilan bogʻliqligi ochib berilgan. Behbudiy nashr ishlari bilan shuningdek, ularni saqlash va foydalanishni nazarda tutuvchi kutubxonachilik bilan ham shugʻullandi.

Behbudiy millat oʻzini anglagandagina ijtimoiy siyosiy masalalarga boshqalar bilan teng aralasha oladi, degan fikrda boʻlgani bois, tarixni alohida oʻrganishga harakat qildi. Oʻzining “Muhtaram yoshlarga murojaat” maqolasida shunday fikrlarni ilgari suradi: “Barchamizga oftob kabi ravshan ayondurki, maktab – taraqqiyotning boshlangʻichi, madaniyat va saodatning darvozasi dur. Har millat eng avval, maktab ibtiboiysini zamoncha isloh etib koʻpaytiraguncha taraqqiy yoʻliga kirbu madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziridan maxrum qolib, sanoeʻ va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini koʻrolmas.”. “Er yuzidagi barcha millatlar oʻz bolalarini ibtidoiy tarbiyasigʻa va maktablarning har jihatdan intizom va akmoligʻa ahamiyat berub bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdurarlar. Aning uchundirki, oʻzga millatlar diniy va milliy hissiyotga molik boʻlub, har ishda diyonat va milliyatni nuqaddam tutarlar”. Chin insoniyat nimadan iborat ekanligini qaydan bilurmiz? Bizlarda bir fazilat bor boʻlsa, ul ham faqat taassboti johilonadan iboratdur. Demak, bizlar hozirgi nimkola diyonatimizni yolgʻuz taassub soyasida saqlab turibmiz. Lekin ushbu tamaddun asrida ilmsiz quruq taassub ila ham yashab boʻlmas. Chunki zamonamiz shunday zoʻrki, ozgina fursatda churuk

taasubotimizni asosidan qo'parub tashlaydur. Shuning uchun zamonaning muxlik ashobig'a qarshu maqovamat etadugon bir narsa bor bo'lsa, ul-da maorifdur. Hozirda Turkistonda muallim oz bo'lib, muallimlarga ehtiyojimiz shadiddur. Chunki bu kunlarda yangi maktab havaskoroni kundan-kun ziyodalashmoqdadurki, muallimlar mavjud bo'lgan taqdirda har yil Turkistonda yuzlab maktab ochmoq mumkindur.

Turkiston yoshlari muallim yetushdurmoqning chorasini topmoqlari lozimdur. Agar bukungi yoshlarimiz ushbu muhim vazifa va xizmatni ifo etmakga qasd eta boshlasalar, muallim yetushtirmoqni chorasi ham topilsa kerak.

Behbudiyning yoshlarga murojaati bugungi kunda O'zbekistonning milliy tiklanishdan yuksalish sari barqaror taraqqiyot yo'lida yangi mazmunda davom etmoqda. Dalatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2017-yilda "El yurt umidi" jamg'armasi tashkil etilib. eng iqtidorli yoshlarning xorij davlatlarida ta'lim olishlarining tashkil etilishi dunyo bilan hamnafas bo'lish ma'rifat yo'li bilan ziyoga, yuksak ma'naviyatga erishishni nazarda tutadi.

M.Behbudiy "Bizni kemiruvchi illatlar deganda..... butun tirikligimizga sorilgon va bizni inqirozga va tahlikaga va jahannamga yumalataturgon to'y, azo isminagi ikki qattol dushmani derman" deb hozirgi davrda ham davom etayotgan muammolarga yechim izlaydi. U "Ma'lumki, bir shaharda yahudiylar ba'zan o'luklarini oqshom eltib ko'marlar. Ne uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo'lsa, o'luk va to'y uchun haftalar, hatto oylar ila ishdan qolurmiz. Holbuki, shore'i a'zam payg'ambari akram sallollohi alayhi vassallam hazratlari o'lganni tez ko'mub va ko'mgandan so'ng tez tarqalib, ishga ketmoqga va o'lukxona xalqini uch kundan ziyoda ta'ziya tutmasga, qaro kiymasga, kir, falokat bo'lmasga amr etarlar", deydi va "Bizni qilaturgon aqlsizligimizni qaysi millat qilur? Nikoh, xatna bu ikki balo shundog' qattiq bir illatki, o'lmaguncha qutulib bo'lmaydur". Bir tanob yerimizni 200 so'mga sotib to'y qilmoqchi bo'lsak, yerni xo'p pulga urdum deb majnunona shodlanurmiz. Insonni bu qadar axmoqligi ajibdur. Bizga lozimki, to'y va ta'ziyalarni kichik qilib va holimizcha harakatda bo'lub, kelar zamonamizni o'ylayluk. Din uchun, masjid va maktab aqcha, sarvat, davlat somon kerakdur. To'y va ta'ziyaga sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniyar, ilm va din yo'lig'a sarf yetsak anqarib (ey

ko'zi ochilganlar) ovropoyilardak taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimiz-da obro'y va rivoj topar. Yo'q hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur" deb ta'kidlaydi. Uning bu fikrlari nechog'lik to'g'riligi tuy marosimlarini ixchamlashtirishga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida to'liq o'z ifodasini topdi.

Behbudiyning "Millatlar qanday taraqqiy etarlar" maqolasida millatlarning taraqqiyotini ta'minlovchi omillar ochib berilgan. Uning fikricha "Har millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkiri o'z millatining oyandasi uchun yo'l ko'rsatur mashvarat berur maktab va madrasalarda dunyo va oxiratda kerak ilm va fan, ta'lim berarlar. Kitob va gazet ila ummatni muslihi uchun bahs va muhokamalar qiladurlar". "Har millatning ulamosi zamonaviy maktablar bino etib zamoniycha odam tayyorlamoq uchun harakat etarlar. Hukumatni o'rta va oliy maktablariga o'qiydurg'on o'z millat bolalarig'a ionat etarlar. Va bechora hamjinslarini diniy va dunyoviy maktablariga berub, o'z xarajatlari ila o'qutadurlar". Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Prezident maktablarini tashkil etish haqidagi Farmoni zamon talbalariga javob beruvchi aql egalarini tanlash va ularning iqtidorini namoyon etish, millat ravnaqiga hissa qo'shishi uchun sharoit yaratishga yo'nalgandir.

Uning "Rus armani, yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatan-doshlarimizni boylari doimo o'z millatlari uchun katta xayr va ehsonlar qiladurlar, inchunun, Kafkoz, Qirim, Qozondaki mumsulmon birodarlarimizni boylari, ulamosi va ahli qalami, sohibi fikri o'z birodarlarig'a mol, oqcha, qalam va ilm ila iona qiladurlar" - degan fikri, O'zbekistonda xorij davlatlarida yashayotgan millatimiz vakillari diasporalari bilan hamkorlikni o'rnatish, turli sabablarga ko'ra xorij davlatlarida saqlanayotgan milliy madaniy merosimizni O'zbekistonga qaytarishdek faoliyatida o'z ifodasini topmoqda.

Behbudiyning kuyunib aytgan quyidagi fikrlari ham e'tiborga molik. "Avomlik, beilmlik naqadar ko'paygan. Biz musulmonmiz. Musulmonlikka ilm lozim, amal lozim. O'qumoq kerak, nima uchun boshqa millatlarda yuza bir nafar besavod yo'q ekan, biza yuza bir nafar savodlik yo'q? Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga to'be ekan, bizni ulamo bilaks avomga to'bedur. Buning oxiri xarobdur. Yigirma o'ttiz sana so'ngra yana yomonroq bo'lur, musulonlik, ilm va

odob ila qoim millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur". Darhaqiqat, uning bu qarashlari hozirgi davrda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, va O'zbekistonda millat ravnaqi uchun barcha sohalarida ilimga tayanish g'oyasining ustivorligi ta'minlanmoqda.

Behbudiyning "Til masalasida" maqolosing mohiyati 100 yil ilgari ham tillarni o'rganishning ahamiyatiga ishoradir. Xususan, uning "Dunyomizning ilmu fanidan xabardor bo'lmoq uchun rus, nemis, fransaviy, anglis, itoliyoli, arabiy, jopuniy tillaridan birini bilmoq kerak" degan fikri hozirgi kunda xorij tillarini o'rganish orqali dunyo ta'lim makonida o'z o'rnini topish, o'zbek ilmu-ma'rifatini dunyo hamjamiyatiga namoyon qilishga doir faoliyatda namoyon bo'ladi. Xullas, M.Behbudiy qisqa umrida millatning ravnaqiga munosib hissa qo'shdi, uning g'oyalari hozirgi davrda ham ijtimoiy, siyosiy va ilmiy, ma'rifiy ahamiyatga ega.

Abdurauf Fitrat (1884-1938) Buxoroda tug'ilgan. Fitratning dunyoqarashi, didining o'zgarishiga, diniy xurfozni tanqid qilishga 1909-1913-yillarda Turkiyada ta'lim olish jarayoni ta'sir etgan. Fitrat mohir adabiyotshunos olim, dramaturg, faylasufdir. U umrini xalqini ozod va erkin hayotga chorlash, birlashgan kuchli davlat qurishga bag'ishlagan. Uning qator she'riy to'plamlari va risolalari bilan bir qatorda "Oila" va "Najot yo'li", "Muxtasar islom tarixi" asarlari diqqatga sazovor. Fitrat "Odam umrining samarasi, ya'ni insonning hayot g'oyasi ikki dunyo saodati ekan, kimki o'zini odamlar qatoridan deb bilsa, u dunyo va oxiratda ham o'zini odamlar qatoridan deb bilsa, bu dunyo va oxiratda ham o'zini baxtli va tinch bo'lishi uchun harakat qilishi lozim", deb ta'kidlagan. Fikrini davom ettirib "Mamlakatimizda ikki guruh baxtsiz odamlar borki, harakatlari tanqid va tanbehga sazovordir. Birinchi guruh hayotlarining maqsadlari deb yeb-ichishni biladilar, ular bir luqma taom va yotadigan joy uchun insoniy vazifalarini eslaridan chiqaradilar, biron-bir ish haqida o'ylamaydilar ham. Ikkinchi guruh shunday jamoaki, hayot g'oyasini faqat oxirat saodati deb biladilar, bu dunyo saodatiga erishish uchun hech harakat qilmaydilar, balki bu dunyo saodatini kofirlarga xos deb biladilar, boshqacha qilib aytganda, dunyoni kofirlar jannatiyu musulmonlar do'zaxi deb biladilar", "Ikki dunyo saodatini talab qilgan insongina komil musulmondur", deb ta'kidlaydi.

Fitratning "Oila" risolasida jamiyatning tayanchi oila ekanligi va uni ilmiy asosda tashkil etishning nazariy xulosalari o'z ifodasini

topgan. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi oila qurishga tayyorgarlik davri bo'lsa, ikkinchi qismi oila qurgandan keyingi davrini qamrab oladi. Uning fikricha, "Dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lmagan birorta qavm yo'q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi". Uning fikricha, "uylanish uchun to'rt narsaga e'tibor berish lozim: mol; nasab; husn va imonu e'tiqod. Uylanish orzusida bo'lgan er bilan xotinning mol (boyliklari) va nasablari taqriban bir xil bo'lishi lozim. Aks holda, er bilan xotin bir-birlariga teng bo'lmay, biri boy kalonzoda bo'lsa, ikkinchi tomonni faqir va zoti pastlikda ayblab, hayotini mudom azobga qo'yadi. Jamol (husn) bu ko'rinish demakdir, ya'ni qarayotgan kishi nazariga chiroyli ko'rinib, uning qalbini o'ziga moyil qilish demakdir. Qalbdan paydo bo'lgan bu moyillikni muhabbat deb atash mumkin. Har bir erkak va ayol dindor bo'lishi lozim. Yuqorida zikr etilgan go'zallik (jamol) haqidagi so'zlarimiz zohiriy (tashqi) jamoldir. Agarda u botiniy (ichki) jamol bilan, ya'ni yaxshi xulq bilan bog'liq bo'lmasa, bir tiyinga qimnat. Kimki o'z ixtiyori tizginini hayvoniy shahvat qo'liga bermagan ekan doimo ichki jamolini tashqi go'zalligi bilan, ya'ni husni axloqini qora ko'zlar va kamon qoshlari bilan ziynatlaydi. Dindorlik – bu Xudoni tanish, bilish va haqdan qo'rqishdir. Shunday qilib husni axloqning asosi va mezoni Xudodan qo'rqish va Haqni bilishda ya'ni dindorlikdadir. Dindorlik ya'ni xushaxloq bo'lmoq har bobda, xususan, uylanish bobida nihoyatda zarurdir".

A.Fitrat farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. U "Biz musulmonlar, xususan, turkistonliklar o'z farzandlarimizga to'g'ri tarbiya berayapmizmi yoki yo'qmi?, degan savolga yo'q deb javob beradi". Zero inson jonidan aziz farzandlarini moddiy ta'minlash uchun bir umr mehnat qiladi-yu, lekin ularning ma'naviy borlig'iga e'tibor qaratmaydi va asta-sekinlik bilan ota-onalar va farzandlar orasida jarlik shakllanadi. Uning fikricha, "Kimki o'z avlodining

tarbiyasi ustida o'ylayotgan bo'lsa farzandlarining jismi aqli va axloqini bir darajada tarbiyalaydi. Intizom va tartibga rioya qiladi".

A.Fitrat davlat boshqaruvi tizimida ishlab o'zbek millatini ma'rifat yo'liga boshladi. Biroq u va boshqa shijoatli jadidlarning millat ravnaqi yo'lidagi faoliyatidan havfsiragan sho'rolar hukumati bir guruh yoshlarni 1938-yil 4-oktyabrda otib tashladi.

Xullas, XX asr boshidagi millatparvar vatanparvar yoshlar mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy tanazzulidan chiqishning yagona yo'li ilmu-ma'rifat ekanligini asoslaganlar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 1917-yilda bolsheviklar partiyasi g'alaba qozonib, dunyo xaritasini katta Sovet ittifoqi degan mamlakat egallab, unda partiyaviylik mafkurasi hukmronlik qilsa-da, O'zbekistonda falsafiy fikr rivoji to'xtab qolgan emas.

Falsafaning fidoiylari yangi qaror topgan siyosiy tizimda yashash, ishlash va juda ko'p sinovlardan o'tishlari lozim bo'ldi. Ayrim ziyolilar chet elga qochib ketdilar, ko'pchilikda esa marksizm g'oyasining haqiqiy insonparvarligiga qat'iy ishonch shakllandi va shu bois, shu yo'nalishda faoliyat olib bordilar. Biroq muayyan darajada sovet mafkurasi ta'siri bo'lsa-da, o'tgan asrda o'zbek falsafasi uch yo'nalishda Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti) falsafa fakulteti, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining falsafa va huquq instituti, viloyatlar oliy o'quv yurtlari falsafa bo'limlari, O'zbekiston falsafa jamiyati faoliyatida namoyon bo'ldi va olimlar o'z falsafiy qarashlarida inson omilining ma'naviy ruhini ifoda eta oldilar. Darhaqiqat, odam qancha chuqur bilimga ega bo'lsa, dunyoni yaxshi bilsa, yon atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglay olsa, shundan keyingina unda g'ururifitxor shakllandi. Shundagina, juda murakkab, tahlikali davlarda ham ko'pchilik unga murojaat qilib, maslahat-lashadi. Maslahat esa avvalombor, salohiyatli odamdan, katta falsafiy va intellektual bilimga ega bo'lgan kishidan so'raladi. Shunday ekan, O'zbekistondagi ijtimoiy siyosiy jarayonlarni tushunishda va ularning mohiyatini tushuntirishda yurtimiz faylasuf-olimlarining xizmati ham katta.

### **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida falsafa fani rivoji**

1922-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) ijtimoiy gumanitar fanlar fakultetida falsafa fanidan o'quv mashg'ulotlarining olib borilishi, bu boradagi dastlabki qadam bo'ldi.

1935-yilda birinchi «Dialektika va tarixiy materializm» kafedrasini tashkil qilindi. 1944-yilda Dialektika va tarixiy materializm kafedrasini tarkibidan «Falsafa» kafedrasini ajralib chiqqan. Aynan «Falsafa» kafedrasini negizida 1962-yilda «Ilmiy kommunizm», 1967-yilda «Tabiiy va gumanitar fakultetlar falsafa» kafedralari tashkil qilingan. Kafedralar tarkibi milliy kadrlar bilan boyib borgan. 1960-yillarda «Falsafa» kafedrasida 45 ta professor-o'qituvchi faoliyat olib borgan. Bu davrda falsafa mutaxassisligi bo'yicha universitetning o'zida milliy kadrlar tayyorlash imkoniyati paydo bo'lgan. Professor A.Ayupov, H.Umarov sa'y harakatlari bilan oliy ta'lim vazirligida bu masalaga ijobiy yondashilib, universitetning tarix fakultetida 1963-1964 o'quv yilidan boshlab «Falsafa» bo'limi tashkil qilingan va unga H.Umarov rahbar etib tayinlangan. O'quv jarayoniga respublikaning yirik olimlari jalb qilinib, falsafa bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash faoliyati boshlangan.

Shu yillarda ilmiy ishlar rivoj topib birgina 1962-1967- yillarda 18 ta falsafa fanlari nomzodi tayyorlangan. 1962-1992-yillar davomida gumanitar fakultetlar «Falsafa» kafedrasini boshqargan professor A.T.Ayupov boshchiligida dotsentlar G'.Shoyusupova, A.Abdusamedov, K.Sadkov, K.Ivanova, I.Rahimov, V.S.Nikitchenko va boshqalar dastlab falsafa bo'limi, keyin falsafa fakultetida milliy kadrlarni tayyorlash ishida katta rol o'ynadilar. O'sha yillarda falsafa bo'limi professor-o'qituvchilari nafaqat o'quv jarayoni, balki ilmiy bilish sohasida faol ishtirok qilganlar. 1974- yilda K.I.Ivanovanning «Ilmiy bilishda sababiylik tamoyili» nomli monografiyasi, professor L.Garber, A.Ayupov, U.Xaydarov, B.To'ychiev, V..Chernixlarning «Ilmiy bilish mantig'i va metodlari»(1986) mavzusidagi turkum asarlari nashr qilingan.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi E.Yusupov, professorlar M.Vohidov, I.Rahimovlar 1980-2005-yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy taraqqiyotining falsafiy muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish bilan birga, darslik va o'quv qo'llanmalar yozganlar, yosh kadrlarni tayyorlashga o'zlarining munosib hissasini qo'shganlar. Shu yillar davomida J.Babaevning «Falsafa asoslari» o'quv qo'llanmasi, E.Yusupovning tahririda «Falsafa» (1985) darsligi, I.Raximovning «Mantiq fanidan seminar mashg'ulotlari» (1984) o'quv qo'llanmalari nashr qilingan.



Falsafa bo'limida o'qitiladigan fanlarning differentsiallashuvi natijasida "Mantiq", "Falsafa tarixi" va "Dinshunoslik" kafedralari tashkil qilingan. Mustahkam poydevor yaratilgach, 1979-yilda tarix fakulteti tarkibidan "Falsafa, iqtisod va psixologiya" bo'limlari ajratilib, uchta mutaxassislikni birlashtiruvchi yangi "Falsafa-iqtisod" fakulteti tashkil qilingan va falsafa fanlari nomzodi, professor G.Sh.Shoyusupova (1979-1985) dekan lavozimiga tayinlandi. Bu esa, o'sha davrda falsafa fanining yanada chuqur va keng o'rganilishi yo'lidagi dadil qadam bo'ldi. Yangi kafedralar tashkil qilinib, falsafani o'qitishga differentsial yondashuv shakllandi. Shu yillarda fakultetda professorlar: M.Xayrullayev, M.Baratov, L.E.Garber, V.N.Moroz, M.Nurmatov f.f.n dotsentlar M.Aripov, M.Daliev, E.Abramyan, Z.Mo'minova, M.Usmonov, T.Ramazanov, I.Ramazanov, R.Nosirov, Sh.B.Qahharova, I.L.Turchaninov, shuningdek fakultetning bitiruvchi yoshlari M.Sharipov, B.To'ychiyev, E.Mo'minov, A.O'tamurodov, I.Ergashev va boshqalar ilmiy pedagogik faoliyat olib borganlar.

1990-yilda universitetning yangi Nizomi qabul qilinib, uning keyingi taraqqiyot yo'llari, vazifalari, huquqlari, xalq hayotidagi mavqei yangi dunyoqarash nuqtayi nazaridan belgilab olindi. Shu bois 1991-yilda fakultet tarkibidan "Iqtisod" bo'limi ajraldi, hamda Falsafa, sotsiologiya va psixologiya" bo'limlari va 9 kafedradan iborat "Falsafa" fakulteti yoshlar ongiga mustaqillik matkurasining mazmun va mohiyatini singdirish, yangi dunyoqarashni shakllantirish yo'lida fidokorona mehnat qildilar.

2000-yil 28-yanvarda, Toshkent Davlat universitetiga "Milliy" maqomi berilishi, fakultet professor o'qituvchilariga mas'uliyat yuklashi bilan bir qatorda yangi faoliyatga chorladi. Ular falsafiy bilimlarni, yangilangan tafakkur nuqtayi nazaridan yoritish bo'yicha faol ish olib bordilar. O'zMUning 100 yillik tarixida, Falsafa bo'limining 50 yillik faoliyati o'z o'rniga ega. Zero, bugungi kunda yangilangan tafakkur egalari o'zbek falsafasining nomini dunyoga tanitmoqdalar. Azaliy falsafiy muammolarga yangicha yondoshmoqdalar. "Ustoz va shogird" maktabining yangi avlodi shakllanmoqda, yangi ilmiy maktablarga asos solinmoqda. Shu yillar davomida fakultetning 1500 mingdan ortiq bitiruvchilaridan 42 tasi fan doktori va 200 dan ortig'i fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldilar.

## **O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining I.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti faoliyati**

O'zbekistonda falsafa fanining rivojiga nafaqat O'zMU professor o'qituvchilari, balki 1957-yilda I.Mo'minov tashabbusi bilan tashkil qilingan O'zbekiston Fanlar Akademiyasining "Falsafa va huquq" institutining ilmiy xodimlari ham munosib hissa qo'shdilar. Ilmiy tadqiqot institutida dastlab "Tabiatshunoslik", "Falsafa tarixi" bo'limlari faoliyat olib bordi. Keyinchalik institut tarkibi yangi yosh milliy kadrlar bilan boyib bordi, hamda "Dialektika va bilish nazariyasi", "Ijtimoiy falsafa", "Etika" kabi bo'limlar tashkil qilindi. Institutning asosiy faoliyati falsafa, fan va madaniyat tarixini ob'ektiv o'rganish, ma'naviyatning yangi milliy qirralarini izlash, xalq ma'naviyatini yangi bilimlar bilan boyitish, millatning ma'rifiy ruhini ko'tarishga yo'nalgan edi. Bu sohada I.Mo'minov, M.Xayrullayev, M.Baratov, E.Yusupov, K.Sodiqov, M.Abdullayev, H.Aliqulov, R.Nosirov, M.Boltayev, A.Sharipov, G.Navro'zova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari e'tiborga sazovordir.

Ijtimoiy falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik falsafasi sohasida M.Axmedova, O'.Abilov, T.Abdushukurovlar, H.Po'latov, S.Shermuxamedov, A.Valiyev, N.G'oyibov, A.Yo'ldoshev, M.Abdullayev, O.Umrzoqova, M.Xolmatova, Q.Xonazarov, X.Shayxova, J.Yaxshilikov, Z.Qodirova, V.Alimasov, A.Yo'ldoshev, G.Tulenova, H.Po'latovlar samarali ishladilar va ishlamoqdalar.

Ontologiya va bilish nazariyasi, tabiatshunoslik falsafasi, fan metodologiyasi bo'yicha J.Tulenov, B.Ismoilov, O.Fayzullayev kabilar boshlagan an'analarni, M.Abdullayeva, R.Imomaliyeva, B.Karimov, B.To'rayev, E.Hoshimova, Sh.Qo'shoqov, H.Salomova, O.Fayziyev, Z.Davronov, N.Shermuxamedova, A.Berdimurodova, N.Eshmetov, Sh.Mamadaliyev, K.Tulenova, E.Izzetova va boshqalar davom ettirmoqdalar.

2002-yilda "Falsafa va huquq" jurnalining tashkil qilinishi institut xodimlarining ilmiy faoliyati samaradorligini yanada oshirishga hamda yosh olimlarning ilmiy izlanishlari haqida keng jamoatchilikning xabardor bo'lishi va falsafiy muloqotlar olib borilishidagi dadil qadam bo'ldi. Biroq O'zbekiston fanlar akademiyasida optimallashtirish jarayoni oqibatida Falsafa va huquq instituti faoliyati tugatildi va O'zMu huzurida "Falsafa" o'quv ilmiy tadqiqot markazi

tashkil etildi, hozirgi kunda bu markaz xodimlari turli loyihalar doirasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Falsafa tarixi va tarix falsafasini tahlil qilishda Sharq falsafasini teran o'rganish, shu asosda ulug' madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini yaqin o'timishdan qolgan mafkuradan xalos bo'lish, o'zimizning asrlar sinovidan o'tgan, ulug' ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaviy – umum-bashariy ruh bilan boyitish xalqimizning dolzarb vazifasidir. Shu ma'noda, o'zbek falsafasining yetakchi vakillari Sharq falsafasi tarixini o'rganish va undagi gumanistik g'oyalarni kelgusi avlodga yetkazish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib bordilar. Quyida ko'p sonli o'zbek falsafasining eng yirik vakillari ta'limotlari bilan tanishamiz.

### **O'zbekistonning falsafa fani sohasi akademiklari**

I.Mo'minov (1908-1974) O'zbekiston fanlar Akademiyasining akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. I.Mo'minov tomondan 1956-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnaliga asos solinishi ilmiy tadqiqot ishlari tarkibi va mavzulari doirasining nisbatan kengaytirilishi, ijodiy erkinlikka yo'l ochdi. 1957-yilda I.Mo'minov tashabbusi bilan O'zFA huzurida "Falsafa va huquq instituti" tashkil qilingan. O'zbek entsiklopediyasining birinchi mas'ul muharriri bo'lgan.

I.Mo'minov o'zbek faylasuflaridan birinchi bo'lib, sovet tuzumining millatni ma'naviy qadriyatlardan mahrum etish, milliy ongni buzish va o'z-o'zini anglashga yo'l qo'ymaslikka intilib, kommunistik mafkurani shakllantirishga jon-jahdi bilan harakat qilayotgan bir paytda, tarixiy va ma'naviy merosni, o'zbek xalqi va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari yaratgan boy ma'naviy qadriyatlarni har tomonlama o'rgandi. I.Mo'minovning 1967-yilda Abu Rayxon Beruniy tavalludining 1000 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro konferentsiyada "Beruniy – entsiklopedist olim" mavzusidagi ma'ruzasi va "Xorazmlik buyuk entsiklopedist" monografiyasining o'zbek, rus, ingliz va frantsuz tillarida nashr qilinishi olamshumul voqea bo'ldi. Xususan, u "Biz buyuk xorazmlik olim Beruniyga vatanparvarligi, insonparvarligi uchun, olimning quvonchi va baxtini umuminsoniylik va milliylik, umumiylik va xususiylik birligida ko'ra olgani uchun buyuk hurmat bilan qaraymiz. Beruniyda vatanparvarlik izchil insonparvarlik bilan uzviy bog'lanib ketadi", deb e'tirof etadi.

O'sha davrda o'tmish mutafakkirlari va olimlarining insonparvarlik salohiyati, qarashlari va ta'limotlaridagi nodir milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida hech narsa deyilmagan yoki ular inkor qilingan bir vaziyatdagi bu sa'y harakat milliy falsafa rivojidadagi dastlabki uchqun bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Olim turli manba va ilmiy adabiyotlardan foydalangan va ularni sharhlagan holda Amir Temurning shaxsi va faoliyatini ob'ektiv tahlil qilishga va baholashga harakat qildi. I.Mo'minov o'sha davrdagi ilm ahlini Amir Temurning milliy davlatchilikni shakllantirishdagi roliga to'g'ri baho berishga chaqirdi va 1969-yilda YUNESKO homiyligida Samarqand shahrining 2500 yilligi, Temur va Temuriylar davridagi O'rta Osiyo san'atini o'rganishga bag'ishlangan konferentsiyada "Amir Temurning O'rta Osiyoda tutgan o'rni va roli" mavzusida ma'ruza qildi, jiddiy muhokamalardan so'ng ma'ruza o'zbek va rus tillarida nashr qilindi. U "Bunday shaxsning yuzaga kelishi davrning, zamon-ning taqozosi, Chig'atoy ulusining zulmi, mayda feodal beklarni vahshiyona ezishi, mo'g'ul xonlari, Oltin O'rda beklarining Movaraunnahrdagi to'xtovsiz bosqinchilik yurishlari, azoblangan, xonavayron bo'lgan, 150 yil davomida chet el hukmronligidan tinkasi qurigan mamlakatning, xalqning mustaqillikka erishish talabi edi. Bu tarixiy zaruriyat Temurda, uning lashkarboshilari ko'rindi. Temur davlat arbobi sifatida ma'lum darajada bu ehtiyojni, talabni, zaruriyatni o'zida aks ettirdi, ya'ni Movanaunnahrdagi mustaqil markaziy birlashgan davlat tuzdi, mamlakat ehtiyojlariga javob berdi. Mulkdor sinflar, savdogarlar, karvonsaroy egalari hamda ma'lum ma'noda aholi talablariga peshvoz chiqib, mamlakatning ko'p joylarida qurilishlar qildirdi, kamida yuz yigirma yil davomida nisbatan osoyishtalik o'rnatdi. Bu shubhasiz, mamlakatda iqtisod, madaniyat, fan, adabiyot va san'atning o'sishida muhim omil bo'ldi. Temurning O'rta Osiyo tarixidagi xizmati, bizningcha ana shulardan iboratdir" - deb ta'kidladi.

I.Mo'minov "Amir Temur O'rta Osiyoni birlashtiribgina qolmasdan, balki Rusga va boshqa Yevropa xalqlariga, shuningdek Shimoliy Afrika xalqlariga, birinchi navbatda Misr xalqiga yordam ko'rsatdi" deb ta'kidladi. Bu asari bilan I.Mo'minov ba'zi tarixchilarning "Amir Temur o'zidan vayrona va kuldari boshqa hech narsa qoldirmadi", "Temur va Chingizxon bir tarzda ish ko'rdi" degan uydirma da'volarning asossiz ekanligini isbotlash omillari totalitar mafkura

hukmronlik qilgan davrdagi buyuk jasorat namunasi edi. Shu bois, I.Mo'minov ma'muriy-buyruqbozlik tizimi mafkurasining keskin tanqidi va adolatsiz tazyiqiga uchradi. Chunki marksistik mafkura uchun millatning o'z-o'zini angalashga asos bo'ladigan ilmiy tarixiy dalillar emas, balki millatlar va xalqlarni tarixiy ildizlaridan va qadriyatlaridan uzib qo'yadigan kommunistik ongni shakllantirish muhimroq edi. Shunday bo'lsada, 1976-1977- yillarda uning 4 jildlik "Tanlangan asarlari" nashr qilindi. Ushbu kitoblarga I.Mo'minovning nafaqat O'rta Osiyo mutafakkirlari, (Mirzo Bedil, A.Beruniy, Yu.Qoshg'ariy, A.Navoiy, A.Jomiy), balki g'arb falsafasi namoyondalari (Gegel, Kant, Yum, Fixte) ijodiga bag'ishlangan asarlari jamlangan.

Mustaqillikka erishgach Mo'minovning ijodi va jamoatchi arbob sifatidagi faoliyatiga munosabat o'zgardi. U fan, falsafa ravnaqiga qo'shgan hissasi uchun "Buyuk xizmatlari" ordeni bilan taqdirlandi. "Falsafa va huquq instituti" uning nomi bilan ataldi. I.Mo'minov yaratgan ilmiy maktabning dastlabki qaldirg'ochlari o'z maktablarini yaratishga muvassar bo'ldilar va ustoz ishini davom ettirdilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda nafaqat falsafa tarixi, balki dialektika va bilish nazariyasi masalalarini o'rganishga ham e'tibor qaratilgan. Dunyoni dialektik nuqtayi nazardan baholashda, ularga munosabat bildirishda bugungi o'ta murakkab va shiddatli jarayonlarni anglashda oqilona yondashuv muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, sho'rolar davrida ilmiy bilim marksizm g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lsa-da, ba'zi faylasuflar ijodida bilim o'zining haqiqiy ma'nosida ifodasini topa oldi.

Jondor Tulenov (1927-2002) O'zbekiston fanlar Akademiyasining akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ijodi dialektika va bilish nazariyasi, ilmiy tafakkur uslubi masalalariga bag'ishlangan. XX asming 70-80-yillarida falsafani o'rganishda nisbatan erkinlik shakllandi va shu bois dialektik mantiqning rivojiga yo'l ochildi. O'zbekistonda J.Tulenovning dialektika maktabi shakllandi. Qozog'istonlik o'zbek olimi 1971-yildan O'zbekistonda ilmiy faoliyatini davom ettiradi. U 350 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi. J.Tulenov o'zining "Qonun falsafiy kategoriya sifatida" (Zakon kak filosofskaya kategoriya 1959) asarida qonunlar tuzilishi jihatidan uch asosiy komponentlardan iborat deb ko'rsatadi: Ular 1) ob'ektiv asosga

ega, ya'ni predmet va hodisalarning umumiy nisbatan barqaror zaruriy aloqalarini ifodalaydi; 2) harakatning o'ziga xos usuliga ega, ya'ni voqealar xarakteri va yo'nalishini aniqlaydi; 3) yuqorida ko'rsatilgan ikki komponent o'rtasida bog'lovchi element vazifasini bajaruvchi muayyan sharoitlar mavjudligida namoyon bo'ladi. Demak qonun - bu predmet va hodisalarning zaruriy, nisbatan barqaror munosabatlari majmui bo'lib, ular voqealarning yo'nalishi va xarakterini aniqlaydi. Qonun namoyon bo'lishining turli shakllari bilan xarakterlanadi. Qonunning namoyon bo'lish shakllariga quyidagilar kiradi: 1) qonunning stixiyali anglanilgan kuch sifatida namoyon bo'lishi; 2) qonunning hukmron tendentsiya va aniq shaklda namoyon bo'lishi (dinamika va statika qonunlari); 3) qonunning katta va kichik kuch bilan harakati.

Ob'ektiv qonunlar tizimi ham turli tumanligi bilan xarakterlanadi: 1) Qamrab olgan ob'ektiv jarayonlar nuqtayi nazaridan tabiiy va ijtimoiy qonunlar farqlanadi; 2) Ta'sir darajasi nuqtayi nazaridan asosiy va asosiy bo'lmagan qonunlar; 3) harakat sharoitlari nuqtayi nazaridan xususiy, umumiy va eng umumiy qonunlar farqlanadi. Ushbu qonunlar ijtimoiy taraqqiyotda o'z ifodasini topadi. J.Tulenovning kategoriyalar haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u 1) dialektika kategoriyalari ob'ektiv dunyoning umumiy qonuniyatlarini ifodalaydi va ontologik mazmunga ega; bu inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan voqelik rivojlanishi va harakatining aloqadorligi bilan bog'liq umumiy qonun; 2) dialektika kategoriyalari umumiy tushunchalar sifatida inson fikrining shaklidir va bilishning tayanch nuqtasi hisoblangan mantiqiy mazmunga ega; 3) dialektika kategoriyalarining shakllanishi va rivojlanishining asosi bo'lgan amaliyot insonning moddiy ma'naviy faoliyati majmui sifatida namoyon bo'ladi, shuning uchun dialektika kategoriyalari ijtimoiy amaliyotning mahsuli ham deyiladi; 4) dialektika kategoriyalari amaliyotda paydo bo'lib, amaliyotga xizmat qiladi; 5) dialektika kategoriyalarining muhim xususiyati ularning o'zgaruvchanligi va egiluvchanligidir deb e'tirof qiladi. Muallif "Dialektika kategoriyalarining egiluvchanligi" (Problema gibkosti kategoriy, 1981), Dialektika kategoriyalarining o'zaro aloqadorligi (Vzaimosvyaz' kategoriy dialektiki 1986) asarlarida birinchi bo'lib, dialektika kategoriyalarining ziddiyatliliigi, ularning rivoji, o'zaro aloqadorligi va o'zaro bir-biriga o'tishini.

“Madaniyat va sivilizatsiya” (1996), “Davrimiz allomasi” (1998), “Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz” (1999), “Istiqloq quyoshi” (2002), “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi va falsafaning ravnaqi” (2005), “Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot” (2005), Inson falsafasi (2010) kabi asarlar yaratdi va ular ilmiy jamoatchilik tomonidan munosib baholandi. Olim, ushbu asarlarida sovet tuzumi davrida falsafa fanini siyosiy lashtirish oqibatlari haqida fikr yuritadi va yangilangan falsafaning eng avvalo gumanistik, so‘ngra dunyoqarashli, tarbiyaviy, qadriyatli, integrativ, axloqiy funksiyalariga ta‘rif beradi. “Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz” asarida u milliy mustaqillikning ahamiyati, jamiyatning demokratiyalashuvi jarayonida yangilangan tafakkurni shakllantirishning zaruriyatini asoslaydi. Shermuxamedov Mirzayev bilan hamkorlikda yaratgan “Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti tarixi”, “Oybek va o‘zbek adabiyoti”, “Komil Yashin ijodi”, “Adabiyotning hamkorligi hayot taqozosi”, “Abadiyot va san‘atda printsiplar” kabi kitob va risolalari, uning nafaqat faylasuf olim, balki o‘zbek adabiyotining haqiqiy ixlosmandi ekanligidan dalolatdir. Xususan “Hozirgi o‘zbek adabiyoti tarixi” (1985) qo‘llanmasida olim zamon zaylidan cho‘chinasdan, har bir adib, shoir va umuman adabiy muhit haqida xolisona fikr bildirgan. Olim barcha asarlarida inson omilini birinchi o‘ringa qo‘yadi va shogirdlarini Bedilning “Garchi dushmani do‘st qilolmasang, do‘stni dushman qilmagin” degan fikriga amal qilishga chorlaydi.

S.Shermuxamedov ustozga sadoqatli shogird va shogirdparvar ustoz bo‘lgan. U ustozni I.Mo‘minovning 80, 85, 90, 95, 100 yillik yubileylarini o‘tkazish, tug‘ilgan yurtida muzey tashkil qilishda o‘zida faol ishtirok qildi, ustozining boy ilmiy merosi, ijodi va faoliyati haqida qator risolalar yaratdi.

S.Shermuxamedov “Madaniyat falsafasi va tarixi” ilmiy maktabida 130 dan ortiq shogirdlar tayyorladi, ular bugungi kunda respublikamiz Oliy o‘quv yurtlari, davlat tashkilotlarida turli lavozimlarda ishlab, yurt tinchligi va farovonligi yo‘lida mehnat qilmoqdalar.

Erkin Yusupov (1928-2003) O‘zbekiston fanlar Akademiyasi-ning akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ijodi ijtimoiy falsafa va madaniyat nazariyasi sohasi bilan bog‘liq. U mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq millatlararo munosabatlar sohasida mamlakatda uzoq yillar davomida to‘planib qolgan hal etilmay kelgan qator muammolar, ularning paydo bo‘lish, rivojlanish

va keskinlashish sabablari, ob'ektiv omillari va sub'ektiv zaminlarini tahlil etgan. Shuningdek E.Yusupov milliy manfaatlar va milliy munosabatlarning dialektik aloqadorligi, millatlar rivojlanishining ijtimoiy iqtisodiy muammolariga e'tibor bergan. E.Yusupov o'zining "Inson kamolotining ma'naviy asoslari" (1998) asarida inson ma'naviy kamolotining jamiyat taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liqligi, axloq, odob, imon, vijdon, e'tiqod, madaniyat, ma'rifat kabi omillarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, ular yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy yo'llaridan biri ekanligini tahlil etgan. Xususan, u "Axloqning mezonlari jamiyat taraqqiyotining umumiy imkoniyatlari va ehtiyojlari alohida etnik guruhlar yashayotgan, mehnat qilayotgan sharoitlar ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Barcha insoniyatga xos bo'lgan ruhiy boylik-axloq turli konkret tarixiy sharoitlarda, turli mamlakatlar va xalqlarda o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi" deb ta'kidlaydi. "Oila ma'naviyat bulog'i" asarida E.Yusupov mustaqillik yillarida O'zbekistonda oilani mustahkamlash, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoyalash, ma'naviy yetuk, jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash borasida ko'rilayotgan tadbirlar haqida fikr yuritadi, shuningdek oilada ota-ona ibrati, farzandlik burchi, farzand tarbiyasiga xos bo'lgan axloqiy qadriyatlar, oilaviy munosabatlarning diniy va milliy jihatariga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, "Ahlil oilada hal qiluvchi so'zni ota aytadi, bu so'zdan oldin u albatta oila a'zolarining fikr va manfaatini e'tiborga oladi, shu sababli ham milliy an'analarimizda otadan oldin so'zlash yoki ota o'rniga so'zlash, uning so'zini bo'lish ham beodoblikning belgisi hisoblanadi". E.Yusupovning so'nggi "Falsafa – bahs va munozaralar maydoni" maqolasida "Falsafa shunday fanki uning muammolari tahlilida davrning ildamlab borayotgan ziddiyatli ruhi to'la va to'g'ri aks etishi kerak. Falsafa har qanday kashfiyotni, fan sohasidagi yangilikni mutlaq haqiqat deb tan olmaydi, har bir muammo tahlilidan oldin bu nima uchun shunday?, boshqacha bo'lishi mumkin emasmi? deb savol qo'yadi. Falsafa tarixida jamiyat va fan taraqqiyoti oldiga bunday savollar qo'yilmagan davr bo'lmagan va bo'lmaydi ham, shu sababli falsafiy muammolar tahlili doim keskin bahs va munozaralar maydoni bo'lgan" deb ta'kidlaydi. E.Yusupov milliy kadrlar tayyorlash masalasiga ham jiddiy yondoshgan. Olim umrining oxirigacha O'zMU falsafa fakultetida talabalarga falsafa ilmidan dars bergan.



“Madaniyat va sivilizatsiya” (1996), “Davrimiz allomasi” (1998), “Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz” (1999), “Istiqlol quyoshi” (2002), “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi va falsafaning ravnaqi” (2005), “Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot” (2005), Inson falsafasi (2010) kabi asarlar yaratdi va ular ilmiy jamoatchilik tomonidan munosib baholandi. Olim, ushbu asarlarida sovet tuzumi davrida falsafa fanini siyosiyashtirish oqibatlari haqida fikr yuritadi va yangilangan falsafaning eng avvalo gumanistik, so‘ngra dunyoqarashli, tarbiyaviy, qadriyatli, integrativ, axloqiy funksiyalariga ta‘rif beradi. “Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz” asarida u milliy mustaqillikning ahamiyati, jamiyatning demokratiyalashuvi jarayonida yangilangan tafakkurni shakllantirishning zaruriyatini asoslaydi. Shermuxamedov Mirzayev bilan hamkorlikda yaratgan “Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti tarixi”, “Oybek va o‘zbek adabiyoti”, “Komil Yashin ijodi”, “Adabiyotning hamkorligi hayot taqozosi”, “Abadiyot va san’atda printsiplar” kabi kitob va risolalari, uning nafaqat faylasuf olim, balki o‘zbek adabiyotining haqiqiy ixlosmandi ekanligidan dalolatdir. Xususan “Hozirgi o‘zbek adabiyoti tarixi” (1985) qo‘llanmasida olim zamon zaylidan cho‘chimasdan, har bir adib, shoir va umuman adabiy muhit haqida xolisona fikr bildirgan. Olim barcha asarlarida inson omilini birinchi o‘ringa qo‘yadi va shogirdlarini Bedilning “Garchi dushmani do‘st qilolmasang, do‘stni dushman qilmagin” degan fikriga amal qilishga chorlaydi.

S.Shermuxamedov ustozga sadoqatli shogird va shogirdparvar ustoz bo‘lgan. U ustoz I.Mo‘minovning 80, 85, 90, 95, 100 yillik yubileylarini o‘tkazish, tug‘ilgan yurtida muzey tashkil qilishda o‘zida faol ishtirok qildi, ustozining boy ilmiy merosi, ijodi va faoliyati haqida qator risolalar yaratdi.

S.Shermuxamedov “Madaniyat falsafasi va tarixi” ilmiy maktabida 130 dan ortiq shogirdlar tayyorladi, ular bugungi kunda respublikamiz Oliy o‘quv yurtlari, davlat tashkilotlarida turli lavozimlarda ishlab, yurt tinchligi va farovonligi yo‘lida mehnat qilmoqdalar.

Erkin Yusupov (1928-2003) O‘zbekiston fanlar Akademiyasining akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ijodi ijtimoiy falsafa va madaniyat nazariyasi sohasi bilan bog‘liq. U mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq millatlararo munosabatlar sohasida mamlakatda uzoq yillar davomida to‘planib qolgan hal etilmay kelgan qator muammolar, ularning paydo bo‘lish, rivojlanish

va keskinlashish sabablari, ob'ektiv omillari va sub'ektiv zaminlarini tahlil etgan. Shuningdek E.Yusupov milliy manfaatlar va milliy munosabatlarning dialektik aloqadorligi, millatlar rivojlanishining ijtimoiy iqtisodiy muammolariga e'tibor bergan. E.Yusupov o'zining "Inson kamolotining ma'naviy asoslari"(1998) asarida inson ma'naviy kamolotining jamiyat taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liqligi, axloq, odob, imon, vijdon, e'tiqod, madaniyat, ma'rifat kabi omillarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, ular yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy yo'llaridan biri ekanligini tahlil etgan. Xususan, u "Axloqning mezonlari jamiyat taraqqiyotining umumiy imkoniyatlari va ehtiyojlari alohida etnik guruhlar yashayotgan, mehnat qilayotgan sharoitlar ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Barcha insoniyatga xos bo'lgan ruhiy boylik-axloq turli konkret tarixiy sharoitlarda, turli mamlakatlar va xalqlarda o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi" deb ta'kidlaydi. "Oila ma'naviyat bulo'gi" asarida E.Yusupov mustaqillik yillarida O'zbekistonda oilani mustahkamlash, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoyalash, ma'naviy yetuk, jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash borasida ko'rilayotgan tadbirlar haqida fikr yuritadi, shuningdek oilada ota-ona ibrati, farzandlik burchi, farzand tarbiyasiga xos bo'lgan axloqiy qadriyatlar, oilaviy munosabatlarning diniy va milliy jihatariga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, "Ahil oilada hal qiluvchi so'zni ota aytadi, bu so'zdan oldin u albatta oila a'zolarining fikr va manfaatini e'tiborga oladi, shu sababli ham milliy an'analarimizda otadan oldin so'zlash yoki ota o'rniga so'zlash, uning so'zini bo'lish ham beodoblikning belgisi hisoblanadi". E.Yusupovning so'nggi "Falsafa – bahs va munozaralar maydoni" maqolasida "Falsafa shunday fanki uning muammolari tahlilida davrning ildamlab borayotgan ziddiyatli ruhi to'la va to'g'ri aks etishi kerak. Falsafa har qanday kashfiyotni, fan sohasidagi yangilikni mutlaq haqiqat deb tan olmaydi, har bir muammo tahlilidan oldin bu nima uchun shunday?, boshqacha bo'lishi mumkin emasmi? deb savol qo'yadi. Falsafa tarixida jamiyat va fan taraqqiyoti oldiga bunday savollar qo'yilmagan davr bo'lmagan va bo'lmaydi ham, shu sababli falsafiy muammolar tahlili doim keskin bahs va munozaralar maydoni bo'lgan" deb ta'kidlaydi. E.Yusupov milliy kadrlar tayyorlash masalasiga ham jiddiy yondoshgan. Olim umrining oxirigacha O'zMU falsafa fakul'tetida talabalarga falsafa ilmidan dars bergan.

Valiyev Abdulxay (1929-2002) O'zbekiston fanlar Akademiyasi akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ijodi jamiyat taraqqiyotida milliy ziyolilarning roli masalalariga bag'ishlangan. U bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, O'zbekistonda milliy ziyolilar faoliyatini takomillashtirish zarurligini asoslagan. Sovet tuzumi hukmronligi avj olgan 1966-yilda A.Valiyev "O'rta Osiyoda milliy ziyolilarning shakllanishi" asarida ishchi dehqonlar orasidan iqtidorlilarini tanlab, milliy rahbar kadrlarni tayyorlash lozimligi haqidagi g'oyani ilgari surgan. U turli toifadagi ziyolilar dunyoqarashi, ongi, psixologiyasi, kayfiyatidagi ziddiyatlarni ochib berishga harakat qilgan. A.Valiyev 30-yillarda qatag'on qilingan mashhur davlat arboblari, milliy ziyolilar F.Xo'jayev va T.Risqulovning mash'um taqdiri haqida ochiq fikr yuritgan. 1969-yilda esa O'rta Osiyodagi milliy ziyolilarning davlat boshqaruvidagi roli masalasiga bag'ishlangan asarida 1917-1960-yillardagi ziyolilarning ijtimoiy evolyutsiyasi, ishlab chiqarish sohasidagi ziyolilarning xalq xo'jaligini tiklashdagi roli, ilmiy texnikaviy taraqqiyotda ilmiy ziyolilar faoliyatining o'rnini, milliy ziyolilarning jamiyat ma'naviy hayotiga ta'siri haqida fikr yuritadi. Ilmiy faoliyat bilan bir qatorda A.Valiyev jamoat ishlarida ham faol ishtirok qilgan. 1961-1965-yillarda u "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnali bosh muharriri o'rinbosari, va "O'zbek entsiklopediyasi"ning bosh muharriri birinchi o'rinbosari lavozimida ishlagan. O'zbek entsiklopediyasining birinchi 8 jildligini nashrga tayyorlashda faol ishtirok qilgan.

Mustaqillik yillarida A.Valiyev mustaqillik buyuk ne'mat ekanligi, va uni asrash, avaylashda o'zbek ziyolilarining roli muhim ekanligini anglagan holda, umrining oxirigacha yangi avlod milliy kadrlarini tarbiyalashga munosib hissa qo'shdi.

M.Xayrullayev (1931-2004) O'zbekiston fanlar Akademiyasi akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek falsafasi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan yetuk olim, jamoat arbobi. Asosiy faoliyati Abu Nasr al Forobiyning ilmiy ijodini o'rganish va sharhlashga bag'ishlangan. U "Buyuk siymolar" (196.2 jild) va "Ma'naviyat yulduzlari" (1999) asarlarining mas'ul muharriri. M.Xayrullayev Forobiy ijodini qayta kashf etgan olim. U Forobiy ijodidagi materializm va idealizmni bir-biri bilan aralashtimaslik kerak deb hisoblaydi. Uning fikricha, Forobiy tomonidan Xudoning tan olinishi idealizm bo'lsa, astronomiya, matematika, mantiq

sohasidagi kashfiyotlari materializmdir. Chunki bu sohalarda narsalar yo'qdan bor bo'lmaydi, bordan yo'q bo'lmaydi. Masalan, Yer, Quyosh, Oy, sayyoralar harakatlari orasidagi munosabatlarning ob'ektivligi doimo bir xildadir. M.Xayrullayev kommunistik mafkura hukmron bo'lgan davrda, Forobiy idealizmini tan oldi va uning ijodidagi idealistik va materialistik g'oyalarni sharhladi. M. Xayrullayev yetuk olim bo'lish bilan bir qatorda jamoatchi ham edi. U uzoq yillar davomida O'zFA "Sharqshunoslik" institutida direktor lavozimida va "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jumalining mas'ul muharriri lavozimida ishlagan.

Mo'bin Baratov (1934-2005) O'zbekiston fanlar Akademiyasi akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ishlari Markaziy Osiyo mutafakkirlarining falsafiy merosini o'rganishga bag'ishlangan. Jumladan, uning "Ibn Sino falsafasi" asarida buyuk mutafakkir ijodining yangi qirralari ochib berilgan. Mo'bin Baratov har qanday jamiyatni harakatlantiruvchi kuch ma'naviy omil deb ta'kidlaydi va o'zbek xalqida tarixan ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik shakllangan, hozirgi kunda ularni davr ruhiga moslashtirish lozim, deb hisoblagan.

Po'latov Xaydar Po'latovich (1929-1994) O'zbekiston fanlar Akademiyasi akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ishlari ijtimoiy falsafa, axloq va madaniyat nazariyasi muammolariga bag'ishlangan.

Djumanazar Bazarbaev (1933-2020) O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ishlari ijtimoiy falsafa va madaniyat nazariyasi muammolariga bag'ishlangan.

Tursunmuhamedov Sattar Pozilxaqovich (1929-2020) O'zbekiston fanlar Akademiyasi akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ishlari sanoat va qishloq xo'jalik mehnati, ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, mulkdorlar sinfining shakllanishi, ijtimoiy jarayonlar, jamiyatning siyosiy tizimi, mustaqillik yillarida esa, bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida kuchli ijtimoiy siyosatning ahamiyati masalalariga bag'ishlangan.

### **O'zbekiston falsafa jamiyati**

1974-yilda tashkil etilgan O'zbekiston falsafa jamiyatining birinchi raisi I.Mo'minovdir. I.Mo'minov vafotidan so'ng, 1974-1980-yillarda M.Xayrullayev, Q.Xonazarov (1980-1986), E.Yusupov

(1988-1990), S.Shermuxeimedov (1990-2016)-yillarda O'zbekiston falsafa jamiyati raisi lavozimida ishlar ekanlar, asosiy e'tiborni O'zbekistonda yashab ijod qilayotgan faylasuflarning ijodiy hamkorligini ta'minlash, ularning ajdodlarga munosib avlod ekanligini dunyo hamjamiyatiga tanishtirishga qaratdilar. Shu bois, o'zbek faylasuflari muntazam xalqaro konferentsiyalar va jahon falsafa Kongresslarida ishtirok etganlar.

Bugun dunyoda, shu jumladan O'zbekistonda falsafa fani yanada ravnaq topmoqda. Falsafa ilmini rivojlantirish maqsadida viloyatlarda, xususan, Qoraqalpog'iston Davlat universiteti, Samarqand Davlat universiteti, Toshkent Davlat sharqshunoslik institutida "Falsafa" bo'limlari tashkil qilingan va unda yetakchi mutaxassislar faoliyat olib bormoqdalar.

Xulosalar. Insoniyat taraqqiyotida har bir davr an'anaviy falsafiy muammolarni ilgari surgan va ularni o'z davri dunyoqarashi ta'sirida hal qilishga harakat qilgan.

Falsafa tarixini yangi shoxchalari paydo bo'ladigan daraxtga qiyoslash mumkin, har bir shox o'z shakliga va yaproqlarining rangiga ega bo'lib, ular boshqalarini takrorlamaydi. Biroq daraxt shoxlari kabi falsafiy yo'nalishlar qancha ko'p bo'lmasin, ularni umumiy ildiz - inson va olamning o'zaro aloqadorligi, inson va jamiyat hayotining uzviyligi birlashtiradi. Ushbu umumiy ildiz inson madaniyatining dunyoqarashli asosi sifatida falsafaning ahamiyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi. XX asr turli davrlardagi falsafiy yo'nalishlarni o'zida birlashtirdi va o'tmish tajribasiga tayangan holda, juda murakkab ijtimoiy siyosiy vaziyatda olam va odam masalasiga ziddiyatli, yangi falsafiy qarashlar shakllandi.

Hozirgi zamon falsafasining o'ziga xos xususiyati uning dunyoqarashli va metodologik jihatdan turli tumanligidir.

G'arb va Sharqda o'z tafakkur uslubida bilimlarni ifodalash va o'zlashtirishning o'z mexanizmlari va shakllari, bilim va haqiqatga eltuvchi yo'lni yorituvchi o'z mo'ljallari mavjud. Sharq ta'limotlari va tafakkur uslubini Sharq amaliyoti va tajribasidan olingan o'ziga xos usullar va metodlar yordamida tushunish va ichdan anglab yetish mumkin.

#### **Tajribaviy amaliy matnlar:**

Qadimgi Sharq falsafasi, daosizm, Konfutsiy ta'limoti, Veda, Avesto, Zardo'sht, Qadimgi Yunon falsafasi, Islom falsafasi,

panteizm, deizm, antropotsentrizm, nominalizm, realizm, Sharq falsafasi, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, soʻfizim, filosofema, shariat, tariqat, sezgi.

### **Qoʻshimcha va tushuntiruvchi matnlar**

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi Sharq va Gʻarb falsafasining umumiy tomonlari nimada?
2. Qadimgi Sharq va Gʻarb falsafasining farqli jihatlari nimada?
3. Oʻrta asr Gʻarbiy Yevropa falsafasining teotsentrik mohiyatini tushuntirib bering?
4. Ibn Arabiyning filosofemasi nimaga asoslanadi?
5. Bahouddin Naqshbandiyning asosiy gʻoyasi nima va uning hozirgi kundagi ahamiyatini koʻrsating.
6. Abu Nasr Forobiy yaratgan bilish nazariyasining ahamiyati nimada?
7. Ibn Sino ijodining oʻziga xos xususiyatlarini izohlang.

### **Esse mavzulari**

1. Qadimgi manba "Avesto"dagi falsafiy qarashlarning mohiyati
2. Mumtoz yunon falsafasining oʻziga xos xususiyatlari
3. Oʻrta asrlarda teotsentrizmning ustivor xarakteri
4. Markaziy Osiyoda peripatetizm anʼanalarning rivojlanishi
5. Forobiy dunyoqarashida Ideal jamiyat gʻoyasi
6. Ibn Sino taʼlimotining falsafiy ahamiyati
7. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy va falsafiy merosi
8. Markaziy Osiyoda tasavvuf taʼlimotining tarqalishi va rivojlanishi

### **Bilim va koʻnikmalarni baholash materiallari**

1. Falsafiy tafakkur Qadimgi Sharq va Gʻarbda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatida qanday koʻrinishda vujudga kelgan?  
A) Mifologiya  
B) Ontologiya  
C) Gnoseologiya  
D) Dialektika
2. Mifologiyada dastlab qanday masalalar qoʻyilgan?  
A) Dunyo qanday vujudga kelgan va u qanday rivojlanadi? Hayot va oʻlim nima?

B) Nega tug'ildik va nimaga o'lamiz?

C) Biz kimmiz, nega tug'ildik?

D) Unday nazariya bo'lmagan

3. Antik davrda falsafa rivojlangan shaharlarni belgilang?

A) Ioniya, Sitsiliya, Afina

B) Makedoniya, Samarqand, Buxoro

C) Buxoro, Toshkent

D) Xiva, Toshkent

4. Sharq va G'arb falsafasi nimaga qarab rivojlangan ?

A) Umuminsoniy qadriyatlarga

B) Davlatlarga qarab

C) Mehnat taqsimotiga qarab

D) Qurollarning takomillashuviga qarab

5. Markaziy Osiyoda ma'naviy-falsafiy merosning eng qadimgisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Avesto

B) Talmut

C) Injil

D) Qur'oni Karim

#### Adabiyotlar:

1. A.Avloniy. Tanlangan asarlar. -Toshkent: Ma'naviyat.2006

2. M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. -Toshkent: Ma'naviyat, 2006

3. A.Fitrat. Tanlangan asarlar. -Toshkent: Ma'naviyat, 2010

4. Volgogradskiy A.I. Аль-Хорезми i indiyaskaya matematika // *Общественные науки v Uzbekistane*. 1983, №7.

5. Nosirov R.N. Вопросы теории poznaniya vo vzglyadax progressivnykh mysliteley Sredney Azii. - Toshkent: 1988.

6. Xayrullaev M. Filosofskoe nasledie narodov Sredney Azii i bor'ba idey. - Farg'ona, 1988.

7. Abu Rayxon Biruni. Izbrannyye proizvedeniya. T: 1966.

8. Ibn-Sina Abu Ali. Kanon vrachebnoy nauki. Kniga I, II, III. - Toshkent: 1993.

9. Ma'naviyat yulduzlari. M.Xayrullayevning tahriri.-Toshkent: Fan, 1997

10. Logiko-gnoseologicheskie idei mysliteley Sredney Azii. - Toshkent: 1981.

11.Shermuxamedov S. Xalq ma'naviyati va ma'rifatiga baxshida etilgan umr.-Toshkent: Fan, 2004.

12. Shermuxamedova N. Gnoseologiya. -Toshkent: O'FMJ, 2006.
13. Shermuxamedova N.A. Falsafa. -Toshkent, Noshir, 2012.
14. Turdiboyev N. Ibn Sinoning ilm va axloqqa doir ba'zi risolalari. – Tashkent: Falsafa va huquq, 2009.
15. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan.-Toshkent: Minhoj, 2003.
16. Muminov I. Izbrannyye proizvedeniya.-Tashkent: Uzbekistan, 1976. 456 s.
17. Musinov F.U. Yaqin va o'rtta Sharq falsafasining aql haqidagi ta'limotlari tarixidan (IX-XII asrlar: Dis. falsafa fan. nomzodi/ I.M.Muminov nom. falsafa va huquq in-ti;-Toshkent: 1999.-152 b.



## FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

Sharq falsafasi mavzusi doirasida antik davr g'arb mutafakkirlarining ijodiga murojaat etilgani bois, quyida fikrimizni O'rta asrdagi falsafiy fikr rivojidan boshlaymiz.

O'rta asrlar Yevropasida falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari

XVI asrgacha G'arb va Sharq falsafiy tafakkuri har biri o'z yo'lida rivojlangan: arab musulmon Sharqida va Ispaniyaning arablar istilo qilgan qismida falsafaga dinning ta'siri Yevropa va Sharqiy Osiyodagidan kamroq bo'lgan. Bu davrda arab musulmon fani rivojlanishda Yevropa fanidan ancha ildamlab ketgan. Xitoyda ham fan, garchi din ta'siri ancha kuchli bo'lsa-da, Yevropadagidan ilg'orroq bo'lgan. Ayrim Sharq faylasuflari o'z asarlarini antik davr mutafakkiri Demokritning atomlar haqidagi ta'limoti, Empedokl elementlari, Pifagor matematikasi, Platon g'oyalari, Aristotelning falsafiy va tabiiy-ilmiy merosi, ayniqsa uning mantiq tizimi ta'sirida vujudga kelgan ilmiy-falsafiy an'ana ruhida yaratganlar.

Yevropa falsafasida materializm O'rta asrlarda Sharqdagidek keng tarqalmagan va madaniyatga kuchli ta'sir ko'rsatmagan. U sxolastikada realizm bilan bir qatorda paydo bo'lgan nominalistik falsafa ko'rinishida rivojlangan va avval ayrim narsalar va hodisalar, so'ngra ularning in'ikoslari narsalarning nomlari sifatida talqin qilinuvchi umumiy tushunchalarda mavjud, degan g'oyadan kelib chiqqan. Ammo falsafani ilohiyotga qaram qilishga harakat qilgan din mafkuraning hukmron shakli sanalgan.

Ilk o'rta asrlarda falsafiy tafakkur rivojlanishining asosiy shakllari apologetika va patristika bo'lgan. Yevropada, Vizantiyada, Old Osiyo va Shimoliy Afrikaning ellinlashgan markazlarida xristianlikning tarqalishi boshqa diniy va falsafiy oqimlar bilan qattiq kurash jarayonida yuz bergan. Bunda xristianlikka qarshi neoplatonizm falsafasidan keng foydalanilgan. Ayni shu davrda apologetika xristianlikni asoslash va himoya qilish falsafasi sifatida vujudga kelgan.

Apologetika ortidan «cherkov otalari»ning falsafiy ta'limoti – patristika (lot. pater – ota) paydo bo'lgan. Patristikaning eng yorqin vakili Gippon (Shimoliy Afrika)dagi yepiskop Avliyo Avgustin (354-430)dir. U o'rta asrlar falsafasiga, shuningdek falsafiy ijodning

keyingi davrlardagi ko'pgina vakillariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Avgustinning eng mashhur: «Ilohiy shahar», «Insoniy shahar», «Tavba» kabi asarlari mavjud.

Avgustin «haqiqiy falsafa va haqiqiy din»ni bir deb hisoblagan. Xristianlik asoslarini u Platon falsafasidan topishga harakat qilgan. Uning fikricha, Platon g'oyalari – «bu ijodkor ijodga kirishish oldidan yuritgan mulohazalar» dir. Xudo dunyoni yo'qlikdan yaratgan. Inson panoh topishining asosiy yo'li uning xristian cherkoviga mansubligidir. Xristian cherkovi «ilohiy shahar»ning Yerdagi vakilidir. Avgustin inson faoliyatining ikki qarama-qarshi turini tahlil qiladi: birinchi – «dunyoviy shahar», ya'ni «Xudoga nisbatan nafrat darajasiga ko'tarilgan o'z-o'ziga bo'lgan muhabbatga» asoslangan davlatchilik; ikkinchi – «o'z-o'ziga nisbatan nafrat darajasiga ko'tarilgan Xudoga bo'lgan muhabbat»ga asoslangan «ilohiy shahar». Avgustin ikki muhim muammo: shaxs dinamikasi va kishilik tarixi dinamikasi muammolarini yechishga harakat qiladi. U «Tavba» asarida shaxsning o'zligini, uning ruhiy holatlarini o'rganadi. Avgustin shaxsning ichki dunyosini uning go'daklik yillaridan boshlab inson xristian sifatida shakllanadigan davrgacha tavsiflaydi. U shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatishning har qanday shakllarini (maktabda bolaga zo'rlik ishlatishdan davlat darajasida zo'rlik ishlatishgacha) qoralaydi. Avgustin shaxs erkinligi muammosini ilgari suradi. Oradan bir necha asrlar o'tgach, ayni shu muammo ekzistentsializm vakillarida Avgustin falsafasiga nisbatan qiziqish uyg'onishiga sabab bo'ldi. Avgustin inson sub'ektiv tarzda erkin harakat qiladi, lekin uning barcha harakatlarini u orqali Xudo bajaradi, deb hisoblagan. Xudoning borlig'ini insonning o'zligidan, inson tafakkurining o'z-o'zi uchun ishonchliligidan keltirib chiqarish mumkin. Avgustin shaxs uchun o'zlikning rolini ko'rsatib berdi. Zero, «Men» - tashqi dunyodan ajralib chiqadigan va hatto undan «berkinib» oladigan intim mavjudot. Avgustin inson o'z «Meni»ni qanday kashf etadi, degan savolga javob topishga harakat qiladi.

Tarix falsafasini ishlab chiqish ham, garchi atamaning o'zini Vol'ter taklif qilgan bo'lsa-da, Avliyo Avgustindan boshlangan. Antik faylasuflarda «tarixiylik» tushunchasi mavjud bo'lmagan: yunonlar dunyoni estetik jihatdan, mukammal koinot sifatida idrok etganlar. Avgustin esa o'tmish – hozirgi davr – kelajakning o'zaro aloqasini falsafiy jihatdan anglab yetishga harakat qilgan. Hozirgi

davr – bir lahza, zero u o'tinishga chekinadi va kelajak sari harakat qiladi. «Insoniy shahar» (jamiyat) hayoti buni tasdiqlaydi.

Avliyo Avgustin asarlari sxolastik falsafaning yaratilishiga asos bo'lgan va uzoq vaqt mobaynida antik falsafani, asosan Platon, Aristotel hamda neoplatoniklar – Plotin, Porfiriy, Prokl asarlarini o'rganish manbalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Plotinning universal triadasi – «yagona – aql – jon» sxolast-faylasuflar e'tiborini o'ziga tortgan.

Sxolastika (yunon. *schole* – maktab) – maktab ta'limida hukmronlik qilgan va ilohiyotga to'la bog'liq bo'lgan O'rta asrlar xristian falsafasi. XI asrda sxolastik falsafa doirasida nominalizm va realizm o'rtasida kurash avj olgan. Dastavval: «Xudo bir, lekin siymolarda uchta: Xudo-ota, Xudo-o'g'il va Xudo-muqaddas ruh, degan fikrni qanday tushunish kerak?», degan sof sxolastik savol o'rta tashlangan. Ammo bu savol atrofida avj olgan bahs-munozara uning chegarasidan chetga chiqqan va tom ma'noda falsafiy xususiyat kasb etgan: amalda yakkalik va umumiylik dialektikasining muhokamasiga aylangan. Realistlar «umuman inson», «umuman uy» kabi umumiy tushunchalar – «universalialar» mavjudligi to'g'risida so'z yuritganlar. Ular ayrim narsalarning mohiyati sanalgan universalialar narsalargacha amalda mavjud bo'ladi va narsalarni vujudga keltiradi, deb hisoblaganlar. Bu ashaddiy realizm zamirida Platonning «g'oyalar dunyosi» va «narsalar dunyosi» haqidagi ta'limoti yotadi.

Nominalistlar «universalialar narsalardan keyin vujudga kelgan nomlardir», degan fikrni ilgari surganlar. Ayrim narsalar, masalan, odamlar, uylargina realdir, «umuman inson» yoki «umuman uy» esa faqat so'zlar yoki nomlar bo'lib, ularning yordamida odamlar ayrim predmetlarni umumlashtiradilar. Mo'tadil nominalistlar insoniy tushunchalarda ayrim narsalardagi o'xshash jihatlarning in'ikosi sifatida umumiylik mavjudligini taxmin qilganlar.

Realizm umumiylikka narsadan oldin paydo bo'luvchi ideallik sifatida yondashgan, ya'ni amalda umumiy va yakkaning aloqasi to'g'risidagi idealistik funktsiya ni ishlab chiqqan bo'lsa, nominalizm bu muammoni materialistik yo'l bilan yechishning o'ziga xos timsoli bo'lgan. Shunday qilib, realistlar va nominalistlar o'rtasidagi bahs falsafiy tus olgan, chunki unda umumiy va yakkaning tabiati muammolari, ularning dialektikasi amalda muhokama qilingan.

Foma Akvinskiy (1225-1274) katolik teologiyani yaratgan va sxolastikani tizimga solgan mutafakkir sifatida e'tirof etiladi. Uning eng mashhur asarlari: «Teologiya yig'indisi», «Falsafa yig'indisi», «Majusiylarga qarshi yig'indi». Ularda muallif asosan Aristotelning asarlariga tayanadi. Foma Akvinskiy Aristotel ijodi bilan Sharqqa salb yurishi chog'ida tanishadi. Uning ontologiyasida borliq ham ehtimol tutilgan, ham amalda mavjud deb qaraladi. Borliq - ayrim narsalarning mavjudligi, ya'ni substantsiyadir. Foma Akvinskiy imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalar bilan bir qatorda materiya va shakl kategoriyalarini ilmiy muomalaga kiritadi. Bunda materiya imkoniyat sifatida, shakl esa – voqelik sifatida qaraladi.

Foma Akvinskiy Aristotelning shakl va materiya haqidagi asosiy g'oyalaridan foydalanib, din haqidagi ta'limotni ularga to'la bo'ysundiradi. Materiya shaklsiz mavjud bo'lmaydi, shakl esa oliy shaklga yoki «shakllarning shakli» - Xudoga bog'liqdir. Xudo esa sof ma'naviy mavjudot. Shaklning materiya bilan birikuvini moddiy dunyo uchungina zarur. Boz ustiga materiya (Aristoteldagi kabi) passivdir. Unga shakl faol tus beradi. Foma Akvinskiy «ilohiy borliq», hamonki u o'z-o'zidan ravshan narsa emas ekan, tafakkurimiz anglashga qodir bo'lgan narsalar orqali isbotlanishi lozim. U Xudo borligining hozirgi zamon katolik cherkovi ham foydalanuvchi o'z dalil-isbotini taklif qiladi.

Foma Akvinskiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ham diqqatga sazovor. U shaxs - «oqilona tabiatdagi eng olijanob» hodisa, deb hisoblagan. Uning fikricha, shaxs aql-zakovat, sezgilar va iroda bilan tavsiflanadi. Aql-zakovat irodadan ustun turadi. Ammo Xudoni bilishni Xudoga bo'lgan muhabbatdan keyingi o'ringa qo'yadi, ya'ni sezgilar, agar ular oddiy narsalarga emas, balki Xudoga qaratilgan bo'lsa, aqlidan ustun bo'lishi mumkin.

Foma Akvinskiy o'zining «Podsholar boshqaruvi haqida» asarida insonga avvalo ijtimoiy mavjudot sifatida, davlatga esa xalq farovonligi haqida g'amxo'rlik qiluvchi tashkilot sifatida yondashadi. Hokimiyatning mohiyatini u axloq, xususan yaxshilik va adolat bilan bog'laydi va hatto xalqning adolatsiz podsholarga qarshi bosh ko'tarish huquqi to'g'risida so'z yuritadi. Foma Akvinskiy ikki qonun: Xudo odamlar ongi va qalbiga joylagan «tabiiy qonun» va cherkovning davlat va fuqarolik jamiyatidan ustunligini belgilovchi «ilohiy qonun» haqidagi muammoni ham muhokamaga kiritadi. Uning

fikricha, dunyoviy hayot bo'lg'usi ma'naviy hayotga tayyorgarlikdir. Podshoning hokimiyati oliy – ma'naviy hokimiyatga bo'ysunishi lozim. Bu hokimiyatni osmonda – Iso Masih, Yerdä – Rim Papasi boshqaradi. Foma Akvinskiy siyosiy hokimiyat shakllarini muhokama qilar ekan, Aristotel kabi monarxiyani afzal ko'radi. Foma Akvinskiy falsafasi XIV asrdan boshlab dominikan sxolastlarining bayrog'iga aylandi, XVI asrdan e'tiboran iezuitlar tomonidan targ'ib qilina boshladi. Iezuitlarning mafkurachilari Foma Akvinskiy falsafiy tizimini sharhladi va takomillashtirdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab uning ta'limoti hozirgi zamon falsafiy tafakkurining qudratli oqimlaridan biri sanalgan neotomizm negiziga aylandi.

### **Uyg'onish davri Yevropa falsafasi**

Uyg'onish davri Yevropa falsafasining asosiy jihatlari antropotsentrizm, panteizm va dialektikada o'z ifodasini topgan. Bu davrda O'rta asr falsafasining olamning Xudo tomonidan yaratilganligi haqidagi bosh g'oyasi insonni ulug'lash g'oyasi bilan almashdi. Agar O'rta asrlarda inson irodasi Xudo irodasiga buysunishi ustivorlik qilsa, Uyg'onish davrida inson aqli imkoniyatlari cheksizligi ulug'landi.

Agar O'rta asrlarda Xudo tabiatni yaratganligi g'oyasi ustuvor bo'lsa, Uyg'onish davrida tabiat va Xudo uyg'unlashtirildi va tabiat – Xudo, xudo tabiat g'oyasi ulug'landi va bu bilan panteizmga asos solindi. Shuningdek agar Antik davrda Geraklit "Ariqdan oqqan suvga ikki marta oyoq bosib bo'lmaydi"- deb dialektikaga asos solgan bo'lsa, Uyg'onish davridagi dialektika qarama-qarshi tomonlarning ziddiyati g'oyasiga tayandi. Bu N.Kuzanskiyning ta'limotida o'z isbotini topdi.

### **Yangi davr falsafasining tabiiy-ilmii asoslari**

XVII asrdan boshlab tabiatshunoslik jadal sur'atlarda rivojlanadi. Dengizlarda kemalarning yurishiga ehtiyojning ortishi astronomiyaning rivojlanishini, shaharsozlik, kemasozlik, harbiy ish–matematika va mexanikaning rivojlanishini belgilaydi. Yangi fan avvalo moddiy ishlab chiqarish amaliyotiga: to'qimachilik sanoatida mashinalar ixtiro qilinishiga, ko'mir va metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish qurollarining takomillashuviga tayanadi.

Bu davrda E.Torrichelli havo bosimi mavjudligini eksperimental yo'l bilan aniqladi, simobli barometr va havo nasosini ixtiro qildi. I.Nyuton mexanikaning asosiy qonunlarini, shu jumladan butun

olam tortishish qonunini ta'rifladi. R.Boyl kimyoda mexanikani qo'lladi va kimyoviy element tushunchasini ishlab chiqdi. Ingliz fizigi U.Gilbert magnit xossalari va uning amalda qo'llanilishini o'rgandi. V.Garvey qon aylanishini kashf etdi va uning rolini empirik usulda tadqiq etdi. R.Dekart va G.Leybnits matematika, mexanika, fizika va fiziologiyaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Ijtimoiy fanlarda tabiiy huquq nazariyasi ishlab chiqildi (Angliyada T.Gobbs, Gollandiyada G.Grotsiy). Biroq Sharqda esa fan va falsafa sohasida deyarli yangilanish bo'lmadi.

Fanning bunday rivojlanishi o'z davrining falsafasiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Falsafada sxolastika va dindan uzil-kesil ajralish yuz berdi: diniy aqidalarning hukmronligiga, cherkovning ta'siri va tazyiqiga qarshi kurashda aqlning har narsaga qodirligi va ilmiy tadqiqotning cheksiz imkoniyatlari haqidagi ta'limot vujudga keldi.

Yangi davr falsafasiga avvalo tabiatshunoslikdan kelib chiqadigan kuchli materialistik tendentsiya xos. XVII asrda Yevropaning yirik faylasuflari qatoriga F.Bekon, T.Gobbs va J.Lokk (Angliya), R.Dekart (Frantsiya), B.Spinoza (Gollandiya), G.Leybnits (Germaniya) kiradi.

### **Yangi davr G'arb falsafasida ontologiya va gnoseologiya**

Yangi davr, avvalo XVII asr falsafasida ontologik kateqoriyalariga borliq va substantsiyaga katta e'tibor beriladi (ayniqsa, harakat, makon va vaqt to'g'risida so'z yuritilganda).

Fan va falsafaning vazifasi – insonning tabiat ustidan hukmronligini kuchaytirishga, inson sog'lig'i va go'zalligiga ko'maklashish, hodisalarning sabablarini, ularning muhim kuchlarini o'rganish zarurligi anglab yetilishiga olib kelgan. Shu sababli substantsiya va uning xossalari muammolari Yangi davrning deyarli barcha faylasuflarini qiziqtirgan. Bu davr falsafasida «substantsiya» tushunchasini tavsiflashga nisbatan ikki xil yondashuv paydo bo'lgan: birinchi yondashuv substantsiyani borliqning chegaraviy asosi sifatida ontologik tushunish bo'lsa, ikkinchi yondashuv – «substantsiya» tushunchasining, ilmiy bilim uchun zarurligini gnoseologik jihatdan anglab yetish bilan bog'liq.

Fransis Bekon (ingliz faylasufi, 1561-1626) birinchi yondashuv asoschisi, substantsiya shakllarining xususiyatlariga tavsif bergan va substantsiyani muayyan narsalar shakli bilan ayniytlash-

tirgan. Uning fikricha, materiya sariqlik, moviylik, qoramtirlik, iliqlik, og'irlik va boshqa shunga o'xshash xossalarga ega. Bular materiyaning eng sodda xususiyatlaridir. Bu xossalarning turli birikmalaridan tabiatning rang-barang narsalari vujudga keladi.

Materiyaning sifat jihatidan har xilligi haqidagi ta'limotni F.Bekon o'zining shakl va harakat haqidagi ta'limoti bilan rivojlantirgan. Uning talqinida shakl – bu narsaga xos bo'lgan xususiyatning moddiy mohiyati. U Platon va Aristotelning shakl haqidagi mushohadalari bilan bahsga kirishadi. Bekon fikriga ko'ra, shakl – jismni tashkil etuvchi moddiy zarralar harakatining turi. Ammo bu zarralar atomlar emas. F.Bekon qadimgi faylasuflarning materiyaning atomistik tuzilishi haqidagi va ayniqsa bo'shliqning mavjudligi haqidagi ta'limotiga tanqidiy yondashadi. U makonni bo'shliq deb hisoblamagan: Bekon uchun makon materiyaning doimiy o'rni bilan bog'liq. Amalda u makonni moddiy ob'ektlarning ko'lamliligi bilan ayniylashtirgan. Vaqtni Bekon moddiy jismlar tezligining ob'ektiv o'lchovi sifatida tavsiflagan. Vaqtning mohiyatini tushunishga nisbatan mazkur yondashuv diqqatga sazovor, zero vaqt materiyaning moddiy jismlarda yuz beruvchi o'zgarishlarning davomligidan iborat bo'lgan va bu o'zgarishlarning sur'atmi tavsiflaydigan ichki xossasi sifatida e'tirof etiladi. Shunday qilib, vaqt harakat bilan uyg'un bog'lanadi.

Bekon fikriga ko'ra, harakat – materiyaning tug'ma xossasi. Materiya qanday abadiy bo'lsa, harakat ham shunday abadiydir. U harakatning tabiatdagi 19 turini qayd etgan: tebranish, qarshilik, inertsiya, intilish, kuchlanish, hayot ruhi, azoblanish va b. Bu shakllar amalda o'sha davrda fanda ayniqsa mukammal o'rganilgan materiya harakati mexanik shakllarining xususiyatlari bo'lgan. Ayni vaqtda F.Bekon moddiy dunyoning ko'p sifatligini o'rganish va tushuntirishga harakat qilgan.

F.Bekon bilishning empirik metodi asoschisi hamdir. U tajribaga asoslangan fanlar, kuzatish va eksperimentga alohida e'tibor bergan. Bilimlar manbai va ularning haqiqiyliги mezonlarini tajribada ko'rgan. Bilishga tashqi dunyoning inson ongidagi in'ikosi sifatida yondashar ekan, u bilishda tajriba hal qiluvchi rol o'ynashini qayd etgan. Ammo faylasuf bilishda aqlning rolini ham inkor etmagan.

Tomas Gobbs (ingliz faylasufi 1588-1679) tomonidan F.Bekonning materialistik qarashlari tizimga solingan va rivojlantiril-

gan. Gobbs materiyaga birdan-bir substantsiya sifatida yondashgan, barcha hodisalar, narsalar, jarayonlarni bu substantsiyaning namoyon bo'lish shakllari deb hisoblagan. Materiya – abadiy, jismlar va hodisalar – o'tkinchi: ular vujudga keladi va yo'q bo'ladi. Fikrlashni materiyadan ajratib bo'lmaydi, zero materiyaning o'ziga fikrlaydi. Jimsiz tana bo'lmaganidek, jimsiz substantsiya ham bo'lishi mumkin emas. Aynan materiya barcha o'zgarishlar sub'ekti hisoblanadi.

Barcha moddiy jismlar ko'lamlilik va shakl bilan tavsiflanadi. Ularni o'lchash mumkin, chunki ular uzunlik, kenglik va balandlikka ega. F.Bekondan farqli o'laroq, Gobbsda materiya sifat ko'rsatkichlariga ega emas, u materiyani miqdor jihatidan o'rganadi. Unda materiya dunyosi rang, hid, ovoz kabi xossalardan mahrum. T.Gobbs talqinida materiya go'yo geometrik tus oladi va sifat jihatidan bir jinsli, rangsiz narsa tarzida, miqdoriy kattaliklarning muayyan tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Harakatni u faqat mexanik nuqtayi nazardan tushunadi. Makon va vaqt muammolarini o'rganishga nisbatan Gobbs materialistik nuqtayi nazardan yondashadi.

T.Gobbs o'zining dunyo haqidagi falsafiy qarashlarida deist sifatida ish ko'radi. Ammo uning asarlarida ateistik xususiyatga ega bo'lgan fikrlarga ham duch kelish mumkin. Masalan, u Xudo – inson tasavvurining mahsuli, degan fikrni ilgari suradi. «Tabiiy va siyosiy qonunlarning elementlari» asarida, «Falsafa asoslari» trilogiyasida («Jism haqida», «Inson haqida», «Fuqaro haqida»), shuningdek «Leviafan» asarida Gobbs tabiiy aloqalar va qonuniyatlar rolini takror ta'kidlaydi. Biroq, T.Gobbs Xudoni odamlar hayotidan butunlay chiqarmaydi: uning fikricha, Xudo «hamma narsani ko'rguvchi va hamma narsani boshqaruvchi», «u barcha sabablarning birinchisi»dir. Gobbs Xudo voqealarning tabiiy oqimiga aralashmasligini qayd etadi. Bekon kabi Gobbs ham gnoseologiyada asosan empirizm va sensualizmni himoya qilgan (hissiy bilishni bilishning asosiy shakli deb hisoblagan). Insonga moddiy jism ta'siri natijasida vujudga kelgan sezgini u bilishning birinchi bosqichi deb hisoblagan. Fikrlashni u tushunchalarni qo'shish yoki ayirish deb hisoblagan va unga matematik metodni to'la tatbiq etgan.

Rene Dekart (frantsuz faylasufi va matematigi 1596-1650) substantsiyaning Bekoncha va Gobbscha monistik talqiniga o'zining dunyoning dualistik talqinini qarshi qo'yadi.



Dekart bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki birinchi asos: nomoddiy yoki «fikirlovchi» substantsiya va moddiy yoki «ko'lamlı substantsiya» mavjudligini taxmin qiladi. Bu ikki substantsiya parallel mavjuddir. Ularni o'rganish bilan metafizika va fizika shug'ullanadi. Metafizika avvalo ma'naviy substantsiyani, u bilan bog'liq bo'lgan bilish va borliq tamoyillarini o'rganadi. Fizika tabiat falsafasini tadqiq etadi. U dunyoning vujudga kelishi, Yerda hayotning rivojlanishi (tabiat qonunlariga muvofiq) haqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi, hayvonlar va inson tanasining tuzilishini mexanika qonunlariga bo'ysinuvchi murakkab mashinalar sifatida o'rganadi (Dekart asarlaridan biri «Hayvon – mashina» deb ataladi).

Dekart ilgari surgan kosmogoniya haqidagi ta'limot zahirida Quyosh tizimining tabiiy rivojlanishi g'oyasi yotadi. Uning fikricha, bu rivojlanish materiya va uning turli jinsli zarralari harakati bilan belgilanadi. Dekart materiya mustaqil ijodiy kuchga ega deb hisoblaydi. Harakatni Dekart mexanik jarayon – jismlarning makonda ko'chishi sifatida tushunadi. Shunday qilib, Dekart o'z-o'zi bilan ziddiyatga kirishadi: u makonni jismning ko'lamliligi sifatida tan oladi, lekin harakatni jismlarning boshqa jismlarga nisbatan ko'chishi sifatida tushunadiki, bu makonni bo'shliq sifatida tan olishni anglatadi.

Dekartning bilish haqidagi ta'limoti ham diqqatga sazovor. Dekart o'zining «Metod haqida mulohazalar» asarida bilimlar manbai va ularning haqiqiyliги mezonini tashqi dunyodan emas, balki inson aqlidan izlash lozim, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, intellektual intuitsiya yoki sof mushohada – bilishning tayanch nuqtasi. Barcha g'oyalarni Dekart ikki guruhga ajratadi: sezgilar ta'sirida tug'ilgan g'oyalar va tug'ma g'oyalar. Tug'ma g'oyalar mutlaqo ishonchlidir. Ularning qatoriga Dekart Xudo g'oyasi, matematik aksiomalar va shu kabilarni kiritadi. Masalan, barcha mavjud narsalarga shubha bilan qarash kashfiyotga yo'l ochuvchi mutlaqo ishonchli asos, metod yoki vosita hisoblanadi. Ayni shu sababli Dekart hissiy narsalar, matematik haqiqatlar va hatto «hamma narsaga qodir Xudo»ning mavjudligiga shubha bilan qaraydi. Ammo hamma narsaga shubha qilgan va hamma narsani inkor etgan holda, u shubhalanuvchi fikrning mavjudligiga shubha qilmaslik kerak, degan xulosaga keladi. Shu tariqa u fikrlash birdan-bir ishonchli dalildir, deb xulosa chiqaradi: «Men fikrlayapman, demak, yashayapman».

Benedikt (Barrux) Spinoza (gollandiyalik faylasuf 1632-1677) Dekartning substantsiya haqidagi dualistik ta'limotiga zid o'laroq, dunyo haqidagi monistik ta'limotni yaratdi. Uning monizmi panteizm ko'rinishida namoyon bo'ladi: o'z ontologiyasida Spinoza Xudo va tabiatni ayniylashtiradi, bunda Xudo yaratuvchi tabiat va yaratilgan tabiat sifatida amal qiladi. Ayni vaqtda Spinoza birgina moddiy substantsiya mavjud bo'lib, uning asosiy atributlari ko'lamlilik va fikrlashdir, degan fikrni ilgari suradi. Shunday qilib, butun tabiat u Xudo bo'lgani uchunгина emas, balki unga fikrlash xos bo'lgani uchun ham jonli hisoblanadi. Spinoza butun tabiatni jonlantirib, shu tariqa gilozoist-faylasuf sifatida ham namoyon bo'ladi.

U moddiy substantsiya atributlari ham materiya kabi abadiy: ular hech qachon vujudga kelmaydi va yo'q bo'lmaydi deb hisoblagan. Faylasuf substantsiyaning konkret holatlari – moduslarga ko'p e'tibor beradi. U moduslarni ikki guruhga ajratadi: abadiy, cheksiz moduslar va muvaqqat, chekli moduslar. Cheksiz moduslar substantsiya atributlari – fikrlash va ko'lamlilik bilan, chekli moduslar esa – qolgan barcha narsalar va hodisalar bilan belgilanadi. Spinoza harakat hech qanday ilohiy turtki mahsuli emasligini isbotlashga harakat qiladi. Uning fikricha, tabiat «o'z-o'zining sababi» bo'lib, harakat uning mohiyati va manbai hisoblanadi. Ammo harakat Spinozada atribut emas, balki modusdir. Bunda harakat muayyan narsalarda kuzatiladi, substantsiya esa harakatlanish va o'zgarish qobiliyatidan mahrum va vaqtga mutlaqo bog'liq emas. Ayni zamonda Spinoza – izchil determinist. U hodisalarning yuz berishi, mavjudligi va yo'q bo'lishi zamirida ob'ektiv sabablar yotadi, deb hisoblagan. Uning fikricha, sababiyat ikki xil: ichki (immanent) va tashqi (mexanik) bo'ladi. Ichki sababiyat substantsiyaga, tashqi sababiyat – moduslarga xos. Spinoza sababiy bog'lanishlarinigina emas, balki tasodif, zaruriyat va erkinlik munosabatlarini ham determinizm nuqtayi nazaridan o'rganadi. O'zining «Etika» asarida u tasodifni zaruriyat bilan bir qatorda mavjud bo'lgan ob'ektiv hodisa sifatida e'tirof etadi.

Spinoza bilishning uch turini farqlaydi: faqat mujmal va haqiqiy bo'lmagan tasavvurlar beruvchi hissiy bilish; moduslar haqida bilim olish uchun imkoniyat yaratuvchi aql yordamida bilish; bilishning eng oliy shakli – haqiqatga yo'l ochuvchi intuitsiya. Intuitiv yo'l bilan aniqlangan haqiqatlar (aksiomalar)dan deduktiv yo'l bilan – matematika metodlari yordamida qolgan barcha xulosalar chiqariladi.

Spinoza ilgari surgan g'oyalar o'sha davrda fanda hukm surgan teleologizm (tabiatda Xudo ato etgan maqsadga muvofiqlik)ga qarshi qaratilgan.

Gotfrid Vilgelm Leybnits (nemis olimi va faylasufi 1646-1716) substantsiya tushunchasiga faol kuch yoki «tashabbuskorlik» tamoyilini kiritgan. O'zining «Monadologiya» asarida u moddiy hodisalarni bo'linmas, sodda ma'naviy birliklar – monadalarning namoyon bo'lishi deb e'lon qilgan. Bo'linmas monada ko'lamlilik xususiyatiga ega emas va makonda joylashmaydi, chunki makon cheksiz darajada bo'linuvchandir. Monada – faol kuchning nomoddiy, ma'naviy markazi. Monadalar umrboqiy va yo'q bo'lmasdir, ular tabiiy yo'l bilan vujudga kelishi yoki halok bo'lishi mumkin emas. Ular tashqi ta'sir ostida ham o'zgarmaydi. Har qanday ayrim monada –jon va tananing birligi. Monada ma'naviy mohiyatining tashqi ifodasi sondir.

Faoliyat, harakat – monadaning xossasi. Leybnits tabiatni mexanika qonunlari bilangina tushuntirish mumkin emas, shu bois, maqsad tushunchasini ham kiritish lozim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, har bir monada o'zining barcha harakatlari asosi va ayni zamonda ularning maqsadidir. Jon – jismning maqsadi, ya'ni u erishishga harakat qiluvchi mo'ljal. Leybnits monadalarni uch toifaga ajratadi: hayot monadalari, jon monadalari va ruh monadalari. Shundan kelib chiqib u barcha murakkab substantsiyalarni uch guruhga ajratadi: hayot monadalaridan noorganik tabiat vujudga keladi; jon monadalaridan hayvonlar yaraladi; ruh monadalaridan odamlar paydo bo'ladi.

Leybnits falsafasida ratsionalizm va empirizmning uyg'unligi namoyon bo'ladi. «Inson aqli haqida yangi tajribalar» asarida u Lokkning ilgari sezgilarda mavjud bo'lmagan narsa aqlda mavjud emas, aqlning o'zi bundan mustasno, degan tezisini tanqid qiladi. Barcha haqiqatlarni u zaruriy haqiqatlar (aql haqiqatlari) va tasodifiy haqiqatlar (fakt haqiqatlari)ga ajratadi. Aql haqiqatlari qatoriga Leybnits substantsiya, borliq, sabab, harakat, ayniyat tushunchalarini, mantiq, matematika va axloqiy tamoyillarni kiritadi. Uning fikricha, bu haqiqatlar manbai faqat aqlidir.

Jon Lokk (ingliz faylasufi 1632-1704) substantsiya tushunchasini tahlil qilishga nisbatan gnoseologik yondashuvga asos solgan. U g'oyalar va tushunchalarning manbai tashqi dunyo, moddiy narsalardir, degan tezisni isbotlashga harakat qilgan. Uning fikricha,

moddiy jismlarga sof miqdor xususiyatlarigina xos. Materiya sifat jihatidan rang-barang emas: moddiy jismlar bir-biridan kattaligi, shakl-shamoyili, harakati va osoyishtaligi bilangina ajralib turadigan «birlamchi sifatlar»dir. «Ikkilamchi sifatlar» esa - hid, ovoz, rang, ta'm. Ular narsalar bilan uzviy bo'lib tuyuladi, lekin amalda bunday emas: narsalarda bunday sifatlar yo'q. Ular, Lokk fikriga ko'ra, sub'ektda «birlamchi sifatlar» ta'sirida vujudga keladi. «Birlamchi» va «ikkilamchi» sifatlarni ajratish hozirgi zamon bilimi nuqtayi nazaridan sodda va noilmiy hisoblanadi. Ammo u sub'ektiv idealizm namoyandalari tomonidan o'zlashtirilgan va o'zining tadrijiy yakuniga yetkazilgan: «birlamchi sifatlar», «ikkilamchi sifatlar» bilan bir qatorda, sub'ektga bog'liq bo'lmagan, ob'ektiv mazmunga ega bo'lmagan sifatlar bor, deb e'lon qilgan. Bilish nazariyasida Lokk inson ongining mazmunini hissiy tajribadan keltirib chiqarishga harakat qilgan. Lokk sensualizmidan noizchilligidan Berkli foydalan-gan va tashqi tajriba omilidan butunlay voz kechgan.

Jorj Berkli (ingliz faylasufi, yepiskop 1685-1753) materializm, ateizm va deizmga ochiq-oydin qarshi chiqqan, har qanday sifatning ob'ektiv asosini rad etgan va amalda ularni inson sezgilariga tenglashtirgan. Berkli fikriga ko'ra, amalda avvalo «jonlar», ularni yaratgan Xudo, shuningdek Xudo odamlar joniga joylashtirgan «g'oyalar» yoki sezgilar mavjud. Berkli tashqi dunyodagi ob'ektivlikni sub'ektivlik bilan bog'laydi: u barcha narsalarni sezgilarning «uyg'unligi»da ko'radi. Berkli uchun idrok etish mumkin bo'lgan narsalargina mavjud, barcha narsalar Xudoning aqlida zohirdir.

Devid Yum (ingliz faylasufi 1711-1776) substantsiyaning materialistik talqiniga qarshi chiqib, ontologiya muammolarini yechishga harakat qilgan. U moddiy va ma'naviy substantsiyaning amalda mavjudligini inkor etgan, lekin substantsiya «g'oyasi» mavjud, deb hisoblagan. Substantsiya «g'oyasi» deganda u ilmiy bilimga emas, balki oddiy bilimga xos bo'lgan inson «idroklari majmui»ni tushungan.

Xullas, yangi davr falsafasi bilish nazariyasi (gnoseologiya)-ning rivojlanishida ulkan qadam tashladi. Falsafa ilmiy metodi, insonning tashqi dunyoni bilish metodologiyasi, tashqi va ichki tajriba aloqalari bosh muammolarga aylandi. Olinayotgan barcha bilimlar tizimining o'zagi hisoblangan haqqoniy bilimni olish vazifasi qo'yildi. Bu vazifani hal qilishning turli yo'llarini tanlash gnoseologiyaning

ikki asosiy yo'nalishi – empirizm va ratsionalizmda o'z ifodacini topdi.

### **XVIII asr Yevropa falsafasining ma'rifiy xususiyati**

Yevropada XVIII asr falsafasi XVII asr g'oyalarini davom ettiradi va rivojlantiradi. Bu davrda falsafiy tafakkur fan va ijtimoiy amaliyot sohasida erishilgan yutuqlarni umumlashtiradi. Falsafiy g'oyalar yanada kengroq targ'ib qilinadi, chunki XVII asrda falsafiy asarlar faqat lotin tilida yozilgan va ular bilan tanishish imkoniyatiga ega kishilar doirasi ancha tor bo'lgan; XVIII asrda faylasuflarning asarlari ular qaysi mamlakatda yashasa, shu mamlakat tilida yozilgan va nashr etilgan.

XVIII asr falsafasida tabiat hodisalarini tushuntirishga nisbatan qarashlarda materializm sezilarli darajada rivojlanadi. Frantsuz materializmi tarixiy ahamiyat kasb etadi: u o'rta asrlar sxolastikasiga qarshi chiqibgina qolmasdan, balki o'z dunyoqarashi va dunyoviy manfaatlarini ham asoslashga harakat qiladi.

Albatta, XVIII asr falsafasi o'ziga xos xususiyatlarga ega: unda materialistik dunyoqarash mo'ljallari ham, idealistik dunyoqarash mo'ljallari ham, ateistik va deistik qarashlar ham mavjud. Aksariyat hollarda idealizm va materializm, din va fan yonma-yon turadi.

Shuni qayd etish lozimki, XVIII asr falsafasi avvalo ma'rifat falsafasi sifatida rivojlangan; qomuslar va lug'atlar, pamfletlar va boshqa nashrlarda ilmiy va falsafiy g'oyalar keng ommaga tushunarli tarzda atroflicha bayon etilgan.

Ma'rifat davri falsafasiga P.Gassendi (1592-1655) asarlari, uning atomistik materializmi, Epikur g'oyalari, etikasi, sxolastikaning tanqidi, Dekart. P.Beyl (1647-1706) asarlaridagi diniy dogmatizmning tanqidi zamin yaratdi.

XVII-XVIII asrlar Yevropa falsafasiga ingliz ma'rifatchilari J.Lokk va D.Yum, XVII asr nemis ma'rifatchisi G.Leybnits, shuningdek buyuk olim Nyuton falsafasi ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. XVIII asr Ma'rifat falsafasida ikki yo'nalish: Volter, Russo, Volf, Monteske va boshqalarning deistik materializmi hamda Mele, Didro, Golbax, Gelvetsiy, Lametri kabi olimlarning asarlarida Nyuton, Galiley, Dekartning materialistik tabiatshunosligi negizida deizm nazariy asoslarining tanqidi farqlanadi.

Fransua Mari (Arue) Volter (1694-1778) frantsuz ma'rifatchi-  
larining atoqli namoyandasi falsafa tarixi bo'yicha otashin publitsist,  
Nyuton fizikasi va mexanikasi hamda Angliyadagi konstitutsiyaviy  
tartib va muassasalarning targ'ibotchisi, cherkov, uezitlar, inkvizi-  
tsiya tajovuzlaridan shaxs erkinligining himoyachisi sifatida o'rin  
oldi. Uning «Kandid», «Orlean qizi» asarlari. «Falsafiy lug'at»,  
«Entsiklopediya»dagi maqolalari butun Yevropada keng tarqaldi.

Jan Jak Russo (1712-1778) Yevropa inqilobiy mafkurasining  
vujudga kelishiga mashhur «Ijtimoiy shartnoma» asari bilan ulkan  
ta'sir ko'rsatdi. Erkinlik hamda huquqlarning so'zsiz tengligiga  
asoslangan fuqarolik jamiyatining nazariy asosi hisoblangan bu asar  
Buyuk frantsuz inqilobi davrida yakobinchilar uchun o'ziga xos  
dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

Sharl Lui Monteske (1689-1755) geografik determinizm  
asoschilaridan biri jamiyatda tartib va axloqni saqlash uchun zarur  
bo'lgan dinning funktsional roli konsepsiyasini rivojlantirdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida ma'rifatchilik harakati keng  
demokratik qamrov kasb ketdi. Frantsiyada bosh muharriri va  
tashkilotchisi D.Didro bo'lgan «Entsiklopediya» nashri atrofida  
jipslashgan ilg'or mutafakkirlar, olimlar va yozuvchilardan iborat  
«faylasuflar partiyasi» paydo bo'lgani to'g'risida so'z yuritila  
boshladi. Bu «faylasuflar partiyasi»da Didro bilan bir qatorda  
Gelvetsiy va Golbax, shuningdek Lametri yetakchi rol o'ynadi. Ular  
materializmning faylasuflar va falsafiy maktablarning keyingi avlod-  
lariga kuchli ta'sir ko'rsatgan ancha rivojlangan shaklini yaratdilar.

Jyulen Ofre de Lametri (1709-1751) o'z davrida katta shov-  
shuvga sabab bo'lgan «Inson – mashina» asarining muallifi. Moddiy  
dunyo «o'z holicha mavjud» ekanligiga, uning boshi ham, oxiri ham  
yo'qligiga ishonchi komil bo'lgan. Lametri materializmi Epikurning  
atomistik materializmi, Spinozaning materialistik ta'limoti va Loka  
sensualizmi ta'sirida vujudga kelgan. Lametri jonni aql faoliyati  
funktsiyasi va ko'rinishi deb hisoblagan hamda Dekartning umrboqiy  
nomoddiy jon haqidagi g'oyasi asossiz ekanligini isbotlashga harakat  
qilgan.

Pol Genrix Ditrax Golbax (1723-1789)ning «Tabiat tizimi»  
asari «XVIII asr materializmi va ateizmi kodeksi» degan nom olgan.  
1770-yilda nashr etilgan bu asarda muhim ontologik muammolar,  
chunonchi: materiya, tabiat, harakat, makon, vaqt, sababiyat, tasodif,

zaruriyat muammolari bayon etilgan. Golbax uchun tabiat barcha narsalar va hodisalar sababidir, zero u Xudo tufayli emas, o'zi tufayli mavjud. Tabiat – harakat sababidir. Golbax harakatni tabiat mavjudligining zaruriy natijasi sifatida tavsiflaydi. Tabiat deganda u o'z energiyasi ta'sirida harakat qiluvchi moddalar yig'indisini tushunadi. Golbax fikriga ko'ra, barcha jismlar bo'linmas va o'zgarmas elementlar – atomlardan tashkil topadi. Materiya tushunchasini u modda tushunchasi bilan ayniylashtiradi.

Ayni vaqtda Golbax tabiatda barcha aloqalar va harakatlar zaruriyat bilan belgilanadi, deb hisoblagan. Uning fikricha, olam bir-biridan uzluksiz kelib chiqadigan sabablar va oqibatlarning uzilmas zanjiridir. Shu sababli Golbax tasodifni tabiatdan ham, ijtimoiy hayotdan ham chiqaradi. U insonni ham zaruriyat quli deb hisoblaydi: u o'z hayotida bir daqiqa ham erkin emas, uning xatti-harakatlari amalda qanday namoyon bo'lsa, shunday bo'lishi mumkin. Bu oldindan belgilanganlik Golbax determinizmining fatalistik xususiyatini belgilaydi.

Deni Didro (1713-1784) o'zining «Materiya va harakatning falsafiy tamoyillari», «Tabiatni tushuntirish haqida mulohazalar», «Dalamberning tushi» asarlarida sub'ektiv idealizmga qarshi chiqadi va muhim ontologik muammolarning o'ziga xos talqinini taklif qiladi. Uning fikricha, mavjud bo'lgan hamma narsalar moddiydir. Didro, dunyo uzluksiz paydo bo'ladi va o'ladi, har bir lahzada tug'ilish va o'lish holatida bo'ladi: o'zga dunyo hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi. Ko'rib turganimizdek, Didro borliq muammolarini o'rganish sohasiga dialektikani tatbiq etadi. Uning fikricha, butun materiya his qiladi (bu gilozoizm nuqtayi nazari) va «inert hissiylik» va «faol hissiylik»ni farqlaydi. «Faol hissiylik» muayyan tarzda uyushgan materiyadagina namoyon bo'ladi.

Frantsuz materializmi tabiatshunoslikda hukm surgan tabiat «saltanati» - o'simliklar, hayvonot dunyosi bilan inson o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga harakat qildi.

Didro, Golbax, Lametri, Gelvetsiy va Kondilyak falsafasida gnoseologiya muammolari ontologik muammolar bilan bir qatorda turadi. Insonning ichki va tashqi dunyosi bilimlar manbai deb e'lon qilinadi. Bu dunyolarni anglab yetish mumkin. Inson bilimlarining nomukammalligi avvalo ular rivojlanishining mazkur bosqichi bilan belgilanadi. Frantsuz materialistlari hissiy va aqliy omillarning

bilishdagi rolini shunda ko'radilarki, sezgilar guvohlik ko'rsatkichini bersa, aql bu ko'rsatkichlarning to'g'riligini tekshiruvchi hakam vazifasini bajaradi. Aql hissiy ko'rsatkichlardan uzoqlashishi mumkin emas, lekin u mazkur ko'rsatkichlarga haddan tashqari ishonishi ham yaramaydi. Aqlning sezgidan ajralishi bilishni amalga oshirib bo'lmaydigan ishga aylantiradi. Kuzatish va eksperiment bilish metodlaridir. Ular mushohada qilish, mulohaza yuritish, tushunish va idrok etish, shuningdek aql uchun juda zarur.

Eten Bonno de Kondilyak (1714-1780) ishlab chiqqan bilish nazariyasi falsafa tarixida ayniqsa muhim rol o'ynadi. U o'zining «Inson bilimlarining kelib chiqishi haqida tajriba», «Sezgilar haqida risola», «Tizimlar haqida risola», «Hayvonlar haqida risola» deb nomlangan asarlarida Lokkni sensualizm va empirizm tamoyilini amalga tatbiq etishda noizchilikda ayblab, bilishning sensualistik nazariyasini asoslashga harakat qiladi. Kondilyak fikriga ko'ra, inson dunyoga kelganda, u nafaqat hech narsani bilmaydi, balki sezish qobiliyatiga ham ega bo'lmaydi. Bularning barchasini u tajriba orqali o'zlashtiradi. Kondilyak sezgi azaldan biron-bir mazmunga ega emas, lekin u lazzatlanish va azob-uqubatni aks ettirishga qodir. shu bois, u yoqimli va ko'ngilsiz bo'ladi va xotirada saqlanib qoladi, deb hisoblaydi.

Hissiyotdan mavxum fikrlashga o'tish. Kondilyak fikriga ko'ra, uzluksiz jarayon sifatida yuz beradi: mayl, xotira izidan taqqoslash va mulohaza yuritish keladi. Kondilyak g'oyalarga borliqqa bog'liq bo'lmagan holda mavjudlik xossasini yuklashga bo'lgan har qanday urinishlarga qarshi chiqadi. Borliqni u g'oyalardan qat'iy nazar mavjud bo'lgan hodisalar sifatida tasavvur qiladi.

### **Nemis klassik falsafasi**

Nemis klassik falsafasining yirik vakillari Immanuel Kant, I.Fixte, F.Shelling, Georg Gegel va Lyudvig Feyerbaxdir. Falsafiy tafakkur rivojlanishining bu bosqichi davrning muayyan tarixiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Bu kuchli ijtimoiy ziddiyatlar, jamiyat ongida olamshumul o'zgarishlar yuz bergan davr edi. Kuchli inqilobiy harakatlardan so'ng ularning sur'ati pasayib imkoniyatlariga ishonchsizlik kuchaygan. Ijtimoiy ongda konservativ tendentsiyalar ustunlik qila boshladi. Angliya va Frantsiyada monarxiya va Cherkovning oldingi mavqei tiklandi. Germaniyada pruss



monarxiyasining roli oshdi. Tarixdagi bu ziddiyatli voqealar nemis falsafasining asosiy xususiyatlarini belgilab berdi.

Nemis falsafasi Bekon va Dekart boshlagan inson aqli imkoniyatlarini o'rganishning umumiy yo'nalishini davom ettirdi. Biroq u o'z vazifasini nafaqat inson aqlini madh etish, balki uning chegaralarini belgilash, e'tiqod va aql, din va fanni murosaga keltirish yo'llarini ham izlashda ko'rdi. Bu nemis falsafasi bajarishi lozim bo'lgan ijtimoiy buyurtma edi.

Davrning olamshumul voqealari ijtimoiy taraqqiyot nafaqat aql va fan yutuqlari, balki axloq, ma'naviyat sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar bilan ham o'lchanishini namoyish etdi. Inqilob va u bilan bog'liq urushlar davrida yuz bergan ma'naviy inqiroz nemis falsafasida nafaqat bilish imkoniyatlariga, balki inson ma'naviy dunyosining barcha tomonlari, uning bilish, diniy, axloqiy va estetik qobiliyatlarining o'zaro aloqasi muammosiga ham e'tiborni qaratishni talab qildi. Umuman olganda, nemis faylasuflari haqiqat, e'tiqod, yaxshilik va go'zallik ajralmasdir, degan fikrni teran asoslashga harakat qildilar.

Immanuel Kant (1724-1804) nemis klassik falsafasining asoschisi. Kant konsepsiyasi: «Sof aql tanqidi» (1781), «Amaliy aql tanqidi» (1788), «Mulohaza yuritish qobiliyatining tanqidi» (1790) asarlarida, shuningdek – «Sof aql chegaralarida din» (1793) kabi kitoblarida bayon etilgan. Kant bilish nazariyasining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat. Kant fikricha, bilish jarayoni uch bosqich: 1) sezgilar darajasida bilish, 2) idrok, 3) aqldan o'tadi. Bilishning birinchi bosqichi -sezgilar darajasida inson narsaning mavjudligini biladi, idrok yordamida uni fikrlaydi. Narsani haqiqiy bilish aynan shu ikki bosqichni sintez qilishni talab etadi. Idrok darajasidagi bilishning quroli – kategoriyalar. Ular idrokka ichdan xos. Hodisalar rang-barangligi kategoriyalar tizimida aks etadi. Kategoriyalar yordamida inson bilimi tasodifiy empirik emas, balki umumiy zarur, ya'ni ilmiy xususiyat kasb etadi. Ilmiy bilim kategorial bilimdir. Biroq shundan so'ng Kant sub'ektiv idealist sifatida mulohaza yuritadi: idrok tabiat qonunlarini ochmaydi, balki ularni tabiat uchun belgilaydi. Kant fikriga ko'ra, kategoriyalar birligi va ularni bilish (sintez qilish) qobiliyati zamirida dunyoning ob'ektiv moddiy birligi emas, balki o'zlikni anglashning transtsendental birligi yotadi.

Idrok etish – bilishning ikkinchi bosqichi. Idrokning kuchi uning sintez qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Biroq bu to'liq, cheksiz qobiliyat emas. Idrok tajriba chegarasidan tashqariga chiqa olmaydi. Biroq idrok o'z chegaralarini o'zi bilmaydi. U doim bu chegaralardan chetga chiqadi, ya'ni hodisalar dunyosidan o'zidagi narsalar dunyosiga kirishga harakat qiladi. Biroq tajriba chegaralarini tark etgach (shu tariqa idrok emas, balki aqlga aylangach), u yechib bo'lmaz ziddiyatlar sohasiga tushib qoladi. uning mulohazalari esa muqarrar tarzda xom xayolga aylanadi.

Aql – bilish jarayonining uchinchi, oliy bosqichi. U hissiyot bilan bevosita emas, balki bilvosita – idrok orqali bog'lanadi. Aql bilishning oliy bosqichi bo'lsa-da, idrokka ko'p jihatdan yutqizadi. U tajribaning mustahkam zaminidan ajralgach, dunyoqarash darajasidagi savollarning birortasiga ham uzil-kesil – ha yoki yo'q deb javob bera olmaydi. Dunyo vaqtda va makonda boshlanadimi yoki u cheksiz va boqiy? Inson joni boqiy yoki foniy? Iroda erkinligi mavjudmi yoki dunyoda hech qanday erkinlik mavjud emas, hamma narsa tabiiy zarurat qonuniga ko'ra yuz beradimi? Xudo bormi yoki yo'qmi? kabi savollarni idrok bera olmaydi. Aql esa bunday savollarni beradi, biroq ularga javob topa olmaydi. Uning da'volari imkoniyat darajasida emas. Sof nazariy aql o'z mag'lubiyatini tan olishi lozim, chunki u o'zidagi narsalarni bila olmaydi. Ammo nima uchun u shunga qaramay bilishning oliy bosqichi deb e'tirof etiladi? Shuning uchunki, aqlning sof g'oyalari (Kant ularni tamoyillar deb nomlagan) bilishda oliy tartibga solish vazifasini bajaradi. Ular idrokka yo'l ko'rsatadi. Aql g'oyalarni ufq chizig'iga o'xshatish mumkin: garchi bu chiziqqa yetib bo'lmasa-da, u insonga makonda mo'ljal olish, ko'zlangan maqsad sari to'g'ri harakatlanish imkonini beradi. Shunga qaramay, Kant bilish nazariyasi metafizik xarakterda: u aqlning ziddiyatliligi (ya'ni cheksizlikning ziddiyatliligi)ni uning o'zligi, narsalar mohiyatini anglashga qodir emaslik belgisi deb xisoblaydi. Holbuki, bu amalda, Gegel keyinroq ko'rsatganidek, aqlning qudratli kuchidan dalolat beradi.

Sof aql tanqidida Kant falsafa o'zidagi narsalar, ya'ni dunyoning oliy qadriyatlar haqidagi emas, balki faqat bilish chegaralari haqidagi fan bo'lishi mumkin, degan xulosaga keladi. Oliy mohiyatlar va oliy qadriyatlar – bu Xudo, ruh va erkinlik bo'lib, ularni biz biron-bir tajribada ko'ra olmaymiz, ular haqida oqilona fan bo'lishi mumkin

emas. Biroq ularning borligini isbotlashga qodir bo'lmagan nazariy aql, buning aksini isbotlashga ham qodir emas, ya'ni u Xudoning borligiga, ruhning o'lmasligiga va iroda erkinligiga ishonishni taqiqlamaydi. Insonga e'tiqod va ishonmaslik o'rtasida yo'l tanlash imkoniyati berilgan. U e'tiqodni tanlashi lozim, chunki vijdon ovozi, axloq ovozi undan shuni talab qiladi. Ammo bu endi nazariy aqldan amaliy aqlga, gnoseologiyadan axloqqa o'tishdir. Kant falsafada o'ziga xos to'ntarish yasadi va falsafani alohida fan sifatida tushunish asoslarini yaratdi. Yangi bilish nazariyasini asoslashga harakat qilib, u XVII-XVIII asrlarning bilishni borliqdan ko'chirilgan andoza sifatida talqin qiluvchi empirik nazariyalarini tanqid qildi. Kant muammoni boshqa zaminga ko'chirdi va falsafada gnoseologiyaning bilish jarayoniga sub'ekt – ob'ekt munosabati sifatida qaraydigan yo'nalishiga asos soldi.

Biluvchi sub'ekt – bu muayyan individ emas, balki insonning bilish qobiliyatlari va bilim manbalarinigina o'zida mujassamlashtiruvchi qandaydir mavxum tasavvur. Inson ongida mavjud bo'lgan mazkur qobiliyatlar majmui unga o'zini qurshagan dunyoni sezgilar va aqlning aprior shakllari yordamida tartibga solishga yordam beradi. Bu inson individual, shaxsiy xususiyatlarga ega emas, degan ma'noni anglatmaydi, biroq ular bilish jarayonida yetakchi rol o'ynamasligi kerak.

Sub'ekt qandaydir narsa, predmet yoki hodisaning ta'sirini sezgilar darajasida idrok etadi. Bu mushohada yuritishning aprior shakllari yordamida tartibga solinuvchi tuyg'ular rang-barangligini yuzaga keltiradi. Biroq bu bosqichda bilim sub'ektiv bo'lib qoladi. Shundan so'ng idrok ishga kirishadi va mavjud bilimlarni tushunchalar shakliga soladi, ya'ni ularda qandaydir umumiy jihatlarni aniqlaydi. Shu sababli pirovard natijada idrok va aqlni birlashtirgan biluvchi sub'ektgina bilim deb hisoblash mumkin bo'lgan birlikni yaratadi. Binobarin, bilimning turli shakllariga muayyan tavsif berish mumkin. Masalan, matematika hissiylikning makon va vaqt kabi aprior (ya'ni tajribada ko'rilmagan) shakllariga tayanadi. Boshqacha aytganda, biluvchi sub'ekt dunyoga makon va vaqtda mavjudlik nuqtayi nazardan qaraydi. Ayni holda makon – tashqi sezgining aprior shakli, vaqt esa – ichki sezgining aprior shakli. Bunday apriorlik matematik haqiqatlarning, demak, fan sifatidagi matematikaning ham mavjudlik imkoniyatini belgilaydi.

Fizika (va boshqa tabiiy fanlar) ham o'z apriorligi jihatidan «sof» bo'lgan va tajribada «ifloslanmagan» bir qancha mushohadalar-ga tayanadi. Tabiatshunoslik aprior mushohadalar va idrok kategori-yalarining sintezi sifatida amalga oshiriladi.

Inson bilimlari, fan va madaniyat dunyosi bizning tajribamiz, tuyg'ularimiz va aqlimiz ma'lumotlariga asoslanadi. Bekon va Dekart fan va madaniyatning yanada rivojlanish yo'llarini tuyg'u-larimiz va mulohaza yuritish qobiliyatimizning takomillashuvi bilan bog'lagani-da, to'la haq edi. Biroq ular bizning tajribaga asoslangan bilimimiz har qancha rivojlanmasin va takomillashmasin, u hech qachon bizga faqat sezgilar, aql va tajribaga asoslanib dunyoni oxiri-gacha tushunish imkonini bermasligini hisobga olmagan. Bu bilim bizga tabiatan berilgan. U bizning tajribamizdan kelib chiqmaydigan makon, vaqt, sababiyat, cheksizlik. Xudo kabi kategoriyalarda mujas-samlashgan. Bu insonga oldindan berilgan tajribada olingan material-ga ishlov berish asboblardir. Insonning tajribada olingan bilimi doira-sidan chetga chiquvchi bu transtsendent (lotincha o'tish, bosib o'tish so'zidan) kategoriyalar bilish chegarasi, imkoniyatlarini biz sezgilar yoki aql yordamida biron-bir narsani bila boshlashimizdan oldinroq belgilab qo'yadi. Shunday qilib, bizning bilimlarimiz dunyosi ikki qismdan: tajribada olingan va tajribadan oldingi bilimdan iboratdir.

Kant ijodining ahamiyati shundaki, u bilimlarimizning ikki tomonlamaligini, ya'ni ular nafaqat tajribada olingan, aposterior manbalarga, balki aprior, transtsendent manbalarga ham tayanishini aniqladi.

Kant gnoseologiyasining ontologik xususiyat kasb etuvchi yana bir muhim tamoyili uning transtsendent bilish nazariyasidan kelib chiqadi va dunyoning, uni tashkil etuvchi barcha narsalarning umumiy tuzilishini tushuntiradi. Kant fikriga ko'ra, inson ongi kabi, dunyodagi barcha narsalar ham ikki tomonlamadir. Birinchidan, bu qarshimizda narsaning eng yorqin tomoni sifatida namoyon bo'luvchi, sezgilarimiz uni shunday idrok etuvchi fenomen «biz uchun narsa» yoki hodisa sifatidagi narsa. ikkinchidan, bu biz sezgilarimiz bilan idrok etishga qodir bo'lmagan «o'zidagi» narsa, narsaning bizga «qorong'i», yashirin, teran tomoni yoki "noumen" sifatidagi narsa. Ayni shu sababli bizning dunyo, narsalar va inson haqidagi bilimimiz hech qachon to'liq, mutlaq bo'lmaydi. balki doim nisbiy, noto'liq bo'lib qoladi. Dunyo va inson nima, degan savollar doim boqiy,

falsafiy masalalar bo'lib qoladi. Kant bilish nazariyasining asosiy tamoyillari ana shulardan iborat.

Shunday qilib, Kant o'z bilish nazariyasida bilim, fan va madaniyatning rolini yanada yuksakroq darajaga ko'tardi. Uning bilish nazariyasidan ong nafaqat dunyoni passiv aks ettiradi, balki insonga tabiatan berilgan sezish va idrok etishning aprior shakllari yordamida uni faol o'zgartiradi, yaratadi, bunyod etadi degan xulosa kelib chiqadi. Kant bilish faoliyatining xususiyatini dunyoni aniq aks ettiruvchi ko'zguga emas, balki chizgan rasmlari nafaqat dunyoning o'zini, balki ijodkorming tabiatini ham aks ettiruvchi rassomga o'xshatish lozim. Ayni vaqtda, Kant bilishning muayyan chegaralari ham mavjudligini qayd etadi. «Men yaratgan bilish nazariyasi inson aqlini uning imkoniyatlari chegarasi haqida ogohlantiruvchi chegara posboni yoki aqlning dimog'dorligi deb ataluvchi xavfli kasallikka qarshi dori bo'lib xizmat qilishi lozim», deb yozadi. Kant ta'limotidan inson bilimlari majmui bilishning insonga berilgan aprior shakllari yordamida narsalarning biron-bir qismi, tomoni, jihatinigina o'ziga xos tarzda aks ettiradi, bu narsalar ko'z o'ngimizda doimo namoyon bo'ladi, biroq o'zining asl mohiyatini hech qachon ko'rsatmaydi, «o'zidagi narsa» bo'lib qoladi, degan xulosa kelib chiqadi. Kant ta'limoti bilishning ijodiy tabiatini yoritib, inson bilimining taraqqiyotini, olimlar, yozuvchilar ijodini rag'batlantirdi, biroq shu bilan bir vaqtda u inson bilimlarining nisbiyligi, u yoki bu g'oyalar yoki nazariyalarni mutlaqlashtirish, shuningdek ularning yaratuvchilarini ilohiylashtirish xavfli ekanligi haqida ogohlantirdi.

Shelling Fridrix Vilgelm Yozef nemis faylasufi (1775-1854) bosh asari: «Transtsendent idealizm tizimi»ning falsafiy va metodologik ahamiyati shundaki, bu asarda tarixiylik tamoyillari ilk bor izchil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Transtsendent idealizm tizimi quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi.

1. Nazariy falsafa o'zlikni anglash uchun qarama-qarshi yo'nalishlar (ob'ekt, sub'ekt, ideal va real faoliyat) o'rtasida kurash lozim, degan metodologik qoidadan boshlanadi. Shelling o'zlikni anglash faqat shu kurash jarayonida yuz berishini va «Men» mexanizmi to'laligicha faqat o'zlikni anglashni tashkil etuvchi qarama-qarshiliklardan keltirib chiqarilishi mumkinligini qayd etadi. Bunda u ikki holatni: «Men» endigina yuzaga kelgan va «Men» aniq-ravshan ko'rinib turuvchi holatlarni farqlaydi. Bunda birinchi holat

«Men»dan tashqarida, ikkinchi holat – «Men»ning ichida bo'ladi. Shu munosabat bilan ong qaysi holatdan boshlanishini aniqlash va unga mazkur chegaradan, ya'ni ongdan tashqarida yotgan narsalarni aralashtirmaslik juda muhimdir.

Shelling o'z asarida tarixiylik tamoyilidan foydalanib, o'zlikni anglash tarixida uch asosiy davrni (bosqichni): dastlabki sezishdan samarali mushohada yuritishgacha; samarali mushohada yuritishdan refleksiya gacha; refleksiya dan irodaning mutlaq harakati gacha bo'lgan davrlarni farqlaydi. Bunda Shelling ong, o'zlikni anglash va jamiyatning shakllanish jarayonini odamlarning amaliy faoliyati bilan bog'lashga harakat qildi.

2. Amaliy falsafaning bosh tushunchasi – «tarix», bog'lovchi muhit sifatidagi ob'ektiv dunyoda yuz beruvchi va aqli jonzotlar sifatidagi odamlar erkinligining sharti hisoblanuvchi kishilararo o'zaro aloqasidir. Boshqacha aytganda, bu jahon tarixidagi ob'ektiv qonuniyat haqidagi muhim masalaning qo'yilishidir.

3. Tabiiy maqsadlar falsafasi ko'r-ko'rona kuchlar mahsuli bo'lgan tabiat amalda maqsadga muvofiqlik ruhi bilan sug'orilgandir degan antinomiyaga asoslanadi. Bu antinomiyaning yechimini u sub'ekt va ob'ektning dastlabki ayniyligini e'tirof etish yo'lida ko'radi: umuman tabiatda va uning ayrim mahsullarida maqsadga muvofiqlikka faqat mushohada yuritish yo'li bilan erishish mumkin. Bu mushohadada tushuncha haqidagi tushuncha va ob'ektning o'zi dastlabki tarzda va uzviy bog'lanadi – shunda natija maqsadga muvofiq tarzda namoyon bo'lishi lozim.

4. San'at falsafasi – transsendental idealizm tizimining oxirgi bo'limi. Uning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

a) san'at – umuman bilishning oliy shakli, chunki faqat u insonga oliy bilimga erishish imkonini beradi. San'at amaliy foydaga ham, axloqqa ham, fanga (falsafaga) ham bo'ysunishi mumkin emas, chunki u hamma narsadan oliyroqdir;

b) san'atning ustunligi shundaki, uning asarlarida ongli va ongsiz faoliyat ayniyati aks etadi. «Bizda mujassamlashgan bu teran ziddiyat»ni aynan va faqat san'at yechishga qodir. San'at – bu nazariy va amaliy narsalar o'rtasidagi qarama-qarshilik bartaraf etilib, ongli va ongsiz tabiat va erkinlikning to'la uyg'unligiga, idealga erishiluvchi jabha:

v) san'at o'z rivojlanish jarayonida spiral tashkil etadi: qadimda undan (aniqrog'i poeziyadan) falsafa va boshqa fanlar tug'ilgan;

g) san'at – erkinlik va zaruriyatning yuksak birligi. Insonning ijodiy tabiati to'la davra aylanib san'atda o'zining yakuniy ifodasini topadi. San'at insonga "oliy"ni bilish darajasiga yetish imkonini beradi. Shelling naturfalsafasi XVIII asr oxiriga kelib erishilgan va jamoatchilikda keng qiziqish uyg'otgan yangi tabiiy-ilmiy natijalarni falsafiy jihatdan umumlashtirishga bo'lgan ehtiyojga javob sifatida vujudga keldi.

Shelling o'z davrining barcha kashfiyotlariga yagona asosni topishga harakat qildi: u tabiatning ideal mohiyati, tabiat faolligining nomoddiy xususiyati haqidagi g'oyani ilgari surdi. Shelling naturfalsafasining qimmatini uning dialektikasida namoyon bo'ladi. Tabiatshunoslik kashf etgan aloqalar haqida mulohaza yuritar ekan, Shelling bu aloqalarni belgilovchi kuchlarning birligi va tabiatning yagonaligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Bundan tashqari, u har qanday narsaning mohiyati qarama-qarshi faol kuchlarning birligi bilan tavsiflanadi, degan xulosaga keladi. Bu birlikni u «qutblilik» deb nomladi. Qarama-qarshiliklarning birligiga misol qilib Shelling magnitni, musbat va manfiy elektr zaryadlarini, kimyoviy moddalarda kislotani va ishqorlarni, organik jarayonlarda ta'sirlanish va tormozlanishni, ongda sub'ektivlik va ob'ektivlikni asoslaydi. «Qutblilik»ka Shelling narsalar faolligining bosh manbai sifatida qaraydi, uni tabiatning «haqiqiy dunyoviy joni» deb tavsiflaydi. Shelling o'z asarlarida ideal va moddiy narsalarning ayniyligi g'oyasini ilgari suradi. Uning fikricha, materiya mutlaq ruh, aqlning erkin holatidir. Ruh va materiyani bir-biriga qarshi qo'yish mumkin emas; ular ayniydir, chunki ayni bir mutlaq aqlning turli holatlarini aks ettiradi. Falsafiy kategoriyalarni tadqiq etish va rivojlantirish ishiga F.Shelling salmoqli hissa qo'shdi. Shu ma'noda F.Shellingning naturfalsafasi (tabiat falsafasi) ayniqsa diqqatga sazovordir. Tabiatni tushunishda Shelling panteistdir, u Xudo va tabiatni tenglashtiradi. Tabiatning rivojlanishini Shelling ongning shakllanish jarayoni, ongsizlikdan onglilik sari harakat sifatida tavsiflaydi. Ongning shakllanish mexanizmini Shelling tabiatda qutblilik (qarama-qarshiliklar birligi) va tadrijiylikning mavjudligi bilan izohlaydi. Tadrijiylik, ya'ni tabiat evolyutsiyasi bosqichlarini Shelling qutblilikda keskinlikning

pasayishi mahsuli sifatida tushuntiradi. U jonli organizmlar noorganik shakllardan vujudga keladi, hayot esa modda sintezi va parchalanishining birligidir, deb hisoblagan.

Shelling o'z naturfalsafasining ta'riflangan muhim tamoyillari – tabiatning dialektik birligi, rivojlanishi va umumiy ikki taraflamaligini insonning tabiatni tushunishiga nisbatan tatbiq etadi. Shelling bilishning rivojlanishini bilishning nazariy bosqichlaridan amaliy bosqichlar sari harakat sifatida tahlil qiladi. Ongning shakllanish asosini Shelling insonning dunyoga nisbatan harakatlari bilan bog'laydi. O'zlikni anglash tadrijiylik, ya'ni mushohada yuritishning quyi shakllari - sezish, idrok etishdan tasavvur qilish va refleksiya o'tish sifatida shakllanadi. Nima uchun aynan faoliyat, ong va bilishning rivojlanish manbai hisoblanadi? – degan savolga nisbatan Shelling quyidagicha mulohaza yuritadi: amaliy faoliyatda inson o'zining ma'naviy qobiliyatlarini moddiylashtiradi (ob'ektga aylantiradi), ular inson o'zgartirgan tabiat predmetlarida yashashda davom etadi. Shunday qilib, inson faoliyati natijasida tabiat sof tabiatga va inson tomonidan o'zgartirilgan tabiatga ajraladi. Insonning muhim xususiyatlari moddiylashgan ayni shu o'zgartirilgan tabiat inson ongi va o'zligi rivojlanishiga ko'maklashadi. Ammo individlarning o'zaro aloqasi, ularning muloqoti insonga bundan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, Shelling Gegel dialektikasining aksariyat g'oyalari undan oldinroq ilgari suradi va ko'p jihatdan undan o'zib ketadi, chunki Gegel tabiatda rivojlanishning mavjudligini rad etadi. Shelling esa, aksincha, nafaqat inson ruhi, balki tabiat rivojlanishining umumiy tamoyillarini ham ta'riflab berdi, tabiatning tadrijiy rivojlanish jarayoni ong shakllanishi bilan nihoyasiga yetishini qayd etdi. Shelling g'oyalari Gegel falsafasida o'zining mukammal ifodasini topdi. Shelling naturfalsafasining paydo bo'lishi Fixte sub'ektiv idealizmi ildiziga bolta urdi va nemis klassik idealizmida ob'ektiv idealizm va uning dialektikasi sari burilish yasadi.

Gegel Georg Vilgelm Fridrix (1770-1831) falsafiy tizimi nemis klassik idealizmining tadrijiy yakuni hisoblanadi. Buyuk faylasufning barcha mashhur asarlari: «Ruh fenomenologiyasi» (1807), «Mantiq fani» (1812-1816), «Falsafa fanlari qomusi» (1817) ayni shu tizimni ishlab chiqishga bag'ishlangan. «Ruh fenomenologiyasi» asari



Gegel falsafiy tizimiga o'ziga xos debochadir. Bu asarda Gegel inson ongi turli darajalari rivojlanishi-ning izchil qatorini tahlil qiladi.

Gegel falsafiy tizimining birinchi va muhim qismi – «Mantiq» «Ruh fenomenologiyasi»ning yakuni va xulosasidir. Bu sub'ekt va ob'ektga qadar mavjud bo'lgan «sof fikr» sohasidir. Mantiqda uning o'zi va mantiq shakllaridan tashqari hech qanday empirik mazmun mavjud emas. Mantiq tarix va tabiatdan oldin paydo bo'lgan. Mantiq ularni yaratgan.

Mantiq uch qismga: borliq haqidagi, mohiyat haqidagi va tushuncha haqidagi ta'limotga bo'linadi. Borliq va mohiyat tushuncha o'zini to'liq namoyon etgunga qadar «ko'tariladigan» pillapoyalar sifatida qaraladi. «Mantiq»da mutlaq g'oyaning rivojlanishi mavxum mantiqiy kategoriyalar ko'rinishida yuz beradi. Uning tayanch nuqtasi – borliq haqidagi sof mavhum fikr. Dastlab mazmunsiz bo'lgan bu «sof borliq» tushunchasi «nimadir» orqali o'z mazmunini kasb etishga harakat qiladi. Bu «nimadir», o'z navbatida, «muayyan borliq»dir. Gegel fikriga ko'ra, mutlaq g'oyaning vujudga kelish jarayoni ayni shu tariqa boshlanadi. «Muayyan borliq» keyingi bosqichda «qandaydir muayyan borliq» sifatida amal qiladi yoki sifat kasb etadi. Sifat kategoriyasi miqdor kategoriyasi bilan birga rivojlanadi. Sifatli miqdor yoki miqdoriy sifat esa o'lchov hisoblanadi. Borliq haqidagi ta'limotda Gegel dialektika qonunlaridan biri: miqdordan sifatga va sifatdan miqdorga o'tish. rivojlanish jarayonlari sakrash tarzida yuz berishini asoslashga harakat qiladi.

Hodisa sifatida tushuniladigan borliqdan Gegel yanada teranroq, ichki qonuniyatlarga – mohiyatga o'tadi. Bu qismda Gegel qarama-qarshiliklarning bir-biriga o'tishi, ularning birligi, ayniyat va kurash to'g'risidagi qonunni tahlil qiladi. Gegel fikriga ko'ra, ziddiyat – bu qarama-qarshiliklarning o'zaro nisbatidir. Ular bir-birisiz mavjud bo'lmaydi, lekin turli yo'ldan rivojlanadi va bu ular o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo'ladi. Ziddiyatni yechish yoki unga chek qo'yish talab etiladi. Gegel ziddiyatni asos va oqibatning, shakl va mazmunning, hodisa va mohiyatning, imkoniyat va voqelikning, tasodif va zaruriyatning o'zaro nisbatida ko'radi. Ziddiyat haqidagi ta'limotni rivojlantirar ekan, Gegel ichdan zarur bo'lgan, har qanday o'zgarish va rivojlanishning manbai sanalgan «o'z-o'zidan harakat» haqida xulosa chiqaradi. Gegel fikriga ko'ra, ayniyat va tafovutning nisbatini bilish jarayonida ularning zamirida

yotgan ziddiyat namoyon bo'ladi. Ziddiyatlar mavjudligi hodisaning rivojlanayotganidan dalolat beradi. Mohiyat haqidagi ta'limotda Hegel voqelikni «mohiyat va mavjudlikning birligi» sifatida tavsiflaydi. Mohiyatning o'zi – «mavjudlik asosi»dir. Mohiyat haqidagi ta'limotning dastlabki boblaridan boshlab Hegel uni bilish mumkin emas degan tasavvurni rad etadi.

Borliq va mohiyat sohasidagi rivojlanish jarayonlarini belgilovchi zaruriyat tushunchada o'z aksini topadi. Bunday zaruriyat erkinlikka aylanadi, «erkinlik esa – bu anglab yetilgan zaruriyat»dir. Shu tariqa «Mantiq» tushunchaga o'tadi. Bunda Hegel falsafiy metod sifatidagi formal mantiq va metafizikani tanqid qiladi, umumiylik, alohidalik va yakkalik dialektikasini ishlab chiqadi. Ayni vaqtda u haqiqat tushunchasini fikrning ob'ekt bilan mos kelish jarayoni sifatida tahlil qiladi. Bunga g'oyada erishiladi. Faqat g'oya tushuncha va narsaning shak-shubhasiz birligi hisoblanadi.

Mantiqdan Hegel mutlaq g'oya rivojlanishining ikkinchi bosqichi-tabiat falsafasiga o'tadi. Unda g'oya tabiat bunyodkori hisoblanadi. Aynan u o'zining «o'zga borlig'i» - tabiatni yaratadi. Tabiatning rivojlanish bosqichlari: mexanizm, ximizm, organizm kabilardir. Hegel o'z dialektik tafakkurining teranligi va kuchi yordamida «Tabiat falsafasi»da noorganik va organik tabiatning ayrim bosqichlari o'rtasidagi o'zaro aloqa hamda dunyodagi barcha hodisalarning qonuniyati haqida bir qancha noyob farazlarni ilgari suradi.

Mutlaq g'oya rivojlanishining uchinchi bosqichi ruh bo'lib, u ham o'z rivojlanish jarayonida uch bosqichdan o'tadi: sub'ektiv ruh, ob'ektiv ruh, mutlaq ruh. Sub'ektiv ruh – bu «jon» yoki «ruh o'zida», ong yoki «ruh o'zi uchun». Ob'ektiv ruh-huquq sohasini belgilaydi. Pirovard natijada u axloqda o'z ifodasini topadi va oilada, fuqarolik jamiyati va davlatda mujassamlashadi. Mutlaq ruh – umrboqiy haqiqat. U o'z rivojlanish jarayonida uch bosqich: san'at, din va falsafa bosqichlaridan o'tadi. San'at, Hegel fikriga ko'ra, mutlaq g'oyani bilishning bevosita shakli. Din o'z manbai – vahiy orqali Xudoni anglab yetadi. Falsafa - mutlaq ruh rivojlanishining oliy darajasi. Bu yerda g'oya o'zini o'zi anglab yetadi, o'zining «sof ptamoyili» darajasiga ko'tariladi. mutlaq g'oyaning intihosini uning ibtidosi bilan bog'laydi.

Bilish nazariyasida Hegel o'zining tafakkur va borliqning ayniyligi haqidagi g'oyasini asoslashga harakat qiladi. U narsalar haqidagi fikr va narsalarning o'zi mos kelishini, ammo bu ayniyat

tafovutni ham o'z ichiga olishini qayd etadi. Bilish rivojlanishining umumiy tamoyili – mavhumlikdan muayyanga yuksalishdir. Bilish jarayonida Gegel uch asosiy bosqich: hissiy aniqlik, idrok va aqlni farqlaydi. Hissiy aniqlik anglashning to'g'riligiga, ya'ni bizning sezgilarimiz narsaning yaxlit obrazini qayd etayotgani va unda hech narsani e'tibordan chetda qoldirmayotganiga ishonch uyg'otadi. Idrok predmetni o'z xossalariga ega bo'lgan narsa sifatida tushunadi. Aql narsaning hissiy qiyofasi ortida uning ichki mazmuni, mohiyatini topishga harakat qiladi. Borliq va tafakkurning ayniyligi g'oyasi Gegelni Aristotel mantig'i amalda to'qnash kelgan ziddiyatga qaytaradi: agar borliq ichdan ziddiyatli bo'lsa, o'z-o'ziga qarshi bormasdan fikrlash mumkin emas. Gegel mazkur ziddiyatni istisno etilgan uchinchi formal-mantiq qonunining yanglishligi haqidagi fikr yordamida yechishga harakat qiladi. U ziddiyatlarni fikrlash mumkin emas, deb o'ylash xato ekanligini qayd etadi. Gegel uchun ziddiyatlar – harakat manbai, fikr qarama-qarshiligi – fikrning harakat manbaidir. Gegel bilish ziddiyatlari va ob'ektiv ziddiyatlarni farqlaydi. Shu tariqa u dialektik qarama-qarshilikni asossiz ravishda formal-mantiqiy qarama-qarshilik bilan almashtiradi.

Shunday qilib, Gegel falsafiy tizimida mutlaq g'oya rang-barang va murakkab hayot yo'lini bosib o'tadi. Uning tizimi – bu ob'ektiv idealizm: mutlaq g'oya tabiat va insonga qadar «sof fikr» sifatida mavjud bo'ladi, tabiat va jamiyatni vujudga keltiradi. Tizim zamirida «triada»: tezis – antitezis – sintez yotadi. Bu «triada», bir tomondan, Gegel falsafiy tizimiga izchil tus beradi, boshqa tomondan esa, Gegelga dunyo rivojlanishining hujumkor xususiyatini ko'rsatish, qomusiy bilimlardan foydalanish uchun imkoniyat yaratadi.

Dialektika muammolarini ishlab chiqishda ham Gegelning xizmatlari beqiyosdir. U sifat o'zgarishi, quyi shakllardan oliy shakllarga yuksalish, eskining yangiga o'tishi, har bir hodisaning o'z ziddiga aylanishi sifatidagi dialektik rivojlanish haqidagi ta'limotni yaratdi. Gegel dunyodagi barcha jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqani qayd etdi.

Gegel dialektikaning idealistik shaklini ishlab chiqqan: u kategoriyalar dialektikasini, ularning aloqalari va bir-biriga o'tishini, «sof fikr» - mutlaq g'oyaning rivojlanishini tahlil qiladi. U rivojlanishni o'z-o'zidan harakat sifatida, qarama-qarshiliklar bir-biriga o'tishi natijasida yuz beruvchi o'z-o'zidan rivojlanish sifatida tushunadi:

hodisa ziddiyatli bo'lgani bois, u harakatlanish va rivojlanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Hegel dialektikasida har bir tushuncha qolgan barcha tushunchalar bilan ichdan bog'lanadi: tushunchalar va kategoriyalar bir-biriga o'tadi. Masalan, imkoniyat rivojlanish jarayonida voqelikka, miqdor – sifatga, sabab – oqibatga aylanadi va ayni vaqtda buning aksi yuz beradi. Hegel qarama-qarshi katego-riyalar – shakl va mazmun, mohiyat va hodisa, tasodif va zaruriyat, sabab va oqibatning birligini qayd etadi.

Hegel dialektikaning asosiy qonunlari: miqdor va sifat o'zgarishlari qonuni, qarama-qarshiliklarning bir-biriga o'tishi qonuni va inkorni inkor qonunini kashf etdi. U kategoriyalar dialektikasi orqali dialektika asosiy qonunlarining amal qilish mexanizmini o'rganadi. Hegel dialektikani bilish jarayoniga tatbiq etdi. Hegel uchun haqiqat bir marta va bir umrga berilgan mutlaqo to'g'ri javob emas, balki jarayondir. Hegelda bilish nazariyasi bilish tarixi bilan mos keladi: bilish, fan rivojlanishi tarixiy bosqichlarining har biri u haqda «mutlaq», lekin cheklangan, to'liq bo'lmagan tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Har bir keyingi bosqich o'zidan oldingi bosqichdan boyroq va muayyanroq. U avvalgi mazmunning boyligini o'zida to'liq saqlaydi va oldingi bosqichni rad etadi, lekin uning noyob jihatlarini yo'qotmaydi. «o'zlashtirilgan barcha xossalarni yanada boyitadi».

Shunday qilib, Hegel mutlaq va nisbiy haqiqat dialektikasini ishlab chiqadi. Hegel dialektikasini o'rganish bilish nazariyasiga oid bilimlarni boyitadi, nazariy, ijodiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yo'l ochadi, mustaqil g'oyalarni yaratishga ko'maklashadi.

Hegelning falsafiy tizimi mantiq va tabiat falsafasini, antropologiya va psixologiyani, huquq falsafasi va axloqni, davlat va fuqarolik jamiyati falsafasini, din falsafasi va estetikani, falsafa tarixi va tarix falsafasini, tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi sifatidagi dialektikani o'z ichiga oladi.

### **XX – XXI asr g'arb falsafasi**

G'arb falsafasida XIX asr oxirida boshlangan jarayonlar XX asrda uning yangi, hozirgi noklassik tipi vujudga kelishi bilan yakunlandi.

Zamonaviy G'arb falsafasi muayyan yaxlitlik, birlikni ifoda etuvchi falsafiy tafakkur shakllanishining o'ziga xos bosqichidir.

Unda ayrim asosiy yo'nalishlar – pozitivizm, neopozitivizm, strukturalizm va hokazolar farqlanadi.

Stsientistik tendentsiya falsafani ijtimoiy fanga aylantirish va dunyoqarash masalalaridan xalos bo'lishga intilish bilan bog'liq. Uni avvalo pozitivizmning har xil, shu jumladan sotsiologiya sohasidagi shakllari ifoda etadi. Ularga falsafaning ijtimoiy bilim uchun ilmiylikning yagona andozasini yaratishga harakat qiluvchi yo'nalishi – strukturalizm yaqin turadi.

Antistsientistik tendentsiya fan salbiy ijtimoiy va tabiiy jarayonlarga sabab bo'lib, ong va bilishning boshqa noilmiy shakllarini chetga chiqarib qo'yishidan kelib chiqadi. Falsafiy mulohaza yuritishning bu tipi avvalo hayot falsafasi, ekzistentsializm va germenevtikani o'z ichiga oladi.

Mavhum-metafizik tendentsiya falsafani borliq va bilishning teran asoslarini aniqlovchi «mutlaq fan» sifatida tasavvur qilish bilan bog'liq. Falsafa o'z mazmunini ijtimoiy fanlarning dalillari va qonunlaridan qat'iy nazar keng tushuntiradi, deb hisoblanadi. Bu tendentsiyani diniy falsafaning turli yo'nalishlari ifoda etadi. Bunga fenomenologiya yo'nalishi ham yaqin turadi.

Endi hozirgi zamon G'arb falsafasining muammolari tahlil qilinuvchi eng nufuzli yo'nalishlarini ko'rib chiqamiz. Pozitivizm falsafaning keng tarqalgan yo'nalishlaridan biridir. Uning muammolari ilmiy bilimning falsafiy tahlili atrofida jamlanadi.

Pozitivizm soxta bilimdan haqiqiy bilimni ajratishga harakat qiluvchi ijobiy bilimning falsafiy doktrinasini anglatadi. Bunday ijobiy bilimlar ayrim fanlarni bilish bilan tenglashtiriladi: pozitivizmga dunyoqarash muammolarini o'z ichiga oluvchi an'anaviy falsafaga nisbatan o'ta salbiy munosabat xosdir.

Pozitivizmning birinchi tarixiy shakli XIX asrning 30-40-yillarida vujudga kelgan. Unga frantsuz faylasufi Ogyust Kont asos solgan. Kont fikriga ko'ra, fanning vazifasi narsani tushuntirish emas, balki unga tavsif berishdir. Fan «nima uchun?» degan savolga javob berishga qodir emas, u dalillarni qayd etish va «qay tarzda?» degan savolgagina javob berish bilan kifoyalanishi lozim. Shu holdagina u ijobiy bo'lishi mumkin. Kontning falsafani ijobiy bilim tamoyillariga muvofiq tuzishga urinishi tabiatshunos olimlar davralarida o'z izdoshlarini topdi.

Ilk pozitivizm asoschilari olimlarni hissiy hodisalar sohasiga chuqur kirishga urinishlardan voz kechish va ularni tavsiflash bilan kifoyalanishga chaqirdilar. Bu yondashuv hissiylik jabhasi ortida qandaydir borliqning mavjudligini nazarda tutadi.

Ilk pozitivizmning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning namoyandalari falsafaning asosiy vazifasini muayyan fanlarning amalda mavjud moddiy dunyo haqidagi ma'lumotlarini umumlashtirish va tizimga solishdan iborat deb bildilar. Boshqacha aytganda, bu bosqichda pozitivizm hali tashqi dunyoning mavjudligini tan oluvchi materialistik ta'limot bo'lib qoldi.

Empiriokrititsizm pozitivizmning ikkinchi tarixiy shakli sifatida XIX–XX asrlar chegarasida yuzaga keldi. Uning eng mashhur namoyandalari – E.Max (1838-1916) va R.Avenarius (1843-1896). Empiriokrititsizm falsafaga «ikkinchi pozitivizm»ni sintez qiluvchi fan sifatida yondashadi, uni bilish nazariyasiga bog'laydi. Empiriokrititsizm «tajriba tanqidi» degan ma'noni anglatadi va «tajribani metafizik tabiatni o'zgartiruvchi barcha qoidalardan tozlash»ni nazarda tutadi. Max fikriga ko'ra, tajriba amalda «dunyo elementlari» hisoblanuvchi sezgilardan iboratdir. Binobarin, pozitivizm o'zining maxizm shaklini kasb etgan ikkinchi bosqichida butun falsafiy faoliyatni inson tajribasi hissiy asosining ruhiy-fiziologik shakllari tahliliga bog'ladi. Maxizm falsafasida dunyo «sezgilar majmui» tarzida namoyon bo'ldiki, bu materializmdan butunlay voz kechilishi, ingliz faylasufi Berklining sub'ektiv idealizmi o'ziga xos tarzda tiklanishini anglatadi. Xullas, ikkinchi pozitivizm yaratuvchilari bilish jarayonining nazariy modelini tuzishga harakat qildilar.

Pozitivizmning uchinchi tarixiy shakli neopozitivizm, ilmiy nazariyalarning haqiqatnamoligini, ularning nisbiy qimmatini aniqlash metodlarini o'z falsafiy faoliyatining predmetiga aylantirdi. Bu bosqich vakillari pozitivizmning asosiy tamoyillariga tayanib, an'anaviy falsafa tushunchalari noilmiydir, chunki ularni tajribada tekshirish mumkin emas, deb e'lon qildilar. Neopozitivistlar u yoki bu ilmiy xulosalar, konsepsiyalar va nazariyalarning to'g'riligi, haqiqiylikini tekshirish metodlariga asosiy e'tiborni qaratdilar. Ular hozirgi ilmiy bilimlarning haqiqiylikini tekshirishning asosiy tamoyillari: verifikatsiya, falsifikatsiya va konventsiya tamoyillarini ta'riflab berdilar.

Verifikatsiya (lot. «verus» - haqiqiy va «facio» - bajaraman) tamoyili nuqtayi nazaridan hissiy tajriba dalillari bilan tasdiqlanuvchi ilmiy qoidalargina haqiqiy hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tajribada sinalishi mumkin bo'lgan mulohazalargina ahamiyat kasb etadi. Neopozitivizm metafizik farazlarni aniqlash ishida verifikatsiya tamoyili muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan. Biroq bu tamoyil o'zini oqlamadi, chunki u fan tuzilishi va dinamikasiga mos kelmasdi. Verifikatsiya tamoyiliga qarshi quyidagi e'tirozlar mavjud: Fanda tajribada sinash mumkin bo'lmagan bilimlar hanuzgacha mavjud. Biroq ularni keyinchalik, kuzatish va eksperiment texnikasi rivojlanganidan so'ng tekshirish imkoniyati paydo bo'lishi mumkin. Masalan, Kont osmon jismlarining kimyoviy tarkibi haqidagi masalani metafizik masala deb hisoblagan. U mazkur masalaning yechimini topish mumkin emasligini qayd etgan. Kont vafotidan so'ng oradan ikki yil o'tgach spektral analiz paydo bo'ldi va uning yordamida osmon jismlarining kimyoviy tarkibi aniqlandi.

Tarixiy bilim – o'tmish haqidagi, hozir mavjud bo'lmagan narsalar haqidagi bilim. Verifikatsiya tamoyili esa mavjud borliqqa tayanishni talab qiladi. Biroq o'tmishni ham bilish mumkin. Verifikatsiya tamoyiliga ko'ra esa, barcha tarixiy mulohazalar ma'nosizdir.

Ma'noli mulohazalar majmuini neopozitivizm ikki turga – sintetik va analitik mulohazalarga ajratadi. Verifikatsiya tamoyilining o'zini mulohazalarning qaysi turiga kiritish mumkin? Bu tautologiya ham, tajribada sinalgan (sintetik) mulohaza ham emas. Mazkur tamoyilning kelib chiqishi falsafiy xususiyatga ega, mohiyat e'tibori bilan bu mantiqiy pozitivizm qabul qila olmaydigan metafizik qoidadir. Falsifikatsiya tamoyili ilgari surilgan qoidalarni tasdiqlashga emas, balki rad etishga qarab mo'ljal oladi. U ilmiylikka da'vogar bo'lgan qoidalarni rad etishga harakat qilishni nazarda tutadi. Ilgari surilgan qoidani rad etib bo'lmasa, uni haqiqiy yoki hech bo'lmasa o'rinli deb hisoblash mumkin. Rad etilgan qoidadan esa voz kechilishi lozim.

Fanni o'rganish sohasidagi falsafiy yo'nalish sifatida, neopozitivizm, 50-yillar oxiri 60-yillarning boshlarida o'z nufuzini yo'qotdi, va shu davrda «To'rtinchi pozitivizm» yoki postpozitivizm maydonga chiqdi. Uning eng mashhur namoyandalari qatoriga K.Popper, I.Lakatos, T.Kun, S.Tulmin, P.Feyerabend, D.Agatstini kiritish mumkin.

Postpozitivizmning neopozitivizm bilan g'oyaviy aloqasi shunda ifodalanadiki, ular asosan ilmiy bilim tahlili bilan shug'ullangan. tilga katta e'tibor bergan. Biroq, mantiqiy pozitivizm asosan mavjud ilmiy bilim tuzilishini o'rganishga e'tiborni qaratgan bo'lsa, postpozitivizmning bosh muammosini ilmiy bilim dinamikasi tashkil etadi. Bu o'zgarish fanni falsafiy o'rganish masalalari doirasining ham o'zgarishiga sabab bo'ldi. Postpozitivizmni avvalo ilmiy bilimning ijtimoiy-madaniy omillari, yangi nazariyalarning yuzaga kelishi, ularning olimlar hamjamiyati tomonidan qabul qilinishi, raqobatlashuvchi ilmiy konsepsiyalarni taqqoslash va tanlash mezonini qiziqtiradi.

Agar mantiqiy pozitivizmga empirik bilimni ishonchli va barqaror bilim sifatida ishonchsiz va o'zgaruvchan nazariy bilimga qarshi qo'yish xos bo'lsa, postpozitivizmga esa, aksincha, bilimning bu ikki darajasi bir-biriga o'tishi haqidagi qarash xosdir. Zero, postpozitivizm ta'limoti nazariyaning empiriyaga ta'siri kuchli emasligi, dalillarni aniqlash uchun nazariya talab etilishi, shu sababli dalillar nazariyaga ma'lum darajada bog'liq bo'lishi yoki hatto ularni belgilashi yoritib berilgan. Postpozitivizm konsepsiyasining navbatdagi xususiyati – shundaki ilmiy bilimning rivojlanishini talqin qilishda kumulyativizmdan voz kechilgan. Ikkala pozitivizm ilgari surgan kumulyativistik yondashuv fanning izchil rivojlanishi, bilimlarning asta-sekin to'planib borishini nazarda tutadi. Postpozitivizm fan haqidagi bunday tasavvurdan voz kechadi. U fan tarixida inqilobiy o'zgarishlar yuz berishi muqarrarligini asoslashga harakat qiladi. Postpozitivistlar fikriga ko'ra, inqilob natijasida fanda ilgari e'tirof etilgan va asoslangan bilimlar, nafaqat nazariyalar, balki metodlar va omillar ham qayta ko'riladi.

Uchinchi va to'rtinchi pozitivizm o'rtasida fanni soxta fan (metafizika)dan farqlash masalasida ham jiddiy tafovutlar mavjud. Pozitivizm metafizikani fandan chiqarib tashlashni bosh vazifalardan biri deb hisoblagan. Postpozitivizm esa ilmiy bilim va falsafa o'rtasida qat'iy chegara o'tkazishdan bosh tortadi. U falsafiy qoidalarning asosligini va ularni fanlardan chiqarib tashlash mumkin emasligini tan oladi. Fan falsafasida keng qo'llaniluvchi «paradigma» (T.Kun), «ilmiy tadqiqot dasturi» (I.Lakatos) kabi tushunchalar falsafiy (metafizik) unsurlardan iborat. Shuningdek, postpozitivizmning ayrim



namoyandalari (P.Feyerabend) fan, falsafa va afsona o'rtasida biron-bir farqni ko'rishdan butunlay bosh tortadi.

Postpozitivizm fan tashqi ijtimoiy, madaniy omillar bilan belgilanishi haqidagi g'oyani tan oladi. Bu jihatdan ham postpozitivizm mazkur falsafiy yo'nalishning oldingi shakllaridan ancha farq qiladi. Quyida postpozitivizm vakillarining qarashlari bilan tanishamiz.

Tomas Kun (1922-1996)ning epistemologik konsepsiyasi uning «Ilmiy inqiloblar strukturasi» asarida ifodalangan bo'lib, bu yerda u pozitivistik an'analarni tanqid qiladi.

Kun fikriga ko'ra, fan tarixi epistemologiyaning bazasi va asosiy materialiga aylanishi lozim. Fan – bilimlar tizimi emas, balki avvalo ilmiy hamjamiyatlar faoliyatidir. Muammo bunday qo'yilganida falsafa fanining dastlabki nuqtayi nazarlari va xatti-harakatlarida mujassamlashgan alohida normativlik va mantiqiy-metodologik mustaqillikka ega bo'lgan barcha da'volar o'z ahamiyatini yo'qotadi. Ular ilmiy hamjamiyat faoliyatining asosiy usuliga, uning zaminida shakllangan fan matritsasi va paradigmasiga bog'liq bo'lib qoladi. Kunning «Ilmiy inqiloblar strukturasi» asari ta'sirida ilmiy hamjamiyat tushunchasi fanning barcha sohalaridan mustahkam o'rin oldi. Fanning o'zi g'oyalar tizimining rivojlanishi sifatida emas, balki ilmiy hamjamiyat faoliyatining mahsuli sifatida tushunila boshlandi.

Ilmiy hamjamiyatni ma'lum ixtisoslikka va o'xshash ilmiy tayyorgarlikka ega tadqiqotchilar tashkil etadi. Ilmiy hamjamiyat vakillari, odatda, o'xshash kasbiy ko'nikmalarga ega va ilmiy adabiyotlarning muayyan majmuini o'zlashtirgan bo'ladi. Ilmiy hamjamiyat bu muayyan bilim sohasi mutaxassislarining hamjamiyati yoki muayyan ilmiy muammoni o'rganuvchi tadqiqotchilar guruhidir. Fanning rivojlanish jarayonida ilmiy hamjamiyatning rolini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Mazkur hamjamiyat vakillari fan maqsadlarini va o'z sohasining vazifalarini bir xil tushunadilar. Shu tariqa ular u yoki bu fanning predmeti va uning rivojlanishi haqidagi tasavvurlar tizimini tartibga keltiradilar;

Ularga universalizm xos bo'lib, buni ular o'z tadqiqotlarida va o'z hamkasblarining tadqiqotlariga baho berishda hisobga oladilar, bu yerda ular bilimlarni asoslash va isbotlashning umumiy mezonlari va qoidalariga amal qiladilar;

Ilmiy hamjamiyat tushunchasi bilimlarni jamlashning jamoa xususiyatini qayd etadi. U bilishning jamoa sub'ekti nomidan ish ko'radi, bilish faoliyati natijalariga kelishib baho beradi, ichki me'yorlar va ideallar tizimi – fan etosini yaratadi va quvvatlaydi;

Ilmiy hamjamiyatning barcha a'zolari muayyan paradigмага – ilmiy muammolarni qo'yish va yechish modeli (andozasi)ga amal qiladi. Yoki, Kun ta'бири bilan aytganda, paradigma tadqiqotchi olimlar guruhini boshqaradi. Olimlarning o'zlari ko'proq paradigma haqida emas, balki nazariya yoki nazariyalar to'plami haqida so'z yuritishni ma'qul ko'radilar.

Fan rivojlanishining Kun taklif qilgan modeli turli ilmiy hamjamiyatlar o'rtasidagi raqobat kurashi hodisalari oldinma-ketin yuz berishini nazarda tutadi. Qabul qilingan paradigma hukmronligi davri, «normal fan» bosqichidan keyin paradigmaning inqiroz davri keladi va bu ilmiy inqilob atamasi bilan ifodalanadi. Raqobatlashayotgan taraflardan birining g'alabasi fanning normal rivojlanish bosqichini fiklaydi. Paradigma yuzaga kelishidan oldingi davr dalillarining tartibsiz to'planishi bilan tavsiflanadi. Bu davrdan chiqish ilmiy amaliyot andozalari, nazariy qoidalar, dunyoning aniq manza-rasi belgilangani, nazariya va metodning birlashuvini anglatadi.

Ilmiy paradigmaning almashishi, inqilobiy o'zgarishlar bosqichiga o'tish fan matritsasi elementlari, tadqiqot texnikasi, metodlar va nazariy farazlar to'la yoki qisman o'zgarishini nazarda tutadi. Epistemologik qadriyatlar majmui to'la o'zgaradi.

Kun fikriga ko'ra, ilmiy oqilonalikning umumiy mezonlari nisbiy xususiyat kasb etadi. Har bir paradigma o'z muammolari doirasida yaratilgan andoza va mezonlarga tayanadi, shu sababli ular formal mantiq andozalariga muvofiq bo'lishi shart emas, ammo ular, shuningdek sog'lom fikrga zid kelmasligi ham lozim. Shu boisdan fanni intellektual faoliyatning boshqa turlaridan farqlash imkonini beruvchi chegara (demarkatsiya) haqida gapirish ancha qiyin. U har safar yangidan o'rnatiladi. Kun fikriga ko'ra, fan uchun yagona va universal metod mavjud emas, kuzatishlarning universal bayonnomalari ham yo'q, serqamrov metatarixiy lug'at ham bo'lishi mumkin emas. Olimning dunyoga munosabati uning muayyan paradigмага amal qilishi bilan belgilanadi, tarixiy va ijtimoiy dalillarga bog'liq bo'ladi.

Kun o'zining paradigma konsepsiyasini har tomonlama himoya qiladi. «Paradigma» deganda u ma'lum vaqt mobaynida ilmiy hamjamiyatga muammolarni qo'yish va yechish andozasini beruvchi keng e'tirof etilgan ilmiy yutuqlarni tushunadi. Paradigma ilmiy hamjamiyat tomonidan qabul qilingan va ilmiy an'ananing mavjudligini ta'minlovchi e'tiqodlar, qadriyatlar va texnika vositalari majmuini anglatgani bois, Kun fundamentalizm tamoyillarini rad etadi. Ilmiy paradigмага bog'liq bo'lmagan omillar yo'q va bo'lishi mumkin emas. Uning fikricha, kuzatishning empirik jihatdan neytral tili ham bo'lishi mumkin emas. Ilmiy hamjamiyatga qo'shilgan olimlar dunyoga qabul qilingan paradigma nuqtayi nazaridan qaraydilar. Zero, dalillar nazariyani belgilamaydi, balki nazariya o'zining anglab yetilgan tajribasiga kirishi mumkin bo'lgan u yoki bu dalillarni tanlaydi. Kun yangi paradigma rivojlanishining dastlabki bosqichida uning tarafdoriga aylangan odam bu paradigmanning muvaffaqiyatiga ishonishi lozim, deb hisoblagan.

#### **Paradigma strukturasi nimalar kiradi?**

Birinchidan, simvolik umumlashtirishlar - qonunlar, ta'riflar va ko'p ishlatiladigan atamalar.

Ikkinchidan, universumning u yoki bu ontologiyasini belgilovchi metafizik mo'ljallar majmui.

Uchinchidan, ayrim vazifalarni yechishning umumiy qabul qilingan andozalari, sxemalari.

Kun paradigmani o'lchash mumkin emas, degan tezisni ilgari suradi. U fanning rivojlanish tarixidagi vorisiylikni rad etadi. Fan dinamikasini uzlukli deb biladi. Uning fikriga ko'ra, ilmiy hamjamiyatlar bir-birini siqib chiqaradi, oldingi paradigma to'plagan bilimdan esa voz kechiladi.

Kun paradigma tushunchasini yanada aniqroq izohlashga urinib, uni keyinchalik olimlarning muayyan fanga mansubligini ham, ilmiy faoliyat qoidalari tizimini ham hisobga oluvchi fan matritsasi tushunchasiga aylantirdi. Fan matritsasining strukturasi nazar tashlar ekanmiz, uning paradigma strukturasi o'xshashligini ko'rishimiz va matritsaning simvolik umumlashtirishlar ko'rinishidagi elementlarini qayd etishimiz mumkin.

Stiven Tulmin (1922-1997) evolyutsion epistemologiya asoschisi. U bilishni jonli tabiat evolyutsiyasining lahzasi sifatida o'rganadi va bilish mexanizmlarini evolyutsiya nuqtayi nazaridan

yori-tadi. Evolyutsion epistemologiya sof evolyutsiya va bilish jarayoni biologiyasining o'xshashligi g'oyasiga asoslangan va insonning bilish apparati bu biologik evolyutsiya jarayonida rivojlangan moslashuvlar mexanizmidir, degan tasavvurga tayangan. Evolyutsion epistemo-logiyalar fikriga ko'ra, ayni shu sababli bilish mexanizmi evolyutsion tip bo'yicha rivojlanadi va tegishli ravishda hozirgi zamon evolyutsiya nazariyasiga muvofiq tushunilishi mumkin.

Evolyutsion epistemologiya insonning biologik evolyutsiya mahsuli sifatidagi talqinidan kelib chiquvchi bilish nazariyasidir. Evolyutsion epistemologiyaning asosiy nazariy manbasi sifatida organik evolyutsiya konsepsiyasi amal qiladi. Evolyutsion epistemologiyaning ikki xil ma'nosini farqlash lozim:

- bilish vositalari, shakllari va metodlarining (bilish organlarining) rivojlanishini evolyutsion sxema yordamida tushuntirishga urinish;

- bilim mazmunini (axborotning paydo bo'lishini) evolyutsion tushuntirishga harakat qilish. Bu yerda o'zgaruvchanlik, tanlash va mustahkamlash tushunchalari ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Evolyutsion epistemologiyaning birinchi ma'nosida dunyoni aniq aks ettirish imkoniyatini ta'minlovchi bilish organlari, kognitiv strukturalar va bilish qobiliyatlarining evolyutsiyasi masalalariga urg'u beriladi. U bizning bilish apparatimiz evolyutsiya mahsulidir, degan fikrni ilgari suradi. Tirik organizmlarning nerv tizimi va idrok etish organlari millionlab yillar mobaynida borliqni mumkin qadar aniq aks ettirishni ta'minlaydigan tarzda o'zgarib borgan. Agar organizm bunday moslamalar bilan ta'minlanmaganida, uning mavjudligi va rivojlanishi mumkin bo'lmas edi. Sezgilar tizimi o'zi yashaydigan muhit sharoitlarida mos ravishda harakat qilish imkonini beruvchi organizmlarda yashab qoladi va nasl qoldiradi. Bilishning sub'ektiv strukturalari borliqqa mos tushadi, chunki aynan shunday holat yashab qolish imkoniyatini ta'minlaydi.

Evolyutsion epistemologiyaning ikkinchi ma'nosi falsafa fanining bevosita predmetidir, chunki unda o'z xususiyatiga ko'ra evolyutsion bo'lgan ilmiy bilimning o'sishi modeliga urg'u beriladi. Bu yerda falsafa fani konsepsiyalaridan biri sifatidagi evolyutsion epistemologiya to'g'risida so'z yuritiladi. U evolyutsiya dinamikasining mantiqiy talqiniga mos tushuvchi ilmiy bilim dinamikasini

ko'rsatadi. Mazkur yo'nalish ham fanning evolyutsion nazariyasi deb ataladi.

Karl Popper (1902-1994)ning muhim asarlari: «Ilmiy tadqiqot mantiqi» (1935), «Ochiq jamiyat va uning dushmanlari» (1945), «Tarixiylikning qashshoqligi» (1963), «Ob'ektiv bilim. Evolyutsion yondashuv» (1972), «Realizm va fan maqsadi» (1983).

K. Popper falsafaning bosh maqsadi ilmiy bilimning o'sishini, ayniqsa, ilmiy kosmologiyani o'rganishdan iborat deb bilgan. Ilmiy kosmologiya dunyoni, shu jumladan insonni va uning bilimini bu dunyoning qismlari sifatida bilishni nazarda tutadi. Popper fikriga ko'ra, falsafaning alohida metodi mavjud emas – masalalar aniq qo'yiluvchi va taklif etilgan yechimlar tanqidiy tahlil qilinuvchi har qanday oqilona munozara metodi mavjud. U verifikatsiya tamoyiliga zid o'laroq falsifikatsiya metodini (har qanday fikrni rad etish mumkinligi) taklif qildi, bilimni tashkil etish nazariy va empirik darajalarining uyg'un birligini, shuningdek gipotetik xususiyati va xato qilishi mumkinligini (har qanday fanning fallibilizmi printsipini) qayd etdi. Falsifikatsiya tamoyili fan uchun muayyan ahamiyatga egadir. Salbiy tekshirish u yoki bu qoidaning haqiqiyilgini isbotlamasa, uni uzil-kesil rad etadi. Biroq falsifikatsiya tamoyili faqat rad etishga qarab mo'ljallanadi: u bilimlarni o'stirish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini bermaydi, agar u yoki bu nazariyani rad etuvchi ma'lumotlar topilsa, bu nazariyadan butunlay voz kechiladi.

Nazariyalar o'rtasida vorisiylik mavjud bo'lib, u Nils Borning muvofiqlik tamoyilida o'z ifodasini topgan. Ilmiy bilimni noilmiy bilimdan, fanni metafizikadan ajratishni (yoki demarkatsiya muammosini) Popper muhimlik mezonlarini yaratish mo'ljallariga qarshi o'laroq dolzarb ahamiyatga ega deb belgilaydi. Ilmiy bilimning o'sishini Popper ijtimoiy o'zgarishlar umumiy jarayonlarining ayrim hodisasi sifatida talqin qiladi va ularning doirasida muammolar va ularni yechishga alohida e'tibor qaratilishi lozim deb hisoblaydi. Ilmiy bilish tarixi – bu dadil farazlar va ularni rad etishlar tarixidir. Popper ta'biri bilan aytganda, «fan» degan odam «taraqqiyot» deydi va aksincha (Vena to'garagi vakillaridan farqli o'laroq, Popper normal fanga rivojlanuvchi fan sifatida yondashadi va uning o'sishini qadsizlantiruvchi metodologiyani tuzishga harakat qiladi). Birdan-bir ilmiy bilimga erishish, shuningdek haqiqatning tagiga yetishga

yaqinlashish. Popper nuqtayi nazaridan, faqat xatolar va yanglishishlar eliminatsiyasi mahsuli sifatida amalga oshishi mumkin: fan yaxlitligining asosi sifatida oldindan belgilangan ideal va ilmiy tilning haqiqiyligi emas, balki borliqning birligi amal qiladi. Fanlar bu borliqni anglash jarayonida o'sib boruvchi jarayon tarzida bir-biriga yaqinlashadi. Oqilonalashuv darajasi, Popper fikriga ko'ra, ilmiy inqiloblarning intensivligi bilan belgilanadi.

Popper ta'limoti falsafa va fanning o'zaro nisbati yo'lidagi eng katta to'siq - falsafiy bilimning o'ziga xosligini asoslashga qo'llanilgan. Popper fikriga ko'ra, falsafa va fanni aniq ajratish naturfalsafaning spekulativ tamoyillari va fan farazlarini farqlash uchun zarur.

Bunda Popper fan va falsafani emas, balki dogmatik va evristik bilimni ajratishni ma'qul ko'rgan.

Imre Lakatos (1922-1974) tarixchisi, britaniyalik fan faylasufi va tarixchisi. O'zining ilk asarlarida farazlar va rad etishlar mantiqining o'ziga xos variantini bilimning o'sishi muammosining rekonstruksiyasi sifatida tuzishga harakat qildi. XVII-XIX asrlar matematikasi uning tahlil predmetiga aylandi. Keyinchalik u, fanlarning rivojlanish zamirida yotuvchi ilmiy tadqiqot dasturlarining raqobati g'oyalarini asoslashga harakat qiladi. U «Mening yondashuvim tadqiqot dasturlaridan iborat «raso fan» bilan sinov va xatolarning siyqasi chiqqan andozasidan tashkil topgan «moraso fan»ni farqlashning yangi mezonini nazarda tutadi», deb yozadi. Lakatos o'z konsepsiyasini asoslashda fan tarixini o'rganishga alohida e'tibor bergan.

Lakatos fikriga ko'ra, ilmiy dastur ilmiy bilimning asosiy birligidir. U ilgari surgan konsepsiya nuqtayi nazaridan fanning rivojlanishi tadqiqot dasturlarining o'zgarishidir. «Men fanning uzluksizligiga Popper ko'zoynagi orqali qarayman, deb tan oladi u. — shu sababli Kun paradigmalarni ko'rgan joyda men oqilona tadqiqot dasturlarini ham ko'raman». Tadqiqot dasturi uzluksiz rivojlanuvchi asos, g'oyalar va tamoyillar birligi bilan bog'liq nazariyalar majmui va ketma-ketligi sifatida tushuniladi. Bosh nazariya keyingi nazariyalarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi va ularning har biri oldingi gipotezaga qo'shimcha gipoteza kiritish orqali rivojlanadi. Lakatos «raso fan» va «moraso fan»ni farqlaydi. «Raso fan»ni quydagicha tavsiflaydi:

- ilgari ma'lum bo'lmagan dalillarni bashorat qiladi;

- yangi yordamchi nazariyalarni oldindan aytib beradi;
- evristik kuchga ega bo'ladi;
- nazariy jihatdan mustaqil bo'ladi.

Uning fikricha, uzluksiz dastur alohida normativ qoidalar bilan muhofaza qilinadi.

Tadqiqot dasturi tarkibiga qattiq o'zak, fundamental farazlar, ijobiy evristika qoidalari (ular tadqiqotlarni amalga oshirish yo'llarini belgilaydi) va salbiy evristika qoidalari (ular taqiqlarni, qaysi yo'llardan yurmaslik kerakligini ko'rsatadi) kiradi. Fundamental farazlar o'ziga xos xususiyat kasb etadi va shartli ravishda rad etilmagan deb olinadi. Qattiq o'zak ilmiy dasturning barcha nazariyalarida o'zgarishsiz saqlanayotgan muayyan ilmiy va ontologik farazlar majmuidan tashkil topadi.

«Salbiy» evristika qoidalari tadqiqot dasturining qattiq o'zagini hatto u anomalialar bilan to'qnash kelgan holda ham qayta ko'rishni man etadi. Tadqiqot dasturi muayyan darajada dogmatik xususiyat kasb etadi. Bir marta qabul qilingan nazariyaning dogmatik to'g'riligi ijobiy ahamiyatga egadir. Usiz olimlar nazariyadan uning imkoniyatlari, kuchi va ahamiyatini anglashdan oldinroq voz kechgan bo'lar edi. Shu tariqa u muayyan nazariyaning kuchi va afzalliklarini yaxshiroq tushunishga ko'maklashadi. Uning izlariga Kunning «normal fan» davri tavsifidayoq duch kelish mumkin.

Nazariyaning «qattiq o'zagi» yaxshiroq saqlanishi uchun qo'shimcha gipotezalarning «himoyalovchi kamari» tashkil etiladi. Bu gipotezalar anomalialarga moslashib o'z shakl-shamoyilini o'zgartirishi mumkin. Bu bilan Lakatos anomal vaziyatlarga tushuvchi yoki qarshi misollar bilan to'qnash keluvchi nazariyalarga baho berishda falsifikatsionizmga haddan tashqari berilishning oldini olishga harakat qilgan.

U yoki bu tadqiqot dasturini metodologik tahlil qilish texnikasi bir qancha bosqichlardan iborat:

- tadqiqot dasturining oqilona rekonstruktsiyasini ilgari surish;
- uni haqiqiy nazariya bilan taqqoslash;
- uni tarixiylik va oqilonalikning mavjud emasligi uchun tanqid qilish.

Uzluksiz o'sish talabi Lakatos oqilona rekonstruktsiyasining asosiy mazmuni va mohiyatidir. Umuman olganda, olimning kontsep-

tsiyasi mantiqiy-normativ xususiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqot dasturi ilmiy bilim rivojlanish yo'llarining ko'p sonliligi va rang-barangligini cheklaydi, fan tarixi turli nazariyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va raqobati tarzida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda, tadqiqot dasturlari, asosiy nazariyalar hamda ilmiy bilimning o'zgarishi va rivojlanishi rang-barang shakllari mexanizmining amalda murakkabligi taklif etilgan model bilan uyg'unlasha olmaydi.

Pol Feyerabend (1924-1994) amerikalik faylasuf va metodolog olim. Feyerabendning serqirra konsepsiyasida Vitgenshteyn ijodi so'nggi davrining ta'siri, taniqidiy ratsionalizmga moyillik va hatto «ilmiy materializm» tamoyillariga duch kelish mumkin. Bu olim an'anaviy va yangi muammolarni tabiiy-ilmiy dunyoqarash va metodologiya nuqtayi nazaridan tushunishga harakat qilganligidan dalolat beradi.

Feyerabend XX asr 70-yillari oxirida fan falsafasi va «fan faylasuflari»ning asarlarida ifodalangan «antagonistik g'oyalar», oqibatlar va natijalar to'g'risida so'z yuritadi. Fan nima, u qay tarzda ish ko'radi, uning natijalari qanday, degan savollarni berib, mutafakkir ularga javoban fan faoliyatini boshqaruvchi alohida ilmiy metod, ya'ni qoidalar majmui mavjudligini qayd etadi.

Fan va kumulyativizmning mavjud gipotetik-deduktiv modeliga faylasuf nazariy realizm g'oyasini qarshi qo'yadi. Tabiatshunoslikni tavsiflash amaliyotini umumlashtirish asosida yuzaga kelgan kumulyativizm bilim o'sishining sodda talqini, ya'ni haqiqiy qoidalarning jamlangan yig'indisiga yangi fikrlar asta-sekin qo'shilishini nazarda tutadi. Unda xatolar faqat bilimning o'zgarishi, eski bilimdan voz kechilishi va qabul qilingan bilimning rad etilishiga yo'l qo'yilmaydigan sub'ektiv jarayon sifatida talqin qilinadi. Empirik kumulyativizm bilimning o'sishini uning empirik mazmuni boyishi bilan tenglashtiradi. Ratsionalistik kumulyativizm bilim rivojlanishining shunday bir usulini nazarda tutadiki, unda har bir keyingi element mavjud mavhum tamoyillar va nazariy xulosalar tizimiga kiritiladi. Feyerabend ilgari surgan nazariy realizm g'oyasi bilimning aktual o'sishi o'zaro mos tushmaydigan (yagona mantiqiy asos bilan deduktiv bog'lanmagan va har xil tushunchalar va metodlardan foydalanuvchi) nazariyalarning ko'payishi (proliferatsiyasi) natijasida amalga oshirilishini qayd etadi. Tajriba doim nazariy asoslangan



tajribadir, u yoki bu nazariyaning qabul qilinishi esa idrok etish tizimini belgilaydi.

Feyerabend asoslab bergan proliferatsiya-nazariyalarning ko'payishi tamoyili qabul qilingan nuqtayi nazarlar hatto yetarli darajada tasdiqlangan va keng e'tirof etilgan bo'lsa ham ularga mos tushmaydigan nazariyalarni yaratishga ruxsat beradi. Fan rivojlanishining turli bosqichlariga yoki ayni bir bosqichiga mansub bo'lgan muqobil nazariyalar va konsepsiyalarning o'zaro mos kelmasligi va ularni bir-biriga o'tkazish mumkin emasligi haqidagi tezisni ilgari surish yo'li bilan Feyerabend proliferatsiya tamoyilining talablarini yanada kuchaytiradi. Nazariy metodologik (immoralizm) pozitsiyasi bilimning teng huquqli tiplari to'plami fan va shaxsning rivojlanihidan dalolat beruvchi borliqdir, degan g'oyaga tayanadi. Feyerabend fikricha, muqobillar o'rtasidagi kurash davrlari eng samarali davrlardir. Muqobil konsepsiyalarning kurtaklari olimning turli falsafiy va metodologik nuqtayi nazarlarida yashirindir.

Nazariyalar plyuralizmi g'oyasini Feyerabend an'analar plyuralizmigacha kengaytiradi. Shu munosabat bilan fan ilmiy elita mafkurasi sifatida o'z markaziy o'rnidan mahrum etilishi va mifologiya, din bilan tenglashtirilishi lozim. Bunday o'ta anti-sientistik yondashuv tanqidiy ratsionalizmga qarshi qaratilgan va falsafa xususiyatini yangicha baholaydi. Feyerabend fikriga ko'ra, olimlar faoliyatida haqiqat emas, balki individual qobiliyatlarining rivojlanishi, bilish va uning chin oqilonaligi emas, balki cheklanmagan, mutlaqo erkin xulq-atvor muhimdir. Uning ko'pgina g'oyalari akademik falsafa vakillarini lol qoldirgan.

Feyerabend konsepsiyalari ba'zan anarxistik epistemologiya deb ataladi. Bu qisman shu bilan izohlanadiki, Feyerabend yagona universal metodning mavjudligini mutlaqo rad etadi. Bundan tashqari, olimlar «hamma narsa mumkin» degan tamoyilga amal qilishlariga uning ishonchi komil. Bir metodga qat'iy rioya etish va uning barcha talablarini bajarish, Feyerabend fikriga ko'ra, tadqiqot amaliyotiga ham, bilishning ijodiy tabiatiga ham mos kelmaydi. Shu sababli faning obro'si hayotning boshqa har qanday shakli obro'sidan ortiq emas.

Biroq plyuralistik metodologiyadan foydalanish nimani anglatadi? Feyerabend fikriga ko'ra, olim g'oyalarni tajriba bilan emas, balki boshqa g'oyalar bilan solishtirishi va bellashuvda mag'lub

bo'lgan konsepsiyalardan voz kechmasdan ularni yaxshilashga harakat qilishi lozim. Shunday ish ko'rish yo'li bilan u "Borliq" kitobi yoki "Polmandrada"da bayon etilgan inson va kosmos konsepsiyasini saqlab qoladi va ulardan evolyutsiya nazariyasida va boshqa yangi konsepsiyalarda muvaffaqiyatga erishish uchun foydalanadi. Uning «Metodologik majburlashga qarshi. Bilishning anarxistik nazariyasi ocherki» (1970) relyativizmga qo'yilgan mashhur haykaldir. Bu asar matnining asosiy mazmunini ifodalovchi tezislar quyidagilardan iborat:

- nazariy anarxizm uning qonun va tartibga tayanuvchi muqobilalaridan insoniyroq va progressivroqdir;

- «hamma narsa mumkin» tamoyili taraqqiyotga to'sqinlik qilmaydigan birdan-bir tamoyildir;

- yaxshi tasdiqlangan nazariyalarga zid gipotezalardan foydalanish, induktsiyaga qarshi ish ko'rib fanni rivojlantirish mumkin;

- muvofiqlik sharti oqilona emas, chunki u yaxshiroq emas, balki eskiroq nazariyani saqlab qoladi, bir andozalilik individning erkin rivojlanishini xavf ostida qoldiradi;

- qancha eski va absurd bo'lmasin, bizning bilimimizni yaxshilashga qodir bo'lmagan g'oya mavjud emas;

- fan mavjud bo'lsa, aql universal bo'lishi mumkin emas va nooqilonalikni bartaraf etish mumkin emas. Fanning bu o'ziga xos xususiyati anarxistik epistemologiyani talab qiladi.

Ilmiy izlanish asoslari muammosini Feyerabend o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Uning fikricha, yangi metodologik paradigmada narsaga teran nazar tashlash va olimni amalda nima cheklashini tushunish muhimdir.

Feyerabend fikriga ko'ra, agar olim «xohlagan ishingni qil» degan tamoyilga amal qilsa, uning dalillari dialektik xususiyat kasb etadi, ya'ni andozalarning qayd etilgan to'plamiga emas, balki o'zgaruvchi oqilonalikka tayanadi. Boshqa tomondan, agar olimdan ilmiy metod nima, deb so'ralsa, u aniq javob bera olmasa kerak. Olimlar o'z tadqiqotlari jarayonida aynan nima qilayotganlarini kamdan-kam holda biladilar.

Feyerabend metodologiyasida barcha gnoscologik amallar va oqilonalilikning plyuralistik o'zgarishiga qarab mo'ljal olingani bejiz emas. U fan falsafasining mazkur bosqichiga xos bo'lgan episte-

mologik tadqiqotlarda bilish imkoniyatlarining ochiqligi va uning demokratiyalashuviga intilishni aks ettiradi.

Maykl Polani (1891-1976) yaratgan yashirin shaxsiy bilim konsepsiyasi o'ziga xosligi va oldingi bosqichning normativ-ratsionalistik muammolariga nomuvofiqligi bilan ajralib turadi.

Polani epistemologiyasida antropologik mo'ljallar ancha kuchlidir. Uning asosiy tezislari:

- fanni mahoratli odamlar yaratadi.
- bilish faoliyati san'atini darslikdan o'rganish mumkin emas, u faqat bevosita mahorat bilan egallanadi.
- fanni yaratuvchi odamlar boshqalar bilan almashtirilishi va o'zlari yaratgan bilimdan ajratilishi mumkin emas.
- ilmiy bilish faoliyatida fanga, uning qimmatiga bo'lgan ichki ishonch kechinmalari shaxsiy tajribasi motivlari, shuningdek olimning manfaatdorligi, shaxsiy mas'uliyati o'ta muhimi ahamiyat kasb etadi.

Polani uchun shaxsiy bilim - bu biluvchining intellektual jonbozligi, fidokorligidir. U nomukammallikdan dalolat bersada, biroq bilimning zaruriy elementi hisoblanadi. U bizning dunyo manzarasidan inson imkoniyatlarini chiqarib tashlashga bo'lgan har qanday urinish muqarrar tarzda mantiqsizlikka olib kelishini qayd etadi. Haqiqatni aniqlash bizning formal belgilash mumkin bo'lmagan ayrim xususiy asoslarimiz va mezonlarimizga bog'liq bo'lib qolishiga olimning ishonchi kornil. So'zlarda ifodalangan haqiqat maqomi tegishli tarzda cheklanishi ham muqarrardir.

Polani e'tiqodning bilish jarayonidagi ulkan rolga yangicha baho beradi. U e'tiqod obro'sizlanishi natijasida hozirgi odamning dinga e'tiqod qilishi bilan bog'liq vaziyatlarning cheklangan sonidan biron-bir fikrlarni ishonch bilan qabul qilish qobiliyatini yo'qotganini, e'tiqod hodisasi umumiylikni bilish imkonini bermaydigan sub'ektiv ro'yo maqomini olganini qayd etadi. Muallif fikriga ko'ra, bugun biz e'tiqod bilim manbai hisoblanishini yana tan olishimiz lozim. Jamiyatdagi o'zaro ishonch tizimi zamirida e'tiqod yotadi. Ochiq va yashirin murosa, intellektual ehtiroslilik, madaniy vorisiylik - bularning barchasi e'tiqod bilan uzviy bog'liq turtkilarni nazarda tutadi. Aql e'tiqodga o'zining muhim asosi sifatida tayanadi, biroq har safar unga shubha bildirishga qodir. Aksiomalar, qoidalar va tamoyillar to'plamlarining paydo bo'lishi va mavjudligi ham bizning dunyo bilish mumkin bo'lgan yetuk va uyg'un birlik ekanligiga bo'lgan ishonchi-

miz bilan chambarchas bog'liq. Bilish mahoratini tavsiflash va til vositalari bilan ifodalash mumkin emasligi muallif uchun oydek ravshandir. Bu tezis fanning bir xillashtirilgan tilini yaratish vazifasiga ziddir.

Mutafakkir fikriga ko'ra, ilmiy maqolalar va darsliklarning matnlarida ifodalangan ilmiy bilim ong diqqat markazida turuvchi bilimlarning bir qismi, xolos. Ularning ikkinchi qismi bilish jarayoniga doimo yo'ldosh bo'lgan chetdagi (yoki yashirin) bilim yarmida jamlangandir. Bu bilimni «sezgilarni tasmollab anglash» bilan o'xshashlik bo'yicha va qo'lda mavjud asbob yordamida talqin qilish mumkin. Shusiz faoliyat jarayoni izchil amalga oshishi mumkin emas. Bilish asbob yoki mo'ljal sifatida foydalaniluvchi ayrim narsalarni tartibga solish va ularni sun'iy nazariy yoki amaliy natijada rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu holda bizning ongimiz bosh «ong nuqtasi»ga, biz pirovard natijada erishadigan yaxlitlikka nisbatan «periferik»(uzoq) hisoblanadi.

Polani shaxsiy bilim konsepsiyasida tafakkur va nutqning uch asosiy sohasi yoki uch variantini farqlaydi. Birinchisi so'zdagi ifodasi aniq bo'lmagan yashirin bilim sohasi. Bu sohani ifodalab bo'lmaydigan bilim sohasi deb nomlash mumkin. U kechinmalarga va hayot taassurotlariga asoslangan bilimlarni qamrab oladi. Bu teran shaxsiy bilimlarni ifodalash va ijtimoiylashtirish juda qiyin. San'at doim bu vazifani o'z vositalari bilan yechishga harakat qilgan. Hamdardlik harakatida dunyoga hayot dramasi qahramonining ko'zlari bilan qarash ko'nikmasi aks etgan. Ikkinchisi – nutq vositalari bilan ancha yaxshi ifodalanuvchi bilim sohasi. Bu yerda tafakkur elementi yaxshi tushunarli nutq bilan uzatilishi mumkin bo'lgan axborot tarzida mavjuddir, shu bois bu sohada sukut saqlovchi bilim o'zi ifodalangan matn bilan mos tushadi. Uchinchi tafakkurning noverbal mazmuni va nutq vositalari o'rtasida fikrning mazmunini kontseptuallashtirishga xalaqit beruvchi nomuvofiqlik mavjud. Bu yashirin bilim va formal bilim bir-biriga bog'liq bo'lmagan sohadir. Shaxsiy, yashirin bilim hajmiga ob'ekt bilan tanishish mexanizmi ham kiradi. Bu mexanizmning amal qilishi natijasida ob'ekt hayot faoliyati jarayoniga qo'shiladi, u bilan muomala qilish ko'nikmalari va mahorati shakllanadi.

Shunday qilib, ob'ekt bilan tanishish u haqdagi dastlabki bilim sifatida, insonning shaxsiy bilimiga aylanadi. Biroq shuni ta'kidlash

lozimki, ko'nikmalar faoliyat tarziga ko'ra o'xshash bo'lsa-da, amalda har xil va o'ziga xosdir. Birovning ko'nikmasi shaxsiy bilimning o'z qatlamini yuzaga keltiradi.

Polani konsepsiyasining yangiligi shundaki, unda ilmiy qoidalar ma'nosi yashirin bilimning, o'z teran asoslarida instrumental xususiyat kasb etuvchi «bilim»ning mavhum kontekstiga bog'liq bo'ladi. U insonning butun moddiy tuzilishi bilan belgilanadi va aniq bo'lmay qolgan instrumental bilim bilan uzviydir. Polani fikricha, ma'nosi mulohazada mujassamlashgan shaxsiy ishonch bilan ham uzviy bog'liq ekanligini qayd etadi. Polani ilmiy bilim o'sishining bilish faoliyatining amaldagi shaxsiy-kognitiv mexanizmlari hisobga olinuvchi yangi modelini o'ylash lozim, degan xulosaga keldi.

Strukturalizm (lot. structura – tuzilish, joylashish, tartib) - g'arb falsafasining yangi yo'nalishlaridan biri. Strukturalizm, umumiy falsafiy-epistemologik tasavvurlar, metodologik mo'ljallar va ayrim fanlar (lingvistika, adabiyotshunoslik, etnografiya, tarix, estetika, san'atshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, falsafa)dagi yo'nalishlar majmui sifatida, XX asr boshidan 40-yillargacha shakllandi.

Strukturalizmning ko'pgina g'oyalari yuzaga kelishiga turtki bergan mutafakkirlar qatoriga V.Gumboldt (inson ongi dunyosini modellashtirishda tilning dinamik roli), Ch.Pirs (semiotika asoschisi), E.Kassirer (inson xulq-atvori va ongining shakllanishida til, mifologiya va san'at simvolik tizimlarining roli)ni kiritish mumkin.

Strukturalizmning asosiy xususiyati shundan iboratki, uning tarafdorlari inson hissiy idrok etishi mumkin bo'lgan barcha hodisalarga «fenomenlar», ya'ni ichki, teran va shu sababli «noaniq» strukturalaming sirtida namoyon bo'lishi (manifestatsiya) sifatida qaraganlar va ularni yoritishni o'z vazifasi deb hisoblaganlar.

Bu vazifani hal qilishda strukturalizm pafosi ijtimoiy fanlarga aniq fanlar maqomini berishga qaratildi. Struktura tushunchasi strukturalizmning bosh tushunchasi hisoblanadi. Struktura deganda, turli ichki va tashqi o'zgarishlarda har xil, ko'p variantli tushunchalar majmui yoki, strukturalistlar ta'biri bilan aytganda, har qanday diaxronik rivojlanuvchi tizimning sinxron qayd etilishi tushuniladi. Strukturalizmدا ko'pincha model sifatida belgilanuvchi har qanday struktura uch zaruriy shart: elementlar mustaqil butunga yaxlit bo'ysunishi; transformatsiya – bir kichik struktura boshqa kichik strukturaga yuzaga kelish qoidalariga muvofiq tartibli o'tishi; o'zini

o'zi tartibga solish – mazkur tizim doirasida qoidalarning ichki tartibga solinishini qanoatlantirishi lozim. Shunday qilib, struktura nafaqat ob'ektning barqaror skeleti tarzida, balki rioya qilish, bir ob'ektdan ikkinchi, uchinchi va hokazo ob'ektlarni olish imkonini beruvchi qoidalar majmui sifatida amal qiladi. Bunda ayrim ob'ektlar to'plamining yagona strukturaviy qonuniyatlarini aniqlashga bu ob'ektlarning farqlarini e'tibordan soqit etish hisobiga emas, balki yagona mavhum invariantning muayyan variantlari sifatida qayd etilgan bir-biriga o'tishlar dinamikasi va mexanikasini tahlil qilish yo'li bilan erishiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, strukturalistlar foydalanuvchi asosiy tushunchalar ulardan tadqiqotchilik maqsadlarida foydalanilgan maxsus fanlar doirasida ishlab chiqilgan. Shu sababli asosiy kategoriyalar va g'oyalar bu yo'nalishning bosh shakllari bilan maqsadga muvofiqdir.

Poststrukturalistlar (Derrida, Delez, M.Fuko va h.k.) strukturani va bilimdagi barcha nostrukturaviy narsalarni ularning genezisi va tarixiy rivojlanishi nuqtayi nazaridan anglab yetishga harakat qildilar.

Ko'rsatilgan yondashuvlarning ikkalasi ham ijtimoiy bilim xususiyatlari va metodlarini, uning faoliyati umumiy mexanizmlarini, tabiiy ilmiy bilimdan farqlarini, u yoki bu ijtimoiy-madaniy shakllar (til, san'at, adabiyot, moda va h.k.) yuzaga kelishini bilishda sinxron va diaxron narsalarning birligini o'rgangan.

Strukturalistlar bunday hodisalarni o'rganishda struktura tarixdan ob'ektivroq, muhimroq va birlamchiroq deb hisoblagan bo'lsalar, poststrukturalistlar bunga zid xulosani ilgari surganlar. Ular o'z hamkasblarining agnostitsizmi (notarixiyli)ni yengish, inson va jamiyatni til strukturalari yordamida ob'ektiv bilishga urinishda yuzaga keluvchi jumboqlarni aniqlash va o'rganishga harakat qildilar.

Poststrukturalizmدا hamma narsa teng huquqli, bir xilda muhim va qimmatlidir. Bu yerda dialektik oppozitsiya tamoyiliga ko'ra tuzilgan odatdagi kategoriyalar apparati: mohiyat – hodisa, shakl – mazmun, sabab – oqibat va hokazolar o'z ma'nosini yo'qotadi. Hodisa – mohiyatni aniqlash emas, u faqat o'zini va hayot rang-barangligi qirralaridan biri sifatida ifoda etadi. Hayotning rang-barangligini esa faqat birortasi ham imtiyozli holatda bo'lishi mumkin

bo'lmagan bilish sub'ektlari pozitsiyalarining ko'p sonliligi bilan anglab yetiladi.

Poststrukturalizm o'ziga azaldan xos bo'lgan omillarning tabiiy davomi hisoblanib, nazariy harakat sifatida strukturalizm tanqidi tarzida to'rt asosiy yo'nalishda rivojlanadi:

- strukturaviylik muammosi;
- belgililik muammosi;
- kommunikativlik muammosi;
- sub'ektning yaxlitligi muammosi.

Ayni vaqtda, poststrukturalizm namoyandalari ob'ektivlik, metod va ilmiylik ahamiyatga ega emas va bilish jarayonining izlanuvchi maqsadlari sifatida amal qilmaydi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, bilish jarayoni sub'ekt, istak, tasavvur va bilishda muhim rol o'ynovchi boshqa shaxsiy fazilatlarisiz amalga oshishi mumkin emas. Shu sababli poststrukturalistik sub'ekt – bu bilim egasi va bilim himoyachisi emas, balki vazifasi qanday yo'l bilan bo'lmasin borliqqa kirishdan iborat bo'lgan afsungar, san'atkor, inqilobchi va shu kabilardir.

Xulosalar. Uzoq tarixiy davrni qamrab olgan G'arb falsafasi-ning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda antik davrda olamni bilishga kosmotsentrizm nuqtayi nazardan yondashuv birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan. Sharq falsafasidan farqli o'laroq birorta falsafiy oqim milliy din darajasiga ko'tarilmagan. Agar O'rta asrlarda falsafa din ta'sirida rivojlangan bo'lsa, Uyg'onish davrida inson, uning aqli imkoniyatlari cheksizligi g'oyasi ulug'langan. Yangi davrda bilish metodlariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, XX asrda insonning bilimi uning ichki ruhiy olamiga murojaat etilgan. Hozirgi kunda G'arb falsafasi raqamli texnologiya ta'sirida yangi bosqichga qadam qo'ymoqda.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Bekon, Dekart, Jokk, pozitivizm, neopozitivizm, postpozitivizm, strukturalizm, poststrukturalizm, evolyutsion epistemologiya, shaxsiy bilim, ilmiy inqilob, ochiq bilim, yashirin bilim, emotsional anarxizm.

### **Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Yangi va eng yangi davr falsafasining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
2. F. Bekon va R. Dekart ijodini qiyoslang.

3. J.Lokk ta'limotining o'ziga xos tomonlarini tushuntiring.
4. Pozitivizm rivojlanishining asosiy bosqichlarini va ulardan har birining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
5. Strukturalizmning poststrukturalizmdan farqi nimada?
6. Evolyutsion epistemologiyaning ahamiyati nimada?
7. Shaxsiy bilimning qanday turlari mavjud?

#### **Esse mavzulari**

1. Yangi davrda eksperimental matematik tabiyotshunoslikning shakllanishi va uning falsafaga ta'siri
2. F.Bekon – Yangi davr falsafasi asoschisi
3. R.Dekartning bilish haqidagi ta'limoti
4. T.Gobbsning ijtimoiy va falsafiy qarashlari
5. XVIII asr frantsuz ma'rifatchilik falsafasi
6. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr nemis falsafasi
7. Yangi davr nemis irratsionalizmi
8. Pozitivizm va uning evolyutsiyasi
9. Zamonaviy strukturalizm va poststrukturalizm falsafasi
10. Derrida va T.Adorno ijodining o'zaro aloqasi va farqi

#### **Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari**

1. Yangi davrda E.Torrichelli havo bosimi mavjudligini qanday yo'l bilan aniqladi?
  - A. Eksperimental
  - B. Kuzatish
  - C. Aniqlamagan
  - D. Tajriba asosida.
2. Qon aylanishini kim kashf etdi?
  - A. V.Garvey
  - B. E.Torrichelli
  - C. U.Gilbert
  - D. R.Boyl
3. Ijtimoiy fanlarda tabiiy huquq nazariyasi Angliyada kim tomonidan ishlab chiqildi?
  - A. T.Gobbs
  - B. G.Grotsiy
  - C. G.Leybnits
  - D. R.Dekart
4. Yangi davrda fanlarning rivojlanish jarayonida falsafada qanday ajralishlar sodir bo'ldi?



- A. Sxolastika va din
  - B. Tabiat va din
  - C. Sxolastika va tabiat
  - D. Falsafada ajralishlar bo‘lmadi.
5. Pozitivizmning asoschisi kim?

- A. O.Kont
- B. R.Karnap
- C. G.Spenser
- D. R. Bultman

**Adabiyotlar:**

1. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: Noshir, 2012, 1207 b.
2. Kun T. Struktura nauchnyx revolyutsiy. – Moskva: 1975.
3. Lakatos I. Falsifikatsiya i metodologiya nauchno-issledovatel’skix programm. – Moskva: 1995.
4. Popper K. Logika i rost nauchnogo znaniya. – Moskva: 1993.
5. Feyerabend P. Izbrannye trudy po metodologii nauki. – Moskva., 1986.
6. Polani M. Lichnostnoe znanie. – Moskva: 1985.
7. Riker Pol. Gernenevtika. Etika. Politika. – Moskva: 1995.
8. Kuznetsov V.G. Gernenevtika i gumanitarnoe poznanie. – Moskva: 1991.
9. Litsuk A.A. Filosofiya istorii Immanuila Kanta i Ioganna Gotliba Fixte : dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk : 09.00.03. Nijnevartovsk: 2000.
10. Vinokurov Ye.Yu. Politicheskaya filosofiya Kanta v sovremennyx filosofskix diskussiyax o global’nom politicheskom ustroystve : dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk : 09.00.03. Kaliningrad: 2001.

## BORLIQ - FALSAFA KATEGORIYASI

### **Borliq tushunchasining tahliliga oid konsepsiyalar**

Borliq falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo'lib, unda borliq va yo'qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalarning keng doirasi o'rganiladi, mavjudlik sifatiga ega bo'lgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. Borliq kategoriyasi dunyoda hamma narsaga xos bo'lgan xususiyatning o'ta umumiy tavsifi sifatida vujudga kelgan. Borliq haqidagi fan – ontologiya qadim zamonlardayoq falsafaning muhim qismi hisoblangan.

Dastlab Aristotel tomonidan asos solingan ontologiya tushunchasi 1736-yilda Kristian Vulf tomonidan olam haqidagi falsafiy bilimning ifodasi sifatida ilmiy muomalaga kiritilgan. Rudolf Goklenius narsalarning mavhumligini ifodalash uchun "ontologiya" tushunchasidan foydalangan. U uch xil - fizik, matematik va transnatural mavhumlikni farqlagan. Transnatural mavhumlik Xudo obrazida o'z ifodasini topgan. "On" - yunoncha hozirgi zamoni bo'lib "bo'lmoq" va "logos" so'zidan nimanidir haqida gapirmoq degan ma'nolarni anglatadi. Shu bois, ontologik nutqning asosi mazmunini mohiyat tashkil etadi.

Shunga ko'ra falsafa yoki fan narsalarning mavjudligini o'rganadi. Maxsus fanlar faqatgina mavjud narsalarni o'rganadi. Masalan, fizika fani barcha narsalarning fizik xossasini o'rganadi. Biologiya tirik mavjudotlarning tirikligini o'rganadi. Ontologiya olamdagi narsalarning barcha jihatlarini o'rganadi. "Mavjudlik" ontologiyaning asosiy xossasi va u bor bo'lmoq fe'li bilan tashkil topadi. Shu bois, umum qabul qilingan falsafa tilida u ontologiya deb ham ishlatiladi.

Hozirgi davrda «Ontologiya» borliq haqidagi ta'limot ma'nosida foydalaniladi. Ontologiya har qanday falsafiy dunyoqarashning negizi hisoblanadi va shu tariqa o'z tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini ko'p jihatdan belgilaydi.

Ontologik bilim serqamrov va universaldir. U amalda mavjud bo'lgan hamma narsani va ideal jarayonlarni qamrab oladi. Turli ontologik konsepsiyalar – bu dunyoni idrok etishning turli usul-laridir. Faylasuflar ularni yaratar ekan, insoniyatga u «birdan» ilgari ko'rilmagan narsaga duch kelgan va «buning nimaligi»ni tushunishning eng maqbul usulini tanlashga to'g'ri keladigan taqdirda

kerak bo'ladigan universal modellarni oldindan tayyorlashga «ijtimoiy buyurtma»ni bajaradi.

Fizika materiya va harakatning eng umumiy shakllarini o'rganadi va uning fundamental nazariyalari «butun mavjudlik»ka tatbiq etiladi.

Falsafiy ontologiya bilan fizik ontologiya o'rtasida jiddiy farq mavjud bo'lib, u biron-bir fizik nazariyaga ontologiyaning o'rnini bosish imkonini bermaydi. Falsafiy ontologiyaning fizik ontologiya bilan umumiyligi shu bilan belgilanadiki, u o'rganuvchi materiya va harakat shakllari qolgan barcha, yanada murakkabroq - kimyoviy, biologik, ijtimoiy shakllar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Fizik ontologiya «butun mavjudlik»ni (borliqning bizga ma'lum bo'lgan shakllari doirasida) qamrab oladi va o'zi aniqlagan qonunlarni butun dunyoga tatbiq etadi. Ammo u borliq nofizik shakllarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganmaydi.

Fizik ontologiyada olamning umumiy jihatlari voqelik barcha ob'ektlarining «fizik zamini» hisoblanadi. Falsafiy ontologiya esa, borliqning har qanday ob'ektlari, shu jumladan biologik va ijtimoiy ob'ektlarning o'ziga xos xususiyatlari o'rtasida umumiy jihatlarni aniqlashga harakat qiladi. Fizik ontologiyaning aniqlanuvchi umumiy xossalari – bu fizik xossalardir. Falsafiy ontologiya umumiy jihatlarni ob'ektlarning fizik xossalari va nofizik (kimyoviy, biologik, ijtimoiy) xossalari ham izlaydi.

Fizikada har qanday ontologiya, gipotetik xususiyat kasb etadi. Uning bu xossasi ilmiy nazariyalarnikidan ham kuchliroqdir. Shu ma'noda Yum va Kant tajribada ko'rilmaydigan narsalar haqidagi ontologik mulohazalar muqarrar tarzda sub'ektiv va isbotlab bo'lmaydigan farazlarni o'z ichiga oladi va shu bois ishonchsiz deb hisoblaydi. Falsafada esa ontologiya-taxmin va farazlar bilan kuchli bog'liqdir. Neopozitivistlar uning tabiiy-ilmiy bilimdan farqiga ishora qiladilar. Shunga qaramay har qanday ontologiya qanoatlantirishi lozim bo'lgan bir mezon mavjud: insoniyat ijtimoiy-tarixiy amaliyoti rivojlanishining mazkur bosqichida u mavjud bilimlar bilan ziddiyatga kirishmasligi kerak.

Turli ontologik konsepsiyalar bu mezonni turli darajada qanoatlantiradi. Sun'iy o'ylab topilgan, fanga tayanmaydigan ontologik konsepsiyalar tajriba bilan to'qnashuvni chetlab o'ta olmaydi. Mazkur mezonga falsafiy ontologiya ko'proq mos keladi.

zero uning zamirida jamiyat to'plagan tajribani umumlashtirish yotadi.

Falsafiy nuqtayi nazardan ontologik konsepsiya mavhum tushunchalarni va borliqning umumiy tamoyillarini spekulyativ tarzda tuzish yo'li bilan yaratilmasligi kerak. Bu yo'l tafakkurning voqelikdan uzoqlashishiga olib boradi. Tamoyillar va tushunchalar tabiatga muqarrar va shak-shubhasiz haqiqatlar sifatida bog'lanmasligi kerak. Aksincha, ular tabiatni o'rganishdan, fan to'plagan borliqni bilish tajribasini umumlashtirishdan keltirib chiqarilishi lozim.

Gen ontologiyasi biologiya sohasida eng muhim bo'lgan kompleks tizimlar haqidagi axborotlarni ko'rsatadi. Hozirgi kunda inson genomi loyihasi kabi bu loyihada ham uzoq muddatli yutuqlarga erishish uchun biokimyo va genetika o'rtasidagi hamkorlik olib borilmoqda. Masalan, 1998-yilda biologlar tomonidan gen ontologiyasi nazariyasi ishlab chiqilgan 2003-yilda "Biomedikal ontologiya" tashkiloti tuzilgan. Bu tashkilot gen ontologiyasi metodlari asosida ontologiya sohalarni rivojlantirish bilan shug'ullanmoqda. Gen ontologiyasi loyihasi faqat ma'lumotlar bazasi emas balki, gen va gen mahsulotlari haqidagi terminlarni ham o'z ichiga oladi.

### **Borliq tushunchasining etimologiyasi.**

Mifologiya «borliqni kim yaratgani» haqida gapirib berishni, falsafa esa «borliqning nimaligi, u qanday paydo bo'lgani va qayerga yo'qolishi»ni oqilona tushuntirish bilan shug'ullanadi. Bunday tushuntirishga urinish jarayonida faylasuflar barcha zamonlarda quyidagi savollarga javob topish zaruriyati bilan to'qnash kelganlar: falsafiy kategoriya sifatidagi «borliq» nima?, bu atama nimaga nisbatan tatbiq etilishi mumkin?, unga qanday falsafiy ma'no yuklanadi? Bu savollarga keng javob berish falsafa tarixiga ham, mazkur tushunchaning etimologiyasiga ham murojaat etishni nazarda tutadi.

«Borliq» falsafiy kategoriyasi dunyoning, ayniqsa, keng tarqalgan tillarida ayni bir ma'no – «bo'lish», «mavjud bo'lish», «hozirlik», «hozir bo'lish», «mavjudlik» ma'nolarini anglatadi. Jahonning aksariyat tillarida yuqorida sanab o'tilgan va ma'no jihatidan unga yaqin fe'llar negizini tashkil etadigan «bo'lmoq» fe'li, o'zining bevosita ma'nosidan tashqari, yordamchi fe'l sifatida ham faol ishlatiladi. Fikr qaratilgan narsa mavjudligi yoki mavjud emasligining ayni shu dalili har qanday tilning ilk jumllaridayoq tom ma'noda universal fe'l (yoki uning modifikatsiyalari) bilan aks

ettiriladi: o'zbek tilida - «bo'lmoq», «bor», ingliz tilida – is, nemis tilida – ist va h.k.

Shunday qilib, «borliq» va «yo'qlik» kategoriyalarining o'ziga xosligi, betakrorligi va universal ahamiyati shundan iboratki, ularning falsafiy ma'nosi tavsiflanadigan turli tillarda ular «bo'lmoq» fe'lidan (yoki uning inkoridan) hosil bo'lgan tushunchalar hisoblanadi va narsaning o'zini emas, balki uning mavjudligi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, stol bor, yomg'ir yo'q, oqlik bor, aks yo'q, miya bor, g'oyalar yo'q va h.k.

### **Borliq va yo'qlik dialektikasi**

Falsafa tarixida birinchi bo'lib Parmenid «Borliq bor, yo'qlik esa – yo'q», degan fikrni ilgari surgan. Binobarin, yaxshi, yomon, to'g'ri, noto'g'ri, quvnoq, sho'r, oq, qora, katta, kichkina kabi va shunga o'xshash sifatlarni borliqqa nisbatan qo'llanilishi mumkin emas. Borliqni biron-bir koordinatalar tizimiga joylashtirib bo'lmaydi, faqat vaqtda fikrlash mumkin. Muhtasari qilib aytganda, borliqni har qanday voqelik ega bo'ladigan umumiy, universal va betakror mavjudlik qobiliyati, deb tavsiflash mumkin. Bu fikr esa amalda mavjud narsagina borliqqa ega bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

«Yo'qlik» har qanday tilda amalda mavjud bo'lmagan narsa bilan tenglashtiriladi va boshqacha tushunilishi mumkin emas. Boshqacha aytganda, yo'qlik borliqni inkor etadi va narsa, jism, hodisa, ong... (ya'ni amalda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan narsalar) o'zligini yo'qotgan holda «yo'qlik» atamasi ishlatiladi va ular haqida ular «yo'qlikka chekindi», mavjud emas, deyiladi. Lekin sof falsafiy ma'noda bu fikrni to'g'ri deb bo'lmaydi.

### **Borliq va yo'qlik o'rtasida dialektik o'zaro aloqa mavjud.**

Birinchidan, dunyo haqidagi hozirgi tasavvurlarga ko'ra, biz yashayotgan Olam bo'shliqdan bino bo'lgan. Bo'shliq materiyani alohida holati. Bo'shliq fizik borliqning eng boy tipi, o'ziga xos potentsial borliq sifatida namoyon bo'ladi, zero, unda mumkin bo'lgan barcha zarralar va holatlar mavjud, biroq ayni vaqtda unda aktual tarzda hech narsa yo'q. Fiziklar D.A.Landau, va boshqalar nuqtayi nazaridan biz yashayotgan Olam ham dunyoda yagona emas, chunki u rivojlanishning turli sikllarini boshidan kechirayotgan turli olamlarning cheksiz sonidan tashkil topadi. Shu ma'noda borliq va

yo'qlikning o'zaro aloqasi ham nisbiy xususiyat kasb etadi. (bu fikr qadimgi mifologiyada olamning xilma xilligi g'oyasi bilan uyg'un).

Ikkinchidan, amalda mavjud bo'lgan narsaning ob'ektiv borlig'i yo'qlikka chekinadi, lekin, shunga qaramay u haqda gapirilayotgan, ya'ni u muayyan narsa sifatida fikrlanayotgan bo'lsa, bu narsa ongda mavjud bo'ladi va o'zining «ikkinchi» borlig'ini saqlaydi, ayni holda u dastlabki ob'ektning nusxasi, ideal obrazi bo'lib qoladi.

Shunday qilib, o'tgan zamondagi borliq yo'qlikdir. Borliq doim hozirgi zamonda mavjud bo'ladi, u faqat hozirgi zamonda o'zini namoyon etadi, basharti u dolzarb va amalda namoyon bo'lish imkoniyatiga ega bo'lsa, agar u potentsial, ya'ni axborot manbalarida mavjud yoki uning paydo bo'lishi ob'ektiv rivojlanish mantig'i bilan belgilangan bo'lsa. Amalda yo'q bo'lgan narsa haqida ideal obraz sifatida fikrlash mumkin. Boshqacha aytganda, unga ideal obraz tarzidagi ideal borliq shakl-shamoyilini berish mumkin. Demak o'tmish yuqlik emas, borliqning ideal obrazi, bor narsaning yangi qiyofasiga tatbiqan biz borliq haqida faqat shu ma'noda so'z yuritishimiz mumkin.

Ayni shu ma'noda biz g'oyalar, narsalar, voqealar, tarixiy shaxslar yoki o'zimizga yaqin odamlar to'g'risida so'z yuritamiz, bunda ular yo'qlikka aylanmagani, balki yangicha mavjudlik, xotira tarzidagi o'zgacha borliq kasb etganini nazarda tutamiz. Shunday qilib, borliq falsafiy kategoriya sifatida dunyoni butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon bo'lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi. Bunda narsalar, predmetlar, hodisalar o'z xususiyatlari, xossalari bilan jamuljam holda aks etadi. Dunyoni va uning tarkibiy qismi bo'lmish insonni bilish yo'lidagi bu muhim qadam bilan dunyoning tabiati va mohiyati, uning rang-barangligi, turli darajalari, ko'rsatkichlari, ramz-alomatlari, shakllari va hokazolar haqidagi mulohazalarning asosiy koordinatalar tizimi belgilanadi. Buning uchun mohiyat, hodisa, substantsiya, materiya, ong, makon, vaqt, qonun kabi yangi falsafiy kategoriyalar muomalaga kiritiladi.

Inson o'zi va umuman dunyo haqida o'ylar ekan, odatda muayyan narsalar va ayrim tabiiy hodisalar bilan ish ko'radi. Ayni vaqtda u o'zini qurshagan dunyoni sinchiklab o'rganish va uning butun rang-barangligini tushunib yetish uchun muayyan tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladigan qandaydir asosning shakl-shubhasiz mavjudligini qayd etadi. Falsafa tarixidan biz bunday asos sifatida,

masalan, Suqrotidan oldingi qadimgi yunon faylasuflarida tabiat elementlari, o'rta asrlar falsafasida Xudo, Dekartda: «Men fikrlayapman, demak, mavjudman», degan ongli inson amal qilganini ko'ramiz. Ammo inson bilishning bu birinchi bosqichida to'xtab qolmagan va o'zini qurshagan borliqning ko'p sonli turli-tuman holatlari orasida qolgan barcha narsalardan sezilarli darajada farq qiladigan narsalarni, borliqning ayni shu shakli voqelikning boshqa shakllari va holatlaridan nima bilan farq qilishini aniqlashga harakat qilgan. Bugungi kunda insoniyat borliqning ko'p sonli turli-tuman shakllaridan ularning ayniqsa aniq bo'lgan bir nechtasini farqlash imkonini beradigan tajriba va bilim to'pladi.

### **Sof borliq g'oyasi**

«Sof borliq» - bu o'z holicha, barcha konkret belgilaridan xoli ko'rinishda olingan mavjudlik. Biz yuqorida ta'kidlagandek, Parmenid (miloddan avvalgi VI asr) borliq tushunchasidan yo'qlikning mavjud emasligi kelib chiqishini isbotlashga uringan. Amalda biz yo'qlik haqida hatto fikrlay ham olmaymiz, chunki agar biz u haqda o'ylasak, u bizning fikrimizda mavjud bo'ladi, ya'ni borliq sifatida fikrlanadi. Binobarin, yo'qlikni tasavvur qilish ham mumkin emas, bu esa uning mavjud emasligini anglatadi. Ammo yo'qlik bo'lmasa, hech narsa paydo bo'lishi ham, yo'q bo'lishi ham mumkin emas. Chunki paydo bo'lish yo'qlikdan bor bo'lish, yo'q bo'lish esa - yo'qlikka aylanishdir. Bundan xulosa shuki, borliq «harakatsiz», unda biron-bir o'zgarish bo'lishi mumkin emas: har qanday o'zgarish nimaningdir paydo bo'lishi va yo'q bo'lishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, borliq yagona, bir jinsli va bo'linmas: uni qismlarga faqat yo'qlik ajratishga qodir, lekin u mavjud emas. Borliqning chegarasi bo'lishi mumkin emas, uning boshi ham, oxiri ham yo'q, zero, hamonki yo'qlik mavjud emas ekan, borliqni cheklashga qodir bo'lgan narsa ham mavjud emas.

Gegelning ontologik konsepsiyasida «sof borliq» kategoriyasi "Mutlaq g'oya" rivojlanishining tayanch nuqtasi hisoblanadi. «Sof borliq» va «sof yo'qlik»ning ayniyligini qayd etgan holda, Gegel bu qarama-qarshiliklar sintezidan iborat bo'lgan «shakllanish» tushunchasini kiritadi (zero shakllanish nimaningdir borligini anglatadi, chunki «shakllanmoqda», vujudga kelmoqda, lekin hali borliqqa ega emas, chunki «shakllanmagan», vujudga kelmagan). Shundan so'ng Gegel shakllangan nimadir «shakllanish»ning natijasi

bo'lishini qayd etadi. Bu natija, Gegel fikriga ko'ra, «mavjud borliq», ya'ni «sof borliq»dan farqli o'laroq, aniq sifatga ega bo'lgan borliqdır.

Gegelning shakllanish g'oyasi muayyan narsaning shunday bir holatiki, unda shakllanayotgan narsa bir vaqtning o'zida ham mavjud bo'ladi, ham mavjud bo'lmaydi, degan fikriga qo'shilish mumkin emas. Ammo har qanday shakllanish – bu qandaydir predmetning «sof yo'qlik»dan emas, balki ilgari mavjud bo'lgan boshqa predmetlardan vujudga kelishidir. Har qanday «mavjud borliq» «sof borliq»dan va «yo'qlik»dan emas, balki boshqa bir «mavjud borliq»dan vujudga keladi. Gegel fikriga zid o'laroq, «sof borliq»ning «sof yo'qlik»ka o'tishi tushunchalar o'yinidan boshqa narsa bo'lmay, bundan amalda sifat jihatidan aniq biron-bir borliq vujudga kelmaydi (buni XIX asrdayoq L.Feyerbax va boshqa tanqidchilari qayd etgan).

Ontologiyani «sof borliq» va «sof yo'qlik» kategoriyalari yordamida tuzishga intilish XX asrning ayrim faylasuflari ijodida ham kuzatiladi (M.Xaydegger, Ye.Fink va b.). Ammo fikrning mazmunini nima fikrlanayotganini ko'rsatmasdan yoritish mumkin bo'lmagani-dek, borliq kategoriyasining mazmunini borliq nima ega ekanligini ko'rsatmasdan yoritish mumkin emas. Fikr hamisha nima haqdadir fikr bo'lgani kabi, borliq har doim nimaningdir borlig'idir. «Sof borliq» ham xuddi «sof yo'qlik» kabi mazmunsizdir (bunda Gegel haq). «Sof borliq» tushunchasi quruq mavhumlikdan boshqa narsa emas.

### **Falsafa tarixida borliq g'oyasi**

Borliqni falsafiy anglab yetishga ilk urinishlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikda vujudga kelgan qadimgi Markaziy Osiyo, hind va qadimgi xitoy falsafalaridayoq kuzatiladi. Xususan, Markaziy Osiyoning eng qadimiy kitobi "Avesto"da borliq harakatdagi dunyo, butun jonli va jonsiz narsalarning uyg'unligidagi mavjudlik deb ifodalanadi.

Vedalar (qadimgi hind tafakkurining ilk yodgorliklari) va (ularga diniy-falsafiy sharhlar) –Upanishadalarda yaxlit ma'naviy substantsiya, o'lmas jon haqidagi g'oyalar, shuningdek dunyo haqidagi tasavvurlar o'z aksini topgan. So'nggi zikr etilgan tasavvurlarga muvofiq butun borliqning negizini tabiiy asoslar – olov, havo, suv, yorug'lik, makon, vaqt tashkil etadi. Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga yetishga harakat qilar ekanlar, quyosh tunda, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo'qoladi kabi savollarga



javob topishga uringanlar va bu tasavvurlarni eng qadimgi kitob – Rigvedalarda aks ettirganlar.

Qadimgi Xitoy falsafasi avvalo ijtimoiy muammolarga qarab mo'ljal olgan, unda inson borlig'iga, shuningdek ijtimoiy borliqqa ko'proq e'tibor berilgan. Ayni vaqtda, tabiatning birinchi asoslari ham e'tibordan chetda qolmagan. Bu qiziqish, xususan, narsalar va hodisalarning butun rang-barangligini belgilovchi besh stixiya (suv, yer, daraxt, temir, olov) haqidagi ta'limotda o'z aksini topgan. Keyinroq "O'zgarishlar kitobi"da borliqning butun rang-barangligini tashkil etuvchi bunday birinchi asoslarning sakkiztasi qayd etiladi.

Xudolarning kelib chiqishi, ularning hayoti, ishlari, o'zaro kurashi haqida hikoya qiladigan va shu tariqa qadimgi odamlarning dunyoning vujudga kelishi va evolyutsiyasi haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan kosmogonik miflar tabiat falsafasi sifatida yuzaga kelgan va rivojlangan yunon falsafasining birinchi manbai bo'lib xizmat qildi. Ilk yunon faylasuflari o'z asarlarini odatda "Tabiat haqida" deb nomlaganlari, ularning o'zlari esa naturalistlar, "fiziklar" deb atalishi bu fikrni tasdiqlaydi.

Qadimgi yunon falsafasi vujudga kelgan paytdan boshlab ular butun borliqning birinchi sababini mavjud voqelikning o'zidan izlaganlar, uni dam suv (Fales) yoki havo (Anaksimend) deb, dam hamma narsani boshqaradigan boqiy va cheksiz asos – «apeyron» (Anaksimandr taxminan mil. av. 611-545-yillar) deb tavsiflaganlar. Anaksimandr hatto jonli mavjudotlarning tabiiy kelib chiqishi g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, mazkur mavjudotlar dengiz suvida vujudga kelgan va suv o'tlaridan paydo bo'lgan. So'ngra baliqsimon mavjudotlar quruqlikka chiqqan va ulardan odamlar rivojlangan. Shunga o'xshash fikrlarni Ksenofan (mil. av. 580-490-yillar) ham ilgari suradi. U hamma narsa yer va suvdan vujudga keladi va rivojlantiradi, hatto «biz ham yer va suvdan paydo bo'lganmiz», deb hisoblaydi.

O'sha davrning bosh falsafiy masalasi – «hamma narsa nima?» degan savolga, Pifagor (mil. av. 580-500-yillar) «hamma narsa sonidir», deb javob beradi. U Yerning sharsimonligi haqidagi g'oyani birinchi bo'lib ilgari suradi.

Parmenid (mil. av. 540-480-yillar) faylasuflar orasida birinchi bo'lib borliqni kategoriya sifatida tavsiflagan va uni maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylantirgan. U haqiqiy borliq mohiyatining

o'zgarishligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Parmenid fikricha, borliq paydo bo'lmagan va u yo'q ham bo'lmaydi, chunki undan boshqa hech narsa yo'q va bo'lishi mumkin ham emas. Borliq yagona (uzluksiz), harakatsiz va barkamoldir. U o'z chegaralariga ega bo'lib, «ulkan mutlaqo yumaloq Sharga» o'xshaydi.

Elcatlar maktabi vakili bo'lgan (samoslik) Melis «Tabiat yoki borliq haqida» deb nomlangan asarida borliq chegarasiz deb qayd etadi. Uning fikricha, agar borliqning chegarasi bo'lsa, bu borliq yo'qlik bilan chegaradoshdir. Biroq hamonki yo'qlik mavjud emas ekan, borliq ham chegarali bo'lishi mumkin emas.

Shunday qilib, qadimgi yunon falsafasining Suqrotga qadar bo'lgan davrida ontologiya sezilarli darajada rivojlangan: o'sha davr atoqli faylasuflarining deyarli barchasi borliq muammosini bevosita yoki bilvosita o'rganib, uni, boqiy va barkamol kosmos, «yagona tabiat», ya'ni moddiy-hissiy dunyo bilan tenglashtiradi. Masalan, Empedokl (mil. av. 484-421-yillar) «borliq» atamasini bevosita ishlatmagan bo'lsa ham, «barcha narsalarning to'rt negizi» (olov, havo, suv va yer) haqida so'z yuritgan ekan, dunyo (kosmos) tuxumsimon ko'rinishga ega deb hisoblagan, hayot nam va issiq suv o'tlaridan kelib chiqqani haqida mulohaza yuritgan. Demokrit va Levkipp atomlarni muayyan modda sifatida tavsiflab, ularni «bo'shliq» - yo'qlikka zid o'laroq, «to'la» yoki «qattiq» borliq bilan tenglashtirgan.

Shu davrda borliqni tushinishga nisbatan dialektik yondashuv ilk bor namoyon bo'ladi. Geraklit (mil. av. 544-483-yillar) butun dunyo muttasil harakat va o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi deb hisoblagan va shu munosabat bilan «ayni bir narsa mavjud va nomavjuddir» deb qayd etgan.

Aristotel (miloddan avvalgi 322-384-yillar). «Borliq nima?» degan savol qo'yib, tafakkur va borliqning bir xilligi g'oyasini ilgari surgan. Aristotelning fikricha, «borliq kategorial so'zlash shakllari orqali ifodalanuvchi barcha narsalarga o'z-o'zidan bog'lanadi. Zero, bunday so'zlash usullari qancha bo'lsa, borliq ham shuncha ma'noda ifodalanadi. Ayrim iboralar narsaning mohiyatini, ayrimlari - sifatini, ayrimlari - miqdorini, ayrimlari nisbatini, ayrimlari harakati yoki o'zgarishini, ayrimlari «qaerda»ligini, ayrimlari «qachon»ligini anglatgani sababli, borliq ularning har biriga mos ma'nolarga ega bo'ladi»

Aristotel ontologiyasi asosida uchta ta'limot yotadi:

a) borliqning kategorial tahlili (kategoriyalar haqidagi ta'limot); b) borliqning kauzal tahlili (borliqning sabablari haqidagi ta'limot); v) borliqning imkoniyat va voqelik munosabati orqali tahlili. (imkoniy borliqdan voqelikka o'tish jarayonining tahlili). Demak, Aristotel ontologiyasini tushunish uchun ana shu uch ta'limot yoki tahlil mazmuniga tayanish kerak.

Platon falsafa tarixida birinchi bo'lib (mil. av. 427-347- yillar) nafaqat moddiy, balki ideal narsalar ham borliqqa ega ekanligini ko'rsatib berdi. Platon «ob'ektiv mavjud g'oyalar dunyosi»ni «hissiy borliq»qa qarama-qarshi qo'ydi. Bunda u inson ongida mustaqil mavjud bo'lgan tushunchalar borlig'ini ham ko'rsatib o'tdi va shu tariqa ilk bor «borliq» tushunchasiga amalda mavjud bo'lgan barcha narsalarni kiritdi.

Tarixda borliq muammosiga oid Demokrit va Platon yondashuvlari faqrlanadi. Birinchi Demokrit yondashuviga ko'ra borliq turli tarzda ongda aks etadi va naturalizm sifatida namoyon bo'ladi. Bu holda borliq muayyan empirik harakatlarga bog'liq bo'ladi va insonning har bir kuni nimadan tashkil topsa, shuning o'zidagina tashkil topadi.

Ikkinchi Platon yondashuvi borliqning mohiyati xususida alohida mushohada yuritishga yo'naltiradi, bunda borliq g'oyaga, erishib bo'lmaydigan orzuga, amalga oshmaydigan, noreal jarayonga aylanadi. Borliqning mazkur sxolastik talqini shiorlar, dasturlar, chorlovlar va deklaratsiyalarda hozirgacha mavjud. Real hayot jarayonida bu ikki qarama-qarshi yondashuv yakka, xususiy va umumiyning o'zaro aloqadorligi bilan barham topadi. Zero, o'zining yakaligida o'z umumiylikni ifoda etmaydigan, o'zining mavjudlik holati bilan o'zgarish va yo'q bo'lishni nazarda tutmaydigan bironta ham narsa va hodisa yo'q. Voqealar borliqning mohiyatini namoyon etadi, haqiqiy hayot faoliyatining parchasi tarzida yangi sifat kasb etadi. Ushbu jarayondagi shakllanish, o'zgarish, rivojlanish hayot jarayonining tarkibiy qismlaridir. Keyinchalik falsafa tarixida borliqning ko'p sonli har xil talqinlari shakllandi, lekin ularning barchasi borliq haqidagi hissiy va oqilona tasavvurlar atrofida u yoki bu tarzda tiziladi. Bunda fikrlar va yondashuvlar rang-barangligi namoyon bo'ladi.

## **O'rta asrlar G'arb va Sharq falsafasida borliq haqidagi g'oyalar tasnifi**

O'rta asrlar G'arb va Sharq falsafasida "Haqiqiy borliq" – "Xudoning borlig'i" va "haqiqiy bo'lmagan", Xudo yaratgan borliq farqlanadi. O'rta asrlarda borliqning oliy asosi Xudodir. Barcha barkamolliklar yig'indisi sifatida Xudo mavjudlik xususiyatiga ham egadir, chunki mavjud bo'lmagan mavjudot nomukammaldir. Binobarin, hamma narsaning mavjudligi Xudoda mujassam. Xudo borligi to'g'risidagi ontologik dalilning shiorlaridan biri ana shundan iboratdir. Unga ko'ra, butun dunyoni bir joyga bo'ysunish, quyi va oliyning subordinatsiyasiga asoslangan ierarxik tuzilmalar qamrab olgan. Bunda inson ruhi va ilohiy asosning o'zaro ta'siri masalasi bosh muammoga aylanadi.

Foma Akvinskiy ontologiyasida borliq ham ehtimol tutilgan, ham amalda mavjud deb qaraladi. Borliq - ayrim narsalarning mavjudligi, ya'ni substantsiyadir. Foma Akvinskiy imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalar bilan bir qatorda materiya va shakl kategoriyalarini ilmiy muomalaga kiritadi. Bunda materiya imkoniyat sifatida, shakl esa – voqelik sifatida qaraladi.

Foma Akvinskiy Aristotelning shakl va materiya haqidagi asosiy g'oyalaridan foydalanib, din haqidagi ta'limotni ularga to'la bo'ysundiradi. Materiya shaklsiz mavjud bo'lmaydi, shakl esa oliy shaklga yoki «shakllarning shakli» - Xudoga bog'liqdir. Xudo esa sof ma'naviy mavjudot. Shaklning materiya bilan birikuvini moddiy dunyo uchungina zarur. Boz ustiga materiya (Aristoteldagi kabi) passivdir. Unga shakl faol tus beradi. Foma Akvinskiy «ilohiy borliq», hamonki u o'z-o'zidan ravshan narsa emas ekan, tafakkurimiz anglashga qodir bo'lgan narsalar orqali isbotlanishi lozim. U Xudo borligining hozirgi zamon katolik cherkovi ham foydalanuvchi o'z dalil-isbotini taklif qiladi. Demak, o'rta asrlarning borliq muammosi teotsentrik xususiyatga ega.

Sharqning buyuk mutafakkiri Forobiy "Fuqarolik siyosati" va "Fozil shahar odamlari" asarida borliq va uning ibtidosi haqida fikr yuritadi. Forobiy fikricha borliq "vujudi vojib" va "vujudi mumkin"ning o'zaro nisbatida namoyon bo'ladi. Uning fikricha, "vujudi vojib" barcha mavjud yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarning birinchi sababi. Birinchi sabab sifatida u o'zga turtkiga muhtoj emas. U mutloq borliq va donishmandlik ifodasi. "Vujudi mumkin" esa doi-

mo o'zgarishda, ziddiyatli munosabatlarda bo'lib, unda barcha narsalar oddiydan murakkabga, tartibsizlikdan tartiblilikka qarab harakat qiladi. "vujudi vojib" yaratgan eng buyuk voqelikdan biri inson aqlidir. U "Fuqarolik siyosati" asarida borliqni olti darajaga bo'ladi:

1. Birinchi holatdagi sabab.
2. Ikkinchi holatdagi sabab.
3. Uchinchi holatdagi aqli faol.
4. To'rtinchi holatdagi instinkt.
5. Beshinchi holatdagi shakl.
6. Oltinchi holatdagi materiya.

Forobiy bu darajalarning har biriga ta'rif beradi. Keyin u "uchinchi aql" - aqli faolni ta'riflaydi. Unga ko'ra, aynan "aqli faol"ga ko'ra, insonning tabiiy, ma'naviy va ruhiy hayoti shakllanadi. Forobiy dunyoning rang-barangligini tushuntirish uchun Aristotelning shakl va materiya haqidagi ta'limotidan foydalangan. Forobiy borliqning birinchi sababi va harakat manbai sifatida Xudo mavjud deb hisoblagan bo'lsa-da, uning falsafasi bilish va borliqning murakkab masalalarini yechishga intilish bilan tavsiflanadi. Ayni shu sababli faylasuf borliqning holatlarini, uning shakllarini: oddiy elementlar - havo, olov, yer, suvni; shuningdek minerallar, o'simliklar, hayvonlar, inson va osmon jismlarini sinchiklab o'rganadi. Shu tariqa u tashqi dunyoning ob'ektiv mavjudligiga urg'u beradi. Forobiyning falsafiy qarashlari Sharq falsafasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Ibn Sino fikricha ham borliqning asosi "vujudi vojib", ya'ni Oллоhdir. Vujudi vojib bu birinchi mohiyat. Uning mavjudligi sababini boshqa narsalardan izlash noo'rin. Chunki birinchi sabab uning natijasi bo'lgan xilma-xil jarayonlarning mohiyatiga bog'liq bo'la olmaydi. U yagona, abadiy mohiyat. Unda kamchilik va qusurlar bo'lishi mumkin emas. Vujudi vojib doimiy faol, unda toliqish sustlik bo'lishi mumkin emas. Vujudi vojibning mavjudligi uning o'ziga bog'liq. Vujudi vojib vujudi mumkinning yaratuvchisi. Vujudi mumkinning ichki mohiyati harakat bilan bog'liq. Vujudi vojib va vujudi mumkin bir biridan karami va saxovati bilan farq qiladi. Ibn Sino vujudi mumkin, ya'ni yaratilgan jism va harakat doimo bir biri bilan bog'liq deb hisoblaydi. Harakat-harakatlaniruvchi, harakatlanuvchi, masofa, ibtido, chegara va vaqt kabi omillar bilan bog'liq. Harakat va vaqt funksional munosabatda amal qiladi. Uzluksiz faollik yaratuvchining muhim jihatidir. Ibn Sino harakatning uchta turini

asoslaydi: Aktsidental harakat - bunday harakatda jism boshqa jism tarkibida bo'lib, o'sha ob'ektlar harakati bilan birga harakat qiladi, bir joydan boshqa joyga ko'chadi, lekin jism o'z tarkibidagi jismlarga nisbatan o'z maqomini o'zgartirmaydi. Majburiy harakat – bunday harakatning sababi uning o'zida emas, balki undan tashqaridadir. Masalan, mashina odam tashiydi.

Tabiiy harakat-bu jismning o'z-o'zidan harakatidir. Tabiiy harakat to'g'ri chiziq bo'yicha harakat va aylanma harakat shaklida namoyon bo'ladi. (chaqmoq, momaqaldiroq, zilzila).

Ibn Sinoning borliq haqidagi qarashlari keyingi mutafakkirlar ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### **Tasavvuf ta'limotida borliqqa munosabat**

Tasavvufda oriflar va oshiqlar o'zlarining poetik asarlarida va mifologik g'oyalari borliq haqidagi bilimlarini bayon etganlar. Poetik ontologiyada birinchidan, ramz, majozlar, qiyos va h.k. ko'p. Ikkinchidan, ushbu ontologiya inson tafakkuriga emas, ko'proq tuyg'ularga yo'nalgan. Ayniqsa, musiqa jo'rligi, tasviriy san'at asarlarida namoyon bo'lgan, «Aruz» vaznida bitilgan maqomlarda kuylangan. Uchinchidan, poeziya qalb faolligining mahsuli hisoblanadi va u asosan, tuyg'ularga ta'sir etadi. Buni anglash mantiqiy tafakkurdan yuqori shakl, deyish mumkin. Shu ma'noda poeziyani tushunish uchun ongning mantiqiy (nazariy) tafakkurdan yuqoriroq shakli – intellektual intuitsiya taqazo etiladi. Chiziqli (mantiqiy) tafakkurning o'zida esa, na intellektual va na estetik (hissiy) intuitsiya ishtirok etmaydi. Shu ma'noda A.Navoiy aytganidek, majozlar haqiqatga ancha yaqinroq. To'rtinchidan, ramzlar, majozlar hammaga ham aytilishi mumkin bo'lmagan ba'zi g'oyalarni muayyan odamlargagina yetkazish vazifasini bajargan.

Sufiylar may majozini har qanday odamga emas, balki faqat Xudoning marhamati bilan u bilan aloqaga muyassar bo'lgan muayyan (maxsus) insonlargina boshdan kechiradigan zavqu - shavq, jazba holatini ifodalash uchun qo'llaganlar. Alisher Navoiy bu ramzlarni quyidagicha tushuntirgan:

Sen gumon qilg'ondin o'zga jomi may mavjud erur,

Bilmayin nafy (inkor) etma, mayxona ahlin zohido.

Ushbu g'azaldagi ontologik va gnoseologik g'oyalar quyidagicha: 1. Quyoshning nurlari Xudo (mohiyat)dan kelib chiqadi; 2. Agar inson dunyoviy tashvishlardan ko'nglini (diqqatini) uzib

mohiyatga yuzlana olsa, uning qalbi ham zavqdan xuddi quyoshday porlab ketadi: 3. Inson mohiyatan Xudoga yetishadi, birlik (vahdat) zavqini tuyadi.

Tasavvuf prozasida ham shu kabi ramzlar ishlatiladi. Masalan, Ibn Sinoning «Hay ibn Yakzon» asarida (qush – jon – tayr forscha. Semurg' - Xudo (mohiyat, Vahdat) tuban nafs – yirtqich hayvon va bilan ifodalangan). Abu Said Mayhoniy borliqning mohiyati, ya'ni Xudoni shunday ta'riflaydi:

Jon dildagi bir suvratu (Platon, Aristoteldagi «shakl») ma'no (ushbu sur'atga ma'no bag'ishlaguvchi, ya'ni strukturlab (tuzish) o'sha shaklni olishga ta'sir qilgan kuch) Sensan.

Maqsidi hama din ila dunyo Sensan,

Ham barcha uchun ma'shuqi tanho Sensan

Lek kimga nihon (yashirin), kimga xuvaydo (namoyon) Sensan.

Sufiy Ahmad Jomiyning quyidagi misralarida, panteistik ontologiya yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu satrlarda u Xudoning tilidan shunday yozadi: Men barcha mavjudotlarda bo'laman paydo,

Men odam libosida ham bo'ldim xuvaydo.

Zotim barcha ashyolarda bo'lur namoyon.

Bari menu. o'zga narsa bo'lmaydi paydo,

Manam dar kulli mavjudot paydo.

Manam bir kisvati odam xuvaydo.

Ba zohir zoti dar jumla oshiist,

Manam jus' man naboshat hech paydo.

Mashrab g'azalida esa ontologiya quyidagicha tavsiflanadi:

Bu tani xokiyniyu ruhi ravonni na qilay,

Bo'lmasa qoshimda janona, bu jahonni na qilay.

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq na qilay.

Ibrohimdin qolg'on ul eski do'konni na qilay.

Urayinmu boshima behishtu do'zoxin,

Bo'lmasa yor vasli menga jahonni na qilay.

Zarrai nuri quyoshdek bu jahon ichra tamom,

Oshkora bo'lsa, bu sirri nihonni na qilay.

Arshning kungurasin ustiga qo'ydim oyogim,

Lomakondin xabar topdim, bu makonni na qilay.

Ushbu misralarda jannat (osmonlar)ning va do'zaxning strukturasi (8 qavatli) hamda Arshning makonsizligi (lomakon) haqidagi g'oyalar o'rin olgan. Zero, makonsizlik Xudoning zotiga

tegishli sifat bo'lib, bu sifat materiyasiz sof mohiyatni bildiradi. Tasavvuf mistik poeziyasida Olam (kosmos) yaratilishining ilk manzarasi jarayoni ham juda jonli ifodalangan.

A. Navoiyning badiiy mistik ontologiyasi «Lison ut – tayr» asarida yorqin ifoda etilgan. Unga butun olamdagi barcha mavjudot bir xil, dastlabki ulug' (moya) yoki javhar – ilohiy substantsiyaning zaruratidir. Xudo bu mavjudotlardan tashqarida emas, balki ularning o'zida mavjuddir Koinot (kosmos, olam) uning mir'ati (oynasi, ko'zgusi) va undagi barcha mavjudot Xudoning zuhurati botinlik ichki, noayyonlik holatidan ayonlik, tashqi, ko'rinadigan (seziladigan) holatga o'tishidir. Asar muqaddimasidayoq Navoiy Xudoning xillaridan biri bo'lgan insonni ilohiyligini va uni olam yaratilishining bosh maqsadi ekani g'oyasini bayon etadi.

Jaloliddin Rumiyning "Masnaviylar" asaridagi tasavvuf poetik ontologiyasidan mashhur nemis faylasufi Gegel ta'sirlanib, o'zining dialektik ta'limotini ishlab chiqqan. Rumiyning «Vahdati Vujud» tushunchasi orqali Vahdati vujud konsepsiyasi namoyondalari kabi «birdan – bir mavjud narsa Ollohdir, qolgan hamma narsalar uning nuri, shu'lasini va «bu dunyo» ham haqiqat, lekin u yashirin dunyoning namoyonlik shaklidir deb hisoblaydi. Shuning uchun inson bu dunyoga emas, balki yagona Ollohga muhabbat bilan intilishi kerak, deb hisoblaydi. Bu uning panteizmi (yunon pan – hamma narsa va theos – Xudo) – ya'ni hamma narsa Xudo ekani haqidagi ta'limotidir. Panteizmning 4 shakli mavjud: 1. Teomonistik – (Akosmizm); u faqatgina Xudo mavjud, olam mustaqil mavjud emas, degan g'oyaga asoslanadi. 2. Fiziomonistik – Xudoni dunyodan ajratib, dunyo nomavjud, deb hisoblaydi; (faqat olam, tabiat mavjud va u Xudodir, deb hisoblaydi, Xudoning mustaqil mavjudligidan voz kechiladi. 3. Transsendent – (mistik); «hamma narsa Xudoda (Xudo ichra) mavjud» ligi haqidagi ta'limot. Olam Xudoda mavjud va olam Xudoning namoyon bo'lishi (shakllanishi)dir, degan g'oyaga asoslanadi. Buning asosi - emanatsiya (neoplatonizm)dir. 4. Immanent – transsendent; Xudo narsa (ular orqali) o'zligini amalga oshiradi.

Aziziddin Nasafiyning ontologik qarashlari «Zubdat ul – Haqoyiq» «Haqiqatlar qaymog'i» asarida o'z ifodasini topgan. U borliqni Olami Kubro (katta, ulug' Olam, yunon falsafasidagi Makrokosm) va Olami sug'ro (Kichik Olam, inson borlig'i, yunon falsafasidagi Mikro-kosm)ga ajratadi hamda ular orasidagi uzviylikni ko'rsatadi. Asarning



birinchi bobi Olami Kubro, (makrokosm, kosmos) uning kelib chiqishi, strukturasi va boshqa ontologik muammolarni yoritishga bag'ishlangan.

Nasafiy fikricha, bizni qurshagan Olam (kosmos) zang (javhar, substantsiya) va sifatlarning ismlaridan iboratdir (substantsiya va aksidentsiya). Olam Olami g'ayb (yashirin olam), va Olami shuhud (shohidlik, ya'ni ko'rinuvchi olam)dan tashkil topgan. Har ikki olam miqdoriy va umumiy (yaxlit) ma'nolarda turli nomlarda tilga olinadi. Masalan, holiqiyat (yaralmishlar) olami va amr (yaratuvchi) olami, mulk (moddiyat) olami va malakut (farishtalar) olami, jism olami va ruh (jon) olami, his - tuyg'ular olami va shuur (fikrlar, tafakkur) olami (mintalitet), nur va soya (zulmat) olami va h.k. Bu nomlar shu ikki olam – yashirin (ko'rinmas, g'ayb) olami bilan ko'rinuvchi (seziluvchi, shuhud) olamning turlicha nomlaridir.

Individual inson esa kichik Olamdir. Va aksincha, inson kichik olam bo'lsa, insonga nisbatan katta olam Ulug' (Katta) inson, deb ham qaraladi. Nasafiyning bu asarida Ulug' Olam (Olami Kubro) kichik Olam (Olami Sug'ro) Ulug' odam (yoki inson) va kichik inson (insoni sug'ro) (katta va kichik) olamlar birgalikda o'rganilishi, hatto sinonim tushunchalar bilan ifodalanadi. Chunki kichik olam katta olamning kichraytirib olingan nusxasi (mikromodeli)dir. Inson har ikki (g'ayb va shuhud) olamning nusxasi, timsolidir. Zero, Ulug' Olamda (kosmosda) barcha narsalar mavjuddir. Shuning uchun ham Ulug' Olamni (uning zohiri botinini, mohiyatu xillarini) idrok etmoq uchun inson o'z mohiyatini, o'z zohiru botinini anglab yetishi kerak. Demak, narsa – hodisalarni bilmoqchi bo'lgan inson o'zini bilishi kerak.

Har ikki olamning boshlang'ich nuqtasi ham bir xil substantsiyadan iborat. Har ikki olamda nimaiki paydo bo'lsa, u o'sha substantsiyada mavjuddir. Bundan tashqari, A.Nasafiy azaliy, abadiy va noazaliy, noabadiy vujudlarni bir – biridan ajratuvchi shariat ahli fikrini ham o'rganadi. Azaliy va abadiy vujud - Xudodir. U Vujudi qadim, deb ham ataladi. Boshlanishi bor bo'lgan (noazaliy) vujudning esa oxiri ham albatta bor bo'ladi, u Vujudi hadis yoki foni (yo'q bo'luvchi, o'tkinchi) vujud, deyiladi. Xudodan boshqa hamma narsa Vujudi hadisdir.

Shunday qilib (haqiqiy borliq) Vujud yagonadir (Vahdat) va u Xudoning vujudidir. Borliqda Xudo vujudidan boshqa vujud yo'q va

bo'lishi ham mumkin emas. Shu yagona vujudning botini (ko'rinmas tomoni) nurdir va Olam jonidir, hamda bu nur o'zini darchalar (ayrim narsalar) orqali zohirga, ya'ni o'zini moddiy borliqqa aylantiradi, u o'zi aytib, o'zi eshituvchi, o'zi berib, o'zi oluvchi, o'zi tasdiqlab, o'zi inkor etuvchidir.

Nasafiy ontologiyasi sof Vahdat nimaligini tushunishdan boshlanadi. Borliqning mohiyati bo'lgan sof (musaffo) Vahdat (birlik), uning tushuntirishicha, jism va ruhning manbaidir, u kitob va kalomning ham boshi, malakut (farishtalar) va mulk (moddiy) olamlarining asosi, butun borliq va odamning manbaidir. Uni sufizmda jabarut, deb ataydilar (Jabarut – arab tilida «Buyuklik», ulug'lik degan ma'nolarni bildiradi). Mulk va malakutda bir jami' narsalar Jabarutda (tezis holda) mavjud, deb ko'rsatiladi (bu Aristotelning «imkoniyat» kategoriyasida yoki potentsiyada o'z ifodasini topgan). Xullas Sharqda ontologiya masalasi Xudo borlig'i bilan bog'liq holda o'rganiladi.

### **Yangi davrda borliqning mohiyati**

Yangi davrda borliqning mohiyati Xudoning ishlariga emas, balki tabiat qonunlariga bog'lanadi. Tabiat borliqning butun yashirin ma'nosini qamrab oladi, shu sababli u bilan muloqot qilish, uning tabiiylik darajasini sinab ko'rish muhimdir. Tabiatni o'rganuvchi fanlar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda tashabbuskorlik, faollik va omilkorlikning rivojlanishi individualizmga asoslangan antroposentristik dunyoqarashni shakllantiradi.

XVII-XVIII asrlarning faylasuflari Golbax, Gelvetsiy, Lametri borliq tushunchasini fizik borliq bilan bog'laydi. Bu faylasuflarning naturalistik qarashlari mexanikaning faol rivojlanishi bilan belgilangan va ularning tabiat haqidagi tabiiy-ilmiy tasavvurlarini aks ettirgan. Bundan borliqni «naturallashtirish» g'oyasi kelib chiqqan.

Spinoza (1632-1677) dunyo haqidagi monistik ta'limotni yaratdi. Uning monizmi panteizm ko'rinishida namoyon bo'ladi: Benedik Spinoza o'z ontologiyasida Xudo va tabiatni ayniylashtiradi, bunda Xudo yaratuvchi tabiat va yaratilgan tabiat sifatida amal qiladi. Ayni vaqtda B.Spinoza birgina moddiy substantsiya mavjud bo'lib, uning asosiy atributlari ko'lamlilik va fikrlashdir, degan g'oyani ilgari suradi. Shunday qilib, butun tabiat u Xudo bo'lgani uchungina emas, balki unga fikrlash xos bo'lgani uchun ham jonli hisoblanadi. Spinoza

butun tabiatni jonlantirib, shu tariqa gilozoist-faylasuf sifatida ham namoyon bo'ladi.

Jyulen Ofre de Lametri (1709-1751) moddiy dunyo «o'z holicha mavjud» ekanligiga, uning boshi ham, oxiri ham yo'qligiga ishongan. Lametri ta'limoti Epikurning atomistik g'oyalari, Spinoza-ning monistik ta'limoti va J.Lokk sensualizmi ta'sirida vujudga kelgan. Lametri jonni aql faoliyati funksiyasi deb hisoblagan va Dekartning umrboqiy nomoddiy jon haqidagi g'oyasi asossiz ekanligini isbotlashga harakat qilgan.

Deni Didro borliq muammolarini o'rganish sohasiga dialektikani tatbiq etadi. Uning fikricha, butun materiya his qiladi (bu gilozoizm nuqtayi nazari). Ammo u «inert hissiylik» va «faol hissiylik»ni farq qiladi. «Faol hissiylik» muayyan tarzda uyushgan materiyadagina namoyon bo'ladi.

### **Nemis klassik falsafasi**

Nemis klassik falsafasi «substantsiya» (dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat), «mutlaq «Men»ning erkin, sof faoliyati» (Fixte), «ob'ektiv rivojlanuvchi g'oya» (Gegel) kabi falsafiy kategoriyalarni qayd etib, borliq muammolari talqiniga yanada teranroq mazmun baxsh etdi.

Jumladan, Gegelning «Ruh fenomenologiyasi» asari falsafiy tizimga o'ziga xos debochadir. Bu asarda Gegel inson ongi turli darajalari rivojlanishining izchil qatorini tahlil qiladi. Gegel tizimining birinchi va muhim qismi – «Mantiq» «Ruh fenomenologiyasi»ning yakuni va xulosasidir. Bu sub'ekt va ob'ektga qadar mavjud bo'lgan «sof fikr» sohasidir. Mantiqda uning o'zi va mantiq shakllaridan tashqari hech qanday empirik mazmun mavjud emas. Mantiq tarix va tabiatdan oldin paydo bo'lgan. Mantiq ularni yaratgan.

Mantiq uch qismga: borliq, mohiyat va tushuncha haqidagi ta'limotga bo'linadi. Borliq va mohiyat tushuncha o'zini to'liq namoyon etgunga qadar «ko'tariladigan» pillapoyalar sifatida qaraladi. «Mantiq»da mutlaq g'oyaning rivojlanishi mavhum mantiqiy kategoriyalar ko'rinishida yuz beradi. Uning tayanch nuqtasi – borliq haqidagi sof mavhum fikr. Dastlab mazmunsiz bo'lgan bu «sof borliq» tushunchasi «nimadir» orqali o'z mazmunini kasb etishga harakat qiladi. Bu «nimadir», o'z navbatida, «muayyan borliq»dir. Gegel fikriga ko'ra, mutlaq g'oyaning vujudga kelish jarayoni ayni shu tariqa boshlanadi. «Muayyan borliq» keyingi bosqichda «qandaydir muay-

yan borliq» sifatida amal qiladi yoki sifat kasb etadi. Sifat kategoriyasi miqdor kategoriyasi bilan birga rivojlanadi. Sifatli miqdor yoki miqdoriy sifat esa o'ltchov hisoblanadi. Borliq haqidagi ta'limotda Gegel dialektika qonunlaridan biri: miqdordan sifatga va sifatdan miqdorga o'tish, rivojlanish jarayonlari sakrash tarzida yuz berishini asoslashga harakat qiladi. Hodisa sifatida tushuniladigan borliqdan Gegel yanada teranroq, ichki qonuniyatlarga – mohiyatga o'tadi. Bu qismda Gegel qarama-qarshiliklarning bir-biriga o'tishi, ularning birligi, ayniyat va kurash to'g'risidagi qonunni tahlil qiladi. Gegel fikriga ko'ra, ziddiyat – bu qarama-qarshiliklarning o'zaro nisbatidir. Ular bir-birisiz mavjud bo'lmaydi, lekin turli yo'ldan rivojlanadi va bu ular o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo'ladi. Ziddiyatni yechish yoki unga chek qo'yish talab etiladi. Gegel ziddiyatni asos va oqibatning, shakl va mazmunning, hodisa va mohiyatning, imkoniyat va voqelikning, tasodif va zaruriyatning o'zaro nisbatida ko'radi. Ziddiyat haqidagi ta'limotni rivojlantirar ekan, Gegel ichdan zarur bo'lgan, har qanday o'zgarish va rivojlanishning manbai sanalgan «o'z-o'zidan harakat» haqida xulosa chiqaradi.

### **XX asrda borliqqa munosabat**

XX asr borliqni tushunishni tarixiylik, insonning mavjudligi, qadriyatlar va til bilan bog'lab, uning talqinini kengaytirdi. Ontologiya falsafaning emas, balki ayrim fanlarning predmeti deb hisoblanib, falsafadagi borliq muammosini soxta muammo sifatida talqin qildi. Borliq mohiyatini tushunib yetishda eng yangi qarashning o'zagini insonning ijtimoiy ijodi tashkil etadi. Bunda borliq hayot faoliyati jarayoni sifatida tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining sur'atlari tobora jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda mazkur dunyoqarash ko'pincha texnokratik dunyoqarash deb ataladi.

Noklassik falsafa dunyoning aqlga muvofiqligi, shuningdek inson ongining mustaqilligiga shubha bildirdi. Pozitivistlar umuman ontologiyani yaratishdan bosh tortdilar. Irratsionalizm, marksizm va ekzistentsializm da ontologik konsepsiyalar hayot, jamiyat va inson tushunchalari rivojlantirildi, ular borliqning noyob usullari sifatida tavsiflandi. Quyida noklassik falsafada borliqqa munosabatni tahlil qilamiz.

#### **Borliqning irratsionalistik konsepsiyasi.**

Falsafiy irratsionalizm asoschisi A.Shopengauer olamning aqlga muvofiqligi haqidagi tezisga shubha bilan qaraydi. Uning

### **Borliqning ekzistentsial-germenevtik konsepsiyasi.**

Ekzistentsialistlar mushohada yuritish orqali anglab yetish mumkin bo'lgan mohiyat (essentsiya)ni amalda mavjudlik (ekzistentsiya)ga qarshi qo'yadilar. Ular borliqning mazmuni to'g'risidagi masalaga qaytish lozimligini e'tirof etadilar. Lo'nda qilib aytganda, borliqning oqilona tavsifi uning asl mazmunini yoritib berishga qodir emas. Bunday mazmun hayot tajribasida, ya'ni «shu yerda-borliq» yoki mavjudlik orqali namoyon bo'ladi. Germenevtika borliq sxemasi yoki formulasini aniqlashga emas, balki uning mazmunini bilishga qaratilgan. Falsafiy muammo sifatidagi borliqning mazmuni insonni o'z mavjudligining pirovardliligi va tasodifiyligini anglash natijasida yuz bergan shokdan xalos etishi lozim. Bir so'z bilan aytganda, bu yerda aristotelcha analitikaga xaydeggercha germenevtika qarshi qo'yiladi.

Borliq germenevtikasi oqilona-sxematik yoki metafizik bilimga ishonchsizlik ko'zi bilan qarashga asoslanadi. Falsafa tarixida germenevtikaning ayrim tarafdorlari: a) mistik; b) estetik; v) intuitiv; g) irratsional narsalar va hodisalarga qarab mo'ljal oladilar. Dunyoni anglab yetish bu usulining aks sadolari Pitagor (osmon musiqasiga quloq solish), Platon (g'oyalar xususida mushohada yuritish), Tertullian (absurd orqali haqiqatning tagiga yetish), Paskal (aql haqiqatlariga yurak haqiqatini qarshi qo'yish), romantiklar, Kerkegor, Shopenhauer va Nitsche metodida mavjud.

Borliq va mavjudlik konsepsiyasi M.Xaydegger (1889-1976) loyihasining tayanch nuqtasi hisoblanadi. Bu loyihani ishlab chiqish bilan u asosan «Borliq va vaqt», «Fenomenologiyaning asosiy muammolari» asarlarida shug'ullanadi. Xaydegger fikricha, borliq, mavjudlikning borlig'i, lekin borliq mavjudlikdan kelib chiqadigan yo'qlik emas, ya'ni u mavjudlik hisoblanmaydi. Bu yerda Xaydegger Kantning borliq predikat emas, degan fikriga qaytadi. Ammo bu holda borliq nima? Keng tarqalgan tasavvurga ko'ra, mavjud narsalarning barchasi ayni bir borliq usuli – mavjudlik bilan tavsiflanadi. Shunga muvofiq tabiat va ruh (g'oya va narsa, res cogitans va res extensia) farqlanadi. Ammo bu farqlash borliqning usullari o'rtasidagi farqni ifodalashga qodir emas. U faqat mavjud narsaning mohiyatini belgilovchi unsurlar o'rtasidagi farqni aks ettiradi.

Xaydegger fikriga ko'ra, borliq usullarini ajratishning haqiqiy yo'li borliqning mohiyati (essentia) va usulining bir-biriga mansubli-

gini mohiyat va usulning borliq g'oyasiga mansubligi nuqtayi nazaridan tahlil qilishga asoslanadi. Nemis mutafakkiri borliqning olti usuli: ekzistentsiya, birgalikda mavjudlik, qo'l ostidalik, hozirlik, hayot va barqarorlikni farqlaydi. Bu usullarning barchasi bir-biridan shu darajada farq qiladiki, «borliq» tushunchasining yagonaligini shubha ostida qoldiradi. Bu yerda mavjudlik to'g'risidagi masala Xaydegger ijodida eng muhim masalalardan biri sifatida ko'ndalang bo'ladi.

Mavjudlik tushunchasining tahlili uning «hozirlik», «dunyo» va «qo'l ostidalik» tushunchalari vositasida ifodalanuvchi fenomenlar bilan ontologik o'zaro aloqasida namoyon bo'ladi. Bunda mavjudlikni borliq turlaridan biri sifatida tushunish mumkin emasligi, mavjudlik muammosini, «uning shartlari va chegarasini» atroflicha o'rganish zarurligi ta'kidlanadi. Faylasuflar hatto mavjudlik to'g'risidagi masalani qo'yish usulida ham aniq bir to'xtamga kelmagan. Bu xususda Xaydegger «ongga nisbatan transtsendent» bo'lgan narsa mavjudmi, tashqi dunyoning mavjudligini isbotlash mumkinmi, mavjudlikni anglab yetish mumkinmi qabilidagi masalalarni va nihoyat, mavjudlikning mazmuni to'g'risidagi masalani aralastirish odat tusini olganini ta'kidlaydi.

Xaydegger mavjudlikni uch qismga ajratadi: a) borliq hamda «tashqi dunyo»ni isbot qilish mumkinligi muammosi sifatidagi mavjudlik; b) ontologik muammo sifatidagi mavjudlik; v) mavjudlik va tavajjuh.

Birinchi muammoni tahlil qilar ekan, Xaydegger tashqi dunyoning mavjudligi yoki uni isbotlash to'g'risidagi masala bir vaqtning o'zida ma'nosiz va ikki ma'noli ekanligini qayd etadi. Masalaning ma'nosizligi uning dunyoda borliq sifatida mavjudlik bilan qo'yilganligi bilan izohlanadi. Masalaning ikki ma'noliligi. Xaydegger fikriga ko'ra, bir-biridan farq qiladigan ikki narsa: nimadadir borliq sifatidagi dunyoning va ichki mavjudlik sifatidagi «dunyo» bilan aralashuvi tufayli kelib chiqadi. Tashqi dunyoning mavjudligi to'g'risidagi masala bu yerda dunyo fenomeniga oydinlik kiritmasdan qo'yiladi. Buning oqibatida amalda isbotlanayotgan narsa yoki hodisaning isbotlash usuli va isbotlashning e'lon qilinayotgan maqsadi bilan aralashuvi yuz beradi.

Shunday qilib, Kant falsafadagi janjal deb nomlagan masala – tashqi dunyo mavjudligining dalil-isbotlari yo'qligi Xaydeggerga

muammoni noto'g'ri qo'yish bo'lib tuyuladi. U bunday isbotlashni amalga oshirishni ko'zlagan shaxslarning shu yerda hozirligining o'ziniyoq mavjudlikning isboti deb hisoblaydi. Xaydegger fikriga ko'ra, hatto dunyoning mavjudligiga ishonish lozimligini ta'kidlovchilar ham, adashadilar, zero ular bunday dalil-isbotlar idealda mavjud bo'lishi lozimligini tasdiqlaydilar.

### **Borliqning ezoterik talqini.**

Ikki xil borliqning mavjudligini tan olish ezoterizmning asosiy g'oyasi hisoblanadi. Ezoterik qarashlarga ko'ra, bu borliqlarning biri mutlaqo ideal xususiyat kasb etadi (bu ezoterika atamalarida nozik darajalarda mavjudlikni anglatadi), ikkinchisi esa insonning kamolotga eltuvchi yo'lni bosib o'tish va o'zini ham, kosmosni ham o'zgartirishga bo'lgan intilishini aks ettiradi. Bundan ezoterizmning ikki aniq yo'nalishi kelib chiqadi. Ularning biri teran ong va ulkan iste'dodga ega bo'lgan komil inson g'oyasiga, ikkinchisi – «Xudoning Yerdagi saltanati» xoliizmik formulasi bilan moddiylashtirilgan g'oyaga o'xshab ketadigan hayotni o'zgartirish g'oyasiga ishora qiladi.

“Evropa va AQShda ezoterik bilimlar ikki omilga: 1) ushbu davrda shakllana boshlagan fanlar (masalan, psixologiya)ga nisbatan aniq savol va muammolar qo'yish; 2) ezoterizmni ilmiy o'rganish uchun dunyoqarashlar bazasini topishga urinish hamda bu orqali G'arb (umumevropa) madaniyatini yanada kengaytirishga asoslanadi”.

Ezoterik mulohazaga misol: «Yangi davr» g'oyasining targ'ibotchisi Sherli Makleyn shunday deydi: «Men kosmik aqldan, ma'naviy ziyodan olgan fikrlarning eng muhimi bu Xudo – bizning o'zimiz, degan fikrdir. Borliqning biz anglab yetgandan muhimroq qandaydir darajasi bor». Ba'zan bu borliqdan uzoqlashishga, ba'zan – mantiqqa zid bo'lgan noizchil xatti-harakatlarga, ba'zan – hamma narsani o'zgartirish mo'ljali bilan bog'liq bo'lgan haddan tashqari soxta faollikka olib keladi.

Oqilona ilmiy bilim, odatda, noemotsional va shaxssiz ob'ektiv bo'lsa, ezoterik an'anada emotsional kechinmalarning mexanizmlaridan foydalanmasdan, xususan oq afsungarlik bilan bog'liq holda fikrlar, so'zlar va xatti-harakatlarda ezgulik va ziyoga qarab, qora afsungarlik bilan bog'liq holda esa – yomonlik va riyoga qarab mo'ljal olmasdan yashirish bilimni o'zlashtirish mumkin emas.

Ezoterik fanlar ikki asosiy maqsadni: avvalambor, odatdagi tajriba chegarasidan tashqarida yotuvchi dalillarni bilishga qaratilgan ma'rifiy maqsadni va tashqi dunyo jarayonlarini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruvga doir yoki kiber-maqsadni ko'zlaydi. Nazariyalar, ta'limotlar va ilmiy konsepsiyalarning o'zgarish intensivligiga teng bo'lgan davriylikka ezoterizmدا duch kelish mumkin emas. U ichdan harakatchan; uning faolligi shaxsiy xususiyat kasb etuvchi yondashuvlarning rang-barangligida namoyon bo'ladi. Ammo u o'z tabiatiga ko'ra ancha turg'un, chunki poydevor sifatida qo'yilgan qadimgi germetik ta'limotga, qadimgi ajdodlarimizning xufyona donishmandligiga tayanadi.

### **Borliqning shakllari**

Borliqning umumiy manzarasini yaratish zaminidan notirik tabiat o'rin oladigan o'ziga xos piramida hosil bo'ladi. Borliqning shakllari notirik tabiat, tirik tabiat, ijtimoiy borliq, inson borlig'i va virtual borliq, energik borliq kabilardir. Borliqning bu umumiy shakllari o'ziga xos xususiyatga, o'zining betakror mohiyatiga egadir. Borliqning turli shakllarini jonsiz tabiatdan boshlab mufassalroq ko'rib chiqamiz, zero, u hozirgi zamon fani nuqtayi nazaridan jonli va ijtimoiy tabiatning negizi hisoblanadi.

Tabiat borlig'i birlamchi (ya'ni inson va uning faoliyatidan qat'i nazar mavjud bo'lgan narsalar va jarayonlar borlig'i) va ikkilamchi (yoki odamlar tomonidan yaratilgan narsalar va jarayonlar borlig'i) tabiat borlig'iga bo'linadi. Birlamchi tabiat notirik tabiat narsalari va jarayonlarining borlig'i – butun tabiiy va sun'iy dunyo, shuningdek tabiatning barcha holatlari va hodisalari (yulduzlar, sayyoralar, yer, suv, havo, binolar, mashinalar, aks sado, kamalak, ko'zgudagi aks va sh.k.)dir.

Birlamchi tabiat borlig'i ikki darajani o'z ichiga oladi. Birlamchi daraja jonli ruhsiz jismlardan, ya'ni ko'payish qobiliyatiga ega bo'lgan, atrof muhit bilan moddalar va energiya almashinuvini amalga oshiradigan, lekin onga ega bo'lmagan barcha narsalar, ya'ni sayyoramiz hayvonot va o'simliklar dunyosini o'z ichiga olgan butun biosferadan iborat.

Tabiat tushunchasining keng ma'nosi borliqni, butun dunyoni barcha rang-barang shakllari bilan jamuljam holda aks ettiradi. Bu ma'noda «tabiat» atamasi borliqqa nisbatan tatbiq etiladi va «materiya» kategoriyasidan ham kengroq falsafiy kategoriya sifatida



amal qiladi, zero u moddiy va ma'naviy asoslarning birligidan iborat muayyan yaxlitlik sifatidagi insoniyatni ham o'z ichiga olgan Koinotning butun moddiy-energetik va axborot dunyosini qamrab oladi. Ayni shu ma'noda «tabiat» tushunchasi falsafaning borliq muammolari o'rganiladigan sohasi, ya'ni ontologiyada keng qo'llaniladi. Mazkur atama ko'rsatilgan ma'noda falsafada ko'proq XIX asrgacha ishlatilgan.

Tabiat tushunchasining tor ma'nosi XIX asrda hayotning paydo bo'lishi va Yerdagi evolyutsiya jarayonlari muammolarini tushunishga nisbatan yangicha yondashuvlar yuzaga kelishi, shuningdek Inson dunyoda o'z o'rnini anglab yetishi bilan shakllana boshladi. Shu ma'noda «tabiat» atamasi muayyan hajmgacha torayib, ob'ektiv borliqning biosfera (J.Lamark 1802-yilda biosfera atamasini muomalaga kiritgan), ya'ni «hayot sohasi» deb nomlagan qisminigina anglatga boshladi. Biosfera jonsiz tabiatning avvalgi rivojlanish mahsuli bo'lib, Yerning hayot kechayotgan nozik qatlamini tashkil etadi. U atmosfera, gidrosfera va litosferaning yuqori qismini qamrab oladi.

Biosferada inson alohida o'rin egallaydi. U jonli tabiatning tabiiy qismi bo'lsada, vaqt o'tishi bilan unga qarshilik ko'rsatuvchi faol asosga aylandi. Bu dalilni u ekologiya muammolariga qarab anglay boshladi. Mazkur muammolar keskinlashgani sari inson o'zining o'zgargan holati haqida yanada teranroq mulohaza yuritib, tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasi masalasini ilmiy, falsafiy va amaliy nuqtayi nazardan yechishga harakat qila boshladi.

Shu ma'noda, tabiat insonni qurshagan muhitni, ya'ni borliqning biosferadan biologik tur sifatida o'rin olgan insonning mavjudlik sharoitlari majmui sifatida amal qiladigan qismini anglatga boshladi.

Tabiatni o'rganishga nisbatan odatdagi yondashuvlar «biosfera va inson» murakkab tizimining tahlili va uni falsafiy anglab yetish hisobiga sezilarli darajada kengaydi, «tabiat» atamasi yangicha, yanada teranroq mazmun kasb etdi. Bu avvalo jamiyatning atrof muhit bilan o'zaro munosabatlari, xususan iqtisodiyot, ijtimoiy hayot sohasidagi faol fundamental tadqiqotlar mahsuli bo'ldi. Shu sababli «tabiat» atamasining mazkur ma'nosi ijtimoiy falsafada ayniqsa ko'p ishlatiladi va odamlar yashaydigan tabiiy muhitni ham, inson qo'llari bilan yaratilgan (o'zgartirilgan) sun'iy muhitni ham qamrab oladi. Boshqacha aytganda, ayni holda o'zaro bog'liqlik va birlikda inson

yashaydigan makonni tashkil etadigan «birlamchi» va «ikkilamli» tabiat nazarda tutiladi.

«Tabiat» tushunchasining maxsus talqinida e'tibor muhokama predmetining ildizlari, fundamental asoslarini yoritishga qaratiladi. Mazkur kontekstda, masalan, inson, u yoki bu ijtimoiy hodisa, elementar zarra yoki sharsimon chaqmoqning tabiati qanday, degan savol mutlaqo o'rinli yangraydi. Falsafada ko'pincha u yoki bu predmet, jism, mavjudot va shu kabilarning mohiyati, asosiy mazmunini aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi. Fanda ham ba'zan muayyan hodisa, voqeaning xususiyati va yuz berish sabablarini aniqlash talab etiladi. Ayni holda mazkur ob'ekt yoki hodisaning tabiati haqida shu ma'noda so'z yuritiladiki, uning mohiyati, shuningdek qolgan ob'ektiv borliq - so'zning keng ma'nosidagi tabiat bilan aloqasi aniqlanadi.

«Tabiat» tushunchasining yuqorida zikr etilgan uchala ma'nosi ham hozirgi falsafiy va ilmiy adabiyotlarda keng qo'llaniladi, ammo uning ikkinchi biosfera, atrof muhit bilan tenglashtiriladigan ma'nosi so'nggi vaqtda ekologiya muammolariga e'tibor sezilarli darajada kuchaygani munosabati bilan ayniqsa keng tarqaldi. Ayni shu sababli hozirgi vaqtda «ekologiya», «atrof muhit» kabi tushunchalar ham faol ishlatilmoqdaki, bu haqda quyida batafsilroq so'z yuritimiz. Xullas, tabiatni falsafiy tushunishga bag'ishlangan mazkur bo'limda biz «tabiat» kategoriyasidan asosan uning ikkinchi, tor ma'nosidan foydalanamiz, chunki u keng ma'noda ontologiyada yoritib berilgan.

XX asrda tabiatga munosabat o'zgardi. Bir tomondan, miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro aloqadorligi qonuni amal qilib, inson faoliyatining asrlar mobaynida yig'ilib kelgan salbiy oqibatlari jamuljam holda yangicha sifat kasb etdi. Bu ilgari yashovchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan ko'pgina hududlar yaydoq sahroga aylanishida, atmosfera, suv havzalari va shu kabilarning halokatga eltadigan tarzda ifloslanishida namoyon bo'ldi. Xususan, hozirgi vaqtda butun quruqlik yuzasining 40% dan ko'prog'ini sahrolar egallagan. Stratosferaning ozon pardasidagi teshiklar, oqava suvlar tashlanadigan «ariqlar»ga aylanib qolgan kichik va katta daryolar ham bir lahzada paydo bo'lgani yo'q. Ayni vaqtda, sayyora tobora ko'payib borayotgan odamlarga haddan tashqari tor, «kichkina» bo'lib qoldi. Bugungi kunda quruqlik, suv yoki fazoning inson ta'siridan xoli bo'lgan bironta ham qismi qolgani yo'q. Tabiatga salbiy antropogen

ta'sir darajasi ortida tabiiy muhit tanazzuli orqaga qaytarib bo'lmaydigan xususiyat kasb etadigan chegaraga yetmoqda. Bunday holat ekologik tanglik sifatida tavsiflanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, tabiiy tizimlar haddan tashqari zo'riqishi, atrof muhit (suv, havo, tuproq) ifloslanishining muayyan me'yorlari misli ko'rilmagan darajada buzilishi natijasida tabiiy jarayonlarda muvozanatning buzilishi yuz beradi. Pirovardida ekologik tizimlar doirasida o'zaro aloqalar va «jamiyat-tabiat» tizimining ko'pgina parametrlari izdan chiqadi.

Tabiat antropogen zo'riqishlarni faqat ma'lum me'yor darajasida bartaraf etishga qodir ekanligini odamlar so'nggi vaqtdagina anglay boshladilar. Bu me'yorning buzilishi biosferada ko'pincha orqaga qaytarib bo'lmaydigan sifat o'zgarishlari yuz berishiga sabab bo'ladi. Shamol ko'targan yoki vulqonlar itqitgan chang, o'rmon yong'inlaridan yoki yer yuzasiga neftning tabiiy chiqishidan hosil bo'lgan tutun tarzidagi tabiiy ifloslanishni tabiat o'zi osongina bartaraf etadi. Ammo inson atrof muhitga uning bunday ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish tabiiy imkoniyatlaridan bir necha baravar ortiq bo'lgan qo'shimcha zo'riqishlarni yaratdi. U yer yuzasi, atmosfera va suv havzalariga tabiiy chiqindilar tarkibidagidan ko'proq miqdorda kimyoviy elementlarni tobora o'sib borayotgan sur'atlarda tashlamoqda; shuningdek, ularga tabiat inson yordamisiz absorbatsiya qilish (utillashtirish)ga qodir bo'lmagan plastmassa, keramika, shisha kabi ko'p sonli sun'iy materiallarni qo'shimcha qilmoqda. Buning oqibatida kimyoviy moddalar bilan zaharlangan dalalar va suv havzalari, ekologik jihatdan toza deb aytish mushkul bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, shaharlardagi tutun, qurum, kul zarralari, chang, yonilg'i bug'i kabilar aralashmasidan iborat zaharlangan havo, axlat, ishlab chiqarish chiqindilari va shu kabilardan ko'tarilgan tog'lar inson borlig'ining doimiy hamrohlariga aylandi.

XX asrning 60-yillarida sovet tuzumining Markaziy Osiyoda paxta mustaqilligiga erishish uchun paxta yakkahokimligiga intilishi Orol dengizining qurishiga bu esa ekotizimning buzilishiga, Orol bo'yi hududlarida turli kasalliklarning paydo bo'lishi, ekin maydonlarining vayron bo'lishiga olib keldi. Orol dengizining qurishi – insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar falokatlardan biri deb tan olindi. Darhaqiqat, "Qirq yil mobaynida Orol dengizi akvatoriyasi 7 baravar qisqardi, suv hajmi 13 marta kamaydi, uning mineral-lashuvi esa o'nlab baravar oshib, dengizni tirik organizmlarning

yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keltirdi. Natijada barcha hayvonot va nabobot olami tanazzulga uchradi. Bugun Orol-bo'yida nafaqat ekologik, balki dunyo miqyosida og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar paydo bo'ldi. Darhaqiqat, besh mln gektar Orol dengizining qurigan hududida 10 mln tonna qum 100 lab kilometrarga tarqalib, ekologik holatni buzmoqda. Shu bois, Orol bo'yida yashil zonalar, mahalliy kichik suv havzalari tashkil qilinmoqda. Sun'iy hovuzlarda baliq turlari yetishtirilmoqda.

XX asrning 70-yillarida Tojikiston hududida ishga tushirilgan allyumin zavodi tutunining atmosferani ifloslantirishi Surxondaryo viloyati hududlarida ekologik muammolarini yuzaga keltirmoqda.

Inson jamiyatning tabiat bilan munosabatlarida yuz bergan bu shiddatli o'zgarishlar mohiyatini tushunishga harakat qilar ekan, avvalgidek, yuz berayotgan jarayonlarni ilmiy va falsafiy tahlil qilib, o'z tafakkuriga murojaat etmoqda. Shu bois butun dunyo, xususan, Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy muhitni muhofaza qilish uchun iqtisodiy va fan texnika sohasidagi hamkorligi turli yo'nalishlarda olib borilmoqda. Jumladan, Orol dengizini qutqarish xalqaro jamg'armasi (MFSA) tashkil etildi va uning rejali faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish davlat tashkilotlari: O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi, respublika epidemiologiya sanitariya xizmati, Davlat o'rmonchilik qo'mitasi tasarrufidagi qo'riqonalar, O'zgidrometirologiya markazi kabilar faoliyat ko'rsatmoqda. Barcha viloyatlar, tuman hokimiyatlarida tabiatni muhofaza qilish bo'limlari tashkil qilingan. Ular ishlab chiqarish korxonalarini ekologik pastportlashtirish, ishlab chiqarishning tabiatga texnologik ta'sirini nazorat qilish kabi vazifalarni bajarmoqda.

O'zbekistonda ekologik vaziyatning hozirgi holatini o'rganish va istiqbolini rejalashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yetakchi olimlari, mutaxassisleri tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. 2008-yilda jamoatchilik tashabbusi bilan tashkil qilingan "Ekologik harakat", keyinchalik esa Ekologik partiyaning faoliyati, keskinlashib borayotgan ekologik inqirozlarni bartaraf etish, inson salomatligini saqlash va mustahkamlash, ilmiy texnika inqilobining antiekolodik oqibatlari oldini olish, bozor munosabatlariga o'tish davridagi iqtisodiy tanglik vaziyatida

O'zbekiston aholisini ijtimoiy muhofazalashga yo'naltirilgan davlat dasturining amaliyotga tatbig'ida faol ishtirok qilmoqda. Tabiiy muhit ifloslanishining ijtimoiy-iqtisodiy, oqibatlari, ularni bartaraf etishning amaliy jihatlari B.Alixanov, S.Mamashokirov, S.Sanginov, nazariy asoslari E.Xoshimova, A.Hukumov kabilar tomonidan o'rganilmoqda. Xususan, S.Mamashokirov va E.Usmonov "Tabiat boyliklari insoniyat qadriyatlarining moddiy asosi sifatida, kelajak avlodlar uchun saqlanib qolinmog'i kerak. Chunki keyingi avlodlarning ekologik faolligi va mas'uliyati bizning shu ijtimoiy hodisalarni qay darajada tashkil qilganimizga, o'zlashtirganimizga bog'liq" deb ta'kidlaydilar.

Tabiat borlig'i geografik muhit tushunchasida konkretlashadi. Tabiiy muhit ayrim kishilar hayotiga ta'sir ko'rsatishi odatda ko'pgina aniq-ravshan sabablarga ko'ra jiddiy shubha uyg'otmaydi. Shunga qaramay, ijtimoiy-tarixiy jarayon yoki moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi to'g'risida so'z yuritilgan holda ular tabiiy sharoitga bog'liq bo'ladimi, agar bog'liq bo'lsa, bu nimada aks etadi, degan savol tug'iladi. Shu munosabat bilan «geografik muhit» tushunchasining tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha fan va falsafada mazkur mavzuni muhokama qilish chog'ida unga ma'no jihatidan yaqin bo'lgan «tabiat», «tabiiy muhit», «atrof borliq» kabi atamalar bilan bir qatorda faol qo'llaniladi, ammo o'z mazmunida ularga bog'lanmaydi.

Geografik muhit – bu Yer tabiatining inson faoliyati doirasiga jalb qilingan, jamiyat mavjudligi va rivojlanishining zaruriy omili hisoblanadigan qismidir. Ayni holda turli parametrlar: hudud, iqlim, resurslar, landshaft, joy reliefi va shu kabilarning ijtimoiy rivojlanish sur'atlari va xususiyatiga ta'siri to'g'risida so'z yuritiladi.

Geografik muhit parametrlari mehnat va moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayonida odamlar tabiatning turli elementlaridan foydalanishi va o'z iqtisodiy faoliyati doirasi kengaygani sari mazkur elementlarning muomalaga yanada faolroq jalb qilishidir. Pirovardda inson va tabiat bevosita o'zaro aloqaga kirishadigan soha o'zgarishi va kengroq tus olishi, ya'ni geografik muhit doirasining kengayishi geografik muhit parametrlaridir. Masalan, ibtidoiy odamlar tirikchilik qilish uchun asosan tabiiy hayot manbalari o'simliklar va hayvonlardan, mehnat qurollari yasash uchun esa qo'l ostida mavjud vositalar – tosh va yog'ochdan foydalanganlar. Iqtisodiy rivojlanishning oxirgi bosqichlarida foydali qazilmalar va energetik resurslarning roli ortib

bordi, ularni qazib chiqarish inson faolligi geografiyasini sezilarli darajada kengaytirdi.

Shu bilan bir qatorda inson mehnati geografik omillar ta'sirida tinimsiz murakkablashib bordi. Xususan, inson o'z amaliy faoliyatida nafaqat qulay tabiiy sharoitlarga, balki yashash uchun uncha yaroqli bo'lmagan muhitga ham duch keladi. Masalan, mo'tadil iqlim, serhosil tuproq, yetarli namlik va shu kabilar nisbatan kam mehnat sarflab yaxshi hosil olish imkonini beradi, tabiiy resurslar o'tish oson bo'lgan joyda va yer yuzasiga yaqinroqda joylashganligi esa ularni qazib olishni osonlashtiradi va pirovard mahsulot tannarxini pasaytiradi.

Ammo Yer yuzida bunday qulay joylar uncha ko'p bo'lmagani uchun, sayyoramizning tinimsiz ko'payib borayotgan aholisi vaqti kelib noqulay va o'tish qiyin bo'lgan yerda joylashgan hududlarni ham o'zlashtirishga majbur bo'ldi. Qishloq xo'jaligini yuritish, yo'llar, boshqa muhandislik qurilmalari va inshootlar qurishni qiyinlashtiradigan sovuq iqlim sharoiti, tog'li yoki botqoqli joy odamlarning ishlab chiqarish faoliyatida ularning jismoniy, energetik va boshqa xarajatlarini sezilarli darajada ko'paytiradi. O'z-o'zidan ravshanki, odamlarning iqtisodiy faoliyati geografik muhitning o'zgarishiga sabab bo'ladi, buning natijasida landshaftlar, tuproq qatlami, havo, suv va shu kabilarning kimyoviy tarkibi o'zgaradi. Tabiat va jamiyatning bunday munosabatlariga hozirgi Afrika misol bo'lishi mumkin. Bu yerda oxirgi yuz yillikning o'zida o'rmonlar maydoni ikki baravar kamaydi va hozirgi vaqtda ulkan qit'a hududi-ning to'rtandan bir qisminigina tashkil etadi. Pirovard natijada Afrika qit'asida sahrolarning cho'llarga, cho'llarning – savannalarga, savannalarning – tropik o'rmonlarga hujumi tobora kengroq tus olib bormoqda.

Markaziy Osiyo hududida ham Orol dengizining qurib borishi natijasida iqlim va tabiiy muhit keskin o'zgardi. Bu ekin maydonlarining kamayishiga, sho'r tuproqning ko'payishiga olib keldi. Keskin ekologik vaziyat ko'pgina daryolar oqimining (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon) sezilarli darajada o'zgarishi, tuproq eroziyasining kuchayishi va hosildorlikning pasayishi bilan ham tavsiflanadi.

Ammo insonning tabiatga ta'siridan tashqari, geografik muhitda doim tabiiy omillar bilan belgilanadigan o'zgarishlar ham yuz bergan. Yerning butun geologik tarixi shundan dalolat beradiki, unda buyuk muz bosishi va halokatli tarzda vulqonlar otilishi yuz bergan, vaqti-vaqti bilan quruqlikning ko'tarilishi va pasayishi, zilzilalar,

toshqinlar va boshqa tabiiy ofatlarning yuz berishi, Yer qiyofasi va odamlarning yashash sharoitini sezilarli darajada o'zgartirgan. Xususan, Platon o'zining «Timey» va «Kritiy» asarlarida hikoya qilgan Atlantida halokati tarixi hanuzgacha aksariyat tadqiqotchilarni qiziqtiradi. Bu afsonaga binoan Atlantida katta, hosildor va ko'p aholi yashaydigan orol bo'lgan va qadim zamonlarda zilzila oqibatida Atlantika okeani tubiga cho'kib ketgan. Afsonalar bilan bir qatorda aniqlangan dalillar ham mavjud. Masalan, Gollandiyaning tarixiy rivojlanishi asosan dengiz qirg'oq chizig'ining tabiiy o'zgarishi bilan belgilanadi. Shuningdek, Xuanxe daryosining o'zanida yuz bergan o'zgarishlar Xitoy tarixiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgani ham ma'lum.

Inson borlig'i tabiatning bir qismi sifatida jismoniy mavjudlik va alohida inson borlig'iga bo'linadi. Inson tabiatning bir qismi hisoblanadi va shu ma'noda uning qonunlariga bo'ysunadi. Tananing mavjudligi inson o'limga mahkum ekanligini belgilaydi. Inson borliq va yo'qlik dialektikasi bilan bog'lanadi, barcha tabiat jismlari kabi vujudga kelish, shakllanish va halok bo'lish holatlaridan o'tadi. Barcha tabiat jismlari kabi, inson tanasiga ham modda va energiyaning saqlanish qonunlari o'z ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni uning tarkibiy qismlari tabiatning boshqa holatlariga o'tadi. Inson tanasi mavjud bo'lishi uchun uni muttasil quvvatlash (ovqatlanish, sovuqdan va boshqa xavf-xatarlardan saqlash) talab etiladi. Fikrlash uchun inson tanasining tirikligini ta'minlash zarur. Bundan hayotni saqlash, insonning o'z-o'zini saqlashi va insoniyatning yashovchanligini ta'minlash zaruriyati kelib chiqadi, bu oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar joy, sof atrof muhitga ega bo'lish ehtiyojida o'z ifodasini topadi;

Ma'naviy borliq sub'ektiv individuallashtan va ob'ektiv (noindividual) ma'naviy borliq sifatida mavjud. Individuallashtan ma'naviy borliq - bu insonning ichki dunyosi, u onglilik va ongsizlikni qamrab oladi. Bunday yondashuvga ko'ra, ruh - individual ong bilan ayniy tushuncha, tor ma'noda esa u tafakkurdir. Ong - inson bosh miyasining dunyo borlig'ini izchil aks ettirish, uni obrazlar va tushunchalarga aylantirish qobiliyati. U taassurotlar, sezgilar, kechinmalar, fikrlar, shuningdek g'oyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar, mo'ljallar, andozalarning ko'rinmas jarayoni sifatida mavjud. Ong tez oqadigan va bir xil bo'lmagan orqaga qaytmaydigan xususiyatga ega. Shaklan

bu jarayon tartibsiz, lekin shu bilan bir vaqtda unda muayyan tartib, barqarorlik, struktura, muayyan darajada intizom va iroda mavjud.

Inson ongi ayni vaqtda uning o'z-o'zini anglashi, ya'ni o'z tanasi, fikrlari va tuyg'ularini, o'zining boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini va o'zining jamiyatdagi o'rmini anglab yetishi, ya'ni o'zini o'zi bilishdir. O'zlikni anglash – bu ongimizning o'ziga xos asosidir.

Individual ong o'zining o'limga mahkumligi bilan tavsiflanadi, lekin uning ayrim qismlari noindividual ma'naviy shakl-shamoyil kasb etadi, shuningdek boshqa kishilar mulkiga aylanadi. Xatti-harakatlarda inson ongining fragmentlari moddiylashadi, ularga qarab odamlarning niyatlari, mo'ljallari, maqsadlari, g'oyalari haqida xulosa chiqariladi. Noindividual ma'naviy borliqning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning elementlari saqlanadi, takomillashadi va ijtimoiy makon va vaqtda erkin harakatlanadi;

Ijtimoiy borliq insonning jamiyatdagi borlig'i va jamiyatning borlig'iga bo'linadi. Har bir inson boshqa odamlar bilan muttasil aloqa qiladi, turli ijtimoiy guruhlar: oila, ishlab chiqarish jamoasi, millatning a'zosi hisoblanadi. U boshqa individlar bilan yaqin aloqa qilib yashaydi. Odamlarning barcha faoliyati mazkur sotsiumga xos bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, chunonchi: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy va boshqa munosabatlar doirasida amalga oshiriladi. Virtual borliq (lotincha Virtualis – mumkin bo'lgan) inson real borliqda harakat qilayotgani illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya. Uning zamirida Birinchi marta XX asr 60-yillarining o'rtalarida paydo bo'lgan kompyuterlar yordamida dunyolar modelini yaratish mumkin, degan g'oya yotadi. Virtual borliq – inson borlig'ining o'ziga xos shakli va odamlar ma'naviy aloqasining alohida madaniy ifodasidir.

«Virtual borliq» atamasi 1970-yillarning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jeron Lener tomonidan o'ylab topilgan. U 1984-yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g'oyasini ifoda etadi, amerikalik kinematografchilar tomonidan muomalaga kiritilgan.

Bunda ob'ektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o'rmini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun'iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi. Virtual



borliq amalda yo'q narsa, uni qo'l bilan tutish, uning ta'mi va hidini his qilish mumkin emas. Shunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega bo'ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o'zgartira oladi.

Ammo virtual borliq real fizik borliqdek lazzat baxsh eta olmaydi, chunki bu borliq ta'sirida vujudga keluvchi his-tuyg'ular ko'p jihatdan uning o'zi bilan emas, balki uni biz qanday idrok etishimiz bilan belgilanadi. Biz virtual dengizda cho'milishimiz mumkin, ammo bunda paydo bo'luvchi his-tuyg'ularimiz bu dengizni biz qanday idrok etishimizga bog'liq bo'ladi. Virtual tarvuz haqiqiy tarvuzdan shirin emas, virtual qazi haqiqiy qazi o'rmini bosa olmaydi va h.k.

Virtual borliqni odamlar yaratadi. Shu bois, virtual borliqda mavjud barcha narsalarning manbai inson ongidir. Binobarin, virtual borliq ong, ong osti sohasi va fantaziya chig'irig'idan o'tuvchi fizik borliqdan shakllanadi. Virtual borliq ob'ektiv tarzda, ya'ni inson miyasida emas, balki kompyuterda mavjud bo'ladi. Ayni vaqtda, u inson ongining mahsulidir. Inson tomonidan yaratilganidan keyin u inson ongidan qat'iy nazar yashashda davom etadi, bu ongga har xil ta'sir ko'rsatadi, mazkur ongning mazmuniga – bilimlar, emotsiyalar, kayfiyat hamda ongning boshqa unsurlariga qarab, har xil idrok etiladi.

Bugungi kunda virtual borliq inson madaniy faoliyatining turli sohalarida qo'llanilmoqda. Virtual borliqdan eng avvalo u vujudga kelgan sohada, fanda – fizikada suyuqlik va gazlar dinamikasini modellashtirishda, kimyoda kimyoviy reaksiyalar modelini tuzishda, geologiya va geografiya fanlarida foydalanilmoqda. Muhandislik sohasida, ayniqsa, xavfli sharoitlarda: ochiq kosmosda, dengiz va okeanlarning chuqur joylarida, yadro muhandisligida robotlarni masofadan turib boshqarishda virtual borliq keng qo'llanilmoqda. Muhandislik dizaynini avtomatlashtirish jarayonida virtual borliq texnologiyasi ayniqsa qo'l kelmoqda. Kompyuter dizayni va uning ajralmas hamrohi – kompyuter ishlab chiqarishi raketalar va samolyotlar, avtomobillar katta binolar konstruksiyalarini sinovdan o'tkazishda yagona jarayonga birlashtirildi. Virtual borliq texnologiyasidan harbiylar ham keng foydalanmoqdalar. Masalan, AQSh armiyasida harbiy xizmatchilarda merganlik ko'nikmalarini shakllantirishda imitatorlardan, jang sharoitida tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish

ko'nikmasini shakllantirish uchun esa harbiy doktorlardan foydalaniladi. Juda qimmatga tushadigan va atrof muhitga katta zarar yetkazadigan harbiy mashqlar imitatsiya qilinmoqda. Tank qismlarida tankdan o'q uzishni hamda tank jangida askarlar va ofitserlarning shaxsiy ishtirokini imitatsiya qiluvchi harbiy o'yinlardan foydalanilmoqda. Loyihalashtirilgan, lekin hali yasalmagan qurol-aslaha turlari sinovdan o'tkazilmoqda. Harbiylar olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va ularga baho berish uchun ham kompyuter imitatsiyasidan foydalanmoqdalar.

Ta'lim sohasida mashq trenajyorlarini yaratishda virtual borliq texnologiyasidan foydalanilmoqda. Virtual kutubxonalar va muzeylar tashkil etish jarayoni boshlandi. Masalan, virtual kutubxonalarda foydalanuvchi kompyuter yordamida kitob javonlarining vizual tasviri bo'ylab harakatlanishi, kerakli adabiyotlarni topishi va olib ko'zdan kechirishi, zarur holda esa ulardan nusxa ko'chirishi mumkin.

Virtual muzey konsepsiyasida muzey foydalanuvchilariga kolleksiyadagi istalgan eksponatni uning tabiiy, uch o'lchovli ko'rinishida ko'rish imkonini beradi. Ammo bu tasviriy yechish qobiliyati ancha yuqori bo'lgan displeylarni taqozo etadi.

Shunday qilib, virtual borliq nazariy izlanishlardan ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalar ajralmas qismi bo'lgan hozirgi zamon madaniyatining tarkibiy qismiga aylandi.

Energiya borliq shakli sifatida fanning fundamental qonunlaridan biri – energiyaning saqlanishi va o'zgarishi qonunining tarkibiy qismida namoyon bo'ladi. Energiya moddiy jismlarning o'z holatini o'zgartirish orqali muayyan vazifani bajarish qobiliyati bo'lib, u yo'q qilib bo'lmaydigan, rang-barang o'zgarishlarga qodir substantsiya, materiya atributi sifatida talqin qilinadi.

Suv, shamol va hayvonlarning muskul kuchi energiya manbaidir. Qadimgi odamlar yelkanli kayiqlarni shamol energiyasi yordamida harakatga keltirganlar. Evolyutsiya qonunlari hamma narsa va jarayonlar nafaqat muskul kuchi bilan yoki fizik energiya ta'sirida, balki inson miyasi – tafakkur energiyasi yordamida ham amalga oshirilishini talab qiladi.

Energiya tushunchasi dastlab Aristotel tomonidan qo'llanilgan. Ilmiy hamjamiyatda energiya haqidagi tasavvurlar mexanikada shakllangan va bu atama fanda birinchi marta 1807-yilda qo'llanilgan. U bilan bir vaqtda «kuch» atamasidan ham foydalanilgan. G.Leybnits

energiya hodisasini «jonli kuch» deb tavsiflagan. G.Gelmgolts ilmiy muomalaga kiritgan potentsial energiya haqidagi tasavvurni «kuchlanish kuchi» deb nomlagan.

XIX-XX asrlar chegarasida fizikaning rivojlanishi harakatning yangi turlari kashf etilishiga olib keldi. lekin ularda aynan nima harakatlanishi noma'lum bo'lib qoldi. Ayrim olimlar bu holatdan foydalanib, materiyasiz harakat mumkin emasligini isbotlashga urindilar. Elektron tabiat hali yaxshi o'rganilmagani tufayli, elektron muayyan «nomoddiy kuch», moddiy tashuvchisiz sof harakat, deb e'lon qilindi.

Energetizm - energiyani barcha hodisalarning birinchi negizi deb biluvchi falsafiy yo'nalishdir. Energetizmning asosiy maqsadi «materiya» tushunchasini ma'lum energiyalar kompleksi bilan almashtirishdan iborat. Energiya deganda, aksariyat hollarda moddiy harakat tushunilgan. Materiya moddaga tenglashtirilgan.

Materiya va harakatni nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham yo'q qilib bo'lmashligini tan olish muhimdir. Harakatni sifat jihatidan yo'q qilish mumkinligini faraz etgan holda, uning faqat miqdor jihatidan saqlanishini tan olish Olamning issiqlikdan o'lishi konsepsiyasiga olib kelgan. Bu g'oya klassik elektrodinamika asoschilari V.Tompson va R.Klauzius tomonidan ilgari surilgan. Ushbu nazariya zamirida termodinamikaning ikkinchi asosi yoki entropiyaning o'sishi qonunini butun Olamga nisbatan tatbiq etishga urinish yotadi. Entropiya - xaoslashuv o'lchovi. Sadi Karno 1829-yilda ta'riflagan termodinamikaning ikkinchi qonuni berk tizim yuz berish ehtimoli oz bo'lgan holatdan o'zining eng ko'p ehtimol tutilgan holatiga intilishini ko'rsatadi. Buni tushumishga kundalik hayotdan olingan quyidagi misol yordam berishi mumkin. Agar suvi qaynab turgan choynakni olovdan olsak, uning qizishi davom etmaydi, (yuz berish ehtimoli oz bo'lgan holat), balki soviydi (eng ko'p ehtimol tutilgan holat). Ammo qonun berk tizimlarga, ya'ni o'zini qurshagan muhit bilan energiya almashmaydigan tizimlarga mo'ljallangan, bu esa ulkan kuchga ega abstraktsiyadir, chunki dunyoda aksariyat tizimlar berk emas. Termodinamikaning ikkinchi asosi berk tizim sifatida talqin qilingan Olamga nisbatan tatbiq etilganida, hisob-kitoblar barcha energetik jarayonlar bir yo'nalishda yuz berishi lozimligini ko'rsatdi. Energiyaning o'zgarish jarayonlarini tavsiflovchi fizik kattalik sifatidagi entropiya o'sib bordi. Boshqacha aytganda, xaos

yuzaga keladi. Energiyaning barcha turlari issiqlik energiyasiga aylanadi va so'ngra makon bo'ylab tarqalib ketadi. Olam soviy boshladi. Mutlaq issiqlik muvozanatining yuzaga kelishi Olamning issiqlikdan o'lishini anglatadi.

Bu qoidalarining mohiyati harakat shakllarining sifat rang-barangligi yo'q bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmasligini, ya'ni energiya-ning rang-barang turlari issiqlik energiyasiga aylanishi mumkin emasligini ko'rsatishdan iborat edi. Aslida Olamning issiqlikdan o'lishi konsepsiyasi tabiiy ilmiy nuqtayi nazardan ham asossiz edi. Termodinamikaning ikkinchi asosini butun Olamga nisbatan tatbiq etish imkoniyati uning tuzilishini erkin faraz qilishni, xususan, uni berk deb tasavvur qilishni nazarda tutadi. Lekin Olam berk tizim emas, u zarralar va elementlarning cheksiz miqdoridan tashkil topgan, shu bois mutlaq termodinamik muvozanat holati unga mos kelmaydi.

Energiya turlarining hozirgi tipologiyasi uning moddiy tashuvchilar – mexanik, issiqlik, kimyoviy tashuvchilarni hisobga olgan holda, va ularning o'zaro ta'sirlari turi – elektromagnit yoki gravitatsion o'zaro ta'sirga ko'ra tuziladi. Mexanik energiya kinetik (harakatlanuvchi jismlar tezligiga bog'liq) va potentsial (jismlar holatiga bog'liq) energiyaga bo'linadi.

Termodinamikada erkin va bog'liq energiya farqlanadi. Ba'zan tashqi va ichki energiya to'g'risida so'z yuritiladi. Tashqi energiya deganda mexanik energiya, ichki energiya deganda esa to'liq energiya-ning butun qoldig'i tushuniladi. Ruhiy energiya inson tanasining barcha hujayra va a'zolariga singib, u yerda muayyan tartib, garmoniya yoki disgarmoniya o'rnatadi, degan ta'limotga asoslanadi. Bunda inson toliqish his etib, hattoki depressiya holatiga ham tushadi. Insonning ruhlanishi, hattoki, go'zalligi ham ruhiy energiya bilan bog'lanadi. German Gesse «Sharqqa sayohat» asarida agar odam ahamiyatsiz ishlar bilan uzoq vaqt shug'ullansa, bu uni qo'zg'atishi va unga kuch berishini qayd etgan. Binobarin, ahamiyatsiz ishlar bilan shug'ullanganda hayot energiyasi tiklanadi. Fanda ba'zilar buni relaksiyalash qonuni deb nomlaganlar.

Ammo ruhiy energiya sohasi hozirgacha fanda yaxshi o'rganilmagan. Ruhiy energiya dunyo va hayotning barcha holatlaridan ta'sirlanadi yoki tebranadi.

Ezoterika an'anasida ruhiy energiya-ning u makonda qatlam hosil qilishi, insonni qurshagan hamma narsalarga o'tirib, cho'kindi

hosil qilishiga e'tibor qaratiladi. Inson nafaqat kosmik energiyani to'plovchi, balki uning kuchli tarqatuvchisi hamdir. Shu bois ruhiy energiya tashuvchisi – inson qanday bo'lsa, uning narsalari ham shunday bo'ladi. Ruhiy energiya qatlamlarining saqlanish yoshi muammoli hisoblanadi. Uni asrlar ham, masofa ham yo'q qila olmaydi, u ming yilliklar osha yashaydi. Rivoyatlarga qaraganda, atlantlar, misrliklar, xaldeylar ruhiy energiyaning mazkur xossasidan foydalanishgan. Ular muayyan sifatli narsalarga ruhiy energiyani qavat-qavat qilib to'plaganlar, bu energiya boshqalarga kerakli darajada ta'sir ko'rsatishi lozim bo'lgan. Bunday narsalar xalq tilida dam solingan narsalar deb atalgan, ularda energiya qatlamlari to'planishi jarayonida muayyan duo o'qilgan.

Bugungi kunda fikr va tasavvur energiyasi ham tan olinmoqda. «Nozik daraja»dagi rang-barang energiya hodisalarining amal qilish mexanizmlarini tushuntirishga urinishlar, asosan, ezoterikaga oid adabiyotlarda uchraydi. Ruh va materiya, hayot va o'lim, yaxshilik va yomonlik kabi mutlaqo qarama-qarshi sohalar (oliy ziddiyatlar)ga duch kelinganida, ularni neytrallashtirish, ya'ni uchinchi bog'lovchi narsani yaratish imkoniyati nazarda tutiladi. Shu tariqa «energiya» tushunchasi qadimgi germetizm ta'limotida ruh – materiya ziddiyatida o'rtadagi bog'lovchi sifatida namoyon bo'ladi. Shu asosda butun oraliqdagi narsalar astral, birinchi va uchinchisi esa mental va fizik deb ataladi. Shunday qilib, energiyani o'rganish astral holatini o'rganish va bilish demakdir. Ma'naviy rivojlanish ichki ma'naviyat, inson ma'naviyatini bilish, anglash va namoyon etishni anglatadi. Ruhiy energiyani sinov-chi sabr-toqatli va ezgu niyatli bo'lishi kerak. U shikoyat qilishi va tushkunlikka tushishi mumkin emas.

Ezoterika namoyandalari ruhiy energiya o'ta nozik bo'lgani uchun u bilan o'ta nozik darajada muomala qilish lozimligini ta'kidlaydi. Oliy energiya bilan muomala qilish ancha jiddiy muammodir. Ruhiy energiya kuchi olov qudrati bilan barobar ckanligini unutmaslik kerak. Birinchidan, bunday qudratli energiyani asrash lozim. Ikkinchidan, o'z tafakkurini nafaqat harakatga keltirish, balki harakatdan tiyish uchun ham boshqara olish zarur. Uchinchidan, oqilona sarflangan ruhiy energiya o'rmi darhol to'ldirilishini e'tiborga olish lozim.

### **Substantsiya va substrat tushunchasi**

Substantsiya (lot. substantia – mohiyat, birinchi asos), narsalarning yagona asosga egaligi, ularning kelib chiqishi bilan belgilan-

gan umumiy va uzviy xossalari esa – atributlar (lot. attributum –xos bo'lgan, qo'shib olingan) degan g'oyaga asoslanadi. Demak, substantsiya barcha narsalarning muayyan umumiy birlamchi asosidir. Turli narsalar va hodisalar vujudga kelishi va yo'q bo'lishi mumkin bo'lsa, substantsiyani yaratish ham, yo'q qilish ham mumkin emas, u faqat o'z borlig'ining shaklini o'zgartiradi, bir holatdan boshqa holatga o'tadi. Substantsiya – o'z-o'zini sababi va barcha o'zgarishlar asosi, borliqning eng fundamental va barqaror qatlami.

Biron-bir ob'ektning borlig'i deganda substantsial borliq, ya'ni ob'ektning substantsiyadan vujudga kelishi bilan belgilangan borliq tushunilsa, bu ob'ektning mavjud deb hisoblash orqali biz unda muayyan atributlarning mavjudligini taxmin qilamiz (holbuki «sof borliq»dan bunday borliqning tabiati haqida biron-bir taxmin kelib chiqmaydi). Masalaga bunday yondashilganda borliq nima, degan savol substantsiya nima, uning atributlari qanday, degan savolga aylanadi. Falsafa tarixida bu masala yechimining turli variantlarini aks ettiruvchi ontologik konsepsiyalar taklif qilingan.

Materialistik ontologiya borliqning asosi moddiy narsalar degan ta'limot bo'lib, uni antik faylasuflar yaratgan. Qadimgi yunon faylasuflari Fales butun borliqning birinchi asosi suv, Anaksimenes – havo, Geraklit – olov deb e'tirof etgan. Qadimgi ta'limotlar orasida Anaksimandr ontologiyasi alohida o'rin egallaydi. Uning fikricha, birinchi asos cheksiz va sifat jihatidan nomuayyan bo'lishi kerak, chunki unda narsalarning barcha konkret sifatleri (issiq va sovuq, namlik va quruqlik, achchiq va shirin va h.k.) aralash bo'lishi lozim. Atomlar, efir, modda – bularning barchasi materiyani barcha narsalarning substantsiyasi sifatida tushunishning turli variantlaridir. U materialistik monizm ham deb nomlanadi.

Idealistik ontologiya substantsial borliqni «narsalar dunyosi» zahirida yotuvchi «g'oyalar dunyosi» sifatida tasavvur qiladi. (bu g'oya Platon falsafasida rivojlantirilgan).

Dualistik ontologik konsepsiyalarda ikki xil borliq va tegishli ravishda ikki substantsiya farqlanadi (Dekart). Leybnits ontologiyasi ko'p sonli substantsial shakllar (monadalar)ning mavjudligini nazarda tutadi.

Din ontologiyasida Xudoning substantsial borlig'i tasdiqlanadi. Ekzistentsializm ontologiyasida substantsiya g'oyasi insonga bevosita berilgan borliq – ekzistentsiya kategoriyasi bilan bog'liq.

yangi falsafa va fan asoschilaridan biri bo'lsa-da, uning g'oyalarida o'rta asr falsafasidan meros qolgan «substantsiya» atamasining alohida narsani tushunish uchun qo'llanilishiga, shuningdek, u ikki muhim - universal va cheksiz substantsiya – fikrlash va ko'lamni alohida erkin maqomga ega, deb e'lon qilganiga duch kelish mumkin. Dekartning «cogio ergo sum» – «men fikrlayapman, demak, mavjudman», degan iborasi falsafiy tafakkurni barcha narsalarning negizi sifatida tan olganligidan dalolat beradi. Dekart fikrlovchi substantsiyaning uzviyligini va har bir «Men», ya'ni aqlli jonzotga bevosita, ko'lamli substantsiya esa – bilvosita ochiqqligini isbotladi. Ajralmas substantsiya (aql) metafizikaning o'rganish predmetini, ajraluvchi substantsiya (ko'lam) esa fizika predmetini tashkil etadi. Biroq ikki substantsiya – ma'naviy va moddiy substantsiyalarni farqlash, bu mantiqiy nuqtayi nazardan noto'g'ri va ratsional ma'noda juda ko'p qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Fikrlash va ko'lamga ikki substantsiya tarzida, ya'ni bir-biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil asoslar sifatida yondashilganida, «ruh» va «tana» o'z harakatlarida qanday uyg'unlashishi, umuman, «tana» qanday qilib fikrlash qobiliyatini kasb etishi mumkinligini tushunish qiyin. Mohiyat-e'tiboriga ko'ra, substantsiya butun mavjudot asosi, hamma narsani o'z ichiga oluvchi va o'zini namoyon qilish uchun hech narsaga muhtoj bo'lmagan yagona birinchi asos sifatida namoyon bo'lgan.

Frantsuz faylasufi J.Lametri o'zining «Ruhning tabiiy tarixi» deb nomlangan asarida dualizmni inkor qiladi. U o'zida tajriba o'tkazgan – bezgak kasalligiga chalingach, uning kechishini kuzatgan, pirovardida, insonning ruhiy holati uning jismoniy vujudiga bog'liq, degan xulosaga kelgan. Lametri monistik-materializmni himoya qilib, cheksiz takomillashuvchi yagona moddiy substantsiya mavjud, degan g'oyani ilgari surgan. Substantsiyaga xos sezish va fikrlash qobiliyati vujudli jismlarda mavjud bo'ladi. Sezish va fikrlash qobiliyatining o'zi tashqi jismlarning miyaga ta'siri bilan bog'liq. Shu sababli aynan tashqi dunyo insonning «miya ekrani»da aks etadi, tana ehtiyojlari esa, Lametrining fikriga ko'ra, «aql mezoni» sifatida amal qiladi.

Ikki asos-muhabbat va nafrat, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va zaruriyatning teng huquqliligi g'oyasi ilgari surilgan har qanday falsafiy nazariya dualistik nazariya sifatida amal qilgan.

Plyuralizm (lot. – ko'plik, ko'p xillik, ko'p sonlik) dunyoning negizida ikkita emas, balki undan ko'proq mohiyat borligini tan oluvchi ta'limot. (Bu atamani falsafaga X.Volf 1712-yilda taklif qilgan). Leybnitsning «monadologiyasi», ya'ni monadalar haqidagi ta'limoti plyuralizmning klassik ko'rinishi hisoblanadi. Ushbu ta'limotga ko'ra, dunyo son-sanoqsiz ruhiy substantsiyalardan tashkil topadi. Ammo plyuralistik yondashuvning bundan oldinroq ilgari surilgan ko'rinishlari ham mavjud. Masalan, Empedokl yaratgan dunyoning to'rt asosi haqidagi ta'limot plyuralistik ontologiyaning turlaridan biri sifatida amal qiladi. Ba'zan plyuralizmga mustaqil ta'limot sifatida emas, balki dualizmning o'zgargan ko'rinishi sifatida qaraladi. Lekin plyuralistlar o'z nazariyasining asosiy vazifasini dualistik munozaralarda yechimini topmagan ruh va tabiat o'rtasidagi qarama-qarshilik masalasidan farq qiladi, deb biladilar.

Substantsiyani barcha o'zgarishlarning sababchisi va (causa sui) o'z-o'zining sababchisi sifatida tushunish Kant tomonidan qabul qilinib, yuksak baholangan. U substantsiyani «hodisalarning vaqtdagi barcha munosabatlarini aniqlashga yordam beruvchi o'zgarmas asos», deb ta'riflagan. Uningcha, substantsiya har qanday tajriba va har qanday idrok etishning asosiy shartidir. U barqaror holatda bo'ladi, har qanday mavjudlik va vaqtdagi o'zgarish uning modusi, ya'ni o'zgarmas narsaning mavjudlik usuli sifatida qaralishi mumkin.

Hozirgi zamon falsafasida substantsiya kategoriyasining ontologik mazmuni o'zaro ta'sir sifatida tushuniladi. Chunki aynan o'zaro ta'sir dunyo yaralishining haqiqiy va pirovard sababchisi – narsalarning causa finalisi hisoblanadi. Narsalarni substantsiyalilik nuqtayi nazaridan o'rganish ularning mavjudligini ichki sabablar va o'zaro ta'sirlar nuqtayi nazaridan yoritish, demakdir. Shu ma'noda substantsiyani ichki birlik nuqtayi nazaridan, uning cheksiz va rang-barang o'zgarishlaridan qat'iy nazar qaraladigan ob'ektiv borlik sifatida, harakatning barcha shakllari, mazkur harakat jarayonida yuzaga keluvchi va yo'q bo'luvchi tafovut va qarama-qarshiliklar nuqtayi nazaridan yondashiladigan materiya deb ta'riflash mumkin. Shunday qilib, substantsiyaning ontologik xossalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'z-o'zini belgilash (o'z-o'zining sababchisi hisoblanadi, uni yaratib va yo'q qilib bo'lmaydi);



- universallik (hech narsaga bog'liq bo'lmagan, barqaror, o'zgarmas va mutlaq birinchi negizni ifodalaydi);

- kauzallik (barcha hodisalarning umumiy sababiy bog'ligini o'z ichiga oladi);

- yagonalik (birinchi negizning yagonaligini nazarda tutadi);

- yaxlitlik (mohiyat va mavjudlikning birligini ko'rsatadi).

«Substantsiya» kategoriyasiga «substrat» (lot. – to'shama, negiz) tushunchasi yaqin turadi. Substrat borliqning eng quyi va asosiy qatlami sifatida tushuniladi. Qadimgi atomistik ta'limotlarda atomlar ana shunday asos hisoblangan. Har qanday substrat muayyan vujudga kelish jarayonining o'ziga xos xususiyatini ifodalaydi. Hozirgi talqinda, ma'lum fizik jarayonlarning substrati sifatida elementar zaralar va fundamental (kuchli, kuchsiz, elektromagnit va gravitatsion) o'zaro ta'sirlar amal qiladi. Turli moddalarning hosil bo'lish va o'zgarish jarayonlarida o'zining barqaror holatini saqlab qoluvchi atomlar kimyoviy jarayonlarning substrati sifatida namoyon bo'ladi. Elementar «hayot birliklari» sifatida amal qiluvchi nuklein kislotalar (DNK va RNK) va oqsil moddalarning molekulari biologik jarayonlar substrati bo'lib xizmat qiladi. Barcha ijtimoiy o'zgarishlar zahirida maqsadga muvofiq faoliyati bo'lgan inson ijtimoiy hayot substrati hisoblanadi.

### **Materiya tushunchasining vujudga kelishi va uning funksiyalari**

“Materiya” atamasi lotincha materia so'zidan kelib chiqqan bo'lib, modda degan ma'noni anglatadi. Falsafa tarixida “materiya” tushunchasining mazmuni bir necha marta o'zgargan, tabiatshunoslikning va falsafaning rivojlanishiga muvofiq rivojlangan.

Hamma narsalarning asosi bo'lgan birinchi modda haqidagi tasavvur materiya bilan bog'langan. Materiya yuzaga keluvchi hamma narsalarning substrati sifatida namoyon bo'lgan. Materiya haqidagi tasavvur shakllanishining quyidagi bosqichlari farqlanadi.

Birinchi bosqich antik falsafa davrini qamrab oladi. Falsafa tarixida materiya haqidagi dastlabki tasavvurlar «stixiyali materializm» deb ataladi. Ushbu materializm o'z rivojlanishining birinchi bosqichida tabiat hodisalarning cheksiz rang-barangligiga asoslangan birlikni tabiiy hol deb hisoblaydi va uning sabablarini muayyan moddiy, o'ziga xos narsadan izlaydi. Antik qarashlarga ko'ra materiya – jismlar va narsalarning o'zagini belgilovchi birlanchi materialdir.

Materiyaning birinchi ilmiy konsepsiyasini miloddan avvalgi V asrda qadimgi atomistlar (Demokrit va Levkipp) taklif qilgan.

Demokrit barcha narsalar oddiy ajralmas zarralar – atomlardan iborat, degan g'oyani ilgari surgan. Uning tasavvurida bu zarralar bir-biri bilan to'qnashib, bir-biriga yopishib va bir-biri bilan birikib, biz ko'radigan narsalarni hosil qilgan. Narsalarning xossalari pirovard natijada ularni tashkil etuvchi atomlar shakli, kattaligi, o'zaro joylashuvi va harakatiga bog'liq. Bu barcha narsalarni tavsiflash va tushuntirishga asos qilib yagona umumiy sxemani – bilish ob'ekti har qanday ob'ektni atomlar birikmasi sifatida aks ettiruvchi modelini olish imkonini beradi. Shunday qilib, antik faylasuflar nuqtayi nazaridan, materiya – bu barcha narsalarning asosi. Odatda bular qadimgi donishmandlarning farazlari bo'lgan va ularning g'oyalari o'ta sodda xususiyat kasb etgan, chunki nazariy xulosalar borliqni kuzatish natijasi, tabiatni eksperimental o'rganish mavjud emasligi mahsuli bo'lgan. Demokrit, Epikur, Lukretsiy Karning atomistik nazariyasida barcha narsalarning substrati sifatidagi materiya atomlar yig'indisi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ular shakli, katta-kichikligi, og'irligiga ko'ra har xil, lekin bo'linmas va yo'q bo'lmasdir. Ob'ektlarning rang-barangligi atomlar konfiguratsiyasining turiligi bilan izohlanadi.

Platon hyule atamasini muomalaga kiritgan va u bilan kattaligi va shakl-shamoyili har xil jismlar paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qiladigan sifatlardan mahrum substrat (material)ni ifodalagan. Platon talqinida materiya shaklsiz va nomuayyan bo'lib, har qanday geometrik shakl ko'rinishini kasb etishi mumkin bo'lgan makon bilan tenglashtiriladi. Keyinchalik materiya haqidagi tasavvurlar asosan uning muayyan xossalari (massa, energiya, ko'lam) bilan bog'langan va muayyan turlari (modda, atomlar, korpuskulalar va sh.k.) bilan tenglashtirilgan.

Platonning «Timey» dialogidagi materiya haqidagi ta'limotni qadimgi yunon falsafasida alohida o'rin tutadi. Birinchidan, Platon «materiya» tushunchasini ifodalash uchun maxsus atama qo'llamagan, bu borada tushunish ancha mushkul bo'lgan «tur» ekani haqidagi ishoradan boshqa aniqroq tushuntirishlar ham bermagan. Ikkinchidan, u har qanday tug'ilishning «doya»si va «enaga»si bo'lish materiyaning doimiy vazifasidir, deb hisoblagan. Qaysidir ma'noda bu asos, lekin shaklsiz asosdir. Hamma narsalarni o'z ichiga olishi lozim bo'lgan asos o'zi har qanday shakldan mahrum bo'lishi lozim bo'lganidek,

uning vazifasi abadiy yashaydigan barcha mavjud narsalarning shakl-shamoyilini o'zida aniq va to'liq mujassamlashtirishdan iborat bo'lganligi uchun tabiatan har qanday shakldan mahrum bo'lmog'i kerak.

Platonning materiya – haqidagi ta'limoti o'zining borliqqa asoslangan mustahkam negizini yo'qotgan. Uningcha, materiya – tushunchasi aql (demiurg) – birlamchi, sof materiya (etilish joyi va «doya») - ikkilamchi sof materiya (moddiy narsalar) uchligida oraliq o'rin egallaydi. Platon doimo mavjud bo'lgan va hech qachon shakllanmaydigan narsalarni va doimo shakllanuvchi va hech qachon mavjud bo'lmaydigan narsalarni farqlaydi. Uning fikricha, narsalarning ular ichida tug'iluvchi va o'lganidan keyin unga qaytuvchi mohiyatini «u» yoki «bu» so'z bilan ifodalash, shu tariqa ularga barqarorlik hamda muayyanlik baxsh etish mumkin. Platon fikriga ko'ra, borliqning moddiy narsalar dunyosi sifatida shakllanish mexanizmi shundan iboratki, g'oyaning juda aniq ta'riflangan birinchi andozasi moddiy borliqdan o'rin oladi va materiyaga g'oyalar yetiladigan joy, ularning «doya»si va vazifasi bo'lish majburiyatini yuklaydi. Dunyodagi barcha jarayonlarning maqsadga muvofiqligi haqidagi tasavvur g'oya va narsalarning o'zaro bog'lovchi aloqasi bilan asoslanadi. G'oya narsalarning cheksiz hissiy ko'rinishlarining asosiy ma'nosini belgilovchi asos sifatida va har qanday yakka narsa uchun qonun sifatida tushuniladi. Platonning muhim, lekin ayni paytda ikkinchi darajali rol o'ynovchi materiya haqidagi ta'limoti Aristotelning shu mavzudagi fikr-mulohazalariga bevosita turtki bo'lgan.

Aristotelda «hyule» tushunchasi «morfe» yoki «eydos» («morphe» yoki «eydos») tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Garchi Aristotelning ontologik konsepsiyasida materiya va shaklning dualizmi aniq-ravshan sezilib tursa-da, u hech qachon «hyule»ni mustaqil borliq sifatida tavsiflamagan. Uning fikricha, amalda materiya faqat shakl bilan birikkan ko'rinishda mavjud bo'ladi. Materiya «hyule» va «morfe» (shakl) bilan uyg'unlikda har qanday yuzaga kelish va o'zgarishning zarur universal negizi hisoblanadi.

Aristotelning materiya haqidagi tasavvuri O'rta asr falsafasiga ancha o'zgarigan ko'rinishda o'tdi. O'rta asr teologlari Aristotelning ilmiy merosidan foydalanib, uning «morfe» (shakl) haqidagi g'oyasini o'zlashtirdilar. Ushbu g'oya boshqa qarashlardan ustun qo'yildi, u ma'naviy asos sifatida qabul qilindi. Mazkur talqin materiyasiz sof shakllar, chunonchi: xudolar, ruhlar, farishtalar, odamlarning o'lmas

ruhlari mavjudligini e'lon qilish imkonini berdi. Materiya doimiy, u dunyo yaralgunga qadar ham mavjud bo'lgan, degan g'oyani ilgari suruvchi «dahriylar» haqida ma'lumotlar «cherkov rahnamolari» o'rtasidagi munozaralar orqali bizgacha yetib kelgan bo'lsa-da, dunyoning moddiyligini o'rganish bilan bog'liq muammolar bu davrda ham to'la-to'kis barham topmadi. Materiyaning tabiati haqidagi masalada ular bir to'xtamga kelmagan bo'lsalar-da, uni yechish fanning rivojlanishida muhim rol o'ynashiga, zero bilish qaysi yo'ldan rivojlanishi lozimligini belgilashiga ularning ishonchi komil bo'lgan. Ular avval barcha narsalarning asosi sanalgan materiyaning nimaligini aniqlash va shundan keyingina bunga asoslangan holda ayrim narsalarning kelib chiqishi va xossalarini tushuntirish lozim, deb hisoblaganlar. Jumladan, bu xususda Aristotel shunday deb yozgan: «Avvalo birinchi asos va sababni bilish kerak, zero, ular orqali va ularga muvofiq qolgan barcha narsalar anglab yetiladi...».

Uyg'onish davri faylasuflari izchil materialistlar bo'lmisalar-da, o'rta asrlarning quruq muhokamaga asoslangan, spekulativ tafakkurini inkor etdilar. Mustaqil faol asos sifatidagi shakl g'oyasi chetga surib qo'yildi, materiya nafaqat potentsial, balki amalda ham mavjud bo'lgan narsa sifatida tushunila boshlandi. Alximiya sohasidagi eksperimentlar amaliyoti ta'sirida shakl-materiya mahsuli, degan yondashuv yuzaga keldi. Uyg'onish davrining Bernardino Telezio, Frantsiska Patriysiya, Jordano Bruno kabi faylasuflari ijodida «materiya» tushunchasi yangicha mazmun kasb etdi. Materiyaning yaralishi g'oyasi inkor etildi, materiya boqiy deb e'lon qilindi, harakat tabiiy kuchlar ta'siri natijasi sifatida tushunila boshlandi.

Materiya haqidagi tasavvurlar rivojlanishining ikkinchi bosqichi Yangi davr (XVI-XVII asrlar) falsafasida materiya tushunchasi fizikada qabul qilingan muayyan o'zgarmas xossalar yig'indisi sifatidagi «modda» tushunchasi bilan ayniyilastirilgan. Masalan, ingliz materialistlari Bekon va Gobbs bunday xossalar qatoriga ko'lamlilik, shakl, og'irlik va hokazolarni kiritgan. Ba'zan materiya tushunchasi bitta muayyan «birlamchi» xossa, masalan ko'lamlilik yoki massa bilan ayniyilastirilgan (Dekart, Nyuton).

Yangi davrning mexanistik materializmida materiya ta'rifi zamirida «material» tushunchasi emas, balki barcha moddiy narsalar uchun umumiy bo'lgan asosiy va o'zgarmas xossalar tushunchasi yotadi. Bu davr faylasuflari antik davrda amal qilgan metodologik

qoidani yangi bosqichga ko'tardilar. Ular materiyaga birinchi modda sifatida emas, balki birinchi belgi sifatida yondashdilar. Qadimgi faylasuflardan farqli o'laroq, ular suv, olov yoki havoni butun borliqning birinchi asosi va birinchi sababi deb e'lon qilganlari yo'q. Barcha fanlar tajriba asosida rivojlangan ushbu davrda hamma narsa zahirida ayrim mexanik xossalari: ko'lamlilik, o'zidan hech narsani o'tkazmaslik, og'irlik, shakldorlik yotadi, degan qarash shakllandi. Materiyaning tavsiflashga nisbatan mazkur yondashuv XIX asr oxirigacha dunyoning ilmiy manzarasiga zid bo'lmagan. Buning negizida materializmning shakli metafizik yoki mexanistik degan nom olgan, chunki u fizikaning nazariy ma'lumotlariga asoslanibgina qolmasdan, balki ilmiy izlanishlarning dunyoqarashga doir metodologik asosi sifatida amal qilgan.

Shu nuqtayi nazardan, materiyaning antik va mexanistik talqiniga xos bo'lgan bir qancha umumiy jihatlarni qayd etish mumkin. Birinchidan – materiya birinchi modda yoki birinchi belgini topish yo'li bilan aniqlanadi. Ikkinchidan – materiyaning aniqlash zahirida ob'ektivlik mezonini, ya'ni bizdan tashqarida va bizga bog'liq bo'lmagan holdagi mavjudlik qobiliyati yotadi. Uchinchidan – materiya o'zgarimas bo'lib, o'z navbatida, o'zgaruvchi sifatidagi ayrim narsalarga qarshilik ko'rsatadi. To'rtinchidan – «materiya» tushunchasini ta'riflashda yakkalik va xususiylik haqidagi metodologik qoidaga amal qilinadi.

Materiyaning uchinchi konsepsiyasi XVIII-XIX asrlarda vujudga kelgan bo'lib, bu davrda «materiya» tushunchasi tabiiy fanlarning rivojlanish jarayonida olimlar bilimning muayyan sohalarida aniqlagan belgilar bilan boyib bordi. Masalan, mexanikada makrojismlarning alohida xossasi – massa aniqlandi. U materiyaning eng muhim belgisiga aylandi, materiya massa bilan bir xil, deb hisoblana boshlandi. Kimyoda analiz metodi kimyoviy elementning aniqlanishiga olib keldi va materiyaga ana shu belgi – vaznlilikka ega bo'lgan elementlar majmui sifatida qarala boshlandi. Mazkur yondashuvlarning kamchiligi shunda ediki, barcha moddiy narsalar alohida modda deb tushunildi, moddaning o'zi sof mexanik ko'rinishda tasavvur qilinib, unga o'lcham, massa, og'irlikka ega, deb qaraldi. Shu bilan birga, materiyaning maxsus ilmiy va falsafiy talqinlari ayniydir, deb tushunila boshlandi. Materiyaning falsafiy

talqiniga sof induktiv yo'l, oddiy umumlashtirish yo'li bilan ayrim fanlarning g'oya va qoidalari kiritildi.

1924-yilda B.Rassel, elektromagnit maydonlar va gravitatsiya maydonlari mavjudligini unutilib, o'zidan boshqa narsalarni o'tkazmaslikni materiyaning asosiy xossasi sifatida tavsifladi. 1964-yilda amerikalik tomist Layten «materiya» tushunchasining massa va energiyaga bog'langan talqinini taklif qildi.

Materiyani uning xossalaridan biriga bog'lash uni ta'riflashning ancha keng tarqalgan, lekin imkoniyatlari cheklangan usulidir. Ilmiy bilishda mazkur usul elementarizmning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bunda hodisani tushunish uchun murakkabni oddiyga, butunni esa elementga bog'lash lozim. Ammo yakkalik yoki xususiylik – muayyan modda yoki xossaga asoslanib materiya haqida yaxlit tasavvur hosil qilish mumkin emas. Ushbu asosda materiyaga ta'rif berib bo'lmazligi haqida Volter shunday deb yozgan edi: «Biz materiyani o'lchaymiz, uni tarkibiy qismlarga ajratamiz, lekin bu qo'pol harakatlar doirasidan chetga bir qadam tashlashga urinsak ham o'zimizning o'zligimiz va jarlikni sezamiz». Materialist faylasuflar materiyaga uni hech narsaga bog'lamasdan ta'rif berishga harakat qildilar. Ayni vaqtda XVII-XVIII asrlardayoq materiya haqida ancha keng tasavvur shakllandi. Bu yo'nalishda Bekon, Golbax va Didro, ayniqsa, jiddiy muvaffaqiyat qozondi. «Bizning sezgi organlarimizga ta'sir ko'rsatuvchi hamma narsalar bizga nisbatan materiyadir», deb yozadi Golbax. Uning fikricha, materiyani biron-bir yagona birinchi asosga o'xshatib bo'lmaydi, dunyo bundan rang-barangroqdir, shu bois materiya ta'rifi ham mumkin qadar keng bo'lishi kerak.

XIX-XX asrlar chegarasida amalga oshirilgan buyuk kashfiyotlar metafizik dunyoqarashga zarba berdi. XIX asrning ikkinchi yarmida Faradey va Maksvell tadqiqotlari natijasida materiyaning moddaga qaraganda yangiroq shakli – elektromagnit maydonning o'zgarish qonunlari aniqlandi. Tadqiqotlar elektromagnit maydon qonunlari klassik mexanika qonunlariga bog'lanmasligini ko'rsatdi.

Radioaktivlikning kashf qilinishi atomning noo'tkazuvchanligi haqidagi ta'limotni rad etdi, elektronning kashf etilishi, uning bo'linmasligi haqidagi tezisni kun tartibidan chiqardi, rentgen nurining kashf etilishi bilan modda maydonga aylanishi mumkin emasligi isbotlandi. Jismlar harakatining tezligiga qarab massaning

o'zgaruvchanligi kashf etildi, jismlarning makon va vaqtga oid xossalari ularning harakat tezligiga bog'liqligi tushunib yetildi.

Bu ixtirolar tabiatshunoslikda yangi inqilobni boshlab berdi. Bularning barchasi fizik jismlarning xossalari haqidagi odatdagi tasavvurlarga zid keldi. Shu bois, fizikada materiyaning mexanistik talqini, dunyoning mexanistik manzarasi inqirozga yuz tutdi. Materiya atomga tenglashtirilgan sharoitda va keyinchalik uning parchalanish qobiliyati aniqlanishi munosabati bilan ayrim fiziklar, shu jumladan, E.Max va A.Puankare («fizik idealistlar») «materiyaning yo'q bo'lishi (annigilyatsiyasi)» to'g'risidagi xulosaga keldilar. Bu xulosaning metodologik jihatdan asossizligi shunda ediki, unda falsafiy kategoriya sifatidagi materiya uning fizik tuzilishi haqidagi ta'limot bilan tenglashtirildi. Ular atomlarning radioaktiv parchalanishini materiyaning «g'oyib bo'lishi», uning energiyaga aylanishi sifatida tushuntirishga harakat qildilar. Amalda materiya g'oyib bo'lmaydi, u haqdagi tasavvurlar eskira boshladi. Yangi ilmiy kashfiyotlar qarshisida materiyaga uning ayrim turlariga xos bo'lgan sifatlarni yuklashga urinishlarning yanglishligi ayon bo'ldi.

Fanning rivojlanishida muhim rol o'ynagan materiyaning uchinchi konsepsiyasi efir g'oyasiga ham tayangan. Efir deganda butun dunyoni to'ldiruvchi uzluksiz muhit tushuniladi. Atomlar va efir haqidagi ta'limotlarning birikuv natijasida shakllangan atom-efir konsepsiyasida materiya atomlar ko'rinishida ham, efir ko'rinishida ham mavjud, ya'ni ikkita har xil substantsiyadan iborat, degan fikr ilgari suriladi. Bu tasavvurlardan kelib chiquvchi ob'ektning modeli bilishning ikki yoqlama strategiyasini belgilaydi. Bu strategiyaga binoan ayrim (masalan, kimyo yoki molekulyar fizikadagi) hodisalarga izohni moddaning atom tuzilishidan, ayrim (masalan, optika yoki elektrodinamikadagi) hodisalarga izohni esa – efir muhitining holatidan qidirish lozim.

XIX asrdagi tabiatshunoslik bu strategiya yordamida erishgan yutuqlar materiya haqidagi atom-efir tasavvurlarning to'g'ri ekanligiga zamondoshlarni ishontirdi. Aynan ularning yordamida fan nihoyat mustahkam zamin kasb etgandek va tabiatning barcha sirlari tagiga yetish yo'lida ishonch bilan harakatlanayotgandek bo'lib tuyuldi. Ammo XIX-XX asrlar chegarasida tabiatshunoslikda chinakam inqilob yasagan kashfiyotlar qilindi. Bo'linmas va buzilmas deb hisoblangan atomlar parchalanishi mumkinligi, efir xossalari o'ta

ziddiyatli bo'lib, uning mavjudligiga shubha bilan qarashga majbur etishi aniqlandi. Materiyaning atom-efir konsepsiyasi asossiz ekanligiga ishonch hosil qilgan olimlar materiya tushunchasining o'zi eskirgani haqida o'ylay boshladilar va materializmdan yuz o'girdilar. Ammo bu davrda materiya tushunchasi emas, balki uning olimlar tafakkurida qadim zamonlardan boshlab to XX asrgacha hukm surgan substrat sifatidagina talqiniga puchga chiqdi. Tabiatshunoslikda yuz bergan o'zgarishlarning falsafiy mazmuni shundan iborat ediki, ular materiyaning tushunishga nisbatan o'zgarishga yondashuv zarurligini ko'rsatdi.

Materiya haqidagi tasavvurlar rivojlanishining to'rtinchi konsepsiyasi XX asr falsafasiga xos. Bu yerda materiyaning tushunishida tabiiy ilmiy jihat emas, balki falsafiy jihat birinchi o'ringa qo'yildi. Bu materiya narsalar va hodisalar rang-barangligining ichki yagonaligi zaminida yotuvchi mohiyat – substantsiya sifatida yondashuvdir. Materiya ob'ektiv borlik sifatida qarala boshlandi. XIX va XX asrlar chegarasida falsafa va tabiatshunoslikda yuzaga kelgan vaziyatni tahlil qilgan faylasuflar (ularni faqat sobiq marksizm vakillaridan iborat, deb tushunmaslik lozim), xususan, «materiyaning tushunchasidan voz kechish yo'lidan emas, balki unga tabiatshunoslikdagi ixtirolarni umumlashtirish orqali chiqarilgan yangi va yangi xulosalarni kiritish yo'lidan borishni taklif qildilar. Materiyaning tuzilishi haqidagi har qanday fizik yondashuvlar xususiy jihatini hisobga oladi, bunda butun borlik emas, balki uning ayrim jihatlarinigina tahlil qilish nazarda tutiladi.

Materiyaning falsafiy talqini butun predmetli borliqni qamrab oladi va umumiylik belgisiga ega. U butun ob'ektiv borliqni to'liq ifodalaydi. Umumiylik belgisiga suyanuvchi materiyaning falsafiy talqini amalda eskirishi mumkin emas, chunki u insonning tashqi dunyoni aks ettirishga qaratilgan qobiliyatini ifodalaydi. Materiyaning xossalari, tuzilishi va turlari haqidagi fizik yondashuvlar muqarrar ravishda eskiradi va o'zgaradi. Bundan materiya emas, balki materiya haqidagi bilimlarimizning kechagi chegarasi yo'q bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi.

### **Materiyaga oid turli konsepsiyalar**

Materiyaga substrat sifatida yondashishga asoslangan konsepsiyalarning barchasi bir umumiy kamchilikka ega: u mazkur konsepsiyalarning tarixiy cheklanganligini belgilaydi va ilmiy bilish-



ning rivojlanishi natijalari bilan ularning nomuvofiqligini muqarrar qilib qo'yadi. Gap shundaki, ularda materiya uning bir (yoki bir nechta) turi – suv, atomlar va hokazolar bilan bog'lanadi, materiyaning bu turi dunyoda mavjud bo'lgan barcha narsalarning birlamchi, universal, mutlaq asosi deb e'lon qilinadi. Fan mazkur materiya turining mavjudligi bilan belgilangan hodisalarni o'rganish bilan mashg'ul ekan, ko'rsatilgan kamchilik sezilmaydi va uning rivojlanishiga jiddiy moneliklar tug'dirmaydi. Ammo materiyaning yangi turlari, shakllari va holatlarining kashf etilishi darhol bu turga narsalarning birdan-bir, umumiy va universal asosi sifatida qaraydigan substrat konsepsiyasining torligini namoyon etadi. Shunda uni yangi, kengroq konsepsiya bilan almashtirish zaruriyati tug'iladi. Materiyaning har qanday substrat konsepsiyasi o'z qo'llanish chegarasiga ega va fanning rivojlanish jarayonida u ertami-kechmi aniqlanadi.

Fan taraqqiyoti materiyaning substrat konsepsiyasi asossiz ekanligini namoyish etib, falsafaga dialektikadan saboq berdi. Bu saboq ilmiy bilishning rivojlanish mantig'iga mos keluvchi ontologik konsepsiyani yaratish uchun izchil dialektik fikrlash zarurligini yana bir karra tasdiqladi. Substrat konsepsiyalari dialektik xususiyatga ega emas. Ular narsalarda qanday o'zgarish yuz bermasin, ularning substrati o'zgarishsiz qolishini nazarda tutadi.

Materiyaning substrat konsepsiyasida ilk materializm namoyandalari materiyaning substrat sifatida tushunishga asos solganlar: ular materiyaning barcha mavjud narsalarni yaratishga asos bo'luvchi substrat (lot. substratum – asos, zamin), material, modda sifatida talqin qilganlar. Bu substrat boqiy, uni yaratib va vayron qilib bo'lmaydi, deb taxmin qilingan. Ammo ularning hissiy idrok etiladigan ayrim moddalar (suv, yer va boshqalar)ga umumiy substrat sifatida qarashga urinishlari juda sodda va ishonarsiz bo'lgan.

Materiyaning substantsional konsepsiyasi uni yaratib ham, yo'q qilib ham bo'lmasligini, uning mavjudligi va o'zgarishining tashqi sabablari mavjud emasligini ko'rsatadi. Ushbu ta'rif barcha narsalar materiyaning substantsiyasi deb bilishga asoslanadi.

Materiyaning genetik-kontrast konsepsiyasi, uni faqat ongga qarshi qo'yish yo'li bilan ta'riflashga asoslanadi. Ushbu ta'rif Russoning bu sohadagi mushohadalari yoki G.V.Plexanovning: «Ruh»ga zid o'laroq, sezgi organlarimizga ta'sir ko'rsatish orqali

bizda muayyan his-tuyg'ular uyg'otuvchi narsa «materiya» deb ataladi», degan tezi asosida mavjud bo'lishi mumkin.

Materiyaning atributiv konsepsiyasi uni atributlar majmui: makon, vaqt, harakat, sifat, miqdor bilan tenglashtiradi. Yuqorida materiyaning substrat konsepsiyalarida bilish ob'ektining modeli muhim rol o'ynashi ko'rsatib o'tildi. Bu jihatdan materiyaning falsafiy konsepsiyalari ilmiy nazariyalar bilan o'xshash. Zero, bu nazariyalarni ishlab chiqish doim ular o'rganuvchi narsalar va jarayonlarning nazariy modellarini yaratish bilan bog'liq. Ammo fanda model ob'ektlarning muayyan turkumini bilish vositasi bo'lib xizmat qilsa, ontologiyada har qanday ob'ektlarni bilish vositasi bo'lishga qodir bo'lgan «umuman bilish ob'ekti»ning modeli tuziladi. Materiyaning dialektik konsepsiyasi XIX-XX asrlar chegarasida shakllandi. Materiyaning dialektik tushunish uni bilishga nisbatan falsafiy va ilmiy yondashuvlarning birikuv natijasida vujudga keldi. Zero, bir qator yirik olimlar (Gelmgolts, Darvin, Mendeleev, Plank, Eynshteyn, Bor va boshqalar)ning asarlarida materiyaning dialektik talqinini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan g'oyalar ilgari surildi.

Materiyaning dialektik konsepsiyasi uning bitmas-tuganmasligi, ya'ni materiya turlari, shakllari, holatlarining cheksiz rang-barangligi mavjud ekanligi haqidagi g'oyaga olib keladi. XIX-XX asrlar chegarasida atomlarning parchalanishini o'rganish materiyaning ilgari ma'lum bo'lmagan turi – elementar zarralar kashf etilishiga olib keldi. Shunday qilib, atomlar parchalan-ganda materiya yo'q bo'lmasligi, balki faqat bir shakldan boshqa shaklga o'tishi aniqlandi.

Hozirgi zamon fizikasida ham moddiy ob'ektlarning yangi turlari aniqlanmoqda. Fiziklar mikroduyoni o'rganish jarayonida fizik bo'shliq, virtual zarralar, kvarklar kabi g'ayrioddiy ob'ektlarga duch kelmoqdalar. Megadunyo (ulkan kosmik miqyosdagi dunyo) sari harakatlanib, ular bu yerda protoyulduzlar, kvazarlar, «qora» va «oq» tuynuqlarni kashf etmoqdalar. Fikrlashning dialektik metodi fanning rivojlanish tajribasiga tayanadi va shu bilan bir vaqtda bu tajriba uni yanada rivojlantirishga tatbiq etadi. Shunday qilib, materiyaning dialektik talqini uni materiyaning biron-bir turi bilan bog'lamaydi va materiyaning shakllari va holatlarining cheksiz darajada rang-barangligini, ularning barchasi o'zgaruvchan va o'tkinchi ekanligini qayd etadi.

## **Materiya kategoriyasining funksiyalari va tashkil topish darajalari**

Materiya kategoriyasining funksiyalari quyidagilar:

Materiya - onga, ma'naviy kuchlarga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv borliqning mavjudligi haqidagi fikrni ifodalaydi; barcha narsalarda mavjud bo'lgan umumiy xossalarni tavsiflaydi; barcha narsalarni bilishga eltuvchi yo'lni, ularni bilishda amal qilish lozim bo'lgan umumiy dastur yoki strategiyani umumiy ko'rinishda belgilaydi. Bu funksiyalarni materiya kategoriyasi falsafaning keyingi rivojlanishi jarayonida saqlab qoldi.

Materiyaning tashkil topish darajalari jonsiz, jonli va ijtimoiy kabilarda namoyon bo'ladi. Ular borliqning asosiy shakllari bilan mos keladi. Bunda turli darajalar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ayni vaqtda ularning tarkibida muayyan ierarxiya va soddaroq shakllardan (jonsiz materiyadan) murakkabroq shakllar (jonli va ijtimoiy materiya) sari yuksalish kuzatiladiki, bugungi kunda ularning mavjudligi faqat sayyoramizga nisbatan o'zining ilmiy tasdig'ini topgan. Jonsiz tabiatning tuzilishi va rang-barangligi haqidagi tasavvurlar esa, mikro, makro va megadunyolarni qamrab olib, tinimsiz kengayib va teranlashib bormoqda.

Jonsiz materiya tizimi quyidagi darajalar bilan tavsiflanadi:

a) mikrodunyo (mikroelementlar darajasi). Unga maydonlar va elementar zarralarning o'zaro ta'siri etadi. Bu juda kichkina ob'ektlar dunyosi bo'lib, unda zarralar mavjudlik vaqti sekundning milliardlab ulushlari bilan o'lchanadi, harakat tezligi esa yorug'lik tezligiga yaqinlashadi:

b) makrodunyo katta ob'ektlar dunyosi sifatida atomlar, molekular, makrojismlar, sayyoralar va yulduzlar, sayyoralar tizimlarini qamrab oladi. Tabiatning mazkur sohasini o'rganishning asosiy ob'ektlari - yulduzlararo bo'shliq, galaktika, metagalaktikalardir;

v) megadunyo jonli materiya tizimi hozircha faqat Yerda ma'lum. Aksariyat olimlar fikriga ko'ra, uning vujudga kelishi materiyaning tabiiy va qonuniy o'z-o'zidan rivojlanishi mahsulidir.

Jonli materiya darajasiga o'z-o'zidan uyushish, rivojlanish, in'ikosning murakkab shakllarini kasb etish, o'zini o'zi boshqarish va ko'payish qobiliyatiga ega bo'lgan barcha tirik mavjudotlar kiradi. Jonli materiyada hujayrasiz daraja (DNK, RNK kislotalari va oqsillar)ni, hujayrali va ko'p hujayrali organizmlar - o'simliklar, hayvon-

larni farqlash mumkin. Yuksak darajada uyushgan strukturalar, bir-biri bilan nasl orqali bog'langan populyatsiyalar alohida darajalarni tashkil etadi. Biologik turlar, populyatsiyalar va atrof muhitning o'zaro ta'siri biogeotsenozni yaratadi, biogeotsenozlarning o'zaro ta'siri natijasida esa hayotning global tizimi – biosfera vujudga keladi. Biosfera tizimida litosfera, gidrosfera va atmosfera o'zaro ta'sirga kirishadi, atmosfera orqali Yer bilan kosmos o'rtasida almashinuv sodir bo'ladi. Jonli materiya tizimining ko'rsatilgan barcha elementlari o'rtasida muvozanatni saqlash sayyoramizda hayotni saqlashning zaruriy shartidir.

Biosfera rivojlanishining muayyan bosqichida moddiy tizimning alohida turi – ijtimoiy uyushgan materiya yoki jamiyat vujudga keldi. Bu hayot rivojlanishining oliy shakli, fikrlovchi va borliqni ongli ravishda o'zgartiruvchi shaxslar va turli darajadagi birlashmalarning majmuidir. O'z navbatida jamiyat bir-biri bilan kesishuvchi turli tizimlar, chunonchi: inson, ijtimoiy tuzilmalar (oilalar, turli guruhlar, birlashmalar, partiyalar, millatlar, davlatlar)ni, inson tomonidan yaratilgan, mehnat quroli va texnikani o'z ichiga oluvchi moddiy madaniyatni qamrab oladi.

Materiyaning tarkibiy darajalari ierarxiyasida inson markaziy o'rinni egallaydi. Qadimdayoq Protogor «Inson hamma narsalarning meyloridir», degan edi. Dunyoni o'zlashtirishda inson qadriyatlarini qatorini andoza sifatida qabul qiluvchi falsafiy ta'limot – «Antropologizm» zamirida ana shu tezis yotadi. Materiya tuzilishining inson tomonidan kuzatiluvchi darajalari odamlar yashovchi muhitning tabiiy shart-sharoitlarini, ya'ni bizning dunyoviy qonuniyatlarimizni hisobga olgan holda o'zlashtiriladi. Lekin bu bizdan ancha olisdagi darajalarda materiyaning mavjud shakllari va holatlaridan butunlay farq qiluvchi, mutlaqo boshqacha xossalar bilan tavsiflanuvchi «g'ayritabiiy» shakl hamda holatlari mavjud bo'lishi mumkin, degan taxminni istisno etmaydi. Shu munosabat bilan olimlar geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlarni farqlay boshladi.

### **Potentsial va aktual cheksizlik**

Potentsial cheksizlik miqdor va sifat o'zgarishlarining nihoyasiz jarayonini qayd etadi. Potentsial cheksizlik to'xtatish, bekor qilish yoki mavjud emas deb e'lon qilish mumkin bo'lmagan shakllanish, o'zgarish va rivojlanish jarayoniga ishora qiladi.

Aktual cheksizlik muayoyan sharoitda to'liq mavjud bo'lgan cheksizlikning mavhumlashtirilgan ko'rinishidir. Bu o'xshash ob'ektlarning cheksiz to'plamidan, masalan, Yer yuzidagi odamlarning sochlaridan yoki sayyoramizda o'suvchi gullardan tashkil topgan o'ziga xos ob'ekt sifatida oddiy tushunishga asoslanadi. Aktual cheksizlik intiholi narsalarning cheksiz miqdoridan tashkil topgan ob'ektlarning son-sanoqsiz to'plamlari aktual tarzda mavjudligi to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Aktual cheksizlik muayyan mavjud borliq sifatida olinadi, ammo u doim eng ko'p e'tiroz va qarshilikka sabab bo'ladi. Ko'plab faylasuflar bu masalani chetlab o'tishga harakat qilganlar. Bunda Aristotel qarashlari ancha muhim rol o'ynagan. U ikki ming yil davomida amal qilgan «aktual emas, balki potentsial cheksizlikka mavjuddir», degan qoidani ilgari surdi. Aristotelning bu g'oyasini asoslovchi dalillar bisyor. Potentsial cheksizlik, obrazli qilib aytganda, har qanday songa birni qo'shish imkonini beradi va ancha sodda mavhumlik hisoblanadi. Uni qabul qilish va unga ko'nikish mumkin. Aktual cheksizlik esa mutlaqo paradoksal xususiyatga ega, chunki u cheksizlikni «shu yerda» va «hozir» yakunlangan, deb hisoblaydi, masalan: agar biron-bir ichkilikboz kishi hozirgacha ko'p ichkilik ichgani va yana ikki shisha shmpan vinosi icha olishini aytsa, bu potentsial cheksizlik hisoblanadi. Agar u cheksiz miqdorda shampän vinosi ichganini aytsa, uning bu fikriga absurd gap sifatida qarash kerak bo'ladi. Ayni vaqtda, bu aktual cheksizlikni o'zining barcha elementlariga ega bo'lgan real ob'ekt ko'rinishida mavjud cheksizlik sifatida ifodalashga urinish hisoblanadi. Muttasil rivojlanuvchi olam shakllangan aktual cheksizlik sifatida tavsiflanishi mumkin emas. Ammo aktual cheksizlik g'oyasining o'zi ijod manbai va evristik izlanishlar uchun zamin sifatida ancha samarali xulosa bo'ladi.

### **Olamning chekliligi va cheksizligi**

Falsafada olamning chekliligi va cheksizligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir konkret narsaning chekli ekanligi, umumiy olamning cheksiz va chegarasizligi e'tirof etiladi. Cheksizlikni ifodalash uchun ichki (intensiv) va tashqi (ekstensiv) shakllar mavjudligi ko'plab falsafiy adabiyotlarda qayd etilgan.

Intensiv cheksizlik materiyaning ichdan nihoyasizligi haqidagi tasavvurdir. Intensiv cheksizlikning mavjudligi tabiatda ichki tuzilishga ega bo'lmagan, mutlaqo elementar ob'ektlar yo'qligini

ko'rsatadi. Intensiv cheksizlik mikrozararlarni o'rganish jarayonida materiyaning kichikroq qismlarga cheksiz bo'linishi sifatida qaralishi mumkin emas. Zararlarning bir-biriga aylanuvchanligi ular ancha murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ekstensiv cheksizlik ichdan emas, balki sirdan cheksizlikdir. U mazkur ob'ekt doirasidan tashqarida, «katta» dunyoda kuzatiladi va ob'ektdan tashqaridagi cheksizlikni ifodalaydi. Bu yerda ob'ekt xossalari va sifatlarining atrofdagi narsalar bilan o'zaro ta'sirlar tizimiga bog'liqligi muammosi muhimroqdir. Amalda cheksizlik mavjud bo'lib, u bilish qaratilgan yo'nalishdan kelib chiqadi va intensiv yoki ekstensiv deb tushuniladi. Ekstensiv va intensiv cheksizlik – haqiqiy cheksizlikning o'ziga xos proektsiyalaridir. Ularni geometrik shaklning koordinatalar o'qidagi proektsiyalariga o'xshatish mumkin.

Dunyoning chekliligi yoki cheksizligi g'oyasini isbotlash va inkor etishga Kant antinomiylarida o'z ifodasini topgan. Kant antinomiylariga, agar dunyo vaqtda o'z ibtidosiga ega bo'lsa, demak, dunyo yaralgunga qadar hech narsasiz sof vaqt mavjud bo'lgan, lekin bu «hech narsa»dan dunyo yaralishi mumkin emas. Agar dunyo makon va vaqtda ibtidoga ega emas, deb taxmin qilinsa, bundan hozirgi vaqtgacha cheksizlik o'tgan, ya'ni har qanday voqeadan oldin cheksiz vaqt o'tgan, bugun esa u tugadi va olam nimagadir ayni shu vaqtda vujudga keldi, degan xulosa kelib chiqadiki, bu ham ehtimoldan uzoq bo'lgan holdir.

Olamning relyativistik konsepsiyasi bo'lishi ehtimol tutilgan butun moddiy dunyoni qamrab olgani sababli, uning «ibtidosi» g'oyasida cheksizlik butunlay inkor etilib, fanda to'ntarish yasalishiga olib keladigandek bo'lib tuyuldi. Relyativist kosmologlarning kengayib borayotgan olam – Metagalaktikaning yagonaligi va u hamma narsani qamrab olishi haqidagi ta'limoti o'tmishda ko'p karra takrorlangan olamda Yerning yagonaligi, Quyosh sistemasi yoki Galaktikaning yagonaligi haqidagi g'oyalarni eslatadi. Amalda olamning kosmologik modellari, garchi butun dunyoni tushuntirish uchun tuzilgan bo'lsa-da, uning ayrim qisminigina tushuntiradi. Faqat, mazkur sohaga taalluqli, butun dunyodagi makon va vaqtga nisbatan tatbiq etilmaydi, deb talqin qilingan makon va vaqtning chekliligi hamda cheksizligi haqidagi kosmologik tasavvurlar cheksizlik g'oyasini inkor etmaydi.

Kosmologiya rivojlanishining hozirgi bosqichi relyativistik kosmologiyaning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Relyativistik kosmologiya butun dunyoni mukammal tavsiflashga da'vo qilmaydi, lekin cheklilik va cheksizlikni biz yashayotgan olamga tatbiqan, uning fizikaviy-makon tuzilishi tomonidan o'rganadi. Relyativistik kosmologiya asoschilari A.Eynshteyn va A.Fridman hisoblanadi.

1917-yilda A.Eynshteyn olamning birinchi relyativistik modelini tuzdi. U bunda quyidagi taxminlardan kelib chiqdi.

1. Modda va nurlanish olamda bir tekis tarqalgan. Bundan olam maydoni bir xil va izotrop tuzilishga ega. Garchi og'ir ob'ektlar yaqinida makon-vaqt geometriyasi o'zgarasa-da, bu o'zgarish olamning o'zgarmas egrilikka ega bo'lgan bir xil izotrop maydonidan chetga ahamiyatsiz og'ishdir, xolos.

2. Olam turg'un, vaqtda o'zgarmasdir. Shu bois maydon geometriyasi evolyutsiyaga ega bo'lishi mumkin emas. Eynshteyn dunyosi, odatda, «tsilindsimon dunyo» deb ataladi. chunki uni cheksiz ko'lamlı to'rt o'lchovli silindr ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Silindrning yasovchisi bo'ylab vaqt o'qi o'tadi, u o'tmishga ham, kelajakka ham cheksiz qaratilgan. Silindr kesimi maydonni beradi. Mazkur modelda bu o'zgarmas musbat egrilikka ega uch o'lchovli doirasimon maydon bor. U chekli hajinga ega. Buning ortida hech narsa mavjud bo'lmagan dunyoning qandaydir chekkasi bor, deb tushunmaslik kerak. Ayni holda maydon «o'z-o'zida tutashadi» va bu unda hech qachon to'siqqa uchramasdan cheksiz aylanish imkonini beradi. Biroq Eynshteynning «tsilindsimon dunyo»si o'tmishda qolgan. Uning olamning turg'un modelini yaratishga urinishlari hozir olamning abadiyatda o'zgarmas holda mavjudligi haqidagi an'anaviy tasavvurlarga hurmat sifatida qaraladi. Olamning turg'un modelini Eynshteyn maxsus taxmin asosida yaratganini ham e'tiborga olish kerak.

Mazkur muammoning yangi yechimini Fridman taklif qilgan va uni belgiyalik kosmolog Lemetri rivojlantirgan. Fridman dunyoning turg'unligi haqidagi taxmindan voz kechadi, lekin uning bir xilligi va izotropligi haqidagi postulatni saqlab qoldi. Bu muammoning uch xil yechimini taklif qilish imkonini berdi: 1. Agar olamda modda va nurlanishning zichligi ayrim kritik kattalikka teng bo'lsa, maydon evklid maydoni bo'ladi, ya'ni egriligi nolga teng bo'ladi va dunyo cheksiz bo'ladi. 2. Agar zichlik kritik kattalikdan kichkina

bo'lsa, olam maydoni Lobachevskiy geometriyasi bilan tavsiflanadi, u manfiy egrilik va cheksiz hajmga ega, ochiq va bel ko'rinishida bo'ladi. 3. Agar olamda moddaning zichligi kritik darajadan katta bo'lsa, maydon musbat egrilikka ega, lekin hajmi cheklangan bo'ladi. Dunyo berk va chekli bo'lib, Riman geometriyasi bilan tavsiflanadi.

### **Geosentrik va nogeosentrik moddiy tizimlar**

Geosentrik dunyo haqidagi tasavvur Yer miqyosidagi ob'ektlarga daxldor nazariyalarning umumlashtirilishi natijasida yuzaga kelgan. Unda, aynan Yerdagi xayot andoza va asos sifatida qabul qilinadi.

Geosentrizm ta'limotiga ko'ra, moddiy tizimlarning atributlari barcha darajalarda biz Yer sharoitida duch keluvchi atributlar bilan bir xil bo'ladi. Geosentrizm makon, vaqt, sifat, sababiyat va boshqa atributlar ontologik ma'noda yagonadir, degan tasavvurga asoslanadi.

Atributlarning universal mazmuni, inson tanasi mavjudlik shart-sharoitlarida namoyon bo'luvchi atributlarning universal mazmuniga mos kelishi geosentrik dunyodir. Bu Nyuton vaqti (zamoni), Evklid makoni dunyosidir.

Atributlarning universal mazmuni, inson tanasining mavjudlik shart-sharoitlarida namoyon bo'luvchi atributlarning universal mazmunidan farq qiluvchi moddiy ob'ekt nogeosentrik dunyo deb ataladi. «Nogeosentrik dunyo» tushunchasi nonyuton vaqti (zamoni), noevklid makoni, umuman, borliqning nogeosentrik turini nazarda tutadi. Mikrodunyo va megadunyoni nogeosentrik dunyolar tomon mavjud bo'lgan «darcha»lar deb faraz qilish uchun asoslar mavjud. Ularning qonuniyatlari bizga o'zaro ta'sirlarning o'zga turini uzoq darajada bo'lsa ham tasavvur qilish imkonini beradi. Ayni vaqtda, makrodunyo aloqalari va o'zaro ta'sirlari borliqning geosentrik turini aks ettiradi. Shunga qaramay, universal mazmunning «geosentrik andoza»dan og'ish xususiyati to'g'risidagi masalani faqat amaliyotda yechish mumkin. Bu yerda falsafadan ko'ra aniq fanlarga asoslanish lozim.

Hozirgi zamon metodologlari pirovard maqsadga asoslanadigan va azaldan maqsadga muvofiq xususiyatga ega bo'lgan tizimlar bilan stixiyali xususiyatlarni namoyish etuvchi mutlaqo ochiq tizimlarni farqlashni taklif qiladi. Mazkur tasnif yangi narsa paydo bo'lishi mumkin bo'lgan maqsadni belgilash mexanizmiga yangicha nazar



Kosmologiya rivojlanishining hozirgi bosqichi relyativistik kosmologiyaning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Relyativistik kosmologiya butun dunyoni mukammal tavsiflashga da'vo qilmaydi, lekin cheklilik va cheksizlikni biz yashayotgan olamga tatbiqan, uning fizikaviy-makon tuzilishi tomonidan o'rganadi. Relyativistik kosmologiya asoschilari A.Eynshteyn va A.Fridman hisoblanadi.

1917-yilda A.Eynshteyn olamning birinchi relyativistik modelini tuzdi. U bunda quyidagi taxminlardan kelib chiqdi.

1. Modda va nurlanish olamda bir tekis tarqalgan. Bundan olam maydoni bir xil va izotrop tuzilishga ega. Garchi og'ir ob'ektlar yaqinida makon-vaqt geometriyasi o'zgarsa-da, bu o'zgarish olamning o'zgarimas egrilikka ega bo'lgan bir xil izotrop maydonidan chetga ahamiyatsiz og'ishdir, xolos.

2. Olam turg'un, vaqtda o'zgarmasdir. Shu bois maydon geometriyasi evolyutsiyaga ega bo'lishi mumkin emas. Eynshteyn dunyosi, odatda, «tsilindsimon dunyo» deb ataladi, chunki uni cheksiz ko'lamli to'rt o'lchovli silindr ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Silindrning yasovchisi bo'ylab vaqt o'qi o'tadi, u o'tmishga ham, kelajakka ham cheksiz qaratilgan. Silindr kesimi maydonni beradi. Mazkur modelda bu o'zgarimas musbat egrilikka ega uch o'lchovli doirasimon maydon bor. U chekli hajmga ega. Buning ortida hech narsa mavjud bo'lmagan dunyoning qandaydir chekkasi bor, deb tushunmaslik kerak. Ayni holda maydon «o'z-o'zida tutashadi» va bu unda hech qachon to'siqqa uchramasdan cheksiz aylanish imkonini beradi. Biroq Eynshteynning «tsilindsimon dunyo»si o'tmishda qolgan. Uning olamning turg'un modelini yaratishga urinishlari hozir olamning abadiyatda o'zgarimas holda mavjudligi haqidagi an'anaviy tasavvurlarga hurmat sifatida qaraladi. Olamning turg'un modelini Eynshteyn maxsus taxmin asosida yaratganini ham e'tiborga olish kerak.

Mazkur muammoning yangi yechimini Fridman taklif qilgan va uni belgiyalik kosmolog Lemetri rivojlantirgan. Fridman dunyoning turg'unligi haqidagi taxmindan voz kechadi, lekin uning bir xilligi va izotropligi haqidagi postulatni saqlab qoldi. Bu muammoning uch xil yechimini taklif qilish imkonini berdi: 1. Agar olamda modda va nurlanishning zichligi ayrim kritik kattalikka teng bo'lsa, maydon evklid maydoni bo'ladi, ya'ni egriligi nolga teng bo'ladi va dunyo cheksiz bo'ladi. 2. Agar zichlik kritik kattalikdan kichkina

bo'lsa, olam maydoni Lobachevskiy geometriyasi bilan tavsiflanadi, u mantiqiy egrilik va cheksiz hajmga ega, ochiq va bel ko'rinishida bo'ladi. 3. Agar olamda moddaning zichligi kritik darajadan katta bo'lsa, maydon musbat egrilikka ega, lekin hajmi cheklangan bo'ladi. Dunyo berk va chekli bo'lib, Riman geometriyasi bilan tavsiflanadi.

### **Geosentrik va nogeosentrik moddiy tizimlar**

Geosentrik dunyo haqidagi tasavvur Yer miqyosidagi ob'ektlarga daxldor nazariyalarning umumlashtirilishi natijasida yuzaga kelgan. Unda, aynan Yerdagi xayot andoza va asos sifatida qabul qilinadi.

Geosentrizm ta'limotiga ko'ra, moddiy tizimlarning atributlari barcha darajalarda biz Yer sharoitida duch keluvchi atributlar bilan bir xil bo'ladi. Geosentrizm makon, vaqt, sifat, sababiyat va boshqa atributlar ontologik ma'noda yagonadir, degan tasavvurga asoslanadi.

Atributlarning universal mazmuni, inson tanasi mavjudlik shart-sharoitlarida namoyon bo'luvchi atributlarning universal mazmuniga mos kelishi geosentrik dunyodir. Bu Nyuton vaqti (zamoni), Evklid makoni dunyosidir.

Atributlarning universal mazmuni, inson tanasining mavjudlik shart-sharoitlarida namoyon bo'luvchi atributlarning universal mazmunidan farq qiluvchi moddiy ob'ekt nogeosentrik dunyo deb ataladi. «Nogeosentrik dunyo» tushunchasi nonyuton vaqti (zamoni), noevklid makoni, umuman, borliqning nogeosentrik turini nazarda tutadi. Mikrodunyo va megadunyoni nogeosentrik dunyolar tomon mavjud bo'lgan «darcha»lar deb faraz qilish uchun asoslar mavjud. Ularning qonuniyatlari bizga o'zaro ta'sirlarning o'zga turini uzoq darajada bo'lsa ham tasavvur qilish imkonini beradi. Ayni vaqtda, makrodunyo aloqalari va o'zaro ta'sirlari borliqning geosentrik turini aks ettiradi. Shunga qaramay, universal mazmunning «geosentrik andoza»dan og'ish xususiyati to'g'risidagi masalani faqat amaliyotda yechish mumkin. Bu yerda falsafadan ko'ra aniq fanlarga asoslanish lozim.

Hozirgi zamon metodologlari pirovard maqsadga asoslanadigan va azaldan maqsadga muvofiq xususiyatga ega bo'lgan tizimlar bilan stixiyali xususiyatlarni namoyish etuvchi mutlaqo ochiq tizimlarni farqlashni taklif qiladi. Mazkur tasnif yangi narsa paydo bo'lishi mumkin bo'lgan maqsadni belgilash mexanizmiga yangicha nazar

bilan qarash imkonini beradi. Noorganik, organik va ijtimoiy tizimlar moddiy tizimlarning eng ko'p uchraydigan turlari hisoblanadi. Moddiy tizimning noorganik turini tasniflashda uning elementar zarralar va maydonlar, atom yadrolari, atomlar, molekularlar, makroskopik jismlar, geologik tuzilmalar kabi elementlari qayd etiladi. Moddiy tizim organik turining tuzilishi bir necha darajadan iborat: hujayrasiz daraja - DNK, RNK, nuklein kislotalar, oqsillarni; hujayrali daraja - mustaqil mavjud bo'lgan bir hujayrali organizmlarni; ko'p hujayrali daraja - to'qimalar, organlar, funktsional sistemalar (asab sistemasi, qon eltuvchi sistema), ya'ni organizmlar (o'simliklar va hayvonlar)ni o'z ichiga oladi. Organizmlardan yuqori tuzilmalar ham farqlanadi: bu umumiy genofond bilan bog'langan bir turga mansub jonzotlarning populyatsiyalari - biologik birliklar (o'rmondagi bo'rilar to'dasi, ko'ldagi baliqlar galasi, chumoli uyasi yoki butazor va boshqalar)dir. Populyatsiyaning yaxlitlik darajasi uning tarkibiga kiruvchi ayrim organizmlarning xususiyatlari va ko'payishini tartibga soladi. Masalan, chigirtkalar biomassasi muayyan chegaradan oshib ketsa, ularning ko'payishini sekinlashtiruvchi mexanizmlar ishga tushadi. Jonli materiya tuzilishining organizmlardan yuqori darajasiga populyatsiyalardan tashqari biotsenozlar kiradi. Biotsenozlarning yaxlit tizimida populyatsiyalar shunday bog'langanki, ulardan birining hayot faoliyati mahsulotlari boshqasining yashash shart-sharoitlariga aylanadi. Masalan, o'rmon muayyan biotsenoz hisoblanadi: unda yashovchi o'simliklar, shuningdek hayvonlar, zamburug'lar, lishayniklar va mikroorganizmlarning populyatsiyalari o'zaro ta'sirga kirishib, yaxlit tizimni vujudga keltiradi.

Biosfera doirasida moddiy tizimning alohida turi - kishilik jamiyati rivojlangan. Bu ijtimoiy tizim ham alohida kichik tizimlar individ, oila, guruh, jamoa, davlat, millat va boshqalarni o'z ichiga oladi. Materiya tuzilishining alohida turi sifatidagi jamiyat odamlar faoliyati tufayligina mavjud bo'ladi. Shu sababli jamiyatga o'z ehtiyojlarini qondirish va rivojlanish imkonini beruvchi ijtimoiy ishlab chiqarish bilan bog'liq inson faoliyati substantsional negiz hisoblanadi.

### **Kengayuvchi olam konsepsiyasi**

Kosmologiya muammosining taklif qilingan yechimlariga nisbatan munosabat bir xil emas. Ayrim olimlar cheksiz kengayuvchi Olam gipotezasini qabul qilganlar va «Katta portlash» konsepsiyasiga

ko'ra, taxminan 17-20 milliard yil oldin olam juda kichkina hajmda o'ta zich singulyar holatda bo'lgan, deb hisoblaydilar. Yuz bergan «katta portlash» olamning kengayish jarayonini boshlab bergan. Bu kengayish jarayonida moddaning zichligi o'zgargan, maydonning egriligi to'g'rilanib borgan. Ayrim olimlar fikriga ko'ra, kengayish o'mini yana torayish egallaydi va butun jarayon takrorlanadi. Shu asosda harakatlanuvchi Olam gipotezasi ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra taxminan har 100 milliard yilda yangi sikl «katta portlash»dan boshlanadi. Aqlga sig'maydigan gipotezalarning birida «dastlabki portlash» natijasida gravitatsion maydonda singulyar holatdan faqat bizning metagalaktikamiz emas, balki ko'plab metagalaktikalar vujudga kelgani, ularning har biri barcha fizik ko'rsatkichlarning turli ifodalariga, chunonchi, alohida topologiyali (o'lchovlar miqdori har xil bo'lgan mahalliy ochiq yoki mahalliy yopiq) makoni va o'z kosmologik vaqtiga ega bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi. Hozirgi «ko'p sonli dunyolar» konsepsiyalarida olamning manzarasi chiziladi. Bu fundamental falsafani moddiy dunyoning makon va vaqtdagi cheksizligini metrik cheksizlik ma'nosida emas, balki materiyaning makon va vaqt strukturalarining benihoya rang-barangligi sifatida tushunish lozim, degan asosiy qoidasi bilan hamohangdir.

Olam kengayishda davom etadimi yoki torayish jarayoni boshlanadimi, degan savol javobsiz qolmoqda. Ammo «qizil siljish» hodisasi hozirgi vaqtda nurlanish manbai uzoqlashib borayotganini, ya'ni galaktikalar taxminan o'zigacha bo'lgan masofaga proporsional tezlikda har yoqqa «tarqalayotgani»ni tasdiqlovchi umumiy e'tirof etilgan fakt hisoblanadi. 1912-yilda V.Slayfer galaktikadan tashqaridagi tumanliklar nurlanishlarining spektr chiziqlari spektrning qizil uchi tomonga siljiyotgani - «qizil siljish»ni aniqladi. 1929-yilda Edvin Xabbl tumanlik kuzatuvchidan qancha uzoqda bo'lsa, «qizil siljish» kattaligi ham, uning tumanlikdan uzoqlashish tezligi ham shuncha katta bo'ladi, degan qonunni va katta masofalarda galaktikalarning tezligi ulkan ifodalarga yetishini aniqladi.

Shunga qaramay, olamning kengayishi bilan bir qatorda, uning torayishini yoki makonda cheklangan, lekin vaqtda cheksiz olam navbatma-navbat dam kengayuvchi, dam torayuvchi harakatlanuvchi olam modelini ham taxmin qilish uchun nazariy imkoniyat mavjud.

### **Dunyoning birligi va rang-barangligi**

Dunyo cheksiz yaxlitlik sifatida o'zgarmas va ayni vaqtda o'zining ayrim qismlari va ko'rinishlarida o'zgaruvchan bo'lib, o'zini muttasil shakllanish va o'zgarish jarayonlarida namoyon etadi. U nafaqat shakllanish va o'z tuzilmasini murakkablashtirish yo'lida, balki aksincha – buzilish va tanazzul yo'lida ham harakatlanadi va rivojlanadiki, bu uning sifat va miqdor ko'rsatkichlari muttasil o'zgarishida aks etadi.

Shunday qilib, dunyo, bir tomondan, o'z rang-barangligida bir jinsli emas, boshqa tomondan esa, o'zining barcha tarkibiy qismlarining uzviy birligini tashkil etib, muayyan universal yaxlitlik hisoblanadi.

Ruh (Xudo, o'lmas g'oyalar, ong va sh.k.) moddiy va ko'lamlı tabiatdan tashqaridagi asos deb hisoblaydigan faylasuflar dunyoning birligi muammosiga boqiy, yaratilmagan va turli atributlarga ega bo'lgan materiyani butun borliqning asosi sifatida e'tirof etadigan faylasuflarga nisbatan butunlay boshqacha yondashadilar.

Birinchi holda idealistlar to'g'risida so'z yuritiladi. Ularning qarshisida butun dunyo ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: birinchisi – ideal (chin) dunyo, ikkinchisi – moddiy, ashyoviy (o'tkinchi) dunyo. Bu yerda dunyoning birligini tasdiqlovchi nuqtayi nazarlar ham, mazkur birlikni rad etuvchi nuqtayi nazarlar ham bo'lishi mumkin.

Bunday qarashlarga zid o'laroq, materiyani birdan-bir substantsiya sifatida e'tirof etuvchi materialistik monizm tarafdorlari dunyoning birligini uning o'zidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladilar. Bunda ular dunyoga o'z borlig'ini saqlash uchun hech kim va hech narsaga muhtoj bo'lmagan, borliqning butun rang-barangligini o'zidan yaratuvchi deb qaraydilar. Ayni holda yechishga to'g'ri keladigan eng og'ir vazifa bugungi kunda (balki umuman) o'rganilgan mikro-dunyo va anglab yetilgan Koinotning muttasil surilib borayotgan chegaralari ortiga nazar tashlash imkoniyatiga ega bo'lmagan holda dunyoning cheksizligi (yoki chekliligi)ga shak-shubhasiz dalillar keltirishdan iboratdir.

Mazkur yondashuvning hech narsaga ishonmaydigan tarafdorlari bu va boshqa shunga o'xshash savollarga o'z javoblarida faqat oqilona asoslash va unga muvofiq bo'lgan tajribani dalil sifatida tan oladilar va bunda umuminsoniy amaliyotga va fanga tayanadilar.

Dunyoning moddiy jihatdan yagonaligini tabiatshunoslikning quyidagi muhim ma'lumotlari tasdiqlaydi:

a) energiyaning saqlanish va o'zgarish qonuni;

b) Mendeleevning davriy qonuni;

v) Darvinning evolyutsiya haqidagi ta'limoti;

g) hujayra haqidagi ta'limot;

d) fizika (kvant mexanikasi, relyativistik fizika va sh.k.), biologiya (genetika qonunlari, fotosintez hodisalari, inson fiziologiyasi haqidagi ma'lumotlar va sh.k.), kosmos haqidagi fan sohasida erishilgan hozirgi ilmiy yutuqlar.

Inson organizmini, tabiat va jamiyatning o'zaro aloqalarini, ularning rivojlanishini o'rganishga nisbatan yaxlit yondashuv ham dunyoning moddiy jihatdan yagonaligini namoyon etadi.

Dunyo birligi haqidagi fan dalillari, xususan, sayyoralar dastlabki «tumanlik»dan tabiiy kelib chiqqanini tushuntiruvchi Kant – Laplas nazariyasi Quyosh sistemasi kosmik jismlarining birligi to'g'risida so'z yuritishga asos bo'ldi; energiyaning saqlanish va o'zgarish qonuni tabiatda amal qiluvchi barcha kuchlar universal harakat namoyon bo'lishining turli shakllari ekanligini namoyish etdi; jonli organizmlar hujayrali tuzilishga ega ekanligi haqidagi nazariya butun tiriklikni strukturaviy birlashtirish imkonini beradi; Mendeleevning davriy qonuni barcha kimyoviy elementlarni birlashtirdi, Darvinning hayvon va o'simlik turlarining kelib chiqishi haqidagi nazariyasi esa nafaqat butun tiriklikning birligini tushuntirib berdi, balki ideal ong tabiatini jonli modda bilan uzviy bog'liq deb tushunish uchun imkoniyat yaratdi. Mazkur nazariya ayrim narsalarni o'rganishdan jarayonlar va holatlarni o'rganishga, tabiatni qismlarga ajratishdan uni yagona tizimga birlashtirishga o'tish bilan tavsiflanadiki, bu keyinchalik inson va uning ongi genezisini yaxshiroq tushunish, ularning dunyodagi haqiqiy o'rmini belgilash, pirovard natijada inson va tabiatning birligini ko'rsatish imkonini berdi.

XX asrda nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasining yaratilishi dunyo yagona va hamma narsa bir-biri bilan o'zaro bog'liq ekanligi haqidagi tasavvurlarni sezilarli darajada kengaytirdi va mustahkamladi. XX asrning ikkinchi yarmida qudratli teleskoplar va tezlantgichlar paydo bo'lishi bilan hozirgi zamon fani makro- va mikro-dunyolarni o'rganishda yanada ko'proq rivojlandi. U koinot kengliklariga kirib, dunyoning fundamental asoslari haqidagi tasav-

vurlarimizni boyitdi. Hozirgi zamon fani maydon va moddaning, korpuskulyar va to'laqinli moddiy ob'ektlarning birligini isbotlab berdi, materiya, harakat, makon va vaqtning uzviy birligini asosladi.

Dunyoning birligi g'oyasi tabiiy-ilmiy dalillardan tashqari tarixiy asoslashni ham taqozo etadi. Bunday asoslashni falsafasiz amalga oshirish mumkin emas, chunki u butun dunyoga yaxlit tizim sifatida yondashib, rang-baranglikda birlikni va birlikda rang-baranglikni ko'radi. Dunyoning rang-barangligi va birligi muammosining qo'yilishi va uning ilmiy asoslangan yechimi borliqni bilish va izchil o'zgartirish uchun juda muhimdir. Mazkur muammoni falsafiy anglab yetish ham juda alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, hozirgi davr sharoitida dunyoviy o'zaro aloqalarning universalligini nafaqat nazariy darajada tushunib yetish, balki tabiatning birligi umumiy tamoyilini amaliy faoliyatda ham hisobga olish talab etiladi.

### **In'ikos nazariyasi**

Tabiat ob'ektlari va hodisalarining umumiy xossasi sifatidagi in'ikos – o'zaro ta'sirdir. U bir jismning boshqa jismga ta'sir ko'rsatishini, boshqa jism esa birinchi jism ta'siriga javob berishi yoki undan ta'sirlanishini nazarda tutadi ( $A \leftrightarrow V$ ;  $V \leftrightarrow A$ ). Bunday o'zaro ta'sir tarzida namoyon bo'ladigan in'ikosda, bir jism o'ziga xos xususiyatlarining boshqa jismda aks ettirish jarayoni tushuniladi. In'ikos tashqi ta'sirga mos o'zgarishlar majmuini ifodalaydi. O'zaro ta'sir natijasida aks etuvchi tizimlarning strukturalaridan go'yoki «nusxa» ko'chirib olinadi va aks ettiruvchi tizimlarning alohida strukturalarida o'zgartirilgan ko'rinishda, «izlar», «muhrlar» shaklida aks ettiriladi. In'ikosni o'zaro ta'sirga kirishuvchi narsa va hodisalarning o'z tarkibi hamda xossalari ayni shu o'zaro ta'sirning izlarini qoldirish qobiliyati sifatida tushunish mumkin.

In'ikos jarayonining namoyon bo'lishi materiyaning tuzilish darajasiga bog'liq. Shu munosabat bilan in'ikosning:

- jonsiz tabiatdagi;

- jonli tabiatdagi;

- jamiyatdagi darajalari farqlanadi.

Materiyaning rivojlanish jarayonida uning tuzilishining murakkablashuvi yuz beradi. Shu bois, materiyaning harakat shakllari qancha bo'lsa, in'ikos shakllari ham shuncha bo'ladi: mexanik, fizik, kimyoviy, biologik (psixik), ijtimoiy va hokazo. in'ikos shakllarining evolyutsiyasi jonsiz tabiat narsalarining xossasi sifatida amal qiluvchi

in'ikos yuqoriroq darajadagi in'ikosning elementar negizini tashkil etishini nazarda tutadi. Bu darajada in'ikos muhit haroratining o'zgarishiga qarab oddiy mexanik deformatsiya, qisqarish yoki kengayish ko'rinishida, yorug'lik in'ikosi, elektromagnit to'lqinlarning o'zgarishi in'ikosi, ovoz to'lqinlari in'ikosi (aks sado), kimyoviy o'zgarishlar (masalan, lakmus qog'oz rangining o'zgarishi) in'ikosi sifatida amal qilishi mumkin.

Jonsiz tabiatdagi in'ikosga tanlash xususiyati va kumulyativlik, ya'ni oldingi ta'sirlarning izlarini saqlash xosdir. In'ikosning tanlash xususiyati o'zaro ta'sirga kirishuvchi ob'ektlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Masalan, kimyoviy element boshqa har qanday element bilan emas, balki tanlash, ajratish asosida kimyoviy reaksiyalarga kirishadi va birikadi. Tabiatdagi ayrim predmetlar ekranlashtirish xossalari ega bo'ladi va elektromagnit to'lqinlarni aks ettiradi, ayrim predmetlar esa bunday xossalarga ega bo'lmaydi. Kumulyativlik – oldingi ta'sirlarning izlarini saqlash tizimning eskirishi haqida hukm chiqarish imkonini beradi. Aks ettiruvchi tizim oldingi ta'sirlarni «yodda saqlaydi» va o'zining keyingi faoliyatida ularni hisobga oladi. Jonlining jonsizdan farqi haqida gapirganimizda, hayotning universal ta'rifini eslaymiz: «Hayot – bu oqsilli jismlarning mavjudlik usulidir». Oqsillar, aminokislotalar, nuklein kislotalar tiriklikning eng muhim unsurlari hisoblanadi. Ko'payish, o'sish va moddalar almashinuvi tirik organizmlarning o'ziga xos xususiyatidir. O'z-o'zidan ko'payish qobiliyati kimyoviy reaksiyalarning jonsiz tabiatda uchramaydigan turi bilan ta'minlanadi va matritsali sintez deb ataladi. V.Engelgardt jonli tizimlarning yana bir muhim xossasi – «xaosdan tartib o'rnatish» qobiliyatini, ya'ni hayot jarayonlarining entropiyaga zid xususiyatini qayd etadi. Tirik organizmlar molekullarning xaotik issiqlik harakatini tartibga solishga qodir.

Jonli tabiatdagi in'ikos oddiy bir hujayralilar va o'simliklarning ta'sirlanuvchanligi, asab hujayralarining ta'sirchanligi ko'rinishida, shuningdek, hayvonlar darajasida ularning xulq-atvorini tartibga solishni ta'minlovchi psixik in'ikos ko'rinishida mavjud bo'ladi. Biologik in'ikos shunday bir xossaki, usiz hayvonlar o'z mavjudlik sharoitiga moslasha olmaydi. Ma'lumki, ayrim o'simliklarning barglari doimo yorug'lik manbai tomonga – nurlar ularga 90 gradusga intiluvchi burchak ostida tushadigan tarzda qarab o'sadi. Kungaboqar boshchasi quyosh tomonga o'girilib o'sadi. Shunga o'xshash hodisa-



larni ildiz tizimining o'sishida ham kuzatish mumkin. Oziqlanish va suv ta'minoti shart-sharoitlari optimal bo'lgan joyda ildiz yaxshi o'sadi.

Mimikriya jonli tabiatdagi in'ikosning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Jonli tizimlar in'ikosining mazkur shakli mavjudlikning muayyan shart-sharoitlariga yaxshiroq moslashish imkonini beradi. Turli hayvonlar ularni ko'zga ko'rinmas qilib qo'yadigan yoki ularning dushmanlarini hurkitadigan shakl, tus yoki holatga kirganida mimikriya hodisasi yuz beradi.

Biologik in'ikosda ikki jarayon kuzatiladi. Birinchi – in'ikosda aks etayotgan narsani in'ikosning barcha (tubanroq) shakllariga xos bo'lishi mumkin bo'lgan tuzilishi o'z ifodasini topadi. Masalan, issiqlik ta'sirida har qanday jism, shu jumladan, organizm qiziydi. Ikkinchi - aks etayotgan narsaning o'ziga xos xususiyatlari in'ikosning jonli tizimlargagina xos bo'lgan alohida jarayonlari bilan bog'lanadi. Keltirilgan jarayonga tatbiqan aytilish mumkinki, organizmning nafaqat qizishi, balki uning suvsizlanishi ham yuz beradi. O'simlik suvni bug'lantiradi, inson terlaydi, uning butun ichki normal faoliyati o'zgaradi. I.Pavlov fikriga ko'ra, har qanday in'ikos ikki asosiy komponentdan tashkil topadi: birinchi – tashqi komponent predmetlar o'rtasidagi reaksiyalar shaklida namoyon bo'ladi; ikkinchi – ichki komponent o'zaro ta'sirlar natijasida yuzaga keluvchi ichki holatlar, izlar shaklida mavjud bo'ladi.

Biologik in'ikos ta'sirlanuvchanlik va ta'sirchanlik bilan tavsiflanadi. Sezgi psixik in'ikosning asosiy shakli hisoblanadi. Organizm asab sistemasiga ega bo'lgan holdagina psixik in'ikos to'g'risida so'z yuritish mumkin. Sezgi organizmning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi sub'ektiv, ichki holat sifatida amal qiladi, lekin organizm uchun muhim omillarni ob'ektiv aks ettiradi.

In'ikosning psixik shakliga sezgi bilan bir qatorda instinktlar, shartli reflekslar, idrok etish, emotsiyalar, fikrlash kiradi. Instinkt mazkur tuming hamma ko'rinishlarida bir xil bo'lgan murakkab tug'ma xususiyat sifatida amal qiladi. Lekin instinkt juda tor doiradagina maqsadga muvofiqdir. Asalarilar shaklan mukammal va mustahkam yasaydi. Lekin katakni tubi qirqib olib tashlansa, asalari bunga e'tibor bermaydi va katakka asal quyishda davom etadi. Tirik organizm darajasidagi in'ikosning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, jonli sistemalarda aktual in'ikoslar tarzida yuz beruvchi o'zgarishlar

individlar tajribasida va turlarning xossalari saqlanib qoladi hamda yig'ilib boradi.

Sub'ekt o'zini qancha faol tutsa, u shuncha ko'p predmetni aks ettiradi. Masalan, qoyatosh to'lqinlar ta'sirida yemiriladi, korall – organizm o'sib boradi. U suvdan oziq moddalarni o'zlashtiradi. Bunda organizm ta'sirga shunchaki javob bermaydi, u atrof-muhitni o'zgartiradi.

Materiya tuzilishining ijtimoiy darajasida in'ikos quyidagilarda namoyon bo'ladi: a) o'z faoliyatini tartibga soluvchi individni ongli aks ettiradi; b) fan, san'at va ijtimoiy ongning jamiyat hayotini aks ettiruvchi boshqa shakllar; v) in'ikosning inson sun'iy sistemalar yaratuvchi texnika, bog'lanish va boshqaruvdagi shakli.

Materiyaning umumiy xossasida in'ikosning quyidagi xususiyatlari namoyon bo'ladi: -in'ikosning moddiy-energetik o'zaro ta'sir jarayonlari bilan aloqador; – har qanday aks ettirish jarayoni zahirida sabab-oqibat bog'lanishlari. In'ikos sabab-oqibat munosabatlarining shunday shakli sifatida tushunilishi mumkinki, bunda sababning tarkibi, xususiyati, xossalari oqibatga o'tadi. Oqibat originalning nusxasi, o'xshashi sifatida amal qiladi; u aks ettirish, yo'naltirilgan jarayon. U aks etuvchidan aks ettiruvchi sari harakatlanadi, demak, bu jarayon simmetrik emas, ya'ni bunda sabab (aks ettiriluvchi)ning harakati – birlamchi, oqibat (aks ettiruvchi)ning harakati – ikkilamchi, hatto oddiy aks ettirish jarayoni va uning natijalari ham aks ettiriluvchi ob'ektning mavjudligi va xususiyatiga nisbatan ikkilamchidir; – avvalo, o'zaro ta'sir sifatida tushuniluvchi in'ikos jarayonining ob'ektivligi alohida diqqatga sazovor; – obraz va originalning o'zaro mosligi darajasi har xil bo'lishi mumkin. In'ikos natijasi nafaqat tashqi ta'sirlar (aks ettiriluvchi), balki hodisaning ichki tabiati (aks ettiruvchi) bilan ham belgilanadi.

### **P.Anoxinning inikos nazariyasi**

Borliqni oldinroq aks ettirish g'oyasi P.Anoxin tomonidan ishlab chiqilgan. U materiyaning makon va vaqt doirasidagi harakatining asosiy shakllari noorganik tabiatda tirik organizmlar paydo bo'lishidan ancha oldin mavjud bo'lganiga e'tibor qaratdi. «Jonli materiya» dunyoning tayyor makon-vaqt strukturasi «singib ketgan» va muqarrar tarzda uning xossalari o'zida mujassamlashtirgan va mavjud shart-sharoitga moslashish zarurati tug'ilgan. Moslashish

jarayonida tashqi vaqt ko'rsatkichlari, yani, ketma-ketliklar katta rol o'ynagan.

Bu ketma-ketliklarni P. Anoxin ikki guruhga ajratdi:

1. Ketma-ketliklarning takrorlanuvchi, tiklanuvchi, ritmlilik va sikllilik (kun – tun; bahor – yoz – kuz – qish) bilan tavsiflanuvchi muhim, doimiy va barqaror qatorlari.

2. Mazkur organizmning hayotida keyinchalik takrorlanmaydigan ahamiyatsiz va tasodifiy ketma-ketliklar qatori (masalan, dovul, zilzila va h.k.). Agar faqat ahamiyatsiz va tasodifiy ketma-ketliklarga mavjud bo'lganida, hayot rivojlana olmas, tirik organizm barqaror va mustahkam strukturaga ega bo'lmay edi. Chunki bunday struktura tashqi dunyoning organizmga ritmli va siklli ta'sirlari in'ikosining natijasi sifatidagina paydo bo'lishi mumkin. Tabiiy ritmlarga bo'ysunuvchi o'zaro ta'sirlar organizmga minglab va millionlab yillar davomida ta'sir ko'rsatadi. Ular organizmlarning tuzilishida qayd etiladi. Natijada organizm oldinroq aks ettirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Masalan, oldinroq aks ettirishga misol kuz keldi, barglar to'kiladi, fiziologik jarayonlar sekinlashadi, daraxtlar qishni qarshi olishga tayyorlanib suvsizlanadi, lekin hali sovuq tushgani yo'q. Vaqtda organizmning (sub'ektning) o'zgarishi unga tashqi holatlar (ob'ekt) ta'sir ko'rsatishidan oldinroq yuz bergan.

Oldinroq aks ettirish – noorganik dunyo va atrof-muhitning takrorlanuvchi ta'sirlariga tirik organizmning reaksiyasi. Bu ketma-ketlik va takroriylik muhim xossalari hisoblanuvchi noorganik dunyoning makon-vaqt strukturasi jonli materiya moslashuvining asosiy shaklidir. Oldinroq aks ettirish jonli sistemalar dunyoda chidamli, moslashuvchan, o'zgarishlarga to'la bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Insonda oldinroq aks ettirish qobiliyati ilmiy bashorat va prognostika shaklini kasb etadi. In'ikos yo'q protsessual tomondan, yo'q natija nuqtayi nazaridan qaralishi mumkin. Tashqi real aks ettiriluvchi ob'ekt yo'q bo'lganidan keyin in'ikosning o'zi, aks ettirish jarayonining natijasi sifatida, yo'q bo'lmaydi, balki aks ettiruvchi ob'ektida iz ko'rinishida saqlanib qoladi. Shunday qilib, tashqi ta'sir aks ettiruvchining tarkibidan o'rin oladi. S.L. Rubinshteyn materiya aks ettirish qobiliyatining ayni shu xususiyatini nazarda tutib, har bir hodisa ma'lum ma'noda «Olam ko'zgusi va aks sadosidir», degan. Axborotning atributiv konsepsiyasi shu asosda tuziladi.

Bioenergoinformatsion almashinuv axborotni qabul qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishning murakkab mexanizmini nazarda tutadi. Informatsiya yoki axborot tushunchasi serma'nodir. Informatsion jarayonlar aksariyat hollarda aks ettirish, in'ikos jarayonlari bilan bog'liq holda yoki ularga muvofiq tushuntiriladi. In'ikos yo protsessual tomondan, yo natija nuqtayi nazaridan qaralishi mumkin. Darhaqiqat, sirtqi (aks ettirilayotgan) real predmet g'oyib bo'lganidan so'ng in'ikosning o'zi aks ettirish jarayonining mahsuli sifatida yo'q bo'lmaydi, balki aks ettirayotgan predmetda iz sifatida mavjud bo'lishda davom etadi. Shunday qilib, sirdan ko'rsatilgan ta'sir aks ettiruvchining tarkibidan o'rin oladi va unda saqlanib qoladi. Shunga muvofiq axborotning atributiv konsepsiyasi tuziladi.

«Axborotning predmet sohasi to'g'risidagi masalaga bag'ishlangan falsafiy munozaralarda kamida uch nuqtayi nazar vujudga kelgan. Birinchidan, axborot muloqot sohasi va umumiy ilmiy refleksiya vositasi sifatida talqin qilinadi. Ikkinchidan, u o'z-o'zidan tashkil topuvchi tizimlarning o'zaro ta'sirlarni tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan xossasi sifatida tushuniladi. Uchinchidan, axborot materiya va energiya taqsimlanishining turli jinslilik mezoni, dunyoning azaliy turli jinslilikini qayd etuvchi barcha moddiy tizimlar xossasi sifatida namoyon bo'ladi. Axborotning yuqorida zikr etilgan uch xil talqini hozirgi zamon nazariyasidan axborot kommunikativ, funktsional va atributiv konsepsiyalari degan nomlar bilan o'rin olgan.

Atributiv konsepsiya axborotning jonli va jonsiz tabiatdagi har qanday ob'ektlar va jarayonlarda rang-baranglikning in'ikosi sifatidagi keng talqiniga tayanadi. Unda axborot umuman olganda materiya va energiyaning dunyoda yuz beruvchi barcha jarayonlarga yo'ldosh bo'lgan makon va vaqtda taqsimlanishining turli jinsliliigi mezoni sifatida tavsiflanadi.

### **Universal kosmik gologramma konsepsiyasi**

Universal kosmik gologramma konsepsiyasi kvant-mexanik o'zaro ta'sirlar natijasida Koinot energoinformatsion o'zaro ta'sirlarning vaqtda va makonda cheksiz bo'lgan yagona, ko'p darajali sabab va oqibatlar tarmog'ini tashkil etishini, bu tarmoqda hamma narsalar turli xil darajadagi faollik bilan o'zaro ta'sirga kirishishini tan oladi. XX asrning 70-80-yillarida amerikalik olimlar fizik David Bom va neyropsixolog Karl Pribram universal kosmik gologramma konsepsiyasini ishlab chiqdi. Mazkur nazariyadan energoinformatsion may-

donning har bir nuqtasi makon va vaqtning boshqa barcha nuqtalari haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va, o'z navbatida, makon-vaqt kontinumining qolgan barcha qismlarida informatsion «vakolat-xona»ga ega bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi. Ushbu kontekstda Spinozaning: «Inson tanasi cheksiz ko'lamlilikning ayrim ko'rinishidir», «inson aqli cheksiz tafakkur shakllaridan biridir», degan fikrlari yangicha mazmun kasb etadi. Shu narsa diqqatga sazovorki, zamon-doshimiz professor B.Iskakov jonni «mikroleptonli gologrammalar yig'indisi» deb nomlashni taklif qiladi. Ma'lumki, «golografiya» tushunchasi har doim ob'ekt haqida yorug'lik to'lqinlari interferentsiyasiga (lot. – ko'chirish) asoslangan to'liq hajmdor-obrazli axborot olish metodini anglatgan. Ushbu metod yorug'likka ta'sirchan emulsiyaga eslab qolinayotgan ob'ektdan qaytgan tarqalgan lazer nuri va bevosita lazerdan keluvchi tayanch nurning ta'sirini qayd etishni nazarda tutadi. Ko'rsatilgan o'zaro ta'sir natijasida vujudga keladigan manzara eslab qolinayotgan ob'ekt haqida to'liq obrazli axborotni o'z ichiga oladi.

### **Torsion maydonlar nazariyasi**

Torsion maydonlar o'ng va chap aylanishga ega bo'lib, bu «o'ng» va «so'l» dunyolar mavjudligini taxmin qilish imkonini beradi. Ilgari surilgan gipotezalarga ko'ra, beshinchi fundamental fizik daraja manbasi torsion maydonlar (aylanish maydonlari) bo'lishi mumkin. Ular ekstrasensor o'zaro ta'sirlarda qayd etiladi va ularda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tabiiy muhitlar orqali o'tishda torsion nurlanishlarning zaiflashuvi mavjud bo'lmaydi. Olimlar taxminiga ko'ra, torsion maydon kvantlari sifatida past energetik relikli neytrinolar amal qiladi. torsion nurlanishlarning o'ta o'tuvchanligi esa tabiiy xususiyat sifatida qaraladi. Torsion to'lqinlarning gruppaviy tezligi kamida 109 s (yorug'lik tezligi)ga teng deb baholanadi. Ammo bunday yorug'lik tezliklari fizika uchun yangi va favqulodda bir hol emas. Torsion maydonlar o'z-o'zidan hosil bo'lishi mumkin deb hisoblanadi. Ular fizik vakuumning ta'sirlanishi natijasi sifatida vujudga kelishi mumkin. Har qanday shakl, hatto uning massasi juda oz bo'lsa ham, vakuumni ta'sirlantirishi va uni qurshagan muhitda torsion maydon sifatida namoyon bo'luvchi qutblashishni vujudga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, vakuumning elektrostatik yoki elektromagnit maydoni mavjud bo'lgan qismida doim ushbu maydon yaratadigan torsion komponentlar mavjud bo'ladi. Birlamchi torsion maydonlar

birdan-bir tavsifi axborotni tashiydigan va o'zaro ta'sirga kirishish chog'ida energiya almashmaydigan uyurmalar mavjudligi hisoblanuvchi materiya shakli sifatida qaraladi. Ikkilik signallarni torsion aloqa kanali orqali birinchi uzatish 1986-yilda amalga oshirilgan.

Tadqiqotchilar torsion maydonlarning effektlarini o'rganar ekanlar, shuni qayd etadilarki, «vakuum fluktuatsiyasi magnit maydonining muayyan analogiga olib keladi. Bunda ushbu maydon torsion tuzilmalar tarzida shakllanadi. Torsion maydonlarning o'zi vacuumning axborot tashuvchi birlamchi bioenergetik qo'zg'alishlari sifatida qaraladi. Ular vakkumdan materiyaning tug'ilishini, uning rivojlanishi va o'zaro ta'sirlarini boshqaradi». G.Shilov torsion maydonlar informatsion maydondagi moddiy ob'ektning o'rni va ahamiyatini aks ettiruvchi barqaror maydon tuzilmalari – fikr shakllaridan iborat, degan xulosaga keladi. Barcha moddiy ob'ektlar o'z atrofida torsion maydonlarni yaratsa, ong ular bilan o'zaro ta'sirga kirishish xususiyatini aniqlaydi. Torsion maydon tashqi torsion maydon ta'siri yo'qolganidan keyin saqlanib qoladigan qutblashuvni induktsiyalaydi. Bu holda ko'z tegishi, issitish va sovutish kabi parailmiy fenomenlarni, shuningdek «suv xotirasi» hodisasini tushuntirish uchun imkoniyat yaratiladi. V.Yartsev insonning o'z tanasi hujayralarini energiya va axborot bilan yagona bioenergetik organizmga birlashtirish xossasini kashf etdi. Bunda hujayralar birikuvining faollik darajasi va yo'nalishi inson ongi va uning elementlari (aql, sezgilar, iroda) bilan belgilanadi. Umuman olganda, inson organizmi o'zining umumiy torsion maydonini yaratadi. Axborotni saqlash va uzatishda organizmdagi suv strukturasi ulkan ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, torsion maydonlar o'z-o'zidan hosil bo'lishi mumkin.

Torsion maydonlar nazariyasi – hozirgi zamon fanining eng so'nggi yutuqlaridan biri va shu bilan bir vaqtda ezoterikaning ko'pgina hodisalarini tushuntirish uchun sababiy asos. Torsion maydon tushunchasi sinergetika tamoyillarini, xususan, attraktorlar harakatiga doir qoidalarni chuqurlashtiradi. Elektromagnit nurlanish ham doim torsion elementga ega bo'ladi. Katta tezlikda aylanayotgan jism gravitatsiya kuchini kamaytiradi. Fikr shakli torsion maydonlar yordamida uzatilganida telekeincz fizikasini abstrakt holda tasavvur qilish mumkin.

Torsion maydon individual xotira substrati hisoblanadi, degan faraz ham mavjud. Professor A.Stepanov chiqargan xulosaga ko'ra,

sirtidan keluvchi axborot miyaning turli zonalarida kodlanadi va ikki parallel oqimga ajraladi. Bir oqimdan kiruvchi parametrlarining ichki holat matritsalarini bilan ayniyligini solishtirish uchun foydalaniladi. U organizmning adaptatsion-kompensator faoliyati uchun javob beradi. Ikkinchi oqim yangi holatni qayd etadi va kelgan axborotning torsion maydonlarini induksiylaydi. Bunday xulosalar Stanislav Groff ilgari surgan xolotrop konsepsiyasiga ham mos keladi. Ongni xolotrop (yunon. holes – yaxlit) tushunish ong maydoni miyaning individual faoliyati bilan bilvosita belgilanishini va Koinot evolyutsiyasining rang-barang tajribasini o'z ichiga olishini qayd etadi.

### **Qizil siljish**

«Qizil siljish» hodisasi hozirgi vaqtda nurlanish manbai uzoqlashib borayotganini, ya'ni galaktikalar taxminan o'zigacha bo'lgan masofaga proporsional tezlikda har yoqqa «tarqalayotgani»ni tasdiqlovchi umumiy e'tirof etilgan dalil hisoblanadi. Shu bois, Olam kengayishda davom etadimi yoki torayish jarayoni boshlanadimi, degan savol javobsiz qolmoqda. 1912-yilda V.M.Slayfer galaktikadan tashqaridagi tumanliklar nurlanishlarining spektr chiziqlari spektrning qizil uchi tomonga siljiyotgan - «qizil siljish»ni aniqladi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach (1929-yilda) Edvin Xabbl tumanlik kuzatuvchidan qancha uzoqda bo'lsa, «qizil siljish» kattaligi ham, uning tumanlikdan uzoqlashish tezligi ham shuncha katta bo'ladi, degan qonunni va katta masofalarda galaktikalarning tezligi ulkan darajalarga yetishini aniqladi. Ammo «qizil siljish» hodisasi hozirgi vaqtda nurlanish manbai uzoqlashib borayotganini, ya'ni galaktikalar taxminan o'zigacha bo'lgan masofaga proporsional tezlikda har yoqqa «tarqalayotgani»ni tasdiqlovchi umumiy e'tirof etilgan fakt hisoblanadi. 1912-yilda V.M.Slayfer galaktikadan tashqaridagi tumanliklar nurlanishlarining spektr chiziqlari spektrning qizil uchi tomonga siljiyotgani - «qizil siljish»ni aniqladi. 1929-yilda Edvin Xabbl tumanlik kuzatuvchidan qancha uzoqda bo'lsa, «qizil siljish» kattaligi ham, uning tumanlikdan uzoqlashish tezligi ham shuncha katta bo'ladi, degan qonunni va katta masofalarda galaktikalarning tezligi ulkan ifodalarga yetishini aniqladi.

Shunga qaramay, olamning kengayishi bilan bir qatorda, uning torayishini yoki makonda cheklangan, lekin vaqtda cheksiz olam navbatma-navbat dam kengayuvchi, dam torayuvchi

harakatlanuvchi olam modelini ham taxmin qilish uchun nazariy imkoniyat mavjud.

### **Harakat borliqning yashash sharti**

Bizni qurshagan dunyoning muhim xususiyati – Koinotda va uning barcha tarkibiy qismlarida yuz beradigan tinimsiz o'zgarishlardir. Hozirgi zamon falsafasida «harakat» tushunchasi «keng» ma'noda umuman har qanday o'zgarish haqidagi tasavvur sifatida talqin qilinadi. Kengayib borayotgan Metagalaktika ham, o'zaro ta'sirga kirishayotgan elementar zarralar ham, ko'payayotgan, moddalar almashinuvini amalga oshirayotgan tirik hujayralar ham, ijtimoiy va hokazolar, shu jumladan fikrlash faoliyati ham harakatda bo'ladi. Agar biz biron-bir tabiiy ob'ekt yoki hodisani ularning tabiiy holatida anglab yetmoqchi bo'lsak, «harakat» tushunchasini chetlab o'tishimiz mumkin emas. Bir qarashda, oddiy ong nuqtayi nazaridan bu noto'g'ri, zero, aytaylik, Alp tog'lari yoki Misr ehromlarini kuzatar ekanmiz, biz ular abadiy harakatsizlik holatida ekanligining guvohi bo'lamiz. Ammo bu harakatsizlik nisbiydir. Umuman olganda, butun Koinot ulkan aylanma harakat holatida bo'lib, bu yerda bizning sayyoramiz Quyosh atrofida, u bilan birga – bizning galaktikamiz markazi atrofida, u bilan birga esa – galaktik sistema markazi atrofida aylanadigan kichik bir zarradir. Harakatsizlik holatidagi narsalar strukturasi ham tinimsiz o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi, chunki uzluksiz harakatda bo'lgan elementar zarralardan tashkil topadi. Temperatura o'zgarishlari, kimyoviy tarkib o'zgarishlari va shu kabilar bunday harakatning tashqi ko'rinishlari hisoblanadi. Shuningdek, atomlar va molekulalar ham Koinotda yuz bergan evolyutsiya jarayonlari mahsulidir. Ular bizning Metagalaktikamiz mavjudligiga zamin hozirlagan Katta portlashdan keyingina vujudga kelgan. Buning ustiga hozirgi zamon geografiyasi qit'alar bir-biriga nisbatan siljishini isbotladi. Ular ajralgan muz bo'laklari kabi Yerning qaynoq magmasi bo'ylab yiliga bir necha santimetr tezlikda harakatlanadi.

Shunday qilib, harakat abadiy va yo'q bo'lmas, materiyadan ajralmas va mutlaqdir. Harakatsizlik esa nisbiy bo'lib, o'tkinchi xususiyatga ega. Harakat shuning uchun ham mutlaqki, u umumiy ahamiyat kasb etadi va (harakatsizlikdan farqli o'laroq) biron-bir tashqi omilga bog'liq bo'lmaydi. Oqilona nuqtayi nazardan u boqiydir, chunki dunyoda uning boshi ham, oxiri ham ko'rinmaydi va



zamidida kamida ikki kuch – tortish va itarish yotuvchi har qanday borliqning o'z-o'zidan harakati sifatida amalga oshadi.

### **Harakat tiplari**

Fanda ob'ektiv borliq narsalari va hodisalari harakatining ikki asosiy tipi farqlanadi. Orqaga qaytmaslik va muayyan yo'nalishga egalik ham xos bo'lgan mazkur harakat tipi rivojlanish deb ataladi. Bunda narsa yoki hodisa strukturasi murakkablashuvi, ular tashkil topish darajasining yuksalishi yuz berishi mumkin bo'lib, bu odatda taraqqiyot progress sifatida tavsiflanadi. Agar harakat teskari yo'nalishda – barkamolroq va rivojlangan shakllardan rivojlanmagan shakllarga, murakkabdan oddiyga qarab yuz berayotgan bo'lsa, bu hol regress deb nomlanadi. Ammo progress va regressning ko'rsatilgan xususiyatlarini mutlaqlashtirmaslik mumkin emas. Xususan, boshqaruv apparati tuzilmasining murakkablashuvi va byurokriyaning o'sishi doim ham progressni anglatavermaydi, nisbatan soddaroq va ayni vaqtda samaraliroq va ishonchliroq mashinalar, asboblari va mexanizmlar yaratilishining regressga hech qanday aloqasi bo'lmaydi va ko'proq buning aksidan dalolat beradi.

Jonsiz tabiatda rivojlanishga yulduzlarda sodir berayotgan evolyutsiya jarayonlari; jonli tabiatda – turli organizmlarning o'sishi; jamiyatda – fan, texnika, sanoat ishlab chiqarishining o'sishi, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi va shu kabilar misol bo'lib xizmat qilishi mumkin.

«Rivojlanish» tushunchasi nafaqat moddiy, balki ideal dunyoga, xususan, inson tafakkuriga nisbatan, masalan, umuman ongning yoki ayrim fikr, g'oya, nazariyaning rivojlanishi to'g'risida so'z yuritilgan holda qo'llanilishi mumkin. Fikrning rivojlanishi uning «pishib yetilishi»ni, ya'ni murakkablashuvi, takomillashuvi, yanada aniqroq ma'no kasb etishi va shu kabilar anglatadi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, narsalar va hodisalarning ob'ektiv dunyosidan farqli o'laroq, sub'ektiv omillar (tafakkur, g'oyalar, nazariyalar) harakati va rivojlanishiga nisbatan ko'lam ko'rsatkichlari tatbiq etilishi mumkin emas. Ayni vaqtda ideal narsalar va hodisalar darajasida rivojlanish jarayonlari, xuddi moddiy narsalar dunyosidagi kabi vaqtda kechadi.

O'z-o'zidan harakat yo' butun tabiatga, yo' uning yuksak darajada uyushgan tarkibiy qismi – tirik organizm va jamiyatga xos xususiyatdir. Qotib qolgan materiyaga mansub ayrim narsa yoki

ob'ektga nisbatan o'z-o'zidan harakat, o'z-o'zidan rivojlanish holati xos deb aytish o'rinli emas. Chunki ushbu ob'ektni muayyan element sifatida o'z ichiga olgan tabiat o'z-o'zidan rivojlanuvchi yaxlit tizim hisoblanadi.

Harakatlanish shu joyda bo'lishni va ayni vaqtda, unda bo'lmaslikni anglatadi; bu makon va vaqtning uzluksizligidir, aynan u harakatni yuzaga keltiradi. Harakatning uzluksizligi uning umumiy-ligini namoyon etadi, uzluksizlik uning alohida jihatini ko'rsatadi. Harakatdagi umumiylik uning mohiyatini aks ettiradi, binobarin, harakatni tushunish va ta'riflash, uning mohiyatini anglab yetish uchun harakatning uzluksizligini tushunmoq darkor.

Vaqtinchalik barqarorlik va muvozanat holati sifatida tushuniluvchi nisbiy harakatsizlik materiyaning har qanday muayyan holatiga xos. U materiyaning sifatini namoyon etadi. Nisbiy tinchlik tufayli narsalarning chegaralari mavjud bo'ladi, dunyo sifat va miqdor o'zgarishlarining rang-barangligi sifatida namoyon bo'ladi. Materiya harakati shuning uchun ham mutlaqki, u sirdan hech narsaga bog'liq emas. Shu ma'noda «Dunyoda abadiy harakatdagi materiyadan boshqa hech narsa yo'q» tarzidagi fikrlar o'rinli va asoslidir.

«Materiya harakatining shakli» tushunchasi tabiat rivojlani-shining muayyan bosqichiga xos bo'lgan alohida qonuniyatlarni qayd etishga xizmat qiladi. Harakat shakli sifat jihatidan o'xshash moddiy ob'ektlar o'zgarishlarining o'ziga xos tiplarini va ularning o'zaro ta'siri xususiyatlarini aks ettiradi. Ba'zan materiya harakatining muayyan shakli o'zaro ta'sirga kirishayotgan elementlar o'rtasidagi bog'lanishlarning o'ziga xos tizimi sifatida yoki muayyan qonunlarga bo'ysunish belgisiga ko'ra birlashtirilgan o'zgarishlar guruhi sifatida ta'riflanadi.

Materiya harakatining shakllari insoniyatga birga rivojlanish xususan qadimda ishqalanish kuchi yordamida o't yoqish mexanik harakatni issiqlikka aylantirgan. Bug' mashinasining ixtiro qilinishi teskari jarayondan – issiqlik energiyasi mexanik harakatga aylanishi-dan dalolat bergan. Uzoq vaqt hukm surgan dunyoni idrok etishning mexanistik konsepsiyasi doirasida materiya harakatining barcha shakllari bir-biridan miqdor jihatidagina farq etishi taxmin qilingan.

Materiyaning harakat shakllarini tasniflash tamoyillari:

- materiya harakatining har bir shakli muayyan moddiy tashuvchi bilan bog'liq;

elementar zarralari, ilgari taxmin qilinganidek, oqsilli molekulalar emas, balki XX asrda kashf etilgan DNK va RNK hisoblanadi. Ayrim olimlar yer po'sti hamda Yer ostida yuz berayotgan jarayonlar haqidagi hozirgi tasavvurlarga asoslanib harakatning geologik shaklini farqlamoqdalar.

Materiya harakatining geologik shakli mavjudligi haqidagi taxminni qabul qilsak, materiyaning mazkur shakli mexanik, fizik va kimyoviy o'zaro ta'sirlarni o'z ichiga olgan dastlabki sintez sifatida amal qiladi. Bu qadimgi "xaos" kategoriyasida o'z aksini topadi. Mazkur kategoriya nafaqat tartibga solinmaganlik va tartibsizlik dalili sifatida, balki stixiyali shakllanish tamoyili sifatida ham talqin qilinadi. Bu holda organik dunyo vujudga kelishidan oldingi tabiat mexanik, fizik va kimyoviy jarayonlarning olg'a qarab rivojlanishidan emas, balki ularning umumiy, differentsialanmagan o'zaro ta'siridan tashkil topadi. Ayni paytda bunda geologik va geografik omillar Yerdagi hayot vujudga kelishi uchun tarixiy shart-sharoit yaratgan, deb ta'kidlash lozim. Zilzilalar Yerning qattiq qobig'ida katta siljish, sinish yoki o'pirilishlar yuzaga kelishi va ta'sir energiyasining tez tarqalishi natijasida ro'y berishi haqidagi tadqiqotlar materiya harakatining geologik shakli mavjudligining dalili hisoblanadi. Shved olimlarining fikricha, yer qobig'i muttasil harakatdagi plitalar bloklaridan tashkil topadi. Ular bir-birining ustiga chiqib, sunami va zilzilaga o'xshash tabiiy anomalialarni vujudga keltiradi. Masalan, Shveysariya ikki plita – Afrika va Yevropa plitalari tutashgan yerda joylashgan. Afrika plitasi yiliga 6-11 mm/tezlikda siljib, Shveysariyaning hududiy yo'qotishlari «sababchisi» bo'lmoqda. Qadimgi Ural ham har yili 3-5 sm/tezlikda G'arbiy Yevropaga yaqinlashmoqda.

Qadimgi olimlar yer qobig'ining harakatini ustki suvlar va yer ostidagi issiqlik faoliyati bilan tushuntirganlar. Dunyoviy moddaning harakati kosmik sabablar ta'sirida ham yuz bergan, jumladan, olis o'tmishda Yer paydo bo'lganidan keyin uning yuzasi ulkan asteroidlar urilishidan larzaga kelgan, suvning 1,5 kmgacha balandlikka ko'tarilishi esa relefni buzgan, degan fikrlar ham bor. Ba'zan «materiyaning geologik shakli» tushunchasi boshqa sayyoralarga nisbatan tatbiq etilgan. Bunday taxmin harakatning universalligini namoyish etgan, ammo bu aynan Yer sayyorasini ko'rsatuvchi va unda zarur komponentlar: suv, kislorod, mo'tadil harorat rejimi mavjudligini nazarda tutuvchi «geo» atamasiga zid bo'lgan. Ushbu komponentlar

majmui boshqa sayyoralarda uchramasligi mazkur fikrning isboti sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Materiya harakatining asosiy, xususiy va kompleks shakllari ham mavjud. Materiya harakatining xususiy shakllari asosiy shakllar tarkibiga kiradi. Masalan, fizik materiya bo'shliq, maydonlar, elementar zarralar, yadrolar, atomlar, molekullar, makrojismlar, yulduzlar, galaktikalar, metagalaktikani o'z ichiga oladi.

Materiya harakatining kompleks shakllariga astronomik (metagalaktika - galaktika - yulduzlar - sayyoralar), geologik (planetar jism sharoitidagi materiya harakatining fizik va kimyoviy shakllaridan iborat), geografik (litosfera, gidrosfera va atmosfera doirasidagi materiya harakatining fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy shakllarini o'z ichiga oladi) shakllar kiradi.

Materiya harakati kompleks shakllarining muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ularda pirovard natijada materiyaning quyi shakli - fizik materiya yetakchilik qiladi; geologik jarayonlar fizik kuchlar, gravitatsiya, bosim, issiqlik bilan tavsiflanadi. Geografik qonunlar fizik va kimyoviy shartlar hamda Yer yuqori qatlamlarining o'zaro nisbatlari bilan belgilanadi.

Hozirgi zamon metodologiyasi nuqtayi nazaridan materiya harakat shakllarining oddiy chiziqli joylashuvi to'g'ri emas. U har bir bo'g'inda rivojlanishning asosiy va ikkinchi darajali tarmoqlariga bo'linishi zarur. Birinchi - asosiy tarmoq rivojlanish jarayonini kelajakda mazkur sifat bosqichi doirasidan tashqariga olib chiquvchi shakllar vujudga kelishidan dalolat beradi. Ikkinchi tarmoq mavjud harakat shaklining rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Masalan, kimyoviy birikmalar organik va noorganik birikmalarga ajrala boshlaydi. Mazkur divergentsiyada (ikkiga bo'linishda) birinchi - organik shakl imkoniyatli shakl sifatida rivojlanish jarayonini materiya harakatining yangi shakli - biologik shaklga olib keladi, imkoniyatsiz tarmoq hisoblangan ikkinchi shakl biz yashayotgan zamin, uning qobig' va yuzasini tavsiflaydi.

Materiya harakatining biologik shakli darajasida o'simliklarning quyidan oliyga rivojlanishi imkoniyatsiz tarmoq sifatida qaralishi mumkin, chunki bu rivojlanish jarayoni o'z tabiati chegaralaridan chetga chiqishigacha olib kelmaydi. Hayvonlarning rivojlanishi sifat jihatidan yangi ob'ekt - inson paydo bo'lgungacha davom etadi. Bu materiya harakatining sifat jihatidan boshqa shakli vujudga kelgani-

dan dalolat beradi. Materiya harakatining har bir shaklida makro va mikrodarajalarni farqlash, shuningdek, umumiy hamda xususiy qonuniyatlarni bilib olish maqsadga muvofiqdir.

### **Makon va vaqt borliqning fundamental shakllari**

Makon va vaqt o'z rang-barangligida cheksiz borliqning shakllari sifatida amal qiladi.

Makon va vaqtning umumiy xossalariga quyidagilar kiradi: ob'ektivlik, harakatlanuvchi tizimlarga bog'liqlik, uzluksizlik va uzluksizlik, cheksizlik (vaqtning cheksizligi) va cheklilik (makonning cheklanganligi). Makon va vaqt umumiy xossalar bilan bir qatorda, ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Masalan, makonga ko'lamlilik, uch o'lchovlilik xos. Bundan tashqari, moddiy tizimlar makoni simmetriya va asimmetriya, tashqi shakl va o'lchamlar, joylashgan o'rni, modda va maydonning taqsimlanishi, ularni boshqa tizimlardan ajratuvchi chegara bilan tavsiflanadi. Bu xossalarning barchasi ob'ektlar strukturasi va tashqi aloqalari, ularning harakat tezligi, tashqi maydonlar bilan o'zaro aloqasi xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Har bir moddiy tizimning maydoni mutlaqo berk emas, u uzluksiz boshqa tizim maydoniga o'tadi. Bundan amalda makonning ko'p aloqaliligi, miqdor va sifat jihatlaridan tuganmasligi kelib chiqadi. Vaqtning xossalariga davomlilik, shuningdek makon bilan uzluksiz bog'langanlik kiradi. Davomlilik birin-ketin yuzaga keluvchi vaqt lahzasi yoki oralig'idan tashkil topadi. Ular jamuljam holda ob'ektning mavjudlik davrini tashkil etadi. Vaqtning o'ziga xos ko'lamliligi sifatida amal qiluvchi davomlilik materiya va harakatning umumiy saqlanishi bilan belgilanadi. Har bir ob'ektning mavjudlik vaqti chekli va uzluksizdir, chunki u mavjudlikning boshi va intihosiga ega. Biroq ob'ektni tashkil etuvchi moddiy substantsiya yo'qdan bor bo'lmaydi va yo'q bo'lib ketmaydi, balki faqat o'z borlig'ining shaklini o'zgartiradi. Materiya va harakatning umumiy saqlanuvchanligi ularning mavjudlik vaqti uzluksiz bo'lishini ta'minlaydi va bu uzluksizlik mutlaq xususiyat kasb etadi, uzluksizlik esa nisbiy bo'ladi.

Makon va vaqt namoyon bo'lish shakllarining rang-barangligi dunyoning mutlaq rang-barangligi, uning sifat jihatidan cheksizligi faqat nisbiy holatlarning cheklanmagan miqdorida ro'yobga chiqishi mumkin va o'z navbatida, nisbiy holatlar va dunyo tizimlarining cheklanmagan miqdorigina dunyoning mutlaq cheksizligi va rang-barangligini ifodalashga qodir, degan xulosaga olib keladi.

Makon va vaqt haqida odamlar o'z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq fikr yuritganlar va o'tmishning aksariyat mutafakkirlari ularning tabiatini aniqlashga harakat qilganlar. Bu avvalo inson amaliyoti va bilishining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Zero, ular kengayib va takomillashib, mazkur kategoriyalarni yanada aniqroq va teranroq tushunishni talab qilgan. Xususan, antik davrdayoq falsafadan ko'lamli shakllar va ularni o'lchash usullari haqidagi fan sifatida ajralib chiqqan geometriya ilk aniq fanlardan biriga aylandi. Vaqtga astronomik kuzatishlar hamda koinotning boqiyliги va inson hayotining tezoqarligi haqidagi mulohazalar nuqtayi nazaridan ham alohida e'tibor qaratilgan. «Makon» va «vaqt» kategoriyalariga qiziqish hech qachon susaymagan. Ular bilan bog'liq ko'p sonli masalalar yuzaga kelgan. Ularning eng muhimlaridan biri quyidagicha: makon va vaqt mustaqil mohiyatlarni yoki ular faqat nimagadir bog'liq holda keladimi?

Matematikadan farqli o'laroq fizika amalda mavjud bo'lgan makon-vaqt strukturalarini (matematika yaratgan vositalar yordamida) bilishga harakat qiladi. Unda bu strukturalarni tushunishga nisbatan qarama-qarshi falsafiy nuqtayi nazarlardan kelib chiqqan ikki xil yondashuv rivojlanadi.

Substantsional yo'nalishda makon va vaqt materiya va onga bog'liq bo'lmagan mustaqil mohiyatlar sifatida qaralgan. Substantsional konsepsiya asoschilari Demokrit (makon muammosi bo'yicha) va Platon (vaqtga nisbatan yondashuvlarda) makon va vaqtni materiyaga ham, bir-biriga ham bog'liq bo'lmagan mustaqil mohiyatlardir. Demokrit atomlar harakatlanuvchi bo'shliq amalda mavjudligi haqidagi yondashuvni ilgari surgan. Uning fikricha, bo'shliqsiz atomlar harakatlanish imkoniyatidan mahrumdir. Demokrit va Epikur makonni atomlardan iborat joy deb tasavvur qilgan va uni bo'shliq bilan tenglashtirgan. Makon mutlaq, bir jinsli va harakatsiz, vaqt esa bir tekis oqadi deb hisoblangan. Demokrit, Epikur va Lukretsiy Kar ta'limotiga ko'ra, makon ob'ektiv, bir xil va cheksiz. U atomlar joylashadigan joy. Vaqt (zamon)ni abadiyat bilan tenglashtirish mumkin – u o'tmishdan kelajak sari bir maromda kechuvchi sof davomlilikdan iborat. Vaqt - voqealar yuz beruvchi joy. Qadimgi yunon faylasuflari materiya, harakat, makon va vaqtni mustaqil substantsiyalarga ajratuvchi bu g'oyalar keyinchalik Nyuton klassik mexanikasida rivojlantirildi.

XVIII-XIX asrlarda substantsional konsepsiya – mutlaq makon va vaqt konsepsiyasi falsafa va tabiatshunoslikda yetakchilik qildi. Bu o'z mohiyatiga ko'ra metafizik konsepsiya edi, chunki u harakatlanuvchi materiya, makon va vaqtning aloqadorligini e'tiborga olmas edi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, materiyadan tashqarida sof makon yoki moddiy jarayonlar bilan mutlaqo bog'liq bo'lmagan vaqt mavjud bo'lishi mumkin edi. Shunga qaramay, makon va vaqt haqidagi bu tasavvurlar muayyan empirik asosdan xoli emas edi. Odatdagi tajriba va past tezliklar sohasida, makrodunyoda (makrodunyo esa inson yashaydigan asosiy muhitdir) makon, vaqt va harakatlanayotgan narsa o'rtasida bevosita bog'lanish kuzatilmaydi. Ob'ekt muayyan joydan uzoqlashishi mumkin, lekin buning natijasida makon o'zgarmaydi va yo'qolmaydi. Vaqt ham shunday tushuniladi, u ob'ektlarga bog'liq emas. Shuning uchun ham bunday yondashuvlar saqlanib qolgan, ayniqsa, tabiatshunoslik mikrodunyoni o'rganishga hali yaqinlashmagan sharoitda keng tarqalgan.

Ammo F.Gegel bunday yondashuvlarni qat'iy inkor etgan. U makon mustaqil bo'lishi mumkin emasligini qayd etgan, vaqt haqida esa shunday degan: «...hamma narsa vaqtda yuzaga kelmaydi va yuz bermaydi, balki vaqtning o'zi shu shakllanish, yuzaga kelish va yuz berishdir». Umuman, Gegel o'zining ob'ektiv idealizmida makon va vaqtga e'tibor qaratmagan, chunki u vaqtdan tashqari, boqiy, «sof mantiqiy» xususiyatga ega bo'lgan bilimlarning mutlaq tizimini yaratishga harakat qilgan.

Relyatsion (lot. relativus – nisbiy) yo'nalish makon va vaqtni mustaqil mohiyatlar sifatida emas, balki real dunyo ob'ektlari va jarayonlari o'rtasidagi alohida munosabatlar sifatida tushunishdir. Makonning Demokrit taklif qilgan yondashuvga zid, relyatsion konsepsiya Aristotel tomonidan ta'riflangan. Aristotel bo'shliqning mavjudligini inkor etadi. Uningcha, makon bir xil emas va cheklidir, u moddiy jismlar egallovchi tabiiy o'rinlar tizimidir. «Vaqt nima?», degan savolga javob berar ekan, Aristotel shunday mulohaza yuritadi: harakatda ham, vaqtda ham doim muayyan «oldin» va undan farq qiluvchi «keyin» mavjud. Aynan harakat tufayli biz har xil, o'zaro mos kelmaydigan «hozir»ni farqlaymiz. Vaqt shu «hozir»ning ketma-ketligi, ularning almashuvi, sanog'i, hisobi, «oldingi va keyingiga bog'langan harakatlar soni»dir. Aristotelida makon harakatsiz yulduzlar sohasi bilan cheklangan, ularning ortida – makon va vaqtdan

tashqarida yotuvchi va hamma narsani harakatga keltiruvchi boqiy, harakatsiz, ilohiy osmon joylashgan. Aristotelning makon va vaqtga nisbatan yondashuviga o'xshash tasavvurlar yangi davrda Leybnits va Dekart tomonidan rivojlantirildi. Uningcha, borliqning mustaqil asoslari sifatidagi bo'shliq ham, sof davomlilik ham mavjud emas.

Makon narsalarning ko'lamini, o'zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi. Ob'ektlarning ko'lamliligi va jarayonlarning davomiyligi birlamchi xossalar emas, ular tortilish va itarilish kuchlari, ichki va tashqi o'zaro ta'sirlar, harakat va o'zgarish bilan belgilanadi. Mazkur nuqtayi nazardan ko'rsatilgan munosabatlar doirasidan tashqarida makon va vaqt mavjud bo'lmaydi. Bu yo'nalishning atoqli namoyandasi G.Leybnitsdir (1646-1716).

O'rta asrlar falsafasida ob'ektiv idealizm nuqtayi nazaridan Xudo makon va vaqtdan tashqarida deb hisoblangan. Mazkur nuqtayi nazarning shakllanishiga Avgustin (354-430) salmoqli hissa qo'shgan. Idealistik qarashlar makon va vaqtning ob'ektivligini rad etish va ular ongning turli shakllariga qaramligini tan olish bilan bog'liq.

Sub'ektiv idealizm vakillari (Berkli, Yum, Max va boshqalar) makon va vaqtga individual ong shakllari sifatida yondashadi. Xususan, Yum uchun ular faqat idrokda mavjuddir. Kant ham makon va vaqtga sub'ektiv deb qaraydi, ammo ularni aprior, ya'ni insonga tajribaga qadar berilgan hissiy mushohada shakllari sifatida tushunadi. Kant makon va vaqtni inson hissiyoti shakli sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, aynan dunyoni bilishga harakat qilayotgan sub'ekt o'ziga berilgan dunyoning muayyan makon va vaqtdagi shakl-shamoyilini yaratadi.

Sub'ektiv-idealistik yondashuv uchun makon va vaqt – tasavvurlarning joylashuv usuli, binobarin, ular o'z kelib chiqishining psixologik manbaiga ega. Berklidan Maxga qadar makon va vaqt - sezgilarning tartibga solingan qatorlaridir, degan yondashuv amal qildi. Ingliz faylasufi Pirson fikriga ko'ra, makon va vaqt amalda mavjud emas, ular narsalarni idrok etishning sub'ektiv usuli, xolos. Makon – narsalarni idrok etish tartibi yoki kategoriyasi bo'lsa, vaqt voqealarni idrok etish kategoriyasidir. A.Bogdanov makon va vaqtni tashkil etuvchi va uyg'unlashtiruvchi inson tafakkuri mahsuli deb hisoblaydi.



Makon va vaqt tabiati haqidagi metafizik yondashuvlarni rad etuvchi tabiiy ilmiy dalillar XIX asr oxirida fizikada elektromagnit nazariyasi yuzaga kelishi bilan shakllana boshladi. Uning rivojlanishi faylasuflarni bo'shliq haqidagi tasavvurlardan voz kechishga majbur qildi. Dastlab u "efir" to'g'risidagi g'oya bilan almashtirildi. Efir hamma joyda to'liq, lekin mutlaq va hech narsaga bog'liq bo'lmagan makonning shakli vazifasini bajargan. Keyinchalik bu tasavvurlardan ham voz kechildi.

Makon va vaqtni mutlaqo mustaqil atributlar sifatida qayd etuvchi metafizik substantsional konsepsiya XIX-XX asrlarda fanning rivojlanish jarayonida o'z ahamiyatini butunlay yo'qotdi. Lobachevskiy makon va vaqtning evklid geometriyasi tavsiflamagan xossalari mavjud, degan taxmini ilgari surdi. Bu taxmin absolyut makon konsepsiyasini inkor etadi, chunki makon faqat geometrik tavsiflanishi lozim edi. 1905-yilda Eynshteyn tomonidan ta'riflangan xususiy nisbiylik nazariyasida makon va vaqtning geometrik xossalari ularda gravitatsion massalarning taqsimlanishiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Uning fikricha, og'ir ob'ektlar yaqinida makon va vaqtning geometrik xossalari evklid geometriyasi tamoyillaridan uzoqlasha boshlaydi, vaqtning o'tish sur'ati esa susayadi. Eynshteyn (1916-yilda) o'zining umumiy nisbiylik nazariyasi bilan nafaqat makon va vaqtning substantsional konsepsiyasiga, balki makon va vaqt mohiyatining sub'ektivistik aprioristik talqinlariga ham qaqshatqich zarba berdi. U makon va vaqt xossalari moddiy tizimlar harakati va o'zaro ta'siriga bog'liq ekanligini ko'rsatib berdi. Eynshteyn o'z nazariyasining mohiyatini tushuntirar ekan, shunday deb qayd etdi: «Ilgari qandaydir mo''jiza yuz berib, barcha moddiy narsalar birdan yo'q bo'lib qolsa, makon va vaqt qoladi, deb hisoblashgan. Nisbiylik nazariyasiga ko'ra esa, bu holda narsalar bilan birga makon va vaqt ham yo'q bo'lib ketgan bo'ladi».

Hozirgi zamon tabiatshunosligi va falsafiy xulosalar nuqtayi nazaridan ob'ektiv borliq makon, vaqt, harakat hamda modda va maydon turlari o'zaro ta'sirining uzviy aloqasidan iborat. Hozirgi olimlar yagona va ob'ektiv makon va vaqt kontinuumi to'g'risida so'z yuritishni ma'qul ko'radilar. Makon va vaqt moddiy jismlar mavjudligining o'zaro bog'langan shakllari sifatida tushuniladi. Makon – materiya borlig'ining ko'lamlilik, tarkibiylik kabi xossalari va uning o'zaro ta'sirlarini ifodalovchi shakli. Vaqt – materiya borlig'ining

barcha ob'ektlar mavjudligining davomiyligini va keyingi holat o'zgarishlarini tavsiflovchi shaklidir.

### **Makonning uch o'lchovliligi va ko'p o'lchovliligi haqidagi nazariyalar**

Makon va vaqtning cheksizligi hamda tuganmasligi, makonning uch o'lchovliligi, vaqtning bir yo'nalishliligi, orqaga qaytmasligi makon va vaqtning asosiy xossalari sifatida qaralishi lozim. Makon va vaqtning umumiyligi, ular universumning barcha strukturalarini qamrab olgan holda, mavjudligini anglatadi. Shu munosabat bilan makon va vaqtning nafaqat makro, mikro va megadunyoda, balki jonli va ijtimoiy materiyada ham namoyon bo'lish shakllarini qayd etib o'tish lozim. Biologik vaqt, psixologik vaqt, ijtimoiy makon va vaqt maxsus tahlil qilinadi. Makon va vaqtning ob'ektivligi ular o'zini idrok etish mumkinligi yoki mumkin emasligidan qat'i nazar, olamning barcha strukturalarini qamrab olgan holda mavjudligini anglatadi. Feyerbax makon va vaqtni borliqning asosiy shartlari - Wesenbedingung deb hisoblaganida ayni shuni nazarda tutgan edi. Ammo bu makon va vaqt moddiy jismlar vujudga kelishiga sabab bo'lganini anglatmaydi, balki materiya makon va vaqtdan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi. Makonning uch o'lchovliligi hanuzgacha ilmiy-nazariy jihatdan aniq isbotlanmagan. Makon va vaqtning cheksizligi hamda tuganmasligi, makonning uch o'lchovliligi, vaqtning bir yo'nalishliligi, orqaga qaytmasligi makon va vaqtning asosiy xossalari. Biz makroskopik tajribada ko'radigan ob'ektlar uch o'lchovli ko'lamlilikka - uch o'lchovdagi o'lchamlilikka ega. Makonning har qanday nuqtasi uch soni yordamida beriladi. Ammo makonning uch o'lchovliligi faylasuflar uchun amalda jumboq bo'lib qolmoqda. Ular uchun bu asoslashga urinishlar natija bermayotgan empirik postulat sifatida qabul qilinadi. Makonning uch o'lchovliligini ta'riflab bergan Aristotel pifagorchilarning g'oyalari yordamida uni asoslashga harakat qilgan. U uch o'lchov eng mukammal va tugallangan bo'lib, aynan 3 soni shunday xususiyatga ega ekanligini qayd etgan.

Biz yashaydigan makon uch o'lchovlidir. Bu boshqa makon mavjud bo'lishi mumkin emas, degan ma'noni anglatmaydi, lekin boshqa makonda atomlar ham, molekularlar ham, Quyosh sistemasi ham bo'lmasligi mumkin. Agar makon uch o'lchovli bo'lmaganida, amaldagi barcha fizik qonuniyatlar buzilgan bo'lar edi; narsalar biron-

bir sababsiz paydo bo'lishi va yo'q bo'lishi mumkin edi (ularning sabablari boshqa o'lchovlarda bo'lar edi); atomlar mavjud bo'lishi mumkin emas edi. chunki elektronlar darhol yadrolar ustiga tushar edi. Butun dunyo boshqacha bo'lishi lozim bo'lar edi. Demak, bizning dunyomizda har qanday voqea to'rt son: makonning voqea yuz bergan joyni qayd etuvchi uch koordinati va uning vaqt ko'rsatkichi bilan belgilanadi. Shunday qilib, moddiy dunyo ob'ektlarining «3 ↔ 1» ko'rinishidagi makon va vaqt tuzilishiga mansubligi ularning universal xossasi hisoblanadi.

Nisbiylik nazariyasini rivojlantiruvchi kuchli va kuchsiz, elektromagnit va gravitatsion o'zaro ta'sirlarga nisbatan yaxlit yondashuvini hozirgi tabiiy-ilmiy konsepsiyalar makonning uch o'lchovlilik va vaqtning bir o'lchovlilik (u o'tmishdan kelajakka qarab oqishi)ni moddiy jismlar borlig'ining ehtimol tutilgan hollaridan biri sifatida talqin qiladi va bizning Metagalaktikamiz bilan bir qatorda o'zga dunyolar ham mavjudligini faraz qilib, makon va vaqtning ko'p o'lchovlilik g'oyasini ilgari suradi.

Boshqa olamlarda makon va vaqt butunlay o'zgacha tuzilish, ko'lamlilik va shakllarga ega bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi. Makon va vaqt ko'rsatkichlari nafaqat mikro, makro va megadunyo darajasida, balki jonli tabiat, ijtimoiy borliq darajasida ham o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Yerda hayot paydo bo'lishi bilan jonsiz tabiat makon va vaqt doirasida joylashgan alohida, biologik makon va vaqt o'lchovi yuzaga keladi. Shu munosabat bilan jonli va jonsiz tabiatdagi simmetriklik muammosi hayotni o'rganish bilan shug'ullanuvchi olimlar e'tiborini o'ziga tortdi. Jonli organizmlar simmetriyasi va asimmetriyasi hodisalarini L.Paster, I.Kant, V.I.Vernadskiy va boshqalar o'rgandi. Ular jonsiz tabiatga xos bo'lmagan asimmetriya molekulyar darajada atomlar guruhlarida «so'l» va «chap» qanotlar ko'rinishida namoyon bo'lishi, organizmlar darajasida esa ularning tuzilishi va dinamikasida aks etishini aniqladilar.

### **Makon va vaqtning metrik va topologik xossalari**

Makon va vaqtning metrik xossalarga ko'lamlilik hamda davomlilik kabi miqdor ko'rsatkichlari kiradi. Ko'lamlilik joy va o'rinning mavjudligini nazarda tutadi. Joy – makon chegarasi va u qamrab oluvchi muayyan hajmning birligi. O'rin – bir joyning boshqa

joylarga nisbatan koordinatsiyasi. Joy va o'rin makon tuzilishini belgilaydi. Shunday qilib, biz makon tuzilishi haqida so'z yuritganda uning joy va o'rnini tavsiflashimiz shart. Davomlilik va lahza vaqtning asosiy metrik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Lahza – davomlilikning boshqa parchalab bo'lmaydigan atomi, davomlilik kvanti. Davomlilikning o'zi bunda muayyan chegaraga solingan lahzalar majmui sifatida tushuniladi. Muayyan ob'ekt mavjudligining dastlabki va pirovard lahzalari ana shunday chegara sifatida amal qiladi. Davomlilik – ob'ekt mavjudligining davomiyligi va saqlanishidir. Davomlilik voqea-hodisalarning ayni bir vaqtda yuz berishi – sinxroniya yoki ketma-ketlik – diaxroniya munosabatlari bilan tavsiflanishi mumkin.

Makon va vaqtning topologik xossalari sifat ko'rsatkichlari, makon va vaqtning uzluksizligi, bog'liqligi, vaqt tartibi, yo'nalishi va o'lchamliligidir. Makonning topologik xossalari – makonning bir xilligi, izotropligi jarayonlar ayni bir sharoitda bir xil kechishi hamdir. Vaqtning topologik xossalari - bir yo'nalishlilik, muayyan o'lchovlilik, orqaga qaytmaslik. Bu ko'rsatkichlarning hammasi hanuzgacha faylasuflar shug'ullanadigan qator muammolarni tashkil etadi va falsafiy jihatdan ilmiy-nazariy asoslashga muhtojdir.

### **Vaqt tartibi va yo'nalishi**

Vaqt shakllanishi yoki o'tishining ob'ektiv xususiyati to'g'risidagi masala qadimdan hozirgi kungacha qizg'in bahsga sabab bo'layotgan muammodir. Odatda, vaqt tartibi va yo'nalishi to'g'risida so'z yuritilganida, uning o'tmishdan hozirgi vaqt orqali kelajakka o'tishi nazarda tutiladi. Vaqt bir yo'nalishli, nosimmetrik va orqaga qaytmaydigan jarayon.

Borliq hodisalarini vaqtda tartibga solish uchun «vaqt» tushunchasining ikki majmuidan foydalanilgan: «O'tmish – hozirgi vaqt – kelajak» tushunchasining sifati va mazmunini ifodalashda vaqtning psixologik tavsifi ko'proq mos keladi. Vaqtning miqdoriy tahlili uchun «oldin – ayni bir vaqtda – keyin» tushunchalari qo'llaniladi.

Borliq hodisalarini vaqtda tartibga solish uchun «vaqt» tushunchasining ikki majmuidan foydalanilgan: A majmui – «o'tmish – hozirgi vaqt – kelajak» va V majmui – «oldin – ayni bir vaqtda – keyin». Vaqtning miqdor ko'rsatkichlari qayd etilgan hollarda vaqt tushunchalarining ikkinchi majmuidan foydalanilgan. Masalan: 4

minut oldin, 5 minut keyin va h.k. miqdor tahlilini ifodalaydi. Ammo tilimizning tuzilishiga ko'ra 4 soat «o'tmish», 5 minut «kelajak» qabilida gap tuzish imkoni yo'q. Vaqtni tushunishning bu ikki xil jihati 1908-yilda J.Mak-Taggart tomonidan aniq tavsiflangan. U «vaqt» tushunchasining ikki majmui haqidagi tasavvurni ilmiy muomalaga kiritdi.

### **Makon va vaqtning dinamik va statik konsepsiyalari**

Dinamik konsepsiya vaqt jarayonlarining, shu jumladan, vaqt oqimining ob'ektiv borlig'ini, ya'ni o'tmish, hozir va kelajak voqealari o'rtasida real fizik farqlar mavjudligini tan oladi.

Ayni vaqtda mazkur konsepsiya nuqtayi nazaridan, haqiqiy borliqqa hozirgi vaqt voqealarigina ega bo'ladi. O'tmish xotiralarda mavjud, kelajak voqealari amalda ro'y beradimi, yo'qmi - noma'lum. Faqat hozirgi vaqtda ehtimol tutilgan voqealar o'tmishdagi sabablar asosida real borliqqa aylanishi mumkin. So'ngra ular ham o'z davrida muayyan iz qoldirib, o'tmishga aylanadi.

Vaqt tartibi va yo'nalishini tushunib yetishning ikkinchi statik konsepsiyasi - ob'ektiv vaqt jarayonlari mavjudligini inkor etmagan holda, vaqtning o'tmish, hozir va kelajakka bo'linishini rad etadi. Unda «oldin - keyin» vaqt nisbati ob'ektiv deb e'tirof etiladi. Ushbu konsepsiya tarafdorlari B.Rassel va T.Gold fikriga ko'ra, kuzatish e'tibordan soqit etilsa, dunyoda har qanday holat yuz berishi mumkin. G'arb falsafiy adabiyotlarida bu konsepsiya «Sovib qolgan olam konsepsiyasi» deb ataladi.

Ammo statik konsepsiyadagi vaqtning harakati va oqimi sub'ekt - kuzatuvchiga bog'liqligi haqidagi asosiy tezisiga qo'shilish qiyin. Ko'pgina jarayonlar kuzatuvchidan qat'iy nazar mavjud bo'ladi va yuz beradi. Eng katta muammo - hozirgi vaqtni qanday tushunish mumkinligida. Inson uchun eng qimmatli narsa vaqtdir. Xohish va harakat bo'lsa, hamma narsani topish yoki qo'lga kiritish mumkin, lekin o'tgan vaqtni orqaga qaytarib bo'lmaydi.

### **Ijtimoiy vaqt**

Ijtimoiy vaqt individ vaqti va avlod vaqtiga bo'linadi. U kishilik jamiyatining o'zgaruvchan informatsion sig'imiga bog'liq. Falsafiy adabiyotlarda vaqt jarayonlariga makon xossalari kirishi, ya'ni ijtimoiy vaqt uzunligi - hayot sikllari bosqichlarining ketma-ketligi sifatida, kengligi - faoliyat turlarining miqdoriy rang-barangligi sifatida, chuqurligi - individning o'zi ishtirok etayotgan faoliyat

turlaridagi faollik darajasi sifatida ko'rsatilishi bilan bog'liq fikrlarga ham duch kelish mumkin. Makon va vaqt bog'lanishi hamma joyda har xil bo'lgan «mahalliy vaqt» tushunchasida yorqin namoyon bo'ladi.

Bularning hammasi makon, vaqt va materiya jarayonlari o'zaro bog'liq ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi. Nazariy jihatdan esa makon va vaqt munosabatlarining relyatsion va dinamik konsepsiyalari rivojlanishining ahamiyatini yanada oshiradi, bu borada tadqiqotlar olib borish zaruratini namoyon qiladi.

Ijtimoiy vaqt ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u, biologik va planetar-kosmik vaqtdan farqli o'laroq, notekis oqadi. Ijtimoiy vaqtning yana bir jihati bu sub'ektiv, ichki vaqtdir. Sub'ektiv vaqt borliq vaqti emas, balki ong vaqti hisoblanadi. Ammo o'z tabiati va mohiyatiga ko'ra bu ijtimoiy fenomendir. Sub'ektiv vaqtni psixologlar bilan bir qatorda san'atshunoslar va estetika mutaxassislari ham keng o'rgananlar.

Ijtimoiy hayot tabiiy hayotning davomi hisoblanadi. Odamlar tug'iladilar, yashaydilar, o'ladilar, nasl qoldirish yo'li bilan o'z nasabini muttasil quvvatlaydilar. Ijtimoiy darajada «individ – avlod – nasab» uchligigina emas, balki bir strukturaviy darajadan boshqa strukturaviy darajaga o'tish ob'ektiv tamoyili ham saqlanib qoladi. Ammo muammoning mazmuni amalda boshqacha ko'rinish kasb etadi. Inson vaqti uning hayot faoliyati vaqtidir. Hayvon o'z mohiyatini tabiatdan oladi, u o'zini o'zi yaratmaydi va shu ma'noda u tarixiylikdan xolidir. Hayvon o'z tarixini o'zi yaratmaydi – tarix uni yaratadi. Inson esa o'z tarixini o'zi yaratadi. Insonning mohiyati uning o'z ijtimoiy munosabatlari majmui bilan belgilanadi.

Hozirgi paytda «individ – ijtimoiy avlod – jamiyat tarixi» uchligi ijtimoiy vaqtni o'rganish va uning mazmunini aniqlashning ob'ektiv asosi sifatida qaraladi. Ijtimoiy vaqtda muayyan odamlar, ijtimoiy jamoalar, ayrim hamjamiyatlar, millatlar, davlatlar va pirovard natijada butun insoniyat borlig'ining vaqt ko'rsatkichlarini farqlab, ijtimoiy vaqt strukturasi murakkabligi to'g'risida ham so'z yuritish mumkin. Ulardan har birining yashash vaqti va sur'ati har xil bo'lib, o'z xususiyatiga ega. Aslini olganda, turli mamlakatlar va xalqlar jamuljam holda butun insoniyatni ifoda etsa-da, amalda turli tarixiy davrlarda: kimdir o'tmishda, kimdir hozirgi davrda, kimdir esa kelajakda yashaydi. Bunga, xususan, amerikalik taniqli futurolog

E.Toffler e'tiborni qaratadi. Uning fikricha, «Er aholisining 70% o'tmishda (turli o'tmishda), 25% - hozirgi davrda, 3% - kelajakda yashaydi, qolganlar esa marginallar bo'lib, ular har qanday vaqtdan tashqaridadir» .

Davr ruhi tushunchasi ijtimoiy vaqt umumiy kategoriyasi bilan bevosita va tabiiy bog'lanishi lozim. U ichdan, ya'ni o'z mazmuni tomonidan va sirdan – davr ruhi zamondoshlar hayotida, ularning turmush tarzi va fikrlash uslubini shakllantirishda bajaruvchi funktsiyalar nuqtayi nazaridan o'rganilishi darkor.

Har bir davrning o'z ruhi bor, chunki davr – bu ayni holda inson avlodi vaqtidir. Bu yerda zamondoshlar ijtimoiy-tarixiy avlodining ma'naviy dunyosi haqida gapirish o'rinli bo'ladi. Avlodning ma'naviy dunyosi ko'p sonli, ba'zan o'z xususiyatiga ko'ra bir-biriga zid bo'lgan omillar majmui ta'sirida shakllanadi. Ammo bu omillar orasida moddiy hayot ziddiyatlari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ushbu ziddiyatlar ijtimoiy vazifalarni ilgari surish, jamiyatda ijtimoiy manfaatlarining rivojlanishi, ba'zan ularning qutblashuvini belgilovchi ob'ektiv asos sifatida amal qiladi. Moddiy hayot ziddiyatlari murakkab voqealar va jarayonlarda, xronologik zamondoshlar ularda o'ynaydigan o'ta rang-barang va hatto qarama-qarshi rollarda o'zini namoyon etadi.

Odamlar mazkur avlodning faoliyati qancha mazmunli va izchil bo'lsa, unda keng xalq ommasi ishtirok etsa, davr ruhi shuncha kuchli bo'ladi, u tarixda shuncha chuqur iz qoldiradi, shuncha ko'p qahramonlarni yaratadi, kelajak avlodlarga shuncha go'zal va jozibali bo'lib tuyuladi. Zamondoshlar faoliyatining mazmuni, mohiyati va maqsadlari, ular o'z maqsadlariga erishish uchun tanlovchi va foydalanuvchi shakllar, usullar va vositalar, yuz berayotgan ijtimoiy voqealar jarayoni va natijasiga ko'maklashuvchi va ularga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi tarixiy sharoitlar majmui odamlar avlodi yashayotgan davrga alohida, betakror ruh va tus baxsh etadi. Bu faoliyat, bu voqealarni ularning ishtirokchilari o'z boshlaridan kechiradilar; ularni kelajak avlodlar anglab yetadilar, baholaydilar va qayta baholaydilar. Ba'zan yuz bergan voqeaning asl mazmuni va mohiyati oradan ancha vaqt o'tganidan so'ng ayon bo'ladi.

Davr ruhi – avlodning amaliy aqli turli tarixiy zamonlarda ijtimoiy munosabatlarning umumiy rivojlanish darajasiga va jamiyatning yetuklik darajasiga qarab turlicha mazmun kasb etadi.

asosan ongning u yoki bu shakllarida mujassamlashadi. Ma'lumki, o'rta asrlarda mafkuraviy hayot deyarli to'liq din bilan belgilangan. O'ta radikal va o'ta konservativ g'oyalar ham bu davrda dunyoviy va haqiqiy hayotga butunlay begona bo'lgan shakl-shamoyil kasb etgan. Boshqa zamonda esa bu rol o'zga turlar va janrlarga o'tgan: masalan, XX asrning 30–40-yillari O'zbekistonda badiiy adabiyot ijtimoiy g'oyalar jarchisiga, umummilliy minbarga aylangan. Ijtimoiy tafakkur tarixini o'rganish turli xalqlarda turli tarixiy bosqichlarda o'z davrining yetakchi g'oyalari bunyodkori va tashuvchisi rolini odatda ongning o'zida nazariy mazmuni o'ta emotsional, yorqin shakl bilan birlashtirgan shakllari va darajalari o'ynaganini ko'rsatadi. Matkura odamlar ongi va qalbini egallagan taqdirdagina chinakam moddiy kuchga aylanishi mumkin.

Ayni shu sababli davr ruhi ehtiroslardan xoli, sovuqqon ong bo'lishi mumkin emas. Mazkur ong qadriyat sifatida maydonga chiqadi, insonga hayotda yo'l ko'rsatadi, shu tufayli ham u boshqaruvchi xususiyat kasb etadi. U hozirgi zamoni maqbul va kutilgan kelajak nuqtayi nazaridan anglab yetishdir. Bunga zamondoshlar avlodining o'z ajdodlariga, an'analarga bo'lgan munosabati, ya'ni o'tmishga munosabat ham kiradi. Shunday qilib, avlod ruhi nafaqat yuzaki, balki ichki vaqt mezonlariga ham ega bo'ladi: u muayyan darajadagi ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lish bilan bir vaqtda ijtimoiy voqelikning o'zi guvohi bo'layotgan jarayonlari va voqealariga o'z munosabatini bildiradi. Davr ruhining ichki mezonlari zamondoshlar avlodi faoliyatining sub'ektiv yo'nalishi va mo'ljallariga, bu orqali esa – jamiyatda kutilayotgan o'zgarishlarning xususiyatiga, yuzaga kelgan tarixiy vaziyatda odamlar tanlashga harakat qilayotgan yo'lga ishora qiladi.

Individual ong zahirida ham, ijtimoiy ong zahirida ham ijtimoiy vaqtni anglab yetish yotadi. Avlod ongi bu munosabatda alohida o'rin egallaydi. Gnoseologik sub'ekt sifatida ijtimoiy-tarixiy avlod individ va jamiyat o'rtasidagi oraliq bo'g'indir. Ammo bu hol ong muammosini o'rganishda doim ham e'tiborga olinavermaydi. Zamondoshlar avlodi kishilik tarixining gorizontol kesimi, ya'ni vaqtning muayyan, xronologik jihatdan ixcham qismida olingan jamiyatdir. Shu tufayli ham avlod tarixiy harakatni, o'z borlig'i vaqtini anglab yetishi ijtimoiy ong mexanizmini harakatga keltiruvchi birlamchi, boshlang'ich omil hisoblanadi. Avlod ongi, binobarin.



umuman ong zamirida yotuvchi vaqtni anglash tashqi dunyoning ob'ektiv jarayonlari haqidagi nazariy bilim sifatidagina emas, balki eng avvalo ommaning faol yondoshuvi va sub'ektiv manfaatlari, uning xohish-irodasi ifodasi sifatida maydonga chiqadi. Uni vaqt muammosini nazariy, ya'ni ilmiy va falsafiy, kontseptual anglab yetish bilan bog'lash mumkin emas, chunki mazkur muammo rivojlangan va yetuk madaniyat kun tartibiga ancha kech qo'yilgan va hatto hozirgi zamon ijtimoiy ongining tarkibiy tuzilmasida ham uning eng yuksak darajalariga tegishlidir. Til lingvistikadan oldin, tafakkur esa mantiqdan ilgari paydo bo'lganidek, o'z davrini (ajdodlar va avlodlarga o'zining va o'z zamondoshlarining munosabatini, avlodlar almashuvi dalilining o'zini) anglab yetishga intilish har qanday fandan oldinroq paydo bo'lgan, ya'ni ilk nazariy va nonazariy darajalarda vujudga kelgan. U yoki bu davrda, odamlarning u yoki bu avlodida vaqt haqidagi tasavvurning rivojlanish darajasi xususida faylasuflarning risolalarigina emas, balki o'sha davrga mansub bo'lgan madaniyat boyliklari ham darak beradi. Bu haqda eng avvalo odamlar faoliyatining xususiyati va ularning turmush tarzi dalolat beradi. Vaqtga muayyan munosabat zamondoshlarning dunyoqarashida, ularning ma'naviy dunyosida, xalq ijodi (eposi)ning mazmunida, oddiy, ommaviy ong sohasida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Har qanday nazariyalar va konsepsiyalardan farqli o'laroq, bu soha amaldagi tarixiy rivojlanish jarayoniga, yuz berayotgan voqealarga mazkur avlodning bevosita munosabatini aks ettiradi. O'z-o'zidan ravshanki, bu yerda mazkur mavzuda umumiy fikr-mulohazalargina bildirilishi mumkin; ushbu nuqtayi nazardan mazmunli va konkret tahlil esa kengroq va murakkabroq mustaqil ilmiy tadqiqot vazifasini tashkil etgan bo'lur edi.

Davr ruhi real ijtimoiy vaqt (avlod vaqti) mahsuli va ayni paytda zamondoshlarning unga bo'lgan sub'ektiv munosabati sifatida avlodning o'z o'zligini anglash jarayonini belgilaydi. Bu davr ruhining ijtimoiy va gnoseologik funktsiyasi hisoblanadi. Shunday qilib, vaqtni his qilish unga daxldor bo'lish demakdir. Ammo bu avlodning o'z o'zligini anglashi hamdir, zero zamondoshlar yagona maqsadga erishishga qaratilgan umumiy ishlarda ongli ravishda ishtirok etgan taqdirdagina o'zlarini yakdil va birdam his qilishlari mumkin. Shundagina «o'z-o'zidagi» avlod «o'zi uchun» avlodga aylanadi.

Tarix vaqti – bu inson vaqti, ya'ni ijtimoiy vaqtning eng oliy darajasidir, chunki tarix o'z-o'zini yaratuvchi, o'z-o'zidan rivojlanuvchi jarayondir. Individ o'limga mahkum, avlodlar keladi va ketadi, lekin birorta ham hayot izsiz yo'q bo'lib ketmaydi, ya'ni tarixdan chetda qolmaydi. Tarixiy vaqt o'limga mahkum bo'lgan odamlarning real hayot faoliyati bilan uzviydir. Ayni paytda u har bir individga nisbatan uning substantsiyasi sifatida amal qiladi. Bu individ va avlod o'z asri bilan uzviy ekanligini, insonning mohiyati ijtimoiy munosabatlar majmui bilan belgilanishini anglatadi.

«Tarixni odamlar yaratadi» degan tezis va «tarix odamlarni yaratadi» degan antitezis sintez yo'li bilan yechiladi: odamlar o'z tarixi vositasida o'zlarini o'zlari yaratadilar. Barcha odamlar, barcha avlodlar faoliyatining umumiy mahsuli bo'lgan «tarix daryosi» o'ziga olg'a yo'l ochish bilangina kifoyalanmaydi. O'z yo'lida u kengayib, suvga to'lib boradi. Uning oqimi ham jadallashadi, qirg'oqlari kengayadi, tubi yanada chuqurlashadi. Tarixni vaqt nuqtayi nazaridan o'rganish uning «uzunlik», «kenglik» va «chuqurlik» mezonlariga muvofiq o'rganish demakdir. Tarixiy vaqtning «uzunligi» deganda asosan uning topologik xossalari: o'lchamlari, asosiy bosqichlarining ketma-ketligi, bu ketma-ketlikning muqarrarligi tushuniladi.

Tarixning «kengligi» - bu tarix chegarasining kengayishi demakdir. Bunda kengayish tushunchasini ikki xil ma'noda: tarixiy jarayon yangi va yangi hududlarni qamrab olishi sifatida (kengayishning yuzaki, ekologo-geografik jihati) va «tarix doirasi»ning, ya'ni kishilar umumiy tarixiy faoliyati maydonining kengayishi sifatida tushunish o'rinli bo'ladi (kishilar umumiy tarixiy faoliyati faol tarix ijodkorligiga uning yangi va yangi ishtirokchilarini keng jalb qilishni ham nazarda tutadi). Insoniyat tarixi vaqti – bu nafaqat ob'ektiv vaqt, balki individual ong fenomeni hamdir. Unda jamiyat rivoji ham ob'ekt va ham sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy ongning yaxlit strukturasi vaqtning anglab yetish o'zini uning alohida, ichki darajasi sifatida, jamiyatni tarixiy anglash sifatida namoyon etadi.

Tarixiy jarayon insoniyat vaqtda boshdan kechiruvchi o'zgarishlarning umumiy xususiyati va ma'nosi demakdir. Darhaqiqat, insoniyat yildan-yilga ulg'ayib va ayni paytda yosharib boradi. Uning ulg'ayishi yoshiga yosh qo'shilishi bilan, yosharishi esa – ijtimoiy hayot uzluksiz yangilanishi bilan izohlanadi. Insoniyat bolaligi – biz uchun qadim zamon, yangi davr esa, aksincha, o'zimiz

yashayotgan zamondir. Bu tarixiy davrlar tasnifida o'z ifodasini topadi. Inson hayoti mazmunga ega bo'lgani, ya'ni qadriyat hisoblangani tufayli ham insoniyat tarixi mazmunga egadir. Shu ma'noda insoniyat tarixi mazmunining mezoni va ayni paytda uning taraqqiyotini belgilovchi mezon sifatida insonparvarlik maydonga chiqadi. Tarixiy jarayon yo'li, uning yo'nalishi sirtidan belgilanmagan, lekin u insoniyat tomonidan ham maqsad sifatida qo'yilmagan va anglab yetilmagan.

Insoniyat vaqtda yangi tur sari emas, balki o'zining yangi yutuqlari sari harakatlanadi. Bu yutuqlar qancha ulkan bo'lsa, tarix shuncha yangi, tarixiy vaqt shuncha yosh bo'ladi. Ayrim mamlakatga nisbatan ham, ayrim xalqqa nisbatan ham u o'zining har bir tub burilishi, o'z yo'lining har bir yangi bosqichi bilan birga go'yoki yosharib boradi: tarixiy rivojlanish jarayonining butunlay o'zgacha imkoniyatlar va istiqbollar ochuvchi yangi bosqichi boshlanadi.

### **Ijtimoiy makon**

Makon va vaqt munosabatlarining yanada murakkabroq manzarasi ijtimoiy tuzilmalarda kuzatiladi. Ijtimoiy makon bu insonning dunyoga munosabati bilan belgilangan, inson faoliyati va amaliyotining o'ziga xos xususiyatlariga tarixiy bog'liqligidir. U alohida insoniy ma'no kasb etadi va biosfera, sayyora va koinot darajasidan bir vaqtda o'rin oladi, shu bilan birga inson yaratgan infratuzilma, o'zlashtirilgan hududlar, foydalanilayotgan suv va fazo okeanlari, jamuljam holda inson yashaydigan makonga aylangan koinot kengliklari ko'rinishida ulardan ajralib turadi. Bunda ko'lamli strukturalar o'z holicha, xaotik tarzda vujudga kelmaydi, balki jamiyat evolyutsiyasi ob'ektiv jarayonlarining mahsuli hisoblanadi va muayyan xalqlarning turmushi va madaniyatini, ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini, ma'lum vaqt ruhini o'zida aks ettiradi. Bularning barchasi pirovardida «ikkilamchi tabiat»ni tashkil etadigan tegishli arxitektura, o'zgartirilgan landshaft va shu kabilarda o'z aksini topadi.

Moddiy borliq makoni kabi, ijtimoiy makon ham moddiy ob'ektning tuzilishi bilan belgilanadi. Tegishli ravishda ijtimoiy tuzilma va ijtimoiy o'zaro aloqalar ijtimoiy makon xususiyatini belgilaydi. Makondagi aloqalar o'zaro aloqaga kirishayotgan sub'ektlar o'rtasida ma'lum masofa mavjudligi bilan ajralib turishi mumkin. Biz mazkur masofa xususiyatini o'zimiz uchun botiniy tarzda aniqlaymiz

va yo uni saqlab qolishga, yo o'zgartirishga harakat qilamiz. Odamlar o'rtasidagi aloqalar ham makon mezoni bilan o'lchanadi. Ular vizual, yo bevosita, yo bilvosita, yo doimiy, yo nomuntazam bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy makon o'zining serdarajaliligi bilan ajralib turadi. Bu ayni bir inson turli birliklarda har xil maqomga ega bo'lishida namoyon bo'ladi (masalan, o'zi mehnat qiladigan ishxonada u xizmat pillapoyasida eng past o'rinni egallaydi, oilada esa boshliq hisoblanadi). Insonning ijtimoiy makondagi o'rni uning butun umri mobaynida o'zgarib turadi. Bu hol «ijtimoiy mobillik» kategoriyasi bilan tavsiflanadi.

**Xulosalar.** Insoniyat vaqtda yangi tur sari emas, balki o'zining yangi yutuqlari sari harakatlanadi. Bu yutuqlar qancha ulkan bo'lsa, tarix shuncha yangi, tarixiy vaqt shuncha yosh bo'ladi. Ayrim mamlakatga nisbatan ham, ayrim xalqqa nisbatan ham u o'zining har bir tub burilishi, o'z yo'lining har bir yangi bosqichi bilan birga go'yo-ki yosharib boradi: tarixiy rivojlanish jarayonining butunlay o'zgacha imkoniyatlar va istiqbollar ochuvchi yangi bosqichi boshlanadi.

Borliq haqidagi falsafiy qarashlarni umumlashtirib va bu kategoriyalarni bilish insonning umumiy dunyoqarashining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi degan xulosaga kelish mumkin.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Borliq, substantsiya, substrat, materiya, virtual borliq, borliq shakllari, energiya, torsion maydonlar, universal kosmik gologramma, dunyoning chekliligi va cheksizligi,

### **Esse mavzulari**

1. Noklassik borliq shaklining o'ziga xos xususiyatlari
2. M.Xaydeggerning Vaqt va borliq asarining tahlili
3. Forobiyning borliq haqidagi ta'limoti
4. Platonning Dialoglarida borliq masalasi
5. Virtual borliq texnologiyasining genezisi
6. Davrning ruhi va tarix vaqti maummolari

### **Bilim va ko'nikmalarni baholash uchun materiallar**

1. Falsafada o'zining mavjudligi uchun o'zidan boshqa hech narsaga muhtoj bo'lmagan birinchi asosga nima deyiladi?

- A. Substantsiya
- B. Aktsidentsiya
- C. Reallik

- D. Dalil
2. Substantsiyani «causa sui» – «o'z-o'zining sababchisi» deb atagan faylasuf?
- A. Spinoza  
B. Dekart  
C. Kant  
D. Fixte
3. Falsafa tarixidagi mashhur «Ayni bir daryoga ikki marta tushib bo'lmaydi» iborasining muallifi?
- A. Geraklit  
B. Fales  
C. Zenon  
D. Platon
4. Tabiiy jarayonlar va hodisalar holatlarining har qanday o'zgarishi bu - ...
- A. Harakat  
B. Taraqqiyot  
C. Rivojlanish  
D. O'zgarish
5. Dunyoda mavjud barcha jismlar makonda necha o'lchamga ega?
- A. Uch  
B. To'rt  
C. Ikki  
D. Ko'p

#### **Adabiyotlar:**

1. Saifnazarov I., Kasimov B., Muxtarov A. *Filosofiya kurs leksiy.* – Tashkent: Sharq, 2002.
2. *Falsafa asoslari.* Ahmedova M tahriri.-T OFMG, 2006
3. Gaydenko P.P. *Прогн к трансцендентному.* Novaya ontologiya XX veka. –Moskva: 1997.
4. Gubin V.D. *Ontologiya. Problema bytiya v sovremennoy yevropeyskoy filosofii.* –Moskva: 1998.
5. Dubrovskiy D.I. *Problema ideal'nogo: Sub'ektivnaya real'nost'.* – Moskva: 2002.
6. Хайдеггер М. *Бытие і время: per. s nem. 2-e izd., ispr.* –SP(b): 2002.
7. Basov V. *Бытие і развитие.* –Moskva: INTRAF, 2005

8. Noskov A.V. Ontologiya vremeni i ontologiya prostranstva kak osnovaniya razlicheniya fundamentalnykh orientatsiy v filosofii: dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk : 09.00.01. Tomsk: 1996.
9. Yuxvid A.V. Evristicheskie vozmojnosti kompyuternyx virtualnyx texnologiy: Filosofsko-metodologicheskij analiz : dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk : 09.00.01, 09.00.11. Moskva, 2003.
10. Smirnov D.G. Filosofsko-metodologicheskij analiz vzaimodeystviya noosferы i semiosferы : dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk : 09.00.01. Ivanovo, 2005.
11. To'raev B.O. Prostranstvo, vremya, razvitie.-Tashkent: Fan, 1992.
12. To'raev B.O. Problema razrabotki kontseptsii prostranstva i vremeni // Klassicheskaya nauka Sredney azii i sovremennaya mirovaya sivilizatsiya.-Tashkent: Fan, 2000, -S.269-284.
13. To'raev B.O. Tabiatshunoslik falsafasi.-Tashkent: Tafakkur, 2009.
14. Qo'shoqov Sh. Tabiatshunoslik falsafasi.-Samarqand: SamDU, 2006.
15. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.-Toshkent: Noshir, 2013. 720 b.

## **BILISH NAZARIYASI, YO'NALISHLARI VA ASOSIY MUAMMOLARI**

### **Bilish nazariyasining predmeti. Gnoseologiyaning mohiyati va mazmuni**

«Gnoseologiya» - sof falsafiy kategoriya. Uning nomi yunoncha gnosis – bilim, ilm va logos – ta'limot, fan so'zlaridan kelib chiqqan. So'zma-so'z ma'nosi - «bilish haqidagi ta'limot (fan)», «ong haqidagi ta'limot (fan)». Falsafiy adabiyotlarda, shu jumladan falsafiy qomuslar va lug'atlarda «gnoseologiya» atamasi «bilish nazariyasi» deb tarjima qilingan. Shu bilan bir qatorda, ayni shu mazmuni ifodalash uchun adabiyotlarda «epistemologiya» so'zi ham qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash lozimki, gnoseologiyaga tatbiqan bilish nazariyasi va epistemologiya nomlarining qo'llanilishini o'rinli deb bo'lmaydi. Zotan, «episteme» so'zi «pistis» - e'tiqod so'zi bilan uzviy bog'liq. Biroq biz biladigan (gnosio) va biz ishonadigan (pistio), mavjudligiga e'tiroz bildirmaydigan narsalar – falsafiy va ilmiy bilimlarning hozirgi darajasida mazmunan har xil tushunchalardir. Shu bois G'arbiy Yevropa falsafasida epistemologiyaning mazmuni ikki xil, ba'zan esa – uch xil talqin qilinadi. Umuman olganda, gnoseologiya bilish jarayonining falsafiy mohiyati va umumiy muammolariga e'tiborni qaratadi. Epistemologiya esa bizning muayyan narsalar haqidagi bilimlarimiz va (yoki) e'tiqodlarimizning ishonchlilik darajasini o'rganadi.

Demak, epistemologiya gnoseologiyaning tarkibiy qismi yoki uning ilmiy-amaliy ifodasidir. Tom ma'nodagi epistemologiya hozirgi kunda ilmiy, haqiqiy bilimning mazmunini, shuningdek diniy e'tiqodlarning gnoseologik mohiyatini o'rganish bilan shug'ullanadi. Bunda esa bilish (ong)ning mohiyati to'g'risida bahs yurituvchi «gnoseologiya» atamasidan foydalaniladi. Shu bilan biz avval gnoseologiya muammolari doirasini aniqlab olishga harakat qilamiz.

Gnoseologiyaning asosiy mezonlari

- 1) insonning dunyoni bilish imkoniyati;
- 2) insonning o'zlikni anglash jarayoni;
- 3) bilmaslikdan bilim sari yuksalishi,
- 4) bilimlar tabiati va ularning mazkur bilimlarda aks etuvchi narsalar bilan o'zaro nisbatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, gnoseologiya ong, bilish, bilimni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Shaxsiy va ijtimoiy tajribada biz ongning mavjudligini aniq sezamiz. ongning o'z-o'ziga, boshqa odamlarga va umuman jamiyatga ta'siri natijalarini fiziologik darajada his qilamiz va ko'ramiz. Biroq bu jarayonda ongning o'zi ko'rinmaydi. Moddiy dunyo hodisalaridan farqli o'laroq, ongni kuzatish mumkin emas. U go'yo vaqt va makon chegaralaridan tashqarida turadi. Gnoseologiya-ning vazifasi bu ko'rinmas ongni idrok etish, uning moddiy narsa va hodisalar dunyosi bilan o'zaro aloqalarini aniqlash, uni o'z muhokama va tadqiqot predmetiga aylantirishdan iborat.

Gnoseologiya-ning asosiy muammosi bizning barcha bilimlarimiz tajribada sinalganmi? degan «oddiy» masalani yechishdan iborat: Bu savolga javob izlash va masalaning yechimini topishda gnoseologiyada ikki muxolif an'ana: bilimlarimiz tajribada sinalgani-ni qayd etuvchi empirizm va buni inkor etuvchi ratsionalizm to'qnashadi.

Ratsionalizm (ratsionalistlar) insonda tug'ma g'oyalar, adolat, insoniylik g'oyalari va tajribadan olinishi mumkin bo'lmagan boshqa g'oyalar mavjudligidan kelib chiqadi. Zotan, tajriba to'la adolat, yalpi insoniylik mavjud emasligini, bizni qurshagan dunyoda uyg'unlik ustidan xaos hukm surishini ko'rsatadi. Bunda ayrim ashaddiy ratsionalistlar (masalan, Platon, Avgustin va ularning hamfikrlari) ko'rsatib o'tganidek g'oyalar inson aqliga xos tug'ma g'oyalar bo'lib, ularni inson faqat o'z aqlidan olishini qayd etadilar; mo'tadil ratsionalistlar (Leybnits, Vol'f, Baumgarten) esa, g'oyalar aqlga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lsa-da, biroq ular faqat aqlda tafakkur va falsafiy mushohada yuritish jarayonida tug'ilishini ta'kidlaydilar.

Empirizm (F.Bekon, J.Lokk, T.Gobbs, D.Yum, L.Feyerbax), aksincha, inson, insoniyat shaxsiy yoki ijtimoiy tajribaga ega bo'lgunga qadar biron-bir g'oya mavjud bo'lishini inkor etadilar. Ular barcha g'oyalar inson ongi zamirida yo shaxsiy tajriba, yo boshqalar tajribasi, butun insoniyat tajribasini umumlashtirish orqali tug'ilishini qayd etadilar va bu tezisni isbotlashga harakat qiladilar. Ularning fikriga ko'ra, tajriba inson ongida uning sezgilari va o'zini qurshagan dunyoni idrok etishi orqali aks etadi. Falsafada idrok etish pertseptsiya (lotincha «perception» - idrok etish) deb ataladi. Pertseptsiya o'zini qurshagan dunyodagi narsalar va hodisalarni sezgilar orqali idrok



etishga aytiladi, appertseptsiya borliqni aql bilan anglash, bilish, ularni g'oyalarda ifodalashdir.

Gnoseologiya inson bilimining chegaralari to'g'risidagi masalani yechishni ham o'z ichiga oladi. Ko'pgina empiriklar (David Yum, Dyubua Raymond, agnostiklar) va ratsionalistlar (masalan, Kant va uning hamfikrlari) inson nafaqat umumiy narsa va hodisalarni, balki muayyan, konkret narsalarni ham bilishi mumkin emas, degan fikrga qo'shiladilar. Ayrim narsalar, hodisalar va konsepsiyalar borki, ular pertseptsiyamizning chegaralariga ham, tafakkurimiz doirasiga ham sig'maydi. Masalan, Kant Koinot ibtidosi yoki ibtidosizligi, Xudoning borligi yoki yo'qligi, jonning boqiyliigi yoki foniyligi, axloqning sababiyliigi yoki sababsizligi aqlning bilish chegaralariga sig'maydigan, oqilona o'rganib bo'lmaydigan transtsendental (lotincha «transcendentalism» - chegaraga sig'maydigan) masalalardir, deb hisoblagan. XX asr pozitivistlari, empirizm g'oyalari himoya qilgan yirik olimlar: Moris Shlik, Rudolf Karnap kabilar Kantning transtsendental muammolarini mantiqsiz deb e'lon qildilar.

Gnoseologiya inson bilimi va bilishga doir juda ko'p muammolar bilan shug'ullanadi. U bizning bilimlarimiz qay darajada e'tiqod, qay darajada ko'r-ko'rona ishonch va qay darajada real borliqning haqiqiy in'ikosi ekanligini aniqlashga harakat qiladi. So'nggi o'n yilliklarda gnoseologiyada bilimlar o'rtasidagi farq, «nimani bilaman», «qanday bilaman», «shaxsiy tajribamdan bilaman», «dalilga ko'ra bilaman» kabi iboralar mazmunining o'zaro nisbati masalalari muhokama qilinmoqda. Bir so'z bilan aytganda, gnoseologiya borliqni to'liq qamrab olib, unda biron-bir tafsilotni nazardan qochirmaslikka harakat qiladi. Demak, gnoseologiya falsafaning eng muhim omilidir.

### **Optimizm. Skeptitsizm. Agnostitsizm**

Bilish jarayoni rivojlanish qonuniyatlarining shakllari, haqiqatning tagiga yetish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Uning har xil modellari, yondashuvlari mavjud. Optimistlar dunyoni bilish mumkinligini ta'kidlaydilar, agnostiklar, aksincha, buni rad etadilar (Kant - «marsa o'zida»). Skeptiklar dunyoni bilish mumkinligini inkor etmaydilar (XVIII asrda D.Yum), biroq bilimning haqiqiyliigiga shubha bildiradilar. Odatda, skeptitsizm paradigmalar, qadriyatlar, ijtimoiy tizimlar va hokazolar o'zgarayotgan davrda (yoki uning arafasida), ilgari haqiqiy deb hisoblangan xulosalar fan va

amaliyot olgan yangi ma'lumotlar nuqtayi nazaridan soxta, asossiz bo'lib chiqqan holda ravnaq topadi. Skeptitsizmga xos xususiyat shundan iboratki, u darhol nafaqat eskirgan, balki yangi, shakllanayotgan fikrlar, g'oyalarni ham toptay boshlaydi. Buning zamirida tadqiqotchining yangilikka tashnaligi va inson tafakkurining kuchiga bo'lgan ishonch emas, balki qachondir qabul qilingan «qulay» tamoyillarga tayanish yotadi. Skeptitsizm ta'limot sifatida, hech shubhasiz, zararlidir, chunki u insonning bilish borasidagi deyarli barcha imkoniyatlarini kamsitadi.

Bilimga chanqoq bo'lgan, bilishga harakat qilayotgan odam optimist: «Men buning nimaligini bilmayman, biroq bilishga umid qilaman», deydi. Agnostik esa «Men buning nimaligini bilmayman va hech qachon bila olmayman», deb ta'kidlaydi. Skeptitsizm, ko'r-ko'rona fanatizm kabi dunyoqarashi tor odamlarda ko'p uchraydi. F.Laroshfuko ta'biri bilan aytganda, kaltabin odamlar odatda o'z dunyoqarashi doirasidan chetga chiqadigan hamma narsani qoralaydi. Biroq oqilona darajadagi skeptitsizm foydali va hatto zarur. Bilish usuli sifatida skeptitsizm shubha shaklida amal qiladi, bu esa haqiqatning tagiga yetish sari tashlangan qadamdir. Shubha eskirgan, qotib qolgan aqidalardan voz kechadi, ularga putur yetkazadi. U – rivojlanayotgan fanning muhim unsuri. Bilimsizlik qayd etadi va inkor qiladi, bilim – shubhalanadi.

Biroq bu uch yo'nalishni farqlash, bizningcha, masalani soddalashtirishdan boshqa narsa emas. To'g'ri, agnostiklar dunyoni bilish mumkinligini inkor etadilar, ammo bu ko'r-ko'rona, hech narsaga asoslanmagan inkor etish emas. Ular ko'rsatayotgan ko'pgina savollarga chindan ham hali javob topilmagan. Agnostitsizmga olib keluvchi asosiy muammo shundan iboratki, narsa yoki hodisani bilish jarayonida bu narsa yoki hodisa albatta bizning tafakkur va sezgi a'zolarimizda aks etadi. Bu narsa yoki hodisa bizning tafakkur va sezgi a'zolarimizda aks etish natijasida qanday ko'rinish kasb etgan bo'lsa, biz ular haqida shunday ma'lumotga ega bo'lamiz. Narsalar va hodisalar aslida qanday ekanligini biz bilmaymiz va bilishimiz mumkin ham emas. Qarshimizda bosh-adog'i yo'q dunyo yastanib yotadi, biz esa unga o'z formulalarimiz, modellarimiz va tushunchalarimiz bilan yaqinlashib, cheksizlikni o'z tasavvurlarimiz bilan ilg'ab olishga harakat qilamiz. Tushunchalar, kategoriyalar va nazariyalar «tugunlari»ni qay darajada qattiq qilib tugmaylik, dunyoni tushunib

yetishga shu yo'sinda da'vogar bo'lishimiz to'g'rimi? Bundan chiqdi, biz o'z bilish usullarimiz bilan chegaralangan dunyoda yashaymiz va olam haqida haqqoniy bir gap aytishga qodir emasmiz. Biroq bilish fanining rivojlanishi agnostitsizmning bu amaliy xulosasini har qadamda rad etadi. Masalan, pozitivizm asoschisi O.Kont insoniyat Quyoshning kimyoviy tarkibini aniqlashga qodir emas, deb ta'kidlagan edi. Biroq keyinchalik spektral analiz yordamida Quyosh tarkibi aniqlandi. XIX asr fanining ba'zi bir namoyandalari atomlar amalda mavjud emas, ular faqat tafakkur mahsuli, deb hisoblar edi. Biroq E.Rezerford atomlar amalda mavjud ekanligini isbotlab berdi, oradan yarim asr o'tgach, genlarning keng kimyoviy tarkibi aniqlandi.

Shunga qaramay, bugungi kunda ham agnostik xulosalarni neopozitivizm, fenomenologiya, ekzistentsializm, pragmatizm va hokazolarda kuzatish mumkin. Ularning agnostitsizmi nafaqat gnoseologik xususiyatga ega bo'lgan sabablar, ichki mantiq bilan, balki ma'lum darajada D.Yum va O.Kont falsafasi boshlab bergan an'ana bilan ham belgilanadi. Agnostitsizm haqida so'z borar ekan biz beixtiyor Kantga murojaat qilamiz.

Kant agnostitsizmining qisqacha mazmuni quyidagicha: biz biladigan narsa (fenomen) va o'z holicha mavjud bo'lgan narsa (noumen) mutlaqo har xildir. Biz hodisalar mohiyatini qay darajada teran anglamaylik, bizning bilimimiz baribir o'zicha mavjud bo'lgan narsalardan farq qiladi. Shunday qilib, Kant fikricha, bizning ongimiz, hissiyotimiz, tafakkurimizga bog'liq bo'lmagan narsalar olami mavjud. Uni faylasuf «narsa o'zida» sifatida ta'riflaydi. Kantning fikricha, bilish jarayoni «narsa o'zida»ning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'siri ostida his-tuyg'uning uyg'onishidan boshlanadi. Vaholanki, his-tuyg'ular, tushuncha va hukmlar o'z holicha «narsa o'zida» haqida muayyan nazariy bilim berishga qodir emas. Lekin bundan ishonchli bilim yo'q ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Matematika va tabiatshunoslik aynan shunday ishonchli bilim manbaidir. Ammo ular qay darajada ishonchli bo'lmasin, «narsa o'zida» haqidagi haqiqiy bilim bo'la olmaydi. Kant bizning tafakkurimizda shakllangan tushunchalar «narsa o'zida»ni qay darajada to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettira oladi, degan savolga aniq javob mavjud emas, deb ta'kidlaydi.

Gnoseologik relyativizm – borliq hodisalari va voqealarini bilish o'zgaruvchanligi, o'tkinchiligini mutlaqlashtiruvchi agnostitsizmning yo'nalishlaridan biridir. Relyativizm tarafdorlari dunyoda

hamma narsa o'tkinchi, haqiqiy dunyoviy darajada ham, hattoki iimiy darajada ham bizning olam hodisalari haqida olgan faqat shu paytdagi bilimlarimizni ifodalaydi. kecha haqiqat deb hisoblangan narsa bugun ishtiboh, xato sifatida tan olinadi: xuddi dori kabi, haqiqatning ham saqlanish muddati bor. Nisbiy mushohadalar bundan ham omonatroq. Bu ijtimoiy hayotda, axloq normalari va estetik didlarda ayniqsa yaqqol seziladi. Yaqindagina shak-shubhasiz deb e'tirof etilgan narsa endi do'zaxdan chiqqan balo sifatida inkor etiladi. Baholar kaleydoskopdagi rangli dog'lar kabi o'zgaradi. Bundan go'yo bilish jarayoni – muvaffaqiyatsizlikka uchrashi tayin bo'lgan haqiqat ketidan «quvish», degan umumiy xulosa chiqariladi. Bizning barcha bilimlarimiz go'yo noaniqlik va nohaqiqiylik dengizida suzadi, u faqat – va faqat – nisbiy, shartli konventsial (lotincha «conventional» - shartnomaga muvofiq) va sub'ektivdir.

Skeptiklarga xos bo'lgan bu yondashuv antik davrdayoq yuzaga kelgan. Dunyoda hamma narsa shu qadar tez o'zgaradiki, unda mutlaqo o'zgarmas bo'lgan hech narsa mavjud emas, deb hisoblagan Kratil ta'limoti ashaddiy relyativizmga misol bo'lishi mumkin. Barcha bilimlarimizni faqat nisbiy deb hisoblash, mohiyat e'tibori bilan, bilishda o'zboshimchalik hukm surishini tan olish bilan barobardir. Bu holda bilish nisbatan o'zgarmas, ishonchli narsalar mavjud bo'lmagan, haqiqat bilan ishtiboh o'rtasida farq qolmaydigan, har qanday qoida va tamoyilga ishonch yo'qoladigan, binobarin, hayotda hech narsaga amal qilib bo'lmaydigan uzluksiz oqimga aylanadi.

Bilish nazariyasida mutlaq relyativizm – bu tafakkur «boyligi»ning namoyon bo'lish shakllaridan biri. Unga quyidagi mushohada xos: haqiqat albatta mutlaq bo'lishi kerak, agar haqiqat mutlaq bo'lmasa, u haqiqat emas. Bu fikr zamirida nafaqat nisbiy, balki mutlaq haqiqatga ham ishonchsizlik yotadi. Relyativizm namoyandalari odatda haqiqiy deb hisoblangan qoidalar keyinchalik soxta deb inkor etilgan va aksincha, soxta deb hisoblangan qoidalar fan rivojlanishi jarayonida haqiqiy deb e'tirof etilgan hollar fan tarixida ko'p ekanligiga ishora qiladilar. Ilmiy bilishning harakat yo'li – amalda to'g'ri chiziq emas, balki kesimlarida yanglishish hollari yuz berishi mumkin bo'lgan egri chiziqdan iborat. Biroq bu bizning barcha bilimlarimiz safsata ekanligini isbotlamaydi. Relyativist «bilimda nisbiylik unsuri mavjud» degan to'g'ri qoidani «bilim doimo nisbiydir», binobarin, bilim kerak emas, degan yanglish qoidaga

almashtiradi. «Bu eng yomon fikr: agar men hamma narsani bila olmasam, men hech ish qilmayman».

### **Bilimning asosiy turlari**

Bilim nima?, birinchidan, bu tushuncha eng umumiy tushunchalardan biri hisoblanadi. umumiy tushunchalarga esa doim aniq ta'rif berish qiyin. Ikkinchidan, bilimning juda ko'p turlari mavjud va ularning hammasini yonma-yon qo'yib bo'lmaydi. Siuni e'tiborga olib, bilim nima ekanligini aniqlashga harakat qilib ko'ramiz. Odatda, biz nimanidir bilishimiz haqida gapirganimizda, o'zimiz bu «nimadir» haqida ancha to'g'ri tasavvurga egamiz, deb hisoblaymiz. Shuningdek, bizning tasavvurimiz xom xayol yoki faqat o'z shaxsiy fikrimiz emasligiga ham ishonchimiz komil bo'ladi. Nihoyat, biz bu ishonchni mustahkamlovchi qandaydir dalillar keltirishimiz mumkin. O'z shaxsiy hayotimizda biz amaldagi holatga mos keladigan va ma'lum asoslarga ega bo'lgan ishonch, e'tiqodni bilim deb hisoblaymiz. Teran ma'no bilan sug'orilgan bu bilim talqinining umumiy ruhi gnoseologiyada ham saqlanib qolgan. Ayni zamonda, gnoseologiya bu talqin zamirida mujassam ba'zi bir holatlarni aniqlaydi va ularga oydinlik kiritadi. «S sub'ekt qandaydir P predmetni biladi» degan standart gnoseologik talqin quyidagi uch shartni o'z ichiga oladi:

**Haqiqiylik, muvofiqlik sharti** – «agar P haqiqiy bo'lsa, u holda S P ni biladi». Biz Chimyon Toshkentdan shimolroqda joylashganligini bilamiz, basharti Chimyon chindan ham Toshkentdan shimolroqda joylashgan bo'lsa. Agar biz Amudaryo Tinch okeaniga quyiladi, deb aytsak, bizning bu fikrimiz bilim emas, balki yanglish fikr, xato bo'ladi.

**Ishonchlilik, e'tiqod, maqbullik sharti** – «agar S P ni bilsa, u holda S P ga ishonadi (uning mavjudligiga e'tiqod komil bo'ladi). Masalan, agar biz Ozarbayjonda dengiz bor desak, biz uning amalda mavjudligiga ishonamiz. Odatda, bilim shunday ishonch yoki shunday e'tiqod hisoblanadi va ularni ajratish mumkin emas. Shunday bir vaziyatni tasavvur qiling: siz oyna oldiga kelib, tashqarida yomg'ir yog'ayotganini ko'rasiz. Siz: «Yomg'ir yog'yapti, lekin men bunga ishonmayman», deysiz. Bu iboraning noto'g'riligi bilimimiz bizning e'tiqodimiz ekanligini ko'rsatadi.

**Asoslilik sharti** «S P ni biladi, basharti u o'zining P ga bo'lgan ishonchini asoslab bera olsa». Bu shart bilimni to'g'ri chiqadigan taxminlar yoki tasodifan mos kelish hollaridan farqlash imkonini

beradi. Aytaylik, siz besh yashar bolakaydan: «Quyosh tizimida nechta sayyora bor?», deb soʻradingiz va «Toʻqqizta», degan javobni eshitdingiz. Siz bola sayyoralar sonini tasodifan toʻgʻri aytdi deb hisoblaysiz. Agar u oʻz javobini hech boʻlmasa buni onasidan eshitganini aytib, asoslab bera olmasa, siz bolakayda bu dalil haqida haqiqiy bilim mavjud emas, degan toʻxtanga kelasiz.

Bu «uch qismli» talqinga muvofiq, quyidagi muxtasar taʼrifni berish mumkin: bilim – bu haqiqatga mos keladigan va asoslangan ishonchdir. Bu taʼrif ancha sodda boʻlib, uni bilimning barcha turlariga nisbatan tatbiq etish mumkin. Bu soʻzlar zamirida muayyan muammo yotadi. Masalan, biz Nyuton mexanikasi haqiqatga yetarli darajada muvofiq emas va uning oʻrnini Eynshteynning aniqroq nazariyasi egalladi, deb hisoblaymiz. Biroq buning natijasida Nyuton nazariyasi oʻzining bilim xususiyatini yoʻqotgani yoʻq. Eynshteynga qadar, uning haqiqiylikiga koʻpchilikning ishonchi komil boʻlgan davrda u bilim edimi? Shunga oʻxshash soʻzlarni hozirda fan tarixidan oʻrin olgan minglab nazariyalarga nisbatan aytish mumkin. Bilimni qanday qilib asoslash mumkin va yetarli asoslar mavjudmi? Bu savol ham ancha mavhum. Gipoteza, faraz odatda bilim shakli sifatida qaraladi, biroq olimlar oʻzlari ilgari surayotgan gipoteza yoki farazlarning toʻgʻriligiga baʼzan ishonchi komil boʻlmaydi. Balki bilimni standart tushunish haddan tashqari taxminiy va nisbiydir? Qisman shunday, biroq bilim-bir taʼrif chegaralariga sigʻdirish juda qiyin boʻlgan rang-barang hodisa ekanligi muhimroq. Agar «bilmoq» soʻzi tilimizda qanday qoʻllanilishiga nazar tashlasak, bilim turlari juda rang-barang ekanligini koʻrishimiz mumkin. Quyidagi gaplarni koʻrib chiqamiz. Men bu mashinani qanday qilib tuzatish mumkinligini bilaman. Men gitara chalishni bilaman. Men Poʻlatni oʻn yildan beri bilaman. Men Toshkentni yaxshi bilaman. Men uchburchak burchaklarining yigʻindisi ikki toʻgʻri burchakka teng ekanligini bilaman. Men kit sut emizuvchilar oilasiga mansub ekanligini bilaman.

Bu bir qarashda oʻxshash gaplarda «bilaman» soʻzi har xil maʼnolarda keladi. Dastlabki ikki gapda bilish nimanidir bajara olishni anglatadi. Gnoseologiyada u «bilim-koʻnikma» deb ataladi. Keyingi ikki misolda bilish – bu «bilim-tanishuvlik» demakdir. U inson yoki qandaydir obʼektни tanish qobiliyatini anglatadi. Soʻnggi gaplarda bilim «nimanidir bilish»ni ifodalaydi, chunonchi: u narsalarda qandaydir xossalar, nisbatlar, qonuniyatlar va shu kabilarning

mavjudligini tavsiflaydi. Bilim bu yerda ma'lum axborot ko'rinishida keladi. Ko'rib turganimizdek, «bilim-ko'nikma» va «bilim-tanishuv» bilimning standart talqiniga uncha mos kelmaydi. Umuman olganda, ularga nisbatan haqiqiylik va asoslanganlik tushunchalarini tatbiq etish mumkin emas. Po'latni yaxshi yoki orqavarotdan bilish mumkin, biroq biz uni «to'g'ri» yoki «ishonchli» bilishimiz mumkinmi? Biroq bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida zikr etilgan bilim turlari o'rtasidagi chegaralar aniq emas. Masalan, sizning Toshkent haqidagi bilimingiz siz shaharning kattaligi, aholisining soni, u O'zbekiston poytaxti ekanligi va hokazolar haqida ma'lum axborotga ega ekanligingizni nazarda tutadi. Biroq bu bilim – avvalo shahar bilan tanishlik, unda yaxshi mo'ljal ola bilish demak.

Gnoseologiyada asosiy e'tibor muayyan narsalar haqidagi bilimni tahlil qilishga qaratiladi. Zero, faqat shunday bilimni asosli va asossiz, ishonchli va ishonchsiz, haqiqiy yoki soxta bilim sifatida aniq baholash mumkin. Bilimni asoslash usullari, uning ishonchliligi, haqiqiylikni aniqlash mezonlarini izlash qadimdan bilimni falsafiy tahlil qilishning asosiy omili bo'lib keladi. Biroq hatto bilimning shu turini falsafiy tushinishda ham muammolar bisyor. O'ttiz yilcha muqaddam epistemologlar shunday misollarni o'ylab topdilar ki, ularda ishonch, e'tiqod bilimning yuqorida zikr etilgan uch xususiyatiga ega, biroq, shunga qaramay, ular bilim hisoblanmaydi. O'qituvchi falsafadan yozilgan referatlarni tekshirayotib, talabalardan biri – Valiyev o'z ishini kompyuterda terganini ko'rdi. O'qituvchi darsda bu guruhda o'qiydigan talabalarning qaysi birida uyida kompyuter borligini so'rashga qaror qiladi. Valiyev o'zida chindan ham yaxshi kompyuter borligini va bu kompyuterda u ishlashni o'rganganligini aytdi. Qolgan talabalarining birortasi ham o'zida bunday buyum borligini aytmadi. Shunga asoslanib o'qituvchi guruhda bir talabada kompyuter bor ekan, degan xulosaga keldi. O'qituvchining bunga ishonchi komil va u o'zining bu e'tiqodiga yetarli darajada asoslangan va ishonchli bilim sifatida yondashadi. Biroq endi faraz qilaylikki, Valiyevda kompyuter aslida yo'q va u yolg'on gapirib, yoqtiradigan bir talaba qizning e'tiborini o'ziga qaratmoqchi bo'lgan. Ammo boshqa talaba – Aliyevning uyida kompyuter bor, biroq u muayyan sabablarga ko'ra buni oshkor etmaslikni lozim topgan. Natijada o'qituvchi o'zi dars beradigan guruhda kamida bir talabada kompyuter bor deb hisoblar ekan, u asoslangan va o'z nuqtayi nazaridan

haqiqatga mos keladigan ishonch, e'tiqodga ega bo'ladi. Biroq bu e'tiqodni bilim deb hisoblash mumkin emas, chunki uning haqiqiyliги zamirida faqat tasodifiy haqiqatga muvofiqlik yotadi.

Albatta, bunday misollarni bor-yo'g'i tafakkur o'yini deb hisoblash mumkin. Biroq haqqoniy tasavvurlar soxta fikrlardan kelib chiqqan yoki ularga asoslangan hollar hatto fanda ham uchraydi. Ammo bunday qarshi misollarga yo'l qo'ymaslik uchun bilimga yanada qattiqroq talablar qo'yish, masalan, bilim roliga da'vogar e'tiqodlar faqat ishonchli va xatosiz deb qarash mumkin bo'lgan fikrlar va ma'lumotlarga tayanishini talab qilish mumkin. Bilim zamirida aniq, ishonchli va xatosiz asoslar yotishi lozim, degan tasavvur bilish nazariyasidagi eng nufuzli yondashuv hisoblanadi. Unga antik faylasuflarning asarlaridayoq duch kelish mumkin, eng aniq ko'rinishda va dasturilamal sifatida u Yangi davrda mashhur faylasuflar F.Bekon, R.Dekart va J.Lokk tomonidan ta'riflab berilgan. Bu yondashuvni klassik fundamentalizm deb nomlash, uning barcha muqobillarini esa, hozircha undan ma'lum darajada chetga chiqish sifatida tavsiflash mumkin.

### **Bilim shakllari**

Inson o'zini qurshagan olamni anglab yetadi, uni har xil usullar yordamida o'zlashtiradi. Bular moddiy-texnikaviy usul – tirikchilik vositalarini ishlab chiqarish, mehnat, amaliyot va ma'naviy (ideal) usul bo'lib, uning doirasida sub'ekt va ob'ektning bilishga doir munosabatlari ular o'rtasidagi ko'p sonli munosabatlarning biridir. O'z navbatida, bilish jarayoni va unda olinadigan bilimlar amaliyot va bilishning tarixiy rivojlanishi mobaynida tabaqalanadi va o'zining har xil shakllarida mujassamlashadi. Bilishning bu shakllari, garchi o'zaro bog'liq bo'lsa-da, lekin bir-biriga o'xshamaydi va har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Bilish ma'naviy faoliyat shakli sifatida jamiyat paydo bo'lgan davrdan va jamiyat bilan birga muayyan rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda. Bu bosqichlarning har birida bilish jarayoni insoniyat tarixi mobaynida yuzaga kelgan rang-barang va o'zaro bog'langan ijtimoiy-madaniy shakllarda amalga oshiriladi. Shu bois yaxlit hodisa sifatidagi bilishni biron-bir shaklga, hatto bilishni to'liq «qoplamaydigan» ilmiy shaklga ham bog'lash mumkin emas. Shu sababli gnoseologiya umumlashtirish uchun faqat bir soha – ilmiy bilimdan



va hatto yuksak darajada rivojlangan tabiatshunoslikdan material olib, o'z xulosalarini chiqara olmaydi.

Noilmiy va ilmiy bilim shakllari farqlanadi. Noilmiy bilim ilmiy asoslanmagan va isbotlanmagan, lekin ijtimoiy hayotning barcha sohalarida namoyon bo'ladigan bilimlar majmuidir. U ilmiy bilim shakllanishiga asos bo'ladi. Ilmiy bilim esa falsafiy va ilmiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: Ilmiy bilim nazariy asoslangan va isbotlangan muayyan maqsadda foydalaniladigan bilimlar majmuidir. Qo'yida noilmiy bilim shakllarining tahliliga e'tibor qaratamiz:

Kundalik amaliy bilim. Tabiat haqida, shuningdek odamlarning o'zlari, ularning yashash sharoiti, ijtimoiy aloqalari va hokazolar to'g'risida elementlar bilimlar beruvchi kundalik-amaliy bilimlar bilimning tarixan eng birinchi shakli hisoblanadi. Bilimning bu shakli kundalik hayot, odamlar amaliy tajribasidan kelib chiqqan. Shu asosda olingan bilimlar garchi mustahkam bo'lsa-da, biroq tartibsiz, tarqoq xususiyatga ega bo'ladi, ma'lumotlar, qoidalar va shu kabilarning oddiy majmuini tashkil etadi. Kundalik bilish sohasi juda rang-barang. U sog'lom fikr, e'tiqodlar, belgi-alomatlar, shaxsiy tajribadan chiqarilgan dastlabki xulosalar, ularning an'analar, rivoyatlar, o'gitlar va hokazolarda ifodalangan ko'rinishlari, intuitiv ishonch, sezgilar va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Kundalik bilim – bu har xil faoliyat shakllari – jumladan ishlab chiqarish faoliyati, estetik faoliyat, siyosiy faoliyat va hokazolarning ta'sirida shakllanadigan turmush bilan bog'liq tushunchalar majmui avlodlar to'plagan jantoa kollektiv tajribasi mahsuli hisoblanadi.

Shaxsiy darajada kundalik bilim muayyan shaxsning emotsional kechinmalari va o'z hayot tajribasini anglab yetishi bilan bog'liq. Inson dunyoni nafaqat ilmiy o'rganish, balki o'z hayoti, kundalik amaliyotida o'zlashtirish jarayonida ham tushunib yetadi.

O'yin vositasidagi bilim nafaqat bolalar, balki kattalar faoliyatining ham muhim unsuri hisoblanadi. O'yin jarayonida shaxs qizg'in bilish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarning katta hajmini o'zlashtiradi, madaniy boylik - ishga doir o'yinlar, sport o'yinlari, aktyorlarning o'yinlari va shu kabilarni qon-qoniga singdiradi. O'yin bolalarning qiziquvchanligini qondirish, ularning ma'naviy dunyosi va ma'lum bilimlari, o'zaro til topish ko'nikmalari va shu kabilarni shakllantirishda muhim ijtimoiy rol o'ynaydi.

Hozirgi zamonda o'yin tushunchasidan matematika, iqtisodiyot, kibernetika va boshqa fanlarda keng foydalanilmoqda. Bu yerda murakkab jarayonlar kechishining har xil variantlari, ilmiy va amaliy muammolarning yechimlari ko'rib chiqiladigan maxsus o'yin modellari va o'yin stsenariylari tobora ko'proq qabul qilinmoqda.

Mifologik bilimning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u borliqning fantastik in'ikosi hisoblanadi. Mifologiya doirasida tabiat, koinot va odamlar, ular mavjudligining shart-sharoitlari, aloqa shakllari va hokazolar haqidagi muayyan bilimlar shakllangan. So'nggi vaqtda (ayniqsa strukturalizm falsafasida) mifologik tafakkur – bu shunchaki fantaziyaning tiyiqsiz o'yini emas, balki ajdodlar tajribasini qayd etish va keyingi avlodlarga berish uchun imkoniyat yaratadigan dunyoni o'ziga xos tarzda modellashtirish ekanligi aniqlandi. Unda tabiiy va ijtimoiy hodisalarni, shuningdek butun dunyoni tushuntirish ularning kelib chiqishi va yaralishi haqidagi hikoyalarga bog'langan (germetizm). Ayrim tadqiqotchilarning fikri-cha, bizning davrimizda mifologik bilishning ahamiyati pasayayot-gani yo'q. Masalan, P.Feyerabend dunyo yutuqlari madaniyatga asos solgani, ratsionalistlar esa faqat uni doim yaxshi tomonga o'zgartirishganiga ishonchi komil.

Shaklan mif muayyan voqeani tabiatda yoki muayyan xalqlar tarixida bo'lib o'tgandek ifodalovchi rivoyatdir. Kosmogonik miflarda Logos yoki Aql harakatga keltiradigan va boshqaradigan, ierarxik tuzilishga ega bo'lgan yagona va yaxlit kosmos haqidagi tasavvur shakllangan. Shu sababli kosmos oliy barkamollikka ega deb tasavvur qilingan. Bu tasavvurlar kosmosning o'zgarishlarida tabiat hodisalarining uzluksiz aylanishini hosil qiluvchi yer, havo va olov stixiyalari podsholigi sifatidagi talqinida muayyanlashgan. Miflarda qat'iy rioya qilish lozim bo'lgan amaliy tavsiyalar ham ifodalangan. Garchi mifologiyaning amaliy tavsiyalari isbotlanmagan va qoida sifatida belgilangan bo'lsa-da, ular odamlarning juda ko'p avlodlari tajribasini umumlashtirish mahsuli hisoblanadi.

Diniy bilishning o'ziga xos xususiyatlari shu bilan belgilanadiki, u odamlarning o'zini boshqaruvchi dunyoviy (tabiiy va ijtimoiy) kuchlarga munosabatining bevosita emotsional shakli bilan bog'liq. Bu kuchlarning xayoliy in'ikosi bo'lgan diniy tasavvurlar borliq haqidagi muayyan bilimlarni ifoda etadi. Odamlar asrlar va ming yilliklar mobaynida to'plagan diniy va boshqa bilimlar xazinasini sifati-

da, masalan, Injil va Qur'onni qayd etish mumkin. Biroq din (mifologiya kabi) bilimni izchil va nazariy shaklda ifodalagan. U umumiy, yaxlit va isbotlangan ob'ekt sifatida bilim ishlab chiqarish vazifasini bajarmagan va bajarmaydi.

Dinning asosiy vazifasi – inson hayoti, tabiat va jamiyat borlig'ining mazmunini aniqlashdan iborat. Din universumning pirovard mazmunlari haqidagi o'z tasavvurini asoslab, dunyo va insoniyatning birligini tushunishga ko'maklashadi. U inson hayotini o'zgartirishga qodir bo'lgan haqiqatlar tizimidan iborat. Diniy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular jamoa tajribasini ifodalaydi va shu bois nafaqat har bir dindor odam, balki dinga sig'inmaydiganlar uchun ham qadrlidir. Diniy ta'limotlarning vazifasi Xudo bormi, uni qanday qilib bilish mumkin, umuman, Xudoni bilish mumkinmi, degan savollarga javob berishdan iborat. Din o'z dunyoqarashini Muqaddas Kitob matnlarida, shuningdek diniy rasm-rusum va urf-odatlarda ifodalaydi. Diniy rasm-rusumlarining bir unsuri ramziy ahamiyatga egadir. Diniy ramzlar g'oya va obraz muvozanatini o'zida mujassamlashtiradi. Ongning o'ziga xos shakli sifatida din e'tiqod, ishonch va bilish mexanizmlari (hayot tajribasi)ga tayanadi. Diniy e'tiqod refleksiya bilan qo'llab-quvvatlanadi, shaxsning fojeaviy tajribasi (o'lim xavfi yoki yaqinlarini yo'qotishi)ni anglab yetish orqali yuzaga keladi yoki mustahkamlanadi, bu tajriba shaxsni o'z hayoti va tafakkur tarzini tubdan o'zgartirishga da'vat etadi. Dindorlar fikricha, diniy e'tiqod diniy vahiy kelishi natijasida tug'ilishi mumkin.

Meditatsiya – o'z tafakkurini bir ob'ektga qaratish, inson e'tiborini chalg'ituvchi barcha begona omillarni chetga chiqarish yo'li bilan fikr yuritish, narsa, g'oya, dunyoni idrok etishdir. Dinda meditatesiya shaxsiy ongning Absolyut bilan birikuvini anglatadi. Xristianlikda meditatsiya inson shaxsi va ilohiy shaxsning muayyan oqibati sifatida talqin qilinadi. Meditatsiya, odatda, tabiiy jarayonga aylanadigan harakatlarning muayyan ketma-ketligi bilan bog'liq. U ayrim psixotexnik usullardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunda dindor mazkur usullar yordamida o'zini boshqarish, o'zlikni yoki tabiatni anglashga ko'maklashuvchi g'ayritabiiy ruhiy kuchlardan foydalanayotganiga ishonchi komil bo'ladi. Meditatsiyaning bilish usuli sifatidagi samaradorligini fan tan oladi; davolash uchun mo'l-

jallangan psixotexnika va autogen mashq tizimlari diniy-mistik g'oyalar bilan bog'liq emas.

Shaxsiy bilim. M.Polani tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy bilim konsepsiyasida bilim – anglash mumkin bo'lgan narsalarni faol o'zlashtirish, alohida mahorat va alohida vositalarni talab qiluvchi harakat, degan tamoyildan kelib chiqqan. Modomiki, fanni odamlar yaratar ekan, bilish faoliyati jarayonida olinadigan bilimlarni (xuddi shu jarayonning o'zi kabi) odamlardan ajratish mumkin emas. Demak, odamlarni (aniqrog'i, o'z qiziqishlari, maqsadlari va mo'ljallariga ega bo'lgan olimlarni) ular yaratayotgan bilimlardan ajratib yoki boshqa odamlar bilan almashtirib bo'lmaydi. Polani fikriga ko'ra, shaxsiy bilim muqarrar tarzda intellektual salohiyatni talab qiladi. Unda nafaqat bilish borlig'i, balki bilishga harakat qilayotgan shaxs, uning bilimga qiziqishi, bilimni talqin qilish va undan foydalanishga nisbatan shaxsiy yondashuvi, uni o'ziga xos tarzda anglab yetishi mujassamlashadi. Shaxsiy bilim nafaqat qandaydir fikr-mulohazalar majmui, balki shaxsning kechinmalari hamdir. Shaxs bilimni shunchaki qayd etmaydi, balki u bilan birga yashaydi.

Ijtimoiy bilim asosan o'zi o'rganayotgan borliqning sifat tomonini tavsiflashga qarab mo'ljal oladi. Bu yerda hodisalar va jarayonlar miqdor va umumiylik nuqtayi nazaridan emas, balki sifat va xususiylik nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Shu sababli miqdor metod-larining ulushi bu yerda tabiiy-matematik siklga mansub fanlarga qaraganda kamroq. Biroq bilimning matematikalashuvi, kompyuter-lashuvi jarayonlari bu yerda ham tobora kengroq tus olib bormoqda. «Inson borlig'i», ijtimoiy bilim predmeti sifatida, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi tufayli, unda matematik apparatdan foydalanish ancha mushkul. Bu sohaga matematik metodlarni tatbiq etishga ijtimoiy ob'ektlarning o'ta individualligi (va hatto betakrorligi), sub'ektiv (shu jumladan sof irratsional) jihatlar doimo mavjudligi, nazorat qilib bo'lmaydigan, tasodifiy munosabatlarning ko'pligi, ma'nolarning mujmalligi, nomukammalligi va hokazolar xalaqit beradi.

Biroq bu ijtimoiy fanlarni matematikalashtirish mutlaqo mumkin emasligidan dalolat bermaydi. Bu borada toq to'plamlar nazariyasiga katta umid bog'lanmoqda. Toq to'plamlar deganda chegaralari aniq bo'lmagan to'plamlar tushuniladi, bunda elementlarning mazkur to'plamga mansubligidan unga mansub emasligiga o'tish

keskin emas, balki asta-sekin yuz beradi. Ijtimoiy fanlarda miqdor metodlaridan foydalanish tobora keng va samarali tus olib bormoqda. Ularning ayrimlari (iqtisodiyot, sotsiologiya)dan miqdor metodlari mustahkam o'rin olgan, ayrimlari (tarix, san'atshunoslik va boshqalar)ga esa ular ehtiyotkorlik bilan kirib bormoqda. Masalan, tarix fani doirasida matematik metodlar tarixni o'rganishning asosiy vositasi bo'lgan alohida fan – kiometriya (so'zma-so'z ma'nosi – tarixni o'lchash) yuzaga keldi va shakllanmoqda. Biroq ijtimoiy fanlarda matematik metodlar qay darajada keng qo'llanilmasin, ular bu fanlar uchun asosiy emas, balki yordamchi metodlar bo'lib qolayotir.

Ijtimoiy bilimda empirik va nazariy unsurlarning o'ziga xos uyg'unligi kuzatiladi. Ijtimoiy bilimda empirik metodlarning imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, ular bu yerda tobora kengroq va o'ziga xos tarzda qo'llanilmoqda. Bular, avvalo, ko'rib chiqilayotgan hodisalarning sof ob'ektiv xossalarini emas, balki ularning insoniy ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan so'rovlar, anketalash, testlash, modelda eksperiment o'tkazish va hokazolardir. Shuningdek noilmiy bilimning kvaziilmiy bilim, psevdobilim, paronormal bilim, okkult bilim, spiritik bilim, telekinz kabi shakllari ham mavjud. Falsafiy va ilmiy bilim ilmiy bilimning yorqin ko'rinishlaridir.

Badiiy bilim borliqni tushunib yetishni o'ziga xos shakli bo'lib, u san'at borlig'ining barcha bosqichlarida – asar g'oyasidan boshlab uning odamlar tomonidan qabul qilinishigacha – o'ziga xos tarzda ro'yobga chiqadi. Badiiy ijod ijodkor xaqidagi fikrlari va san'at tilida moddiylashtirishdir. Shaklan badiiy faoliyat ob'ektga qarab mo'ljal oladi, mazmunan esa, u shaxs o'zligining ifodasi, inson ma'naviy hayotining ichki ruhiy, ijodkor ideallari va didining majmui hisoblanadi. Borliqni badiiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati ko'p jihatdan san'at tilining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Uning tarjimoni – ijtimoiy aloqalar tizimiga kiruvchi madaniyatning belgilar tizimlaridir. San'at madaniyat tillarini badiiy tafakkur va aloqa vositalariga aylantiradi. Bunda san'at tili ikki xil ma'noda: dastlabki, madaniy (asarni idrok etishda u aynan tushunilishi mumkin) va shartli, badiiy ma'noda keladi. «Ma'nolar o'yini» asl borliqdan chalg'itmaydi, biroq uni mutlaqo kutilmagan tomondan ko'rish imkonini beradi. San'atni idrok etishda muttasil kashfiyotlar yuz beradi. Ularning orasida eng muhimi qalbimizning xilvat burchaklarini yorituvchi yashin chaqiniga o'xshaydigan o'zlikni kashf etishdir. Ongning

kutilmagan kashfiyotlar xos bo'lgan bunday holati psixologiyada «insayd» deb ataladi. San'atni idrok etish o'zlikni anglash bilan bog'liq cheksiz va tengsiz lazzat baxsh etadi. San'atni idrok etish mexanizmi sifatida empatiya, ya'ni o'zini obraz bilan tenglashtirish amal qiladiki, bu kuchli emotsional ta'sirlanishga sabab bo'lishi mumkin. Ijobiy va salbiy emotsional holatlarning bir-biriga o'tishi bilan bog'liq murakkab jarayon shaxsni o'z tajribasini qayta tushunishga majbur qiladi va uning qadriyatlar tizimida to'ntarish yasashga qodir.

Shunday qilib, san'atning bilishdagi ahamiyati shundan iboratki, u bilish va o'zlikni anglashning o'ziga xos birligidir. San'at – shaxsni ma'naviy boyitish manbai. U insonning ijodiy inkoniyatlarini faollashtiradi, uning madaniyat dunyosi va umuman jamiyatdagi xulq-atvorni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. San'atni idrok etishda ob'ekt va sub'ekt mushtarakdir. Shaxs san'at asarining mazmuniga o'zining daxldorligini his qiladi va uni o'zida kashf etadi. Shu sababli san'atni idrok etish orqali bilish faolligi namoyon bo'ladi.

Falsafa ilmiy bilish shaklidir. Falsafiy bilimning bosh vazifasi san'at va din bilan uyg'un holda – insonning dunyoda ma'naviy mo'ljal olishiga ko'maklashishdan iborat. Falsafiy bilish ayni shu maqsadga bo'ysundirilgan. Falsafa umuman dunyo, uning «birinchi» asoslari, hodisalarning universal o'zaro aloqasi, borliqning umumiy xossalari va qonunlari haqida umumiy tasavvurni shakllantiradi. Falsafa dunyoni insonga bog'lab o'rganadi. Me'yorlar va ideallar, ilmiy bilimlar va san'at yutuqlari, insonning tashvishlari, ehtiyojlari, hayot mazmunini anglash yo'lidagi izlanishlari faylasufning dunyoqarashini, falsafiy mushohada yuritish shaklini belgilaydi. Falsafa jamiyat ongi, jamiyat madaniyatining nazariy ifodasi sifatida amal qiladi. U tafakkur tarzi, qadriyatlar, ideallar, falsafiy muammolar va ularni ko'rib chiqish xususiyatini belgilaydigan madaniyat bilan uzviy bog'liqdir. Falsafa umuman dunyoga va madaniyat sub'ekti sifatidagi insonga murojaat etadi. Falsafiy bilim donishmandlik sifatida tavsiflanadi. Donishmandlik – dunyoni va insonning undagi o'rmini yaxlit tushunish andozasi. Falsafa barcha odamlar uchun muhim bo'lgan haqiqatlarning tagiga yetish uchun (ilmiy va noilmiy) bilimdan foydalanadi. Kant falsafa inson aqlining boshqa bilimlarga oliy qadriyat tusini beruvchi eng so'nggi maqsadlarini anglab yetishni tushunishga, bu bilimlarning inson uchun ahamiyatini aniqlashga yordam beradi deb hisoblagan. Din kabi falsafiy bilimning ham bosh

maqsadi – insonni kundalik tashvishlar sohasidan olib chiqish, unda yuksak ideallarga qiziqish uygʻotish, uning hayotiga chin mazmun baxsh etish, eng zamonaviy qadriyatlar sari yoʻl ochishdir. Biroq din – ommaviy ong boʻlsa, falsafa – nafaqat isteʼdod, balki kasbiy bilim va koʻnikmalarni ham talab qiluvchi elitar ongdir.

Falsafiy bilimda ikki asos – ilmiy-texnikaviy va nazariy-maʼnaviy asoslarning uygʻunlashishi uning ongning betakror shakli sifatidagi oʻziga xos xususiyatini belgilaydi. Bu falsafa tarixida – tarixan vaqtda bir-biri bilan tasodifiy emas, balki muqarrar tarzda bogʻlangan falsafiy taʼlimotlarning gʻoyaviy mazmunini meros qilib olish, rivojlantirish jarayonida ayniqsa boʻrtib koʻrinadi. Bu taʼlimotlarning barchasi – yaxlit bir butunning qismlari, xolos. Oqilonalikning boshqa sohalarida (masalan, fanda)gi kabi falsafada ham yangi bilim oʻzining avvalgi darajasidan voz kechmaydi, balki uni oʻzining ayrim koʻrinishi sifatida oʻz tarkibida qoldiradi. Gegel tafakkur tarixida biz taraqqiyotni, mavhum (nomukammal, biryozqlama) bilimdan yanada aniqroq (mukammal, serqirra) bilim sari muttasil yuksalishini kuzatamiz, deb taʼkidlagan edi. Falsafiy taʼlimotlarning ketma-ketligi ham gʻoya mantiqiy taʼriflarining ketma-ketligi bilan asosan bir xil, yaʼni bilish tarixi anglab yetilayotgan predmetning obʼektiv mantiqʼiga mos keladi.

Biroq Falsafiy bilimning maʼnaviy (qadriyatlar va moʻljallar) qismi yuksalish qonuniga ham, hokimiyat va vaqtga ham boʻysunmaydi. U tarixiga «yuksak», «tuban» mezonlari bilan yondashish mumkin boʻlmagan sanʼatga yaqinroq. Nyuton taʼbiri bilan aytganda, olimlar oʻz oʻtmishdoshlarining «yelkalari»da turadi: ular oʻz ijodi bilan bir umumiy ishni davom ettiradi, rivojlantiradi. Sanʼatkorlar esa bu safga kirmaydi. Zero, ularning har biri – alohida dunyo, alohida olam (lekin bu davrlar va avlodlarning badiiy tajribasida vorisiylikni istisno etmaydi). Buyuk sanʼatkor oʻz davrining buyuk ifodachisi boʻlib, ayni shu maʼnoda uning ijodi odamlar uchun olamshumul ahamiyat kasb etadi.

Biroq falsafiy bilimning nazariy qismi, yaʼni uning ichki mantiqi ancha murakkabdır. Bu falsafiy gʻoyaning sermaʼnoliligi, u rivojlantirilishi, har xil, hatto qarama-qarshi yoʻnalishlarda davom ettirilishi mumkinligi bilan izohlanadi. Masalan, Lokk (XVII asr ingliz faylasufi) falsafasidan uning izdoshlari (idealist Berkli va frantsuz maʼrifatchi materialistlari Didro, Golbax) bir-birini mutlaqo istisno

etuvchi xulosalar: Berkli – sub`ektiv-idealistik. frantsuz mutafakkirlari – esa ma`rifatchilik bilan bog`liq xulosalar chiqarganlar. Kant, va Gegelning falsafiy g`oyalari hozirgi zamon tafakkuriga asos soldi. Biroq har bir kantchi, gegelchining o`z Kanti, o`z Gegeri bor, ularning har biri o`z o`tmishdoshlarini o`zicha talqin qiladi. Boz ustiga, biron-bir yirik faylasuf o`z g`oyalarini bitta yagona manbadan olmagan. Kant Leybnits va Yumga, Forobiy Aristotel va Platonga tayangan va hokazo. Bularning barchasi yangi falsafiy bilimning vujudga kelishiga asos bo`ladi. Shakllangan bu yangi falsafiy bilimda esa ijodiy tanqid muhim rol o`ynaydi.

Ilmiy bilim bilishning eng oliy shaklidir. Ilmiy bilim, ma`naviy ishlab chiqarishning barcha shakllari kabi, pirovardida inson faoliyatini tartibga solish uchun zarur. Bilishning har xil turlari bu vazifani turlicha bajaradi va mazkur farqning tahlili ilmiy bilimning o`ziga xos xususiyatlarini aniqlashning birinchi va muhim sharti hisoblanadi.

Fan amaliy faoliyat predmetlarining (boshlang`ich holatdagi ob`ektning) tegishli mahsulotlarga (pirovard holatdagi ob`ektga) aylanish jarayonini oldindan ko`ra bilishni o`z oldiga pirovard maqsad qilib qo`yadi. Bu o`zgarish har doim ob`ektlarning o`zgarish va rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi, faoliyat shu qonunlarga muvofiq bo`lgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo`lishi mumkin. Shu sababli fanning asosiy vazifasi ob`ektlarning o`zgarish va rivojlanish qonunlarini aniqlashdan iborat. Tabiatning o`zgarish jarayonlariga tatbiqan bu vazifani tabiiy fanlar va texnika fanlari bajaradi. Ijtimoiy ob`ektlarning o`zgarish jarayonlarini ijtimoiy fanlar o`rganadi. Hamonki faoliyat jarayonida har xil ob`ektlar – tabiat predmetlari, inson (va uning ongi holatlari), jamiyatning kichik tizimlari, madaniyat hodisalari sifatida amal qiluvchi belgilar ko`rinishidagi ob`ektlar va hokazolar o`zgarishi mumkin ekan, ularning hammasi ilmiy tadqiqot predmetlari bo`lishi mumkin. Fanning faoliyatga jalb qilinishi mumkin bo`lgan ob`ektlarni o`rganish va ularni faoliyat va rivojlanishning ob`ektiv qonunlariga bo`ysunuvchi ob`ektlar sifatida tadqiq qilishga qarab mo`ljal olishi ilmiy bilimning birinchi eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Ilmiy bilim o`zining ayni shu xususiyati bilan inson bilish faliyatining boshqa shakllaridan ajralib turadi. Masalan, borliqni badiiy o`zlashtirish jarayonida inson faoliyatiga jalb qilingan ob`ektlar



sub'ektiv omillardan ajratilmaydi, balki ularga o'ziga xos tarzda bog'lanadi. Ob'ektiv dunyo predmetlarining san'atdagi har qanday in'ikosi ayni vaqtda insonning predmetga munosabatini aks ettiradi. Badiiy obraz – bu ob'ektning shunday bir in'ikosiki, unda inson shaxsi, uning qadriyatlarga munosabati aks etadi, bu xossalar aks ettirilayotgan borliq tavsifidan o'rin oladi. Bu mushtaraklikni istisno etish – badiiy obrazni buzish demakdir. Fanda bilim yaratayotgan shaxs hayot faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, uning mushohadalar yaratilayotgan bilim tarkibiga bevosita kirmaydi (Nyuton qonunlari Nyutonga nima yoqqani va yoqmaganligi haqida xulosa chiqarish imkonini bermaydi, vaholanki, masalan, Rembrandt mo'yqalamiga mansub portretlarda, uning dunyoqarashi va o'zi tasvirlayotgan ijtimoiy hodisalarga shaxsiy munosabati o'z ifodasini topadi; buyuk musavvir tomonidan yaratilgan portret doim uning avtoportreti sifatida ham amal qiladi).

Kvaziilmiy bilim – zo'ravonlik bilan ijtimoiy ongga singdiriladigan bilimlar majmui (eskremizm, ruhidagi turli sektarlarga a'zo bo'lishga da'vat etish bilan bog'liq bilim).

Psevdo bilim – g'ayritabiiy mavjudolarning borligiga ishon-tirishni nazarda tutadi. Masalan, Lox Ness ko'lidagi maxluq, suv parilari, qor odam) shuningdek, deviant bilim, paranormal bilim, anormal bilimi kabilar xam noilmiy bilim shaklidir.

### **Bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi**

Bilish dunyoning ob'ekt va sub'ektga bo'linishini nazarda tutadi. Sub'ekt – bu bilish faolligining manbai. Sub'ekt deganda odatda individ tushuniladi. Biroq bu uncha to'g'ri emas. Sub'ekt – bu, albatta, avvalo bilish qobiliyatiga ega bo'lgan individ. Sub'ekt – bu mikroguruh, ijtimoiy guruh sinf, jamiyat hamdir. Tafakkur jarayoni amalga oshadigan bosh miya po'stlog'ida tafakkur muayyan insonning harakatlari, uning kechinmalari, his-tuyg'ulariga qaratilishi mumkin: bu holda ong o'zining alohida jihati – o'zlikni anglash sifatida amal qiladi, tafakkur (individ doirasida) nimaga qaratilgan bo'lsa, shu ob'ekt bo'ladi. Sub'ektning asosi butun ijtimoiy yaxlitlikni tashkil etuvchi murakkab ierarxiyadan iborat. Uning tarixiy rivojlani-shida uncha yirik bo'lmagan birliklar ajratiladi, bu birliklar sifatida ayrim xalqlar amal qiladi. Har bir xalq o'z madaniyatida qayd etiladigan me'yorlar, g'oyalar va qadriyatlarni yaratib, asrdan asrga bilish faoliyatining alohida sub'ekti sifatida o'tib keladi. U tabiat hodisalari.

hayvonlar yoki o'simliklarning shifobaxsh xossalari, turli xalqlarning huquqlari va urf-odatlarini haqida ma'lumotlar to'playdi. Jamiyatda maxsus vazifasi va mashg'uloti hayot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar yaratishdan iborat bo'lgan individlarning tarixiy guruhlari ajratiladi. Xususan, sub'ekti olimlar hamjamiyati bo'lgan ilmiy bilimlar shunday bilimlar jumlasidan. Bu hamjamiyatda qobiliyati, iste'dodi va bilimi bilan bilish sohasida yuksak natijalarga erishadigan ayrim individlar alohida o'rin tutadi. Bu odamlarning ismlari tarixda ilmiy g'oyalar evolyutsiyasidagi buyuk bosqichlar ramzi sifatida saqlanib qoladi.

Bilishning haqiqiy sub'ekti hech qachon faqat gnoseologik xususiyatga ega bo'lmaydi: u o'z mayllari, qiziqishlari, fe'l-atvori, mijozi, aql yoki aqlsizlik, qobiliyat yoki qobiliyatsizlik darajasiga ega bo'lgan, irodali yoki irodasi bo'sh tirik shaxs. Biroq ko'pincha bilish sub'ekti deganda intellektual faollikning qandaydir shaxssiz mantiqiy bo'lagi tushuniladi. Sub'ektning bilish faoliyati faqat muayyan tarixiy kontekstda aniq tushunchalarda namoyon bo'lishi mumkin. Ilmiy bilish nafaqat sub'ektning ob'ektga nisbatan, balki o'ziga, o'z faoliyatiga nisbatan ham ongli munosabatini, ya'ni tadqiqotchilik faoliyati shartlari, usullari, me'yorlari va metodlarini bilishi, an'analarni hisobga olishi va hokazolarni nazarda tutadi.

Borliqning muayyan parchasi izlanayotgan tafakkur diqqat markazidan o'rin olgach, bilish ob'ektini tashkil etadi, sub'ekt bilan «sub'ekt – ob'ekt» munosabatlariga kirishib, ma'lum ma'noda sub'ektning «mulki»ga aylanadi. Binobarin, sub'ektning ongiga bog'liq bo'lmagan o'zicha borliq va sub'ekt bilan yuqorida zikr etilgan munosabatga kirishgan borliq mavjud. U go'yo sub'ektni o'zini bilishga da'vat etadi. Bir so'z bilan aytganda, sub'ekt bilan munosabatga kirishgan ob'ekt oddiy borliq emas, balki u yoki bu darajada anglab yetilgan, ya'ni ong – o'zining bilishga intilishida ijtimoiy belgilangan ong daliliga aylangan borliqdir, shu ma'noda bilish ob'ekti endi ijtimoiy dalilga aylanadi.

Ob'ekt – bu sub'ektning bilish faoliyati qaratilgan narsa yoki hodisa. Asbob ham (o'rganilayotgan va ta'mirlanayotganida), boshqa individ ham, individ bilan bog'liq narsa va hodisalar ham ob'ekt bo'lishi mumkin. «Ob'ekt» tushunchasini ob'ektiv borliq bilan aralashtirmaslik kerak. Masalan, hayvonlarning hujayralaridagi xromosomalar ular sitologiya va genetikada o'rganish «ob'ekti»ga aylani-

shidan oldi ham ob'ektiv mavjud bo'lgan, biroq kashf etilganidan keyingina o'rganish «ob'ektlari»ga aylangan.

Bu tushunchalar nafaqat bilish faoliyati, balki amaliy baholash faoliyati bilan ham bog'liq.

Bilish faoliyatida sub'ekt ob'ektsiz, ob'ekt esa – sub'ektsiz mavjud bo'lmaydi. Masalan, gen jonli narsalar tarkibida mavjud bo'lgan holda, nafaqat antik davrda, balki J.Lamark va Ch.Darvin uchun ham ilmiy tafakkur ob'ekti bo'lmagan. Olimlar bu ko'zga ko'rinmas biologik borliqni muayyan vaqtgacha o'z bilish faoliyatining ob'ekti sifatida aniqlay olmaganlar. Bunga nisbatan yaqinda, dunyoning umumiy ilmiy manzarasida jiddiy o'zgarishlar yuz berganidan so'ng muvaffaq bo'lindi. Yoki, aytaylik, ilmiy tafakkur, texnika yutuqlari va ijtimoiy shart-sharoitlar atigi bir necha o'n yilliklar muqaddam Kosmosning olis kengliklarini tadqiqot ob'ektiga aylantirish imkonini berdi.

Hozirgi zamon gnoseologiyasida bilish ob'ekti va predmetini farqlash odat tusini olgan. Bilish ob'ekti deganda borliqning o'rganilayotgan amalda mavjud bo'laklari tushuniladi. Bilish predmeti – bu izlanayotgan fikrning diqqat markazidan o'rin olgan muayyan jihatlar. Masalan, inson juda ko'p fanlar – biologiya, tibbiyot, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va hokazolarning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Biroq ularning har biri insonni o'rganishga o'z nuqtayi nazaridan yondashadi: masalan, psixologiya insonning ruhiyati, ichki olami, xulq-atvorini, tibbiyot – insonning kasalliklari va ularni davolash usullarini o'rganadi va h.k. Binobarin, tadqiqot predmetiga tadqiqot-chining muhim mo'ljali kiradi, ya'ni u tadqiqot vazifasi nuqtayi nazaridan shakllanadi.

Ijtimoiy bilishda sub'ekt va obe qat'iy nazar ktning o'zaro aloqasi murakkablashadi, bu yerda ob'ekt bir vaqtning o'zida tarixiy ijod sub'ekti hamdir. Ijtimoiy bilishda hamma narsa va hodisalar inson sohasida aylanadi: bilish ob'ekti – odamlarning o'zi va ular faoliyatining natijalari, bilish sub'ekti ham insondir. Bilish jarayoni shohidlarning guvohliklari, hujjatlar, so'rovlar, so'rovnomalarsiz, odamlar yaratgan mehnat qurollari va madaniy yodgorliklarisiz bo'lishi mumkin emas.

Bularning barchasi ijtimoiy bilishga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi va uning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi.

Ayni shu sababli ijtimoiy bilishda olimning grajdanlik pozitsiyasi, uning ma'naviy qiyofasi, haqiqat ideallariga sodiqligi juda muhimdir.

### **Bilish faoliyat turi sifatida**

Insonning o'zini qurshagan dunyoda mo'ljal olish funktsiyasini bilim bajaradi. Bilim – inson ong yordamida oladigan dunyo haqidagi ma'lumotlarning eng oliy darajasidir. Bilim obrazlar va belgilar shaklida mavjud bo'ladi va undan odamlar amaliy faoliyatining ideal rejasi sifatida foydalanadi. Bilimsiz (oddiy, ilmiy, badiiy va boshqa bilimlarsiz) dunyoning manzarasini shakllantirish mumkin emas. F.Bekon shu munosabat bilan bilim kuchdir deb ta'kidlagan edi. Bilimni Gegel ta'biri bilan aytganda faqatgina sub'ektiv tasavvur, erkin mulohaza, tasavvur mahsuli bo'lgan fikrdan farqlay bilish lozim. Insonning dunyoni bilishga intilishining mohiyati u aniq yoki noaniq bilimlarni faol va izchil izlashi va ularni olishidan iborat. Falsafaning bilish muammolari ko'rib chiqiladigan bo'limi gnoseologiya yoki bilish nazariyasi deb ataladi. Insonning dunyoni bilish jarayonini boshqa fanlar – mantiq, psixologiya, sotsiologiya ham o'z nuqtayi nazaridan o'rganadi.

Bilish va bilim to'g'risida so'z yuritganda o'rta asrlardagi kabi bilim va e'tiqodni qarama-qarshi qo'yish yaramaydi. E'tiqod – moddiy va ma'naviy dunyo narsalari, jarayonlari va hodisalarini dalil-ibotsiz bilish demak. «Men Xudoning borligiga ishonaman»; «men yaqinda bahor kelishiga ishonaman»; «men o'z ishinning muvaffaqiyatiga ishonaman» va h.k. va sh.k. E'tiqod – bu insonning ishonchi. Bilim bizga aniq-ravshan ko'rinib turadigan narsalarni kashf etish imkonini bersa, e'tiqod, ishonch insonga hozircha ko'rinmaydigan sirli narsalarni aniqlashga yordam beradi. Shu tariqa e'tiqod bilish jarayonida faol ishtirok etadi va uning muhim unsuri hisoblanadi. Biroq, shu bilan bir vaqtda, zamirida aqlning so'qirligi, mutaassiblik va insonning kuchsizligi yotuvchi soxta e'tiqod ham mavjudligini qayd etib o'tish lozim.

Bunga qarama-qarshi o'laroq, inson kuch-qudratining ramzi sanalgan oqilona e'tiqod mavjud bo'lib, u odamzotning emotsional va intellektual faolligiga imkoniyat yaratadi, bilish yo'lida izlanishga rag'batlantiradi. Barcha olimlarning ilmiy faoliyati zamirida inson tafakkuriga qattiq ishonch yotadi, aks holda ular o'z kashfiyotlarini yarata olmaydilar. Shu ma'noda oqilona e'tiqod go'yo zulmatdagi nur, haqiqat va taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Oqilona

e'tiqod bilim yo'lini mash'al kabi yoritadi, ijodga imkoniyat yaratadi, bu yo'lda insonga ishonch va kuch baxsh etadi. E'tiqodning yo'qligi esa, aksincha, skeptitsizm, bo'shliqda mavjudlik va bilishning samarasizligi tuyg'usini uyg'otadi. Shunday qilib, fikr, e'tiqod va bilim haqiqat sari yuksalishning zarur bosqichlari, inson ma'naviy tajribasining muhim shakllari hisoblanadi.

Xo'sh, bilishning o'zi nima? Avvalo, bilish – inson aks ettirish faoliyatining alohida turi. U «inson – mehnat vositalari – tabiat» tizimi doirasida insonning narsalar mohiyati, masalan, magnetizm tabiati, hayot mazmuni va hokazolar yashirinib yotgan dunyoning «qobig'i»ni ochishga yo'naladi. U dunyoning sirlarini ochadi.

Bilish – inson qo'lga kiritadigan axborotning eng oliy darajasi. Bu axborotni u bilish muammolari va vazifalarini qo'yish va yechish yo'li bilan, izchil anglab yetadi. Axborot miyaning mavhumlashtiruvchi faoliyati yordamida belgi shaklini ( $2 + 2 = 4$ ) kasb etadiki, bu unga ishlov berish, saqlash va keyinchalik undan foydalanish uchun qulaydir.

Bilish inson izchil va ijodiy faoliyatining ijtimoiy jarayoni bo'lib, unda tashqi dunyoning ideal obrazlari yuzaga keladi va bilish maqsadi bo'lgan bilim shakllanadi.

Bilish jarayoni tarix falsafasida muayyan vaqt mobaynida (masalan, XVIII asr falsafiy materializmida) insonning sezgi a'zolariga tabiatning mexanik ta'siri sifatida qaralgan. Inson passiv mavjudot va tabiat uni o'z maqomiga yo'rg'alatadi, deb hisoblangan. «Biz qo'g'irchoqlarmiz va taqdir bizni iplarimizdan tortib o'ynatadi», deb yozgan edi V.Gyugo. Biroq amalda bilish doim ancha faol xususiyatga ega bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Bu odamlarning ehtiyojlari va manfaatlari, ularning umumiy maqsadlarga erishish yo'lidagi hamkorligi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, bilish ijtimoiy tabiiy, jihat va xususiyatlarga ega. Bunga, jumladan, nemis klassik falsafasida sub'ektning faolligi konsepsiyasida (I.Fixte va boshqalar) alohida e'tibor qaratilgan.

Bilishning ijtimoiy tabiati, agar bu haqda atroflicha so'z yuritadigan bo'lsak, yana quyidagilarni ham anglatadi. Bilish doim ijtimoiy munosabatlar va madaniy dunyosining faol ta'siri ostida yuz beradi. Biz faqat o'zimiz yashayotgan davr shart-sharoitlarida va bu shart-sharoitlar beradigan imkoniyat darajasida bilishimiz mumkin. Bu shart-sharoitlar jamiyatning muhim ehtiyojlari ko'rinishida

ijtimoiy buyurtmani yuzaga keltiradi. Ular sub'ektni shakllantiradi va bilish jarayoniga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi – uni jadallashtiradi yoki sekinlashtiradi. Masalan, o'rta asrlarda dunyo va insonni bilishga din va cherkov katta ta'sir ko'rsatgan. XX asrda esa bilishga boshqa omillar. chunonchi: kosmosni keng miqyosda o'zlashtirish, ekologiya, oziq-ovqat muammolarini yechish va hokazolar kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Bilish intellektual manbaga tayanishni talab qiladi. Intellektual manba insoniyatning jami bilimlari, bilish metodlari, tushunchalar apparati, mavjud ilmiy dalillar va boshqa bilimlarni o'zida mujasamlashtiradi. Ishni har safar bo'sh joyda, «noldan» boshlamaslik uchun bilishda erishilgan yutuqlarga tayanish juda muhim. I.Nyuton bu haqda so'z yuritir ekan, u gigantlar yelkasida turgani uchungina fanda hammadan uzoqni ko'rganini qayd etgan edi. Bilish jarayonini muomala vositasi sifatidagi til yordamidagina amalga oshirish mumkin. U butun jamiyatning jamoa boyligi, insoniyat madaniyatining muhim unsuri hisoblanadi. Fan uchun esa til, avvalo, axborotni jang'arish va saqlash vositasi, dunyo haqidagi bilimlar va ma'lumotlarning ulkan omboridir.

### **Bilishdagi qarama – qarshiliklar**

Bilish jarayonining ichki mantig'i, izchilligi qanday? Bilish jarayoni ma'lum qarama-qarshiliklardan ham xoli emas. Ular bilishning murakkab muammolarga to'la xususiyatini aks ettiradi. Bilish jarayonida mavjud qarama-qarshiliklarning ayrimlarini aytib o'tamiz.

Sub'ekt va ob'ekt ya'ni inson va tashqi dunyo o'rtasidagi qarama-qarshilik mangu va mutlaqo tabiiydir. U insonning dunyoni amalda o'zgartirish ehtiyoji bilan bu dunyo haqidagi bilimlarning kamligi (yoki umuman mavjud emasligi) o'rtasidagi nomuvofiqlikni ifodalaydi. Aslida bilish jarayoni doim ayni shu nomuvofiqlikdan boshlanadi.

Ba'zan bilishga sezgi a'zolari ma'lumotlari bilan tashqi dunyoning fikr va tushunchalardagi in'ikosi o'rtasidagi qarama-qarshilik xosdir. Ma'lumki, Quyoshning chiqishini faqat Quyosh harakatsiz Yer atrofida aylanishini taxmin qilib, sezgi a'zolari yordamida tushuntirish mumkin. Biroq bu hodisani ilmiy mushohada yordamida, ikkala osmon jismining harakatchanligini isbotlash yo'li bilan ham tushuntirish mumkin. Bu qarama-qarshilik taxminlarimizning

mantiqiy dalillar va mulohazalar tizimi yordamida tajribada sinash yo'li bilan yechiladi.

Bilish jarayonida fandagi oqimlar, maktablar va ayrim nazariyalar o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bunday qarama-qarshilik falsafada ham, masalan, «Demokrit yo'nalishi» va «Platon yo'nalishi» o'rtasida mavjud. Insonning tashqi dunyoni to'liqroq va aniqroq bilishga intilishi bilan buning uchun sub'ektiv va ob'ektiv chegaralar (inson qobiliyatining cheklanganligi, fan va texnika rivojlanish darajasining yetarli emasligi va boshqalar) mavjudligi o'rtasidagi nomuvofiqlik odatdagi hol hisoblanadi. Faol va rivojlanuvchi jarayon bo'lgan inson bilishi uchun qarama-qarshiliklarning mavjudligi tabiiy bir holdir. Ularning umumiy negizini amaliyot, ijtimoiy hayot tashkil etadi. Qarama-qarshiliklar amaliyot jarayonida yangi metodlar va dalillarni izlash, bilish sub'ektining intellektual qobiliyatini takomillashtirish yo'li bilan yechiladi. Bilish jarayoni turli darajalarda amalga oshadi.

### **Hissiy darajadagi bilimning shakllari**

Sezgi a'zolari orqali olingan bilim – hissiy bilimlardir yoki Narsalarning xossalarini sezgi a'zolari sezish va idrok etish natijasida olingan bilim hissiy bilimdir. Masalan, inson uchayotgan samolyotni ko'radi va buning nimaligini biladi.

Bilish faoliyatida sezgi – narsalar ayrim xossalarining sezgi a'zolari orqali his qilingan oddiy obrazi, in'ikosi, nusxasi yoki o'ziga xos surati dastlabki sezgi obrazi hisoblanadi. Masalan, aplesinda biz to'q sariq rang, o'ziga xos hid, ta'mni sezamiz. Chunki sezgilar insondan tashqaridagi muhitda yuz berayotgan va uning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatayotgan jarayonlarda yuzaga keladi. Ovoz va yorug'lik to'lqinlari, mexanik bosim, kimyoviy ta'sir va hokazolar tashqi ta'sirlantiruvchilar hisoblanadi. Forobiy bilishning ikki shakli – hissiy va oqilona bilishni farqlaydi. Insonni tashqi dunyo bilan bog'lovchi sezgilar roliga e'tiborni qaratar ekan, Forobiy ularni besh turga ajratadi. U sezgilarni bilimning asosiy manbai deb hisoblab, sezgilar faqat narsaning in'ikosi narsaning o'ziga mos tushgan holda haqiqiy bo'lishi mumkin deb ta'kidlaydi. Forobiyning bilishda va umuman hissiy idrok etishda sezgilarning roli haqidagi qarashlari Aristotelning «sezmaydigan odam hech narsani bilmaydi va tushunmaydi», degan fikriga juda o'xshash.

Insonning hayvondan farqi shundaki, u aql va sezgilar yordamida bilimlarni o'zlashtirishga qodir. «Aql kuchi» borliq narsalarining fikriy in'ikosini o'zida gavalantiradi. Dunyoviy hodisalarning mohiyati va sabablarini bilgan aql osmon jismlari va ularning shakllarini bilishga harakat qiladi. Shu oxirgi bosqichda insonga ta'sir ko'rsatuvchi koinot aql bilan birikadi va boqiylik xususiyatini kasb etadi. Forobiy fikricha, sezgilar tartibga ega bo'lganidek, aqlning ham o'z tegishli tartibi mavjuddir. Birinchi metod tabiiy fanlar (fizika)ga, ikkinchisi – matematikaga mos tushadi. Ikkala metoddan ham faqat fanda narsa va hodisaning u yoki bu jihatini teranroq tushunish maqsadida foydalaniladi. Sezgilar dunyoning sifat jihatidan rang-barangligining ob'ektiv xususiyatini aks ettiradi va uning ta'sirida yuzaga keladi. Sezgilar hodisalarning miqdor ko'rsatkichlari haqida ham axborot beradi. Sezgilar bir xil ohangdagi ovozlari o'rtasidagi farqni ularning kuchiga qarab, rang tuslarini, temperaturadagi o'zgarishlarni, narsalar va jarayonlardagi boshqa farqlarni ancha aniq aks ettiradi. Sezish qobiliyatining yo'qolishi muqarrar tarzda ongning yo'qolishiga olib keladi.

Sezishning ko'rish, eshitish, tebranish, paypaslash, ob-havo, og'riq, muvozanat va tezlashishni his etish, hid, ta'm bilish kabi umumiy organik turlari farqlanadi. Sezgilarning har bir shakli o'zining ayrim ko'rinishi orqali materiya harakatining mazkur shakli va turi, masalan, elektromagnit, ovozli tebranishlar, kimyoviy ta'sirlar va hokazolarning umumiy xossalari aks ettiradi. Har qanday predmet juda ko'p har xil jihatlar va xossalarga egadir. Masalan, qand bo'lagini olaylik: u qattiq, oq, shirin, ma'lum shakl, hajm va vaznga ega. Bu xossalarning barchasi bir predmetda mujassamlashgan. Biz bu xossalarni alohida-alohida emas, balki yaxlit holda - qand bo'lagi sifatida idrok etamiz va tushunamiz. Binobarin, yaxlit obrazni idrok etishning ob'ektiv negizini predmetning turli jihatlari va xossalari birligi va ayni vaqtda ularning ko'p sonliligi tashkil etadi.

Sezgi – ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazi bo'lib, u birlamchi va ikkilamchi sifatlarni mexanik tarzda ajratishga qarshi yo'nalgan. Bu nuqtayi nazardan birlamchi sifatlari (shakl, hajm va h.k.) narsalarning ob'ektiv mavjud xususiyatlari in'ikosi hisoblanadi, ikkilamchi sifatlari (rang, ovoz va h.k.) sof sub'ektiv xususiyat kasb etadi. Ayni bir sezgiga narsalarning har xil xossalari mos kelishi mumkin: oq rang sezgisi ko'rish doirasidagi to'liqlar barcha uzunlik-



larining elektromagnit xossalari qorishmasini ham, qo'shimcha ranglar har qanday juftligi (qizil va ko'k-yashil, sariq va safsar) qorishmasini ham aks ettiradi. Bundan oq rang to'liqin yoki narsa yuzasining ob'ektiv xossasi sifatida qaralishi mumkin emas, degan yanglish xulosa chiqariladi. Qora rang to'liqin xossasi emas: uning sharti – ko'rish doirasida nurlanishning yo'qligi. To'liqin yo'q narsa haqida axborot bera olmaydi. Bundan quyidagi soxta xulosa kelib chiqadi: rang, hid – bu narsalarning xossalari emas, balki bizning sezgilarimizdir (E.Max); «rang» so'zi bilan ruhiy kechinmalarning muayyan toifasi belgilanadi (V.Ostvald). Dunyo esa ovozsiz, bo'yoqlar va hidlardan xoli. Unda issiq ham, sovuq ham mavjud emas. Bularning hammasi – faqat bizning sezgilarimiz. Bu yerda masalaning ikki tomoni: sezgilar manbasi nimaligi va ularning psixofiziologik mexanizmi qandayligini farqlash lozim.

Idrok etish a'zolariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi predmetlar, ularning xossalari va munosabatlarini aks ettiradi. Insonning idrok etishi narsalar, ularning xossalari va munosabatlarini tushunish va anglab yetishni o'z ichiga oladi. Bunda inson o'zining har bir yangi taassurotini mavjud bilimlar tizimiga kiritadi. Sezish va idrok etish inson tashqi dunyoga amaliy ta'sir ko'rsatishi jarayonida, mehnatda, sezgi a'zolari faol ishlashi natijasida amalga oshadi va rivojlanadi: masalan, harakatsiz ko'z narsalar rangini farqlashga qodir emas.

Organizmning makroskopik, yaxlit narsalar va jarayonlar olamida mo'ljal olishga bo'lgan ehtiyoji bizning sezgi a'zolarimizni shunday tashkil qilganki, biz narsalarni yaxlit holda idrok etamiz. Aks holda hamma narsa harakatlanayotgan zarralar, molekulalar pardasiga aylangan va biz narsalarning chegaralarini ko'rmagan bo'lur edik. Ko'rish a'zosi organizm hayotida muhim rol o'ynaydigan borliqdagi yorug'lik hodisalarini mumkin qadar yaxshiroq aks ettirish yo'nalishida rivojlangan. Shu sababli ko'z tabiatda mavjud yorug'lik ta'sirida yorug'likni qabul qilish, quloq - ovoz tebranishlarini farqlash uchun moslashgan va h.k. Sezgi a'zolarining o'ziga xosligi, fiziologlar fikridan farqli, tashqi dunyoni to'g'ri bilishga nafaqat monelik qilmaydi, balki, aksincha, narsalarning ob'ektiv xossalari aniqroq va to'liqroq aks etishini ta'minlaydi.

Garchi sezish va idrok etish insonning barcha bilimlari manbai sanalsa-da, hissiy bilish ular bilangina kifoyalanmaydi. U yoki bu predmet insonning sezgi a'zolariga ma'lum vaqt mobaynida ta'sir

ko'rsatadi. So'ngra bu ta'sir barham topadi. Biroq predmetning obrazi izsiz yo'qolmaydi. U xotirada gavdalanadi va saqlanib qoladi. Binobarin, biron-bir narsa haqida u yo'qolganidan keyin ham fikr yuritish mumkin, chunki u haqda muayyan tasavvur qoladi. Yumiq ko'zlar bilan ham biz nimalarnidir tasavvur qilamiz. Shunday qilib, biz haqiqatga eltuvchi yo'l naqadar og'ir ekanligini ko'ramiz: u amalda jonning barcha kuchlari – xotira, iroda, tasavvur, intuitsiya va aqlning bor kuchini ishga solishni nazarda tutadi. Masalan, xotirani olaylik. Bilish haqida xotirasiz fikr yuritish mumkinmi? Albatta, yo'q: xotirasiz jon – baliqsiz to'r degan gap. Bu ajoyib hodisasiz bilishni tasavvur qilish mumkin emas. Sezish va idrok etish jarayonlari o'zidan keyin miyada «iz» qoldiradi. Bu izlarning mohiyati insonga ayni lahzada ta'sir ko'rsatmayotgan narsalarning obrazlarini gavdalandirish qobiliyatidan va iborat.

Xotira o'tmish va hozirgi zamoni birlashtiradi, ularning bir-biriga o'tishini ta'minlaydi. "Tovushlar va so'zlar soni ko'paygandan keyin, odamga uning xotirasi yordamga keladi... Yozuv ham xotira bilan birga inson imkoniyatlarini oshiradi". Agar obrazlar miyada unga predmet ta'sir ko'rsatgan paytda paydo bo'lib, bu ta'sir to'xtaganidan keyin darhol g'oyib bo'lganida, inson narsalarni har safar mutlaqo notanish narsalar sifatida qabul qilgan, u mazkur narsalarni tanimagan, demak, ularni anglamagan bo'lar edi. Biror narsani anglash uchun aqlning ishlashi – hozirgi holatni oldingi holat bilan taqqoslashi talab etiladi. Tashqi ta'sirlarning idrok etilishi va ularning vaqtda saqlanishi natijasida xotirada tasavvurlar uyg'onadi. Tasavvurlar – bu bir paytlar insonning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatgan va keyinchalik miyada saqlanib qolgan aloqalar bo'yicha gavdalanadigan narsalarning obrazlaridir.

Sezish va idrok etish ong, fikr shakllanishining boshlanishi hisoblanadi. Xotira olingan axborotni qayd etadi va saqlaydi. Tasavvurda esa, ong ilk bor o'zining bevosita manbaidan ajraladi va nisbatan mustaqil sub'ektiv hodisa sifatida mavjud bo'la boshlaydi. Inson nisbatan yangi obrazlarni erkin yaratishga qodir. Tasavvur – bu idrok etish va nazariy tafakkur o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in.

Xayol insonning muhim xossasi. Xayol kuchi tajribada (ongda) mavjud obrazlarni nafaqat qayta chaqiradi, balki ularni bir-biri bilan bog'laydi va shu tariqa ularni umumiy tasavvurlar darajasiga ko'taradi. Xayol tafakkur oqimida yetishmayotgan ko'rgazmalilik

o'rmini to'ldiradi. Obrazlarni qayta gavdalandirish xayol kuchi bilan erkin va bevosita kuzatish yordamisiz amalga oshiriladi. Tasavvurlar paydo bo'lishining bu shakli bunday erkin faoliyat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lmagan, biroq amalda kuzatishga muhtoj bo'lgan va obrazlar beixtiyor paydo bo'lishiga yo'l qo'yadigan oddiy eslashdan shu bilan farq qiladi.

### **Empirik bilim va uning shakllari**

Empirik bilim mavjud narsaning bevosita emas, balki bilvosita in'ikosi. Masalan, olim o'zi ko'rmayotgan tegishli ob'ektning holati haqida unga axborot berayotgan asbob ko'rsatkichi yoki elektrokardiogrammaning elektr chizig'ini ko'radi. Boshqacha aytganda, bilishning empirik darajasi har xil asboblardan foydalanish bilan bog'liq; u kuzatish, kuzatilayotgan narsa yoki hodisani tavsiflash, bayonnomalar yuritish, hujjatlardan foydalanishni nazarda tutadi, masalan, tarixchi arxivlar va boshqa manbalar bilan ishlaydi. Xullas, bu oddiy sezgi darajasida bilishga qaraganda bilishning yuqoriroq darajasidir. Empirik bilimlar nazariy bilim negizini tashkil etuvchi ilmiy dalillar majmuidir. Empirik bilim kuzatish va eksperiment, tavsiflash, taqqoslash, o'lchash va dalillar kabi metodlar yordamida shakllanadi.

Kuzatish – bilish ob'ektining muhim xossalari va munosabatlarini aniqlash maqsadida ataylab amalga oshiriladigan izchil idrok etishdir. Kuzatish maqsadini belgilash, uning usullarini aniqlash, o'rganilayotgan ob'ekt xulq-atvorini nazorat qilishning rejasini tuzish, asboblardan foydalanish kabilar kuzatishning muhim xususiyatlaridir. Kuzatishlarning natijalari bizga borliq haqida ilmiy dalillar ko'rinishida dastlabki axborot beradi. Kuzatish bevosita yoki bilvosita, mikroskop yordamida bo'lishi mumkin. Hozirda elektron mikroskop yordamida molekullarni vizual kuzatish mumkin. Kuzatish – bu faoliyatning muayyan ob'ektlarga qaratilgan maqsadlar va vazifalarni ta'riflashni nazarda tutadigan faoliyat shakli. Biron-bir narsani bilishni xohlagan har qanday odam o'z ko'zlarini kuzatuvchanlikka o'rgatishi lozim. Zehnli, ijodkor va teran aql narsa va hodisalarning ko'pchilik e'tibor bermaydigan muhim jihatlarini ko'rish va sezish qobiliyati bilan ajralib turadi. Bu qobiliyat fan va san'atdagi novatorlik omilidir. Kuzatish maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Kuzatishlarni tayyorlashda kuzatish vazifalari, u javob berishi lozim bo'lgan talablarni aniqlash, kuzatish rejasini va usullarini oldindan ishlab chiqish muhim

o'rin tutadi. Kuzatish tabiatning o'zida mavjud narsalar va hodisalarni qayd etadi. Biroq inson kuzatuvchi roli bilan kifoyalana olmaydi. U eksperimentlar o'tkazish orqali faol sinovchiga aylanadi. Miyada tasavvur qilingan model ustida o'tkaziladigan fikriy eksperiment bilishning alohida shaklini tashkil etadi. Unga xayol va tafakkurning uzviy aloqasi xosdir.

Eksperiment – bu shunday tadqiqot metodiki, uning yordamida ob'ekt yo sun'iy tarzda yaratiladi, yo tadqiqot maqsadlariga mos keladigan ma'lum shart-sharoitlarda o'rganiladi. Eksperimentda tadqiqotchi ilmiy tadqiqotni o'tkazish shart-sharoitlariga faol aralashadi. U jarayonni istalgan bosqichda to'xtatishi mumkin bo'lib, bu ob'ektni yanada mufassalroq o'rganish imkonini beradi. Tadqiqotchi o'rganilayotgan ob'ektni boshqa ob'ektlar bilan har xil tarzda bog'lashi yoki u ilgari kuzatilmagan shart-sharoitlarni yaratishi va shu tariqa fanga ma'lum bo'lmagan yangi xossalarni aniqlashi mumkin.

Eksperimentning asosiy maqsadi – o'rganilayotgan ob'ekt mavjud bo'lgan odatdagi shart-sharoitlarni o'zgartirish. U o'rganilayotgan ob'ekt xossalari bilan shart-sharoitlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish, shuningdek shart-sharoitlarning o'zgarishi munosabati bilan bu xossalarning o'zgarish xususiyatini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan bir vaqtda, bu metod predmetlarning tabiiy sharoitda namoyon bo'lmaydigan yangi xossalarni aniqlash uchun imkoniyat yaratadi, masalan, sun'iy iqlim laboratoriyalarida o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga temperatura, yorug'lik, namlik va shu kabilarning ta'sirini u yoki bu darajada to'g'ri aniqlash mumkin. Zero, shart-sharoitlar o'zgarishi bilan predmetning muayyan xossalari o'zgarishi (ba'zan yana yuzaga kelar), boshqa xossalarda esa sezilarli o'zgarishlar yuz bermasligi mumkin. Eksperimentga shart-sharoitlarni nazorat qilish, jarayonlarning ko'rsatkichlarini o'lchash imkoniyatining mavjudligi va asbob-uskunalardan foydalanish xosdir. Inson tajriba o'tkazish chog'ida yangilishishi mumkin. Asboblar bu kamchilikdan xoli. Mikroskop, teleskop, rentgen apparati, radio, televidenie, telefon, seysmograf va shu kabilor yordamida inson o'zining idrok etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi va teranlashtirdi. Fan, ayniqsa tabiatshunoslikda erishilgan yutuqlar eksperiment o'tkazish metodlari va vositalarining takomillashuvi bilan uzviy bog'liq. So'nggi yillarda olimlar ilmiy ijod jarayoniga bevosita kiritilgan kompyuterlardan foydalanish imkoniyatiga ega

bo'ldilar. Eksperimentni ko'p takrorlash va shu yo'l bilan xulosalarni kuzatuvlarning ko'proq soniga tayangan holda asoslash mumkin. Eksperiment o'tkazish uchun dastlabki bilimlar kerak. I.Pavlov qayd etganidek, dalillarni rivojlantirish predmet haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish lozim. Bu umumiy tasavvurlar, farazlar, gipotezalar oldingi kuzatishlar, eksperimentlar va insoniyatning barcha tajribasidan olinadi. Ular eksperimentga yo'l ko'rsatadi. Aniq anglanmagan maqsadsiz, ko'r-ko'rona amalga oshiriladigan kuzatish, eksperiment samara berishi mumkin emas. Kallada g'oya bo'lmasa, hech qanday dalilni ko'rolmaysan, degan edi I.Pavlov.

Tadqiqot maqsadlariga ko'ra eksperimenti, yangi narsa yoki hodisani kashf etish hamda yangi xossalarni aniqlovchi va ularni namoyish etuvchi tekshiruv eksperimenti; (gipotezalarning to'g'riligini aniqlash), ob'ektlar yoki ularning xossalarini aniqlashga qaratilgan sifat eksperimenti va o'rganilayotgan ob'ektning xossalarini o'lchash bilan bog'liq miqdor eksperimenti farqlanadi.

O'rganish ob'ektiga ko'ra tabiiy va ijtimoiy eksperiment, amalga oshirish usullariga ko'ra esa – tabiiy va sun'iy, modeli va bevosita amaliy tafakkur vositasida amalga oshiriladigan eksperimentlar farqlanadi. Shuningdek ilmiy va ishlab chiqarish eksperimenti ham mavjud. Ishlab chiqarish eksperimenti sanoat va dala sharoitidagi eksperimentlarni o'z ichiga oladi.

Modelli eksperiment alohida ahamiyatga ega. Fizik va matematik modellash tirish farqlanadi. Fizik model o'rganilayotgan ob'ektning noma'lum xossalarini aniqlash uchun uning muayyan xossalarini gavdalandirishni nazarda tutadi (samolyotlar, kosmik kemalar yoki neyronlarning modellari va sh.k.). Matematik model har xil ob'ektlarning umumiy, funktsional bog'liqligini tavsiflovchi formal (matematik) o'xshashligi asosida tuziladiki, bu ham amalda mavjud ob'ektlarning noma'lum xossalarini aniqlash imkonini beradi. Eksperiment o'rganilayotgan hodisani sun'iy tarzda gavdalandirish va nazariy yoki empirik bilim natijalarini amalda sinash imkonini beradi. Asbob – bu insonning sezgi a'zolari bilishi mumkin bo'lmagan hodisalar va xossalar haqida axborot olish uchun mo'ljallangan, kerakli xossalarga ega bo'lgan moslama yoki moslamalar tizimidir. Asboblarning bizning sezgi a'zolarimizni kuchaytirishi, ob'ekt xossalarining faollik darajasini o'lchashi yoki ularda o'rganilayotgan ob'ekt qoldirgan izlarni aniqlashi mumkin.

Kuzatish va eksperiment o'tkazish jarayonining natijasi tavsiflash yoki bayon etish yo'li bilan ifodalanadi. U umumiy qabul qilingan atamalar yordamida tuzilgan grafiklar, rasmlar, foto va kinasvirlar ilova qilingan matematik, kimyoviy formulalar kiritilgan hisobot ko'rinishida ifodalanishi ham mumkin. Tavsifga qo'yiladigan asosiy ilmiy talab – kuzatish va eksperiment ma'lumotlarini to'g'ri va aniq aks ettirishdir. Tavsif to'liq yoki noto'liq bo'lishi mumkin, biroq u doim materialni ma'lum darajada tizimga solishni, ya'ni uni guruhlash va umumlashtirishni nazarda tutadi: sof tavsif ilmiy ijod doirasidagina qoladi.

Taqqoslash – empirik metodlarining muhim unsuri, ya'ni o'rganilayotgan ob'ektlarning kuzatish yoki eksperimentda aniqlanayotgan xossalari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashdir.

O'lchash – taqqoslashning ayrim ko'rinishi, ob'ekt xossalari-ning rivojlanish darajasini tavsiflovchi kattalikni aniqlash jarayoni. Kuzatish va eksperiment natijalari o'lchash yo'li bilan ifodalangan taqdirdagina ilmiy ahamiyatga ega bo'ladi. U o'lchash birligi sifatida qabul qilingan boshqa kattalik bilan taqqoslash shaklida amalga oshiriladi.

Ilmiy dalil empirik bilishning natijasi hisoblanadi. Dalil (yoki dalillar)ni aniqlash ilmiy tadqiqotning zarur shartidir. Dalil – bilimning tasdiqlangan boyligiga aylangan moddiy yoki ma'naviy dunyo hodisasi, biron-bir hodisa, xossa yoki munosabatni qayd etishdir. A.Eynshteyn so'zlari bilan aytganda, fan dalillardan boshlanishi va boshlanish bilan tugallanish o'rtasida qanday nazariy tuzilmalar bo'lishidan qat'iy nazar, dalillar bilan yakunlanishi lozim. Dalil tushunchasi har xil ma'no-mazmunga ega. «dalil» atamasining ko'p sonli ta'riflari orasida quyidagilarni qayd etish mumkin. Birinchidan, borliq hodisasi, asos qilib olish mumkin bo'lgan voqea, hodisa, holat sifatidagi dalil. Bu inson tomonidan anglangan yoki anglanmaganligidan qat'iy nazar mavjud bo'lgan hayot dalillaridir.

Ikkinchidan, «dalil» tushunchasi borliqning anglab yetilgan voqealari va hodisalarini belgilash uchun qo'llaniladi. Inson bilish imkoniyatlarining serqirraligi shunda namoyon bo'ladiki, borliqning ayni bir dalili bilishning oddiy va ilmiy darajalarida, san'at, publitsistika yoki yuridik amaliyotda anglab yetilishi mumkin. Shu sababli turli usullar bilan aniqlanadigan har xil dalillarning ishonchlilik darajasi ham har xil bo'ladi. Ko'pincha ilmiy dalil bilan

borliq voqeasi o'xshash bo'lib ko'rinadi va bu ayrim faylasuflar va olimlarga dalil haqiqatini mutlaq haqiqat sifatida tavsiflash imkonini beradi. Bunday tasavvur bilishning haqiqiy manzarasiga mos kelmaydi, uni dogmaga aylantiradi va soddalashtiradi. Dalillar murakkab tuzilishga ega. Ular borliq haqidagi axborot, dalil talqini, uni olish va tavsiflash usulini o'z ichiga oladi.

Dalilning muhim tomoni – borliq yoki uning ayrim xossalari haqida tasavvurning shakllanishiga imkoniyat yaratuvchi borliq to'g'risidagi axborot. Dalilning borliqqa muvofiqligi uni haqiqiy deb tavsiflash imkonini beradi. Shu sababli dalillar fanning empirik asosi, nazariyani tasdiqlash yoki inkor etishning muhim usuli hisoblanadi. Dalil yordamida borliq xolisona, nazariyaga bog'lanmagan holda anglab yetiladi. Dalillar eski nazariya doirasiga sig'maydigan, unga zid bo'lgan hodisalarni kashf etish imkonini beradi. Talqin qilish dalilning muhim unsuri bo'lib, u har xil shakllarda amalga oshiriladi. Ilmiy dalil nazariya bilan bilvosita bog'liq. Nazariya yordamida empirik tadqiqotning vazifalari aniqlanadi va uning natijalari talqin qilinadi. Talqin qilish dalil tarkibidan uni shakllantirishning nazariy-metodologik sharti, dalildan kelib chiqadigan nazariy xulosa, uning ilmiy izohi yoki har xil mafkuraviy, ilmiy yoki falsafiy nuqtayi nazarlarda amalga oshiriladigan baholash sifatida o'rin oladi.

Dalilning moddiy-texnik yoki metodik tomoni, ya'ni uni olish usuli ham bor. Dalilning ishonchliligi ko'p jihatdan u qaysi usulda, qanday vositalar yordamida olinganligi bilan belgilanadi. Masalan, saylovoldi kampaniyalarida nomzodlar reytingi, ularning muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlarini ko'rsatuvchi sotsiologik tadqiqotlarning natijalaridan ko'p foydalaniladi. Ko'pincha ularning natijalari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi, ba'zan bir-biriga mutlaqo zid bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri xatoga yo'l qo'yish imkoniyati istisno etilsa, bunday farqlarning sababi metodikalarning har xilligi bilan izohlanishi mumkin. Dalillar ularni talqin qiluvchi nazariya, tasniflash metodi mavjud bo'lgan va boshqa dalillarga bog'lab anglab yetilgan holdagina ilmiy ahamiyat kasb etadi. Faqat o'zaro bog'langan va yaxlit ko'rinishda dalillar nazariy umumlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Alohida va tasodifan, hayotdan ajratib olingan dalillar biron-bir narsa yoki hodisani asoslashga qodir emas. Noto'g'ri tanlab olingan dalillardan har qanday nazariyani tuzish mumkin, biroq u hech qanday ilmiy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

### **Nazariy bilim darajasi va uning shakllari**

Ilmiy dalillar nazariyaga nisbatan ham ikki xil vazifani bajaradi: mavjud nazariyaga nisbatan ilmiy dalil yo uni mustahkamlaydi (verifikatsiya qiladi), yo u bilan to'qnashadi va uning asossizligini ko'rsatadi (falsifikatsiya qiladi). Biroq boshqa tomondan, nazariya empirik tadqiqot darajasida olingan ilmiy dalillar yig'indisini shunchaki umumlashtirishgina emas. Uning o'zi yangi ilmiy dalillar olish manbaiga aylanadi. Shunday qilib, empirik va nazariy bilim yaxlit hodisa – ilmiy bilim ikki tomonining birligi hisoblanadi. Bu tomonlarning muayyan ilmiy bilish jarayonidagi o'zaro aloqasi va harakati, ularning o'zaro nisbati nazariy bilimga xos bo'lgan shakllarning izchil qatori yuzaga kelishini belgilab beradi. Nazariy bilim muayyan maqsadga yo'nalgan ilmiy asoslangan bilim darajasi. Nazariy bilimning asosiy shakllari: ilmiy muammo, gipoteza, nazariya, tamoyillar, qonunlar, kategoriyalar, paradigmalardir.

Har qanday ilmiy bilish muammodan boshlanadi. Umuman olganda, inson bilimining rivojlanish jarayonini ayrim muammolarni qo'yish ularni yechishga o'tish, so'ngra yangi muammolarni qo'yish sifatida tavsiflash mumkin. Biroq muammoning haqiqiy o'rni qanday? Ilmiy muammolar nima uchun yuzaga keladi? Muammoning masaladan farqi nimada? Ilmiy muammolar doirasi qanday?

Muammo – bilishning rivojlanish jarayonida ob'ektiv tarzda yuzaga keladigan, yechimini topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo'lgan masala yoki masalalar majmuidir. Shuningdek muammo, hal qilishni talab etuvchi nazariy yoki amaliy vazifa; fanda – biron-bir hodisalar, ob'ektlar, jarayonlarni tushuntirishda qaramaqarshi yondashuvlar ko'rinishida amal qiluvchi va uni yechish uchun muvofiq nazariyani talab etuvchi ziddiyatli holatdir. Muammoni to'g'ri qo'yish uni muvaffaqiyatli yechishning muhim shartidir. To'g'ri qo'yilmagan muammo yoki soxta muammo haqiqiy muammolarni yechishdan chalg'itadi. Muammoni qo'yish – ilmiy bilish jarayonining dastlabki bosqichi. Muammoni qo'yishda, avvalo, ayrim holatni masala sifatida anglab yetish, muammoning mazmunini aniq tushunish, ma'lum va noma'lum narsalarni ajratgan holda uni ta'riflash lozim.

Ilmiy muammolar predmetga yoki protseduraga doir bo'ladi. Predmetga doir muammolarda o'rganilayotgan ob'ektlar, protseduraga doir muammolarda esa – bilim olish va uni baholash usullari aks



etadi. O'z navbatida, predmetga doir muammolarning empirik va kontseptual, protseduraga doir muammolarning metodologik va baholash kabi turlari farqlanadi. Predmetga doir muammolar empirik muammolarni yechish uchun materialni sof nazariy tahlil qilish bilan bir qatorda, predmetlar bilan ma'lum amallarni bajarish lozim, kontseptual muammolar borliqqa bevosita murojaat etishni talab qilmaydi. Predmetga doir muammolardan farqli o'laroq, protseduraga doir muammolar doim kontseptual xususiyatga ega bo'ladi: protseduraga doir muammolar o'rtasidagi farq shunda ko'rinadiki, metodologik muammolar nisbiy mushohada ko'rinishida yechimga ega bo'lishi mumkin emas, baholash bilan bog'liq muammolar esa fanga mezon vazifasini bajaruvchi ko'rsatkichlar va mo'ljallarni olib kiradi.

Empirik muammo avvalo ma'lumotlarni izlashni nazarda tutadi; empirik muammolarga kuzatish, eksperiment, o'lchash kabi ilmiy metodlar yordamida javob topish mumkin. Bundan tashqari, yechimini topish uchun asboblarni yasash, reaktivlar tayyorlash va hokazolar kerak bo'lgan muammo ham empirik hisoblanadi. Kontseptual muammolar ilgari olingan ko'p sonli ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lib, ularni tartibga solish va talqin qilish, oqibatlarni keltirib chiqarish va gipotezalarni shakllantirish, mantiqiy izchillik talablariga muvofiq qarama-qarshiliklarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

Metodologik muammolar asosan tadqiqotni rejalashtirish bilan bog'liq: ularni yechish yo'li bilan ayrim kelishuvlar tuziladi, muammoni yechish, kuzatish va eksperimentlar o'tkazish tartibi aniqlanadi, mo'ljallanayotgan kontseptual protseduralar belgilanadi va h.k. Baholash bilan bog'liq muammolar empirik ma'lumotlar, gipotezalar, nazariyalar va shu kabilarni baholash, hatto muammoning o'zi qay darajada to'g'ri tuzilgan va ta'riflanganligini baholashni nazarda tutadi.

Muammo to'g'ri qo'yilgan deb hisoblanishi uchun:

1) o'rganilayotgan muammoning tarkibiga kiritish mumkin bo'lgan muayyan ilmiy bilim (ma'lumotlar, nazariya, metodika) mavjud bo'lishi;

2) muammo shaklan to'g'ri tuzilgan bo'lishi;

3) muammo o'rinli bo'lishi, ya'ni uning asoslari soxta bo'lmasligi;

4) muammo muayyan darajada chegaralangan bo'lishi;

5) yechimning mavjudlik sharti va uning yagonaligi ko'rsatilgan bo'lishi;

6) maqbul yechim belgilari hamda yechimning maqbulligini tekshirish usullari haqidagi shartlar qabul qilinishi lozim.

Shunday qilib, pirovard natijada barcha ilmiy muammolar ham o'z yechimini topavermaydi: ayrim muammolar ular qo'yilganidan keyin uzoq vaqt mobaynida yechilmay qolaveradi (masalan, Frem teoremasi bir necha yuz yillar mobaynida yechilmay kelgan), ayrim muammolar o'z yechimini topmaydi (masalan, aylana kvadraturasi, burchak trisektsiyasi va kubning ikkilanmasi haqidagi masalalar), ba'zi bir muammolar esa olimlarning almashayotgan avlodlari diqqat markazidan butunlay yo'qoladi.

Ilmiy muammo boshqa muammolardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadi: - U olimni doim haqiqiy bilim olishga yo'naltiradi; - olim bilim olishga qarab mo'ljal oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, «ob'ekt nima?», «harakat nima?», «aql nima?» qabilidagi olamshumul muammolar ayrim fanlarning chegaralarinigina belgilashi mumkin, biroq ilmiy tadqiqotning dastlabki bosqichi hisoblanmaydi. O'z-o'zidan ravshanki, har qanday muammo ham ilmiy bo'lavermaydi. Ilmiy muammolar qolgan turdagi muammolardan shunisi bilan ajralib turadiki, ular ilmiy asoslar negizida qo'yiladi va asosan ilmiy bilimni kengaytirish maqsadida ilmiy metodlar yordamida o'rganiladi. Teran, samarali yechimini topadigan muammolarni yaratishning umumiy metodi mavjud emas. Shunga qaramay, fan tarixi ko'pgina hollarda teran ilmiy va samarali muammolar quyidagi to'rt mo'ljalni ro'yobga chiqarish paytida yuzaga kelganligidan dalolat beradi:

1) ilgari qo'yilgan muammolarning taklif qilinayotgan yechimlariga, hatto bu yechimlar bir qarashda shak-shubhasiz bo'lib ko'rinsa ham, tanqidiy yondashish lozim; har qanday holatda ham ayrim kamchiliklarni topish yoki hech bo'lmasa topilgan yechimni umumlashtirish ayrim holatga tatbiqan muayyanlashtirish mumkin;

2) yangi holatlarga nisbatan ma'lum yechimlarni tatbiq etish, ularning yaroqli yoki yaroqsizligini baholash lozim: agar muammoning yechimi o'z kuchini saqlab qolsa, buning natijasida nafaqat yechimlar, balki muammolar ham umumlashtiriladi, agar yechim yaroqsiz bo'lsa, muammolarning yangi majmui yuzaga keladi;

3) muayyan muammolarni yangi sohalarga ko'chirish yoki unga yana bir ko'rsatkich kiritish yo'li bilan ularni umumlashtirishga harakat qilish lozim;

4) muammoning mavjudligini bilimning boshqa sohalaridagi bilimlar bilan bog'lash, muammolarni kompleks o'rganishga harakat qilish kerak.

Umuman olganda, muammolarni tanlash ijodiy xususiyatga ega bo'lib, bu yerda metodikadan ham ko'ra ko'proq intuitsiya va tajriba ish beradi. Ilmiy muammo, didaktik tizim kabi, bilimlar va faoliyat usullarini ijodiy o'zlashtirish qonuniyatlariga asoslanadi, u bilish va amaliy faoliyat jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir.

Ilmiy muammo bilimlarning izchilligi, ularning fundamentaligi va ixtisoslashuvini uyg'unlashtirish, turdosh fanlar metodlaridan foydalanish, bilimlarni ilmiy umumlashtirish va tizimga solish ko'nikmalarini ishlab chiqish, shuningdek o'rganilayotgan masalalarni tanqidiy tahlil qilishni o'z ichiga oladi. U bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga da'vat etadi, yangi muammolarni mustaqil qo'yish, ularning yechimlarini izlash va topishga qiziqishni kuchaytiradi. Ayni vaqtda, ilmiy muammo zarur intellektual keskinlikni vujudga keltiradi, bilish jarayonidagi qiyinchiliklarni yengish, ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bosh vazifa – u yoki bu mavzuga mos keladigan muammolarni topish, farqlash va aniq ta'riflashdir. Puxta ishlab chiqilgan va to'g'ri ta'riflangan muammo ijodiy jihatdan diqqatga sazovor bo'lishi mumkin. Ilmiy muammo sof informativ xususiyatini yo'qotadi, tayyor bilim berishdan iborat bo'lmay qoladi va yangi bilim izlash, haqiqiy ijodiy bilish jarayoniga aylanadi. Insonga zarur bilimlar hajmi jadal sur'atlarda oshib borayotgan hozirgi sharoitda dalillarning ma'lum yig'indisini o'zlashtirishga qarab mo'ljal olishning o'zi kifoya qilmaydi. O'z bilimlarini mustaqil to'ldirish, ilmiy va siyosiy axborotlarning jo'shqin oqimida mo'ljal olish ko'nikmasini shakllantirish muhimdir. Bu tamoyillardan hozirgi davrda inson ega bo'lgan bilimlarning oddiy yig'indisi emas, balki uning bilimlari ijodiy qobiliyati va g'oyaviy e'tiqodi bilan uyg'unlikda har tomonlama yetuk shaxsning bosh mezonidir, degan xulosa kelib chiqadi.

Muammoli vaziyat muayyan faoliyat strategiyalari va o'tmish tajribasi insonga yuzaga kelgan qiyinchilikni bartaraf etish imkonini

bermaydigan, mutlaqo yangi strategiyani yaratish talab etiladigan vaziyatdir. Muammoli vaziyat aniqlangan dalillarni mavjud bilim doirasida tushuntirish mumkin emasligini ifodalovchi vaziyat hamdir. Ilmiy kashfiyot sari yo'l muammoli vaziyatni aniqlashdan boshlanadi, uni ta'riflashdan o'tadi va bu vaziyatning yechimini topish bilan yakunlanadi.

Muammoli vaziyatning paydo bo'lishi har xil omillar bilan belgilanadi. Avvalo, u dalilni asoslangan xususiyatga ega bo'lgan mavjud nazariy bilim yordamida tavsiflash mumkin bo'lmagan holda yuzaga keladi. Bu yerda muammoli vaziyat ko'p jihatdan bizga hali aniq bo'lmagan ob'ektiv mavjud hodisalar ta'sirida yuzaga keladi. Biroq muammoli vaziyat ba'zan mavjud nazariy dasturni rivojlantirish va kengaytirish bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Muammoli vaziyat shaklan sub'ektiv, biroq mazmuniga ko'ra ob'ektivdir. Amalda u tadqiqotchi oldida kuzatishlar va eksperimentlarning empirik bilimlar – dalillar va qonunlar shaklida ifodalanuvchi yangi natijalari bilan o'z tasdig'ini topgan nazariy bilimlarning birikuvi ko'rinishida yuzaga keladi. Ko'pincha muammoli vaziyat jamiyatning amaliy yoki nazariy manfaatlari nuqtayi nazaridan o'zini namoyon etadi. Uni moddiy va ma'naviy madaniyatning rivojlanish jarayoni, shu jumladan fan nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi, unga davlat va jamiyatning munosabati, davlat va jamiyatning uni yechishdan manfaatdorligi tayyorlaydi. Muammoli vaziyatning aniqlanishi va hal qilinishiga ijtimoiy-tarixiy muhit sezilarli ta'sir ko'rsatadi. U ilmiy kashfiyotga imkoniyat yaratishi, biroq uning olinishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin. Muammoli vaziyatda olimning o'ziga xos xususiyatlari, chunonchi: uning kasbiy tayyorgarlik darajasi, muammoda mo'ljal ola bilishi, qotib qolgan eskicha qarashlardan uzoqlasha olishi, zehning o'tkirligi va hokazolar ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi.

Muammoli vaziyatni tahlil qilishda shaxsiy-psixologik tusdagi masalalarni ham o'rganishga to'g'ri keladi, chunki bu vaziyatni olim o'z boshidan kechiradi va unda olimning intuitsiyasi, tafakkur uslubi va hokazolar namoyon bo'ladi. Muammoli vaziyatning pirovard negizi amaliyot hisoblanadi. Bizning ob'ekt haqidagi bilimlarimiz yetarli emasligi ayon bo'lib, «salbiy» natijalar olinadi, amaliyot yangi muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bunda fan nisbatan mustaqillikka, o'z rivojlanishining ichki

bosib o'tadi. Fan qonunlari va kategoriyalari tizimi uning paradigmasini tashkil etadi.

Paradigma – fan tarixining muayyan davrida uning rivojlanishini belgilovchi barqaror tamoyillar, umumiy me'yorlar, qonunlar, nazariyalar va metodlar majmui. U ilmiy hamjamiyat tomonidan fanning muayyan darajasida yuzaga keluvchi vazifalarni qo'yish va yechish usullarini belgilaydigan andoza sifatida tan olinadi. Paradigma tadqiqotchilik faoliyati, ilmiy eksperimentlarning natijalarini talqin qilishga yo'l ko'rsatadi, yangi dalillar va nazariyalarning bashorat qilinishini ta'minlaydi. U o'ziga mos kelmaydigan konsepsiyalarni inkor etadi va tadqiqotchilik vazifalarini yechish uchun andoza bo'lib xizmat qiladi. Paradigma tushunchasi bilish nazariyasiga amerikalik faylasuf Kun tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, «normal fan»ga tegishli ilmiy paradigmaga tayangan holda muayyan vazifalarni yechish xosdir. Fan rivojlanishidagi normal davrlar inqiloblar bilan almashadi. Ular eski paradigma doirasiga sig'maydigan hodisalarning kashf etilishi bilan bog'liq. Natijada fanda inqiroz davri boshlanadi va u eski paradigma sifatida o'z ahamiyatini yo'qotishi va yangi paradigmaning yuzaga kelishi bilan yakunlanadi. Yangi paradigmaning qaror topishi fanda inqilob yasalishiga sabab bo'ladi.

### **Mantiqiy bilish darajasi va uning shakllari**

Inson hamisha nimalar haqidadir o'ylaydi. O'ysiz holat ham, psixologlar fikriga ko'ra, amalda hech bo'lmasa hech narsa haqida o'ylamaslikni o'ylash holatidir. Bilishning dialektik yo'li sezgi a'zolari orqali bilish, dalillarni aniqlashdan mantiqiy tafakkur sari olib boradi. Tafakkur – bu insonning narsalar muhim xossalari va munosabatlarini izchil, bilvosita va umumiy aks ettirishidir. Ijodiy tafakkur amaliyot, fan, texnikada yangi natijalar olishga qaratiladi. Tafakkur – muammolar qo'yish va ularni yechishga qaratilgan faol jarayon. Tirishqoqlik – fikrlayotgan odamning muhim belgisi. Sezgidan fikrga o'tish zamirida bilish ob'ektining ichki va tashqi mohiyatning ifodasi, ayrim va umumiyga bo'linishi yotadi. Biroq ilmiy va falsafiy bilim faqat sezgi va tasavvurlardan iborat emas: sezgi idroki naqadar go'zal bo'lmasin, mazmunan qashshoqdir – u narsaning mohiyatini yoritmaydi.

Narsalardagi umumiylik – avvalo, muhim xossalari va munosabatlar majmuidir. Ma'lumki, ular ayrim predmet kabi aniq ko'rinib turmaydi, ularni bevosita idrok etish mumkin emas. Narsa, hodisalar-

ning tashqi tomoni asosan amalda kuzatish, empirik bilish yo'li bilan, narsalarning mohiyati, umumiy jihatlari esa – tushunchalar, mantiqiy fikrlash yordamida aniqlanadi. Fikrlashda, tushunchalarda narsalar bilan bevosita aloqa mavjud bo'lmaydi. Biz idrok etishga qodir bo'lmagan narsalarni ham tushunishimiz mumkin. Maxsus tuzilishga ega bo'lgan oz sonli sezgi a'zolarimiz shuning uchun ham bilishning mutlaq chegaralarini o'ratmaydiki, ularga nazariy tafakkur faoliyati qo'shiladi. Inson fikri hodisalarning tashqi qobig'idan o'tib, ob'ektning ichiga kiradi. Sezgi darajasida aniqlangan ma'lumotlar va empirik tajribadan kelib chiqib, tafakkur sezgi a'zolarining ko'rsatmalarini mazkur individ miyasida mavjud barcha bilimlar, bundan tashqari, insoniyatning umumiy tajribasi, bilimlariga, ular mazkur odamning boyligiga aylangan darajada faol solishtirishi va hodisalar orqali yanada teranroq mohiyatni anglab, amaliy va nazariy muammolarni yechishi mumkin.

Mantiqiy tafakkur – tafakkur qoidalari, qonunlari va tamoyillariga muvofiq bir haqiqatdan boshqa, yanada teranroq haqiqatga intilishdir. Tafakkur qoidalari, qonunlari fan sifatidagi mantiqning mazmunini tashkil etadi. Bu qoidalar va qonunlar tafakkurga ichdan xosdir. Mantiqiy qonunlar – narsalarning ob'ektiv munosabatlarini amaliyot asosida umumlashtirishdir. Demak, inson tafakkurining barkamollik darajasi uning mazmuni ob'ektiv borliq mazmuniga qay darajada muvofiqligi bilan belgilanadi. Bizning aqlimiz amaliy harakatlar mantig'i va ma'naviy madaniyat tizimida aks etgan narsalar mantig'iga bo'ysunadi. Tafakkur jarayoni amalda nafaqat ayrim shaxs miyasida, balki butun madaniyat tarixida shakllanadi. Asosiy qoidalar to'g'ri bo'lgan holda fikrning mantiqiyligi uning tafakkurda, tushunchalar harakatida aks etishida namoyon bo'ladi. Inson teran fikr yuritishida, mantiq qonunlariga bo'ysunadi, uning biron-bir tamoyilini buzmaydi. Hozirgi zamon fani va texnikasi qarshisida ko'ndalang bo'lgan muammolarning murakkabligi mantiqni faol rivojlantirish, tafakkurning mantiqiy apparatini, ayniqsa kibernetika texnikasining rivojlangan talablari bilan muvofiq holatga keltirishni talab qildi. Bu muhim ehtiyoj mantiqda yangi yo'nalishlar – ko'p ma'noli, ehtimol tutilgan va boshqa mantiqiy fanlarning paydo bo'lishini belgilab berdi, formal mantiqni matematika bilan yaqinlashtirdi va matematik mantiq yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Tafakkur bilan borliq o'rtasida birlik mavjud. Tafakkur va borliqning birligi zahirida mantiqiy shakllar va tafakkur qonunlarini shakllantiruvchi ijtimoiy amaliyot yotadi. Dunyo rivojlanishining ob'ektiv umumiy qonuniyatlaridan mantiqiy qonuniyatlarning farqi shundaki, inson mantiqiy qonuniyatlarni ongli ravishda qo'llashi mumkin, tabiatda esa dunyoning rivojlanish qonuniyatlari o'ziga ongsiz tarzda yo'l ochadi. Inson o'zini qurshagan dunyo haqidagi barcha bilimlarni pirovard natijada sezgi a'zolari orqali oladi. Biroq ular ayrim soxta g'oyalar, masalan, Yerning yassi tuzilishi, Quyosh Yer atrofida aylanishi kabi g'oyalar manbai hamdir. Bu ko'pincha sezgi a'zolarining ma'lumotlariga ishonchsizlik uyg'otgan, ratsionalistlar bu a'zolarining bilishdagi rolini kamsitishi va bilishda asosiy rolni tafakkur o'ynashini qayd etishiga sabab bo'ladi. Biroq empiriklar bu fikrga e'tiroz bildirib, bilishda xatolarga ko'proq tafakkur yo'l qo'rganini qayd etadilar. Ularning fikricha, hayvon tabiat yo'llaridan chetga chiqa olmaydi: uning motivlari zahirida sezgi a'zolari orqali idrok etiladigan narsalar yotadi. Hayvonlar hech narsani o'ylab topmaydi va shuning uchun ham ular aqlsizlik holatiga tushmaydi. Inson esa har xil xom xayollar qurboni bo'ladi. Sezgi darajasida bilishning rolini mutlaqlashtiradigan va mavhum nazariy tafakkurga ishonmaydigan empirizm ilmiy bilishning rivojlanishiga monelik qiladi. Mutaxassislar fikricha, qadimgi matematiklar, faylasuflar, pifagorchilar, matematikaga irratsional, ba'zan – kasr sonlarining kiritilishiga qarshi chiqqanlar, o'z fikrlarini bu sonlarning noaniqligi bilan isbotlashga harakat qilganlar. Bunday fikrlar yunonlarni algebra-fan sifatida inkor etishga majbur qilgan, bu esa matematikaning analitik metodlari Uyg'onish davriga qadar zamondan orqada qolishining sabablaridan biri bo'lgan. Qadimgi mutafakkirlar sezgida bo'lmagan narsa tafakkurda ham bo'lmaydi deb qayd etgan. Tafakkur jarayoni modellar, sxemalar, tabiiy, sun'iy til va hokazolar ko'rinishidagi sezgi unsurlariga tayanmay ish ko'ra olmaydi.

Tafakkur o'zining asosiy shakllari – tushunchalar, mulohazalar va xulosalar ko'rinishida yuzaga kelgan, rivojlanmoqda va amalga oshirilmoqda.

Tushuncha – narsalar va hodisalarning umumiy, muhim xossa va aloqalari aks etuvchi fikr. Tushuncha – tafakkur, tushunish faoliyatining mahsul. Nafaqat narsalar va hodisalarning umumiy jihatlarini aks ettiradi, balki ularni bir-biridan ajratadi, ular o'rtasida

mavjud farqlarga qarab ularni guruhlaydi, tasniflaydi. Bundan tashqari, biz biror narsa haqida tushunchaga ega ekanligimizni ta'kidlar ekanmiz. Bunda mazkur ob'ektning mohiyatini tushunishimizni nazarda tutamiz. Masalan, «inson» tushunchasi nafaqat muhim umumiy, ya'ni barcha odamlarga xos bo'lgan jihatni, balki har qanday odamning boshqa har qanday narsalardan farqini ham aks ettiradi, mazkur odamning mohiyatini tushunish esa, umuman insonning mohiyati, ya'ni inson haqidagi tushunchaning mazmunini bilishni nazarda tutadi: «Inson – aql, so'zlashish va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan bioijtimoiy mavjudot». Sezgi, idrok va tasavvurlardan farqli o'laroq, tushunchalar ko'rgazmalilik yoki hissiylikdan xolidir. Idrok daraxtlarni, tushuncha – umuman daraxtni aks ettiradi. Tushunchaning mazmunini ko'pincha aniq obraz ko'rinishida tasavvur qilish mumkin emas. Inson, masalan, yaxshi odamni tasavvur qilishi mumkin, biroq u yaxshilik, yomonlik, go'zallik, qonun, yorug'lik tezligi, sabab, qiymat kabi tushunchalar va jarayonlarni sezgi obrazi ko'rinishida tasavvur qila olmaydi. Har qanday fanning barcha tushunchalari haqida shu fikrni aytish mumkin. Ularning ob'ektiv ta'rifi ko'rgazmalilik chegaralaridan tashqarida bilvosita aniqlanadi.

Tushuncha muhim jihatlar va xossalarni aniqlaydi va ularni o'zida mujassamlashtiradi: tushuncha mohiyatning fikrda ifodalangan obrazidir. Shuning uchun ham oz sonli tushunchalar son-sanoqsiz narsalar – xossalalar va munosabatlarni qamrab oladi. Tushunchalar turli davrlarda mazmunan har xil bo'lgan. Ular ayni bir inson rivojlanishining turli darajalarida har xildir. Haqiqiy ilmiy tafakkur madaniyati biron-bir tushunchani aniq ta'rifsiz qoldirmaslikni o'zi uchun qoida deb biladi. Buyuk mutafakkir Suqrot tushunchalarni mantiqiy jihatdan aniq ta'riflash haqiqiy bilimning bosh shartidir, degan edi. Tushunchalar inson ongida ma'lum bog'lanishda, mulohazalar ko'rinishida yuzaga keladi va mavjud bo'ladi. Tafakkur – biror narsa haqida hukm chiqarish, narsaning turli tomonlari o'rtasidagi yoki narsalar o'rtasidagi muayyan aloqalar va munosabatlarni aniqlash demakdir.

Mulohaza – fikrning shunday bir shakli, unda tushunchalarni bog'lash yo'li bilan biror narsa haqidagi biron-bir fikr tasdiqlanadi yoki rad etiladi. Masalan, «Terak – o'simlik» degan shunday bir mulohazaki, unda terak haqida uning o'simlik ekanligi xususida fikr bildiriladi. Tasdiqlash yoki rad etish, soxtalik yoki haqiqiylik,



shuningdek ehtimol tutilgan narsalar bor joyda biz mulohazalarga duch kelamiz. Agar bizning ongimizda faqat tasavvurlar, o'z holicha tushunchalar mavjud bo'lgan va ular bir-biri bilan mantiqan bog'lanmaganida, tafakkur jarayoni ham bo'lmas edi. Ma'lumki, so'zning hayoti faqat nutqda, gapdagina haqiqiydir. Xuddi shuningdek, tushunchalar ham faqat kontekstda «yashaydi». Ayrim tushuncha sun'iy «preparat», masalan, organizmdan ajratib olingan hujayra bilan barobar. Tafakkur – biror narsa haqida xulosa chiqarish demak. Bunda biz mulohaza ko'rinishida ifodalay olmaydigan tushuncha biz uchun mantiqiy ma'noga ega bo'lmaydi. Mulohaza (yoki mulohazalar) – keng ma'noda ifodalangan tushuncha, tushunchaning o'zi esa – toraytirilgan mulohaza (yoki mulohazalar), deb aytish mumkin. Nima yuksakroq - tushunchani yoki mulohaza, degan masala atrofidagi bahslar sxolastik, shuning uchun ham besamardir. Fikrning bevosita, moddiylashtirilgan ifodasi bo'lgan gap mulohazani ifodalashning og'zaki shaklidir. Har qanday mulohaza sub'ektning predikat, ya'ni tavsiflanayotgan narsa yoki hodisa bilan birikuvidir. Shu sababli mulohazalarning mantiqda ko'rilmaydigan turlari sub'ekt, predikat va ular o'rtasidagi aloqaning ehtimol tutilgan modifikatsiyalari bilan bog'liq. Biz: «Olov kuydiradi», deymiz. Bu – mantiqan sub'ekt predikat bilan bog'langan hukm. Olovni ham, kuyishni ham sezish mumkin, biroq ular o'rtasidagi aloqani fikrimiz anglaydi.

Sub'ektning o'zgarishiga qarab mulohazalar, masalan, shaxssiz bo'lishi mumkin: «Tong otyapti», «Kayfiyat yo'q». Yakka, ayrim va umumiy mulohazalar farqlanadi: «Nyuton tortilish qonunini kashf etgan», «Ayrim odamlar yovuz niyatli bo'ladi», «Suyak – faol to'qimalardan biri». Mulohazalar tasdiqlovchi va inkor etuvchi bo'ladi: «Tana kuchni o'simlik sharbatlaridan oladi», «Sayyoralar yulduzlar emas». Tafakkur faqat mulohaza yuritish emas. Tafakkur jarayonida amalda tushunchalar va mulohazalar alohida o'rin to'tmaydi. Ular aqlning yanada murakkabroq harakatlari zanjiri – mushohadaning bo'g'inlari hisoblanadi.

Xulosa – mushohadaning nisbatan tugallangan birligi. Mushohada yuritish jarayonida mavjud mulohazalardan yangi mulohaza – xulosa chiqariladi. Xulosa chiqarish tafakkurning shunday bir amaliki, unda ayrim fikrlarni taqqoslash yo'li bilan yangi mulohaza yaratiladi. Inson narsalarning, xossalari va munosabatlarini teran bilish orqali vaqti vaqti bilan hozirgi zamon chegaralaridan o'tib, sirli kelajakka

nazar tashlashi, hali ma'lum bo'lmagan narsalarni oldindan ko'rishi, yuz berishi ehtimol tutilgan va muqarrar bo'lgan voqealarni bashorat qilishi mumkin.

Tafakkur inertsiyasi amaldagi hayot faoliyati normalari va ko'nikmalaridan voz kecha olmaslikda namoyon bo'ladi. Inertsiya (lotincha inertia- harakatsizlik) fizik jism tinch holatini unga tashqi ta'sir bo'lmaganicha saqlashida; ilgari amalga oshirilgan tashqi ta'sirning davomiyligi; takrorlanuvchi faoliyat birligida; faollikning yo'qligi, passiv turmush tarzining davomiyligida amal qiladi. Demak, "Inertsiya materiya harakatining barcha shakllarida namoyon bo'ladi, shuningdek inson tafakkurida ham". Ba'zida olimlar doimiy takrorlanuvchi faoliyatdan voz kecha a olmaslikni psixologik inertsiya deb nomlaydilar. Tafakkur inertsiyasi ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan u organizmdagi mikroob kabi insonga zarar yetkazmay doim mavjud, ikkinchi tomondan muayyan sharoitda u butun organizmga zarar yetkazib harakatlana boshlaydi. Tafakkur inertsiyasi tafakkur stereotipidan farq qiladi. Insonga har kuni bir xil mazmundagi ma'lumotlarning yetkazilishi oqibatida unda shu ma'lumotlarga ko'nikma hosil bo'ladi bu stereotipning shakllanishini o'zida ifodalaydi, tafakkur inertsiyasi esa tafakkur jarayonining xossasidir. U tafakkurga genetik xos va uning doimiy hamkori. Buni tafakkurning ikki yoqlama xarakteri bilan izohlash mumkin: tafakkur harakatlanuvchi olamni aks ettiradi, harakat esa uzluksizlik va uzluksizlikning birligida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, tafakkur olamni aks ettirishning oliy shaklidir va unda quyi shakllar o'z ifodasini topadi. Tafakkur olamni nafaqat aks ettiradi, balki uni yaratadi ham. Biroq shu yaratish jarayonida ba'zi ko'nikmalardan voz kechishda qiynaladi, bu tafakkur inertsiasini o'zida ifodalaydi. Tafakkur inertsiasini bartaraf etishning yo'llari:

- muayyan masalaga oid yakka hokimlik g'oyalari idan voz kechish, muqobil fikr va g'oyalarga imkon berish;

- o'qitish va o'rganish jarayonida tizimida muqobil vositalardan foydalanish.

Konstruktiv, ya'ni ijobiy tanqidga yo'l ochish va o'z-o'zini tanqid orqali fikr teranligini ta'minlashga erishish. Hozirgi davrda ommaviy axborot vositalari tafakkur inertsiyasi va stereotiplari bilan kurashning eng keng tarqalgan va eng oson usuli sifatida amal qilmoqda.

Bashorat qilish «murakkab narsani oddiy narsaga aylantirish»ning oliy darajasini tashkil etadi. Ilmiy bilim taraqqiyoti ilmiy bashorat kuchining o'sishi va mazkur hodisa chegaralarining kengayishi bilan bog'liq. Bashorat qilish jarayonlarni nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi. Ilmiy bilish nafaqat kelajakni bashorat qilish, balki bu kelajakni ongli ravishda shakllantirish uchun imkoniyat yaratadi. Har qanday fanning hayot mazmunini shunday tavsiflash mumkin: bashorat qilish uchun bilish, ish ko'rish uchun bashorat qilish kerak. Masalan, D.Mendelev yuz yil keyin kashf etilgan kimyoviy elementlarning mavjudligini bashorat qilgan edi.

Intuitsiya – haqiqatni mantiqiy dalillar yordamisiz, bevosita anglab yetish qobiliyatidir. U doim inson aqli va joni birgalikda amalga oshirgan katta ish mahsuli hisoblanadi. Shu ma'noda faqat iste'dodli, mehnatkash va tirishqoq odamlargina intuitiv bilishga qodir. Intuitsiya muammosi falsafa va tabiatshunoslik tarixida har xil, ba'zan bir-birini istisno etuvchi yondashuvlar, nuqtayi nazarlar va tasavvurlar bilan tavsiflanadi. Antik falsafadayoq bu muammo atrofida keskin bahslar bo'lgan. Ioniya falsafasi namoyandalari intuitsiyaga bevosita bilim, sezgi a'zolari orqali bilish shakli deb qaragan bo'lsalar, eley maktabi vakillari, shuningdek Levkipp va Demokrit bevosita bilim va sezgi a'zolari orqali bilishni rad etganlar, sezgilarni soxta deb e'lon qilganlar. Suqrot talqinida intuitsiya «daymoniy» yoki «predmet g'oyasiga egalik»dir. Platon ham hissiy bilishni haqiqat emas deb hisoblagan.

Yangi davrda Dekart, Spinoza, Leybnits intellektual intuitsiya haqidagi ta'limotni yaratdi. Dekart intuitsiya deganda sezgilarning omonat guvohligi va tartibsiz xayolning aldamchi mulohazasiga bo'lgan ishonchni emas, balki teran va zehnli aqlni tushunadi. Spinoza intuitsiyani narsalarning mohiyatini qamrab oluvchi eng ishonchli bilish deb hisoblaydi. Sensualistlar sezgi darajasidagi intuitsiyani targ'ib qiladi va sezgi a'zolari orqali bevosita bilishni birinchi o'ringa qo'yadi. J.Lokk fikriga ko'ra, aql – sezgi a'zolari faoliyatining haqiqiy natijalarini uzluksiz qayd etuvchi ko'zgu, xolos. Bilishning bu tomonini rad etib bo'lmaydi: aql shu tomonga o'z e'tiborini qaratgani zahoti u, xuddi quyoshning yorqin nurlari kabi, o'zini bevosita idrok etishga majbur qiladi. Ikkilanish, shubhalanish, o'rganishga hech qanday o'rin qolmaydi: aql shu zahoti uning yorqin nurlari bilan

to'ladi, isbotlash yoki o'rganishga muhtoj bo'lmaydi, biroq haqiqatni faqat unga o'z e'tibori qaratilganligi tufayli idrok etadi.

XX asr boshida har xil maktablar: jumladan, Gusserlning fenomenologik intuitsiya (reduksiya), Bergsonning intuitivizm, Freyding ong osti intuitsiyasi va boshqa yo'nalishlar yuzaga keldi. Bu maktablar intuitsiyani bilishning instinkt, ong osti hodisasi, diniy e'tiqod va hokazolarni o'zida uyg'unlashtirgan irratsional harakati sifatida tushunadi. Bu yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular dunyoni ilmiy bilishda aqlning, tushunchalar vositasida tafakkurning rolini kamsitadi. Tafakkur o'rniga predmetni keraksiz ratsionalistik mulohazalarsiz «asl holicha» qamrab olish imkonini beruvchi intuitsiya qo'yiladi.

Shunday qilib, o'tmishda faylasuflar intuitsiya deganda insonning haqiqiy borliqni bilish qobiliyatini tushungan, ularning ayrimlari (Spinoza) intuitsiyaga aqlning oliy ko'rinishi sifatida yondashgan bo'lsalar, hozirgi intuitivistlar aqlning, tafakkurning rolini kamsitadilar yoki inkor etadilar, alogizm va mistik irratsionalizمنى targ'ib qiladilar.

Mantiq sifatida tushuniladigan dialektika intuitsiyaning shakllanishi va uning natijalariga tanqidiy yondashilishiga imkoniyat yaratadi. Garchi intuitsiya deduktiv nazariyaning muhim bo'g'inlarini ko'rsatib bersada, u bizni ularni isbotlash zaruriyatidan xalos etmaydi. Bevosita, kutilmagan va anglab yetilmagan bilim sifatida intuitsiya quruq joyda emas, balki vazifalarni yechish, yechimni «intuitiv» topishni belgilaydigan muayyan asoslar mavjud bo'lgan holda yuzaga keladi. Biroq intuitsiya natijalarini bilimning tegishli shart-sharoitlar mavjud bo'lgan sohalarida tekshirish lozim. Masalan, matematika va fizikada olingan natijalarni faqat tajriba o'tkazish yo'li bilan tekshirish mumkin. Intuitsiya – kutilmaganda bevosita olingan bilimdir.

### **Hissiy, empirik va nazariy bilish darajalarining birligi**

Ko'p sonli ma'lumotlar sezgi a'zolari orqali va oqilona bilish nafaqat bir-biri bilan bog'liq, balki bir-birini taqozo etishidan dalolat beradi. Inson ruhiyati bir-birini belgilashning ko'p sonli zanjirlariga ega bo'lgan murakkab tizimdir. Shu sababli, sezgining mazmuni nafaqat tashqi ta'sirlantiruvchi kuch, balki tafakkur, xotira, xayolning holati bilan ham belgilanadi. Sezish va tafakkur mumkin bo'lgan narsalar o'zaro mushtarakdir. Aytaylik, bizni - sariq, yumaloq va

shirin «olma»ning ruhiy obrazi qiziqtiradi. Bu yerda uch tushuncha: rang tushunchasi, geometrik shakl tushunchasi va ta'm tushunchasi aniq-ravshan ko'rinib turibdi. Rang tushunchasi har xil ranglarni qamrab oladi, biroq ayni holda ularning orasida faqat sariq rang mavjud. Ta'm tushunchasi ayni holda «shirin» tushunchasi bilan ifodalangan. Olmaning ruhiy obrazi ko'p sonli tushunchalar va ularning sezgi darajasida aniqlash mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarining kesishuvi sifatida amal qiladi. Agar tushunchalarni chiziqlar, sezgi shakllarini – nuqtalar bilan ifodalasak, har qanday ob'ektning ruhiy obrazi chiziqlar va nuqtalarning kesishish markazi sifatida amal qiladi. Bilishning sezish va tafakkur shakllari kesishish nuqtasida yaxlit bir butun narsani hosil qiladi. «Bu olma»ning yaxlit ruhiy obrazi sifatida «olma» tushunchasi bilan olma haqidagi tasavvurning sintezi amal qiladi. Olma tushunchasi aynan «shu» olmaning yaxlit ruhiy obrazi emas. Olma haqidagi tasavvur olma obrazini yaratmaydi. Faqat birgalikda, bir-biri bilan chatishgan holda olma tushunchasi va olma haqidagi tasavvur «bu olma»ning yaxlit ruhiy obrazini yaratadi.

Sezgi a'zolari orqali va oqilona bilishning birligini ifodalash uchun alohida atama kerak. Antik falsafa va adabiyotda qo'llanilgan «eydos» atamasi, bizningcha, sezgi a'zolari orqali va oqilona bilishning birligini ifodalash uchun eng qulay va aniq atamadir. Eydos «ko'rinish, obraz» degan ma'noni anglatadi. Antik falsafada eydos deganda, ko'pincha tafakkur va ko'rish mumkin bo'lgan narsalar tushunilgan. «Eydos» atamasi odatda sezgi a'zolari orqali va aql bilan bilish mumkin bo'lgan narsalar to'g'risida so'z yuritilgan hollarda qo'llaniladi. Bilish nafaqat sezish va anglash mumkin bo'lgan narsalar, balki eydoslardan ham iborat. Hodisaning eng yaxlit ruhiy obrazi eydosdir.

### **Bilishning empirik va nazariy darajalarini farqlash mezonlari.**

Bilishning nazariy va empirik bilishning darajalarida XX asrning 30-yillarida pozitivizm ta'limotida fan tilini tahlil qilish natijasida empirik va nazariy atamalar ma'nosidagi farqlar aniqlangan. Bu farq tadqiqot vositalariga ham taalluqli. Biroq, bundan tashqari, tadqiqot predmetining xususiyati va uni o'rganish metodlarining har xilligini e'tiborga olib, ilmiy bilishning ikki darajasini ham farqlash mumkin. Bu farqlarni mufassalroq ko'rib chiqamiz. Nazariy va

empirik tadqiqot vositalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Empirik tadqiqot zamirida tadqiqotchining o'rganilayotgan ob'ekt bilan amalda bevosita aloqa qilishi yotadi. U kuzatishlarni amalga oshirish va eksperiment o'tkazishni nazarda tutadi. Shu sababli empirik tadqiqot amalda kuzatish va eksperimentda asboblari, moslamalar va boshqa vositalarni o'z ichiga oladi.

Nazariy o'rganishda tadqiqotchi ob'ektlar bilan amalda bevosita aloqa qilmaydi. Bu darajada ob'ekt faqat bilvosita, amalda emas, balki tafakkur yo'li bilan amalga oshiriladigan eksperimentda o'rganilishi mumkin. Eksperimentlar va kuzatishlarni tashkil etish bilan bog'liq vositalardan tashqari, empirik tadqiqotda tushunchalar apparatidan ham foydalaniladi. Tushunchalar bu yerda ko'pincha fanning empirik tili deb ataladigan alohida til sifatida amal qiladi. Bu til ancha murakkab tuzilishga ega bo'lib, unda empirik atamalar va nazariy til atamalari o'zaro ta'sirga kirishadi. Empirik atamalar empirik ob'ektlar deb nomlash mumkin bo'lgan alohida abstraktsiyalarni anglatadi. Ularni borliq ob'ektlaridan farqlash lozim. Empirik ob'ektlar – bu amalda narsalar xossalari va munosabatlarining ayrim to'plamiga ega bo'lgan abstraktsiyalardir. Borliq ob'ektlari empirik bilishda aniq qayd etilgan va cheklangan belgilar to'plamiga ega bo'lgan ideal ob'ektlar obrazida namoyon bo'ladi.

Nazariy bilishga kelsak, unda boshqa tadqiqot vositalari qo'llaniladi. Bu yerda o'rganilayotgan ob'ekt bilan moddiy, amaliy o'zaro ta'sirga kirishish vositalari mavjud emas. Biroq nazariy tadqiqot tili ham empirik tavsiflar tilidan farq qiladi. Uning negizi sifatida nazariy ideal ob'ektlarni anglatuvchi nazariy atamalar amal qiladi. Ular shuningdek ideallashtirilgan ob'ektlar, mavhum ob'ektlar yoki nazariy konstruktlar deb ham ataladi. Ular borliqning mantiqiy rekonstruksiyalari hisoblanadigan alohida abstraktsiyalardir. Birorta ham nazariya bunday ob'ektlar yordamisiz yaratilmaydi.

Bilishning empirik va nazariy darajalari nafaqat tadqiqot faoliyatining vositalari, balki metodlariga ko'ra ham farq qiladi. Empirik darajada asosiy metodlar sifatida amalda eksperiment o'tkazish va kuzatishdan foydalaniladi. Bu yerda o'rganilayotgan hodisalarni ob'ektiv tavsiflashga qaratilgan empirik tavsiflash metodlari ham muhim o'rin tutadi. Nazariy darajada bilishga kelsak, bu yerda alohida metodlar, chunonchi: ideallashtirish (ideallashtirilgan

ob'ektni yaratish metodi); ideallashtirilgan ob'ektlar bilan nazariy eksperiment o'tkazish; nazariyani yaratishning alohida metodlari (mavhumdan muayyanga yuksalish, aksiomatik va gipotetik-deduktiv metodlar); mantiqiy va tarixiy o'rganish metodlari va hokazolardan foydalaniladi.

Shunday qilib, empirik va nazariy bilimlar bir-biridan predmeti, tadqiqot vositalari va metodlariga ko'ra farq qiladi. Biroq ularning har birini farqlash va alohida ko'rib chiqish abstraktsiyadan iborat. Amalda bilimning bu ikki qatlami doimo o'zaro aloqa qiladi.

### **Haqiqat – bilish nazariyasining bosh kategoriyasi.**

Haqiqat – bilimlarning ob'ektiv borliqqa muvofiq bo'lgan mazmuni. U bilish jarayoni, bilish in'ikosining natijasidir. Haqiqat ilmiy nazariyada mujassamlashgan anglab yetilgan tasdiqlovchi mulohazalar ko'rinishida o'z ifodasini topadi. Har qanday ilmiy nazariya rivojlantirilishi, ba'zan boshqa, yanada haqiqiyroq nazariya bilan almashtirilishi lozim. Shu ma'noda haqiqat – bilish rivojlanishining yakuni va omilidir.

Falsafa tarixida bilimlarning haqiqiyliги muammosi qadimgi davrlardayoq ta'riflangan. "Avesto"da haqiqat oliy sharofatdir deyiladi. Darhaqiqat insoniyat doimo haqiqatga intilgan. Zero, haqiqat adolatga, sharofatga eltadigan buyuk qudrat. Aristotel fikricha, haqiqat – mulohazalar va amaldagi holat o'rtasidagi muvofiqlikdir. Platon haqiqatni g'oyalar dunyosiga mos keluvchi g'ayritabiiy mustaqil ideal mohiyat sifatida tushungan, inson bilimi jonning shu g'oyalar dunyosi bilan mushtarakligi darajasidagina haqiqiydir, deb hisoblagan. Foma Akvinskiy haqiqat yolg'on narsalarda emas, balki aqlda mavjud bo'ladi, har bir narsa o'zi bog'liq bo'lgan aqlga munosabati darajasidagina haqiqiy deb nomlanishi mumkin, deb qayd etgan. Beruniy fikricha, haqiqat bilimning voqelikka muvofiqligidir. Forobiy fikricha, haqiqatni bilish aqlning kamolotiga bog'liq. Bu aql inson qalbidadir, uning kamolotiga esa faol aqlga qo'shilish orqali erishiladi. Faol aqlda borliqning eng oliy darajasi bo'lgan. Shuningdek Forobiy va uning izdoshlari fikricha, haqiqat bir nechta bo'lishi mumkin emas, haqiqat bitta, shu bois falsafa ham bir nechta bo'lishi mumkin emas. Forobiy haqiqatning o'zgarmasligiga ishongan va falsafani haqiqatning birdan bir ifodasi deb hisoblagan.

Haqiqat-tasavvufda ruhni kamolotga va uning so'nggi maqsadi – Yaratganning diydoriga erishuv yo'llaridagi to'rtinchi

bosqichdir. Bunda sufiy shaxs sifatida tugab, Xudoga mo'ljallangan haqiqatga yetishishi, ollobga singib ketishi va natijada abadiylikka erishuvi zarur. Bu jarayon ma'lum davomli vaqtni talab etadi. Maxsus ruhiy, jismoniy harakat, faoliyat, sig'inish, ibodatlar, ohanglar yordamida amalga oshiriladi". Bahovuddin Naqshbandiy haqiqat bu Allohni anglashdir deb hisoblagan. Haqiqat so'fiylar talqinida shariat doirasidan chetga chiquvchi ichki mazmunni anglatadi. Ilk so'fiylar shariat va haqiqat o'rtasida jarlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilganlar. Keyingi so'fiylar, masalan, Abu Bakr az Zakok haqiqat haqidagi fan shariat sari yo'lni oydinlashtiradi deb hisoblaydi. Darhaqiqat, diniy aqidalarni rad etish, odam shariat va tariqat bosqichlaridan o'tib, haqiqatga erishganidan keyingina o'zining «haqiqiy borlig'i»ni kasb etishi, haqiqat bilan birikishi va o'zi ham haqiqatga aylanishi haqidagi ta'limot so'fizm rivojlanishining keyingi bosqichlari mahsuli sifatida vahdati vujud (borliqning birligi), ya'ni mistik panteizm haqidagi ta'limot asoschilari sanalgan Boyazid Bistomiy, Ibn Halloj va boshqalarning asarlarida ilgari surilgan. Gegelda haqiqatni tushunish uning falsafasidagi asosiy tamoyil bilan bog'liq. Bu tamoyilga binoan g'oya o'zining to'liq va muayyan ko'rinishida «o'zida va o'zi uchun borliqqa ega bo'lgan haqiqat»dir. Gegel fikricha, haqiqat o'zining mavhum ko'rinishida muayyan mazmunning o'ziga muvofiqligini anglatadi. Hannonki, bu mazmunning to'liqligiga mutlaq g'oyaning o'z-o'zidan harakati natijasida erishilar ekan, Gegel o'zining haqiqatni tayyor holda berilishi va shu holda cho'ntakka solib qo'yish mumkin bo'lgan zarb etilgan tanga sifatida emas, balki sof tafakkur sohasida bilimlarning dialektik shakllanish jarayoni sifatida tushunish lozimligi haqidagi tezisini ta'riflaydi: «...hamma gap haqiqiy narsani substantsiya sifatida emas, balki shuningdek sub'ekt sifatida», ya'ni tafakkur faoliyati sifatida ham tushunish va ifodalashda .

Haqiqatni ob'ektiv-idealistik tushunishning o'ziga xos xususiyati unga dunyoning ongda aks etish jarayoniga bog'lamasdan qarash va uni insonning ob'ekt haqidagi bilimi xossasi sifatida emas, balki empirik borliqqa qo'shimcha tarzda ob'ektivlashgan qandaydir vaqtdan tashqaridagi g'oyaning xossalari sifatida talqin qilishda namoyon bo'ladi.

Haqiqatni sub'ektiv idealistik tushunish esa inson bilimining xossalari va tarkibi bilan bog'lanadi, biroq mazkur bilim unda tashqi,



mustaqil dunyoning aks etishiga bog'lanmaydi, chunki bunday dunyoning mavjudligi inkor etiladi. Haqiqat «tafakkurning tejamkorligi» sifatida (Max), foydali natijalarga erishish imkonini beruvchi jarayon, tafakkurimiz obrazidagi qulaylik sifatida (Jeyms), inson tajribasining mafkuraviy ta'rifni tashkil etuvchi shakli sifatida (Bogdanov) talqin qilinadi.

Idealizm falsafasi hal qila olmagan haqiqatni tushunib yetishdagi qiyinchiliklar shunga olib keldiki, faylasuflar insonga haqiqatni vahiy vositasida ochuvchi ta'limotni ilgari surdilar. Bu yo'nalish intuitivizm degan nom oldi. Unga Shopengauer asos soldi. U aql va ilmiy bilishning ustuvorligini rad etdi, fanni intuitsiyadan keyingi o'ringa qo'ydi. Ilmiy izlanish intuitsiyaga asoslanadi, demak, unga bog'liq bo'ladi va bo'ysunadi. Shopengauerning qarashlarini Bergson rivojlantirdi. U intuitiv bilimning ustunligini himoya qilar ekan, qumursqalarning instinktiv xulq-atvoriga ishora qiladi, ya'ni instinkt – intuitsiyaning bir turi, degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha, qumursqalar haqiqatni darhol – tug'ilgani zahoti anglab yetadi. Buni aql tushunishga qodir emas. Aql faqat munosabatlarni bilish bilan shug'ullanadi. Narsalarning mohiyatini faqat instinkt tushunishga qodir. Inson texnikasi qay darajada qudratli bo'lmasin, u qumursqa osongina bajaradigan ishni uddalay olmaydi. Bergson aqlga ishonmaslik va ko'proq intuitsiyaga tayanishni maslahat beradi. Garchi inson intuitsiyasi qumursqalarning intuitsiyasi darajasida kuchli bo'lmasa-da, har qalay, uning aqlidan kuchliroqdir, chunki aql «hayotni organik tushunish bilan tavsiflanadi». Bergson intuitsiyaga aqlga qarama-qarshi turuvchi instinkt nuqtayi nazaridan yondashadi va uni haqiqatdan ustun qo'yadi.

Haqiqatni aniqlashga intilish ilmiy bilishga xos belgi hisoblanadi. Haqiqatni aniqlashga intilish olimni borliq quvonchlaridan voz kechish va o'zini to'la fanga baxshida etishga majbur qiladi.

Bilish nazariyasining muhim muammosi sanalgan haqiqat asoslari muammosi «haqiqat» tushunchasining etimologiyasini aniqlashga da'vat etadi. U ikki yarim ming yildan ko'proq tarixga ega bo'lsa-da, uning atrofida bahslar hanuz to'xtagani yo'q. Platon haqiqiy bilim – epistemani fikr – doxdan farqlashni tavsiya qilgan. Aristotel haqiqat tushunchasining keyinchalik «klassik» deb nomlangan ta'rifini taklif qilgan: haqiqat – bu fikr va predmetning, bilim va

borliqning muvofiqligidir. Hozirgi g'arb adabiyotlarida haqiqatning klassik konsepsiyasi muvofiqlik nazariyasi deb yuritiladi.

Ob'ektiv haqiqat – bilimlarimizning insoniyatga bog'liq bo'lmagan mazmuni tushuniladi. Bu biluvchi sub'ektning miyasidan tashqarida ob'ektiv haqiqatni o'zida mujassamlashtirgan bilim qatlam mavjud, degan ma'noni anglatmaydi. Bu faqat sub'ektning noto'g'ri tasavvuri haqiqatga hech qanday ta'sir ko'rsatmasligi, balki tushunib yetilayotgan ob'ektning o'zi bilan belgilanishini anglatadi. Bizning bilimlarimizda doim yo muayyan odamga, yo muayyan ijtimoiy guruhga bog'liq bo'lgan unsur mavjud bo'ladi. Binobarin, o'z bilimlarimizda sub'ektiv unsurlarga bog'liq bo'lmagan va shu sababli ob'ektiv hisoblanadigan mazmuni qayd etishimiz lozim. Ob'ektiv haqiqat rivojlanib, ikki shakl: nisbiy va mutlaq haqiqat shakllarida amal qiladi.

Haqiqatni tushunchaning predmetga, fikr va borliqqa oddiy muvofiqligi deb emas, balki tafakkurning faoliyatdan ajratish mumkin bo'lmagan predmet bilan mos kelish jarayoni deb tushunish lozim.

Haqiqatni jarayon sifatida tushunish haqiqat doimo muayyan ekanligini tushunishni o'z ichiga oladi hamda mutlaqlik va nisbiylik jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Mutlaq haqiqat – predmetni kelajakda to'ldirilishi yoki unga aniqlik kiritilishi mumkin bo'lmagan tarzda to'la, mukammal bilishdir. Olam vaqt va makonda cheksizligi tufayli bunday bilimga amalda erishish mumkin emas. Haqiqat tushunchasini mutlaq haqiqat tushunchasi bilan tenglashtirib, biz unga erishib bo'lmazligi, demak, umuman bilish mumkin emasligi haqida gapiramiz. Biroq fanning haqiqiy tarixi buning teskarisidan dalolat beradi: fan rivojlanadi, chunki u nisbiy va mutlaq bilimning birligi sifatida tushuniladigan haqiqatni bilishga qodir. Boshqacha aytganda, ob'ektiv haqiqat to'la va mukammal ko'rinishdagi mutlaq haqiqatdir. Ayrim hollarda, agar haqiqat vaqt o'tishi bilan o'zgarib, ya'ni vaqt shart-sharoitlariga bog'liq bo'lmasa, u boqiy haqiqat deb ataladi. «Mutlaq haqiqat» atamasi uch xil ma'noda keladi.

1. U aniq mukammal bilimni, «so'nggi instantsiyadagi haqiqat»ni, ayrim o'ziga xos gnoseologik idealni anglatadi. Shu ma'noda haqiqat bilishning biron-bir darajasida ro'yobga chiqmaydi, unga erishib bo'lmaydi, u – metafora.

2. Mutlaq haqiqat tushunchasini bir variantni (o'zgarmas) xususiyat kasb etuvchi elementar bilimlarga nisbatan tatbiq etish mumkin. Ular «boqiy haqiqatlar» deb ham ataladi. Masalan Alisher Navoiy 1441-yilda tug'ilgan, kimyoviy element atom og'irligiga ega va sh.k.

3. Mutlaq haqiqat deganda fanning keyingi rivojlanish jarayonida o'zining mazmunini saqlab qoladigan va rad etilmaydigan, balki faqat muayyanlashtiriladigan va yangi mazmun bilan boyitiladigan bilim tushuniladi. Masalan: Eynshteynning nisbiylik nazariyasi Nyutonning klassik mexanika qonunlari kashf etilganidan so'ng kashf etildi. Bu – «mutlaq haqiqat» atamasining eng muhim ma'nosi. Yaxlit bilim tizimi bilimning mutlaqo haqiqiy elementlarini hamda qayta ko'riladigan va rad etiladigan nisbatan haqiqiy elementlarini o'z ichiga oladi.

Nisbiy haqiqat – borliqni asosan to'g'ri aks ettirsa-da, obraz ob'ektga uncha mos emasligi bilan ajralib turadigan bilim. Nisbiy haqiqat to'g'ri, biroq noto'liq, taxminiy, vaqt va joyning muayyan tarixiy shart-sharoitlari bilan cheklangan haqiqatdir. Nisbiy va mutlaq haqiqat bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Nisbiy haqiqatlar bilish taraqqiyoti jarayonida rivojlanib, o'z chegarasi bo'lgan mutlaq haqiqatga yaqinlashadi.

Biroq bilishning tarixiy rivojlanish jarayoni nafaqat nisbiy haqiqatlarning mutlaq haqiqatga aylanish jarayoni, balki ayrim mutlaq haqiqatlarning yuzaga kelish jarayoni hamdir. Bu fikrni fizikada atom va uning tuzilishi haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi misolida ko'rish mumkin. Yuz yil muqaddam fiziklar va ximiklar atomlar amalda mavjud va ajralmas sharchalar ko'rinishida, deb taxmin qilar edilar. Bu tasavvur zahirida mutlaq haqiqat unsurlari mavjud edi. Bundan: «Kimyoviy elementlarning atomlari amalda mavjud», degan xulosa kelib chiqadi. Fizika va kimyoning keyingi rivojlanishi mutlaq haqiqatning bu elementini bekor qilmadi. Biroq bu tasavvurlarda xatolar mavjudligi (taranglik, ajralmaslik va h.k.) aniqlandi. XIX asr oxirida elektronlar kashf etilishi natijasida atom tuzilishining yangi manzarasi yaratildi. Tomson musbat zarralar va manfiy zaryadli elektronlardan tashkil topgan atom modelini yaratdi. Atomning bu nisbatan haqiqiy manzarasida mutlaq haqiqatning yangi unsurlari paydo bo'ldi: Darhaqiqat atom musbat zaryadli zarralardan iborat.

Nisbiy va mutlaq haqiqat dialektikasi bizning bilimimiz atrofimizdagi olamni har tomonlama va aniq qamrab olishga intilib, qarama-qarshiliklarni yechib, ob'ektiv borliqni yanada teranroq va mukammalroq aks ettirishini ko'rsatadi.

Haqiqatning korrespondent, kogerent va pragmatik konsepsiyalari mavjud. Haqiqatning korrespondent konsepsiyasi nazariyaning tajribada olingan ma'lumotlarga muvofiq bo'lishini talab qiladi. Bu talab fanda qabul qilinadi, u taklif qilinayotgan gipoteza fan sohasiga taalluqli yoki taalluqli emasligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kogerent (nazariy) konsepsiya eksperimentga muvofiq bo'lishi, unga zid kelmasligi, uning natijalarini bashorat qilish imkonini berishi lozim. Masalan, neopozitivistlar eksperimentni nazariya to'g'ri ekanligining mukammal tavsifi deb hisoblaganlar. Nazariya eksperimentda tekshiriladi, verifikatsiya qilinadi: u yo mazkur sinovdan muvaffaqiyat bilan o'tadi, yo o'tmaydi; u yo to'g'ri, yo noto'g'ri. K.Popper bu fikrda kamchilik topdi: hamonki nazariyalar ertami, kechmi inkor etilar, falsifikatsiya qilinlar ekan, ularning eksperimentga avvalgi muvofiqliklari amalda haqiqiy sinov hisoblanmaydi. Popperga e'tiroz bildirish mumkin: agar nazariya eksperimentda olingan ayrim ma'lumotlar bilan ziddiyatga kirishgan bo'lsa, bu nazariyadan mazkur ma'lumotlarni sharhlash uchun foydalanish mumkin emas, biroq u boshqa eksperimental ma'lumotlar uchun o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Fanda yangi nazariya eskisini doim ham istisno etavermaydi. Fizikada ba'zi bir fizik hodisalarni talqin qilish uchun Nyuton mexanikasidan hozirgacha foydalaniladi. Vaholanki, u eng yangi fizik nazariyalar bilan rad etilgan. Nyuton mexanikasi nisbiylik nazariyasi va kvant fizikasining ayrim, nisbatan sodda ko'rinishi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Haqiqatning pragmatik konsepsiyasida amaliyot mezoni to'g'ridan-to'g'ri eksperiment tushunchasi bilan bog'lanadi. Biroq ilmiy amaliyot faqat eksperimentdan iborat emas, u fanda qo'llaniladigan butun maydonni, uning inson uchun hayotiy ahamiyatini qamrab oladi. Shuni hisobga olganda, insonning butun hayoti, uning fandan amalda foydalaniladigan barcha jabhalari fanning haqiqiylikini sinash maydoniga aylangan, fanning murakkab xususiyati uni talqin qilishga jiddiy talablar qo'yadi. Fan san'at, dinga, inson hayotining boshqa sohalariga zid emasmi? Fan insoniyatni

pirovard natijada halokatga olib kelmaydimi?, degan savollar fanning haqiqatni bilish jarayonida shakllangandir.

### **Isbotlash va rad etish**

Fanning aksariyat qoidalari sezgi a'zolari orqali bilish darajasida va boshqa haqiqatlardan alohida emas, balki mantiqiy tafakkur darajasida, boshqa haqiqatlarga bog'langan holda, ya'ni isbotlash yo'li bilan haqiqiy deb qabul qilinadi. Isbotlash – ilmiy tafakkurning muhim vositasi. Har qanday isbotda tezis, isbotlash uchun asoslar (dalillar) va isbotlash usuli mavjud. Haqiqiyliги yoki soxtaligi isbotlash yo'li bilan aniqlanayotgan qoida tezis deb ataladi. Tezisning soxtaligini aniqlash rad etish deb ataladi. Isbotlashda foydalanilayotgan va isbotlanayotgan tezisning haqiqiyliğini ko'rsatayotgan barcha qoidalar asoslar yoki dalillar deb ataladi. Asoslar va dalillar ishonchli dalillar haqidagi qoidalar, ta'riflar, aksiomalar va ilgari isbotlangan qoidalardan tashkil topadi.

Qoidaning haqiqiyliğini isbotlash u yaxshi tekshirilgan dalillar haqidagi qoidalardan bevosita kelib chiqishini ko'rsatish demakdir. Dalillar haqidagi fikrlar o'zaro bog'liq holda qaralgan taqdirdagina isbotlash uchun asos bo'lish mumkin. Isbotlash uchun asoslar jumlasiga mazkur fan asosiy tushunchalarining ta'riflari kiradi. Bu mazkur fanning barcha tushunchalari ta'riflanishi lozim degan ma'noni anglatmaydi. Ta'riflash – noma'lumni ma'lumga, murakkabni soddaga bog'lash demak. Isbotlanayotgan tezis tayanadigan isbotlash uchun asoslar qatoriga fanning asosiy tushunchalari ta'riflari va aksiomalardan tashqari tezisni asoslash uchun zarur bo'lgan fanning ilgari isbotlangan qoidalari ham kiradi. Fan o'z qoidalarining dalil-isbotlarini qancha ko'p rivojlantirsa, har bir yangi qoidani isbotlash uchun oldingi asoslar soni shuncha ko'payadi.

V.F.Asmus fikriga ko'ra, asoslar va ulardan chiqarilgan xulosalarning aloqasi, agar u isbotlanayotgan tezisning haqiqiyliги tan olinishiga olib kelgan bo'lsa, isbotlash usuli deb ataladi. Fanning ayni bir qoidasini isbotlash har xil, masalan, deduktsiya, induktsiyaga, analogiyadan foydalanishga, modellashtirishga asoslangan bo'lishi mumkin.

### **Emotsiyalar, iroda, ishonch, ideal**

Hodisalar va holatlar ahamiyatini bevosita his etish emotsiyalar deb ataladi. Ijobiy emotsiyalar – lazzatlanish, quvonch, hayrat, muhabbat va sh.k. Salbiy emotsiyalar – qo'rquv, hayqiqish,

nafrat, qayg'u va sh.k. Insonning emotsiyalar dunyosi juda murakkab bo'lib, uni psixologiya atroflicha o'rganadi. Falsafiy jihatdan emotsiyalarni ekzistentsializm ko'proq o'rgangan bo'lib, bu yerda ekzistentsial deganda ko'pincha vaziyatli emotsiyalar (kuchli ruhiy hayajonlanish, ehtiroslar) emas, balki inson borlig'ining barqaror strukturalari tushuniladi. Inson emotsiyalariga uning butun hayot tajribasi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan bir so'z bilan ifodalangan qisqacha xabar inson o'limiga sabab bo'lgan hollar ma'lum.

Iroda inson ruhiyatining har xil shakllari orasida – sub'ektning o'z faoliyatini o'zi tartibga solishi muhim ahamiyatga ega. Kant va Fixte uchun iroda axloqiy tamoyillarni ro'yobga chiqarish manbai, inson amaliy faoliyatining negizi hisoblanadi. Shopengauer va Nitsshе uchun iroda – borliqning irratsional impul'si. Bu yerda iroda ruhiyat doirasidan butunlay chiqariladi.

Ishonch insonning qadriyatlari va mo'ljallari dunyosida biron-bir narsa yoki hodisani haqiqiy deb qabul qilishida muhim ahamiyatga ega. Ishonchga shubha zamin hozirlaydi, u bir qancha ruhiy holatlar natijasida ishonchga aylanadi. Ilohiyotchilardan farqli o'laroq, faylasuflar shubha va ishonchning o'zaro nisbatiga ko'proq e'tibor beradilar. Diniy e'tiqod odatda vahiyning bevosita mahsuli sifatida isbotlashga muhtoj emas deb qaraladi. Shveytsariyalik taraqqiyparvar ilohiyotchi Karl Bart e'tiqodning isboti uning o'zida deb hisoblagan. Faylasuf Karl Yaspers uchun falsafiy e'tiqod – falsafiy mushohada yuritish natijasidir.

Ideal – pirovard kelajakning muayyan obrazi emas, balki qayta ko'rilishi mumkin bo'lgan har xil nazariy va boshqa tasavvurlarning kelajakka qaratilgan majmui. Ideal doim ham pirovard maqsadning ustunligiga bog'lanmaydi. Muayyan pirovard maqsadning ustunligi, ayniqsa, agar u olis kelajakda bo'lsa, utopiyaga olib keladi. Ayrim utopistlar erkinlikning ustunligini tan oladi, boshqa utopistlar bu o'ringa adolatni qo'yadi, utopistlarning uchinchi toifasi faqat ijtimoiy mulkni tan oladi, to'rtinchi toifasi esa, aksincha, xususiy mulkni hamma narsadan ustun qo'yadi. Xullas, ideal yaratish, agar unga yetarli darajada mas'uliyat bilan yondashilmasa, utopiyaga olib keladi. Ayni vaqtda, ideal yaratish – inson yutuqlarining muhim negizi.

### **Bilish natijalarini baholash**

Baholash yo'li bilan inson olingan bilimning haqiqiyligi yoki soxtaligi, undan amaliy faoliyatda foydalanish mumkin yoki mumkin

emasligini aniqlanadi. U olingan bilim keyingi bilish jarayonida ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligini belgilaydi, uning insonga va shaxsning ma'naviy faoliyatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini aniqlaydi. Shu sababli baholash uchun asos sifatida nafaqat gnoseologik, balki amaliy, mafkuraviy va axloqiy mezonlar amal qiladi. Olim o'z faoliyatida nafaqat o'zining metodlari va ilmiy faoliyati natijalarini baholaydi, balki ularga ilmiy jamoatchilik, hokimiyat, din namoyandalarining munosabatiga qarab mo'ljal oladi. Umuman olganda, har qanday bilish haqiqatni izlashdir. Bu inson aqlining azaliy vazifasidir. Bilimlarimizning haqiqiyliги muammosi bilish faoliyatining har qanday turlarida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bilimning haqiqiyliги uning muhim asosi hisoblanadi. Haqiqat – bilishning mutlaq qadriyati.

### **Bilishning ma'naviy qadriyatlari**

Har qanday ilmiy tadqiqotda ma'naviy qadriyatlar va me'yorlar mavjuddir. Ilmiy metod negizini ob'ektivlik va oqilonalik kabi an'anaviy ma'naviy qadriyatlar tashkil etishi lozim. Ob'ektivlik olim tadqiqot me'yorlarini tanlashga nisbatan vijdonan yondashishi, shaxsiy manfaatdorlikni siqib chiqarishi, haqiqatni guruh manfaatlaridan ustun qo'yishini nazarda tutadi. Ayrim ilmiy konsepsiyalar eskirishiga qarab o'ziga xos «timsol» belgilarini kasb etadi. Eskirgan konsepsiyalardan voz kechish ko'pincha ularni yaratuvchilarning qarshiligini bartaraf etish bilan bog'liq. Olim ba'zan fanda inqilobga yo'l ochuvchi yangi g'oyalarni afzal ko'rishga o'zida kuch topa olmay, eskicha yondashuvlar asiri bo'lib qolishi mumkin. Bilim va haqiqat amalda ayniy tushunchalardir. Bilish – narsalarning haqiqiy holatiga mos keluvchi ishonchli axborotga ega bo'lish demak. Haqiqiy bilimga erishish mumkinmi? Qanday bilimni haqiqiy deb hisoblash mumkin? Bilim haqiqiyliгining ob'ektiv va mutlaq mezonlari mavjudmi? Bu savollarga javoblar fan va falsafaning rivojlanishiga doimo yo'ldosh bo'lgan. Masalan, Aristotel haqiqatni borliq bilan tenglashtirgan. Uning fikricha, o'zgarmas narsalargina haqiqiydir, haqiqat borliqning oliy shaklidir. Skeptitsizm vakillari, aksincha, bilimning predmetga muvofiqligi masalasi bahsli bo'lib, uni isbotlash mumkin emas, chunki bilishni chalg'ituvchi yoki unga monelik qiluvchi omillar mavjud, deb hisoblaganlar. Bilimning nomuvofiqligi sabablari bilish ob'ektining tarkibida bo'lishi mumkin. Dunyo shu darajada cheksizki, inson o'z tafakkuri bilan uni qamrab

olishga qodir emas. Haqiqiy bilimga erishishga biluvchi sub'ektning xossalari ham monelik qilishi mumkin. Inson sezgi a'zolarining aldamchiligi va ishonchsizligi antik davrdayoq qayd etilgan edi. Keyinchalik Yum. Berkli va uning izdoshlari insonning sezgilar dunyosini mutlaqo sub'ektiv deb ko'rsatdilar va shu yo'l bilan insonning sezgi a'zolariga ishonchsizlik bildirdilar.

Verifikatsiya tamoyiliga binoan dunyo haqidagi har qanday fikrning haqiqiyliги pirovard natijada uni sezgi a'zolari orqali olingan ma'lumotlarga taqqoslash yo'li bilan aniqlanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan parapsixologiyaning «energiya», «biomaydon» kabi tushunchalari mantiqqa ega emas, chunki ular verifikatsiyalanmaydi. Bu tamoyilni e'lon qilgan pozitivistik falsafa go'yoki bilishda ahamiyatga ega bo'lmagan falsafiy tushunchalarni ilmiy muomaladan chiqarishga harakat qilgan. Biroq mazkur tamoyil izchil qo'llanilgan holda sezgi a'zolari orqali olingan ma'lumotlar bilan tasdiqlanmaydigan ko'pgina nazariy qoidalarni ham ilmiy muomaladan chiqarish kerak bo'ladi.

Falsifikatsiya tamoyiliga ko'ra amalda sinash va rad etish mumkin bo'lgan nazariyalar ilmiy hisoblanadi. Nazariy tizimlarning falsifikatsiyalanish mezonini Karl Popper taklif qildi. U verifikatsiya bilan falsifikatsiya o'rtasida nomutanosiblikning mavjudligini mezon sifatida qaragan: agar verifikatsiya qilish uchun oqibatlarining cheksiz soni tasdiqlanishi lozim bo'lsa, falsifikatsiya qilish uchun bitta qarshi misolning mavjudligi kifoya. Amalda falsifikatsiyalanish talabi inson bilimi natijalariga nisbatan tanqidiylik talabining muayyanlashtirishidir. Krititsizm fan ruhini eng oqilona ko'rinishda ifodalaydi.

### **Yolg'on va yanglishish haqiqatning qarama-qarshisi**

Yolg'on odatda noto'g'riligi ayon bo'lgan tasavvurlarni bila turib haqiqat darajasiga ko'tarish sifatida tushuniladi. Yolg'on kundalik va ijtimoiy hayotda keng tarqalgan bo'lib, odamlar o'zaro aloqa qiluvchi hamma joyda uchraydi; u individlar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarining «uchrashuvi» yuz beradigan har qanday insoniy munosabatlar funksiyasidir. Gap yolg'on mavjud yoki mavjud emasligida emas (oddiy hayot tajribasi uning mavjudligidan dalolat beradi), balki har bir muayyan holda uning ulushi qanchaligidadir. Beruniy fikricha "Shunday kishilar bo'ladiki, ularning tabiatiga yolg'on xabar tarqatish o'mashib qolib, go'yo unga shu vazifa yuklatilgandek bo'ladi va yolg'on xabar tarqatmasdan



turolmaydi. Ba'zan kishi yolg'on xabar tarqatuvchiga taqlid qilib, bilmasdan yolg'on xabar tarqatadi. Bu xabarchilar birinchi marta ataylab yolg'on xabar tarqatgan kishi bilan eng keyin yolg'on xabarni eshituvchi oraliqda vositachi bo'ladilar. Yolg'onchilik kishini adolatdan yuz o'girtiradi, zulm, yolg'on guvohlik, omonatga xiyonat qilish, boshqalar mulklarini hiyla bilan bosib olish, o'g'irlik, dunyo va xalqning buzilishiga sabab bo'ladigan boshqa yomon xulqlarni kishilar yaxshi qilib ko'rsatadilar". Beruniy insonni rostgo'ylik qilib, yolg'onchilik yo'lidan yurmasligi, boshqalarga yaxshilik qilish, yaxshilik qilish imkoniyati bo'lmasa, yaxshi tilaklar izhor qilishga chorlaydi. Rostgo'ylik, odillik Beruniy fikricha, yuksak ma'naviyat, go'zal odob – axloq belgisidir.

Insonning individual rivojlanish jarayonida yolg'on bolada jazodan qutulib qolishga harakat qilish, kattalar o'rnagi va shu kabilar orqali shakllanadi. Keyinchalik bunga jamiyat kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Insonni bu tomonga itaruvchi omillar majmui orasida ehtirosalar, shu jumladan, muhabbat tobora kengroq o'rin egallay boshlaydi. Muhabbat «son-sanoqsiz yolg'onni vujudga keltiradi. Oshiq odam o'zining narxini oshirish uchun yolg'on so'zlaydi, o'z raqibining obro'sini tushirish uchun, rashk o'tini yoqish uchun... so'vib borayotgan muhabbat otashini qayta o't oldirish uchun aldaydi, nihoyat, muhabbat yo'qolgan holda yolg'on gapiradi». Yolg'on takabburlik, irodasizlik, muvaffaqiyatga intilish, pulga, hokimiyatga o'chlik va hokazolar zaminida yuzaga keladi.

Yolg'on individlar uchun ijobiy ma'noda ham muhimdir (bu jihatdan o'layotgan odam to'shagi oldida yolg'on gapirish hollari diqqatga sazovor). Lekin yolg'on ko'pincha o'zgalar hisobidan va ularning manfaatlariga zid ravishda qandaydir afzalliklarni qo'lga kiritish bilan bog'liq. Yolg'onni yashash uslubiga aylantirgan odamlar ham bor.

«Xayrixoh bo'lgan holda, yolg'on gapirmay sizga ozor yetkazishi mumkin bo'lgan odamni, siz xohlagan va kutgan javobni berish o'rniga, sizni xafa qilishdan cho'chimay, haqiqatni yuzingizga aytgan odamni samimiy deb hisoblash mumkin. Lekin samimiy odamni uning o'z xatolarini tan olish jasoratiga ko'ra farqlash mumkin, ya'ni rostgo'y odam o'zining nomaqbul qilmishiga hech qanday vaj-korsonlarsiz iqror bo'ladi, deb aytish mumkin. Yolg'onga

bunday iqror bo'lishni afzal ko'rish – rostgo'ylikning shak-shubhasiz mezonidir».

Yanglishish – o'z predmeti bilan mushtarak bo'lmagan, unga mos kelmaydigan bilim. Haqiqat yoyilishi va teranlashuvining barcha bosqichlarida uning doimiy va zaruriy hamrohi yanglishishdir. Haqiqat nima va uni yanglishishlardan (Bekon ta'бири bilan aytganda, «tafakkur butlari»dan) qanday qilib xalos etish mumkin, degan savollar odamlarni (faqat fan sohasidagina emas) doim qiziqtirib kelgan. Haqiqat va yanglishish kategoriyalari bilish nazariyasidagi yagona bilish jarayonining ikki qarama-qarshi, lekin bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki tomonini ifodalovchi asosiy kategoriyalardir. Bu tomonlarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularni quyida ko'rib chiqamiz. Bilimning noto'g'ri shakli bo'lgan yanglishishning bosh manbai ijtimoiy-tarixiy amaliyot va bilishning cheklanganligi, norasoligi yoki zaifligidir. Yanglishish o'z mohiyatiga ko'ra borliqning ayrim jihatlarni bilish natijalarining mutlaqlashtirilishi natijasi sifatida yuzaga keluvchi borliqning noto'g'ri in'ikosidir. Masalan, «nazariy astrologiya», garchi unda haqiqatning ayrim unsurlari mavjud bo'lsa-da, umuman olganda yanglishish hisoblanadi. Xuddi shuningdek ilmiy astronomiyada ham yanglishishlar mavjud, lekin umuman olganda bu kuzatishlar jarayonida o'z tasdig'ini topgan haqiqiy bilim tizimidir.

Yanglishishlar o'z shakllariga ko'ra rang-barangdir. Ilmiy va noilmiy, empirik va nazariy, diniy va falsafiy yanglishishlarni farqlash lozim. Xususan, falsafiy yanglishishlar orasida empirizm, ratsionalizm, sofistika, eklektika, dogmatizm va relyativizm mavjud. Yanglishishni yolg'ondan – haqiqatni g'arazli maqsadlarda ataylab buzib ko'rsatish va bu bilan bog'liq bo'lgan soxta bilim berish, dezinformatsiyadan farqlash lozim. Yanglishish bilim xususiyati bo'lsa, xato – individning inson faoliyati muayyan jabhasidagi noto'g'ri harakatlari natijasidir: hisoblashdagi, siyosatdagi, turmushdagi xatolar va h.k. Mantiqiy xatolar – (formal yoki dialektik) mantiq tamoyillari va qoidalarini buzish va predmetni, ishlarning asl holatini bilmaslik bilan belgilanuvchi haqiqiy xatolar farqlanadi.

#### **Amaliyot haqiqatning mezon**

Bilishning negizini amaliyot tashkil etadi. Bu insonning butun bilish jarayoni sezgilardan boshlab ilmiy mavhumliklarga qadar

ijtimoiy-amaliy faoliyat asosida rivojlanishi, uning ehtiyojlari va muvaffaqiyatlari bilan belgilanishi va yo'lga solinishini anglatadi.

Amaliyot mazmuni va shakllariga ko'ra, moddiy ne'matlar yaratish; ijtimoiy-siyosiy faoliyat; ilmiy-amaliy faoliyat kabi turlardan iborat. Shuningdek amaliyot odamlar ijtimoiy-tarixiy faoliyatining rang-barang shakllarini qamrab oladi. Ijtimoiy amaliyot ehtiyojlari doim bilish rivojlanishining negizi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida amal qiladi. Yer maydonlarini o'lchash, vaqtni hisoblash, savdoda hisob-kitoblarni amalga oshirish zarurati matematik bilimlarning rivojlanishiga yo'l ochdi. Binolar, ariqlar, to'g'onlar, kemalar, mashinalar va hokazolarni qurish ehtiyojlari mexanikaning rivojlanishiga olib keldi. Ijtimoiy amaliyot bilishning negizi hisoblanishi haqida so'z yuritganda ilmiy bilish jarayonining nisbatan mustaqil ekanini unutmash kerak. Zero, amaliyot bilan bilish murakkab bilvosita xususiyatga ega. Bilishning har bir bosqichida ilmiy tafakkurning oldingi rivojlanish jarayonida shakllangan muammolar yechiladi. Shu sababli fanning u yoki bu yutuqlarini u yoki bu tarixiy davrning amaliy tajribasi va ehtiyojlariga bog'lashga urinish xato bo'lur edi. Inson tafakkuri doimo oldingi avlodlardan olingan bilimlar majmui va fanning oldingi rivojlanish jarayonida qo'yilgan muammolar bilan ish ko'radi. Fan bu muammolarni yechib, amaliyotdan o'zishi va unga ongli ravishda yo'l ko'rsatishi mumkin va lozim.

Amaliyot – odamlarning tarixan shakllangan ehtiyojlarini qondirish uchun u yoki bu ob'ektni o'zgartirish maqsadiga ta'sir ko'rsatish faoliyatidir. Bilishga nisbatan amaliyot uch xil vazifani bajaradi. Birinchidan, u bilishning manbai, harakatlantiruvchi kuchi sifatida bilishga umumlashtirish va nazariy o'rganish uchun zarurni material beradi. Shu tariqa amaliyot bilishni oziqlantiradi va real hayotdan uzoqlashishga yo'l qo'ymaydi. Ikkinchidan, amaliyot bilimlarni tatbiq etish sohasidir. Shu ma'noda u bilishning maqsadidir. Uchinchidan, amaliyot bilish natijalarining haqiqiyiligini tekshirish mezonidir. Bilishning amaliyot sinovidan o'tgan natijalarigina amalda ob'ektiv ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, amaliyot – barcha bosqichlarda bilishning shakllanish va rivojlanish negizi, bilim manbai, bilish jarayoni natijalarining haqiqiyiligi mezondir. Tajriba tushunchasi har xil ma'noga ega: tajriba (empiriya) mavhum fikr yuritishga qarshi qo'yiladi va shu ma'noda u kuzatish va eksperimentni qamrab oladi.

Hayot tajribasi, mashina haydash, ma'ruzalar o'qish va shu kabilar ma'nosidagi bilim va ko'nikmalar darajasi ham tajriba deb ataladi. Ilmiy tadqiqot predmetini tanlashga, bilimning rivojlanish yo'nalishi va sur'atlariga, uning yutuqlaridan foydalanish xususiyatiga juda ko'p ijtimoiy omillar, chunonchi: moddiy ishlab chiqarish ehtiyojlari: ijtimoiy-siyosiy hayot; jamiyatning iqtisodiy tizimi; hukmron dunyoqarash xususiyati; ijtimoiy ongning turli shakllari; ishlab chiqarish, texnika, ma'naviy madaniyat, maorifning rivojlanish darajasi, shuningdek ilmiy bilishning ichki mantig'i ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar orasida moddiy ishlab chiqarish ehtiyojlari birinchi o'rinda turadi. Ular bilish oldiga muayyan tadqiqot vazifalarini qo'yadilar. Ishlab chiqarish ilmiy bilish natijalarining asosiy foydalanuvchisi va bilish texnika vositalari – asboblari, moslamalarni yetkazib beruvchi hisoblanadi. Ilmiy ijodagi muvaffaqiyat nafaqat olimning iste'dodi, zehning o'tkirligi bilan, balki kerakli texnik jihozlarning mavjudligi bilan ham belgilanadi. Aynan texnikaning rivojlanishi fanni eksperimental va mantiqiy o'rganishning qudratli vositalari bilan ta'minlaydi. Masalan, elektromagnit va atom o'rganish jarayonlari jamiyat ishlab chiqarish rivojlanishining fandagi bu hodisalarni bilish uchun zarur vositalar bilan ta'minlanganlik yuksak darajaga yetganidan keyingina tadqiqot predmetiga aylandi. Amaliyot nafaqat jamiyat uchun zarur bo'lgan hodisalarni aniqlaydi, balki insonni qurshagan narsalar va hodisalarni o'zgartiradi, ularning shu paytgacha insonga ma'lum bo'lmagan va shu sababli o'rganilmagan tomonlarini aniqlaydi. Nafaqat dunyoviy jismlar, balki biz o'zgartirmaydigan osmon jismlari ham ongimiz va idrokimiz qarshisida saf tortadi va dunyoda mo'ljal olish vositalari sifatida hayotimizga kirib kelishiga qarab anglab yetiladi.

Ilmiy bilish tarixi biron-bir kashfiyot amalda qo'llanilishi natijasida bilishning tegishli sohasi jadal sur'atlarda rivojlana boshlashini, texnikaning rivojlanishi fanda inqilob yasashini ko'rsatadi. Amaliyot zamirida nafaqat tabiat haqidagi fan, balki jamiyat haqidagi fanning rivojlanishi ham yotadi.

Inson – faol mavjudot. Yunoncha «praktikos» so'zi faol degan ma'noni anglatadi. Shuningdek amaliyot insonning faoliyatidir. Inson faoliyati sifatida amal qiladigan hamma narsa amaliyotdir. Til, madaniyat va uning ko'p sonli tarkibiy qismlari amaliyot turlaridir. Ko'pincha amaliyot deganda moddiy amaliyot, ya'ni vositasi va mahsuli

sifatida predmetli moddiy dunyo amal qiladigan faoliyat tushuniladi. Biroq moddiy amaliyot ham amaliyot turlaridan biri, xolos.

Antik jamiyatda jismoniy mehnatni bajarish qullarning vazifasi hisoblangan. Hatto san'atga ham past nazar bilan qaralgan. Amaliyot haqidagi ta'limot (praksiologiya) axloq, yaxshi xulq haqidagi ta'limot sifatida amal qiladi. Axloqni o'rganish antik falsafaga ham, qadimgi hind falsafasiga ham xos. Amaliyotni axloqiy tushunish an'anasi butun jahon falsafasi orqali o'tadi. Qadimgi manbalardan biri "Avesto"da amaliyot inson moddiy va ma'naviy hayotini yaxshilashga intilishida namoyon bo'ladi. Jumladan, mehnat qilib, boylik yaratib, tashlandiq joylarga ishlov berib, sug'orib obod qilgan sut, go'sht, don yetishtirib, farovonlikni ta'minlagan dehqonlar, chorvadorlar, bog'bonlar ovchilar, hunarmandlar ulug'langan. Asarda "Kimki ham chap qo'li va ham o'ng qo'li bilan yerga ishlov bersa, u yerga foyda keltiradi" deb ta'kidlanadi.

Diniy ta'limotlarga ko'ra inson faoliyati Xudoning unga bergan in'omidir. Xudo o'zida oliy fazilatni ifoda etadi. Xudo insonni yaxshilik sari yetaklaydi, biroq bu yo'ldan borish uchun nafs balosini yengish lozim. Xristianlikda mehnatga Xudo insonga yuborgan la'nat sifatida qaragan. Faoliyatning asosiy shakli Xudoga xizmat qilish, ya'ni sig'inish, ibodat qilish va shu kabilar bilan bog'langan.

Markaziy Osiyo mutafakkiri Beruniy fikricha, inson amaliy faoliyatining biron bir sohasi ularning o'zaro ta'sirisiz amalga oshmaydi.

Yangi davrda sxolastikaga qarshi kurashda falsafaning amaliyotga qaratilganligi ingliz faylasuflari (Bekon, Gobbs, Lokk) tomonidan qayd etildi. Hayotga tatbiq etiladigan falsafani yaratishga urinish aqlning qudratiga asoslanadi. Darhaqiqat, yangi davr falsafasida tafakkur faoliyatning haqiqiy shakli sifatida qaraladi.

Xususan, amaliy faoliyat insonning tirikchiligini yengil-lashtirish va yaxshi maqsadlarga, ayniqsa odamlar o'rtasida murosai madoraga erishishga qaratilishi kerak. Kant bu fikrni rivojlantiradi: u yaxshi maqsadlarga intilishni emas, balki asosiy axloqiy qonunni amalga oshirishni eng katta yutuq deb hisoblaydi. Maqsad muammosi mavjud narsalar sohasida emas, balki bo'lishi kerak bo'lgan narsalar sohasida yechiladi. Shu munosabat bilan ko'p sonli aksiologik (qadriyatlar bilan bog'liq) muammolar yuzaga keladi.

Kant aql darajalari tushunchasini muomalaga kiritdi: nazariy aql narsalar dunyosi haqida mushohada yuritadi; faqat amaliy aql ob'ektlarni kuzatish chegaralaridan o'tadi va shuning uchun ham u nazariy aqldan ustun turadi. Amaliy aql xohish-iroda sifatida, amaliyot esa – axloqiy-odilona faoliyat sifatida amal qiladi. Kant amaliyotni maqsad, erkinlik, xohish-iroda, axloq kategoriyalari orqali tavsiflaydi. Gegel amaliyotni sub'ektiv yondashuvdan xalos etish yo'lida dadil qadam tashlagan. U o'z e'tiborini vosita kategoriyasiga qaratadi. Gegel fikriga ko'ra, vosita maqsaddan «mavjud borliqning umumiy-ligi» bilan ustun turadi. Sub'ektiv narsalar yakka, vosita esa umumiy-dir. Gegel uchun mehnat insonning o'z-o'zini yaratishidir, biroq u inson, ishlab chiqarish vositalari emas, balki mutlaq ruh mantiqini ro'yobga chiqaradi. Mutlaq ruh yaxlit holda nazariya va amaliyotda o'zining mavhum ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Amaliyot nazariy bilishdan ustun turadi, chunki u nafaqat umumiylik, balki mavjudlik fazilatiga ham egadir. Gegelning ob'ektivning sub'ektivdan, amaliy-ning nazariydan, vositaning maqsaddan ustunli-giga italyan faylasufi va siyosiy arbobi Gramshi amaliyot falsafasi deb nomlagan marksizm yaqin turadi.

XX asr G'arb falsafasining ko'pgina yo'nalishlari uchun amaliyot o'z erkinligini loyiha va tanlash imkoniyatida ro'yobga chiqaradigan (Sartre) xohish-irodali (pragmatizm), oqilona (neopozitivizm) mavjudot sifatida tushuniladigan individning faoliyatidir. Gusserl falsafasida amaliyot inson faolligining barcha shakllarini o'zida mujassamlashtiradi, biroq falsafiy tahlil ulardan sof bilim, nazariyani ajratib oladi. Ayni shu bilim tahlil predmetiga aylanadi. Xaydegger uchun insonning «dunyoda borligi» narsalar bilan muomala qilish demakdir. Ijtimoiy-amaliy soha haqiqiy borliqqa ega emas, unda insoniyat inqirozining manbalari mavjud. Marksizmda amaliyotning tarixiy vazifasi yaxshilik va yomonlik dialektikasini ro'yobga chiqarishdan iborat deb tushuniladi. Marksistlar taklif qilgan dunyoni qayta qurish dasturi ularning fikricha ijtimoiy-axloqiy xususiyatga ega bo'lgan kommunistik ideallarga erishishga qaratilgan.

Demak, falsafada amaliyotga yaxshi maqsadlarga erishish sifatida yondashish an'anasi mavjud. Faylasuflar asosan amaliyotni tor praktitsizm, hamma narsadan bevosita moddiy naf ko'rish yo'sinida tushunishga moyil emaslar. Faylasuflarning qiziqishi umumiy ahamiyatga molik qadriyatlarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan. «Maq-

sad vositalarni oqlaydi» degan tezisni Kant ham, Gegel ham tanqid tig'i ostiga olgan. Yaxshilikka qaratilmagan vositalardan foydalanish muqarrar tarzda yomon maqsadlarga erishilishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, amaliyot turli falsafiy yo'nalishlarda har xil talqin qilinadi. Amaliyot kategoriyasi keng va tor ma'noda yo insonning har qanday faoliyati, yo uning faqat moddiy faoliyati sifatida tushuniladi.

Amaliyotning tarkibiy qismlari 1) maqsad; 2) maqsadga muvofiq faoliyat; 3) amaliyot vositalari; 4) amaliy harakat ob'ekti; 5) harakat natijasi kabilar. Maqsad sub'ektga yoki odamlar guruhiga xos. Maqsad – erishish mo'ljallangan kelajakning sub'ektiv obrazi. Pirovard maqsad muqarrar tarzda muayyan predmetlarga bog'lanadi, deb o'ylash yaramaydi. Insonning chegara bilmas intilishi bilan tavsiflanadigan ideal ham maqsad bo'lishi mumkin. Maqsad haqidagi falsafiy ta'limot teleologiya deb ataladi. Amaliyot o'z maqsadlarini ko'zlovchi odamning faoliyatidir. Shu sababli u maqsadga muvofiq faoliyat hisoblanadi.

Bu faoliyatning o'zi maqsad timsoli sifatida amal qiladi. Bu yerda sub'ekt muqarrar tarzda g'ayri niyatni emas, balki kuchni tan oladigan tabiat bilan to'qnashadi. Inson tabiatga tabiiy kuch sifatida qarshi turadi. Tabiatda inson o'z maqsadini ro'yobga chiqaradi.

Maqsadga erishish uchun ishga sotinadigan hamma narsa amaliyot vositasi deb ataladi. Bu nafaqat mashinalar, mehnat qurollari, balki odamlarning bilimlari va hayot tajribasi hamdir. Harakat qaratilgan narsa amaliyot ob'ekti deb ataladi. Faoliyat mahsulotda to'xtaydi, maqsad ro'yobga chiqadi. Ro'yobga chiqqan maqsad maqsad emas. Imkoniyat borliqqa aylanadi; amaliy harakat bajariladi. Amaliy harakatlar estafetasi inson amaliyoti, uning faol hayotini tashkil etadi. Dunyodagi barcha narsalar va hodisalar kabi amaliyot ham u yoki bu darajada rivojlangan shakllarda mavjud bo'ladi. Nafaqat ijtimoiy ishlab chiqarish, balki insonning har qanday faoliyati amaliyot hisoblanadi. Masalan, individual tafakkur jarayoni ham amaliyotdir. Amaliyotda nafaqat ishchi va muhandis, balki siyosatchi, olim, xullas, har bir odam ishtirok etadi. Agar tabiiy jarayonlar inson faoliyati sohasi bilan bog'liq bo'lmasa, ular amaliyot sohasiga kirmaydi. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish lozimligi to'g'risida ko'p so'z yuritiladi, demak, nazariya amaliyotga zid bo'lishi mumkin. Boshqa bir yondashuvga ko'ra, yaxshi

nazariyadan amaliyroq narsa yo'q. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi soxta tafovutni bartaraf etish emas, balki amaliyotni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish muhim vazifadir. Samarali ish ko'radigan sub'ekt va jamiyat yaxshi amaliyotchidir.

Amaliyot shakllariga kelsak, ular inson faoliyatining tarkibiga muvofiq ancha ko'p. Masalan, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy hayot amaliyoti, san'at va fan amaliyoti, til amaliyoti va hokazolar bor. Falsafa amaliyotga kategoriyalar, ya'ni amaliyotning barcha shakllariga xos bo'lgan umumiy jihatlar nuqtayi nazaridan yondashadi.

Amaliyot va bilish yaxlit bir butunni tashkil etadi. Falsafada amaliyot deganda inson ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'zini qurshagan dunyoni yoki uning ayrim qismlarini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Amaliyotning asosiy shakli mehnat bo'lib, uni amalga oshirish jarayonida inson tabiat bilan to'qnashadi. Shuningdek, boshqaruv amaliyoti, siyosiy, ijtimoiy amaliyot va amaliyotning boshqa shakllari farqlanadi. Xo'sh, amaliyotning bilish bilan aloqasi qanday?

Birinchidan, amaliyot bilishning sarchashmasi, negizi, uni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Amaliyotning muayyan ehtiyojlari insoniyatning bilishga bo'lgan ehtiyojlari va vazifalari, umuman faoliyat turi sifatidagi bilishning o'zi yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Masalan, Qadimgi Misrda ziroatchilik geometriya va matematika paydo bo'lishini rag'batlantirgan, kemachilik va savdo ishi esa astronomiya va boshqa fanlarning rivojlanishiga turtki bergan. Amaliyot jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi muammolar (masalan, koinotni o'zlashtirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va b.)ga duch kelib, bilishning yangi tarmoqlari rivojlanishini ta'minlagan. Masalan, XX asrda kosmik tibbiyot, kristallografiya, genetika va boshqa fanlar vujudga keldi. Ikkinchidan, amaliyot o'zining muhim ehtiyojlari bilan birga bilishning maqsadi hamdir. Inson bilimlari ulardan o'z kundalik turmushda foydalanish uchun mo'ljallangandir. Biroq ular buyumlar va tovarlar, mehnat qurollari yaratiladigan sanoatda birinchi darajali ahamiyatga ega. Masalan, D.Mendelev jadvali va unda ifodalangan ma'lumotlarsiz hozirgi kimyo sanoatini tasavvur qilish mumkin emas. Kundalik hayotdan mustahkam o'rin olgan televidenie va radio fizika va boshqa fanlarda erishilgan yutuqlar mahsulidir. Agar bilimlarga amaliyotda hojat bo'lmasa, ular o'z ijtimoiy ahamiyatini yo'qotishi



mumkin. Binobarin, amaliyot bilimlar izchil qo'llaniladigan ulkan sohadir. Uchinchidan, amaliyot inson bilimlari va tasavvurlarining haqiqiyliги mezonі (ko'rsatkichi)dir. U ilmiy gipotezalar va nazariyalarning (masalan, Quyosh tizimsining boshqa sayyoralarida hayot borliги haqidagi farazning) aniqligini tekshirishning muhim usuli hisoblanadi. Biroq bunda mazkur mezon o'zining nomukammalligi tufayli universal (umumiy) emasligini e'tiborga olish lozim. Zotan, dunyo haqidagi g'oyalar va taxminlarning barchasini ham amalda sinash mumkin emas. Shu sababli fan bilimlarning haqiqiyliğini asoslash uchun, masalan, mantiqiy isbotlash kabi usullardan foydalanadi.

Xulosalar. Inson bilimining jadal sur'atlarda rivojlanishi ijod qilishni taqozo etadi. Ijodiy faoliyat hamda ta'lim metodlarini o'rganish haqidagi fan evristika deb ataladi. Ilmiy davralardagi suhbatlar, fikrlar almashinuvi, munozaralar, muammoli vaziyatlar tahlili – shaxsning ma'naviy, ijodiy qobiliyati rivojlanishiga ko'maklashadi.

Intuitsiya va ijodni formal mantiq vositalari yordamida tavsiflash mumkin emas, biroq evristik metodlar orqali sub'ektning iste'dodi, xotirasi, zehni, tasavvurini safarbar etishni talab qiluvchi yangilik ustida izlanishlar olib boriladi.

Haqiqat bilishning mezonidir. Inson amaliy faoliyati haqiqatni aniqlashga yo'naltirilgan. Biroq haqiqat yolg'on bilan yonma-yon turadi. Yolg'on inson hayotining tarkibiy qismi sifatida amal qiladi.

Amaliyot va bilishning rivojlanishi u yoki bu yanglishishlar ertami, kechmi bartaraf etilishi: yo sahnadan tushishi (masalan, «abadiy dvigatel» haqidagi ta'limot kabi), yo haqiqiy bilimga aylanishi (alximiyaning kimyoga aylanishi)ni ko'rsatadi. Yanglishishlarni yuzaga keltirgan ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish va takomillashtirish, ijtimoiy-tarixiy amaliyotning yetukligi, bilimning rivojlanishi va teranlashuvi yanglishishlarni bartaraf etishning muhim omillaridir. Bu esa borliqqa nisbatan apologetik (himoyalovchi-oqlovchi) yondashuvni emas, balki konstruktiv-tanqidiy yondashuvni, «sinovlar va xatolar» metodini amalga oshirishni (Popper) taqozo etadi.

### **Tajihaviy amaliy matnlar**

Gnoscologiya, epistemologiya, empirizm, idrok, pertseptsiya, transtsendental, optimizm, skeptitsizm, agnostitsizm, bilim shakllari, mehnat, amaliyot, sezgi, idrok, xotira, xayol, tasavvur, empirik bilim, kuzatish, eksperiment, mulohaza, xulosa, intsuitsiya, evristika.

induktiv tafakkur, Haqiqat, amaliyot falsafasi, amaliyot vositalari, bilish va amaliyotning o'zaro nisbati.

### **Bilim va ko'nikmalarni baholash mezonlari**

1. Haqiqat – mulohazalar va amaldagi holat o'rtasidagi muvofiqlikdir, deb e'tirof etgan faylasuf kim?
  - A. Aristotel
  - B. Platon
  - C. Suqrot
  - D. Demokrit
2. Haqiqatni tushunishda intuitivizmga asos solgan faylasuf kim?
  - A. Shopengauer
  - B. Kant
  - C. Fixte
  - D. Nitsshe
3. Bilimlarimizning insoniyatga bog'liq bo'lmagan mazmuni?
  - A. Ob'ektiv haqiqat
  - B. Sub'ektiv haqiqat
  - C. Mutloq haqiqat
  - D. Nisbiy haqiqat
4. Predmetni kelajakda to'ldirilishi yoki unga aniqlik kiritilishi mumkin bo'lmagan tarzda mukammal bilish bu - ...
  - A. Mutlaq haqiqat
  - B. Nisbiy haqiqat
  - C. Ob'ektiv haqiqat
  - D. Sub'ektiv haqiqat
5. Borliqni asosan to'g'ri aks ettirsa-da, obraz ob'ektga uncha mos emasligi bilan ajralib turadigan bilim, bu - ...
  - A. Nisbiy haqiqat
  - B. Ob'ektiv haqiqat
  - C. Sub'ektiv haqiqat
  - D. Mutlaq haqiqat

### **Esse mavzulari**

1. Bilish darajalarining o'zaro aloqadorligi
2. Muammo va muammoli vaziyat nazariy bilish shakli
3. T.Kunning paradigmalari nazariyasi
4. M. Polani shaxsiy bilimning o'ziga xos xususiyatlari haqida
5. Sharq Falsafasida haqiqat masalasi
6. G'arb mutafakkirlari ijodida haqiqat masalasi

### **Adabiyotlar:**

1. Shermuxamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi. –Toshkent: Universitet, 2005.
2. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi. Toshkent: O'FMJ, 2010
3. Shermuxamedova Stil nauchnogo myshleniya.Tashkent: UFMJ, 2015. 143 s.
4. Soifnazarov I. Qasimov. B. Nikitchenko G. Ilmiy ijod metodologiyasi.-Toshkent: Yangi avlod, 2004
5. Qurbonova L. Ijodiy tafakkur. –Andijon: AnDU, 2009
6. Farmak I.P. Voobrajenie v strukture poznaniya. – Moskva: 1994.
7. Иьин V.V. Teoriya poznaniya. Epistemologiya. M.: 1994.
8. Kochergin A.N. Metody i formy nauchnogo poznaniya. M.: 1990.
8. Svinov V.I. Zablujdenie, loj, dezinformatsiya // Filosofskie nauki. 1982. №1.
9. Popper K. Loj i istina nauchnogo znaniya. Moskva: Znanie, 1993.
10. Verejnoj S.B. Kategorii "bytie", "nichto", "istina" kak predmet sravnitel'nogo analiza: Martin Xaydegger i buddiyskaya ontologiya : avtoreferat dis. ... kandidata filosofskix nauk : 09.00.01 / MGU Moskva: 2007.
11. Izzetova E. Nauchnoe znanie v svete gumanitarnyx idealov. – Karshi, 2001.
12. Babaev B.D. Dialektika teoreticheskogo i empiricheskogo v nauchnom poznanii. – Toshkent: 1992.
13. Kamilova S. Nauchnaya problema v strukture nauchnogo znaniya. – Toshkent: Fan, 1984.
14. Tulenova K. Nauchnoe predvidenie. –Toshkent: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi, 1998.

## FALSAFANING METOD, QONUN VA KATEGORIYALARI

### **Metod, metodologiya va metodika tushunchalari**

Metod (yunon. methods - usul) keng ma'noda yo'l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma'nolarni anglatadi. Metod u yoki bu shaklda ma'lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig'indisi hamdir. U tamoyillar, talablar tizimi bo'lib, sub'ektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohasida ma'lum natijalarga erishish sari yo'naltiradi. U haqiqatni izlashda vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo'l bilan yetishishga yordam beradi.

Metod metodikada konkretlashadi. Metodika daliliy materiallarni yig'ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir. U metodologik tamoyillardan farq qilsada, ularga asoslanadi.

Metodologiya ikki asosiy mazmunga ega - faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san'atda va h.k.); tizim haqidagi ta'limot yoki nazariyasi. Metodologiya faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta'minlovchi boshqa vositalarni ham o'rganadi. Tamoyil, qoida va ko'rsatmalar, shuningdek, kategoriya hamda tushunchalar mana shunday vositalar jumlasiga kiradi. Nomuvoziy, beqaror dunyo sharoitlarida voqelikni metodologik o'zlashtirishning o'ziga xos vositalarini ajratish fan rivojlanishining «postnoklassik», deb nomlangan hozirgi bosqichida ancha dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo'llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmlari va shakllarini o'rganadi. Demak, metodologiya metodlar yig'indisi va faoliyat turi haqidagi ta'limotdir.

Metod u yoki bu shaklda ma'lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig'indisi hamdir. U tamoyillar, talablar tizimi bo'lib, sub'ektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohasida ma'lum natijalarga erishish sari yo'naltiradi. U haqiqatni izlashda vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo'l bilan yetishishga yordam beradi.

### **Quyida metodlarni ta'riflaymiz**

Metodning asosiy vazifasi faoliyatning bilish va boshqa shakllarini boshqaruvdan iborat. Biroq metod va metodologik muammalarning rolini inkor qilish yoki to'g'ri baholamaslik; metodning ahamiyatini bo'rttirish, mutlaqlashtirish, uni barcha masalalarning

kali, ilmiy yangiliklarni yaratishning eng qulay vositasi (metodologik eforiya), deb tushunish noto'g'ridir. Har qanday metod muayyan nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Har bir metodning samaradorligi uning chuqur mazmun va mohiyatga egaligi, nazariyaning fundamentalligi bilan asoslanadi. O'z navbatida, metod mazmuni kengayib boradi, ya'ni bilinning chuqurlashishi va kengayishi, tajribaga tatbiq etilishi bilan metodning ko'lami ham o'zgaradi.

Ilmiy bilishda nafaqat ilmiy natija (bilimlar majmui) va predmetning mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo'l, ya'ni metod ham haqiqiy bo'lmo'g'i lozim. Shunga ko'ra, predmet va metodni birbiridan ayri holda tushunish mumkin emas. Har qanday metod u yoki bu darajada real hayotiy jarayonlarda shakllanadi va yana unga qaytadi. Metod har qanday tadqiqot boshlanishida to'la holda namoyon bo'lmasa-da, ma'lum darajada predmetning sifat o'zgarishi bilan har safar yangidan shakllanadi.

Metod sub'ekt bilan chambarchas bog'liqdir. Boshqacha qilib aytgan-da, "inson umum metodologiyani markazidir" (Feyerbax). Ikkinchidan, har qanday metod y yoki bu darajada boshqaruv quroli vazifasini bajaradi. Metod sub'ekt va ob'ektning murakkab dialektikasi asosida rivojlanadi va bunda oxirgisi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu ma'noda, har qanday metod, eng avvalo, ob'ektiv, mazmunli va konkret bo'lsada, ayni paytda, sub'ektiv hamdir. Biroq u faqat mavjud qoidalar tizimi emas, balki ob'ektiv ilmiylikning davomi sifatida namoyon bo'ladi.

Metodlar turli mezonlar asosida klassifikatsiya qilinadi. Eng avvalo, ma'naviy, g'oyaviy, ilmiy moddiy va amaliy faoliyat metodlari farqlanadi.

Fan tarixida metodlar yangi nazariyalarni yaratish jarayonida shakllanadi. Yangilik yaratish san'ati yangiliklar jarayonida kamol topadi. Dastlabki tadqiqot tajribada shakllanar ekan, metod tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi, amaliyot bilan nazariyani bog'lovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Metod va nazariyaning uzviy aloqasi ilmiy qonunlarning metodologik rovida o'z aksini topadi. Har qanday fanga oid qonun insonni voqeliqdagi narsa va hodisalarni shu fanga mansub sohaga mos fikrlashga undaydi. Masalan, energiyani saqlanish qonuni bir vaqtning o'zida metodologik tamoyil bo'lib, y oliy nerv

faoliyatining reflektorlik nazariyasi, hayvonlar va inson axloqini tadqiq qilishning metodlaridan biri hamdir.

Metodlar umumiylik va amal qilish doirasiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi. Ular: fan metodlari xususiy ilmiy metodlar umumiy tadqiqot metodlari Fanlararo tadqiqot metodlari, falsafa metodlari, Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari kabilardir. Quyida ularning mazmunini tahlil qilamiz.

Fan metodlari – ma'lum fan tarmog'iga kiruvchi yoki fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan muayyan fan sohasida qo'llaniladigan usullar tizimi. Har bir fundamental fan, mohiyat-e'tibori bilan, o'z predmetiga va o'ziga xos tadqiqot usullariga ega bo'lgan sohalar majmuidir. Fanda tanlangan metod tadqiqotning taqdirini hal qiladi. Aynan bir daliliy materialni turli metodlar asosida o'rganish ziddiyatli xulosalarga olib kelishi mumkin. Ilmiy bilishdagi to'g'ri metodni xarakterlar ekan. F.Bekon uni yo'lovchining yo'lini yorituvchi chiroq bilan qiyoslaydi. Noto'g'ri yo'ldan bora turib, y yoki bu masalani hal qilishda muvaffaqiyatga erishishga umid qilish mumkin emas. Zero nafaqat natija, balki unga eltuvchi yo'l ham to'g'ri bo'lmog'i lozim. Fan metodlari bilish jarayonidagi roli va o'rni nuqtayi nazaridan: formal, empirik, nazariy tadqiqot, izohlash, shuningdek, boshqa metodlarga ajratiladi. O'z navbatida, bilishning sifat va son, bilvosita va bevosita original hamda faoliyatli metodlari ham mavjud. Metodlarni tanlash va turli metodik tadqiqot faoliyatida qo'llash o'rganilayotgan hodisa tabiati va qo'yilgan vazifalar bilan xarakterlanadi.

Xususiy ilmiy metodlar – materiya harakatining asosiy shakliga mos bo'lgan muayyan fanda qo'llaniladigan bilish usullari, tamoyillari, tadqiqot usullari va tartib-taomillari majmui. Mexanika, fizika, kimyo, biologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodlari shular jumlasidandir. Xususiy fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari moddiy ifodasini topgan bilish vositalari: mikrofizikada zarralarni tezlatgichlar, tibbiyotda a'zolar faoliyatini qayd etuvchi turli o'lchagichlar va shu kabilar hozirgi zamon metodologik tadqiqotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Umumilmiy tadqiqot metodlari falsafa bilan maxsus fanlarning fundamental nazariy-metodologik qoidalari o'rtasida o'ziga xos «oralik metodologiya» bo'lib xizmat qiladi. Umumilmiy tushunchalar qatoriga ko'pincha «axborot», «model», «tuzilma»,

«funksiya», «tizim», «element», «oqilonalik», «ehtimollik» singari tushunchalar kiritiladi.

Birinchidan, bir qancha xususiy fanlar hamda falsafiy kategoriyalarning alohida xossa, belgi va tushunchalari umumilmiy tushunchalarning mazmuniga «singdirib» yuborilganligi, ikkinchidan, (falsafiy kategoriyalardan farqli o'laroq) matematik nazariya va simvolik mantiq vositalari bilan ularni formallashtirish, ularga aniqlik kiritish mumkinligi umumilmiy tushunchalarning o'ziga xos jihatlaridir.

Agar falsafiy kategoriyalar umumiylikning mumkin bo'lgan eng yuqori darajasi – muayyan umumiy darajani o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, umumilmiy tushunchalarga ko'proq umumiy mavhum (bir xil) daraja xoski, bu ularni mavhum-formal vositalar yordamida ifoda etish imkonini beradi. Falsafaning asosiy masalasini (to'la hajmda) yechishda «ishtirok etish» sharti muayyan «tafakkur shaklini yaratish»ning «falsafiyligi», «dialektikligi» darajasini aniqlashning muhim mezonidir. Umumilmiy metodlar qatoriga tizimli va strukturaliy-funksional, kibernetik, ehtimoliy yondashuvlar, modellashtirish, formalizatsiya hamda boshqalar kiradi.

Fanlararo tadqiqot metodlari - asosan fan sohalari tutashgan joyda amal qiladigan (metodologiyaning turli darajasi elementlarini birlashtirish natijasida yuzaga kelgan) bir qancha sintetik va integrativ usullar majmui. Mazkur metodlar kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi.

Falsafa metodlari bevosita amaliy faoliyat bilan bog'liq. Falsafaning eng qadimgi keng tarqalgan metodlardan biri dialektika bo'lsa, ikkinchisi metafizikadir. Biroq falsafa metodlari bular bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda uning sofistika, eklektika, analitik, (hozirgi zamon analitik falsafasi), intuitiv, fenomenologik, sinergetik, germenevtik (tushunish) va boshqa turlari ham mavjud. Endilikda turli metodlarni birlashtirish jarayoni ham ro'y bermoqda (masalan, Gadamer germenevtikani ratsional dialektika bilan birlashtirishga harakat qiladi).

Dialektika (yunon. dialektika – bahs, suhbat) tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti qonuniyatlari hamda ularning asosida shakllanadigan umumiy tafakkur uslubi va amaliy faoliyat haqidagi ta'limotdir. U grek tilida bahs va suhbatlashish san'ati, degan ma'noni anglatadi. Dastlab dialektika bahslashish, munozara qilish san'ati

sifatida tushunilgan, bunda fikrlar, qarashlar qarama-qarshiligi vositasida haqiqatning tagiga yetish maqsadida muammoni o'zaro manfaatdor muhokama qilishga qaratilgan munozara nazarda tutilgan. Tom ma'noda dialektik - bu savol berish va javob qaytarishga usta odam, deb hisoblangan.

Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo'li va usuli sifatida talqin etganlar. Hozirgi davrga kelib dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, o'zaro aloqadorlik va bog'liklikda, taraqqiyot va rivojlanishda, deb tushunishga asoslanadi. Unga ko'ra, olamda o'z o'rni va joyiga, yashash vaqti va harakat yunalishiga ega bo'lgan barcha narsalar va voqealar bir-birlari bilan bog'liq va aloqador tarzda, bir-birlarini taqozo etadigan, doimiy takrorlanib turadigan bog'lanishlar orqali namoyon buladi. Masalan, insoniyat tarixida bu usulga yondashilganida, u uzluksiz tarzda ro'y beradigan avlodlar o'rin almashuvi, birining o'miga ikkinchisi kelishi, muayyan qadriyatlarini meros qoldirishi va yangilikning eskilikni inkor qilishidan iborat doimiy va takrorlanib turadigan jarayondir. Bashariyatning muayyan davrida esa, shu vaqtning ijtimoiy manzarasini belgilaydigan turli urug' yoki qabilalar, davlat, millat va xalqlar, oqim va yo'nalishlar, g'oya va mafkuralarning xilma-xil shakllarini ko'rish, ularning bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo'lishini kuzatish mumkin.

Taraqqiyot jarayonida avlodlar, davrlar, siyosiy tuzumlar, umuman ijtimoiy voqea va hodisalar o'z-o'zidan avtomatik tarzda sodir bo'lib, nom-nishonsiz yo'qolib ketmaydi. Balki ularning barchasi insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabatlarning xosilasi, ijtimoiy jarayonlarning natijasi, biror sababning oqibati sifatida namoyon buladi. Bir davr ikkinchisining o'miga, bir avlod oldingisidan keyin, bir voqea boshqasining ortidan sodir bo'lib turadi. Ana shu abadiy va azaliy uzluksizlik, doimiy aloqadorlik, vaqtning orqaga qaytmasligi va voqealarning ketma-ketligi tarzidagi bog'lanishlar, rivojlanish va taraqqiyot, olamning rang-barangligi va uyg'unligi dialektikaning asosiy tamoyillarini tashkil qiladi.

Falsafada mazkur tamoyillarga asoslangan tafakkuri — dialektik tafakkur, ana shunday dunyoqarashni — dialektik dunyoqarash, yondashuvni — dialektik yondashuv, metodni — dialektik metod deb atash an'anaga aylangan. Shu bilan birga, u yoki bu olimning ushbu tamoyillarga asoslanadigan dunyoqarashi, falsafiy ta'limotlari



ham bor. Masalan, Demokrit va Geraklit, Kant yoki Gegelʼs dialektikasi deyilganda ana shunday hol nazarda tutiladi.

"Dialektika" soʻzi paydo boʻlishiga qadar antik falsafada mazmuniga koʻra dialektik bulgan nazariyalar shakllana boshlagan. Oʻtmish mutafakkirlar oʻz vaqtida dunyoning yagona birligi soʻkinlik, bu bir butunlik ichida doimiy uzluksiz oʻzgarishlar, yaratish jarayoni sodir boʻluvchi koinot haqidagi fikrlarni ilgari surganlar. Ular koinotni oʻzgaruvchanlik va barqarorlikning ziddiyati sifatida tasavvur qilganlar. Borliqning umumiy oʻzgaruvchanligi bir narsaning ikkinchi narsaga – yerning suvga, suvning havoga, havoning olovga, olovning efirga aylanishi va qayta takrorlanishi bilan xarakterlanadi, deb hisoblaganlar.

Dialektik metod yangi davrda, xususan, nemis falsafasida, ayniqsa, Kant, Fixte, Shelling va Gegel tomonidan yanada chuqurroq tahlil qilingan. Dialektik metod predmetlarda emas, balki munosabatlarda oʻz aksini topgan. Bu cheksizlik haqidagi gʻoyani qayta ishlash bilan bogʻliq edi. Cheksizlik gʻoyasining yangicha talqini paradoksal nazariya shaklida namoyon boʻldi. Bu Kantning planetar tizimlarning tumanlikdan paydo boʻlganligi haqidagi gipotezani yaratishi bilan bogʻliq. Bilish nazariyasida Kant ikki mulohazaning ziddiyatligi antinomiyasini ochib tashlar ekan, bunda har ikkalasini yetarli asosga ega, deb hisoblaydi. Masalan: 1. Dunyo vaqtda boshlangʻich nuqtaga ega va vaqtda cheklidir. 2. Dunyo vaqtda boshlangʻich nuqtaga ega emas va vaqtda cheksizdir. Kant ziddiyatlarga eskicha, yaʼni inson aqlining illyuziyasi sifatida qaraydi. U bu ziddiyatlarni yangi nazariya yaratish jarayonida kashf qiladi, biroq undan qutilish yoʻlini koʻrsata olmaydi. Ularga aqlning xatosi sifatida qarash kerakmi? Hissiy idrok qilishda xatoga yoʻl qoʻyilar ekan, aqlning xatoligidan shubhalanish toʻgʻrimikan? – degan savollarga javob izlagan Kant aqidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish yoʻlini topadiki, aynan shu yoʻl pozitiv dialektikaning asosi boʻladi. Bunda inson aqli oʻzgaruvchanligining tarixiyliigi tan olinadi, aqlning xatosi esa, tarixiy asosga ega boʻlib, u taraqqiyotning cheksizligi, bilish jarayonini toʻgʻri tushunish qobiliyatiga ega emas. Kant dialektika metodidan yangicha foydalanish imkoniyatini koʻrsatdi, taraqqiyot muammosini yangicha qoʻyish va hal qilish zaruriyatini eʼtirof etdi. Taraqqiyotning yangi nazariyasini Kant subʼekt aqlining dialektik xarakteri bilan bogʻlaydi va subʼektiv dialektikani asoslab beradi.

Dialektika taraqqiyotining keyingi imkoniyatlari Gegel falsafasida o'z ifodasini topdi. Gegel dialektikani falsafa taraqqiyotining umumiy nazariyasi sifatida asoslab bergan. Ma'lumki, o'rtacha ratsionalizmi tajribaning ahamiyatini va nazariyaning empirik paydo bo'lishini tan olishi bilan xarakterlangan. Gegel fikrlari boshqacha xarakterga ega. U falsafa o'z xususiyatlarini asoslovchi metodga ega bo'lmas ekan, fan bo'la olmaydi, deb hisoblaydi. Gegel dialektik metodni mukammallashtirish mumkinligini va u yagona haqiqiy metodligini ta'kidlaydi. Falsafa metodi tabiat va ruh taraqqiyotini ifodalovchi fikr harakatiga mos bo'lishi lozim. Gegel o'z metodida shunday mos erishilganligiga ishonadi. Gegel dialektikasini tushunish uchun dastavval, gegelcha dialektikaning rezonans, salbiy, pozitiv dialektika kabi shakllarini tahlil qilish lozim.

### **Dialektikaning asosiy shakllari**

Rezonans (sub'ektiv) dialektika – sub'ekt tafakkuri bo'lib, u predmetdagi ziddiyatlarni ifodalaydi, biroq mavjud ziddiyatlardan ilgari lab ketadi. Sub'ekt faqat buni izohlash bilan kifoyalanadi, xolos. Salbiy (ob'ektiv) dialektika rezonans dialektikadan ba'zi ustuvorlikka ega, chunki u boshlanishidan ancha ilgariroq harakat qiladi. "U tomon", "Bu tomon" kabi izohlashlar mutlaq butunlikni inkor qiladi. Salbiy dialektika mustahkam narsalarni sindirishga intiladi. Uning kuchi aynan shundadir. Ojizligi esa, ularning o'zidagi cheklanganlikni izohlar ekan, judayam kam maqsadga erishiladi. Uning natijasi nol, salbiy, tasdiqlash unda hali namoyon bo'lgan emas.

Dialektikaning rezonans va salbiy shaklidan farq qiluvchi yuqoriroq shakli ichki (immanent) dialektikadir. Bu nafaqat rezonans va inkor qiluvchi, balki yaratuvchi dialektikadir. Chunki immanent dialektika predmetning ichki ziddiyatli harakat birligidagi taraqqiyot mantig'i sifatida namoyon bo'ladi. Shunga binoan, fan predmetni immanent o'rganadi. Predmetni immanent o'rganmoq nima? Bu mazmunni sof tushunchada isbotlamoq, ya'ni predmetning mohiyatini isbotlamoqdir. Gegel fikricha, dialektik ziddiyatlar – ruhning ziddiyati. Pirovard natijada mazkur ziddiyatlar real borliqdagi ziddiyatlarni aks ettiruvchi sub'ekt tafakkuridagi ziddiyatlar bo'lib, Gegel uni g'oyaning o'z-o'zini namoyon qilishidagi ziddiyatlar sifatida aks ettiradi. Gegel fikricha, dialektika mutlaqlikdan boshlanadi va u bilan tugaydi. Dialektik nuqtayi nazardan faqat mutlaqlik real bo'lishi

mumkin. Shuning uchun, Gegel dialektikasi mutlaq aql faoliyatining nazariyasi, mantig'i va metodi sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, idealistik dialektika bo'lgani singari materialistik dialektika ham bor. U moddiylikning yashash tamoyillari, kategoriyalar va qonunlarining yagona, bir butun tizimini ifodalaydi. Umuman olganda, dialektik metodga ko'ra, agar ob'ektiv olamda doimiy rivojlanish, paydo bo'lish va yo'qolish, hodisalarning o'zaro bir-biriga o'tishi bo'lar ekan, unda tushuncha, kategoriya va tafakkurning mavjud shakllari, harakatchan, o'zaro bog'liqlikda, ziddiyatlar birligida bo'lib, rivojlanuvchi real haqiqatni to'g'ri aks ettirishi kerak. Shuning uchun dialektikaning asosiy tamoyili tarixiylik bo'lib, u predmetning doimiy rivojlanishda, o'zgarishda va harakatdaligini ifodalaydi.

Stixiyali dialektika borliq va bilishning jarayonlar mohiyatini anglab yetishga asoslanmagan sodda dialektikadir. Qadimgi mutafakkirlar ziddiyatlilik va o'zgaruvchanlik fikr-mulohazalaridagina emas, balki real borliqda ham mavjud ekanligini payqaganlar. Bu dalilning tagiga yetgan ilk mutafakkirlardan biri efeslik Geraklit bo'lgan. U dunyoni «jonli olov» yoki «ikki marta kirish» mumkin bo'lmagan daryo oqimi sifatida tasavvur qilgan. Harakatchan dunyoda zamon o'tishi bilan hamma narsa o'zining dastlabki shakl-shamoyilini yo'qotadi va asta-sekin o'zining qarama-qarshiligiga o'tadi: ho'l narsa quriydi, quruq narsa esa nam tortadi; bir narsa boshqa narsaga: sovuq issiqqa, tirik o'likka o'tadi. Bu mulohazalarda hozirgi talqindagi dialektikaning asoslari mujassamlashgan. Shu sababli qadimgi faylasuflarning stixiyali dialektikasi dialektikaning tarixan birinchi shakli hisoblanadi.

O'rta asrlarda metafizika falsafadan dialektikani siqib chiqargan. Natijada dialektika odamlar ongiga diniy dunyoqarashni singdirish va mustahkamlash uchun hukmron sinflar faol foydalangan sofistika va sxolastikaga aylangan.

Idealistik dialektikaning ob'ektiv borliq emas, balki uni aks ettiruvchi tafakkurdir. Metafizika unsurlarini o'z ichga olgan dialektikaga qaytish Yangi davr falsafasi (Rene Dekart, Benedikt Spinoza, Deni Didro va b.)da yuz bergan. Shunga qaramay dialektikaning eng yaxlit konsepsiyasini klassik nemis falsafasida Georg Gegel ta'riflagan. Bu konsepsiya dialektikaning ikkinchi shakli deb ataladi. Gegel ilk bor dunyoni quyidan oliyga qarab boruvchi umumiy

rivojlanish jarayoni sifatida tasvirlagan. rivojlanish manbai - qarama-qarshiliklar kurashini ko'rsatib bergan, dialektikaning asosiy qonunlari va kategoriyalarini ta'riflagan. Ammo Gegel dialektikasi idealistik xususiyat kasb etgan. Bu nazariya chuqur dialektika g'oyalari: geologiyaga tatbiqan rivojlanish nazariyasi (Ch.Loyel), Lamarkning evolyutsion g'oyalari, Kant - Laplasning kosmologik g'oyalari va boshqalar ilgari surgan tabiatshunoslik asoslariga zid bo'lgan.

Klassik dialektika borliqning o'xshashi, ya'ni borliqni uning o'ziga mos ravishda fikrlash va bilish imkoniyati sifatida falsafiy tafakkurning fanga ayniqsa mos keluvchi shakliga aylangan.

Gegel dialektikasi klassik dialektikaning shakllanishiga zamin hozirlagan. Buning natijasi o'laroq dialektikaning uchinchi tarixiy shakli yaratilgan (XIX asrning ikkinchi yarmi). Unga amalda ilmiy bilishning rivojlanishi yo'l ochib bergan. XIX asrning 40-yillarigacha fanning turli sohalarida yangi kashfiyotlar paydo bo'lgan va ular tabiatni tushuntirishga nisbatan dialektik yondashuvni tabiatshunoslik nuqtayi nazaridan asoslagan. Ularning orasida uch kashfiyot: fizikada - materiya harakati shakllarining o'zaro aloqasini asoslab bergan energiyaning saqlanish va o'zgarish qonunining aniqlanishi; biologiyada - butun jonli tabiatning (o'simliklar, hayvonot dunyosining ham) tarkibiy jihatdan yagonaligini yoritib bergan hujayra nazariyasining yaratilishi; rivojlanish g'oyasini jonli tabiatga tatbiqan ishlab chiqqani Darvinning evolyutsiya nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Bu sharoitda Klassik dialektikaning shakllanishida tarixni tushunish ayniqsa muhim rol o'ynagan. Bu kashfiyot yordamida dialektikaning gumanizm bilan ham sintezi amalga oshirilgan. Dialektika insonga bog'lanmasdan, o'z holicha emas, balki inson hayot faoliyatining konkret-tarixiy muammolari nuqtayi nazaridan qarala boshlagan.

Klassik dialektikaning o'ziga xos xususiyatlarini qayd etib o'tamiz: birinchidan, klassik dialektika dunyoni tushunishning shunday bir usuliki, bunda borliq narsalar va hodisalarning umumiy o'zaro aloqasi, ularning bir-birini taqozo etishi va muttasil o'zgarishi nuqtayi nazaridan anglab yetiladi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, dialektika har qanday o'zgarish, har qanday harakat nazariyasi emas, balki o'zgarishlarning faqat bir shakli - rivojlanish nazariyasi hisoblanadi. Dialektika rivojlanishning teran, to'laqonli va mazmunan boy nazariyasidir. U o'zgarish holatida bo'lmagan biron-bir narsa

tabiatda ham, jamiyatda ham, tafakkurda ham mavjud emas, chunki barcha mavjud narsalar o'z ichki ziddiyatlariga ega va ular bu narsalarni o'zgarishga, yangi shakl-shamoyil kasb etishga, rivojlanishga majbur qiladi, deb o'rgatadi.

Ikkinchidan, dialektika ob'ektiv va sub'ektiv dialektikaning mavjudligini tan oladi. Ob'ektiv dialektika – bu tabiiy va ijtimoiy hodisalarning o'zaro aloqasi va rivojlanishi. U sub'ektdan, inson va insoniyatdan qat'i nazar mavjuddir. Sub'ektiv dialektika – bu sub'ektiv fikrlash dialektikasi va uning ob'ektiv dunyoni bilishi. Ob'ektiv va sub'ektiv dialektikaning o'zaro nisbati qanday? Materialistik davr nuqtayi nazaridan sub'ektiv dialektika ob'ektiv dialektikani aks ettiradi. Ob'ektiv va sub'ektiv dialektika mazmunan bir-biriga mos keladi (ularning umumiy jihati mazmun – borliq rivojlanishining yagona dialektik qonuniyati). Biroq, shu bilan bir vaqtda, ular shaklan bir-biridan farq qiladi, chunki tafakkur, borliqning boshqa sohalari bilan taqqoslaganda, rivojlanishning o'z ichki mantiqiga ega. Ob'ektiv dialektika tafakkurda, sub'ektiv va ideal shakllarda aks etadi.

Ob'ektiv va sub'ektiv dialektika-qarama-qarshiliklar, lekin bu qarama-qarshilik ijtimoiy-tarixiy amaliyotda «yo'qoladi». Hamonki, sub'ektiv dialektika ob'ektiv dialektikani aks ettirar ekan, inson ob'ektiv dialektikani bilish va shunga muvofiq o'zining izchil amaliy faoliyatini tashkil etish, bu faoliyat jarayonida ob'ektiv dunyoni va o'zini o'zi o'zgartirishga qodir. Inson va jamiyat amaliyotida bilimlar in'ikos shaklidan faoliyat shakliga aylanadi.

Uchinchidan, fan sifatidagi dialektikaning ichki mazmuni va mantiqiy «poydevori» uning tamoyillari, qonunlari va kategoriyalarini yaratadi. Dialektika jamuljum holda ob'ektiv dunyoni va uni uzluksiz o'zgarish va rivojlanish jarayonida bilishni aks ettiruvchi tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi sifatida tavsiflanadi. Bunda tamoyillar deganda umumiy va universal, asosiy g'oyalar tizimida boshqa barcha elementlarning roli va mazmunini belgilovchi mezonlar tushuniladi. Dialektikaning hozirgi konsepsiyalarida aloqa tamoyili va rivojlanish tamoyili ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Dialektika qonunlari rivojlanish jarayonidagi umumiy muhim aloqalarni aks ettiradi. Ular dialektikaning nazariyasini yaratishda muhim metodologik funksiyani bajaradi. Dialektikada umumiy qonunlar uchta: ziddiyatlilik qonuni, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni hamda inkorni-inkor qonuni.

Dialektika kategoriyalari – bu eng fundamental, asosiy tushunchalar bo'lib, ularda va ularning yordamida falsafiy fikrlash amalga oshiriladi. (Dialektika tamoyillari, qonunlari va kategoriyalarini biz quyida atroflicha ko'rib chiqamiz.).

To'rtinchidan, dialektikaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u nazariya vazifasini ham, metodologiya vazifasini ham bajaradi. Dialektika qonunlari, kategoriyalarining mazmuniga va bilish jarayonining amal qilish va rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq fikrlovchi sub'ektga qo'yiladigan tegishli talablar shakllantiriladi va shu tariqa unga bilish faoliyatida yo'l ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan sub'ekt borliqni bilish va amalda o'zgartirish masalalarida amal qilishi lozim bo'lgan tegishli normalar va qoidalar ham ishlab chiqiladi. Dialektika bergan metodologik jihatdan to'g'ri mo'ljallar tadqiqotning to'g'ri yo'lini tanlashga, ko'p sonli xatolarni chetlab o'tishga, ortiqcha ish, keraksiz harakatlarga kuch va qimmatli vaqtni behuda sarflamaslikka yordam beradi.

Shunday qilib, hozirgi talqindagi dialektika - bu:

a) hodisalarning ularga xos bo'lgan ziddiyatlar vujudga kelishi, o'zaro ta'sirga kirishishi va yechilishiga muvofiq rivojlanishidan iborat bo'lgan ob'ektiv jarayon;

b) tabiat, jamiyat va tafakkurning harakat va rivojlanish universal qonunlari haqidagi falsafiy konsepsiya; dunyoni bilish va o'zgartirish metodi. Uning tizimiga kiruvchi rivojlanishning umumiy qonunlarini bilish o'tmishni anglab yetish, hozirgi dunyoda yuz berayotgan jarayonlarni to'g'ri tushunish va kelajakni bashorat qilish imkonini beradi.

**Noklassik dialektika.** So'nggi yillarda ayrim tadqiqotchilar Hegel dialektikasi va materialistik dialektikani klassik dialektika sifatida tavsiflab, dialektikaning to'rtinchi, noklassik shaklini ham farqlamoqdalar. Hozirgi zamon G'arb falsafasida dialektikaning ko'rsatilgan shaklining eng muhim elementlari falsafiy mushohada yuritishning unga xos bo'lgan germenevtik usulida namoyon bo'lmoqda. Ammo bu yerda dialektik metod avvalo mazmuni talqin qilish vositasida aniqlash uchun (P.Riker), shuningdek anglab yetilayotgan ob'ektni vaziyat nuqtayi nazaridan tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Ammo XX asrda dialektikaning bir qancha noklassik konsepsiyalari vujudga keldi. Ularning qatoriga quyidagilar kiradi:

a) «fojeiy dialektika». Uning muallifi frantsuz faylasufi Raymon Aron (1905-1983) hozirgi zamon dialektikasini tahlil qilib, hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotdan insoniyat manfaatlarida foydalanishga qodir emas, degan xulosaga keladi;

b) «dialektik teologiya» yoki «inqiroz teologiyasi». (shveysariyalik protestant teologi va faylasufi Karl Bart 1886-1968 va nemis-amerika xristian teologi Maul Tillix 1886-1965) kreatsionistik ta'limot bo'lib, dunyoning rivojlanishi zamirida bu dunyoni qandaydir g'ayritabiiy qurilish materiali – materiyadan yaratgan ilohiy substantsiya yotadi, degan g'oyaga asoslanadi. Shu sababli dunyo «Xudo kabi boqiy» emas, uning boshi va oxiri bor. Ammo bu yaratilgan dunyo Xudo bilan biron-bir umumiy jihatga ega emas, degan ma'noni anglatmaydi. Ularning o'rtasida muayyan o'xshashlik mavjud bo'lib, u pirovard, yaratilgan narsalarning rivojlanish yo'llarini tushunib yetish imkonini beradi;

v) «salbiy dialektika». Teodor Adorno 1903-1969 – nemis faylasufi, sotsiologi, Frankfurt maktabining vakili, ko'p sonli falsafiy asarlar, shu jumladan «Salbiy dialektika» (1966) kitobining muallifi. Jan Pol Sartr (1905-1980) – frantsuz faylasufi va yozuvchisi, ateistik ekzistentsializm vakili. U falsafa muammolariga bag'ishlangan bir qancha asarlar, shu jumladan «Dialektik aql tanqidi» (1960) kitobining muallifi. Sartr talqinida dialektika ikki – «tanqidiy» va «dogmatik» shakllarda mavjud bo'lishi mumkin. Birinchisi «salbiy dialektika»dir. «Salbiy dialektika» bir yoqlama, sub'ektiv konsepsiya bo'lib, u inkorni mutlaqlashtirishdan, butun borliqning umumiy buzilishidan, yalpi tanqidiylikdan, har qanday ijobiylikni rad etishdan, o'zini o'zi inkor qilishdan kelib chiqadi va shu bois metafizika chegarasidan chetga chiqmaydi. «Salbiy dialektika» bu, mohiyat e'tibori bilan aksildialektikadir.

Dialektikaning ob'ektivlik, konkretlik, determinizm va boshqa tamoyillari ham mavjud. Dialektikaning o'zaro aloqadorlik tamoyili. Falsafada aloqa deganda ma'kon yo vaqtda bir-biridan muayyan masofada uzoqlikda joylashgan ikki yoki bir necha hodisa yoki ob'ektning o'zaro aloqa jarayoni tushuniladi. Ob'ektlar diskretlik, shakllanganlik va nisbatan mustaqillikdan mahrum bo'lgan joyda aloqalar mavjud bo'lishi mumkinmi? O'z-o'zidan ravshanki, shakllangan, nisbatan mustaqil narsalar mavjud bo'lmagan joyda aloqa mavjudligini taxmin qilish ham mumkin emas. Shu sababli umumiy

aloqa kategoriyasi «narsa», «uzluklilik», «uzluksizlik», «cheksizlik», «tuganmaslik» tushunchalari bilan tavsiflanadi. Hozirgi ilmiy bilimga tayanuvchi borliqning falsafiy talqini olamning universal yaxlitligini, dunyoning birligini ochib beradi. Dialektika kategoriyalari borliqning universal aloqalarini bilish shakli hisoblanadi. Aloqalarning universalligi ularning tiplari va turlarining rang-barangligida namoyon bo'ladi. Aloqalarni tasniflash turli asoslarga ko'ra amalga oshiriladi. Xususan, bir tomonlama va o'zaro aloqalar, to'g'ri va egri aloqalar, bevosita va bilvosita aloqalar, ichki va tashqi aloqalar farqlanadi. Hajm jihatidan aloqalar umumiy, alohida va xususiy bo'lishi mumkin. Mazmun jihatidan genetik, funktsional, strukturaviy, energetik, moddiy, informatsion va boshqa aloqalar farqlanadi. Aloqalarning butun rang-barangligi fanning qaysidir bir tarmog'i doirasida tadqiq etilishi mumkin emas. Ularning muayyan turlari maxsus fanlarning predmeti hisoblanadi. Dialektika borliqning barcha jarayonlariga xos bo'lgan umumiy, muhim, universal aloqalarni o'rganadi. Fan borliqning universal qonunlarini tashkil etadigan ichki, zaruriy, muhim, barqaror, takrorlanuvchi aloqalarga alohida e'tibor beradi. Umumiy aloqalar dialektika kategoriyalarida yoritiladi.

**O'zaro aloqa.** Real voqelikda har bir muayyan ob'ekt ko'p sonli sababiy zanjirlarning murakkab «tuguni» hisoblanadi. U boshqa ob'ektlardan ta'sirlanish bilan bir vaqtda o'zi ham ularga aks (reaktiv) ta'sir ko'rsatadi.

Aloqa uchun asos va aloqa shart-sharoitlari tushunchalarini farqlash lozim. Aloqa yuzaga kelishiga imkoniyat yaratuvchi ayrim xossa, belgi yoki munosabat aloqa uchun asos bo'ladi. Asosning mavjudligi aloqa o'rnatish uchun zarur, lekin yetarli emas, chunki uning o'rnatilishi doim emas, balki muayyan sharoitdagina yuz beradi. Shart-sharoitlar – bu avvalo predmet mavjud bo'lgan muhitdir. U aloqa o'rnatish uchun qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Shart-sharoitlar o'z holicha aloqa o'rnatish omili bo'lishi mumkin emas, ular faqat aloqa yuzaga kelishiga ko'maklashadi yoki monelik qiladi. Narsalar o'rtasida aloqa biron-bir muayyan asosga ko'ra yuzaga keladi. Umumiy asos ayrim umumiy asosga ega bo'lgan turli ob'ektlar o'rtasida umumiy aloqa yo'lini ham vujudga keltiradi. Masalan, muayyan manfaat guruhlari o'z manfaatlarini himoya qilish uchun siyosiy guruhlariga birlashadilar, mamlakatdagi siyosiy muhitga kuchli ta'sir ko'rsatadilar. Ammo boshqa, masalan, etnik, diniy va boshqa



asoslarga ko'ra ular o'zaro bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Shunday qilib, mazkur misolda aloqa yo'li aloqa yuzaga kelishi uchun asos. boshqa belgilar – buning shartlaridir. O'zaro aloqa umumiy xususiyat kasb etadi, u butun borliqqa xosdir. Shu sababli aloqa tushunchasi dialektikada eng umumiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Boshqa barcha kategoriyalar o'zaro aloqaning muayyan turlari bilan tavsiflanadi.

**Munosabat.** Aloqa tushunchasi o'zaro aloqa, harakat, munosabat tushunchalari orqali yoritiladi. «Hozirgi zamon falsafa lug'ati»da munosabat tushunchasi «narsalarning o'zaro mavjudlik usuli, ularda yashirin xossalarning namoyon bo'lish omili» sifatida ta'riflangan. Bu ta'rifda munosabatni tavsiflovchi quyidagi jihatlar farqlanadi: birinchidan, narsalarning o'zaro mavjudligi, yaqinlashuvi, birlashuvi. Ikkinchidan, munosabat narsaning xossalari namoyon etish, ya'ni harakatga keltirish usuli sifatida amal qiladi. Uchinchidan, narsalarning birlashuvi sifatidagi munosabat ta'sirida kooperativ effekt, ya'ni narsalar holatlarining bir-birini o'zgartirishi yuz beradi. Bunda munosabat yuzaga kelgunga qadar yashirin holda mavjud bo'lgan narsalarning xossalari bir-biriga o'tadi va namoyon bo'ladi.

Xullas, munosabat, bir tomondan, narsalarning o'zaro aloqasini, boshqa tomondan esa – ularning alohida-alohida mavjudligini nazarda tutadi. O'zaro ta'sir narsalarning o'zaro aloqadorligini, ular bir-biriga ta'sir ko'rsatishi va bir-birini o'zgartirishini anglatadi. Ammo o'zgarish – harakat falsafiy tushunchasining sinonimidir. Binobarin, umumiy aloqaning tan olinishi bizni muqarrar tarzda borliqning o'zgaruvchanligi umumiy xususiyatini tan olishga olib keladi. Umuman o'zgarish sifatida tushuniladigan harakat butun olanni qamrab oladi, dunyoda hamma narsa muayyan paytda vujudga keladi, tadrijiy rivojlanadi, o'zgaradi va g'oyib bo'ladi (o'ladi, halok bo'ladi, barham topadi). Demak, har qanday hodisa o'z tarixiga ega. Ayni shu sababli tabiat va jamiyat hodisalarini o'rganishga nisbatan tarixiy yondashuv zarur. O'zgarishlar o'z xususiyati va yo'nalishiga ko'ra tartibsiz o'zgarishlar, aylanma harakatlar, jismlarning makonda bir joydan boshqa joyga mexanik ko'chishida namoyon bo'lishi mumkin. Rivojlanish o'zgarishning alohida tipi hisoblanadi.

Dialektika kategoriyalari umumiy aloqalarning o'zgarish va rivojlanish manbai sifatidagi tavsifini to'ldiradi, harakatlanayotgan, tadrijiy rivojlanayotgan dunyoning keng manzarasini yaratish

imkonini beradi. Biron-bir aloqalar va o'zaro ta'sirlarsiz mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan ob'ektlar amalda mavjud emas. Dialektikaning muhim belgilaridan biri va umumiy aloqa tamoyilining mazmuni aynan ob'ektlarning har tomonlama o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlarini hisobga olishdan iborat.

Shunday qilib, dialektika moddiy dunyoda hukm suruvchi umumiy aloqani aniqlashni talab qiladi.

**Tarixiylik tamoyili.** Har qanday, narsa, jarayon mavjudligi paydo bo'lish, rivojlanish va yo'qolish bosqichlarida namoyon bo'ladi. Masalan, Yer taxminan 6 milliard yil ilgari issiq gazsimon tumanlikdan paydo bo'lib, hozirgi holatiga yetgan. Ayni paytda olimlar qachonlardir Yerning sovib, oysimon, sovuq planetaga aylanishini e'tirof etganlar.

Materialistlar tarixiylik tamoyilini "olaning moddiy birligi haqidagi monistik tamoyilga" mosligi uchun reallikning barcha sohalarida mavjud deb hisoblaydilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tarixiylikni mutloqlashtirish to'g'ri emas. Chunki ilgari Oy oddiy planeta bo'lgan, hozir esa sovuq kosmik jism, qutb yulduzining konfiguratsiyasi 50 ming yil ilgari hozirgidan boshqacha bo'lgan, insonning jismoniy tipi 40-50 ming yil ilgari to'liq shakllangan. Bunda tarixiylik to'liq namoyon bo'layotgandek. Biroq, aslida, tabiat, materiya abadiy, biz uning faqat muayyan fragmentlarini, tabiat fragmentlarining tarixini qo'ramiz xolos. Shuning uchun tarixiylik tamoyili haqida emas, balki evolyutsiya tamoyili haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi.

Tarixiylik tamoyilining shakllari turlicha. Tarixiylikning ijtimoiy jihati ijtimoiy tarixning qonuniyatligi, uning taraqqiyoti qaytarilmas ekanligidan dalolatdir. Yangi ijtimoiy tuzilma va tizimlarning paydo bo'lishi muqarrar. Ijtimoiy hayotni o'rganishda tarixiylik tamoyili g'oyasi Ibn Xaldun, ar-Roziy, Gegel, Shmoller ijodida aks etgan. Metodologik jihatdan tarixiylik tamoyili jamiyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichidagi yaxlitlikni, rivojlanishning istiqbollari baholash imkonini beradi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirdi. Bu ta'lim tizimining ilgarigi holatidan butunlay yangi holatga o'tishini ta'minladi. Mulk sohasidagi islohotlar esa kishilarning mulkka ongli munosabatini shakllantirishga zamin tayyorladi. Jamiyatning tarixiy rivojlanishida va tarixiylik tamoyilining amal

qilishida tarixiy taraqqiyotni bilish yoki bilmaslik muhim ahamiyat kasb qiladi. Zero, bilish orqali yangi jamiyatning nazariy asoslari yaratiladi, bilmaslik esa ko'r ko'rona faoliyat natijasida jamiyatni navbatdagi boshi berk ko'chaga olib kiradi.

**Sababiyat tamoyili.** Sababiyat aloqalarning genetik tipi, zero unda bir hodisa muqarrar yangi bir hodisani yaratadi. Yangi sifatning paydo bo'lishi sababga ega. Masalan, O'zbekistonda mudofaa sohasidagi islohotlar ilgari mudofaa xizmatining hozirgi davr talablariga javob bermasligi davlat manfaatlariga mos emasligi bilan belgilanadi. Hodisa va jarayonlarning o'zaro aloqadorlikda biri ikkinchisini keltirib chiqaruvchi jarayondir. Masalan: 1997-yilda O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi, unda belgilangan vazifalarni tizimli amalga oshirishni taqozo qiladi. Yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkonini beruvchi yangi ta'lim tizimi joriy qilinmoqda.

**Tizimlilik tamoyili.** Tizimlilik tamoyili va u bilan bog'liq tizimli yondashuv o'zida dialektika nazariyasining kompleks g'oyalarni mujassamlashtirgan hozirgi zamon fani va amaliyotida muhim metodologik ahamiyat kasb qiladi. Tizimlilik tamoyilining asosiy omili yaxlitlik tamoyilidir. Bu ob'ektlarni ikki yoqlama: bir tomondan ob'ektlarning muhit bilan mutanosibligi, ikkinchi tomondan tizim elementlari, xossalari va funktsiyalarining butun doirasida ichki bo'linishi nuqtayi nazaridan o'rganishni talab qiladi. Bunda butunning xossalari uning elementlarini nazarda tutadi va aksincha. Tizimning yaxlitligi haqidagi tasavvurlar aloqa orqali konkretlashtiriladi.

### **Dialektikaning muqobillari**

Odatda, rivojlanishning dialektikaga zid bo'lgan yoki unga o'xshamaydigan konsepsiyalari, bilish metodlari, dunyoni ma'naviy o'zlashtirish usullari, ya'ni dialektikadan farq qiluvchi dunyoqarashga doir va metodologik mo'ljallar nazarda tutiladi. Dialektikaning shunday muqobillaridan biri metafizika, sofistika, eklektika, sinergetika metodlaridir. "Metafizika" (yunon – fizikadan keyin) - dialektika kabi universal metoddir. Bu so'z ilmiy muomalaga er. av. I asrda Aristotelning shogirdi Rodoskiy tomonidan kiritildi. Mutafakkir asarlarini bir tizimga solar ekan, u borliq va bilish haqidagi umumiy masalalarni fizikadan so'ng "birinchi falsafa"ning (mohiyat, sabab va boshqa) ikkinchi falsafadan farqli xususiy-ilmiy bilimlarni o'rganadigan qismi sifatida talqin qilgan. Ko'p hollarda, dialektikaga qarama-

qarshi deb talqin etiladigan metafizika olamdagi narsa va hodisalarni o'rganishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o'zgarmasdan, alohida turgan holatiga diqqatni ko'proq qaratadigan usuldir. Bu usul qo'llanganida olamning namoyon bo'lish shakllari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning alohida qismi yoki holatiga asosiy e'tibor beriladi. Voqea, hodisa va jarayonlarni doimiy o'zgarish holatida o'rganish nihoyatda kiyin bo'lganligidan, nafaqat faylasuflar, balki barcha fan mutaxassislari uning nisbatan tinch va o'zgarmay turgan holatini o'rganadilar, tadqiq etadilar. Aslini olganda, olam garchand dialektik o'zgarish va harakatda bo'lsa-da, bu jarayon doim ham nihoyatda tez sodir bo'lavermaydi. Biz esa dunyodagi narsa, hodisa va odamlarga shunchalik metafizik tarzda o'rganib qolganmizki, go'yo kechadan bugunning farqi yo'qdek, kecha ko'rgan kishiga bugun duch kelganimizda unda hech qanday o'zgarishlar bo'lmaganday tuyuladi. Shu ma'noda, hayotda ko'p hollarda metafizik usulda fikr yuritimiz, nimalargadir ana shunday munosabatda bo'lamiz. Aslida esa, ular ham azaliy o'zgarishlar jarayoniga tushgan narsa va kishilar ekanligini juda kamdan-kam hollarda o'ylab ko'ramiz. Xuddi shunday, bizning umrimiz ham kechadan ertaga qarab oqib turadigan dialektik jarayondir. Biz ham ana shunday o'zgarib boramiz, ammo ko'p hollarda bunga unchalik ko'p e'tibor berilavermaydi. Shu tariqa maktabni tugatib qo'yganimizni, ulg'ayganimizni, bolalikning ortda qolganini go'yoki bilmay qolamiz. Alohida ta'kidlash lozimki, metafizik usulning hayotda, ilmiy izlanishlar va falsafiy tadqiqotlarda ham o'z o'rnini bor. Bizda haligacha metafizikaning tushunchalari, kategoriyalari, tamoyillari va ilmiy mohiyati izohlangan yoxud tadqiq etilgan asarlar, tadqiqotlar yo'k. Qolaversa, uni dialektika bilan butunlay qarshi qilib qo'yish va bu farqni mutlaq ziddiyat darajasiga ko'tarish ham maqsadga muvofiq emas. Aynan ana shunday yondashuv sobiq ittifoqda dialektikani mutlaqlashtirishga, metafizikani esa quruq va o'lik ta'limot sifatida qarashga, uning imkoniyatlaridan foydalanilmasligiga sabab bo'ldi.

Hozirgi davr fanida metafizika uch asosiy ma'noga ega:

1. Falsafa umumiy hodisalar haqidagi fandir. Bu ta'limotning asoschisi Aristotel bo'lib, u "narsaning birinchi turi" haqidagi ta'limotdir. Bu ma'noda, "metafizika" tushunchasini XX asrning yirik nemis faylasufi Xaydegger ham o'rganadi. Uningcha, bu kategoriya bilishning ob'ekti va sub'ektini bir vaqtda ifodalovchi tushunchadir.

2. Maxcyc falsafiy fan ontologiya, umuman, borliq haqidagi ta'limot bo'lib, nazariya bilish mantig'i va uning xususiy ko'rinishlaridan mustasnodir. Shu ma'noda, bu tushuncha G'arb falsafasida, o'tmishda ham (Dekart, Leybnits, Spinoza va h.k.), hozirda ham keng qo'llaniladi.

3. U bilish (tafakkur) va harakatni falsafiy tushunish ma'nosida dialektikaga qarama-qarshi qo'yiladi. Bunda shu ma'nodagi tushuncha, ya'ni antidialektika haqida so'z boradi. Uning eng asosiy xususiyatlaridan biri bir tomonlamalik bilish jarayonining faqat bir qismini mutlaqlashtirishdir. Falsafa tarixida metafizika (dialektika kabi) hech qachon o'zgarmasdan qolmagan. U turli tarixiy shakllarda namoyon bo'lgan.

Eski metafizika XVII–XIX asr falsafasi va fanida ayniqsa kamol topdi (metafizik materializm, naturfalsafa, falsafa tarixi va h.k.) Metafizikaning bu shakliga xoc xususiyat umumiy o'zaro aloqadorlik va taraqqiyotni inkor qilish, olamga bir butun tizimli yondashuvning yo'qligi, tafakkurning ikkilanuvchanligi, umumiy dunyoviy aloqadorlikning tugaganligiga ishonishdir. Eski metafizik tafakkur uslubi shakllanishining ob'ektiv asoslari butunning alohida elementlari xususiyligini, alohida tomonlar (fikran) nima uchun bir butunlikdan ayri holda bo'lishi va bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishini tushuntirish zaruriyatidir. Bu usul kundalik turmushda, aql darajasida, predmet taraqqiyotidagi munosabatlarda zarur va to'g'ridir. Shuning uchun metafizikaning bu shakli predmetlardagi barqarorlikni, ulardagi o'zgarishlarni tizimli o'rganish, taraqqiyotning manbalari va mexanizmlarini aniqlash bilan bog'liq.

XIX–XX asrlarda eski metafizikadagi keskin kurashda taraqqiyot g'oyasining yangi dalillar bilan mustahkamlanishi ikki muhim natijaga olib keldi: dialektik tafakkurning yangi uslublari paydo bo'ldi; XX asrda eski metafizikaning ilmiy dalillarini inkor qiluvchi yangi metafizika shakllandi.

Yangi metafizika narsalarning umumiy aloqadorligi va ular taraqqiyotini inkor qilmaydi. Bu fandagi va jamiyatdagi buyuk kashfiyotlar davrida absurd. Antidialektika yangi shaklining asosiy xususiyati – taraqqiyotni izohlashning turli variantlari va yo'llarini izlashdan iborat. Buni quyidagi yo'nalishlarda tushunish mumkin:

a) eng umumiy, abadiy o'sish, o'zgarish yoki aksincha kichrayish (tekis evolyutsionizm) tarzida;

b) xuddi sifat o'zgarishlari kabi sakrashlar zanjiri (katastrofizm) shaklida;

c) takrorlash sifatida qat'iy liniyalı yo'nalishga ega bo'lgan doimiy jarayon (to'g'ri chiziqli rivojlanish) holatida;

d) hech qanday yangiliklarsiz aylana doirasidagi abadiy harakat ko'rinishida;

d) mohiyatidan ziddiyat kelib chiquvchi harakat sifatida;

e) progress sifatida, ya'ni oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga intilish tarzida. Taraqqiyotning o'zaro aloqadorlik va ta'sirning boshqa aralash izohlari ham bo'lishi mumkin.

Metafizikaning turlari har xil asoslar, mezonlar bilan farqlanishi mumkin. Bilishning metafizik metodi – byurokratizm, konservatizm, volyuntarizm va h.k. amaliy faoliyatning boshqa bir tomonlama harakatlari tarzida namoyon bo'lishi ham mumkin. Bilimning metafizik usullari turlicha bo'lib, idealizm, sensualizm, ratsionalizm, empirizm, dogmatizm, relyativizm va boshqa shakllarda namoyon bo'lib, bilimning alohida shakllari natijalarini mutlaqlashtirish jarayonida paydo bo'ladi.

Sofistika falsafiy metodlar jumlasidan bo'lib, qadimgi Yunonistonda mil. av. V va IV asrning birinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy hayotda xususiy bir yo'nalish sifatida paydo bo'lgan. Sofistika namoyandalari Protagor, Gorgiy, Gippiy, Antifont va boshqalardir. Sofistikaning paydo bo'lishi antik Yunonistonda iqtisodiy taraqqiyotga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. Bu oila urug' an'alaridagi turg'unlikni bartaraf qilish, yangi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga ehtiyoj davri edi. Sofistikaning inqirozi eramizdan avval IV asr o'rtalarida boshlandi. Eramizning II asrida klassik yunon sofistlarining g'oya va uslublarini qayta ishlashga intiluvchi yangi oqim paydo bo'ldi. Sofistika mavjud nazariya va ma'lumotlarni saqlashga intiladi. U yangi fikr eski fikrning bir qismi ekanligini asoslashga yoki mantiq qonunini tuzib, mavjud bilimlar tizimini barcha ziddiyatlardan tozalashga harakat qiladi. Bu metoddan semantik va mantiqiy qonunlarda istalgan narsani isbotlash uchun foydalaniladi. Ko'pgina darslik va qo'llanmalarda bu ibora yunon tilidagi "sopism" so'zi asosida, ya'ni ataylab xilma-xil ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, ko'chma ma'no-mazmunga erishish usuli, deb ta'kidlanadi. Bu usul qo'llanilganda fikrning mazmuni ko'chma ma'noda bayon qilinadi.

ya'ni "Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit", deganga o'xshash holat nazarda tutiladi. U, nafaqat, qadimgi Yunoniston, balki o'pta asrlarda Yevropada ham keng tarqalgan. Agar bu usul yolg'on xulosalarga olib kelsa, nega o'z davrining ko'pgina dono kishilari undan foydalanganlar, degan savol tug'ilishi mumkin. Ma'lumki, insoniyat tarixida hurfikrlik va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabatni to'g'ri ifodalashning iloji qolmagan zamonlar ko'p bo'lgan. Bunday holni inkvizitsiya hukmron bo'lgan o'pta asrlar Yevropasiga ham tatbiq etish mumkin. O'sha davrda ham ko'pgina ziyolilarning ana shu usulga suyanmasdan iloji yuq edi. Umuman olganda, falsafada "do'ppi tor kelib qolgan" ana shunday zamonlarda fikrni Gulxaniyning mashhur "Zarbulmasal" asari kabi ifodalash hollari uchrab turadi. Buni o'rta asrlar Yevropasiga nisbatan olsak, unda Servantesning "Don Kixot" asari nima sababdan shunday yozilganligi, uning bosh qahramoni esa nima uchun shamol tegirmonlariga qarshi jang qilganligi va bu lavhalar zamirida qanday botiniy mazmun yashiringani aniq bo'ladi.

Sofistika – qarama-qarshi fikrlar asosida ixtiyoriy tanlangan foydali mulohaza bo'lib, uning yordamida har qanday narsa yoki fikrni isbotlay olish mumkin. Masalan, Aristotelning yozishicha, bir afinalik ayol o'g'liga, jamoa ishlariga aralashma, chunki agar to'g'ri gapirsang, seni odamlar; yolg'on so'zlasang – Xudolar yomon ko'radi, degan ekan. Sofizmga ko'ra afinalik ayolga shunday rad javobi berish mumkin: sen jamoa ishlarida ishtirok qilishing kerak, chunki to'g'ri so'zli bo'lasan va buning uchun seni Xudolar ham, odamlar ham yaxshi ko'radi. Sofistika mavjud bilimlar tizimidan ziddiyatlarni siqib chiqaradi, bu bilan eski va yangi bilimlarni murosaga keltiradi. Sofistika inson bilimi doirasida cheksiz relyativizmni ulug'laydi. Predmet haqida har narsa deyish mumkin. Qanday maqsad ko'zlanmasin, so'zlar ifodasida hech qanday chegara yo'q (masalan, asal – shirin; asal – achchiq; qo'rg'on – aylanasimon, qo'rg'on – to'rtburchak va h.k.) shunga ko'ra sofist – mohir usta, so'zamol donishmand ma'nolarini anglatadi.

Eklektika hech qanday bilim faoliyati bilan bog'lanmagan, bir-biriga zid dalillarga asoslanadi va olamni buzib yolg'on aks ettiradi. U bilim tizimi rivojidadagi yo'nalish, u hech qanday yagona nazariy asosga ega emas va ba'zida ob'ektni o'rganishning ziddiyatli jihatlarini xarakterlovchi bilim elementlaridir.

Metodologik usul sifatida eklektika birinchi marta qadimgi yunon falsafasida paydo bo'ldi va iqtiboslarga asoslangan o'rta asr sxolastik bahslarida, yangi davr XV-VIII asrlar falsafiy bahslarida keng foydalanildi. U hozirgi davrda ham reklama va tashviqotda, ommaviy kommunikatsiya tizimida qo'llanilib, inson psixikasidagi an'analar, ko'nikmalar, intilishlarni bo'rttiradi. Bunday usulning bema'niligini Suqrot va Aristoteldan boshlab, hozirgi davr mutafakkirlarigacha tanqid qiladilar. Ammo bu undan foydalanilmaslikni anglatmaydi. Eklektika olam, narsa va hodisalarning bir butunligini, umumiy asoslarini parchalab tashlash uslubiga tayanadi.

Sinergetika so'zi yunoncha ("sinergena") bo'lib, kelishuv, hamkorlik, o'zaro ta'sir kabi ma'nolarni anglatadi. German Xakenning fikricha, sinergetika ko'p qismlardan iborat bo'lgan, o'zaro murakkab aloqadorlikdagi komponentlar tizimini o'rganadi. Xaken fikricha, sinergetika hamkorliqdagi harakat bo'lib, butunning tizim sifatida aks etuvchi qismlarining kelishilgan faoliyati ma'nosida talqin qilinadi. Barcha ta'limotlar paydo bo'ladi, rivojlanadi, eskiradi. Xaken sinergetikasi ham vorisiylikka asoslangan. Uning davomi bo'lgan Sherringtonning sinergetik uslubi, Ulamning sinergiyasi, Zabusskiyning sinergetik yo'nalishlari ana shular jumlasidandir. Sherrington sinergetik yoki integrativ tafakkurni muskullar harakati-ning boshqaruvida (orqa miya) asab tizimidagi kelishilgan ta'sirmi izohlash usulidir, deb tushunadi. Ulam esa, EHMning birinchi avlodi vakillaridan biri bo'lib, u sinergiyaning, ya'ni mashina va uning operatori orasidagi uzluksiz hamkorlikning foydaliligi, ahamiyatining hozirgi davrdagi ta'siriga e'tiborni qaratadi. Zabusskiy 60-yilning o'rtalarida liniyasizlik masalalarini hal qilishda analitik jihatdan cheklanganlik bir yoqlamalikka yo'l ochganligini ta'kidlaydi. Liniyasiz matematika va fizika masalalarida sinergetika usulining tatbiq etilishini odatdagi matematika hisoblash mashinasining faoliyatini tahlil qilish bilan qiyoslaydi. Hozirgi davrda Prigojinning sinergetika to'g'risidagi fikrlari ham ko'pchilikning e'tiborini tortmoqda.

Yuqoridagi barcha holatlarda uzluksiz harakat haqida so'z boradi. Sinergetika orqali sodda tizimlardan murakkablarini yaratuvchi o'lik tabiatdagi o'z-o'zidan harakatning tamoyili shakllandi. Sinergetika bilan fizikada evolyutsion yo'nalish paydo bo'ldi va fan ijodkorlikdan yangilik yaratish tushunchasi tomon rivojlandi. Sinergetika fanning makroskopik darajalariga tasodifiylikni kiritdi va



bu bilan mexanika metodlarini makroskopik darajaga, ya'ni mikroduyo masalalariga tatbiq qildi. Sinergetika nisbiylik nazariyasidagi energiya va narsaning o'zaro bir-biriga o'tishini tasdiqlaydi va narsalarning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda izohlaydi. U biz yashayotgan makrotizimlar qanday paydo bo'lganligi masalasini hal etishga harakat qiladi.

Sinergetika nazariyasida energiya kristall sifatida qotib qoladi va kinetiklikdan potentsiallikka aylana boshlaydi, deb talqin qilinadi. Bunga ko'ra, narsa qotib qolgan energiyadir. Energiya faoliyatning ishlab chiqarish qobiliyatini xarakterlovchi tushuncha, lekin hozirda energiya nafaqat mexanik faoliyat, balki yangi strukturalarni yaratuvchisi sifatida ham o'rganilmoqta. Sinergetika tabiatdagi evolyutsiya nimaning hisobiga sodir bo'lishi mumkinligini asoslaydi. Barcha yangi strukturalar yaratilayotgan joyda energiyaning kuchli to'liqini va muhit bilan almashinuv zarur (evolyutsiya hayot kabi), metabolizmni talab qiladi. Agar osmon jismlari evolyutsiyasida biz ishlab chiqarishning natijasini kuzatsak, sinergetika tabiatni yaratish jarayonini o'rganadi. Sinergetika nisbiylik nazariyasining xulosalarini tasdiqlaydi: energiya olamning yanada yuqoriroq darajalarini yaratadi.

Xullas, sinergetika – olamning o'z-o'zini tashkil etishi, ma'kon va vaqtda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Bu ta'limot dialektika asosida shakllangan va uni to'ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi. Ularga qarshi o'laroq, dialektika endi kerak emas, uni sinergetika bilan almashtirish lozim, deb hisoblovchilar ham yo'q emas.

Sinergetikada bifurkatsiya, fluktuatsiya, tartibsizlik, dissipatsiya, g'alati attraktorlar, chiziqsizlik singari tamoyillar mashhur. Ulardan tizimlar barcha turlarining, jumladan, old organizmik, organizmik, ijtimoiy, etnik, ma'naviy va boshqa tizimlarning xulq-atvorini tushuntirish uchun foydalaniladi.

Bifurkatsiya ikkilanish nuqtalarining mavjudligini hamda rivojlanish davomining har xilligini nazarda tutadi. (Masalan, bitta oila negizida yangi oila paydo bo'ladi va yangi oila o'zining rivojlanish tamoyillariga ega bo'ladi). Ularning faoliyati natijalarini oldindan bashorat qilish qiyin. Prigojinning fikriga ko'ra, bifurkatsiya

jarayonlari tizimning murakkablashuvidan dalolat beradi. Moiseevning fikricha, «ijtimoiy tizimning har bir holati bifurkatsiya holatidir».

Flukuatsiyalar umumiy holda ta'sirlantirishni anglatadi. Ularning ikki katta turkumi: tashqi muhit yaratadigan flukuatsiyalar va tizimning o'zida vujudga keladigan flukuatsiyalar farqlanadi. Masalan, dunyoda koronavirus bilan bog'liq holati. Ba'zan flukuatsiyalar juda kuchayib, tizimni to'la egallab olishi va mohiyat e'tibori bilan uning mavjudlik tartibini o'zgartirib yuborishi mumkin. Ular tizimni unga xos bo'lgan «tartib turi»dan olib chiqadi, ammo xaosga olib chiqadimi yoki yo'qmi – bu masalaning boshqa tomoni.

Dissipativ tizim ta'sirlar tarqaladigan tizim hisoblanadi. Umuman olganda, bu flukuatsiyalar to'la qamrab olgan tizim xulq-atvorining xususiyatidir. Har xil ta'sirlarga o'ta ta'sirchanlik va buning natijasida haddan tashqari nomuvoziylik – dissipativ tizimning asosiy xossasidir.

Attraktorlar to'plamlarni o'ziga tortuvchi, elementlar intiladigan markazlarni hosil qiluvchi tuzilma. Masalan, bir yerga olomon to'planganida, o'z yo'nalishida harakatlanayotgan odam unga e'tibor bermasdan o'tib keta olmaydi. Uning traktoriyasi olomon tomonga buriladi. Kundalik hayotda bu qiziquvchanlik, deb ataladi. O'z-o'zini tashkil etish nazariyasida mazkur jarayon «to'planish nuqtasiga siljish» deb nomlanadi. Attraktorlar o'z atrofiga stoxastik elementlarni to'playdi, shu tariqa muhitni tuzilmalarga ajratadi va tartib o'rnatish ishtirokchisiga aylanadi. Dunyoning postnklassik manzarasida tartiblilik va tuzilmalarga ajratilganlik tartibsizlik va stoxastiklik singari voqelikning ob'ektiv, universal xususiyatlari e'tirof etilgan. Ular rivojlanishning barcha strukturaviy darajalarida namoyon bo'ladi. Nomuvoziy tizimlarning nomuntazam xulq-atvori muammosi sinergetikaning diqqat markazida turadi.

Xullas, sinergetika – strukturogenezning eng umumiy qonuniyatlarini aniqlashni o'z predmetiga aylantirgan o'z-o'zini tashkil etish nazariyasidir.

### **Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari**

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda kuzatish natijalari ko'p jihatdan kuzatuvchining shaxsiga, uning hayotiy qarashlariga va boshqa sub'ektiv omillarga bog'liq bo'ladi. Mazkur fanlarda oddiy (faktlar va hodisalar chetdan turib qayd etiladi) kuzatish va ishtirokchilikka asoslangan ichdan turib (bunda tadqiqotchi ma'lum ijtimoiy muhitga

qo'shiladi, unga moslashadi va hodisalarni «ichdan» tahlil qiladi) kuzatish farqlanadi. Psixologiyada kuzatishning o'z-o'zini kuzatish (introspektsiya) va empatiya (boshqa odamlarning ruhiy kechinmalariga kirib borish, ularning ichki dunyosi–sezgilari, fikrlari, xohish-istaklarini tushunishga intilish va h.k.) farqlanadi.

Etnometodologiya ichdan turib kuzatishning turlaridan biri bo'lib, u ijtimoiy hodisa va voqealarni tavsiflash hamda kuzatish natijalarini ularni tushunish g'oyalari bilan to'ldirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv hozirda etnografiya, ijtimoiy antropologiya, sotsiologiya va kulturologiyada tobora keng qo'llanilmoqda.

Ijtimoiy eksperimentlar ular ijtimoiy tashkil etish va jamiyatni boshqarishni oqilonlashtirishning yangi shakllarini amalga tatbiq etishga ko'maklashmoqda. Ijtimoiy eksperiment ob'ekti odamlarning ma'lum guruhi eksperimentning bevosita ishtirokchilaridan biri bo'lib, ularning manfaatlari bilan hisoblashishga to'g'ri keladi, tadqiqotchi esa o'zi o'rganayotgan vaziyatga bevosita qo'shiladi. Ijtimoiy eksperimentlar tadqiqotchidan axloqiy va yuridik norma va tamoyillarga qat'iy rioya etishni talab qiladi. Bu yerda (tibbiyotda bo'lgani singari) «ziyon yetkazma!» tamoyili muhim ahamiyatga ega. Insonning intim dunyosiga kirish quroli bo'lib xizmat qilish - ijtimoiy eksperimentlarning asosiy xususiyati.

Shakllantiruvchi eksperimentda muayyan ruhiy faoliyat qanday shakllanishini aniqlash uchun tajriba o'tkazilayotgan shaxs turli eksperimental sharoitlarga qo'yiladi va unga ma'lum masalalarni hal qilish taklif etiladi. Bunda murakkab ruhiy jarayonlarni shakllantirish va ularning tuzilishini yanada chuqurroq tadqiq qilish mumkin. Mazkur yondashuv pedagogik psixologiyada qo'llaniladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda falsafiy va umumilmiy vositalar, metod va amallardan tashqari, mazkur fanlarning predmeti bilan bog'liq maxsus vositalar, metod va amallardan ham foydalaniladi. Ularning jumlasiga quyidagilar kiradi:

Ideografik metod – alohida tarixiy dalillar va hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash.

Dialog - «savol – javob metodi» ikki va undan ortiq kishilar orasidagi muloqot, uning dialogitika, dialogizm kabi shakllari amal qiladi.

Tushunish va oqilona (intentsional) tushuntirish (bu haqda ushbu bobning keyingi paragrafida batafsil so'z yuritiladi).

Hujjatlarni tahlil qilish-son va sifat jihatidan tahlil qilish (kontent-analiz).

So'rovlar o'tkazish – maxsus tayyorlangan savollar yordamida u yoki bu masalaga oid ijtimoiy fikrni aniqlash. «Yuzma-yuz» so'rov (intervyu) yoki sirdan (so'rovnoma yordamida, pochta, telefon orqali va sh.k.) so'rov o'tkazish, ommaviy va maxsus so'rovlar farqlanadi. Maxsus so'rovlarda professional ekspertlar axborot olishning bosh manbai hisoblanadi.

Proektiv metodlar (psixologiyaga xos) – insonning produktiv faoliyati natijalariga qarab, uning shaxsiy xususiyatlarini bilvosita o'rganish usuli.

Testlash (psixologiya va pedagogikada) – standartlashtirilgan topshiriqlar bo'lib, ularni bajarish natijalari ayrim shaxsiy xususiyatlar (bilim, ko'nikma, xotira, zehn va sh.k.)ni o'lchash imkonini beradi. Testlarning ikki asosiy guruhi farqlanadi – intellekt testlari (mashhur Q koeffitsienti) va erishilgan (kasbda, sportda va h.k.) natijalar testlari. Testlar bilan ishlashda axloqiy jihat muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, layoqatsiz yoki g'irrom tadqiqotchining qo'lida testlar jiddiy zarar keltirishi mumkin.

Biografik va avtobiografik metodlar yordamida u yoki bu kishining hayot yo'li o'rganiladi.

Sotsiometriya metodi ijtimoiy hodisalarni o'rganishda matematika vositalaridan foydalanishdir. Undan ko'pincha «kichik guruhlar»ni va ulardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishda foydalaniladi.

O'yin metodlari boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda qo'llaniladi. Imitatsion o'yinlar (ishbilarmonlik o'yinlari) va ochiq o'yinlar (ayniqsa, nostandart) vaziyatlarni tahlil qilishda farqlanadi. O'yin metodlari orasida psixodrama va sotsiodrama alohida o'rin tutadi. Ularda ishtirokchilar muayyan individual va gruppaviy vaziyatlarni ko'rib chiqadilar.

### **Hozirgi zamon metodologiyasi**

«Kumatoid», «case studies», «abduksiya» an'anaviy metodologik tushunchalar ruhida tarbiyalangan odamga erish tuyulishi mumkin.

Kumatoid – suzayotgan ob'ektni anglatadi va ob'ektlarning tizimli xususiyatini aks ettiradi. U vujudga kelishi, hosil bo'lishi, shuningdek yo'qolishi, parchalanishi mumkin. U o'zining barcha

elementlarini birdan emas, balki o'ziga xos «hissiy-o'ta hissiy» tarzda namoyon etadi. Masalan, tizimli ob'ekt – o'zbek xalqini ma'lum vaqt, makon bo'lagida ifoda etish va mahalliyashtirish mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, ob'ektni yaxlit ifoda etish uchun o'zbek xalqining barcha vakillarini yig'ish mumkin emas. Shu bilan birga, mazkur ob'ekt soxta emas, realdir. Uni kuzatish, o'rganish mumkin. U butun sivilizatsion – tarixiy jarayonning yo'nalishini ko'p jihatdan belgilab beradi. Yana bir misol – talabalar guruhi. U dam paydo bo'ladigan, dam ko'zdan yo'qoladigan suzuvchi ob'ekt sifatida o'zaro aloqalarning deyarli barcha tizimlarida namoyon bo'ladi. Masalan, o'quv mashg'ulotlari tugaganidan keyin guruh yaxlit ob'ekt sifatida mavjud bo'lmaydi, ammo institutsiyaviy belgilangan ma'lum vaziyatlar (guruh raqami, talabalar soni, guruh tuzilishi, umumiy xususiyatlari)da u ob'ekt sifatida namoyon bo'ladi va o'z-o'zini identifikatsiya qiladi. Bundan tashqari, mazkur kumatoid guruh a'zolari o'rtasidagi do'stlik, raqobat va boshqa munosabatlar bilan ham qo'llab-quvvatlanadi. Kumatoidning o'ziga xos xususiyati shundaki, u vaqt va makonda mahalliyashtirishga befarq bo'libgina qolmay, substrat – o'zini tashkil etuvchi materialga ham qattiq bog'lanmagan. U tizimli xususiyatlarga ega emas. Binobarin, mazkur xususiyatlar uning tarkibiy qismlariga mavjud yoki mavjud emasligiga, ayniqsa, ularning rivojlanish yo'nalishi yoxud xulq-atvor tarziga bog'liq. Kumatoidni moddiy tarzda mustahkamlangan ma'lum bir xususiyat yoki bunday xususiyatlar to'plami bilan aniq identifikatsiya qilish mumkin emas. Butun ijtimoiy hayot suzuvchi ob'ektlar – kumatoidlar bilan to'lib-toshgan.

«Case studies», ya'ni vaziyatli tadqiqotlar o'tkazish hozirgi zamon metodologiyasidagi muhim yangilikdir. Mazkur tadqiqotlarni o'tkazishda fanlararo tadqiqotlar o'tkazish metodologiyasiga tayaniladi, ammo individual sub'ektlarni, mahalliy gruppaviy dunyoqarashlar va vaziyatlarni o'rganish nazarda tutiladi. «Case studies» atamasi pretsedentning, ya'ni kuzatish ostida bo'lgan va tushuntirishning mavjud qonunlari doirasiga sig'maydigan individuallashtirilgan ob'ektning mavjudligini aks ettiradi. Vaziyatli tadqiqot metodologiyasi neokantiantlar Baden maktabining idiografik metodi bilan bog'liq.

Vaziyatli tadqiqotlarning ikki tipi: matnli va maydondagi tadqiqotlar farqlanadi. Ularning ikkalasida ham mahalliy determinatsiya birinchi darajali ahamiyatga ega. Mahalliy determinatsiya

«ichki ijtimoiylik» tushunchasi bilan muayyanlashadi va ayni guruh yoki vaziyatga xos bo'lgan faoliyat, muloqot shakllari ta'sirida shakllanadigan bilimning noaniq shartlarining tutash tizimi deb, alohida so'zlar va harakatlarning ma'no-mazmunini belgilaydigan ijtimoiy-madaniy kontekst deb tushuniladi. Vaziyatli tadqiqotlarning ustunligi shundaki, ularda bilim tizimining mazmuni shartlarning pirovard to'plami, hayotiy vaziyatlarning muayyan va alohida shakllari nuqtayi nazaridan ochib beriladi. Hozirgi zamon metodologiyasi o'z an'anaviy metodlarining universalligi cheklanganligini tushunadi. Masalan, gipotetik-deduktiv metod ishni tayyor gipotezalardan boshlab, «dalillarni eng yaxshi tushuntirish» bosqichidan sakrab o'tganligi uchun tanqid qilinadi.

Abduksiya fikr yuritish orqali empirik faktlardan ularni tushuntiruvchi gipotezaga yuksalishni nazarda tutadi. Bunday fikr yuritish turmushda va amaliyotda ko'p uchraydi. Har bir inson tushuntirish yo'llarini izlashda beixtiyor abduksiya murojaat etadi. Masalan, vrach kasallik alomatlariga qarab, uning sababini, detektiv esa jinoyat izlariga qarab jinoyatchini qidiradi. Xuddi shuningdek, olim ham sodir bo'layotgan hodisani tushuntirishda abduksiya metodidan foydalanadi. Mazkur atama induksiya va deduksiya singari mashhur, keng e'tirof etilgan bo'lmasa ham, u yangi hamda samarali metodologik strategiyani ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Evristika yunoncha heurisko – topaman, kashf etaman, degan so'zdan kelib chiqqan. «Evristika» atamasining qo'llanilishi qadimgi yunon olimi aleksandriyalik Papp (miloddan avvalgi III asr) nomi bilan bog'lanadi. Bu nuqtayi nazardan evristika matematika masalalarini yechishni o'rganishni istaganlarga mo'ljallangan qoidalarining maxsus to'plami sifatida namoyon bo'ladi. «Mahorat sirlari» hamisha qat'iy sir tutilgan va tavsiflanmagan. Evristikani kashfiyotlar to'g'risidagi fan sifatida tavsiflash barcha zamonlarda ham juda murakkab vazifa hisoblangan. G. Leybnitsning «Kashfiyot san'ati» g'oyasi amalga oshmadi. B. Spinoza to'g'ri metod oqilona tanlashni ta'minlashi, noma'lumni bilish qoidalariga ega bo'lishi, foydasiz imkoniyatlarni chetlatish tartibini belgilashi lozimligini qayd etgan bo'lsa-da, buni asoslovchi nazariyani yaratmadi. Muayyan ilmiy bilimdagi barcha ikkilamchi, noaniq metodologik qoidalar evristika sohasini to'ldiradi. Shuning uchun ham evristika ba'zan qayg'urish,

ilhomlanish, insayt bilan bog'lanadi. Metodologik tafakkurning izchil tizimida evristikaga ko'pincha yetarli darajada anglab bo'lmaydigan, ammo izlash va topish salohiyati katta bo'lgan soha deb qaraladi. Formal mantiqiy metodlar evristik metodlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Barcha mumkin bo'lgan hollarda evristikadan bilim mazmunini kengaytirish, ilgari ma'lum bo'lmagan yangilikni yaratish kutiladi. Evristika fanlararo xususiyatga egaligi mazkur sohaning o'ziga xos belgisidir. Ammo evristik xususiyat fan ichidagi bilimda ham mavjud. Evristik sezgi ilmiy izlanishning deyarli har bir qadamiga hamroh bo'ladi. Reduktsiya, metodlarini o'zlashtirish, gumanitar va texnika fanlarining usullarini birlashtirish, muayyan ilmiy ishlovlarni amalga tatbiq etishni tanlash, hal qiluvchi eksperimentning o'zi ma'lum darajada evristik farazlarga asoslanadi.

Evristika ilmiy va noilmiy bilim, oqilonalik va nooqilonalik o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib, xizmat qiladi. U xulq-atvor taktikasini tanlashga va rivojlanish jarayonida to'g'ri yo'l topishga ko'maklashadi. Ilmiy tavakkalchilik mezoni sifatida evristika ilmiy bilimni rivojlantirishning tarkibiy qismi sifatida hamisha olqishlangan, dunyoning postnoklassik manzarasida esa nazariyaning evristik xususiyati bilim berish jarayonini o'zgartirish, uni ijodiy, muammoli, o'yin tarzida o'tkazish imkonini beradigan ilmiy bilim mezoni darajasiga ko'tarildi.

Evristika sirlariga yaqinlashishga bo'lgan eng so'nggi urinishlardan biri A.F.Osbornning «miyaga hujumi»dir. Unda kashfiyotchilikning o'rindoshlik, o'tkazish, birlashtirish va ajratish bilan bog'liq an'anaviy usullari bilan bir qatorda, xayolni rag'batlantiruvchi usullar: tig'iz muddatlar tizimi, muammoni tanqidsiz vaziyatda erkin muhokama qilish, tortishuvlik muhitini yaratish, shuningdek hazil taxminlar qilish qayd etiladi. Ammo evristika yo'nalishining vakili D. Poyya ilgari surgan ijodning (yoki muammolarni samarali hal qilishning) muqarrar tarzda amal qiladigan qoidalarini ishlab chiqish amalga oshirib bo'lmaydigan vazifa, degan g'oyasi yanada an'anaviyroq hisoblanadi.

Evristika o'ziga xos metodologiya, ya'ni ijodiy faoliyat metodlarining majmui sifatida ma'lum talablar qo'yadi:

– u oddiy tanlash usullariga emas, balki muammoni hal qilish vaqtini qisqartirish imkonini beradigan usullarga tayanadi; qo'llaniluvchi usullar an'anaviy qabul qilingan va eskirgan usullardan

jiddiy farq qilishi mumkin; usullardan foydalanishga tadqiqot ko'rsatkichlariga qo'yiladigan tashqi cheklashlar qarshilik ko'rsatadi; izlanish modellari jiddiy darajada individuallashtirilgan bo'lib, bilish sub'ektining ruhiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq.

Evristik faoliyatning bir qancha modellari farqlanadi. Eng sodda model – ko'r-ko'rona qidirish modeli yoki «Labirint» modeli nisbatan keng tarqalgan bo'lib, unda muammo yechimini qidirish labirintda yo'l qidirishga o'xshatiladi. G. Bushning masala maydonini hosil qiluvchi ob'ektlarning tuzilishini va ular o'rtasidagi ma'naviy aloqalarni aks ettiruvchi strukturaviy-semantik modeli alohida diqqatga sazovor. Mazkur model bilan ishlash bir nechta bosqichga ajraladi: – kelgan axborot oqimida diskret ob'ektlarni ajratish (selektiv tanlash). «Labirint» modeli oldinga tinimsiz intilish, intuitsiyaga va topqirlikka tayanish zarurligini ko'rsatadi hamda bu yo'lda muvaffaqiyatga ham, muvaffaqiyatsizlikka ham uchrashi mumkinligini aks ettiradi: – muammolar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash; qo'yilgan vazifa bilan bog'liq bo'lgan aloqa ob'ektlarini aktuallashtirish; markazdan uzoqdagi aloqa va ob'ektlardan abstraksiyalanish; umumlashtirilgan ob'ektlarni shakllantirish; umumlashtirilgan ob'ektlar o'rtasidagi aloqalarni topish; umumlashtirilgan labirint bo'ylab qidirish.

«Transformator» modeli mavjud muammoga uzil-kesil ta'riflangan muammo deb qaramaydi, ammo uning yechimini faqat ko'p marta o'zgartirish, hamda uning shart va talablarini qayta-qayta ta'riflash, maqsadlarining shaklini o'zgartirish orqali aniqlashga harakat qiladi.

«Shlyuz» modeli ma'naviy yoki moddiy rag'batlantirish vositalari yordamida inson ijodiy faolligining imkoniyatlarini ochishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

«Idish» modeli har bir inson axborot saqlovchi va ko'plab imkoniyatlarni tasarruf etuvchi ekanligidan kelib chiqadi. Inson to'plab boradigan bilim dinamik xususiyatga ega bo'lib, uni voqelikni o'zgartirish tomonga yo'naltirish mumkin.

«Urug'» modeli organizmning o'xshatishlarida namoyon bo'lib, u ijodiy faoliyat biologik va ijtimoiy jihatdan belgilanganligini ko'rsatadi. har bir inson kreativ imkoniyatlarga ega bo'lib, ularni o'stirish talab etiladi.

«Raketa» modeli ichki impuls va energiyaning muhimligi hamda ahamiyatiga e'tiborni qaratadi. Inson o'zi uchun hayotiy



muhim bo'lgan muammoni hal qilishdan manfaatdor bo'lganida ushbu energiya faollashadi. Mazkur model ichki energiyani tashqi harakat, hodisa yoki yechimga aylantirishni nazarda tutadi.

«Tramplin-to'siq» modelida ijod jarayoni sub'ekti axborot yetarli bo'lmagan hollarda duch keladigan psixologik to'siqni bartaraf etish bilan bog'liq vaziyatni tahlil qiladi. Ba'zan odatdagi fikrlash usuli gnoseologik to'siq yoki axborot to'sig'i sifatida ta'sir ko'rsatadi. Uni evristik qoidalar va tavsiyalar majmui bo'lgan tramplin modeli yordamida bartaraf etish mumkin.

«Prizma» modeli qo'yilgan vazifaning turli jihatlarini ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

«Quruq yog'och» modeli ijod va ilhom xususiyatini ifoda etadi. Ma'lumki, Gyote doimiy, kundalik mehnatni «o'tin yorish va uni quritish»ga o'xshatadi. Ijod olovi alangalanganida quruq yog'och lovillab yonadi.

«Teng pallali tarozi» modeli ijod samarali bo'lishi uchun ijodkoming bilimi, tajribasi, izchil faoliyati, motivlari va irodasi singari o'zaro bog'liq jihatlar teng holatda bo'lishini nazarda tutadi.

«Hazilsiz mutoyiba» modeli ijodni oshirib ko'rsatish, payrov qilish, oddiy va g'ayrioddiyini uyg'unlashtirish, tasodifiy belgisiga qarab uyg'unlashtirish bilan bog'liqligini nazarda tutadi. Bunday usullar hazilkash odamning faoliyatini yodga soladi, ammo u tafakkurning ijodiy jarayonida zohir bo'ladi.

Evristik faoliyat natijalarining kelib chiqishi har xil bo'lishi mumkin. Ular xayolot va fantastika, skeptitsizm va krititsizm, realizm va astoydil mehnat, ilhom, pragmatizm, intuitsiya mahsuli bo'lishi mumkin. Ular sxolastika yoki prognoz, mistitsizm, illyuziyalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ular solipsizmga, hissiy qabullashlar kuchiga asoslanishi yoki sentimentalizm bilan sug'orilgan bo'lishi mumkin.

Evristikada muqarrar tarzda amal qiladigan qoidalar mavjud emas, evristik izlanish jarayonida aniqlangan o'ziga xos xususiyatlar va xossalalar to'g'risidagina so'z yuritish mumkin. Muayyan kashfiyotning barcha usul va amallari, bosqich va kodlari evristika sohasiga kirib keladi. Oqilona evristika izchil ketma-ketlikda joylashtirilgan va umumiy tarzda ta'riflangan stereotip va qoidalarning mavjudligini nazarda tutmaydi. Unda tadqiqot jarayoni ham, izlanish usullarini tanlash ham, uning natijasi ham yangilik

bo'ladi. Unda har bir insonning o'ziga xos xususiyatlari aksini topishi va e'tiborga olinishi lozim.

Evrastika qoidalariga quyidagilar kiritiladi:

- ijodiy kashfiyotchilik metodologiyasi evristikdir;
- kashfiyotchilik vazifalari turkumi cheksizdir, kashfiyot usullari turkumi cheklangandir;
- masalaning yechimini izlash usuli har doim sub'ektiv jihatga ega bo'ladi, uning samaradorligi kashfiyotchining mahoratiga bog'liq;
- masalalarni yechishning yangi usullari kamdan-kam hollarda ijobiy natijaga olib keladi, ammo ular yordamida topilgan yechimlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi;
- topilgan yechimga muqobil tarzda masala hal qilinishining qarama-qarshi usuli hamisha mavjud bo'ladi;
- biron-bir kashfiyotchilik vazifasi xulq-atvor va mushohada yuritishning ma'lum anglab yetilgan yoki anglab yetilmagan usuli, strategiyasi yoki taktikasisiz hal qilinmagan .

Evrastik qoidalar evristiklikning atributivligini, ya'ni u faoliyat jarayonining har qanday sub'ektiga xosligini, shuningdek ijodiy imkoniyatlar rivojlantirilishi va o'zlashtirilishi mumkinligini qayd etadi. Shu narsa shubhasizki, ijodiy, evristik jarayon kashfiyot vazifasini ta'riflashdan boshlanadi. U ma'lum va noma'lum, mavjud va izlanayotgan, bilim va bilmaslik o'rtasidagi bo'g'indir.

### **Qonun tushunchasining tahlili**

Qonun – bu moddiy va ma'naviy hodisalarning harakat va rivojlanish xususiyati va yo'nalishini belgilovchi ob'ektiv, muhim, zaruriy, barqaror va umumiy aloqasi. Shuni e'tiborga olish lozimki, ilmiy adabiyotlarda «qonun» tushunchasidan tashqari «qonuniyat» tushunchasi ham ishlatiladi. Bular ayniy tushunchalar emas. Ular bir tartibli tushunchalardir, chunki ularda ob'ektiv borliqda mavjud bo'lgan zaruriy, ob'ektiv, umumiy aloqalar aks etadi. Ammo qonuniyat qonunga qaraganda kengroq tushunchadir. Qonun muayyan sharoitda o'zini qat'iy va muqarrar tarzda namoyon etsa, qonuniyat bir qancha qonunlarning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'siri sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish chog'ida qiymat qonuni yoki ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishining muayyan darajasiga ishlab chiqarish kuchlarining muvofiqligi qonunining aniq ko'rinishlari haqida ham, ob'ektiv qonuniyat sifatidagi jamiyatning faol rivojlanishi haqida ham gapirish mumkin. Yuqorida keltirilgan

ta'rif hamma qonunlarga tegishli. Ammo qonunlar har xil bo'ladi. Xususan, asosiy va ikkinchi darajali, dinamik va statik qonunlar, tabiat va jamiyat qonunlari, maxsus va umumiy qonunlar farqlanadi. Borliq qonunlari haqidagi ta'limot sifatidagi dialektikani umumiy (universal) qonunlar qiziqtiradi, chunki ular, birinchidan, faoliyatning barcha sohalariga xos, ya'ni tabiat, jamiyat va bilishda amal qiladi; ikkinchidan, harakat va rivojlanishning teran asoslarini yoritib beradi, aniqroq aytganda, rivojlanish nima uchun, qay tarzda, qaysi yo'nalishda yuz beradi, degan muhim savollarga izchil javob beradi.

Dialektika borliqning umumiy qonunlari haqidagi ta'limot sifatida ob'ektiv dunyo tinimsiz harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'lishidan kelib chiqadi. Dialektikaning bu qoidasi uning ikkinchi tamoyili – rivojlanish tamoyilida qayd etiladi. Ammo rivojlanishni ko'rish va uning mavjudligini tan olishning o'zi kifoya qilmaydi. «Rivojlanish» tushunchasining mohiyat va mazmuni haqida aniq tasavvur hosil qilish talab etiladi. Biroq har qanday jism va jarayon dastlab shakllanadi. Shu bois, dastlab shakllanish va o'zgarish g'oyasining tahliliga to'xtalamiz.

Shakllanish – narsalar va hodisalarning o'zgaruvchanligini ifodalovchi falsafiy kategoriya. U asosan uch xil ma'noda ishlatiladi:

- a) rivojlanish kategoriyasining sinonimi sifatida;
- b) jarayonlar va hodisalarga turtki beruvchi omillarning yuzaga kelish jarayonining ifodasi sifatida;
- v) predmetning «dastlabki shakllanish» jarayoni tavsifi sifatida, vujudga kelish va yo'q bo'lish, borliq va yo'qlikning yagonaligini o'zida ifodalovchi jarayon sifatida. Shakllanish jarayonida eskidan yangiga o'tish, uning o'sishi, mustahkamlanishi va rivojlangan yaxlit tizimga aylanishi amalga oshadi. Dunyoda hamma narsa vujudga kelishi va yo'q bo'lishini payqagan qadimgi mutafakkirlar bu xossani mutlaqlashtirganlar, o'zgarish barqarorlikni, muayyan o'zgarmas jihatning saqlanishini ham nazarda tutishini anglamaganlar. Aks holda, holati o'zgargan eski bilan yangining o'rtasida hech qanday aloqa bo'lmasa, qanday o'zgarish haqida va nimaning o'zgarishi haqida gap borishi mumkin? Bu yerda o'zgargan narsa yoki hodisaning o'zi yo'q, demak, o'zgarish ham mavjud emas. Shakllanish mutlaqlashtirilishi mumkin emas, zero, u o'zgarish, eskidan farq qiladigan yangining vujudga kelishidir. Shakllanish bir narsaning o'zgarishi natijasida boshqa narsaga aylanish jarayonini aks

ettiradi, lekin bunda narsaning o'zi umuman mavjud bo'lgan narsa sifatida saqlanib qoladi. Faqat konkret borliq o'zgaruvchan va shakllanadi (xuddi shuningdek zavol topadi), lekin bu mutlaq borliqdir, zero umuman borliq o'zgaribmasdir. Shakllanish, aniqroq aytganda o'zgarish jarayoni (bu yerda nafaqat bunyodkorlik, balki vayronkorlik yo'nalishini ham e'tiborga olish zarur) borliq tushunchasining mazmuni bilan muvofiq kelmaydi. Buning sababi shundaki, birinchidan, borliq o'zgaribmasdir, ya'ni u shakllanishi, paydo bo'lishi mumkin emas; ikkinchidan, borliq - bu mavjudlikning xossalaridan biri emas, balki mavjudlikning o'zidir. Shakllanish - bu muayyan narsa yoki hodisa bilan yuz beruvchi jarayondir.

Bizni qurshagan real dunyoni o'rganish deyarli har lahzada uning ikki muhim va muqarrar xossasi - barqarorlik va o'zgaruvchanlikni amalda namoyish etadi. Masalan. Yer yuz millionlab yillardan beri Quyosh atrofida o'z orbitasi bo'ylab aylanadi, lekin bu takroriylik Ptolemey va Kopernik faraz qilganidek tutash epitsikl bo'ylab emas, balki spiral bo'ylab amalga oshadi, ya'ni bir vaqtning o'zida ham barqarorlik, ham o'zgaruvchanlikni namoyish etadi. Bu yerda har bir aylanma harakat yangi hisoblanadi. O'tgan millionlab yillar mobaynida kosmosda son-sanoqsiz yulduzlar paydo bo'lgan va so'ngan. Ya'ni paydo bo'lgan har bir yulduz makonda va vaqtda harakatlanadi, ushbu harakat jarayonida o'zgaradi va shu bois muqarrar tarzda «yo'q bo'ladi», shu tariqa u Koinot borlig'ining barqaror umumiy qonuniyati - mavjudlik shakllarining o'zgarishini amalda namoyish etadi. Bunda yulduzning materiali yo'q bo'lib ketmaydi, balki navbatdagi shakl-shamoyilni kasb etadi. Yerda tog'lar paydo bo'ldi va yemirildi, dinozavrlar yo'q bo'lib ketdi va «odamlar» paydo bo'ldi. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar vujudga keldi, rivojlandi va inqirozga uchradi. Ularning o'mida ayni shu odamlardan yangi tuzumlar shakllandi. Qadimgi dinlar paydo bo'ldi, rivojlandi va yo'q bo'lib ketdi. Yangi va son-sanoqsiz mazhablar paydo bo'ldi.

O'zgarish - moddiy ob'ektlarning o'zaro aloqaga kirishish jarayoni va uning natijasi, moddiy tuzilmalar aloqalari navbatdagi shaklining amalda aktuallashuvi. Bizni qurshagan dunyo shakllarining rang-barangligini va undagi aloqalarning rang-barangligini aniqlash kuzatuvchan inson uchun unchalik qiyin ish emas. Ammo shakllarning bunday rang-barangligining konkret, umumiy sababini

va harakat shakllaridan biri – o'zgarishning mohiyatini tushuntirish talab etiladi.

Dialektikada hodisaning mohiyati deganda mazkur hodisani vujudga keltirgan qarama-qarshiliklarning haqiqiy munosabati, ya'ni qarama-qarshiliklar birligi va kurashi tushuniladi. Har qanday hodisa uning o'zida yoki uning sirtida muayyan narsalar o'rtasida yuz bergan o'zaro aloqalarning oqibati hisoblanadi (bunda ichki o'zaro aloqalar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi). Ayni shu sababli biror narsaning mohiyatini aniqlash munosabatlari (birligi va kurashi) hodisani vujudga keltiruvchi sabablar, ya'ni konkret, eng avvalo, ichki qarama-qarshiliklarni topish demakdir.

O'zgaruvchanlikning yo'q bo'lmasligi shu bilan belgilanadiki, ichki va bizni qurshagan dunyo hodisalarining umumiy aloqasini yo'q qilishga, binobarin, o'zaro ta'sirlarga barham berishga hech kim va hech narsa qodir emas. Boz ustiga, mutlaqo sof tajriba o'tkazish, ya'ni biror narsa yoki hodisani uning tashqi va ichki ta'sirlarisiz anglab yetish barcha tabiiy fanlarning ulkan muammosi hisoblanadi. Masalan, «mutlaqo egiluvchan jism», «nuqta», «mutlaq tezlik», «umuman tovar» kabi tushunchalarni olimlar faqat mavhum tushuntirilardi, tor doiradagina qo'llashga muvaffaq bo'ladilar.

Rivojlanish tushunchasi adabiyotlarda ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'nodagi rivojlanish tushunchasi tizimning hayot siklini to'la qamrab oladi (va ayni holda uning rivojlanishidagi o'sish va pasayish to'g'risida so'z yuritiladi). Tor ma'nodagi rivojlanish deganda esa faqat evolyutsiyaning o'sish jarayoni (bu holda pasayish jarayoni rivojlanishga zavol topish va tanazzul jarayoni sifatida qarama-qarshi qo'yiladi).

Rivojlanish ijobiy o'zgarish yasashga qaratilgan harakat, degan tasavvur qadimda yuzaga kelgan. Biroq u, asosan, nisbiy xususiyatga ega bo'lgan. Tarixiy taraqqiyot g'oyasi dunyo va insonning pirovard taqdiri, koinot va tarixning maqsadi haqidagi diniy ta'limotni (xristian esxatologiyasini) rad etishdan boshlanadi. Taraqqiyot avval ilmiy bilish sohasida tadqiq etildi, so'ngra u bilan bog'liq g'oya ijtimoiy munosabatlar sohasiga tatbiq etildi.

Antik davr faylasufi Gesiod o'zidan oldingi besh asrdan buyon o'tgan tarixni tavsiflagan. Bunda ahvol asrdan asrga yomonlashib borgan. Tarix olijanoblik va yuksak axloq hukm surgan «oltin asr»dan boshlangan, so'ng ular tanazzulga yuz tutgan «kumush asr»

kelgan. Tarixiy jarayon mutlaqo axloqiy tubanlikni namoyish etuvchi «temir asr» bilan yakunlangan. Gesiodning fikr-mulohazalarida regress g'oyasi aniq ko'zga tashlanadi. Uning yondashuvi aniq va tushunarli: u o'sha davr jamoa tuzumi inqirozga yuz tutgan zamonda yashagan va uning fikr-mulohazalarida aynan eski jamiyatga xos ma'naviy-axloqiy negizlarning yemirilishi o'z ifodasini topgan. Qizig'i shundaki, Gesiodning ushbu fikri o'z davridan nolib yuradigan odamlarga shunchalik ma'qul bo'lganki, u yashagan davrdan ikki ming yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lishiga qaramay, bu mulohaza haligacha odamlar orasida «Yildan yilga ahvol battar» degan ibora tarzida saqlanib qolgan. Agar shunday bo'lganida edi, bu olamda o'shandan buyon hech vaqo qolmagan, balki Yerning o'zi ham yo'qolib ketgan bo'larmidi?

Uyg'onish davri mutafakkirlari aql-idrokka tayanib yashash tamoyilini «rivojlanish» tushunchasi bilan bog'lab, shakllanayotgan yangi siyosiy kuchlarning ideallari va ehtiyojlarini tarixning pirovard maqsadi darajasiga ko'targanlar. XVIII asrda yashagan italyan faylasufi Viko ijtimoiy taraqqiyot g'oyasini, ayniqsa, puxta ishlab chiqdi. U barcha xalqlar o'z taraqqiyotida quyidagi uch bosqichdan o'tishi haqidagi g'oyani ilgari surdi: 1) «Xudolar asri» – diniy rahnamolarga bo'ysunish davri; 2) «Qahramonlar asri» – aristokratik davlat davri; 3) «Insonlar asri» – respublika yoki vakillik monarxiyasi davri. Uning fikricha, shu bosqichlardan o'tgach, muayyan xalq quyiga qarab harakat qila boshlaydi. Ya'ni tanazzul bosqichi boshlanadi, so'ngra yuqorida zikr etilgan jarayon takrorlanadi. Viko tarixiy rivojlanish siklik va ziddiyatli xususiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratgan. Shu bois uning ta'kidlashicha «progress» tushunchasini uning ziddi – «regress» (lot. regressus – teskari harakat, orqaga qaytish) tushunchasi bilan bog'liq holda o'rganish lozim.

Umuman olganda, progress rivojlanish sur'atlarining o'sib borishi bilan tavsiflanadi va u tarixiy rivojlanishning ob'ektiv qonuni sifatida qabul qilinadi. Ammo regressning ayrim unsurlari, aloqalari va funksiyalarining mavjudligi taraqqiyotning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Frantsuz sotsiologi R.Aron «Taraqqiyotdan ko'ngil sovishi» kitobida bu boradagi halokatli urushlar, tabiiy ofatlar, insoniyatning umumiy tanazzuliga ishora qilgan. U Yer aholisi haddan tashqari ko'payib ketgani, fan-texnika inqilobi sharoitida insonning biologik jihatdan tubanlashuvi yuz berayotgani haqida fikr yuritib,

pessimistik xulosalar chiqargan va rivojlanish g'oyasining o'ziga shubha bildirgan.

Ammo jahonning tarixiy rivojlanish jarayonini tangliklar va inqirozlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dunyoni mutlaqo tartibli holda ko'rish, tabiiy tarixiy jarayonni umumiy, faqat ijobiy manzaralarda ifodalash istagi nazariy prognozlardan ham ko'ra ko'proq utopik (xom xayol), amalga oshmaydigan loyihalar sohasiga taalluqlidir.

Kishilik jamiyatining quyidan yuqoriga tomon rivojlanishi doimo ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'langan bo'lsa-da, tarixiy taraqqiyotning asl mohiyati, qonunlari va harakatlantiruvchi kuchlari uzoq vaqtgacha ma'lum bo'lmagan. Idealizm g'oyalari bilan ruhlangan faylasuf va sotsiologlar progress manbaini ma'naviy negizdan, aql-zakatning takomillashish qobiliyatidan, axloq hamda huquqiy g'oyalarning rivojlanish darajasidan izlaganlar. Ammo bu oliy ma'naviy kuchlarni rivojlanishga nima majbur qilishi tushunarsiz bo'lib qolgan.

Rivojlanish – serqirra hodisa bo'lgani kabi, jamiyat ham juda ko'p rang-barang element va jarayonlarni o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. Bu element va jarayonlar rivojlanuvchi, yuksalishga qodir va progressiv o'zgarishlarning o'z mezoniga ega kichik tizimlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ijtimoiy taraqqiyotning muayyan mezonlari sifatida, iqtisodiy mezon bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va gumanistik mezonlar ham qayd etiladi. Ayni vaqtda bu xususiy mezonlar ijtimoiy hayotning ayrim jihatlarinigina tavsiflaydi va taraqqiyot haqida umumiy yaxlit tasavvur bermaydi. Jamiyatning o'z-o'zidan rivojlanuvchi harakatchan tizim sifatida rivojlanishi uning barcha kichik elementlari bir xilda va bir xil sur'atda rivojlanishini anglatmaydi. Odatda, ularning rivojlanishi notekis kechadi, ayrim sohalardagi progress boshqa sohalardagi regress yoki bir yoqlama rivojlanish bilan birga namoyon bo'ladi.

Ba'zi G'arb sotsiologlari rivojlanish mezonlarini ong sohasidan izlashni tavsiya etadilar va inson o'zini qay darajada baxtli, xotirjam his qilishiga qarab, bu muammoni axloqiy muammolar bilan bir qatarga qo'yadi. Ammo bunday yondashuvlar sub'ektiv xususiyatga ega, chunki odamlarning maqsadi, ideallari va kayfiyati muttasil o'zgarib turadi. «Rivojlanish» tushunchasi universal emas, balki nisbiy xususiyatga ega. Falsafada uni butun koinotga nisbatan qo'llab bo'lmaydi, chunki unda aniq belgilangan rivojlanishni

kuzatish mumkin emas, degan fikrlar bor. Bu tushunchani siklik xususiyatga ega bo'lgan ko'pgina jarayonlarga nisbatan ham qo'llab bo'lmaydi. Tabiatdagi taraqqiyotni tahlil qilishda rivojlanishning asosiy tarmog'i va ikkinchi darajali tarmoqlari farqlanadi. Ayrim olimlar fikriga ko'ra, harakatning oliy, ya'ni ijtimoiy shakliga taraqqiyotning yaqinlashuv darajasi jonli tabiat taraqqiyotining umumiy mezonini hisoblanadi.

Rivojlanish ochiq tizimning mavjudligi va evolyutsiyasi, bir tomondan, uning ichki tuzilishiga, boshqa tomondan esa – uning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasiga bog'liq. Bu o'zaro aloqa jarayonida uning entropiyasi ko'payishi ham, o'zgarishsiz qolishi ham, kamayishi ham (atrof muhitda entropiyaning o'sishi hisobiga) mumkin. Entropiyaning kamayishi tizimning differentsiyalanishi, tizim strukturasi murakkablashuvi va uyushqoqlik darajasining ortishi bilan bog'liq. Tizimning uyushqoqlik darajasini aniqlash uchun quyidagi mezonlardan foydalaniladi: strukturaviy mezonlar – tizimning murakkablik darajasi, tizim elementlari va ularning o'rtasidagi aloqalarning rang-barangligi va h.k.; energetik mezonlar – tizim faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari (muayyan maqsadga erishish uchun qanday modda va energiya sarflari talab etilishi bilan belgilanadi); informatsion mezonlar – sirdan olinuvchi va tizimda aylanuvchi axborot miqdori va sifati, shuningdek axborotni qayta ishlash va undan boshqaruv tizimlarida foydalanish usullari va h.k.

Evolutsiya qilayotgan, uyushqoqlik darajasi o'sib borayotgan tizimlar rivojlanayotgan tizimlar hisoblanadi. Ammo shuni e'tiborga olish lozimki, har qanday konkret tizim o'z tarixiga ega, bu tarixning esa boshi va oxiri bor. Bu tarixda tizimning u paydo bo'lganidan keyingi hayoti avvaliga uyushqoqlikning qandaydir oliy darajasigacha (yunon. «akme» - cho'qqi) o'sib boradi, so'ngra uyushqoqlik darajasi pasaya boshlaydi, tizimning strukturasi soddalashadi, tartibsizlik kuchayadi va mazkur jarayon tizimning halok bo'lishi bilan tugaydi.

Rivojlanish tushunchasiga u boshqa ma'lum tushunchalar – «o'zgarish» va «harakat» bilan o'zaro nisbatlash yo'li bilan ta'rif berish mumkin. O'zgarish – bu narsalar, hodisalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi. U «barqarorlik»ka zid va aniq yo'nalishli – progressiv yoki regressiv xususiyat kasb etadi. Progress yoki taraqqiyot – materiya tuzilishining quyi shakllaridan oliy shakllariga,



soddadan murakkabga o'tish. Bunga teskari yo'nalishda yuz beruvchi jarayon regress deb ataladi.

«Harakat» tushunchasini dialektika materiyaga tatbiqan «umuman o'zgarish» sifatida tavsiflaydi, ya'ni u dunyoda yuz beruvchi barcha jarayonlarni, ularning mazmunidan qat'i nazar qamrab oladi. Harakat o'z hajmiga ko'ra rivojlanishga qaraganda kengroq tushuncha, lekin rivojlanish o'zining konkret mazmuniga ko'ra harakatga qaraganda chuqurroq. Rivojlanishni harakat fenomenidan quyidagi jihatlar yordamida farqlash mumkin: a) vaqtda aniq yo'nalishga egalik – o'tmishdan hozirgi davr orqali kelajakka qaratilganlik; b) jarayonning ortga qaytmasligi, ya'ni o'zgaruvchi real narsalar, hodisalar o'z individual jihatlarida betakroridir; v) rivojlanish jarayonida yangi, ya'ni ilgari mavjud bo'lmagan narsaning paydo bo'lishi; g) rivojlanishning qonuniy xususiyati, u muayyan qonunlarga bo'ysunishi.

Shunday qilib, rivojlanish umuman o'zgarishning muayyan shakli, harakatning alohida turi bo'lib, unga moddiy ob'ektlarning qonuniy, yo'naltirilgan, orqaga qaytarib bo'lmaydigan, sifat o'zgarishlari xosdir.

Rivojlanish bilan yuzaki tanishish u bir yo'nalishli xususiyatga ega, degan tasavvur uyg'otishi mumkin. Amalda bunday emas. Bunga ishonch hosil qilish uchun ba'zan ayniyashtiriladigan «rivojlanish» va «taraqqiyot» tushunchalarini o'zaro nisbatlash kifoyadir. Rivojlanishning fatalistik konsepsiyasiga ko'ra progress muqarrar jarayon bo'lib faollikni susaytiradi, hayotga tomoshabin bo'lib qarash, voqelikni loqayd kuzatishga yo'naltiradi.

Rivojlanishning volyuntaristik konsepsiyasi jahon tarixining ob'ektiv qonunlarini inkor etish, o'z xohish-irodasini stixiyali tarzda ifodalash, ijtimoiy rivojlanishni erkin baholash bilan bog'liqdir.

Falsafiy yondashuv tarixiy taraqqiyot ildizlarini moddiy ishlab chiqarish sohasidan, iqtisodiyotdan izlash kerak, degan g'oyani ilgari suradi. Bunda inson va u yaratgan mehnat qurollarini o'z ichiga olgan jamiyatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyotning oliy ob'ektiv mezoni sifatida tan olinadi. Muayyan ijtimoiy tuzumning progressivligi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bunda ishlab chiqarish kuchlari jamiyatning rivojlanish darajasini pirovard natijada, umumbashariy tarixiy miqyosda, umumiy tarzda belgilaydi, deb hisoblanadi. Go'yoki

ishlab chiqarish kuchlari erishgan har bir daraja juda ko'p turli imkoniyatlarni yaratadi va ijtimoiy harakat yo'li ko'pgina holatlarga, xususan, ijtimoiy faoliyat sub'ekti tanlagan tarixiy yo'lga bog'liq bo'ladi. Bugungi tarix taraqqiyotni ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga bevosita bog'lash mumkin emasligini, ustqurmaviy hodisalar iqtisodiyotga nisbatan mustaqil ekanligini ko'rsatdi.

Rivojlanishning dialektik konsepsiyasi quyidagi jihatlariga alohida e'tiborni qaratadi: birinchidan, rivojlanishning manbai narsalar, hodisalar va jarayonlarning ichki ziddiyatlaridir. Bu borliqning barcha hodisalariga ichki qarama-qarshiliklar xos ekanligini anglatadi. Bu qarama-qarshiliklar o'rtasidagi munosabatlar ziddiyatlar deb ataladi. Har bir predmet, hodisa, jarayon doirasida qarama-qarshiliklarning birligi va qarshi harakati kuzatiladi. Bu «qarshi harakat» rivojlanish manbai hisoblanadi. U hamma joyda: jonsiz tabiatda ham, jonli tabiatda ham, ijtimoiy hayotda ham, ong sohasida ham yuz beradi. Chunki borliqning umumiy qonuni – dialektik ziddiyatlilik qonuni amal qiladi.

Ikkinchidan, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi rivojlanishning shakli hisoblanadi. Tabiat, jamiyat va tafakkurda yuz beruvchi jarayonlar tahlili har bir narsa, hodisa, jarayonga bir-biri bilan uzviy aloqa qiluvchi va muttasil o'zgaruvchi miqdor va sifat jihatlari xosdir, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Bu o'zgarishlarning mohiyati shunda namoyon bo'ladiki, miqdor o'zgarishlari asta-sekin yig'ilib, predmetning me'yorini oshiradi va uning sifat holati o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bu sakrash, rivojlanish jarayonida hujumkorlikni to'xtatish tarzida yuz beradi. Bu yerda borliqning umumiy qonuni – miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni amal qiladi.

Uchinchidan, rivojlanish jarayonida vorisiylik omili muqarrar tarzda mavjud bo'ladi. Buning natijasida rivojlanish oldingi darajalarining boyligi muttasil to'planishi unga hujumkor tus beradi. Shunga qaramay ayni shu hujumkorlik ziddiyatlidir, chunki rivojlanish sikllilik bosqichlarini o'z ichiga oladi. «go'yoki» eskiga qaytish yuz beradi va rivojlanish spiralsimon ko'rinish kasb etadi. Bunda borliqning umumiy qonuni – inkorni-inkor namoyon bo'ladi.

### **Rivojlanishning umumiy qonunlari**

Hodisalarni tavsiflashdan ularning mohiyatini anglab yetishga o'tish hodisalarda umumiy jihatlarini topishni talab etadi. Bunda vazifa

turli hodisalar o'rtasida umumiy jihatlarni topishdangina iborat emas. Hodisalarni birlashtiruvchi va ularning birligini belgilovchi asosni tushunib yetish zarur. Bu asos – hodisalarni «biriktiruvchi» va ularni bir-biriga yo'ldosh bo'lish, uyg'unlashish va muvofiqlashishga majbur qiluvchi amalda mavjud bo'lgan barqaror aloqani aks ettiruvchi qonundur.

Qonunlarni bilishga hodisalarni ilmiy o'rganish natijasida erishiladi. Odatda, bu olimlarning tafakkurdan uzoq zahmat chekishni talab etuvchi juda og'ir ishdir. Voqelikning biron-bir qonunini aniqlash uchun olim o'rganilayotgan hodisalar haqidagi dastlabki ma'lumotlarning ko'p sonli to'plamlariga tayanishiga to'g'ri keladi. Bu ma'lumotlar shunday tartibga solinishi va umumlashtirilishi lozimki, hodisalarning mazkur sohasi asosiy elementlar va munosabatlarni farqlash imkonini beradigan tizim sifatida namoyon bo'lsin. Shundan so'ng elementlarning rang-barang munosabatlari orasida tizimning va tizim ayrim elementlarining har qanday o'zgarishlarida saqlanib qoluvchi umumiy, o'zgarmas, invariant aloqalarni aniqlash talab etiladi.

Umumiy ma'noda qonun – tizim elementlari o'rtasidagi umumiy va o'zaro aloqa. Ularning uchta turi mavjud.

Voqelik qonunlari inson ularni bilish-bilmasligimizdan qat'iy nazar mavjud va amal qiladigan tabiiy qonunlardir.

Fan qonunlari odamlar tomonidan anglab yetilgan voqelik qonunlarining ongimizdagi in'ikosi. Har bir fan voqelikning muayyan sohasini o'z predmeti sifatida o'rganar ekan, mazkur sohada amal qiluvchi qonunlarni aniqlaydi. Ilmiy nazariya bilan qamrab olingan soha qancha keng bo'lsa, uning qonunlari shuncha umumiy bo'ladi. Fanda qonunlarning umumiylik darajasiga ko'ra murakkab ierarxiyasi mavjud. Umumiylik darajasi pastroq bo'lgan qonunlar umumiyroq qonunlarning ayrim ko'rinishlari sifatida amal qiladi va so'nggi zikr etilgan qonunlardan ularning oqibatlari sifatida keltirib chiqariladi. Masalan, geometrik optikada yorug'likning aks etish va sinish qonunlari elektromagnit to'lqinlar tarqalishining umumiyroq qonunlaridan, ular esa, o'z navbatida, elektromagnit maydoni nazariyasining yanada umumiyroq qonunlaridan kelib chiqadi. Har qanday qonun muayyan sharoitda amal qiladi. Qonun amal qilishining bazis va lokal sharoitlarini farqlash lozim. Bazis sharoitlar qatoriga qonunning amal qilish sohasini belgilovchi sharoitlar kiradi. Mazkur sharoitlardan

tashqarida qonun amal qila olmaydi (ular yo'q bo'lgan taqdirda ularda amal qilayotgan tizim ham yo'q bo'ladi). Lokal sharoitlar qatoriga qonunning amal qilish sohasidagi sharoitlar kiradi. Qonun bu sharoitlarning har qanday variatsiyasida o'z kuchini saqlab qoladi, lekin ularning o'zgarishlari qonunning amal qilish natijalarining o'zgarishlariga sabab bo'ladi. Qonun lokal sharoitlarga nisbatan invariant, lekin u bazis sharoitlarga nisbatan invariant emas. Masalan, Arximed qonuni uchun suyuqlik va unga solingan jism, og'irlik kuchining mavjudligi bazis sharoitlar hisoblanadi. Bu sharoitlarga nisbatan Arximed qonuni noinvariantdir: ular mavjud bo'lmasa, qonun amal qilmaydi. Bu yerda suyuqlikning tarkibi va solishtirma og'irligi, jismning fizik tuzilishi va shakli lokal sharoitlar hisoblanadi. Ularga nisbatan qonun invariantdir. Ammo uning amal qilishi turli natijalarda aks etishi mumkin: ayrim hollarda jism suvda suzadi, ayrim hollarda esa – u cho'kib ketadi.

Odamlar qonunlarning amal qilish sharoitlarini o'zgartirib, ulardan o'z'lari istagan natijalarga erishish uchun foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Yangi bazis sharoitlarni yaratish yo'li bilan esa ular ayrim qonunlarning amal qilishini to'xtatish va boshqa qonunlarni amalga kiritishga qodirlar.

Hodisalarning muntazamligi, takroriyligida qonunlarning amal qilishi (shuningdek fenomenlogik qonun, empirik bog'lanish) qonuniyat deb ataladi. Qonuniyatlar – bu qonunlarning namoyon bo'lishidir.

Falsafa qonunlari tabiat va jamiyatda insonning ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan biri ikkinchisini taqozo qiluvchi qonunlardir. Falsafa qonunlari tizimida dialektik ziddiyatlilik qonuni markaziy o'rinni egallaydi. Qonunning muhim jihatlari aniqlash uchun uning asosiy kategoriyalarini ko'rib chiqish kerak. Tahlilni qarama-qarshilik tushunchasidan boshlaymiz.

### **Qarama-qarshiliklar birligi qonuni.**

Qarama-qarshilik – narsalar va hodisalardagi bir-birini taqozo qiluvchi va bir-birini istisno etuvchi tomonlar, xossalar, jarayonlarni aks ettiruvchi falsafiy katego-riya (assimilyatsiya – dissimilyatsiya, o'zgaruvchanlik – tug'malik, ishlab chiqarish – iste'mol qilish, yaxshilik – yomonlik va sh.k.). Qarama-qarshiliklar – o'zaro bog'lanishli bo'lgan tushunchalar. Turli jihatlardan olingan taqdirda, ular o'zaro birlikni tashkil etmaydi va bir-biriga zid bo'lmasligi

mumkin. Qarama-qarshiliklar o'rtasida ikki xil munosabat mavjud: yagonalik munosabati va qarshi harakatga doir munosabat. (qonunning klassik ta'rifida «kurash» atamasi ishlatiladi-ki, u qonunning mohiyatini soddalashtiradi, chunki mazkur atama ko'proq jamiyatga tegishlidir). Qarama-qarshilik birligi nima? Birinchidan, qarama-qarshiliklar birligi – bu ularning uzviyligi. Har bir qarama-qarshilik boshqa bir qarama-qarshilikning mavjudlik sharti hisoblanadi. Ular alohida-alohida mavjud bo'lishi mumkin emas (agar qarama-qarshiliklardan biri yo'q bo'lsa, ularning ikkinchisi ham yo'q bo'ladi). Ikkinchidan, qarama-qarshiliklar birligi ular bir-birini taqozo etgan va bir-biriga o'tgan holdagina muayyan mazmun kasb etadi. Har qanday qarama-qarshilik o'zida mavjud bo'lmagan, lekin boshqa qarama-qarshilikda mavjud bo'lgan jihatga muhtoj bo'ladi. Ular bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Qarama-qarshiliklar bir-biriga ta'sir ko'rsatish orqali biri ikkinchisiga o'tadi. Bu qarama-qarshiliklar makonda bir-biridan ajratilgan, turli jinsli hodisalar sifatida mavjud bo'lmashligini, ularning har biri o'zida boshqasining muayyan jihatini mujassamlashtirishini anglatadi (masalan, o'quv jarayoni o'qituvchi va talablar mavjudligini nazarda tutadi).

Qarama-qarshiliklarning qarshi harakat («kurash»)ga doir munosabati nima? Qarama-qarshiliklar bir-birini taqozo etar va rivojlanar ekan, bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Ularning o'rtasida qarshi harakat, kurash boradi. Uning mohiyati yagonalikka barham berishdan iborat. Qarama-qarshiliklarning har biri ikkinchisini o'zidan itarib chiqaradi, undan xalos bo'lishga harakat qiladi. Shunday qilib, qarama-qarshiliklar kurashi qarama-qarshiliklar bir-birini inkor etgan, bir-birini istisno qilgan holda yuz beradi.

Qarama-qarshiliklar birligi narsaning barqarorligini aks ettiradi va nisbiy, o'tkinchi hisoblanadi. Qarama-qarshiliklarning kurashi mutlaq xususiyat kasb etadi, u hech qachon to'xtamaydi.

Ziddiyatlar – narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarining bir-birini istisno etish va bir-biriga o'tish munosabatlaridir. Ziddiyatlar borliqning barcha hodisalari va jarayonlariga xos bo'lib, o'zgarish va rivojlanishning manbai, harakatlantiruvchi kuchi sifatida amal qiladi. Ayni shu sababli ziddiyat dialektik ziddiyatlilik qonunining mohiyatini yoritib beruvchi bosh kategoriya hisoblanadi. Ziddiyat – bu qarama-qarshiliklar munosabatigina emas, balki ularning tarqalish jarayoni hamdir. Shu tufayli ham, Hegel g'oyalari

asoslanib, ziddiyat tarqalishining quyidagi bosqichlari (fazalari) farqlanadi: ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik, ziddiyat va asos (ya'ni ziddiyatning yechilishi).

Dialektik ziddiyat – bir-birini istisno etuvchi qarama-qarshiliklarning bilvosita birligidir. Qarama-qarshiliklar – ziddiyatlarning negizi, bog'lovchi bo'g'inlar esa – ularni yechish mexanizmidir. Quyidagi dalillar bog'lovchi bo'g'inlar roli va qarama-qarshiliklar tushunchasiga misol bo'lishi mumkin: Irsiyat va o'zgaruvchanlik qutblarida nafaqat organizmning avvalgi holati, balki o'zlashtirilgan yangi belgilari ham saqlanishini ta'minlovchi genetik kod bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda jamiyatning o'ta boy va o'ta qashshoq qatlamlari qarama-qarshiliklari o'rtasida bog'lovchi bo'g'in vazifasini o'rta sinf bajaradi. O'rta sinf mamlakat aholisining aksariyat qismini tashkil etishi lozimligi, aks holda jamiyat holati doimo beqaror bo'lishini Aristotel qadim zamonlardayoq qayd etgan. Zero, mayda mulkdorlar olgan daromadining bir qismini o'z ishini rivojlantirishga yo'naltiradi, bozor kon'yunkturasi o'rganadi va unga juda tez moslashadi, bozorni zarur tovarlar va xizmatlar bilan boyitadi. Yana bir misol – shaxs va jamiyat munosabatlari. Ma'lumki, shaxs va jamiyat qarama-qarshiliklar hisoblanadi, shaxs a'zo bo'lgan ijtimoiy guruhlar ularning o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida amal qiladi. Bu va boshqa dalillar bilishda ichki qarama-qarshiliklar mavjudligini ham, bog'lovchi bo'g'inlarni ham hisobga olish muhim ekanligini ko'rsatadi. XX asr 30-yillarining boshida ingliz fizigi Pol Dirak pozitronlar, ya'ni elektronlarga o'xshash, lekin musbat zaryadga ega bo'lgan zarralar mavjudligini bashorat qildi. Garchi olim o'z nazariyasida biron-bir xato topmagan bo'lsa-da, aksilzarralar mavjudligiga uning ishonchi yuq edi.

Shunday qilib, qarama-qarshiliklar aloqasi va ziddiyatlarni yechishning bir-biri bilan bilvosita bog'liqligi umumiy xususiyat kasb etadi, aloqa usuli esa bog'lanish xususiyati bilan belgilanadi. Bog'lovchi bo'g'inlarning o'zi ziddiyat qarama-qarshi a'zolari xossalari-ning uyg'unligidan tashkil topadi.

Tafovut - avvalgi holatdan saqlanib qolgan xossalar ustunlik qilgani holda, ayni bir predmet xossalari-ning mos kelmasligidir. «Tafovut» - har xillik, o'z-o'ziga, boshqa narsalar, hodisalar, jihatlariga mos kelmaslik munosabati hamdir. Tafovut kuchli yoki ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Kuchli tafovut – predmetning o'z-o'zi

bilan ziddiyatga kirishish omili. Bu qarama-qarshilik bosqichi bo'lib, uning yechilishi predmetning butunlay o'zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, ziddiyatlarning kuchayishi va o'z yechimini topishi rivojlanish manbai hisoblanadi.

Rivojlanishning manbai va rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchni farqlash lozim. Rivojlanish manbai – ichki hodisa, predmetning ichki ziddiyatlaridir. Tashqi ziddiyat ham rivojlanishni harakatlantiruvchi kuch bo'lishi mumkin. Masalan, siz shamollab qoldingiz. Ayni holda tashqi muhit sizning holatingiz o'zgarishini harakatlantiruvchi kuch bo'ldi. Dialektik ziddiyat tarkibida asosiy tomon manfiy xususiyatga ega, chunki u mazkur ziddiyatni bartaraf etish, inkor qilishga qaratilgan. Musbat tomon mazkur ziddiyatni saqlashga qaratilgan.

Ayniyat - predmet umumiy belgilarning muayyan davrda o'z-o'ziga mosligi. Predmetning rivojlanishi va ziddiyatlarning yechilishi bir necha bosqichdan o'tadi. Dastlabki bosqich – predmetning o'z-o'zi bilan nisbiy ayniqlik holati. Tabiatda mutlaq ayniyat mavjud emas. Masalan, har bir organizm hatto oqsil molekulasining tuzilishi darajasida ham o'ziga xos belgilarga egadir. Har qanday predmet hech qachon o'z-o'zi bilan ayniy bo'lmaydi. Masalan, ko'zguga kelar ekansiz, siz o'z qiyofangizda hech qanday farq ko'rmaysiz. O'z do'stingiz bilan oradan besh yil o'tib uchrashgach, ikkalangiz ham: «U juda o'zgarib ketibdi!», deb o'ylasangiz kerak.

Shu bois, «ayniyat» tushunchasi ziddiyat tarqalishining dastlabki bosqichini anglatadi. Bu bir xillik, narsa, hodisa, jihatning o'z-o'ziga yoki boshqa narsalar, hodisalar, jihatlariga o'xshashlik munosabati. Ziddiyatning vujudga kelishi yagonaning ikkilanishi sifatida, yagonaning o'z-o'zini qarama-qarshiliklarga differentsiatsiya qilishi sifatida yuz beradi. Ikkilanish chog'ida bir vaqtning o'zida ayni shu munosabatda qarama-qarshiliklar birligi ham, ularning kurashi ham vujudga keladi. Ziddiyatning shakllanish jarayonida qarama-qarshiliklar kurashi birinchi o'ringa chiqadi va rivojlanishning ichki, teran manbaiga aylanadi. Ziddiyatning o'zida qarama-qarshiliklar har xil rol o'ynaydi. Faolroq, harakatchanroq qarama-qarshilik ziddiyatning yetakchi tomoni hisoblanadi. Qarama-qarshiliklar kurashi oxir-oqibatda yangi sifat holatiga olib keladi. Paydo bo'luvchi yangi hodisalar o'zlariga xos bo'lgan yangi ziddiyatlarga ega bo'ladi. Bu

ziddiyatlar mazkur hodisalar rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ziddiyatlarning rivojlanish jarayoniga yanada chuqurroq kirish uchun ularning tarqalish bosqichlari (fazalari)dan tashqari, ularning holatlarini ham farqlash zarur. Predmetli-moddiy, «etilgan» ziddiyatning holati deganda qarama-qarshiliklarning amal qilish usuli, «birligi va kurashi»ning namoyon bo'lish xususiyati tushuniladi. Ayni shu xususiyat bu qarama-qarshiliklarning rivojlanish xususiyati va faollik darajasini belgilaydi. Ziddiyatning rivojlanish jarayonida bosqichlarni yoki tarqalgan, «etilgan» ziddiyatni tavsiflovchi holatlarni ham farqlash mumkin. Ijtimoiy tizimlarga tatbiqan ziddiyatlarning rivojlanish bosqichlariga nisbatan bunday yondashuv ularning quyidagi holatlarini aniqlash imkonini beradi: garmoniya, disgarmoniya, konflikt.

Shuni qayd etish muhimki, ziddiyatlar rivojlanayotgan har qanday tizimda mazkur tizim mavjudligining boshidan oxiriga qadar mavjud bo'ladi. Holatlar, miqdor ko'rsatkichlari, qarama-qarshiliklarning o'zaro aloqasi xususiyati, ularning tizimdagi roligina o'zgaradi.

Ziddiyatlarning turlari:

1) namoyon bo'lish shakliga ko'ra – ichki va tashqi ziddiyatlar;

2) rivojlanishdagi rolga ko'ra – asosiy va ikkinchi darajali ziddiyatlar;

3) vujudga kelish xususiyatiga ko'ra – zaruriy va tasodifiy ziddiyatlar;

4) jamiyatdagi tipiga ko'ra – antagonistik va noantagonistik ziddiyatlar farqlanadi.

Asosiy ziddiyatlar strukturaning qarama-qarshi tomonlari o'rtasida, ikkinchi darajali ziddiyatlar esa – bog'lovchi bo'g'inlar o'rtasida yuzaga keladi. Asosiy ziddiyatlar sifatli, muhim va zarurdir. Asosiy ziddiyatlarsiz predmet, uning sifat jihatidan muayyanligi va yaxlitligi mavjud bo'lmaydi. Ikkinchi darajali ziddiyatlar tasodifiy xususiyat kasb etadi, ularning borligi yoki yo'qligi predmetning sifatini o'zgartirmaydi. Zaruriy ziddiyatlar – bir lahzalik ziddiyatlar-dir: ular ichki yoki tashqi, asosiy yoki ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Masalan, inson hayoti qil ustida turadigan avtomobil halokati yuz



bergan paytda barcha ichki ziddiyatlar (psixologik konfliktlar va fiziologik patologiyalar) ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Borliqning ichdan ziddiyatligi – ob'ektiv hodisa, tabiat va jamiyatning asosiy va umumiy xossasidir. Har bir inson hayotiga kelsak, u ziddiyatlar bilan har kuni to'qnash keladi, qarorlar qabul qiladi, baholar beradi, o'z qilmishlaridan pushaymon bo'ladi, ko'pincha yo'l qo'ygan xatolaridan afsus chekadi. Har qanday voqea, vaziyat, taxminning ichki ziddiyatlarini ko'rib, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning ijobiy va salbiy tomonlarini taroziga solish tafakkurning yetuklik belgisidir. Bizni qurshagan dunyoda ziddiyatlar juda serqirra; ularni turli asoslarga ko'ra tasniflash odat tusini olgan.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib shuni qayd etish mumkinki, dialektik ziddiyatlilik qonuni barcha narsalar, tizimlar, hodisalar va jarayonlar ichki ziddiyatlar, qarama-qarshi tomonlar va tedentsiyalar bilan tavsiflanishini nazarda tutadi. Ularning o'zaro aloqasi, ular o'rtasidagi «kurash» o'zgarish va rivojlanish manbai hisoblanadi, ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Bu ziddiyatlar oxir-oqibatda muayyan bosqichda eskining yo'qolishi va yangining vujudga kelishi bilan yechiladi.

Dialektika tizimida bu qonunning markaziy o'rni nima bilan belgilanadi? Birinchidan, bu qonun har qanday harakat va rivojlanish manbaini yoritadi, ya'ni rivojlanish nazariyasining eng muhim savollariga javob beradi. Ikkinchidan, bu qonun dialektikaning qolgan barcha qonunlari va kategoriyalarining asosi hisoblanadi. Ko'rsatilgan qonunlar va kategoriyalarning har birida biz birlik va kurash munosabati bilan bog'liq bo'lgan qarama-qarshiliklarga duch kelamiz. Uchinchidan, dialektik ziddiyatlilik qonuni yagonani tafakkurda ikkilantirish va uning qarama-qarshiliklarini ularning tahlilini sintez bilan birlashtirish orqali o'rganishni talab qilib, bilish dialektik metodining bosh mazmunini belgilaydi.

Rivojlanish manbaini yorituvchi dialektik ziddiyatlilik qonunidan farqli o'laroq, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni rivojlanish jarayonining mexanizmini yoritadi, u qay tarzda va qanday shakllarda amalga oshirilishini ko'rsatadi (Bu qonunning xususiyatini, u qanday namoyon bo'lishi va amal qilishini aniqlash uchun uning asosiy tushunchalari: sifat, miqdor, me'yor, sakrashning mazmunini yoritish talab etiladi.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni. Hodisalarga ma'kon-vaqt mezonini nuqtayi nazaridan tavsif berish jarayonida «qayerda?» va «qachon?» savollari birinchi o'ringa chiqadi. Ularni bilishga nisbatan boshqa bir yondashuv «nima?» savoli bilan bog'liq. Ma'lum joyda va ma'lum vaqtda mavjud bo'lgan mazkur hodisa nimadan iborat? U qanday xossalar bilan tavsiflanadi? Boshqa hodisalardan uning farqi nimada va qay jihatdan ularga o'xshash? Bunday savollarga javob hodisalarni sifat va miqdor jihatidan tavsiflash orqali beriladi. Mazkur tavsif predmeti sifat va miqdor kategoriyalari bilan ifodalanadi. Eng sinchkov tahlil ham hodisada sifat yoki miqdor jihatidan tavsiflash mumkin bo'lmagan narsani aniqlash imkonini bermaydi. Binobarin, sifat va miqdor – hodisaning qoldiqsiz «parchalanuvchi» ikki tomonidir. Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni rivojlanish jarayoni-ning mexanizmini yoritadi, u qay tarzda va qanday shakllarda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Bu qonunning xususiyatini, u qanday namoyon bo'lishi va amal qilishini aniqlash uchun uning asosiy tushunchalari: sifat, miqdor, me'yor, sakrashning mazmunini yoritish talab etiladi.

Sifat narsalarga xos va ularning borlig'i bilan ayniy bo'lgan hamda ularni muayyan aloqalar tizimidagi boshqa narsalardan farqlash imkonini beradigan o'ziga xos xususiyatidir. Narsalarning sifati ularning chekliligi bilan bog'liq, zero, mazkur sifat yo'q bo'lishi bilan narsaning o'zi ham yo'q bo'ladi, u boshqa narsaga aylanadi. Sifat – narsaning ichki xususiyati, predmetni mazkur jihatdan farqlash uchun zarur va yetarli bo'lgan xossalar majmui. Sifat – xossalarning oddiy majmui emas, balki ularning muayyan yaxlitlikdan o'rin olgan va predmetning alohida mohiyat sifatida mavjudligini belgilovchi tizimidir. Predmetlarning munosabatlari va aloqalarining rang-barangligi ayni bir predmetda qarama-qarshi xossalar va sifatlar mavjudligini izohlaydi. Bir jihatdan yengil narsa boshqa bir jihatdan og'ir bo'ladi, bir aloqada oq narsa boshqa bir aloqada qora bo'ladi va h.k. Masalan, suv va bug' bir-biridan sifat jihatidan farq qiladimi yoki miqdor jihatidanmi? Moddaning agregat holatini taqqoslaydigan bo'lsak, suv va bug' sifat jihatidan farq qiladi. Taqqoslash suv va bug'ning kimyoviy tarkibini aniqlashni nazarda tutsa, ularning o'rtasida miqdoriy farq mavjud bo'ladi. Ammo har qanday narsa bir jihatdan bitta sifatga va turli jihatlardan ko'plab sifatga ega bo'ladi.

Xossa-predmetning jihati bo'lib, uning boshqa predmetlardan farqi yoki ular bilan o'xshashligini belgilaydi va ular bilan o'zaro aloqada namoyon bo'ladi. Xossalar muhim va ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Muhim xossalar predmetning sifatini belgilaydi. Ularning yo'qolishi mohiyatini mazkur xossalar tashkil etgan predmetning ham yo'qolishini anglatadi. Ikkinchi darajali xossalar o'zlashtirilishi yoki predmetning sifatini o'zgartirmasdan yo'qolishi mumkin. Har qanday xossa (temperatura, hajm, energiya va sh.k.) muayyan miqdor va sifatga ega bo'ladi. Har qanday predmet o'zining mavjudligini belgilovchi barcha xossalar majmuidir.

Miqdor-predmet muayyan xossasining namoyon bo'lishi, intensivligi darajasi. Barcha narsalar, jarayonlar, hodisalar sifat bilan bir qatorda muayyan miqdorga ham ega. Ular muqarrar tarzda muayyan o'lcham, hajm, massa va shu kabilar bilan tavsiflanadi. U sifat jihatidan o'xshash xossalar yoki butunning qismlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Miqdoriy munosabatlar sifatga bog'lanmasdan aniqlanishi mumkin. Shuningdek, miqdor turli predmetlarning ayrim umumiy xossasi sifatida, predmetlarni sifat jihatidan tenglashtiradi. Shu ma'noda miqdor sifatning ziddidir. Ammo predmetning sifat xususiyatini mavhumlashtirish sifat jihatidan har xil tuzilmalarni o'rganishga tadqiqotning miqdoriy metodlarini jalb qilish imkonini beradi. Masalan, o'lchash taqqoslashning o'rganilayotgan ob'ektning miqdor ko'rsatkichlarini aniqlovchi ayrim ko'rinishi sifatida, sifat haqida aniqroq xulosa chiqarish imkonini beradi. Matematikada miqdoriy munosabatlar son, qiymat, funktsiya, to'plam tushunchalarida ifodalanadi. Hozirgi zamon fani matematik apparatdan foydalanib, mikroduyoning teran qatlamlariga kiradi. Olamning cheksiz makonlarini tadqiq etadi. Matematika tabiat va jamiyatni o'rganishning samarali vositalaridan biriga aylangan.

Har qanday predmet miqdor va sifat qarama-qarshiliklarining muayyan sintezidir. Uning borlig'i ob'ektga xos bo'lgan muhim xossalarni saqlashni nazarda tutadi. Olamning ko'p sifatlilikligi uning elementlari nisbatan barqarorligi va mustaqilligi bilan ta'minlanadi. Ammo olam, shu jumladan har qanday predmet muttasil o'zgarishda bo'ladi. Hech narsa boqiy emas. Butun borliq qachondir paydo bo'lgan va qachondir halok bo'ladi. Dunyo o'zgaradi va ayni zamonda o'zligini saqlab qoladi, o'z-o'ziga nisbatan ayniy bo'ladi.

Me'yor – predmet borlig'ining chegarasi, u miqdor va sifatning shunday bir birligiki, bunda muayyan sifat faqat muayyan miqdor bilan bog'liq. Me'yor – bu miqdor ko'rsatkichlari yoki o'zgarishlarining tegishli sifat mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan oralig'i hamdir. Gegel fikricha, «Hamma narsa o'z me'yoriga ega, ya'ni miqdor jihatidan aniqdir». Masalan, vodorod peroksidi va suv bir-biridan molekullardagi kislorod atomlarining miqdoriga ko'ra farq qiladi. Huquqiy, axloqiy va estetik hodisalar tavsifida me'yor tushunchasi normativlik xususiyatini kasb etadi. «Aynan «ko'proq» va «kamroq» orqali yengiltaklik me'yori buziladi va butunlay boshqa narsa – jinoyat namoyon bo'ladi, aynan «ko'proq» va «kamroq» orqali adolat haqsizlikka, fazilat nuqsonga o'tadi». Masalan, huquqda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi va jazo chorasi o'rtasidagi muvofiqlikka rioya etiladi. Me'yor tushunchasida miqdor va sifat xossalarning o'zaro aloqasi aks etadi. Tabiatda kuzatiladigan narsalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi dunyo evolyutsiyasining muhim va keng tarqalgan mexanizmlaridan birini aks ettiradi. Me'yor tushunchasi evolyutsiya tendentsiyalarini aniqlash, turli tizimlarning o'tmishi va kelajagi xususida gipotezalar tuzish imkonini beradi. Miqdor sifat jihatidan bir jinsli hodisalarning muayyan ob'ektiv ko'rsatkichi bo'lib, u mazkur hodisalarning kattaligini, mavjudlik muddatini va umuman hodisa yoki uning ayrim tomonlari rivojlanishining faollik darajasini tavsiflaydi. Shunday qilib, narsa va hodisalar sifat va miqdor xususiyatlariga ega bo'ladi. Ammo narsalar va hodisalarning bu tomonlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud emasdek, ularning biri ikkinchisiga bog'liq emasdek bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin amalda bunday emas. Miqdor va sifat o'rtasida dialektik aloqa mavjud: muayyan sifatni aks ettirmaydigan miqdor mavjud emas va shu bilan bir vaqtda miqdorsiz sifat ham yo'q. Mazkur sifatga qo'shimcha tarzda doim qandaydir emas, balki muayyan miqdor javob beradi. Biz, masalan, uzunligi Amudaryo ustida qurilgan ko'priknig uzunligiga teng bo'lgan stolni ko'rmaganmiz. Shuningdek oyoqlarining uzunligi 5 metr bo'lgan odamni tasavvur qilish ham qiyin. Shunday qilib, har qanday sifat falsafada me'yor deb ataladigan miqdor chegarasiga ega bo'ladi. Miqdorning me'yor doirasida o'zgarishi sifatning o'zgarishiga sabab bo'lmaydi, lekin me'yordan oshganda narsa o'zining avvalgi mohiyatini yo'qotadi. Miqdor va sifat o'zgarishlarining bunday o'zaro

ta'siriga ko'p sonli dalillarni keltirish mumkin. Masalan, jismning tezligi sekundiga 1000, 2000, 7910 metr bo'lsa, u yerga yiqiladi. Agar jismning tezligi atigi bir birlikka oshirilsa va u sekundiga 1911 metrga yetkazilsa, jism Yerdan ko'tariladi va uning yo'ldoshiga aylanadi. Demak, miqdor o'zgarishlari, agar ular me'yor doirasida yuz bersa, sifatni butunlay o'zgartirmaydi. Biroq, agar bu o'zgarishlar me'yor chegarasidan chetga chiqsa, o'zining muayyan miqdori va o'z me'yoriga ega bo'lgan yangi sifat vujudga keladi.

Miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi qoida umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va hodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi: miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni narsaning miqdor va sifat tomonlarining shunday bir o'zaro aloqasini aks ettiradiki, uning ta'sirida miqdor o'zgarishlari me'yor chegarasidan chetga chiqib, albatta tub sifat o'zgarishlariga sabab bo'ladi, bu sifat o'zgarishlari esa, o'z navbatida, yangi miqdor ko'rsatkichlariga olib keladi. Bu qonunga muvofiq rivojlanish bir-biridan farq qiladigan, lekin o'zaro bog'langan ikki bosqich – uzluksizlik va uzluksizlikning birligi sifatida yuz beradi. Rivojlanishda uzluksizlik – bu juda sust, ko'zga ko'rinmas miqdor o'zgarishlari bosqichi. Rivojlanishda uzluksizlik sakrash deb ataladi.

Sakrash – bu bir sifatning boshqa sifatga aylanish vaqti, shakli, usuli, miqdor o'zgarishlarining uzluksizligi, bosqichma-bosqichligidagi uzilishdir. Masalan, sakrash – bu Yerdan hayotning paydo bo'lishi, hayvonlar dunyosidan insonning ajralib chiqishi, bir ijtimoiy tuzum o'rniga boshqa ijtimoiy tuzum kelishi, buyuk ilmiy va texnikaviy kashfiyotlardir. Har qanday sakrash rivojlanishda o'tish davrini tavsiflaydi. O'z tabiatiga ko'ra u doim ziddiyatlidir, chunki yangining tug'ilishidan ham, eskining qarshiligidan ham dalolat beradi.

Sakrashlarning shakllari rang-barang bo'lib, rivojlanayotgan hodisaning tabiati, shuningdek unda sifat o'zgarishlari yuz berayotgan konkret sharoit bilan belgilanadi. Sakrashlar: 1) o'zgarishning davomlilikiga ko'ra jadal va sust; 2) o'zgarish shakliga ko'ra bir karra va ko'p karra; 3) o'zgarishning chuqurlik darajasiga ko'ra qisman va to'liq; 4) o'zgarishning yo'nalishiga ko'ra progressiv va regressiv farq qiladi.

Sakrashlarni tahlil qilish chog'ida «evolyutsiya», «inqilob», «islohot» kabi atamalar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. «Evolyutsiya» tushunchasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'nodagi «evolyutsiya» asta-sekin rivojlanish jarayoni bo'lib, u miqdor o'zgarishlarinigina emas, balki sifat o'zgarishlari, shu jumladan inqiloblarni ham o'z ichiga oladi. Tor ma'noda «evolyutsiya» deganda inqilobdan, uning tayyorlanishidan oldingi davr tushuniladi. «Inqilob» tushunchasi ijtimoiy hodisalarni tavsiflash uchun ishlatiladi va jamiyatni asta-sekin emas, balki tubdan o'zgarish yasaydigan sakrashdir. Islohot jamiyat hayotining biron-bir muhim tomonini o'zgartirish bo'lib, bunda uning iqtisodiy va davlat tartibi asoslari saqlanib qoladi.

Shunday qilib, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni, rivojlanishning umumiy qonuni sifatidagi mazmuni haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradigan «sifat», «miqdor», «me'yor», «sakrash» kategoriyalari yordamida muayyanlashtiriladi. Mazkur qonun butun borliqning rivojlanishi, harakati va o'zgarishi qanday, qay tarzda yuz beradi, degan savolga javob berib, ob'ektiv voqelikning har qanday sohasida yangi sifatga o'tishning ichki mexanizmini yoritadi. Ko'rib chiqilgan qonunlar rivojlanish manbai va uning mexanizmini yoritib bersa, inkorni-inkor qonuni – rivojlanishning umumiy tendentsiyasini, uning yo'nalishini aks ettiradi.

Inkorni-inkor qonunining mohiyati nimadan iborat? Ayni bir atama bunday ketma-ket qo'llanilishining ma'nosi nimada? Inkor kategoriyasi rivojlanayotgan ob'ekt tarixidagi bir lahzanigina tavsiflaydi. Bitta inkor harakati o'zgarish qaysi yo'nalishda yuz berayotgani, oldingi va keyingi voqealar oqimida u qanday ahamiyatga ega ekanligini, yuz bergan voqeaning mazmunini aniqlash uchun doim ham imkoniyat yaratmaydi. Boshqacha aytganda, inkorni-inkor tushunchasi rivojlanish jarayonining muhim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. «Inkor» va «inkorni-inkor» kategoriyalari dialektikaga Hegel tomonidan kiritilgan bo'lib, ayni shu mutafakkirning sa'y-harakatlari bilan ular umumiy falsafiy kategoriyalar maqomini olgan. Inkor va inkorni-inkor kategoriyalaridan Hegel rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish vositasi sifatida foydalangan. Hegel, shuningdek uning o'tmishdoshlari va izdoshlari ko'rsatib bergan ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlarni ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, inkorni-inkor rivojlanish yo'nalishini ko'rish uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur hodisa taraqqiyot yoki tanazzul alomati ekanligini bir inkor harakatining o'zidan aniqlash mushkul. Shu bois, masalan, qabul qilingan muayyan qonun, saylov natijalari va shu kabilar haqida xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak.

Ikkinchidan, inkorni-inkor rivojlanish shaklining tavsifi bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, Gegelning dialektika tizimida rivojlanish mantiqiy ziddiyatning yuzaga kelishi va uning bartaraf etilishi sifatida tavsiflanadi. Bu jarayon «tezis – antitezis – sintez» formulasiga muvofiq yuz beradi. Dialektika kontekstida rivojlanishning uch bosqichi ijtimoiy va tabiiy tizimlar rivojlanishining ko'p sonli stsenariylaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ammo Gegel qayd etgan rivojlanishning siklligi, uning chiziqsizligi tabiat va jamiyatda jarayonlar kechishining ancha keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Uchinchidan, tabiiy va ijtimoiy sikllarda rivojlanish ham, tanazzul ham bo'lmasligi mumkin: o'zgarish aylanma harakat qiladi. Inkorni-inkorda rivojlanish quyi bosqichining o'ziga xos xususiyatlari yuqoriroq bosqichda takrorlanishi yuz beradi. Avvalgi holatlarga qaytish imkoniyati, ya'ni o'tilgan holatlarning ayrim xossalari rivojlanishning yuqoriroq bosqichida takrorlanishi bilish va tarixning rivojlanishini tushunish uchun o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Demak, inkor rivojlanishni yangi sifat paydo bo'lishiga olib keladigan aniq yo'naltirilgan, qaytmas o'zgarish sifatida tavsiflanadi.

Shaklan rivojlanish bir chizikli ham, aylanma ham emas, balki rang-barangroq va murakkabroq, chunonchi: bir chizikli va ko'p chizikli, to'g'ri chizikli va zigzagsimon, umumiy va xususiy, uyg'un va nouyg'undir.

Yo'nalish jihatidan rivojlanish progressiv va regressiv bo'ladi. Rivojlanish tizim ayrim elementlarining tanazzuli bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Butun tizim tanazzulga uchrashi, uning ayrim elementlari esa taraqqiy etishi mumkin emas. Ob'ektga nisbatan tashqi kuchlar ta'sirida yuz berishi mumkin bo'lgan harakatdan farqli o'laroq, rivojlanish o'z-o'zidan harakat, ichki jarayon bo'lib, ziddiyat, bir-birini istisno etuvchi tomonlar, tendentsiyalar uning manbai hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Gegel falsafasida rivojlanish tushunchasi inkor va inkorni-inkor kategoriyalarida yoritiladi. Mazkur terminologiya mutafakkirning mantiq tizimi negiziga aylantirilgan

ob'ektiv-idealistik falsafasi kontekstida tasodifiy bir hol emas. Avval «inkor» kategoriyasining mazmunini aniqlaymiz. Inkor nima? Unga ikki xil – metafizik va dialektik munosabat mavjud.

Metafizik «inkor» asosiy e'tiborni eskining yo'q bo'lishiga qaratadi. yangining saqlanishi va uni yaratish jarayonlarini deyarli e'tiborga olmaydi. Ya'ni, metafizik inkor - inkor qilish rad etish. yo'q qilishni anglatadi.

Dialektik inkor eski sifatdan yangi sifatga o'tish bo'lib, bunda eski sifatning muayyan tomonlari, mazmuni va funksiyasining elementlari o'zgargan ko'rinishda yangi sifatga o'tadi. U yangi va eski sifat o'rtasida aloqa mavjudligidan dalolat beradi. Dialektik inkor uch muhim jihat bilan tavsiflanadi: 1) eskini vayron qilish, buzish; 2) eskining elementlarini saqlash (vorisiylik); 3) yangini yaratish, tuzish. Biz inkor kategoriyasining metafizik va dialektik mohiyatini aniqladik. Endi qo'sh inkor nimadan iborat ekanligini ko'rib chiqamiz. «Qo'sh inkorni - inkor» da rivojlanish jarayoni eski sifatni inkor qilishdan boshlanadi, uni esa oradan ma'lum vaqt o'tgach yangi sifat inkor etadi. Ammo rivojlanish qanday yuz beradi? To'g'ri yuksalib boruvchi chiziq bo'ylabmi yoki egri chiziq bo'ylabmi? Bu masala quruq gap emas, balki u muhim ahamiyatga ega. Chunki rivojlanish jarayonida eski va yangining aloqasi bo'lmaganda, vorisiylik ham bo'lmasdi, eski butunlay yo'q bo'lar, rivojlanishni grafik ko'rinishda yangi eskidan farq qiladigan. eski esa yangida takrorlanmaydigan to'g'ri (yuksalib boruvchi) chiziq sifatida tasvirlash mumkin bo'lardi. Biroq amalda yangida eski saqlanadi, uning elementlari yangida takrorlanadi. Ammo bu takrorlanish yuqoriroq darajada yuz beradi. Eskining jihatlari, elementlari yuqoriroq asosda takrorlanishi biz muhokama qilayotgan qonunning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bundan qonunning boshqa bir xususiyati kelib chiqadi. Hamonki, eskining oliy asosda qaytarilishi mavjud ekan, rivojlanish to'g'ri chiziq bo'ylab emas, balki spiralsimon chiziq bo'ylab yuz berishi, sikldan-tsiklga eskiga yaqinlashishi (chunki takrorlanib turishlik mavjud) va undan uzoqlashib borishi (chunki bu yangi) ayon bo'ladi. Qo'sh inkor natijasida, dastlabki nuqtaga qaytilishi bilan rivojlanishning yuqoriroq darajasiga erishiladi, rivojlanishning boshlang'ich, lekin boyitilgan shakli tiklanadi. Rivojlanish chizig'i go'yo «spiral o'rami» aylanasini tashkil etadi. lekin uning boshi oxiri bilan tutashmaydi. Shunday qilib, rivojlanish harakatning bosqichma-



bosqichligi va siklliligi jihatlarini o'zida birlashtiradi. Bu qoida ham umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va hodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi.

Inkorni-inkor qonuni – bu shunday bir qonunki, unga muvofiq rivojlanish jarayoni yangining eskini dialektik inkor etish cheksiz zanjiridan iborat bo'ladi, bunda rivojlanish avvalgi bosqichlarining barcha muhim jihatlarini yangida saqlanadi va umuman bu jarayon hujumkor, yuksalib boruvchi yo'nalishga ega bo'ladi. Ayni vaqtda rivojlanish jarayonida uning oliy bosqichlarida avvalgi bosqichlarning ayrim jihatlarini va tomonlarini sifat jihatidan yangicha asosda takrorlanadi va ayni hol to'g'ri chiziq, tutash doira bo'ylab emas, balki spiralga yaqinlashuvchi egri chiziq bo'ylab yuksalishni belgilaydi. Harakatning spiralsimonligi rivojlanishning siklligini aks ettiradi.

#### **Falsafa qonunlarining o'zaro aloqadorligi**

Dialektikaning asosiy qonunlari yagona rivojlanish jarayonining turli jihatlarini tavsiflab, alohida-alohida emas, balki uzviy dialektik birlikda amal qiladi. Masalan, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi va buning aksi ziddiyatni ham, dialektik inkorni ham o'z ichiga oladi. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi miqdor-sifat munosabatlarini va inkorni-inkorni o'z ichiga oladi. Xuddi shuningdek inkor jarayonida yagonaning eski va yangiga ikkilanishi, ularning o'rtasida qarama-qarshilik, shuningdek miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, moddiy dunyoning yagonaligi qonunlar amal qilishining umumiyligini nazarda tutadi. Ammo shuni e'tiborga olish lozimki, dialektika qonunlari bir vaqtda amal qilganda, ularning har biri nisbatan mustaqil bo'ladi, zero, rivojlanish mohiyatining muayyan jihatini (manba, mexanizm, yo'nalish) aks ettiradi, rivoshlanishning zaruriy sharti sifatida tavsiflanadi, o'z mavjudligining avvalgi shakllarini inkor etmaydigan rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Inkori harakatida rivojlanishga monelik qiladigan narsalarning rad etilishi, yo'q qilinishi yuz beradi. Umuman olganda inkor – ob'ektiv jarayon. Masalan, hozirgi zamon fani ma'lumotlariga ko'ra, kengayib borayotgan plazmani yo'q qilib tashlagan Katta portlashsiz biz yashayotgan Olam, uning galaktikalari, yulduzlari va sayyorolari ham, inson ham bo'lmas edi. Ammo inkorni sof yo'q bo'lish sifatida talqin qilishdan ehtiyot bo'lish lozimligini Hegel ham, boshqa faylasuflar ham qayd etadi.

Bunday inkor «behuda», metafizik inkor deb e'tirof etiladi. U tabiatda ham, jamiyatda ham mavjud. Lekin oddiy yo'q bo'lish jamiyatni ortga uloqtirib tashlaydi, xolos. Vaholanki, tarix kul tepasida jo'yali bir narsa yuzaga kelishi mushkul.

Dialektik inkor rivojlanish omili hisoblanadi, chunki u bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Gegel fikricha, bartaraf etish «ikki xil ma'no kasb etadi: u asrash, saqlab qolishni va ayni vaqtda to'xtatish, chek qo'yishni anglatadi». Gegel talqinida inkor rivojlanish omili sifatida yashash qobiliyatini yo'qotgan narsani yo'q qilish va erishilgan rivojlanishni saqlashni nazarda tutadi. Masalan, Eynshteyn yangi va eski nazariyalarning o'zaro nisbatini shunday tavsiflaydi: «Yangi nazariya eski nazariya yutuqlarini chetga chiqarib tashlaydi, deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi. Yangi nazariya eski nazariyaning afzalliklarini ham, kamchiliklarini ham namoyon etadi va bizga eski tushunchalarga teranroq nuqtayi nazardan baho berish uchun imkoniyat yaratadi. Biz eski nazariya o'rinli bo'lgan sohada dalillar o'rganilayot-ganda har safar undan foydalanishimiz mumkin». Ammo har qanday hodisa yaxlit bo'lgani bois, bartaraf etish haqidagi masalaning qo'yili-shi mavhum xususiyat kasb etadi. XIX asr falsafiy ta'limotlarida bartaraf etishning tabiat va tarixdagi ko'rinishlarini erishilgan yutuq-larni o'zgartirilgan holda saqlash sifatida yoritib, bu tushunchani to'l-diradi. Yangilik va eskilikning ichki ziddiyatlariga chek qo'yish sifati-dagi o'z-o'zini inkor dialektik inkorning muhim xususiyati bo'lib, bu rivojlanishning hujumkorligini belgilaydi. Bu qonun dialektikaning boshqa qonunlarini umumlashtiradi, ularni sintez qiladi.

### **Falsafa tarixida kategoriyalarga nisbatan turli yondashuvlar**

Sharq an'anasida ham, qadimgi Yunonistonda ham dialektika kategoriyalarining juftli xususiyati va ularning ziddiyatli munosabatlarini anglashga harakat qilingan. Dialektika kategoriyalariga xos bo'lgan qarama-qarshiliklar birligini tushuntirishga urinishlar jarayonida fikrlash va borliqning qarama-qarshiliklarini birlashtiruvchi yagona asosni topish yo'lida izlanishlar olib borilgan. Mazkur yondashuv natijasida dialektika kategoriyalari umumiy va fundamental xususiyat kasb etib borgan. Dialektika kategoriyalarini tizimga solish va formal-mantiqiy fikrlashning umumiy qonunlarini ishlab chiqishga ilk urinish Aristotel ijodi bilan bog'liq. Bu Aristotel formal-mantiqiy qonunni ta'riflab, haqqoniy fikrlash ziddiyatsiz fikrlash

demakdir deb ta'kidlagan. Ammo «Metafizika» asarida (lot. metaphisica – butun borliqning ilk asoslari haqidagi ta'limot) Aristotel olamning umumiy asoslariga tavsif berishga harakat qiladi va falsafiy kategoriyalar materiya, shakl, sabab, zaruriyat kabilar haqida so'z yuritadi, bu kategoriyalarga ularning ichki qarama-qarshiliklarini tushunishni nazarda tutuvchi ontologik ma'no yuklaydi. Bundan fikrdagi ziddiyat u yanglish ekanligining bosh belgisi, borliqning ziddiyatligi haqidagi ta'limot esa – u haqqoniy ekanligining bosh belgisi, degan xulosa kelib chiqadi. Biroq borliq ziddiyatlari haqidagi fikr qanday qilib ziddiyatlardan xoli bo'lmaydi. Zero, u borliqning ziddiyatligiga ishora qilmas ekan, u qanday qilib haqqoniy bo'lishi mumkin? Shu tariqa falsafiy kategoriyalar va formal mantiq kategoriyalari o'rtasida farq yuzaga keladi. Keyinchalik bu farq formal va dialektik mantiq o'rtasidagi ziddiyatga aylanadi. Formal mantiq biz qanday fikrlashimiz lozimligini ko'rsatib, normativ funktsiyani bajarish uchun mo'ljallangan fikrlash qonunlari bilan cheklanadi. Dialektik mantiq ham fikrlash va bilish metodlariga qo'yiladigan talablari bajarilishi lozimligini ko'rsatadi, biroq ayni vaqtda u dialektik mantiq qonunlari nafaqat bizning tafakkurimizda, balki narsalarning o'z tabiatida ham amal qiladi, degan fikrga asoslanadi.

### **Yangi davr (XVII asr)da kategoriyalarning tahlili**

Yangi davrda fan yanada rivojlanadi. Uning bosh vazifasini olimlar tabiat qonunlarini aniqlashda ko'radilar. Insonning aqli tabiat hodisalarining o'xshash o'zaro ta'sirlarida muqarrar tarzda takrorlanuvchi barqaror aloqalar mavjudligini qadim zamonlardayoq aniqlangan. Bunda muhim, takrorlanuvchi xossalar fan va falsafa kategoriyalarida qayd etiladi, ularning o'rtasidagi takrorlanuvchi aloqalar esa tabiat qonunlari sifatida tushuniladi. Fan va falsafa qonunlari muhim xossalariga ko'ra o'xshash, ikkinchi darajali xossalariga ko'ra esa bir-biridan farq qiladigan tabiiy jarayonlar rang-barang variantlarining ideal invarianti hisoblanadi.

Yangi davr faylasuflarining asosiy e'tibori ilmiy bilish metodologiyasi muammolariga qaratiladi. Bunda yuzaga keladigan eng katta qiyinchilik ziddiyatlar birligi anglab yetilmagan, empirizm va ratsionalizm dialogi esa empirizmning tantanasi bilan tugagan empirik va nazariy bilimning o'zaro nisbati muammosidir. XVII-XVIII asrlarda ilmiy bilimning aksariyat tarmoqlari ilmiy dalillar yig'ish darajasida bo'lgan. Aksariyat hollarda dunyo turli-tuman

o'zgarmas narsalar va takrorlanuvchi jarayonlarning mexanik to'plami sifatida tasavvur qilingan, bunda narsalar va jarayonlar o'rtasidagi aloqalar doim ham teran asoslanmagan. Olamning ichdan ziddiyatlilik haqidagi tasavvur ko'p jihatdan yo'qolgan, qarama-qarshiliklar yo inson tafakkurining norasoligi, yo ayrim narsalar to'qnashuvi sifatida anglangan. Rivojlanish o'zgarmas narsalar va jarayonlarning aylanma harakati sifatida tushunilgan. Matematik bilimning ravnaq topishi olimlar e'tiborini tabiiy hodisalarning sifat jihatidan o'ziga xosligiga emas, balki asosan ularning miqdor jihatiga qaratishga davat etgan. Shunday qilib, qadimgilar dialektikasi o'rmini ma'lum darajada dialektikaning muqobili sifatida tushuniladigan «metafizika» egallaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, «metafizika» atamasi odatda yo falsafa sinonimi sifatida, yo falsafa bo'limi - ontologiya sifatida tushuniladi. Marksistik an'anada «metafizika» atamasi salbiy ma'no kasb etdi: dogmatizm, tafakkurning torligi, eski, qotib qolgan qarashlarga sodiqlik sifatida talqin qilindi. Yangi davr falsafasi va fanining mazkur tavsifi haqiqatga uncha mos kelmaydi, zero. Yangi davr ilmiy bilimi falsafiy tafakkur tarkibidan uning ajralmas qismi sifatida o'rin olgan tushunchalar apparatini yaratdi. Lomonosov – Lavuaze modda va harakatning saqlanishi g'oyasi; G.Leybnits ta'riflab bergan rivojlanish g'oyasi; Nyuton klassik mexanikasidagi massa, inertsiya va harakat, markazga intiluvchi va markazdan qochuvchi kuchlar tushunchalari; tabiatdagi turli-tuman aloqalarning o'rganilishi; determinizm tamoyilining asoslanishi; mexanik harakat dialektikasi; Yer evolyutsiyasi haqidagi tasavvur; tabiatga nisbatan tarixiy yondashuvning nazariy ahamiyatini namoyish etgan Quyosh tizimsining kelib chiqishi haqidagi Kant – Laplas gipotezasi; organizm va muhitning birligi tamoyilining asoslanishi – o'sha davr fani yutuqlarining to'liq bo'lmagan ro'yxatidir. Shu sababli Yangi davr va Ma'rifat davri falsafasi dialektika tamoyillaridan butunlay voz kechish davri emas, balki dialektika rivojlanishining o'ziga xos va ancha yetuk bosqichi hisoblanadi.

Nemis klassik falsafasining atoqli namoyandasi Immanuel Kant XVII-XVIII asrlar fani va falsafasining g'oyalari va kategoriyalarini tizimga solishga harakat qiladi. Shu maqsadda u kategoriyalarning uch guruhi: hissiyot, idrok va aql kategoriyalarini farqlaydi. Kant barcha kategoriyalar aprior (tajribada ko'rilmagan) xususiyatga ega ekanligini qayd etadi. Bilish kategoriyalarini Kant

tajribaga yo'l ochadigan dastlabki konstruktiv sxemalar sifatida talqin qiladi. Kategoriyalar bilayotgan inson hissiy taassurotlar xaosi ustiga «tashlaydigan» va har xil taassurotlarni tasniflash, ta'riflash va o'zaro aloqani amalga oshiradigan tushunchalar «to'ri»ga o'xshatiladi.

Hissiyot kategoriyalari tarkibiga Kant makon va vaqt tushunchalarini kiritadi. Ular bizning o'z sezgi organlarimiz ko'rsatgan narsalarni umumlashtirish va anglab yetish qobiliyatimizni tavsiflaydi.

Idrok kategoriyalari tarkibiga Kant kategoriyalarning to'rt turkumi: miqdor, sifat, nisbat va modallikni kiritadi. U inson idrokining aprior shakllari ob'ektiv va umumiy mazmunga ega bo'ladi, buning natijasida tajriba umumiy va zaruriy ahamiyat kasb etadi, deb qayd etadi.

Aql kategoriyalarini Kant g'oyalar deb nomlaydi. Kant fikriga ko'ra, g'oya mumkin bo'lgan tajriba chegarasidan chetga chiquvchi tushunchadir. G'oyalar bizning amaliy va bilish faoliyatimizni tartibga keltiruvchi va tizimga soluvchi sxemalarga aylanadi. Ular inson faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tartibga solish funksiyasini bajaradi.

Sxema – bu bilish metodi va yo'nalishi: u predmetni tushuntirmaydi, balki biz aqlga tayangan holda butun olamning xossalari va aloqalarini qanday aniqlashimiz lozimligini ko'rsatadi. Tartibga soluvchi g'oyalar sifatida Kant inson jon g'oyasi, erkin iroda g'oyasi va «narsa o'zida» g'oyasini qayd etadi. Xudo g'oyasini Kant shakshubhasiz qabul qilish (u o'z holicha mavjudligini taxmin qilish) uchun hech qanday asosga ega emasligimizni ta'kidlaydi. Bu g'oya faqat bizga dunyodagi barcha aloqalarga oliy aql niyatining mahsuli sifatida qarashni amr etishini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, aql bizga, Xudo borligi yoki yo'qligidan qat'iy nazar, Xudo amalda mavjud, deb taxmin qilishni buyuradi. Ammo biz Xudoning borligini aniq bila olmaymiz, chunki Xudo g'oyasi tajribada o'z tasdig'ini topmaydi. Xudo g'oyasi nazariy aqlni emas, balki amaliy aqlni tartibga solish vositasi sifatidagina ma'no kasb etadi: agar tabiatshunos bu g'oyaga nafaqat regulyativ darajada, balki intuitiv darajada ham amal qilsa (ya'ni Xudo borligiga dalil-isbotsiz ham ishonchi komil bo'lsa), bu yalqov aql sanaladi va u ilm bilan shug'ullanmagani ma'qulroqdir. Kant aql g'oyalarini notanqidiy idrok etishdan saqlanishga chaqiradi. Uning fikricha, aql g'oyalari nafaqat

konstruktiv, balki destruktiv rol o'ynashi ham mumkin. Aql tajribada sinalgan bilim chegarasidan chetga chiqqan va faqat tajribada hech qachon ko'rilmaydigan sof tushunchalar bilan ish ko'rgan har bir holda shunday bo'ladi. Haqiqiyliги yoki soxtaligini biron-bir tajribada aniqlash mumkin bo'lmagan fikrlar ham mavjud. Yuqorida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra fan hisoblanmaydigan metafizika (Kant bo'yicha- falsafa) tushunchalari ana shunday xususiyatga ega. Kant inson doim tajribada ko'rilgan bilim chegarasidan chetga chiqish va tabiiy fanlarning imkoniyatlari cheklangan bilimlarini butun dunyoga nisbatan tatbiq etishga harakat qilishini ta'kidlaydi. Tajriba chegarasidan chetga chiqish bizni, masalan, dunyo vaqtda va makonda cheklangan – dunyo vaqtda va makonda cheksizdir, dunyoda hamma narsa maqsadga muvofiqdir – tabiatda maqsadga muvofiqlik mavjud emas, Xudo bor – Xudo yo'q kabi qarama-qarshi fikrlarning ikkalasi ham haqqoniy ekanligini isbotlashimiz mumkin bo'lgan aqlning yanglishishlariga olib keladi.

Barcha kategoriyalarni Kant ongimizning bilish ob'ektiga emas, balki sub'ektiga tegishli bo'lgan aprior elementlari deb e'lon qiladi. Aprior elementlar deganda tug'ma emas, balki individning rivojlanish jarayonida o'zlashtirilgan elementlar tushuniladi.

Kant mulohazalarining mantig'ini tushunish uchun bola nutq qobiliyatining rivojlanishini kuzatamiz. Bunda biz bola so'zlarni ularning umumiy qabul qilingan ma'nosida emas, balki mazmunini o'zi o'zlashtirgan so'zlar bilan o'xshashlik bo'yicha qo'llashini albatta payqaymiz. «Oyi, mening umurtqam qayerda?», deb so'raydi sizdan kichkintoy o'g'lingiz. – «Mana u», deb uning umurtqasini ko'rsatasiz. «Yo'q, - deb u bosh chayqaydi, va mening umurtqam mana bu yerda», deb qo'li bilan o'z qulog'ini ko'rsatadi. Bu misol bola tug'ilgan paytdan boshlab tayyor nutq shakllarini o'zlashtirishini tasdiqlaydi. Bolaning shaxsiy hayot tajribasi yangi so'zlarni o'zlashtirish izidan quvib yetolmagani bois, u mazkur so'zlarga o'zining tor tajribasidan olingan muayyan ma'noni yuklaydi. Avvaliga so'z shakli, so'ngra uning tajribadan olinadigan ma'nosi, avval so'zlar, so'ngra – tushuncha, so'zlar esa odamlar o'tgan avlodlari madaniyatining yutuqlaridan olinadi: «apriori» - so'zma-so'z tarjimada «avvalgidan» deganidir. Kant mulohazalari zamirida bola tug'ilgan paytdan boshlab shakllangan til, nutq, fikrlash mantiqi va madaniyatga duch keladi, degan fikr yotadi. Til tayyor mantiqiy

shakllar taassurotlar xaosini muayyan darajada tartibga solish, borliq manzarasiga oqilona tus berish uchun imkoniyat yaratadi. Kant fikriga ko'ra, til hissiy taassurotlar tajribasidan oldin keladi, ilmiy va odatdagi bilishning zaruriy omili hisoblanadi. Mushohada yuritish va idrok etish shakllarining apriorligi g'oyasi Kantga hissiy va oqilona bilishning birligini ko'rsatish imkonini beradi: «sezgilar yordamida biz narsalarni bilamiz va faqat bilishgina bizga mushohada yuritish imkonini beradi; narsalarni biz aql bilan idrok etamiz va idrok etish natijasida tushunchalar yuzaga keladi». Aql mulohazalarining dalil-isboti «faqat shunga asoslanadiki, ular har qanday tajribaning intellektual shaklini tashkil etadi va shu sababli ularning qo'llanilishi doim tajribada ko'rsatilishi mumkin». Umuman olganda, tajribada tasdiqlanmagan har qanday tushuncha uydirmadan boshqa narsa emas.

Kant taklif qilgan falsafiy kategoriyalar tasnifi borliq va bilish kategoriyalarinigina o'z ichiga olmaydi. Kant falsafasining tarkibiy qismini «Sof aqlning tanqidi» - «Amaliy aql tanqidi» va «Mulohaza yuritish qobiliyatining tanqidi» asarlari ham tashkil etadi. Bu asarlarda mutafakkir insonning ma'naviy qobiliyatlarini axloq va estetika kategoriyalarida tavsiflaydi. Shunday qilib, Kant shunday bir o'ziga xos tizimni yaratadiki, u Yevropa falsafiy tafakkuriga, ayniqsa, nemis falsafasiga juda kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Kant g'oyalari nemis falsafasining taniqli namoyandalari – Fixte, Gegel, Shelling asarlarida tanqidiy yondashuv bilan qayta ishlandi va rivojlanirildi.

Fixte falsafaga axloqiy qonun oliy tamoyili sanalgan mustaqil ontologik asos sifatidagi faoliyat kategoriyasini kiritdi. Shu sababli Fixte bilishni ham sub'ekt, ya'ni «Men» (uning terminologiyasida) faoliyatining mahsuli sifatida tushunadi. Bilish ob'ekti («Men emas»)ga kelsak, u inson «Meni»ning mahsuli sanalsa-da, lekin amalda mavjud bo'lgan narsa emas. Shu o'rinda, inson dunyoning yaratuvchisi ekan-da, degan tabiiy bir savol tug'iladi. Fixte o'z nuqtayi nazarini shunday tushuntiradi: «Men emas», ya'ni tabiat «narsa o'zida», ya'ni ob'ektiv borliqdir. lekin bizning «narsa o'zida» haqidagi bilimimiz o'z taassurotlarimizni anglab yetishimizdan boshqa narsa bo'lmay, ularning manbai «narsa o'zida» emas, balki aql-zakovatimiz harakati, ya'ni «sof Men»dir. Fixte mushohadaga asoslangan bilimning rolini inkor etmagan holda, tabiatni bilishni ham, insonning tabiat ustidan hukmronligi doirasini kengaytirishni

ham ta'minlaydigan amaliyotni birinchi o'ringa qo'yadi. Faoliyat nazariy ish ko'radigan biluvchi «Men» bilan «Men emas» dunyosi o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir, shu sababli real borliqni faqat amaliy harakatlar yordamida bilish mumkin. Amalda inson tabiat predmetlarini o'z ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradi va shu bois o'zgartirilgan tabiatni insonning o'zi aniq aks etadi. Fixtning xizmati shundaki, u nazariy muomalaga, falsafiy kategoriyalar tizimiga amaliyot tushunchasini kiritadi va shu tariqa bilish nazariyasini ham, antropologiya, ya'ni inson haqidagi ta'limotni ham sezilarli darajada boyitadi.

Gegel falsafasida dunyo mutlaq ruhning o'z-o'zini rivojlantirishi sifatida namoyon bo'ladi. Mutlaq ruh bir vaqtning o'zida ham substantsiya (borliq asosi), ham sub'ekt, ya'ni o'z rivojlanishi va bilishining manbaidir. Inkorni-inkor Hegel falsafasining asosiy tamoyili hisoblanadi. Ikki tomonlama inkor etish g'oyasiga muvofiq mutlaq g'oyaning rivojlanishi quyidagi uch bosqichdan o'tadi: sof borliq (tezis), yo'qlik (antitezis); mavjud borliq vujudga kelish va yo'q bo'lish sifatida, shakllanish (sintez). Bilishning uch bosqichi (triada) g'oyasi Hegel falsafasini to'la qamrab oladi. Nafaqat Gegelning butun falsafasi, balki u ilgari surgan fikrlarning har bir kichik hujayrasi ham uch qismga bo'linadi («Mantiq fani», «Natur-falsafa», «Ruh falsafasi»). Masalan, mantiqni Hegel ilohiy aqlga mos keladigan sof aql sohasi sifatida ta'riflaydi. U uch qismdan iborat: borliq, mohiyat, tushuncha.

Mantiqning birinchi qismida Hegel borliq tushunchasini tavsiflovchi kategoriyalar: sifat, miqdor, me'yorga ta'rif beradi. Sifatni Hegel «borliq bilan ayniy bo'lgan bevosita muayyanlik» deb ta'riflaydi. Ayni shu sababli predmet o'z sifatini yo'qotar ekan, o'zining avvalgi mohiyatini ham yo'qotadi. Miqdor sifatning inkoridir: «Miqdor sof borliq bo'lib, unda muayyanlik borliq bilan ayniy emas, balki yo'qolgan yoki befarq tus oladi». Me'yor – predmet borlig'i, miqdor o'zgarishlarining shunday bir chegarasiki, bunda predmet o'zining aniq sifatini yo'qotmaydi. Miqdor o'zgarishlari me'yori chegarasidan o'tar ekan, predmet yangi sifat holatiga o'tadi. Gegelning mohiyat haqidagi ta'limoti - bu harakatlantiruvchi kuch haqidagi ta'limotdir. Mohiyat ichki ziddiyat, qarama-qarshiliklarning ayniyligi. Ayniyatni Hegel tafovutni o'z ichiga oluvchi nisbiy ayniyat sifatida tushunadi. Hegel ayniyatning matematik tipdagi ( $A=A$  qabilidagi) formal-mantiqiy talqinini tanqid qiladi. Ayniyat haqidagi



ta'limotda Gegel ayniyat, tafovut, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar kabi tushunchalarga ta'rif beradi. Gegel mohiyatni u yoki bu darajada tavsiflovchi ayrim boshqa kategoriyalar, chunonchi: asos, hodisa, mavjudlik, namoyon bo'lish, munosabat, borliq, substantsiyalilik, kauzallik, o'zaro bog'lanishni ham taxmin qiladi. Gegel mohiyat refleksiya sifatida ham, ob'ektivlik omili sifatida ham tavsiflanishi mumkinligini qayd etadi. Mohiyat hodisadan ayri holda mavjud narsa emas, hodisa esa mohiyatni yashiruvchi narsa emas, u mohiyat bilan uzviydir. Mohiyat hodisada qanday namoyon bo'lishini va hodisa mohiyatni qanday ifodalashini ko'rish lozim. Mohiyat ko'rinish (ro'yo) va namoyon bo'lishga ajratish mumkin bo'lgan hodisaning tomoni hisoblanadi. Ammo ro'yo ham hodisani nafaqat niqoblaydi, balki uni namoyon etadi.

Tushuncha haqidagi ta'limotda Gegel ob'ektiv tushunchani farqlaydi u narsalarning o'zida yashaydi, uning mavjudligi tufayli narsalar mohiyat kasb etadi, narsani anglash uning tushunchasini anglash demakdir. Sub'ektiv tushuncha bizning borliqni bilish usulimiz sifatida ta'riflanadi. Umuman olganda Gegel mantig'ida tushunchalar (kategoriyalar)ning rivojlanuvchi tizimi o'z ifodasini topadi. Uning fikricha, tushunchalar dialektikasi narsalar dialektikasini belgilaydi. Har bir kategoriya muayyan mazmunga ega bo'ladi va inkorni-inkor tamoyiliga ko'ra hal qilinadigan o'z qarama-qarshiligining mavjudligini nazarda tutadi. Natijada yanada umumiyroq tushunchalar tizimi vujudga keladi.

Gegel naturfalsafasida o'zi yashagan davrning ma'lum bo'lgan ilmiy tasavvurlarini bayon etadi. U tabiatni mutlaq ruhning o'zgacha borlig'i sifatida tavsiflaydi va uning vazifasi o'z falsafasining uchinchi qismi – ruh falsafasida amalga oshadigan sintezga zamin yaratishdan iborat ekanligini qayd etadi. Gegel ta'riflab bergan tabiatni o'rganishning asosiy tamoyillari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bular: antireduksionizm, tabiatni o'rganishga nisbatan yaxlit yondashuv, tabiatning asosiy sohalari: mexanika, fizika, organikaning o'ziga xos xususiyati kabilardir.

XX asrda biz yashayotgan sayyora qiyofasi butunlay o'zgardi. Insonning ishlab chiqarish faoliyati insoniyatni dunyo miqyosidagi ekologik tanglikka giriftor etdi. Yutuqlar va ziddiyatlardan iborat og'ir va mashaqqatli globallashuv jarayoni yuz berdi. Fanda, xususan,

astrofizikani, Olamning kelib chiqishini o'rganish borasida erishilgan ajoyib yutuqlar, ehtimollik nazariyasini matematik asoslash, tizimlar umumiy nazariyasi, turli tipdagi tizimlarning qonuniyatlari haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi va hokazolar dialektikaning kategoriyalar apparatini sezilarli darajada boyitdi va ularga aniqlik kiritdi. Dialektika kategoriyalari haqidagi tasavvurlarga sinergetika ham jiddiy ta'sir qilmoqda. (Uning kategoriyalarini biz tegishli bo'limlarda ko'rib chiqamiz).

### **Kategoriya tushunchasi va uning tasnifi**

Kategoriya (yunon. kategoria – ta'rif, mulohaza) – borliq hodisalari va munosabatlarning muhim, tipik mazmunini o'zida aks ettiradigan o'ta keng tushuncha. Tabiiy til tushunchalari fan va falsafa kategoriyalari bilan tinimsiz boyib boradi. Kategoriyalarni tasniflash, borliqning turli shakllari haqidagi falsafiy tasavvurlarga muvofiq amalga oshiriladi. Odatda, fan kategoriyalari, xususiy-ilmiy kategoriyalar va falsafa kategoriyalari farqlanadi.

Fan kategoriyalari tabiiy til tushunchalaridan farq qiladigan so'zlar bilan ifodalanadi. Aksariyat hollarda ular qadimgi yunon yoki klassik lotin tilidan o'zlashtiriladi, ba'zan ular muayyan hodisani kashf etgan olimning ismi bilan ataladi. Ilgari ma'lum bo'lmagan hodisani ifodalash uchun sun'iy tarzda yaratilgan so'zlar – neologizmlar ham ancha ko'p uchraydi. Tabiiy tildan farqli o'laroq, fan tushunchalari va kategoriyalari atamalar (terminlar) hisoblanadi, ya'ni erkin talqinga yo'l qo'ymaydigan aniq belgilangan hajm va mazmunga ega bo'ladi. Har qanday fan borliqning muayyan tomonlarini o'rganar ekan, albatta o'z kategoriyalar apparatini shakllantiradi. Matematika «son», «differentsial», «integral» kabi kategoriyalar bilan bog'liq. Biologiyada «tur», «irsiyat», «o'zgaruvchanlik» kabi kategoriyalar mavjud. Ammo muayyan fanlarning kategoriyalari ma'lum darajada umumiy bo'lsa-da, borliqning ayrim sohalaridagina qo'llaniladi va mazkur sohalarga xos bo'lgan aloqalar va munosabatlarni aks ettiradi.

Xususiy ilmiy kategoriyalar alohida olingan xususiy ilmiy fanlarda qo'llaniladigan, mohiyat nuqtayi nazaridan boshqa fanlarda qo'llanilishi mumkin bo'lmagan kategoriyalardir. Masalan, fizika, kimyo geologiya, geografiya fanlari kategoriyalari xususiy xarakterga ega.

Falsafiy kategoriyalar – borliqning umumiy, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qo'llaniladigan o'ta keng tushunchalar majmuidir. Ayni shu sababli falsafiy kategoriyalar hech qachon hajman cheklangan tabiiy til tushunchalari darajasida soddalashtirilishi mumkin emas.

Tushunchalar sifatida kategoriyalar fikrlashning zaruriy shakllari hisoblanadi. O'ta keng tushunchalar sifatida ular universal qo'llanish va butun olamni tavsiflashga da'vogar bo'lishi mumkin. Shu boisdan falsafiy kategoriyalar dunyoning manzarasini yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladiki, bu, umuman olganda, falsafaning bosh vazifasi hisoblanadi. Har qanday tushunchalar kabi, kategoriyalar instrumental funktsiyani bajaradi, fikrlash omili va vositasi sifatida amal qiladi. Shuningdek falsafiy kategoriyalar insonning turli hodisalarni bilish va o'zlashtirish usuli sifatida ham instrumental funktsiyani bajaradi. Falsafiy kategoriyalar ilmiy bilishning muayyan metodologiyasini, umuman borliqni, ayniqsa, inson borlig'ini tushunish me'yorlarini yaratish orqali normativ funktsiyani ham bajaradi.

Kategoriyalarning ahamiyati va universalligi shu bilan belgilanadiki, bilish natijalari muqarrar tarzda kategoriyalarda qayd etiladi, kategoriyalar shakl-shamoyilini kasb etadi. Ular fan tarkibining zaruriy qismi hisoblanadi. Zero, fan ob'ekti faqat kategoriyalar yordamida fikrlanishi va tushunilishi mumkin.

Falsafaning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonida falsafiy bilish predmetining o'ziga xosligini va falsafiy tafakkur xususiyatlarini aks ettiruvchi kategoriyalar tizimi mavjud. Ularni mazmunan talqin qilish dunyoqarashning shakllanish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lib, fan, falsafa va umuman, ma'naviy madaniyatning rivojlanishiga qarab o'zgarib boradi. Falsafiy kategoriyalar tarkibi ham kengayadi. Fanning aksariyat kategoriyalari falsafiy maqom kasb etadi. Ilgari mavjud bo'lmagan yangi jarayonlar va hodisalar vujudga kelishi bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish tegishli tarzda falsafiy idrok etiladiki, bu falsafaning tushunchalar apparatini yanada boyitadi. Falsafiy tushunchalar va kategoriyalar bilan ish ko'rish mahoratini o'zlashtirish talabning falsafiy madaniyatini, umuman fikrlash madaniyatini shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Falsafa kategoriyalari muayyan fanlarning kategoriyalaridan ancha farq qiladi. Bu farq shundan iboratki, falsafa kategoriyalari

ob'ektiv dunyo hodisalari turkumlarining muhim xossalari va aloqalarinigina emas, balki barcha moddiy jarayonlarga xos bo'lgan eng umumiy xossalari va aloqalarni aks ettiradi. Shunday qilib, falsafa kategoriyalari ob'ektiv dunyoni ideal aks ettirishning o'ta keng shakllari bo'lib, ular voqelikni bilish va ma'naviy-amaliy o'zgartirishning asosiy tamoyillari bo'lib xizmat qiladi.

Falsafiy kategoriyalar – borliqning umumiy, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qo'llaniladigan o'ta keng tushunchalar majmuidir. Falsafiy kategoriyalar tizimida shartli ravishda to'rtta muhim guruhni farqlash mumkin.

1. Borliq kategoriyalari falsafiy kategoriyalarning birinchi va eng muhim guruhi bo'lib, ular har qanday falsafiy muammolarni tahlil qilishda qo'llaniladigan umumiy kategoriyalardir (falsafiy adabiyotlarda bu kategoriyalarni dialektika kategoriyalari yoki ontologik kategoriyalar deb nomlanadi). Ontologik kategoriyalar – bu fikrlashning har qanday ob'ektni bilishda «ishlash»ga qodir bo'lgan universal vositalari. Ular shunday bir o'ziga xos tilni hosil qiladiki, uning yordamida moddiy ob'ektlar haqidagi umumiy tasavvurlar ifodalanadi. Darhaqiqat, fan o'rganayotgan ob'ektlar qay darajada har xil bo'lmasin, u mazkur ob'ektlarni tavsiflash va tushuntirish uchun harakat, makon, vaqt, tasodif, zaruriyat va hokazo kategoriyalardan foydalanishi lozim. Kategoriyalar tili – universal til: unda har qanday ob'ekt haqida gapirish mumkin va bu tushunchalar boshqa fanlarda ham qo'llanilishi ko'zda tutiladi. Shunday qilib, atributiv model har qanday ob'ektni tavsiflash uchun yaroqli bo'lgan atributlar tizimi ham, kategoriyalar tizimi ham, til tizimi hamdir.

2. Ikkinchi guruhni falsafaning turli bo'limlariga tegishli bo'lgan maxsus kategoriyalar tashkil etadi. Substantsion kategoriyalar – bu boshqa kategoriyalardan qat'iy nazar, alohida-alohida qo'llaniladigan kategoriyalar. Bunday kategoriyalar qatoriga «borliq», «materiya», «harakat», «rivojlanish», «makon», «vaqt», «ziddiyat» va hokazolalar kiradi. Ular ob'ektiv voqelikning muayyan umumiy xossalarni qayd etadi, lekin bu kategoriyalarning boshqa kategoriyalar bilan aloqalari haqida bevosita tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi.

3. Uchinchi guruhni maxsus falsafiy fanlar: mantiq, axloq, etika, estetika kategoriyalari tashkil etadi. Masalan, axloq fanida falsafiy bilimning ayni shu sohasi va falsafaning axloq bilan turdosh

bo'limlari – antropologiya, ijtimoiy falsafa, aksiologiyaga xos bo'lgan kategoriyalar tizimi (yaxshilik va yomonlik, sha'n va qadr-qimmat, hayot ma'nosi, baxt va boshqalar) vujudga kelgan. Tushunchalar, mulohazalar, mushohadalar, dalillash va hokazolar mantiq kategoriyalari hisoblanadi. Estetikada go'zallik va xunuklik, fojeaviylik va kulgililik, ulug'vorlik va tubanlik kabi kategoriyalar qo'llaniladi. Biz esa falsafaning umumiy kategoriyalarini ko'rib chiqamiz.

4. Munosabatdosh kategoriyalar biri ikkinchisi bilan bog'liq bo'lib, bilish jarayonida biri ikkinchisini taqozo qiladi; ularning biri haqida tasavvur hosil qilganda boshqasini hisobga olmaslik mumkin emas. Bunday kategoriyalar qatoriga yakkalik va umumiylik; hodisa va mohiyat; shakl va mazmun; qism va butun; sabab va oqibat; tasodif va zaruriyat; imkoniyat va voqelik kabilar kiradi. Biz munosabatdosh kategoriyalarni batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Umumiylik, yakkalik, xususiylik kategoriyalari borliq narsalari va hodisalarining nisbatan mustaqilligi, ularning rang-barangligi va birligining in'ikosidir. Kundalik hayotda biz «yakka», «xususiy», «umumiy» tushunchalarini ko'p ishlatamiz va ularning mazmuni bizga ba'zan oydek ravshan bo'lib tuyuladi. Ammo mazkur tushunchalar bilan ifodalanadigan predmet yoki predmetlar turkumini topishga harakat qilganimiz zahoti katta qiyinchiliklarga duch kelamiz. Masalan unga ikkita bolaning suhbatini asos bo'lishi mumkin:

- Umingda hech qushni ko'rganmisan? - Ha, ko'rganman. Mana u (kanareykaga ishora qiladi).

- E, bu qush emas, kanareyka-ku. Kanareykani ham sen hech qachon ko'rmagansan. Sen faqat bitta kanareykani, bizning kanareykamizni ko'rgansan. Sog'lom fikr kanareykada qushni ko'rgan bola u hech qachon qushni ko'rmaganini aytayotgan boladan ko'proq haq ekanligidan dalolat beradi. Ammo umuman qush, meva, daraxtini ko'rganini kim uzil-kesil qayd eta oladi? Biz bu qush, bu daraxt, bu mevani o'z tajribamizda ko'rganimiz hech qanday shubha uyg'otmaydi. Umumiy tushunchalar amalda ob'ektiv mazmunga ega yoki ega emasligi falsafa tarixida qizg'in munozaralarga sabab bo'lgan. Umumiy tushunchalar tabiati masalasi atrofida bahs o'rta asrlardan beri davom etib keladi. Umumiy tushunchalar amalda mavjudmi? Nima haqiqiy borliq hisoblanadi – yakkalikmi yoki umumiylikmi? Umumiylik va yakkalik munosabati hodisalar xossalariining emas, balki hodisalarning munosabati sifatida qaraladigan

darsliklarga hozir ham duch kelish mumkin. Xo'sh, bugungi kunda falsafada mazkur masala qanday yechilmoqda?

Yakkalik – faqat mazkur ob'ektga xos bo'lgan xossalarni ifodalovchi kategoriya. Yakkalik ayrim narsalar nisbatan mustaqil mavjudligini ham, mazkur narsaning nisbatan mustaqilligi, diskretligi, alohidaligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan individual betakror belgilarni ham qayd etadi.

Umumiylik ayrim narsaning muayyan turkumga mansub barcha narsalar bilan o'xshashligini belgilovchi xossalar bilan ifodalanadi. «Umumiylik» – bu narsalar va hodisalar o'rtasida muayyan sifat jihati doirasida amalda mavjud bo'lgan ayniylikdir. Umumiylik yakka narsaning mohiyatini aks ettiradi. Umumiylikni faqat mohiyatni aniqlash orqali ochib berish mumkin. Yakkaliksiz umumiylik sezgilar darajasida idrok etiladigan belgilardan, yakka-likning betakror individualligi, boyligidan mahrum bo'lgan mavxumlik bo'lib qoladi. Yakkalik va umumiylikning keltiriladigan ta'riflari ularni ayni bir ayrim ob'ektning tomonlari sifatida tavsiflaydi. Masalan, hayot bugungi kunda oqsilli jismlar va nuklein kislotalarning mavjudlik shakli sifatida tavsiflanadi. Irsiyat va o'zgaruvchanlik – butun tiriklikning umumiy xossalari. Ammo oqsilning kimyoviy tarkibi va ayniqsa tuzilishi har bir organizmda individual darajada betakroridir. Bu bir jonzotni boshqa jonzotdan farqlash imkonini beruvchi birdan-bir xossadir.

Mantiqda yakkalik va umumiylik – tushunchalar tavsifi sifatida namoyon bo'ladi. Umumiylik tushunchasida ikki va undan ortiq predmet, yakkalik tushunchasida esa – bitta predmet tushuniladi. Grammatik jihatdan umumiylik turdosh ot bilan, yakkalik esa – atoqli ot bilan ifodalanadi. Falsafada yakkalik va umumiylik borliq hodisalarining o'xshashligi va farqlarini belgilovchi xossalardir. Yakkalik ham, umumiylik ham mustaqil mavjud bo'lmaydi. Har qanday ayrim narsa yoki hodisa qarama-qarshiliklar birligi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida u ham yakkalik, ham umumiylikdir. Har qanday umumiylik ayrim narsa, hodisaning tarkibiy qismi, elementi hisoblanadi, chunki u ayrim narsa yoki hodisani to'liq emas, balki bir yoqlama – narsalarda mavjud ayniy jihatlarni aks ettiradi. Yakkalik o'z mohiyatiga ko'ra mavhum hisoblangan umumiylikdan boyroqdir. Ammo umumiylik narsaning mazmuni, mohiyatini chuqurroq yoritadi. Ayrim narsalar, hodisalar, jarayonlar mustaqil mavjud

bo'ladi. Umumiylik ham, yakkalik ham faqat ayrim narsa yoki hodisadagina mavjuddir.

O'rta asrlar falsafasida umumiy tushunchalar tabiati haqidagi masala atrofidagi bahs uning ishtirokchilari realistlar va nominalistlarga bo'linishiga olib keldi. Realistlar umumiylikni yakkalikdan ajratib, umumiylikni mustaqil holda mavjud hodisa sifatida, narsalar paydo bo'lgunga qadar – narsalarning (Xudo aqlidagi) ilk timsoli sifatida, narsalarda – Xudoning ro'yobga chiqarilgan g'oyasi sifatida talqin qilganlar. Shunday qilib, realistlar fikricha umumiylik narsalarga qadar, narsalarda va narsalardan keyin narsaning muayyan g'oyasi sifatida mavjud bo'ladi. Nominalistlar esa aksincha, faqat yakka narsalar amalda mavjud, umumiy tushunchalar esa ayrim narsalarning nomlari, xolos deb hisoblaganlar. Mazkur tasavvurlar aks sadosiga bugungi kunda ham, masalan, umumiylik ob'ektlar to'plami bilan, yakkalik esa - bitta predmet bilan tenglashtirilgan holda duch kelish mumkin. Amalda umumiylik va yakkalik kategoriyalari ob'ektlarni emas, balki ularning xususiylik tomonlari sifatida birgalikda mavjud bo'lgan xossalarini aks ettiradi. Umumiylik va yakkalikning birligi o'ziga xosdir, chunki ularning har bir ob'ektdagi ko'rinishi, uyg'unligi, birining ikkinchisidan ustunligi betakrordir. Shu sababli har bir ayrim hodisa, narsa – xususiydir.

Xususiylik tushunchasi zikr etilgan kategoriyalar mazmunini ochib beruvchi asosiy tushunchadir. Xususiylik – «narsa» tushunchasining sinonimi, ya'ni borliqning nisbatan mustaqil, sifat jihatidan muayyan parchasi. U xossalar to'plamiga ega. «Xususiylik» yakkalik va umumiylik o'rtasidagi oraliq kategoriya hisoblanadi. Xususiylik – yakkaga nisbatan umumiy bo'lgan va umumiyga nisbatan yakka bo'lgan narsa yoki hodisa. Masalan: modda (qonun moddasi) – yakka; qonun – xususiy; huquq – umumiy. «Qonun» tushunchasi «modda» tushunchasiga nisbatan umumiydir. O'z navbatida «qonun» tushunchasi «huquq» tushunchasiga nisbatan yakkalikni aks ettiradi. Yakkalik, umumiylik va xususiylik kategoriyalari bilish jarayonida uning tayanch nuqtalari, bilimsizlikdan bilim sari bosqich rolini o'ynaydi.

Mohiyat va hodisa kategoriyalari bilishning turli bosqichlarini belgilaydi va ularning har biri ob'ektni anglab yetishning o'ziga xos darajasini aks ettiradi.

Mohiyat ob'ektiv borliqning ichki, nisbatan yashirin va barqaror tomonini ifodalash uchun mo'ljallangan bo'lib, u narsa, jarayonning tabiatini va ularga xos bo'lgan qonuniyatlarini belgilaydi. Hodisa – bu narsa, jarayonda qarshimizda bevosita namoyon bo'luvchi xossalar, tomonlar yig'indisini ifodalash uchun mo'ljallangan kategoriya.

Hozirgi falsafiy adabiyotlarda mohiyat predmet borlig'i barcha rang-barang va qarama-qarshi shakllarining barqaror birligidan iborat bo'lgan predmetning ichki mazmuni sifatida tavsitlanadi. Mohiyat har qanday tizimning asosiy jihatlari va tendentsiyalarini belgilovchi teran aloqalar, munosabatlar, xossalar va ichki qonunlar majmuidir. Muayyan mohiyatsiz jism, jarayon bo'lmaganidek, muayyan hodisada o'z ifodasini topmagan mohiyat ham bo'lishi mumkin emas.

Falsafada hodisaning ikki ma'nosi shakllangan. Birinchidan, hodisa voqea, tabiat va jamiyatdagi jarayonlardir. U mazkur jarayonlar bizning ongimiz, idrokimizda aks etishini anglatadi. Masalan, momaqaldiroq, kamalak, qor yog'ishi, suv toshishi, yer qimirlashi, vulqon otilishi – bularning barchasi tabiat hodisalaridir. Inson tabiat hodisalarini tushunish, tushuntirishga harakat qilgan va ularning o'z ongidagi in'ikosi bilan amaldagi ifodasi o'rtasida muayyan farq mavjudligini aniqlagan. Tabiat hodisalarini ularning inson birinchi navbatda idrok etadigan va pirovard natijada uni aldaydigan yuzaki, o'zgaruvchan jihatlari tavsiflaydi. Shu tariqa hodisa kategoriyasi-ning mohiyatning ziddi sifatidagi falsafiy ma'noga ega bo'ladi.

Ikkinchidan hodisa – mohiyatni aniqlash usuli. U, odatda, narsalar o'zaro ta'sirga kirishganida, mohiyat o'zini namoyon etishi natijasida yuz beradi. Narsa qanday bo'lsa, ko'rsatilgan aloqalar va o'zaro ta'sirlar xususiyati ham shunday bo'ladi. Masalan, yirtqich hayvon uni o'txo'r hayvonga aylantirishga qancha urinmasinlar, baribir yirtqich bo'lib qoladi. Ammo u qanday muhitda va o'z ishtahasining qaysi potentsial qurboni bilan to'qnash kelishiga qarab, uning xulq-atvori o'zgaradi. Ayni shu sababli hodisa narsaning mohiyatini, uning muayyan ichki va muhim xossasini u yoki bu tarzda namoyon etadi.

Haqiqiylik mezoniga javob beruvchi bilimni olish bilishning muhim vazifasidir. Bunday bilim o'rganilayotgan narsaning mohiyatiga kirish demakdir. Mohiyatni bilish rivojlanishning asosiy jihatlari



va tendentsiyalarini belgilaydigan teran aloqalar, munosabatlar va qonunlarni aniqlashni nazarda tutadi. Tabiatning mohiyati cheksiz-chegarasiz bo'lgani bois, uni bilish jarayoni ham cheksizdir. Mohiyat tushunchasi bilishni to'liq, mukammal bilianga erishishga yo'naltiruvchi tartibga solish tamoyili ahamiyatiga egadir. Hodisa tushunchasi mohiyatni bilish usulini ko'rsatadi va shu boisdan metodologik ahamiyat kasb etadi. O'rganilayotgan ob'ekt o'zi uchun g'ayritabiiy shart-sharoitlarga solinadigan ilmiy eksperiment butunlay yangi hodisalarni qayd etish va shu tariqa o'z shakllanishi va faoliyatining ilgari noma'lum bo'lgan qonunlarini kashf etishi tasodifiy bir hol emas.

### **Mohiyat va mavjudlik.**

Platon mohiyatni narsalarning moddiy-hissiy borlig'i bilan bog'lash mumkin bo'lmagan g'oya sifatida tavsiflagan. Har qanday g'oya kabi, mohiyat nomoddiy, o'zgarmas va boqiydir. Aristotel mohiyat deganda narsalar borlig'i-ning abadiy tamoyilini tushungan. Narsaning mohiyati qotib qolgan materiya bilan emas, balki shakl bilan belgilanishiga uning ishonchi komil bo'lgan. Ma'lumki, antik an'anada «shakl» va «g'oya» tushunchalari bir xil ma'noga ega. Biroq, Platondan farqli o'laroq, Aristotel shakl (g'oya) va materiyani bir-biridan ajratmaydi, balki ularning uzviy aloqasini qayd etadi. O'rta asrlarda mohiyat va mavjudlik o'rtasidagi farq anglab yetiladi. Mohiyat muayyan maqsad, mo'ljalni o'zida mujassamlashtiradi, mohiyatni bilish esa uning tub negiziga muvofiq bo'lgan ta'rifda ifodalanadi.

O'rta asrlar falsafasida qayd etilgan mohiyat va mavjudlik o'rtasidagi farq keyinchalik mohiyat va hodisaning nomuvofiqligi sifatida talqin qilingan. Bu nomuvofiqlik tasodifiy, o'tkinchi bo'lishi va asosiy tamoyilni, ya'ni narsani uning muhim xossalari bilan yaratgan Tangri niyatini tushunishdan chalg'itishi mumkin.

Mohiyat va hodisa o'rtasidagi dialektik aloqa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) mohiyat va hodisa bir-biri bilan uzviy bog'liq. Hodisa o'zida mujassamlashgan narsa, ya'ni mohiyatsiz mavjud bo'la olmaydi. Mohiyatda u yoki bu tarzda namoyon bo'lmaydigan narsaning o'zi yo'q;

b) mohiyat va hodisaning birligi ularning o'zaro mosligi, ayniyligini anglatmaydi. Mohiyat doimo hodisa ortida yashirilib

yotadi. Agar narsalarning namoyon bo'lish shakli va mohiyati bevosita mos kelganida, fanga hojat qolmas edi;

v) hodisa mohiyatga qaraganda faolroq va jo'shqinroq, mohiyat esa barqarorroq va turg'unroq – u barcha o'zgarishlarda saqlanib qoladi. Ammo, hodisaga nisbatan barqarorroq bo'lgan mohiyat mutlaqo o'zgarishsiz qolmaydi;

g) hodisa mohiyatga qaraganda boyroq. U ob'ekt muhim aloqalarining ichki mazmunigina emas, balki bu ob'ektning har qanday tasodifiy munosabatlari, alohida jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

\* Mohiyat va hodisa o'zaro munosabatlarining bir-biri bilan ziddiyatli aloqasini qayd etuvchi o'ziga xos shakli zohiriylikdir. U bizning sezgilarimiz narsalarning mohiyatini, aniqroq aytganda mohiyatning biron-bir jihatini bir yoqlama noaniq aks ettirishini anglatadi. Ilmiy bilishning maqsadi narsalar va hodisalarning zohiriylik ortida yashirib yotgan mohiyatini yoritishdan iborat.

Mazmun va shakl tushunchalari, ularning dialektikasi qadimdayoq sinchiklab o'rganilgan. Uyg'unlik, go'zallik, mutanosiblik tuyg'usi, aql va tananing barkamolligi qadimgi yunonlar uchun juda muhim bo'lgan. Ularning tilida shakl tushunchasi tabiatning oddiy materiali go'zal shakl-shamoyil kasb etishiga imkoniyat yaratadigan g'oya tushunchasining sinonimi sanalgan. Aristotel g'oya, ya'ni shaklni materiya bilan uzviy bog'liq deb hisoblagan. Qadimgi Yunonistonda mazmun va shakl muammosi qo'yilgan bo'lsa, keyingi ming yillikda bu muammoni turli yo'nalish mutafakkirlari yechishga harakat qildi.

Mantiqda mazmun tushunchasi uning muhim belgilari majmuini anglatadi. Falsafada mazmun narsaning negizini tashkil etadigan, uning mavjudligi, rivojlanishi va shakllarining o'zgarishini belgilaydigan qismlar, elementlarning muayyan tarzda tartibga solingan majmuidir. Ko'rib turganimizdek, mantiq va falsafadagi mazmun tushunchalari bir-birini istisno etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi. Demak, mazmun – mazkur narsa, jarayon, hodisani belgilovchi elementlar, tomonlar, xossalar, aloqalar va tendentsiyalarning yig'indisi. Har qanday narsa, hodisa aniq mazmun bilangina emas, balki muayyan shakl bilan ham tavsiflanadi.

Shakl – narsaning tuzilishi, strukturasi, mazmun elementlarining uyushish, bir-biri va tashqi omillar bilan o'zaro aloqa qilish

usulini tavsiflovchi ichki aloqa. Shakl, – deydi Ibn Sino, – jismlarning mavjudligi qanday bo'lsa, shunday saqlanishi yoki boshlang'ich materiyaning konkret jismga aylanishidir. Shakl – tabiiy kuch sifatida anorganik jismlarni harakatga keltiradi: o'simlik, hayvon, odam, kosmik ruhni harakatga keltiradigan tabiiy jismlar shaklidir. Shakl – jismdan konkret narsa va predmet hosil bo'lishidir. Shakl – jismlarning alohida xususiyati bo'lib, konkret yashash tarzini belgilaydi. Shakl umumiy nom bo'lib, narsa turini, narsaning mavjudligini, ikkinchi marta takomillashishini, mavjudligini bildiradi. Shaklni aniqlashda narsalar mavjudligi muhim o'rin egallaydi. Masalan, olov olov shakli asosida aktuallashadi va boshqa shaklga o'tadi. Shakl tufayli jism jism bo'la oladi.

Mazmun va shakl tushunchalariga berilgan ta'riflarning o'zidayoq biz ularning o'xshashligini payqaymiz, chunki struktura, ichki izchillik – mazmunning ham, shaklning ham zaruriy komponenti. Shu sababli mazmunni shakldan faqat mavhumlik nuqtayi nazardan-gina ajratish mumkin. Ikki o'xshash mazmunni taqqoslashgina shakl omillarini farqlash imkonini beradi. Nafaqat mazmun «shakldor», balki shakl ham mazmunlidir. Shu sababli ayni bir jihat, element bir zamonning o'zida bir predmetning shakli ham, boshqa predmetning mazmuni ham bo'lishi mumkin.

Shakl va mazmunning o'zaro aloqasi shunda ifodalanadiki, narsaning bu ikki qarama-qarshi tomonlari bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Qadimda mazmun va shakl dialektikasida shakl ustun qo'yilgan, uning yordamida narsa o'z g'oyasi (shakli) yoki vazifasi (maqsadi)ga muvofiq bo'lgan muayyan borliq sifatida mavjud bo'ladi, deb hisoblangan. Keyinchalik fanning rivojlanishi va uning falsafaga ta'siri kuchayishi bilan mazmun va shaklning aloqasi haqidagi tasavvurga ham aniqlik kiritilgan. Oddiy sog'lom fikr bizga shakl nimaningdir, ya'ni muayyan mazmunning shakli bo'lishi mumkinligini, mazmunsiz shakl hech qanday ahamiyat kasb etmasligini ko'rsatadi. Shu sababli formalizm tanqidi mutlaqo o'rinlidir. Masalan, san'atda «sof shakllar» bilan o'yin qilishga urinish shuning uchun ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydiki, o'zini formalist deb hisoblovchi iste'dodli san'atkor asarida mazmun baribir mavjud bo'ladi. Davlatni boshqarishda formalizm turlaridan biri sanalغان byurokratizm bilan ham shunday hol yuz beradi. O'z faoliyatini sof formal qoidalarga bo'ysundiruvchi, sog'lom fikrga son-sanoqsiz to'siqlar o'matuvchi

byurokrat amalda hokimiyat vakolatlari birdan-bir maqsad sanalgan muayyan davlat tizimining vakili hisoblanadi. Formalizmining yana bir ko'rinishi huquqning pozitivistik talqini bo'lib, unga binoan huquq iqtisodiy, siyosiy, axloqiy yoki o'zgacha asoslashga muhtoj bo'lmagan oliy asosdir. Huquqning mazkur formal-dogmatik talqini qonunchining o'zboshimchaligiga keng yo'l ochadi. Natijada davlatda nohuquqiy qonunlar ustuvorligi qaror topadi.

Narsa shaklsiz ham mavjud bo'lmaydi. Shuningdek, shakl mazmunga faol ta'sir ko'rsatadi, narsaga unda mavjud bo'lmagan xossalarni baxsh etadi. Masalan, ko'mir, grafit va olmosni olaylik. Ularning farqi – faqat molekula strukturasi, ya'ni shaklda. Ammo hech kim bu moddalarni bir-biriga o'xshatmaydi. Xullas, shakl mazmunga faol ta'sir ko'rsatib, yo uni takomillashtiradi, yo o'zini to'la namoyon etishiga monelik qiladi. Shakl mazmundan nisbatan mustaqildir. Bu hol ayni bir mazmunning ko'plab shakllari mavjudligida, shuningdek shakl mazmundan o'zishi yoki undan orqada qolishida namoyon bo'ladi. Shu sababli shakl va mazmunning uzluksizligi ularning birligi to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Bunda har bir muayyan holda yo shakl, yo mazmun ustunlik qilishi mumkin. Shakl va mazmunning nomuvofiqligi yoki qarama-qarshiligi yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan mazkur kategoriyalar dialektikasi borliqning har qanday hodisasi o'zgarishi va rivojlanishining ichki manbai hisoblanadi.

Mazmun va shakl o'rtasidagi dialektik o'zaro aloqa:

1. Mazmun va shakl bir-biri bilan uzviy bog'liq. Amalda shaklsiz mazmun va mazmunsiz shakl hech qachon hech qayerda mavjud emas. Shaklni mazmundan ajratishga, shakl mustaqil ahamiyatga ega ekanligini isbotlashga urinishlar formalizmga olib keladi.

2. Mazmun va shaklning birligida mazmun yetakchilik qiladi. Mazmunning o'zgarishi doim shaklning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Qandaydir tashqi kuch emas, balki aynan mazmun o'zini shakllantiradi. Masalan, fanni rivojlantirish, yangi qonunlarni kashf etish, ob'ektiv haqiqatlarning tagiga yetish mazkur yangi qonunlar mazmunini rasmiylashtiruvchi tegishli yangicha tasavvurlar, formulalar, nazariyalarni talab qiladi.

3. Mazmun va shaklning birligi mazmunga nisbatan shaklning nisbatan mustaqilligi, faolligini nazarda tutadi. Shaklning nisbatan mustaqilligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) rivojlanishda shaklning mazmundan oqsashida. Mazmun hech qachon bir darajada turmaydi, u o'zgaradi, shakl ham o'zgarishsiz qolmaydi. Ammo mazmun bilan taqqoslaganda shakl barqarorroq, turg'unroqdir. Bu hol shu bilan izohlanadiki, mazmun o'z harakatiga ega bo'ladi, shakl esa mazmun bilan belgilanadi. Mazmundan farqli o'laroq, shakl hodisaning turg'unroq tomoni sifatida amal qiladi. U muqarrar tarzda o'z mazmunidan ortda qoladi;

b) shaklning mazmunga aks ta'sirida. Bu ta'sir ikki yoqlama namoyon bo'ladi: shakl yo mazmunning o'zgarishiga ko'maklashadi, yo unga monelik qiladi. Albatta, agar shakl mazmunning o'zgarishiga muvofiq bo'lsa, u mazmun jadal sur'atlarda rivojlanishiga zamin yaratadi. Agar ularning o'rtasida ziddiyat tug'ilsa, mazmun lozim darajada rivojlana olmaydi, chunki unga eski shakl xalaqit beradi. Shu sababli ertami-kechmi ziddiyatni yechish vaqti keladi. Yangi mazmunga muvofiq yangi shakl yaratiladi. Shunday qilib, mazmun va shakl o'rtasidagi ziddiyat narsalar va hodisalarning o'zgarish, ularning boshqa narsalar va hodisalarga aylanish sabablaridan biri hisoblanadi.

**Butun va qism.** O'zaro bog'langan soddaroq narsalardan tashkil topadigan har qanday predmetning murakkab tuzilishini ifodalovchi falsafiy kategoriyalarning ayrim nisbatan ajralmas majmuasini tashkil etadi. Predmetni (butunni) tashkil etuvchi narsalar uning qismlari hisoblanadi. Butunni tashkil etuvchi qismlarni birlashtiradigan bog'lanish predmetga yaxlitlik baxsh etadi, ya'ni butunga xos bo'lgan, lekin uni tashkil etuvchi qismlarga ularning tarqoqlik holatiga xos bo'lmagan integrativ xossalari va qonuniyatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Butun o'zini tashkil etuvchi qismlarning birligidir. U o'z qismlarining o'zaro aloqasi tufayli mavjud bo'lib, bu aloqaning barqarorligi mazkur butunning tuzilishida o'z ifodasini topadi.

Butun va qism tushunchalari qadimgi yunon falsafasidayoq ma'lum bo'lgan. Butunni o'rganishga nisbatan yondashuvlarni belgilashda yuzaga kelgan ziddiyatlarni yechish qiyinchilik tug'dirgan. Ma'lumki, Dekart o'zining metod haqidagi mulohazalarida har qanday predmetni o'rganishni bilish vazifasini yechish uchun bu predmetni necha qismga ajratish kerak bo'lsa, shuncha qismga ajratishdan boshlashni tavsiya etadi. Demak, butun –qismlar yig'indisi deyish ham mumkin. Ammo bu fikr faqat qisman to'g'ri, chunki butun o'zini tashkil etuvchi qismlarning oddiy yig'indisi bilan izohlanishi

mumkin emas. Masalan, qurilish materiallari bir uyunga to'kilsa, bino paydo bo'lmaydi. Qarama-qarshi yondashuv butunning ustunligini tan olishni nazarda tutadi. Bu holda butunni bilish qismlarni bilishdan oldin keladi. Ammo butunning o'ziga xosligi uni tashkil etuvchi qismlardan kelib chiqmaganidek, qismning xossalari ham butundan kelib chiqmaydi. Natijada qoniqarli yechimini topish mushkul bo'lgan yaxlitlik antinomialari yuzaga keldi, chunki qarama-qarshi fikrlarning har birini amaliyotdan olingan misol bilan isbotlash va xuddi shuningdek, amaliyotdan olingan misol bilan rad etish mumkin. Masalan, butun qismlarning yig'indisidir, degan qoidaga butun o'zini tashkil etuvchi qismlar yig'indisidan ko'proqdir, degan qarshi qoida zid keladi. Qismlar butundan oldin paydo bo'ladi, degan fikrga butun o'zining qismlaridan oldinroq paydo bo'ladi, chunki ularga yangi xossalar baxsh etadi, degan fikr zid keladi. Mazkur antinomialar bilish metodologiyasida ham bilishning qarama-qarshi mo'ljallarida o'z ifodasini topadi: butunni bilish uning qismlarini bilish orqali amalga oshiriladi, bunga qarshi qoida esa shunday yangraydi: qismlar butunni qismlarga ajratish mahsuli sifatida faqat butun haqidagi bilimga muvofiq anglanishi mumkin. Bu esa butun va qismning yaxlitlik orqali ifodasida namoyon bo'ladi. Yaxlitlik jumboqlariga quyidagi hodisa misol bo'ladi: har bir atom yadrosining og'irligi uning tarkibiy qismlari og'irligining yig'indisidan kamroqdir. «Massa nuqsoni» deb ataladigan bu hodisa massa va energiyaning ekvivalentligi bilan izohlanadi. Bu hodisani yaxlitlik jumboqlari nuqtayi nazaridan qanday tushuntirish mumkin? Mazkur ziddiyatlarni yechish butun va qismning aloqasi haqidagi qarama-qarshi tasavvurlar birligini tan olishni nazarda tutadi. Darhaqiqat, qism butunga bog'liq bo'ladi, u butundan yangi xossalar oladi. Butun ham qismlarga, biroq ko'proq darajada – ular o'rtasidagi aloqaning xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Butunning uch tipi ma'lum:

a) mexanik butun (qum, tosh uyumi, chunki ularning qismlari butunga kiradi va undan deyarli o'zgarmasdan chiqadi);

b) uyushgan butun, agar qismlarning ko'rinishi o'zgarsa;

v) organik butun, agar qismlar o'z-o'zidan rivojlansa (tirik organizmlar).

Qismlar o'rtasidagi aloqaning xususiyati butunning sifat jihatidan aniqligini, uning yaxlitligini belgilaydi. Yaxlitlik qismlarning shunday bir aloqasiki, unda butun qismlarining birligi ta'minla-

nadi, buning natijasida butun tizimlilik, uyushqoqlik xususiyatini kasb etadi. Qismlar aloqasining tipi yaxlitlik tipini belgilaydi. Aloqaning strukturaviy (tuzilishi), funktsional (predmetning faoliyat usulini tavsiflovchi), genetik tiplari yaxlitlikning tegishli tiplarini tashkil etadi. Yaxlitlikning quyidagi turlari farqlanadi:

Mexanik yaxlitlikda qismning butunga kamroq bog'liqligi va butunning qismga sezilarli darajada bog'liqligi kuzatiladi. Masalan, avtomobil g'ildiragi yoki ruli uning harakatlanishini ta'minlovchi qismlardir, lekin ular o'z sifatida avtomobildan qat'i nazar mavjud bo'lishi mumkin.

Noorganik yaxlitlikda qismlarning butunga bog'liqligi ortadi, butunning qismga bog'liqligi esa kamayadi. Qismlarning barqaror aloqasi har bir elementga o'z xossalarini saqlash va nisbatan o'zgar-mas bo'lib qolish imkonini beradi. Masalan, elektron atom tarkibida ham, undan tashqarida ham (harakatlanayotgan elektronlarning izchil oqimi sifatida) deyarli o'zgarishsiz qoladi.

Organik yaxlitlikda organik dunyoda nafaqat qismlarning o'zaro mosligiga, balki ularning subordinatsiyasiga ham duch kelish mumkin. Organik tizimlarning qismlari butundan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Tanadan uzilgan qo'l faqat nomigagina qo'l sanalishini Aristotel qadim zamonlardayoq qayd etgan edi.

Yaxlitlik tiplari va turlarining tasnifi butunning tabiatini bilish nafaqat uni tashkil etuvchi qismlarni, balki qismlar o'rtasidagi aloqalar xususiyatini ham bilish orqali amalga oshirilishini ko'rsatadi. Demak butun – narsa, hodisa va uni tashkil etgan qismlarning muayyan tartibda joylashuvi va o'zaro bog'langan yagonalikning ifodasi. Qism – butun tarkibiga kiradigan, uning tarkibidagina o'z vazifasi (funktsiyasi)ni bajara oladigan alohidalik. Masalan, yaxlit bir butun sifatidagi H<sub>2</sub>O molekularining qismlari – vodorodning ikki atomi va kislorodning bir atomi. Butun o'z qismlarining oddiy yig'indisidan iborat emas. Ma'lumki, vodorod yonadi, kislorod yonishni quvvatlaydi, lekin suv, albatta, yonishga to'sqinlik qiladi.

Butun va qism dialektikasi butun hosil bo'lganda qismlar xossalarining yig'indisidan iborat bo'lmagan yangi sifat vujudga keladi; shunga qaramay u qismlar – ularning miqdori va o'zaro aloqaning muayyan tipi bilan belgilanadi. Shu sababli dialektika butunni bilish faqat xossalar, qismlar haqida bilim mavjud bo'lgan

taqdirda samarali bo'lishi mumkin va aksincha, qismlarni o'rganish butunga doir oldingi bilimga tayanishi lozim, deb hisoblaydi.

Tizim, element, struktura kategoriyalari butun va qism kategoriyalarini to'ldiradi va rivojlantiradi.

Qadimgi yunon falsafasida tizim tushunchasi borliqning tartiblili va yaxlitligi sifatida tavsiflangan. Hozirgi talqinda tizim muayyan yaxlitlikni tashkil etuvchi qonuniy munosabatlar va aloqalarda bo'lgan elementlarning organik to'plami sifatida tavsiflanadi. Tizim (yunon. systema – birlashtirish, yaratish) – bir-birining o'rtasida qonuniy bog'lanish yoki o'zaro aloqa mavjud bo'lgan muayyan elementlar yig'indisi. Har qanday tizimning strukturasi avvalo uning tarkibiy elementlariga bog'liq. O'z navbatida, elementlarning xossalari ham ko'p jihatdan o'zlari hosil qilgan tizimning strukturasi bilan belgilanadi. Tizim va element tushunchalari butun va qism kategoriyalariga yaqin turadi. Ammo ular ayniy tushunchalar emas. Xususan, qism bo'linadi, element – tizimning boshqa qismlarga ajralmaydigan komponenti hisoblanadi. Shuningdek tizim butun bilan ham solishtirilishi mumkin va xuddi butun kabi, qismlarning aloqadorligi, tartiblili va uyushqoqligi bilan tavsiflanadi. Ammo butunni o'rganishda uning o'ziga xos xususiyatini, sifat jihatidan muayyanligini aniqlash vazifasi birinchi o'ringa chiqadi.

Tizimli yondashuv tizimlarning sifat jihatidan o'ziga xosligidan qat'i nazar, ular xulq-atvorining umumiy tamoyillari va qonunlarini aniqlashni nazarda tutadi. Ayni shu sababli tizimlar juda keng miqyosda qo'llaniladi. Ammo har qanday ob'ektni o'rganishga nisbatan tizimli yondashuv doim ham samarali emas. Biron-bir ro'zg'or buyumi (qoshiq yoki choynak, yozuv daftari va sh.k.)ni tizimli o'rganishning hojati yo'q. Ba'zan shunday bir «tadqiqotlar» uchraydiki, ularda tizimlar nazariyasi atamalari ishlatilgan bo'lsa-da, ularni yaratgan soxta olimlar tavsiflanayotgan ob'ekt talqiniga biron-bir yangi narsa kiritmaydi. Hozirgi zamon fanida tizimli yondashuvning ikki yo'li qo'llaniladi: birinchisi – tizimlar tushunchasini muayyan tarzda formallashtirish va ularning fan tilida tavsiflanadigan umumiy belgilarini aniqlash; ikkinchisi – muayyan tizimlarning tipologik tahlilidan foydalanish kabilardir.

### **Tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari.**

Tizimli yondashuv-ning bir qancha tamoyillarini ta'riflash imkonini beradi.



Birinchi – yaxlitlik tamoyili. Har qanday tizim ko'p sonli elementlardan tashkil topadi, lekin ularning yig'indisiga bog'liq emas. Ikkinchi tamoyil – tizim tuzilishining ierarxiyaviyligi: tizimning har bir elementi murakkab tuzilishga ega bo'lib, nisbatan mustaqil tizim sifatida qaraladi. Ayni vaqtda o'rganilayotgan tizim murakkabroq tizim tarkibiga uning elementlaridan biri sifatida kiradi.

Uchinchi tamoyil – tizimni tashkil etuvchi elementlar bir-biri bilan muayyan munosabatlarga kirishadi. Ularning orasida eng muhimlari tizim tashkil etuvchi, tizimning yaxlitligini ta'minlovchi elementlardir.

Tizimni o'rganish strukturaviy va funktsional yondashuvlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Strukturaviy yondashuv tizimni uning tuzilishi va shakli nuqtayi nazaridan o'rganish imkonini beradi.

Funktsional yondashuv esa, tizimning xulq-atvori va boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqalarini tadqiq etish uchun imkoniyat yaratadi. Tizimlarning o'zaro aloqasi kauzal, aniq belgilangan va statistik, ya'ni ehtimol tutilgan bo'lishi mumkin. Tizimning muhitdagi xulq-atvori aktiv va reaktiv bo'lishi mumkin. Tizimning aktiv xulq-atvori maqsadlar nuqtayi nazaridan tavsiflanishi mumkin.

Tizimlarning tiplari. Tizimlarning umumiy belgilari bilan bir qatorda, muayyan tiplari faqat o'zigagina xos bo'lgan tipologik belgilarga egadir. Masalan, belgilar tizimlarini o'rganish bilan ilmiy bilimning alohida sohasi-semiotika shug'ullanadi. U bizning til haqidagi, madaniyat turli tillarining o'xshash jihatlari va farqlari haqidagi tasavvurlarimizni sezilarli darajada boyitadi.

Kibernetika boshqaruvchi tizimlar xulq-atvorini o'rganadiki, bu oqilona asoslangan boshqaruv tizimlarini yaratish imkonini beradi. O'yinlar nazariyasi bizning konfliktlashayotgan tizimlar haqidagi tasavvurimizni ancha kengaytiradi, sinergetika esa o'ta murakkab tizimlar xulq-atvorining qonuniyatlarini aniqlaydi. Shunday qilib, tizim, struktura va element kategoriyalari fan va falsafani yanada boyitib, muhim metodologik vazifani bajaradi.

Elementlari va strukturasi xususiyatiga ko'ra tizimlarning har xil turlari farqlanadi. Ob'ektiv borliqda mavjud bo'lgan moddiy tizimlarni va ob'ektiv borliqning inson ongidagi in'ikosi hisoblangan ideal tizimlarni farqlash ayniqsa keng tarqalgan. Elementlari va aloqalarining soniga ko'ra sodda va murakkab tizimlar farqlanadi.

Element (lot. *elementum* – birlamchi modda) – butunning nisbatan bo‘linmas qismi. Qism tushunchasi o‘z hajmiga ko‘ra «element» tushunchasidan kengroq, chunki bu har qanday qism emas, balki nisbatan bo‘linmas qism. Bunda «qism» butun tushunchasi bilan, «element» esa – struktura tushunchasi bilan munosabatga kirishadi.

Element narsaning boshqa bo‘linmaydigan zarrasini anglatuvchi kategoriya. Xususan, modda atomlardan tashkil topadi va atomlar moddaning elementlari hisoblanadi. Ammo bizga ma‘lumki, atom parchalanadi. Nima uchun biz elementar zarralarni moddaning elementlari deb hisoblamaymiz? Shuning uchunki, elementar zarralar moddaning emas, balki turli-tuman maydonlarning elementlari hisoblanadi.

Struktura (lot. *struktura* – tuzilish, joylashuv, tartib) tizimning tuzilishi va ichki shakli, mazkur tizim elementlari o‘rtasidagi barqaror o‘zaro aloqalarning birligi. Struktura narsalar va hodisalarning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi qonuniy aloqa usuli.

Yuz berishi yangi hodisa vujudga kelishiga olib keluvchi hodisa sabab deb ataladi. Sabab ta‘sirida vujudga keluvchi hodisa esa oqibat deb ataladi. Dunyoda barcha hodisalar, o‘zgarishlar, jarayonlar muqarrar tarzda muayyan sabablar tufayli yuz beradi. Dunyoda sababsiz hodisalar yo‘q va bo‘lishi mumkin ham emas. Sababiyat qonuni dunyoda barcha hodisalar sababiy belgilangan degan qoidaga asoslanadi. Sababiyat qonunini tan oluvchi va uni borliqning barcha hodisalariga tatbiq etuvchi faylasuflar deterministlar deb, sababiyat qonunini inkor etuvchi faylasuflar esa indeterministlar deb ataladi.

#### **Sabab va oqibat dialektikasi.**

Sabablar ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, ob‘ektiv va sub‘ektiv bo‘lishi mumkin. Sub‘ektiv sabablar ko‘pincha faoliyat, xulq-atvor, qilmishlarni izohlash sohasida namoyon bo‘ladi. Ob‘ektivning mohiyatini tashkil etuvchi qarama-qarshi kuchlar, tendentsiyalarning o‘zaro aloqasi sababning ichki manbai hisoblanadi. Masalan, odamlar o‘z kasalligi yoki qariligini qayg‘u-hasrat, muvaffaqiyatsizliklar, og‘ir ish va hokazolar bilan tushuntirishga moyildirlar. Amalda qarilik yoki o‘limni yengishga hali hech kim muvaffaq bo‘lmagan, chunki qarilik ham, o‘lim ham ichki sabablar bilan izohlanadi. Shu sababli ba‘zilar og‘ir ish bilan shug‘ullanib ham uzoq vaqt yosh va sog‘lom bo‘lib qoladi, ayrim takasaltanglar esa juda tez qariydi. Tashqi sabablar turli ob‘ektlar o‘zaro aloqasining mahsulidir.

Sabab va oqibat munosabatlarini orqaga qaytarib bo'lmaydi. Sabab va oqibatning sof chiziqli jarayon sifatidagi mexanistik talqini muqarrar tarzda sabab va oqibatni orqaga qaytarish mumkin, degan xulosaga olib keladi. Masalan, Oy qarama-qarshi yo'nalishda aylana boshlasa, u dastlabki holatga kelgan bo'lar edi. Ammo bu faraz zahirida soxta asoslar yotadi: u sabab-oqibat munosabatlariga tasodifiy omillar to'plami kuchli ta'sir ko'rsatishini hisobga olmaydi. Dastlabki holatga qaytish – bu mazkur omillar to'plamini amalda mujassamlashtirish demakdir. Vaholanki, ularning hammasini amalda mujassamlashtirish mumkin emas, demak, dastlabki holatga qaytish mumkin emas.

Sabablar va oqibatlarining munosabatlari murakkab va rang-barangdir. Bir sabab ko'plab oqibatlarga sabab bo'lishi va aksincha, bir oqibat zahirida ko'p sonli sabablar yotishi mumkin. Ayrim sabablar cheksiz oqibatlar zanjirining ilk manbai hisoblanadi. Ba'zi bir sabablar «zanjir reaksiyasi» ko'rinishini kasb etishi, ya'ni ikki yoki undan ortiq oqibatni yuzaga keltirishi, ular esa, o'z navbatida, ikki yoki undan ortiq oqibatga sabab bo'lishi mumkin.

Sabab, bahona va shartni farqlash lozim. Bahonani sub'ektiv sabablar qatoriga kiritish mumkin. Bunda voqea yoki sherikning harakati o'zining, odatda, noto'g'ri javob harakatlarini oqlash maqsadida talqin qilinadi va baholanadi. Shartlar – amaldagi yoki ehtimol tutilgan sababning mavjudlik muhitini tashkil etadigan ichki omillar va tashqi munosabatlar majmuidir. Sinergetika muhitga yagona negiz, bo'lg'usi tuzilmaning rang-barang shakllari manbai, rivojlanishning turli yo'llari uchun maydon sifatida qaraydi. Sabab-oqibat munosabatlari tizimida shartlarning amaldagi ahamiyatini tushunish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz. Fuqaro A. xotini suzishni bilmasligidan xabardor bo'lgani holda, undan qutulish uchun uni dengiz bo'ylab sayohatga yuboradi. Oqibatda xotini suvga cho'kib o'ladi. Erning harakatlari xotin o'limining sababi hisoblanadimi? Bu misol shartlar o'z holicha oqibat sababi bo'la olmasligini, lekin sababning amalga oshishiga ko'maklashadigan yoki monelik qiladigan omil hisoblanishini ko'rsatadi.

### **Sinergetika sababiyat haqida.**

Sababiyat haqidagi falsafiy qarashlar uzoq evolyutsiya jarayonini boshdan kechirdi. Mexanistik yondashuv sababni sirdan ko'rsatilgan ta'sir sifatida talqin qiladi. Dunyo jismlarning tartibga

solingan, oldindan aytish mumkin bo'lgan aniq o'zaro aloqasi sifatida tasavvur qilinadi. Tasodifning mavjudligi rad etiladi. Sababiyat zanjirlari chiziqli xususiyat kasb etadi, oqibat sabab ta'siriga proporsional bo'ladi. Binobarin, sababiyat zanjirlariga qarab rivojlanish jarayonining o'tmishini ham, kelajagini ham aniqlash mumkin. Ammo ilmiy bilimning rivojlanishi mexanistik determinizmning asossizligini namoyish etadi. Sinergetika yo'nalishi asoschilaridan biri I.R.Prigojin mexanistik determinizmga shunday baho beradi: «Dinamika ratsionalistik modelining mahsuli sifatida tushunilgan determinizm endilikda ayrim hollardagina namoyon bo'luvchi xossa bilan bog'lanadi», deb baho beradi.

Fan rivojlanishi bilan sabab-oqibat aloqalarining statistik qonuniyatlari va ehtimoliy tabiati haqidagi tasavvur yuzaga keladi. Murakkab tizimlarning o'z-o'zini tashkil etishi haqidagi fan – sinergetika determinizm talqiniga ma'lum aniqliklar kiritdi. Bir qator ilmiy dalillar olimlar har qanday tabiiy hodisalar stoxastik xususiyatga ega va muayyan noaniqlik sharoitida yuz beradi, degan xulosa chiqarishiga olib keldi. Murakkab tizimlar uchun, odatda, rivojlanishning bir necha muqobil yo'llari mavjud bo'ladi. Sinergetika sabab-oqibat aloqalari nomutanosib tizimlarda namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Bu tizimlarning rivojlanishi ko'p variantlidir. Bunda evolyutsiyaning har qanday turi emas, balki yo'llarning muayyan doirasi mavjud bo'lishi mumkin. Rivojlanishda kutilmagan burilishlar yuz berish ehtimoli mavjud, chunki u tasodifiy aloqalar orqali sodir bo'ladi. Nomutanosib tizimlar tashqi omillarga o'ta ta'sirchandır. Shu bois intensivlik darajasiga ko'ra ahamiyatsiz bo'lgan ta'sirlar ham kutilmagan natijalarga olib keladigan shikastli oqibatlar sababi bo'lishi mumkin.

Ayrim sabablar cheksiz oqibatlar zanjirining ilk manbai hisoblanadi. Ba'zi bir sabablar «zanjir reaksiyasi» ko'rinishini kasb etishi, ya'ni ikki yoki undan ortiq oqibatni yuzaga keltirishi, ular esa, o'z navbatida, ikki yoki undan ortiq oqibatga sabab bo'lishi mumkin. Sabab va oqibat o'rtasida murakkab dialektik o'zaro aloqasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) sabab vaqtda oqibatdan oldin keladi. Oqibat sababdan oldinroq yuz bermaydi. Ammo bu biri ikkinchisidan oldin keladigan har qanday hodisa u bilan sababiy bog'lanishda bo'ladi, degani emas.

Masalan, tun tongdan oldin keladi, lekin u tongning sababi hisoblanmaydi;

2) sabab muayyan sharoitda albatta oqibatni vujudga keltiradi. Sabab va oqibat shu darajada bog'liqki, agar sabab yuz bersa va yetarli sharoit mavjud bo'lsa, muqarrar tarzda oqibat ham yuz beradi;

3) sabab va oqibat bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Bu o'zaro ta'sirlanish jarayonida sababgina emas, balki oqibat ham faol bo'ladi. U sababga aks ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, g'oyalar borliqni aks ettiradi, lekin, vujudga kelgach, ijtimoiy borliqning o'zgarishiga kishilarning amaliy faoliyati orqali faol ta'sir ko'rsatadi;

4) ayni bir hodisa bir munosabatda sabab sifatida, boshqa bir munosabatda – oqibat sifatida amal qiladi. Aytaylik, yomg'ir – muayyan ob-havo sharoitlarining oqibati, lekin uning o'zi yaxshi hosildorlik sababiga aylanadi; hosildorlik esa davlatning iqtisodiy qudratini mustahkamlash omili bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa hodisalar o'rtasida sababiy bog'lanish vujudga keladi. Ammo biz faqat ikkita alohida-alohida hodisani ko'rib chiqqanimizda, ular o'rin almashishi mumkin emas;

5) sabab va oqibatning o'zaro ta'siriga tegishli sharoitlar ta'sir ko'rsatadi: Sharoitlar – bu shunday bir hodisalarki, ular mazkur voqea yuz berishi uchun zarur, lekin o'z holicha ular bu voqeani oldindan belgilamaydi. Oqibat yuz berishiga qulaylik yaratuvchi sharoitlar ham, sababning ta'sirini qaytaruvchi sharoitlar ham bo'lishi mumkin. Ayni bir sabab muayyan sharoitlarda turli shakldagi oqibatlar yuz berishiga olib keladi;

6) sababni bahona bilan ayniylashtirmaslik kerak. Bahona – bu boshqa voqeadan bevosita oldin keladigan, uning yuz berishiga imkoniyat yaratadigan, lekin uni vujudga keltirmaydigan va oldindan belgilamaydigan voqea. Bahona harakatni yaratmaydi, balki unga turtki beradi.

### **Sabab va oqibat dialektikasi.**

Sabablar ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, ob'ektiv va sub'ektiv bo'lishi mumkin. Sub'ektiv sabablar ko'pincha faoliyat, xulq-atvor, qilmishlarni izohlash sohasida namoyon bo'ladi. Ob'ektning mohiyatini tashkil etuvchi qarama-qarshi kuchlar, tendentsiyalarning o'zaro aloqasi sababning ichki manbai hisoblanadi. Masalan, odamlar o'z kasalligi yoki qariligini qayg'u-hasrat, muvaffaqiyatsizliklar, og'ir ish va hokozolar bilan tushuntirishga moyildirlar. Amalda

qarilik yoki o'limni yengishga hali hech kim muvaffaq bo'lmagan, chunki qarilik ham, o'lim ham ichki sabablar bilan izohlanadi. Shu sababli ba'zilar og'ir ish bilan shug'ullanib ham uzoq vaqt yosh va sog'lom bo'lib qoladi, ayrim takaslanglar esa juda tez qariydi. Tashqi sabablar turli ob'ektlar o'zaro aloqasining mahsulidir.

Sabab va oqibat munosabatlarini orqaga qaytarib bo'lmaydi. Sabab va oqibatning sof chiziqli jarayon sifatidagi mexanistik talqini muqarrar tarzda sabab va oqibatni orqaga qaytarish mumkin, degan xulosaga olib keladi. Masalan, Oy qarama-qarshi yo'nalishda aylana boshlasa, u dastlabki holatga kelgan bo'lar edi. Ammo bu faraz zamirida soxta asoslar yotadi: u sabab-oqibat munosabatlariga tasodifiy omillar to'plami kuchli ta'sir ko'rsatishini hisobga olmaydi. Dastlabki holatga qaytish – bu mazkur omillar to'plamini amalda mujassamlashtirish demakdir. Vaholanki, ularning hammasini amalda mujassamlashtirish mumkin emas, demak, dastlabki holatga qaytish mumkin emas.

Sabablar va oqibatlarining munosabatlari murakkab va rang-barangdir. Bir sabab ko'plab oqibatlarga sabab bo'lishi va aksincha, bir oqibat zamirida ko'p sonli sabablar yotishi mumkin. Ayrim sabablar cheksiz oqibatlar zanjirining ilk manbai hisoblanadi. Ba'zi bir sabablar «zanjir reaksiyasi» ko'rinishini kasb etishi, ya'ni ikki yoki undan ortiq oqibatni yuzaga keltirishi, ular esa, o'z navbatida, ikki yoki undan ortiq oqibatga sabab bo'lishi mumkin.

Sababiy bog'lanish tushunchasi muhim metodologik funktsiyani bajaradi. Muayyan oqibatning yuz berish sabablari va sharoitlarini bilgan holda, inson nafaqat uning yuz berishini bashorat qiladi, balki zarur oqibatni yaratadi. Bu insonga o'tmishni bilish va kelajakka nazar tashlash imkonini beradi.

Zaruriyat va tasodif falsafiy kategoriyalari narsalar va hodisalarning bir-biri bilan har xil tipdagi aloqalarini aks ettiradi. Zaruriyat va tasodif tushunchalari qadim zamonlardan beri faylasuflar e'tiborini o'ziga tortib keladi. Vaqt o'tishi bilan ularning talqini o'zgargan, ayrim faylasuflar tabiatda tasodifning mavjudligini istisno etgan bo'lsa, ayrimlar uni mutlaqlashtirgan. Masalan, sinergetikada tasodif tushunchasi va uning o'ta murakkab tizimlar o'z-o'zini tashkil etishidagi roli alohida, hatto ancha muhim ahamiyat kasb etadi. Zaruriyat va tasodif kategoriyalari bir qator ilmiy yo'nalishlar: biologiya, tibbiyot, huquqshunoslik, tarix va hokazolarda muhim

metodologik ahamiyatga egadir. Odamlar amaliy faoliyatida tasodif omili zaruriyatdan kamroq ahamiyat kasb etmaydi. Ammo ularning dialektikasini, qarama-qarshilikka asoslangan birligini tushunish ayniqsa muhimdir.

Zaruriyat bu hodisalar o'rtasidagi ularning qonuniy o'zgarishi va rivojlanishini belgilovchi barqaror, muhim ichki aloqalar. Zaruriyat qonun tushunchasiga yaqin turadi, muqarrar tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, avtomobilning halokatga nosoz tormoz muqarrar tarzda avtomobil halokatiga, uning yo yaqinroqdagi narsalar, yo harakatlanaётgan boshqa avtomobillar bilan to'qnashuviga olib keladi yoki u piyodani urib ketishiga sabab bo'ladi. Halokat aynan qanday yuz berishi, undan kim jabrlanishi mumkinligi tasodif, zero, yo'lda muayyan paytda istalgan narsa va istalgan odam duch kelishi mumkin. Bu yerda zaruriyat avtomobilning ichki holati, tasodif – tashqi sharoit bilan belgilanadi. Zaruriyat – yuz berishi mumkin bo'lgan voqea. Zaruriyat – ichki xususiyatga ega hodisa, uning sababi o'zida bo'ladi va hodisalarning ichki o'zaro aloqasidan kelib chiqadi. Ammo nafaqat ichki, balki tashqi zaruriyat ham mavjuddir. Masalan, jismlarning bir-biriga ularning massasiga to'g'ri proporsional va ular o'rtasidagi masofaga teskari proporsional bo'lgan kuch bilan tortishishi zaruriyat hisoblanadi. Bu tashqi zaruriyatdir. Tasodif ham ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Masalan, tirik organizmlarning mutatsiyalari tasodifiy xususiyat kasb etadi, ammo ular ichki hodisa hisoblanadi, chunki butun organizmni qayta qurish bilan bog'liq. Xo'sh, bu holda zaruriyat va tasodifni bir-biridan qanday farqlash mumkin? Zaruriyat hodisaning, jarayonning mohiyatidan kelib chiqadi va mazkur sharoitda muqarrar tarzda yuz beradi. Masalan, har qanday tirik organizmning o'limi muqarrardir, chunki u mazkur organizmning tabiati hamda unda yuz beruvchi ichki jarayonlar bilan belgilanadi.

Ammo dunyoda hamma narsa zaruriyat sifatida paydo bo'ladimi? Yo'q, dunyoda tasodifiy voqealar, hodisalar ham bor.

Tasodif – ob'ektlarning vujudga kelishi yoki mavjudligining muammoligini yoki muqarrar emasligini belgilovchi kategoriya; soddaroq qilib aytganda muayyan sharoitda bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin bo'lgan narsa tasodifiy hisoblanadi. Tasodif voqelikning asosan tashqi sharoitlar, yuzaki, beqaror aloqalar va mazkur hodisa uchun ikkinchi darajali omillar ta'sirida paydo bo'luvchi holatlarini aks ettiradi. Tasodif zamirida narsaning mohiyati emas, balki unga

boshqa narsalar va hodisalarning ta'siri yotadi. Tasodif yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bo'lgan narsa sifatida ta'riflanadi.

Narsalar mavjudligining zaruriyligi yoki tasodifiyligi muammosi xususida ikki nuqtayi nazar mavjud. Ularning biri zaruriyatni mutlaqlashtiradi: dunyoda hech qanday tasodif yo'q, hamma narsa muqarrar tarzda yuz beradi. Bu nuqtayi nazar tasodifni rad etib, fatalizmga yo'l ochadi.

Fatalizm – taqdiri azalga, hamma narsa oldindan belgilanganiga bo'lgan ishonch. Boshqa bir nuqtayi nazar tasodifning ahamiyatini oshirib ko'rsatadi. Bu yerda, aksincha, voqelikdan har qanday ichki bog'lanishlar, narsalarning ob'ektiv belgilanganligi chiqarib tashlanadi: dunyoda faqat tasodif hukm suradi.

Ilmiy dunyoqarash birinchi nuqtayi nazarni ham, ikkinchi nuqtayi nazarni ham tan olmaydi. Zaruriyat va tasodif alohida-alohida mavjud bo'lmaydi. Ularning o'zaro aloqasi shundan iboratki, tasodif zaruriyatning namoyon bo'lish shakli sifatida va uning to'ldiruvchisi sifatida amal qiladi. Masalan, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar zaruriy xususiyat kasb etadi. Ularda bu islohotlarni yo'lga soluvchi muayyan siyosiy arboblarni tasodifiy element hisoblanadi. Zaruriyat va tasodif dialektikasi ikki muhim jihatni nazarda tutadi. Birinchidan, tasodif rivojlanish jarayonida zaruriyatga aylanishi mumkin (u yoki bu biologik turning qonuniy belgilari avval tasodifiy og'ishlar sifatida paydo bo'ladi va to'planib boradi, so'ngra ularning asosida tirik organizmning zaruriy sifatlari shakllanadi). Ikkinchidan, zaruriyat son-sanoqsiz tasodiflar orqali o'ziga yo'l ochadi. Masalan, jamiyatning rivojlanishi turli maqsadlarni ko'zlovchi, fe'l-atvori har xil bo'lgan kishilar faoliyati bilan belgilanadi. Bu maqsadlar va intilishlarning bog'lanishi, chatishuvi va to'qnashuvi pirovard natijada rivojlanishning zaruriy, muqarrar xususiyatga ega bo'lgan muayyan yo'nalishiga olib keladi. Dialektikaning barcha qonunlari va kategoriyalari kabi, zaruriyat va tasodif ob'ektiv voqelikni bilishning tayanch nuqtalari hisoblanadi. Bu kategoriyalarning funktsiyalari teng qimmatga ega emas. Bilishda tasodif doim boshlang'ich asos, zaruriyat – maqsad sifatida amal qiladi. Bilish faoliyati tasodifdan zaruriyat sari yuksalish tarzida yuz beradi. Zaruriyat va tasodif tushunchalariga ta'rif berishda odatda imkoniyat kategoriyalariga tayaniladi. Shu sababli u yuz berishi yoki yuz bermasligi mumkin. Zaruriyat va



tasodifning qarama-qarshiligi – ichki va tashqi narsalar qarama-qarshiligidir. Tasodif – tashqi omillar bilan belgilanadigan aloqa tipidir.

Zaruriyat va tasodif dialektik aloqadorligi quyidagilarda namoyon bo'ladi; Ichki va tashqi narsalar tushunchalari nisbatdosh ekanligini e'tiborga olish muhimdir. Bir jihatdan ichki bo'lgan narsa boshqa bir jihatdan tashqi xususiyat kasb etadi. Masalan, sayyoralar-ning Quyosh tizimi orbitalari bo'ylab harakati bu sayyoralarni o'zaro bog'lovchi va ular aylanayotgan orbitalar shaklini belgilovchi ichki munosabatlar bilan belgilanadi. Quyosh tizimiga nisbatan boshqa kosmik ob'ektlar tashqi muhitni tashkil etadi. Ammo Quyosh tizimi galaktika elementi bo'lib, yulduzlararo makonda muayyan o'rin egallaydi. Shu sababli ayni shu ob'ektlar Quyosh tizimi sayyorolari evolyutsiyasining ham, ularga yaqin kosmik jismlar evolyutsiyasining ham ichki manbai hisoblanadi. Shu boisdan zaruriyat va tasodif tushunchalari ham nisbatdoshdir: bir jihatdan tasodifiy bo'lgan narsa boshqa bir jihatdan zaruriy hisoblanadi.

Zaruriyat va tasodif qarama-qarshiliklar bo'lsa-da, lekin ular birdir. Har qanday hodisa ichki zaruriyat tufayli yuz beradi, ammo uning yuz berishi ko'p sonli tashqi omillar bilan bog'liq bo'lgani bois, zaruriyatni tasodif muqarrar tarzda to'ldiradi. Bu zaruriyat ham, tasodif ham sof holda mavjud bo'lmasligini anglatadi. Tasodif – zaruriyatning namoyon bo'lish shaklidir. Zaruriyat, sabab, qonunni kashf etish – ahamiyatsiz, tasodifiy narsalarni mavhumlashtirish demakdir.

Bir qarashda zaruriyat sababiyatga zid bo'lib tuyuladi. Bu ziddiyat yo tasodifiy hodisa sababga ega emasligi bilan, yo tasodifiy hodisalar umuman bo'lmasligi bilan izohlanishi mumkin. Amalda har qanday, shu jumladan tasodifiy hodisa ham muayyan sababga ega bo'ladi. XVII-XVIII asrlarda zaruriyat va tasodif talqinida tabiatda tasodif mavjud emas, degan tasavvur hukm surgan. Ingliz faylasufi T.Gobbs: «Ertaga yog'adigan yomg'ir zarur, ya'ni zaruriy sabablar bilan belgilangan; lekin biz unga tasodifiy deb qaraymiz va uni shunday ataymiz, zero amalda mavjud sabablarni hali bilmaymiz. Umuman olganda, zaruriy sababini biz ko'ra olmaydigan narsa tasodifiy deb ataladi», deb qayd etgan. Shunga o'xshash fikrni Golbax ham ilgari suradi: «Tabiatda biron-bir hodisa tasodifan yuz berishi mumkin emas; hamma narsa muayyan qonunlarga bo'ysunadi; bu qonunlar faqat muayyan oqibatlarining sabablar bilan zaruriy aloqasi

hisoblanadi. Atomlarning tasodifiy birikishi haqida gapirish yoki ayrim oqibatlarni tasodif bilan bog'lash jismlarning harakatlanishi, uchrashishi, birikishi yoki ajralishi qonunlarini bilmaslikni tan olish demakdir». Ko'rib turganimizdek, tasodif sababi noma'lum bo'lgan zaruriyat sifatida talqin qilingan. Sababi aniqlangani zahoti tasodif zaruriyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu – mexanistik talqinidir. Tasodif ilmiy nazariyalardan quvg'in qilingan, u ikkinchi darajali, yordamchi, ahamiyatsiz omil deb hisoblangan. Tasodifning inkor etilishidan dunyoda hamma narsa zarur, degan xulosa kelib chiqadi. Mazkur yondashuvning tadrijiy oqibati o'laroq fatalizm yuzaga keladi: ya'ni ilgari ta'kidlanganidek nimaiki yuz bermasin, hatto ahamiyatsiz voqealar ham zarur, muqarrar bo'lib, sabab-oqibat aloqalarining cheksiz zanjiridagi ajralmas bo'g'in hisoblanadi. Fatalistik tasavvur har qanday voqeani muqarrar deb biladi. XIX asr boshidagina zaruriyat va tasodifning aloqasi Hegel dialektikasida ko'rsatib berildi.

Imkoniyat va voqelik kategoriyalarida borliqning o'zgaruvchanligi, dinamikasi, uning o'zgarish tendentsiyalari o'z aksini topadi. Imkoniyat rivojlanishning ob'ektiv tendentsiyalarini aks ettiradi, u qonuniyat, zaruriyatga, o'zgarayotgan narsaning muhim tomonlariga muvofiq yuzaga keladi.

Imkoniyat – narsaning tugallanmagan, potentsial rivojlanishidagi ob'ektiv mavjud bo'lgan va ichdan belgilangan holatini aks ettiruvchi falsafiy tushuncha. Har bir vaziyatda imkoniyatlarning muayyan to'plami mavjud bo'lib, ulardan biri amalga oshgani boshqalari chetda qolganini anglatadi. Imkoniyatlarning «kurashi» va amalga oshish xususiyatiga ichdan zarur tendentsiyalarga nisbatan tasodifiy hisoblangan sharoitlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli voqelik doim ichki va tashqi, mohiyat va hodisa, zaruriyat va tasodifning dialektik birligidan iborat bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanish va tabiatning o'zgarishi sohasida imkoniyatning voqelikka aylanishi kishilarning ongli yo'l tanlashi va faoliyati bilan tartibga solinadi.

Ammo imkoniyat qanday ob'ektiv asoslarga ega bo'lsa, imkonsizlik ham shunday ob'ektiv asoslarga egadir. Imkonsizlik – imkoniyatga zid tushuncha. Imkonsizlik tushunchasi ikki xil ma'no kasb etadi. Birinchisi – predmetning tabiatiga mos kelmaydigan narsa bo'lishi mumkin emas. Masalan, arpa urug'idan bodring yetishtirish mumkin emas. Imkonsizlik tushunchasining boshqa bir ma'nosi imkoniyat va zaruriyat kategoriyalarining munosabatlari bilan bog'liq.

Zaruriyat va imkoniyat – bir zanjir bo'g'inlari: rivojlanayotgan predmet zaruriyati uning boshqa bir holati bo'lishi mumkinligini belgilaydi. Ammo predmetning rivojlanishida, odatda, ko'p sonli muqobil imkoniyatlar mavjud bo'lgani bois, ulardan birini tanlash zaruriy hisoblanmaydi. Bir imkoniyatning ro'yobga chiqishi qolgan imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish imkonini bermaydi. Tuzatib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelgan qabul qilgan qarori, o'ylamasdan sodir etgan qilmishidan afsus chekmagan odam topilmasa kerak. Ba'zan imkonsizlik boy berilgan imkoniyat tarzida mavjud bo'ladi. Bu holda imkoniyat imkonsiz bo'lmagan narsa sifatida va ayni vaqtda zarur bo'lmagan narsa sifatida namoyon bo'ladi.

Voqelik – amalga oshgan, aktuallashtirilgan borliqni tavsiflovchi falsafiy kategoriya: voqelik amalga oshgan imkoniyat hisoblanadi. Voqelik tushunchasi ikki ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, voqelik – bu mavjud borliq, biz yashayotgan dunyo, uning ongimizdagi in'ikosidir. Voqelik tushunchasi ayrim predmetning borlig'iga ham tegishlidir. Bu ma'noda u ob'ektning holatini tavsiflovchi mazkur lahzadir. Ikkinchidan, voqelik ro'yobga chiqqan imkoniyat sifatida tavsiflanadi. Bu ma'noda voqelik tushunchasi imkoniyat kategoriyasining nisbatdoshi hisoblanadi. Ular bir-biriga o'tuvchi qarama-qarshiliklardir. Imkoniyat potentsial, voqelik esa aktualdir. Imkoniyat – mavxum va mazmun jihatidan qashshoq tushuncha. Voqelik – muayyan va mazmunan boy tushuncha, chunki u ko'p sonli xossalar, individual betakror jihatlarni o'z ichiga oladi. Har bir predmet ko'p sonli aloqalar yuzaga kelishiga zamin yaratuvchi muayyan muhitda mavjud bo'ladi. Shu sababli muhim yoki ikkinchi darajali, tasodifiy yoki zaruriy bo'lishi mumkin bo'lgan ko'p sonli imkoniyatlar mavjuddir. Imkoniyatning ro'yobga chiqishida ichki va zaruriy aloqalar muhim rol o'ynaydi, ammo uning ro'yobga chiqish shartlari, garchi ular tasodifiy xususiyatga ega bo'lsa-da, rivojlanish jarayoniga sezilarli darajada, ba'zan hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ayni shu sababli voqelik ham zaruriy va tasodifiyning birligi hisoblanadi.

#### **Imkoniyatlarning turlari.**

Sifat jihatidan formal va real, mavhum va muayyan imkoniyatlar farqlanadi. Real imkoniyat imkoniyatni voqelikka aylantirishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar mavjudligini anglatadi.

Rivojlanishning tasodifiy omillari mahsuli yoki amalga oshish ehtimoli past, aniqroq aytganda nolga yaqin bo'lgan imkoniyat formal

hisoblanadi. Bunday imkoniyatga tabiiy va ijtimoiy rivojlanish qonunlari yo'l qo'yadi. Shu ma'noda u tabiiy va ijtimoiy borliq qonunlariga mutlaqo zid bo'lgan imkonsizlikdan butunlay farq qiladi; ob'ektiv dunyo qonunlariga zid bo'lgan narsa imkonsizlik hisoblanadi. Masalan, rasman har bir fuqaro deputat, millioner yoki ko'p bolali bo'lishi mumkin. O'z-o'zidan ravshanki, aksariyat fuqarolar uchun bu imkoniyat voqelikka aylanmasligi ham mumkin. Masalan, boqiy dvigatels yasash mumkin emas; insonning umrboqiyligi mumkin emas va sh.k. Amalga oshishi uchun barcha zarur sharoitlar vujudga kelgan real imkoniyat amalga oshirishning oliy darajasiga ega bo'ladi. Masalan, insonning kosmosga uchish imkoniyati bir paytlar formal bo'lgan, endilikda u real tus oldi. Imkoniyatning miqdoriy tavsifi aniqroq bo'ladi.

Agar imkonsizlikni «0» bilan, voqelikni esa «1» bilan ifodalasak, «0» dan «1» gacha bo'lgan oraliq qiymatlarning barchasi imkoniyat darajasini tavsiflaydi. Ehtimollikning shartli o'qi atrofida imkoniyatning butun doirasini ko'rsatish mumkin.

Mavhum va muayyan imkoniyat o'rtasidagi farq – bu mohiyat va mavjudlik o'rtasidagi, shuningdek predmetning ideal obrazi va uning inson ongiga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv xususiyatlari o'rtasidagi farqdir. Masalan, nikohga kirayotgan yoshlar bir-biri haqida, oila va umuman nikoh haqida ancha yuzaki tasavvurga ega bo'lishi mumkin. Ular oila-nikoh munosabatlarining ideallashtirilgan manzarasini o'z bo'lg'usi nikohiga tatbiq etadi. Vaholanki, bu manzara mazkur munosabatlar mohiyatiga umuman olganda mos kelsa-da, lekin ularning butun boyligi va murakkabligi haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. Nikohga kirgach, yoshlar o'z imkoniyatini oldindan ko'ra bilmagan muayyan voqelik bilan to'qnash keladi. Yosh oiladagi kelishmovchiliklar sababi – nikohning mohiyati va uning mavjudligi o'rtasidagi, mahxum imkoniyat («ular qo'sha qaridilar va uvali-juvali bo'ldilar») va aksariyat jihatlarini yoshlar hatto xayollariga ham keltirmagan muayyan imkoniyat o'rtasidagi ziddiyatdir. Ayrim falsafiy adabiyotlarda muayyan va real imkoniyat bilan formal va mavhum imkoniyat tenglashtiriladi. Bu holda real imkoniyat uni ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit mavjudligi bilan, formal yoki mavhum imkoniyat esa – ayni paytda imkoniyatni voqelikka aylantirish uchun shart-sharoit mavjud emasligi bilan belgilanadi.

Murakkab tizimlar uchun, odatda, rivojlanishning bir necha muqobil yo'llari mavjud bo'ladi. Ayni bir muhitda har xil strukturalar vujudga kelishi, rivojlanish jarayoni ko'p variantli tarzda amalga oshishi, buning natijasida rivojlanishda kutilmagan burilishlar yuz berishi mumkin. Shu bois prognoz va taxminlar ishonchsiz yoki yanglish bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, mazkur muhitda evolyutsiyaning har qanday turi emas, balki yo'llarning muayyan doirasigina mavjud bo'lishi mumkin. Muqobil imkoniyatlar o'rtasidagi miqdoriy nisbat matematik jihatdan ehtimol tutilgan ayrim voqea yuz berishining ehtimollik darajasi sifatida ifodalanishi mumkin. Inson o'z faoliyatida real imkoniyatlarni hisobga oladi va ularni voqelikka aylantirish uchun zamin hozirlaydi.

Bu kategoriyalar borliqning shakllanish jarayoniga urg'u beradi. Ma'lumki, yo'q narsadan biron-bir yangilik vujudga kelmaydi, u faqat eski narsaning muayyan xossalari, jihatlari negizida vujudga kelishi mumkin. Yangi narsaning borlig'i uning potentsial holatida imkoniyat hisoblanadi. Imkoniyatning yetuklik darajasi imkonsizlikdan voqelikkacha bo'lgan doirada o'zgarishi mumkin. Bu jihatdan imkoniyatni tavsiflashni uning sifat va miqdor me'yorlarini hisobga olib amalga oshirish mumkin.

### **Xulosalar.**

Dialektika rivojlanish falsafasining puxta ishlab chiqilgan konsepsiyasidir. Hodisalar rivojlanishining umumiy naza-riyasi sifatida u rivojlanishning mohiyatini anglab yetishga yo'l ochadi, tabiat, jamiyat va tafakkurdagi real jarayonlarni ular amalda qanday bo'lsa, shunday aks ettiradi.

Dialektika narsalar va hodisalarni o'rganishga ularning vujudga kelishi, harakati va rivojlanishi nuqtayi nazaridan yondashadi, shu sababli u ob'ektiv jarayonlarni konkret, har tomonlama o'rganishga yo'l ko'rsatadi.

Dialektika bilan bir qatorda rivojlanishning metafizik konsepsiyasi, sofistika, eklektika, ekzistentsial dialektika, sincrjeti-ka va boshqa konsepsiyalar mavjud. Ayrim falsafiy maktablar dialektikani sxolastika sifatida rad etadi. Bu dialektika yanada chuqurroq o'rganish va anglab yetishni talab qilishini anglatadi.

Dialektika qonunlari ob'ektiv dunyoning eng muhim aloqalari va munosabatlarini aks ettiradi. Ular birlikda va o'zaro aloqada amal

qilib, murakkab serqirra jarayon – ob'ektiv borliqning rivojlanishini tavsiflaydi.

Dialektika qonunlarining amal qilish mexanizmini chuqur bilish, ulardan foydalanish yangilishish va xatolardan qutqaradi, kishilarning amaliy faoliyatiga yanada izchilroq va samaraliroq tus beradi.

Kategoriylar fikrlashning universal shakllari bo'lib, ularda ob'ektiv voqelikda mavjud bo'lgan umumiy aloqalar, xossalar va munosabatlar aks etadi. Kategoriylarda kishilik jamiyatining tajribasi va faoliyati mujassamlashadi.

Bilish natijalari o'z aksini topuvchi tushunchalar va kategoriylar bo'lmasa, bugungi kunda bilishning o'zi ham bo'lmas edi. Kategoriylar ob'ektivlik, muayyanlik, amaliyot bilan bog'liqlik va tarixiylik, o'zgaruvchanlik va sh.k. xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Rivojlanish, dialektika, ob'ektiv va sub'ektiv dialektika, ziddiyat, sakrash, ayniyat, tafovut, inkor, vorisiylik, miqdor, sifat, me'yor, xossa, qonun, voqelik qonunlari, fan qonunlari, falsafa qonunlari, bazis va lokal sharoit.

### **Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Sub'ektiv va ob'ektiv dialektikaning o'zaro aloqasi va farqi nimada?
2. Dialektikaning bilish mantiqi va metodologiyasi sifatidagi asosiy xususiyatini ayting.
3. Nima uchun ziddiyat tushunchasi dialektikada bosh tushuncha hisoblanadi?
4. Qo'sh inkorning mohiyatini tushuntiring?

### **Esse mavzulari**

1. Dialektika va sinergetika: o'zaro aloqadorligi va farqi
2. Gegal dialektika ta'limoti asoschisi
3. Dialektikaning muqobillari va ularning o'zaro ta'siri
4. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonunining jamiyat taraqqiyotida amal qilishi

### **Bilim va ko'nikmalarni baholash mezonlari**

1. Dialektik inkorning birinchi muhim jihatini aniqlang?
  - A. Eskining asosida yangini yaratish.
  - B. Bo'shliqni tan olish.
  - C. Eskidan hech narsa qoldirmaslik

- D. Boriga ko'nikma hosil qilish
2. Dialektik inkorning ikkinchi muhim jihatini aniqlang?
- A. Eskiining elementlarini saqlash (vorisiylik);
- B. Ziddiyatlarni yaratish
- C. Miqdordan sifatga o'tish
- D. Narsalardagi tafovut
3. Dialektik inkorning uchinchi muhim jihatini aniqlang?
- A. Yangini yaratish, tuzish
- B. Xususiy qonunga amal qilish
- C. Dissapativ holatni shakllantirish
- D. Bifurkatsiya holatiga o'tish
4. Tafovut –bu
- A. Avvalgi holatdan saqlanib qolgan xossalar ustunlik qilgani holda, ayni bir predmet xossalarining mos kelmasligi
- B. Bir holatdan ikkinchi holatga o'tish
- C. Empirik xulosalar asosida yangi xulosaga kelish
- D. Yangini yaratish
5. Sifat – bu
- A. Narsaning ichki xususiyati, predmetni mazkur jihatdan farqlash uchun zarur va yetarli bo'lgan xossalar majmui.
- B. Narsaning tashqi ko'rinishi
- C. Vorsiylikning amal qilishi
- D. O'z-o'zini tashkillashtirish

#### **Adabiyotlar:**

1. Tulenov J. Dialektika nazariyasi.-T.: Sharq, 2001
2. Mamadaliyev Sh.O. Metodologicheskoe znachenie struktury dialekticheskogo protivorechiya v poznanie. // Diss... kand... filoz. nauk. –T.: Institut filosofii i prava. 1991.
3. Seitov P.D. Sistemnost' dialektiki// Diss...kand...filoz.nauk-T.: Institut filosofii i pravaimeni I.Muminova 1993.
4. Romanenko Yu.M. Бытие и yestestvo.-SP(b).: Aleteyya, 2003
5. Novaya filosofskaya entsiklopediya: v 4 t. -M.: 2000–2001.
6. Xukov V.A., Xan G.N. Opravdanie sluchaynosti. -M.: 1990.
7. Jeltov M.P. Dialektika otnosheniy "chelovek-zemlya"//Diss. dokt. filoz. nauk : Cheboksary, 2006.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-Toshkent, Noshir 2012 1207 b
9. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.-Toshkent, Noshir, 2013.-750 b.

## TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

### Tarixning mazmunini aniqlash borasidagi izlanishlar

Har qanday ijtimoiy hodisaning mohiyatini va uning jamiyatning rivojlanish jarayonidagi o'mi ya'ni umumiy tarixiy jarayon doirasida o'rganiladi. Tarixning mazmun va mohiyatini anglab yetish borasidagi ilk urinishlarga qadimgi faylasuflarning asarlarida duch kelish mumkin. Tarix ularning talqinida oldinma-ketin yuz beradigan voqealar majmui sifatida namoyon bo'lgan. Tarix tavsifi ancha to'liq bo'lgan, ba'zan bo'yab ko'rsatilgan, lekin ularning hikoyatlari tarix haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini bermagan. Bu narrativ tarixdir (tarixchining talqini, interpretatsiyasi). Keyinchalik qadimgi faylasuflar tarixni uzluksiz takrorlanib turadigan jarayonlar, «abadiy ortga qaytish» (F.Nitsshe) sifatida tasavvur qilganlar.

Diniy an'ana tarixning butunlay boshqacha talqinini taklif qildi. O'rta asrlarda ilohiy taqdir asosiy tarixiy kuch sifatida e'tirof etildi. Tarixiy voqealarning ichki mantiqi alohida mazmun kasb etdi: Xudo nafaqat tarixiy jarayonni boshqaradi, balki adashgan insoniyatga gunohlardan forig' bo'lish, jannatdagi boqiy hayotga erishish yo'lini ko'rsatadi. Avreliy Avgustin o'zining «Ilohiy shahar haqida» asarida boqiylik va muvaqqatlik, ilohiylik va dunyoviylikning birligi to'g'risida so'z yuritadi. Uning fikricha, Iso Masih insoniyatga boqiylik sari yo'l ko'rsatgan. Tarixning mazmuni – boqiylikka eltuvchi yo'ldan borishda, inson hayotining mazmuni esa – Xudoga xizmat qilish, gunohlardan forig' bo'lishdadir.

Ibn Xaldun tarixning mazmuni haqida mulohaza yuritir ekan, uni, inson hayotining mazmuni kabi, tarix tugaganidan keyingina aniqlash mumkinligini qayd etadi. Ammo, shunga qaramay, tarixning mazmuni haqida erkinlik, ijod tushunchalariga tayanib so'z yuritish mumkin, deb hisoblaydi. Tarixning harakatida Ibn Xaldun ob'ektivlashuvning inson ustidan hukmini kamaytiradigan, uning erkinligi va ijodining tantanasini qaror toptiradigan jarayonlarni aniqlashga harakat qiladi.

Tarix mazmuni shuningdek insoniyatning taraqqiyoti g'oyasi muayyan falsafiy ta'limotlar nuqtayi nazaridan u yoki bu tarzda talqin



qilingan. Masalan, Ma'rifat davrida barcha tarixiy voqealarga oqilonalik mezoniga muvofiq baho berilgan. Mazkur konsepsiya frantsuz ma'rifatchisi Nikolay Kondorse asarida o'z aksini topgan. U o'zining «Inson tafakkuri taraqqiyotining tarixiy manzarasiga chizg'i» deb nomlangan risolasida kishilik jamiyatining barcha jabhalariga tafakkurning kirishi g'oyasini mazkur jamiyat rivojlanishining uzoq istiqboli sifatida asoslashga harakat qiladi.

Tafakkurning tantanasi g'oyasi insoniyat tarixining mazmuni sifatida Gegel tomonidan ham asoslangan. U tarixga mutlaq ruh, dunyoviy aql taraqqiyoti sifatida yondashgan. Gegel fikriga ko'ra, mazkur taraqqiyot o'zining alohida vazifasini ado etishi lozim bo'lgan ayrim xalqlar ruhi orqali amalga oshadi. Uning fikricha, tarixiy jarayon «aqlga muvofiq», ya'ni tasodiflardan yoki ayrim shaxslarning o'zboshimchaligidan qat'i nazar o'ziga yo'l ochadigan ob'ektiv qonuniyatlar bilan belgilanadi. Tarixning mazmuni mutlaq ruh o'zini o'zi anglab yetishidir.

Tarixning mazmunini aniqlash borasidagi keyingi izlanishlar amalda muayyan ideal tajassumi sifatidagi tarixning mazmuni haqidagi tezisning ko'rinishlari hisoblanadi. Idealning mazmuni har xil, hatto qarama-qarshi bo'lishi mumkin: texнократik illyuziyalar, ommaviy iste'mol jamiyati ideali, axborot jamiyati ideali, xususiy mulk va ekspluatatsiyasiz umumiy tenglik jamiyati va h.k.

Tarixning mazmuni tushunchasining eng teran talqinlarini XX asr faylasuflari – K.Yaspers taklif qilgan. U jahon tarixining mazmunini davrlarning umuminsoniy aloqalarga asoslanadigan mazmun jihatidan bog'lanishida ko'radi. Mazkur bog'lanishning mavjudligini tarixning mazmunini aks ettiradigan dunyoviy vaqt o'qi kafolatlaydi. U Sharq va G'arb madaniyatlarining umumiy asosi hisoblanadi. Yaspers jahon tarixida tillarning vujudga kelishi, mehnat qurollari ixtiro qilinishi, olovdan foydalanishga kirishilishi kabi to'rt bosqichini farqlaydi: Vaqt o'qining boshlanishi Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Markaziy Osiyo, Eron buyuk madaniyatlari deyarli bir vaqtda vujudga kelgan miloddan avvalgi 800 va 200-yillar oralig'idagi davrga mos keladi. Yevropada fan-texnika davrining boshlanishi mazkur madaniyatlarining davomi (ma'lum ma'noda esa ularning ziddi) bo'lgan. To'rtinchi bosqichda insoniyatning birligi vujudga keladi. Bu davrda jamiyat insonga munosib bo'lgan asoslar va tamoyillarga muvofiq rivojlanadi. Totalitarizmdan butunlay voz kechishga asoslangan

huquqiy davlat mazkur birlikning kafili hisoblanadi. Tarixning mazmuni – umuminsoniy madaniyatni va vaqt o'qining avvalida shakllangan an'analarni saqlash va rivojlantirishdadir.

Bugungi kunda jamiyatning globallashuvi munosabati bilan tarixning mazmuni haqidagi masala yana kun tartibidan o'rin olmoqda. Zamonlar va xalqlar aloqasini, xalqlar o'rtasidagi hamjihatlikni qaror toptiradigan, ajdodlarning ma'naviy merosini saqlash va ko'paytirishni, hozirgi avlodlarning erkinligi va ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan qadriyatlar tizimiga qarab mo'ljal oluvchi g'oyalar yana muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XIX asrda falsafadan sotsiologiya ajralib chiqa boshladi. Mazkur fan jamiyatni tushunishga nisbatan falsafiy yondashuvlarni asosan tan oladi va ayni vaqtda o'z predmeti va tadqiqot metodlariga ega.

O.Kont. (1798-1857) sotsiologiya fani asoschisi ijtimoiy tadqiqotlarning ob'ektivligiga erishish lozim, degan g'oyani himoya qilgan. U sotsiologiyani ikki qismga ajratadi: birinchi qism ijtimoiy statikani, ya'ni ijtimoiy tizimlarning mavjudlik shartlarini va ularning amal qilish qonunlarini, ikkinchi qism esa – ijtimoiy dinamikani, ya'ni jamiyatning rivojlanish va o'zgarish qonunlarini o'rganadi. Ijtimoiy statika – odam organizmining tuzilishiga o'xshab ketadigan jamiyat «anatomiyasi»dir. Kont jamiyatda oila, din, davlat kabi muhim institutlarni farqlaydi. U jamiyat rivojlanishining uch bosqichi qonunini ta'riflaydi. Mazkur bosqichlar insoniyat aqliy rivojlanishining uch bosqichiga mos keladi: teologik bosqich (u qadimgi davr va ilk O'rta asrlarni qamrab oladi va XIII asrda tugaydi), metafizik bosqich (XIV-XVIII asrlar) va pozitiv bosqich (XIX asrda boshlanadi).

G.Spenser (1820-1903) jamiyatga individlar birlashmasi sifatida yondashadi. Uning fikricha, mazkur individlarning rivojlanishidagi farqlar jamiyat evolyutsiyasining dastlabki shartlari hisoblanadi. Jumladan, ibtidoiy qabilalar rivojlanishda oqsaganini Spenser ularning qobiliyatlari rivojlanish darajasining pastligi bilan tushuntiradi. Eng moslashuvchan jamiyatlarning yashash uchun kurashini ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qonuni deb hisoblaydi. U iqlim, tabiiy sharoitning ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini o'rgangan. Spenser yaratgan ta'limotni keyinchalik sotsiologiyadagi geografik oqimlarning vakillari rivojlantirgan.

E.Dyugeym (1858-1917) jamiyatni tushunishni qadriyatlar tizimi bilan bog'lagan, faqat shu yo'l bilan tarixni uning o'ziga xos

xususiyatiga muvofiq tarzda o'rganish mumkin, deb hisoblagan. Dyugeym ham qadriyatlarini jamiyat tuzilishini belgilovchi muhim omil deb bilgan. Jamiyat tuzilmasini o'rganishga nisbatan u strukturaviy funksionalizm nuqtayi nazaridan yondashgan. Jamiyat borliqning alohida sohasi bo'lib, u o'z qonunlariga muvofiq rivojlanadi. Noijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan omillar jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatishga qodir emas. Jamiyat tuzilmasiga Dyugeym o'zaro ta'sirga kirishadigan va bir-birini vujudga keltiradigan ijtimoiy dalillar majmui sifatida qaraydi. Ijtimoiy dalillar sababini ongdan emas, balki bundan oldingi ijtimoiy dalillardan qidirish lozim. Ijtimoiy tuzilma dalillarning ikki guruhidan tarkib topadi: birinchidan, u moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, ikkinchidan, ijtimoiy jamoalarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy jamoalarni tahlil qilar ekan, Dyugeym oila, kasbiy guruh kabi jamoalarni, shuningdek mehnat taqsimotiga muvofiq vujudga keladigan, ijtimoiy birlik (axloq, din)ni ifoda etadigan ijtimoiy institutlarni farqlaydi. Ijtimoiy jarayonda sababiyat ijtimoiy muhitning yuqorida zikr etilgan elementlarining u yoki bu hodisani vujudga keltiradigan o'zaro ta'siridir.

Dyugeym ijtimoiy evolyutsiya mavjudligini qayd etadi va uni mehnat taqsimoti bilan bog'laydi. U rivojlangan mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv va kooperatsiyani yuksak darajada uyushgan jamiyatning belgisi deb hisoblaydi. Mazkur jamiyat mehnat taqsimoti mavjud bo'lmagan arxaik jamiyatlardan ayni shu belgiga ko'ra farq qiladi. Mehnat taqsimoti individlar o'rtasidagi farqlarni belgilaydi va shaxs shakllanishining omili hisoblanadi. U odamlarni o'zaro aloqadorlik tizimi bilan birlashtirib, ijtimoiy aloqalarga uyg'un tus beradi.

Dyugeym shaxs va jamiyatning uzviy aloqasini qayd etadi. Uning fikricha, jamiyatning tubanlashuvi muqarrar tarzda shaxsning tubanlashuviga sabab bo'ladi. Ne'matlar va xizmatlarni ayirboshlashning buzilishi natijasida yuzaga keladigan tengsizlik, shuningdek shaxs o'z kasbiy roliga moslashmagani jamiyatda sinfiy kurashni keltirib chiqaradi. Mehnat taqsimotini muvofiqlashtirishning maqbul vositalarini topish, imkoniyatlar tengligini ta'minlaydigan qoidalarining aniq majmuini belgilash talab etiladi. Dyugeym fikricha, bu jarayonda sotsiologiya fan sifatida ayniqsa muhim rol o'ynaydi.

M. Veber (1864-1920) o'z sotsiologik qarashlarida Rikkertning borliq va ongning o'zaro aloqasi zamirida sub'ektning qadriyatga bo'lgan muayyan munosabati yotadi, degan g'oyasiga tayangan.

Shunga muvofiq Veber tahlil qilinayotgan materialning iqtisodiy, diniy va axloqiy qadriyatlar bilan o'zaro nisbatini aniqlash lozim deb hisoblagan. O'zining «Protestantcha axloq va kapitalizm ruhi» asarida Veber dastlab Niderlandiya, Angliya va AQShda vujudga kelgan sanoat qaror topishiga protestantcha axloq qadriyatlarining ta'sirini tahlil qiladi. U hozirgi zamon xo'jalik hayotida hukm surayotgan kapitalizmning o'ziga xos xususiyatiga mos keladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar – tadbirkorlar va ishchilar shakllanishi natijasida vujudga kelganini qayd etadi. M.Veber tarixiy materializmning g'oyalar iqtisodiy munosabatlar ustqurmasi sifatida yuzaga kelgan, degan «sodda» tasavvurlariga e'tiroz bildiradi va aksincha, kapitalizm «ruhi» uning vujudga kelish omili bo'lgan, deb hisoblaydi.

U kapitalizm modelini kapitalistik naf ko'rishga oqilona intilishdan keltirib chiqarishga harakat qiladi. Veber ratsionalizm tamoyillari G'arb madaniyatining barcha hodisalarida: fanda, san'atda, monumental qurilmalar yaratishda hukm surishini qayd etadi. Oqilona ishlab chiqilgan, huquq, oqilona yaratilgan qoidalarga qarab mo'ljal oladigan mutaxassis-amaldorlardan iborat siyosiy institut sifatidagi davlat faqat G'arbda mavjud. Ammo ratsionalizm qadriyatlarini amalga oshirishning eng oqilona ifodasi tadbirkorlik sohasida mujassamlashgan: ishlab chiqarishning tijoratlashuvi, buxgalteriya hisoboti, chayqovchilikni oqilonlashtiruvchi qimmatli qog'ozlar va birjalar, mehnatni oqilona tashkil etish va h.k.lardir.

O'zining «Tushunuvchi sotsiologiyaning ba'zi bir kategoriyalari haqida», «Jahon dinlarining xo'jalik axloqi», «Xo'jalik va jamiyat», «Xo'jalik tarixi» kabi asarlarida Veber ijtimoiy harakat va uning motivatsiyasi tushunchasini ta'riflab berdi. Borliqni tushuntirish uchun u «ideal tiplar» metodologiyasini yaratdi va undan foydalandi. Veber fikriga ko'ra, ijtimoiy organizm hujayrasi hisoblanadigan ijtimoiy harakat ikki omil: sub'ektiv motivatsiya va boshqalarga qarab mo'ljal olishni o'z ichiga oladi. U ijtimoiy harakatning oqilona maqsadli ijtimoiy harakat, oqilona qadriyatli ijtimoiy harakat, affektli ijtimoiy harakat va an'anaviy ijtimoiy harakat kabi tiplarini farqlaydi.

O'zining ijtimoiy harakat konsepsiyasini Veber hokimiyatni tushinishga nisbatan ham tatbiq etadi. O'zgalarning umidlari qabab mo'ljal olish ijtimoiy harakatning muqarrar belgisi bo'lgani bois, hokimiyat siyosiy munosabatlarda ishtirok etuvchi tomonlarning o'zaro umidlarini nazarda tutadi. Shu holdagina hokimiyat qonuniylik

kasb etadi: boshqarayotganlar o'z buyruqlariga bo'ysunishlariga umid qiladilar; boshqarilayotganlar esa oqilona buyruqlarni kutadilar. Veber qonuniy davlatlarning: ish vakolatlari qonuniy belgilanishining majburiyligiga bo'lgan ishonchga ko'ra hukmronlik; muayyan xulq-atvorga ko'nikish bilan belgilangan hukmronlik; xarizmatik hukmronlik kabi uch tipini farqlaydi. Boshqaruvning oqilona-byurokratik tipi vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan hokimiyatning namunaviy-oqilona tipini Veber hokimiyat ideali deb hisoblagan. XX asrda Veber ilgari surgan tarixiy jarayonning teng huquqli omillari ta'siri haqidagi g'oyasi asoslab berildi. Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bir qancha nazariyalari texnika, sanoat, axborot tizimlari, kommunikatsiya, globallashtirish kabi omillarni birinchi o'ringa qo'yadilar.

N.Jo'rayev (1952) fikricha, vaqt o'tgan sari insoniyat tafakkuri kengayib, ijtimoiy fanlar taraqqiy topib borishi natijasida tarix falsafasi atrofidagi mulohazalar kengayadi. Uning predmeti va ob'ekti aniqlik kiritiladi. Shu ilmiy haqiqatdan kelib chiqib, N.Jo'rayev hozirgi zamon tarix falsafasining quyidagi vazifalarini belgilaydi:

- insoniyat tarixi rivojlanish qonuniyatlarini, ularning manbalari va mohiyatini o'rganish;

- insoniyat tarixini, jumladan, milliy tarixni ham hozirgacha ta'sirini o'tkazib kelayotgan kommunistik mafkura asosidagi ilmiy metodologiyada mavjud bo'lgan tamoyillardan voz kechib, milliy istiqbol g'oyasi asosida o'rganish va davrlashtirish muammosini hal etish;

- sivilizatsiyalar va madaniyatlar yuzaga kelishining yaxlit tizimini ishlab chiqish, ular inqirozi sabablarini chuqur tahlil etish;

- tarixiy jarayonning umumiy shaklini tahlil etish, ularni o'tmish, bugun, kelajak tizimida mantiqan o'rganish hamda insoniyat istiqboli haqida tasavvurlarga aniqlik kiritish;

- tarixiy taraqqiyot omillarini diniy va dunyoviy qonunlar nuqtayi nazaridan o'rganish, nazariy jihatdan baquvvat ilmiy va amaliy asoslangan xulosalarni ishlab chiqish;

- qadriyatlar tizimini hozirgi zamon talablari nuqtayi nazaridan tadqiq etish va baholash;

- insoniyat tarixida to'plangan moddiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarining tarixiy tahlili orqali mantiqiy va falsafiy asoslarini o'rganish;

- tarixni anglashning yangi yo'nalishlarini hozirgi zamon falsafiy tafakkur mezonlari asosida belgilash hamda unga tayangan holda ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarini aniqlash orqali, tarixning murabbiylik rolini oshirish;

- yaxlit insoniyat taraqqiyoti omillarini va manbalarini o'rganish, shu asosda jahon tarixiy taraqqiyot istiqbollarini belgilash;

- tarix fani predmeti va metodologiyasini hozirgi zamon talablari asosida qayta ishlab chiqish hamda tarixni tadqiq etishning turli yo'nalishlarini, jumladan, siyosiy tarix, iqtisodiy tarix, din tarixi, san'at tarixi, etnogenezis va boshqa yo'nalishlar bilan mushtarak holda kompleks tadqiqotlarni olib borish orqali, inson, insoniyat va uning tarix yaxlit mohiyatini ochib berish .

Ana shu vazifalarni hal etishda tarix falsafasi va tarix fanining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, bir qarashda tarix falsafasi va tarix fani bir-biridan ayri yo'nalishdek ko'rinadi. Zotan, real jarayonga, real voqelikka, insoniyat tarixida qaysidir hodisaga tarixchi tarix ko'zi bilan qarasa, faylasuf faylasuf ko'zi bilan qaraydi. Aslida har ikki qarashlar zahirida inson taqdiri, tafakkur tarzi va manfaatlar ustuvorligi yotadiki, bu inson fenomeni va hayot falsafasining mantig'idir.

### **Tarix falsafasining predmeti, yo'nalishlari tuzilishi va funktsiyalari**

Tarixiy jarayonning yagonaligi va rang-barangligi, uni davriylashtirish va uning shakllarini tizimga solish haqidagi tasavvurlar, shuningdek insoniyat tarixiy rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar va uning yo'nalishi haqidagi masala har doim tarix falsafasining muhim tarkibiy qismlari hisoblangan.

«Tarix falsafasi» nima va uning predmeti nimadan iborat? Bu savolga javob berar ekanmiz, tarix falsafasi tushunchasiga «Falsafiy qomusiy lug'at» mualliflari bergan ta'rifni keltirish o'rinli bo'ladi deb o'ylaymiz: «Tarix falsafasi – falsafaning tarixiy jarayonni va tarixiy bilishni talqin qilish bilan bog'liq bo'lgan bo'limi». Demak, tarix falsafasi falsafaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tarix falsafasining predmeti tarixiy jarayon va tarixiy bilishni talqin qilish, ularning mazmunini yoritib berishdan iborat. Ammo bu tarix falsafasini tavsiflashga nisbatan birdan-bir yondashuv emas, chunki tarixiy rivojlanish jarayonida tarix falsafasining predmeti va muammolari sezilarli darajada o'zgartirgan va hozirgi vaqtda tarix

falsafasining turli yo'nalishlari tomonidan har xil talqin qilinadi. Masalan, antik davr tarixchilari va faylasuflari (Gerodot, Platon, Fukidid, Aristotel, Plutarx va b.)ning tadqiqotlari o'tgan va hozirgi zamon kishilarining qilmishlari, tabiat va insonning o'zaro aloqasi haqida ma'lumotlar yig'ishdan, ya'ni tarixiy dalillarni ularni nazariy jihatdan anglab yetmasdan va yagona falsafiy-tarixiy tizimga solmasdan tavsiflash va o'rganishdan iborat bo'lgan. Tarixiy harakat yo'llarini, tarixiy jarayon tendentsiyalari va yo'nalishini anglab yetish muammosi antik davr mutafakkirlari, avvalo Gerodot, Fukidid, Aristotel, Teofrast va boshqalarda kuchli qiziqish uyg'otgan. Bu tarixchi va faylasuflarning asarlarida insoniyatning o'tmishi va kelajagi haqida muayyan tasavvurlar, tarixiy voqealarning yo'nalishi va mazmuni to'g'risida mulohazalar mavjud bo'lgan. Keyinchalik ularning barchasi jamuljam holda «tarix falsafasi» deb nomlangan, lekin ular hali qarashlarning mukammal tizimini tashkil etmagan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar va tarixchilarning aksariyati diniy-mifologik dunyoqarashga amal qilgan. Bu dunyoqarashga ko'ra, jamiyatda, xuddi tabiatdagi kabi, aylanma harakat mavjud, odamlarning xatti-harakatlari taqdirga yoki xudolar irodasiga bo'ysunadi. Buyuk shaxslar – jamoa oqsoqollari, siyosiy arboblari, qahramonlarga xos bo'lgan, o'z tabiatiga ko'ra o'zgarimas sanalgan ehtiros va iroda inson xulq-atvorini belgilovchi omil hisoblanadi.

O'rta asrlarda (Avgustin va b.) tarix falsafasining predmeti sifatida avvalo Xudo va insonning o'zaro aloqasi muammosi, harakatlantiruvchi kuchi ilohiy vahiy sanalgan tarixiy jarayonning mazmunini aniqlash, tarixiy asarlarning mohiyati va vazifasini o'rganish amal qilgan. O'rta asrlarda falsafiy tafakkurining namoyandalari Avreliy Avgustin, Foma Akvinskiy va b. Injil va yunon-rim falsafiy-tarixiy tafakkurini sintez qilib, tarixning yangi, teologik konsepsiyasini yaratdi, tarixiy voqealarning mazmuni, tarixiy asarlarning mohiyati va vazifalari haqida yangicha tasavvurlarni ilgari surdi. Mazkur konsepsiyaga muvofiq, xristian mualliflari, tarix orqali ilohiy niyatni tushunib yetishga harakat qilib, aylanma harakat g'oyasini rad etdilar va tarixiy jarayonni o'tmishdan kelajak (bo'lg'usi panohga erishish, masihning kelishi) sari chiziqli harakat sifatida tasavvur qildilar.

Sharqda tarix falsafasining (A.Beruniy, Ibn Xaldun, A.B.Narxashiy, R.Hamadoniy) predmeti sifatida jahon tarixi, umumiy

tarixiy taraqqiyot qoidalari, yo'nalish va omillarini belgilovchi kishilik jamiyatining o'ziga xos davriylik nazariyasi alohida o'rin tutadi. "Odamlar kabi davlat ham o'zining hayotiy davriga ega".

Markaziy Osiyo mutafakkiri Beruniy tarixni o'rganish, tahlil qilish va so'ng xulosalar chiqarish zarurligini tavsiya qilar ekan, uni davrlarga bo'lish, har bir davrning o'ziga xos jihatlarni aniqlash va ana shu usul orqali ijtimoiy hayotga, kishilik jamiyatiga tegishli va asosli baho berish mumkin deb hisoblaydi. U podsholiklar tarixi orqali o'tmishni davrlarga bo'lishni taklif qiladi. Tarix uning fikricha, fikr va tafakkur manbai. U doimo turli fanlarning o'zaro ta'sirining uzviyligi va uyg'unligi natijasida takomillashadi. Shu bois, tarix har qanday olim uchun tadqiqotning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Beruniy tarixiy tadqiqotlarni boshqa turdosh fanlarni o'rganish bilan uyg'un holda olib borish, muayyan natijaga olib kelishini ta'kidlaydi. Zero, tarixiy manbani o'rganish, uning asosli yoki asossiz ekanligini isbotlash tarixiy tadqiqot uchun mas'uliyatli jarayondir. Chunki tarixiy manba yaratganlar, turli hujjatlarni bitganlar yoki o'z manfaatlari, maqsadlari doirasida dalil to'playdilar. Shu holat nuqtayi nazaridan Beruniy "xabar-xabarchilar tufayli rost va yolg'on tusini oladi", deb e'tirof etgan. Tarixiy haqiqatni tiklash, tarixiy tafakkur va tarixiy ma'lumotlarni yig'ish Sharq tarix falsafasida aniq me'yorlar vositasida amalga oshirilgan.

Feodalizmning inqirozi, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi, hurfikrlilikning kuchayishi ijtimoiy ong tarixga nisbatan teologik yondashuvdan xalos bo'lishiga ko'maklashdiki, bu fanning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Uyg'onish davri (XIV-XVI asrlar) mutafakkirlari, xristian tarixchilaridan farqli o'laroq, tarixiy jarayonni dunyoviy sharoitlardan, insonning tabiatidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qildilar. Nikkolo Makiavelli (1469-1527) moddiy manfaat, xususiy mulkni asrash va ko'paytirishga intilish jamiyatning rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch ekanligini isbotlab, siklli rivojlanish g'oyasini asoslashga harakat qildi. Uning ayrim asarlarida ijtimoiy hodisalarning qonuniyatlariga doir farazlar ham mavjud, lekin u mazkur qonuniyatlarni ta'riflashning uddasidan chiqmagan.

Uyg'onish davrida va Yangi davrda (Jambattista Viko, Frensis Bekon, Tomas Gobbs va b.) tarixning maqsadi, yo'nalishini, shuningdek tarixiy jarayonda insonning, sinflarning rolini aniqlash (Ogyusten



Terri, Fransua Gizo, Ogyust Minъ) tarix falsafasining predmetiga aylangan. Yangi davrda «tarix falsafasi» atamasi ham paydo bo'lgan. uni ilk bor 1765-yilda tarixchi tarixiy voqealarni shunchaki tavsiflabgina qolmasdan, balki tarixiy jarayonni falsafiy jihatdan anglab yetishga harakat qilishi lozim, deb hisoblagan frantsuz ma'rifatchisi Volter ishlatgan. Keyinchalik tarixiy jarayonning umumiy qonuniyatlari va dialektikasini aniqlash yo'lida izlanishlar olib borish Georg Hegel uchun tarix falsafasining asosiy predmetiga aylangan.

XVII-XVIII asrlar Yevropa industrial sivilizatsiyasi vujudga kelishiga va ijtimoiy rivojlanish jarayonining jadallashuviga olib kelgan sanoat va ijtimoiy-siyosiy inqiloblar davriga aylandi. Yangi davr mutafakkirlari qarashlarining shakllanishida tabiiy fanlar ulkan rol o'ynadi. Bu davrda ijtimoiy fanlarning rivojlanishiga tabiatshunoslik shu darajada kuchli ta'sir ko'rsatganki, tarix aksariyat hollarda tabiiy ilmiy nuqtayi nazardan tushuntirilgan.

Ayni shu davrda yuqorida sanab o'tilgan sabablar ta'sirida tarix falsafasining naturalistik (lot. naturalis – tabiiy, natural) konsepsiyalari vujudga kelgan. Mazkur konsepsiyalarda tabiatga butun borliqni, shu jumladan tarixiy jarayonni tushuntirishning universal tamoyili sifatida yondashgan. Bunda naturalizm tushunchasi turlicha talqin qilingani bois, quyidagi yo'nalishlar ajralib chiqqan: ijtimoiy hodisalar tabiiy muhit ta'sirida tushuntirilgan geografik naturalizm (Sharl Lui Monteske, logann Gerder va b.); tarixiy jarayonlarni demografik determinizm yordamida tushuntirgan demografik naturalizm (Tomas Maltus); jamiyatdagi o'zgarishlarni avvalo inson tafakkuri bilan bog'lovchi idealistik naturalizm (Klod Gelvetsiy, Jan Jak Russo).

Tarixiy o'zlikni anglashning rivojlanishiga o'z tadqiqotlarida tarixni inson aqlli tabiatining evolyutsiyasi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan alohida borliq sifatida falsafiy jihatdan anglab yetishga urg'u bergan Volter (1694-1778) asarlari, shuningdek tarixiy jarayon g'oyasini birinchilardan bo'lib asoslab bergan Mari Jan Kondorse (1743-1794) tadqiqotlari ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Gegel (1770-1831) tarixga har bir davr betakror tarzda rang-barang bo'lgan holda, ayni vaqtda insoniyat rivojlanishining qonuniy bosqichi sanalgan yagona qonuniy jarayon sifatida yondashdi. Bu rivojlanish tabiiy qonuniyatlar sohasi bilan taqqoslaganda boshqacha xususiyat kasb etadi. Bu yerda tarixiy qonunlar kishilarning ongli

faoliyati vositasida amalga tatbiq etiladi, lekin shu bilan birga tarixda muayyan ob'ektiv mantiq ham amalga oshiriladi va tarixiy jarayon dunyoviy aql, mutlaq g'oyaning cheksiz tarzda o'z-o'zidan rivojlani-shi, o'zini o'zi ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida tarixiy bilim sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi. Turli matnlarning tarixiy va lingvistik tahlili metodlarining takomillashishi, arxeologiyaning rivojlanishi, o'tmish guvohliklariga yanada tanqidiyroq yondashish natijasida tarixiy bilim fan maqomini qo'lga kiritdi. Shu bilan bir vaqtda tarixiy va tabiiy ilmiy bilimlar butunlay har xil ob'ektlarga mansub bo'libgina qolmasdan, o'zlari ham bir-biridan butunlay farq qilishi yanada teranroq anglab yetildi.

Tarixiy o'zlikni anglash jarayoni evolyutsiyasi tarix falsafasining hozirgi konsepsiyalarining shakllanishiga imkon beradi. Quyida ularga ta'rif beramiz.

Tarix falsafasining gnoseologik konsepsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmidan mustaqil yo'nalish sifatida shakllana boshladi. Bu yondashuv namoyandalari (Vilgeym Diltey, Benedetto Kroeche, Georg Zimmel, Robin Kollingvud, Raymon Aron) tarix falsafasining asosiy predmeti – tarixiy o'tmishni o'rganishning mantiqiy-nazariy va meto-dologik muammolari, uni nazariy jihatdan rekonstruksiya qilish va tarixiy dalillarning haqiqiyiligini aniqlash, deb hisoblaganlar.

Bu yo'nalishining asoschisi nemis madaniyat faylasufi Vilgel'm Diltey (1833-1911) bo'lib, uning nazariyasida inson borlig'i-da usuli, madaniy-tarixiy voqelik sifatidagi hayot tushunchasi marka-ziy o'rinni egallaydi (shu sababli Diltey nuqtayi nazari ko'pincha «hayot falsafasi»ning istoritsistik varianti deb ataladi). Diltey fikriga ko'ra, inson o'z tarixiga ega emas, lekin uning o'zi tarixdir va aynan shunda uning mohiyati namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, hayot va tarix ayniydir.

Dilteyning tarix falsafasiga ijtimoiy va tabiiy fanlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish xos. U inson tabiatni tushuntiradi, ijtimoiy hayotni esa faqat tushunadi, deb hisoblagan. Uning fikricha, mazkur tushunish har xildir, chunki har bir inson tarixiy voqealarga o'z nisbiy mushohadalari nuqtayi nazaridan yondashadi. Bundan xulosa shuki, ilmiy haqiqatning tagiga yetish, tarixiy jarayonni ilmiy nuqtayi nazardan xolisona bilish amalda mumkin emas.

Xo'sh, bu holda tarix falsafasi nimanı o'rganishi lozim? Dilteyning izdoshi – Kollingvud fikriga ko'ra, tarix falsafasi tarixchining fikr-mulohazalarini va shu bilan bir vaqtda mazkur fikr-mulohazalarning ob'ektini o'rganadi. Shu sababli tarixiy jarayonni o'z holicha o'rganish tarix falsafasi vazifalari qatoridan chiqarib tashlanadi: tarixiy jarayon faylasufga unda hodisalarning tarixiy bilim mohiyatini belgilovchi xususiyatlari to'g'risida so'z yuritilgani uchungina tegishlidir.

Gnoseologik konsepsiya, ba'zan tanqidiy tarix falsafasi deb ham ataladi. Bu hol shu bilan bog'liqlik, mazkur yo'nalish vakillari tarixni tanqidiy o'rganishgina insoniyat tarixi modelini yaratish, tarixiy dalillarning haqqoniylik darajasiga baho berish va tarixiy voqelik manzarasini nazariy jihatdan gavdalanitirish imkonini beradi, deb hisoblaganlar. Mazkur yondashuv kurtaklarini tarixiy bilishning metodologik muammolari, insoniyat tarixining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullangan neokantchilik Baden maktabidan izlash lozim. Aksariyat tadqiqotchilar tomonidan bu maktabning asoschisi sifatida frantsuz faylasufi Raymon Aron (1905-1983) e'tirof etiladi. Uning asarlaridan biri «Tanqidiy tarix falsafasi» deb ataladi.

Ontologik konsepsiyada tarix falsafasining predmeti degan-da ijtimoiy hodisalar, jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar majmui tushuniladi. Mazkur tadqiqotlar shunday umumfalsafiy ontologik muammolar bilan bog'liqlik, ularni yechishda jamiyat tarixining qolgan ijtimoiy hodisalardan farqini hisobga olish lozim. Ushbu yondashuv namoyandalari R.Mel, R.Ramon, E.Kallo va b. tarix falsafasining diqqat markazida avvalo ontologik muammolar, chunonchi: insoniyat tarixining mazmuni va vujudga kelishi, tarixiy jarayonning mohiyati kelajakni bashorat qilish imkoniyatlari, tarixiy jarayonda insonning o'rni va roli muammolari turishi lozim. Masalan, ijtimoiy rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchlar to'g'risidagi masalani o'rganish jarayonida inson ongi, erkinligining tarixiy jarayondagi roli to'g'risidagi masala paydo bo'ladi. Ammo insondan boshqa rivojlangan ongga ega bo'lgan mavjudotlar fanga ma'lum emasligi tufayli, jamiyatning rivojlanishida ongning roli to'g'risidagi masalalar jamiyat, tarixiy jarayonlar haqidagi masalalar hisoblanadi.

Tarix falsafasining aksiologik konsepsiyasi tarixning qadri muammosiga, shuningdek tarixiy bilimning ayrim hodisalarini

qadriga ega yoki ega emas deb e'lon qiluvchi mulohazalar uchun oqilona asoslarni aniqlashga alohida e'tibor beradi.

Mazkur konsepsiyaning rivojlanishiga nemis faylasuflari – neokantchilik Baden maktabi namoyandalari Vilgelm Vindelband (1848-1915) va Genrix Rikkert (1863-1936) falsafani qadriyatlar haqidagi umumiy fan sifatida tavsiflaganlar. Rikkert qadriyatlar «sub'ekt va ob'ektning narigi tomonida joylashgan butunlay mustaqil saltanat»ni tashkil qiladi, deb hisoblagan. Vindelband va Rikkert nazariy va amaliy aqlning kantcha tafovutidan kelib chiqib, qadriyatlar haqida mulohaza yuritish va joizlikni bilishga asoslangan normativ ta'limot sifatidagi tarix falsafasini nazariy mulohaza yuritish va «borliq» haqidagi empirik ma'lumotlarga tayanuvchi tajribaga asoslangan fanlarga qarshi qo'ygan. Ular qonuniyatni tarixiy bilishning asosiy tamoyili sifatida rad etib, uni «qadriyatlarga mansub deb topish» tamoyili bilan almashtirgan. Vindelband va Rikkert fikriga ko'ra, qadriyatlar tarixdan ustun xususiyat kasb etadi va jamuljam holda odamlarga bog'liq bo'lmagan ideal transtsendental (narigi) dunyoni tashkil qiladi. Bu dunyodan tegishli g'oyalar, avvalo transtsendental joizlik g'oyasi kelib chiqadi. U mazkur qadriyatlarning vaqt va makon bilan cheklanmagan shak-shubhasiz, mutlaq ahamiyatiga ishora qiladi. Odamlar ularni anglab yetishlariga qarab qadriyatlarga tegishli munosabat va talablarni yaratadilar va ularga hayotda, xulq-atvorda, kundalik va tarixiy faoliyatda amal qiladilar.

Vindelband va Rikkert ijtimoiy borliq va ma'naviy hayotning o'zaro nisbatini o'rganib, jamiyat tarixida ma'naviy hayot borliqqa nisbatan yetakchi rol o'ynaydi, degan xulosaga kelgan va shu bois ular K.Marks taklif qilgan, jamiyatning rivojlanishida iqtisodiy omil ya'ni borliqning hal qiluvchi ahamiyati asoslangan tarixni materialistik tushunishga tanqidiy ko'z bilan qaragan. Rikkert fikriga ko'ra, mazkur yondashuv noilmiydir, chunki u proletariat g'alabasini «mutlaq qadriyat» deb e'lon qiluvchi marksizm siyosiy dasturi bilan belgilanadi.

Hozirgi zamon G'arb ijtimoiy falsafasi va tarix falsafasida texnokratik konsepsiyalar ijtimoiy tafakkurning ijtimoiy hayotda va jamiyat taraqqiyotida texnika hal qiluvchi rol o'ynaydi deb hisoblovchi va sanoatlashishgina jamiyat hayoti va shaxsni oqilona tartibga solish va kamol toptirishga qodir, degan fikrni asoslashga harakat qiluvchi yo'nalishlaridan biridir. Mazkur konsepsiyalar qatoriga postindustrial jamiyat yoki axborot jamiyati konsepsiyasini (Daniel

Xo'sh, bu holda tarix falsafasi nimani o'rganishi lozim? Dilteyning izdoshi – Kollingvud fikriga ko'ra, tarix falsafasi tarixchining fikr-mulohazalarini va shu bilan bir vaqtda mazkur fikr-mulohazalarning ob'ektini o'rganadi. Shu sababli tarixiy jarayonni o'z holicha o'rganish tarix falsafasi vazifalari qatoridan chiqarib tashlanadi: tarixiy jarayon faylasufga unda hodisalarning tarixiy bilim mohiyatini belgilovchi xususiyatlari to'g'risida so'z yuritilgani uchungina tegishlidir.

Gnoseologik konsepsiya, ba'zan tanqidiy tarix falsafasi deb ham ataladi. Bu hol shu bilan bog'liqlik, mazkur yo'nalish vakillari tarixni tanqidiy o'rganishgina insoniyat tarixi modelini yaratish, tarixiy dalillarning haqqoniylik darajasiga baho berish va tarixiy voqelik manzarasini nazariy jihatdan gavdalandirish imkonini beradi, deb hisoblaganlar. Mazkur yondashuv kurtaklarini tarixiy bilishning metodologik muammolari, insoniyat tarixining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullangan neokantchilik Baden maktabidan izlash lozim. Aksariyat tadqiqotchilar tomonidan bu maktabning asoschisi sifatida frantsuz faylasufi Raymon Aron (1905-1983) e'tirof etiladi. Uning asarlaridan biri «Tanqidiy tarix falsafasi» deb ataladi.

Ontologik konsepsiyada tarix falsafasining predmeti degan-da ijtimoiy hodisalar, jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar majmui tushuniladi. Mazkur tadqiqotlar shunday umumfalsafiy ontologik muammolar bilan bog'liqlik, ularni yechishda jamiyat tarixining qolgan ijtimoiy hodisalardan farqini hisobga olish lozim. Ushbu yondashuv namoyandalari R.Mel, R.Ramon, E.Kallo va b. tarix falsafasining diqqat markazida avvalo ontologik muammolar, chunonchi: insoniyat tarixining mazmuni va vujudga kelishi, tarixiy jarayonning mohiyati kelajakni bashorat qilish imkoniyatlari, tarixiy jarayonda insonning o'rni va roli muammolari turishi lozim. Masalan, ijtimoiy rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchlar to'g'risidagi masalani o'rganish jarayonida inson ongi, erkinligining tarixiy jarayondagi roli to'g'risidagi masala paydo bo'ladi. Ammo insondan boshqa rivojlangan ongga ega bo'lgan mavjudotlar fanga ma'lum emasligi tufayli, jamiyatning rivojlanishida ongning roli to'g'risidagi masalalar jamiyat, tarixiy jarayonlar haqidagi masalalar hisoblanadi.

Tarix falsafasining aksiologik konsepsiyasi tarixning qadri muammosiga, shuningdek tarixiy bilimning ayrim hodisalarini

qadriga ega yoki ega emas deb e'lon qiluvchi mulohazalar uchun oqilona asoslarni aniqlashga alohida e'tibor beradi.

Mazkur konsepsiyaning rivojlanishiga nemis faylasuflari – neokantchilik Baden maktabi namoyandalari Vilgelm Vindelband (1848-1915) va Genrix Rikkert (1863-1936) falsafani qadriyatlar haqidagi umumiy fan sifatida tavsiflaganlar. Rikkert qadriyatlar «sub'ekt va ob'ektning narigi tomonida joylashgan butunlay mustaqil saltanat»ni tashkil qiladi, deb hisoblagan. Vindelband va Rikkert nazariy va amaliy aqlning kantcha tafovutidan kelib chiqib, qadriyatlar haqida mulohaza yuritish va joizlikni bilishga asoslangan normativ ta'limot sifatidagi tarix falsafasini nazariy mulohaza yuritish va «borliq» haqidagi empirik ma'lumotlarga tayanuvchi tajribaga asoslangan fanlarga qarshi qo'ygan. Ular qonuniyatni tarixiy bilishning asosiy tamoyili sifatida rad etib, uni «qadriyatlarga mansub deb topish» tamoyili bilan almashtirgan. Vindelband va Rikkert fikriga ko'ra, qadriyatlar tarixdan ustun xususiyat kasb etadi va jamuljam holda odamlarga bog'liq bo'lmagan ideal transtsendental (narigi) dunyoni tashkil qiladi. Bu dunyodan tegishli g'oyalar, avvalo transtsendental joizlik g'oyasi kelib chiqadi. U mazkur qadriyatlarning vaqt va makon bilan cheklanmagan shak-shubhasiz, mutlaq ahamiyatiga ishora qiladi. Odamlar ularni anglab yetishlariga qarab qadriyatlarga tegishli munosabat va talablarni yaratadilar va ularga hayotda, xulq-atvorda, kundalik va tarixiy faoliyatda amal qiladilar.

Vindelband va Rikkert ijtimoiy borliq va ma'naviy hayotning o'zaro nisbatini o'rganib, jamiyat tarixida ma'naviy hayot borliqqa nisbatan yetakchi rol o'ynaydi, degan xulosaga kelgan va shu bois ular K.Marks taklif qilgan, jamiyatning rivojlanishida iqtisodiy omil va'ni borliqning hal qiluvchi ahamiyati asoslangan tarixni materialistik tushunishga tanqidiy ko'z bilan qaragan. Rikkert fikriga ko'ra, mazkur yondashuv noilmiydir, chunki u proletariat g'alabasini «mutlaq qadriyat» deb e'lon qiluvchi marksizm siyosiy dasturi bilan belgilanadi.

Hozirgi zamon G'arb ijtimoiy falsafasi va tarix falsafasida texnokratik konsepsiyalar ijtimoiy tafakkurning ijtimoiy hayotda va jamiyat taraqqiyotida texnika hal qiluvchi rol o'ynaydi deb hisoblovchi va sanoatlashishgina jamiyat hayoti va shaxsni oqilona tartibga solish va kamol toptirishga qodir, degan fikrni asoslashga harakat qiluvchi yo'nalishlaridan biridir. Mazkur konsepsiyalar qatoriga postindustrial jamiyat yoki axborot jamiyati konsepsiyasini (Daniel

Bell, Toffler), texnotron jamiyat konsepsiyasini (Zbignev Bjezinskiy), yangi industrial jamiyat konsepsiyasini (Jon Gelbreyt)ni kiritish mumkin.

Mazkur texnologik determinizm jamiyat rivojlanishining asosiy omillari qatoriga, avvalo, ishlab chiqarish kuchlari, texnika, fan va informatikaning rivojlanish darajasini kiritadi. Masalan, postindustrializm konsepsiyasi hozirgi zamon jamiyatida iqtisodiyotning birlamchi sohasi qishloq xo'jaligi, ikkilamchi soha sanoat emas, balki axborot hal qiluvchi rol o'ynaydigan uchlamchi soha (xizmatlar sohasi) yetakchilik qilishidan kelib chiqadi. Postindustrial jamiyatda sodir bo'layotgan mikroelektron inqilob mehnatni emas, balki axborotni jamiyatning rivojlanishi zahirida yotuvchi fundamental ijtimoiy omilga aylantirishi qayd etiladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshida tarix falsafasining ko'pgina yangi yo'nalishlari vujudga kelgan. Ularning har biri o'z tadqiqot predmetiga ega bo'lgan. Masalan, tarixning aylanma harakati nazariyasi namoyandalari (Nikolay Danilevskiy, Osvald Shpengler, Arnold Toynbi), o'z o'tmishdoshlari kabi, o'z oldiga tarixiy jarayon qonuniyatlarini aniqlash vazifasini qo'ygan.

Xristian tarix falsafasining ko'p sonli yo'nalishlari: neotomizm (Jak Mariten, Eten Anri Jilson va b.), neoavgustizm (Moris Blondel, Gabriel Marsel, Jan Lakrua), teyyardizm (Per Teyyar de Sharden) va qisman ekzistentsializm (Karl Yaspers) namoyandalari tarixning mazmuni muammosini bosh muammo deb hisoblaganlar.

Tarixiy bilishning gnoseologik nazariyasi va tanqidi namoyandalari (Vilgelm Diltey, Benedetto Kroche) esa tarixshunoslik doirasi bilangina cheklanib qolmaganlar, balki so'zning tarixiy ongni ham tahlil qilganlar.

Neokantchilik tarix falsafasi (Vilgelm Vindelband, Genrix Rikkert) va «analitik» tarix falsafasi (Ernest Nagel, Karl Gempel va b.) ham o'zining alohida predmetiga ega. XX asr tarix falsafasi aksariyat hozirgi yo'nalishlarining muhim xususiyati shundan iboratki, ularning predmeti sifatida jahon tarixi, hozirgi sivilizatsiyaning global muammolari amal qiladi.

Bu muxtasar sharhdan ko'rinib turganidek, turli falsafiy-tarixiy maktablarda tadqiqot predmeti muammosiga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Ayni hol avvalo shu bilan bog'liqki, tarixiy voqelikning mohiyati turli tadqiqotchilar tomonidan har xil

tushunilishi o'z-o'zidan tarixiy jarayonning, ya'ni «tarix falsafasi»ning ko'p sonli falsafiy talqinlarini vujudga keltiradi. Ammo mazkur yondashuvlarni umumlashtirish tarix falsafasi – bu falsafaning tarixiy jarayon mazmuni, uning qonuniyatlari va asosiy yo'nalishlarini tushuntirish bilan shug'ullanuvchi, shuningdek uni bilish metodlarini asoslovchi bo'limi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Tarix falsafasi predmetining umumiy tavsifi uning tuzilishi va funksiyalarini o'rganishni taqozo etadi.

Tarix falsafasining tuzilishini tarix falsafasi u yoki bu yo'nalishi namoyandalarining metodologik mo'ljallari bilan uzviy bog'liq. Tarix falsafasining tuzilishi:

Tarix falsafasi ontologiyasi tarixiy borliq muammolari, chunki: tarixning mazmuni va yo'nalishi, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy determinizm, yagona tarixiy makonning vujudga kelishi, jahon tarixining yagonaligi asoslarini, insonning koinotdagi o'rmini aniqlash, tarixiy vaqt masalasi va hokazolarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Unda jamiyatning rivojlanish mantig'ini, uning turli tomonlari o'rtasidagi aloqalar va o'zaro bog'lanishlarni o'rganish ham muhim o'rin egallaydi.

Tarix falsafasi gnoseologiyasi asosiy e'tiborni tarixiy bilish muammolariga, tarixiy dalillar va voqealarni o'rganish, tahlil qilish va tushuntirish, tarixiy bilimning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shuningdek tarixiy bilishda haqiqatning tagiga yetishga qaratadi. Tarix falsafasining tarixi tarix falsafasining vujudga kelishi va rivojlanishi, tarix falsafasi predmetining shakllanishi, tarix falsafasining turli yo'nalishlar va oqimlar vujudga kelishiga sabab bo'lgan ichki differentsiatsiyalanish jarayonini o'rganadi. Uning muhim muammolari qatoriga tarixiy jarayonni davriylashtirish, boshqa ijtimoiy fanlar orasida tarix falsafasining o'rmini aniqlash masalalari ham kiradi.

Tarix falsafasi antropologiyasi insonning tarixiy jarayondagi o'rmini, bu jarayonda tarix sub'ektlarining rolini aniqlaydi va «Tarixni kim harakatga keltiradi?», degan savolga javob beradi. Odatda, tarix falsafasining turli yo'nalishlari tarixiy jarayon sub'ektlari qatoriga xalq, millat, omma, olomon, ijtimoiy sinflar va atoqli shaxslarni kiritadi va qo'yilgan savolga har xil javob beradi.



## **Tarix falsafasining funktsiyalari va tarixiy jarayon mazmunini belgilashga oid yondashuvlar tahlili**

Tarix falsafasining funktsiyalari to'g'risidagi masalani hal qilmasdan uning predmeti va o'ziga xos jihatlarni to'la anglab yetish mumkin emas. Quyida ularni ko'rib chiqamiz. Tarix falsafasining dunyoqarashga doir funktsiyasi shundan iboratki, u insonda tarixga, ya'ni jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi, tarixiy jarayonning yagonaligi va rang-barangligi, uning mazmuni va yo'nalishiga, insonning undagi o'rnini, roli va hokazolarga nisbatan umumiy munosabatni shakllantiradi.

Tarix falsafasining nazariy funktsiyasi tarixiy jarayonni teran anglab yetish va u haqda nazariya, ya'ni tarixiy jarayonning mavjudligi, mazmuni, rivojlanishning yo'nalishi haqida darajasida xulosa chiqarish imkonini beradi. Tarix falsafasining mazkur funktsiyasi tarixiy o'tmishni nazariy darajada rekonstruktsiya qilishni amalga oshirish, tarixiy dalillar va voqealarning haqqoniylik darajasini aniqlash uchun imkoniyat yaratadi.

Tarix falsafasining metodologik funktsiyasi uning qoidalarini tarixiy o'tmishning ayrim hodisalari va voqealarini u yoki bu ijtimoiy fanlar doirasida o'rganish imkoniyati. Bu holda tarix falsafasining qoidalari va xulosalari tarix, sotsiologiya, iqtisod, siyosatshunoslik, huquq falsafasi, psixologiya va boshqa fanlar sohasida amalga oshiriluvchi tadqiqotlarda qudratli metodologik vosita rolini o'ynaydi.

Tarix falsafasining prognostik funktsiyasi tarixiy jarayon qonuniyatlarini bilish jamiyat, uning ayrim kichik tizimlarining rivojlanish tendentsiyalarini, tarix voqealari, kishilar faoliyatining yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini bashorat qilishga yordam beradi. Bunday bashorat negizida u yoki bu ijtimoiy hodisalar va umuman jamiyatning rivojlanishini prognoz qilish mumkin.

Shuni qayd etish lozimki, tarix falsafasining ko'rib chiqilgan funktsiyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-biriga o'tadi. Ularning har biri qolganlarini nazarda tutadi va ularni o'z tarkibiga u yoki bu tarzda kiritadi.

Tarixiy jarayon mazmuni va uning yo'nalishini aniqlashga chiziqli va nochiziq konsepsiya shakllangan. Xususan, protagor va Demokrit jamiyatning rivojlanishi asosan yovvoyilikdan «oltin asr» sari yuksalib boruvchi yo'nalishda kechgan deb hisoblagan va shuning uchun ularni progressiv yo'nalish asoschilari deb hisoblash mumkin.

Boshqa mutafakkirlar (Gesiod, Seneka), aksincha, jamiyatning rivojlanishi regressiv yo'nalishga ega, ya'ni u «oltin asr»dan jamiyatning tanazzuli, axloqning buzilishi va hokazolar bilan tavsiflanuvchi «temir asr» sari rivojlanadi. degan fikrni ilgari surgan. Yana bir toifa faylasuflar (Platon, Aristotel, Polibiy) jamiyat yuksalib boruvchi yo'nalishda, lekin tutash doira bo'ylab harakatlanadi va har doim ortga, dastlabki bosqichga qaytadi, deb hisoblagan.

O'rta asrlar faylasuflari, tarix muayyan yo'nalishda rivojlanuvchi jarayon ekanligini rad etmagan holda, uning yo'nalishini Xudo belgilaydi, degan teotsentrik yondashuv ustivor bo'lgan.

O'z asarlarida tarixning yo'nalishi, shuningdek tarixiy jarayonda yagonalik va rang-baranglikning o'zaro nisbati muammolarini ayniqsa to'la qamrab olgan dastlabki tadqiqotchilardan biri italyan faylasufi Jambattista Viko (1668-1744) bo'lgan. O'zining «Millatlar umumiy tabiati haqidagi yangi fan asoslari» deb nomlangan risolasida u jahon tarixining barcha xalqlar uchun yagona bo'lgan tarixiy aylanma harakat sifatidagi dunyoviy konsepsiyasini ilgari surgan. Viko fikriga ko'ra, barcha xalqlar o'z rivojlanishida bir xil bosqichlardan o'tadi (ibtidoiy varvarlik («xudolar asri»)dan feodalizm («qahramonlar asri») orqali demokratik respublika yoki konstitutsiyaviy monarxiya («tsivilizatsiya asri») sari harakatlanadi). Har bir sikl mazkur jamiyatning umumiy inqirozi va parchalanishi bilan tugaydi. Sikl yakunlangach, rivojlanish jarayoni yangilanadi va ayni shu bosqichlardan, lekin yuqoriroq darajada o'tadi. Shunday qilib, Viko g'oyalari madaniyatlar va sivilizatsiyalarning rivojlanishida sikllilik nazariyalari (Danilevskiy, Shpengler, Toynbi)ga asos bo'lgan.

Hozirgi zamon tarix falsafasida tarixiy jarayon mantig'i va yo'nalishini tushuntirishga nisbatan ikki asosiy formatsion va sivilizatsion yondashuvlar mavjud.

Formatsion yondashuv tarixni monistik, universalistik tushunishga asoslanadi. U jahon tarixini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar oldinma-ketin almashuvidan iborat yagona, chiziqli-hujumkor tabiiy-tarixiy jarayon sifatida talqin qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi nazariyaning mohiyatini uning bir qancha qoidalari orqali ifodalash mumkin:

1) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – sifat jihatidan aniq, yaxlit ijtimoiy tizim bo'lib, uning muhim elementi odamlarning hayot faoliyati jarayonida ular o'rtasida o'rnatiladigan moddiy (iqtisodiy),

ma'naviy (mafkuraviy) va boshqa aloqalar va munosabatlardir. Moddiy va ma'naviy munosabatlarning o'zaro aloqasida moddiy munosabatlar yetakchi rol o'ynaydi. Ularning o'zagini ishlab chiqarish munosabatlari tashkil qiladi. Aynan ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy tizim faoliyatini belgilovchi asos hisoblanadi;

2) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya turli mamlakatlarda ular rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy hayotga xos bo'lgan umumiy jihatlarni aks ettiradi. Kapitalizmni o'rganish va turli mamlakatlardagi moddiy va ma'naviy munosabatlarni taqqoslash jarayonida bu munosabatlarning ko'pgina tomonlari takrorlanishining va mazkur mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishning bir bosqichi – kapitalistik bosqichda, degan xulosaga kelingan;

3) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichidir. Ko'p sonli ijtimoiy aloqalar orasida ishlab chiqarish munosabatlarini farqlash, ularning bir necha turlari mavjudligini aniqlash imkonini ham bergan; turli ijtimoiy organizmlar bir xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lishi ham, har xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lishi ham mumkinligi (ya'ni har xil tipdagi ishlab chiqarish munosabatlari) aniqlangan. Shunday qilib, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir tipi rivojlanish bosqichi, tarixiy davrni, bu ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi va o'zgarishi esa jamiyat rivojlanishining mohiyatini belgilaydi, degan xulosaga kelingan. Bu qoidalardan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – bu jamiyatning muayyan tarixiy tipi, ishlab chiqarishning muayyan usuliga asoslangan va ijtimoiy taraqqiyot bosqichi sifatida amal qiladigan yaxlit ijtimoiy tizim, degan to'xtamga kelish mumkin. «Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya» kategoriyasini asoslash tarixiy jarayonni davriylashtirish imkonini bergan. Formatsiyalarning besh tipi farqlanadi: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm. Jahon tarixiy jarayoni bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga yuksalishdan iborat bo'lgan chiziqli jarayon sifatida tavsiflagan.

XIX asrda ishlab chiqilgan formatsion yondashuv o'zini oqlamadi. Bunda tarixiy rivojlanish jarayonini tushuntirishga nisbatan uni dogmaga aylantirish va mutlaqlashtirish shakllandi.

Ayrim tadqiqotchilar formatsion yondashuvning quyidagi zaif jihatlarni qayd etadilar:

Birinchiidan, tarixning har qanday bosqichida jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga belgilaydi, deb aytish o'rinli bo'lmaydi.

Ikkinchiidan, bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga tabiiy yuksalish haqidagi monistik tasavvur inson erkinligiga, insoniyat rivojlanishining muqobil yo'llarini tanlashga o'rin qoldirmaydi.

Uchinchiidan, xalqlar, jamiyatlar, davlatlarning haqiqiy tarixi yuksalib boruvchi chiziq bo'ylab formatsion rivojlanishning tor doirasiga sig'maydi. Mazkur yondashuv amalga tatbiq etilganda har bir xalq va sivilizatsiyaning o'ziga xosligi va betakrorligi yo'qoladi, ular ayni holda kelajak barkamol jamiyatining sharti sifatidagina amal qiladi. Shunday qilib, hozirgi davrda tarixiy jarayonni besh ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan iborat bo'lgan chizikli sxema sifatida talqin qilishning bir yoqlamaligi namoyon bo'ladi.

Jahon tarixiy jarayoni mazkur nazariy modeldan boyroq. Shu sababli tarixni tushunishga nisbatan, nochiziq, sivilizatsion yondashuv bilan to'ldirish talab etiladi.

XIX-XX asrlarda vujudga kelgan tarixni tushunishga nisbatan sivilizatsion yondashuv ko'p sonli madaniyatlar va sivilizatsiyalar mavjudligi, ularning lokalligi va har xilligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Ijtimoiy taraqqiyotning qat'iy bir chizikli sxemasi rad etiladi. Nikolay Danilevskiy (1822-1885) har biri alohida-alohida mavjud bo'lgan, faoliyatning to'rt muhim shakli yoki sivilizatsiyalar «asosi» - diniy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslar orqali namoyon bo'luvchi madaniy-tarixiy tiplar (tsivilizatsiyalar) haqidagi konsepsiyani ilgari surgan. Madaniy-tarixiy tiplar, biologik organizmlar kabi, tashqi muhit va bir-biri bilan uzluksiz kurash jarayonida bo'ladi va vujudga kelish, voyaga yetish, qarish va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadi. Jahon tarixining mazmunini N. Danilevskiy o'zining alohida qonunlariga binoan rivojlanuvchi xalqlar madaniy-tarixiy tiplarining o'z-o'zini namoyon etish xususiyatlarini aniqlashdan iborat deb bilgan. N. Danilevskiy madaniy-tarixiy tiplar rivojlanishining ayrim qonunlarini ta'riflagan: 1) bir tilda yoki o'xshash tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir madaniy-tarixiy tipni tashkil etadi; 2) madaniy-tarixiy tip vujudga kelishi va rivojlanishi uchun muayyan siyosiy mustaqillik talab etiladi; 3) sivilizatsiyaning muvaffaqiyatlari madaniy-tarixiy tipning turli elementlariga bog'liq bo'ladi; 4) sivilizatsiyaning shakllanish jarayoni uzoq davom etadi, ularning ravnaq topish davri esa

qisqadir; 5) sivilizatsiyalar alohida va berk sharoitda rivojlanadi, lekin bu ular bir-biriga ta'sir ko'rsatmaydi, degan ma'noni anglatmaydi.

Osvald Shpengler (1880-1936) rivojlantirgan ijtimoiy taraqqiyotning bir chiziqli yevropotsentristik sxemasiga tanqidiy yondashgan. Shpengler falsafasida madaniyat asosiy kategoriya hisoblanadi. Faylasuf madaniyat deganda o'ziga o'xshash boshqa «organizmlar»dan ajralib turadigan alohida «organizm»ni tushungan. Bundan yagona umuminsoniy madaniyat yo'q va bo'lishi mumkin emas degan xulosa kelib chiqqan. Shu sababli Shpengler jahon tarixining yaxlitligi va yagonaligini, unda «o'zgarma va umumiy» jihatlar mavjudligini rad etgan. U insoniyat tarixida sakkiz madaniyat: Misr, Hind, Bobil, Xitoy, Yunon-rim, Sharq, G'arbiy Yevropa va Mayya madaniyatlarini farqlagan. Shpengler fikriga ko'ra, har bir madaniy organizm ma'lum hayot muddati (taxminan ming yil) mobaynida mavjud bo'ladi, shundan so'ng u sivilizatsiyaga aylanadi va halok bo'ladi. Har bir madaniyat o'z teran mazmuniga ega bo'ladi va tarixiy jarayonda bir xil ahamiyat kasb etadi. Shpengler tarixning mazmuni madaniyatlar taqdiri, ruhi va tilini anglab yetishdan iborat, deb hisoblaydi.

Lokal sivilizatsiyalar nazariyasining ayrim, o'ziga xos va nisbatan berk sivilizatsiyalar tarixlarining yig'indisi sifatida tushungan ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnold Toynbi (1889-1975) N. Danilevskiy va Shpenglarning tarixning siklliligi haqidagi fikr-mulohazalarini rivojlantirgan, (dastlab u 23 sivilizatsiyani farqlagan, keyinchalik esa ularni 13 tagacha qisqartirgan). Shuningdek A.Toynbi sivilizatsiyalarga «evolyutsion tipdagi faol tuzilmalar» sifatida yondashib, har bir sivilizatsiyada tarixiy mavjudlikning asosiy bosqichlari: vujudga kelish, rivojlanish, tanazzulga uchrash va zavol topishni farqlagan. Bu asosiy bosqichlardan o'tgach, sivilizatsiya, odatda, halok bo'ladi va uning o'rnini boshqa sivilizatsiya egallaydi.

A.Toynbi bu sivilizatsiyalarda oldinma-ketin yuz beruvchi ijtimoiy jarayonlarni o'xshash deb hisoblab, shunga asoslangan holda yaqin kelajakda dunyo miqyosida yuz beradigan voqealarni bashorat qilish imkonini beruvchi ijtimoiy rivojlanish takroriyiligining ayrim formal empirik qonunlarini asoslashga harakat qilgan. U jahon tarixining mazmuni diniy evolyutsiya hamda insoniyatning ma'naviy jihatdan kamol topishi bilan belgilanadi, deb hisoblagan.

Shunday qilib, sivilizatsion yondashuv nuqtayi nazaridan tarixiy jarayon hujumkor xususiyati «yuqori - quyi» ko'rsatkichlari

bilan emas, balki har bir sivilizatsiya o'z rivojlanish va o'z taqdirini o'zi belgilash jarayonida insoniyat filogenetik yo'lining barcha asosiy bosqichlaridan o'tishi va o'z tarixi va betakror individualligiga ega bo'lgan noyob ijtimoiy tuzilma sifatida qaralishi bilan belgilanadigan izchil nohiziq jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Formatsion va sivilizatsion yondashuvlarni taqqoslash quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1) formatsion yondashuv tahlil jarayonida butun jamiyatni qamrab olishga harakat qiladi va asosiy e'tiborni uning dinamikasiga qaratadi; sivilizatsion yondashuv esa jamiyatning bir qismini (ayrim sivilizatsiyani) o'rganadi, jamiyatni esa statik deb e'tirof etadi;

2) formatsion yondashuv jamiyat hayotining iqtisodiy omillariga alohida e'tibor beradi; sivilizatsion yondashuv asosiy e'tiborni ma'naviy omillarga qaratadi.

Tarix falsafasi rivojlanishining hozirgi bosqichida tarixning shunday bir talqini vujudga keladiki, unda mualliflar bu muqobil yondashuvlarning ijobiy g'oyalaridan foydalanishga va ularning kamchiliklari o'rmini to'ldirishga harakat qiladilar. Mazkur yondashuv monadaga doir yondashuv degan nom olgan.

Monadaga doir yondashuvning o'ziga xos jihati shundan iboratki, u jahon tarixiy jarayoniga ko'p sonli tarixiy individlar (sotsiumlar)dan iborat bo'lgan yaxlitlik sifatida qaraydi.

Bunda monadaga doir yondashuvning formatsion elementi tarixiy rivojlanishning ayni bir bosqichini boshdan kechirayotgan turli mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan jihatlarga, sivilizatsion element esa ijtimoiy organizmlarning xususiyatlariga, ularning betakrorligiga e'tiborni qaratadi. Shunday qilib, monadaga doir yondashuv doirasida formatsion yondashuvning umumlashtiruvchi imkoniyatlari va sivilizatsion yondashuvning individualashtiruvchi imkoniyatlari ularni qarama-qarshi qo'yish asosida emas, balki ularning yagonaligi va bir-birini to'ldirishini tan olish asosida hisobga olinadi va ro'yobga chiqariladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, tarixning mazmuni muammosi tarix falsafasining aksariyat yo'nalishlarida ko'zga ko'rinadigan o'rinni egallaydi. Ayni vaqtda shunday konsepsiyalar ham paydo bo'lganki, ularda tarixning mazmuni muammosi markaziy muammo hisoblanadi. Bu konsepsiyalarning mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Taniqli nemis faylasufi Karl Yaspers (1883-1969) fikricha, tarixning mazmuni tarixning chegarasidan tashqarida yotadi. Tarixning mazmuni va negizi butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan e'tiqod bilan belgilanadi. Mazkur e'tiqod insoniyat vakillarini birbiridan ajratmaydi, balki jipslashtiradi. Insoniyatga bunday e'tiqodni biron-bir jahon dini yoki milliy din taklif qilolmaydi.

Yaspers jahon tarixining «vaqt o'qi» amal qilgan davrda vujudga kelgan falsafiy e'tiqodgina insoniyat uchun umumiy e'tiqodga aylanishi mumkin, deb hisoblagan. Faylasuf qadimgi yunon faylasuflari, yahudiy xalqining payg'ambarlari, Eronda zardushtiylik dinining, Xitoyda – konfutsiychilik va daoichilikning, Hindistonda – buddizm va jaynizmning asoschilari bir vaqtda ijod qilgan miloddan avvalgi 800 va 200-yillar oralig'idagi davrni tarixning universal mazmunini namoyon etgan «vaqt o'qi» davri deb hisoblashni taklif qilgan. Mazkur davrda majusiylik o'rmini egallagan jahon dinlari paydo bo'lgan va mifologik dunyoqarash o'mida falsafiy tafakkur vujudga kelgan; jahonda deyarli bir vaqtda ichdan o'zaro mushtarak bo'lgan bir nechta qudratli ma'naviy markazlar paydo bo'lgan. «Vaqt o'qi» davri insonga o'zini inson sifatida his qilishga yordam bergan, uning ma'naviyatini uyg'otgan, uni madaniyat va axloq asoslari bilan oshno etgan, uning oldiga insonning mavjudligi va hayotning mazmuni haqidagi masalalarni qo'ygan. Yaspers fikriga ko'ra, inson o'z-o'zini anglab yetishi, inson ma'naviyatining uyg'onishi shu vaqtgacha o'zaro bog'lanmagan lokal madaniyatlarga bo'lingan insoniyat umumiy tarixining ibtidosiga aylangan. Shundan beri insoniyat umumiy taqdir va yagona e'tiqod bilan bog'langan. Aks holda uning tarixi halokat bilan tugashi mumkin. Yaspers ta'limotiga ko'ra, odamlarni umumiy ma'naviy asoslarda birlashtirish, ular o'zaro til topishini ta'minlashda kommunikatsiya ulkan rol o'ynaydi, shu bois uning tarix falsafasi ba'zan kommunikativ tarix falsafasi deb ham ataladi.

Amerikalik faylasuf Frensis Fukuyama tarixiy jarayon mazmuni va uning yo'nalishini aniqlash uchun «tarixning intihosi» nazariyasini taklif qilgan. «Tarixning intihosi»ga, insoniyat oxir-oqibatda jamiyat va davlatning optimal shaklini albatta topadi. Fukuyama liberal g'oyalar va qarashlarni umuminsoniy ideal sifatida e'tirof etgan, ularning negizida insonning barcha ehtiyojlari qondirilishi va jamiyatdagi asosiy ziddiyatlar hal qilinishi lozim, deb

hisoblagan. Uning fikricha, liberalizm jamiyatni tashkil etishning oqilona shakli sifatida, o'z muqobiliga ega emas. Shu sababli insoniyat oldida bu mafkurani boshqa mamlakatlarga yoyish va shu tariqa umuminsoniy davlat – siyosiy jabhada liberal demokratiyani yaratishdan boshqa yo'l yo'q. Insoniyat tarixining mazmunini Fukuyama ana shunda ko'rgan.

Tarixning mazmunini tavsiflashga nisbatan boshqacha yondashuvlar ham mavjud. Masalan, ayrim faylasuflar tarix har qanday mazmundan xoli, odamlar uchun jumboq deb hisoblaganlar va insoniyat kelajagiga pessimistik baho berganlar (Artur Shopengauer, Yakov Burgxardt). Ba'zi bir mutafakkirlar tarix voqealarning oqilona tushuntirish mumkin bo'lmagan irratsional oqimidir, deb hisoblaganlar (Fridrix Nitsshe, Eduard Gartman).

Tarix falsafasida tarixiy taraqqiyot g'oyasi ham muhim o'rin egallaydi. Taraqqiyot (progress) rivojlanish jarayonining quyidan yuksakka, noraso holatdan barkamol holatga o'tish bilan tavsiflanuvchi yo'nalishini anglatadi. Taraqqiyot haqida jamiyatga tatbiqan (bu holda ijtimoiy taraqqiyotni nazarda tutiladi) va uning ayrim elementlariga, jamiyatning tuzilishi yoki boshqa parametrlariga tatbiqan (bu holda fan-texnika taraqqiyotini, ma'naviy sohadagi, ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi taraqqiyot nazarda tutiladi) so'z yuritish mumkin. Taraqqiyotning asosiy konsepsiyalarini biz yuqorida ko'rib chiqdik. Bu yerda shuni qayd etish muhimki, taraqqiyot o'z mohiyatiga ko'ra ziddiyatlidir, chunki uning teskari tomoni regress, ya'ni oliydan tubanga, barkamol holatdan noraso holatga o'tishdir. Insoniyat biror narsani qo'lga kiritar ekan, muqarrar tarzda nimanidir yo'qotadi. Shu sababli insoniyatning taraqqiyot yoki regress yo'lidagi harakati haqida faqat umumiy ma'noda so'z yuritish mumkin.

Jamiyat tarixini tahlil qilar ekanmiz, shuni qayd etishimiz mumkinki, hozirgi davrgacha u asosan taraqqiyot yo'lidan harakatlangan va bu fikrga hozirgi tarix faylasuflarining ko'pchiligi qo'shiladi. Ammo ijtimoiy taraqqiyot g'oyasiga hamma olimlar ham ishonavermaydi, ayrimlar hatto taraqqiyotning rivojlanishga shikastli ta'siri haqida so'z yuritadi. Masalan, Aurelio Pechchei taraqqiyot xavfli jarayon ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Uning fikricha, bu anarxik jarayonni sirdan turib tartibga solish mumkin emas va u Yer yuzida hayotning rivojlanishi uchun shikastli oqibatlar kelib chiqishi



mumkinligiga e'tibor bermay, jamiyat ehtiyojlari bilan biron-bir real aloqasiz olg'a yangi qadamlar tashlashda davom etadi. Bu fikrga Elvin Toffler (1928-yilda tug'ilgan) ham qo'shiladi. U taraqqiyot jamiyat va davlat institutlarini vayron qiluvchi, qadriyatlarini o'zgartiruvchi va bizning hayot ildizlarimizga putur yetkazuvchi o'zgarishlar oqimini olib kelishi haqida ogohlantiradi.

Taraqqiyot mezonlarini aniqlash ijtimoiy taraqqiyot nazariyasining bahsli masalasi hisoblanadi. XVII asr mutafakkirlari inson aqlini taraqqiyot mezoni deb hisoblaganlar. Keyinchalik ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasi shunday mezon sifatida e'tirof etilgan. Hozirgi vaqtda taraqqiyotning asosiy mezonlari sifatida ko'pincha ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, gumanistik va boshqalar qayd etiladi. Bu mezonlar yordamida u yoki bu ijtimoiy tizimlar, siyosiy rejimlar, ijtimoiy harakatlarning progressivlik darajasini aniqlash mumkin. Ammo yuqorida zikr etilgan mezonlarning barchasi ijtimoiy hayotning ayrim tomonlarinigina tavsiflaydi va butun jamiyat taraqqiyoti haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. Jamiyatning insonparvarlashuvi darajasini, shaxsning undagi o'rni, uning ma'naviy va ijtimoiy erkinlik darajasini, moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishining sifatini jamiyat rivojlanishining umumiy yoki umumfalsafiy mezoni deb hisoblash mumkin bo'lsa kerak. Bu mezon mazkur jamiyatda inson kamol topish uchun imkoniyatlarga qay darajada ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur mezon nuqtayi nazaridan har bir jamiyatning progressivlik darajasi u shaxs huquqlari va erkinliklari doirasini qay darajada kengaytirgani, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, ehtiyojlarini rivojlantirishi va ularni qondirishi uchun qanday shart-sharoitlar yaratgani bilan belgilanadi.

Madaniy-tarixiy tiplar nazariyasi XIX asrda vujudga kelgan bo'lsada, aslida bu haqdagi dastlabki qarashlar Forobiy ijodiga mansub. Forobiy insonlar jamiyatini ikki madaniy-tarixiy tiplarga ajratadi: Birinchisi to'liq jamiyat bo'lib, u o'zida a) yer yuzidagi jami insonlarni qamrab oluvchi yirik jamiyat, b) Yerning muayyan qismida yashovchi bir millat yoki bir dinga mansub kishilarning o'rta jamiyati v) muayyan qavm yoki dinga mansub bir shahar jamiyatini qamrab oladi. Ikkinchisi bir qishloq, ovul, yoki bir oiladan iborat bo'lgan to'liqsiz jamiyat. Forobiy fikricha, "Eng yaxshi fazilat va oliy darajadagi komillikni kichik birligi shahar hisoblanadigan madaniy

jamiyat ichidagina qo'lg'a kiritish mumkin. To'liqsiz jamiyatlar insonni takomillashtirishga qobil emaslar". Forobiyning bu fikrlari Platon va Aristotelning jamiyatga oid qarashlaridan farq qiladi, chunki u jamiyatdagi o'zgarishlarni inobatga olgan. Jamiyatni to'liq va to'liqsizga ajratar ekan, Forobiy shahar to'liq jamiyatning birinchi bosqichidir deb e'tirof etadi. Platon va Aristotel esa to'liq jamiyatni shahar bilan chegaralaganlar va shahar insoniyat jamiyati takomilining oxirgi darajasi, jamoaviy baxt saodatning bosh markazi deb ta'kidlaganlar. Forobiy esa butun dunyodagi jamiyat haqida fikr yuritib, uning hukmdori qandaydir alohida olingan xalq, qavm yoki jamoa boshlig'i emas, balki butun madaniy dunyodir deb ta'kidlaydi va bu fikri bilan yunon faylasuflaridan ilgari ketadi.

N.Danilevskiyning g'oyalarning ilmiy asoslarini P.A.Sorokin (1889-1968) taklif qilgan. Sorokin jamiyatga individlar va ijtimoiy guruhlarning o'z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati bilan belgilanadigan bir-biri va jamiyat bilan o'zaro munosabatlari natijasida vujudga keladigan integral yaxlitlik sifatida qaragan. Sorokin jamiyatni gorizontol, vertikal yo'nalishlarda va fluktuatsiya (tebranish) tarzida murakkab harakatda bo'lgan ijtimoiy-madaniy tizimlarning rang-barangligini tan olish nuqtayi nazaridan tavsiflagan. Sorokin sotsiologiyasida o'tmish va hozirgi sotsiologiya fanining muhim g'oyalari uyg'un birlikda jamlangan va ifodalangan.

#### **Jamiyatning vujudga kelishiga doir qarashlar**

Jamiyatning vujudga kelishi haqida ajdodlarimiz hayotining arxeologlar topgan va odamlarning ko'plab avlodlari bosib o'tgan murakkab va fojialarga to'la tarixiy yo'ldan dalolat beradigan izlarga qarab xulosa chiqarish mumkin. Jamiyatning kelib chiqishini ilmiy tavsiflash borasidagi qarashlar mehnat va mehnat qurollari nazariyasi doirasida amalga oshirilgan. Bu nazariyaga ko'ra mehnat, so'ngra burro nutq inson jamiyatini yaratgan. Inson hayotida mehnat qurollarining ahamiyatini rad etmagan holda, bu farazni tasdiqlovchi aniq ilmiy dalillarga duch kelmadik. Z.Freyd inson vijdonini uning kelib chiqish manbai deb hisoblagan. Etnografik tadqiqotlar bu farazni umuman tasdiqlamaydi. Y.Xeyzinga o'yin va o'yin faoliyatiga madaniyatning insonni shakllantiruvchi asosiy tamoyil sifatida qaraydi. Ernst Kassirer (1875-1945) ilgari surgan farazga ko'ra, simbolik shakllar, ya'ni inson va uning ongi paydo bo'lishini belgilagan ramzlar va belgilar madaniyatning turli shakllarini birlashtiruvchi oliy va

universal tamoyil hisoblanadi. Kassirer fikriga ko'ra, qadimgi ajdodlarimiz ularning yashab qolishini ta'minlovchi yetarli tabiiy kuchga ega bo'lmagan. Inson o'zining hayvonlar xulq-atvorini kuzatish va ularga taqlid qilish qobiliyati bilan yashab qolish imkoniyatini qo'lga kiritgan. O'z navbatida taqlidga asoslangan xulq-atvor ramziy belgilar, keyinchalik esa nutq vujudga kelishiga asos bo'lgan. To'plangan tajribani belgilar tizimida qayd etish va avloddan-avlodga o'tkazish qobiliyatining shakllanishi hayvonlar to'dasi kishilik hamjamiyatiga aylanishining muhim omili bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Bunday qobiliyatga hayvonlarning biron-bir turi ega emas. Namoyish etish, o'mak ko'rsatish, taqiqlar va cheklashlar tizimi muloqotning nafaqat noverbal, balki asta-sekin shakllangan verbal vositalarida ham o'z ifodasini topgan. Muloqot mehnat ko'nikmalarini mustahkamlash, ovqat topish va unga ishlov berishni tartibga keltirish, o'z jamoa harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini bergan. Etnografik ma'lumotlar tajribani avloddan-avlodga o'tkazish va jamoa faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish shakli sifatida o'yin ulkan ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi.

Ma'lum taqiqlar orasida ovqatga doir xulq-atvor bilan bog'liq taqiqlar, shuningdek seksual cheklashlar, avvalo yaqin qarindoshlar jinsiy aloqaga kirishishi – intsestning taqiqlanishi ayniqsa ajralib turadi. Ular insoniyat kelajagi uchun olamshumul ahamiyat kasb etgan. Zero, tartibsiz jinsiy aloqalar naslning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan. Aslida, olingan tajriba yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohning taqiqlanishiga sabab bo'lgan. Bu nikoh aloqalari tizimini tartibga solish, ularni qat'iy qayd etish, ayollar, qizlar, singillarni ayirboshlash, so'ngra bu bilan o'xshashlik bo'yicha – oziq-ovqat, buyumlar, so'z-belgilar ayirboshlashni yo'lga qo'yish imkonini bergan. Mazkur jarayonlar odamlar o'rtasida muloqot, munosabatlar va xulq-atvor me'yorlari o'rnatilishi va ularga rioya etish zarurligi anglab yetilishiga turtki bo'lgan. Me'yorlarning mustahkamlanishiga mifologik va ilk diniy tasavvurlar hamda taqiqlar tizimi ko'maklashgan. Jamoadan tashqarida yashab qolish imkoniyati mavjud emasligini anglagan jamoaning har bir a'zosi unda o'rnatilgan kundalik xulq-atvor me'yorlariga rioya qilgan. Shunday qilib, jamiyat ishlab chiqarish va ko'payish ehtiyojlari bilan belgilangan odatlar, me'yorlar va qadriyatlar bilan tartibga solinadigan odamlarning birgalikdagi faoliyati va ularning o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi sifatida

vujudga kelgan. Me'yorlar inson hayot faoliyatining barcha sohalariga nisbatan tatbiq etiladi, hamda madaniyat va sivilizatsiya vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. Jamiyatda qanday o'zgarishlar yuz bermasin, u odamzot bilan birga vujudga kelgan mazkur muhim tarkibiy elementlarni saqlab qoladi.

Jamiyat takror ishlab chiqarish, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi tashkil etish ichki mexanizmlariga ega bo'lgan tarixan muayyan, yaxlit va barqaror tizimdir. Jamiyat – bu odamlarning shunday bir birlashmasiki, uning yaxlitligi ijtimoiy ishlab chiqarish, ya'ni odamlarning umuman ishlab chiqarish, o'z hayotini quvvatlash va takror ishlab chiqarishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati bilan ta'minlanadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish – vaqtda davom etadigan va vaqti-vaqti bilan takrorlanadigan jarayon (takroriy ishlab chiqarish). Ayni vaqtda u o'zgaruvchanlikni, muayyan ijtimoiy dinamikani (ya'ni sof ishlab chiqarishni) o'z ichiga oladi. Ko'rsatilgan omillarning birligi, bir tomondan, an'ana, ijtimoiy merosga, boshqa tomondan esa amaliy va ma'naviy tajribaning oshishi va to'planishiga asoslanadi. Ijtimoiy dinamika, jamiyatning rivojlanishi ishlab chiqarishda va odamlar xulq-atvorini boshqarishda to'plangan tajribani saqlash va kelgusi avlodlarga qoldirish usullarini takomillashtirish bilan ta'minlanadi. Tajribani baham ko'rishning muhim vositalari – til, o'rnak ko'rsatish va eng muhimi – tajribani o'zlashtirayotgan odam qaysi xalq vorisi bo'lsa, shu xalqning ijtimoiy boyligi va madaniy mulki hisoblanadi.

Keng ma'noda ijtimoiy ishlab chiqarish – ijtimoiy hayotning barcha elementlarini o'z ichiga oluvchi serqirra jarayon. Unga odamlarning ko'payishi; moddiy ishlab chiqarish, ya'ni odamlar hayotini saqlash va quvvatlashning moddiy omillarini yaratish; ma'naviy ishlab chiqarish, ya'ni bilim, tajriba, qadriyatlarini yaratish; odamlarni boshqarish, ular faoliyatining muvofiqligini, jamiyatning yaxlitligi va uyushqoqligini ta'minlash kabilar kiradi. Ijtimoiy ishlab chiqarish –jamoaning ishi. Ayni shu sababli u ijtimoiy hayotning har bir elementiga xos bo'lgan munosabatlar tizimini o'z ichiga oladi. Ularning asosiylari – oila-ro'zg'or, ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy, ma'naviy (mafkuraviy), siyosiy munosabatlardir. Ijtimoiy hayot murakkablashuviga qarab jamiyatda tabaqalanish va mehnat taqsimoti kuchayib boradi. Natijada jamiyatning nisbatan mustaqil bo'lgan alohida muhim kichik tizimlari vujudga keladi. Bu kichik

tizimlarning har biri butun ijtimoiy organizm uchun muhim bo'lgan funksiyalarni bajaradi. Jamiyatning muhim kichik tizimlari: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy kichik tizimlardir.

Moddiy ishlab chiqarish iqtisodiy kichik tizim ishlab chiqarish faoliyati va kishilarning bu jarayondagi munosabatlari shakllarining majmuidir. Har bir jamiyat o'z mavjudligi va rivojlanishi uchun zarur tabiiy boyliklarga ega. Ammo ijtimoiy boylik inson mehnati bilan yaratiladi. Ajdodlar yaratib qoldirgan boyliklarni saqlash va ulardan foydalanish hamda jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish ijtimoiy boylikning o'sishiga olib keladi. Buning natijasida mulk instituti ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim vositasi va rag'batlantiruvchi omili sifatida vujudga keladi. Dastavval kuch huquqi, obro' va odatga tayangan mulkiy munosabatlar keyinchalik yuridik shakl-shamoyil kasb etadi. Rivojlangan ko'rinishda mulk ijtimoiy boylikning ma'lum ulushiga egalik qilish, uni tasarruf etish va undan foydalanish huquqini anglatadi. U turli shakllarda mavjud bo'lgan va hozir ham mavjud bo'lib, bu ijtimoiy ishlab chiqarishning shaklini ham belgilaydi.

Iqtisodiy tizim moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishni hamda moddiy va ma'naviy xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Xodimlar, ularning mehnati va ishlab chiqarish vositalari – mehnat qurollari va vositalari ishlab chiqarishning muhim omillari hisoblanadi. Ishlab chiqarish moddiy-texnika vositalari va ularni ishga solishga qodir bo'lgan odamlar majmui jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida odamlar o'rtasida turli-tuman munosabatlar yuzaga keladi. Ularning orasida tashkiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish-texnologik munosabatlar texnika va ishlab chiqarish texnologiyasining xususiyati rivojlanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lsa, tashkiliy-iqtisodiy va ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosan ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulk shakllari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarish natijasida yaratiladigan ne'matlar va xizmatlarni ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur munosabatlar tizimi ijtimoiy normalar va huquq normalari bilan tartibga solinadi va ijtimoiy ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulk huquqining xususiyati bilan belgilanadi.

Mulk – xo'jalik jabhasi, iqtisodiy jabhada vujudga keladigan institut. U nafaqat ishlab chiqarish vositalari, balki iste'mol predmetlari va ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ham tatbiq etiladi. Ijtimoiy boylikning barcha elementlari – ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, yer va yer osti boyliklari, moddiy ishlab chiqarish, ma'naviy ijodiy va o'zga aqliy faoliyat mahsullari va hokazolar mulk bo'lishi mumkin. Mulk iqtisodiy hokimiyatga kim ega bo'lishini, xo'jalik faoliyatidan olingan foyda kimga tegishini va u qanday moddiy mulkiy manfaatlarni yuzaga keltirishini belgilaydi. Mulk shakllari ishlab chiqarish ijtimoiylashuvining amaldagi darajasi bilan belgilanadi, unga esa, o'z navbatida, umumiy texnologik taraqqiyot ta'sir ko'rsatadi. Mulkning davlat mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk, jamoa mulki kabi shakllari mavjud.

### **Jamiyat rivojining ma'naviy asosi**

Odamlarning ma'naviy faoliyati jamiyat mavjudligining zaruriy shartidir. Odamlar ongli mavjudotlar bo'lib, ular o'z tafakkuri bilan ijtimoiylikning barcha ko'rinishlarini anglab yetadi. Bu jarayonda olimlar, rassomlar, jumalistlar, turli partiyalar va harakatlarning mafkurachilari va shu kabilarning ixtisoslashgan kasbiy ma'naviy faoliyati muhim rol o'ynaydi. Ularning nisbatan mustaqil kasbiy faoliyati ijtimoiy hayotning turli jabhalariga xizmat ko'rsatadi. Ma'naviy ishlab chiqarishda iqtisodiy kichik tizim qonuniyatlari, ya'ni jamiyatning xo'jalikni boshqarilishi o'rtasidagi takrorlanuvchi muhim-zaruriy bog'lanishlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ularning qatoriga ehtiyojlarning yuksalish qonuni, ijtimoiy takror ishlab chiqarish qonunlari, qiymat qonunini kiritish mumkin.

Jamiyat ma'naviy kichik tizimining vujudga kelishi rang-barang ijtimoiy va shaxsiy ma'naviy ehtiyojlar bilan belgilanadi. Ularning eng muhimlari – ma'rifiy, axloqiy, estetik, diniy ehtiyojlardir. Ularni qondirish axborot va kommunikatsiya turli vositalarining mavjudligini nazarda tutadi. Axborot va kommunikatsiya ham shaxs va jamiyatning muhim ma'naviy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Ma'naviy muloqotga bo'lgan ehtiyoj ma'naviy ehtiyojlar orasida alohida o'rin egallaydi. Jamiyatda ma'naviy ishlab chiqarishning alohida tarmoqlari va institutlari asta-sekin vujudga keladi. Ular turli ma'naviy ehtiyojlarni qondirishni nazarda tutadi. Masalan, ilmiy institutlar va olimlarning turli-tuman birlashmalari tabiat, jamiyat va insonni o'rganish bilan shug'ullanadi va shu tariqa

odamlar faoliyatini ilmiy jihatdan ta'minlaydi. Fanda ham ijtimoiy amaliyotga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan o'z muammolari yuzaga keladi. Mazkur muammolarni yechish fan rivojlanishining sharti, uning ichki ehtiyoji hisoblanadi.

Axborot va kommunikatsiya ma'naviy ishlab chiqarishning axborot almashinuviga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan sohalar bo'lib, bu avvalo aholiga to'g'ridan-to'g'ri axborot berish vositalaridir. Qadimda bular podsholarning farmonlarini maydonlarda o'qib eshittirgan jarchilar, voizlar, shoirlar va baxshilar, masxarabozlar, teatr, shuningdek yozma adabiyot bo'lgan. Keyinchalik, axborot texnika vositalari rivojlanishi bilan ma'naviy muloqotga bo'lgan ehtiyojlar bosma nashrlar (kitoblar, gazetalar, jurnallar) bilan qondirilgan, so'ng radio, kino, televideniye, ya'ni hozirgi ko'rinishdagi ommaviy axborot vositalari (OAV) paydo bo'lgan. Hozirgi sharoitda ommaviy axborot vositalari o'z mahsulotini ishlab chiqaradigan va uni bozorda sotadigan sanoatning alohida tipidir. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi odamlarning bevosita shaxsiy va kollektiv muloqotiga bo'lgan ehtiyojga chek qo'ymaydi. Mazkur ehtiyoj butunlay boshqa vositalar bilan va o'zga sharoitda (uyda yoki teatrd, o'quv auditoriyasida yoki yozishmalar orqali va h.k.) qondiriladi. Shunga qaramay ommaviy axborot vositalari hozirgi jamiyatda ma'naviy muloqotning muhim elementi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar rivojlangan XXI asrda internet tizimidagi ijtimoiy tarmoqlar jamiyatning barcha sohalarini qamrab oldi.

Ilmiy adabiyotlarda va kundalik nutqda «axborot» va «kommunikatsiya» tushunchalari ko'pincha sinonimlar sifatida ishlatiladi. Ammo ma'naviy muloqotning mazkur hodisalari amalda har xil ma'noni anglatadi. Axborot deganda yangi bilimni aks ettiradigan va mazkur axborotni idrok etuvchi shaxs yoki guruh xulq-atvorini o'zgartiradigan xabar tushuniladi. Kommunikatsiya - g'oyalar, qarashlar, baholar almashinuvini nazarda tutadigan ma'naviy muloqot turi. U odamlar o'rtasida hamjihatlikning mavjudligi bilan belgilanadi.

Insonga ta'lim va tarbiya berish ma'naviy ishlab chiqarishning alohida sohasi hisoblanadi. Jamiyatda ta'lim va tarbiya muassasalarining tarmoqlangan tizimi: bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab ta'limining turli-tuman shakllari: kollejlar, pansionatlar, internatlar olty o'quv yurtlari tashkil etiladi. Axloqiy va estetik tarbiya berish, dunyoqarashni shakllantirish o'quvchilar ongida

dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirish yo'li bilan, shuningdek san'at, falsafa va diniy muassasalar yordamida amalga oshiriladi. Tarbiyalash funksiyasini oila, do'stlar va tanish-bilishlar davrasi, davlat muassasalari, huquqiy tartibot organlari, shuningdek ommaviy axborot vositalari bajaradi.

Ijtimoiy ong ma'naviy kichik tizimning bosh bo'g'ini hisoblanadi. U bilimlar, g'oyalar, qarashlar, fikrlar, dunyoqarashga doir mo'ljallar, qadriyatlar va hokazolarning butun rang-barangligida namoyon bo'ladi.

Individual ong – ayrim insonda uning yashash sharoiti va ruhiy xususiyatlari ta'sirida shakllanadigan dunyoning sub'ektiv obrazi. U shaxsning ichki borlig'iga ega bo'ladi, aksariyat hollarda hammadan yashirin ong oqimini tashkil qiladi. Ijtimoiy ong ijtimoiy birliklar va guruhlar tashqi omillar – jamiyat hayotining moddiy sharoitlari va uning ma'naviy madaniyati ta'sirida shakllantiradigan jamoa tasavvurlarni tavsiflaydi.

Individual va ijtimoiy ongning farqi faqat ijtimoiy ongning sotsial xususiyat kasb etishini anglatmaydi. Individual ong – jamiyat ongining ajralmas qismi. Jamiyatda asrlar mobaynida shakllangan madaniyat shaxsni ma'naviy jihatdan boyitadi va individual ongning uzviy qismiga aylanadi. Har bir individ o'z xalqi, etnosining, o'zi istiqomat qiladigan joyning vakili bo'lib, uning ongi jamiyat bilan chambarchas bog'liq. Ayni vaqtda ijtimoiy ong faqat individual ong bilan muttasil o'zaro ta'sirga kirishish orqali rivojlanadi.

Ijtimoiy ong murakkab tuzilishga ega. U ikki daraja: kundalik ong va nazariy ongni o'z ichiga oladi. Kundalik ong o'z tuzilishiga ko'ra turli jinslidir. U ajdodlar to'plagan mehnat faoliyati tajribasini, axloqiy me'yorlar, odatlarni, kundalik turmush qoidalarini, tabiatni kuzatish natijasida shakllangan tasavvurlarni, dunyoqarashga doir ba'zi bir mo'ljallarni, xalq og'zaki ijodi (folklor) va hokazolarni o'z ichiga oladi. Kundalik ong asosan mehnatga, kundalik turish-turmushga va odamlarning ular bilan bog'liq bo'lgan yashash sharoitlari va munosabatlariga qarab mo'ljallanadi. Kundalik hayot, odatlar va munosabatlarning uzluksiz takrorlanadigan shakllari kundalik ong mazmunini tavsiflovchi asosiy tushuncha hisoblanadi. U o'zining sinkretik xususiyati, mazmunan qashshoqligi, emotsiyalarga boyligi, stixiyaliligi va amaliyotga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Kundalik ongning bilish imkoniyatlari cheklangan: u hodisalar mazmunini teran



anglashga, dalillarni tizimga solishga qodir emas. Nazariy ong kundalik ongga tayanadi, lekin uning tor doirasidan tashqariga chiqa oladi. Ayni vaqtda ijtimoiy birliklar va guruhlar ma'naviy faoliyatining mahsuli sanalgan ijtimoiy ong ularning sub'ektiv qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ijtimoiy ong manbalarining o'ziga xos xususiyatlari ta'siri ijtimoiy psixologiya va mafkurada aks etadi.

Ijtimoiy psixologiya tushunchasida o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'lgan inson ruhiyatining namoyon bo'lish shakllarida aksini topadi. Ammo ijtimoiy psixologiya ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida kishilarning ommaviy xulq-atvori xususiyatlarini, ijtimoiy birliklar va guruhlarning ijtimoiy hayot hodisalariga bo'lgan munosabatlarning muayyan tipini tavsiflaydi. Ular e'tiqodlar, ijtimoiy mo'ljallar, tuyg'ular, odatlar, stereotiplar va hokazolar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy psixologiya ruhiyat tarzini, muayyan ijtimoiy guruhga xos bo'lgan jamoa xulq-atvorining ruhiy xususiyatlari va shakllari barqaror majmuini ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy birliklar va guruhlarni tushunishda ijtimoiy fe'l-atvorni hisobga olish muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy psixologiyada u yoki bu guruhga yoki butun jamiyatga mazkur jamiyat tarixining muayyan davrida xos bo'lgan ijtimoiy tuyg'ular muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy tuyg'ular juda faol va o'ta ta'sirchandir. Ular aks etish va tarqalish xususiyati va usullariga ko'ra farq qiladi. O'zaro ruhiy induksiya, taqlid, ijtimoiy nazorat, ta'sir ko'rsatish, emotsiyalarni yuqtirish va hokazolar shular jumlasidandir.

Mafkura ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarining tizimga solingan, nazariy ko'rinishda aks etadigan va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash yoki o'zgartirishga xizmat qiladigan g'oyalar, qarashlar majmuidan iborat. Mafkura mazmunini ijtimoiy rivojlanishning dolzarb va yechishni talab qiladigan ziddiyatlari tashkil etadi. Shunga muvofiq yuz berayotgan jarayonlar mazmuniga va ijtimoiy muammolarni yechish yo'llariga nisbatan alohida yondashuvni aks ettiruvchi ayrim nazariy mulohazalar yuzaga keladi. Bu mafkuraning shakli hisoblanadi. Uning mazmuni esa muayyan ijtimoiy guruh – sinf, etnik guruh, hukmron elita yoki uning muxolifati va hokazolarning manfaatlarini ifoda etishdan iborat. Mafkura shaklan ob'ektiv, lekin mazmun jihatidan sub'ektivdir. U nazariy jihatdan tizimga solingan ko'rinishda ijtimoiy

guruhlarning ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga bo'lgan munosabatini aks ettiradi va ularning ijtimoiy-siyosiy natijalarini nazariy jihatdan asoslash va oqlashga harakat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan A.Ochildiyev istibdod mafkurasi, istiqlol mafkurasi, va jamiyat mafkurasi kabilarni farqleydi. Istibdod mafku-rasidan farqli o'laroq "istiqlol mafkurasi millat, jamiyat, davlatni mustaqil taraqqiyot yo'liga boshlaydigan, uni belgilab beradigan, erkin va ozod rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan g'oyalar, qarashlar tizimidir". Uning fikricha, har qanday davlat o'z faoliyatida yagona etnosotsial birlik sifatida chiqadigan millat manfaatini himoya qilishga qaratilishi, uning jipsligi, taraqqiyotini ta'minlaydigan milliy mafkuraga tayanmog'i lozim. Zero, milliy mafkura davlat organlari, ijtimoiy institutlar faoliyatini tashkil qiluvchi, yo'naltiruvchi qurol vazifasini o'taydi. Ijtimoiy ong shakl va mazmun jihatidan rang-barangdir. Ijtimoiy ongning ilmiy, diniy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, falsafiy turlari farqlanadi. Ular o'zi aks ettiruvchi hodisalar mazmuni, moddiylashuv shakli va ijtimoiy funksiyalariga ko'ra farq qiladi. Ijtimoiy ong turlari yoki shakllari ko'p darajali tuzilmalar bo'lib, o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan oddiy va nazariy darajalarni, ijtimoiy psixologiya va mafkurani o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ongning yaxlit tavsifi ijtimoiy ong holati, ommaviy ong, jamoatchilik fikri kabi tushunchalarda ifodalanadi. Ijtimoiy ong holati mazkur tarixiy davrda qaysi g'oyalar va qarashlar yetakchilik qilayotgani, ijtimoiy ongning qaysi shakllari jamoatchilik fikri va kayfiyatiga ayniqsa samarali ta'sir ko'rsatayotgani, jamoatchilik fikrini shakllantirishning qaysi mexanizmlari ustuvor ahamiyatga ega ekanligi (u mafkuraviy majburlov mahsulimi yoki stixiyali tarzda shakllanadimi), jamoatchilik fikrini shakllantirish vositalari orasida fan, din, siyosat va huquq qanday o'rin egallashi bilan belgilanadi. Ijtimoiy ong holatlarini tavsiflashda ilmiy va noilmiy tasavvurlarning o'zaro nisbatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ijtimoiy bo'hronlar va tangliklar davrida o'ta xurofiy aqidalar tiklanadi, sarosimalik kayfiyatlari, ijtimoiy ongning beqarorligi kuchayadi. Ijtimoiy ong madaniyatda o'zining amaliy ifodasini topadi.

### **Jamiyat rivojining ijtimoiy asoslari**

Ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti va ixtisoslashish ijtimoiy tabaqalanishga turtki beradi, o'ziga xos vazifalarnigina baja-

radigan, jamiyatda ma'lum mavqega ega bo'lgan va o'z manfaatlarini ilgari suradigan nisbatan mustaqil ijtimoiy birliklar va guruhlar vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy tabaqalanish va odamlar o'rtasidagi tengsizlik jamiyatning tabiiy holatidir.

«Oltin asr», umumiy va to'la tenglik haqidagi orzu mutlaqo noilmiy bo'lgani bois uni ro'yobga chiqarish mumkin emas. Shuningdek, u zararlidir, chunki odamlarni to'g'ri yo'ldan ozdiradi, ijtimoiy munosabatlarga keskin tus beradi. Tarixdan ma'lumki, umumiy tenglik haqidagi shiorlar hech qachon ro'yobga chiqmagan: bir tengsizlik o'rni boshqa tengsizlik paydo bo'lgan. Oilada, urug' yoki qabilada ustun mavqega erishish uchun, o'z shaxsiy obro'si – kuchi, mardligi yoki mahorati tan olinishi uchun kurash ijtimoiy hayotning dastlabki bosqichlaridayoq yuzaga kelgan. Tengsizlik shaxs va pirovard natijada – jamiyat rivojlanishining muhim omilidir.

Ijtimoiy tengsizlik vujudga kelishi va jamiyatning rivojlanishida mulk instituti alohida rol o'ynagan. Mazkur institut vujudga kelishi bilan odamlarning mulkiy tengsizlik bilan bog'liq tabaqalanishi kuchaygan. Alohida kasbiy faoliyat sifatida aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan kishilar paydo bo'lgan. Mazkur jarayonlar mehnat taqsimotini faollashtirgan. Ayrim guruhlarning alohida ajralib chiqishiga, boshqalarining turli hamjamiyatlarga birlashishiga turtki bergan. Har qanday jamiyatning ijtimoiy tuzilishi mazkur jamiyat tarixining ma'lum davridagi muayyan-tarixiy ijtimoiy birliklar va guruhlarning o'zaro munosabatlari, hamda mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus institutlar va muassasalar majmui bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy birliklar va guruhlar ijtimoiy tuzilmaning muhim elementi hisoblanadi. Ular kishilarning umumiy ijtimoiy belgilari mavjudligi bilan ajralib turadigan birlashmalaridir. Mazkur belgilar qatoriga guruh uchun umumiy sanalgan ehtiyojlar va manfaatlar, qadriyatlar va me'yorlar, turmush tarzi, ijtimoiy mehnat taqsimotidagi o'rin va ular bilan bog'liq ijtimoiy rollar kiradi. Ijtimoiy guruh xususiyati va tipi uning xulq-atvorini va jamiyatning ijtimoiy kichik tizimidagi o'rni ham belgilaydi. Ehtiyojlar va manfaatlarning birligi ijtimoiy birliklar va guruhlarni birlashtiruvchi asosiy belgi hisoblanadi. Mazkur ehtiyojlar va manfaatlar ijtimoiy birliklar va guruhlarning jamiyatdagi mavqei bilan belgilanadi. Ijtimoiy birliklar

va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy bir jinslilik va barqarorlik darajasiga ko'ra farq qiladi. Ijtimoiy guruhlarga taqqoslaganda ijtimoiy birliklar ijtimoiy jihatdan turli jinsliliigi va tashkiliy jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy birliklarga jumladan etnik va konfessional birliklar, ekologik, siyosiy harakatlar, sport yoki havaskorlarning uyushmalari kabi jamoat birlashmalari misol bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy birliklar va guruhlar katta va kichik ijtimoiy guruhlarga farqlanadi. Kichik guruh a'zolarining yaqinligi, aloqalarining mustahkamligi, munosabatlarning norasmiyligi, bevosita shaxsiy aloqalar o'rnatilgani, umumiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari amal qilishi bilan tavsiflanadi. Kichik guruhga korxonalar, muassasaning mehnat jamoasi, oilalar misol bo'lishi mumkin. Jamoa – umumiy faoliyat, manfaatlar va xulq-atvor qoidalari birligi belgisiga ko'ra uyushgan kichik ijtimoiy guruh (masalan, mehnat, o'quv, harbiy, sport jamoalari). Oilalar – jamiyatning nikohga yoki qon-qarindoshlikka asoslanadigan muhim instituti. Oilaviy munosabatlar nasl qoldirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadigan va bolalarni tarbiyalash, ularga jamiyatning madaniy an'analarini singdirishga qulay zamin hozirlaydigan shaxslararo aloqalarning norasmiyligi bilan ajralib turadi. Oilaviy munosabatlar qarindoshlik aloqalari bilangina cheklanmaydi: ular oilalar a'zolarining bir-biri oldida o'zaro ma'naviy javobgarligi, birgalikdagi mehnat va turish-turmush hamda ular bilan bog'liq bo'lgan va huquq bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlar bilan mustahkamlanadi.

Katta ijtimoiy guruhlar – tarixiy rivojlanish jarayonida vujudga keladigan sinfiy, etnik, hududiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa guruhlardir. Ular shaxs va jamiyat hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Etnik birliklar xo'jalik, hudud, til, odatlar, an'analar, rasm-rusumlar, e'tiqodlarning birligi belgisiga ko'ra tarkib topadigan va etnik birliklarning har xil turlarini tashkil etadigan kishilarning ayrim muayyan-tarixiy jamoalaridir. Urug' mazkur birliklarning ilk shakli. U qon-qarindoshlik belgisiga ko'ra uyushgan odamlar birlashmasi bo'lib, ibtidoiy jamoaning asosiy, ishlab chiqaruvchi va etnik bo'g'ini hisoblangan.

Qabila ikki yoki undan ortiq urug'ning bir necha yuzdan bir necha minggacha bo'lgan odamlardan iborat birlashmasidir. Qabila umumiy mulk, umumiy boshqaruv, turish-turmushning umumiy jihatlari va ayrim umumiy xo'jalik faoliyatiga ega bo'lgan.

Elat va millat bir hududda yashaydigan, umumiy xo'jalik faoliyati, til, ruhiy tarzining xususiyatlari, turmush, madaniyat va hayot tarzining odatlar va an'analarda mustahkamlangan ba'zi bir jihatlarni tavsiflaydi. Ammo ularning o'rtasida jiddiy farqlar ham mavjud. Xususiyl qabilalarning uyushmalari, aholi migratsiyasi, tilning yaqinligi elat vujudga kelishining omillari hisoblanadi. Ular qon-qarindoshlik, urug'doshlik aloqalarini buzuvchi omillardir. Ammo elatni birlashtiruvchi aloqalar ham ancha shartlidir. Elatni tashkil etadigan qabilalar yashaydigan hudud muhim birlashtiruvchi asos hisoblanadi.

Millatning asosiy o'ziga xos xususiyati – muayyan yaxlit tuzilmaga birlashgan va assimilyatsiyalashgan elatlarning faol iqtisodiy aloqalari negizida shakllanadigan moddiy va ma'naviy madaniyatning o'ziga xosligi. Millatga uni tashkil etadigan elatlar uchun umumiy sanalgan til; ruhiyat tarzining umumiyliigi; madaniyatning o'ziga xos jihatlari; shakllangan barqaror hayot tarzi; an'analari; tarixiy taqdirning birligi va rivojlangan etnik o'zlikni anglash tuyg'usi meros bo'lib o'tadi. Madaniy rivojlanish, til, umuman milliy o'ziga xoslik muammolariga millatning ta'sirchanligi ayni shu omillar bilan belgilanadi.

Jamiyatning ijtimoiy tuzilishida tabaqalar va sinflar salmoqli o'rin egallaydi. Tabaqalar – sanoatlashish bosqichidan oldingi jamiyatlarda vujudga kelgan va avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan huquqlar va burchlarga ko'ra farq qiladigan ijtimoiy guruhlar. Tabaqaviy bo'linish jamiyatning murakkab ierarxiyaviy tuzilishining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Yirik guruhlar orasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-psixologik maqomiga ko'ra farqlanadigan sinflar alohida o'rin egallaydi. Iqtisodiy belgi sinfning bosh belgisi hisoblanadi, zero, sinfiy bo'linish shakllari ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabat hamda mulk shakllari bilan belgilanadi. Hozirgi zamon sotsiologiyasida ijtimoiy boyluk ulushiga ko'ra ular oliy, o'rta va quyi sinflarga bo'linadi. Bunda daromad manbai hisobga olinmaydi, shu bois oliy sinf vakillari orasidan mashhur kinoaktyorlar, estrada yulduzlari va bankirlar ham o'rin olishlari mumkin. Bu hol o'rta va hatto quyi sinflarda ham kuzatiladi. Shuningdek ijtimoiy mehnatni tashkil etishdagi roliga ko'ra boshqaruvchilar sinfi farqlanadi.

Hozirgi jamiyatda yuqori malakali aqliy mehnat bilan professional tarzda shug'ullanadigan kishilarning katta ijtimoiy guruhi – ziyolilar alohida rol o'ynaydi. Ziyolilar soni tinimsiz ko'payib, ularning jamiyat hayotidagi roli ortib bormoqda. Bu avvalo fan-texnika taraqqiyoti, shuningdek hozirgi jamiyatda ma'naviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liq. Ziyolilar guruhi o'z kelib chiqishiga ko'ra ham, ijtimoiy maqomiga ko'ra ham turli jinslidir. Tegishli ravishda uning siyosiy mo'ljallari ham har xildir.

**Institutlar.** Jamiyatning rivojlanish jarayoni alohida muhim vazifalarni bajaradigan va aniq tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan ijtimoiy va siyosiy tashkilotlar – institutlarning tarmoqlangan tizimi yaratilishi bilan tavsiflanadi (Siyosiy partiyalar, jamg'armalar, uyushmalar).

Institutlar jamiyat normal faoliyatining zaruriy omili sanalgan ijtimoiy muhim faoliyatni amalga oshiradi. Bunday institutlar qatoriga davlat va uning institutlari, partiyalar va harakatlar, ommaviy axborot vositalari, diniy muassasalar, ta'lim va madaniyat muassasalari, sog'liqni saqlash va sanitariya xizmati tizimlari, bozor, banklar va hokazolar kiradi. Ijtimoiy institutlar faoliyati ijtimoiy hayotning barcha jabhalari: oila va ishlab chiqarish, tovarlar va pullar harakati, ishlab chiqarish, iste'mol va hokazolarga nisbatan tatbiq etiladi. Institutlar turli birliklar va guruhlarining manfaatlarini muvofiq-lashtirishni amalga oshiradi, ularning samarali o'zaro aloqasini ta'minlaydi, vujudga kelgan ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlaydi va yangilarini yaratadi.

**Hududiy guruhlar.** Aksariyat mamlakatlarda hududiy guruhlarining o'zaro munosabatlarida jiddiy muammolar yuzaga keladi. Bu ma'naviy hayot an'analari va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra farq qiladigan viloyat va markaz, poytaxt va chekka o'lka hamda yirik mintaqalarning munosabatlari bo'lishi mumkin (masalan, AQSh yoki Italiyada Shimol va Janub munosabatlari). Etnik yoki diniy farqlar, bir ma'muriy birlikning boshqa ma'muriy birliklarga hududiy e'tirozlari hududiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirishi mumkin.

Jamiyat rivojlanishiga qarab uning ijtimoiy tuzilmasi murakkablashib boradi. Bu miqdor va sifat jihatidan har xil ijtimoiy guruhlarining o'zaro aloqasi va manfaatlarini muvofiq-lashtirishni talab etadi. Ijtimoiy birliklar va guruhlarining turlari ularning o'rtasidagi

munosabatlar va ijtimoiy aloqalar xususiyatini ham belgilaydi. Aloqalar uzoq yoki qisqa muddatli, mustahkam yoki bo'sh va zaif, bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin. Aloqalar xususiyatining shakllanishida manfaatlar muhim rol o'ynaydi, ularni muvofiqlashtirish vazifasini esa jamiyatning maxsus institutlari, avvalo siyosiy tizim hal qiladi.

### **Jamiyat rivojining siyosiy asoslari**

Rivojlangan ijtimoiy tizimga ega bo'lgan jamiyatda ijtimoiy, etnik va diniy tabaqalanishning kuchayishi muqarrardir. Mavjud mavqeidagi tub o'zgarishlardan kelib chiqadigan qarama-qarshi manfaatlarni ko'zlovchi ijtimoiy birliklar va guruhlar mavjudligi ularning o'rtasida siyosiy munosabatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu manfaatlarni muvofiqlashtirish zaruriyati jamiyat siyosiy tizimining tuzilishi va funksiyalarini belgilaydi.

Siyosiy tizim jamiyatda siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi davlat va siyosiy tashkilotlar, institutlar va muassasalar majmuidir. Siyosiy tizim murakkab tuzilishga ega. Jamiyatda fuqarolarga nisbatan qonuniylashtirilgan majburlov choralarini qo'llash yo'li bilan o'zining siyosiy munosabatlari tartibga solish borasidagi funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat siyosiy tizimning bosh elementi hisoblanadi. Davlat jamiyatning muhim ijtimoiy-siyosiy instituti bo'lib, muayyan hududda unga oliy hokimiyat vakolatlari beriladi. Bu vakolatlardan davlat odamlar, guruhlari va birlashmalari xulq-atvorini boshqarish uchun foydalanadi.

Davlatning asosiy belgilari: 1. Jamiyatdan ajratilgan xalq hokimiyati. Hokimiyat – bir sub'ekt (hokimiyat boshlig'i)ning o'z hukmi ostidagi fuqarolarga buyruqlar berish, ularning bajarilishi ustidan nazorat olib borish va ularni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarga nisbatan sanksiyalar qo'llash imkoniyati. 2. Suverenitet, ya'ni o'z mamlakati hududida oliy hokimiyatga to'liq egalik qilish va tashqi siyosatda mustaqillik. 3. Hokimiyat chiqargan qonunlar va uning vakolatlari amal qilinadigan hudud. 4. Butun aholi uchun majburiy sanalgan qonunlar va normalar qabul qilish mutlaq huquqi. 5. Davlat xizmati xodimlari, qurolli kuchlar, majburlov organlari va hokazolarni ta'minlash uchun aholidan soliqlar undirish huquqi.

Davlatning boshqaruv shakli (ya'ni hokimiyatni tashkil etish usuli) va davlat qurilishi shakllari mavjud. Boshqaruv shakllariga ko'ra monarxiya va respublika farqlanadi.

Monarxiya quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: birinchidan – hokimiyat bir shaxsga qarashli bo‘ladi; ikkinchidan – davlat boshlig‘iga hokimiyat meros bo‘lib o‘tadi. Davlat boshlig‘ining vakolatlari hech qanday konstitutsiyaviy normalar bilan cheklanmaydigan mutlaq monarxiyalar va monarx vakolatlari konstitutsiya bilan cheklanadigan konstitutsiyaviy monarxiyalar farqlanadi. Respublikaning asosiy xususiyati shundan iboratki, unda hokimiyat manbai xalq hisoblanadi, zero, davlatning oliy organlarini xalq saylaydi. Parlament, prezidentlik respublikalari va aralash respublikalar farqlanadi.

Parlament respublikasi hukumatni parlament ko‘pchiligi tamoyiliga ko‘ra shakllantirishni nazarda tutadi: qaysi partiya parlamentda ko‘pchilikni tashkil qilsa, shu partiya parlamentga hisobdor bo‘lgan o‘z hukumatini shakllantiradi.

Prezidentlik respublikasi davlat boshlig‘i va hukumat boshlig‘i vazifalarini prezident bajarishi bilan tavsiflanadi.

Aralash respublika (yarim prezidentlik respublikasi)da kuchli prezidentlik hokimiyati hukumat faoliyati ustidan parlamentning samarali nazorati bilan uyg‘unlikda amal qiladi.

Davlat qurilishi shakliga ko‘ra unitar, federativ va konfederativ davlatlar farqlanadi. Ma‘muriy birliklari o‘z davlatchiligiga ega bo‘lmagan yagona, siyosiy jihatdan bir jinsli davlat unitar davlat hisoblanadi.

Federatsiya – siyosiy sub‘ektlar (shtatlar, yerlar, federatsiya sub‘ektlari va sh.k.), o‘z konstitutsiyalari, qonunchilik, ijro va sud organlariga ega davlatlar uyushmasi. Ularning mustaqilligi markaz bilan federatsiya tarkibiga kiruvchi sub‘ektlar o‘rtasida vakolatlarning taqsimlanishi bilan belgilangan chegaralarga muvofiq cheklanadi. Davlatlararo birlashmaning alohida shakli konfederatsiya bo‘lib, u mustaqil davlatlar muayyan o‘zaro maqsadlarga erishish uchun tuzgan doimiy uyushmadir.

Forobiy fikricha, davlat jamiyatning tayanchidir. U jamiyatning mukammaligi va mukammal emasligi haqidagi g‘oyaga tayanadi. Mukammallik "...shunday davlat vositasida qo‘lga kiritiladiki, u ezgu an‘analari, odamlar va yaxshi axloqni tarqata olsin" va jamiyatda bu xislatlarni barqaror eta olsin. Bunday davlat bo‘lmasa, fozila, ezgu xislatlar odamlarda uzoq saqlanmaydi va barqaror bo‘lmaydi. Forobiy nazarda tutgan davlat, mustabidlikka emas, balki tiklanish va faoliyatida xalqning istak va irodasi bevosita rol



o'ynaydigan davlatdir. Xalq irodasiga asoslanmagan davlat ideal davlat emas. Demak, davlat – jamiyatning tayanchi, xalqning irodasi va xohishi uning shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Hozirgi davlatlarning aksariyati o'z faoliyatini konstitutsiyaga muvofiq amalga oshiradi. Konstitutsiya – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum asoslarini, fuqarolarning huquqlari va burchlarini, asosiy davlat organlarini tarkib toptirish mexanizmi va ularning faoliyat tamoyillarini, saylov tizimi asoslari va hokazolarni mustahkamlovchi davlatning asosiy qonuni. Konstitutsiya boshqaruv va davlat qurilishi shaklini belgilaydi. Huquqiy davlatda konstitutsiya nafaqat fuqarolar va davlatning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi normalarni, shaxs huquqlari va erkinliklarini belgilaydi, balki hokimiyatni cheklaydi. Konstitutsiyada inson huquqlarining davlat qonunlaridan ustunligi mustahkamlanadi. Huquqiy davlat rivojlangan fuqarolik jamiyati mavjudligi bilan tavsiflanadi. Har bir individning erkinligi boshqa odamlarning erkinligi va huquqlari bilan cheklanadi. Qonunning ustunligi va huquqning umumiyligi, hokimiyat, qonunchilik, ijro va sud tarmoqlariga bo'linishi huquqiy davlatning muhim belgilari hisoblanadi.

Siyosiy tizim mamlakatning siyosiy hayotida ishtirok etuvchi turli-tuman partiyalar, harakatlar, tashkilotlar, institutlar, diniy muassasalar va ta'sir guruhlarini majmuini ham o'z ichiga oladi. Siyosiy tashkilotlar davlat tuzilmalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'z faoliyati dasturlarini belgilaydi, ijtimoiy birliklar va guruhlarining manfaatlarini tegishli shiorlar, ijtimoiy loyihalarda ifoda etadi va ularni amalga oshirishda qonuniy vositalar bilan ishtirok etadi. Ularning faoliyati o'z guruhlarining o'zgalarning manfaatlariga zid bo'lgan yoki ularni kamsitadigan manfaatlarini ro'yobga chiqarish zaruriyati bilan belgilanadi. Shu sababli partiyalar va harakatlar hokimiyat obro'siga tayanadi. Hokimiyatning aralashuvi ziddiyatlarni tartibga solish, manfaatlarni muvofiqlashtirishga ko'maklashadi.

Siyosat jamiyatni boshqarishni amalga oshiruvchi davlat faoliyati va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va muassasalarning o'z ijtimoiy muhim manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun xalq hokimiyati institutlaridan foydalanish borasidagi faoliyatini tashkil qiladi.

Davlat siyosatining asosiy vazifasi – jamiyatning yaxlitligini ta'minlash, aholini jipslashtirish, qarama-qarshi manfaatlarni ilgari suruvchi ijtimoiy birliklar va guruhlarining munosabatlarini oqilona-

lashtirish, mazkur vazifalarni hal qilish uchun huquqdan foydalanishdir. Davlat jamiyatning xo'jalik, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jabhalarini mazkur jamiyat normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan darajada tartibga soladi.

Partiyalar va harakatlar siyosatining asosiy vazifasi – xalq hokimiyati institutlariga izchil ta'sir ko'rsatishdir. O'z siyosati bilan ular hokimiyat tuzilmasini yaratishda ishtirok etadilar, ularni qo'llab-quvvatlaydilar yoki vayron qiladilar. Jamiyat rivojlanishining inqirozli davrlarida siyosatning asosiy vazifasi – hokimiyat uchun kurashish va uni turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida taqsimlashdan iborat. Shunday qilib, siyosat boshqaruvchilar va boshqariluvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqa shakli sifatida amal qiladi. Davlat va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyati huquq bilan, shuningdek jamiyatda hukm suruvchi odatlar va an'analar bilan tartibga solinadi.

Siyosat – ongli yoki stixiyali harakatlar sohasi. U ijtimoiy guruhlar o'z manfaatlarini, hokimiyat esa – o'z siyosiy vazifasini anglab yetishini nazarda tutadi. Siyosiy jarayon mazmuni va yo'nalishi asosan fuqarolarning siyosiy mentaliteti bilan belgilanadi. Shu sababli siyosiy ong siyosiy tizimning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U fuqarolarning hokimiyat institutlari bir-biri bilan jamiyat va davlatni boshqarishda o'z ishtirokiga doir aloqalari haqidagi hissiy va oqilona, qadriyatlarga doir va normativ, oqilona va intiutiv tasavvurlarini qamrab oladi. U fuqaro o'zining muayyan guruhga mansubligini va bundan kelib chiqadigan manfaatlarini anglab yetishini, hokimiyatga, o'z fuqarolik maqomiga, o'z huquqlari, erkinliklari va burchlariga nisbatan siyosiy nuqtayi nazarini anglab yetishini nazarda tutadi.

Siyosiy ong ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini va ularning ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari tizimidagi ahamiyatini anglash sifatida mafkurani o'z ichiga oladi. Siyosiy mafkura nazariy, dasturiy-siyosiy va empirik darajalardan tarkib topadi. Xususan, empirik daraja jamiyatning ayrim guruhlarini siyosiy dasturlarni qay darajada o'zlashtirganini tavsiflaydi. Siyosiy psixologiya siyosiy ong elementi sifatida ommaning siyosiy xulq-atvorini, ularning kayfiyati, mo'ljallari va odatlarini tavsiflaydi. Ijtimoiy guruhlarining siyosiy psixologiyasi ommaning siyosiy xulq-atvorida onglilik va stixiyalilikning, oqilona va nooqilona harakatlarning o'zaro nisbati bilan ajralib turadi.

Siyosiy ong ommaning siyosiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U stixiyali tarzda ham va izchil shakllanishi mumkin. Shu sababli davlat o'z vazifalariga mos keladigan siyosiy ong shakllanishidan manfaatdor. Siyosiy ongning shakllanishida ommaviy axborot vositalari ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Ular «to'rtinchi hokimiyat» deb nomlanishi bejiz emas.

Kommunikatsiya – siyosiy tizimning zaruriy elementi. U, birinchidan, siyosiy tizim institutlari o'rtasidagi aloqa vositalarini, ikkinchidan, hukumatga axborot uzatish yo'llarini, uchinchidan, ommaviy axborot vositalarini o'z ichiga oladi. Mazkur axborot tizimlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Ommaviy axborot vositalari nafaqat aholiga axborot beradi, balki hokimiyat vakillari, partiyalar va harakatlarning u yoki bu siyosiy bayonotlarini sharhlaydi, ularga baho beradi, informatsion materiallarni tegishli tarzda saralaydi, fuqarolarning kayfiyati va siyosiy mo'ljallarini shakllantiradi. Umuman olganda, siyosiy tizim ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. U o'z vazifalarini bajarish uchun nafaqat o'zining huquq va davlat majburlovi institutlaridan foydalanadi, balki jamiyatda vujudga kelgan qadriyatlar va me'yorlar tizimiga tayanadigan va o'z fuqarolarining siyosiy va huquqiy ongini shakllantiradigan ishontirish vositalarini ham ishga soladi.

**Ijtimoiy hayotning asoslari.** Jamiyatning yuqorida sanab o'tilgan kichik tizimlari o'ziga xos vazifalarni bajaradi va bir-biri bilan aloqa qiladi. Shu o'rinda savol tug'iladi: ularning o'rtasida belgilovchi va belgilanuvchi muayyan ierarxiya mavjudmi? Jamiyat – yaxlit tuzilma va har bir mamlakat betakror tarzda o'ziga xos, o'zining betakror tarixi va madaniyatiga ega. Bu tarqoq ijtimoiy kichik tizimlarni muayyan birlikka birlashtiradigan omillar mavjudligini nazarda tutadi.

Markscha falsafa nuqtayi nazaridan moddiy ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarish vositalariga nisbatan mulkdorlik shakllariga asoslanadigan ishlab chiqarish munosabatlari tizim tashkil etuvchi omil sifatida qaraladi. Hozirgi vaqtda G'arbdagi texnokratik oqim faylasuflari jamiyatning rivojlanish darajasini tavsiflovchi asos sifatida texnikaning rolini mutlaqlashtiradi. Hozirgi zamon falsafasida yetakchilik qiladigan qarashga muvofiq jamiyatning yaxlit tavsifi sivilizatsiya va madaniyat tushunchalarida beriladi.

## **Fuqarolik jamiyati, davlat, demokratiya**

Hozirgi zamon jamiyati o'ta murakkab va faol ijtimoiy tizimdir. Umuman olganda, uni quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan jamiyat sifatida tavsiflash mumkin:

- u spontan tarzda vujudga keladi va biron-bir boshlang'ich g'oyani o'zida mujassamlashtirmaydi, jamiyatning barcha a'zolari uchun muqarrar bo'lgan olamshumul maqsadga ega bo'lmaydi;

- u o'z hayotining barcha tomonlarini yagona markazdan nazorat qilmaydi;

- unda muvofiqlashtirishga muayyan umumiy maqsad va yagona markazga bo'ysunish hisobiga emas, balki xulq-atvor umumiy qoidalariga rioya etish hisobiga erishiladi;

- mazkur jamiyatning iqtisodiy asosini xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik, markazlashtirishdan chiqarilgan bozor tizimi tashkil etadi;

- uning individlari erkin va mustaqil bo'lib, qonun bilan muhofaza etiladigan shaxsiy hayot sohasiga egadirlar, bu hayot doirasida ular o'zlari istagan har qanday qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilishga haqlidirlar;

- Individlarning shak-shubhasiz va uzviy fundamental huquqlar va erkinliklarga, shu jumladan fikrlash va so'z erkinligi, uyushmalar va tashkilotlar tuzish erkinligi, vijdon erkinligi, bir joydan boshqa joyga ko'chib yurish erkinligi, o'zi istiqomat qiladigan mamlakatni tanlash erkinligiga egadirlar;

- bu ko'ppartiyaviy jamiyat bo'lib, unda siyosiy partiyalar hech qanday bevosita ommaviy-hokimiyat vakolatlariga ega emaslar;

- davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakillik organlari aholi tomonidan saylanadi;

- hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari bir-biridan ajratilgan.

Zamonaviy jamiyatning umumiy tavsifida quyidagi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi: fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, ko'ppartiyaviylik, demokratiya, hokimiyatning bo'linishi, xususiy mulk, bozor, shaxs erkinligi va suvereniteti.

Fuqarolik jamiyati – davlat hokimiyati organlarining to'g'ridan-to'g'ri aralashuvidan qonunlar bilan muhofaza etilgan ixtiyoriy uyushmalar va tashkilotlar majmui.

Zamonaviy fuqarolik jamiyatda davlat odamlarning shaxsiy hayotiga aralashmaydi, ularni yagona mafkura va qadriyatlar yagona tizimini qabul qilishga majburlamaydi. Kishilarning rang-barang manfaatlari ularning hamkorlikdagi harakatlari orqali ro'yobga chiqariladi, bunga erishish uchun ular davlat oldida hisobdor bo'lmagan ixtiyoriy birlashmalar va uyushmalarga birlashadilar. Odamlarning manfaatlarini aks ettiradigan nodavlat, nohukumat tashkilotlari fuqarolik jamiyatini tashkil etadi. Ular rasmiy statistikaga kirmaydi va ularning hisobini yuritish ancha qiyin ish. Chunonchi, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, AQShda yuz minglab bunday tashkilotlar faoliyati 25 mingdan ortiq xayriya fondlaridan mablag' bilan ta'minlanadi. Norvegiyada bu mamlakat fuqarosi hisoblangan har olti kishidan biriga bitta nohukumat tashkiloti to'g'ri keladi.

XIX asr frantsuz sotsiologi A.de Tokvil Amerikada demokratiyani qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy sharoitlar to'g'risida mulohaza yuritarkan, amerikaliklarning fuqarolik va siyosiy tashkilotlar tuzishga bo'lgan moyilligiga alohida e'tiborni qaratgan: «Turli yosh, mavqe va qiziqishlarga ega bo'lgan amerikaliklar turli xil uyushmalarga ixtiyoriy ravishda birlashadilar. Bular tijorat yoki ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan, amerikaliklarning barchasi ishtirok etadigan birlashmalargina emas, balki boshqa xil turdagi minglab birlashmalar: diniy-ma'naviy uyushmalar, jiddiy va ahamiyatsiz, ochiq va berk, ko'p kishilik va atigi bir nechta a'zodan iborat birlashmalardir. Shunday qilib, odamlar o'zlarining umumiy xohish-istaklariga muvofiq bo'lgan maqsadga bahamjihat erishish san'atida oliy barkamollikka erishdilar va jamoa harakatining mazkur usulini boshqalarga qaraganda ko'proq qo'llay boshladilar».

Fuqarolarning birlashmalari o'z a'zolarida hamkorlik, hamjihatlik va jamiyatga sadoqat tuyg'ulari rivojlanishiga ko'maklashadi. Keng maqsadli guruhga ixtiyoriy qo'shiladigan individlar nafaqat hamjihatlik ko'nikmalarini va jamoaviy harakatlar uchun fuqarolik mas'uliyati hissini kasb etadilar, balki o'zini o'zi boshqarish, sabr-toqatlilikni va boshqalar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar.

Davlat doim fuqarolar hayotining barcha tomonlarini o'z nazorati ostiga olishga, ularning tartibga solinmagan faoliyati doirasini toraytirishga, ularni bir-biridan ajratish va tarqatishga harakat qiladi. Fuqarolik jamiyati davlatga o'z faoliyat sohasini kengaytirish va uni kishilarning axloqiy, ma'naviy, diniy, milliy va

boshqa munosabatlariga tatbiq etishga yo'l qo'ymaydi. Davlatning fuqarolik jamiyatini «yutib yuborishi» totalitarizmga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir.

Fuqarolik jamiyati davlatga muttasil ta'sir ko'rsatadi. Bu shunday bir ta'sirki, usiz davlat o'z vakolatlari doirasini toraytirishga hech qachon bormaydi. Davlatga fuqarolik jamiyati ta'sirining bosh mexanizmi demokratiya (yunon. «demos» - xalq va «kratos» - hokimiyat) – vaqti-vaqti bilan boshqariluvchilar boshqaruvchilarga o'z hukmini o'tkazishidir. Davlat va fuqarolik jamiyatining bu qarama-qarshiligi va ayni vaqtda o'zaro bog'liqligi erkinlikning muhim shartidir.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining shakllanishi demokratik o'zgarishlarning negizidir. Kishilarni ijtimoiy tartibni ixtiyoriy ravishda, cho'chimasdan qabul qilishga majbur etadigan sharoitlar faqat fuqarolik jamiyatida mavjuddir.

Siyosiy erkinlik – fuqaroning davlatni boshqarishda ishtirok etish huquqi. Bu erkinlik faqat demokratiya sharoitida, ya'ni hamma o'z xohish-irodasini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lgan sharoitlarda ro'yobga chiqarilishi mumkin. «Formal demokratiya, ya'ni erkin, teng huquqli va yashirin ovoz berish huquqi erkinlikning kafolati emas, balki aksincha, unga tahdiddir», deb yozadi K.Yaspers.

Demokratiya mexanizmi samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy shartlaridan biri qonunga zid aralashuvlardan muhofaza etilgan barqaror fuqarolik jamiyatining mavjudligidir. Shunday shartlardan yana biri huquqiy davlat - qonunlar faqat huquqiy yo'l bilan qabul qilinadigan va hammaga teng tatbiq etiladigan davlatdir. Bunday davlat insonni zo'ravonlikdan himoya qilish orqali unga o'z qarashlari va xohish-irodasini ifoda etish yoki demokratiya uchun imkoniyat yaratadi.

Demokratiya ochiq va hech narsa bilan cheklanmagan bahsmunozara imkoniyatini nazarda tutadi. Bunga erishish uchun matbuot va yig'ilishlarda, so'z erkinligi talab etiladi. Demokratiya siyosiy partiyalar mavjudligini ham talab qiladi.

Demokratiyaning samaradorligini ta'minlashning yana bir muhim sharti jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yuksak darajasiga erishishdir. So'nggi ikki yuz yillik mobaynida sanoat inqilobi g'arb jamiyati hayotining muhim omiliga aylandi. U shahar aholisi sezilarli darajada o'sishiga, sinfiy tuzilishning o'zgarishiga,

hayot andozalari, ta'lim va sog'liqni saqlash sezilarli darajada yuksalishiga olib keldi.

Demokratiya siyosatni iqtisoddan va dunyoqarashga oid muammolardan ajratishni, hokimiyatning bo'linishini, samarali faoliyat olib boradigan sud tizimini talab qiladi. Demokratiya erkin jamiyat qo'lida samarali qurol bo'lib qolishini belgilaydigan omillar ro'yxati u doim muayyan ijtimoiy kontekstda amalga oshirilishini va hokimiyatni saylovda g'alaba qozongan ko'pchilikka beradigan umumiy saylov huquqidangina iborat emasligini ko'rsatadi.

### **Sivilizatsiya tushunchasining tavsifi**

Sivilizatsiya (lot. civilis – fuqarolik, davlatga doir) atamasi har xil ma'noda ishlatiladi.

Birinchidan, sivilizatsiya – insoniyat rivojlanishida varvarlikdan keyin boshlangan va sinflar, davlat vujudga kelishi, urbanizatsiya va yozuv paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan tarixiy bosqich. Mazkur talqinda «tsivilizatsiya» atamasi «jamiyat» tushunchasi bilan qisman mos keladi va jamiyat hayotini tashkil etishning ijtimoiy shaklini tabiiy vujudga kelgan urug'doshlik shakllariga qarama-qarshi qo'yishga xizmat qiladi. Hozirgi adabiyotlarda «tsivilizatsiya» atamasi o'zining varvarlikka qarama-qarshi sifatidagi dastlabki ma'nosini saqlab qolmoqda.

Ikkinchidan, sivilizatsiya – barcha madaniyatlar yaxlitligining tavsifi, ularning umuminsoniy birligi sifatida («jahon sivilizatsiyasi», «ma'rifatli hayot tarzi» va sh.k.) namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, sivilizatsiya – «moddiy madaniyat» atamasining sinonimi sifatida: qulay narsa, texnika yaratadigan qulaylik (turar joy, ro'zg'or texnikasi, transport va aloqa, xizmatlar ko'rsatish va sh.k.)ni ifodalaydi.

To'rtinchidan, sivilizatsiya – tarixiy jarayon birligining tavsifi sifatida xarakterlanadi. Bu tushuncha ijtimoiy boylik rivojlanishi munosabati bilan tarixning muayyan bosqichlariga qiyosiy baho berish mezonini bo'lib xizmat qiladi. Ayni holda jamiyatning rivojlanishi «ma'rifatlilik», «tsivilizatsiya rivojlanishining quyi bosqichi», «tsivilizatsiyaning umumiy darajasi», «tsivilizatsiyaning oraliq bosqichlari» tushunchalari bilan tavsiflanadi. Ammo sivilizatsiyaning mazkur talqini to'liq emas, chunki uning rivojlanish darajasi yoki bosqichini aniqlash imkonini beradigan mezon yo'q.

Ibn Xaldun (1332-1406) o'z davrida birinchi bo'lib, sivilizatsiyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va tanazzuli haqida ilmiy asoslangan g'oyalarni ilgari suradi. Jumladan, madaniyatlar va davlatlarning paydo bo'lishi, yashashi va inqirozi muayyan tarixiy qonuniyat ekanligini, unga tabiiy geografik va iqtisodiy omillar, turmush tarzi va dunyoqarashlar jiddiy ta'sir ko'rsatishni asoslaydi.

XVIII asr o'rtalarida sivilizatsiya tushunchasidan inson «tabiiy» holatining ziddi sifatida foydalanilgan, sivilizatsiya taraqqiyotining mezoni sifatida esa ijtimoiy farovonlik g'oyasi turli ko'rinishlarda ilgari surilgan. Kant sivilizatsiya va madaniyat o'rtasida farq mavjudligini qayd etgan. Shpengler sivilizatsiyani madaniyatning rivojlanishidagi bir bosqich sifatida tavsiflab, bu farqni mutlaqlashtirgan. P.Sorokin, A.Toynbi sivilizatsiyani madaniyatning zavol topish bosqichi, madaniyatda mujassamlashgan tabiiy-hayotiy asosni siqib chiqaradigan texnik-mexanik elementlar saltanati sifatida tavsiflanadi.

XIX-XX asrlarda amalga oshirilgan etnografik tadqiqotlar sivilizatsiyaning mazmunini tushunishga muhim hissa qo'shdi. Ular turli xalqlar ma'naviy dunyosi, hayoti, odatlari, iqtisodiyoti va madaniyatining ulkan boyligi va rang-barangligini yoritib berdi. XIX asrning mashhur etnograflaridan biri Ch.Teylor madaniyat va sivilizatsiya odamlar tarix jarayonida o'zlashtiradigan bilimlar, e'tiqodlar, ma'naviy-axloqiy konsepsiyalar, yuridik qoidalar, odatlar va amaliy ko'nikmalar majmuini ifodalaydi, bu tushunchalar ayniydir degan xulosaga keldi.

Sivilizatsiya odamlar mavjudligi va ijtimoiyligining xususiyati va yo'nalishini belgilaydi. Ijtimoiy normalarning muhimligi ularni uzatishning tegishli usullari (kommunikatsiya vositalari)ni va ularni mustahkamlovchi institutlarni shakllantirishni taqozo etgan. Har bir sivilizatsiya ijtimoiy normalarda o'ziga xos ifodasini topgan ijtimoiy tajribani aniqlash, saqlash va avloddan-avlodga qoldirish alohida tizimini yaratgan. Jazolar tizimi, shuningdek jamoa, ommaviy ong shakli sifatida din va uning nomidan ish ko'ruvchi ijtimoiy institutlar ijtimoiy normalarni saqlash va ijro etish kafili hisoblangan. Din va cherkov ta'sirida sivilizatsiya qiyofa kasb etgan. Huquqiy normalarning tarmoqlangan tizimini o'z ichiga olgan davlatdan iborat oliy hokimiyat sivilizatsiyaning uni saqlashni kafolatlaydigan oliy birlashtiruvchi asos sifatida amal qilgan. Turli sivilizatsiyalar davlat



hokimiyatining turli: teokratik, tabaqaviy, huquqiy, siyosiy tizimlarini yaratgan.

Markaziy Osiyoda sivilizatsiya axloq shaklida yuzaga kelgan. U o'zida yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat o'rtasidagi kurashda yaxshilik va muhabbat g'alabasi bilan bog'liq ma'naviy axloqiy me'yorlarni mujassamlashtirgan. Inson mohiyatida aks etuvchi bu me'yorlar sharq sivilizatsiyasining asosini tashkil qilgan.

Ijtimoiy munosabatlar, odamlar faoliyati va xulq-atvorini tartibga soluvchi normalar universal tizimining ta'sirini o'rganish sivilizatsiyalarning rang-barangligini tushuntirish imkonini beradi. Ular, birinchidan, hukmron diniy va dunyoqarashga doir mo'ljallarining o'ziga xos xususiyatlari va ularning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayondagi o'rni; ikkinchidan, ularning texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasi; uchinchidan, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar sur'ati, shuningdek ularning manbalari, mexanizmlari va uyg'unlik darajasi bilan farq qiladi. Sivilizatsiyaning har bir tipi siyosiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari va o'z huquqiy qoidalarining xususiyati bilan tavsiflanadi. Sivilizatsiyalar axborotni kodlashtirish, saqlash va avloddan-avlodga qoldirish usullari bilan ham bir-biridan farq qiladi.

Jamiyatning sivilizatsion asoslari sivilizatsiyalar tipologiyasida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Bunda sivilizatsiyalarning yevropacha va noevropacha tiplarini farqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu farqlar shu darajada kattaki, yevropacha sivilizatsiya qadriyatlari uzoq vaqt oliy qadriyatlar sifatida tavsiflangan. Xo'sh, yevropacha va noevropacha sivilizatsiyalar o'rtasidagi farq nimada?

### **Sivilizatsiyalarning tiplari**

Noyevropacha sivilizatsiyalar (A.Toynbi tasnifiga ko'ra, bunday sivilizatsiyalar 21 ta). O'ziga xos va ayni vaqtda umumiy tipologik jihatlariga ega va yevropacha sivilizatsiyadan ancha oldin vujudga kelgan an'anaviy sivilizatsiyalardir. An'anaviy jamiyat juda sust rivojlanadi va mavjud hayot tarzini asrlar va hatto ming yilliklar osha saqlashga qodir. Noyevropacha sivilizatsiyalarning xo'jalik faoliyati qishloq xo'jalik-hunarmandchilik ishlab chiqarishi va texnologiyasining hukmronligiga asoslanadi.

An'anaviy sivilizatsiyaning ma'naviy sohasida diniy-mifologik tasavvurlar hukm suradi, ilmiy bilimlarning dastlabki shakllari asosan mavjud faoliyat turlari uchun retseptura vazifasini bajaradi. Noyevropacha sivilizatsiyalar evolyutsiyasi siklliligi va

o'ziga xos institutlar va normalarga ega bo'lgan davlat vaqti-vaqti bilan dam kuchayib, dam zaiflashib turishi bilan tavsiflanadi. Bunday jamiyat halokati sivilizatsiya tipini o'zgartirmaydi, u ijtimoiy vorisiylik mexanizmlari yordamida avloddan-avlodga o'tadi.

Yevropacha sivilizatsiya ijtimoiy va madaniy rivojlanishning alohida tipi bo'lib, u Yevropada taxminan XV-XVII asrlarda shakllangan. Uning o'tmishdoshlari antik dunyo madaniyatlari va Yevropa xristiancha an'anasidir. Uyg'onish davrida bu ikki an'ana sintezi texnogen sivilizatsiyaning teran o'ziga xosligini va uning texnika va texnologiya jadal sur'atlarda rivojlanishini, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar tubdan o'zgarishini ta'minlagan madaniyatini shakllantirdi. Uning zamirida huquqiy davlatning vujudga kelishi, shaxs o'z tashabbuskorligi, faolligi va mustaqilligi bilan oliy qadriyat sifatida ijtimoiy hayot markazidan o'rin olishi yotadi. Odamlar o'rtasida muloqotning faollashuvi va samarali kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi texnogen sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Madaniyatda ilmiy oqilonalik alohida o'ziga xos qadriyat sifatida amal qiladi. Inson tabiatni faol va oqilona tarzda o'zgartirishiga imkoniyat yaratgan qonunlarning kashf etilishi fanning ustunligini tasdiqlaydi. Unda yangilik va unumdorlik, biluvchi sub'ektning bilimi, erkinligi va mustaqilligini tinimsiz oshirish talablari shakllanadi.

Sivilizatsiyaning «yevropacha» va «noyevropacha» tiplari umumiy, muhim, jins bildiruvchi belgilarni qamrab oladi. Mazkur tiplar doirasida mavjud turga oid farqlar pirovard natijada jahon tarixida yevropacha sivilizatsiyaning betakrorligini e'tirof etish bilan bog'liq. Ayrim mutaxassislar fikriga ko'ra, u an'anaviy jamiyat madaniyatining mutatsiyasi natijasida vujudga kelgan va insoniyat tarixida uning o'xshashi mavjud emas. Shunga qaramay sivilizatsiyalar tipologiyasi yevropacha va noyevropacha rivojlanish xususiyatlari bilan cheklanmaydi, chunki insoniyat tarixida ozmi-ko'pmi o'xshash bo'lgan ko'p sonli sivilizatsiyalar mavjud. Jumladan: madaniy-tarixiy birlik belgisiga ko'ra G'arbiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlari, shuningdek yevropacha sivilizatsiyaga mansub bo'lgan, lekin o'z madaniyatining xususiyatiga ko'ra farqlanadi AQSh va Kanada sivilizatsiyasi farqlanadi.

Vujudga kelish va halok bo'lish davriga ko'ra hozirgi zamon sivilizatsiyalari va o'lik sivilizatsiyalar (masalan, meksika, xaldeylar yoki qadimgi somiyalar sivilizatsiyasi) farqlanadi.

Sivilizatsiyalar tipologiyasida madaniy-diniy birlik belgisi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. A.Toynbi tasnifiga ko'ra hozirgi vaqtda G'arb-xristian, pravoslav-xristian, islom, hind, Uzoq Sharq sivilizatsiyalari mavjud.

O.Toffler, D.Bell, K.Pekka ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini tasniflash uchun asos qilib olib, quyidagi sivilizatsiyalarni farqlaydilar:

- ilk sivilizatsiya (arxaik, an'anaviy yoki ibtidoiy jamoa);
- qishloq xo'jalik-hunarmandchilik sivilizatsiyasi;
- industrial (sanoatlashgan) sivilizatsiya;
- hozirgi postindustrial yoki informatsion sivilizatsiya.

Ijtimoiy-siyosiy hayot xususiyatiga ko'ra an'anaviy, liberal va oraliq sivilizatsiyalar farqlanadi.

An'anaviy sivilizatsiyalar ijtimoiy hayotning vahshiylikka chek qo'yish bilan bog'liq dastlabki shaklidan iborat. Bular barcha a'zolari bevosita emotsional muloqot jarayonida bo'lgan nisbatan kichkina lokal hamjamiyatlardir. Ular jamoa qadriyatlarining ustunligi, qabila oqsoqollariga nisbatan hurmat, o'tmishga qarab mo'ljal olishga asoslangan. An'anaviy sivilizatsiyaning o'ziga xos jihatlari – past malakali, lekin ancha keng byurokrtiyaga tayanuvchi jabra-zulmga asoslangan hokimiyat, tabaqalarning huquqsizligi, jamoaviy tuzilma, huquqning norasoligi, individning kamsitilishi kabilardir.

Liberal sivilizatsiya yoki G'arb sivilizatsiyasi madaniy va siyosiy plyuralizm hamda jamiyatning asosiy qadriyati – huquq tizimining vujudga kelishi bilan bog'liq. Uning ildizlari xususiy mulk va erkin bozor hukm surgan davrda vujudga kelgan antik sivilizatsiyaga borib taqaladi. O'z navbatida, bozor va xususiy mulk individ uchun kafolatlarni, mulkdor imtiyozlarini, mulkdorlar guruhining ma'muriyatdan ustunligini, shaxs erkinligi va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish tamoyillarini o'z ichiga olgan huquqiy tamoyillar va institutlar tizimi vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Oraliq sivilizatsiya yoki o'tish davri sivilizatsiyasi ulkan inshootlar (to'g'onlar, kanallar va sh.k.) barpo etish, yangi hududlarni bosib olish yoki o'z hududini tashqi dushmandan himoya qilish (masalan, Buyuk Xitoy devori) zaruriyati tufayli vujudga keladi.

Natijada an'analari va qadriyatlariga ko'ra har xil lokal hamjamiyatlarning mexanik birlashuvi yuz beradi. Mazkur birlashuv rasmiy xususiyat kasb etadi va idrok etish ancha qiyin bo'lgan normativ-huquqiy qoidalarga muvofiq va jamiyatni tashkil etishning lokal hamjamiyatlar ko'nikkan hayot tarziga zid bo'lgan shakllarida amalga oshiriladi. Aksariyat hollarda jamiyatni birlashtirish vazifasi davlat tomonidan va asosan kuch ishlatish yo'li bilan hal qilinadi. Ayni shu sababli normalar tizimi asosan birlashtiruvchi mexanizm sifatidagi davlat ehtiyojlarini aks ettiradi. Bundan o'tish davri sivilizatsiyalariga xos bo'lgan huquqiy nigilizm kelib chiqadi. Davlat qadriyatlari va lokal hamjamiyatlarning qadriyatlari asosan bir-biriga zid bo'lgani bois ularning o'rtasida to'qnashuv yuz berishi mumkin. Qattiq davlat intizomi, ko'p sonli soliqlar to'lash, amaldorlarning o'zboshimchaligi, urushlarda ishtirok etish zaruriyati kabi davlatning bu talablari aholining aksariyat qismida norozilik uyg'otadi.

Shunday qilib, jamiyatning muhim xususiyatlari ijtimoiy hayotni tashkil etishning keng ko'lamli shakli sanalgan sivilizatsiyaga asoslanadi. Sivilizatsiyalar vaqtda va makonda o'ta barqaror bo'ladi, individlar va ijtimoiy guruhlarning aloqalarini tartibga soladigan va jamiyatning moddiy asoslarini ham, ma'naviy asoslarini ham belgilaydigan umumiy normalarga asoslanadi. Ular madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning umumiy shakllarini yaratib, jamiyat hayotining tizim tashkil etadigan muhim asosi sifatida amal qiladi. Sivilizatsiya – avlodlar vorisiyiligini ta'minlovchi tarixiy tajriba manbaidir. Sivilizatsiya ijtimoiy hayotning barcha omillarini: madaniyat va madaniyatsizlikni, yutuqlar va kamchiliklarni o'zida birlashtiradi. Ma'lumki, jamiyat rivojlanishiga qarab uning normalari eskirib boradi. Ular mazkur sotsiumning o'zgargan yashash sharoitlari bilan to'qnashib, uning mavjudligiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid soladi. Ammo muhimi shundaki, normalar o'z holicha jamiyatning saqlanishini kafolatlamaydi, ular mazkur normalarga amal qilishga, ulardan o'z faoliyatida foydalanishga, ularni o'ziga xos tarzda talqin qilishga qodir bo'lgan odamlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu sababli madaniyat sivilizatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

### **Madaniyat, uning tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari**

«Madaniyat» atamasi arabcha «madina» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «shahar» degan ma'noni anglatadi. Arablar kishilar hayotini ikki turga ajratib, birini badaviy yoki sahroyi turmush,

ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Tugab borayotgan Rim imperiyasida, keyinchalik esa O'rta asrlarda ham madaniyat tushunchasi shahardagi turmush tarzi va sivilizatsiya ne'matlari bilan bog'langan.

Markaziy Osiyoda madaniyat axloq ko'rinishida shakllangan. Shu bois, eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha ham yurtimizda ma'naviy madaniyat, go'zallikka intilish, san'atni qadrlash kabilar ustuvorlik qiladi. Uyg'onish davrida madaniyat shaxsiy barkamollik belgisi sifatida qaralgan. Shu davrda madaniyatni ma'naviy faoliyatning turli sohalari: vujudga kelayotgan din, axloq, san'at, falsafa, fan bilan bog'lash odati paydo bo'lgan. Madaniyat xulq-atvor andozalari majmui, ma'naviy faoliyat antik an'anasining davomi sifatida e'tirof etilgan. Shu ma'noda madaniyat tushunchasi ijtimoiy-ilmii muomaladan o'rin olgan XVIII asrgacha amal qilgan.

Ma'rifat davri faylasuflari madaniyatga inson faoliyatining alohida mustaqil va o'ziga xos jabhasi sifatida qaraydilar. Ularning talqinida jamiyat va shaxs hayotining barcha sohalarida aql, oqilonalik tamoyillarining qaror topishi madaniyatning eng muhim jihatidir. Aqlning vazifasi insoniyat oldiga umumiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarni qo'yish va ijtimoiy o'zgarishlarni o'ziga bo'ysundirishdan iborat. Ma'rifat davrida madaniyat deb hisoblash mumkin bo'lgan narsalarni saralash mezonlari yaratildi. Madaniy faoliyat intellektual, ijodiy, samarali, novatorlik ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi, ya'ni nafaqat yaratishi, balki inson imkoniyatlari sohasini tinimsiz kengaytirishi lozim edi. Ammo madaniyatning asl mohiyati, uning o'ziga xosligi inson aqlining mutlaq erkinligi sifatidagi ma'naviy faoliyat doirasi bilangina cheklanardi.

Kant ko'nikma madaniyatini va intizom madaniyatini farqlaydi. Ko'nikma maqsadlarga erishish qobiliyatini, intizom esa – oqilona maqsadlar qo'yish va inson irodasini oqilona yo'l tanlash imkoniyatidan mahrum qiladigan mayllar tutqunidan xalos etishni nazarda tutadi. Kant madaniyat tushunchasini fan va san'at doirasi bilan cheklaydi. Fanda aql-idrokning qonunchilik kuchi, san'atda – tasavvurning mahsuldor kuchi jamlanadi. Ular ob'ektiv bilim va sub'ektiv sezgi kabi bir-biriga ziddir. Shunga qaramay Kant fan va san'at munosabatlariga bir-birini to'ldiruvchi munosabatlar sifatida qaraydi.

XIX asrda madaniyatga avvalo u yoki bu tipdagi jamiyat hayoti va uning o'z-o'zini tashkil etishidagi rolga ko'ra farqlanadigan qadriyatlar va g'oyalar tizimi sifatida yondashila boshlandi. Gegel madaniyatga mutlaq g'oya o'z-o'zini anglab yetishining boshlang'ich va yakunlovchi (falsafa) bo'g'ini sifatida qaraydi. Gegelning bu nazariyasi XIX-XX asrlarning madaniyatga doir bir qator konsepsiyalarida tanqid qilinadi. Jumladan, «lokal sivilizatsiyalar» konsepsiyasida Shpengler xalqlar madaniyatiga o'z rivojlanish jarayonida vujudga kelish, ravnaq topish, tanazzulga uchrash va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadigan berk, betakror organizmlar sifatida qaraydi. Shpengler tarixiy jarayonning o'ziga xos uzlukliligi dalilidan madaniyatlarning ko'p sonliligi g'oyasini keltirib chiqaradi.

XX asrda madaniyat asosan etnografiya va ijtimoiy antropologiya doirasida o'rganiladi. XX asrning ikkinchi yarmida madaniyatning kommunikativ xossalari haqidagi tasavvurlar rivojlandi, uning germenevtik talqini keng tarqaladi. Bu esa madaniyatning tuzilishi va xususiyatlarini o'rganish uchun asos sifatida tilga qiziqish kuchayishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, tarixiy jarayonda shakllangan madaniyatga doir konsepsiyalarda uning muhim xususiyatlariga tavsif beriladi. Madaniyatning hozirgi talqini mazkur tavsiflarni o'z ichiga oladi. Madaniyat tushunchasining mazmuni moddiy va ma'naviy qadriyatlar, ularni yaratish, ajdodlar tajribasini o'zlashtirib, undan yangi qadriyatlar yaratish uchun foydalanishga qodir bo'lgan insonni shakllantirish usullari tizimidan iborat. Madaniyat yaxlit bo'lib, ancha murakkab tuzilishga ega. Uning elementlari turli asoslarga ko'ra farqlanadi. Har qanday madaniyat:

- barqaror elementlar, ya'ni madaniy universalialarni;
- muayyan tarixiy sharoitda vujudga keladigan va yo'q bo'lib ketadigan o'tkinchi elementlarni o'z ichiga oladi.

### **Madaniy universalialar**

Madaniy universalialar ijtimoiy hayotning barcha umuminsoniy shakllari, chunonchi: ijtimoiy ishlab chiqarish, mehnat va o'yin, dam olish va muloqot, jamoat tartibi va boshqaruv, ta'lim va tarbiya, ma'naviy hayot (huquqiy va axloqiy ong, san'at, din va h.k.) kabilarni qamrab oladi. Ular tabiiy muhitni o'zgartirish borasidagi faoliyat sifatida va yangi narsani bunyod etish shakli sifatida vujudga keladi. Elementar madaniyat universalialari: o'z badanini parvarish qilish,

bolalarni tarbiyalash, ovqat tayyorlash, turar joyni yig'ishtirish, o'lganlarni dafn etish va hokazolarda ham mavjud. Hayot faoliyatining mazkur shakllari barcha ma'rifatli jamiyatlarning hayot tarziga ularning butun tarixi mobaynida betakror tarzda xosdir.

Tarixan madaniyatning o'tkinchi elementlari jamiyat evolyutsiyasi jarayonida vujudga keladigan va yo'q bo'lib ketadigan muayyan tipdagi madaniyatlarga xos. Madaniyat tipi o'z ijtimoiy-psixologik zamini, aholi mentaliteti, uni vujudga keltirgan sivilizatsiya bilan uzviydir. Madaniyat tipiga xos bo'lgan hayot tarzi, qadriyatlarga munosabat an'analarning vorisiyiligi bilan quvvatlanadi. Madaniyatda yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar zaruriyat taqozosi bilan yoki tasodifan paydo bo'ladigan yangi xossalarning o'zlashtirilishi bilan belgilanadi. Muayyan tipdagi madaniyat rang-barang hodisalari keng doirasining ichki birligi uni boshqa madaniyat tiplaridan farqlash imkonini beradigan ramzlar apparatida (tilda va mantiqiy amallarda, ruhiy stereotiplar va badiiy stilistikada, rasm-rusumlar va muomala odobida) namoyan bo'ladi.

Antik davr, O'rta asrlar, Uyg'onish davri va hokazolar madaniyati jamiyat, shu jumladan ayrim xalqlar tarixining turli bosqichlariga mos keladigan madaniyatning muayyan-tarixiy tiplaridir. O'z navbatida, madaniyatning muayyan-tarixiy tipi kichik madaniyatlarni, ya'ni madaniyatning etnik, mintaqaviy yoki diniy o'ziga xoslik bilan belgilangan qismlarini o'z ichiga oladi.

### **Madaniyatning ichki tuzilishi**

Har qanday madaniyatning ichki tuzilishi uning amal qilish xususiyatlari bilan belgilanadi. Madaniyatning borlig'i insoniyat tajribasini o'zida mujssamlashtirgan alohida madaniy predmetlilikni yaratuvchi sub'ektning o'ziga xos faoliyati bilan ta'minlanadi. Shundan kelib chiqib madaniyatning quyidagi muhim elementlarini farqlash mumkin: - madaniyat sub'ekti; - inson faoliyati; - madaniy predmetlilik; - madaniyatning asosiy funksiyasi – ajdodlar ma'naviy tajribasini saqlash, avloddan-avlodga o'tkazish va o'zlashtirishni amalga oshirish bilan bog'liq odamlar o'rtasidagi aloqalar.

Madaniyat sub'ekti – individ (shaxs), ijtimoiy guruh yoki jamiyat. Madaniyat inson imkoniyatlarini, uning qobiliyatlari, bilim va ko'nikmalarini ro'yobga chiqarish sifatidagina shakllanadi va amal qiladi. U insonning ijtimoiy fazilatlarini, aqli, irodasi, intilishlari, boshqa kishilarga va o'z-o'ziga, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabati-

ning yaxlit tavsifini aks ettiradi. Madaniyat – insonning ruhlantirilgan faoliyati; u insonning bilish qobiliyati, bilimi, estetik didi, irodasi, barkamollik va go'zallik idealiga muvofiq bo'lgan ijod qilish qobiliyatining rivojlanish darajasini tavsiflaydi. Ammo madaniyatli odamning bosh omili axloqiylik hisoblanadi.

Madaniyat sub'ekti ayrim individ yoki ijtimoiy guruh bo'lgani bois gruppaviy va individual madaniyatning turli-tuman shakllari farqlanadi. Gruppaviy madaniyat deganda milliy madaniyat, manzilgoh (kichik, katta shahar yoki megapolis, qishloq, shaharcha) madaniyati; sinf, kasbiy guruh va hokazolar madaniyati tushuniladi. Gruppaviy madaniyat muayyan omillar ta'sirida o'zgaradi, uning yangi shakllari vujudga keladi. Masalan, hozirgi zamon jamiyatida ommaviy madaniyat va elitar madaniyat alohida o'rin egallaydi.

Elitar madaniyat shaxsiy asosni izlash va qaror topdirish sifatida amal qiladi. U jiddiy, murakkab, o'ziga xos bo'lib, novatorlik xususiyatini kasb etadi. Uning mahsuloti jamiyatning novatorlarcha izlanishlarni tushunish va baholashga qodir bo'lgan intellektual elitasi uchun mo'ljallangan. Ommaviy madaniyat vujudga kelishiga ommaviy axborot vositalari – gazetalar, ommabop jurnallar, radio, ovoz yozish, kinematograf, televideniye, magnitli va videomagnitli yozish vositalarining rivojlanishi zamin hozirladi.

Individual madaniyat – insonning ijtimoiyligi mezon. Inson qanday bo'lsa, uning madaniyati ham shunday bo'ladi. U madaniyat darajasi, uning mavjudligi yoki mavjud emasligi tushunchalari bilan tavsiflanadi. Individual madaniyat u yoki bu darajada tizimli xususiyat kasb etishi mumkin, shuningdek u ko'p sonli tasodifiy tarqoq omillar ta'sirida shakllanishi ham mumkin. Inson – nafaqat madaniyat mahsuli, balki uning bunyodkori hamdir. U jamiyatning oliy qadriyatlarini o'zlashtirgani va ro'yobga chiqargani, ularni o'zining ichki ma'naviy boyligiga aylantirgani uchungina madaniyatli hisoblanadi. Inson haqida uning madaniyat haqidagi fikrlariga qarab emas, balki u mazkur tasavvurlarni qanday amalga oshirishiga qarab xulosa chiqarish mumkin. Madaniyat inson faoliyatida amalga oshirilgan, gavdalanantirilgan individual va ijtimoiy ong, ideallar va didlar, axloqiy va siyosiy mo'ljallardir. Shu sababli madaniyatning muhim elementi madaniy faoliyat hisoblanadi.



## Madaniy faoliyat

Madaniy faoliyat faqat insonga xos faoliyat usuli bo'lib, uni amalga oshirish jarayonida odamzot o'zi yaratayotgan narsalarga ruh baxsh etadi, tabiatni, o'zi yashaydigan muhitni insoniylashtiradi. Madaniy faoliyat ongli ravishda amalga oshadi. Unda me'yorlarga rioya qilish va ularda nisbatan mustaqillik, maqsadga muvofiqlik ifodasini topadi. Madaniy faoliyat umuminsoniy ideallar va qadriyatlarni etnik yoki mintaqaviy shaklda aks ettiradi. Madaniyat jabhasida inson faoliyati uning ehtiyojlari bilan belgilanadi, lekin faqat ularga bog'liq bo'lmaydi. Unda maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan elementlar ham, ortiqcha unsurlar ham mavjud. Ortiqchalik tushunchasi madaniyat hodisalarida ularning ma'naviy mazmunini amalda gavdalantirish uchun talab etiladigan vositalarning zarur darajasidan ortiqroq elementlar mavjudligini anglatadi. Madaniyatda utilitar maqsadga muvofiqlik mezoni bilan o'lchash mumkin bo'lmagan muhim qadriyatlar yaratiladi. Garchi madaniyat biologik, fizik, ijtimoiy, texnik-iqtisodiy va boshqa shunga o'xshash omillarga ta'sirchan bo'lsa-da, ular madaniyatda o'zining ko'p ma'noli ifodasini topadi. Bu madaniyatda erkinlik hamda butunlay yangi predmetlilikni yaratish imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Madaniyatning o'ziga xosligi shu bilan izohlanadiki, u teran shaxsiy mazmun kasb etadigan sub'ektiv taassurotlar uyg'otadi. U hatto insonning oddiy madaniy universalialarga muvofiq qondiriladigan tabiiy ehtiyojlari darajasida ham namoyon bo'ladi. Madaniyat inson ehtiyojlarini ruhlantiradi, ularga estetik tus beradi, aksariyat hollarda tabiiy ehtiyojning o'zidan ancha uzoq bo'lgan ramz-alamatlar bilan qurshab oladi.

Madaniyat – ehtiyojlarni qondirishning o'ziga xos insoniy usuli. Madaniyat me'yorlaridan chetga chiqish madaniyatsizlik belgisi hisoblanadi.

Madaniyat ijodiy, an'anaviy va novatorlik faoliyati bilan birlikdagina samarali rivojlanadi. Har qanday madaniy hodisaning ahamiyati, uning mazmuni ob'ektiv, sub'ektivga oldindan belgilanganidir, chunki yangi avlod madaniyat hodisalariga tayyor holda duch keladi. Shu ma'noda madaniy faoliyat reproduktiv xususiyat kasb etadi. Madaniy faoliyat ijod, yangini yaratish sohasi hisoblanadi. Madaniyat jabhasida novatorlik izlanishlari turli shakllarda amalga oshiriladi.

Madaniy faoliyat ehtiyojlar bilangina cheklanmaydi, chunki u motivlar, ideallar, qadriyatlar, ya'ni ma'naviy mo'ljalalar bilan tartibga solinadi. Ular insonni o'z harakatlarida nafaqat ehtiyojlarni, balki o'zi o'zgartirayotgan predmetning xususiyatlarini ham hisobga olishga da'vat etadi. Masalan, hayvon tabiatni faqat iste'mol qiladi, inson har qanday predmetda nafaqat o'z maqsadini, balki uning alohida xossalarni ham ko'radi. Tabiatga iste'molchilik nuqtayi nazaridan yondashish insonning yovvoyilashuvi, varvarlashuvi belgisidir.

### **Ommaviy madaniyat shakllanishining tarixi**

Uchinchi ming yillik davlatlararo, shaxslararo munosabatlarining murakkablashuvi, bir tomondan, jamiyat ma'naviy madaniyatining yuksalishi va ikkinchi tomondan uning tanazzulga yuz tutishi bilan boshlandi. Dunyo olimlari va davlat rahbarlari inson kamoloti omillari haqida fikr yuritir ekan, albatta ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirini eslashi odatga aylandi. Masalan, XX asr oxirida YUNESKO komissiyasining majlisida "Ommaviy madaniyat va ommaviy kommunikatsiya ikki asr oralig'idagi hodisa. Iqtisodiy nuqtayi nazardan ularning shakllanishi yirik sanoat rivojlanishi oqibatida madaniyat sohasidagi o'zgarishlarda namoyon bo'ldi. Natijada yirik sanoat ishlab chiqarishi paydo bo'ldi va axborot hamda madaniyat almushinuvi sur'atlari kuchaydi" deb alohida ta'kidlangan. AQShning sobiq davlat kotibi Z.Bzejnskiyning "Agar Rim dunyoga huquqni, Angliya parlament faoliyatini, Frantsiya madaniyat va respublikacha millatchilikni bergan bo'lsa, Amerika ilmiy texnikaviy taraqqiyotni va ommaviy madaniyatni berdi" degan fikrida ommaviy madaniyatning o'chog'i Amerika ekanligiga ishorani ko'rish mumkin. Aslida ham vaziyat shundaymi? Biz keyingi yillarda qayta va qayta qoralayotgan "Ommaviy madaniyat"ning o'zi nima? Bu savollarga javob berish uchun insoniyat tarixiga murojaat etamiz.

Ommaviy madaniyat-o'zining soddaligi va murakkabligi bilan ahamiyatlidir. Hozirgi ekran madaniyati, kompyuter texnologiyalari rivojlangan davrda ommaviy madaniyatning asl mohiyatini ijtimoiy tahlil qilish, bilish va tegishli xulosa chiqarish maqsadga muvofiq. Zero, ommaviy madaniyatning shakllanishi aslida insoniyat tarixining dastlabki davrlaridan boshlangan. Odamlarning qabilalardagi birgalikdagi o'yinlari, turli tomoshalar pul-tovar munosabatlari-gacha shakllangan va shaxslararo munosabatlarni tashkil etishning vositasi sifatida amal qilgan. Masalan, qadimgi Yunonistonda diniy

urf odatlar yoki sport o'yinlari bilan bog'liq turli ommaviy marosimlar tashkil etilgan. Xususan, Afina shahri Xudosi sharafiga olov bilan yugurish, ot choptirish, musiqa va sport musobaqalari uyushtirilgan. Bu marosimlarda davlatning qudrati namoyish etilgan. Yunonlar bu bayramlarda aholining turli qatlamlari ishtirokini ta'minlagan.

Qadimgi Rimda esa bu tadbirlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan. Respublika davrida yiliga yettita xalq bayramlari o'tkazilgan bo'lsa, keyinchalik bu bayramlar soni 175 taga yetgan. ulardan 10 tasi gladiatorlar o'yini, 101 tasi teatr sahnasidagi spektakllar, 64 tasi sirk o'yinlarida o'z ifodasini topgan.

Amfiteatrda Rimdagi eng mashhur gladiatorlar o'yinlari o'tkazilgan. Unda dastlab uchta, so'ng 22 ta, 25, 60 ta juftliklarning o'zaro kurashi jarayonida bir-birini o'ldirishidan huzurlangan ommaning jazava bilan "o'ldir", "ur", - deb baqirishi ommaviy ongsizlik darajasidagi ommaviy madaniyatning birinchi ko'rinishi bo'lib, bunda odamzod axloq normalaridan chekinib, gladiatorlarning o'lim oldi talvasasidan huzurlangan. Tomoshani yanada qiziqarliroq o'tkazish uchun rimliklar sahnani mavzuga oid dekoratsiyalar bilan bezagan va eramizdan oldingi 202-yildayoq harakatlanuvchi sahna dekoratsiyalari paydo bo'lgan. Masalan, sahna bir lahzada katta kemaga aylanishi yoki u yo'qolgandan keyin yer ostidan sherlar chiqib kelishi, yoki suvga to'lib unda timsohlar paydo bo'lishi odatiy holga aylangan. Shu bilan qadimgi yunonlar ommaviy tomoshalarga asos solgan. Bunda ishtirokchi va tomoshabinlar orasidagi masofa kichik bo'lgan. rimliklar esa bayramlarni ommaviy ermakka aylantirgan.

O'rta asrlarda qadimgi davr ommaviy madaniyati vahshiyligi darveshlik, quvnoqlik va ommaviy bazmlar bilan almashadi. O'rta asrlardagi bazmlarda jonglerlar, musiqachilar va qo'shiqchilar, akrobatlar va raqqosalarning o'yinlari bilan boshlangan va tarixiy qo'shiqlar bilan yakunlangan. Shuningdek O'rta asrlarda ritsarlarning janglari uyushtirilgan, gladiatorlar jangidan farqli o'laroq bu janglarda aslzodalar ishtirok etgan. Shaharlarning rivojlanishi bilan bu o'yinlar yanada qizg'inroq tashkil etilgan. Bu davrdagi o'yinlar bir tomondan diniy ruhda bo'lsa, ikkinchi tomondan belgilangan qoidalar chizig'idan chiqishga harakat qilingan. Masalan, Shekspirning Qirol Lir asaridagi voqealarda masxarobozning doimiy ishtiroki va bazmlar bu davrdagi ommaviy madaniyatning yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Uygʻonish davridagi ommaviy madaniyat goʻzallikka eʼtibori bilan ahamiyatlidir. Meʼmorlar, haykaltaroshlar, rassomlarning asarlariga buyuk ijod mahsuli sifatida yondashuv shakllangan. Reallik va illyuziya oʻrtasidagi chegara asta-sekinlik bilan yoʻqola boshlagan, barcha asarlar huzurlanish kayfiyatini uygʻotish uchun yaratilgan, masalan ayol va erkaklarning yalangʻoch tanasining sanʼat asarlaridagi ifodasi.

1789-yildagi buyuk frantsuz inqilobi ijtimoiy hayotga taʼsir etmay qolmadi, bu odamlar dunyoqarashida yangi tipdagi ommaviy madaniyatning shakllanishiga olib kelgan. Inqilob syujetlarni erkin tanlash huquqini bergan. XVIII asrning badiiy hayotida sanʼat sohasida bozor munosabatlarining shakllanishiga turtki boʻlgan ijtimoiy institut – Akademiya paydo boʻlgan. Akademiyada doimiy koʻrgazmalar tashkil etilgan, rassomlar ilgari faqat buyurtma asosida asarlar yaratgan boʻlsalar, endilikda ommaga yoqishi mumkin boʻlgan asarlarni yaratishi lozim boʻlgan. Akademiya faoliyati haqiqiy sanʼat asarlari va soxta asarlar orasidagi farqni aniqlash vazifasini bajargan.

XIX asr boshlarida mehnat sharoitlari, axborotni yetkazish usullari turmush tarzi oʻzgargan. Yevropadagi industrial inqilob natijasida qoʻl mehnati oʻrni mashina, ustaxonalar oʻrni fabrikalar egallagan, urbanizatsiya jarayoni faol rivojlangan. Jadal surʼatlarda qishloq aholisi shaharlarga koʻchib oʻtishi boshlangan. Dunyoni idrok etish va unda oʻz oʻzini his qilish oʻzgargan. Sanʼat asarlariga ehtiyoj ustuvorlik qila boshlagan. XIX asr oxirlarida noyob qoʻl mehnati mahsullari oʻrni ommaviy mahsulot egallagan. Va pirovard natijada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida modern uslubining barcha sohalardagi hukmronligi boshlangan. Xususan, texnika sohasida D.Uattning par mashinasi (1784), D.Fultonning paroxodi (1807), R.Steffensonning parovozi (1814), axborotni yetkazish vositasi sifatida Ch.Uinston va S.Morzening telegrafi (1840), radioning (1850) yaratilishi ommaviy madaniyatning keng qanrovli tarqalishiga zamin yaratgan.

XX asr insoniyat taraqqiyotida yangi davr va yangi munosabatlarni boshlab berdi. Birinchi va Ikkinchi Jahon urushi yangi texnika vositalarini yaratish va ulardan ommaviy foydalanishni taqozo etdi. Aynan shu asrda Yevropada Gabriel Shanelning (Koko Shanel) ayollar yurishlarida qulaylik yaratish uchun mutlaqo yangi andozadagi kiyimlarni yaratishi va Sharqda paranji tashlash gʻoyasi bilan

boshlangan ommaviy jarayon ularning ta'lim olish, mehnat qilish uchun o'z huquqlarini himoya qilishida davom etdi. 1918-yilda Ozarbayjonda ayollarning saylash huquqi qonun bilan belgilanishi, asrlar davomida ayollar haq huquqlarining kamsitilishiga qarshi yo'nalgan birinchi qadam bo'ldi.

XX asrning 60-yillarida ijtimoiy hayotdagi bir xil sokin hayot normalari asta-sekinlik bilan barcha sohalarda o'zgarib boshladi. Xususan, Angliyaning Liverpul shahrida Bitlz, AQShda Elviz Pristli, 1970-yillarda O'zbekistonda Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Farrux Zokirov va boshqalar san'at sohasiga yangi ruh olib kirdilar. Birinchi vokal instrumental ansambllari tashkil etildi. 1982-yilda lazer diskklarining yaratilishi ijtimoiy hayotni tubdan o'zgartirdi. Dunyo bo'yicha video va musiqa kassetalari, turli ochiq jurnallar, plakatlar, albomlar tarqala boshladi. Hozirgi davrgacha lazer diskklaridan foydalanuvchilarining soni 200 milliarddan oshdi. XX asrning 60-70 yillaridan dunyoda kiyinish madaniyati o'zgardi, odamlarning milliy liboslar o'rniga zamonaviy bichimdagi kiyimlarga ixlosi ortdi. 1970-yillarda xippilar, 1980-1990-yillarda panklar, rokkerlar, 2000-yillarda emmolar noan'anaviy liboslar bilan o'z g'oyalarini targ'ib qila boshladilar.

1991-yilda internetning (O'zbekistonda 1997-yildan foydalanilishi boshlangan) 2001-yilda aypetning yaratilishi dunyoning cheksiz uzoq masofasini soniyalar darajasida yaqinlashtirdi. Hozirgi kunda Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar va undan foydalanuvchilar ommaviy madaniyatning ochiq targ'ibotchisiga aylandilar. Demak, ommaviy madaniyat XIX asrning oxiri yoki XX asrda paydo bo'lgan degan fikr muayyan ma'noda yangilishish hisoblanadi.

### **Ommaviy madaniyat tushunchasi**

Ommaviy madaniyat tushunchasi XX asrning 30-yillarida paydo bo'lgan va 1944-yilda D. Makdonaldning "Ommaviy madaniyat nazariyasi" nomli asarida birinchi marta ilmiy izohlangan. Yuz yil davomida ommaviy madaniyat hodisasiga ijtimoiy-siyosiy, psixologik, estetik, nazariy va mafkuraviy nuqtayi nazardan baho berishga harakat qilingan. Ba'zilar omma foydalanishni mo'ljallagan badiiy madaniyatni ommaviy san'at, tijorat madaniyati, ong industriyasi, bozor madaniyati bilan bog'lagan. Kanadalik sotsiolog olim Mak-Lyuen fikricha "Ommaviy madaniyatni industrial odamning

folklori”, frantsuz olimlari A. Moren va A. Byurjelon fikricha ommaviy madaniyat insoniyat tarixidagi total estetik madaniyatdir.

Ommaviy madaniyat deganda, odatda, ommaviy ishlab chiqarishga mo'ljallangan san'at asarlari ko'zda tutilgan. Abadiyot entsiklopediyasida “Ommaviy madaniyat bu ko'p martalik ishlab chiqarish va ko'pchilikning nafaqat ehtiyojini qondirishga, balki bu jarayonni tashkil qilishni qamrab oladi”. Ommaviy madaniyatga baho berilganda uning xronologik, son parametrlari va kommunikatsion yetkazish usuli ko'zda tutilgan. Frantsuz sotsiologi Jorj Fridman fikricha, “ommaviy madaniyat ehtiyojlarning qondirilishiga yo'nalgan barcha yaxshi narsalardir”. Ommaviy madaniyatni unga xos belgilar orqali aniqroq tasavvur qilish mumkin. Ommaviy madaniyat marginal madaniyat; asosida ko'rgazmalilik yotgan madaniyat; dilxushi; universal til xos bo'lgan madaniyat tipi; karnaval madaniyati; reallik doirasidan chiqish illyuziyasini beruvchi madaniyat; ommaviy ishlab chiqarish; individul muloqot illyuziyasi; sun'iy madaniyat va h.k sifatida namoyon bo'ladi.

Ommaviy madaniyat bu nafaqat film va musiqa, adabiyot va tasviriy san'at va ommaviy axborot, balki turmush tarzidir. Ayniqsa, XX asrda u keng rivoj topdi. Undan voz kechish yoki qochib qutulish mumkin emas. Kompyuter asrida ommaviy madaniyat o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi. Turmush tarzi sifatidagi ommaviy madaniyat ijtimoiy makonni to'liq qamrab oladi: bu bizning suhbatlashish madaniyatimiz, shaxslararo munosabatlar tipi, eshitayotgan qo'shiqlarimiz mazmuni, dam olish madaniyatimiz va boshqa barcha hayotimiz bilan bog'liq jarayon. Ommaviy madaniyat an'anaviy turmush tarzini to'liq o'zgartiradi.

Ommaviy madaniyat ta'sirida an'analar va ularga munosabat o'zgaradi. An'ana buzilishi mumkin bo'lmagan qonun yoki hayot me'yorlari bo'lib, u ob'ektlar orasida muayyan masofani shakllantirgan. Masalan, insoniyatning tabiatga, yerga, oilaga munosabatlari o'zgarib borgan. An'analarning buzilishi, munosabatlar me'yorining buzilishiga tabiiylikning kamayishi va sun'iylikning ortishiga olib keladi. Masalan, ilgari qo'shnilarning munosabatlarida tabiiylik ustuvor bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda u soxta mulozamat bilan almashmoqda.

Tabiiylikning kamayishiga texnika taraqqiyoti ta'sir etadi. An'analar yangi noan'aviy munosabatlarning uyumida yo'qolib

ketadi. Ommaviy madaniyat ko'pchilikning kamchilikka ergashishi sifatida namoyon bo'ladi.

Ommaviy madaniyat va omma uchun madaniyat tushunchalaridagi farqlarni tushunish muhim ahamiyatga ega. Bu tushunchalardagi umumiylik tushunarlik bilan izohlanadi. Omma uchun madaniyat sovet davridagi xalq uchun san'at g'oyasi bilan hamohang. Ommaviy madaniyat esa tovar pul munosabatlarining tarkibiy qismidir. U imidjni shakllantiradi. Omma uchun madaniyat ijtimoiy psixologik targ'ibotning tarkibiy qismi. U ommaviy ijtimoiy muhit talablariga javob sifatida amal qiladi. (masalan, sovet davridagi fabrikalardagi ayollarning uniformasi). Har ikki holatda ham umumiy jamoa e'tiborini jalb qilish maqsadi yotadi.

### **Aksilmadaniyat**

Aksilmadaniyat XX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Aksilmadaniyat tushunchasi XX asrning 60-yillarida amerikalik sotsiolog T. Rozzaku tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Aksilmadaniyat ommaviy jarayon bo'lsa-da, u tom ma'noda ommaviy madaniyat bo'la olmaydi. Aksilmadaniyat xippi va panklar faoliyati bilan bog'liq rok musiqada o'z ifodasini topadi. Aksilmadaniyat asosini mavjud an'anaviy voqelikka qarshilik tashkil etadi. Aksilmadaniyatning vatani Kaliforniyadir. Aksilmadaniyat "Men boshqalarga, ularga qarshi" asosiy g'oyasini va axloqiy pozitsiyani himoya qiladi. Aksilmadaniyat shok holatini ustuvor biladi, u qancha ko'p mavjud axloq normalari chegarasini buzsa, shuncha huzurlanadi. XX asrning 70-yillarida rok-estrada o'z ifodasini topgan aksilmadaniyat bilan panklar va metalistlar harakati boshlandi. Bu harakat vakillarining qarshiligi musiqada emas, balki xulq-atvorda namoyon bo'lgan. Turli ranglarga buyalgan sochlari, har xil taqinchoqlar bilan aksilmadaniyat vakillari odamlarga hujum qilishi, ularni qo'rqitishi va bu bilan o'zini qanoatlantirishi mumkin bo'lgan. XX asrning oxirida yoshlarning rok madaniyatida namoyon bo'lgan aksil madaniyati o'z kuchini yo'qotdi.

### **Submadaniyat tushunchasi**

Submadaniyat tushunchasi turli xalqlarning turmush tarzi, an'analarini o'rganishga mo'ljal olgan. XVIII-XIX asrda shakllangan mintaqaviy, lokal madaniyatlar submadaniyat deb nom olgan. Submadaniyat aksilmadaniyat kabi agressiv xarakterga ega emas, biroq unda o'zining yaxlitligini saqlashga moyillik kuchli. Subma-

daniyat doimo umumiylikka tayanadi, mavjud qoidalar tizimidan chiqqan olmaydi, submadaniyat vakillarini umumiy kiyim, yosh birlashtirishi mumkin. Submadaniyatda uni boshqa madaniyatlardan farqlovchi jihatlari aniq ko'zga tashlanadi. Submadaniyat o'zini bir-biridan va ommaviy madaniyatdan o'zini himoya qilishi mumkin. Ularda o'ziga xos ustivor maqsadlar, urf-odatlar amal qiladi. (Masalan, lo'lilar turmush tarzi submadaniyatga misol bo'la oladi).

Hozirgi sivilizatsiya davrida submadaniyatlarning dialogi faollashdi, chunki asrlar oralig'ida odamlarning o'zligini saqlashga moyilligi oshdi. Ommaviy madaniyat submadaniyat elementlari bilan birlashdi. Bunday vaziyatda populyar (mashhur) madaniyat faollashadi.

### **Populyar (mashhur) madaniyat**

Populyar (mashhur) madaniyat – omma tomonidan qabul qilinishi muayyan davrda keng tarqalishi mumkin bo'lgan madaniyat. Bu madaniyat ommaviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida amal qiladi. Biroq geografik belgilariga ko'ra ommaviy madaniyat populyar madaniyatga nisbatan keng tushuncha. San'at nuqtayi nazaridan ommaviy madaniyat tijorat maqsadlarini ko'zda tutadi. XX asrning 70-yillarida "Mahallada duv duv gap", "Yor-Yor", "Uchrashuv" kabi filmlar ommaviy auditoriya uchun ommaviy kino hisoblangan. Biroq u ommaviy madaniyat bo'la olmaydi. XX asrning 90-yillarida S.Spilbergning "Yura davri parki" filmi haqiqiy ommaviy madaniyatning namunasidir. Chunki filmning sur'atga olinish jarayonining reklamasi, film qahramonlari sur'atlari tushirilgan maykalar, kepkalar, krujkalar znachoklarning sotilishi tom ma'noda tijorat maqsadlariga yo'nalgan.

Ommaviy madaniyat faol, u chegara bilmaydi, populyar madaniyat esa chegaralangan. Masalan, XX asrning 80-yillarida Yulduz Usmonovanning estradasi populyar madaniyat hisoblansa, 90-yillarda sof ommaviy madaniyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu Yulduz Usmonovanning ilgarigidan yaxshi qo'shiq aytganini ifodalamaydi. Uning ijodi ommaviy axborot vositalarida doimiy yoritila boshladi, turmushga chiqqani, ajralgani, va yana turmushga chiqishi, qizining turmushga chiqishi va ajralishi ommalashib ketdi va bunda axborot kommunikatsiya vositalaridan unumli foydalanildi. Populyar madaniyat siyosiy lashmaydi.



Aksilmadaniyat, submadaniyat va populyar madaniyat tushunchalari o'rtasida farqlar bor. Biroq ularning hammasi turli vaziyatlarda ommaviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'la oladi.

### **Ekran madaniyati**

Ekran madaniyati - ommaviy madaniyatning tarkibiy qismi. uning asosiy targ'ibotchisi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida "ekran" tushunchasi paydo bo'ldi. XX asr davomida u yangi mazmun bilan boyib bordi. Ming yillar davomida bilim yetakchisi va targ'ibotchisi kitob bo'lsa, XX asrda kitob sahifalaridagi bilim ekranga ko'chdi. Ekran madaniyatining dastlabki bosqichi kino bilan bog'liq. Kino odamlarga voqealarni harakat bilan ifodalash istagini qanoatlantirish maqsadida paydo bo'ldi. Hozirgi kundagi ekran madaniyati internet tarmog'i, axborot kommunikatsiya vositalarida to'liq namoyon bo'lmoqda. Imo, skayp, LZUUM va boshqalar shular jumlasidandir.

Ommaviy madaniyat va ommaviy madaniyatsizlik tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Ommaviy madaniyatsizlik eng xavfli kuchga ega. U jamiyatning bir guruh a'zolari emas balki ko'p sonli odamlar guruhini qamrab oladi, u aql bilan emas balki ommaning umumiy ta'sir kuchi bilan boshqariladi. (Masalan, 2017-yil 8-sentabrda Toshkentda Ginnes kitobi uchun tayyorlangan palov pishirish jarayoni, yoki Bunyodkor stadionidagi futbol o'yini jarayonida to'p ortidan quvish ommaviy madaniyatsizlikning yorqin misoli bo'la oladi).

### **Madaniy predmetlilik va madaniy kommunikatsiya**

Inson faoliyati – madaniyatning zaruriy elementi. U madaniyatni qadriyatlar yaratish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Madaniyat faoliyatda inson ongi vositasida ro'yobga chiqariladi va ijtimoiy tajriba, faoliyat usullari va dasturlarini avlodlarga qoldirish uchun imkoniyat yaratadigan madaniy predmetlilikni o'z ichiga oladi. Madaniy predmetlilik keng tushuncha bo'lib, u jamiyatdagi bilimlar, ko'nikmalar, me'yorlar va qadriyatlarni gavdalandiruvchi barcha narsalarni qamrab oladi. U moddiy madaniyat elementlari - moddiy ishlab chiqarish vositalari, mahsullari va infratuzilmasini, ro'zg'or buyumlari va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Madaniy predmetlilik til va nutqda, axloqiy xulq-atvor va san'at asarlarida, huquqiy va siyosiy xulq-atvorda, ilmiy asarlar va diniy rasm-rusumlarda mujassamlashgan ma'naviy madaniyatni ham qamrab oladi. Moddiy va ma'naviy madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bu bog'liqlik quyidagilarda o'z

ifodasini topadi: birinchidan, ijtimoiy g'oyalar va tasavvurlar o'zining moddiy ifodasini topadi (til, ramzlar, san'at asarlari va shu kabilar ko'rinishida). Ikkinchidan, moddiy madaniyatning har qanday predmetida muayyan mazmun (reja, niyat, kayfiyat, bilimlar va sh.k.) aks etadi. Umuman olganda, insonning mehnat faoliyati va o'zga faoliyatda mujassamlashgan ma'naviy dunyosi madaniyatning mazmuni hisoblanadi. Shu sababli madaniy predmetlilik ramziy tabiatga ega: narsalar, san'at asarlari, imo-ishoralar va hokazolarda mazkur predmetlarni yaratgan inson mazmuni «shifrlangan» bo'ladi. Madaniyat predmetlarini idrok etar ekanmiz, biz ularning mazmunini «o'qiyamiz» va ularni yaratgan kishilar haqida axborot olamiz.

Madaniyat bilimlar, qadriyatlar va ma'nolar manbai sanalgan o'z tiliga ega. Madaniy kommunikatsiya vositalari nafaqat shaxslararo muloqot tilini, balki fan, siyosat, targ'ibot, boshqaruv, din tillarini ham o'z ichiga oladi. Ular qatoriga madaniy kommunikatsiya noverbal vositalari – imo-ishora, mimika, ust-bosh, zargarlik buyumlari, soch turmagi, tatuirovka va shu kabilar ham kiradi.

Madaniy predmetlilik ongli faoliyat mahsuli bo'lib, madaniyatning har bir elementida muayyan mazmun aks etadi, umuman, madaniyatda esa kishilar ko'plab avlodlarining orzu-umidlari, bilim va ishtibohlari, quvonch va qayg'ulari o'z ifodasini topadi va madaniyatning jamiyat uchun ahamiyati ayni shu omillar bilan belgilanadi. Madaniy qadriyatlarning boy berilishi avlodlar o'rtasidagi aloqa uzilishiga sabab bo'ladi, jamiyatni ortga uloqtirib yuboradi va uning mavjudligini xavf ostida qoldiradi.

Madaniyat boyliklaridan foydalanish ularni o'zlashtirishni, ya'ni shaxs va jamiyatning ma'naviy va amaliy mulkiga aylantirishni nazarda tutadi. Shu sababli yuqorida zikr etilgan predmetlilikni avloddan-avlodga qoldirish, idrok etish va anglab yetish borasidagi faoliyat madaniyatning muhim elementi hisoblanadi. Madaniyatning har qanday predmeti matnni eslatadi. Bu matn belgilarning tasodifiy va mantiqsiz to'plamiga emas, balki fikrga aylanishi uchun uni kimdir o'qishi talab etiladi. Bilim, tajriba va fikr almashish madaniyat borlig'ining zaruriy shartidir. Madaniyatlar muloqoti o'zaro aloqa qilish, madaniy predmetlilikni tushunish, unga baho berish shakli hisoblanadi va madaniy jarayon markazidan o'rin oladi.

Madaniy jarayonda muloqot tushunchasi keng mazmun kasb etib, bu madaniy boyliklarni yaratuvchi va undan foydalanuvchining

muloqoti, avlodlar muloqoti, xalqlarning o'zaro aloqa qilish va til topish shakli sifatidagi madaniyatlar muloqotidir. Madaniy tafovutlar – jahon xalqlari betakror tarixining qonuniy natijasi, tarixiy jarayonning rang-barangligi manbaidir. Savdo-sotiq va yaxshi qo'sh-nichilikning rivojlanishi, aholi migratsiyasiga qarab madaniyatlarning o'zaro aloqasi muqarrar tarzda kengayadi. U turli madaniyatlar bir-birini boyitishi va rivojlanishi manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunda madaniyatlarning o'zaro aloqasi shakli, uning yo'nalishi qanday, degan savolga javob topish muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy sivilizatsiya doirasida mavjud bo'lgan madaniyatlarning o'zaro aloqasi ayniqsa samarali va shikastsiz hisoblanadi. Turli sivilizatsiyalarga mansub madaniyatlarning o'zaro aloqasi esa doim ham ijobiy xususiyat kasb etavermaydi. Masalan, yevropacha va noyevropacha madaniyatlar, Sharq va G'arb sivilizatsiyasi madaniyatlarining o'zaro aloqasi turli stsenariylarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin: G'arb sivilizatsiyasi Sharq sivilizatsiyalarini o'z ichiga olishi, G'arb sivilizatsiyasi Sharq sivilizatsiyalariga kirishi, ikkala sivilizatsiyaning birgalikda mavjudligi (Yaponiya), Yevropa mamlakatlarida fan va texnika misli ko'rilmagan sur'atlarda rivojlanishi, yer kurrasasi aholisi uchun normal yashash sharoitlarini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj an'anaviy sivilizatsiyalarni modernizatsiya qilish muammosini kun tartibiga qo'ydi. Ammo modernizatsiya qilishga urinishlar aksariyat mamlakatlar uchun samarasiz tugadi. An'anaviy islom madaniyatlarini modernizatsiya qilish oqibatlarini ayniqsa shikastli bo'ldi.

Bu madaniyatlar muloqoti amalda mumkin emas yoki an'anaviy sivilizatsiyalarni modernizatsiya qilish faqat aholining qadriyatlarga munosabati salbiy tomonga o'zgarishiga va dunyoqarashning yalpi inqiroziga sabab bo'ladi degan ma'noni anglatmaydi. Yevropacha sivilizatsiya jahon madaniy jarayoni uchun andoza bo'lishi kerak va o'zga madaniyatlarning yevropacha andozaga mos bo'lmagan jihatlari soxta yoki tasodifiydir degan tasavvurdan voz kechish lozim. Ammo turli madaniyatlarning o'ziga xosligini mutlaqlashtirish ham yaramaydi. Har bir madaniyat o'z madaniy o'zagini saqlagan holda, sirdan ta'sirlar natijasida muttasil o'zgaradi, ularni har xil ko'rinishda moslashtiradi. Inson huquqlarini himoya qilish, odamlarni zarur moddiy ne'matlar bilan ta'minlovchi ilg'or texnologiyalar keng miqyosda amalga joriy etilishi, tibbiy xizmat ko'rsatishning tarqalishi, ta'lim va madaniyat institutlarining

rivojlanishi, faol madaniy aloqalar – bularning barchasi turli madaniyatlarning yaqinlashuvi va yevropacha sivilizatsiya ijobiy ta'sirining dalilidir. An'ana madaniyatning muhim birlashtiruvchi mexanizmi hisoblanadi. Madaniyat tushunchasining o'zi «xotira» kabi an'ananing mavjudligini nazarda tutadiki, uni yo'qotish jamiyat halokati bilan barobardir. An'ana tushunchasi madaniyatning madaniy o'zak, endogenlik, o'ziga xoslik, madaniy meros, madaniy dinamika kabi omillarini o'z ichiga oladi.

Madaniyat o'zagi – madaniyatning nisbatan barqarorligini va yashovchanligini kafolatlovchi tamoyillar tizimi. U asrlar mobaynida shakllanadi va jamiyat borlig'ining o'zgaruvchi sharoitlariga moslashish mexanizmlarini ta'minlaydi.

Madaniyatning endogenligi, uning tizimli birligi ichki tamoyillarning mushtarakligi bilan belgilanganini anglatadi.

Madaniy rivojlanishning o'ziga xosligi nisbatan mustaqilligi va erkinligi bilan belgilanadigan betakrorlik.

Madaniy meros – ajdodlar tomonidan yaratilgan va har bir jamiyatning ijtimoiy-madaniy jarayoniga kiritilgan qadriyatlar majmui. Madaniyat masalalari bo'yicha Mexikoda o'tkazilgan jahon konferentsiyasida (1983-yil) an'ana tarixning harakatlantiruvchi tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

### **Madaniyatning funktsiyalari**

Madaniyat insonning bilish faoliyatini o'z ichiga oladi, ijtimoiy tajribani avlodlarga qoldirish va boshqa xalqlar madaniyatini o'zlashtirish vositasi sifatida informativ funktsiyani bajaradi. Madaniyatning rivojlanishi u boshqa madaniyatlar bilan aloqa qilishini taqozo etadi. Madaniyatning normativ funktsiyasi muayyan sivilizatsiyada shakllangan me'yorlarni amalga joriy etadi, shuningdek o'z me'yorlari va qadriyatlarini yaratib, ularni inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga tatbiq etadi. Ijtimoiy-madaniy jarayonda davlat hayoti qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etadi: ideokratik, teokratik yoki siyosiy davlat boshqa-boshqa madaniy mo'ljallarga tayanadi. Davlat o'z negizini mustahkamladigan me'yorlarning ustunligini ta'minlaydi va o'ziga tahdid solishi mumkin bo'lgan me'yorlarni siqib chiqaradi. O'z navbatida, madaniyat ham ijtimoiy tajribani saralash, uni ramziy tizimlarda mustahkamlashni amalga oshiradi.

Madaniyatning insonni kamol toptirish funksiyasi individning madaniyatni o'zlashtirish jarayonida shaxsga aylanishida namoyon bo'ladi. Madaniyat normativ tartibga solinadigan faoliyat sanalgani bois, u qadriyatlarni yaratish sohasi sifatida namoyon bo'ladi. Madaniyat hodisalari ijtimoiy o'zgarishlarni boshqaradi, ularni ijtimoiy muhim maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiradi.

Madaniyat qadriyatlarni mazkur hamjamiyatda ijtimoiy mo'ljal berish va tartibga solish funksiyasini bajaradi. Madaniyat ijtimoiy munosabatlar tizimiga xizmat ko'rsatadi, bu yerda yuz beruvchi o'zgarishlar va siljishlarni belgilaydi va tayyorlaydi, inson xulq-atvorini tartibga solishni ta'minlovchi maxsus mexanizmlarni yaratadi. Bu to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tartibga solish bo'lishi mumkin (huquq, axloq, taqiq). Bu jamiyatning u yoki bu qadriyatlari va talablarini aks ettiruvchi ba'zi bir harakatlarni bajarishni buyurish orqali amalga oshiriladigan bilvosita tartibga solish bo'lishi ham mumkin.

Madaniyat insonning jamiyatdagi o'midan, uning diniy mansubligi yoki siyosiy qarashlaridan dalolat beruvchi ramzlarning keng tizimini yaratadi. Ba'zan mazkur guruhlar yoki qadriyatlarga bevosita mansublik ramziy xususiyat kasb etadi: individ diniy rasm-rusumlarda ma'naviy taskin topish vositasini izlamaydi, lekin o'zining dindorligini namoyish etadi; u muayyan siyosiy maqsadlarga erishishga harakat qilmaydi, lekin o'z niyatlarini e'lon qiladi va h.k. Shunga qaramay rasm-rusumlarni ado etish amaliyoti ham, jamiyat talablarini to'g'ridan-to'g'ri bajarish ham etnosning, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining yaxlitligini ta'minlaydi.

Madaniyat vayronkor jarayonlarga qarshilik ko'rsatadi, chunki u qadriyatlarni saralash mexanizmlariga ega. Natijada sivilizatsiyaning tor tarixiy ahamiyat kasb etuvchi hodisalari yo'qlikka chekinadi, tarix uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniy hodisalar esa umuminsoniy madaniyat xazinasidan o'rin oladi. Bunyodkor hodisalarni ham, vayronkor hodisalarni ham o'z ichiga oluvchi sivilizatsiyadan farqli o'laroq, madaniyat o'zining insoniyligi, ijobiyligi bilan tavsiflanadi. U inson faoliyati ijodiy asosining manbai hisoblanadi. Inson yaratgan har qanday predmet madaniyat hodisasi hisoblanavermaydi, xuddi shuningdek har qanday inson ham madaniyatli bo'lavermaydi.

Madaniyatsizlik yoki madaniyat darajasining pastligi aholining bir qismi o'z madaniyatidan ajralib qolganini anglatadi. Savodsizlik, axloqsizlik, madaniy me'yorlarga muvofiq bo'lgan xulq-atvor, muloqot, mehnat ko'nikmalari mavjud emasligi, tabiatga nooqilona munosabat va madaniyatsizlikning boshqa shunga o'xshash ko'rinishlari oqilona bo'lmagan madaniy siyosat yoki uning umuman mavjud emasligi natijasidir. Ayni vaqtda madaniyatsizlik ongli siyosat natijasi ham bo'lishi mumkin.

Madaniyat inson faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy kichik tizimlarini birlashtiradi. Ammo madaniy jarayon chegarasi sivilizatsiya, uning me'yorlari bilan belgilanadi. Madaniyat sivilizatsiyada chuqur ildiz otgan bo'lib, u bilan bir jon va bir tan hisoblanadi. Madaniyat va sivilizatsiyaning o'zaro aloqasi shu darajada kuchliki, aksariyat faylasuflar va olimlar bu tushunchalarni ayniy deb hisoblaydilar. Bu bejiz emas: jamiyatning normal holatida ularni deyarli farqlab bo'lmaydi. Sivilizatsiya va madaniyat birdir: o'z madaniyatsiz sivilizatsiya bo'lmaganidek, sivilizatsiyasiz madaniyat ham bo'lmaydi. Madaniyat ham, sivilizatsiya ham normativ tabiatga ega. Ularning o'rtasidagi farq shundaki, sivilizatsiya madaniy jarayonga shart-sharoit yaratadi, uni tartibga soladi. O'z navbatida, madaniyat yangilik ijodkori sifatida sivilizatsiyaning rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Ammo madaniyat sivilizatsiya bilan ayniy emas. U sivilizatsiya belgilagan ijtimoiy me'yorlarni amalda mujassamlashtirishni nazarda tutuvchi erkin faoliyatdir. Madaniyat jamiyat qadriyatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari majmuidir.

Sivilizatsiya elementlaridan biri sifatida madaniyat unga muvofiq bo'ladi, lekin mustaqil rivojlanishga qodir element sifatida u sivilizatsiya bilan ziddiyatga kirishishi mumkin. Mazkur ziddiyatning mavjudligi madaniyatning ham, sivilizatsiyaning ham rivojlanish manbaidir. Ularning o'rtasida ayniylik nazariy jihatdan faqat sivilizatsiya madaniyatga o'z hukmini to'la o'tkazishi sifatida mavjud bo'lishi mumkin. Bu hayot faoliyatining texnik-mexanik, ma'naviyatsiz shakllari hukm surishini, shaxsning ijodiy tashabbusi bo'g'ilishini anglatadi. Inson hayotining barcha jabhalarida uning xulq-atvorini qattiq tartibga solish jamiyatni turg'unlik saltanatiga aylantiradi. U o'zgarayotgan sharoitlarga moslashish qobiliyatini yo'qotadi. Shu sababli madaniyatning o'limi muqarrar tarzda butun sotsiumni

halokatga eltadi. Bu o'z halokatidan keyin bir vaqtlar gullab-yashnagan madaniyat xarobalarini qoldirgan sivilizatsiyalar tarixida ko'p karra kuzatilgan.

Madaniyat va sivilizatsiya o'rtasida tub tafovut mavjudligi ham sivilizatsiyaning halokatiga sabab bo'ladi. Shu sababli sivilizatsiya madaniyatni ijtimoiy nazorat qilish mexanizmlariga ega bo'ladi. Sivilizatsiya madaniyatning rivojlanishini belgilash va rag'batlantirish yo'li bilan uni cheklaydi, o'z manfaatlariga bo'ysundiradi. Sivilizatsiyaning yashovchanligi va faolligi sivilizatsiya mexanizmlarining madaniy shakllar rang-barangligini o'z ideallari va andozalariga bo'ysundirish qobiliyati bilan belgilanadi. Zero, madaniyat vositalari bilan sivilizatsiyaning rivojlanishi, uning yangi sharoitlarga moslashishi muammolari hal qilinadi. Ayni vaqtda sivilizatsiyaning mavjudligi madaniyat vujudga kelgan andozalar, me'yorlar va qoidalarga rioya qilishga o'zini majburlovchi cheklashlar konservatizmiga chek qo'yishga qay darajada qodirligi bilan belgilanadi. Madaniyat o'z tabiatiga ko'ra qolip va andozalarga toqatsiz bo'lgan ijod sohasidir. Agar u qat'iy normativ cheklashlarga barham bera olmasa, sivilizatsiya, aytaylik, ekologik halokatdan yoki aholi sonining o'sishi va uni ommaviy halokat, ochlik va kasalliklardan himoya qilish qobiliyati o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi natijasida halok bo'lishi mumkin. Shu sababli madaniyat va sivilizatsiya o'rtasidagi ziddiyatlar ularning rivojlanish manbai hisoblanadi, ularning ayniyligi esa turg'unlik va halokatni anglatadi.

Sivilizatsiya madaniy jarayonga umumiy shart-sharoit yaratadi. U ulkan mintaqalar va qit'alarni qamrab oladi. Madaniyat sivilizatsiya yaratgan zaminda vujudga keladi, individual, betakror, etnik xususiyat kasb etadi. Har bir sotsium individual asosining ifodasi sifatida madaniyat bir sivilizatsiyaga mansub xalqlar o'rtasidagi farqlarni belgilaydi. U mazkur xalqqa xos bo'lgan, uning etnik-ijtimoiy individualligini tashkil etadigan omillar: til, tarixiy taqdir, din, boshqa xalqlar bilan aloqalar va hokazolarni xulq-atvor qoidalari, odatlar, ma'naviy hayotda aks ettiradi. Ayni bir sivilizatsiya ko'p sonli madaniyatlarni yaratadi. Masalan, Yevropa sivilizatsiyasi frantsuz, nemis, ingliz va hokazo madaniyatlarni o'z ichiga oladi. Me'yorlar, qoidalar, taqiqlar va amr-farmoyishlar majmui sifatida sivilizatsiya odamlar faoliyatini o'ziga bo'ysundiradi, uni tartibga soladi. Madaniyat – mazkur normalarga muvofiq amalga oshiriladigan erkin

ma'naviy va moddiy faoliyat. Ammo normativ jihatdan maqbul bo'lgan har qanday harakat madaniy bo'lavermaydi. Masalan, tosh qurdl teng darajada madaniyat predmeti deb nomlanishi, ayni vaqtda yashab qolish vositasi ham bo'lishi mumkin. Erkin yunon dehqoni yerga ishlov berishi madaniy faoliyat bo'lishi mumkin, ayni shu ish qil tomonidan nazoratchining qamchisi ostida bajarilishini esa, garchi qil erkin odam bilan ayni bir dehqonchilik amalini bajarayotgan bo'lsa-da, madaniy deb nomlash mumkin emas. XX asr sivilizatsiyasi o'zidan keyin inson tomonidan muhandislik hisob-kitoblariga ko'ra, qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq yaratilgan chiriyotgan sun'iy dengizlarni qoldirdi. U Orol dengizini quritdi, lekin Kaspiy dengizida suvni toshirib yubordi, natijada madaniyat ob'ektlarini suv bosmoqda.

### **Qadriyat tushunchasi va uning umumiy tavsifi**

Qadriyatlar – falsafaning alohida bo'limi (yunon. axios - qadriyatlar, logos – bilim: qadriyatlar haqidagi fan) bo'lib, u insonning dunyoga bo'lgan munosabatining alohida jihatini ifodalaydi, inson faoliyati, jamiyat va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini teran anglab yetish imkonini beradi. Qadriyat kategoriyasining mazmuni inson uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan narsa yoki hodisalarda o'z ifodasini topadi.

I.Kant tafakkur qadriyatlarning manbalarini va ularni maqbul narsaga aylantiruvchi qadriyatlar o'lchovini anglab yetishga qodir ekanligini qayd etadi. Tabiat va madaniyat predmetlari sanalgan manbalar bo'lmasa, qadriyatlar ham bo'lmaydi. Qadriyatlar o'lchovi esa ayrim mezonlarning mavjudligini nazarda tutadi. Muayyan predmetning mazkur mezonlarga muvofiqligi uni shaxs yoki jamoa uchun qadriyatga aylantiradi. Maqbullik sub'ektiv darajada baholash, ya'ni turli hodisalarning inson uchun ahamiyatini aniqlash tarzida amal qiladi. Mazkur hodisalarning inson uchun ahamiyati uning ijtimoiy pozitsiyasi, dunyoqarashi, madaniyat, aql-zakovat va ma'naviyat darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli qadriyatning borlig'i intellektual darajadagina emas, balki emotsional darajada ham anglab yetiladi. O'z-o'zidan ravshanki, sub'ektiv maqbul narsa yoki hodisa bilan qadriyat o'rtasida to'qnashuv yuz berishi mumkin. Masalan, inson uchun muhim madaniy hodisa – o'yinni ko'pchilik faqat bolalikedagina kechishi mumkin bo'lgan behuda va befoya faoliyat deb hisoblaydi. Shiller, aksincha, o'yinning inson uchun



ahamiyatini qayd etib, «Inson soʻzning toʻliq maʼnosida inson boʻlgan holdagina oʻynaydi va u faqat oʻynayotgan paytdagina toʻlaqonli inson boʻladi» deb yozadi.

Ammo baholargina emas, balki qadriyatlar dunyosi ham insoniyatga bogʻliq boʻlib, uning rivojlanish darajasi, faoliyat sohasining kengayishi, madaniyat va sivilizatsiyaning xususiyati bilan belgilanadi. Turli sivilizatsiyalarga xos boʻlgan meʼyorlarni taqqoslash qadriyatlar dinamikasi haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Masalan, qadimgi Yunonistonda inson hayoti toʻlaqonli tarzda uygʻun namoyon boʻlishi, Misrda esa – inson hayotining oʻlimga boʻysunishi oliy qadriyat hisoblangan.

Qadriyatlar individual boʻlib, ular anglanishi yoki anglanmasligi yoki notoʻgʻri anglanishi mumkin. Ammo qadriyatlarni subʼektiv darajada maqbul hodisa sifatida anglashning har qanday varianti baholash koʻrinishida amal qiladi. Haqiqatdan farqli oʻlaroq, baholash narsalarning haqiqiy holatiga bilimning muvofiqligiga erishishdan emas, balki narsalarni va ularning xossalarini inson uchun zarur va muhim deb anglab yetishdan iborat. Predmetning obʼektiv mazmuni (ahamiyati) bilan subʼekt baholash jarayonida eksplikatsiya qiluvchi shaxsga doir mazmun oʻrtasida kuchli tafovut mavjud. Shu sababli baholashda dunyoni anglab yetishning shaxsiy xususiyati bilan izohlanuvchi subʼektiv omil ustunlik qilishi mumkin. Bu tafovutga qaramay, haqiqat va qadriyat oʻrtasida uzviy aloqa mavjud.

Qadriyatlar sanʼat va din, axloq va huquq, siyosiy va madaniy hayot sohasida yetakchi oʻrinni egallaydi. Ularni ilmiy tushunchalar tiliga oʻgirish mumkin emas va aksariyat hollarda ular badiiy-obrazli mifologik yoki diniy shakl-shamoyilga solinadi.

Qadriyat oʻz mohiyatiga koʻra ijtimoiy va obʼekt-subʼektli xususiyat kasb etadi. Maʼlumki, jamiyat boʻlmagan joyda qadriyatlar mavjudligi haqida gapirishning oʻzi behudadir. Zero, narsalar, voqealar ularning inson bilan, sotsium hayoti bilan aloqasiz, oʻz holicha qadriyatlar bilan bogʻlanmaydi. Xullas, qadriyatlar doim insoniy qadriyatlar hisoblanadi va ijtimoiy xususiyat kasb etadi. Bu insoniyatlashgan tabiatga, yaʼni butun sivilizatsiyagagina emas, balki koʻp sonli tabiat obʼektlariga ham taalluqli. Masalan, kisloroddan iborat boʻlgan atmosfera Yerda inson paydo boʻlishidan ancha oldin mavjud boʻlgan, lekin kishilik jamiyati vujudga kelganidan keyingina

atmosferaning odamlar hayoti uchun ahamiyati haqida soʻz yuritish imkoniyati tugʻilgan.

Qadriyat insonning amaliy faoliyati jarayonida vujudga keladi. Insonning har qanday faoliyati muayyan maqsadni belgilashdan boshlanadi va mazkur faoliyat ayni shu maqsadga erishishga bagʻishlanadi. Maqsad – individga oʻzining muayyan ehtiyojlarini qondirish imkonini berishi mumkin boʻlgan faoliyatning pirovard natijasi haqidagi insonning tasavvuri. Shunday qilib, individ oʻz faoliyatining moʻljallangan natijasiga qadriyat sifatida qaraydi. Shu sababli inson natijaga erishishga qaratilgan faoliyat jarayonining oʻziga ham oʻzi uchun muhim, qadrlil boʻlgan jarayon sifatida yondashadi.

«Qadriyat» tushunchasini «muhimlik» tushunchasidan farqlash lozim. Qadriyat «muhimlik» tushunchasi bilan nisbatlashadi, lekin u bilan ayniy emas. Muhimlik qadriyatga boʻlgan munosabatning faollik, qizgʻinlik darajasini tavsiflaydi. Nimadir bizni koʻproq, nimadir kamroq taʼsirlantiradi, nimadir bizni oʻziga nisbatan butunlay befarq qoldiradi. Shuningdek, muhimlik qadriyat xususiyatigagina emas, balki «aksilqadriyat», yaʼni ziyon xususiyatiga ega boʻlishi ham mumkin. Yomonlik, ijtimoiy adolatsizlik, urushlar, jinoyatlar va kasalliklar jamiyat va shaxs uchun ulkan ahamiyatga ega, lekin bu hodisalarni qadriyatlar deb nomlash odat tusini olmagan. Binobarin, «muhimlik» tushunchasi «qadriyat»ga qaraganda kengroq. Demak qadriyat – ijobiy muhimlik. Ijtimoiy rivojlanishda salbiy rol oʻynaydigan hodisalar salbiy ahamiyatga molik deb talqin qilinishi mumkin. Shunday qilib, har qanday muhimlik emas, balki inson, uning birlashmalari yoki butun jamiyat hayotida ijobiy rol oʻynaydigan muhimlikkina qadriyat hisoblanadi.

Qadriyat ikki xossa: funktsional ahamiyat va shaxsga doir mazmun bilan tavsiflanadi. Bu qanday xossalar?

Qadriyatning funktsional ahamiyati – bu narsa yoki gʻoyalarning ularni mazkur jamiyatda qadriyatga aylantiruvchi ijtimoiy muhim xossalari, funktsiyalarining majmui. Masalan, muayyan gʻoyaga maʼlum informatsion mazmun va uning haqqoniylik darajasi xos.

Qadriyatning shaxsga doir mazmuni – bu uning inson ehtiyojlariga boʻlgan munosabati. Qadriyatning shaxsga doir mazmuni, bir tomondan, qadriyat funktsiyalarini bajaruvchi obʼekt bilan belgilanadi, boshqa tomondan esa, insonning oʻziga bogʻliq

bo'ladi. Inson narsaning mazmun va mohiyatini anglab yetish jarayonida o'zining mazkur narsaga bo'lgan sof tabiiy ehtiyojidan emas, balki o'zi mansub bo'lgan jamiyat tarbiyalagan ehtiyojdan, ya'ni jins bildiruvchi ijtimoiy ehtiyojdan kelib chiqadi. U narsaga go'yo boshqa odamlarning, jamiyatning ko'zi bilan qaraydi va unda mazkur jamiyat doirasida o'z hayoti uchun muhim bo'lgan narsani ko'radi. Inson jins bildiruvchi mavjudot sifatida narsalarda ularning jins bildiruvchi mohiyatini, narsaning g'oyasini izlaydi va bu g'oya inson uchun mazmun kasb etadi.

Ayni vaqtda shuni qayd etish lozimki, qadriyatlar odamlar uchun bir xil mazmun kasb etmaydi, u odamlarning jamiyatdagi mavqeiga va ular hal qilayotgan vazifalarga bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsiy avtomobil harakatlanish vositasi, qo'shimcha pul topish vositasi yoki shaxsning mavqeidan dalolat beruvchi buyum bo'lishi mumkin. So'nggi zikr etilgan holda avtomobil uning egasi boshqa odamlar ko'z o'ngida muayyan nufuz kasb etishi uchun imkoniyat yaratuvchi egalik ob'ekti sifatida muhimdir. Ko'rsatilgan holatlarning barchasida ayni bir predmet turli ehtiyojlar bilan bog'liq.

Qadriyatlar o'z tabiatiga ko'ra ob'ektivdir. Sub'et mavjud bo'lmagan joyda qadriyat to'g'risida so'z yuritish behuda ish ekanligi yuqorida qayd etilgan. Qadriyat insonga, uning tuyg'ulari, mayllari, emotsiyalariga bog'liq bo'ladi, ya'ni qandaydir sub'ektiv narsa yoki hodisa sifatida qaraladi. Bundan tashqari, individning buyumga bo'lgan qiziqishi yo'qolgani, buyum uning ehtiyojlarini qondirmay qo'ygani zahoti individ uchun buyum o'zining qadriyat sifatidagi ahamiyatini yo'qotadi. Boshqacha aytganda, sub'ekt bilan bog'liq bo'lmagan holda, uning ehtiyojlari, mayllari, manfaatlari bilan buyumning ishtirokisiz qadriyat mavjud bo'lishi mumkin emas.

### **Qadriyat nazariyasining shakllanish tarixi**

Qadimgi davrdayoq faylasuflarni qadriyatlar muammosi qiziqtirgan. Ammo o'sha davrda qadriyat borliq bilan ayniylashtirilgan. qadriyatga xos bo'lgan xususiyatlar esa uning mazmuniga kiritilgan. Masalan, Zardo'sht, Moniy, Suqrot va Platon uchun yaxshilik va adolat kabi qadriyatlar haqiqiy borliqning bosh mezonlari hisoblangan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar qadriyatlarni tasniflashga harakat qilganlar. Xususan, Moniy zulmat va ziyo dunyosi mavjud, birinchi dunyoda adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik, ikkinchisida esa abadiy, yengilmas doimiy qadriyatlar hukm suradi deb hisoblaydi.

Aristotel inson, baxt, adolat kabi qadriyatlar tizimi va anglab yetish imkoniyati insonning oqilligi bilan bog'liq bo'lgan nisbiy qadriyatlarni farqlaydi.

Turli davrlar va ularda mavjud bo'lgan falsafiy maktablar qadriyatlar tushunchasining shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan. Masalan, O'rta asrlarda G'arbda ham Sharqda ham qadriyatlar diniy xususiyat kasb etgan va ilohiy mohiyat bilan bog'langan. Uyg'onish davrida A.Navoiy, A.Jomiy, Rumi, Leonardo da Vinche ijodida insonparvarlik va hurfiylik qadriyatlari birinchi o'ringa chiqqan. Jumladan, A.Navoiyning odil jamiyat qurish haqidagi g'oyasida umuminsoniy qadriyatlar tizimi, muhabbat, komil inson ta'limotida esa eng yetuk inson qiyofiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ifodalangan.

Yangi davrda qadriyatlar haqidagi ta'limotga nisbatan yondashuvlar ratsionalizm nuqtayi nazaridan tavsiflana boshlanganki, bu hol fanning rivojlanishi va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan izohlanadi. Bu davrda qadriyatlar va ularning mezonlari muammosi Rene Dekart, Benedikt (Barux) Spinoza, Klod Adrian Gelvetsiy, Pol Anri Golbax, A.Avloniy, A.Donish, Furqat, Muqumiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Jumladan, A.Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asarida "yaxshi xulqlar- muhabbat, yaxshilik, adolat, haqiqat, shijoat, ibrat kabi ijobiy qadriyatlarni va razolat, g'iybat, jaholat, adovat kabi "yomon xulqlar"-ni farqlaydi. Keyinroq XX asrda o'zbek faylasufi S.Shermuxevedov Avloniy g'oyasini davom ettirib, insonga tabiat 36 ta ijobiy fazilat va 36 ta salbiy illat ato etganligini, ularning qay darajada namoyon bo'lishi inson o'z hayotining qadriga yetishida ko'rinishini e'tirof etadi.

Immanuel Kant falsafasi qadriyatlar haqidagi ta'limotning rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi. Kant mavjudlik va joizlik, voqelik va ideal, borlik va yaxshilik tushunchalarini birinchi bo'lib farqladi, erkinlik sifatidagi axloqiylik muammosini zaruriyat qonuni ta'siri ostida bo'lgan tabiat sohasiga qarama-qarshi qo'ydi va h.k.

Qadriyatlar nazariyasi falsafiy bilimlarning ilmiy tizimi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida Vilgelm Vindelband, Rudolf Lottse, German Kogen, Genrix Rikkert kabi nemis faylasuflarining asarlarida shakllana boshladi. Ayni shu davrda R. Lottse va G.Kogen ob'ekt ma'nosidagi qadriyat tushunchasiga ilk bor falsafiy ta'rif berdi.

XX asrning boshida frantsuz faylasufi P.Lapi qadriyatlar nazariyasini ifodalash uchun «aksiologiya» (yunon. axios - qadriyat, logos – fan, ta’limot) atamasini muomalaga kiritdi. Keyinchalik aksiologiya muammolari fenomenologiya, germenevtika, ekzistentsializm va boshqa falsafiy yo’nalishlarning vakillari tomonidan tadqiq etildi.

Mamlakatimizda qadriyatlar haqidagi fan sho’ro davrida, uning nazariy asosini idealistik falsafa tashkil qilgani uchun rad etildi. XX asrning 80-yillaridan e’tiboran bu nazariya rivojlana boshladi. Bu dastlab X.Shayxova ijodida milliy qadriyatlarning asosiy shakllari, inson qadri va shaxsiy qadriyatlarning tahlilida o’z ifodasini topdi. Binobarin o’z shaxsi va boshqalarning qadrini anglash uchun insonning ma’naviy dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo’lishi, uning o’zi esa hayotning behaho ne’mat ekanligini anglaydigan darajada tarbiyalangan bo’lmog’i lozim.

Demak, qadim zamonlardan boshlab hozirgi vaqtgacha falsafada qadriyat muayyan narsaning atributimi yoki u shaxs va jamiyat ehtiyojlari bilan belgilangan baholash mahsulimi, degan masala atrofida turli falsafiy maktablar va yo’nalishlarning vakillari o’rtasida muhokama qilingan va u hozir ham davom etmoqda. Birinchi holda qadriyat insondan qat’iy nazar mavjud bo’lgan ob’ektiv narsa yoki hodisa sifatida talqin qilinadi. Ikkinchi holda qadriyat tushunchasi erkin xususiyatga ega bo’lgan sub’ektiv nisbiy mulohazalar bilan bog’lanadi.

Qadriyat voqelikning, ya’ni tabiat, jamiyat yoki madaniyatning hodisalarining xossasi, degan fikrga qo’shilsak, haqiqat va qadriyatning ayniylashtirilishi muqarrardir. Ammo uning: «Baxt-saodat nima?», degan asosiy masalasini birinchi bo’lib ta’riflagan Suqrot haqiqat va qadriyat o’rtasida jiddiy farqlarni ko’rsatib bergan.

Bilim baxt-saodatga erishishning muhim sharti, lekin u mazkur qadriyatga erishishning birdan-bir sharti emas. Bu hol shu bilan izohlanadiki, tabiat va jamiyat predmetlari va hodisalari o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, ularni anglab yetish yo amalda nima mavjudligi haqidagi bilim shaklida, yo bu borliq qanday bo’lishi lozimligi, inson tabiatga va boshqa odamlarga nisbatan o’zini qanday tutishi kerakligi haqidagi tasavvur ko’rinishida amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holda predmet haqidagi bilim uning haqiqiyliyi yoki soxtaligi nuqtayi nazaridan, ikkinchi holda – predmetning qimmatini, ya’ni uning inson uchun ahamiyati nuqtayi nazaridan tavsiflanadi.

## Ehtiyojlar va qadriyatlar

Qadriyatning tabiati va mohiyatini tushunishga nisbatan bir nechta yondashuv mavjud bo'lib, quyida ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

1. Naturalistik psixologizm (Aleksius fon Meynong, Ralf Barton Perri, Jon Dyui, Klarens Irving Lyuis) qadriyatlarga manbai insonning biologik va psixologik ehtiyojlarida mujassamlashgan ob'ektiv omillar sifatida qaraydi. Mazkur yondashuv inson o'zining muayyan ehtiyojlarini qondirish jarayonida foydalanuvchi har qanday predmetlar va harakatlarni qadriyatlar qatoriga kiritish imkonini beradi.

2. Personalistik ontologizm. Mazkur yo'nalishning eng taniqli namoyandasi Mark Sheler ham qadriyatlarning ob'ektiv xususiyatini asoslashga harakat qilgan. Ammo, M.Sheler konsepsiyasiga binoan, muayyan predmetlar, hodisalar qadriyatini ularning empirik tabiati bilan ayniyilastirish mumkin emas. Aytaylik, rang o'zi tegishli bo'lgan predmetlardan qat'i nazar mavjud bo'lishi mumkin bo'lganidek, qadriyatlar ham (go'zallik, ezgulik, fojeaviylik) o'zlari tavsiflovchi narsalardan qat'iy nazar idrok etilishi mumkin.

M.Sheler fikriga ko'ra, qadriyatlar dunyosi muayyan ierarxiyaga ega. Bu ierarxiyaning quyi pog'onasini hissiy mayllarni qondirish va moddiy ne'matlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar egallaydi; yuksakroq qadriyatlar – bu «go'zallik» qadriyatlari va «ma'rifiy» qadriyatlar; «ilohiylik» va Xudo g'oyasi eng oliy qadriyat hisoblanadi. Bu qadriyatlar dunyosining realligi ilohiy shaxsning qadriyatiga asoslanadi. Inson shaxsining tipi esa unga xos bo'lgan qadriyatlar ierarxiyasi bilan belgilanadi. Ayni shu ierarxiya mazkur shaxsning ontologik asosi hisoblanadi.

3. Aksiologik transtsendentalizm (Vilgelm Vindelband, Genrix Rikkert) qadriyatlarni ob'ektiv borliq sifatida emas, inson ehtiyojlari va mayllariga bog'liq bo'lmagan ideal borliq sifatida tushunadi. Bunday qadriyatlar qatoriga mustaqil mazmun kasb etadigan va ideal me'yorlar tarzida mavjud bo'lgan qadriyatlar – haqiqat, yaxshilik, adolat, go'zallik kiradi. Shunday qilib, mazkur konsepsiyada qadriyat borliq emas, balki manbai muayyan transtsendental, ya'ni g'ayrioddiy ong sanalgan idealdir.

4. Madaniy-tarixiy relyativizm. Aksiologiyaning bu yo'nalishi asoschisi Vilgelm Diltey bo'lgan. Uning ta'limoti zahirida

aksiologik plyuralizm g'oyasi yotadi. Aksiologik plyuralizm deganda, Deltey tarixiy metod yordamida farqlanuvchi va tahlil qilinuvchi teng huquqli qadriyatlar tizimlarining ko'p sonliligini tushungan. Mohiyat e'tibori bilan bu yondashuv real madaniy-tarixiy kontekstni mavhumlashtirib, qadriyatlarning birdan-bir to'g'ri, mutlaq konsepsiyasini yaratish yo'lidagi urinishlarni tanqid tig'i ostiga olgan.

5. Qadriyatlarning sotsiologik konsepsiyasi. Bu konsepsiyaning asoschisi qadriyatlar tushunchasini sotsiologiyaga kiritgan va undan ijtimoiy harakat va ijtimoiy bilimni talqin qilish uchun foydalangan Maks Veberdir. Veber fikriga ko'ra, qadriyat – ijtimoiy sub'ekt uchun muayyan ahamiyatga ega bo'lgan me'yor.

Keyinchalik M.Veberning bu yondashuvini amerikalik sotsiolog Uilyam Tomas va polyak sotsiologi Florian Znanetskiy rivojlantirdi. Bu olimlar qadriyatlarni ularning ijtimoiy ahamiyati nuqtayi nazaridagina emas, balki ijtimoiy mo'ljallar orqali ham tavsiflay boshladilar. Ularning fikriga ko'ra, tavsiflash mumkin bo'lgan mazmunga va muayyan ijtimoiy guruh a'zolari uchun ahamiyatga ega bo'lgan har qanday predmet qadriyat hisoblanadi. Mo'ljallar esa guruh a'zolarining qadriyatga bo'lgan sub'ektiv munosabatini anglatadi.

Hozirgi zamon falsafiy va sotsiologik adabiyotlarida ham qadriyatlarning tabiati va mohiyatini tushunishga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim tadqiqotchilar qadriyatga insonning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yoki unga muayyan foyda keltirishga qodir bo'lgan predmet sifatida; ayrimlar – ideal, me'yor sifatida; yana bir guruh olimlar – biron-bir narsaning inson yoki ijtimoiy guruh uchun ahamiyati sifatida yondashadilar. Zikr etilgan yondashuvlarning har biri mavjud bo'lish huquqiga ega, chunki ularning barchasi qadriyatlarning muayyan jihatini aks ettiradi; ularga bir-birini istisno etuvchi yondashuvlar sifatida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar sifatida qarash kerak. Mazkur yondashuvlar sintezi hozirgi zamon qadriyatlar umumiy nazariyasini tashkil etadi. Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida o'z holicha emas, balki vujudga kelgan qadriyatlarga munosabatlar tizimi zaminida muhim o'rin egallaydi. Qadriyatlarning butun rang-barangligini uch asos: ijtimoiy hayot sohalariga, sub'ektlarga, qadriyatlarning jamiyat hayotidagi roliga ko'ra tasniflash mumkin.

Ehtiyojlar tashqi muhit predmetlari va sharoitlariga yoki ichki, ma'naviy uyg'unlikka erishishga muhtojlik sifatida anglanadi. Ular tashqi dunyo bilan muayyan munosabatlarda namoyon bo'lib, ob'ektlarni, o'zlari yo'naltirilgan mavjud borliqni ham, o'z manbai sanalgan sub'ektning muhim xususiyatlarini ham tavsiflaydi. Shaxs faolligining teran asosi sanalgan ehtiyojlar inson faoliyatini ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiruvchi mo'ljallar, mayllar va manfaatlarda o'z rivojini topadi. Aynan ehtiyojlar inson ongining nisbiy mezzoni, uning mayllari, manfaatlari, didlari va ideallarining poydevori hisoblanadi. Inson ehtiyojlari o'zgaruvchan, harakatchan, o'zaro bog'langan va bir-birining o'rmini bosishga qodir. Ularning ayrimlari vujudga keladi, ba'zilari yo'q bo'ladi, ayrimlari actual-lashadi, ba'zilari ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Inson ehtiyojlari sifat jihatidan cheksiz va kengayishga qodir, zero, ularning shakllanishi individlarning bir-biri va jamiyat bilan ijtimoiy aloqalarining ko'p sonlihi va intensivligini aks ettiradi. Ijtimoiy hayotning, ijtimoiy munosabatlar majmuining murakkablashuvi va differentsiat-siyalanishi, moddiy va ma'naviy hayotning o'z me'yorlari va qadriyatlar bilan rivojlanishi, inson ma'naviy hayotining jo'shqinligi – bularning barchasi uning ehtiyojlari o'zgarishi va rivojlanishini belgilaydi.

Qadriyatlar ehtiyojlar bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, lekin ular bilan uzviy emas. Ehtiyojlar harakatchan, qadriyatlar nisbatan barqarordir; ehtiyojlar ierarxiyaviy bo'lib, ularning ierarxiyasi muntazam ravishda o'zgaradi, qadriyatlar esa nisbatan o'zgarmas va individ tomonidan uning ijtimoiylashuvi jarayonida o'zlashtiriladi. Bu hayotning har qanday sohasida yuz bergan yangiliklarga nisbatan ancha keng tarqalgan muxolifatni izohlaydi. Masalan, rim imperatorlari xristian dinini tan olgunlariga qadar xristianlarni asrlar mobaynida quvg'in qilinganlar. Ibn Sino, Imom Buxoriy o'z davrida tan olinmagan va yurtidan quvg'in qilingan. Belorusiyalik mashhur rassom Mark Shagalning o'ziga xos ijodi, garchi butun dunyoda yuksak baholangan bo'lsa-da, o'z vatanida hanuzgacha tan olinmagan va uncha ma'lum emas. Sezann ijodi rassomning o'limidan keyingina tan olingan, uning tiriklik paytida esa mazkur buyuk musavvirning asarlari Parijdagi zamonaviy san'at ko'rgazmalarida biror marta ham namoyish etilmagan, chunki nufuzli hay'at uning asarlarini diqqatga sazovor deb hisoblamagan va sh.k. Ayni hol shu bilan izohlanadiki,



ehtiyotlar anglanishi yoki anglanmasligi yoinki noto'g'ri anglanishi mumkin. Shu sababli amalda muhim hodisalar qadriyatlar sifatida idrok etilmasligi, amalda qimmatga ega bo'lmagan narsa esa yanglish tarzda qadriyat sifatida tasavvur qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ehtiyotlarni qondirishga yo ko'maklashuvchi, yo monelik qiluvchi hodisalar mavjud. Binobarin, ahamiyatga ega bo'lgan hamma narsalar ham qadriyat sanalavermaydi, balki ijobiy ahamiyatga molik hisoblanadi.

Shunday qilib, qadriyat deganda biron-bir ob'ektning ijobiy ahamiyati tushuniladi. Ammo ayrim hollarda biron-bir ob'ektning ijobiy ahamiyati foydalilik chegarasidan chetga chiqmasligi mumkin (masalan, quyosh nuri o'simliklar uchun foydali). Muhimlikni ob'ektiv talqin qilish mumkin. Qadriyat esa inson uchun muhim bo'lgan hodisaning mazmunini aniqlashni nazarda tutadi. Shu sababli qadriyat tabiat hodisalarining insonga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv aloqasi sifatidagi foydalilik ayrim ko'rinishi sanalgan hodisalarning moddiy predmetli borlig'i bilan mos kelmaydi.

### **Qadriyatlarning turlari**

Qadriyatlar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi. Mazmun jihatidan jamiyatning kichik tizimlari haqidagi tasavvurlarga mos keluvchi – moddiy (iqtisodiy), siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar farqlanadi. Kichik tizimlarning har biri o'z tasnifini nazarda tutuvchi tarkibiy qismlarga bo'linadi. Masalan, moddiy qadriyatlar ishlab chiqarish-iste'molga doir (utilitar) qadriyatlarni, mulkiy, maishiy munosabatlar bilan bog'liq qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy qadriyatlar axloqiy, ma'rifiy, estetik, diniy g'oyalar, tasavvurlar va bilimlarni o'z ichiga oladi.

Tarixiy xususiyatiga ko'ra qadriyatlar jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichiga mos keladi yoki turli demografik guruhlar (yoshlar, keksa avlod vakillari)ning, shuningdek kasbiy, sinfiy, diniy, siyosiy va boshqa birlashmalarning qadriyatlarini aks ettiradi. Jamiyat ijtimoiy tuzilishining bir jinsli emasligi qadriyatlarning va qadriyatlarga munosabatning bir jinsli emasligini va hatto ziddiyatligini vujudga keltiradi. Shu ma'noda qadriyatlar ijtimoiy munosabatlar mavjudligining moddiy shaklidir.

Mavjudlik shakliga ko'ra moddiy va ma'naviy qadriyatlar farqlanadi. Ijtimoiy hayotning asosiy sohalariga muvofiq odatda

qadriyatlarining uch guruhi farqlanadi: moddiy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va ma'naviy qadriyatlar.

Moddiy qadriyatlar – bu qadriyat ahamiyatiga molik bo'lgan tabiiy ob'ektlar va predmetlar, ya'ni mehnat vositalari va bevosita iste'mol buyumlaridir. Tabiiy qadriyatlar qatoriga tabiiy boyliklarda mujassamlashgan tabiiy ne'matlar kiradi. Moddiy qadriyatlar jumlasiga inson mehnati natijasida yaratilgan moddiy dunyo predmetlari, shuningdek o'tmish madaniy merosi predmetlari kiradi. Moddiy qadriyatlar – bu tabiiy ne'matlar, mehnat mahsullarining iste'mol qiymati, ijtimoiy hodisalarda mujassamlashgan ijtimoiy ne'matlar, tarixiy voqealar, madaniy meros, axloqiy ezgulik, go'zalik mezonlarini qanoatlantiruvchi estetik hodisalar, diniy ibodat predmetlari yoki o'zining muayyan ramziy ifodasini topgan diniy g'oyalar va sh.k.lardir. Moddiy qadriyatlar ongda emas, balki odamlar hayot faoliyatida amal qiluvchi muayyan narsalar, hodisalar dunyosida mavjud bo'ladi. Moddiy qadriyatlarining asosiy sohasi – shaxs va jamiyatning barkamollik haqidagi tasavvurlarini gavdalantiruvchi insonning maqsadga muvofiq faoliyati mahsullaridir. Bunda o'zining moddiy ifodasini topgan qadriyat sifatida faoliyat natijasi ham, faoliyatning o'zi ham amal qilishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar – bu ijtimoiy va siyosiy hodisalar, voqealar, siyosiy aktlar va harakatlarning qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qatoriga, odatda, siyosiy va ijtimoiy harakatlarda mujassamlashgan ijtimoiy imtirozlar, shuningdek jamiyatning ravnaq topishi, xalqlar o'rtasida tinchlik va hamkorlikning mustahkamlanishiga ko'maklashuvchi tarixiy voqcalarning progressiv ahamiyati kiradi.

Ma'naviy qadriyatlar – bu ijtimoiy ong hodisalarining tegishli shakllarda namoyon bo'lgan me'yoriy-nisbiy tomoni. Fan, axloq, san'at, falsafa, huquq qadriyatlarini ma'naviy qadriyatlar deb hisoblash odat tusini olgan.

Ma'naviy qadriyatlar qatoriga baxt-saodat, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, adolat va adolatsizlik, huquqiylik va nohuquqiylik, tarixning mazmuni va insonning vazifasi va hokazolar haqidagi me'yoriy tasavvurlar ko'rinishida ifodalangan ijtimoiy ideallar, mo'ljallar va baholar, me'yorlar va taqiqlar, harakatlar kiradi. Moddiy qadriyatlar inson ehtiyojlari va manfaatları ob'ektlari sifatida amal qilsa, ma'naviy qadriyatlar ikki xil funktsiyani bajaradi: ular

qadriyatlarning mustaqil sohasi va moddiy qadriyatlarni baholash asosi, mezonidir.

Ma'naviy qadriyatlar mazmun jihatidan, funksiyalariga ko'ra va ularni ro'yobga chiqarishga qo'yiladigan talablarga ko'ra rang-barangdir. Faoliyat maqsadlari va usullarini qat'iy belgilovchi qoidalarning butun bir turkumi mavjud. Bular standartlar, qoidalar, qonunlar, andozalar. Madaniyat algoritmi sifatida xizmat qiluvchi me'yorlar, didlar, ideallar qadriyatlarni ro'yobga chiqarishda ko'proq erkinlik beradi.

Me'yor – faoliyatning yagona va barqaror shartlar bilan belgilanuvchi optimalligi va maqsadga muvofiqligi haqidagi tasavvur. Me'yorlar quyidagilarni: hatti-harakatlarning yagona ko'rinishini; xulq-atvorning boshqa ko'rinishlariga nisbatan taqiqni; mazkur ijtimoiy sharoitlarda xatti-harakatlarning maqbul varianti (andozasi)ni; me'yordan chetga chiqish mumkin emasligi haqida ogohlantirish maqsadida ayrim shaxslarning xulq-atvorini baholashni (ba'zan ayrim sanksiyalar ko'rinishida) o'z ichiga oladi. Me'yoriy tartibga solish inson faoliyati va munosabatlari tizimini to'la qamrab oladi. Ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlash tizimi ularni amalga oshirishning sharti hisoblanadi. Mazkur tizim xatti-harakatni ijtimoiy ma'qullash yoki qoralashni, o'z faoliyatida me'yorga rioya qilishi shart bo'lgan shaxsga u yoki bu sanksiyalarni tayinlashni nazarda tutadi.

Ideal – barkamollikning oliy me'yori haqidagi tasavvur, shaxsning inson va tabiat, inson va inson, shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga solish, barkamollashtirish va uyg'unlashtirishga bo'lgan ehtiyojining ma'naviy ifodasi. Ideal tartibga soluvchi funksiyani bajaradi, u inson ro'yobga chiqarishga butun umrini bag'ishlashga tayyor bo'lgan strategik maqsadlarni aniqlash imkonini beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Idealga amalda erishish mumkinmi? Aksariyat mutafakkirlar bu savolga rad javobini bergan: ideal barkamollik va tugallanganlik timsoli sifatida empirik yo'l bilan kuzatiluvchi borliqda o'z o'xshashiga ega emas, u ongda transtsendentallik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Shunga qaramay ideal ma'naviy qadriyatlarning jamuljam ifodasi hisoblanadi.

Moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qadriyatlar o'rtasida mavjud tafovutlarga qaramay, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq va qadriyatlarning har bir turida boshqa bir turning muayyan jihati mavjud. Ayni paytda, shunday qadriyatlar ham borki, ularni moddiy

qadriyatlar qatoriga ham, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qatoriga ham, ma'naviy qadriyatlar qatoriga ham kiritish mumkin. Bu avvalo inson hayoti, sog'lig'i, erkinligi va shu kabilardir.

Sub'ektlar maqomiga ko'ra individual shaxsiy (sub'ektiv-shaxsiy), gruppaviy, umuminsoniy qadriyatlar farqlanadi - (gruppaviy, milliy, sinfiy, umuminsoniy) qadriyatlar farqlanadi.

Individual yoki shaxsga doir qadriyat – bu narsa, hodisa, g'oyaning muayyan inson uchun qadriyat sifatidagi ahamiyati. Har qanday qadriyat o'z mohiyatiga ko'ra individualdir. zero, narsa, hodisa, g'oyani faqat insongina baholashga qodir. Shaxsiy qadriyatlar ta'lim va tarbiya, individ hayot tajribasini to'plashi jarayonida shakllanadi Shaxsiy qadriyatlar individning ehtiyojlari va manfaatlari ta'sirida vujudga keladi. Ular kishilarning mayllari, didlari, odatlari, bilim darajasi va boshqa individual xususiyatlari bilan belgilanadi.

Jamoaviy qadriyatlar – bu narsalar, hodisalar, g'oyalarning odamlar muayyan birligi (sinf, millat, mehnat jamoasi va sh.k.) uchun qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Jamoaviy qadriyatlar muayyan guruxga kiruvchi individlarni yagona manfaatlar, qadriyatlar va mo'ljallar bilan birlashtirib, mazkur jamoaning hayot faoliyatida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar – bu narsalar, hodisalar, g'oyalarning jahon hamjamiyati uchun qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Umuminsoniy qadriyatlar, birinchidan, jahon hamjamiyati aholisining aksariyati amal qiladigan ijtimoiy-siyosiy va axloqiy tamoyillardir. Ikkinchidan, umuminsoniy idealalar, umumxalq maqsadlari va ularga erishishning asosiy vositalari (ijtimoiy adolat, insonning sha'ni va qadr-qimmat, fuqarolik burchi va sh.k.) majmuidir. Uchinchidan o'z mohiyati va ahamiyatiga ko'ra umuminsoniy xususiyat kasb etuvchi qadriyatlar: tabiiy boyliklar, tinchlikni saqlash, qurolsizlanish, xalqaro iqtisodiy tartib muammolaridir. Umuminsoniy qadriyatlar – jamiyat va madaniyatning rivojlanishi mahsuli.

Shaxsiy, jamoaviy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan ijtimoiy nuqtayi nazardan uzviy bog'liq.

Ijtimoiy qadriyatlar shaxsning kamol topishida birlamchi ahamiyatga ega, ular shaxsga ijtimoiy sharoitlarga moslashish, jamiyatda muayyan o'rinni egallash, qoniqarli shaxsiy maqomga ega bo'lish imkonini beradi. Shaxs o'zining ijtimoiylashuvi jarayonida

asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtiradi.

Psixologiya ijtimoiy qadriyatlarning individ ruhiy hayotining barqaror ichki elementlariga aylanish mexanizmlari qanday, degan savolga ham javob beradi. Bunday mexanizm interiorizatsiya, ya'ni tashqi dunyoning ayrim jihatlarni insonning shaxsiy ruhiy hayotiga kiritishdir. Buning natijasida tashqi dunyoning ichki omillari inson tafakkuri va xulq-atvoriga, uning ruhiyati ichki strukturalarining shakllanishiga ijtimoiy faoliyatning tashqi strukturalarini o'zlashtirish orqali ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi zamon psixologiyasida tarixiy interiorizatsiya g'oyasi ham ilgari suriladi: muayyan tarixiy davrda odamlar ommaviy xulq-atvorining shakli hisoblangan mexanizmlar keyinchalik ongning ichki mexanizmlariga aylanadi. Bunga rasm-rusumlar, teatr, cherkov, o'yin qabi kollektiv harakatlar, hozirgi sharoitda esa – maktab, televideniye, ommaviy axborot vositalari misol bo'lishi mumkin.

Ammo individual qadriyatlarning shakllanishida faoliyatning rang-barang shakllari (mehnat, bilish, muloqot, o'yin)gina ishtirok etmaydi. Bunday vosita sifatida umuman ijtimoiy tuzilmalar amal qiladi. Bozor va kundalik turmush, reklama va moda, siyosat va huquq, ta'lim va tarbiya, ommaviy axborot vositalari va san'at, hukmron madaniy me'yorlar va ijtimoiy-siyosiy institutlar tomonidan rasmiy darajada andoza sifatida e'tirof etilgan ayrim shaxslarning obro'si, ijtimoiy-psixologik stereotiplar, andozalar, axloq va tabu – bularning barchasi jamiyat ma'naviy hayotining shaxsning qadriyatlarga munosabatini shakllantiruvchi omillaridir.

Qadriyatlarga munosabat individning hayot tajribasi va shaxs kechinmalarining butun majmui bilan mustahkamlanadi va tartibga solinadi. Ular individga muhimni nomuhimdan ajratish imkonini beradi, motivlarning barqarorligini hamda shaxs xulq-atvori va tafakkurining vorisiyligini belgilaydi. Ustuvor qadriyatlarni tanlash jarayonida o'z-o'ziga munosabat va haqiqiy shaxsiy maqom o'rtasidagi ziddiyat, shuningdek o'z individuallashgan qadriyatlari bilan nufuzli ijtimoiy guruhlar tomonidan e'tirof etilgan qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni anglash ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Jamiyat va inson hayotidagi qadriyatlarni uchta darajasini ajratish mumkin:

1. Inson va jamiyat uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar. Bu shunday qadriyatlarki, ularsiz jamiyat va insonning normal faoliyati izdan chiqmaydi. Masalan, avtomobil moddiy qadriyat, lekin u bo'lmasa ham inson o'z hayotini to'g'ri tashkil etishi mumkin, ikki qavatli hovli egasi bo'lish.

2. Kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar. Bular insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, jamiyatning normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qadriyatlardir.

3. Oliy qadriyatlar – o'z ahamiyatiga ko'ra eng yuksak darajada turuvchi, odamlarning fundamental munosabatlari va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlardir. Oliy qadriyatlarsiz nafaqat inson shaxs sifatida kamol topa olmaydi, balki jamiyat ham normal hayot kechira olmaydi. Oliy qadriyatlarning mavjudligi doimo individning shaxsiy hayoti chegarasidan chetga chiqish bilan bog'liq. Ular individni uning o'zidan yuksak bo'lgan, uning hayotini belgilaydigan, uning taqdiri uzviy bog'liq bo'lgan narsalar bilan oshno etadi. Ayni shu sababli oliy qadriyatlar odatda umuminsoniy xususiyat kasb etadi.

Oliy qadriyatlar guruhida hayot (hayot qadriyatlari), sog'liq va erkinlik alohida farqlanadi.

Insoni umri eng oliy qadriyatlar qatoriga kiradi, zero, hayotsiz inson bo'lmaydi va qadriyatlar ham bo'lishi mumkin emas. Individ uchun hayot boshqa biron-bir narsaga bog'liq bo'lmagan holda eng yuksak qadriyat, ne'mat sifatida amal qiladi. O'z navbatida, hayotning qimmati boshqa barcha qadriyatlar uchun o'ziga xos zamin va cho'qqi hisoblanadi. Hayotning qimmati qanday tushunilishiga qarab odamlar o'rtasidagi munosabatlar va jamiyatning insonga bo'lgan munosabati ham shakllanadi.

Birinchi holda hayotning qimmatiga individual nuqtayi nazardan yondashilsa, ikkinchi holda – ijtimoiy nuqtayi nazardan yondashiladi, ya'ni bu yerda hayotning ahamiyati individning o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun belgilanadi. Insonning o'zi qadriyat hisoblanadimi, degan savolning ikki tomoni bor 1) inson uchun boshqa odamning va umuman insonning qimmati nimada? 2) uning o'z hayotining qimmati nima bilan o'lchanadi? Tafsilotlarga berilmay shuni qayd etamizki, bu savollarga javoblar aniq va uzil-kesil bo'lishi mumkin emas. Gap shundaki, individning boshqa odamlarga qiziqishi odamlar qandayligiga emas, balki uning o'zi qandayligiga ham

bog'liq bo'ladi. Bunga yana shuni qo'shimcha qilish joizki, inson hayotining va insonning qimmati to'g'risidagi masalaning qo'yilishi tarixiy sharoitlar bilan bevosita bog'liq. Masalan, Quldorlik davrida quldor o'z qulini o'ldirishi jinoyat hisoblanmagan va jazoga tortilmagan. Hozirgi vaqtda har bir kishining yashash huquqi tan olingan va odam o'ldirishni u yoki bu tarzda jazolamaydigan mamlakat mavjud emas. Xullas, inson – alohida, mutlaq qadriyat. Qolgan barcha qadriyatlar inson manfaatlari nuqtayi nazaridan baholanadi.

Moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qadriyatlarning bir qismi oliy qadriyatlar qatoriga kiradi. Bular avvalo: tinchlik, insoniyat hayoti; adolat, erkinlik, odamlarning huquqlari va burchlari, do'stlik va mehribonlik haqidagi tasavvurlar; qarindoshlik aloqalari; faoliyat qadriyatlari (mehnat, ijod, bunyodkorlik, haqiqatni anglab yetish); o'z-o'zini asrash qadriyatlari (hayot, sog'liq); o'z shaxsiyatini namoyon etish, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish qadriyatlari; shaxsiy fazilatlarini tanlashni tavsiflovchi qadriyatlar (halollik, dovyuraklik, sadoqat, adolat, yaxshilik) va h.k.

Inson sog'lig'i – tabiiy, mutlaq va boqiy oliy qadriyatdir. Insonning barcha ehtiyojlarini qondirish darajasi uning sog'lig'i qay darajada ekanligi bilan belgilanadi. Sog'liqqa bo'lgan ehtiyoj yalpi xususiyat kasb etadi, u ayrim individlarga ham, butun jamiyatga ham xos. Shu sababli individual (shaxsiy) sog'liq va jamiyat sog'lig'i yoki aholi salomatligi farqlanadi.

Sog'liqning holati inson va jamiyat hayotining barcha sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, muayyan inson hayotining to'laqonliligi va faolligi uning sog'lig'i darajasiga. «sifat» xususiyatlariga bevosita bog'liq. O'z navbatida, aholi salomatligi mehnat resurslarining sifatiga, ijtimoiy mehnatning unumdorlik darajasiga va shu tariqa jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi dinamikasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Erkinlik inson uchun oliy qadriyatdir. Bu kategoriyaning falsafiy talqini quyidagicha: erkinlik – bu insonning ob'ektiv zaruriyatni bilishga tayangan holda o'z manfaatlari va maqsadlariga muvofiq ish ko'rish qobiliyatidir.

Erkinlik doim va hamma joyda eng buyuk qadriyat hisoblanadi. Boshqa hollarda bo'lganidek, erkinlik uni inson anglagan taqdiridagina qadriyatga aylanadi. Erkinlikning qimmati anglab

yetilmagan, inson o'zini boshqa odamlar bilan teng jonzot sifatida idrok etmagan joyda o'ziga qadriyat sifatida yondashish ham, insonning qadr-qimmatini ham mavjud bo'lmaydi. O'zining erksizligini tushunish va erkinlikning qimmatini anglab yetish tub ijtimoiy o'zgarishlar davrida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi.

Erkinlik – barcha odamlarning sivilizatsiya yutuqlaridan teng darajada foydalanish va o'z mehnati mevalarini va o'z taqdirini tasarruf etish huquqi. Erkinlik yo'l tanlash imkoniyatidir. Ongli ravishda amalga oshiriladigan har qanday yo'l tanlash kabi, erkinlik ham shaxs uchun muqobil imkoniyatlardan birini afzal ko'rish va boshqasidan voz kechish bilan bog'liq. Yo'l tanlash shaxsning keyingi faoliyatini cheklovchi omilga aylanmasligi uchun u muhim qoidaga amal qilishi lozim: har safar yo'l tanlashni amalga oshirayotganda keyingi yo'l tanlashlar istiqboli toraymasligiga, balki insonga o'zining yangi kasbiy, axloqiy va intellektual imkoniyatlarini aniqlash imkonini berib, kengayib borishiga erishishga harakat qilish kerak. (AQSh 200 yil va Hindiston 400 yil Angliya mustamlakasiga, Gretsiya 400 yil Turkiya mustamlakasiga qarshi erkinlikka erishish uchun kurash olib bordi. O'zbekiston 150 yillik mustamlakadan so'ng 1991-yilda erkinlikka erishdi).

### **Qadriyatlarga munosabat**

Shaxsning qadriyatlarga bo'lgan munosabati g'oyasi ilmiy muomalaga XX asrning 20-yillarida sotsiologlar U.Tomas va F.Znanetskiy tomonidan kiritilgan. Ular qadriyatlarga munosabatni shaxsning uning xulq-atvorini tartibga soluvchi ijtimoiy mo'ljali sifatida yondashgan. Bu tushunchaning ko'p sonli turli talqinlari paydo bo'lgan. Biz quyidagi ta'rifga qarab mo'ljal olamiz.

Qadriyatlarga munosabat – bu shaxsning hayot tajribasi, uning barcha kechinmalari majmui bilan mustahkamlangan va shaxs uchun muhim ahamiyatga molik bo'lgan narsalarni ikkinchi darajali, ahamiyatsiz narsalardan ajratuvchi muhim elementlari.

Vujudga kelgan va qadriyatlarga munosabatlar majmui ongning shaxsning barqarorligini, muayyan turdagi xulq-atvor va faoliyatning vorisiyligini ta'minlovchi, individning ehtiyojlari va manfaatlariga yo'l ko'rsatuvchi o'ziga xos o'zagini tashkil etadi. Ayni shu sababli qadriyatlarga munosabat shaxs motivatsiyasini tartibga soluvchi, belgilovchi muhim omil hisoblanadi.



Rivojlangan qadriyatlarga munosabat – shaxsning yetuklik belgisi, uning ijtimoiylik darajasi ko'rsatkichi. Vatanparvarlik, insonparvarlik, ijod shaxsning muhim qadriyatlarga munosabatlari hisoblanadi.

Qadriyatlarga munosabatlarning barqaror va ziddiyatlardan xoli majmui shaxsning muayyan tamoyillar va ideallarga sodiqlik, bu ideallar va qadriyatlarga erishish yo'lida g'ov-to'siqlardan oshib o'tishga qodirlik, hayot pozitsiyasining faolligi, maqsadga erishish yo'lida tirishqoqlik kabi fazilatlarini belgilaydi. Qadriyatlarga munosabatlarda ziddiyatlilik xulq-atvorda noizchilikni vujudga keltiradi. Qadriyatlarga munosabatlarning norasoligi – infantilizm (bolalik yoshi xossalari), shaxsning ichki strukturasiidan tashqi stimullarning ustunligi belgisini ifodalaydi.

### **Qadriyatlarni baholash**

Baholash – buyunning inson faoliyati, uning ehtiyojlarini qondirish uchun ahamiyatini anglab yetish vositasi. Baholash sub'ektning o'z hayoti va faoliyati uchun hodisalarning ijtimoiy ahamiyatini aniqlashidir. U insonga hodisalar dunyosida mo'ljal olish imkonini beradi, uning faoliyatini yo'lga soladi. Baholash universaldir: u sezgilar va aql-idrok darajasida, emotsiyalar va tuyg'ular, tasavvurlar, idroklar, mulohazalar, mayllar, istaklar, intilishlar, afzalliklar, faoliyat ko'rinishida ro'yobga chiqib, inson hayot faoliyatining barcha turlariga ta'sir ko'rsatadi.

Baholashning mohiyatini teranroq anglab yetish uchun uni «qadriyat» bilan solishtirish o'rinli bo'ladi. Baholash va qadriyat – bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar, lekin ularning o'rtasida jiddiy farq ham mavjud. Xo'sh, bu farq nimalarda ko'rinadi?

Birinchidan, qadriyat biz baho berayotgan narsa, ya'ni baholash predmeti bo'lsa, baholash – bu baho berish jarayoni, ya'ni aqliy faoliyat bo'lib, uning natijasi o'laroq borliqning muayyan predmeti biz uchun qanday qimmatga ega ekanligi aniqlanadi. Predmetni yoki uning xossasini foydali, yoqimli, yaxshi, chiroyli deb topib, biz baholashni amalga oshiramiz.

Ikkinchidan, faqat ijobiy ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlardan farqli o'laroq («salbiy qadriyatlar» bo'lishi mumkin emas), berilgan baho ijobiy bo'lishi ham, salbiy bo'lishi ham mumkin. Biz muayyan predmetni yoki uning xossasini foydali emas, balki zararli deb topishimiz, muayyan xatti-harakatni yomon, axloqqa zid

deb baholashimiz, ko'rilgan filmni mantiqsiz deb qoralashimiz mumkin.

Bunday fikrlarning barchasi baholash hisoblanadi.

Uchinchidan, qadriyat amaliy munosabat mahsuli sifatida ob'ektiv hisoblanadi. Baholash esa sub'ektivdir. U ob'ektiv qadriyatning sifatigagina emas, balki baholovchi sub'ektning ijtimoiy va individual fazilatlariga ham bog'liqdir. Ayni shu sababli ayni bir hodisa ayni bir davrda yashayotgan odamlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin.

Bu yerda haqiqiy va soxta baholar to'g'risidagi masala yuzaga kelishi mumkin. Baholash ilmiy bilimlarga tayanishi ham mumkin ayni paytda, odatdagi bilimlarga, an'analarda, odatlarda mujassamlashgan ijtimoiy tajribaga va hatto turli xurofiy aqida va bid'atlarga tayanishi ham mumkin. Berilgan bahoning haqqoniyligi sub'ekt qadriyatning ob'ektiv ahamiyatini qay darajada aniq anglab yetgani bilan belgilanishini tushunish muhimdir. Haqiqat to'g'risidagi masalada bo'lganidek, bu yerda ham amaliyot bosh mezon hisoblandi.

Baholash strukturasi ikki tomonni shartli ravishda farqlash mumkin. Baholashning birinchi tomoni narsalar, xossalar, jarayonlar va hokazolarning ayrim ob'ektiv xususiyatlarini qayd etish bo'lsa, ikkinchi tomoni sub'ektning ob'ektga bo'lgan munosabati: ma'qullash yoki qoralash, xayrixohlik yoki yomon ko'rish va hokazolardir. Birinchi tomonning baholashi bilimga yaqinroq bo'lsa, ikkinchi tomonning baholashi me'yorga yaqinroqdir.

Baholashning funktsiyalari ham uning ichki ziddiyatlarga to'la tabiati bilan belgilanadi. Hozirgi zamon qadriyatlar nazariyasida odatda baholashning quyidagi funktsiyalari farqlanadi.

Dunyoqarashga doir funktsiyaga muvofiq baholash sub'ekt o'zligining shakllanishi, amal qilishi va kamol topishining zaruriy sharti hisoblanadi, chunki har doim uning uchun atrof borliqning ahamiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Gnoseologik funktsiya borliqning in'ikosi, ob'ektlarning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetish omili sanalgan baholash va bilishning o'ziga xos jihati hisoblanadi.

Baholashning faollashtiruvchi funktsiyasi bilishning bilimlardan foydalanishga qaratilganini aks ettiradi, amaliy faoliyatga faol intilish va munosabatni shakllantiradi.

Variativ funktsiya baholashda tanlashni, sub'ekt muayyan ob'ektlarni, ularning xossalari, munosabatlarini afzal ko'rishini nazarda tutadi. Baholash hodisalarni taqqoslash va ularning jamiyatda mavjud me'yorlar, ideallar bilan o'zaro nisbatini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, qadriyatning mohiyatini va uning baholash bilan o'zaro aloqasini o'rganish qadriyatlarining tasnifiga o'tish imkonini beradi. Qadriyatning borlig'i baholash bilan uzviydir. Baholash yo'li bilan individ ayrim qadriyatlarni aktualashtiradi, ba'zi bir qadriyatlarni esa rad etadi, ularning ierarxiasini o'rnatadi.

Baholash strukturasi, baholash predmeti, sub'ekt va asosi kiradi. Baholashning ob'ektiv mazmuni uning predmeti bilan belgilanadi. Shu sababli baholash bilish bilan bevosita bog'liq, zero, predmetning ahamiyati haqida xulosa chiqarishdan oldin uning ob'ektiv xossalari haqida bilimga ega bo'lish lozim. Haqiqiy, ishonchli bilimning o'zi baholash uchun asos bo'lishi mumkin.

Haqiqatning amaliy jihatdan foydaliligi uni ijobiy tavsiflash imkonini beradi. Ammo haqiqatga berilgan salbiy baholar ham ma'lum: masalan behuda, shafqatsiz, befoyda va sh.k. Bu tasodifiy bir hol emas: ilmiy bilish o'z oqibatlarini mavhumlashtiradi va aksariyat olimlar fan va axloqning aloqasini rad etadi. Ayrim universal aloqani xolisona tavsiflashga qarab mo'ljal oluvchi ilmiy bilimdan farqli o'laroq, baholash bu aloqaning mazmunini tushunish, uning ahamiyatini tafakkur va emotsiyalar darajasida anglab yetish va boshdan kechirishdir. Baholashga doir mulohazalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bilim borliq hodisalarini erkin baholashga monelik qilmaydi. Bilishga doir mulohazalar intersub'ektiv hamda nuqtayi nazarlarga bog'liq bo'lmasa, baholashga doir mulohazalar sub'ektiv bo'lib, har xil asoslarga ega. Biz estetik, siyosiy, axloqiy, dunyoqarashga doir, mafkuraviy qadriyatlarda erkin baholashlarga ayniqsa ko'p duch kelamiz. Ma'lumki, natijalar, metodlar va vositalarni baholash – bilish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi. Yanglish tasavvurlar, gipotezalarning ilmiy ahamiyatini baholash ham muhim muammodir.

Bilimning haqiqiyiligi uning ob'ektiv borliqqa bo'lgan munosabati bilan belgilansa, uning bilim sifatidagi qimmatini fanning rivojlanish jarayonida aniqlanadi va uning bilish jarayoniga ta'sirining ahamiyati bilan belgilanadi. Masalan, o'tmishning ko'pgina soxta

konsepsiyalari (astrologiya, alximiya va sh.k.) hozirgi zamon fanining shakllanishiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu soxta tasavvurlarning evristik imkoniyatlari ularning bilim sifatidagi mazmunidan boyroq bo'lib chiqqan.

Shuni qayd etish lozimki, baholashga doir mulohazalar ham haqiqiylik yoki soxtalik, adolat yoki adolatsizlik kategoriyalarida baholash predmeti bo'lishi mumkin. Baholashga doir mulohazalarining «haqiqiylik – soxtalik» tushunchalarida tavsiflanuvchi turkumlari mavjud. «Adolat – adolatsizlik» kategoriyalarida tavsiflanuvchi baholashga doir mulohazalar katta bir turkumni tashkil etadi. Bular siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik munosabatlar, xatti-harakatlar, qilmishlar sohasiga taalluqli bo'lgan baholashlardir. Masalan, sud qarori, tergov xulosasi va shu kabilarda ifodalangan mulohazalarning xususiyati qanday? Ular «haqiqiylik – soxtalik» yoki «adolat – adolatsizlik» kategoriyalarida baholanadimi? Bu mulohazalar baholashga doirmi yoki bilish sohasiga taalluqli va haqiqiylik mezonini qanoatlantirishi lozimmi? Sud u yoki bu qilmishni inqilobiy maqsadga muvofiqlik nuqtayi nazaridan tavsiflasa, bu yerda, odatda, haqiqat emas, balki baholash mavjud bo'ladi. Ba'zan haqiqat va baholash o'rtasidagi ziddiyat o'zining cho'qqisiga yetadi. Garchi huquq o'z tabiatiga ko'ra me'yoriy va, binobarin, qadriyat sifatida mazmunga ega bo'lsa-da, har qanday qilmishni huquqiy tavsiflash haqiqiylik mezonini qanoatlantirishi lozim. Huquqiy tavsiflashdan baholash elementini butunlay ajratish mumkin bo'lmasa-da, u mazkur tavsiflashda ikkinchi darajali o'rin egallaydi, haqiqatning hosilasi hisoblanadi. Ayni holda haqiqat baholashning birdan-bir asosi bo'lishi lozim.

Baholashga doir tavsifiy mulohazalar ham mavjud. Ular haqiqat sifatida ahamiyatga ega bo'lgan tavsiflashni ham, qadriyat sifatida mazmun kasb etuvchi baholashni ham o'z ichiga oladi. Sudning ko'pgina qarorlarini baholashga doir tavsifiy mulohazalar sifatida tavsiflash mumkin. Shunday qilib, baholash bilish omilini, bilimning haqiqiyligi talabini o'z ichiga oladi, lekin birgina unga bog'liq emas. O'z navbatida, bilim baholashning asosi ham, predmeti ham bo'lishi mumkin.

Bahoning shakllanishiga baholash sub'ekti - individ, ijtimoiy guruh, jamiyat, insoniyat ancha kuchli ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, ehtiyojlarning boyligi, inson ma'naviy hayotining murakkabligi bilan izohlanuvchi baholash asoslarini tanlash sub'ektivdir. Ma'lum

hollarda sub'ekt shaxsiy (gruppaviy) manfaatni, o'tkinchi egoistik mayllarni baholashning birdan-bir asosi sifatida tanlaydi. Bu tasodifiy bir hol emas. Individ ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarining ko'p sonliligi va ierarxiyaviyligi uning borliq voqealarini baholashga nisbatan yondashuvlarining serqirraligini nafaqat tushuntirdi, balki buni nazarda tutadi. Ayni vaqtda psixologiya va sotsiologiyada mazmun va ahamiyat jihatidan har xil bo'lgan hodisalarga ayni bir sub'ekt tomonidan berilgan baholarda barqarorlik, o'zgarimaslik, takroriylik qayd etiladi. Shaxs ijtimoiy-madaniy va shaxsiy qadriyatlarning ancha batartib tizimiga amal qilgan holda o'zini yaxlitlik sifatida namoyon etadi. Ehtiyojlardan kelib chiquvchi mazkur tizim inson o'zini qurshagan borliq: tabiat dunyosi, ma'naviy madaniyat va o'z-o'zini baholashining teran asosi sifatida amal qiladi. Shunga qaramay shaxsning yo'l tanlashini belgilovchi qadriyat va mo'ljallari insonning yashash sharoitlari va ehtiyojlari kabi o'zgaruvchandir. Natijada baholashlarda o'zbohimchalik, sub'ektivizmga yo'l qo'yilishi xavfi yuzaga keladi.

Baholash asosi – sub'ektga hodisani uning mazkur davrdagi yoki kelajakdagi ijtimoiy ahamiyati nuqtayi nazaridan tavsiflash, borliq narsalari va hodisalarini saralash, tanlashni amalga oshirish va o'z faoliyatining strategiyasini belgilash imkonini beruvchi mezondir. Baholashga doir mulohazalarda baholash asosi aniq aks ettirilishi ham, implitsit tarzda, ya'ni aniq bo'lmagan ko'rinishda ifodalanishi ham mumkin. Ammo asos – baholashning muqarrar elementi.

Baholash asosi sifatida shaxs yoki ijtimoiy guruhning bevosita ehtiyojlari, manfaatlari, mo'ljallari amal qilishi mumkin. Ammo baholash zamirida andozalar, qoidalar, standartlar, ijtimoiy imperativlar yoki taqiqlar, me'yorlar ko'rinishida ifodalangan maqsadlar yoki loyihalar yotishi ham mumkin. Me'yoriy tartibga solish sohasi inson faoliyati sohasi bilan deyarli mos keladi. U huquqiy va axloqiy me'yorlardan tashqari qoidalar, buyruqlar, standartlar, texnik me'yorlar, xizmat tartibi va shu kabilarni ham o'z ichiga oladi. Me'yorlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bir vaqtning o'zida qadriyat sifatida ham, baholash asosi sifatida ham amal qiladi. Bu ikki yoqlamalik baholashga doir mulohazalar ikki yoqlamaligining sabablaridan biri hisoblanadi. Xulq-atvorni baholashda, maqsaddan qat'i nazar, qoidalar va me'yorlarga formal muvofiqlik birinchi o'ringa chiqqan holda, me'yor mustaqil qadriyat sifatida ko'pincha

odatga aylanadi. Shaklan me'yorlar va qoidalarga muvofiq bo'lgan yuzaki faoliyat ba'zan jamoatchilik fikrida ijobiy baho olishi, ish manfaatlarida sermazmun faoliyat esa salbiy baholanishi mumkin.

Har qanday baholash o'z predmetini ham, baholash sub'ektining ehtiyojini ham tavsiflaydi. Sub'ekt u yoki bu hodisani baholar ekan, o'zining unga bo'lgan munosabatini ham, o'z ehtiyojini ham ifoda etadi.

Har bir baholashda faoliyatning turli tomonlari asos bo'lishi mumkin:

- me'yoriy (muayyan me'yorga muvofiq) baholash;
- ijtimoiy-madaniy (muayyan jamiyatning madaniy o'ziga xosligi bilan mushtarak) baholash;
- professional (mazkur kasb andozalari va qoidalariga muvofiq) baholash;
- operatsional baholash (muayyan maqsadga erishish imkonini beruvchi operatsiyalarning maqsadga muvofiq majmui va ketma-ketligi).

Har bir muayyan holda yuqorida zikr etilgan asoslardan biri yoki ularning muayyan uyg'unligidan foydalanilishi mumkin bo'lib, bu ayni bir hodisaga berilgan bahoning mazmunini sezilarli darajada o'zgartiradi. Masalan, huquq bilan tartibga solinuvchi qilmish huquqiy me'yor nuqtayi nazaridan baholanuvchi yuridik dalil hisoblanadi. Ayni shu qilmish operatsion (operatsiya qay darajada muvaffaqiyatli amalga oshirilgani) yoki axloqiy (qilmish sub'ekti qaysi axloqiy printsiplarga amal qilgani) nuqtayi nazaridan baholanishi mumkin.

### **Xulosa.**

Qadriyatlar ijtimoiy hayotning muhim omili, shaxslararo munosabatlarning mahsulidir. Har qanday qadriyatlarining amal qilish darajasi baholashda o'z ifodasini topadi, me'yorlar uning predmeti bo'lishi ham mumkin. Ular faoliyatning hayot sinovidan o'tgan usullarini mustahkamlash vositasi sifatida vujudga keladi. Ayni vaqtda ijtimoiy me'yorlar allaqachon eskirgan va shaxs o'z-o'zini qadriyat sifatida erkin anglab yetishiga monelik qiluvchi taqiqlar va qoidalarining manbalari bo'lishi mumkin. Ijtimoiy me'yorlar ijtimoiy amaliyotdan oqsashi ular birdan-bir maqsadga aylanishiga zamin yaratadi. Masalan, avtomobildan transport vositasi sifatida emas, balki uning egasi (uning jamiyatdagi haqiqiy o'rmi qanday ekanligidan qat'i

nazar) jamiyatning «oliy» sinfiga mansubligidan dalolat beruvchi timsol sifatida foydalanilishi mumkin.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Tarix falsafasi, formatsion va sivilizatsion yondashuv, tarixiy taraqqiyot konsepsiyasi, mafkura, ijtimoiy kichik tizim, katta ijtimoiy guruhlar, etnik birliklar, institutlar, hududiy guruhlar, ijtimoiy makon, siyosat, sivilizatsiya, madaniyat, madaniy universalialar.

### **Tarix falsafasining strukturasi**

Tarix falsafasi

Ontologiyasi Tarix falsafasi gnoseologiyasi

Tarix falsafasi

Tarix falsafasi antropologiyasi Tarix falsafasi

Tarixi

Tarix falsafasining funktsiyalari

Dunyoqarashga doir funktsiya Nazariy funktsiya

Tarix falsafasining asosiy funktsiyalari

Prognostik funktsiya Metodologik funktsiya

### **Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Jamiyat nima?
2. Ijtimoiy ishlab chiqarish nima?
3. Jamiyat kichik tizimlari nima bilan tavsiflanadi? Ularning birligi nimada?
4. Sivilizatsiya nima?
5. Yevropa sivilizatsiyasi chindan ham sivilizatsiyaning oliy shakli hisoblanadimi va u butun insoniyat rivojlanishiga yo'l ko'rsatishga qodirmi?
6. Madaniyat nima? Uning sivilizatsiya bilan aloqasiga tavsif bering.
7. Tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalari qaysilar?
8. Tarix falsafasi va falsafa tarixi: o'zaro uyg'unlik va farqlarni aniqlang.
9. Tarix falsafasining funktsiyalarini bilasizmi?
10. Qadriyat va baholashga ta'rif bering

### **Esse mavzulari**

1. Tarixiy jarayonning muqobil konsepsiyalari.
2. Mulk va ijtimoiy tengsizlik: ularni jamiyat hayotidan chiqarish imkoniyati.
3. Individual va ijtimoiy ongda ijtimoiy psixologiya va mafkura.
4. Hokimiyat va siyosat: afsona va voqelik.

5. A.Beruniy ijodida tarix falsafasi muammosi
6. Ibn Xaldun tarixning mazmuni haqida
7. E.Toffler sivilizatsiyalar tarixi haqida.
8. Tarix falsafasi aksiologik yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari

#### **Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari**

1. Madaniy tarixiy tiplar nazariyasi qachon vujudga keldi?
  - A) XIX asr
  - B) XVII asr
  - C) XVIII asr
  - D) XX asr
2. Madaniy tarixiy tiplar tushunchasi kim tomonidan fanga kiritilgan?
  - A) N.Danilevskiy
  - B) P.A.Sorokin
  - C) Gegel
  - D) T. Kun
3. Insoniyatning paydo bo'lishida asosan qaysi omillar rol o'ynagan?
  - A) Mehnat va nutq
  - B) Iqtisod
  - C) Ehtiyoj
  - D) Din
4. Qadriyatlarining nechta darajasi mavjud?
  - A) 3 guruh
  - B) 4 guruh
  - C) 5 guruh
  - D) 6 guruh
- 5) Baholashning strukturasi...
  - A) Ob'ektiv va sub'ektiv xossalarda namoyon bo'ladi
  - B) ijtimoiy jarayonlarda o'z ifodasini topadi
  - C) ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi
  - D) individual xususiyat kasb etadi

#### **Adabiyotlar:**

1. Berdyayev N.A. Смысл истории. Москва: 1990.
2. Berger P. Понимание современности // Социологические исследования. 1990. №7.
3. Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма. Москва: 1993.
4. Гумилев Л.Н. Историya lyudey i istoriya prirody. Москва: 1993.
5. Кagan M.S. Философия культуры. SP(b): 1996.
6. Sorokin P.A. Chelovek. Sivilizatsiya. Obshchestvo. Moskva: 1992.



7. Тойнби А. Постигение истории. Москва: 1991.
8. Прокофьева G.P. Stanovlenie kategorii "Tsvivilizatsiya" kak universal'noy yedinit'sy analiza istoricheskogo protsessa : dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk : 09.00.11. Xabarovsk: 2001.
9. Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
10. Fukuyama F. Konets istorii // Voprosy filosofii. 1990 №3.
11. Shpengler O. Zakat Yevropy. Ocherki mifologii istorii. V 2-x tomax. Moskva:1998.
12. Lomonosov Yu.L. "Konets istorii" kak sotsiofilosofskaya problema : dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk : 09.00.11. Moskva: 2002.

## FALSAFIY ANTROPOLOGIYA (INSON FALSAFASI)

### Inson falsafiy muammo sifatida

Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma'naviy borlig'ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo'nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid o'laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga yetish borliq jumbog'ining tagiga yetish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab yetganlar. Zero, Forobiy aytganidek, "Odamlar o'zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko'ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi". O'z-o'zingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirdan bilishga bo'lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab harakat qiladigan bo'lsak, narsalar mohiyatini hech anglay olmaymiz, zero, bu mohiyat insonning o'zida mujassamlashgan. Bu fikr qadimgi mutafakkirlargayoq yaxshi ma'lum bo'lgan. Unga turli ko'rinishlarda Sharqda ham, yunon-rim falsafiy an'anasida ham duch kelish mumkin. Xususan, antik davrda Delfidagi Apollon ibodatxonasiga kiraverishda ustunga o'yib yozilgan, rivoyatlarga qaraganda Suqrot takrorlashni yaxshi ko'rgan «O'z-o'zingni angla», degan ibora ayniqsa mashhur bo'lgan. Uchinchi ming yillikda ham bu fikr o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U nafaqat narsalar dunyosini, balki inson borlig'ining mohiyatini, inson va ijtimoiy munosabatlarning asl tabiatini tushunishga harakat qilayotgan har bir odam uchun o'z-o'zini anglashga chorlovchi fikr bo'lib qolmoqda. Buni faqat shu bilan izohlash mumkinki, ayni holda har bir yangi avlod o'z davri hamda tabiiy-ilmiy va falsafiy tasavvurlarning tegishli darajasi nuqtayi nazaridan yechishga harakat qiladigan o'ta murakkab, «boqiy» falsafiy masalalardan biri to'g'risida so'z yuritiladi.

Xususan, qadimgi xitoy faylasufi Lao Szi fikriga ko'ra, «boshqalarni biluvchi – oqil, o'zini biluvchi – donishmanddir». Protagorning: «Inson barcha narsalar mezonidir», degan fikri ham juda mashhur. «Tangri saltanati bizning ichimizdadir», deb o'rgatgan Iso Masih. Buddaviylarning: «O'zligingga nazar tashla, sen

Buddasan», degan chorlovi ham yuqoridagi fikr bilan hamohangdir. Islomda «Kimki o'zini bilsa, u Allohni ham bilgaydir», deyiladi.

Qadimgi Sharq, xususan, Xitoy falsafiy tizimlari asosan sotsiotsentrik konsepsiyalardan iborat bo'lib, ularda inson, odatda, jamiyat, sotsium bilan uzviy bog'liq deb qaraladi. «Ideal munosabatlar qonuni»ga odamlar o'rtasida, oila, jamiyat, davlatda rioya qilish inson hayotining muhim ma'nosi hisoblanadi: bunga jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, qoidalar, rasm-rusumlar va shu kabilarga izzat-ikrom bilan yondashish imkoniyat yaratadi. Boshqacha aytganda, inson o'z shaxsiy hayotini doim jamiyat ravnaqi, kamoloti bilan o'lchashi lozim, xususan, u keyinchalik oila va davlatni takomillashtirishga harakat qilish uchun o'zini kamol toptirishi lozim. Shu ma'noda mashhur qadimgi xitoy faylasufi Konfutsiy (mil. av. 551-479-yillar)ning fikrlari diqqatga sazovor bo'lib, u shunday deb saboq beradi: «qilmishlarning asoslari va tamoyillarini o'rgansang, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlaring (axloqiy bilimlar) barkamollikning eng so'nggi darajasiga yetadi. Niyatlar sof va xolis bo'lsa, qalb rostgo'y va samimiy bo'ladi. qalb rostgo'y va samimiy bo'lsa, inson to'g'ri yo'lga kiradi, kamol topadi. Inson to'g'ri yo'lga kirsam va kamol topsam, oilada tartib o'rnatiladi. Oilada tartib hukm sursam, xalqlarni boshqarish osonlashadi. Xalqlarni boshqarish osonlashsa, butun dunyo tinch-totuv yashaydi».

Qadimgi hind falsafasiga dunyoning ichki dunyosini birinchi o'ringa qo'yish, ya'ni antropotsentrizm xosdir. Masalan, buddizmda nirvanaga erishish inson barcha niyatlarining pirovard maqsadi deb e'lon qilinadi. Nirvana jonning shunday bir holatiki, bunda har qanday mayllar yo'qoladi va ichki uyg'unlik yuzaga keladi, mutlaqo erkinlik va tashqi dunyoga qaram emaslik tuyg'usi paydo bo'ladi.

Qadimgi hindlarning boshqa bir diniy-falsafiy ta'limoti – jaynizm nuqtayi nazaridan inson o'zining ma'naviy mohiyati bilan moddiy mohiyatni nazorat qilish va boshqarishga erishish uchun uzoq va og'ir yo'l – jonning erkinlashuvi yo'lini bosib o'tishi lozim.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari qarashlarida insonni nazariy aql boshqaradi. Jumladan, al-Forobiy fikricha, «Inson shaxsini shakllantiradigan, uni boshqa maxluqotlardan ajratib turadigan va unda insoniy xislatlarni rivojlantiradigan narsa uning faol aqlidir. Bu kuch avval boshda faqat qobiliyatdir bu quvvat o'ylash, mulohaza yuritishga qobil, ammo hayotga tatbiq etish, ya'ni joriy qilishga qobil

emas". Aqlni hayotga tatbiq etish uchun, unga tashqi kuch ta'sir etishi kerak, bu esa faol aqldir. Faol aql – mustaqil quvvat bo'lib, o'z mohiyati, Birinchi va ikkinchi va boshqa sabablar mohiyati haqida fikrlay oladi. Aynan shu faol aql odam imkoniyatlarining tashqi voqealarga ta'sir etishi va uni rivojlantirishga turtki beradi. Forobiy ta'biri bilan "moddiy aqldan amaliy aqlning yuqoriroq pillapoyasiga ko'tariladi va uning faol aqlga munosabati quyosh bilan ko'zni solishtirlandek bo'ladi". Agar quyosh bo'lmasa, inson narsalarni ko'ra olmaydi. Faol aql quyoshi inson ruhida paydo bo'lganidan keyin, aqliy quvvat faol aqlga qaraydi. Inson tabiat gultoji, ya'ni aqlli mavjudod. Yusuf Xos Xojib fikricha, inson dunyoda abadiy emas, bu dunyoga kelgan har qanday odam vaqti yetgach ketadi. Inson umrining qimmatini necha yil yashagani bilan emas, qanday ezgu ishlarni amalga oshirganligi, hayotda qoldirgan izi bilan belgilanadi. U kishi olamdan o'tgandan so'ng, bu dunyoda undan ikki xil, biri yomon, ikkinchisi yaxshi degan nom qoladi. Inson iloji boricha o'zidan yaxshi nom qoldirishi, yaxshi olqish olishi lozim deb ta'kidlagan.

Umuman olganda, barcha zamonlarda insonda umumiy asosni izlash bilan band bo'lgan Sharq tafakkuriga hozir ham insonni va uning tashqi dunyo bilan aloqasini tushunishga nisbatan G'arb falsafasidagidan o'zgacha yondashuv xosdir. XX asr boshida hind mutafakkiri S.Vivekananda shunday deb yozgan edi: «Inson tabiatni o'ziga bo'ysundirish uchun tug'iladi va bu o'rindir, ammo G'arb «tabiat» deganda faqat moddiy, tashqi dunyoni tushunadi. Bu tashqi tabiat o'zining barcha tog'lari, okeanlari, daryolari, o'zining cheksiz kuchlari, cheksiz rang-barangligi bilan juda ulug'vor. lekin undan ham ulug'vorroq dunyo borki, bu insonning ichki dunyosidir. U quyosh, yulduzlar, yer va butun moddiy Koinotdan yuksakroq, bizning shaxsiy jajji hayotlarimizning tor chegarasiga sig'maydigan dunyodir. G'arb odami tashqi dunyoda «o'ziniki» bo'lganidek, bu ichki dunyoda Sharq odami ham xuddi shunday «o'ziniki»dir. Shu bois... G'arb ma'naviy dunyo nima ekanligini, xudo nima ekanligini, inson joni nima ekanligini bilmoqchi, dunyoning siri va mazmuni nimada ekanligini anglab yetmoqchi bo'lsa, u Sharq oyoqlari ostiga cho'kib quloq solishi kerak. Hamonki, dunyo hozir ma'lum ma'naviy uyg'onishga muhtoj ekan, bunda u kuchni Sharqdan oladi» .

Ibn Xaldun fikricha, inson tabiatida ezgulik va yovuzlik mavjud. Agar odamlar o'z holiga qo'yilsa va insoniylik ruhida

tarbiyalanmasa, unda Xudo ne'matini qo'lga kiritish kamdan-kam kishiga muyassar bo'ladi. Xayr va shayorr oralig'ida qolib, har ikkisidan birini tanlash lozim bo'lganida, unda sharmi tanlaydi, zero, inson tabiatida sharrga moyillik ko'proq. Adolatsizlik va boshqalarga hujum qilish insonlarga xos xislat. Shuning uchun jamiyatda kishilarning bir-birlariga jabr qilmasliklari uchun maxrifatga erishmoq zarur. Keltirilgan so'zlar nafaqat teran ma'noga ega, balki hozirgi dunyoning globallashuvi va yagona insoniyatning shakllanishi nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Ibn Xaldun insonga ijtimoiy voqelik sifatida qaraydi. Undan ijtimoiy mohiyat izlaydi. Inson jonzot sifatida ezgulik va yovuzlik olamidir. Shunga ko'ra, u umrining har daqiqasida yovuzlikdan ko'ra ezgulikka, yomonlikdan ko'ra yaxshilikka, nafratdan ko'ra muhabbatga intilib yashashga mahkum etilgan aql sohibi bebaho ne'matdir.

Demak, inson o'zini dunyodan oldinroq va ko'proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o'zidan keyin va o'zi orqali anglab yetadi. Falsafa dunyoni inson orqali ichdan bilishdir, fan esa insondan tashqaridagi dunyoni yuzaki bilish demakdir. Insonda mutlaq borliq, insondan tashqarida esa – nisbiy borliq namoyon bo'ladi. Inson barcha yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan o'ziga xos, betakror va barkamol mavjudot – cheksiz mikrokosm sifatida ham, inson tabiatining norasoligi va buzug'ligi tufayli halokatga mahkum bo'lgan tabiat xatosi sifatida ham, Xudo yaratgan banda sifatida ham, boshqa odamlar faoliyatining mahsuli sifatida ham talqin qilinadi.

Xususan, Sharq mutafakkiri A.Beruniy jahon fanida birinchi marta inson va tabiat, odam va olam o'rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtayi nazaridan o'rganadi. U "odamlar tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, odam yashaydigan joylarning turlichaligi hamdir. Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli hoxishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan bu iboralar ko'payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan", deb hisoblaydi. Demak, Beruniy fikricha, insonning fe'l-atvori va ma'naviy qarashlari, surati va siyrati bevosita tabiiy muhit ta'sirida shakllanadi. Zero, aynan shu tabiiy muhit, geografik sharoit xalqlar, millatlar shakllanishining muhim asosi bo'la

oladi. "Inson o'z tabiatiga ko'ra murakkab tanaga egadir. Insonning tanasi bir-biriga qarama-qarshi qismlardan iborat bo'lib, bu qismlar tobelik kuchi asosida birlashgan". Beruniy fikricha, hamma odamlarda o'zaro bir-biriga o'xshash va ayni paytda farq qilib turadigan jihatlar mavjud. Ibn Sino "Inson boshqa barcha hayvonot olamidan so'zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi", deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, inson o'z tabiatiga ko'ra hayotini tartibga keltirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun boshqa insonlarga muhtoj bo'ladi. Yakka holda hech kim buning uddasidan chiqa olmaydi. "Inson shunday maxluqotki, u faqat jamiyatda o'z ehtiyojlarini qondirishi va oliy ma'naviy darajaga ko'tarilishi mumkin". Inson o'z hayotining me'mori, ijodkori bo'lmog'i, o'zida fozila xislatlar, iste'dodlarni tarbiyalashi lozim. Bunga esa u jamiyatda yashab faoliyat ko'rsatgandagina erishadi. Inson ijtimoiy mavjudod. Yolg'izlik uzlat uni qashshoqlashtiradi, insoniy qiyofasini va baxtga olib boradigan iste'dodini yo'qotadi.

Inson barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir, degan fikr insonga mexanistik nuqtayi nazardan yondashgan Ma'rifat davri mutafakkirlari, xususan, «Inson-mashina» deb nomlangan asar muallifi frantsuz J.Lametri (1709-1751) ilgari surgan g'oyalar bilan to'qnashadi.

Boshqa bir mashhur frantsuz faylasufi – R.Dekart (1596-1650) asarlarida inson mohiyati masalasiga nisbatan butunlay o'zgacha yondashuvga duch kelamiz. U «inson fikrlovchi narsadir», deb hisoblaydi.

«Inson, u uzoq vaqt o'ylaganidek, dunyoning statik markazi emas, balki evolyutsiyaning o'ziga va cho'qqisi bo'lib, bu ancha go'zalroqdir». deb qayd etadi atoqli frantsuz faylasufi va teolog P.T. de Sharden (1881-1955). Unga zid o'laroq, A.Shopengauer (1788-1860) inson nuqsonli mavjudot ekanligini ta'kidlaydi, uni «tabiat xalturasi» deb ataydi. Frantsuz yozuvchisi va faylasufi J.P.Sartr (1905-1980) bu fikrni butunlay rad etadi. Uning fikricha, inson kelajakka qarab intiladi va shu tariqa o'zini o'zi yaratadi. U «Inson – odamzot kelajagidir», deb ta'kidlaydi.

Fikrlarning bunday rang-barangligi sababini, avvalo, insonning o'z tabiatidan izlash lozim. Inson tabiatining siri, hech shubhasiz. «boqiy muammolar»dan biri bo'lib, falsafa o'z predmetining mohiyati

va xususiyatiga ko'ra unga qayta-qayta murojaat etgan va shunday bo'lib qoladi. Bu yerda mazkur sohadagi barcha fikr-mulohazalarga mo'ljal beruvchi insonning kelib chiqishi haqidagi masala ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qayerdan va qanday paydo bo'lgani haqidagi ko'p sonli g'oyalar orasidan eng muhimlarini ajratib olsak, ularning barchasini ma'lum darajada shartlilik bilan ikki asosiy konsepsiya – insonning tabiiy va g'ayritabiiy kelib chiqishi haqidagi konsepsiyalar doirasida birlashtirish mumkin.

### **Insonning paydo bo'lishiga oid qarashlar**

Insonning kelib chiqishi haqidagi birinchi yondashuv insonning paydo bo'lishiga olib kelgan tabiatning qonuniy rivojlanishi g'oyasidan kelib chiqadi. Bunda inson jonsiz, keyinchalik esa – jonli moddaning tabiiy evolyutsiyasi mahsuli sifatida qaraladi. Mazkur konsepsiya 1859-yilda inson kelib chiqishining tabiiy-ilmiy talqiniga asos bo'lgan Ch.Darvinning «Hayvon va o'simlik turlarining kelib chiqishi haqida» deb nomlangan mashhur asarini e'lon qilgan evolyutsion nazariyasiga tayanadi va hozirgi vaqtda molekulyar biologiya va gen injeneriyasi sohasida erishilgan eng so'nggi yutuqlar ta'sirida o'z shakl-shamoyilini sezilarli darajada o'zgartirib, aksariyat olimlar uchun ularning ilmiy faoliyatida o'ziga xos dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, insonda nafaqat o'ta rivojlangan tirik jonzotlar, balki o'ta sodda mavjudotlar bilan ham kuchli genetik o'xshashlik mavjud. Xususan, shimpanze bilan bunday o'xshashlik 98% ni, kalamush bilan – 80% ni va hatto banan bilan – 50% ni tashkil etadi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, «tabiiy» yondashuv tarafdorlari inson kelib chiqishining dunyoviy konsepsiyasiga ham (masalan, darvinchilar bilan bog'liq holda bo'lganidek), kosmik konsepsiyasiga ham tayanishlari mumkin.

Ikkinchi yondashuv insonga, Xudo yoki kosmik Aql mehnatining mahsuli sifatida qarab, uni g'ayritabiiy asosdan keltirib chiqaradi. Garchi bu konsepsiya isbotlanganlik jihatidan birinchi ta'limotga hozirgi zamon tabiatshunosligi nuqtayi nazaridan yon bersa-da, lekin falsafiy nuqtayi nazardan u insonning tabiiy-ilmiy kelib chiqishi konsepsiyasi kabi mavjudlik huquqiga egadir, zero, birinchi yondashuv ham, ikkinchi yondashuv ham oqilona asoslangan va uzil-kesil dalil-isbotlar keltirmaydi.

G'arb falsafasida inson kosmotsentrizm nuqtayi nazaridan inson avvalo kosmosning bir qismi sifatida, «kichkina dunyo» sifatida (Derhokrit), ba'zan jonli organizm sifatida tasavvur qilinadigan makrokosm bilan uzviy bog'liq bo'lgan mikrokosm sifatida idrok etiladi. Antik faylasuflar Koinotni va unda mavjud tartibni tushunish orqali insonning o'zini ham anglab yetish mumkin deb hisoblaganlar (Platon, Aristotel). Bunda tafakkur, bilim, aql-zakovat va donnishmandlik muhim rol o'ynagani bois, ular doim kosmotsentristlar tomonidan yuksak baholangan, inson va uning qobiliyatlariga baho berishda birinchi o'ringa qo'yilgan.

Bunday qarashlar Yevropa falsafiy an'anasida V asrgacha, ularning o'rmini teotsentrizm konsepsiyasi egallagunga qadar kuzatiladi. Bu konsepsiyaga muvofiq hamma narsani Xudo belgilaydi.

Teotsentrizm nuqtayi nazaridan insonning mohiyatini anglab yetish, masalan, qadimgi yunon faylasuflari yoki keyingi falsafiy konsepsiyalardagi kabi oqilona fikrlash yo'li bilan emas, balki Muqaddas Kitobda ta'riflangan vahiyilar yordamida amalga oshiriladi. Bu vahiyilarni faqat Injil aqidalariga e'tiqod qilish orqali tushunib yetish mumkin. Teotsentrizm nuqtayi nazaridan e'tiqod nuridan charog'on bo'lgan aql dunyodagi ilohiy tartibning tarkibiy qismi sanalgan va «Xudoning timsoli» sifatida amal qiladigan insonning o'zini emas, balki uning ba'zi bir jihatlarinigina aniqlashga yordam beradi. Ayni shu sababli xristianlik, Xudoni oliy mohiyat deb e'tirof etadigan va insonga U yaratgan banda sifatida qaraydigan boshqa teotsentrik falsafiy tizimlar kabi, insonni Xudoning o'zi singari tagiga yetish mumkin bo'lmagan sir, jumboq deb e'lon qiladi.

Uyg'onish davrida inson o'zlikni anglash tuyg'usi va ijtimoiy nuqtayi nazari o'sishi natijasida o'z manfaatlarini ifoda eta boshladi. Inson shaxs sifatida kamol topdi, o'zini o'z shaxsiy hayoti va taqdirining bunyodkori sifatida tobora kuchliroq anglay boshladi. Inson mustaqillikka va tabiatni o'ziga bo'ysundirishga harakat qildi, o'z ijodiy imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishona boshladi. Mazkur qarashlar italyan faylasufi Piko della Mirandolaning «Inson qadr-qimmatini haqida so'z» deb nomlangan mashhur asarida o'z aksini topdi. Tasviriy san'at, me'morchilik, axloq, estetika, adabiyot va pedagogikani yaxshi tushunadigan har tomonlama komil inson o'sha davrning idealiga aylandi. Uyg'onish davri bu idealga to'la mos



keladigan Leonardo da Vinchi, Alberti Bottichelli, Rafael kabi atoqli shaxslarni dunyoga berdi.

O'sha davr falsafasida insonga bo'lgan qiziqishning kuchayishi bilan bir qatorda tabiatga bo'lgan qiziqish ham tiklandi. N.Kuzanskiy, J.Brunoning panteistik konsepsiyalari xristianlar Xudosi ni siqib chiqara boshladi. Yunonlarning kosmotsentrizmi tabiiysentrizm sifatida qayta anglab yetildi. Bunda antik faylasuflarning markazida Yer joylashgan pirovard kosmos haqidagi tasavvurlari cheksiz va markazsiz kosmosga o'rin bo'shatdi.

Bunday kosmos umumiyroq va kengroq tushuncha – «tabiat» bilan tenglashtiriladi. Shundan beri u turli falsafiy tizimlarda faol o'rganiladi. Xususan, Ma'rifat davri falsafasida fundamental tushunchaga aylanadi. Shelling ijodida markaziy o'rin egallaydi, shuningdek ekologiyaga qarab mo'ljal oluvchi ayrim hozirgi falsafiy konsepsiyalarda dunyo va insonni tushinishda tayanch nuqtasi hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra inson tabiatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bunday qarashlarning izchil tarafdorlari, masalan, XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan ijtimoiy ekologiya namoyandalari e'tiborni haddan tashqari keng qaratadigan tabiatdan uning muayyan qismiga – inson o'z hayot faoliyatini amalga oshiradigan biosferaga qaratish lozimligini qayd etadilar va bunda antropotsentristik qarashlardan voz kechib, ularni biosferotsentrizm bilan almashtirishni talab qiladilar.

Biosferotsentrizmda falsafiy tadqiqotlar markaziga inson o'rniga tabiatni qo'yish taklif qilinadi va shu tariqa tabiat inson ehtiyojlari nuqtayi nazaridan qaralmaydi, inson mohiyati va uning ehtiyojlari esa tabiiy qonunlarni va biosferaning tadrijiy rivojlanish tendentsiyalarini bilish nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi.

Yangi davrda insonga qiziqish asosan, ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki bilan bog'lanadi. Yangi davrda insonga biluvchi sub'ekt sifatida yondashildi. Masalan, Dekart insonning mohiyati, o'ziga xos xususiyatini uning tafakkuri, fikrlash qobiliyatida ko'rdi. XVIII asr frantsuz materialist faylasuflari (Didro, Golbax, Gelvetsiy, Lametri) tabiatshunoslik va mexanika sohasida erishilgan hayratomuz yutuqlar ta'sirida insonning jonini ong bilan, tanasini esa – avtomat, mashina bilan tenglashtirib, uni mexanistik talqin qildilar.

Buyuk nemis faylasufi I.Kant inson betakror mavjudot va u haqda alohida falsafiy mulohaza yuritish mumkin, deb hisoblagan.

Ayni vaqtda, u «inson uchun maktab bo'lib xizmat qiladigan madaniyat sohasidagi barcha muvaffaqiyatlarning maqsadi o'zlashtirilgan bilini va ko'nikmalarni amalga tatbiq etishdan iboratdir. Ammo bu bilimlar tatbiq etilishi mumkin bo'lgan dunyodagi eng muhim predmet insondir, zero u o'zi uchun pirovard maqsaddir», deb qayd etadi.

Dunyoning butun rang-barangligi orasida I.Kant tabiatning turli, lekin bir-biri bilan uzviy bog'langan uch darajasi: notirik tabiat, tirik tabiat va inson tabiatini farqladi. Uning fikricha, bu darajalarning har birida tabiat o'z qonunlariga, chunonchi: notirik tabiat – mexanika qonunlariga, tirik tabiat – maqsadga muvofiqlikka bo'ysunadi, inson tabiati esa erkinligi bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda u inson tabiatini qolgan ikki tabiatga bog'lash va ular orqali bilish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Inson tabiatini faqat uning erkinlikdan kelib chiqadigan o'z qonunlariga muvofiq anglab yetish mumkin. Shunday qilib, I.Kant inson tabiatning undagi boshqa jonli va jonsiz ob'ektlar kabi o'ziga to'q ob'ekti hisoblanishi haqidagi fikrni ilgari surish orqali insonni o'rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi va shu tariqa falsafiy bilimning mustaqil bo'limi sifatida falsafiy antropologiyaning yaratilishiga yo'l ochdi.

I.Kantdan keyin nemis klassik falsafasida inson asosan madaniyat dunyosini yaratuvchi ma'naviy faoliyat sub'ekti sifatida, umumiy ideal asos – ruh, aql manbai sifatida tushunildi. L.Feyerbax (1804-1872) bu yondashuvga qarshi chiqdi. O'sha davrda ob'ektiv idealizm falsafasida hukm surgan tushunchalar («g'oya», «ruh»)ga zid o'laroq, u «inson» kategoriyasini ilgari surdi. Feyerbax insonga tarixiy ma'naviy rivojlanish mahsuli sifatida emas, balki avvalo biologik, hissiy-jismoniy mavjudot sifatida yondashib, undagi tabiiy-biologik asosga murojaat etdi. Unda inson Xudo yaratgan banda emas, balki tabiatning bir qismi bo'lib, frantsuz faylasuflari qayd etganidek mexanizm emas, balki organizmdir. Ayni shu sababli Feyerbax falsafasi «antropologik materializm» degan nom oldi. Uning insonga nisbatan yondashuvi shu bilan tavsiflanadiki, insondagi tabiiylik va ijtimoiylik materialistik monizm nuqtayi nazaridan tushuntiriladi. Bu inson bir vaqtning o'zida notirik va tirik tabiatning tadrijiy rivojlanishi mahsuli sanalgan biologik mavjudot sifatida ham, mohiyati ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadigan ijtimoiy mavjudot sifatida ham qaralishini anglatadi.

XIX asrdan boshlab Yevropa falsafiy tafakkuri F.Shelling, A.Shopengauer, M.Shtirner, S.Kerkegor, F.Nitsche, N.Berdyayev, A.Bergson kabi faylasuflarning sa'y-harakatlari bilan inson mavjudligini individual va tarixiy muayyanlashtirish sari yuz burdi. Hayot, sezgilar, xohish-iroda, irratsionallik tushunchalari maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylandi va keyinchalik ekzistentsializm, intuitivizm va personalizm falsafasida rivojlantirildi.

Xususan, ekzistentsializm nuqtayi nazaridan ob'ektiv dunyo – bu avvalo «inson borlig'i» bo'lib, insondan tashqarida dunyo haqida biron-bir gap aytish mumkin emas. Inson borlig'i to'g'risida so'z yuritish o'rinli bo'ladi, chunki inson borliq xususida savollar beradi, uning mazmunini tashkil etgan holda uni boshdan kechiradi, anglab yetadi.

Inson muammosiga qisqacha tarixiy-falsafiy nazar tashlash XX asr boshiga kelib falsafada bilimning yangi mustaqil sohasi – inson haqidagi ta'limot, ya'ni falsafiy antropologiya vujudga kelishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganini ko'rsatadi.

#### **Insonga fan nuqtayi nazaridan yondashuv**

Tabiat haqida bilimlar to'planishi va ularning rivojlanishiga qarab, odamzotning o'z-o'ziga bo'lgan qiziqishi ham kuchayib bordi, inson borlig'ining bu sohadagi tadqiqotlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratuvchi yangi va yangi o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Odatda, jamiyat hayotida tarixan qisqa vaqt ichida jiddiy va teran o'zgarishlar yuz bergan, insoniy munosabatlar negizini tashkil etuvchi eskicha tasavvurlar va qarashlar ta'sirida butunlay o'zgargan davrlarda insonga bo'lgan falsafiy qiziqish ayniqsa kuchaygan. Bunday davrlarda falsafada insonning mohiyati, uning burchi, vazifasi va yuz berayotgan voqealar uchun javobgarligi haqidagi azaliy masalalarga bo'lgan qiziqish yana kuchaygan. Shunday qilib, falsafaning ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika kabi bo'limlari bilan bir qatorda, inson haqidagi bilimlar sohasi asta-sekin shakllanib bordi. Bu yerda inson nafaqat turli tomonlardan tahlil qilindi, balki uning ijtimoiy, tabiiy va kosmik jarayonlar bilan o'zaro aloqalari ham o'rganildi.

Insonni bilish borasidagi ko'p asrlik sa'y-harakatlarni bir yerga jamlab, ularning orasidan uzil-kesil yechilgan deb hisoblash mumkin bo'lganlarini ajratib olsak, shak-shubhasiz yutuqlar soni uncha ko'p bo'lmaydi. Ular orasida avvalo shu dalilni qayd etish

lozimki, insonning paydo bo'lishi Yerda hayotning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u o'z ibtidosi va muayyan tarixiga egadir. Xususan, 1982-yil Vatikandagi Rim Papasi fanlar akademiyasi tashkil etgan kongress ishtirokchilari – dunyoga mashhur antropologlar, bioximiklar va genetiklar hozirgi zamon tabiatshunosligiga tayanib, inson va hayvonot dunyosi o'rtasida yaqin aloqa mavjud, degan umumiy xulosaga keldilar.

Inson va uni qurshagan dunyo tadrijiy rivojlanishini isbotlangan deb hisoblash mumkin. Bu nafaqat arxeologiya va Yer geologik tarixi bilan tasdiqlanadi, balki Yerdagi hayotga doir hozirgi tasavvurlardan va umumiy e'tirof etilgan «kengayib boruvchi Olam» nazariyasi tushuntiradigan dunyodagi evolyutsion jarayonlardan ham kelib chiqadi.

Biroq fan, ayniqsa, genetika ba'zan bizning avvalgi tasavvurlarimizni butunlay o'zgartiradigan yangi kashtiyotlar qilishda davom etmoqda. Xususan, jonli mavjudotlarning biologik nusxalarini yaratish imkoniyatini beruvchi klonlash ketidan genetiklar, shovshuvga sabab bo'lgan eng so'nggi xabarlariga ko'ra, qadimgi faylasuflarning ilgari faqat odatdagi tajribaga tayangan o'lmaydigan odam yo'qligi haqidagi taxminiy (induktiv) xulosani jiddiy shubha ostida qoldirishga qodir natijaga yaqinlashdilar. Jumladan, italyan olimlari sut emizuvchilarning qarish jarayonini P66SHC sifatida ma'lum bo'lgan alohida gen boshqarishini aniqladilar. Ular mazkur genni «nazorat osti»ga olish va shu tariqa sinalayotgan hayvonlar umrini populyatsiya bo'yicha umrning o'rtacha uzunlik ko'rsatkichiga nisbatan 35% ga uzaytirishga muvaffaq bo'ldilar.

Shunga qaramay, bugungi kunda jismoniy umrboqiylik ilmiy nuqtayi nazardan biologiyaning fundamental qonunlariga zid hisoblanadi. Bu qonunlarga muvofiq hujayralarning bo'linish yo'li bilan ko'payish qobiliyatining susayib borishi inson hayotini cheklaydi. Xususan, insonning yetuk organizmi taxminan 50 000 milliard hujayradan iborat ekanligi aniqlangan. «Odamda uning umri mobaynida bir hujayra avlodida ketma-ket bo'linishlar soni elliktagacha bo'ladi. Bo'linish jarayonlari maromini hisobga olganda, shuni taxmin qilish mumkinki, inson umrining uzunligi (ba'zi bir istisno hollardan tashqari) 110 yoshdan oshishi mumkin emas».

Biroq fan bir joyda to'xtab turgani yo'q va shu bois matbuotda vaqti-vaqti bilan paydo bo'layotgan genetik olimlarning hujayra qari-

shini to'xtatadigan moddani topish, shuningdek organizmda mazkur moddaning ajralishini boshqaradigan genni aniqlash borasidagi urinishlari haqidagi xabarlar o'ziga jiddiy e'tibor berishni talab qiladi.

Falsafa «boqiy» masalalarni o'rganar va butun borliqning dastlabki asoslari va muhim qadriyatlarini aniqlashga harakat qilar ekan, u uzil-kesil yechimlar va shak-shubhasiz javoblar olishga da'vogarlik qilmaydi. Sinovdan o'tkazilgan dalillar va isbotlangan asoslarning yo'qligi uni xijolatga solmaydi, zero, falsafa intuitsiya, g'oyibona ta'sir, ilhom, mantiqiy kuchga asoslangan farazlar, taxminlar, to'ldirishlar bilan kifoyalanadiki, bu unga mavjud bilimlar va shakllangan tasavvurlar doirasidan chetga chiqib, aniq isbotlangan ilmiy yechimga ega bo'lmagan narsa yoki hodisani o'zgacha tarzda, erkin tushuntirish imkonini beradi. Shu tariqa falsafa insonni bilish chegaralarini kengaytirib, uni nafaqat yuqoriroq darajaga ko'taradi, balki yangi muammolarni qo'yish imkonini beruvchi yangicha yondashuvlar, o'zgacha nuqtayi nazarlar va eng muhimi – eski muammolarning yangicha talqinlari bilan boyitadi.

Shu ma'noda S.Sheroziyning «Inson nimadan boshlanadi?», degan savolga hech ikkilanmasdan: «Inson marhumga motam tutishdan boshlanadi», deb javob beradi va “Dunyoga keldimu, bozorga bordim, kafanni oldimu, mozorga bordim” deb ta'kidlaydi.

Shunday qilib, haqiqiy falsafada muayyan masalalar, ayniqsa, inson bilan bog'liq murakkab masalalar xususida bir xil fikrlash hollari kuzatilmaydi. Bundan farqli o'laroq, fanda bir fikrlilik u yoki bu muammoning uzil-kesil yechimi topilganidan dalolat beradi. Masalan, «abadiy dvigatel»ni yaratish masalasi xususida olimlar orasida to'la bir fikrlilik hukm suradi: hozirgi zamon tabiatshunosligi qonunlariga muvofiq bunday dvigatelni yaratish mumkin emas. Ammo fandan farqli o'laroq, falsafaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u har qanday hodisani o'rganish va tushunishda tayaniladigan qadriyatlar va mo'ljallar tizimidan tashkil topadi. Ayni shu sababli bu yerda u yoki bu faylasufning dunyoni qanday tushunishi, uning hayotga munosabati, ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. U qaysi aksiomalarni ilgari surishi, qaysi ustuvorliklarni qayd etishi, nimani muhim deb hisoblashi, nimaga ishonishi yoki ishonmasligidan faylasufning boshqa narsalarga bo'lgan tegishli munosabati, uning umumiy va xususiy masalalarga doir falsafiy pozitsiyasi kelib chiqadi.

Fanda insonni o'rganishga nisbatan «introvertiv» va «ekstrovertiv» yondashuvlar ayniqsa ajralib turadi.

Introvertiv yondashuv insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish, anglab yetishni nazarda tutadi. Bunda insonning jismoniy va ma'naviy mohiyati haqidagi falsafiy mulohazalar aksariyat hollarda tabiiy fanlarning empirik ma'lumotlariga, avvalambor biologiya va psixologiya yutuqlariga tayanadi, lekin ba'zan mistika, ezoterika, okkultizm bilan belgilanadi. Bunday yondashuvlar ayniqsa nemis antropologlari M.Sheler (1874-1928) va A.Gelen (1904-1976), avstriyalik faylasuf K.Lorents (1903-1989) ijodiga xosdir.

Ekstravertiv yondashuv insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go'yoki «sirtidan» amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o'rin oladi; tegishli mo'ljallarga muvofiq insonning Xudo, kosmos, universum va shu kabilar bilan aloqasi tahlil qilinadi. Bu yerda falsafa ko'pincha tarix, sotsiologiya, ekologiya, teologiya bilan itifoq tuzadiki, bu hol diniy falsafa vakillari N.A.Berdyayev, S.N.Bulgakov, S.L.Frank, N.O.Losskiy kabi vakillariga ko'proq xosdir.

Shunday qilib, insonni tushunish uchun yagona asos mavjud emas, xuddi shuningdek bunday asos yaqin kelajakda paydo bo'lishiga umid qilish uchun ham asoslar yo'q. Hozircha faqat shuni qayd etish mumkinki, diqqat markazidan yuqorida sanab o'tilganlardan qaysi biri, chunonchi: kosmos, tabiat, Xudo, jamiyat yoki bevosita inson o'rin olganiga qarab, falsafa tarixida insonni tushunish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda asos bo'ladigan turli falsafiy nuqtayi nazarlar farqlanadi. Ularning orasida kosmotsentrizm, teotsentrizm, sotsiotsentrizm va antropotsentrizm ayniqsa keng tarqalgan bo'lib, turli davrlarda ularning har biri har xil ko'rinishda namoyon bo'lgan, lekin inson muammolarini o'rganuvchi falsafiy konsepsiyalarda doim u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan.

Biologizatorlik konsepsiyalarining tarafdorlari insonni uning tabiiy, biologik asosidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladi. XVIII asr oxirida jamiyat hayotiga ayrim odamlarning o'z mavjudligi uchun kurash maydoni sifatida qarashni taklif qilgan T.Maltus nazariyasini bunday tushuntirishga bo'lgan birinchi jiddiy urinish deb hisoblash mumkin. Maltus fikricha, bu kurashda kuchlilar g'olib chiqadi, kuchsizlar esa halok bo'lishga mahkumdur. Mazkur kurashga

tabiiy omillar turtki beradi. Xususan, aholi soni geometrik progressiya bo'yicha ko'payib boradi, tirikchilik vositalari taklifi esa faqat arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi, bu esa muqarrar tarzda ocharchilik, epidemiyalar, urushlar va boshqa ijtimoiy tangliklarga olib keladi. Mazkur omillarga Maltus kuchlilarning yashab qolishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarning «tabiiy», muqarrar va hatto zarur tartibga solish vositalari sifatida qaraydi. Demografik muammolarning yechilmagani, shuningdek ular XX asrda yanada keskinroq tus olishi shunga sabab bo'ldiki, Maltus g'oyalari neomaltuzchilar deb nomlangan o'z davomchilarini topdi va topishda davom etmoqda.

Biologizatorlik yondashuvlari XIX va XX asrlar chegarasida Darvinning tabiiy tanlanish haqidagi ta'limotini mutlaqlashtirib, nafaqat insonning kelib chiqishi, balki uning mohiyatini, pirovard natijada esa – butun ijtimoiy munosabatlar tabiatini tushuntirishga harakat qilgan sotsial-darvinistlarga ham xosdir. Hozirgi vaqtda bu yo'nalishni odamlarga ham, hayvonlarga ham teng darajada xos bo'lgan irsiyatga urg'u beruvchi sotsiobiologiya davom ettirmoqda. Sotsiobiologlar fikriga ko'ra, inson xulq-atvori ham, hayvon xulq-atvori ham irsiy omillar bilan belgilanadi va hech kim o'z irsiyati ta'sirini – u xoh yaxshi bo'lsin, xoh yomon – yengishga qodir emas.

Inson tabiati xususida shunga o'xshash qarashlarga ayrim odamlarning boshqa odamlardan ustunligini faqat ularning «oliy» yoki «past» irqqa mansublik belgisiga ko'ra e'lon qiluvchi irqchilik konsepsiyalarida ham duch kelish mumkin. Bu, xususan, «irqiy tozalik» uchun kurash olib borgan va «irqiy tanlanish»ni amalga oshirish g'oyasini faol ilgari surgan fashistik mafkurada ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Mazkur g'oyalar zamirida asosan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keng tarqalgan «inson irsiyatining oliy sifati»ga qanday vositalar bilan va qay tarzda erishish mumkinligi haqidagi ta'limot – yevgenika yotadi.

XX asr boshlarida bu ta'limot shu darajada keng tarqaldiki, ayrim mamlakatlarda davlat siyosati bilan uzviy bog'landi. Xususan, 1920-1930-yillarda Daniya, Shvetsiya va Norvegiyada jamiyatda tabiiy tanlanishni ijtimoiy mustahkamlovchi irqiy qonunlar qabul qilindi.

Sotsiologizatorlik yondashuvi inson tabiatini ijtimoiy munosabatlarda ko'rishga harakat qiladilar. Bunda ular ba'zan nafaqat insonning ijtimoiy asosini uning biologik asosiga qarama-qarshi



qo'yadilar, balki so'nggi zikr etilgan asosni hayvoniy va hattoki tuban, shu bois jiddiy e'tiborga loyiq emas, deb hisoblaydilar. Asosiy e'tibor ijtimoiy munosabatlar tahliliga va individ, shaxsning shakllanishida jamiyat qanday rol o'ynashini aniqlashga qaratiladi. Pirovardida ijtimoiy asos individual asosga qaraganda ustunroq ahamiyat kasb etadi, uni o'ziga bo'ysundiradi va qamrab oladi. Mazkur yondashuv total ijtimoiy tizimlarga va ularni asoslashga harakat qiluvchi falsafiy ta'limotlarga, xususan, Platon falsafasi ayniqsa xosdir. Umuman olganda, bu individualizm va kollektivizm muammosidir.

### **Passionarlar va subpassionarlar nazariyasi**

Lev Nikolayevich Gumilyov (1912-1992) insonni tushunishga yangicha yondashgan va tarixiy-madaniy jarayonda individlarning uch turi: passionariylar, subpassionariylar va muvofiq odamlarni farqlagan. Passionarlik (lotincha «passio»—«ehtiros») deganda, energiya-ning «tur me'yoridan og'uvchi, ammo patologik xususiyatga ega bo'lmagan» turi tushuniladi. Passionarlik har safar materiyani o'zini qayta tashkil etishga majburlovchi to'lqin manbai, atrof-muhitni o'zgartirish qobiliyati hamda bunga bo'lgan intilish yoki fizika tili bilan aytganda, muhitning agregat holatini buzishga bo'lgan intilish tarzida namoyon bo'luvchi biofizik omildir. Passionar turki mutatsiyaga olib keladi. Gumilyovning fikriga ko'ra, mutantlarning tug'ilishi passionariylar o'ta g'ayratli shaxslarning tug'ilishidir. Passionarlik turtkisi shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, mazkur belgi egalari o'z qilmishlarining oqibatlari haqida o'ylashga o'zlarini majbur qila olmasliklari mumkin. Shuning uchun ham passionarlikni ong belgisi deb emas, balki asab sistemasining konstitutsiyasida namoyon bo'luvchi muhim belgisi deb tushunish lozim, u, ong faoliyati bilan bog'liq faollikdan farqli o'laroq, emotsiyalar sohasida yashaydi. Passionariylarni ideal xususiyatlardan ancha uzoq xususiyatlar: takabburlik, mag'rurlik, manmanlik, ochko'zlik va b. tavsiflari ham mumkin. «Passionarlik —muayyan maqsadga (ko'pincha xayoliy maqsadga) erishishga yo'naltirilgan faoliyatga (ongli yoki ko'pincha ongsiz) ichki intilish. Mazkur maqsadni passionariy hatto o'z hayotidan hamda zamondoshlari va qabiladoshlarining baxtidan afzal deb biladi». Passionarlik darajasi har xil bo'lishi mumkin, ammo bu hodisa tarixda aniq va qayd etiladigan tarzda namoyon bo'lishi uchun passionariylar soni ko'p bo'lishi kerak, ya'ni passionarlik nafaqat individual belgiga, balki populyatsion belgiga ham tayanadi.



Passionariylar orasida ruh passionariylari va tana passionariylari ham farqlanishi mumkin. Salbiy impulslarga ega bo'lgan, hech narsaga qaramay, hatto o'z zarariga ish tutishga intiladigan odamlar passionariylar deb ataladi.

Ijoiy, hayotbaxsh impulslarga ega odamlar esa subpassionariylar deb ataladi. L.Gumilyovning fikriga ko'ra, passionariylar tubanlashgan hollarda ularning o'rnini subpassionariylar egallaydi. Ularni «sodda», «qoloq» odamlar deb hisoblaydilar, ularning keng maydonga chiqishi etnosning intihoga yuz tutganini anglatadi, chunki ularda instinktiv impulslardan boshqa hech narsa qolmaydi. «Passionarlik» hodisasi dunyoning yagona axborot-energetik manzarasida tarixda chuqur iz qoldirgan «buyuk odamlar va xalqlar»ning faoliyati mexanizmlarini tushunish imkonini beradi. Uni tushunib yetishga «inson xulq-atvorining shakllanishiga jug'rofiy muhitning ta'siri» masalalari bilan) ulkan hissa qo'shdi. Passionarlik muammosi L.Gumilyov konsepsiyasining nazariy negizini tashkil etadi. Muallifning fikricha, passionarlik biologik belgi, osoyishtalik inertsiyasini buzuvchi dastlabki turtki; bu passionariylarning ma'lum sonidan iborat avlod. Ular o'z hayoti bilan odatdagi vaziyatni buzadilar, chunki o'zlarini qiziqtirgan maqsadsiz kundalik tashvishlar bilan yashay olmaydilar. Muvofiq odamlar jamiyatning umumiy qonuniyatlari va siyosiy tizimiga moslashuvchanlikda namoyon bo'ladi va ijtimoiy jarayonlar aynan muvofiq odamlarning faoliyati bilan belgilanadi.

Gumilyov ta'riflagan qonunga binoan, «etnik jamoa tomonidan amalga oshiriladigan ish passionar kuchlanish darajasiga to'g'ri proporsional» bo'lib, bunda «etnosning passionar kuchlanishi deganda, etnik tizimda mavjud passionarlik miqdorining etnosni tashkil etuvchi shaxslar soniga bo'linishi tushuniladi». Madaniyat va turmush darajasining barqaror o'sish davrlari esa passionar kuchlanish umumiy tarzda pasaygan davrlar bilan bog'liq.

Umuman olganda, passionarlik hodisasining manbai koinot omillariga, jumladan, quyosh faolligining davriy jarayonlari bilan bog'lanadi. Gumilyov aniqlagan passionarlik hodisasi inson to'g'risidagi V.Vernadskiy ta'riflab bergan «boshqa kuchlar bilan bir qatorda, real jug'rofiy kuch», degan qarashni qabul qilish imkonini beradi. Bu kuch doimo bunyodkor kuch emas, ba'zan u halokatli oqibatlarga olib keladi. L.Gumilyovning: «Biosfera odamlarni to'ydira oladi, ammo

ularning butun yer yuzini biotsenzlar konversiyasi siklidan chiqarilgan ashqol-dashqollar bilan to'ldirishga bo'lgan intilishini qondira olmaydi», - degan so'zlari buning real isbotidir.

### **Gilozoizm ta'limoti**

Qadimda jon – pnevma, psyu-xe, fantom, mana, kvintessentsiya deb nomlangan. Jon (lot. anima) hayvon, inson va hatto o'simlik tanasida yashaydigan va uni uyqu paytida yoki o'limdan so'ng tark etadigan alohida kuch sifatida namoyon bo'lgan. Bundan uning etimologik talqini, ya'ni jonni nafas, nafas olish va nafas chiqarish sifatida tushunish kelib chiqqan. Jon uch tarkibiy qismdan iborat mohiyatga aylangan: hayotbaxsh nafas o'simlik joni deb, psyu-xe – ruhiy jon, nus esa – aqlli jon deb atala boshlagan. Jonni tushuntirish o'ta og'ir muammoga aylangan (ayniqsa, materialistik fikrlovchi faylasuflar uchun). Bu alohida turdagi teran materiyaga, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan ichki mohiyatga shubha tug'ilmasligi uchun ular butun tabiatni jonli deb e'lon qilganlar. Demak, gilozoizm butun tabiatning jonli ekanilgi tan olishdir.

Platonning «Davlat» asarida jon tarkibiy qismlari oqilona jon, emotsional-qahrli jon, buzuq jon kabilardir. Ular tegishli ravishda bosh, ko'krak va qorin bo'shlig'ida joylashgan. Aristotelning «Jon haqida» deb nomlangan risolasida jon va tana bir-biridan ajralmas mohiyatlar sifatida tavsiflanadi, jon haqidagi ta'limot esa hayot va uning shakllari haqidagi umumiy ta'lim sifatida tushuniladi. O'simliklar joni, hayvonlar joni va aqlli mavjudot – inson jonini farqlar ekan, Aristotel rivojlanish g'oyasini ruhiyatga tatbiqan bilvosita ta'riflaydi. Uning fikricha, jonning yuqorida zikr etilgan uch tarkibiy qismi insonda yaxlit bir butunga birlashadi va turli funksiyalar: ovqatlanish, his qilish va mulohaza yuritishda namoyon bo'ladi. Jon unsurlarining barchasi tana unsurlari bilan uzviy bog'lanadi, ammo ular eng avvalo kosmik harakatlarga bog'liq bo'ladi. Antik davrda jon alohida hayotbaxsh kuch, ichki ma'naviy asos sifatida tushunilgan bo'lsa-da, uning faqat o'z faolligi sifatida tushuntirilgan.

O'rta asrlar falsafasida jon – dunyoviy va ilohiy faoliyat o'rtasida bog'lovchi bo'g'in, degan umumiy tasavvur shakllanadi. Foma Akvinskiy (1226–1274) jon insonni «aktuallashtiradi», uning asl mohiyatini belgilaydi, degan fikrni ilgari suradi. Jon imkoniyatlarini Foma potentsiyalar deb ataydi. Ular besh xil bo'ladi: o'sish, hissiy idrok etish, o'z xohish-irodasini ifodalash, makonda

harakatlanish, aql yordamida dunyoni tushunish. Ayrim potentsiyalar tana bilan bog'liq bo'lsa, ba'zilari, masalan, o'z xohish-irodasini ifodalash va aql yordamida dunyoni tushunish ko'proq oliy asosga bo'ysunadi. Ammo tana zarur, chunki u jonning barcha potentsiyalarini birlashtirishni ta'minlaydi.

Cherkov otalari uchun jon faqat e'tiqodlar tizimiga mos keladigan yoki mos kelmaydigan bir mohiyatni o'zida ifodalaydi. Jonning normal faoliyatini ta'minlash ruhoniyning vazifasi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan jon shaxsiy hayot omili sifatida emas, balki yo'lga solish lozim bo'lgan jamoa-umumiy mohiyat sifatida talqin qilinadi. Jonning moddiyligi g'oyasi cherkov mulozimlari tomonidan taqiqlanadi. Aql va jon Xudo atributlari sifatida sharhlanadi. Faqat jonning panoh topishi haqida qayg'urish lozimligi ta'kidlanadi, zero, jon o'lmas, inson tanasi esa o'tkinchidir.

Yangi davr Yevropa falsafasida jon tushunchasi shaxsning teran, ichki dunyosi bilan ayniylashtirilgan. Xususiy tashabbus va tadbirkorlikning rivojlanishi insonning ma'naviy intilishlari qadriyat sifatida anglab yetilishiga turtki bergan. Shunga qaramay jonning jismoniy kelib chiqishi haqidagi konsepsiya unutilmaydi. Frantsuz faylasufi Jyulen Lametri (1709–1751) hatto jon qaysi organdan o'rin olishini ham ko'rsatadi. «Biz tubanlashuvimiz uchun barcha kishilarning joni yashaydigan miyamizda zarracha o'zgarish yuz berishining o'zi kifoyadir». «...Bizning jonimiz ehtiyojlarimizga bevosita bog'liq bo'ladi. ularni misli ko'rilmagan tezlikda qondiradi va bu ehtiyojlarga hech narsa qarshi bora olmasligi haqida ogohlantiradi».

Jonda butun dunyo o'zining to'liq tajassumini topadi. U serqirradir. Frantsuz faylasufi va matematiki Blez Paskal (1623–1662) jon ruhiy parvozlarning cheksiz darajada rang-barangligi, uning nozikligi, betakrorligi va beqarorligidan taajjublanib, inson jonining mohiyatini formula bilan ifodalash mumkin emas, u haqda faqat hayotni o'rganish va inson xulq-atvorini kuzatish orqali hukm chiqarish mumkin, degan xulosaga keladi. Jonning mazkur xususiyatlari teran ma'naviy asoslarni ichki darajadan sirtga chiqaradi. Jon individuallikning asosi sifatida amal qiladi.

Shunday qilib, falsafa tarixidagi jon haqidagi tasavvurlar o'z-o'zicha to'g'ri, biroq to'liq emas. Mazkur noyob fenomenni tushuntirish uchun energetik, dinamik va temporal mezonlar zarur. Adabiyot va she'riyatda, kundalik muomalada jonning bezovtaligi,

uning mayllari va harakatlari haqida ko'p gapiriladi. Jon azaldan muayyan faol kuch, harakat manbai, energiya toki va harakatlantiruvchi 'asos sifatida tushuniladi. Tana dam jonni ifodalash maydoni sifatida, dam jon «go'ri» sifatida qaraladi. Psixoanalitik K.Yung jon ham, uning ishi ham ko'pchilik uchun ko'rinmas ekanligiga e'tiborni qaratar ekan, jon uchun muhim omillar ongdan tashqarida bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi. «Faqat tunda ochiladigan gullar» haqida gapirar ekan, Yung, "jon, barcha ma'naviy asoslar yaratiladigan va shakllanadigan vaqt oralig'ini belgilaydi" deb ta'kidlaydi.

Falsafiy oqimlar, maktablar va yo'nalishlarning deyarli barchasi jonni anglab yetish, oqilona tahlil qilish mumkin bo'lmagan, teran hodisa sifatida tavsiflaydi. Ayni paytda jonga ishora qiluvchi, jonning bokiraligi, uning ichki kuchlari haqida bahs etuvchi mavzular doirasi behad keng.

Ekzistentsializm asoschisi daniyalik faylasuf S.Kerkegor (1813–1855) o'z izlanishlari natijasida jonni tanlash mumkin va bu har kimning o'z xohish-istagiga bog'liq, degan muhim xulosaga keladi. Individual ruhiy olam, intim ichki dunyoning mavjudligi inson hayotini mushkullashtiradi va ong fenomenini anglab yetish muammosini yanada og'irlashtiradi. Ammo o'z o'zligini saqlab qolish huquqi Yerda yashaydigan har bir insonning uzviy huquqi hisoblanadi.

### **Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyati**

Falsafa tarixida inson individualligining ichki, yashirin holatini aks ettiruvchi «jon» va «ong» tushunchalarining tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, atoqli sofistlardan biri Protagor (mil. av. 490-420-yillar) mil. av. V asrdayoq «inson barcha narsalar mezonidir: u mavjud narsalarning mavjudligini, yo'q narsalarning esa yo'qligini belgilaydi», deb qayd etgan edi. Suqrot (mil. av. 469-399-yillar) ham haqiqat izlab insonga murojaat etadi. Inson o'z joni faoliyatini boshqara oladi, shu bois dunyoni tushunish yo'li o'z-o'zini bilish orqali o'tadi, deb hisoblaydi. Suqrotning mashhur shogirdi Platon birinchi bo'lib jon haqidagi yaxlit ta'limotni yaratdi. U odamlar jonining qandayligiga qarab ularni har xil tiplarga ajratdi.

Keyingi davrlarda Seneka, R.Dekart, A.Navoiy, A.Jomiy, I.Kant, I.G.Fixte, J.P.Sartr, M.Xaydegger va boshqa mutafakkirlar insonning ma'naviy negizini birinchi o'ringa qo'yib, uning ongi, ma'naviy dunyosi va bilish qobiliyatlarini o'rganish ishiga salmoqli

hissa qo'shdilar. Biroq XXI asrda deyarli ikki yarim yillik tarixiy taraqqiyot jarayonida ham inson muammosi o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ong inson borlig'ining eng muhim xossasi. Ongning tabiati shunday: ongni o'lchash, biron-bir tarzda miqdoriy ifodalash, sezish yoki kuzatish mumkin emas, zero uning massasi ham, energiyasi ham yo'q, shuningdek u moddiy ob'ektlar kabi muayyan shakl-shamoyilga ham ega emas.

Ong shak-shubhasiz mavjud, ammo u mavhum bo'lib, balki bilvosita – odamlar tili va muayyan faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Binobarin, inson borlig'ining bu elementlarini tahlil qilmasdan ongning mohiyatini aniqlash mumkin emas. Mazkur tahlil ongning biologik jihatini ham o'z ichiga oladi, zero, uning mavjudligi inson bosh miyasi faoliyati bilan uzviy bog'liq. Shu sababli ongning tabiati nafaqat falsafada, balki fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, kibernetika, informatika va boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlarda ham o'rganiladi.

Atrof muhitda, o'z ichki dunyosida yuz berayotgan o'zgarishlarga odamlar qadim zamonlardayoq e'tibor berganlar. Bu jon va ruh haqidagi mulohazalar paydo bo'lishiga olib kelgan. Shu tariqa bashariyat tarixida animizm odamlar, hayvonlar hayoti, narsalar va hodisalarga jon va ruhlar ta'sir ko'rsatishiga bo'lgan e'tiqod paydo bo'ldi, shu asnoda shakllangan dunyo haqidagi tasavvurlar keyinchalik u yoki bu tarzda turli dinlar negizini tashkil etdi. Jon haqidagi ilk falsafiy tasavvurlar odatda muayyan birinchi asoslar (havo, olov, atomlar harakati va sh.k.) bilan bog'langan va shaxssiz bo'lgan, ya'ni inson tabiatining betakrorligi, uning individualligi bilan tenglashtirilmagan. Suqrot dan oldingi falsafa to'laligicha shunday xususiyatga ega bo'lib, bu yerda ideallik tushunchasini deyarli uchratmaymiz. Masalan, olovni oqil va olijanob, suvni – tuban asos deb hisoblagan Geraklit jon (psixeya) olov yoki suvdan iborat bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi. Olov ko'proq bo'lgan «quruq» jonni - eng oqil va maqbul deb hisoblaydi. Jon namlangach, o'z kuchini yo'qotadi, ho'llangach esa – halok bo'ladi. Shu sababli jon olovi kuchliroq yonishi uchun faol ma'naviy va aqliy hayot kechirishga harakat qilish lozim. O'z navbatida ayrim kishilarning jonlari butun dunyoning birinchi sababi hisoblanadigan va uni boshqaradigan dunyoviy aql olovi – «logos» bilan bog'liq.

Suqrot va Platon moddiy va ideal hodisalarni farqlagan. Shuningdek, Platon Yevropa falsafiy an'anasida ideal asosni qayd etibgina qolmasdan, balki undan moddiy asosni ham keltirib chiqargan birinchi faylasuf hisoblanadi. Ayrim inson ongi esa, Platon fikriga ko'ra, uning joni bilan bevosita bog'lanadi. Bu o'lmas jon u yoki bu tanaga, tana tug'ilgunga qadar o'z «zindoni»ga tushgandek kirib joylashadi va u o'lganidan keyin esa boqiy g'oyalar dunyosida mushohada yuritadi va shu tariqa ularni o'rganib yashaydi. Platon ruhiy hodisalarni tuyg'ular dunyosi (sezish va idrok etish) va intellektga ajratadi. Intellektda u aql va idrokni farqlaydi. Bunda sof g'oyalar bilan ish ko'ruvchi aql fikrlashning formal usullari bilan bog'liq (masalan, matematikada) idrokka qaraganda yuksakroq hodisadir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, keyinchalik falsafada ideal narsalar va hodisalarni tushunishga nisbatan ko'p sonli har xil yondashuvlar paydo bo'ldi, ammo ularning barchasi ideallikni moddiylik va ko'lamlilikka qarshi qo'yadi.

Aristotelning «Jon haqida» risolasini qadimgi yunon faylasuflarining ong haqidagi falsafiy mulohazalarining muayyan yakuni deb hisoblash mumkin. Bu yerda jon tananing mohiyati, uning uyushtiruvchi tamoyili sanalsa-da, lekin aql ichki faolligining in'ikosiga emas, balki kosmos hayotining umumiy qonunlariga bo'ysunadi.

O'rta asrlar Yevropa falsafasi «din cho'risi»ga aylanib, ong haqidagi masalaga butunlay o'zgacha nuqtayi nazar bilan yondashdi – uni abadiy mavjud bo'lgan dunyoni, shu jumladan, inson va uning jonini yo'qlikdan yaratgan Xudoning yagona dunyoviy asos sifatidagi talqini bilan bog'ladi. Bu ta'limotga binoan inson aqli ilohiy aqlning bir zarrasi sifatida muayyan darajada o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lsa-da, ongning bu faoliyati Tangrini bilish va u bilan muloqot qilishga qaratilgandir. Ongning mazkur ob'ektiv-idealistik talqini bilan bir qatorda o'rta asrlarda ongni «fikrlovchi materiya»dan keltirib chiqargan materialistik an'anada ham uzilish yuz bergani yo'q. Bunday qarashlarga Sharq falsafasi (Ibn Sino, Ibn Rushd) o'z ta'sirini ko'rsatgan yevropalik ayrim faylasuflar Duns Skot, brabanlik Sigerning asarlarida duch kelish mumkin.

Seneka qalb, ruh yetukligini, hurligini birinchi o'ringa qo'yadi. «Shunday narsani izohlash kerakki» – deb yozadi u shogirdi Lutsiliyga, – hech nima unga hukmronlik qilolmasin, hech nima unga

g'ov bo'laolmasin. Bu nima deysanmi? U mag'rur, oliyjanob, yuksak ruhdur. Uni kishi vujudidan joy topgan Xudodan boshqa narsa deyish mumkinmi? Vujud biqiqligidan kechib ko'kka intil va shoir aytganidek, o'z ruhingni Xudoga monandligini namoyon et. Ruhning hurligi uchun tilla ham kerak emas, kumush ham, chunki haqiqiy Xudo timsolini yasab bo'lmaydi. Esla Xudolar bizga xayrixoh bo'lganlarida ular loydan edilar... Komil ruhni qarzga ham, sotib ham olib bo'lmaydi". Seneka nazarida ezgulik, poklik, adolat va yetuklik izlagan kishi eng avvalo o'z ruhini ilohiy talablarga monand qilishi darkor. Ilohiylik – bir timsol, simvol, unga yetish kishi ixtiyoridadir. Kishi qayerda yashamasin, nimalarni izlamasin, kimlarga hamroh bo'lmasin o'zining ruhini poklamaguncha, uni yuksaklikka yo'naltirmaguncha hayotdan zavq, orom, buyuklik topolmaydi. "Yashash joyingni emas, ruhingni o'zgartir, – deb yozadi Seneka, – qancha ko'p kezsang, shuncha ruhing iztirobga botadi. Kema uchun bab-baravar ortilgan yuk emas, balki notekis ortilgan yuk halokat keltiradi". Ruh bezovta, xasta ekan kishini hech qanday olamgardlik, tomosha, hazz-huzur qutqara olmaydi. Qayerda va kim bilan emas, qanday qalb, ruh bilan yashashing muhim. "ruhim hur bo'lsin desang, biror makonga butun dildan bog'lanma. Men biror burchak uchun tug'ilmaganman, butun mening vatanim, degan e'tiqod bilan yasha". Bir qarashda faylasuf kosmopolitizm tarafdori bo'lib ko'rinadi, biroq barcha rimliklar kabi u ham o'z vatanining fidoiysi edi. Bu o'rinda Seneka vatansiz yashashni emas, balki ruhiy osudalikni targ'ib etadi. Faylasuf kishidagi barcha illatlar uning qalbi, ruhidagi nopok tuyg'ular tufaylidir deb biladi. Ba'zi kishilar boshqalarni pok, sofdil, ezgu amalli, xushaxloq ko'rishni istaydi, hatto ulardan ilohiy sifatlarni talab etadi, O'zida yo'q xislatlarni boshqalardan talab etish zo'raonlik bo'lmasa-da, axloqsizlikdir. O'zi dardmand kishi o'zganing dardiga darmon bo'lolmaydi; qalbi nopok kishining o'zgalardan poklik talab etishi nokaslikdan boshqa narsa emas. Boshqani to'g'rilashdan oldin o'zingni to'g'irla. "O'z aybingni bilish, ruhni sog'lom tutish tomon tashlangan birinchi qadamdir". Kim o'z qalbini sog'lom ko'rishni istamasa, o'zidagi illatlardan xolos bo'lmoqchi emas; kim nuqsonlarini eshitishdan qochsa, o'z nuqsonlarini ezgulik deb biladi; kim poklanishni ixtiyor etmasa, unga hech kim dars berolmaydi. Ruhning poklanishi, sog'lom bo'lishi uchun nima qilish kerak? Seneka, eng

avvalo "etuk donishmandlik ilmi" falsafa bilan shug'ullanish lozim, deb javob beradi.

Odamni ongli mavjudotga aylantirgan uning aqlidir. Aql donishmandlikka intilib odam ruhini buyuk qiladi. Donishmandlik orqaligina kishi baxtiyor sezadi o'zini; o'zini baxtiyor sezmagani baxtiyor ham, ozod ham emas. "Mubarro yashashni istasang falsafaning quli bo'l". O'z illatlarini bilgan va ularni yenggan o'limdan qo'rqmaydi; o'lim ruhimizni qiynaydigan azoblardan biri emas, u oxirgi azobdir. Faylasuf stoiklar an'anasini davom ettirib yozadi: "Bazmu ziyofatlardan oshqozon buziladi, ichkilikbozliklardan tomirlar qotadi va titraydi, shahvatdan qo'l, oyoq, bo'g'imlar zaiflashadi. Men qashshoqlashsam, demak, ko'pchilikka qo'shilaman, badarg'a qilinsam, borgan joyimni makon bilaman, zanjirband qilsalar – tashvish nega? Axir men hozir ham zanjirband emasmanmi? Tabiat meni o'z tanamga bandi etib qo'ymaganmi? Men o'lamanni? Demak, men endi xasta bo'lmayman, zanjirband qilinmayman, o'lim xavfidan xoliman". Shunday qilib xulosa qilamiz. Umuman o'limni tabiiy holdek kutib olishga da'vat stoiklar falsafasidagi bosh g'oyalardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, kishi tug'ilganidan o'lim tomon boradi, go'daklik, o'smirlik, yoshlik, qarilik yagona haqiqat – o'limga eltadi. Umrini xushbaxt o'tkazmoqchi bo'lgan kishi esa hayot quvonchlariga ham, o'lim qo'rquvlariga ham befarq yashaydi, o'lim mubarro ruhni bezovta qilolmaydi. Donishmand o'z qismatidan qochmaydi, hayotini oxiri kelganida tark etadi. Hayotdan qochish boshqa, uni tark etish boshqa; birinchisi – ruhning zaifligi, ikkinchi buyuk borliq hukmidir. "Yashash emas, munosib yashash muhim; erta o'lasanmi yoki keyin – ahamiyati yo'q, yaxshilik bilan yashadingmi yoki yomonlik bilan mana – nima zarur". Ikki ming yil oldin bitilgan ushbu nasoyihlar – nasihatlar moziy qariidan emas, ma'naviy-axloqiy yetuklik izlayotgan zamondoshimiz qalbidan chiqayotgan da'vatlardek eshitilmaydimi?

### **Ong haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi**

Yangi davrda R.Dekart (1596-1650) ongni tafakkur bilan tenglashtirib, uni umumiyroq tushadigan «ruhiyat» tushunchasidan ajratdi va ongni mustaqil, erkin fikrlovchi substantsiya deb hisoblab, yonmayon joylashgan boshqa – ko'lamli, fikrlamaydigan, moddiy substantsiyaga qarshi qo'ydi. Dualizm deb nomlangan mazkur falsafiy yondashuv keyinchalik ongning tabiatini tushunishga nisbatan ikki qarama-qarshi yondashuv yuzaga kelishiga zamin hozirladi.



Shulardan biri ruhiyni jismoniyga (Gobs); ma'naviyni – moddiyga bog'lash bilan tavsiflanadi. Ikkinchi yondashuv sub'ektiv (Berкли, Yum, Fixte, Max va boshqalar) va ob'ektiv (Platon, Foma Akvinskiy, Gegel) idealizm bilan bog'liq bo'lib, moddiy va jismoniy narsalar va hodisalarni ikkilamchi, ideal, ma'naviy, ruhiy narsalar va hodisalar mahsuli deb tushinishi bilan ajralib turadi.

Ikkala yondashuv ham nemis klassik falsafasida faol rivojlantirildi. Masalan, Gegel individual ongga butun rivojlanish negizi sanalgan mutlaq g'oyaning pirovard shakllaridan biri sifatida yondashdi. Bu yerda ong tarixan belgilangan faol asos sifatida tushuniladi. Mazkur asosda uning tuzilishi darajalari, xususan, hissiy, mantiqiy, individual va ijtimoiy darajalar farqlanadi.

«Vulgar materializm» nazariyasida ong sof moddiy jarayon bo'lib, uning mazmuni inson yeydigan oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi bilan bog'liqligi tan olinadi. Byuxner, Foxt, Moleshott kabi faylasuflar bu nazariyani himoya qilib, jigardan safro ajralganidek, aqldan fikr ajraladi, deb hisoblagan.

Tabiatshunoslikning rivojlanishi, ayniqsa, neyrofiziologiya, biologiya, eksperimental psixologiya sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar so'nggi yillarda bizning ong tabiati haqidagi tasavvurlarimizni sezilarli darajada kengaytirdi. Shunga qaramay, sun'iy intellekt yaratish borasidagi ishlar, «fikrlovchi mashinalar»ning paydo bo'lishi va «axborot portlashi» va kompyuter inqilobining boshqa natijalari, xususan shaxmat o'yinida hatto jahon chemionlarini ham yutishga qodir superkompyuterlarning yaratilishi inson ongining mohiyati va imkoniyatlari haqidagi masala yangidan qo'yilishiga sabab bo'ldi. Shunday qilib, avvalgi savollarga javob olish barobarida yangi muammolar ham paydo bo'ldi. Biroq ular ong muammosini yechishga nisbatan har xil, ba'zan bir-birini istisno etuvchi nuqtayi nazarlar va falsafiy yondashuvlar sonini aslo kamaytirgani yo'q.

### **Ongsizlik**

Ba'zan «ong» tushunchasi «inson ruhiyati» tushunchasi bilan ayniylashtiriladi. Bu noto'g'ri. Ruhiyat – ongga qaraganda murakkabroq tuzilma bo'lib, u aks ettirishning ikki sohasi – ong va ongsizlikni o'z ichiga oladi. Ohmlar insonda onglilik va ongsizlikning o'zaro nisbati to'g'risida so'z yuritar ekanlar, ba'zan ularni okeandagi muztoqqa o'xshatadilar. Bu muztog'ning suv ustidagi ko'zga ko'rinadigan qismi ongga qiyoslanadi, suv ostidagi ko'rinmaydigan

qismi esa ongsizlikka o'xshatiladiki, uning miqyosi, shakli, tuzilishi va mazmuni haqida biz bilvosita belgilarga ko'ra faqat taxmin qilishimiz mumkin.

Ongsizlik sohasi – bu aqldan tashqaridagi ruhiy hodisalar, holatlar va harakatlar majmui, deb hisoblash odat tusini olgan. Bu sohaga, eng avvalo, instinktlar – inson xulq-atvorining uzoq tadrijiy rivojlanish jarayonida hosil bo'ladigan va har bir mavjudotning hayot funksiyalarini, umuman uning mavjudligini ta'minlashga qaratilgan tug'ma harakatlari majmui kiritiladi. Ongsizlikni (ong osti) tushunish yanada ko'proq qiyinchilik tug'diradi. Uning mavjudligi avstriyalik mashhur psixiatr Z.Freyd (1856-1939) tomonidan XX asr boshida aniqlagan. Har xil tushlar, gallyutsinatsiyalar, xayoldan ketmaydigan g'oyalar, intuitsiya va shu kabilar ongsizlikning namoyon bo'lish shakllariga misol bo'lishi mumkin. Ular odamlar ruhiyati va xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi, lekin ayni vaqtda bu jarayonlarni boshqarish nuqtayi nazaridan ularga bo'ysunmaydi. Ongsizlik insonning muayyan ongli faoliyatida ong bilan boshqarishga qodir bo'lmagan lahza, deyish mumkin.

Ongsizlik strukturasi ong sohasida vujudga kelishi va vaqt o'tishi bilan ongsizlik sohasiga kirishi mumkin bo'lgan intuitsiya va avtomatizmlarni ham kiradi. Intuitsiya – bu olish yo'llari va shartlarini anglamasdan, bevosita hissiy kuzatish yoki mushohada yuritish yo'li bilan olinadigan bilim. Avtomatizmlar – bu avval ong nazorati ostida paydo bo'lib, uzoq mashq qilish va ko'p karra takrorlash natijasida ongsiz harakatlar xususiyatini kasb etuvchi insonning murakkab harakatlari. Tush, gipnoz holati, somnambulizm hodisalari, hushsizlik holatlari ham ongsiz harakatlar hisoblanadi. Ruhiy faoliyatga ongsiz harakatlarning qo'shilishi natijasida onga tushuvchi yuk kamayadi, bu esa, o'z navbatida, insonning ijodiy imkoniyatlari maydonini kengaytiradi. Hozirgi zamon fani ong osti sohasi tushunchasi bilan ham ish ko'radi. Bu ongsizlik sohasining alohida qatlami yoki darajasidir. Unga faoliyat amallarining ong darajasidan avtomatizm darajasiga o'tishi bilan bog'liq ruhiy hodisalar kiritiladi.

Ongsizlik va ong inson yagona ruhiy borlig'ining nisbatan mustaqil bo'lgan ikki tomoni hisoblanadi: ularning o'rtasida tez-tez ziddiyatlar, ba'zan konfliktlar yuzaga keladi, lekin ular bir-biri bilan bog'langan, bir-biri bilan o'zaro aloqa qiladi va uyg'un birlikka erishishga qodir. Ongsizlik sohasida inson hayot faoliyatini, ayniqsa,

sub'ektning ijodiy faoliyatini oqilonlashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu hol irratsionalistik falsafiy ta'limotlarning shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ularda ongsizlikning turli shakllari: instinktlar, intuitsiya va shu kabilar inson xulq-atvorining salmoqli yoki hatto hal qiluvchi kuchi hisoblanadi.

Irratsionalizmning taniqli namoyandalari orasida Artur Shopengauer (Germaniya), Syoren Kerkegor (Daniya), Fridrix Nitsshe (Germaniya), Eduard Gartman (Germaniya), Anri Bergson (Frantsiya), Zigmund Freyd (Avstriya), Martin Xaydegger (Germaniya) kabilar ongs izlik muammosini tahlil qilganlar. Xususan, Zigmund Freyd yaratgan inson xulq-atvori modelining zamirida inson ruhiyatida jinsiy mayllarning hukmronligi haqidagi tasavvur yotadi. Mazkur mayllar ong bilan to'qnashadi va natijada uni o'ziga bo'ysundiradi. Ammo falsafiy maktablarning aksariyati o'zgacha nuqtayi nazarni ilgari suradi. Ular inson ruhiyatida yetakchi asos ong bo'lib, u ongsizlik sohasini «oziqlantirish» va uni ko'p jihatdan shakllantirish orqali umuman olganda uni boshqarishga, shuningdek inson xulq-atvorining umumiy strategiyasini belgilashga qodir, deb hisoblaydi.

Ong inson miyasining ob'ektiv borliqni ideal obrazlarda aks ettirish va bu obrazlardan fikrlash jarayonida foydalanish qobiliyati. Uni bevosita kuzatish mumkin emas. Ong faqat inson miyasi ishining natijasi, uning xossasi sifatida, shuningdek ong namoyon bo'lishining fikrlar, g'oyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar, mo'ljallar va shu kabilar tarzida ifodalangan turli shakllari orqali tadqiq etilishi mumkin.

Individual ong borlig'ini odatdagi makon va vaqt koordinatalarida tavsiflash mumkin emas. U nafaqat doim «shu yerda va hozir» mavjud bo'ladi, balki go'yoki makondan tashqarida yotadi, chunki biron-bir hajm yoki miqdoriy o'lchanadigan chiziqli ko'rsatkichlar bilan ifodalanishi mumkin emas. Vaqtda u (dalil sifatida, hodisa sifatida), har qanday narsaning borlig'i kabi, faqat hozirgi zamonda mavjud bo'ladi, zero, u o'tmishda yo'q bo'lgan, kelajakda esa hali mavjud emas. Biroq moddiy narsalar borlig'idan farqli o'laroq, ong bir qancha o'ziga xos xususiyatlar, chunonchi: vaqt shkalasi bo'ylab o'tmishga ham, kelajakka ham bir lahzada ko'chish, ilgari mavjud bo'lgan narsalar, yuz bergan voqealarni xayolda aks ettirish, paydo bo'lishi, yuz berishi mumkin bo'lgan narsalar va voqealarni tasavvurda gavdalandirish qobiliyatiga egadir. Ammo o'tmish yoki kelajakning ideal obrazlari hisoblangan ongni uning

haqiqiy borlig'ida o'z ekranida tasvirlarni almashtiruvchi aylanuvchan kaleydoskop bilangina taqqoslash mumkin.

Shaxs – insonning uni qurshagan boshqa odamlar tomonidan qanday idrok etilishi, tavsiflanishi va baholanishini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa. Shaxs faqat jamiyatda, o'ziga o'xshash odamlar bilan muloqot qilish, o'tgan avlodlar to'plagan tajriba va bilimlarni, o'ziga qadar yaratilgan qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish orqali shakllanishi mumkin. Shuning uchun ham shaxs bo'lish – ijtimoiy «qiyofa»ga ega bo'lish demakdir. Bularning barchasi ijtimoiy borliqning turli holatlari va jarayonlarini tavsiflaydi. Ularni to'la yoritish ijtimoiy falsafa muammolarining butun majmuini tahlil qilishni taqozo etadi.

Ijtimoiy ong borlig'i borliqning boshqa barcha shakllaridan butunlay farq qiladi. Yaxlit holda olingan ijtimoiy «organizm» hayvonlar podasidan butunlay farq qiladi. Jamiyatning bu o'ziga xos, betakror xususiyati falsafada «ijtimoiy ong», «jamo'a aqli», «ob'ektivlashgan ma'naviyat» va hokazolar deb ataladi. U har xil shakllarda namoyon bo'ladi. Bu fikrni isbotlash uchun muloqot, kommunikatsiya, odamlarni tarbiyalash va ularning ijtimoiylashuvi vositasi sanalgan tilni ko'rib chiqamiz. Tilning ayrim kishilar ongi, g'oyalari, fikrlari bilan uzviy bog'liqligi aniq, ammo hozirgi zamon fani nuqtayi nazaridan til ijtimoiy tabiatga ega ekanligi ham shubhasiz. Xuddi shuningdek til - inson nutqi odamlar jamiyatida paydo bo'lgani va faqat shu yerda mavjud bo'lishi mumkin. Uning tashqi og'zaki, ovoz ko'rinishi, mazmuni, teranligi, kengligi, boyligi ko'plab avlodlarning ko'p asrlik o'zaro aloqasi va o'zaro kamol topishi mahsulidir. Bunda ayrim inson u yoki bu tilni faqat muloqot jarayonida o'zlashtiradi. Ayni holda umuman til haqida so'z yuritilmoqdaki, u tabiiy ham, sun'iy ham bo'lishi mumkin.

Individual ma'naviy borliqdan farqli o'laroq, ijtimoiy ma'naviy borliq haqida uning fan, san'at, din, axloq va umuman madaniyat tarzidagi ko'rinishlariga qarab hukm chiqarishimiz mumkin. Xususan, u yoki bu ilmiy g'oyalarning paydo bo'lishi doim muayyan olimlar bilan bog'liq, ammo fan ijtimoiy hodisa sifatida muayyan shaxslar bilan bog'lanmaydi, zero, u ayrim olimlar ilgari surgan nazariy qoidalar majmuidan yuqoriroq darajada turadi. Bosma, audiovizual va boshqa axborot manbalari, tegishli asbob-uskunalar va shu kabilarsiz fanni tasavvur qilish mumkin emas. U yaxlit hodisa

sifatida mustaqil borliqqa ega. Bugungi kunda, kompyuter texnologiyalari inqilobi davrida fan jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylandi.

San'at sohasi haqida ham shunday deyish mumkin. Qo'shiqlar, raqslar va musiqa o'z muayyan ijrochilariga ega bo'lgani holda, o'zining odatlar, rasm-rusumlar va ideallar ko'rinishidagi nisbatan mustaqil hayoti bilan yashaydi va shu tariqa ijtimoiy makon va vaqtda harakatlanib saqlanishi, takomillashishi va ko'payishi mumkin.

Ijtimoiy ongning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u, individual ongdan farqli o'laroq, o'z «tanasi»ni «tark eta» olmaydi, xuddi shuningdek u o'z «tanasi»dan, ya'ni jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lishi ham mumkin emas. Shu sababli ijtimoiy ong asrlar mobaynida abadiy mavjud bo'lgan, yo'q qilib bo'lmaydigan narsa sifatida qaralgan, uning borlig'i esa butun insoniyat borlig'i yo'q bo'lishi bilan barham topishi mumkin, deb hisoblangan.

Ammo XX asrning o'rtalarida odamlar o'z-o'zini qirg'in qilish vositasi – yadro qurolini yaratdilar va shu paytdan e'tiboran insoniyat o'zining «umrboqiyli»ni yo'qotdi va endilikda u, yashab qolishga harakat qiluvchi ayrim jonli organizm kabi, ijtimoiy hayotni o'z-o'zini qirg'in qilishdan asrab, o'z ijtimoiy borlig'ini saqlash haqida qayg'urishi lozim.

Irratsionalizm (irrationalis – nooqilona, ongsiz) borliqni oqilona anglash imkoniyatini cheklaydi, ba'zan esa butunlay inkor etadi. Xususan, neofreydizmning atoqli namoyandalaridan biri K.G.Yung (1875-1961) ongni ilmiy vositalar bilan bilish mumkin emas, deb hisoblagan va unga ta'rif berishga urinishlardan butunlay voz kechib, uni rasmlar va metaforalar yordamida tavsiflash bilangina kifoyalinishni taklif qilgan. Ongni tushunish irratsionalizm ekzistentsializm va neopozitivizm kabi falsafiy oqimlarga ham xosdir. Ongni tushunishga nisbatan ratsional yondashuv ongning paydo bo'lishini materiyaning o'zi bilan tushuntirishga intilish, ayni vaqtda uning tabiat va vaqtdan tashqarida hamda nomoddiy kelib chiqishini inkor etish bilan tavsiflanadi. Bunday qarashlarni asoslash uchun ilmiy va amaliy yutuqlardan doim keng foydalanilgan. Mazkur yo'nalish turli davrlarda sezuvchi, fikrlovchi materiyaning farqi va o'ziga xos xususiyatlari nimada?, degan mushkul savollarga javob izlagan.

Mazkur muammoni to'la va uzil-kesil tushunganlikni da'vo qilmasdan, shuni qayd etish mumkinki, hozirgi zamon fani o'zini

bevosita yoki bilvosita namoyon etuvchi ong inson miyasining ish jarayoni hisoblanadi, uning funksiyasi sifatida amal qiladi va undan ayri holda namoyon bo'lmaydi, deb e'tirof etadi.

Hozirgi zamon fani inson miyasida yuz milliarddan ortiq asab hujayralari uzluksiz ishlashini, ularning har biri o'z navbatida boshqa o'n ming hujayra bilan axborot va signallar almashishini aniqlagan. Inson miyasi, garchi uning massasi tana massasining atigi ikki-uch foizini tashkil etsa-da, organizm ovqatdan oladigan butun energiyaning yigirma foiziga yaqinrog'ini iste'mol qiladi.

Mazkur o'ta murakkab biologik «kompyuter» ishini tadqiq etish mumkin bo'lib, bu bilan maxsus fanlar shug'ullanadi. ammo falsafa bunday tadqiqotlarni e'tiborga olib, o'z oldiga birinchi navbatda ongning tabiati qanday, degan savolga uning vujudga kelishi va genezisini o'rganish yo'li bilan javob berish vazifasini qo'yadi. Bunda falsafa inson miyasining funksiyasi sanalgan ongni o'rganish bilangina cheklanmaydi, balki masalani kengroq qo'yadi: ongning boshqa shakllari, xususan o'zga moddiy tuzilmalardan paydo bo'lgan ong shakllari mavjud bo'lishi mumkinmi?, degan savolga javob izlaydi. Shuningdek, falsafa ongning materiyadan oldin paydo bo'lgan yoki u bilan mutlaqo bog'liq bo'lmagan mohiyat hisoblanishini nazarda tutadigan ta'limotlarni ham istisno etmaydi. Shunga qaramay bugungi kun nuqtayi nazaridan inson aqli tushunishga qodir bo'lgan borliqqa tayanadigan falsafiy g'oyalar ishonchliroq xususiyat kasb etadi. Shu ma'noda ong haqida hozircha faqat inson miyasi faoliyati munosabati bilan aniq so'z yuritish mumkin.

Yangi tabiiy-ilmiy ma'lumotlar olinishi ongning tabiatini tushunishga nisbatan materialistik yondashuvlar mavqeini kuchaytirmoqda. Ammo kezi kelganda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bu o'ta murakkab masala xususida falsafaning materialistik yo'nalishi vakillari o'rtasida ham yagona fikr mavjud emas. Masalan, XX asrning 50-yillari oxirida AQSh va Avstraliyada ilmiy materializm vujudga keldi. U «vulgar materializm» an'anasini davom ettirib, mohiyat e'tibori bilan ma'naviy hodisalarni miyaning fizik holatlari bilan tenglashtirdi (R.Rorti, G.Feygl, D.Armstron va boshqalar). 70-yillarda AQSh va Kanadada yana bir falsafiy yo'nalish – «emerjentistik materializm» shakllandi (ingl. emerge – yuzaga chiqish, paydo bo'lish, yuzaga kelish). Uning vakillari – M.Bunge, J.Margolis va boshqalar individul ruhiyat va ongning evolyutsion

kelib chiqishi g'oyasini himoya qilib, ruhiy hodisalarni jismoniy hodisalarga bog'lashga qarshi chiqdilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ongning ilmiy konsepsiyasi hozircha eng mukammal va hozirgi zamon tabiatshunosligi talablariga ko'proq darajada javob beradigan falsafiy konsepsiya bo'lib qolmoqda. Ayni shu sababli unga quyida mufassalroq to'xtalamiz.

Ongning paydo bo'lishini faqat notirik materiyadan tabiiy yo'l bilan vujudga kelgan tirik materiyaning tadrijiy rivojlanishi mahsuli sifatida tushuntirishga harakat qilinishi va ong tabiatining talqiniga «in'ikos» tushunchasini kiritilishi ongning falsafiy konsepsiyasidir. Ong materiyaning umumiy xossasi, in'ikosning oliy tipi deb tavsiflanadi va ongning genezisiga tabiiy-tarixiy nuqtayi nazardan yondashilib, uning paydo bo'lishi mehnat va til bilan bog'lanadi.

### **Ongning strukturasi**

Ong strukturasi birinchi elementi – bilim. Bu ongning bosh tarkibiy elementi, uning o'zagi, mavjudlik vositasi. Bilim – bu insonning voqelik haqidagi tushunchasi. Inson ongida bilim anglab yetilgan hissiy va mavxum mantiqiy obrazlar sifatida aks etadi. Bilimlar yordamida inson o'zini qurshagan dunyoni va bilishning predmetini to'raligicha qamrab olishi va anglab yetishi mumkin.

Ong strukturasi ikkinchi muhim elementi emotsiyalardir. Inson o'zini qurshagan dunyoni sovuqqonlik va befarqlik bilan emas, balki qoniqish, nafrat yoki hamdardlik hissi bilan anglab yetadi. U o'z ongida aks etgan hamma narsani his qiladi. Emotsiyalar borliqning real hodisalarini individ anglab yetishini yo rag'batlantiradi, yo bunga to'sqinlik qiladi. Ko'zni quvontiradigan narsalar xotiraga osonroq o'rtnashadi. Ammo ba'zan dunyoning «ko'zni quvontiradigan» manzarasi o'ziga mahliyo qilishi, illyuziyalar tug'ilishiga sabab bo'lishi ham mumkin.

Ongning uchinchi tarkibiy elementi iroda hisoblanadi. Iroda inson o'z faoliyatini ongli ravishda, izchillik bilan boshqarishini o'zida ifodalaydi. Bu insonning o'z faoliyatida yuzaga keladigan, sub'ektiv va ob'ektiv qiyinchiliklar va to'siqlardan ongli ravishda oshib o'tishni talab etadigan vazifalarni hal qilishga o'z ruhiy va jismoniy kuchlarini safarbar etish va yo'naltirish qobiliyatidir. Inson mehnat qurollarini yaratishi – bu irodani shakllantirishning birinchi va eng muhim maktabidir. Iroda va maqsad bir-birini to'ldiradi. Irodasiz

maqsadga erishish mumkin emas; maqsadga muvofiq faoliyatsiz iroda ham bo'lmaydi. Iroda – bu ongli intilish va harakatga mayl uyg'otishdir. Ammo insonga ongsiz mayllar ham xos. Ba'zan inson qayergadir intiladi, lekin qaerga va nima uchun intilayotganini uning o'zi ham bilmaydi. Bunday ong osti harakati insonga hayvonlardan o'tgan.

Ong strukturasi yana bir elementi – bu tafakkurdir. Tafakkur – individ bilish faoliyatining voqelikni umumiy va bilvosita aks ettirish bilan tavsiflanuvchi jarayoni. Ong strukturasi e'tibor va xotira ham kiradi. E'tibor – bu inson ruhiy faoliyatining muayyan ob'ektlarga qarab mo'ljallanishda namoyon bo'luvchi shakli.

Xotira – bu individ miyasida uning o'tmishdagi tajribasini mustahkamlash, saqlash va gavdalanitirishdan iborat bo'lgan ruhiy jarayon. Xotiraning asosiy elementlari eslab qolish, saqlash, gavdalanitirish va unutish hisoblanadi. Eslab qolishning fiziologik asosini bosh miya po'stlog'ida vaqtinchalik nerv aloqalarining hosil bo'lishi va qayd etilishi tashkil qiladi. Nerv aloqalarining keyinchalik jonlanishi eslab qolingani materialni gavdalanitirish imkoniyatini beradi, bu aloqalarning susayishi esa xotiradagi materialning unutilishiga olib keladi.

Insonning sub'ektiv borlig'ida muhim struktura – o'zlikni anglash ham bor. Bu insonning o'zini shaxs sifatida anglab yetish, o'zining mustaqil qarorlar qabul qilish va shu asosda odamlar va tabiat bilan ongli munosabatlarga kirishish, qabul qilingan qarorlar va harakatlar uchun javobgar bo'lish qobiliyatini tushunish jarayonidir. Boshqacha qilib aytganda, o'zlikni anglash – bu o'z-o'ziga, o'zining ma'naviy qiyofasiga, o'z bilimlari, fikrlari, qiziqishlari, ideallari, xulq-atvor mo'ljallari, harakatlari va shu kabilarga yaxlit baho berishdir. O'zlikni anglash yordamida inson o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ro'yobga chiqaradi, o'z-o'ziga his qilishga qodir bo'lgan fikrlovchi mavjudot sifatida baho berishni amalga oshiradi. Bu holda sub'ekt o'z-o'zini va o'zining ongini bilish ob'ektiga aylantiradi. Shu tariqa inson o'z-o'ziga baho beradigan, shusiz hayotda o'z o'rnini belgilash va topishga qodir bo'lmagan mavjudot sifatida namoyon bo'ladi.

O'zlikni anglash – insonning o'zini o'zi tinimsiz kamol toptirishining muhim shartidir. O'zlikni anglash strukturasi o'z-o'zini his qilish, o'z-o'zini bilish, o'z-o'ziga baho berish, o'z-o'zini boshqarish kabi elementlarni ham ajratish mumkin. Umuman olganda,



o'zlikni anglash refleksiya bilan uzviy bog'liq. Falsafiy adabiyotlarda refleksiya tafakkurning unga o'z faoliyat shakllarini (tafakkur kategoriyalarini) tahlil qilish va anglab yetishga ko'maklashuvchi tamoyil sifatida tavsiflanadi. Ayni shu sababli refleksiya inson ma'naviy dunyosining ichki tuzilishi va xususiyatlarini namoyon etuvchi o'zlikni anglash faoliyati sifatida yondashish, bizningcha, o'rinli bo'ladi. Ong tarkibiy elementlari bir-biri bilan o'zaro aloqaga kirishadi va ongga inson hayoti uchun o'ta muhim bo'lgan bir qancha funktsiyalarni ta'minlaydi.

### **Ongning funktsiyalari**

Ongning birinchi funktsiyasi bilish yoki aks ettirish, ya'ni insonni qurshagan voqelik haqida va uning o'zi haqida bilimlar olishdir. Bilish faoliyati sifatida anglash jarayoni hissiy, obrazli bilishdan boshlanadi va mavhum fikrlash sari yuksaladi. Hissiy (empirik) bilish bosqichida rang-barang ashyoviy material to'planadi va keyinchalik u mavhum fikrlash yo'li bilan umumlashtiriladi.

Ongning bilish funktsiyasi jamg'arish funktsiyasini belgilaydi. Bu funktsiyaning mohiyati shu bilan belgilanadiki, bevosita, shaxsiy tajribadan olingan bilimlarga emas, balki zamondoshlar yoki o'tmishdoshlardan olingan bilimlar ham inson xotirasida jamlanadi. Bu bilimlar zaruriyatga qarab aktuallashtiriladi, tiklanadi va ongning boshqa funktsiyalarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson xotirasi qancha boy bo'lsa, u optimal qaror qabul qilishi shuncha oson bo'ladi.

Ongning aksiologik funktsiyasi (baholash funktsiyasi)da inson tashqi dunyo haqida ma'lumotlar olish bilan bir vaqtda ularni o'z ehtiyojlari va manfaatlarini nuqtayi nazaridan baholaydi. Ong, bir tomondan, ob'ektiv aks ettirish shakli, inson mayllari va manfaatlariga bog'liq bo'lmagan voqelikni bilish shakli hisoblanadi. Bilimlar olish, ob'ektiv haqiqatning tagiga yetish, bilish faoliyati sifatidagi anglash jarayonining natijasi va maqsadiga aylanadi. Boshqa tomondan, ong voqelikka sub'ektiv munosabat ko'rinishlarini, uni baholash, o'z bilimini va o'zini anglab yetishni ham o'z ichiga oladi.

Ongning baholash funktsiyasi bevosita maqsadni shakllantirish funktsiyasiga o'tadi. Maqsadga intiluvchanlik – bu ongning muhim xususiyati hisoblanuvchi sof insoniy qobiliyat. Maqsad – bu insonning o'z predmetini topgan ideallashtirilgan ehtiyoji; bu faoliyat

predmetining shunday bir sub'ektiv obraziki, uning ideal shaklida inson faoliyatining mo'ljallangan natijasi namoyon bo'ladi.

Ongning ijod funksiyasida insonning oliy imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Maqsadga intiluvchanlik, ya'ni inson o'z harakatlari «nima uchun» va «nimaga erishish yo'lida» amalga oshirishini anglab yetish har qanday ongli qilmishning zaruriy shartidir. Maqsadni ro'yobga chiqarish muayyan vositalarni, ya'ni maqsadga erishish uchun yaratiladigan va shunga xizmat qiladigan vositalarni ishga solishni nazarda tutadi. Inson tabiatda mavjud bo'lmagan narsalarni bunyod etadi.

Ongning kommunikativ funktsiya (aloqa funktsiyasi)sida odamlar umumiy mehnatda ishtirok etadilar va bir-birlari bilan o'zaro aloqalarga kirishishga doimi muhtoj bo'ladilar. Fikrlarning bu aloqasi nutq orqali (ovozlik aloqa) va texnika vositalari yordamida (matnlar, kodlangan axborot) amalga oshiriladi. Shuni e'tiborga olish lozimki, yozma matnlarda (kitoblar, jurnallar, gazetalar va sh.k.)da bilim emas, balki axborotgina saqlanadi. Axborot bilimga aylanishi uchun u sub'ektivlashtirilishi lozim. Ayni shu sababli bosma so'zni tarqatish bayon etilgan axborot bilimga aylanishining kafolati emas, balki sharti hisoblanadi. Axborot bilimga, ya'ni sub'ektiv boylikka aylanishi uchun qo'shimcha kuch-g'ayrat sarflash talab etiladi.

Shaxs ongining mantiqiy siklini tartibga solish (boshqaruv) funktsiyasi yakunlaydi. Ong omillarga baho berish asosida va qo'yilgan maqsadga muvofiq inson harakatlarini, keyinchalik esa – jamoalarning harakatlarini ham boshqaradi, tartibga soladi. Ongning tartibga solish funktsiyasi insonning o'zini qurshagan muhit bilan o'zaro aloqasiga bog'liq bo'ladi va ikki shaklda: da'vat etuvchi tartibga solish va ijroni tartibga solish shakllarida amal qiladi. Ongning bosh funktsiyalari ana shulardan iborat. Ularning uyg'un rivojlanishigina oxir-oqibatda intellektual va ma'naviy jihatdan komil insonni tarbiyalash imkoniyatini beradi.

XXI asr boshiga kelib olimlar intellektning ayrim funktsiyalarini informatsion mashinalar zimmasiga yuklash uchun ancha ko'p zahmat chekdilar. Bugungi kunda kompyuterlar murakkab ishlarni bajarmoqdalar: bir tildan boshqa tilga tarjima qilmoqdalar, samolyotlarni, poezdlarni boshqarmoqdalar, shaxmat o'ynamoqdalar, hatto inson miyasiga xos bo'lgan ba'zi bir mantiqiy amallarni

bajarmoqdalar. Tabiiy bir savol tug'ildi: inson aqlining o'rmini bosishga qodir bo'lgan mashinani yaratish mumkin emasmi?

Texnika imkoniyatlari nuqtayi nazaridan, informatsion mashinalarni takomillashtirish chegarasini belgilash o'rinli bo'lmaydi. Shunga qaramay, mashinalar bajaruvchi amallar bilan inson miyasida bajariladigan amallarning o'xshashligi mashinalarni fikrlash qobiliyatiga ega deb hisoblash uchun asos bermaydi. Mohiyat e'tibori bilan mashina inson tafakkurining faqat bir jihatini – formal-mantiqiy fikrlashnigina amalga oshiradi, vaholanki, insonning fikrlash jarayoni amalda iroda, emotsiyalar, intuitsiya, orzu, fantaziya va hokazolardir. Inson ichki dunyosining boyligi uning ijtimoiy aloqalari boyligi va serqirraligining mahsuli hisoblanadi. Ayni shu sababli, inson ongi, uning strukturasi va barcha funktsiyalarini to'liq modellashtirish uchun miya strukturasi o'zining gavalantirish kifoya qilmaydi.

### **Til va ong**

Ong nafaqat insonning mehnat faoliyati, balki odamlar o'zaro aloqasi va muloqotining universal vositasi – til bilan ham uzviy bog'liqdir. Aniq, tushunarli nutqning paydo bo'lishi, nafaqat ijtimoiy munosabatlar, balki insonning o'zi, uning ongi rivojlanishining butunlay yangi va qudratli vositasiga aylandi, chunki biologik omil (irsiyat)dan tashqari odamlarda til yordamida yanada qudratliroq omil – tajriba va muhim axborot berishning ijtimoiy usuli paydo bo'ldi. Bu turli avlodlar va tarixiy davrlarning bilimlari, an'analari, madaniyatlarining vorisiyligini ta'minladi, so'nggi zikr etilgan hol esa, o'z navbatida, tilning yanada rivojlanishi va takomillashuviga turtki berdi va zamin hozirladi. Shunday qilib, mehnat, ong va til bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'landiki, ulardan har birining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishini bir-biridan alohida tasavvur qilish mumkin emas. Bunda til insonning fikrlash faoliyati amalga oshuvchi muhim shakl hisoblanadi, mehnat esa, o'z navbatida, tilni rivojlantiradi va boyitadi. Xullas, individning ongi ijtimoiy belgilangandir, ya'ni u faqat jamiyatda shakllanadi va undan tashqarida paydo bo'lishi mumkin emas. U nafaqat kelib chiqishiga ko'ra, balki borliq usuli jihatidan ham ijtimoiy hodisa hisoblanadi, chunki odamlarning xulq-atvori, harakatlarida namoyon bo'ladi, ularning faoliyat yo'nalishini belgilaydi.

### **Antrop tamoyil**

Antrop tamoyilda inson amalda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday dunyoda emas, balki uning xususiyatlarini belgi-

lovchi fizik konstantalarning o'ta aniq majmui bilan tavsiflanuvchi dunyodagina paydo bo'lishi mumkin bo'lgan, degan ma'no kelib chiqadi. Bu bizning Koinot aynan unda insonning mavjudligi uchun zarur bo'lgan tarzda tuzilganini anglatadi. Agar u o'zgacha bo'lganida, unda biz mavjud bo'lmas edik. Boshqa Koinotlar (agar ular mavjud bo'lsa) bizga mos kelmaydi: ularda bizga o'xshagan aqlli jonzorlar mavjud bo'lishi mumkin emas. Shunday qilib, ontologik jihatdan o'zgacha dunyolar insonning «uyi», uning yashash joyi bo'lishi mumkin emas. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida astronomiyaning rivojlanishi Yerdan tashqarida sivilizatsiyalar mavjudligiga bo'lgan shubhani yanada kuchaytirdi.

Birinchidan, astronomik ma'lumotlarga aniqlik kiritilishi aqlli hayot mavjud bo'lishi mumkin deb taxmin qilish mumkin bo'lgan kosmik ob'ektlar soni surunkali qisqarishiga olib keladi. Ikkinchidan, yuqorida ko'rib chiqilgan, rivojlangan sivilizatsiyalargina amalga oshirishga qodir bo'lgan kosmosni o'zlashtirish imkoniyatlari bilan Yerdan tashqaridagi sivilizatsiyalar faoliyatining amalda kuzatiluvchi biron-bir ko'rinishlari umuman mavjud emasligi o'rtasida ziddiyat vujudga keladi. Bu ziddiyat «astrosotsiologik jumboq» deb ataladi. Yerdan tashqaridagi sivilizatsiyalar (SETI)ning radiosignallarini va ularning kosmosdagi faoliyati natijasida qolgan biron-bir izlarni qidirish hozircha hech qanday samara bergani yo'q. «Kosmos sukuti» ayniqsa g'alati, zero texnika taraqqiyotining hozirgi darajasi o'zga sivilizatsiyaning radiosignalini payqash uchun yetarlidir.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan bizning davrimizda insonning Koinotdagi alohida o'rni haqidagi qadimgi tasavvurlarga o'ziga xos qaytish yuz bermoqda, degan xulosaga kelish mumkin.

O'z-o'zidan ravshanki, bu yerda gap dunyo va insonga doir qadimgi sodda qarashlarga qaytish haqida ketayotgani yo'q. Bu qadimgi g'oyalarni tiklash ularni tubdan qayta ishlash va bilimlarning butunlay yangi darajasida talqin qilish bilan bog'liq. Eski muammo butunlay yangicha tarzda qo'yiladi va uni yechishga nisbatan hozirgi yondashuv qadimgi davr bilan taqqoslaganda o'ta chuqur asoslarga tayanadi.

### **Insonning bioijtimoiy mohiyati**

Falsafiy antropologiya yechadigan muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o'zaro nisbati

to'g'risidagi masala alohida o'rin egallaydi. Inson jonli tabiatning bir qismi, shuningdek biologik evolyutsiya mahsuli ekanligi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanida nafaqat olimlar va mutaxassislar, balki ma'rifatli odamlarning keng doirasi uchun ham aniq-ravshan va deyarli shak-shubhasiz dalilga aylandi. Har bir inson o'z biologik xususiyatlari: genetik kodi, vazni, bo'yi, mijozi, terisi va sochining rangi, yashash muddati va shu kabilarga ko'ra betakrordir. Biroq ayni vaqtda inson ijtimoiy mavjudot ekanligi, uning o'ziga xosligi va betakrorligi odamzotning ijtimoiy tabiati, u kamol topgan, ta'lim-tarbiya olgan, madaniy va axloqiy qadriyatlar va mo'ljallarni o'zlashtirgan ijtimoiy muhit bilan belgilanishi ham shak-shubhasizdir. Inson nafaqat bioijtimoiy mavjudot balki u fizik, kimyoviy, psixonevrofizik mavjudot hamdir. U tabiiy olamda bo'lgani kabi 70 foiz suvdan tarkib topgan suvdan paydo bo'lgan va kimyoviy elementlarning yig'indisidir. Ayni shu sababli inson individi nafaqat ijtimoiy, balki biologik mavjudot sifatida ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, insonning kamol topishi jamiyatda va faqat jamiyatda yuz beradi.

Insonning mohiyatini tushunishga harakat qilish jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki, pinhona xususiyatlarga ham ega ekanligini, ular jamuljam holda insonning individ, individuallik, shaxs kabi tushunchalarda aks etadigan muayyan obrazini shakllantirishini ham hisobga olish lozim. Boshqacha aytganda, insonning mohiyatini uning ichki va tashqi borlig'i birligida, uning dunyoga faol munosabatida izlash kerak.

Shunday qilib, individ muayyan insonning umumiy obrazi sifatida amal qilsa, individuallik uni muayyan o'ziga xos xususiyatlar sohibi sifatida tavsiflasa. «shaxs» tushunchasiga yanada torroq ma'no yuklanadi, chunki ayni holda inson uning barcha ijtimoiy sifatleri bilan jamuljam holda olinadiki, bu faqat ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu tizimini nazarda tutgan holda shaxs to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Ya'ni keng talqinga yo'l qo'yadigan «individ» va «individuallik» tushunchalari nafaqat insonga nisbatan, balki individual xususiyatlarga ega bo'lgan ayrim tirik mavjudot, hayvonga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin. «Shaxs» tushunchasi esa doim ijtimoiy mavjudot sifatidagi inson bilangina bog'liq bo'lib, faqat shu ma'noda, ayrim insonni uning jamiyatdagi o'rni, «ijtimoiy qiyofasi» nuqtayi nazaridan tavsiflaydi.

Kezi kelganda yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, har qanday shaxs zamirida oqilona faoliyat yotuvchi ongli-ixtiyoriy faollik tavsiflanadi. Shuningdek inson yangi moddiy va ma'naviy boyliklar yaratib, o'z ijodiy imkoniyatlarini izchil ro'yobga chiqarish orqali shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon fanida shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi uch muhim omil: irsiyat, madaniy muhit va yashash sharoiti farqlanadi. Bu omillar o'zaro ta'sirga kirishishi natijasida inson shaxs sifatida o'ziga xos xususiyatlar majmui: tegishli ehtiyojlar, qiziqishlar, mijoz, qobiliyatlar, maqsadlar, mo'ljallar, ma'naviyat va shu kabilarga ega bo'ladi. Insonning mazkur betakror individual xususiyatlari asosan u yashayotgan muhitdagi ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar ta'sirida shakllanadiki, bu shaxsning shakllanishi va kamol topishida jamiyat juda muhim rol o'ynashini qayd etish imkonini beradi. Ayni vaqtda shaxs umumiy e'tirof etilgan me'yorlarga muvofiq yoki ularga zid shakllanishi va kamol topishi mumkin. Bu ma'noda ijobiy shaxslar to'g'risida ham, salbiy shaxslar to'g'risida ham so'z yuritish mumkin.

Hozirgi vaqtda aksariyat olimlar va faylasuflar inson evolyutsiyasidagi ijobiy jarayonlarni va ijtimoiy o'zgarishlar imkoniyatlarini ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlashuvi, odamlar ongidan umuminsoniy me'yorlar mustahkam o'rin olishi bilan bog'lamoqdalar. Bunda inson o'zining butun unri mobaynida, bir tomondan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga harakat qilib, boshqa tomondan esa – o'zini qurshagan ijtimoiy va tabiiy muhit ta'sirini his etib, yaxlit bir butun hodisa sifatida, uzluksiz tadrijiy rivojlanishini e'tiborga olish lozim. Boshqacha aytganda, o'zining kamol topish jarayonida u doim ham sub'ekt, ham ob'ekt hisoblanadiki, bu shaxsning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va hayot mazmunini izlashi bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim falsafiy muammo yuzaga kelishini belgilaydi.

### **Insonni tushunishda dualizm va monizm**

Qadim zamonlarda vujudga kelgan insonga nisbatan dualistik yondashuv shundan iboratki, odamzot, bir tomondan, moddiy organizmdan, boshqa tomondan esa – mustaqil mohiyat sanaladigan va bu organizmni boshqaradigan nomoddiy jondan tashkil topgan mavjudot sifatida qaraladi. Bu yondashuv, masalan, boqiy g'oyalar dunyosida yashaydigan o'lmas jon inson tug'ilayotgan paytda uning tanasiga

xuddi zindonga tushgandek kirib o'mashadi, uning o'limidan keyin esa vujudni tark etib, yana g'oyalar dunyosiga qayta, deb hisoblagan Platon falsafasida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Jonlarning o'lmasligi g'oyasi Sharq falsafiy an'anasiga ham xosdir.

Hozirgi olimlarning aksariyati qo'llab-quvvatlaydigan inson talqinining monistik konsepsiyasi inson ruhiyati, uning tuyg'ulari, fikrlari, emotsiyalari va kayfiyati inson organizmining tarkibiy qismi sanalgan bosh miya nerv hujayralari hayot faoliyatining mahsulidan o'zga narsa emas, degan tushunchadan kelib chiqadi. Bu yondashuv tarafdorlarining fikriga ko'ra, ruhiy hodisalar qandaydir nomoddiy asosga ega, deb hisoblash uchun yetarli dalillar mavjud emas, shu sababli ruhiyat tabiatini tushuntirishda inson organizmida yuz beradigan moddiy jarayonlar chegarasidan chetga chiqishning hojati yo'q. Shunday qilib, tavsiflangan muammo inson o'z tabiatiga ko'ra faqat biologik mavjudotmi yoki faqat ijtimoiy mavjudotmi, degan masala bilan bog'lanmaydi. U, hech shubhasiz, ham biologik, ham ijtimoiy mavjudotdir.

Ammo bu ikki asosning o'zaro nisbati qanday, ularning biri ikkinchisidan ustunroqmi va inson mohiyatini nima belgilaydi – bu endi qizg'in bahs-munozaralar predmetidir. Mazkur masalalar hanuzgacha o'zining uzil-kesil yechimini topgani yo'q, hozirda mavjud turli biologik, psixologik va falsafiy maktablarda bu savollarga har xil javoblar beradi. Yuqorida zikr etilgan muammoning yechimiga nisbatan mavjud yondashuvlar orasida insonning bioijtimoiy tabiatini tushunishga nisbatan qarama-qarshi nuqtayi nazarlar ifodasi sanalgan biologizatorlik va sotsiologizatorlik konsepsiyalari alohida o'rin egallaydi. Bunda ularning har biri boshqasini butunlay rad etmaydi, ammo insonning muayyan bir (biologik yoki ijtimoiy) tabiatini ustunroq qo'yadi yoki hatto mutlaqlashtiradi.

### **Falsafiy antropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi**

Yunoncha sophia – donishmandlik, anthropos – inson va logos – ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan «falsafiy antropologiya» atamasi etimologik jihatdan inson haqidagi falsafiy ta'limotni anglatadi. Falsafiy antropologiya insonning alohida borliq manbai sifatida kelib chiqishi, tadrijiy rivojlanishi va mavjudligining o'ziga xos xususiyatlariga doir falsafiy qarashlarni aks ettiradi.

Shu ma'noda falsafiy antropologiyaning ilk ildizlariga XVIII asr frantsuz mutafakkirlarining asarlarida duch kelish mumkin. Ammo

Kant, shuningdek, insonning mohiyati muammosini falsafaning «birdan-bir, universal va oliy» predmeti darajasiga ko'taruvchi antropologik tamoyillarni falsafaga kiritgan va asoslab bergan Feyerbax sa'y-harakatlari bilan falsafiy antropologiya mustaqil falsafiy fan sifatida shakllana boshladi. Falsafiy antropologiya XX asrning 20-yillarida asosan M.Sheler, A.Gelen, X.Plesner asarlari ta'sirida uzil-kesil vujudga keldi. Xususan, M.Shelelarning «Insonning kosmosdagi o'rni» asarida inson haqida fundamental fan yaratish lozimligi qayd etiladi va uni falsafiy bilish dasturi taklif qilinadi. M.Sheler falsafiy antropologiya insonning yaxlit konsepsiyasini yaratib, uni muayyan ilmiy, falsafiy va diniy jihatdan anglab yetishda birlashtiruvchi rol o'ynashi lozim, deb hisoblaydi. U «Falsafiy antropologiyaning vazifasi insonning barcha o'ziga xos monopoliyalari, ishlari va amallari: til, vijdon, asboblar, qurol... davlat, rahbarlik, mif, din, fan inson borlig'ining asosiy strukturasi qanday kelib chiqishini aniq ko'rsatib berishdan iboratdir», deb qayd etadi.

Jamiyat inqirozi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va boshqa ziddiyatlarni M.Sheler inson, uning shaxsiyati inqirozining alomatlarini deb hisoblaydi. U inson shu paytgacha (XX asrgacha) hali hech qachon bu darajada «muammoli» bo'lmaganligini ta'kidlaydi. Buning asosiy sababini Sheler insonni o'rganish antropologik tafakkurning bir-biri bilan uncha bog'liq bo'lmagan turli yo'nalishlari – teologik, falsafiy, tabiiy-ilmiy antropologiya doirasida amalga oshirilishida ko'radi. Masalan, teologik antropologiya insonni faqat iudey-xristiancha an'analar nuqtayi nazaridan o'rganadi. Falsafiy antropologiya asosiy e'tiborni insonning o'zligini o'rganishga qaratadi, tabiiy-ilmiy antropologiya (tabiatshunoslikning barcha tarmoqlari va genetik psixologiya) esa faqat Yer rivojlanishining eng so'nggi mahsuli sifatidagi, hayvonot dunyosidagi o'zidan oldingi shakllardan energiya va qobiliyatlar birikmasining murakkablik darajasi bilangina farq qiluvchi mavjudot sifatidagi inson haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

M.Sheler fikriga ko'ra, falsafiy antropologiyaning vazifasi inson borlig'i strukturasi insonning barcha ishlari va amallari, shu jumladan til, fan, mif, san'at, din, jamiyat, davlat, tarix, g'oyalar, vijdon va insonni tavsiflovchi boshqa omillar qanday kelib chiqishini ko'rsatib berishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan inson falsafasi barcha fanlar fani maqomini kasb etadi.



M.Sheler fikricha, falsafiy antropologiyaning predmeti – bu inson mohiyati va uning strukturasi haqidagi fandır. M.Sheler G'arbiy Yevropa jamiyatini axloqiy, falsafiy va diniy qadriyatlar odamlar uchun ikkinchi darajali ahamiyat kasb etayotgani uchun tanqid qiladi va ularga bu qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'yishni tavsiya etadi. Jamiyatni chulg'ab olgan inqirozdan chiqish yo'lini M.Sheler aynan shunda ko'radi.

Shunday qilib, inson ongli mavjudot sifatida M.Sheler falsafasida markaziy o'rinni egallaydi, inson borlig'ining asosiy tamoyillari sifatida qudratli, biroq kelajakni oldindan ko'rolmaydigan yashashga intilish, hamma narsani anglab yeta oladigan, ammo hayotni belgilashga o'z bo'lgan ong amal qiladi. Sheler ta'limoti hayot falsafasi va ekzistentsializmning rivojlanishiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning negizida keyinchalik alohida falsafiy-antropologik ta'limotlar – biologik, psixologik, madaniy, diniy va boshqa nazariyalar vujudga keldi.

### **Falsafiy antropologiya fanining mohiyati**

Inson haqidagi bilimlarni birlashtirish lozimligi xususida Shelerdan oldinroq ham so'z yuritilgan edi. XIX asr o'rtalariga kelib inson o'ta murakkab struktura ekanligi, uni faqat falsafa yoki boshqa biron-bir muayyan fan metodlari bilan to'la anglab yetish mumkin emasligi, ya'ni inson jamuljam holda aniq bilim predmeti bo'la olmasligi aniq-ravshan bo'lib qoldi. Shuningdek, ayrim tabiiy fanlar, har biri o'z sohasida, vaqt o'tishi bilan umumiyroq xulosalarga kelishni talab etuvchi salmoqli material to'pladi. Bunday umumlash-tirishga ehtiyoj Darvinning evolyutsion nazariyasi paydo bo'lishi bilan ayniqsa bo'rtib ko'rina boshladi. Bu nazariya insonga oid tabiiy-ilmiiy tadqiqotlarga kuchli turtki berdi, shuningdek materialistik falsafiy konsepsiyalar rivojlanishi uchun qo'shimcha asos bo'lib xizmat qildi. Mazkur yondashuv tarafdorlari inson ko'p o'lchovli va muttasil o'zgaruvchi mavjudot ekanligidan kelib chiqadi. Garchi uning muhim xususiyatlari ming yillar mobaynida o'zgarishsiz qolayotgan bo'lsa-da, ular insonning mohiyatini to'la namoyon etmaydi. Bu yondashuv tarafdorlari inson o'z oldiga yangi va yangi jumboqlar qo'yayotgan, tashqi dunyoni, o'zining undagi o'rnini aniqlashga harakat qilayotgan, atrof muhitni o'rganish orqali uni o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartiradigan faol asos sifatida amal qiladigan mikrokosm hisoblanishiga ham e'tiborni qaratmoqdalar. Boshqacha

aytganda, inson bunyodkor va ayni vaqtda madaniyat mahsuli, o'zini qolgan jonli dunyodan farqlash imkonini beruvchi ma'naviyat manbaidir.

Falsafiy antropologiya tarafdorlari insonning mazkur talqinidan kelib chiqib, bu fan izchil ilmiy qarashlarni ilgari surishga da'vogar bo'la olmasligini va ayrim fanlar: psixologiya, sotsiologiya, biologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning turli yondashuvlari va xulosalarini sintezlovchi inson haqidagi bilimlar tizimini yaratishga qaratilishi lozimligini qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, bu fan o'z predmeti sifatida inson borlig'ini belgilaydi, uning mohiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etib, shu tariqa insonning o'zini ham, uni qurshagan dunyoni ham falsafa nuqtayi nazaridan anglab yetishga harakat qiladi. «Antropologiya yoki aniqroq aytganda – antropologik ong nafaqat ontologiya va kosmologiyaga, balki gnoseologiya va bilish falsafasiga, har qanday falsafa va har qanday bilishga zamin yaratadi».

XX asming 60-70-yillarida falsafiy antropologiya shunday bir g'oyaviy harakatga aylandiki, uning doirasida olimlar insonning hozirgi holatini nazariy jihatdan anglab yetish va talqin qilish, uning tabiatiga nisbatan yangicha yondashuvni ilgari surishga harakat qildilar. Bu davrda yuz bergan fan-texnika taraqqiyoti va insonning o'z ilmiy va amaliy faoliyati natijalari uchun javobgarlik tuyg'usining kuchayishi falsafiy antropologiyaning rivojlanishiga qo'shimcha turtki berdi. Shunday qilib, u endi inson haqidagi bilimlarning umumiyroq majmui – umumiy antropologiyaning tarkibiy qismiga aylandi. Bu fan turli-tuman ta'limotlar, konsepsiyalar va yo'nalishlarni o'z ichiga oladiki, ularning orasida falsafiy yo'nalishdan tashqari biologik, teologik (diniy), sotsiologik, psixologik, madaniy (etnografik), strukturalistik, pedagogik va boshqa yo'nalishlarni qayd etish mumkin.

Ularning har biri, falsafiy yo'nalishdan farqli o'laroq, insonning muayyan bir tomonini yoritadi. Masalan, biologik antropologiya anatomiya, fiziologiya, irq haqidagi ta'limot va shu kabilarga tayanib, insonning qolgan barcha tirik mavjudotlardan farqini uning jismoniy tuzilishi nuqtayi nazaridan aniqlaydi. Teologik antropologiya inson haqidagi tegishli tasavvurlarni uni Xudo yaratgani nuqtayi nazaridan shakllantiradi. Falsafiy antropologiya esa butunlay boshqa vazifani hal qiladi – u vaziyatga yaxlit yondashadi va fanlararo xususiyatga ega bo'lgan xulosalar chiqaradi.

Falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida falsafiy antropologiya ijtimoiy falsafa, axloq, sotsiologiya va psixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bilan birgalikda inson haqidagi fanlar majmuini tashkil etadi.

### **Falsafiy antropologiyaning predmeti va vazifalari**

Falsafiy antropologiya izlanishlarining bosh mo'ljali va o'zagini inson va faqat inson tashkil etadi. Shu ma'noda falsafiy antropologiyani antropotsentristik falsafiy ta'limot deb nomlash mumkin, chunki unda inson atrofida borliqning boshqa barcha muammolari aylanuvchi o'ziga xos «markaziy o'q» hisoblanadi.

Falsafiy antropologiyaning antropotsentrizmi falsafaning tadqiqot markazida inson turishi bilangina emas, balki uning barcha maktablari uchun inson dunyoning markazi hisoblanishi bilan ham belgilanadi. Mazkur yondashuv zahirida antik falsafaning Protagor ta'riflab bergan «Inson hamma narsalar mezoni», degan tamoyili yotadi. Falsafiy antropologiyaning antropotsentrizmi Yevropa madaniyati asoslaridan biri sanalgan xristianlik mafkurasidan ham kelib chiqadi. Aynan xristianlik dunyoviy hayot markaziga insonni qo'yadi, uni Xudo o'ziga o'xshatib yaratgan, degan g'oyani ilgari suradi.

Shu nuqtayi nazardan xristiancha madaniyat vakilining mentaliteti asosida shakllangan falsafiy antropologiyani sharq falsafiy maktablari bilan taqqoslash o'rinli bo'ladi. Shu narsa diqqatga sazovorki, sharq falsafasida inson hech qachon dunyoning markazi hisoblanmaydi, zero, u tabiatning tarkibiy qismi, uning uzviy elementi, Koinotning ko'p sonli darajalaridan biri sifatida qaraladi. Sharq falsafasida antropotsentrizm yo'q, umuman olganda, falsafiy antropologiya ham mavjud emas. Bu falsafada inson dunyoning tabiiy bir bo'lagi, tabiatning ajralmas elementi hisoblanadi. Tabiatning o'zi esa mukammal bo'lib, inson unga qarshi turmasligi, balki uning izmiga bo'ysunishi lozim.

Shunday qilib, ko'pgina faylasuflar tomonidan qo'yilgan «Inson nima?», degan savol Yevropa falsafiy antropologiyasi uchun uning falsafiy muammolari majmuini belgilovchi bosh masala hisoblanadi (va u falsafiy tafakkurning boshqa yo'nalishlaridan ayni shu jihatdan farq qiladi).

Falsafiy antropologiya insonning borlig'i nuqtayi nazaridan inson haqidagi ta'limotdir. Inson va uning borlig'i to'g'risidagi mulohazalar muammolarning keng doirasini qamrab oladi. Bularning

barchasi antropologizm, ya'ni insonning mohiyati muammolarini izchil o'rganuvchi tadqiqotlarning alohida yo'nalishi – tor ma'nodagi falsafiy antropologiya to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Keng ma'noda esa falsafiy antropologiya shu jumladan inson, uning tabiat va jamiyatdagi borlig'i haqidagi ta'limotni ham o'z ichiga oluvchi falsafiy qarashlar tizimi sifatida maydonga chiqadi.

### **Hayotning ma'nosi va insonning vazifasi**

Inson hayoti – tug'ilish va o'lishni cheksiz zanjirning muayyan xalqasi sifatida talqin etish qadimgi hind animistik tasavvurlaridan boshlangan. Bunday tasavvurlar aslida tabiatda sodir bo'ladigan muayyan davriy hodisalar hamda ularning o'ziga xos tarzi bilan hamohang. Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi, odamzot hayotining bebaholigi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmazligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq. G'arb falsafiy an'anasida ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. Shundan beri o'tgan vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o'zgarish yuz bergani yo'q, zero, avvalgidek, odamzotning hayot yo'li tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralanadi. Shuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo'lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo'lib qoladi. Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko'ndalang bo'ladi va u o'ziga aniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo'lmagan savollarni beradi.

Inson «bu dunyoda nima uchun yashayapman?», deb so'raydi va agar bu savolga o'zi javob bermasa, o'z hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning o'rniga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqt o'tishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, o'lim qarshisida har kim oxir-oqibatda o'zi bilan o'zi tanho qoladi. Albatta, jamiyatda inson o'zini bu darajada yolg'iz his etmaydi, biroq, ekzistentsialistlar fikriga ko'ra, bu hol toki inson boshqalarning ham o'z hayoti borligi va ular ham o'z hayotining mazmuni va o'zining vazifasi haqidagi o'ta shaxsiy muammolarni mustaqil yechish zaruriyati qarshisida turganini anglab yetgunga qadar davom etadi.

Bundan ekzistentsializm falsafasida yolg'izlik muammosi kelib chiqadi. Aslida, mazkur muammo falsafiy antropologiyada ham inson borlig'i tahlilidagi bosh muammolardan biri hisoblanadi.

Falsafiy nuqtayi nazardan, hayot – jarayondir, bunda borliqning potentsial sifatlari uning qadriyatlariga aylanadi. “Hayot borliqning aktuallashish jarayonidir, bu jarayonning turli shakllarida borliqning imkoniyatlari ochiladi. Hayot borliqda o‘ziga xos muammo bo‘lib, borliq ifodalanishining asosiy usullariga aylanadi. Bunda hayotning barcha xossalari: yashash, kurashish, lazzatlanish, jismoniy va ma’na-viy ehtiyojlarni qanoatlantirish qamrab olinadi. Organizmlarning faolligi ularning harakatlanishi yoki xulqiga oid qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Jonivorlarning faolligi o‘simliklar faolligidan sezilarli daraja-da farq qiladi, chunki ular ovqat topib yeyishlari uchun atrof muhitda harakatlanishlari lozim. Turning yashab qolishi ota-ona avlodidagi eng muhim belgilarning kelgusi avlodda ko‘payishi orqali saqlab qolinadi. Diniy nuqtayi nazardan hayotning ma’nosi Xudoni topish, Uning vasliga yetishishda namoyon bo‘ladi. Sufizimda hayotning ma’nosi Xudoga ishqdir. Hayot ma’nosi hayot maqsadidan farq qiladi, uning qamrovi keng bo‘lib, minglab maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Inson hayotida biror maqsadning amalga oshmay qolishi, uning hayotini “ma’nosiz” qilmaydi.

Ba’zilar uchun hayoti ma’nosi eng yuksak qadriyatlar tizimidir. Ular o‘z hayotlariga maqsadlariga erishish bilan ma’no bag‘ishlaydilar va o‘zining “ikkinchi umri”, ya’ni “barhayotlik”ka erishadilar. Har bir jamiyatning taraqqiy topishi yoki tanazzuli ana shunday fidoyilar ko‘pligi yoki kamligi natijasida ro‘y beradi. Ular “elim deb, yurtim deb, yonib yashaydigan” bunday insonlar yuksak axloqli, demokratik, erkin jamiyatning ustunlaridir.

### **Hayotni tark etish bosqichlari**

O‘limni eslab turish insonning illatlardan qutilishga, yuksak ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida yashashga undaydi. Ya’ni, bu foniq dunyoda odamzodning bir-biriga zulm qilishi, mol-dunyo yig‘ishga ruju qo‘yishi, fisqu fujur bilan shug‘ullanishi kabi salbiy illatlar o‘limni eslash tufayli inson hayotidan chekinadi, o‘limni eslash ezgulikni barqaror va yovuzlikni inkor etishning eng maqbul yo‘llaridan biridir. Biologik mavjudot sifatida har bir inson o‘limga mahkumdur. Buni qadimgi mutafakkirlar ham yaxshi tushungan. Xususan, o‘z muxoliflaridan birining: «O‘ttiz tiran seni o‘limga hukm etdi», degan gapiga Suqrot: «Ularni esa o‘limga tabiat hukm etgan», deb javob bergan. Ammo odamzot ijtimoiy mavjudot sifatida ham o‘limga mahkumdur. Hozirgi zamon fanida o‘lish jarayonining to‘rt

bosqichi farqlanadi. Bu bosqichlarga organizmda yuz beradigan va uning qarishini tavsiflaydigan orqaga qaytarib bo'lmaydigan biologik o'zgarishlar sabab bo'ladi.

Xususan, 25 yoshdan boshlab va ayniqsa 45 yoshdan keyin insonda har kuni u tug'ilgan paytga qadar «jamlangan» va boshqa hech qachon yangilanmaydigan o'n minglab nerv hujayralari (neyronlar) halok bo'ladi. Ammo bosh miya qobig'ida bunday hujayralar soni 40 milliardga yetadi va shu sababli «qariyotgan normal miya uchun bu jiddiy oqibatlarga sabab bo'lmaydi, chunki unda yana o'n milliardlab neyronlar normal faoliyat ko'rsatishda davom etadi». Amalda insonning hayotni tark etishi u odamlardan o'zini olib qochib, jamiyatdan uzoqlashishi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy o'lim yuz berganida boshlanadi. Surunkali giyohvand moddalarini iste'mol qilish, kashandalik, ichkilikbozlik, o'z hayotidan doimiy norozilik, yo'l qo'yilgan xato va jinoyatlar oqibatida jamiyatdan ajralish holatlari ijtimoiy o'limni bildiradi. So'ngra ruhiy o'lim yuz beradi, bunda inson hayot tugagani va o'limning muqarrar ekanligini va o'z hayoti davomida hech narsaga erisha olmaganini anglaydi. Miya o'lishi bilan bosh miya faoliyati butunlay to'xtaydi, organizmning turli funksiyalarini boshqarish barham topadi. Bu jarayon fiziologik o'lim bilan yakunlanadi. Bunda insonning uni tirik organizm sifatida tavsiflovchi barcha funksiyalari uzil-kesil to'xtaydi.

Ijtimoiy hayotda suitsid – (odamlarning o'zini qasddan o'ldirishi) va parasuitsid - (o'zini o'ldirishga harakat qilish) holatlari ham uchraydi. Umr qisqa, hayot nihoyatda murakkab, lekin har qanday vaziyatda inson yashab qolish uchun kuch va irodaga ega bo'lishi uning aql imkoniyatlaridan unumli foydalanishining oqibatidir. Bu dunyoda hech bir sabab o'z o'zini o'ldirish uchun asos bo'la olmaydi. Hayotning ma'nosini bilmaganlargina o'z joniga qasd qiladi.

Suitsid – o'z o'zini o'ldirish (lot. sui caedere — o'zini o'ldirish) ixtiyoriy ravishda qasddan o'zini o'ldirish. Urush yoki favqulodda vaziyatlarda o'zini qurbon qilish sifatidagi o'z o'zini o'ldirish bu qahramonlik namunasi sifatida qaraladi. XIX asrda Yevropa hududida o'z joniga qasd qilish hollari ko'paygani kuzatiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra hozirgi kunda dunyoda har 40 daqiqada o'z ixtiyori bilan joniga qasd qilib kuniga 3 ming aholi, yiliga esa 1million aholi hayotni tark etmoqda.

(bu umumiy o'lim holatining 1,5% tashkil etadi). Statistik ma'lumotlarga ko'ra 15 - 29 yosh oralig'idagi yoshlar o'z joniga qasd qilish hollari ko'p uchraydi.

Lotin Amerikasi, ba'zi arab va Osiyo mamlakatlarida suitsid hollari kamligi aniqlangan. O'rtacha darajadagi suitsid hollari Markaziy va Shimoliy Yevropa, Shimoliy Amerika, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Tinch okeanining G'arbiy qismida kuzatilgan. Yuqori darajadagi suitsid Litva, Belorussiya, Rossiya, Shri-Lanka, Qozog'iston, Vengriya, Yaponiya, Ukraina, Latviya davlatlarida ekanligi haqida ma'lumotlar bor.

Suitsidning namoyishkorona va haqiqiy shakllari farqlanadi. (parasuitsid va psevdosuitsid). Psevdosuitsid affekt holatlarida amalga oshiriladi va bunda o'zini o'ldirish emas, balki yordamga muhtojlik o'ziga e'tiborni qaratish istagi ustivorlik qiladi. Parasuitsiddan farqli o'laroq haqiqiy suitsid – bu oldindan puxta rejalashtirilib, keyin amalga oshiriladi va bunda yashash imkoniyati deyarli qolmaydi.

O'z-o'zini o'ldirishga harakat o'zini o'ldirishga harakat deb nomlanadi, ko'p hollarda bu juda og'ir kasallaiklarga olib keladi. Inson o'z joniga qadsizlanganida, xo'rlangan hollarida, og'ir kasallikdan tuzalish imkoniyati qolmaganini bilganida qasd qilishi mumkin. Aslida o'z joniga qasd qilish bu o'zlik alomatidir.

Parasuitsid (yunon. para – yonida, + lot. sui – o'zini + caedere – o'ldirish) haqiqiy suitsiddan faqri o'laroq ijtimoiy shov-shuv uchun amalga oshiriladi, bu o'zini o'ldirish emas, o'zining borligini eslatish, shaxslararo munosabatlarni o'zgartish, o'z o'zini jazolash bilan bog'liq harakat hisoblanadi.

Evtanaziya – tibbiyot xodimlari tomonidan o'ta og'ir ahvoldagi bemorning o'limni tezlashtiruvchi maqsadli muolaja, bu odatda bemor ahvolining yaxshilanmasligi dalili isbotlanganda va uning o'z ixtiyori yoki qarindoshlarining roziligi bilan amalga oshiriladi. 2500 yil davomida tibbiyotda evtanaziya taqiqlangan. jamiyat tomonidan u jinoyat sifatida baholangan. Biroq hozirgi kunda ba'zi hollarda bu vositadan foydalanilmoqda va birinchi marta evtanaziya Belgiyada ruxsat berilgan.

Esxatologiya – tarixning yakuni, umr nihoyasi, o'limdan keyingi hayot, olam taqdiri va shunga o'xshash diniy qarashlar va tasavvurlar tizimi bo'lib, u ilohiyotning ham bir sohasi hisoblanadi. Ilohiyot shaxobchasi sifatidagi esxatologiyada yuqorida keltirilgan

hodisalar u yoki bu diniy ta'limot doirasida o'rganiladi. Dinda individual esxatologiya (shaxsning taqdiri haqidagi ta'limot) va butun-olam esxatologiyasi (kosmos va tarixning maqsadi va yakunlari haqidagi ta'limot) farqlanadi. Insoniyat tarixi davomida esxatologik tasavvurlar ko'plab diniy-mifologik dunyoqarash shakllari uchun xos bo'lgan.

"Esxatologiya" atamasi yunoncha "ἔσχατος" (esxatos) – "uzoq", "so'nggi", "yakuniy", "nihoyaviy" va "–λογία" (-logiya) – "ta'limot" so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan. Demak, dinda esxatologiya muqaddas matnlar yoki folklorlarda bashorat etilgan bo'lg'usi hodisa sifatida ko'rilsa, mistitsizmda mazkur atama odatiy reallikning tugashi va ilohiy birlik bilan qo'shilishni bashorat qilish ma'nosini anglatadi. Falsafada esxatologiya atamasi bilan inson va uning yerdagi taraqqiyotiga nisbatan uzoq muddatli farazlar nazarda tutilsa, fanda (masalan, fizikada) esxatologik farazlar deb juda ham ulkan vaqtni qamrab oluvchi farazlarga aytiladi.

Esxatologik qarashlar fan va falsafada, xususan, futuristika va transgumanizm, shuningdek astronomiyadagi ham o'z aksini topgan. Futuristika va transgumanistika sohasidagi tadqiqotchilar bugungi taraqqiyotning tezkor oqimi kelajakda insoniyat tarixi rivojlanishi jarayonini butkul izdan chiqarib yuborishi mumkin bo'lgan "texnologik singulyarlik"ga olib kelishi va buning natijasida Homo Sapiens Yer yuzida hukmron tur mavqeidan mahrum bo'lishi mumkinligi to'g'risida farazlarni ilgari surmoqdalar. Ba'zan, astrofizika sohasidagi uzoq muddatli farazlarga nisbatan "fizik esxatologiya" atamasi qo'llaniladi. Quyosh taxminan 6 milliard yildan so'ng "qizil gigant" ga aylanadi. Quyosh Yer sayyorasini butkul yutib yuborishidan ancha oldin haroratning ko'tarilishi hisobiga Yerda hayot tugaydi. Undan ham keyin, Quyoshimiz "oq karlik" ga aylanadi.

### **Inson faoliyatining tuzilishi va atributlari**

Praksiologiya (yunon. praktikos – faol) – falsafaning inson faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan bo'limlaridan biri. Faoliyat tushunchasi inson borlig'ining tabiati va mohiyatini, uning shaxsiy imkoniyatlari, ijtimoiy aloqalari va munosabatlarini, inson ma'naviy dunyosi va moddiy amaliyot jabhasini teranroq tushunish imkonini beradi. Inson faoliyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, hayvonlar faolligidan butunlay farq qiladi. U individ va umuman jamiyat borlig'ining alohida usuli hisoblanadi.



Falsafada faoliyat insonga xos bo'lgan va tashqi dunyoni oqilona o'zgartirishga qaratilgan faollikning alohida shakli sifatida tavsiflanadi. Ijtimoiy falsafada faoliyat ijtimoiy jarayonlarni amalga oshirish, insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zini qurshagan dunyo bilan aloqaga kirishish usuli sifatida qaraladi. Faoliyat muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish qobiliyati uning amaldagi moddiy ifodasiga o'zaro o'tishini nazarda tutadi. Bu faol inson tashqi dunyoni o'zgartirishi va o'zi ham o'zgarishini anglatadi. Forobiy fikricha "inson faoliyatsiz tura olmaydi, ammo har qanday faoliyat va harakat insonni inson qilib ko'rsata olmaydi. Chunki o'z tabiatiga ko'ra hayvonlar ham harakat qiladilar. Hayvon ovqatni ko'radi va unga intiladi va bunda ongsiz harakatni amalga oshiradi. Odamni hayvondan ajratadigan narsa- alohida iroda bo'lib, u ixtiyor deb nomlanadi". Ixtiyor – komillikka intilish va unga erishish sari harakat demakdir. Inson maqsadni ham, unga erishish vositalari, yo'lni ham bilib oladi. Natijada u o'z maqsadiga yetish uchun ongli faoliyat olib boradi. Inson juda ko'p narsani orzu qilib yashaydi, biroq ularning hammasiga ham ega bo'lmaydi. Shu bois haqiqiy baxtga u dunyoda erishiladi, oxiratda mutloq baxtga erishishga qaratilgan har qanday harakat – fazilatdir deb hisoblaydi.

Faoliyatni sotsiologik jihatdan tavsiflash qilmish, xatti-harakat, xulq-atvor tushunchalari yordamida amalga oshiriladi.

Jamiyat odamlar birgalikda amalga oshiradigan faoliyat shakllaridan biri hisoblanadi, shu sababli inson faoliyati doim ijtimoiy xususiyat kasb etadi, garchi o'z shaxsiy ehtiyojlari va egoistik tushuniladigan manfaatlar yo'lida amalga oshirilsa-da, boshqalarga qaratilgan bo'ladi. Qilmish – shaxs faolligi namoyon bo'lishining bir shakli bo'lib, uning ijtimoiy ahamiyatga molik natijalar uchun javobgarligini nazarda tutadi. Ayni holda mazkur natijalar shaxsning muayyan maqsadlari yoki mo'ljallari bilan belgilangan yoki belgilanmagani ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Xatti-harakat – shaxsning ma'naviy o'zlikni anglashi natijasi sanalgan ongli harakati (yoki harakatsizligi) bo'lib, unda mazkur shaxsning o'z-o'ziga va boshqa odamlarga, tabiatga va umuman jamiyatga bo'lgan munosabati aks etadi. Shaxsning axloqiy mo'ljallari ro'yobga chiqadigan qilmishlar tizimi uning xulq-atvorini tavsiflaydi. Xulq-atvor faoliyatning tashqi ko'rsatkichi hisoblanadi, shu sababli uning ichki mexanizmlari xulq-atvorda bilvosita namoyon bo'ladi va

inson o'z faoliyatida amal qiladigan motivlarni doim ham namoyon etavermaydi.

Psixologiyada faoliyatga mufassalroq tavsif berilgan bo'lib, u insonning dunyo bilan munosabatlari dinamik tizimi sifatida talqin qilinadi. Bunda sub'ektda ruhiy obraz yuzaga keladi va u ob'ektda mujassamlashadi. Sodda qilib aytganda, faoliyat insonning har qanday ob'ektga (dunyoga) shunday bir munosabatini aks ettiradiki, uning zamirida nafaqat ob'ekt (dunyo) haqidagi bilim, balki uni o'zgartirish natijasida inson nimaga erishishi mumkinligi haqidagi tasavvur ham yotadi. Psixologiyada bilim va maqsadning inson ehtiyojlari bilan belgilangan o'ziga xos chatishuvi faoliyat jarayonida ob'ektda gavdalanadigan obraz sifatida qaraladi. Shunday qilib, faoliyat sub'ektning borliqqa bo'lgan munosabatlarini ro'yobga chiqarish usuli hisoblanadi. Ammo faoliyatning o'zi insonning tashqi dunyoga bevosita munosabati bilan emas, balki uni anglab yetishi, ya'ni ruhiy motivlar, maqsadlar, vositalar (mehnat qurollari) bilan tavsiflanadi.

Faoliyatning umumiy tuzilishi ehtiyojlar bilan belgilanadi. Insonning ehtiyojlari uning faollik manbai hisoblanadi. Hayot ehtiyojlari (insonning jonli mavjudot sifatidagi ehtiyojlari), ijtimoiy ehtiyojlar (ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari, shuningdek shaxsning jamiyatga moslashuv ehtiyojlari) va ma'naviy (ma'rifiy, diniy, axloqiy, estetik va sh.k.) ehtiyojlar farqlanadi. Ehtiyojlarning rang-barangligi inson faoliyati turlarining rang-barangligini belgilaydi. Faoliyat turlarini tasniflash zamirida yotuvchi eng muhim omil u qaratilgan va faoliyat motivini tashkil etadigan predmetlar farqidir. Faoliyat motivsiz bo'lmaydi, «motivlashtirilmagan» faoliyat sub'ektiv pinhona motivga ega bo'ladi.

**Harakatlar va amallar.** Faoliyat harakatlardan tashkil topadi. Harakat alohida maqsadga, ya'ni erishilishi lozim bo'lgan natija haqidagi tasavvurga bo'ysunadigan jarayon sifatida tavsiflanadi. Maqsad inson ongida ehtiyoj va motiv bilan faoliyat ob'ektiv holatlarining nisbatlashuvi jarayonida yuzaga keladi. O'z navbatida, holatlar maqsadga erishish yo'llarini belgilaydi. Bular faoliyat shartlari bilan belgilanadigan amallar hisoblanadi. Shunday qilib, umuman faoliyat motiv bilan, harakat – maqsadlar bilan, amallar – shartlar bilan belgilanadi.

### Faoliyatning atributlari

Inson faoliyati o'ta rang-barangdir. Faoliyat atributlari (xossalari) faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida avvalo sub'ektlilik va moddiylik qayd etiladi.

Faoliyatning sub'ektliligi shu bilan izohlanadiki, u shaxsning o'tmishdagi tajribasi, uning ehtiyojlari va mo'ljallari, motivlari va maqsadlari, emotsiyalari va irodasini tavsiflovchi xususiyatlari, bilish qobiliyatlari va hokazolar bilan belgilanadi. Faoliyatning moddiyligi insondan tashqarida joylashgan va uning qo'li bilan o'zgartiriladigan tabiat va jamiyat kuchlariga qaratilganini anglatadi. Ammo insonning o'zi, uning o'z-o'zini kamol toptirishi, o'z-o'zini tarbiyalashi va shaxs o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarga erishishga qaratilgan tegishli harakatlar ham o'zgartirish faoliyatining predmeti bo'lishi mumkin. Moddiylik faoliyat jarayoni va natijasining materialga bog'liqligini belgilaydi. Faoliyat natijasi inson oqilona o'zgartirgan materialda o'z aksini topadi, moddiylashadi (predmetga aylanadi). Faoliyat natijasi inson kuchlari va qobiliyatlarining o'ziga xos in'ikosi hisoblanadi. Nemis klassik falsafasining taniqli namoyandasi I.G.Fixte fikricha, "Amaliyot o'zgartirilgan tabiat predmetlarini insonning ko'zgdagi aksiga o'xshaydi"

Moddiylashuv nima ekanligi haqida amalda tasavvur hosil qilish uchun chevar, g'isht teruvchi, ma'ruzachi va shu kabilarning ishini kuzatadigan bo'lsak, inson qanday ishlashi, uning faoliyati natijasida nima vujudga kelganiga qarab insonning o'zi haqida xulosa chiqarish, uning aql-zakovat darajasi, irodasi, kasbiy mahorati, estetik didi, mehnatga munosabati, axloqiy mo'ljallari va hokazolarni aniqlash mumkinligini ko'ramiz. Shu ma'noda faoliyat doim individ va umuman insoniyatning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi demakdir. Individning ijtimoiyligi aynan faoliyatda namoyon bo'ladi. Faoliyat orqali u ijtimoiy jarayon ishtirokchisiga aylanadi.

Inson faoliyati mehnat qurollari yordamida amalga oshiriladi. Uning hayvonlar faolligidan asosiy farqlaridan biri qurollilik hisoblanadi. «Quruq qo'l ham, o'z ixtiyoriga tashlab qo'yilgan aql ham katta kuchga ega emas, – degan edi F.Bekon. – Ish qo'lga ham, aqlga ham kerak bo'lgan qurollar va vositalar yordamida bajariladi».

Mehnat qurollari inson va u o'zgartiruvchi narsalar dunyosi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Mehnat qurollarida inson-

ning tajribasi mujassamlashadi. Odamlar yaratgan mehnat qurollari va iste'mol predmetlarida ularning ma'naviy kuchlari (aql-zakovati va ko'nikmalari, bilim va qobiliyatlari, maqsad va mayllari va sh.k.) o'zining moddiy ifodasini topadi. Bundan tashqari mehnat qurollari faoliyat texnologiyasi haqida axborot beradi va shu tariqa insonni boshqa odamlar bilan bog'laydi. Boshqa odamlar yaratgan narsalardan foydalanish uchun inson ularning mohiyatini, vazifasini aniqlashi, boshqacha aytganda, ularning ma'naviy mazmunini anglab yetishi lozim. Bu jarayon falsafada moddiylikdan chiqarish, ya'ni inson mehnati bilan yaratilgan mahsulotning ma'naviy mazmunini fikrlash yo'li bilan uning moddiy qobig'idan ajratish deb ataladi. Pirovardida inson faoliyati uning ma'naviy va jismoniy kuchlari va qobiliyatlari-ning moddiylashuvi va mehnat mahsullarida mujassamlashgan ularning yaratuvchilari ma'naviy dunyosining birligidan tashkil topadi.

### **Faoliyatda onglik va maqsadga muvofiqlik**

Inson faoliyati oqilona, ongli va maqsadga muvofiq bo'ladi. Onglik va maqsadga muvofiqlik – inson faoliyatini hayvonlar faolligidan farqlash imkonini beruvchi muhim xossalardir. Ammo ular «sof ko'rinish»da mavjud bo'lmaydi. Shu sababli onglik va maqsadga muvofiqlikka zid bo'lgan xossalarni inson faoliyatining talqini doirasidan chiqarish o'rinli bo'lmaydi. Xususan, insonning barcha faoliyati ham ongli bo'ladimi, degan savol ustida mulohaza yuritib ko'raylik. Amalda faoliyat ayrim ko'nikmalar shakllanishini nazarda tutadi (kasbiy mahorat esa aksariyat ko'nikmalarni avtomatizm darajasiga ko'taradi); faoliyatda anglanmaydigan mayllar, mo'ljallar, tajriba, o'tmishda (aksariyat hollarda – bolalikda) olingan taassurotlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Faoliyat «onglik – ongsizlik» qarama-qarshiligining birligidir, deb aytish uchun asoslar mavjud. Ziddiyatli vaziyatlar – mutlaq ongsiz va onga butunlay bo'ysungan faoliyatni hayotda juda kam uchraydigan muayyan abstraktsiya sifatidagina tasavvur qilish mumkin. Shuningdek, onga to'la bo'ysunadigan harakat ko'pincha samarasiz bo'ladi.

Onglik faoliyatning maqsadga muvofiqligini belgilaydi, chunki maqsadni qo'yish o'z ehtiyojlarini hamda mavjud vaziyatni bu ehtiyojlarni qondirish sharti sifatida anglashni nazarda tutadi. Maqsadga muvofiq faoliyat oldindan mo'ljallangan muayyan natijaga qarab mo'ljal oladi. Entoni Giddens o'zining «Jamiyat tuzilishi»

asarida inson faoliyati mo'ljallanmagan natijasining ahamiyatiga e'tiborni qaratadi. Ammo faoliyat maqsadsiz bo'lishi, ya'ni jarayonning o'ziga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilishi ham mumkin. Albatta, ongsiz faoliyat mantiqsizdir, chunki hech qanday maqsadni ko'zlamaydi, lekin uning natijasi maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Masalan, suzishni bilmagan, lekin suvda oyoq-qo'llari bilan tinimsiz harakat qilayotgan odam cho'kmaydi. Ammo har qanday maqsadsiz faoliyat ham ongsiz bo'lavermaydi (masalan, o'yin).

Inson faoliyati unumli, aksariyat hollarda amaliydir, lekin unumsiz ham, noamaliy ham bo'lishi mumkin. Masalan, rasm-rusumlarni bajarish unumsiz hisoblanadi (ammo ba'zan muayyan vazifalarni hal qilishga qaratilgan rasm-rusumlar amaliy xususiyat kasb etishi ham mumkin).

Moddiy va ma'naviy faoliyat. Moddiy faoliyatni soddalash-tirib predmetlar bilan ish ko'rish sifatida, ma'naviy faoliyatni esa – predmetlarning obrazlari bilan ish ko'rish sifatida tasavvur qilish mumkin. Mavxum mulohaza yuritish orqali moddiy va ma'naviy faoliyatni «sof ko'rinish»da, muayyan qarama-qarshilik sifatida tasavvur qilish mumkin. Ammo ma'naviyatdan xoli bo'lgan moddiy faoliyat behudadir. Ma'naviy faoliyat «sof ko'rinishda» mavjudmi? Ob'ektiv idealizm tizimida muayyan mutlaq va o'z-o'zidan rivojlanuvchi g'oya uning moddiy manbasidan tashqarida mavjud bo'lishi tan olinadi. Ammo insonning real hayotidagi ma'naviy faoliyati moddiy faoliyatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi, amalda moddiy va ma'naviy faoliyat unsurlari turli darajada aks etgan faoliyat rang-barang shakllarining kontinuumi (lot. continuum – uzluksiz to'plam)gina mavjuddir.

Moddiy va ma'naviy faoliyatning birligi faoliyat jarayoni ham, uning natijasi ham moddiy-ashyoviy substrat va ma'naviy mazmunning muayyan sintezidan iborat ekanligini anglatadiki, bu uning natijalarini ob'ektiv tarzda, inson xohish-irodasidan qat'iy nazar, ramzlar, ya'ni insonning ma'naviy dunyosi haqidagi axborot manbalari tizimiga aylantiradi. O'z xususiyatiga ko'ra faoliyat muayyan ideal yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, chunki u moddiy ko'rinishda predmetni yaratadi, ramziy ko'rinishda esa ma'naviy mazmunni – shaxsning bilimlari, qobiliyatlari, axloqiy mo'ljallarini, uning mahorati va o'z kasbiga munosabatini, shuningdek o'z-o'ziga va boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini vujudga keltiradi. Shu

sababli tabiiy ob'ekt insonning o'zgartiruvchi faoliyati natijasida o'zlashtirgan xossalar ramziy tarzda amal qiladi. Shu ma'noda, inson nafaqat moddiy, balki ramziy olamda ham yashaydi.

### **Muloqot faoliyat sifatida**

Mehnat qurollaridan foydalanish usullari, ularning vazifasi haqida axborot berish vositasi sanalgan o'ziga xos «til»ga qarab mo'ljal olish inson faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi. Insonni bu mehnat qurollari bilan ishlashga tayyorlash, chunonchi: tegishli ko'nikmalarni shakllantirish va eng muhimi -- faoliyat tajribasi va usullarini o'rgatish ham zarur. Bu ish yo namoyish etish, o'mak ko'rsatish yoki faoliyatda ishtirokchilik orqali bevosita, yo til yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muloqot insoniy munosabatlar, umuman jamiyat hayotining muhim tomoni hisoblanadi. Bu odamlar o'z hayotida yo'l-yo'lakay shug'ullanadigan alohida faoliyat turi, inson hayotining ovloq burchagi emas, balki uning ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayoni yuz beradigan markazidir.

Inson faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini bilish o'z mehnati va bo'sh vaqtini tashkil etishni ham, o'z bolalarini tarbiyalash jarayonini ham, boshqa odamlar bilan o'zaro muloqotni ham, rasm-rusumlarni ado etishni ham, madaniyatga munosabatni ham sezilarli darajada optimallashtirish imkonini beradi. Interiorizatsiya tushunchasi faoliyatning tabiatan sirtqi jarayonlarini ichda, avvalo, ongda yuz beradigan jarayonlarga o'tishini ifodalash uchun xizmat qiladi. E.From bu tushunchaga shunday deb tavsif beradi: «Inson yomonlik qilar ekan, uning o'zi ham yanada tubanlashadi». Ajdodlarimiz ruhiyatining shakllanishida muhim rol o'ynagan qadimgi madaniy institutlar (rasm-rusumlar, cherkov, o'yin) hozirgi inson ruhiyatida o'z-o'zidan amal qilishini nazarda tutadigan tarixiy interiorizatsiya g'oyasi sirdagi harakatning shaxs ichki mulkiga aylanish mexanizmini tushuntiradigan interiorizatsiya tushunchasini to'ldiradi. Shelling amaliyotga, inson faoliyatiga odamzotning o'zini o'zi tabiatda gavdalanitirishi, ya'ni ob'ektivlashtirishi sifatida yondashgan. U inson faoliyati natijasida ikki dunyo: tabiat dunyosi va inson dunyosi, ya'ni o'zgartirilgan insoniyashtirilgan tabiat dunyosi mavjud ekanligini qayd etadi. Dunyoga nisbatan harakatda Shelling umuman ong negizini ko'radi. Insonning insonga ta'sirini u ongning ikkinchi manbai deb hisoblaydi: aqlli mavjudotlarning tinimsiz o'zaro ta'siri ongning zaruriy omili hisoblanadi. XX asrda psixologlar aynan

faoliyat shaxsning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish, uning qobiliyatlari, irodasi va ongini shakllantirish mexanizmi hisoblanishini tajriba o'tkazish yo'li bilan va ko'p sonli etnografik va tarixiy materialga asoslangan holda ko'rsatib berdilar. Individual va umuminsoniy rivojlanish jarayonida faoliyatning mustaqil sohasi sanalgan faollik ko'rinishlari murakkabroq madaniy tuzilmalarga qo'shilib, asta-sekin ong shakllariga aylangan. Sirtida birlamchi xususiyatga ega bo'lgan faoliyat sof ichki (interiorizatsiyalashgan) xususiyat kasb etishi mumkin.

Interiorizatsiya mexanizmi til, ya'ni so'z eng universal ramz hisoblanadi. XIX asr oxirida tilga ijodning birinchi mahsuli deb tavsif berilgan. Verbal (og'zaki) til va noverbal til (imo-ishoralar, kiyim-kechak va zeb-gardonlar, san'at va etiket tili) mavjud. Tilning bu ikkala turini ham biz bolalikdan o'zlashtiramiz va inson o'zgartirgan tabiat dunyosida, ijtimoiy munosabatlar dunyosida, madaniyat dunyosida til yordamida mo'ljal olamiz.

Tilda uch element: ovoz, ma'no va obraz farqlanadi. Ma'noning moddiy ifodalovchilari – ovoz yoki grafik tasvir so'zga xosdir. O'zga ramzlar butunlay boshqacha moddiy ifodalovchilarga ega bo'lishi mumkin (mehnat amali, imo-ishora, rasm-rusum, rassom asarining elementlari va sh.k.). Shunga qaramay, har qanday ramzlarning qolgan barcha elementlari umumiydir: moddiy ifodalovchi, ma'no va obraz shular jumlasidandir. Faoliyatning hissiy idrok etiladigan har qanday elementi moddiy ifodalovchi bo'lishi mumkin. Masalan, so'zda bu ovoz yoki grafik tasvir, lekin bunday ifodalovchi vazifasini imo-ishora, mehnat amali yoki boshqa har qanday shunga o'xshash signal ham bajarishi mumkin.

Ma'noda insoniyatning o'tmishdagi tajribasi mujassamlashadi. Har qanday ramz ma'nosi insoniyat uchun umumiy xususiyat kasb etadi, ayrim turdagi narsalar, aloqalar, munosabatlar yoki harakatlarning shartli, konvetsional mustahkamlangan ifodasi hisoblanadi. Inson faoliyat jarayonida madaniy ramzlarning ma'nolarini anglab yetar ekan, o'zini qurshagan dunyoni boshqacha idrok eta boshlaydi, chunki unda har qanday hodisani uning so'zdagi ifodasi bilan bog'lashga ehtiyoj va qobiliyat yuzaga keladi. Ma'nolar inson ongida dunyoni aks ettiradi.

Obraz – narsa yoki hodisaning o'ziga xos ma'nosi bo'lib, u har qanday ramzning haqiqiy ma'nosidan ancha farq qilishi mumkin.

Masalan, «tuz» soʻzi hamma uchun ayni bir maʼnoni anglatadi – u barcha odamlar ovqatga qoʻshib isteʼmol qiladigan moddani ifodalaydi. Ammo kimyogar, yozuvchi yoki oshpaz uchun «tuz» soʻzi butunlay boshqacha maʼno kasb etishi mumkin. Oshpaz tuzda ovqatga xushxoʻr boʻlishi uchun solinadigan qoʻshilmani koʻradi, kimyogar tuz deganda ionli tuzilish xos boʻlgan kimyoviy birikmalar turkumini tushunadi va h.k. Xullas, har qanday soʻz koʻplab maʼnolarga ega boʻladi. Obraz – haqiqiy maʼno va ayrim maʼnoning shaxs manfaatlari va ehtiyojlari, uning tuygʻulari va mayllari mujassamlashgan oʻziga xos sintezidir.

Inson faoliyati oʻz tabiatiga koʻra madaniydir. til ramzlari esa madaniyatning muhim boyligi hisoblanadi. Inson faoliyat jarayonida tashqi madaniy ramzni oʻzlashtirar ekan, nafaqat rang-barang mehnat qurollaridan foydalanishni, balki ularning boshqalar va oʻzi uchun ahamiyatini anglashni ham oʻrganadi. Madaniyat ramzlari psixologik vositalar hisoblanadi: inson mehnat qurollaridan ularning asl mazmuniga muvofiq foydalanish orqali tabiat dunyosini oʻzgartirishi mumkin. Ammo mehnat qurollari inson uchun muayyan ahamiyat kasb etadigan ramzlar ham sanalgani bois, odamzot ularning yordamida oʻz ruhiy funksiyalari – zehni, irodasi, tafakkurini ham boshqaradi. Ayni shu sababli insonning tabiiy isteʼdodi aynan faoliyatda namoyon boʻladi, uning qobiliyatlari shakllanadi va ehtiyojlari qondiriladi.

**Interiorizatsiya – nazariyasining tanqidi.** Shaxsning shakllanish jarayonida faoliyat qay darajada muhim rol oʻynamasin, uni mutlaqlashtirish yaramaydi. Psixolog S.L.Rubinshteyn insonning kamol topishida faoliyat rolining mutlaqlashtirilishiga qarshi eʼtiroz bildirar ekan, shunday deb qayd etgan edi: «Inson qobiliyatlarining rivojlanish jarayoni u yaratadigan narsalarning rivojlanish jarayoni emas, balki insonning kamol topish jarayonidir, chunki qobiliyatlar insonda narsalardan yaralmaydi»<sup>1</sup>. Inson tashqi taʼsirlarni tanlash va ularni oʻzining betakror, hech kimnikiga oʻxshamaydigan individualligining ichki mantiqiga muvofiq qabul qilishda erkindir. Interiorizatsiya nazariyasi ijod omiliga putur yetkazadi, inson hayot faoliyatida qadriyatlarining rolini (ayniqsa sanʼat, din va axloq sohasida) inkor etadi, insonning ichki dunyosini soddalashtiradi. Shu sababli bola tarbiyasi bilan shugʻullanganda uning individualligini hisobga olish, bunda uning ichki ruhlantiruvchi motivlariga tayanish,



uni faoliyatga majburlamaslik. balki jalb qilish, uning imkoniyatlari va qobiliyatlarini aniqlash va ularga tayanish lozim.

Interiorizatsiya nazariyasining tanqidi shaxsning shakllanishiga faoliyatning ta'sirini rad etmaydi, balki uning imkoniyatlari chegarasini ko'rsatadi. Zero, shaxsning shakllanishida faoliyatning rolini tushunish uchun insonning muayyan faoliyat turlariga bo'lgan munosabatini belgilaydigan ichki xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Ichki xususiyatlar deganda, avvalo, shaxsning qobiliyatlari va irodasi zahirida yotuvchi tabiiy iste'dod nishonalari, oliy nerv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari (mijoz), umumiy ta'sirchanlik (ya'ni sezish va idrok etish individual qobiliyati), miya yarim pallasi asimmetriyasi va hokazolar nazarda tutiladi. Shaxsning ichki xususiyatlari nafaqat irsiy (genetik) va tug'ma (embrional rivojlanish jarayoni bilan belgilangan) xossalari, balki shaxs hayoti, tarbiyasi, bilimi, hayot tajribasining o'ziga xos holatlari ta'sirida shakllangan individual belgilar tushunchasini ham qamrab oladi.

### **Mehnat va o'yin faoliyat turi sifatida**

Odatda, mehnat insonning mehnat qurollari yordamida tashqi dunyoga ta'sir ko'rsatish va oldindan mo'ljallangan natijaga erishishdan iborat maqsadga muvofiq faoliyati sifatida tavsiflanadi. Mehnat tushunchasiga nisbatan bunday yondashilgan taqdirida, olim, aktyor, pedagog, haykaltarosh, faylasuf faoliyati mehnat hisoblanmaydi. Bugungi kunda unumsiz deb nomlash mumkin bo'lgan mehnat turlari mavjud emasligi aniq-ravshandir. Zero, mehnat yaxlit jarayon bo'lib, insondan moddiy va ma'naviy kuch-g'ayrat sarflashni taqozo etadi. Inson va jamiyatning rivojlanishi jarayonida yuz bergan mehnat taqsimoti mazkur yaxlit jarayon parchalanishiga, jismoniy va aqliy mehnatning ajralishiga olib keldi. Ammo mazkur ajralish jismoniy mehnat insonning faqat jismoniy kuch sarflashi, uning muskullari harakati bilan bog'liq ekanligini anglatmaydi. Jismoniy mehnat inson ma'naviy, ruhiy va asabiy kuch sarflashini ham nazarda tutadi. Ammo jismoniy va asabiy kuch-g'ayrat ulushi jismoniy mehnatda ko'proq bo'ladi. Aqliy mehnat esa, hech shubhasiz, insonning ma'naviy kuchlari, uning intellektual imkoniyatlaridan ko'proq foydalanishni nazarda tutadi. Ammo jismoniy mehnat ham, aqliy mehnat ham o'xshash jihatlarga ega. Birinchidan, jismoniy mehnat ham, aqliy mehnat ham muayyan qurollardan foydalanishni nazarda tutadi. Ikkinchidan, mehnat oldindan mo'ljallangan natijaga erishishni nazar-

da tutadi. Uchinchidan, mehnat tabiat va jamiyat kuchlaridan foydalanmasdan yashay olmaydigan insonning muayyan ehtiyojlari bilan belgilanadi (chunki inson bioijtimoiy mavjudotdir). To'rtinchidan, jismoniy va aqliy mehnatning eng sodda omillari – mehnat predmetlari, mehnat qurollari va inson mehnatining o'zi umumiydir. Ammo mehnatning asosiy o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u tashqi dunyoning insonga qarshi turuvchi kuchlarini moddiy va ma'naviy jihatdan o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Mehnat insondan sidqidildan ishlash, zahmat chekishni talab qiladi, tegishli ko'nikmalarni shakllantirish va irodani toblashni nazarda tutadi. O'z ma'naviy kuchlarini inson mehnat jarayonini o'zlashtirish, tashqi kuchlar qarshiligini yengishga sarflaydi. Shu sababli mehnat faoliyati insonga tashqi dunyoni ham, o'z-o'zini ham anglash imkonini beruvchi real tajriba sifatida amal qiladi.

Mehnatda begonalashuv shunday bir holatki, unda inson o'z faoliyati, uning natijalari va o'z-o'ziga begona bo'lib qoladi. Mehnat muqarrar tarzda begonalashuv bilan bog'liq, chunki insonning ijtimoiy borlig'i shunday sharoitlar va vaziyatlarni yuzaga keltiradiki, unda inson o'z mehnati mahsullarini boshqa odamlarga topshirishi va shu tariqa o'z faoliyati, uning natijalari va o'z-o'ziga begona bo'lib qolishi lozim (yoki bunga majbur) bo'ladi (Ma'lumki, inson faoliyatda o'zining muhim kuchlarini moddiylashtiradi.).

Begonalashuv mehnat taqsimoti va faoliyat almashinuvi, shuningdek ijtimoiy ne'matlarni taqsimlash zaruriyati bilan belgilanadi. Garchi begonalashuv tarixan muayyan shakllarga ega bo'lsa-da, uning mohiyati bir – ayrim odamlarning boshqa odamlar kuchi, vositalari va faoliyat natijalarini o'zlashtirishdir. Shu sababli mehnatning shaxs hayotidagi rolga munosabat ham shak-shubhasiz ijobiy bo'lishi mumkin emas. Mehnat xususiyatiga haho berishda mehnatga rag'bat ayniqsa muhim o'rin tutadi. Inson mehnati zamirida zaruriyat taqozosi, majburlov yoki ichki da'vat, ayni shu mehnat turi bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyoj yotishi mumkin. Inson mehnatni lazzat sifatida ham, la'nat sifatida ham idrok etishi bejiz emas. Qo'li-qo'lga tegmay mehnat qilish, tirikchilikni deb o'ziga ma'qul bo'lmagan kasb-kor bilan shug'ullanish, ijtimoiy tengsizlik va kasb kasalliklari ta'sirida insonning deformatsiyalanishi va shaxssizlanishiga sabab bo'ladi. uning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va o'zini o'zi kamol toptirishiga моне'k qiladi.

O'yin shunday bir faoliyat shakliki, unda inson o'zining odatdagi funksiyalari yoki predmetlar va mehnat qurollaridan amaliy foydalanish chegarasidan chetga chiqadi. O'yin odatda «jiddiy» faoliyat va amaliy maqsadlarga qarshi qo'yiladi. U moddiy foyda yoki zaruriyat omilidan qat'i nazar, muayyan joy, vaqt va ma'no doirasida yuz beradigan jarayon sifatida tavsiflanadi. Odatda, o'yinning ijobiy emotsional ahamiyati qayd etiladi. U insonning barcha – jismoniy va ruhiy kuchlari yuksalishi, ko'tarinkilik kayfiyati hukm surishi bilan tavsiflanadi, chunki u o'yin xususiyatiga ega bo'lmagan harakatlar natijasida yuzaga kelgan zo'riqish holatini bartaraf etib, insonga haqiqiy quvonch baxsh etadi.

Har qanday o'yin yagona – makonda shakllanib, o'yin jarayoni qoidalar bilan boshqarilib, ishtirokchining o'z-o'zidan qanoatlanish bilan yakunlanadi. O'yinning 4 ta tipi farqlanadi: 1) o'yin-hujum (kurash)raqiblar o'ynaydilar va maqsad g'olib bo'lishdir, bu asosan stadionda amalga oshadi; 2) o'yin-ermak (oshiq o'yini, birja o'yinlari, totalizator)da barcha turdagi ko'ngilochar o'yinlar bo'lib, unda g'alaba tasodiflarda namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda bu kabi o'yinlar insonning ruhiy sinish davrida ko'proq uchraydi. O'yin odamlarni o'z-o'zini xursand qilishi, yaxshi hayot haqidagi orzular bilan uyg'unlashadi, kazenolarda amalga oshadi; 3) o'yin mimikriya (imitatsiya, taqlidchilik). Bu tipdagi o'yin sahnada, tomosha jarayonida avjga chiqadi, uning o'ziga xos xususiyati reallikni imkon qadar ko'rsatishdir, u asosan sahnada bo'ladi; 4) xavfli o'yin. Bunda ishtirokchi ajal bilan o'ynashadi, o'z xayotini xavfga qo'yib juda katta pul yutishni, yoki mashhur bo'lishni maqsad qiladi. Barcha o'yin tiplari ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladi.

Imitatsiya o'yin mohiyatini aks ettiruvchi asosiy tushuncha bo'lib, u borliqning nisbatan haqqoniy modelini yaratishni nazarda tutadi. Imitatsiya o'yinda ishtirokchilar muayyan rol o'ynashini nazarda tutadi. O'yin ba'zi bir qoidalar bilan tartibga solinadi va ayni vaqtda erkin improvizatsiyaga va yechimlarning individualligiga yo'l qo'yadi. Garchi o'yin faoliyati qoidalar bilan tartibga solinsa-da, o'yinning eng muhim xususiyati ishtirokchilar xulq-atvorining erkinligida namoyon bo'ladi: o'yin faoliyatining o'zi ham, ishtirokchilarning o'yin qoidalarini bajarishga roziligi ham ixtiyoriydir. O'yin dinamikasi uning ishtirokchilari o'zaro almashuvi, o'yin vaziyatlarining mantiqiy tahlili va ularga emotsional munosabat,

psixologik himoyalaniş va «raqib»ga faol hujum qilish bilan bog'liq bo'lib, bu o'yin faoliyati rivojlanishi va uning natijasi noaniqligini belgilaydi. Ayni vaqtda o'yin harakati qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi va uning natijasini taxmin qilish mumkin. Zikr etilgan qarama-qarshi tomonlardan birining yo'qligi o'yin buzilishiga sabab bo'ladi. O'yin jarayonida shaxsning o'z roliga bo'lgan munosabati o'zgaradi. Shu sababli o'yin amaldagi tajriba o'rmini to'ldirish, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirish shakli hisoblanadi.

O'yin jarayonida o'yinchilar bevosita idrok etuvchi va boshdan kechiruvchi o'yin obrazi yaratiladi. U jonlilik, ramziy tabiatga egalik va emotsional «yuqumlilik» bilan tavsiflanadi. O'yin obrazining jonliliği borliqning modellashtirilishi va unda o'yinchilar muayyan rol o'ynashi bilan izohlanadi. Ramziylik o'yin harakatlari-ning ramziy tabiatida, qoidalarning shartliliğida, shuningdek ma'nolar bir predmetdan boshqa predmetga o'tkazilishida namoyon bo'ladi. Masalan, bola qo'lga tayoqchani olib, u bilan xuddi qoshiq kabi manipulyatsiya qiladi. O'yin obrazining emotsional «yuqumliligi» uning qanday rivojlanishini oldindan aytib bo'lmasligi, shuningdek o'yinchi o'zini o'zi o'ynayotgan rolga bog'lashi bilan belgilanadi. Shaxsning ehtiyojlari, mayllari, maqsadlari va mo'ljallarini aks ettiruvchi va ularni qondirishning xayoliy usuli bo'lib xizmat qiluvchi o'yin obrazining qadriyat sifatidagi tabiati ishtirokchilarga ancha kuchli ta'sir ko'rsatadi.

O'yinning ma'nosi– inson o'z hayot faolligini o'ziga quvonch baxsh etadigan tarzda erkin namoyon etishidir. Inson va uning ijodiy imkoniyatlari shakllanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadigan o'yin mutlaqo noamaliydir. U iste'mol mahsulotlari, moddiy ne'matlar yaratilishiga olib kelmaydi, moddiy naf ko'rish bilan bog'liq amaliy samaraga erishish yo'lida amalga oshirilmaydi. O'yin stimuli uning o'zida mavjud. O'yin faoliyatining asosiy xususiyati shunda. O'yinning insonga ta'sirini kuzatar ekanmiz, biz uning o'yinchi uchun ob'ektiv va shaxsiy ma'nosini farqlashimiz lozim. Sub'ektiv nuqtayi nazardan o'yin ishtirokchisi uchun uning ma'nosi o'yindan olinadigan tajribaning ahamiyatida, o'yin baxsh etadigan quvonch va lazzatda namoyon bo'ladi. Ob'ektiv ma'noda o'yin bolani ijtimoiy hayotga tayyorlash va kiritishning muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

## Ijod faoliyat turi

Aksariyat odamlar ongida ijod tushunchasi faoliyatning hech qanday rejalari va andozalariga bog'lab bo'lmaydigan sof shaxsiy jarayon bilan bog'lanadi. Ko'pincha u alohida odamlar, daholar anglash mumkin bo'lmagan tarzda ega bo'ladigan qandaydir ilohiy in'om sifatida qaraladi. Ijodda hamma narsa sirli va nomuayyan bo'lib, u kundalik hayotga xuddi to'fon yanglig' kirib keladi, eskicha qarashlar, qotib qolgan andozalarni ag'dar-to'ntar qiladi. Ijodning mohiyati nimada, degan azaliy falsafiy savolga psixologlar va pedagoglar, sotsiologlar va tarixchilar, faylasuflar va san'atshunolar javob berishga harakat qilganlar, ammo ular ijod ustidagi sirli pardaning bir chekkasinigina ochishga muvaffaq bo'lganlar. Shunga qaramay ijodni ijodiy mehnat mahsullari natijalariga muvofiq ancha aniq tushuntirish mumkin: unga faoliyatning alohida ko'rinishi sifatida protsessual tavsif berish mumkin; ijodning tabiati haqidagi savolga javobni ijodkorlarning ruhiy dunyosi, qobiliyatlari, dunyoqarashi va axloqiy mo'ljallaridan ham izlash lozim. Mutlaqo yangi ijtimoiy muhim natijaga erishish ijodning muhim xususiyati bo'lib, u davomli tarixiy ahamiyat kasb etadi. Zero, ijod hamisha o'sish, qo'shilish, ilgari dunyoda mavjud bo'lmagan yangilikni yaratishdir. Garchi insonning ijodiy faoliyati tabiat materialiga muhtoj bo'lsa-da, u to'raligicha tabiatda allaqachon mavjud bo'lgan narsa bilan belgilanishi mumkin emas. Ijod mahsulida material bilan belgilanmagan yangilik mavjuddir. Ijodga xos bo'lgan betakrorlik, nostandartlikni faqat asosiy materialning tor chegarasidan chetga chiquvchi ijodkorning o'ziga xosligi miqyosi bilan tenglashtirish mumkin. Ijod mahsulining yangiligi tufayli uni oldindan rejalashtirish mumkin emas. Ibn Arabiy ijodni ulkan muvaffaqiyatsizlik sifatida tavsiflaydi, chunki hatto mukammal mahsullarda ham u ijodiy g'oyaga kamdan-kam holda mos keladi. Bu ijodning o'ta shaxsiy intim jihatidir. Ijodkor shaxs imkoniyatlarining boyligini, odatda, ijod natijasining torligi bilan taqqoslab bo'lmaydi.

### Ijodiy va noijodiy faoliyat.

Ijodiy deb hisoblash mumkin bo'lgan faoliyat turlarini aniqlash imkonini beruvchi mezonlar haqidagi masala murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Odatda ijod deganda, san'at, fan, falsafa bilan shug'ullanish tushuniladi. «San'at, din, falsafa yoki fanda insonning asl mohiyati namoyon bo'ladi». Bundan ijod bilan alohida

iste'dodli odamlargina shug'ullanishga qodir degan xulosa kelib chiqadi. Lekin bu fikrga qo'shilish mushkul. Psixologlar ham, turli falsafiy yo'nalishlarning namoyandalari bo'lgan faylasuflar ham ijodga nisbatan bunday yondashuvga qo'shilmaganlar. N.A.Berdyayev qullik va inson erkinligi haqida mulohaza yuritarkan, ijod elitar, aristokratik xususiyatga ega ekanligini qayd etgan va buni madaniy ijod barcha jabhalarda komillikka, oliy sifatga erishishga intilishi bilan tushuntirgan. Uning fikricha, bu holni bilishda ham, san'atda ham, inson tuyg'ulari madaniyatida ham kuzatish mumkin. Haqiqat, go'zallik, muhabbat miqdorga bog'liq bo'lmaydi, zero ular sifatlardir.

Din mutafakkirlari ijodda insonning ilohiy-insoniy tabiati namoyon bo'ladi, chunki odamlarni o'ziga o'xshatib yaratgan, Yaratguvchi – Xudo ularga o'z ijodiy dahosini ham hadya etgan, shu sababli ijod har qanday faoliyat turida mavjud bo'lishi mumkin, deb hisoblaganlar.

Ijodning ichki asoslari qatoriga odatda shaxsning qobiliyati va faoliyat motivlari kiritiladi. Bu asoslar yagonadir: ijodiy qobiliyatlar muvaffaqiyat negizi hisoblanadi, lekin ular motivatsiya orqali ro'yobga chiqadi. Ijod qilish qobiliyati ko'p sonli fazilatlar bilan tavsiflanadi. Ijodkor shaxs o'z aql-zakovatining teranligi, mustaqil fikrlashi, tafakkurining o'ziga xosligi, bashorat qilish qobiliyati, zehning o'tkirligi, tasavvuri va intuitsiyasining kuchliligi, mehnatda tirishqoq va intiluvchanligi, o'ziga nisbatan tanqidiy munosabat va murosasizlik, yuksak axloqiy fazilatlar bilan ajralib turadi. Ijodiy qobiliyatlar insonga vaziyat travial, «muammosiz» bo'lib tuyulgan joyda muammoni ko'rish imkonini beradi, bundan yangi motivatsiya paydo bo'ladi va u, dastlabki tarzda qo'yilgan vazifadan qat'i nazar, ichki da'vatkor motivga, faoliyatda ehtiyojga aylanadi. Ijodkor o'zining ayni shu – kutilmagan va salmoqli natijaga erishish qobiliyati bilan ajralib turadi. Emotsional faollik, ijod jarayonida ijobiy emotsional holatlar bo'rtib ko'rinishi ijodning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ko'tarinki ruh, kayfiyat vazifalarning yechimlarini tirishqoqlik bilan izlashga rag'batlantiradi va pirovard natijada yuz beradigan insayt (fikrning ravshanlashish) lahzalarini belgilaydi. Bunda izlanayotgan natija ijodkor tafakkurida xuddi chaqin chaqqandek bir lahzada paydo bo'ladi, mushkul masalalarni yechish imkonini beruvchi mutlaqo yangi g'oya yuzaga keladi. Psixologiyada insayt muhim munosabatlar va umuman vaziyatni tuyqundan va

o'tmishda olingan tajribaga bog'liq bo'lmagan holda tushunish orqali muammoni ongli tarzda yechish sifatida tavsiflanadi. Emotsional ta'sirlanish ijodkor tafakkuriga kuchli turtki beradi va uning sintez, tahlil qilish, umumlashtirish qobiliyatlarini faollashtiradi.

Ijodning o'ziga xos xususiyati uni o'yin bilan yaqinlashtiradi. Zero, o'yinga intilish shaxsning tashqi emas, balki ichki beg'araz motivlari, uning o'yin faoliyatidan lazzatlanish bilan bog'liq intim mayllari bilan belgilanadi. Bizning nazarimizda, ijodiy faoliyat va o'yin mexanizmlari umumiydir. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, o'yin «jiddiy» faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi. Har qanday faoliyat qarama-qarshi ehtiyojlar: amaliy natijaga erishishga bo'lgan ehtiyoj yoki faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyoj mahsuli bo'lishi mumkin. Ijod faoliyatning shunday bir turiki, u mazkur omillarning ikkalasi bilan ham u yoki bu darajada belgilanishi mumkin.

Masalan, talabalarda o'qishdan maqsad har xil bo'lishi mumkin. Ayrimlar kasb o'zlashtirishni xohlaydi va o'z qiziqishlarini asosan ayni shu kasbga tegishli fanlarga qaratadi. Kimdir «diplom uchun» o'qiydi va «imtihonni topshirish» uchun darslikni qo'lga olishga o'zini katta qiyinchiliklar bilan majbur qiladi. Yana bir toifa talabalar bilish jarayonining o'zidan lazzat oladi. Ayni shu talabalar fanda ijodkor shaxslarning real zaxirasi sifatida qaralishi mumkin.

Lekin olimning bilish faoliyati ham yo oldindan belgilangan maqsadlar bilan chegaralangan, fanga nisbatan tashqi amaliy vazifaga bo'ysundirilgan, yo ichki omil – bilish faoliyati bilan shug'ullanish ehtiyojining mahsuli bo'lishi mumkin. Bu holda bilish insonga faoliyatning o'zi bilan lazzat baxsh etadigan ijodiy kuchlarning beg'araz o'yini sifatida idrok etiladi. Boshqa olimlar e'tiborga loyiq emas deb qaragan muammoli vaziyatni mustaqil aniqlash aksariyat hollarda bilish faolligiga turtki beruvchi omil hisoblanadi. Sirdan berilgan turtki bilan bog'liq bo'lmagan ayni shu faoliyat intellektual faollikning muhim belgisidir.

Ijod va o'yin umumiy psixologik mexanizmga ega bo'lsa-da, lekin ularning ijtimoiy tabiati har xildir. Ijodning o'yindan muhim farqi shundaki, u ijtimoiy ahamiyatga molik mahsulot yaratishni nazarda tutadi, bu esa insondan fidokorona mehnat qilishni taqozo etadi. Sirdan biron-bir tazyiq insonni ijodiy mehnat qilishga majburlay olmaydi. Faqat o'yin jihati, amaliy natijadan qat'i nazar

faoliyatning o'zidan lazzat olish omili sifatida, shaxs o'z qobiliyatlarini to'la ro'yobga chiqarishiga zamin yaratadi. Maqsadga muvofiq va o'ziga to'q, amalda foydali va noamaliy mehnat va o'yinning inson faoliyatida namoyon bo'lish darajasi individualdir. Ijodiy faoliyatning har bir natijasi umuminsoniy madaniyatga qo'shiladigan hissa sifatida betakroridir.

Shunday qilib, ijod – bu nafaqat madaniyat predmetlarini yaratish, balki har qanday inson hayotini tashkillashtirish hamdir. Hamonki ijodni oqilona tushuntirishda qiyinchiliklar yuzaga kelar, uni oqilona qayd etilgan qoidalarning muayyan to'plami sifatida tavsiflash mumkin emas ekan, inson ijodda yangilikni yaratish omili sanalgan o'z individualligiga tayanishi lozim. Shu bois o'zlikni saqlash, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish har bir insonning vazifasi va burchidir. Ijod insonni o'z-o'zini bilishga da'vat etadi. Bu jarayon muqarrar tarzda o'zini o'zi kamolotga yetkazish, o'zini ijodkor sifatida namoyon etish bilan yakunlanadi.

#### **Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati**

Faoliyatning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati uni tartibga solish, individ, jamoa va umuman jamiyat faoliyatini boshqarish muammosini kun tartibiga qo'yadi. Inson faoliyatini boshqaruvchi mexanizmlarni shartli ravishda ikki turkumga: ichki va tashqi ajratish mumkin. Faoliyatni tartibga solishning ichki mexanizmlarini biz uning asosiy atributlarini o'rganish jarayonida ko'rib chiqdik. Bu maqsadni belgilash, motivatsiya, shaxsning fe'l-atvorini tavsiflovchi xususiyatlar – uning mijozi, xarakteri, irodasi, xullas, maqsadlar va ularga erishish vositalarini tanlashni, shuningdek faoliyat uslubini belgilaydigan shaxsning barcha xususiyatlaridir. Xulq-atvorni tartibga solishning ichki mexanizmlari qatoriga ideallar va didni ham kiritish lozim. Ideal – barkamollik va yetuklikning xayoliy obrazi, odamzotning inson va tabiat, inson va inson, shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga solish, kamolotga yetkazish, uyg'unlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarining ma'naviy ifodasi. Ideal tartibga solish funksiyasini bajaradi, u inson amalga oshirishga o'z hayotini baxshida etishga tayyor bo'lgan strategik maqsadlarni belgilash imkonini beradi.

Did – shaxsning borliq hodisalariga bo'lgan munosabatini belgilaydigan estetik komillikning o'ziga xos me'yori. Insonning didiga qarab uning tajribasi, san'atga oshnoligi, badiiy ijod durdonalarining murakkab va rang-barang dunyosida mo'ljal olish



imkonini beruvchi bilim va ko'nikmalari haqida xulosa chiqarish mumkin. Didning hukmi go'zal va xunuk, fojeaviy va kulgili, yuksak va tuban kabi kategoriyalar bilan ish ko'radi. Didning o'ziga xosligi shundaki, u tuyg'ularga tayanadi va mantiqiy asoslashni talab qilmaydi. Qadimgi mutafakkirlar didning tavsifida uning asosiy qarama-qarshiliklariga duch kelganlar: did individual, insonning shaxsiy ichki tuyg'usi bilan bog'liq va ayni vaqtda umumiydir; did o'ta shaxsiy va sub'ektiv hisoblanadi, lekin u umumiylikka da'vo qiladi. Didda sezish va tushunishning qarama-qarshiligiga ham duch kelish mumkin. Did, xulq-atvor tarzida, turmush va bo'sh vaqtni tashkil etishda, san'at asarlariga bo'lgan munosabatda, kiyinish uslubida namoyon bo'ladi.

### **Faoliyatni tartibga solish mexanizmlari**

Faoliyatni tartibga solishning umumiy mexanizmlari qatoriga insonning dunyoga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari tizimini to'la qanirab oladigan va madaniyat algoritmi bo'lib xizmat qiladigan rang-barang ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarni kiritish lozim. Xulq-atvor, odatlar va an'analarning ijtimoiy-madaniy me'yorlari, qoidalarining mavjudligi va rivojlanishi inson faoliyatini tartibga solish omili hisoblanadi. Me'yorlar muayyan sharoitda odamlar o'zini qanday tutishi lozimligini belgilaydi va inson faoliyatida bevosita ishtirok etib, ijtimoiy va tabiiy sharoitlarga shaxsning moslashuvini ta'minlaydi, ijtimoiy jarayonning uzluksizligini ta'minlovchi mexanizm hisoblanadi. Mazmuni, ijtimoiy mustahkamlash usullari va ijtimoiy funktsiyalariga ko'ra me'yorlar har xil bo'ladi.

Faoliyat maqsadlari, vositalari va usullarini qat'iy belgilovchi qoidalarning butun bir turkumi mavjud. Bu qoidalar ijtimoiy amaliyotda yaratilgan narsalar dunyosini va odamlar o'rtasidagi munosabatlar dunyosini o'zgartirish usullarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bular standartlar – muayyan ishni bajarishda qat'iy rioya qilish lozim bo'lgan sifat, shakl va o'lchamning qat'iy belgilangan namunasi; qoidalar – tegishli holatlarda qanday ish ko'rish lozimligini belgilovchi ko'rsatmalar; etalonlar – faoliyatda mo'ljal sifatida foydalanish lozim bo'lgan qat'iy belgilangan, standartlashtirilgan qadriyatlardir. Inson faoliyatini tartibga solishni ta'minlovchi ijtimoiy me'yorlar tizimida huquq normalari va axloq me'yorlari alohida o'rin egallaydi.

Huquq – davlat tomonidan belgilangan va uning majburlov kuchiga tayanadigan xulq-atvor umumiy normalarining majmui.

Axloq ham jamoatchilik fikri, ya'ni qilmishni ma'qullash yoki qoralash bilan mustahkamlanadigan xulq-atvor qoidalari majmuidir.

Axloq va huquq normalari o'zlari muhofaza qiladigan ijtimoiy munosabatlar mazmuni, normativ talablarni mustahkamlash usullari, ularning shaxs xulq-atvoriga samarali ta'siri darajasiga ko'ra ajralib turadi. Axloq va huquq normalarining mazmuni o'rtasida jiddiy farq mavjud emas. Masalan, «o'g'rilik qilma» – bu ham axloqiy qoida, ham huquq normasidir. Ammo huquq normalari o'z tartibga solish doirasi bilan axloq me'yorlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning ulkan hajmini to'la qamrab olmaydi. Masalan, oilaviy munosabatlar sohasida huquq ota-onaga o'z farzandlarini tarbiyalash majburiyatini yuklaydi, lekin ota-onani bir-birini sevish, bir-biriga g'amxo'rlik qilishga majburlamaydi. Huquq va axloq o'rtasidagi farqni ular ko'rsatadigan ta'sirning samaradorlik darajasida ham ko'rish mumkin. Bizning nazarimizda, davlat majburlovi kuchiga tayanadigan huquq axloqqa qaraganda samaraliroqdir. Ammo muayyan sharoitda inson uchun huquq axloqiy me'yorlar nufuzi qarshisida ojiz bo'lishi mumkin. Bu hol shaxsning qadriyatlarga munosabati mazmuni bilan, muayyan inson qaysi axloqiy qadriyatlarga tayanishi, shuningdek u yashaydigan muhit, ya'ni individ fikrini qadrlaydigan referent guruhning qandayligi bilan belgilanadi. Shu sababli axloqiy yo'l tanlashda ayrim inson uchun ishlab chiqarish jamoasi yoki maktab (talabalar) guruhining nufuzi muhim ahamiyat kasb etishi mumkin, boshqa shaxs uchun esa diniy sekta yoki jinoiy guruh a'zolarining fikri ustunlik qilishi mumkin.

#### **Xulosalar.**

Muayyan inson o'z hayoti so'nishining yuqorida sanab o'tilgan bosqichlarini anglamasligi ham mumkin (aksariyat hollarda shunday bo'ladi), ammo u o'z hayot yo'lidan ilgarilar ekan, bu dunyoda nima uchun yashayapman, degan savolga o'z harakatlari, qilmishlari bilan javob beradi. Agar inson ularni hali to'la anglab yetmagan bo'lsa, mazkur vazifani yechish o'z hayot yo'lini endigina tanlayotgan odam uchun ham, umrining shomida ortga nazar tashlab, o'z hayotini sarhisob qilayotgan odam uchun ham teng darajada mushkul ish bo'lib qoladi.

Inson o'z tabiatiga ko'ra o'limga mahkum, ammo buni tushungan holda, u o'zi bilan bog'liq hamma narsa o'zining tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralangan qisqa vaqt oralig'ida

jamlanganini tan olishni istamaydi. U o'z taqdirini ijtimoiy muhim maqsadlar, ma'naviy uyg'onish bilan bog'lashga harakat qilishi ayni shu hol bilan izohlanadi.

Yana bir yo'lni din taklif qiladi. Bu yerda u yoki bu e'tiqodlarga qarab, hayotning mazmuni va shaxsiy umrboqiylikka erishish haqidagi savolga shaklan har xil, lekin mazmunan juda o'xshash javoblar beriladi. Ularda asosan u dunyo chin dunyo ekanligi, bu dunyoda bajarilgan ishlarga haqiqiy baho u dunyoda berilishi va shu kabilar to'g'risida so'z yuritiladi.

Yana bir imkoniyat – bu dunyoda o'z hayotini odamlarga, ezgulik, haqiqat va adolatga xizmat qilishga bag'ishlashdan iborat. Shu tariqa inson o'z ishlari, g'oyalari va qilmishlari bilan kelgusi avlodlar xotirasida qolish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Inson bu yo'llarning qaysi birini tanlashi faqat uning o'ziga bog'liq. U o'z hayotida bu yerda ko'rsatilganidan butunlay boshqa yo'lni tanlashi ham mumkin. Lekin ertami-kechmi har bir inson hayotda o'zi tanlagan yo'lning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida mulohaza yuritishi muqarrardir.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Falsafiy antropologiya, inson, hayot, anomaliya, inson ma'naviyati, insonning ko'p o'lchovlilik, kosmotsentrizm, teotsentrizm, sotsiotsentrizm, antropotsentrizm, biosferotsentrizm, insonni tushunishda dualizm va monizm, biologizatorlik va sotsiologizatorlik konsepsiyalari, hayotning mazmuni, hayotni tark etish bosqichlari.

### **Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Turli falsafiy tizimlarda inson haqidagi tasavvurlar qanday shakllangan?
2. Falsafiy antropologiya qachon vujudga kelgan va u nimani o'rganadi?
3. Antropologiyadagi falsafiy va boshqa yo'nalishlar o'rtasidagi farq nimada?
4. Nima uchun inson mohiyati «boqiy» falsafiy muammo hisoblanadi?
5. Insonda biologik va ijtimoiy asoslarning o'zaro nisbati qanday?
6. Inson haqida yagona fan bo'lishi mumkinmi?
7. Insonning bioijtimoiy tabiati falsafiy muammo hisoblanadimi?
8. «Biologizatorlik» va «sotsiologizatorlik» konsepsiyalarini qanday baholaysiz?

9. Falsafa hayotning mazmunini anglashda yordam berishi mumkinmi?
10. Umrboqiylik mumkinmi?

### Esse

1. Insonni falsafiy tushunishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Falsafa tarixida inson muammosi.
3. Falsafiy antropologiyaning shakllanish bosqichlari.
5. Inson kelib chiqishining falsafiy konsepsiyalari.
6. Inson biologik va ijtimoiy tabiatining birligi.
7. Inson hayotining mazmuni muammosi.
9. «Hayot», «o'lim», «umrboqiylik» falsafiy kategoriyalar sifatida.

### Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. Quyidagi so'zlar muallifi kim: «Inson o'zini dunyodan oldinroq va ko'proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o'zidan keyin va o'zi orqali anglab yetadi...»?
  - A. N.A.Berdyayev
  - B. V.Solovev
  - C. V.Kuznetsov
  - D. A.Chumakov
2. «Inson-mashina» asarining muallifi kim?
  - A. J.Lametri
  - B. Dj.Berkli
  - C. Dj.Bruno
  - D. B.Spinoza
3. Insonning paydo bo'lishi haqidagi evolyutsion konsepsiya asoschisi kim?
  - A. Ch.Darvin
  - B. K.Linney
  - V. Ch.Pirs
  - G. A.Eynshteyn
4. Insonni o'rganishning introvertiv yondashuvi vakillari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?
  - A. M.Sheler, A.Gelen, K.Lorents
  - B. N.A.Berdyayev, A.Gelen, K.Lorents
  - C. S.L.Frank, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov
  - D. N.O.Losskiy, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov
5. Falsafa tarixida inson haqidagi qarashlarni «antropologik materializm» sifatida baholangan faylasuf kim?

- A. L.Feyerbax
- B. I.Kant
- C. V.Gegel
- D. F.Nitsshe

#### **Adabiyotlar:**

1. 2. Berdyaev N.A. O naznachenii cheloveka. -M: Progress, 1993.
3. Choriyev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: OFMJ, 2006
4. Shermuxamedov S. Inson falsafasi.-T.: Fan, 2009
5. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. Toshkent: 2016
6. Borzenkov V.G., Yudin B.G. Filosofskaya antropologiya: Uchebnoe posobie. -M.: AST, 2005.
7. Garanina O.D. Filosofiya cheloveka. -Moskva: 2006.
8. Minyushev F.I. Sotsialnaya antropologiya. Moskva: Bratya Karich, 1997.
9. Kamyu A. Buntuyusiy chelovek. -Moskva: 1990.
10. Kuvakin V.A. Tvoj ray i ad: Chelovechnost i beschelovechnost cheloveka. –SP(b): 1998.
11. Mochalov Ye.V. Antropologiya vseedinstva v filosofii. –SP(b): 2006.
12. Olport G. Stanovlenie lichnosti: Izbr. tr.: per. s angl. -Moskva: 2002.
13. Teyyar de Sharden P. Fenomen cheloveka. -Moskva: 2002.
14. Fromm E. Dusha cheloveka. -Moskva: 1992.
15. Koshkarova N.I. Bytie cheloveka v kul'ture : Na materiale amer. kultur. antropologii : dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk: 09.00.11. Ufa, 1996.
16. Mandshir D. Sotsializatsiya kak filosofsko-antropologicheskaya problema: dissertatsiya kandidata filosofskix nauk: 09.00.13. Moskva, 2000.
17. Sheler M. Mesto cheloveka v kosmose.-M.: 2001.
18. Qurbonova L. Inson borlig'i. Andijon: AnDU, 2009.

## **GLOBALLASHUV VA GLOBAL MUAMMOLARNING FALSAFIY JIHATLARI**

### **Globallashuv va globalistika tushunchasining o'zaro aloqasi va farqi**

XX asrning 90-yillarida jahon hamjamiyati o'z rivojlanishi-ning yangi bosqichiga qadam qo'ydi, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o'zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo'ldi. Globallashuv (lot. globus – yer kurrasi) jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashtirish jarayonidir. Shuningdek, globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik o'zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Jahon rivojlanishining eng yangi tendentsiyalarini anglab yetish borasidagi ko'p sonli sa'y-harakatlar globallashuv jarayonlarining mohiyati va sabablarini, ular ta'sirida yuzaga kelayotgan global muammolarni aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarini anglab yetishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi – globalistika paydo bo'lishiga olib keldi.

«Globalistika» atamasi globallashuvning turli jihatlarini va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan ularning natijalarini, shuningdek ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy etish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo'llaniladi. Globalistika bilishning shunday bir jabhasiki, bu yerda turli fanlar bir-biri bilan uzviy aloqada, har biri o'z predmeti va metodi nuqtayi nazaridan, globallashuvning turli jihatlarini tahlil qiladi, global muammolarni bir-biridan alohida va yaxlit tizim sifatida o'rganib, ularning yechimlarini taklif qiladi.

Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot sohasi sifatida 1960-yillarning oxirlarida shakllana boshladi, lekin uning paydo bo'lishi uchun ob'ektiv asoslar ancha oldin yuzaga kelgan edi.

1960-yillar oxiri – 1970-yillarning boshlarida global muammolar» tushunchasi keng tarqaldi va ilmiy va siyosiy muomala (leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi. Aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan

qo'llaniladigan atama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariy ahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular «global» deb nomlangan holda duch kelish mumkin.

Etimologik jihatdan «global» atamasi, «globallashuv» atamasi kabi, yer kurrasi bilan bog'liq. Ayni shu sababli butun insoniyat manfaatlariga daxldor muammolarni ham, dunyoning turli nuqtalari-dagi har bir ayrim insonga tegishli bo'lgan, ya'ni umuminsoniy xususiyat kasb etadigan muammolarni ham «global» deb nomlash odat tusini olgan. Ular jahon iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim ob'ektiv omili sifatida ayrim mamlakatlar va mintaqalarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularni yechish aksariyat davlatlar va tashkilotlarning kuch-g'ayratini xalqaro darajada birlashtirishni nazarda tutadi. Ayni vaqtda global muammolarning yechilmay qolishi butun insoniyat kelajagi uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Falsafada bu vazifani yechish uchun tegishli mezonlar belgilangan bo'lib, ularga muvofiq u yoki bu muammo global deb belgilanadi va shu tariqa bunday xususiyatga ega bo'lmagan boshqa ko'p sonli muammolardan farqlanadi.

### **Global jarayonlarning shakllanish tarixi**

Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalari XV asr oxirlarida boshlangan, XIX asr boshiga kelib esa u amalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Bu yagona geografik, iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan Buyuk geografik kashfiyotlar bilan bog'liq. Ayni shu davrda dunyoni tushunishga nisbatan geotsentrik yondashuvlar geliotsentrik yondashuvlarga o'rin bo'shatdi, insoniyat esa, nihoyat, kun va tunning almashishini to'g'ri talqin qilishga muvaffaq bo'ldi. Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to'planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi yuz berishiga sabab bo'ldi. So'nggi zikr etilgan voqealar pirovard natijada insonning tabiatni o'zgartiruvchi imkoniyatlari va uning atrof muhit bilan munosabatini butunlay o'zgartirdi.

Yer kurrasi shar (globus) ko'rinishida ekanligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlab insoniyat o'z tarixida birinchi bo'lib savdosotiq sohasida dunyo darajasiga chiqdi va dunyo miqyosida xalqaro munosabatlarga asos soldi. Ayni shu davrda ilk transmilliy savdo

kompaniyalari vujudga keldi. Tez orada ularning faoliyati sof savdo chegarasidan tashqariga chiqdi va ular qullarni qo'lg'a kiritish va ularni ekspluatatsiya qilish, bosib olingan hududlarda plantatsiyalar va manzilgohlar barpo etish jarayonida ishtirok eta boshladi, nihoyat, o'z davlatlari amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatining asosiy ijrochisiga aylandi.

Bularning barchasi jiddiy migratsiya jarayonlari yuz berishiga ham sabab bo'ldi; xususan, mustamlakachilar qora tanli qullarni Afrikadan Amerikaga ommaviy tarzda tashib keltira boshladilar va shu tariqa uning demografik tarkibini butunlay o'zgartirdilar. Shuning o'ziyoq globallashuv turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

XVII asr boshlariga kelib sharq va g'arb savdogarlari ulkan hududlarni o'zlashtirdilar va deyarli butun dunyo bo'ylab joylashdilar. Shu tariqa ular insoniyat tarixida birinchi bo'lib yagona global iqtisodiy va siyosiy tizimning zaruriy asoslarini yaratdilar va mazkur tizim shakllanishi uchun zamin hozirladilar.

Shunday qilib, XV-XVI asrlarda yuz bergan buyuk geografik kashfiyotlar jahon tarixining rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi va «Evropa siyosatining keskin, misli ko'rilmagan darajada kengayishiga olib keldi. Dunyo chegaralari muayyan darajada kengaydi. Endilikda Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi turli ziddiyatlarga mustamlakalar uchun kurashda raqobat ham qo'shildi». Shu tariqa yangi xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarga, turli madaniyatlarining o'zaro ta'siriga va G'arbiy Yevropa dengiz davlatlarining o'zlari kashf etgan yer kurrasining turli hududlaridagi ekspansiyasiga asos solindi.

### **Globallashuvning fundamental asoslari**

Fundamental globallashuv dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq. Mazkur jarayonlar natijasida dunyo o'zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi.

Fundamental globallashuvning ilk alomatlarini XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, XX asr o'rtalariga kelib esa u to'la darajada borliqqa aylandi. Ayni shu davrda dunyoni iqtisodiy bo'lib olish yakunlandi va buning natijasida turli mamlakatlar va xalqlarning kuchayib borayotgan o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadigan mutlaqo



yangicha tuzdagi keskin xalqaro muammolar yuzaga keldi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotni, balki aloqa va kommunikatsiya vositalarini, shuningdek ma'naviy soha – madaniyat, fan va falsafani ham qamrab oldi. Turli-tuman xalqaro tashkilotlar, forumlar, s'ezdlar, kongresslar vujudga kela boshladiki. bunga o'sha davrda aloqa va ommaviy kommunikatsiya vositalarining faol rivojlanishi ham imkoniyat yaratdi.

Shunday qilib, amalda butun dunyo kuchli davlatlar va yirik monopoliyalar o'rtasida keskin kurash va ta'sir doiralarini bo'lib olish maydoniga aylandi va bu pirovardda Birinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu urushda jahonning ko'p sonli xalqlari bevosita yoki bilvosita ishtirok etdi, chunki shu davrgacha dunyo miqyosida yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy bog'liqlik sayyoraning birorta ham yirik davlatiga urushdan yoki hech bo'lmasa uning ta'siri va oqibatlaridan butunlay chetlashish imkonini bermas edi. Bu mazkur davrdan e'tiboran tarix faqat Yevropa tarixi yoki, alohida Xitoy, Rossiya, Amerika, G'arb, Sharq tarixi bo'libgina qolmasdan, insoniyat tarixiga, ya'ni tom ma'nodagi jahon tarixiga ham aylanganidan dalolat beradi.

1918-yilda Birinchi jahon urushining tugashi xalqaro maydonda kuchlarning yangicha nisbati yuzaga kelishiga sabab bo'ldi va turli davlatlarning urushdan keyingi munosabatlari, manfaatlari va qarama-qarshiliklarini yanada tarangroq tugunga bog'lagan oqibatlarga olib keldi, shu tariqa butun dunyoni barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha jahon hamjamiyatiga aylantirdi. Pirovardda Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrda globallashuv jarayonlari yanada bo'rtibroq namoyon bo'ldi. Bu davrda, globallashuvning asosiy belgilari:

a) biosferaga antropogen ta'sirning kuchayishi va insonning real «geologik kuch»ga aylanishi;

b) ommaviy madaniyat, avvalo kino, musiqa, adabiyot, keng iste'mol mollari ishlab chiqarish sohasida faol rivojlana boshlashi;

v) televizorning ixtiro etilishi, vaqt o'tishi bilan u ommaviy madaniyatning asosiy targ'ibotchisiga va globallashuv ramziga aylanishi;

g) makon va vaqtni ilk bor insonning kundalik hayoti ko'rsatkichlariga qadar uzil-kesil «qisqartirgan» havo kemalarida qit'alararo qo'nmay, to'g'ri uchib o'tishlarida namoyon bo'ldi.

Ammo yechilmagan ziddiyatlar va umumiy bog'liqlikning kuchayishi insoniyat tarixidagi eng katta va davomli urush – Ikkinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu safar dunyo miqyosidagi urushda Yer aholisining to'rtidan uch qismi ishtirok etdi, Birinchi jahon urushiga qaraganda bir necha baravar ko'proq qurbonlar berildi.

Dunyo miqyosidagi jarayonlarning globallashuvi nuqtayi nazaridan bu urushlarning ikkalasi ham amalda ayni bir global urushning turli bosqichlari edi. Ularning o'rtasidagi farq faqat miqdor ko'rsatkichlarida ko'rinadi. Mohiyat e'tibori bilan, ikkala urush ham ayni bir masalalarni yechish – XX asr boshida bo'lib olingan, yaxlit va o'zaro bog'langan dunyoni qayta bo'lib olishga qaratilgan edi. Urush olib borish usullari ham deyarli bir edi, farqi esa texnik jihozlanish darajasi va miqyosi Ikkinchi jahon urushida bir necha baravar yuqori, mafkuraviy ta'sir esa avvalgi urushda yo mavjud bo'lmagan radio, telefon, yo hali yaxshi rivojlanmagan aviatsiya, dengiz, temir yo'l, avtomobily transporti aloqa va kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish bilan ko'p karra kuchaytirilishida namoyon bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi ham, xuddi avvalgi jahon urushidek, urushdan keyingi dunyoviy tartibning o'ziga xos xususiyatiga aylangan bir qator olamshumul oqibatlarga olib keldi. Xususan, urush mutlaqo yangi qurol turi (atom va reaktiv qurol) yaratish borasidagi tadqiqotlar va amaliy ishlarni rag'batlantirdi. Mazkur davrda ularning ilk namunalari harbiy sinovdan o'tkazildi va insoniyatga butun dunyoni xarobazorga aylantirish va barcha tirik mavjudotlarni qirib tashlash uchun cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Fan-texnika taraqqiyotining ayni shu yutuqlari keyinchalik «sovuq urush» davrida avj olgan qurollanish poygasining mohiyati va mazmunini belgilab berdi va sayyoramizning nozikligi va makonda tutashligini amalda namoyish etdi.

Ikkinchi jahon urushining boshqa bir oqibati jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida yuzaga keldi va u turli-tuman xalqaro tashkilotlarning mislsiz darajada o'sishida namoyon bo'ldi. Ularning orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT 1945-yilda tashkil qilingan va 1946-yil 10-yanvarda birinchi majlisi o'tkazilgan), hech shubhasiz, ajralib turadi. Yevropadagi integratsiya jarayonlari ham urushning tugashi bilan bog'liq bo'lib, Buyuk Britaniya bosh

vaziri U.Churchill Yevropa qo'shma Shtatlarini tuzishga chaqirgan 1946-yilni ularning sanoq boshi deb hisoblash mumkin.

Bosh harbiy jinoyatchilar guruhi va natsistlarning asosiy tashkilotlari ustidan o'tkazilgan Nyurnberg sud jarayoni yana bir muhim tadbir va ayni vaqtda xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasida dunyo miqyosidagi hamkorlikning ilk tajribasi bo'ldi. Bu jarayon 1945-yil 8-avgustda g'olib mamlakatlar – SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya va Frantsiya tomonidan tashkil etilgan tarixdagi birinchi Xalqaro harbiy tribunal tomonidan amalga oshirildi va hozirgi xalqaro sud tizimini tashkil qilish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Ayni shu davrda liberalizm va demokratiya g'oyalari dunyo miqyosida keng tarqala boshladi, ijtimoiy borliq asoslarini, jamiyatning axloqiy negizlari va ijtimoiy rivojlanishning asosiy tamoyillarini qayta anglab yetishga qaratilgan jiddiy tadqiqotlar va nazariy ishlovlar majmui paydo bo'ldi.

### **Globallashuvning asosiy jihatlari**

Globallashuvning asosiy jihatlari dunyo miqyosidagi tahdidlar va globallashuv jarayonlarini aholining keng qatlamlari anglab yetishi, shuningdek jahon hamjamiyati va unga mos keluvchi qadriyatlarga munosabat, madaniyat, turmush tarzining shakllanishida namoyon bo'ladi. 1970-yillardan globallashuv o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi. Ayni shu davrda axborot-texnologiya inqilobining rivojlanishi jadallashdi. mif, din, falsafa, fan, ekologiya bilan bir qatorda global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi.

Globallashuvning asosiy jihati jahon bozorini sezilarli darajada o'zgarishi, jahon xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etib, milliy xo'jaliklardan kuchliroq va muhimroq tus olishida namoyon bo'ldi. Quyidagilar globallashuvning asosiy jihatlari hisoblanadi

a) «rezonans effekti»ning paydo bo'lishi, bunda iqtisodiy yuksalishlar yoki tangliklar bir mamlakatdan u bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa mamlakatlar va mintaqalarga o'tadi;

b) turli tovarlar va xizmatlar jahon bozorlarining yaratilishi;

v) ko'rsatilgan tovarlar va xizmatlarga jahon narxlarining shakllanishi, ular mazkur tovarlar va xizmatlar milliy ishlab chiqaruvchilarining siyosatini ko'p jihatdan belgilashi.

Iqtisodiyotning internatsionallashuvi va pul rolining unifikatsiyalashuvi bilan bir qatorda ommaviy jamiyat va unga mos

keluvchi ommaviy madaniyatning shakllanishi globallashuvning muhim jihati va muayyan darajada uning qonuniy mahsuliga aylandi.

Zamonaviy transport va aloqa vositalari sharofati bilan makon va vaqt omillari amalda muhim ahamiyatga ega bo'lmay qolgan globallashuv sharoitida, til turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, maishiy va hokazo aloqalari va muloqoti yo'lidagi oxirgi jiddiy to'siq bo'lib qoldi. Umumiy qabul qilingan tilga ob'ektiv ehtiyoj doimo mavjud bo'lgan, lekin jahon savdosi va kapitallarni bir joydan boshqa joyga o'tkazish hajmlari ko'p karra o'sgan, siyosiy munosabatlar global darajagacha kengaygan, xalqaro jamoat tashkilotlari, sport musobaqalari, turistik industriya va shu kabilar paydo bo'lgan serqirra globallashuv davrida u ayniqsa kuchaydi. Bugungi kunda ingliz tili bir qator ob'ektiv sabablarga ko'ra madaniyatlararo muloqot tiliga aylandi.

1985-yilda birinchi mobil telefonining yaratilishi (mobil telefondagi birinchi qo'ng'iroq AQShdan Germaniyaga bo'lgan), 1991-yilda Internetning yaratilishi bilan dunyo informatsion jihatdan uzil-kesil tutashdi. Kompyuter inqilobi va Internet tarmog'ining rivojlanishi chegaralardan boshqa hamma narsa mavjud bo'lgan yangi axborot maydonini vujudga keltirdi. 2001-yilda Aypet tizimining paydo bo'lishi dunyoda katta virtual makonni shakllantirdi. Bu turli ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishiga va muloqotning yangi usullarini shakllanishiga ta'sir etdi.

Globallashuvning muhim jihati siyosatda namoyon bo'ldi. 1990-yillargacha «sovuq urush» holatida bo'lgan ikki harbiy-siyosiy blokning qattiq qarama-qarshiligi bilan tavsiflangan ikki qutblilik xalqaro munosabatlarning asosiy xususiyati sanalgan bo'lsa, sotsialistik tizim parchalanishi bilan vaziyat butunlay o'zgaradi.

So'nggi yillarda milliy davlatlar faoliyati bilan bir qatorda xalqaro munosabatlarning yangi, «noan'anaviy» sub'ektlarining faolligi va ta'siri ham ancha o'sdi. Bu sub'ektlar o'z soni, moliyaviy imkoniyatlari va siyosiy ta'siriga ko'ra ayrim davlatlar bilan bimalol bellasha oladi. Xalqaro munosabatlarning mazkur sub'ektlari orasida eng muhimlari hukumatlararo tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro nohukumat tashkilotlar hisoblanadi. «Yashillar», «muqobil-lar», antiglobalistlar kabi ijtimoiy harakatlar ham keng rivojlandi.

Globallashuvning yana bir muhim jihati madaniyat, xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq sohasida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar

yashash bilan bir qatorda axloq, xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlarga munosabat va mo'ljallarda ham muhim o'zgarishlarga kuchli ehtiyojni yuzaga keltirdi. Mutlaqo yangi hodisa – jahon jamoatchilik fikri yuzaga keldi va sayyoramizda o'zini jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlar soni ko'paydi. Jahon hamjamiyati yangi ming yillik chegarasidan o'tib, o'z tarixiy rivojlanishining butunlay yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqich jahon ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy aloqalarining tarqoqligi va parokandaligidan ularning birligi, yaxlitligi, yagonaligi va globalligiga o'tish bilan tavsiflanadi.

### **Global muammolar globallashuvning oqibati.**

Ko'rib chiqilgan globallashuv jarayonlari odamlarga yangi g'am-tashvishlar va ijtimoiy hayotning internatsionallashtirishidan kelib chiqadigan yangi (global) muammolar keltirdi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, ular ijtimoiy rivojlanishda, shuningdek «jamiyat-tabi'at» tizimida uzoq vaqt mobaynida yuz bergan miqdor va sifat o'zgarishlari mahsuli bo'ldi. Shuni ta'kidlash lozimki, jahon hamjamiyati nafaqat yanada rang-barang, balki avvalgidan ham ziddiyatliroq shakl-shamoyil kasb etgani bilan tavsiflanadigan hozirgi vaziyat tarixda hech qachon bo'lmagan.

Bir tomondan, u bir-biriga o'xshamaydigan, katta va kichik, rivojlangan va qoloq, tinchliksevar va urushqoq, yosh va qadimgi ko'p sonli madaniyatlar, millatlar va davlatlardan iborat.

Ikkinchi tomondan esa insoniyat uchinchi ming yillikka yagona organizm sifatida, bir «umumiy uy», yashash sharoitlari nafaqat tabiiy ko'rsatkichlar, ya'ni yashash uchun yaroqli hudud bilan, balki hayot faoliyati uchun zarur resurslar mavjudligi bilan ham chegaralangan Yer deb atalmish katta va odamga to'lib ketgan «kommunal kvartira» aholisi sifatida qadam qo'ydi. Bu to'la anglab yetish jarayoni so'nggi o'n yilliklarda yuz bergan va endilikda u bilan barcha mamlakatlar va xalqlar hisoblashishga majbur bo'lgan borliqdir.

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash lozimki, global muammolarning paydo bo'lishi qandaydir yangilash, kimningdir xatosi yoki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning ataylab tanlangan strategiyasi natijasi emas. Bu tarix inijligi yoki tabiiy anomaliyalar mahsuli ham emas. Ushbu muammolarning ildizlari ancha chuqur bo'lib, industrial jamiyat, umuman texnokratik yo'naltirilgan madaniyatning keng

miqyosdagi inqirozini yuzaga keltirgan hozirgi sivilizatsiyaning vujudga kelish tarixiga borib taqaladi.

Mazkur inqiroz odamlarning bir-biri bilan, jamiyat va tabiat bilan o'zaro aloqalarining butun majmuini qamrab oldi va deyarli butun jahon hamjamiyatiga, rivojlanayotgan mamlakatlarga va rivojlangan mamlakatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Insonning atrof muhitga salbiy ta'siri aynan rivojlangan mamlakatlarda, asosan bu yerda jadal sur'atlarda va stixiyali tarzda rivojlangan iqtisodiyot bilan bog'liq sabablarga ko'ra oldinroq va bo'rtibroq namoyon bo'ldi. Shu ma'noda 2008-yilda hoshlanib, butun dunyoni larzaga solgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi nafaqat rivojlangan sanoat mamlakatlari, balki rivojlanayotgan, ayniqsa, bozor munosabatlari qaror topayotgan davlatlarda ham o'z salbiy oqibatini o'tkazmasdan qolmadi. Ayni paytda global moliyaviy inqiroz jahon moliya bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va uni tubdan isloh qilishning zarurligini ko'rsatib berdi. Ushbu moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qanday davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari ko'p jihatdan bir qator omillarga, xususan, mamlakat moliya valyuta tizimi nechog'lik mustahkam ekanligi, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallasuvi va likvidligi, oltin valyuta zahirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati, shuningdek, iqtisodiyotning barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatbardoshlik darajasi bilan bog'liq. Bu esa O'zbekiston moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining barqaror va ishonchliigi, ularning himoya mexanizmlarini kuchaytirish uchun, xalqaro moliya inqirozining mamlakat bank tizimiga ta'siri darajasini e'tiborga olgan holda, Markaziy bankning pul-kredit siyosati dastklari, likvidligini tartibga solish instrumentlarini yanada takomillashtirish, bank xizmatlaridagi innovatsiyalarni hisobga olgan holda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni yanada takomillashtirishni talab qiladi. Hozirgi kunda bu vazifa bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

### **Ijtimoiy rivojlanishning jadallashuvi**

Bunday rivojlanish, avvalo, atrof muhitning tanazzuliga olib keldi va tez orada insonning o'zi ham tanazzulga yuz tutganini namoyon etdi. Zero, inson xulq-atvori, tasavvurlari va fikrlash tarzi uning atrofida yuz bera boshlagan o'zgarishlarga muvofiq o'z vaqtida o'zgarishga qodir bo'lmay qoldi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning jadal sur'atlarda rivojlanishiga esa insonning o'zi va uning fan va

texnika sohasidagi yangi va yangi yutuqlar bilan ko'p karra kuchaytirilgan izchil o'zgartiruvchi faoliyati sabab bo'ldi. So'nggi o'n yilliklarning o'zida fan-texnika yutuqlari o'sishi natijasida jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida avvalgi yuz yilliklarga qaraganda ko'proq o'zgarishlar ro'y berdi. Bunda o'zgarishlar jarayoni o'sib boruvchi tezlikda rivojlandi va ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda yanada chuqurroq va jiddiyroq tus oldi. Masalan, verbal (og'zaki) muloqotdan yozuvning yaratilishiga qadar insoniyat taxminan uch million yilga, yozuvdan kitob bosmasi ixtiro qilingunga qadar taxminan besh ming yilga, kitob bosmasidan telefon, radio, televideniye kabi audiovizual vositalar yaratilgunga qadar taxminan besh yuz yilga teng yo'lni bosib o'tgan bo'lsa, odatdagi audiovizual vositalardan zamonaviy kompyuterlarga o'tish uchun ellik yildan kamroq vaqt talab etildi. Misli ko'rilmagan sur'atlarda 10-15 yil ichida odamlar Internet va uyali aloqa yordamida muloqot qilish uchun cheksiz imkoniyatlarni qo'lga kiritdilar. Yangi ixtirolar yaratilganidan ular amalga joriy etilgunga qadar o'tadigan vaqt ham yanada qisqardi; ular endi aksariyat hollarda yillar bilan emas, balki oylar va hatto kunlar bilan o'lchanadi. XXI asming eng so'nggi kashfiyotlaridan biri bo'lmish nanotexnologiyalarning (mitti texnologiyalar) yaratilishi insonning barcha sohadagi imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Shunday qilib, atigi ikki-uch yuz yil muqaddam turli millatlar asosan alohida-alohida yashagan, ularning o'zaro aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, endilikda Yerda nafaqat «oq dog'lar», ya'ni inson oyog'i yetmagan joylar qolmadi, balki tabiiy holatiga inson bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatmagan sof hududlar, suv va fazo bo'shliqlari ham deyarli mavjud emas. Bularning barchasi endi bizning sayyoramizni «umumiy uy», «Koinotdagi orolcha», «qattiq to'lqinlanayotgan okeandagi qayiq», «dunyoviy qishloq» deb, barcha odamlar uchun umumiy tus olgan muammolarni esa olamshumul, umuminsoniy, global deb nomlash uchun asos bo'lmoqda.

### **Global tendentsiyalarni anglashning ahamiyati**

Jahonda yuz berayotgan o'zgarishlarning ba'zi bir tendentsiyalari olimlar va faylasuflar diqqat markazidan bu o'zgarishlar barchaga ravshan bo'lishidan oldinroq o'rin oldi. Masalan, ijtimoiy rivojlanishga turli sivilizatsiyalarning oldinma-ketin almashishi sifatida qaragan ingliz tarixchisi A.Toynbi (1889-1975) kompyuter inqilobidan ancha oldin «XX asrda umumjahon tarixi boshlandi»

degan xulosaga keldi. Shu tariqa tub o'zgarishlar nafaqat jamiyat qurilishi negizlarida, balki dunyo miqyosida yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarning asosiy tendentsiyalarida ham aks etgani ta'kidlandi.

Hozirgi zamon nemis falsafasining atoqli namoyandasi K.Yaspers (1883-1969) bu xususda yanada aniqroq fikr bildirdi. U 1948-yilda e'lon qilgan «Tarix kurtaklari va uning maqsadi» asarida, shunday deb yozadi: «Ilk bor olamshumul ahamiyat kasb etgan bizning tarixan yangi sharoitimiz Yerdada odamlarning real birligidan iboratdir. Zamonaviy aloqa vositalarining texnik imkoniyatlari sharofati bilan sayyoramiz insonga to'la ochiq bo'lgan yagona yaxlitlikka aylandi». Bu, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, tarixiy o'lchovlarga ko'ra jadal sur'atlarda emas, balki misli ko'rilmagan shitob bilan yuz berdi. Bunda dunyoning yagonaligi tarixiy taraqqiyotni belgilovchi muhim omilga aylandi. Ikkinchi jahon urushi jahon hamjamiyatining parokandaligiga uzil-kesil chek qo'ydi. Urush tugagani zahoti K.Yaspers «Shu davrdan e'tiboran yaxlit bir butunning yagona tarixi sifatidagi jahon tarixi boshlanadi, deb qayd etdi. Endi butun dunyo asosiy muammo va vazifaga aylandi. Shu tariqa tarixning butunlay o'zgarishi yuz beradi. Dunyo mamlakatlari va xalqlari tutashdi. Yer kurrasi yaxlit va yagona tus oldi. Yangi xavflar va imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Barcha muhim muammolar dunyo miqyosidagi muammolarga, vaziyat – butun insoniyat vaziyatiga aylandi».

Borliq, ong, hayotning mazmuni azaliy falsafiy muammolariga va falsafada muttasil muhokama qilinadigan boshqa masalalarga hozirgi davr shu tariqa ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan, mutlaqo yangi mavzu – insoniyatning yagona taqdiri va Yerdagi hayotni saqlash mavzusini qo'shimcha qildi.

XX asrda fan va texnika sohasidagi aqlni lol qoldiradigan natijalar ta'sirida ilk texnokratik ijtimoiy nazariyalar paydo bo'ldi. Shulardan birining muallifi – amerikalik iqtisodchi va sotsiolog T.Veblen jamiyatning rivojlanishida sanoat ishlab chiqarishi va texnika taraqqiyotining yetakchi rolini birinchilardan bo'lib falsafiy jihatdan asoslab berdi. Uning fikricha, hozirgi zamon davlati muhandislar va texniklar tomonidan boshqarilishi lozim, chunki ishlab chiqarishni jamiyat manfaatlarida rivojlantirish (bu g'oya T.Veblen texnokratik nazariyasining mag'zini tashkil etadi) faqat ularning



qo'lidan keladi va siyosiy hokimiyat ularga ayni shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun kerak.

Shu davrda yangi tendentsiyalarga nisbatan boshqacha munosabatni ilgari suruvchi yondashuvlar ham paydo bo'ldi. Xususan, tabiat bilan jamiyatning o'zaro munosabati muammolarini anglab yetishda V.I.Vernadskiyning roli va u noosferani yaxlit umumbashariy hodisa sifatida tushunishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shunga o'xshash fikrlarni taniqli frantsuz faylasufi, teolog P.Teyyar de Sharden ham ilgari suradi. Biosferaning tarkibiy qismi sifatida insonning betakrorligini asoslashga harakat qilar ekan, u insonning tabiat bilan munosabatlarini uyg'unlashtirish konsepsiyasini rivojlantirdi va butun insoniyatning birlashishi yo'lida egoistik niyatlardan voz kechishga chaqirdi.

Shunday qilib, faylasuflar va olimlar XX asrning birinchi yarmidayoq nafaqat yangi davr – umumbashariy hodisalar davri boshlanayotganini, balki bu yangi sharoitlarda odamlar tabiiy va ijtimoiy stixiyaga faqat bahamjihat qarshilik ko'rsata olishi mumkinligini ham anglab yetdilar.

Ammo qayd etilgan qarashlar 60-yillarning boshlariga kelib texnokratik kayfiyatlarning yangi to'liqini bilan chetga surib qo'yildi va qariyb ikki o'n yillik mobaynida ominaviy ongga o'z ta'sirini yo'qotdi. Bunga urushdan keyingi davrda jahonning deyarli barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarini qamrab olgan sanoat yuksalishi sabab bo'ldi. 50-60-yillarda ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari G'arbda ham, Sharqda ham aksariyat mamlakatlar uchun porloq bo'lib tuyular edi. Ijtimoiy ongda har qanday dunyoviy va hatto koinot muammolarini fan va texnika yordamida hal qilish mumkin degan illyuziyani yaratgan texnooptimistik kayfiyatlar kuchaydi. Bunday qarashlar «iste'mol jamiyati»ni ijtimoiy rivojlanish maqsadi deb e'lon qilgan ko'p sonli nazariyalarda o'z aksini topdi. Ayni shu davrda «industrial», «postindustrial», «texnotron», «informatsion» jamiyatlarning turli konsepsiyalarini yaratish ustida faol ish olib borildi.

1957-yilda taniqli iqtisodchi va sotsiolog J.Gelbreyt «Serobgarchilik jamiyati» kitobini e'lon qildi va uning asosiy g'oyalarini keyinchalik o'zining «Yangi industrial jamiyat» deb nomlangan boshqa asarida rivojlantirdi. Uning asarlarida inson fan va texnika sohasida erishayotgan yutuqlarga ijobiy baho beriladi, mazkur

yutuqlar ta'sirida jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarida chuqur o'zgarishlar yuz berayotganiga e'tibor qaratiladi.

Taniqli frantsuz faylasufi R.Aron asarlarida, shuningdek, uning 1956-1959-yillarda Sorbonna universitetida o'qilgan ma'ruzalari, amerikalik siyosatshunos U.Rostouning 1960-yilda chop etilgan va o'z davrida shov-shuvga sabab bo'lgan «Iqtisodiy o'sish bosqichlari. Nokommunistik manifest» kitobida «industrial jamiyat» nazariyasi yanada to'laroq asoslab berildi.

Bu olimlar fikriga ko'ra, fan-texnika inqilobi ta'sirida «odatdagi» agrar jamiyat o'rnini sanoat jihatidan taraqqiy etgan «industrial» jamiyat egallaydi va bu yerda bozor sharoitida ommaviy ishlab chiqarish birinchi o'ringa chiqadi. Sanoatning rivojlanish va texnika yutuqlaridan foydalanish darajasi bunday jamiyat progressivligining bosh mezonlariga aylanadi.

Jamiyat hayotining barcha sohalariga kompyuterlarning keng joriy etilishi yangi nazariyalar, chunonchi: «postindustrial», «informatson» (D.Bell, G.Kan, J.Furaste, A.Turen), «texnotron» (Z.Bjezinskiy, J.J.Servan-Shrayber), «o'ta industrial», «kompyuter» (A.Toffler) jamiyati nazariyalari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ularda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy mezoni sifatida texnika yutuqlari, aniqrog'i faqatgina ular emas, balki fan va ta'limning rivojlanishi amal qiladi. Kompyuter texnikasi negizida yaratilgan yangi texnologiyalarning amalga joriy etilishi taraqqiyotning muhim mezoni hisoblanadi.

Amerikalik taniqli faylasuf va sotsiolog D.Bell bo'lg'usi ijtimoiy qurilish shakl-shamoyillarini belgilar ekan, hali Internet paydo bo'lishidan ancha oldin shunday degan edi: «Shunga ishonchim komilki, axborot va nazariy bilim postindustrial jamiyatning strategik resurslaridir. Bundan tashqari, o'zining yangi rolida ular hozirgi tarixning tub burilish nuqtalaridir».

D.Bell birinchi burilish nuqtasi sifatida hozirgi jamiyatda «umumiy bilim» sifatida asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga aylangan fan xususiyatining o'zgarishini qayd etadi. Ikkinchi burilish nuqtasi yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ular, sanoat inqilobi davri texnologiyalaridan farqli o'laroq, o'ta moslashuvchan va osongina qayta ixtisoslashtirilishi mumkin. U «Hozirgi texnologiya betakror va ayni vaqtda rang-barang natijalarga erishish uchun ko'p sonli muqobil yo'llar ochadi, hunda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish

mislsiz darajada o'sadi. Bular – imkoniyatlar, hamma gap ularni ro'yobga chiqarishda», deb qayd etgan edi.

Texnopessimizm fan texnika yutuqlari insoniyatni boshi berk ko'chaga olib kiradi va pirovardda u halok bo'ladi deb hisoblaydi. Ko'rib chiqilayotgan nazariyalarning ayrim tarafdorlari fan-texnika inqilobining salbiy oqibatlariga, xususan, atrof muhitning ifloslanishi muammolariga ma'lum darajada e'tibor bergan bo'lsalar-da, lekin, umuman olganda, ularning hech biri bundan 1980-yillarning o'rtalarigacha jiddiy tashvishga tushmadi. Chunki fan-texnika taraqqiyoti hamma narsaga qodir ekanligiga ishonch haddan tashqari katta edi.

Ayni zamonda 1960-yillarning oxirlaridan ekologik qiyinchiliklardan tashqari aksariyat davlatlar va hatto qit'alarga tahdid solgan boshqa muammolar: aholining nazoratsiz o'sishi, turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining notekisligi, xom ashyo resurslari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va boshqalar tobora bo'rtibroq namoyon bo'la boshladi. Tez orada ular fan va falsafa diqqat markazidan o'rin olib, qizg'in bahs va munozaralar predmetiga aylandi. Ko'rsatilgan muammolarni falsafiy tahlil qilish borasidagi dastlabki urinishlarning o'ziyoq texnokratik tendentsiyalarga zid bo'lgan, keyinchalik «texnologik pessimizm» deb nomlangan qarashlarni namoyon etdi. «Ekopessimizm», asosiy e'tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni yechish imkoniyatlari salbiy tusda ko'rilgan holdir.

Ko'pgina taniqli olimlar, xususan G.Markuze, T.Rozzak, P.Gudmen va boshqalar o'z o'tmishdoshlarini shafqatsiz stsentizmida, insonni fan va texnika quliga aylantirishga urinishda ayblab, fan-texnika taraqqiyotiga qarshi chiqdilar. Fan-texnika taraqqiyotiga va umuman ijtimoiy taraqqiyotga qarshi norozilikning yangi to'lqini yuzaga kela boshladi. Bu to'lqin ta'sirida paydo bo'lgan g'oyalar «aksiliste'mol» jamiyatini asoslashga harakat qilar va «o'rtacha odam»ni ozginaga qanoat qilish lozimligiga ishontirishga qaratilgan edi. Global muammolar paydo bo'lishining aybdorini topishga urinish jarayonida asosiy ayb «zamonaviy texnologiya»ga qo'yildi. Nafaqat fan yutuqlari, balki taraqqiyot g'oyasi ham shubha ostiga olindi. O'z davrida J.J.Russo ilgari surgan «tabiat bag'riga qaytish»ga chorlovlar

paydo bo'ldi, iqtisodiy rivojlanishni erishilgan darajada «to'xtatish» taklif qilindi.

Yuqorida qayd etilgan qarashlardagi tub burilish asosan Rim klubi faoliyati ta'sirida yuz berdi. 1968-yil Rimda o'zining birinchi majlisiga yig'ilgan olimlar, faylasuflar va jamoat arboblarning bu nufuzli xalqaro tashkiloti hozirgi davrning eng muhim umuminsoniy muammolari bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash va e'lon qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Bu tashkilotning 1972-yilda e'lon qilingan «O'sish chegaralari» deb nomlangan birinchi ma'ruzasiyoq juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi, chunki insoniyat o'zi anglamagan holda «poroxli bochka ustida o'tirib, gugurt o'ynayotgani»ni ko'rsatib berdi. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti Aurelli Pechchei mazkur tadqiqotga yozgan so'z boshisida shunday deb qayd etgan edi: «Endilikda ona-Erimiz har qanday o'sish sur'atlariga dosh berishga, insonning har qanday erkaliklarini ko'tarishga qodir ekanligiga sog'lom fikrlaydigan odamlarning birortasi ham ishonmaydi. O'sish chegaralari borligi ravshan, lekin ularning qandayligi va qayerdaligini hali aniqlash lozim». Mazkur ma'ruza mualliflari shunday aniqlash bilan shug'ullandilar. Olingan natijalarning muxtasar mazmuni shundan iborat ediki, sayyoramiz hajmining chegaralari muqarrar tarzda inson imkoniyatining chegaralarini ham nazarda tutadi; moddiy o'sish cheksiz darajada davom etishi mumkin emas; ijtimoiy rivojlanishning haqiqiy chegaralari moddiy omillar bilan emas, balki ekologik, biologik va hatto madaniy omillar bilan belgilanadi. Ular jahon rivojlanishi asosiy tendentsiyalarining kompyuter modelini tuzib, mazkur tendentsiyalar saqlangan holda uchinchi ming yillik boshidayoq insoniyat voqealar ustidan nazoratni butunlay yo'qotishi va natijada halokatga yuz tutishi mumkin, degan to'xtamga keldilar. Bundan ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish, tobora ko'payib borayotgan aholi sonini esa tegishli ijtimoiy siyosat yordamida barqarorlashtirish lozim, degan xulosaga kelindi.

Ma'ruza jahonning ko'plab tillariga o'girildi va dunyo bo'ylab keng tarqaldi, ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish g'oyasi tarafdorlari va muxoliflari o'rtasida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. So'ngra navbatdagi ma'ruzalar majmui (bugungi kunda ular yigirmatadan oshib ketdi) paydo bo'ldi. Bu ma'ruzalar umuminsoniy muammolarning ko'pgina jihatlarini yoritib berdi va ularga nafaqat

olimlar va faylasuflar, balki siyosatchilar, jamoat arboblari, umuman jahon hamjamiyati e'tiborini qaratdi.

### **Global muammolarning mezonlari**

Fan va falsafada global muammolarni yanada aniqroq tavsiflash uchun «geografik» mezondan tashqari bu muammolarni boshqa tomondan – ularning sifati, va muhim xususiyatlari nuqtayi nazaridan tavsiflovchi qo'shimcha mezonlar qo'llaniladi.

Birinchidan, global muammolar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ayrim kishilarning manfaatlariga, balki butun insoniyat taqdiriga daxldordir.

Ikkinchidan, ularni bartaraf etish uchun butun sayyora aholisi hech bo'lmasa aksariyat qismining kuch-g'ayratini birlashtirish va ular bahamjihat, izchil ish ko'rishi talab etiladi

Uchinchidan, bu muammolar dunyo rivojlanishining ob'ektiv omili hisoblanadi va biron-bir mamlakat ularni e'tiborga olmasligi mumkin emas.

To'rtinchidan, global muammolarning yechilmagani kelajakda butun insoniyat va uning yashash muhiti uchun jiddiy, balki tuzatib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Qayd etilgan mezonlardan tashqari ba'zan global muammolarning boshqa bir qator xususiyatlari ham ko'rsatiladi. Xususiyligini mahalliy va mintaqaviy muammolardan farqli o'laroq, global muammolar nisbatan turg'unroqdir. Ular globallikning yuqorida sanab o'tilgan barcha mezonlariga mos kelishdan oldin zimdan va uzoq shakllanadi, yechilishiga qarab esa (nazariy jihatdan) quyiroq darajaga tushib, dunyo miqyosida o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Ammo tendentsiyalarni teskari yo'nalishda o'zgartirish kamida butun jahon hamjamiyatining izchil harakatlarini talab etuvchi o'ta og'ir ish bo'lib, hali bunga erishilganicha yo'q. Global muammolar mavjudligining nisbatan qisqa tarixiga nafaqat ularning quyiroq darajaga tushishi, balki susayish hollari ham ma'lum emasligining sababi ana shundadir.

Global muammolarning boshqa bir muhim mezoni – ularning barchasi bir-biriga shu darajada bog'liqlik, ulardan birini yechish hech bo'lmasa, unga boshqa muammolarning ta'sirini hisobga olishni nazarda tutadi.

## Global muammolarning darajalari

Global muammolar butun dunyogagina tegishli bo'lmay, uning mintaqalari va hatto ayrim mamlakatlar darajasida namoyon bo'lgani bois, ilmiy adabiyotlarda ularning umuminsoniy ahamiyatini tan olish bilan bir qatorda, ularni mohiyati o'zgacha, ta'sir doirasi esa torroq bo'lgan ayrim, mahalliy, mintaqaviy muammolardan farqlash ham amalga oshiriladi. Turli darajadagi muammolarni «umumiylik», «xususiylik» va «yakkalik» falsafiy kategoriyalarining muayyan ifodasi sifatida o'rganar ekanlar, ularni odatda shunday talqin qiladilarki, xususiy muammolar ayrim muammolar sifatida, mahalliy va mintaqaviy muammolar – xususiy muammolar sifatida, global muammolar esa – umumiy muammolar sifatida amal qiladi. Zikr etilgan muammolarni farqlash zamirida yotuvchi asosiy mezon ham ayni shu yondashuvni belgilaydi. U geografik deb ataladi, chunki makon omilini yoki, boshqacha aytganda, muayyan muammolar mavjud hududni aks ettiradi.

Xususiy muammolar davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy ob'ektlarga tegishli bo'lgan muammolardir. Bular, odatda, turli avariyaalar, nosozliklar natijasida yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va sh.k.

Mahalliy muammolar tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu yerda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Milliy muammolar tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mintaqaviy muammolar ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi. Bunday muammolarga Sharqiy Yevropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan Chernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchi ancha katta hududlarda yuz bergan iqlim

o'zgarishlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, 1968-yilda Saxel mintaqasida yuz bergan qurg'oqchilik «asr falokati» degan nom oldi. U Afrika qit'asining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan ko'proq odam halok bo'ldi, taxminan 18 million bosh qoramol nobud bo'ldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari yuzaga keldi, bu ulkan mintaqa hududi esa deyarli to'la sahroga aylandi.

Global muammolar butun yer kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Yerning qolgan yuzasi, yer osti bo'shliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, global muammolar to'g'risida so'z yuritilganda butun sayyora nazarda tutiladi, uning eng yirik tarkibiy birligi sifatida esa mintaqa qabul qilinadi. Bunda mintaqalar soni va ularning miqyosi ko'rib chiqilayotgan muammolar xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, dunyo miqyosidagi iqtisodiy qoloqlik muammosini tadqiq etishda odatda butun sayyorani ikki mintaqa – rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratish bilan kifoyalaniladi. Demografik, energetik muammolar yoki xom ashyo muammolarini o'rganishda esa, mintaqalar soni ko'payadi va har safar tadqiqotning muayyan maqsadlari bilan belgilanadi.

Bunda shuni qayd etish lozimki, har qanday muammo sayyoraning istalgan mintaqasiga nisbatan muhim sanalgan, ya'ni ularning har birida namoyon bo'lgan holdagina global deb hisoblanishi mumkin. Aks holda bir yoki bir necha mintaqalarning muammolari (yoki bundan ham kichikroq miqyosdagi muammolar) to'g'risida so'z yuritiladi.

Bundan barcha global muammolar ayni vaqtda mintaqaviy ahamiyat ham kasb etadi, lekin mintaqaviy darajada aniqlangan barcha muammolar ham global bo'lavermaydi, degan xulosa kelib chiqadi. O'z-o'zidan ravshanki, global muammolar soni kamroq bo'ladi. Boshqa darajalarga kelsak, global muammolar bevosita mahalliy yoki xususiy ko'rinishga ega bo'lmasligi yoki bu yerda uncha sezilmasligi mumkin. Masalan, Antarktidada yoki sayyoramizning atrof muhit ifloslanadigan asosiy markazlari va manbalaridan ancha uzoqda joylashgan boshqa burchaklarida havo yoki suv havzalarining holati qoniqarli bo'lishi, tabiiy muhitga antropogen ta'sir esa deyarli sezilmasligi mumkin. Shunga qaramay bu keskinlik

darajasi tabiiy muhitga antropogen ta'sirning notekisligiga bog'liq bo'ladigan ekologik muammoning global xususiyatiga shak-shubha tug'dirmaydi. O'z navbatida, barcha mahalliy yoki xususiy muammolar global muammolar bilan bog'lanavermaydi, zero, ularning soni taqqoslab bo'lmaydigan darajada ko'proqdir. Keltirilgan mulohaza global va mintaqaviy muammolarni nafaqat ilmiy balki, amaliy jihatdan ham farqlash imkonini beradi, chunki barcha global muammolar o'z miqyosida o'zgarmaydigan yagona tizim – butun sayyoraga tegishlidir. Shu sababli mazkur tizim uchun ularning soni ma'lum tarixiy bosqichda muayyan hisoblanadi. Ayni vaqtda boshqa darajadagi muammolar sonining aniq hisobini yuritish mumkin emas, zero, mintaqalarning va turli hududlarning chegaralari tadqiqotning maqsad va vazifalariga qarab shartli olinadi.

### **Global muammolarning tasnifi**

Hozirgi zamonda global muammolarni tasniflashga nisbatan har xil yondashuvlar orasida ayniqsa keng e'tirof etilgan tasnifga muvofiq global muammolarning barchasi ularning keskinlik darajasi va yechimining ahamiyatiga, shuningdek real hayotda ularning o'rtasida qanday sababiy bog'lanishlar mavjudligiga qarab uch katta guruhga ajratiladi.

Birinchi guruh eng katta umumiylik va muhimlik darajasi bilan tavsiflanadigan muammolar. Ular turli davlatlar o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Ayni shu sababli ular interjittimoiy global muammolar deb ataladi. Bu yerda jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va adolatli dunyoni ta'minlash; yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish kabi ikki o'ta muhim muammo farqlanadi.

Ikkinchi guruh jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan muammolar bo'lib, ular odamlarni energiya, yonilg'i, chuchuk suv, xom ashyo resurslari va shu kabilar bilan ta'minlash kabilardir. Bu guruhga ekologik muammolar, shuningdek Jahon okeani va kosmik fazoni o'zlashtirish ham kiradi.

Uchinchi guruhni «inson – jamiyat» tizimi bilan bog'liq muammolar ya'ni demografiya muammosi, sog'liqni saqlash, ta'lim, xalqaro terrorizm tahdidi, ma'naviyat masalalari va shu kabilardir.

U yoki bu muammoning muayyan guruhga kiritilishi ma'lum darajada shartli xususiyat kasb etadi va muhim omillarga, ularni ajratish asoslariga bog'liq bo'ladi. Shu sababli har qanday tasnif masala yechimining uzil-kesil varianti sifatida emas, balki murakkab



tizimni qayta tuzishning global muammolar o'zaro aloqasi tabiatini yaxshiroq tushunishga ko'maklashadigan usullaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Endi butun insoniyatga jiddiy xavf tug'dirayotgan eng muhim muammolarga qisqacha tavsif beramiz.

### **Asosiy global muammolar tizimi**

Hozirgi davrning global muammolari o'z holatini zamonda tinimsiz o'zgartiradigan yagona, faol va ochiq tizim hisoblanadi, chunki unga umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan yangi muammolar kirishi, avvalgi muammolar esa ularning yechilishiga qarab yo'qolishi mumkin. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti A.Pechchei bu holatga e'tiborni qaratib, insoniyat qarshisida ko'ndalang bo'lgan aksariyat muammolar «bir-biri bilan mahkam chirmashib oldi, ulkan sprut changali yanglig' butun sayyorani o'z iskanjasiga olmoqda... yechilmagan muammolar soni o'sib bormoqda, ular yanada murakkabroq tus olmoqda, ularning chirmashuvi yanada chigallashmoqda, ularning «iskanjasi» esa sayyoramizni o'z changalida tobora qattiqroq siqmoqda», deb yozgan edi. Dunyo miqyosidagi jarayonlarga ta'sir ko'rsatish uchun odamlarning imkoniyatlari va resurslari cheklanganini hisobga olib, muammolarning qaysi biri darhol yechishni talab qilishi va qaysi biri ikkinchi darajali ahamiyat kasb etishini ham farqlash muhimdir.

Demografik muammo. Hozirgi zamonda insoniyatning eng muhim muammolari orasida, aksariyat davlatlar va mintaqalarda aholi haddan tashqari ko'payishiga sabab bo'layotgan aholining nazoratsiz o'sishi qayd etiladi. Ayrim mutaxassislarning baholashlariga ko'ra, sayyorada mavjud energetika, xom ashyo, oziq-ovqat va boshqa resurslar Yerda faqat 1 milliardga yaqin kishi («oltin milliard») munosib hayot kechirishini ta'minlashi mumkin. Vaholanki, oxirgi ming yillik mobaynida sayyoramiz aholisi 15 baravar ko'paydi va bugungi kunda 7,5 milliard kishidan oshib ketdi. Bunda nafaqat miqyos, balki aholining o'sish sur'atlari ham aqlni lol qoldiradi. Xususan, birinchi ikki baravar ko'payish 700 yil ichida, ikkinchisi – 150 yil ichida, uchinchisi – 100 yil ichida va oxirgisi – 40 yildan kamroq vaqt ichida yuz berdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XX asrning birinchi o'n yilligida Yer yuzida jami 1 milliard, 1956-yil Yerda 2,856 milliard, 1985-yilda 5 milliard aholi yashagan bo'lsa, XXI asrning 2020-yilida yer yuzida yashovchi aholining umumiy soni

7,5 milliarddan oshib ketdi. Futurologlarning fikricha, 2050-yilda yerda 15 milliarddan ortiq aholining yashashi bashorat qilinmoqda. O'zbekistonda 1991-yilda 19,5 million aholi yashagan bo'lsa, 2020-yilda ularning soni 33 milliondan oshdi.

Shu ta'kidlash lozimki, XX asrda Yer kurrasi aholisining «demografik portlash» deb nomlangan mislsiz darajada o'sishi biologik qonunlarning emas, balki stixiyali, notekis ijtimoiy rivojlanish va insoniyat katta mashaqqatlar bilan bartaraf etishga harakat qilayotgan chuqur ijtimoiy ziddiyatlar mahsuli bo'ldi. Bu avvalo rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bo'lib, ularga jahon aholisi o'sishining o'ndan to'qqiz qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Bu yerdagi vaziyat rivojlangan mamlakatlarga XX asr boshidayoq xos bo'lgan o'lim darajasining yuqoriligi va butun insoniyatga XVIII asrga xos bo'lgan tug'ilish darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda mehnat unumdorligi darajasi va aholi jon boshiga olinadigan daromad miqdoriga, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorlik darajasi va qishloq xo'jaligining samaradorligiga, aholining savodxonlik darajasi va umumiy madaniy saviyasiga ko'ra bu mamlakatlar xalqlarining aksariyati hali XIX asrda yashamoqda.

Demografik muammolar juda murakkab va o'ta turg'un bo'lib, ularni tez bartaraf etish mumkin emas. Ularni yechish kechga surilgani sari, yanada murakkabroq va chigalroq tus oladi. Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlarda barcha hukumatlar tug'ilish darajasini pasaytirishga qaratilgan demografik siyosatni amalga oshirishga harakat qilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda 1995-yilda "Oilani rejalashtirish" davlat dasturi qabul qilindi. Bu dasturda har bir oilada farzand tug'ilishini rejalashtirishning ona va bola sog'ligini asrashga yo'naltirilgan sa'y harakatlardan biri bo'lishi bilan bir qatorda, mamlakatda demografik portlashning oldini olish vazifasini bosqichma-bosqich amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bu borada barcha viloyatlarda, qishloq va ovullarda reproduktiv salomatlik bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholining o'rtacha yoshi erkaklar orasida 73, ayollar orasida 75 yoshga teng.

Mazkur muammo rivojlangan mamlakatlarda ham keskinlashdi, lekin bu yerda uning aks ko'rinishiga duch kelish mumkin. Umr uzunligining va keksa odamlar sonining o'sishi jarayonida hatto aholining oddiy ko'payishini ham ta'minlamaydigan tug'ilish

darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Ayni holda depopulyatsiya, ya'ni aholi sonining kamayishi to'g'risida so'z yuritiladiki, (Rossiya aholisi o'rtacha 54 yoshni tashkil qiladi,) bu ham milliy manfaatlar, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, pensiya ta'minoti va shu kabilarga tegishli qo'shimcha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Rossiyadagi so'nggi 20 yillikdagi demografik jarayonlar bunga yorqin misol bo'ladi. Biroq keyingi 10 yilda bu masalada ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, aholi soni ortishi va o'rtacha umrguzaronlik 4 yilga oshdi.

Demografik muammo urbanizatsiya bilan bog'liq. Urbanizatsiya (lotinchadan urbanus – shaharga oid, shaharlik) – shaharlarning jamiyat taraqqiyotidagi rolining ortib borishi, shahar aholisi sonining qishloq aholisi soniga nisbatan o'sishidir. Urbanizatsiyaning sabablari – shaharlarda sanoatning o'sishi, madaniy va siyosiy hayotning rivojlanishi, qishloq joylaridagi ishsizlik kabilardir. Urbanizatsiya qishloq aholisining shaharga, kichik shahar aholisining katta shaharlarga ko'chib o'tishi bilan xarakterlanadi. Shahardan qishloqqa ko'chib o'tish ruralizatsiya deb nomlanadi.

Urbanizatsiya jarayoni quyidagi omillarga ko'ra rivojlanadi: qishloq joylarining shaharlashuvi; keng shahar chekkasi zonalarining shakllanishi; qishloq joylaridan shaharlarga aholining migratsiyasi; tabiiy landshaftlarning sun'iy landshaftlar bilan almashinuvi, katta uy qurilishlari hisobiga tabiatning o'zgarishi tabiatning urbanizatsiyasi deb nomlanadi. Urbanizatsiya davlat tashkil bo'lishining muhim belgisidir.

Qishloq aholisining shaharlarga ko'chishi munosabati bilan ishchi kuchiga ehtiyoj ko'payib ketadi, bu esa ishsizlikka olib keladi. Ayni paytda industrial jamiyatdagi tug'ilishning kamayishi qishloq aholisining hisobiga tenglashadi. 2016-yil ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining yarmi ya'ni – 3,9 mlrd odam shaharlarda yashaydi va bu ko'rsatkich oshmoqda. Yolg'on urbanizatsiya Lotin Amerikasi, Janubiy sharqiy Osiyo va Afrika mamlakatlarida demografik portlash natijasida shakllanadi. Bu shahar aholisining qishloq aholisi hisobiga cheksiz ko'payishi, lekin turmush darajasining shahar sharoitlariga mos kelmasligi, ish o'rinlarining kamligi bilan belgilanadi. So'nggi 50 yilda kambag'allarning soni 35 miliondan 900 millionga yetdi. Keyingi 30 yilda bu ko'rsatkich ikki barobar oshishi prognoz

qilinmoqda. Prognozlarga ko'ra 2035-yilga kelib shaharlardagi dunyo aholisining yarmi kambag'allashadi.

Kambag'allik turli kasalliklarga olib keladi. Turmush sharoitlari og'irlashadi. Shaharlashish oqibatida ekologik muammolar keskinlashadi, xususan shaharlarda havo ifloslanishi keskinlashadi. Masalan, Xitoyda havoning ifloslanishi ikki barobar ko'paygan. Avto-transportning ko'payishi ham turli avtohalokatlarining ko'payishiga olib keladi. JSST ma'lumotlariga ko'ra har yili avto halokatlar oqibatida 500 ming kishi halok bo'lmoqda, 15 million kishi turli darajada jarohatlanmoqda. Jabrlanuvchilar asosan piyodalar va velosiped haydovchilari bo'lib tirik qolganlar nogiron bo'lmoqda.

**Ta'lim muammosi.** Demografik portlash sabablari ta'lim muammosi bilan uzviy bog'liq. So'nggi yillarda jahonda savodsizlar soni foiz hisobida kamaygan bo'lsa, mutlaq hisobda o'sishda davom etmoqda. Bunda ma'lumotsiz odamlarning hayoti amalda ko'p bolalikni xurofiy aqidalar bilan oqlaydigan arxaik oilaviy an'analarga bo'ysunadi. Pirovardda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovut bu jihatdan ham ortishda davom etmoqda. Hozirgi vaqtda: savodxonlik mutlaq raqamlarda o'sayotgan bir paytda, savodsizlar, ya'ni o'qish, yozish, oddiy arifmetik amallarni bajarishni bilmaydigan odamlar soni ham o'sib bormoqda (Hindiston aholisining 70%, Pokiston aholisining 60%, Afrika mamlakatlari aholisining 80% savodsiz).

Shu bilan bir qatorda aksariyat odamlarning ma'lumot darajasi yangi texnologiyalar va kompyuter texnikasidan keng foydalanuvchi hozirgi jamiyatda to'laqonli yashash va mehnat qilish imkonini bermasligi bilan bog'liq funktsional savodsizlik ham o'sib bormoqda.

Bu muammoning boshqa bir jihati shundan iboratki, jahonning aksariyat davlatlarida ta'lim olish imkoniyati barchaga teng darajada ta'minlanmagan, bu ijtimoiy keskinlikning qo'shimcha manbai hisoblanadi. Shuningdek hozirgi davrda ta'lim sifatini yaxshilash, uning mazmunini ijtimoiylashtirish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'limning ijtimoiylashuvi o'quv jarayonida gumanitar fanlarning o'quv soatlari yoki fanlar sonini ko'paytirish emas balki, tabiiy ilmiy fanlar mazmunini gumanitarlashtirish, har qanday ilmiy kashfiyotni inson

manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirishi lozim. Shundagina inson o'z mavjudligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida tub islohotlarning amalga oshirilishi aynan shu maqsadlarni o'zida ifodalaydi. Zero, insonning nafaqat bilim olishi, balki kasbiy malakalarga ega bo'lishi ijtimoiy savodsizlikni bartaraf qilishning muhim omili hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda, xususan, O'zbekistonda ta'lim tizimida tubdan islohotlar amalga oshirilishi jarayoni boshlandi. Oliy ta'limning sifati maktabgacha ta'lim tizimi bilan bog'liqligi aniqlandi. Masalan, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida – Daniyada 95 foiz, Germaniyada 92 foiz 3-6 yoshdagi bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya olgan bo'lsalar, 2016-yil holatiga O'zbekistonda 27 foiz bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya olishi aniqlandi. Shu bois, 2016-yil 29-dekabrda O'zbekiston Prezidentining maktabgacha ta'lim muassasalarining rivojlanishini yanada takomillashtirish chora tadbirlari bo'yicha qarori e'lon qilindi. 2017-yilda maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Har bir viloyatda 20 tadan xususiy Maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish jarayoni amaliyotga joriy etila boshladi. Ushbu sa'y – harakatlarning natijasi sifatida 2019-yilda O'zbekistonda 44,5 % bola maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etildi va bu jarayon davom etmoqda.

Agar sovet tuzumi davrida O'zbekistonda 20 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat olib borgan bo'lsa, 25 yil davomida ularning soni 82 taga yetdi. Biroq birgina 2017-2018-yillarda 23 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi. 2019-yil holatiga O'zbekistonda 116 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat olib bormoqda. Agar uzoq yillar davomida oliy malakali kadrlar tayyorlash jarayoni aholining 10-15 % tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunda bu ko'rsatkich 30% ga yetdi. Xalqaro hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi, xorijlik professor-o'qituvchilarning O'zbekiston ta'lim muassasalarida mahorat darslarini tashkil etish amaliyoti joriy etildi. Professor-o'qituvchilar va talabalarning akademik mobilligi tashkil etildi. Xususiy oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish jarayoni boshlandi. 2019-yildan oliy ta'lim tizimiga qabul kvotasining belgilanishi isloh etildi, ya'ni aholining barcha qatlamlarining oliy ta'limga ega bo'lish huquqiga cheklov olib tashlandi va tabaqalashtirilgan shartnoma to'lov

belgilandi. Demak, dunyo va O'zbekistonda ta'lim bilan bog'liq muammoni bartaraf etish hakmkorlikda amalga oshirilmogda.

Aholi soni va uning yashash sharoiti, shuningdek atrof muhit holati hozirgi davrning yana bir global muammosi sog'liqni saqlash bilan uzviy bog'liq. Aksariyat kasalliklar va atrof muhitdagi antropogen o'zgarishlar o'rtasida bevosita va bilvosita aloqa mavjud. Hozirgi odamlar avlodiga atrof muhit ifloslanishining hali o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan ko'p sonli fizik (avvalo, elektromagnit), kimyoviy va biologik omillari ta'sir ko'rsatmogda. Avvalo, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar aholisi kasalliklarining tarkibi va xususiyatida yuz bergan o'zgarishlar ayni shu hol bilan izohlanadi. Bu yerda yuqumli kasalliklar bartaraf etilgan bo'lib, ular odamlar o'limining asosiy sabablari hisoblanmaydi. Lekin yurak-qon tomir kasalliklari, ruhiy kasalliklar sezilarli darajada ko'paydi. «tsivilizatsiya kasalliklari» deb nomlangan butunlay yangi kasalliklar: rak, OITS va boshqalar paydo bo'ldi. Bunday kasalliklar, xususan, yurak-qon tomir kasalliklari o'sishining asosiy sabablari kam harakatchan turmush tarzi, semirish, chekish, ruhiy zo'riqish, stress holatlari ekanligi aniqlangan. Bu hodisalar insonga tabiatning qudratli kuchlarini jilovlash va o'zini jismoniy mehnatdan asosan xalos etish, mazkur ishni mashinalar, texnika vositalariga yuklab, o'ziga asosan aqliy mehnat, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini qoldirish imkonini bergan XX asr sivilizatsiyasining rivojlanish mahsulidir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqacha vaziyatni kuzatish mumkin: bu yerda kasalliklardan azob chekayotganlar soni rivojlangan mamlakatlardagidan ko'proq, kasallikning oldini olish yoki davolanish imkoniyati esa sezilarli darajada kamroqdir. Tibbiyot sifatining pastligi, qashshoqlik va antisanitariya tufayli rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar o'limi, bezgak, sil, traxoma, qoqshol bilan kasallanish darajasi, epidemik yuqumli kasalliklarning paydo bo'lish ehtimoli rivojlangan mamlakatlardagi holat bilan taqqoslab bo'lmaydigan darajada yuqoridir.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha yurak qon-tomir kasalliklari kun sayin ortib bormogda. Bunday kasalliklar aksariyat hollarda o'lim bilan tugaganligi sababli jamiyat uchun katta tahdid sanaladi. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hisobotiga ko'ra, 2005-yilda yurak qon-tomir kasalliklaridan 17,5 million inson vafot etgan. Ushbu ko'rsatgich barcha o'lim

holatlarining 30 foizini tashkil qiladi. Shu jumladan, 7,6 million kishi yurak ishemik kasalligidan 5,7 million kishi insult oqibatida hayotdan ko'z yumgan. Hozirgi vaqtda o'rnatilgan xalqaro aloqalar natijasida davlatlar o'rtasidagi ulkan yuk oqimlari, odamlarning faol migratsiyasi va kengaygan iqtisodiy munosabatlar olamshumul xususiyat kasb etdi va ko'pgina yuqumli kasalliklarning tarqalish tezligini oshirdi. Notipik zotiljam, qush grippi, cho'chqa grippi kabi ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan, yangi kasalliklarning paydo bo'lishi sabablarini ham ayni shu yerdan izlash lozim.

Ayni paytda shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, XX-XXI asrda yangi kasalliklar soni ko'payib borsa-da, kasalliklarga qarshi kurash vositalari ham takomillashib bormoqda. Jumladan, XXI asr fanining eng katta yutug'i sifatida 2008-yilda nemis olimi Xareld sur Xauzen (1936) ayollarda bachadon saratoni kasalligini "papiloma" virusi keltirib chiqarishini aniqlagan va unga qarshi emlash vositasini yaratgani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Dunyo bo'yicha umumiy saraton kasalligining 5%ini bachadon raki tashkil qilar, va har yili ikki yuz mingga yaqin ayollar shu kasallikdan bevaqt olamdan ko'z yumar edi. Ushbu kasallikka qarshi vaktinatsiyaning ommalashuvi yuzlab ayollarning sog'ligi garoviga aylanmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham 2009-yildan 12-14 yoshdagi qizlarda bachadon saratoni kasalligiga qarshi emlash ishlari keng amalga oshirilmoqda. Xareld sur Xauzenning kashfiyoti asr boshining eng buyuk kashfiyotlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda aholining reproduktiv salomatligi bo'yicha davlat dasturi qabul qilingan, unga ko'ra barcha viloyatlarda skrining markazlari tashkil qilindi, ona va bola salomatligining profilaktikasi, "tez yordam" markazlarining faoliyati yo'lga qo'yildi, aholini notipik gripp kasalligiga qarshi emlash ishlari rejali amalga oshirilmoqda. "Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida bolalarning 98 foizidan ortig'i oldini olish mumkin bo'lgan infeksiyalarga qarshi emlanmoqda. Buning natijasida difteriya, qizamiq kasalliklariga chalinish holatlari keskin kamayganini aytish darkor. 2010-yilda yuqumli kasalliklar bilan og'rish holatlari, jumladan, meningokok infeksiyasi 28 foiz, epidemik parotit 27 foiz, virusli gepatit 13 foizga kamaygan" bo'lsa, 2018-yil holatida virusli gepatit A 4,5%, o'tkir ichak kasalliklari 4,8%, o'tkir

respiroktiv shamollash kasalliklari 7,55 ga kamaydi. Darhaqiqat, 1997-yilda 1-sonli yuqumli kasalliklar ilmiy tadqiqot institutida yangi laboratoriyaning tashkil qilinishi O'zbekistonda (gepatit) odam organizmida sariq kasalligining nafaqat A va V virusi, balki S, D, Ye viruslarini aniqlash imkonini yaratdi. Sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish va rivojlantirish, o'ta og'ir yuqumli kasalliklarga barham berish hamda ularni kamaytirish borasida qat'iy choralar ko'rildi. O'zbekistonda, onalar o'limi darajasi 2 baravardan ko'proq, bolalar o'limi 3 baravar kamaydi, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshgacha, ayollarning umr ko'rishi esa 75 yoshgacha oshdi. Zamonaviy diagnostika texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanishning yo'lga qo'yilishi, surunkali sariq kasalligining oqibati bo'lmish jigar serrozining kamayishiga va aholining umumiy umrguzaronligini oshishiga olib keldi. Transplantologiya bo'yicha qonunning e'lon qilinishi natijasida 2018-yilda birinchi marta jigar transplantologiyasi amaliyotga joriy etildi. So'nggi 10 yil ichida O'zbekistonda yagona kardiologiya xizmati tarmog'ini yaratish, zamonaviy diagnostika va davolash usullaridan foydalanish imkoniyatining kengayganligi hisobiga infarkd miokard diagnozi bilan o'lim holati 10%ga kamaydi.

Hozirgi kunda yurak xastaligi bilan tug'ilgan chaqaloqlarga ham kardioxirurgik yordam ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yilib, ularning yashash imkoniyati oshdi, (ilgari faqat uch yoshdan keyin ularga jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan). Bugun shifokor olimlar Janubiy Koreya, AQSh, Germaniya, Italiya, Frantsiya, Hindiston kabi mamlakatlar shifokorlari bilan hamkorlikda faoliyat olib bormoqdalar. Respublika bo'yicha kardiomarkazlarning tashkil etilishi, koronografiya davolash usulidan keng miqyosda foydalanish natijasida yiliga minglab odamlar shifo topmoqda. Dunyoning juda kam mamlakatlari xosbislar tashkil qilingan. Uzoq yillar davomida O'zbekistonda xosbis (4 darajadagi rak diagnozi qo'yilgan bemorlarning og'riqsiz o'lish uchun sharoit) yo'q edi. Biroq 2017- 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib dastlab yurtimizda uchta "xosbis" (to'rtinchi darajadagi saraton kasalligi diagnostidagi odamlarning og'riqsiz o'lish uchun sharoit) tashkil etildi. Hozirgi kunda esa har bir viloyatdagi onkologiya kasalxonalarida xosbislar tashkil etildi. 2018-yilda O'zbekistonda 7 ta farmzona tashkil etildi.



Mahalliy dori darmonlarni ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga ularning narxlari arzonlashdi.

Biroq dunyo, xususan, O'zbekiston aholisining o'z salomatligiga nisbatan ijtimoiy faolligi va hushyorligi nihoyatda past, ya'ni bepul tashkil qilingan dispanserizatsiya amaliyotidan yetarli foydalanilmaydi. Inson sog'ligi barcha davlatlarda eng muhim muammolardan biri bo'lgan.

Yaponiya dunyoda aholisi uzoq umr ko'radigan mamlakatlar orasida birinchi o'rinni egallaydi, xususan, ayollarning o'rtacha yoshi 93, erkaklarning o'rtacha yoshi 83 ni tashkil qiladi. Zambiya aholisi eng kam o'rtacha umr ko'ruvchi mamlakat bo'lib, unda ayollar o'rtacha yosh 50 yil, erkaklar 40 yil yashashi mumkin. Sog'lomlashtirish va rehabilitatsiya ishlarining tashkil etilishi dunyo aholisining umrguzaronligining oshishiga olib keldi.

Ommaviy kasalliklar va umrning sezilarli darajada qisqarishi sabablaridan biri oziq-ovqat muammosi bilan bog'liqdir. Xususan, surunkali to'yib ovqat yemaslik va nomutanosib ovqatlanish kam rivojlangan mamlakatlar aholisida ommaviy tarzda namoyon bo'layotgan muttasil oqsil ochligi va vitamin taqchilligiga olib kelmoqda. Natijada jahonda har yili ochlikdan bir necha o'n millionlab odamlar, kattalardan ko'ra ko'proq bolalar halok bo'lmoqda.

Oziq-ovqat taqchilligiga duch kelgan mamlakatlar uni import qilishga majbur, lekin bu, odatda, ocharchilikka qarshi kurashda kam samara beradi va bundan tashqari, mazkur mamlakatlarni eksportchilarga qaram qilib qo'yadi. Shu tariqa g'alla ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tazyiq o'tkazishning samarali vositasiga va mohiyat e'tibori bilan, avvalo, eng qashshoq mamlakatlarga qarshi «oziq-ovqat quoli»ga aylanadi.

1960-yillarda oziq-ovqat muammosini yechish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun «yashil inqilob»ni amalga oshirish bilan bog'langan edi. Bu tadbiring mohiyati bug'doy va sholining o'ta unumli yangi navlaridan foydalanib, qishloq xo'jalik mahsuldorligini keskin oshirishdan iborat edi. Buning uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini zamonaviy texnologiyalar yordamida modernizatsiya qilish mo'ljallandi. «Yashil inqilob» aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda qabul qilindi, lekin amalda ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarga olib keldi. Qishloqni qayta tashkil etish uchun tegishli

ijtimoiy shart-sharoitlar va buning uchun zarur mablag'lar mavjud bo'lgan davlatlarda u ijobiy samara berdi. Ammo bunday mamlakatlar uncha ko'p emas, masalan, Hindiston, Pokiston shular jumlasidan. Xususan, Hindistonda har ikki boladan bittasi ochlikdan, har beshta boladan bittasi to'yib ovqat yemaganligi uchun turli kasalliklarga chalilib o'lmoqda.

Texnika va o'g'itlar xarid qilish uchun mablag'lar mavjud bo'lmagan, aholining ma'lumot darajasi juda past bo'lgan, turg'un an'analar va xurofiy aqidalar xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini amalga joriy etishga to'sqinlik qilgan o'ta qoloq mamlakatlarda esa «yashil inqilob» samara bermadi. Shuningdek, u odatdagi mayda xo'jaliklarni vayron qila boshladi, qishloq aholisining shaharga migratsiyasini kuchaytirdi. «Yashil inqilob» eski qishloq xo'jaligi o'rnida yangi, zamonaviy qishloq xo'jaligini barpo eta olmadi, ya'ni eski uyni buzib, uning o'rnida yangi imorat qura olmadi, bu esa oziq-ovqat muammosini yanada keskinlashtirdi.

O'zbekistonda bu muammoning yechimini topishga oqilona yondashildi. Paxta yakkahokimligiga chek qo'yilib, g'alla, sholi, chorma mollarini yetishtirishga alohida e'tibor qaratildi, qishloq infratuzilmasini takomillashtirish, qishloqqa sanoatni olib kirish, g'alla mahsulotlarini ishlab chiqish texnologiyalaridan unumli foydalanish yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda barcha viloyatlar kesimida aholini oziq ovqat bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturi qabul qilingan.

Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi. Dunyoda 200 dan ortiq mamlakat bo'lsa, ularda iqtisodiy o'sish sur'atlari turlicha. Yevropa va ba'zi Uzoq Sharq mamlakatlarida iqtisodiy o'sish darajasi yuqori bo'lsa, Afrika mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari nihoyatda past. Masalan, Gaiti dunyoning eng kambag'al mamlakati hisoblanadi. Shuningdek Sudan, Somali kabi mamlakatlarda ochlik hukm surmoqda.

Aholining turmush darajasini mamlakatning iqtisodiy siyosiy vaziyati va aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilish darajasi bilan bog'liq. Turmush darajasi tushunchasi hayot sifati hayot darajasi kabilari bilan bog'liq, bu esa aholining ish bilan ta'minlanganligi, ta'limi, sog'ligi, ma'ishiy hayoti kabilarni qamrab oladi.

Turmush darajasi insonning unga yaratilgan sharoitlardan foydalanish sifati darajasi va aholining o'z daromatlarini to'g'ri

taqsimlash imkoniyati bilan bog'liq. Turmush darajasi inson ongining rivoji uning tafakkur tarzida namoyon bo'ladi. XX asrning 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida aholining bo'sh vaqtlarida kooperativ va individual mehnat faoliyati uchun sharoit yaratildi. Bu odamlar turmush darajasidagi farqlarga, ba'zi hollarda bir guruh aholining cheksiz boyib ketishiga olib keldi. Turli qarindosh urug'lar vositasida daromatli joylarga mutlaqo nomunosib odamlarning ishga joylashishi amaliyoti rivojlandi.

Bu amaldorlarga pora berish hisobiga turli yuqori lavozimlarni sotib olish imkoniyatini berdi. Bu esa jamiyatning nafaqat axloqiy buzilishi, balki turli darajadagi jinoiy ishlarning keng ko'lamda rivojlanishiga, xususan, korruptsiya, poraxo'rlik, o'z xizmat lavozimini su'istemol qilish kabilarning ko'payishiga olib keldi. 90-yillarda jinoyatlar soni ko'paydi, mashina o'g'irligi, reket, xonadonlardagi o'g'irliklar va odam o'ldirish amaliyoti kuchaydi. Bu jamiyatning ma'naviy axloqiy ruhiga salbiy ta'sir etdi.

Jinoyatning iqtisodiy omillari umumiy iqtisodiy inqiroz sifatida baholandi, bu eng avvalo aholining iqtisodiy ehtiyojlari va imkoniyatlarining nomutanosibliigi, umumiy ishsizlik va inflyatsiya, aholining boylar va kambag'allarga ajralishi milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyaga kirishmaganligida o'z ifodasini topdi. Shu bois, rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish va yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish hozirgi davrning global muammolari orasida alohida o'rin egallaydi, chunki bu yerda vujudga kelgan xalqaro munosabatlar tizimi beqarorlashuvining kuchli omillari yashirinib yotadi. So'nggi yillarda dunyo miqyosida yalpi mahsulot ishlab chiqarish o'sgani holda, boylar va kambag'allar, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi ulkan tafovut yanada oshdi. Bu muammo ba'zan «boy Shimol» va «qashshoq Janub» o'rtasidagi qarama-qarshilik sifatida ham tavsiflanadi.

1960-yillarda aksariyat mamlakatlarning to'g'ridan-to'g'ri mustamlaka qaramligidan xalos bo'lish jarayoni yangi, lekin o'zgacha tusdagi qaramlik o'rnatilishiga olib keldi. Urushdan keyingi davrda jahon savdosining o'sishi va davlatlararo aloqalarning kuchayishi yuz berdi. Ayni vaqtda G'arb davlatlari iqtisodiyotida monopoliyalashuv jarayoni kuchaydi va transmilliy korporatsiyalar paydo bo'la boshladi. Ular arzonroq ishchi kuchi topish va atrof muhitni muhofaza qilishga

qo'shimcha xarajatlardan qutulish maqsadida mehnat sarfi katta bo'lgan va ekologik jihatdan iflos ishlab chiqarishlarni rivojlanayotgan mamlakatlarga eksport qila boshladilar. Bu hol, bir tomondan, rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda atrof muhitni himoya qilish uchun ommaviy harakatning faollashuvi va ekologik qonunchilikning yanada keskinlashuvi bilan, boshqa tomondan esa rivojlanayotgan mamlakatlar o'zining qashshoqligi tufayli, qat'iy ekologik me'yorlar va bu bilan bog'liq cheklov choralari joriy etishni o'ziga doim ham ep ko'ra olmasligi bilan izohlanar edi.

So'nggi o'n yilliklarda vaziyat yana rivojlanayotgan mamlakatlar zarariga o'zgara boshladi. Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat hayotining barcha jabhalariga va iqtisodiyotga kompyuterlar va mikroelektronika jadal sur'atlarda joriy etila boshladi. Shuningdek texnologik novatsiyalar va yangi (yuksak) texnologiyalar roli ham sezilarli darajada oshdi, bu esa ishlab chiqarishga ma'lumotli, malakali ishchi kuchini jalb qilishni taqozo etdi. Shu sababli iqtisodiy o'zaro aloqalar va jahon savdosi asosan iqtisodiy rivojlangan davlatlar o'rtasidagi almashinuv hisobiga amalga oshirila boshladi. rivojlanayotgan mamlakatlar esa, agar ular ko'p miqdorda xom ashyo resurslariga ega bo'lmasa, jahon bozorida siqib chiqarildi.

2018-yilda O'zbekiston voyaga yetmagan bolalar mehnatiga chek qo'yilishi munosabati bilan uchinchi davlatlar toifasidan chiqarilganligi eng katta yutuqdir (paxta terimi bilan bog'liq muammo). 2018-yilda aholi oylik maoshining 30% dan 100 % gacha ko'tarilishi, pensiya, stipendiyalar miqdorining ko'tarilishi, kam ta'minlangan oilalarga imtiyozli uylarning ajratilishi, 2017-2021-yillarda 15 mingta arzon va qulay uylarni qurib aholiga foydalanish uchun topshirish jarayonining bosqichma bosqich amalga oshirilayotganligi xalqni boy va baxtli qilish istagining amaliyotga joriy etilishining ifodasidir.

Yana bir global muammo – insoniyatni energetika va xom ashyo resurslari bilan ta'minlash xalqaro maydonda ko'p sonli ziddiyatlar, shu jumladan, harbiy mojarolar manbaiga aylandi. Bu resurslar moddiy ishlab chiqarishning negizi hisoblanadi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga qarab inson hayotida tobora muhimroq rol o'ynaydi.

Mazkur resurslar tiklanadigan, ya'ni tabiiy yoki sun'iy yo'l bilan tiklash mumkin bo'lgan resurslarga (gidroenergiya, yog'och,

quyosh energiyasi va sh.k.) va miqdori mavjud tabiiy zaxiralalar bilan chegaralangan tiklanmaydigan resurslarga (neft, ko'mir, tabiiy gaz, har xil rudalar va minerallar) bo'linadi. Hozirgi iste'mol sur'atlari saqlangan taqdirda tiklanmaydigan resurslarning aksariyati insoniyatga bir necha o'n yillardan bir necha yuz yillargacha bo'lgan muddat bilan o'lchanadigan yaqin kelajakda foydalanishgagina yetishi hisoblab chiqildi. Shuningdek mavjud zaxiralarning anchagina qismi murakkab sharoitda joylashgan konlarda jamlangan yoki nisbatan qashshoq rudalardan iborat.

Yaqindagina odamlar aksariyat foydali qazilmalarni ochiq usulda yoki 600 m dan oshmaydigan chuqurlikda qazib olgan bo'lsalar, bugungi kunda vaziyat sezilarli darajada o'zgardi. Qulay joylardagi foydali qazilmalar tugab bormoqda va endilikda 8-10 km chuqurlikda yoki okean tubida joylashgan konlarni ishga solish vazifasi paydo bo'lmoqda. Bu esa nafaqat ko'p miqdorda kapital qo'yilmalarni, balki ularni qazib chiqarish va qayta ishlash uchun yangi texnika va texnologiyalar yaratishni ham taqozo etadi. Shu sababli chiqindisiz texnologiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda insoniyat ixtiyorida mavjud resurslardan oqilona foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda O'zbekistonda energiya resurslaridan foydalanish amaliyoti davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

2018-yilda O'zbekiston va Rossiya hamkorligida Markaziy Osiyoda birinchi tinchlik maqsadlarida foydalanilishi rejalashtirilgan ikki blokdan iborat atom elektrostansiyasining qurilishi boshlandi va u 2028-yilda ishga tushirilishi ko'zda tutilmoqda.

Jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va Yerdagi mustahkam tinchlikni ta'minlash butun dunyoda mavjud barcha global muammolar orasida eng muhimi deb e'tirof etiladi. Uning keskinligi barcha zamonlarda hech qachon pasaymagan bo'lsa-da, XX asrda u nafaqat ayrim kishilar, xalqlar, balki butun insoniyat oldiga «o'lish yo qolish?» degan mudhish savolni qo'yib, alohida, fojieviiy mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Bu hol ilgari mavjud bo'lmagan imkoniyat – Yerdagi hayotni yo'q qilish imkoniyatini yaratgan yadro quroli paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Yadro quroli 1945-yil avgustda (Xirosima va Nagasaki) ilk bor qo'llanilgan paytdan e'tiboran mutlaqo yangi davr – inson hayotining barcha jabhalari: siyosat, iqtisod, tafakkurda, jahon

maydonidagi kuchlar nisbatida tub o'zgarishlar yasagan yadro davri boshlandi. Ammo muhimi shundaki, mazkur davrdan e'tiboran nafaqat ayrim inson, balki butun insoniyat o'lishi mumkin bo'lib qoldi. Teyyar de Sharden yangi vaziyatga baho berar ekan, shunday deydi: «Bir individ o'lsa, uning o'rnini doim boshqa bir individ egallaydi. Individning o'limi hayotning davom etishiga to'siq bo'la olmaydi. Ammo butun insoniyat o'lsa-chi?». 1940-yillarning oxirida ta'riflangan bu masala vaqt o'tishi bilan ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi. Atom bombasi paydo bo'lishi bilan «qiyomat-qoyim» xom-xayol bo'lmay qoldi. O'sha davrda yangi ixtironing butun xavfini ko'pchilik hali tushunmagan, ayrim faylasuflar va olimlar yadro urushi tahdid solayotgan sharoitda odamlar o'zining o'zgargan holatini anglab yetishlari va insoniyat halok bo'lishining oldini olish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishlari lozimligi haqida ogohlantirgan edi. Albatta, o'zini o'zi qirib tashlash imkoniyati odamlarda darhol paydo bo'lgani yo'q. Yadro qurolini yaratish va uni butun tiriklikni qirib tashlash uchun yetarli miqdorda jamg'arish uchun vaqt, juda katta moddiy, moliyaviy va boshqa xarajatlar, shuningdek jahonning turli mamlakatlaridagi olimlar, muhandislar va ishchilar ko'p millionli armiyasining kuch-g'ayrati talab etildi. Ammo birinchi yadro portlashlaridan so'ng yuzaga kelgan vaziyatning jiddiyligini jahon hamjamiyatining keng davralari anglab yetishi uchun ham qariyb 30 yil vaqt o'tishi kerak bo'ldi.

AQSh va Sovet Ittifoqida bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda ish olib borgan olimlar ikki jamoasi tadqiqotlarining aqlni lol qoldiruvchi natijasi bo'lgan «yadro qishi» konsepsiyasi paydo bo'lgan 1980-yillarning boshiga kelibgina insoniyat yadro quroli yaratilishi, shuningdek global muammolar paydo bo'lishi bilan u o'zining avvalgi «umrboqiyli»ni yo'qotganini uzil-kesil anglab yetdi.

Kompyuterda yaratilgan modellarda ancha aniq hisoblab chiqilgan mazkur konsepsiyaning asosiy mazmuni shundan iboratki, jahonda Yerdagi hayotni butunlay yo'q qilish uchun yetarli miqdorda yadro zaryadlari to'plangan. Ular portlatilgan taqdirda to'g'ridan-to'g'ri shikastlantiruvchi ta'sirdan tashqari havoga son-sanoqsiz miqdorda chang, tutun va kul ko'tariladi va ularning qalin pardasi sayyoramizni quyosh nurlaridan butunlay to'sib qo'yadi. Bu atmosfera va Yer yuzasining temperaturasi keskin pasayishiga sabab bo'ladi va uni muz bosishiga olib keladi. «Yadro qishi» konsepsiyasi

odamlarni ular yangi xavf darajasini anglab yetishga va sivilizatsiyani qutqarish uchun harbiy kuch ishlatishdan voz kechib, choh yoqasidan uzoqlashishga qodirmi, degan savolga javob berishda muqobildan uzil-kesil mahrum qildi.

Muhokama qilinayotgan muanimoning boshqa bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u ekologiya bilan uzviy bog'liq. Biz fan-texnika taraqqiyoti darajasi ekologik tanglikni bartaraf etish borasidagi imkoniyatlarini tan olmoq lozim, ammo qurol-yarog'larning vayronkor imkoniyatlari, ularning shakllari, qo'llash metodlari va usullarining rang-barangligi ham ayni shu darajaga bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, inson o'z hayotini tabiat bilan uyg'unlikda yo'lga qo'yish imkoniyatlarini qo'lga kiritish bilan bir qatorda butun tiriklikni yo'q qilish qobiliyatini ham ko'p karta oshirdi. Jamiyatning harbiylashuvi, qurollanish poygasi va harbiy mojarolarning salbiy oqibatlari atrof muhitning buzilish jarayonlarini yanada jadallashirmoqda. Yadro quroli bilan bir qatorda urush olib borishning «geografik» vositalari ham oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlardan iborat alohida xavf tug'diradi. Bu oqibatlar inson sun'iy yo'l bilan tabiiy ofatlar, vayrongarchiliklar va shu kabilarga erishish maqsadida tabiiy jarayonlarga izchil ta'sir ko'rsatishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Urush harakatlari olib borishning bunday usullari, masalan muayyan hudud ustidagi ozon qatlamini ataylab vayron qilish va shu kabilarda yadro qurolining qo'llanilishi bilan teng oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda harbiy qarama-qarshilik ma'lum darajada susayganiga qaramay, aksariyat mamlakatlarda mudofaa va atrof muhitni muhofaza qilish xarajatlarida ulkan nomutanosiblik hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Bu tafovut mudofaa foydasiga ba'zan ellik baravar va undan ko'proq darajaga yetadi. Bu hol «uchinchi dunyo» mamlakatlarida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Bu yerga, bir tomondan, qurol-aslaha, boshqa tomondan esa – murakkab ekologik vaziyatni yanada og'irlashtiruvchi eskirgan asbob-uskuna va noekologik texnologiyalar tobora ko'proq yetkazib berilmoqda. Natijada ifloslanish va tabiatning zavol topish sur'atlari bu yerda rivojlangan mamlakatlardagidan ancha yuqoridir.

Qurollanish poygasi nafaqat ulkan moddiy resurslarni, balki mehnat resurslari, intellektual resurslarni ham behuda sarflamoqda. Butun dunyoda olimlarning to'rtidan bir qismi, odatda, eng malakali

kadrlar urushga tayyorgarlik ko'rish borasidagi ishlarga jalb qilingan bo'lib, ularning bilim va ko'nikmalari vayronkorlik vositalarini yaratishga yo'naltirilgan. Ammo olimlar insoniyat duch kelgan xavf darajasini birinchi bo'lib (ularning eng ilg'or vakillari) anglab yetdilar.

Qurollanish poygasi avj ola boshlagan 1955-yilda taniqli ingliz faylasufi B.Rassel tinchlik va qurolsizlanish uchun kurash tashabbusi bilan chiqdi. U A.Eynshteyn bilan hamkorlikda F.Jolio-Kyuri, M.Born, S.Pauell, L.Infeld va boshqa yirik olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan mashhur Manifestni e'lon qildi. Bu Manifestda insoniyat unga tahdid solayotgan xavf haqida ogohlantirildi, shuningdek yadro asrida sivilizatsiyani asrab qolish uchun «yangicha fikrlashni o'rganish» lozimligi uqtirildi.

B.Rassel nafaqat xavf-xatarlar haqida ogohlantirdi, balki ularni yechish yo'llarini ham taklif qildi. Xususan, u barcha urushlarga chek qo'yishi lozim bo'lgan jahon hukumatini tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, BMT bunday hukumat negizi bo'lishi mumkin. U shuningdek davlatlar o'rtasidagi nizoli masalalarni tinch yo'l bilan yechish uchun jahon konferentsiyasi chaqirishni talab qildi. Tinchlik, qurolsizlanish va xalqaro xavfsizlik uchun kurash boshlagan jahon ilmiy hamjamiyati bu borada o'z kuch-g'ayratini birlashtirish lozimligini anglab yetdi va 1957-yilda Pagoush (Kanada)da o'z tarafdorlarining birinchi konferentsiyasini o'tkazdi. Pagoush harakati deb nomlangan bu tashkilot tinchlik uchun kurash olib boruvchi nufuzli xalqaro tashkilotlardan biriga aylandi. Endilikda unga hozirgi globallashuv muammolari va nomutanosibliklarini bartaraf etish yo'lida kurash olib borayotgan boshqa ko'p sonli tashkilotlar va harakatlar (Gripis, Rim klubi, antiglobalistlarning harakatlari va boshqalar) qo'shildi. Tinchlik va qurolsizlantirish, xalqaro terrorizmga qarshi birgalikdagi kurash g'oyasini 2017-yilda Sh.Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida taklif qildi.

Terrorizm (lat. terror – qo'rquv, dahshat) – doimiy terror harakatlari qo'llaniladigan siyosat. Terror so'zining sinonimlari zo'ravonlik, qo'rqitishdir. Terrorizm zo'ravonlik siyosati zo'ravonlik mafkurasi va ijtimoiy ongga ta'sir qilish vositasi, davlat hokimiyati va mahalla boshqaruv organlari va xalqaro tashkilotlarning qarorlar qabul qilishiga kuch ishlatish orqali ta'sir, aholini qo'rqitish va boshqa noqonuniy harakatlar amaliyotida o'z ifodasini topadi. Eng qadimgi



davrdagi terrorchilik harakatlaridan biri eramizdan oldingi 340-yilda Aleksandr Makedonskiyning otasi Filipp II ning o'ldirilishidir.

AQSHda tinch aholiga qarshi yo'naltirilgan qasddan uyushtirilgan zo'ravonlik sifatida XX asrning 60-yillarida terrorizmning alohida shakli xalqaro terrorizm paydo bo'ldi.

Sub'ektlar maqomiga ko'ra uyushmagan yoki individual terrorizm va uyushgan jamoa shaklidagi terrorizm farqlanadi. Individual xarakterdagi terrorizmda bir yoki ikki kishi ishtirok etadi, uning orqasida hech qanday jinoiy guruhlar turmaydi. (Masalan, Norvegiyaning Oslo shahridagi terroristik harakat, 1981-yilda AQSH Prezidenti Ronald Reganga suiqasd va boshqalar). Jamoa shaklidagi uyushgan terrorizm muayyan tashkilot tomonidan rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Masalan, eserlar, IRA, Al-Qoida, ISHID va b.). Uyushgan terrorizm hozirgi davrda eng keng tarqalgan terrorizm shakli hisoblanadi.

Maqsadiga ko'ra milliy va diniy terrorizm farqlanadi. Milliy terrorizmda separatizm va milliy ozodlik harakatlari ko'zda tutiladi.

Diniy terrorizm – turli din vakillarining o'zaro kelishmovchiligi (musulmonlar va induslar, musulmonlar va jugutlar) va bir din vakillarining (katolik va protestantlar, sunnitlar va shiitlar) o'zaro diniy maqsadlaridagi ziddiyat tufayli amalga oshiriladi va unda amaldagi hokimiyatni ag'darish va o'z diniy hokimiyatini o'rnatish g'oyasi ustivordir.

Mafkuraviy ijtimoiy terrorizm – mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy tizimni qisman o'zgartirish jamiyatning e'tiborni muayyan muammoga qaratishda namoyon bo'ladi (Masalan anarxizm, fashizm, eserchilar).

Davlat terrorizmi – atamasi odatda fuqarolarga nisbatan ishlatiladigan davlat darajasidagi zo'ravonlik bo'lib, davlat terrorizmida politsiya va boshqa huquq tartibotni saqlash organlari vakillari tomonidan aholining sud va tergovsiz noqonuniy hibsga olinishi, qasddan o'ldirilishi, qiynoq, o'g'irlash va boshqalar kiradi. Davlat terrorizmi shuningdek davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladigan terroristik hujumlardir. (Stalinizm davridagi qatag'on).

Davlat tomonidan qo'llab quvvatlanadigan terrorizm ham faqlanadi. Bunda terroristik harakatlarda ishtirok etmasdan uni amalga oshiradigan terroristik guruhlarini moliyalashtirish nazarda tutiladi.

Xalqaro terrorizm – turli millat vakillaridan tashkil topgan bir nechta terroristik guruhlarning birikuv natijasida dunyo darajasida amalga oshiriladigan terroristik harakatlar (IShID).

Mintaqaviy terrorizm–bitta mintaqa doirasida amalga oshiriladigan harakatlar. Masalan, Rossiyaning turli hududlaridagi terroristik harakatlar; Hududiy terrorizm – bitta davlatning muayyan hududida amalga oshirilgan terroristik harakatlar. Masalan 1999-yil Toshkentdagi, 2005-yil Andijondagi voqealar.

Terrorizmga qarshi kurashning progressiv va konservativ usuli bor. Konservativ usul terrorchilarning talablarini qisman qondirish va garovga olinganlarni ozod qilish uchun vaqtdan yutishni koʻzda tutadi.

Hech qanday murosasiz terrorchilik guruhini tubdan yoʻqotish terrorizmga qarshi kurashning progressiv usulidir.

Diniy ekstremizm – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Ularning asosiy maqsadi turli terroristik harakatlar bilan jamiyatda beqarorlikni shakllantirish millatlararo nizolar asosida ommaviy tartibsizlikni yuzaga keltirishdan iborat.

Fanatizm oʻz aqidasiining shak-shubhasiz toʻgʻriligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorizimga zamin tayyorlaydi.

Fundamentalizm – maʼlum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yoʻl bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yoʻnalishlaridan biri.

Diniy fundamentalizm – muqaddas kitoblar maʼnosini mantiqiy dalillar asosida oʻrganishni emas, balki soʻzma-soʻz qiroat qilindigan fikrning harfiy bayonini tan oladi. Bu muayyan diniy eʼtiqod shakllanishining boshlangʻich davrida belgilangan barcha yoʻl-yoʻriqlarni qatʼiy va ogʻishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qoʻllaniladi.

Fundamentalizm iborasi ilk bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantizmdagi ortodoks oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910-yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning anʼanaviy aqidalariga, ayniqsa, Injilning mutlaq mukammalligiga ishonchni mustahkamlash-

ni, uni soʻzma-soʻz sharhlashga qatʼiy rioya qilishni talab qiladilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqaldi va 1919-yilda Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari uyushmasiga asos solindi.

XX asming 70-yillaridan boshlab esa bu soʻz islomga nisbatan qoʻllanila boshlandi. Islom fundamentalizmi zamonaviy islomdagi uch yoʻnalishdan biridir (qolgan ikkitasi – traditsionalizm va modernizm). Islom fundamentalizmining asosiy gʻoyasi – «sof islom» tamoyillariga qaytish, maqsadi «islomiy taraqqiyot» yoʻlini joriy etishdir. Markaziy Osiyodagi respublikalar oʻz mustaqilligiga erishishi va uning mustahkamlanishi davrida «islom omili», «islom uygʻonishi», «qayta islomlashish», «islom fenomeni» kabi iboralar koʻproq ishlatilib, bu hol ularning beqiyos faollashuvini oʻzida aks ettirdi. Bunga sabab sobiq sovet davlatining mafkuraviy tasavvurlari va qadriyatlarining yemirilib, muayyan vaqt davomida hosil boʻlgan maʼnaviy boʻshliqni toʻldirish ehtiyoji boʻldi. Oʻzbekistonga nisbatan islom fundamentalizmining tahdidi aqidaparastlikni yoyish, bu yoʻl bilan musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yoʻqotishga urinishda oʻzini namoyon etmoqda. Bunday guruhlar mustahkamlanib borayotgan umummilliy birdamlik va hamjihatlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikka rahna solishga harakat qilmoqdalar. Demokratiya va dunyoviy davlat tushunchalarini, eʼtiqod erkinligiga asoslangan koʻp konfessiyali dunyoviy jamiyatni obroʻsizlantirishga yoʻnaltirilgan saʼy-harakatlarni amalga oshirmoqdalar. Hozirgi davrda vahobiylik, al-ixvon al-muslimun, Hizb at-tahrir kabi islom fundamentalizmi oqimlari faoliyat olib bormoqda.

“Kamikadze” yapon tilidagi “kami” – “xudo”, “kadze” – “shamol” soʻzlarining umumlashmasi hisoblanib, oʻzbek tiliga tarjima qilinganda “ilohiy shamol” maʼnosini anglatadi. XX asming 1944-yil 24-oktyabrda Kiyosi Ogavo boshchiligidagi birinchi yapon uchuvchilaridan kamedkadze otryadlari tashkil etilgan, 1944-yil 21-oktyabrda AQSh harbiy kemalariga hujum boshlangan. Jami 3 ming 193 ta yapon harbiy uchuvchilari oʻz ixtiyori bilan shamoldek AQSh samoletlarini portlatgan.

Dastlab vatanparvarlik ruhi singan ushbu tushuncha asta-sekinlik bilan butun dunyoga keng tarqalgan va hozirgi kunda ixtiyoriy oʻlim maʼnosi bilan almashgan. Bugungi kunda diniy-ekstremistik guruhlar oʻz maqsadlariga erishish uchun ayol kamekadzelaridan foydalanmoqdalar.

Odamlarning diniy ekstremizm, fundamentalizm va g'arbons missionerlik guruhlariga qo'shilib ketishi bu faqat johiliyat, ilmsizlik, e'tiqodsizlik oqibatidir. Shu bois, yoshlarning bo'sh vaqtlarini nazoratga olish, ulami milliy qadriyatlarga vafu va sadoqat ruhida tarbiyalash, buyuk mutafakkir ajdodlarimizning ma'naviy meroslarini o'rgatib borishga alohida e'tibor talab qilinadi.

Hozirgi paytda Internet tarmog'ida 170 mingdan ortiq barcha radikal islom tashkilotlarining saytlari bor. Masalan, Tolibon harakati, islom najot fronti, Islom guruhi (Al-Jamaa al-islomiya), Islom ozodlik partiyasi (hizbut-tahrir al-islomiya), Muhojirlar (Al Muhojirun), Yahudiylar va xochparastlarga qarshi kurash xalqaro islom fronti ana shular jumlasidandir. Sanab o'tilgan saytlarning ko'pchiligi Internetda o'ziga xos tarmoqni tashkil qiladi. U, o'z yo'nalishi jihatidan, virtual jihoddur. Saytlarning ko'pchiligi jihod g'oyalarini, g'arbg'a qarshi hamda islom mamlakatlaridagi islomdan chekinganlikda ayblanayotgan hukmron tuzumlarga qarshi kurash g'oyalarini tarqatmoqda.

Islom ota-bobolarimizdan qolgan qadriyatdir. U biz uchun ham imon, ham diyonat qonunlarining majmuasidir. Darhaqiqat, davlatimiz diniy qadriyatlarimizni tiklab, 1991-yilda va 1998-yilda vijdon erkinligi haqidagi qonunlar qabul qilindi. 1999-yil 7-aprelda "Toshkent Islom universitetini tashkil etish to'g'risida"gi, 2017-yilda Xalqaro islom akademiyasini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni e'lon qilinishi aholiga islom dinining ma'rifiy ilmiy asoslarini o'rgatish, shuningdek, islom dinining asl mohiyatini aholi turli qatlamlari ongiga yetkazuvchi yetuk mutaxassislarni tayyorlashga yo'nalgan.

### **Korrupsiyaning globallashuvi.**

Har qanday jamiyatda korrupsiya amal qiladi, jamiyat taraqqiy etgani sari korrupsiya ham rivojlanadi, uning ildizlari esa ibtidoiy odamlar davriga, qabila oqsoqollari yoki kohinlar marhamatini qozonish maqsadida ularga hadyalar qilish odatiga borib taqaladi. Masalan, qadim davrlarda ham, qabila boshlig'iga qimmatbaho sovg'a etgan odam boshqalarning orasida alohida ajralib turishiga sabab bo'lgan va uning iltimosi bajo keltirilishi uchun imkoniyat yaratgan. Shu sababli, ibtidoiy jamoalarda kohin yoki qabila oqsoqoliga haq berish tabiiy bir hol hisoblangan, bu esa shaxslararo munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida avloddan avlodga o'tib kelgan. Poraxo'rlik (pora evaziga og'dirish) uchun jazo Xammurapi qonunlarida to'rt

ming yil muqaddam, Misr fir'avlari tomonidan belgilangan. Qadim zamonlarda qorilarning pulga sotilishi, jiddiy tashvish uyg'otgan, chunki bu mulkning g'ayriqonuniy qayta taqsimlanishiga va nizoni huquqiy doiradan tashqarida hal etish istagiga turtki bergan.

Dunyoviy dinlarda korrupsiyaning barcha turlari orasida qorilarni pora evaziga og'dirish ayniqsa qattiq qoralangan. Xususan, Injilda shunday deyilgan: "Hadyalarni qabul qilma, zero, hadyalar ko'zi ochiqlarni ko'rga va haqni nohaqqa aylantiradi". Qur'onda shunday deyiladi: "Bir-biringizning mol-mulkingizni qonunga xilof ravishda o'zlashtirmang va boshqa odamlar mulkinging bir qismini o'zlashtirib olish uchun qozilarga pora bermang". XX asrning oxirida korrupsiya yangi qiyofa va yangi munosabatlar tizimida yanada rivojlandi. Shu bois, O'zbekistonda BTM homiyligida "Axloq kodeksi" (1996-yil), "Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash haqidagi deklaratsiya" (1997-yil), "Mintaqalararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konvensiyasi" (2000-yil) kabi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Korrupsiya dunyo miqyosida keng kamrovda rivojlanayotganligini hisobga olib, unga qarshi kurash vositalaridan biri sifatida ushbu muammoni ta'lim tizimida tizimli o'qitish bo'yicha tegishli qaror qabul qilindi. 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasi-ning "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni e'lon qilindi: Nima uchun? Shuning uchunki, korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga xavf solayotgan global illatlardan biri sifatida global tus olmoqda.

Xususan, dunyo bo'yicha korrupsiya indeksini tadqiq etish bilan shug'ulanuvchi nodavlat Transparency International kompaniyasining 2019-yilgacha bo'lgan ma'lumotiga ko'ra, umumiy hisobda dunyo bo'yicha korrupsiya indeksi 43%ni tashkil qiladi. Daniya, Norvegiya, Finlyandiya, Shvetsiya va Yangi Zelandiyada korrupsiya holati 10-15% foizni tashkil etsa, Somali, Janubiy Sudan, Shimoliy Koreya, Suriya va Yaman davlatlarida (85-90%) eng baland korrupsiya indeksleri aniqlangan.

Darhaqiqat, korrupsiya jinoyatchiligini jahon ma'rifati davlatlarining aksariyatida mavjud bo'lgan jinoyatchilikning an'anaviy va ancha keng tarqalgan turi deb nomlash mumkin. Har qanday murakkab ijtimoiy hodisa singari, korrupsiya tushunchasining ham umume'tirof etilgan yagona ta'rifi mavjud emas. Eng ko'p tan olingan ta'rifi quyidagicha: korrupsiya (lotincha corrumpere -

buzmoq soʻzidan olingan boʻlib) – mansabdor shaxs oʻz hokimiyat vakolatlari va oʻziga berilgan huquqlardan belgilangan qonunlar va qoidalarga zid ravishda shaxsiy naf koʻrish maqsadida foydalanishidir.

Jozef Senturiyaning korrupsiya tushunchasiga bergan eng qisqa taʼrifi “korrupsiya shaxsiy naf koʻrish maqsadida ommaviy hokimiyat vakolatlarini suiisteʼmol qilishi”dir. Tomas Gobbs taʼbiri bilan aytganda, korrupsiya shunday bir ildizki, barcha zamonlarda undan hamma qonunlarga nisbatan nafrat kelib chiqadi. Sotsiologlar, menejmentlar, iqtisodchilar, huquqshunoslar va oddiy fuqarolar bu tushunchani har xil talqin qiladilar. Masalan, sotsiologlar, korrupsiya – bu “hokimiyat vakillari oʻzlarining qonunga xilof shaxsiy manfaatlari yoʻlida kutilayotgan xulq-atvor standartlaridan voz kechishidir” deb hisoblasa, menejmentlar esa, korrupsiya – bu “biron-bir jiddiy shaxsiy naf koʻrish maqsadida bajariladigan gʻayriqonuniy, qoida tariqasida qoralanadigan harakatdir” deb taʼkidlaydi. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida sanab chiqilgan jinoyatlarning aksariyati mazkur taʼrif bilan mos keladi. Huquqshunoslar “Keng maʼnoda korrupsiya – bu ommaviy boshqaruv apparatini oʻz komiga tortgan, hokimiyatning buzilishida, davlat va munitsipal xizmat xodimlari, davlat funktsiyalarini bajarishga vakolatli boshqa shaxslar oʻz xizmat mavqei, maqomi va egallagan lavozimining obroʻsidan tamagirlik maqsadida, shaxsiy boylik orttirish uchun yoki guruh manfaatlarida qasddan foydalani-shida ifodalanadigan ijtimoiy illatdir”, deb hisoblaydi. Korrupsiya – bu ijtimoiy-huquqiy hodisa boʻlib, odatda davlat amaldorlari, mansab-dor shaxslar, shuningdek umuman jamoat va siyosiy arboblarning pora evaziga ogʻdiriluvchanligi va sotiluvchanligi sifatida tushuniladi, bu esa shaxsiy maqsadlarda naf koʻrish uchun hokimiyat vakolatlarini suiisteʼmol qilishdir.

Xoʻsh, modomiki, qadimgi ildizlarga ega boʻlgan korrupsiya uchinchi ming yillikda yanada rivojlanayotgan va siyosiy mentalitetning tarkibiy qismi sifatida amal qilayotgan ekan, uning qanday sabablari bor? Quyida biz korrupsiyaning sabablari va millatning ruhiga salbiy taʼsiri haqida fikr yuritamiz. Hozirgi davrda korrupsiya sabablarining koʻp sonliligini qayd etish odat tusini olgan. Ulardan eng koʻp eʼtirof qilingan iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy-madaniy omillar farqlanadi.

Korrupsiyaning iqtisodiy sabablari – eng avvalo, davlat xizmati xodimlari oladigan maosh darajasining pastligi, shuningdek

ularga firmalar va fuqarolar faoliyatiga ta'sir ko'rsatish uchun imkoniyat yaratadigan katta vakolatlar berilganida namoyon bo'ladi. Amaldorlarga taqchil resurslarni tasarruf etish uchun keng vakolatlar berilgan joyda korrupsiya chuqur ildiz otadi. Bu rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi, ammo u rivojlangan mamlakatlarda ham uchraydi. Masalan, AQShda muhtoj oilalarga turar joyni imtiyozli taqdim etish dasturini amalga oshirish chog'ida korrupsiya hollari avj oladi. Biroq iqtisodiy sabab asosiy sabab bo'la oladimi? Ba'zi iqtisodiy rivojlangan mamlakat rahbarlarining, masalan, Koreya davlati Prezidenti, Braziliya Prezidenti, Pokistonning bosh vaziri, Rossiya Federatsiyasi sobiq mudofaa vazirining, ba'zi gubernatorlarning, korrupsiya bo'yicha lavozimidan chetlashtirilganligi iqtisodiy sabab asosiy emasligini asoslaydi. Demak, korrupsiyada insonning ijtimoiy-madaniy tubanlashuvi sababi ustuvorlik etadi.

Korrupsiyaning institutsional sabablari sifatida davlat idoralari ishida yopiqlik darajasining kuchliligi, o'ta beso'naqay hisobotlar tizimi, qonun ijodkorligi tizimining ochiq va oshkora emasligi, davlatning kadrlar bilan ishlash siyosatidagi kamchiliklar e'tirof etiladi.

Korrupsiyaning ijtimoiy-madaniy sabablari qatoriga jamiyatdagi umumiy ma'naviy tubanlashuv jarayonlari, fuqarolarning davlat boshqaruvi qonunlaridan xabardorlik va ularga munosabati darajasining pastligi, hokimiyat tepasidagilarning o'zboshimchaligiga nisbatan jamoatchilikning befarqligi va kuchli nazoratning yo'qligi kiritiladi. Korrupsiyaning bu sababining ildizlari shu qadar chuqurki, hatto biz qaysidir tashkilotga biror muammo bilan murojaat etganimizda albatta qo'limizda sovg'a salom bilan borishning tashvishini qilamiz, aks holda istalgan natijaga erishish murakkablashadi (Masalan, shifokor ko'rigi, maktabdagi o'qituvchi bilan farzandimizning o'qishi muammosi bilan murojaat etish, bolarni yaxshi sinfga qo'yish, yaxshi maktabda o'qitish kabilar).

Ko'rsatib o'tilgan omillarning uchala guruhi mavjud bo'lgan mamlakatlarda (bular, eng avvalo, rivojlanayotgan va postsotsialistik mamlakatlar) korrupsiya ayniqsa kuchlidir. G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasi mamlakatlarida esa, aksincha, mazkur omillar ta'siri uncha kuchli emas va shu sababli bu yerda korrupsiya hollari kam kuzatiladi.

Korrupsiyaning shakllari: poraxoʻrlik, favoritizm, nepotizm (urugʻ-aymoqchilik), proteksionizm, lobbizm, jamoat resurslari va jamgʻarmalarini qonunga xilof ravishda taqsimlash va qayta taqsimlash, jamoat resurslarini shaxsiy maqsadlarda qonunga xilof ravishda oʻzlashtirish, noqonuniy xususiyashtirish, siyosiy tuzilmalar (partiyalar va sh.k.)ni qonunga xilof ravishda qoʻllab-quvvatlash va moliyalashtirish, taʼmagirlik, imtiyozli kreditlar, buyurtmalar berish, jamoat resurslari – tovarlar, xizmatlar, daromad manbalari, imtiyozlarga ega boʻlish uchun shaxsiy aloqalardan foydalanish, oʻz qarindoshlari, doʻstlari, tanishlariga turli xizmatlar koʻrsatish va h.k.dir.

Faoliyat sohasiga qarab korrupsiyaning quyidagi turlari farqlanadi: - davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiya; - parlamentdagi; korrupsiya; - jamoa tashkilotlari, korxonalaridagi korrupsiya; - iqtisodiy korrupsiya; - gʻoyaviy korrupsiya;- siyosiy korrupsiya; - kadrlar korrupsiyasi.

Davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiya zamirida davlat xizmati xodimi (amaldor)da davlat resurslarini tasarruf etish hamda davlat va jamoat manfaatlarida emas, balki oʻz shaxsiy taʼmagirlik niyatlaridan kelib chiqib qarorlar qabul qilish imkoniyatining mavjudligi yotadi.

Davlat xizmati xodimlarining ierarxiyaviy holatiga qarab yuqori pogʻona va quyi pogʻona korrupsiyasini farqlash mumkin. Korrupsiyaning birinchi turi siyosatchilarni, yuqori va oʻrta darajadagi amaldorlarni qamrab oladi va yuksak bahoga ega qarorlar qabul qilish bilan bogʻliq (qonunlar taʼriflari, davlat buyurtmalari, mulkchilik shakllarini oʻzgartirish va sh.k.). Korrupsiyaning ikkinchi turi oʻrta va quyi darajadagi amaldorlar oʻrtasida keng tarqalgan va amaldorlar bilan fuqarolar oʻrtasidagi doimiy, kundalik oʻzaro aloqa bilan bogʻliq (jarimalar, roʻyxatga olish va sh.k.). Aksariyat hollarda korrupsion bitimdan manfaatdor tomonlarning ikkalasi ham bir davlat tashkilotiga mansub boʻladi. Masalan, amaldor oʻz boshligʻiga u pora beruvchining korrupsion harakatini “yopdi-yopdi” qilgani uchun pora bersa, bu ham korrupsiya hisoblanadi va bu odatda “vertikal” korrupsiya deb nomlanadi. U, qoida tariqasida, yuqori pogʻona va quyi pogʻona korrupsiya oʻrtasida oʻziga xos “koʻprik” vazifasini bajaradi. Bu juda xavfli, chunki korrupsiya tarqoq harakatlar bosqichidan chuqur ildiz otgan uyushgan shakllar bosqichiga oʻtayotganidan dalolat beradi.



Parlamentdagi korrupsiya saylov paytida saylovchilarning ovozlarini sotib olishi bilan bog'liq siyosiy korrupsiyada namoyon bo'ladi.

Saylovchi Konstitutsiyaga muvofiq "hokimiyat vakolatlari" deb nomlangan resursga ega bo'ladi, (ya'ni deputatlarni xalq saylaydi). Bu vakolatlarni u o'zi saylayotgan shaxslarga qaror qabul qilishning alohida turi – ovoz berish orqali o'tkazadi. Saylovchi o'z vakolatlarini o'zining manfaatlarida kim hammadan yaxshi ifoda etishi mumkin deb hisoblasa, o'shanga topshirish zarurligidan kelib chiqib qaror qabul qilishi lozim va bu umume'tirof etilgan normadir. Ovozlar sotib olingan holda saylovchi va nomzod o'zaro bitishuvga kirishadi va buning natijasida saylovchi yuqorida zikr etilgan normani buzib, pul yoki boshqa qimmatliklarni oladi, nomzod esa saylov qonunchiligini buzib, hokimiyat resursini qo'lga kiritishga umid qiladi.

Nihoyat, davlat va nodavlat tashkilotlaridagi, yoki umumiy jamoa tashkilotlari va ijtimoiy hayotdagi korrupsiyada tijorat yoki jamoat tashkilotining xodimi ham o'ziga tegishli bo'lmagan resurslarni tasarruf etishi mumkin: unda ham tashkilot manfaatlarini buzuvchi harakatlarni bundan naf ko'ruvchi ikkinchi tomon foydasiga bajarish yo'li bilan qonunga xilof ravishda boylik orttirish imkoniyati mavjud. Bunga tijorat banklaridan pora evaziga kreditlar olish misol bo'lishi mumkin. Jamoa tashkilotlaridagi korrupsiya jamiyatning umumiy ma'naviy tanazzuli desak mubolag'a bo'lmaydi.

Korrupsiyaning barcha turlari bevosita siyosiy, g'oyaviy va kadrlar korrupsiyasini shakllantiradi. Siyosiy korrupsiya ko'rib chiqilayotgan ijtimoiy hodisaning alohida va o'ta xavfli turidir. Korrupsiyani o'rganish bilan shug'ullanadigan mutaxassislarining aksariyati unga saylov paytida saylovchilarning ovozlarini sotib olishni ham kiritadilar. Bunga AQShda 2016-yilda o'tkazilgan Prezident saylovida Donald Tramp va Xillari Klinton orasidagi siyosiy o'yin misol bo'la oladi. Ayni vaqtda, siyosiy korrupsiyaning saylovoldi kurashi doirasidan chetga chiqadigan ko'rinishlari ham yo'q emas. Bu yerda mansabdor shaxsning mavjudligini istisno etganda, korrupsiyaning barcha o'ziga xos belgilari bor. Davlatni boshqarish amaliyoti sifatidagi siyosat va korrupsiya har doim bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Bundan tashqari, korrupsiya ba'zan chuqur siyosiy o'zgarishlarga turtki beruvchi omilga aylanadi. Buni Gruzija, Ukraina va Qirg'izistondagi "rangli inqiloblar" misolida

kuzatish mumkin. Korrupsiya hodisasi har qanday davlat tuzumida ob'ektiv (ko'p yoki oz darajada) mavjud bo'ladi. Shu sababli, siyosiy korrupsiyaga yanada keng hodisa sifatida yondashish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davrda siyosiy korrupsiya siyosiy tusga ega qilmishlarda namoyon bo'ladi va ularning bir qismi jinoyat-huquqiy tartibda jazoga loyiq, boshqa bir qismi esa – loyiq emas degan fikr ham mavjud.

Siyosiy korrupsiyaning byurokratik va siyosiy, majburiy va kelishilgan, markazlashtirilgan va markazlashtirishdan chiqarilgan korrupsiya kabi turlari va quyidagi belgilari farqlanadi:

Siyosiy korrupsiya deganda, hukmron yoki muxolif elitalar, partiyalar, guruhlar va ayrim shaxslarning hokimiyat uchun, ya'ni uni egallab olish yoki ushlab turish maqsadida, shuningdek siyosiy raqib-larga qarshi siyosiy kurashining korrupsion (yoki korrupsiya bilan bog'liq) shakllarini tushunish lozim. Uning ayrim turlariga inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, davlat tuzumi va davlat hokimiyati asoslariga qarshi korrupsion qilmishlar xosdir.

Har qanday siyosiy korrupsiya g'oyaviy korrupsiyaning mahsuli sifatida amal qiladi. G'oyaviy korrupsiya deganda, davlat boshqaruvi darajasida hokimiyat qarorlarini qabul qilishni monopoliyalashtirish va ularni tanlash doirasini cheklash tushuniladi. Har qanday davlat boshqaruvi boshqaruv vositalarini o'z strategik va taktik maqsadlariga mos ravishda tanlashi lozim. G'oyaviy korrupsiya bilan bog'liq holda boshqaruv maqsadlarining o'zi buzib ko'rsatiladi. Ma'lumki, davlat o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun turli vositalardan foydalanishi mumkin (asosiy davlat va insoniy qadriyatlarga mutlaqo zid bo'lgan vositalar bundan mustasno). Ammo davlat boshqaruvi maqsadlari yaxlit va yagona bo'lishi lozim. Davlat hokimiyati boshqaruv maqsadlarini buzib ko'rsatgan, shaxsiy maqsadni qadriyat darajasiga ko'targan va unga erishish uchun harakat qila boshlaganda g'oyaviy korrupsiya paydo bo'ladi.

G'oyaviy korrupsiyaning nihoyatda kuchli ta'siri kadrlar korrupsiyasida o'z ifodasini topadi. Boshqaruvga umuman layoqati bo'lmagan odamning favoritizm ta'sirida rahbar lavozimiga tayinlanishi kadrlar korrupsiyasini ifodalaydi va u ko'p hollarda g'oyaviy korrupsiyaning oqibati sifatida amal qiladi.

Kadrlar korrupsiyasi mamlakatda ijtimoiy adolatsizlikka, ma'naviy muhitning buzilishiga sabab bo'ladigan, siyosiy mentalitetga salbiy ta'sir ko'rsatadigan korrupsiyaning keng tarqalgan shakllaridan biridir. Korrupsiyaning bu turi ikki sub'ekt – lavozimga tayinlash huquqiga yoki saylov natijalariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxs va mazkur lavozimni egallashdan manfaatdor shaxsning o'zaro aloqasiga asoslanadi.

Kadrlar korrupsiyasiga davlat lavozimlariga kollegial tarzda saylash yoki tayinlash va ulardan ozod qilish vakolatlariga ega davlat hokimiyati organi tarkibiga kiruvchi mansabdor shaxslarning guruhlarini ham kiritish o'rinli bo'ladi. Bunda davlat hokimiyati organining o'zi yuridik shaxs sifatida, hatto uning tarkibiga kiruvchi mansabdor shaxslarning barchasi pora evaziga og'dirilgan bo'lsa ham, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas (butun jahonda qabul qilingan amaliyot).

Kadrlar korrupsiyasida davlat xizmati xodimlari hisoblanmaydigan turli vositachilar, xususan, tegishli vakolatlarga ega bo'lmagan yordamchilar, referentlar, kotiblar ishtirok etishi ham mumkin. Kadrlar korrupsiyasining asosiy salbiy oqibatlari amaldorlarning nokompetentligi, ishning samarali emasligi, davlat hokimiyati obro'sining pasayishidir.

Iqtisodiy korrupsiya ham o'zi uchun, ham boshqa har qanday shaxslar uchun, fuqaro, yuridik shaxs, jamoat yoki davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zid ravishda pora evaziga og'dirish (pora olish, va'da qilish, taklif qilish, berish yoki ta'magirlik yo'li bilan talab qilish), shaxs o'z mansab mavqeidan manfaat (mol-mulk, xizmatlar, imtiyozlar yoki shu jumladan, mulkiy xususiyatga ega afzalliklar) olish uchun boshqa har qanday tarzda qonunga xilof ravishda foydalanishdir.

Iqtisodiy korrupsiyaning o'ziga xos xususiyati yana shu bilan belgilanadiki, o'z mansab mavqeini suiiste'mol qilishlarning aksariyati moliyaviy oqimlarni nazorat qilish va qayta taqsimlash sohasidagi vakolatlardan foydalanish bilan bog'liq bo'ladi. Korrupsiyaning mazkur turini keng ma'noda "korrupsion xizmatlar" deb ham ataydilar. Shu tariqa, hokimiyat resursi boshqa davlat resurslarini o'zlashtirish maqsadida "sotiladi", shuningdek hokimiyat resursidan ko'rsatilgan maqsadda foydalanish yuz beradiki, bu iqtisodiy va siyosiy korrupsiyaning yaqin o'zaro aloqasini belgilaydi.

Siyosiy va iqtisodiy korrupsiya siyosiy madaniyat bilan emas, balki iqtisodiy va siyosiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. U eski va yangi normalar o'rtasidagi tafovutni aks ettiradi va jamiyat hayotining barcha sohalaridagi o'zgarishlarga moslashuvchanlikni yengillashtiradi. Korrupsiyaning muayyan turlari ijtimoiy o'zgarishlarni kafolatlaydigan siyosiy koalitsiyalar tuzish jarayonida muhim aloqalar o'rnatilishiga imkoniyat yaratadi.

Kundalik hayotimizda oq, kulrang va qora korrupsiya ko'rinishlari farqlanadi. Oq korrupsiya jamoatchilik tomonidan qoralanmaydigan amaliyotlarni aks ettiradi. Ular kundalik hayotdan mustahkam o'rin olgan va muammo sifatida qaralmaydi. (Masalan, biz o'zimizning hurmatimiz, e'tiborimizni bildirish uchun o'qituvchi yoki shifokorga o'z ixtiyorimiz bilan kichik tuhfa olib boramiz va u bu tuhfaning imon bo'lsa-da oladi, aslida, u xizmati uchun maosh oladi va bu tuhfaning olishi mumkin emas, biroq bunda ta'magirlik mutlaqo namoyon bo'lmaganligi uchun qoralanmaydi). Kulrang korrupsiya deganda, jamoatchilik o'rtasida aniq bir munosabat hali shakllanmagan korrupsion harakatlarni tushunadi (masalan, o'qituvchilarning repetitorligi, ijtimoiy hayotning yozilmagan qonuniga aylangan kulrang korrupsiyadir). Aynan kulrang korrupsiya atrofida janjallar yuzaga keladi. Qora korrupsiya jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan qoralanadi va uning oldini olish hamda bartaraf qilish bo'yicha hukumat qarorlari qabul qilinadi, chunki bu umumiy tanazzulning ifodasidir.

Ta'lim va faning korrupsiya, ayniqsa, XX asrda yanada rivojlanganligi jamiyatning inqirozga yuz tutganligi bilan baholanadi. Fan sohasidagi korrupsiya uning turli tarmoqlarida mutlaqo nokompetent mutaxassislarining kadrlarning jalb qilinishidir. Nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bilan bog'liq jarayonda ko'p hollarda proteksionizm va favoritizmning amal qilayotganligi sir emas. Bu esa bir tomondan fandan mutlaqo yiroq odamlarning kirib kelishi, ikkinchi tomondan esa ilmiy salohiyatning sayozlashuviga olib keladi. Bu esa jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etadi.

Ta'limdagi korrupsiya abituriyentlarning o'qishga qabul qilinish jarayoni bilan boshlanib, ularning o'qishni tugatib diplom olish jarayonigacha qamrab olingan. Xususan, aynan mustaqillik yillarida o'qishga qabul jarayonida "Bunker" so'zi paydo bo'lgan.

Hatto bunkerda ham berilgan poraning qiymati yoki abituriyentni “qo‘llab-quvvatlovchi qarindoshlarning amali”ga qarab xizmat ko‘rsatilgan.

Shuni afsus bilan aytish lozimki, ta‘lim sohasidagi korrupsiya har qanday mamlakat intellektual salohiyatining inqirozi, fandagi korrupsiya esa bu insoniyatning inqirozi bo‘lib, buning oldini olish har birimizning fuqarolik burchimiz. Shu bois, 2017-yil aprel oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil may oyida “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi tegishli qarorlarida davrning ruhi va talabi o‘z ifodasini topdi.

Hozirgi kunda oliy ta‘lim muassasalariga abituriyentlarni o‘qishga qabul etishda shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha barcha chora tadbirlar ko‘rilmoqda. Xususan, qabul jarayonida test sinovlarini tashkil etish bo‘yicha qaror bu yo‘ldagi dadil qadam bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Fikrimizcha, bundan keyin O‘zbekistonda va dunyoda ta‘lim va fan sohasidagi korrupsiyaga chek qo‘yiladi, chunki bugun insoniyat taqdiri har qachongidan ham ko‘proq ta‘limning sifatiga va fandagi ixtiro va kashfiyotlarning mazmuniga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Ko‘plab mutaxassislar fikriga ko‘ra, sud tizimi korrupsiya uchun, ayniqsa, jalb qiluvchan sohalardan biri hisoblanadi. Bu yerda deyarli har qanday lavozim korrupsion jalb qiluvchanlik bilan tavsiflanadi, uning funksional mazmuniga faqat korrupsiya ko‘rinishlarining shakllari va ko‘lamigina jiddiy bog‘liq bo‘ladi. Shu o‘rinda, alohida ta‘kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2017-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasining sudyalari bilan uchrashuvda kelgusida bu sohadagi korrupsiyaga uzil-kesil barham berish, sudbyalar faoliyatida adolat mezoniga rioya qilish asosiy vazifa qilib belgilandi. 2017-yil iyun oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi Kozim Komilovning

O'zbekiston xalqiga murojaati ham bu tizimda adolat bosh mezon bo'lishi, oqlov va qoralovda ob'ektivlik ta'minlanishi ta'kidlandi. Ya'ni sud jazolovchi emas, balki adolath hukm chiqarish organiga aylanishi lozim.

Hozirgi siyosiy amaliyotda lobbizm amaliyoti diqqatga sazovordir. U Qo'shma Shtatlar siyosiy tizimining ajralmas elementi hisoblanadi. O'z vaqtida lobbizm ko'rinishidagi korrupsiyaga barham berishning iloji yo'qligi anglab yetilgach, uni qonunda belgilangan doiraga solishga qaror qilingan va bu g'oya tegishli qonun yordamida amalga oshirilgan. Bu dunyodagi, xususan, yurtimiz ijtimoiy hayotida "Obro' effekti" ham deb ataladi.

Dunyo miqyosida kadrlar korrupsiyasining eng xavfli korrupsiya sifatida rivoj olayotganligi, uning ma'naviy muhitga aks ta'sir etayotganligi nihoyatda achinarli hol. Shu bois, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan 2017-yil 3-yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun mamlakatimizda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatning shakllanishiga poydevor bo'ldi. Qonunga ko'ra, barcha turdagi korrupsiyaga qarshi kurash, kadrlar korrupsiyasiga chek qo'yish, faoliyatda soflikni va adolatni ta'minlash masalasiga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, 2017-yil 2-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatlar o'z mazmun mohiyati, maqsadi bilan mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning yangi bosqichini boshlab berdi.

Shu ma'noda, "Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur". Demak, kelgusida O'zbekiston xalqining siyosiy hushyorligi ta'minlanadi va siyosiy mentalitet yangi bosqichga ko'tariladi.

### **Global ongni shakllantirish zaruriyati**

Globalashuv jarayonlarini nazariy jihatdan anglab yetish va global muammolarni bartaraf etish nafaqat o'ta og'ir va uzoq davom

etadigan, balki kutilgan natijalarga qanday erishish mumkinligi xususida hali aniq javoblar va uzil-kesil yechimlarga ega bo'lmagan ishdir. Ayni vaqtda aksariyat tadqiqotchilar global tangliklarni bartaraf etish imkoniyatini ommaviy ongda yangicha axloqning shakllanishi va mustahkamlanishi, madaniyatning rivojlanishi va uning insonparvarlashuvi bilan bog'lamoqdalar. Buning uchun jiddiy asoslar bor, zero, odamlarning fe'l-atvori, xatti-harakatlari, pirovard natijada esa ular erishishga harakat qiladigan natija asosan ularning hayotga munosabati va fikrlash tarzi bilan belgilanadi.

Darhaqiqat, asrlar mobaynida saqlanib qolayotgan dunyo haqidagi tasavvurlarni o'zgartirish, qotib qolgan fikrlash andozalarini bartaraf etish va odamlar ongida insoniylikning yangicha tamoyillarini shakllantirishning o'zi umuminsoniy muammolar yechimi emasligi ham ravshan. Bu mazkur muammolarni bartaraf etish yo'lidagi zarur, lekin faqat birinchi qadam va u muttasil o'zgaruvchi vaziyatga mos bo'lgan va hozirgi davr ruhini aniq aks ettiradigan dunyoqarashning shakllanishi bilan bog'liq. Bunday yangilangan dunyoqarash zamirida faqat so'nggi yuz yillikka xos bo'lgan jamiyat hayoti internatsional-lashuvining keskin o'sishi bilan belgilanadigan ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmuni va shakl-shamoyillarini aks ettiruvchi yangicha insoniylik yotishi lozim. Mazkur yangicha insoniylik global ongni shakllantirishga qaratilishi va uch asosiy negiz: globallik tuyg'usi, zo'ravonlikka nisbatan muhosasizlik va insonning asosiy huquqlarini tan olishdan kelib chiqadigan adolatparvarlikni o'z ichiga olishi darkor.

### **Global muammolarni bartaraf etishda xalqaro kuchlarning birlashuvi**

Odamlar dunyoqarashi nafaqat ularning dunyo haqidagi bilimlarida, balki ular bu bilimni qanday talqin qilishi, qanday xulosalar chiqarishi va qanday ish ko'rishida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli global muammolarni butun dunyo bahamjihat hal qilishi lozimligi to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, insoniyat nazariyada muayyan yutuqlarga va ba'zi bir amaliy natijalarga erishgan holda, dunyo rivojlanishining salbiy jarayonlarini to'xtatishga hali muvaffaq bo'lmaganini e'tibordan chetda qoldirishimiz mumkin emas. Xalqaro kuchlarning muayyan darajada birlashuvi, ularning muvofiqlashtirilgan, izchil va eng muhimi, samarali harakatlari ham hali mavjud emas. Nega shunday bo'lyapti va bunga nima xalaqit beryapti? Hozirgi rang-

barang va ziddiyatlarga to'la dunyoda kelishilgan harakatlarni amalga oshirish mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, bunga qanday asosda erishish mumkin? Bular bugungi kunda ijtimoiy tafakkur, shu jumladan falsafa yechishga harakat qilayotgan bosh masalalardir. Tarixiy tajriba turli xalqlarning yaqinlashuvi ularning manfaatlari mos kelgan joyda ayniqsa yaxshiroq yuz berishini ko'rsatadi. O'zaro manfaatdorlik turli qiyinchiliklarni tez bartaraf etish, savdo-sotiqni faol rivojlantirish, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga ko'maklashadi. Odatda, bu yo'lda yengishga to'g'ri keladigan eng katta qiyinchiliklar eskicha qarashlar, qotib qolgan fikrlash uslubi, an'analar bilan bog'liq bo'ladi. Ular o'zgarish xususiyatiga ega, lekin bu juda uzoq, katta qiyinchiliklar bilan tashqi yoki ichki omillar ta'sirida yuz beradi. Masalan, tashqi omillar qatoriga ekologik tanglikning kuchayishi, «demografik portlash» oqibatlari, urush xavfi va nafaqat odamlarning turmush tarzini sezilarli darajada o'zgartirgan, balki ularning ongiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan boshqa global muammolar kiradi. Ichki omillar inson manfaati, uning sub'ektiv, shaxsiy asosi bilan bog'liq. U yoki bu muammolarning keskinlik darajasi, hatto buning uchun zarur shart-sharoit va yetarli asoslar paydo bo'lgan hollarda ham, nima uchun pasaymayapti, degan savolga javob topishda yuqorida zikr etilgan omillar, ayniqsa manfaat omili albatta hisobga olinishi lozim.

### **Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg'unligi**

Har bir xalq, har bir mamlakat xalqaro munosabatlarning u yoki bu tartibida, davlatlararo savdo oqimlarining yo'nalishi va kapitallarning taqsimlanishida o'z muayyan manfaatiga ega bo'ladi. Ular tabiiy resurslardan foydalanish, atrof muhitni saqlash va shu kabi masalalarda doim o'z manfaatlarini himoya qiladiki, bu ularning siyosatida umumiy masalalarda ham, xususiy masalalarda ham bevosita aks etadi va boshqa mamlakatlar siyosatiga o'xshamasligiga sabab bo'ladi. Ba'zan ichki manfaatlar umumiy manfaatlardan ustunlik qiladi. Bunday hollarda mazkur siyosat boshqa davlatlarning manfaatlariga zid ravishda amalga oshiriladi. Masalan, ekologiya nuqtayi nazaridan bu qo'shni hududlarda yashovchi xalqlarning qarama-qarshi manfaatlari to'qnashgan hollarda ko'p kuzatiladi.

Ammo hozir, jamiyat hayotining internatsionallashuvi va iqtisodiy integratsiyalashuvi sharoitida, sayyoramizning turli



burchaklarida jahon hamjamiyatining yadro urushi, ekologik tanglik, demografik keskinlik va resurslar taqchilligini bartaraf etishdan iborat ob'ektiv manfaatlarini o'zlarining umumiy manfaati deb biluvchi odamlar soni tobora ko'payib bormoqda. Ma'rifatli siyosiy va jamoat arboblari yanada aniqroq anglab yetayotgan kelishilgan harakatlarga bo'lgan bu ob'ektiv ehtiyoj hozirning o'zidayoq ayrim davlatlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatmoqda va hatto ularning ichki va tashqi siyosatini ma'lum darajada belgilamoqda. O'zbekiston o'z taraqqiyotining yuksalish bosqichida dunyoning barcha yetakchi davlatlari bilan ijtimoiy iqtisodiy hamkorlik bo'yicha shartnomalar imzoladi. Birgina 2017-yilda 60 milliard dollar, shundan 23 milliard dollar Xitoy davlati investitsiyalari O'zbekistonga ajratildi. 2018-yilda Rossiya bilan 27 milliard dollar miqdorida shartnoma imzolandi, bu umumiy va xususiy manfaatlar yo'lidagi sa'y- harakatlarning debochasi.

Ayrim mamlakatlarda ham, butun dunyoda ham barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish texnokratik jamiyat tuzilishi va mohiyatidan kelib chiqadigan katta qiyinchiliklar bilan bog'liq. U kompyuter inqilobi ta'sirida o'zgarganiga qaramay, texnogen sivilizatsiyaning asosiy shakl-shamoyillarini saqlab qolmoqda va shu sababli hozirda mavjud ko'rinishda nafaqat bunday jamiyat tanqidchilarini, balki texnika taraqqiyoti tarafdorlari (texnokratik optimistlar) sobiq izdoshlarining bir qismini ham qanoatlantirmayapti. Ularning aksariyati fikriga ko'ra, hozirgi G'arb sivilizatsiyasi insoniyat uchun shikastli bo'lgan ko'pgina ziddiyatlarni yuzaga keltirdi, chunki uning zamirida tabiat va uning resurslariga nisbatan iste'molchilik yondashuvi yotadi. Tegishli qadriyatlar tizimidan mustahkam o'rin olgan bunday tasavvurlar tarixan sanoat inqilobi, keyinroq - fan-texnika inqilobi davrida shakllangan bo'lib, o'z ildizlari bilan inson, xuddi Yerdagi Xudo kabi dunyoni bunyod etadi, uni tabiat imkoniyatlari va o'z imkoniyatlari bilan hisoblashmasdan o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartiradi, degan dunyoqarashga borib taqaladi. Pirovardda nafaqat ekologik va demografik tangliklar, balki ma'naviy inqiroz ham yuzaga keladi, bunda avvalgi dunyoqarash mo'ljallari ob'ektiv sharoit tazyiqi ostida o'zgarayotgan amaliyot bilan to'qnashadi.

Ayni shu sababli qadriyatlar muammosi, ijtimoiy rivojlanishning yangi ustuvorliklarini va boshqa dunyoqarash mo'ljallarini izlash

jamiyatni ma'naviy yangilashning bosh vazifalariga aylanadi. Bugungi kunda turli mamlakatlarning olimlari boshqa qadriyatlarga muvofiq bunyod etilgan o'zga sivilizatsiyaga o'tish amalga oshirilgan taqdirdagina insoniyat ekologik va boshqa global muammolarni bartaraf eta olishi mumkinligini deyarli yakdillik bilan qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, mazkur qadriyatlar tabiat va uning ehtiyojlarini tabiatdan ustun qo'yuvchi antropotsentrizmga emas, balki hayot fenomenining betakrorligiga va biosferani muvozanat holatida saqlash lozimligiga e'tiborni qaratuvchi biosferotsentrizmga asoslanishi lozim. Inson esa aqlli mavjudot va mazkur murakkab tizimning tarkibiy qismi sifatida, bu bilan nafaqat hisoblashishi, balki tegishli tarzda ish ko'rishi ham lozim. Uning dunyoga munosabatini o'zgartirish, insonparvarlik va koevolyutsiya, ya'ni tabiat va jamiyatning mushtarak rivojlanishi tamoyillariga tayanib, yangi qadriyatlar tizimini va ijtimoiy rivojlanish mo'ljallarini yaratishdan boshqa yo'li yo'q.

Dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro aloqa va asosli hamkorlik yo'liga yanada ishonch bilan kirishi, odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati esa tabiat bilan ziddiyatga kirishmasligi uchun dunyoda yuz berayotgan hozirgi jarayonlar haqidagi ilmiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, shuningdek odamlarning yuz berayotgan hodisalar va jarayonlarga o'z javobgarligini yanada teranroq tushunishiga erishish lozim. Bu yana shuning uchun ham muhimki, zamonaviy elektron qurilmalar va hisoblash texnikasi insonning o'z faoliyati natijalarini ham, ular olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni ham chamalash va bashorat qilish qobiliyatini ko'p karra oshiradi. Shu sababli ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda olimning roli ortishi bilan bir qatorda uning inson uchun ham, atrof muhit uchun ham muayyan ekologik, tibbiy va boshqa oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan texnik loyihalar bo'yicha qarorlar va tavsiyalar uchun javobgarligini mislsiz darajada oshirish masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda genetika sohasidagi tadqiqotlar va amaliy ishlar o'ziga tobora ko'proq e'tiborni tortmoqda. Bu yerda jonli organizmlarni, shu jumladan insonni ham klonlash imkonini beruvchi gen injeneriyasi uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Bu ko'p sonli axloqiy va psixologik masalalarni yuzaga keltiradi, chunki inson shaxs sifatida genlar ta'sirida faqat ellik foizga shakllanadi, qolgan jihatdan

u ijtimoiy muhit va muayyan yashash sharoitlari bilan belgilanadigan ijtimoiy mavjudotdir.

Shu munosabat bilan eng yangi falsafiy adabiyotlarda insonparvarlik masalalari yana birinchi o'ringa chiqmoqda. Fan-texnika taraqqiyotini nafaqat ayrim insonning, balki butun insoniyatning axloqiy fazilatlariga bevosita bo'ysundiruvchi inson faoliyatini butunlay o'zgartirish lozimligini ifodalovchi «ilmiy insonparvarlik» atamasi faol ishlab chiqilmoqda. «Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir – oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.

### **Umuminsoniy qadriyatlar**

Hozirgi sharoitga tatbiqan muayyan universal asos sifatidagi «yangi insonparvarlik»ning mohiyati yer kurrasida yashovchi barcha odamlarning muhim manfaatlarini aks ettiradigan va shu sababli butun dunyoda umumiy qadriyatlar sifatida idrok etiladigan borliq me'yorlari va tamoyillarini qaror toptirishdan iborat. Bunday qadriyatlarining ayrimlari ilk bor jahon dinlarida umuminsoniy qoidalar sifatida ta'riflangan.

Keyinchalik muayyan inson dunyoviy axloq va qadriyatlar umumiy tizimini yaratishning boshlang'ich tayanch nuqtasiga aylandi. Bu odamlar, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarda axloq «oltin qoidasi»ni ro'yobga chiqarish mumkinligi va zarurligini e'lon qilgan Forobiy, Ibn Sino, T.Gobbs, P.Gassendi, M.Volter, J.J.Russo, I.Kant, G.Gerder va boshqa mutafakkirlar etikasida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ldi. Uning bizgacha turli ko'rinishlarda yetib kelgan mazmuni Volter bayonida barcha odamlarga qaratilgan insoniy chorlov sifatida yangraydi: «O'zing bilan qanday muomala qilishlarini istasang, boshqalar bilan shunday muomala qil». Ayni shu XVII asrda ingliz liberalizmining yorqin vakili J.Lokk (1632-1704) insonning uzviy huquqlari (yashash, erkinlik, mulk huquqi va b.) daxlsiz ekanligi haqidagi g'oyani ilgari surdi. Alisher Navoiy o'zining mashhur «erkinlik», «tenglik», «birdamlik», «adolat» shiorlarini e'lon qilib, odamlarning umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan ishonchini mustahkamladi.

### **Global muammolarni yechishda falsafaning roli**

Og'ir va murakkab vazifalarni yechishda insonga fan doim yordam bergan. Bir paytlar erishib bo'lmaydigan, inson imkoniyatlari darajasidan tashqarida bo'lib tuyulgan narsalarning aksariyatiga aynan fan yordamida erishilgan. Ayni shu sababli global muammolar xavf solayotgani haqidagi ilk ogohlantirishlarning o'ziyoq odamlarni fanga o'z e'tiborini qaratishga, olimlarni esa bu muammolarni yechish yo'llarini izlashga majbur qildi. Yuzaga kelgan vaziyatning o'ziga xosligi va yangiligi shundan iboratki, har qanday muayyan muammolarni ayrim fan yoki bir necha fanlar majmui doirasida o'rganish mumkin bo'lsa, inson, jamiyat va tabiatni ularning ko'psonli o'zaro aloqalari va o'zaro bog'liqliklarida qamrab oluvchi murakkab tizimdan iborat global muammolarni tadqiq etishga ayrim fanlar qodir emas. Zero, o'z tadqiqoti ob'ekti – u yoki bu ayrim muammoni boshqa global muammolar kontekstida talqin qilishga muayyan fanlar doirasi torlik qiladi. Shu sababli u yoki bu fan qaysi muayyan vazifalarni yechishidan qat'i nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun vaziyatga, shu jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo tadqiqotning zaruriy sharti hisoblanadi. Har qanday ayrim fanlar muayyan bosqichda o'z tadqiqot predmetini falsafiy jihatdan anglab yetishga u yoki bu darajada muhtoj bo'ladi. Muayyan fan predmetiga va insoniyat oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishi ham mumkin emas.

Shunday qilib, ayni holda, bir tomondan, masalalarning falsafiy yechimi to'g'risida, boshqa tomondan esa – falsafa fanlarning keng doirasi o'zaro aloqa qilishini rag'batlantirishi, bunda ularning fanlararo birlashuvi muhim o'rin tutishi to'g'risida so'z yuritiladi.

Garchi falsafa odamlarning kundalik hayoti va amaliyotidan ancha uzoqda bo'lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o'rganadi, degan fikr mavjud bo'lsa-da, u (falsafa) global muammolarni yechishda muhim rol o'ynaydi. Zero, umumiy nazariyalar ba'zan bilimning aksariyat muayyan sohalariga qaraganda ko'proq samara berishi mumkinligi yaxshi ma'lum.

Albatta, falsafa siyosiy va boshqa qarorlar qabul qilish jarayoniga muqarrar tarzda va bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb aytish uncha o'rinni bo'lmaydi. Zero, uning bosh vazifasi dunyoqarashni shakllan-

tirish va shu tariqa amaliy qarorlar ishlab chiqish jarayoniga bilvosita ta'sir ko'rsatishdan iborat. Uning vazifasi global muammolarning tabiiy-ilmiy va texnikaviy jihatlarini bevosita o'rganishdan emas, balki boshqa fanlar taklif qiladigan tegishli yechimlarning falsafiy, metodologik, madaniy va axloqiy negizini ta'minlashdan iborat.

Global muammolarni falsafiy anglab yetishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflar ekanmiz, falsafaning asosiy funksiyalaridan kelib chiqadigan va bilishning shu shakligagina xos bo'lgan xususiyatlarni qayd etib o'tamiz. Birinchidan, falsafa, dunyoqarashni shakllantirar ekan, inson faoliyati yo'nalishini ko'p jihatdan belgilaydigan muayyan mo'ljallar beradi. Shu tariqa falsafa o'zining dunyoqarashni shakllantirish va aksiologik funksiyalarini bajaradi.

Ikkinchidan, turli fanlar doirasida o'rganiladigan murakkab tizimlar haqida yaxlit tasavvur mavjud emasligi bu fanlarning o'zaro hamkorligi yo'lida jiddiy to'siq hisoblanadi. Shu ma'noda falsafaning mazkur fan doirasida yuzaga keladigan nazariyalarni umumlashtiruvchi metodologik funksiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ilmiy bilimning integratsiyalashuviga ko'maklashadi.

Uchinchidan, falsafa ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tarixiy kontekstda tushuntirish imkonini beradi. U jamiyat va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlarini ta'riflaydi va shu sababli global muammolarni o'rganishda ularni ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan qonuniy hodisa sifatida tushunishga yo'l ko'rsatadi. Shunday qilib, global muammolarning paydo bo'lishi tasodif yoki insoniyatni halokatga oldindan mahkum etuvchi taqdirning hukmi sifatida emas, balki qarama-qarshiliklarga to'la insoniyat tarixi ob'ektiv rivojlanish jarayonining mahsuli sifatida qaraladi.

To'rtinchidan, falsafa global muammolar rivojlanishining umumiy tendentsiyasini, ularning o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo etish darajasini falsafiy nuqtayi nazardan anglab yetish imkonini beradi.

Beshinchidan, falsafa nazariy fikrlash madaniyatini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish orqali ma'naviy - madaniy funksiyani bajaradi. Turli xalqlarning falsafa tarixini o'rganish, ularning madaniyati bilan ham tanishish imkonini beradi. Muayyan xalqlar oldida turgan muammolarning birortasini ham ularning madaniyatiga bog'lamaidan yechish mumkin emas.

Oltinchidan, global muammolarga oid ilmiy axborotning shiddat bilan o'sib borayotgan oqimida yanada aniqroq mo'ljal olish imkoniyati tabiiy-tarixiy jarayonni yaxlit ko'rish va uni talqin qilishga nisbatan dialektik yondashuv mahsuli hisoblanadi.

Yettinchidan, falsafa inson hayotining mazmuni, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yadiki, bu insoniyatga global muammolar tahdid solayotgan sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, falsafaning yana bir muhim metodologik funksiyasi shundan iboratki, u insoniyatning hozirgi muhim muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan va bashariyat rivojlanishining ob'ektiv tendentsiyalarini tushunish va anglab yetishda ulkan rol o'ynaydigan «tabiat», «jamiyat», «tsivilizatsiya», «ijtimoiy taraqqiyot», «fan-texnika inqilobi» kabi boshqa kategoriyalarni ishlab chiqadi.

Hozirgi davrning global muammolarini o'rganishga nisbatan falsafiy yondashuv haqida muayyan tasavvur hosil qilgach, endi globallashuv jarayonlari kuchayishiga qarab ahamiyati oshib borayotgan muammolarning o'zini shu nuqtayi nazardan ko'rib chiqamiz.

### **Global makonda texnika va texnologiya**

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida nafaqat bilimga, balki shu bilimdan foydalanish uchun texnika va texnologiyalarga ehtiyoj ortmoqda. Texnika (yunoncha-techne-san'at, mahorat) inson tomonidan atrof muhitni o'zgartirish maqsadida yaratilgan har qanday mehnat quroli, artefaktlar texnikadir. Texnik artefaktlar ikkita vazifani bajaradi: mehnat predmetining energetik, yoki informativ holatini o'zgartirish; ishlab chiqarish faoliyati majmuasi, vositalarining turlarini ko'paytirishdir. Shu bois, texnika inson ishlab chiqarish faoliyati sohasini o'zgartiradi. Texnika inson va tabiat o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi.

Texnologiya – artefaktlar, ishlab chiqarish operatsiyalari va jarayonlari, resurs manbalari, axborotning ijtimoiy oqibatlari rivojlanishining murakkab tizimi. Zamonaviy texnologiyalar alohida texnologiyalarning majmui sifatida amal qiladi. Zamonaviy texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari ularning ilmiyligi, qulayligi, kamxarjligidir.

Axborot texnologiyasi – bu axborotni tanlash, jamg'arish, tahlil qilish va foydalanuvchiga yetkazib berishga yo'naltirilgan

hisoblash texnikasi, elektr aloqa, informatika imkoniyatlarining uyg'unligidir.

Ishlab chiqarish jarayoni zamirida yotuvchi har qanday texnologiyani ta'riflashda ishlov berish predmeti, usul va metodlarini, ishlab chiqarish quollarini, ishlab chiqarish usullarining tavsifini ajratish mumkin. Texnologiya jarayon sifatida tartibga solingan va tashkil etilgan bo'ladi. Ammo an'anaviy texnologiyalar moddiy-energetik omillarga tayansa, axborot texnologiyasi axborotga asoslanadi. Axborot texnologiyasining negizini moddiy emas, balki ideal omillar tashkil etadi.

Axborot texnologiyasi axborotning aylanishi va unga ishlov berish jarayonlari majmui, shuningdek bu jarayonlarni tavsiflash deb ta'riflanadi. Axborot, ma'lumotlarga ishlov berish va aylanish ob'ektlari hisoblanadi. Axborotga ishlov berish jarayonlarining texnologik marshrutlari va stsenariylarini tavsiflashning tarkibiy qismlarini yaratish mumkin. Shu bois axborot texnologiyasi tushunchasi ikki xil – nazariy va amaliy nuqtayi nazardan talqin qilinadi. "Nazariy nuqtayi nazardan axborot texnologiyasi ilmiy-texnik fan bo'lib, uning doirasida axborot aylanishi va unga ishlov berish avtomatlashtirilgan jarayonlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish muammolari tadqiq qilinadi. Amaliy nuqtayi nazardan axborot texnologiyasi axborot aylanishi va unga ishlov berish avtomatlashtirilgan jarayonlari majmui, muayyan sohaga bog'liq bo'lgan va zamonaviy texnik-iqtisodiy vositalarda amalga oshirilgan mana shu jarayonlarning tavsifidir.

Hozirgi zamon axborot texnologiyasi o'tmishning telegraf, telefon, radio, televidenie singari texnik yutuqlaridan foydalanadi. Ilmiy-texnik tajribadan kelib chiqib axborotni mashina o'qiydigan tashuvchilarda jamg'arish vositalari yaratildi. Bunday vositalar vaqt va makonda biron-bir cheklashlarsiz axborotni yer kurrasining istalgan nuqtasiga yetkazishni ta'minlaydi. Nihoyat, belgilangan algoritmlar bo'yicha kompyuterlar yordamida axborotga avtomatlashtirilgan ishlov berish texnologiyasi ishlab chiqildi.

### **Axborotlashgan jamiyati konsepsiyasi**

Industrial va postindustrial jamiyat konsepsiyasi o'rni egallagan bo'lib, informatika va axborot texnologiyasi jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, ishlab chiqarish kuchlarini o'zgartirish, yaxlit axborot sanoatini vujudga keltirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

(mualliflari – Ye. Masuda, D. Martin, G. Molitor va b.) Axborotlashgan jamiyatda ishchilar mashinaga tobe bo'lmaydi. Ular ishga erkin, oqilona yondashadi, muayyan mahorat va bilimga ega bo'ladi. Mehnatni avtomatlashtirish davrida informatika insonni turg'un, katta mehnat sarfini talab etuvchi, og'ir jismoniy va aqliy mehnatdan xalos etadi, uning tafakkurini kuchaytiradi. Informatika mehnatning juda ko'p turlari samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi, insonni yangi hodisalar doirasiga, yangi bilim sohalariga olib kiradi. Inson mehnati tobora intellektual mazmun kasb etib boradi. Mehnatning intellektuallashuvi axborotlashgan jamiyatdagi mehnatning o'ziga xos jihataridan biridir. Mehnatning intellektuallashuvi uning «ilmiylashishi»da o'z aksini topadi. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan bilimlar tarkibida ilmiy bilimlar salmog'i oshib boradi. Mehnat jarayonida ilmiy bilimlardan foydalanilishi, mehnatning intellektuallashuvi, ishchining bevosita texnologik jarayondan erkinligi darajasining ortishi shaxs o'z ijodiy qobiliyatini namoyon etishiga imkoniyat yaratadi va uning mehnatiga ijodiy mazmun baxsh etadi, mehnat sharoiti yaxshilanadi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va avtomatlashtirishning rivojlanishiga qarab, ishchining ijodi ham takomillashib boradi. Qayta tuzish qiyin bo'lgan dasturlar yordamida boshqariladigan robotlar faoliyat ko'rsatgan davrda inson o'z ish joyidan erkin bo'lmagan va uning ijodiy yondashuvi cheklangan edi. Adaptiv boshqaruvli robotlar ish tizimlarini tez tuzatish imkonini berdi va ishchilar o'z ijodiy salohiyatini namoyon etish uchun bo'sh vaqtga ega bo'ldi. Intellektual funktsiyalarni boshqaruvchi robotlarning yaratilishi xodimlarning yangi texnologiyalar va texnika vositalarini takomillashtirish va kashf etish bo'yicha ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishi, ishlab chiqarish jarayonini oqilonlashtirish uchun shart-sharoit yaratadi.

### **Nanotexnologiya**

XXI asrda insoniyat axborot texnologiyalarining takomillashgan shakli nanotexnologiyalarni yaratdi. Nano o'lchov birliklarining old qo'shimchasi bo'lib, milliarddan birni belgilaydi. Masalan, bir nanometr metrnig milliarddan biridir. Nano yunoncha "nanos" so'zidan olingan bo'lib, mitti degan ma'noni bildiradi. Nanotexnologiya – mitti texnologiya bo'lib, uning prototipi tabiatning o'zida mujassam. Ko'zga ko'rinmas bakteriyalar, chumoli, o'rgimchak va shunga o'xshash hasharotlar tabiiy nano jismlardir. Atomlar va ular orasidagi



masofalar ham nanometr ulushlarida o'lchanadi. Nanotexnologiya atamasini birinchi bo'lib, 1974-yilda yapon olimi Norio Taniguchi yangi ob'ektlar va materiallar tuzish jarayonini izohlash uchun ishlatgan. Bu sohadagi dastlabki texnik vositalar Shveysariyaning IBM laboratoriyasida ixtiro qilingan. 1982-yilda skanerlovchi zondni ixtiro qilgan Gerd Bining va Genri Rorerlar 1986-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Nanonaychalarning qalinligi soch tolasidan o'n ming marta kichik, ammo mustahkamligi po'latdan o'n marta katta. Kelajakda bir metr uzunlikdagi nanonaychalar sintez qilinishiga crishilsa, sanoat va texnikada katta o'zgarish ro'y berishi mumkin. Chunki yuzlab kilogramm yukni ko'taradigan soch tolasidek ingichka material juda ko'p sohalarda foyda berishi ko'zda tutilmoqda. Ekspertlar fikricha, uchinchi ming yillik nanofan va nanotexnologiyalar asri bo'ladi. Yaqin 40-50 yil ichida nanomahsulot va nanotexnologiyaga bo'lgan biznes iqtisod eng rivojlangan tarmoqqa aylanadi. Nanobiotexnologiyalar vositasida tibbiy xizmat rivojlanadi va inson sog'lig'ini saqlashda yangi imkoniyat paydo bo'ladi. Jumladan, bugungi kunda yaratilgan jarrohlik nanotexnologiyalari og'ir operatsiyalar va ularning salbiy oqibatlarining oldini olmoqda. Xususan, lazer qaychilari odam organizmining yalliqlangan joyidagi yarani hech qanday qiyinchiliksiz olib tashlamoqda (Burun, jigar va boshqa organlardagi o'simta). 2020-yillarda nanotexnologiyalar yordamidagi operatsiyalar yanada takomillashishi, inson tomir va to'qimalarida harakatlanib, kasallangan hujayrani topib, o'ldiradigan nanojarrohlarini yaratish ko'zda tutilmoqda. Bunda organizmga 20 mingta nanorobortlar in'ektsiya orqali yuboriladi, nanorobortlarning hajmi bitta bakteriya hajmiga teng, bu nanorobortlar organizmning qaysi qismi yalliqlanganligi aniqlab shu parchani yo davolaydi yoki kesib tashlaydi.

Olimlar, insonni avtomobil halokatidan saqlaydigan, kayfiyatini ko'taradigan, organizmning qaysi qismi nosog'lom ekanligidan xabar beruvchi nanokiyimlar yaratilib, ular oddiy magazinlarda sotilishi bashorat qilinmoqda. Barcha aloqa tarmoqlarini birlashtiruvchi globallashtiruvchi yangi aloqa tizimini o'rnatish imkoni tug'iladi. Biroq XX asrning boshida suv osti kemalari kir yuvish mashinalari, mobil telefonlari, rangli televizorlar, kompyuterlar, soatiga ikki ming km tezlikda uchadigan avialaynerlar, suv osti tunnellarining yaratili-

shiga insoniyat ishonmagan va ular yaratilgandan so'ng foydalana boshlagan. Shu bois, nanotexnologiyalarning imkoniyatlariga ham hozircha shubha bilan qarash mumkin, lekin hozir dushman to'pponchasidan otilgan o'qni boshqa tomonga yo'naltiruvchi birinchi harbiylar kiyimlari esa yaratildi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, 1975-yilda Toshkent Davlat Texnika universitetini tamomlagan Anvar Zohidov 2001-yilda Texas universiteti huzurida nanotexnologiya institutiga asos solishda ishtirok qildi. Hozirgi kunda u shu institutning direktor o'rinbosari va "Nanoscience" jurnalining muharriri lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda. A.Zohidov ilk bor yorug'lik ta'sirida qo'zg'atilgan zaryadlarning o'zaro biriktirilgan fyulleren polimer tuzilmasidan o'tishini va undagi fotokimyoviy jarayonlarni kashf qilgan. U fyulleren bilan o'tkazgich polimerlar va ishqoriy metallar kompleks birikmalari asosida o'ta o'tkazgich fyulleridlarni va organik ferromagnit materiallarni birinchi marta sintez qilgan olim. 2003-yilda A.Zohidov nanotexnologiyalar sohasida erishgan yutuqlari uchun yilning Osiyo-Amerika muhandisi unvoni bilan mukofotlangan.

### **Biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi**

Biometrik identifikatsiya qurilmasi odamning xarakterli xususiyatlarini raqamli tasvirlash uchun xizmat qiladi. Belgilarni ajratish muolajasi odamning biometrik parametrlarini o'lchash natijasida muayyan shaxsning o'ziga xos bo'lgan biometrik imzosini shakllantiradi. Shaxsning identifikatsiya qilishni amalga oshirish uchun tizim ma'lumotlar bazasi-dagi namunalar chiqarib olinadi va identifikatsiya qilinayotgan shaxsning biometrik imzosi bilan taqqoslanadi. Berilgan imzo bilan biror namunaning orasidagi masofa yaqin bo'lsa, ular bir odamga tegishli hisoblanadi. Hozirgi vaqtda biometrik texnologiyalar odam shaxsini identifikatsiya qilishning eng yuqori darajadagi kafolatini ta'minlaydi. O'zFA Matematika va informatsion texnologiyalari ins-titutida olib borilayotgan ilmiy ishlardan biri – turli biometrik texnologiya-larni birlashtirishga asoslangan ko'p pogonali biometrik tizimning algoritmik va dasturiy ta'minotini ishlab chiqishdan iborat.

### **Sun'iy intellekt tushunchasi va uning tahlili**

Intellekt (lotincha intelligence - aql, insonning fikrlash qobiliyati) insonning tafakkuri mahsuli, sun'iy intellekt (artificial intelligence) inson faoliyati sohasiga tegishli vazifalarning avtomatik

qurilmalarda bajarilishi nazarda tutiladi. Shu nuqtayi nazardan sun'iy intellektning ikki xil ta'rifi mavjud: sun'iy intellekt – insonning aqliy faoliyatiga tenglashtirishgan amaliy jarayon va sun'iy intellekt kompyuter yordamida inson tafakkurini imitatsiyasi bilan shug'ullanuvchi informatikaning bir bo'limi. Bunga tabiiy tilda dialogni davom ettiruvchi informatik tizimlar (tabiiy til interfeyslari), turli vaziyatlarda foydalanuvchiga maslahat beruvchilar (masalan, avtomobillardagi navigatorlar), amaliy vazifalarni dasturlashtirishsiz bajaradigan amaliy dasturlarning intellektual paketlari va h.k. Tabiiy til interfeyslari EHM bilan ular yaratilgan davrdanboshlab muloqot qilishning eng qulay usuli hisoblanadi. Bu foydalanuvchiga buyruq tilini o'rganish yoki kompyuterda boshqa vazifalarni yechish bo'yicha qulaylik yaratadi. Shu bois, bunday interfeyslarni yaratish amaliyoti 20 asrdayoq boshlangan.

Ekspert tizimlari dastlab tibbiyot qo'llanilgan. Yosh mutaxassislarga yordam berish maqsadida tibbiyot sohasi vakillarining bilimlarini birlashtirib, barcha ma'lumotlarning yagona elektron bazasi yaratilgan. Tibbiyot sohasining tanlanishi negizida, eng avvalo, bu sohada inson umri va salomatligiga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararning oldini olish maqsadi turgan. Keyinchalik, tibbiyot sohasidan bu texnologiya boshqa sohalarga, xususan, ishlab chiqarish sohaslarida, qishloq xo'jaligiga jalb qilingan. Ekspert tizimidan foydalanish eng avvalo tizimni o'rganishni taqozo etadi, ya'ni dastlab texnologik bilimni egallash va keyin bu bilimlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ekspert tizimlari faqat tizim bo'yicha maslahat beradi.

Amaliy dasturlar intellektual paketlari ekspert tizimlarga bilimlar bazasini yaratishni, keyin esa shu bilimlardan foydalanib bilimlar integratsiyasiga erishishni ko'zda tutadi.

### **Xulosalar.**

Insoniyat o'zini o'zi tashkil etuvchi jonli tizim sifatida o'z mavjudligi uchun kurash olib bormoqda, yaxshiroq kelajakka erishishga harakat qilmoqda. Bunda hozirgi globallashtirish jarayonlari va ular yuzaga keltirayotgan turli muammolar insoniyat oldida tarqoqlik va ixtiloflarni yengib, o'z birligi sari harakat qilish, ayni vaqtda madaniyatlar, asriy an'analarning o'ziga xosligini, ayrim millatlar va xalqlarning xususiyatlarini saqlashdan boshqa chora qoldirayotgani yo'q. Bunday birlashuvga esa, faqat umuminsoniy

qadriyatlarni e'tirof etish va ularga rioya qilish orqali erishish mumkin.

### **Tajribaviy amaliy matnlar**

Globallashuv, globalistika, global jarayonlar, fundamental globallashuv, serqirra globallashuv, global muammolar, ijtimoiy rivojlanish, global tendentsiyalar, texnokratik nazariya, texnooptimizm, texnopessimizm, Rim klubi, globallik sun'iy intellekt, global muammolarning tasnifi, nanotexnologiya, til, axborot inqilobi, inqiroz ildizlari, umuminsoniy qadriyatlar.

### **Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Global muammolar qachon va nima uchun paydo bo'ldi?
2. «Globallashuv», «global muammolar», «globalistika» tushunchalarining o'zaro nisbatiga tavsif bering.
3. Texnooptimizmning mohiyati nimadan iborat?
4. Texnopessimistik falsafiy konsepsiyalar qaysi g'oyalarga asoslanadi?
5. Globallikning mezonlarini ayting. Ularning yordamida qanday vazifalar hal qilinadi?
6. Globallashuv muammolarini yechishda falsafa qaysi funktsiyalarni bajaradi?
7. Global muammolar tasnifi nima uchun kerak?
8. «Yangi insonparvarlik» tushunchasi nimani anglatadi?
9. «Barqaror rivojlanish konsepsiyasi»ning mazmuni nimada?

### **Esse mavzulari**

1. Falsafa va hozirgi dunyoning globallashuvi
2. Globallashuv tabiiy-tarixiy jarayon sifatida
3. Axborot inqilobining mohiyati
4. Sivilizatsion rivojlanish muammolari va uning istiqbollari
5. Insoniyatning muhim muammolari va ularning o'zaro aloqadorligi
6. Rim klubi va uning global muammolarni yechishdagi roli
7. Globallashuv muammolarini yechishga nisbatan ilmiy va falsafiy yondashuvlar
8. Ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlashuvi insoniyatning yashab qolish omili sifatida
9. Inson huquqlari va ijtimoiy rivojlanish istiqbollari
10. Insoniyat rivojlanishining muqobil yo'llari.

### **Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari**

1. Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot jabhasi sifatida nechanchi yillardan shakllana boshladi?

- A. 1960-yillarning oxirlaridan
- B. 1950-yillarning oxirlaridan
- C. 1970-yillarning oxirlaridan
- D. 1980-yillarning oxirlaridan

2. Globallashuvning vujudga kelishiga asos bo'lgan yirik sabablarni toping?

- A. Hayotning barcha sohasidagi integratsiyalashuv
- B. Fan va texnika kashfiyotlari
- C. Falsafada yangi ta'limotlarning vujudga kelishi
- D. Odam sonining keskin o'sishi

3. Ikkinchi jahon urushidan so'ng yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy holat bugungi kunda global muammolarni bartaraf qiluvchi qaysi asosiy hamkorlikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi?

- A. BMT
- B. YuNESKO
- C. YeHHT
- D. MDH

4. Hozirgi zamonda jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlarning paydo bo'lishiga nima sabab bo'ldi?

- A. Serqirra globallashuv
- B. Ekologik globallashuv
- C. Siyosiy globallashuv
- D. Madaniy globallashuv

5. "Tarix kurtaklari va uning maqsadi" asari muallifi kim?

- A. K.Yaspers
- B. Yu.Xabermas
- C. M.Xaydegger
- D. G.X.Gadamer

#### **Adabiyotlar:**

1. Otamurodov S. Globallashuv va millatni asrash mas'uliyati.-Toshkent: O'zbekiston, 2018. 384-b.

2. Xolbekov M. Adabiyotda globallashuv jarayoni.-Toshkent: //Tafakkur 2006.№4

3. Qahharova Sh.B. Global ma'naviyat – globallashuvning g'oyaviy asosi.-Toshkent: Tafakkur, 2009.

4. Saifnazarov I., Saifnazaova F. Yoshlar va oila – vatan tayanchi. Toshkent: Ta'lim nashriyoti. 2018
5. Bjezinskiy Z. Global'noe gospodstvo ili global'noe liderstvo. - Moskva: Mejdunarodnyye otnosheniya, 2005.
6. Vaytszeker E., Lovins E., Lovins L. Faktor chetyre. Novyy doklad Rimskomu klubu. -Moskva: 2000.
7. Globalistika: Mejdunarodnyy mejdistsiplinarnyy entsiklopedicheskiy slovar / Gl. red. I.I.Mazur, A.N.Chumakov. –Moskva: SPb.; Nyu-York, 2006.
8. Globalnyye problemy i obshchelovecheskie sennosti. -Moskva: 1990.
9. Moiseev N.N. Byt ili ne byt... chelovechestvu? -Moskva: 1999
10. Muntyan M.A., Ursul A.D. Globalizatsiya i ustoychivoe razvitie. -Moskva: 2003.
11. Panarin A.S. Iskushenie globalizmom. -Moskva: 2002.
12. Pechchei A. Chelovecheskie kachestva. -Moskva: 1985.
13. Chumakov A.N. Globalizatsiya. –Moskva: Prospekt, 2017
14. Ilin I.V. Los V.A. Ursul A.D. Ustoychivoe razvitie i globalnyye potsessy. -Moskva: MGU. 2017

## FALSAFIY ATAMALAR (GLOSSARIY)

**Agnostitsizm** – inson ob'ektiv borliqni to'liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

**Antistsientizm** – fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtayi nazar.

**Antropogen** – inson faoliyati bilan bog'liq.

**Antropotsentrizm** – dunyoni bilishda insonni ustun qo'yuvchi falsafiy yondashuv.

**Aprior** – tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko'rilgunga qadar, tajribadan qat'i nazar paydo bo'lgan obraz, g'oya, tushuncha.

**Ateizm** – xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtayi nazar.

**Atribut** – xossa.

**Bashorat** – kelajak haqidagi, ya'ni hali amalda mavjud bo'lmagan, lekin rivojlanishning kutilayotgan rivojini belgilovchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ko'rinishida hozirgi zamonda potentsial mavjud bo'lgan hodisalar va jarayonlar haqidagi bilim.

**Belgi** – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

**Garmoniya** – bir butun narsa qismlarining o'zaro muvofiqligi.

**Germenevtika** – falsafada – tarix, madaniyatni, o'zga individuallikni tushunish san'ati.

**Gipotetik** – ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.

**Globallashuv** – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarining dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

**Globalistika** – globallashuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab yetishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

**Gnoseologiya** – bilish nazariyasi.

**Deduktsiya** – tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo'lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo'l bilan keltirib chiqariladi.

**Dezintegratsiya** – butunning ayrim qismlarga parchalanishi.

**Deizm** – Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi va uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtayi nazar.

**Determinizm** – barcha voqealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog'langanligi haqidagi falsafiy ta'limot.

**Dialektika** – harakat, rivojlanish, o'zgarish haqidagi falsafiy ta'limot.

**Diskret** – uzlukli.

**Differentsiatsiya** – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo'linishi, parchalanishi, ajralishi.

**Ideal** – mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.

**Ierarxiya** – bir narsaning funktsional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo'ysunishi. Ijtimoiy prognoz qilish kelajakni muayyan tarzda davriylashtirishni nazarda tutadi.

**Izotrop** – barcha yo'nalishlarda bir xil.

**Indeterminizm** – determinizmga qarama-qarshi ta'limot.

**Integratsiya** – birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.

**Introvertiv** – o'ziga, o'z ichki dunyosiga qarab mo'ljal oluvchi.

**Imitatsiya** – taqlid qilish, soxtalashtirish.

**Axborot inqilobi** – fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi bo'lib, bunda axborot o'ta muhim resursga aylanadi.

**Irratsionalizm** – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtayi nazar.

**Kauzallik** – sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi.

**Kommunikatsiya** – (keng ma'noda) – muloqot. Ekzistentsializmda – muloqot turi bo'lib, uning yordamida «Men» o'zini boshqa odamda topadi.

**Konstitutsiyalash** – yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.

**Konsyumerizm** – iste'mol qilishga bo'lgan kuchli ehtiyoj.

**Koevolyutsiya** – birgalikda tadrijiy rivojlanish.

**Kreatsionizm** – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy ta'limot.

**Materializm** – dunyoning moddiyligidan va ongdan qat'i nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo'nalish.

**Mahalliy** muammolar tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi.

**Metafizika** – Gegeldan oldingi va hozirgi G'arb falsafasida borliqning o'ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlatiladigan atama.



**Metodologiya** – metod haqidagi ta'limot, bilishning yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.

**Mistika** – sirli, g'ayritabiiy, tushunarsiz narsa yoki hodisa.

**Moddiylashtirish** – ma'no strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.

**Modus** – predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo'lgan muvaqqat xossasi.

**Nanotexnologiya** – mitti texnologiya bo'lib, uning prototipi tabiatning o'zida mujassam. Ko'zga ko'rinmas bakteriyalar, chumoli, o'rgimchak va shunga o'xshash hasharotlar tabiiy nano jismlardir.

**Negativ** – salbiy, biror narsaga zid.

**Noumen** – mushohada yo'li bilan anglash mumkin bo'lgan mohiyat.

**Noosfera** – aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

**Obraz** – amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.

**Okkultizm** – maxsus ruhiy mashqlar, alohida marosimlar orqali ayrim insonlarga bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini e'tirof etuvchi ta'limot.

**Oppozitsiya** – qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan-ochiq yoki zimdan qarshilik ko'rsatish.

**Panteizm** – Xudoni tabiat bilan tenglashtiruvchi falsafiy ta'limot.

**Paradigma** – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo'nalishini belgilovchi printsiplar majmui.

**Passionar** – ichki energiyaga egalik yoki o'ta g'ayratlilik.

**Permanent** – doimiy, uzluksiz.

**Persepsiya** – idrok etish.

**Prognoz qilish** – bu maxsus ilmiy metodlar yordamida kelajak haqida bilimlar olish jarayoni

**Ratsionalizm** – aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e'tirof etadigan falsafiy yo'nalish.

**Reduksionizm** – murakkab narsa yoki hodisani soddaroq narsa yoki hodisaga bog'lash.

**Relyativizm** – bizning barcha bilimlarimiz, qadriyatlarimiz va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.

**Refleksiya** – o‘z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.

**Sakral** – muqaddas.

**Sensualizm** – hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qo‘yuvchi falsafiy yo‘nalish.

**Simvol** – biron-bir g‘oyani ifodalovchi belgi, obraz.

**Sinkretizm** – qismlarga ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralashuvi.

**Skeptitsizm** – inson bilimining ishonchligiga shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy deb e‘lon qiluvchi falsafiy konsepsiya.

**Stereotip** – ko‘pincha jamiyat tomonidan faol ilgari suriladigan va individ tanqidsiz qabul qiladigan borliqning nisbatan barqaror va soddalashtirilgan obrazi.

**Substansiya** – birinchi asos, barcha narsalar va hodisalarning mohiyati.

**Stsientizm** – madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtirish.

**Tabu** – biron-bir narsa, harakat, so‘zga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.

**Teologiya** – diniy ta‘limotlar tizimi.

**Teotsentrizm** – dunyoni tushunish markaziga Xudoni qo‘yuvchi falsafiy yondashuv.

**Texnogen** – texnika bilan bog‘liq, uning ta‘siri bilan belgilangan.

Texnokratik – texnikani birinchi o‘ringa qo‘yuvchi.

**Texnooptimizm** – turli muammolarni yechishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib ko‘rsatuvchi falsafiy yondashuv.

**Texnopessimizm** – fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai va omili deb e‘lon qiluvchi falsafiy yondashuv.

**Texnotron jamiyat** – kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

**Transtsendental** – o‘ta umumiy.

**Universum** – yagona Olam, yaxlit dunyo.

**Fauna** – barcha turdagi hayvonlar majmui.

**Faoliyat** atributlari (xossalari) faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida avvalo sub‘ektlilik va moddiylik qayd etiladi.

**Fenomen** – insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.

**Fenomenologiya** – bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta‘limot.

- Flora** – o‘simliklar dunyosi.
- Fluktuatsiya** – o‘zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy og‘ish.
- Futurologiya** – kelajak haqidagi fan.
- Evolutsion epistemologiya** – bilishni jonli tabiat evolyutsiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o‘rganuvchi fan.
- Evristik** – ijodiy, noma‘lum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi.
- Egalitarizm** – umumiy tenglikni targ‘ib qiluvchi g‘oyaviy-siyosiy oqim.
- Ekzistentsializm** – diqqat markazida hayotning ma‘nosi, inson erkinligi va mas‘uliyati muammolari turuvchi falsafiy yo‘nalish.
- Ekologiya** – jonli mavjudotlarning o‘zini qurshagan muhit bilan o‘zaro munosabatlari haqidagi fan.
- Ekologik muammo** – jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.
- Ekologik tanglik** – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlari orqaga qaytarib bo‘lmaydigan xususiyat kasb etadi.
- Eksplikatsiya** – u yoki bu predmet (yoki madaniyat ob‘ekti)ning mohiyatini aniqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.
- Ekopessimizm** – asosiy e‘tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni yechish imkoniyatlari salbiy tusda ko‘rilgan hol.
- Ekstravertiv** – sirtga qaratilgan.
- Ekstrapolyatsiya metodlari** – qonuniyatlari o‘tmishda va hozirgi davrda yaxshi ma‘lum bo‘lgan tendentsiyalarni kelajakka tatbiq etishga asoslanadi.
- Empirizm** – hissiy idrok etish va tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta‘limot.
- Empirik** – tajribada ko‘rilgan.
- Etimologiya** – u yoki bu so‘z yoki iboraning kelib chiqishi.
- Epistemologiya** – bilish haqidagi falsafiy ta‘limot.
- Etnogenez** – xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.
- O‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish** – o‘zining betakror mohiyatini faoliyatda namoyon etuvchi va gavdalantiruvchi har bir individ axloqiy faoliyatining maqsadi.
- Qidiruv prognozi** – ijtimoiy ob‘ektning kelajagi qanday bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatish uchun tuziladigan prognoz.

## Mundarija

1. Kirish .....	3
2. Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli .....	5-64
3. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: sharq falsafasi .....	65-123
4. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: g'arb falsafasi ....	124-172
5. Borliq-falsafi kategoriyasi .....	173-269
6. Билиш назарияси, йўналишлари ва муаммолари.....	270-340
7. Falsafaning metodi, qonun va kategoriyalari .....	341- 432
8. Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlari. Jamiyat va tarix falsafasi .....	433-528
9. Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi) ... ..	529-596
10. Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari .....	597-661
.....	597-661
11. Falsafiy atamalar (Glossari) .....	662-666

**Muallif:**  
N. Shermuxamedova

Falsafa

Darslik

Mas'ul muharrir:

M.Bilolov, falsafa fanlari doktori, professor (DDU)

Z.Davronov, falsafa fanlari doktori, professor (TMI).

Taqrizchilar:

J.Yaxshilikov, falsafa fanlari doktori, professor (SamDU).

T.Gabitov, falsafa fanlari doktori, professor (KMU).

Q.Shodmonov, falsafa fanlari doktori professor (BuxMI).

**Muharrir:** E.Egamqulov

Bosishga ruxsat etildi 15.03.2021.

Bichimi 60X84 1/16. «Times New Roman» garniturasida.

Ofset bosma qog'ozida. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tobog'i 41.75

Adadi 100 nusxa. 3-sonli buyurtma.

N. Shermuxamedova. © Idris Abdurauf Nashr